O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
TOSHKENT
ALISHER NAVO'I UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

“TIL VA ADABIYOT: ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR YO‘LIDAGI ILK ODIMLAR”

respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

2023-yil 26-aprel

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI

“TIL VA ADABIYOT: ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR YO‘LIDAGI ILK ODIMLAR”

respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari
2023-yil 26-aprel

TOSHKENT
“Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi
2023

UDK: 811.512.
133:821
(063)

“Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” yosh filolog tadqiqotchilarning respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2023.

Mas’ul muharrirlar:
Sh.Sirojiddinov, f.f.d., professor, ToshDO‘TAU rektori;
N.Jo‘raqo‘ziyev, f.f.n. dotsent;
D.Najimova, Yosh filolog olimlar jamiyati raisi.

To‘plab nashrga tayyorlovchi:
Abdullayeva Rufina, Abdumalikova Zebiniso, Abdug‘aniyeva Kamola, Axmadov Dostonbek, Baratova Marjona, Hakimova Nasiba, Keldiyorova Zarinabonu, Mahmudova Dilshoda, Xaytaxmatova Dilnavoz, Xidirova Farangiz, Yusupova Ferangiz, Sheraliyeva Zarnigor.

Tahrir hay’ati:
f.f.d Qurbonova Munavarra; f.f.n. Shamsiyeva Manzura; f.f.n Abdurahmonova Sayyora; f.f.d.Asadov Mahmadiyor; dots. Komiljon Hamroyev; Maftuna Norqulova, dots. Shermuhammad Amonov; f.f.n. Akram Dehqonov; dots. Karomat Mullaxo‘jayeva; f.f.n Ilyos Ismoilov; f.f.n. Ilhom Sayitqulov; f.f.n Ruxsora To‘laboyeva; Habiba Ergasheva; f.f.d Dilmurod Xoldorov; f.f.d Umida Rasulova.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Yosh filolog olimlar jamiyati tomonidan tashkil etilgan “**Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar**” nomli an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan. Anjuman materiallari 8 ta bobga bo‘lingan bo‘lib, ular quyidagilardir:

-Tilshunoslik muammolari;
- O‘zbek tili tarixi, tarjimashunoslik va lingvopoetika masalalari;
- Qiyosiy adabiyotshunoslik va jahon adabiyoti muammolari, bolalar adabiyoti;
-O‘zbek mumtoz adabiyoti va ma’rifatparlik davri adabiyoti muammolari;
- Navoiyshunoslik va aruzshunoslik masalalari;
- O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi va amaliy filologiya muammolari
- Zamonaviy adabiy jarayon (nazm) va folklorshunoslik;
- Zamonaviy adabiy jarayon (nasr).

To‘plam materiallaridan filologiya ilmiga qiziquvchi barcha foydalanishi mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldir)

©Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU, 2023
©Yosh filolog olimlar jamiyati, 2023
© “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2023

I BOB

TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

ISAJON SULTONNING “ ALISHER NAVOIY” ASARIDA TARIXIY VA ARXAIK SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI

Abdurashidova Shohina,
TOSHDO‘TAU 2- kurs
shohinaabdurashidova@gmail.com

Annotatsiya. *Hammamiz yaxshi bilamizki, eskirgan so‘zlar ikkiga bo‘linadi: tarixiy so‘zlar va arxaik so‘zlar. Bunday so‘zlardan, ayniqsa, tarixiy asar yozayotgan har bir yozuvchi asarda o‘tmish muhitini yaratish uchun unumli foydalanishga harakat qiladi. Shu jumladan, yozuvchi Isajon Sulton ham o‘zining “ Alisher Navoiy” romanida XV-XVI asrlarga tegishli tarixiy so‘zlarni keng qo‘llagan. Quyidagi maqolada shulardan bir nechtasi to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *mamolik, gilvana, zehgir, rishta, sarrof, zunnor, juldu,.*

Abstract. *We all know that obsolete words are divided into two: historical words and archaic words. Every writer, especially writing a historical work, tries to use such words effectively to create an atmosphere of the past in the work. Among them, the writer Isajon Sultan widely used historical words of the XV-XVI centuries in his novel Alisher Navoi. The following article provides information about some of them.*

Keywords*: mamolik, gilvana, zehgir, rishta, sarraf, zunnor, juldu*

Har bir millatning tarixi uning eng katta merosi sanaladi. Chunki, o‘tmish orqali inson o‘zligini, ajdodlarini taniydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham buyuk tariximiz haqida shunday fikrlarni bildirib o‘tgan: “ Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix , bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Haqiqatdan ham moziyga nazar tashlasak , bir-biridan buyuk allomalarimiz, jasur bobolarimiz bor. Ular to‘g‘risida bir qancha hikoyalar, dostonlar, romanlar, qissalar yozilgan. Bunga misol tariqasida Abdulla Oripovning “ Sohibqiron”, Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi”, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo”, Oybekning “Navoiy” romani hamda Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani va hokazolarni misol qilishimiz mumkin.

Isajon Sulton 1967-yili 6-aprel Farg‘ona viloyatining Rishton tumani, Avazboy qishlog‘ida dunyoga keladi. Bo‘lajak yozuvchi o‘rta maktabni a’lo baholarga bitirgach, 1990-yilda Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. Uning “ Munojot” nomli birinchi qissasi 1990-yilda nashr ettirilgan. Sermahsul ijodkor 1966-yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilinadi. Adibning hikoyalari rus, ingliz, moldova, turk tillariga tarjima qilinib nashrdan chiqarilgan. Isajon Sulton nafaqat o‘zbekning, balki, qardosh xalqlarimizning ham sevimli yozuvchisi hisoblanadi. Isajon Sultonning “ Alisher Navoiy” romani 2021-yilda nashrdan chiqdi. Hazrat Navoiyni qancha e’zozlasak-da kam. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov Alisher Navoiy haqida iliq fikrlarni bildirib o‘tganlar: “Inson qalbining quvonch-u qayg`usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.”, “Insoniy ishq-muhabbatni, mehr-u vafo, iffat, sharm-u hayo va nazokatni yonib, hassoslik bilan kuylagan Navoiyning go`zal satrlarini o`qiganda buyuk va olijanob qalb sadolarini sezib turamiz. Bu yurak tug`yonlari, mana, oradan besh yarim asr o`tsa hamki, millionlab odamlarni hayajonga solib kelmoqda.” “Ona tiliga muhabbat, uni ulug`lash, beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg`usi ham bizning ongu tafakkurimizga, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib kelgan.”

“Alisher Navoiy” romani – Navoiy bobomizning hayot yo‘li haqidagi tarixiy asardir. Ijodkor asarida o‘sha davrni jonli ifodalash uchun XV-XVI-asrga oid eskirgan leksemalarni yetarli darajada qo‘llagan. Xususan, tarixiy so‘zlardan unumli foydalangan. Romandagi tarixiy so‘zlarga to‘xtalishdan avval bu tushunchaga ta’rif berib o‘tsak.

So‘zlar eskirishiga ko‘ra, ikki guruhga bo‘linadi: tarixiy so‘zlar(istorizmlar) va arxaik so‘zlar(arxaizmlar). Tarixiy so‘zlarda o‘tmishga oid narsa, hodisalarni ifodalagan, biroq hozirgi tilimizda o‘z sinonimiga ega bo‘lmagan so‘zlar. Arxaik so‘zlar hozirgi kunda mavjud bo‘lgan narsa va hodisalarning eskirib qolgan nomlaridir. Eskirgan so‘zlarning hozirgi kunda sinonimi yo‘q. Tarixiy so‘zlar haqida tilshunos olim H.Jamolxonov o‘zining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida

quyidagi mulohazalarni keltiradi: “ Istorizmlar, odatda, uzoq tarixiy jarayonlar davomida yuz beradigan eskirishning mahsuli bo‘ladi, ammo ular, ba’zan, qisqa vaqtda paydo bo‘lishlari ham mumkin: yaqin o‘tmishda (1991-yilgacha) o‘zbek tilining faol so‘zlari bo‘lgan ayrim leksemalarning hozirgi kunda eskirib istorizmlar qatoriga qo‘shilgani buning dalilidir”.

Asarda ishlatilgan tarixiy va arxaik so‘zlarga ***mamolik, gilvana, zehgir, rishta, sarrof, zunnor, juldu, og‘acha,tobadon, muhosara, man, junge, mamlu, atibbo*** singari leksemalarni keltirishimiz mumkin. ***“Mamolik”*** so‘zi mamlakat leksemasiga sinonim hisoblanadi, “mamlakat” so‘zi “arabcha” so‘z hisoblanib, saltanat, davlat, podshohlik degan ma’nolarni anglatadi. Asarda ham, shu o‘rinda foydalanilgan: “ Xuroson mamolikida ulug‘ bayram!”.

Qadimda erkaklar ust kiyimi “***gilvana”*** deb ham yuritilgan. Mazkur so‘z asarda o‘z ma’nosida qo‘llanilgan: “ Lamg‘oniylarning uzun oq gilvanasi, guldor qizil kamzuli, g‘alati sariq sallasi, qoramag‘iz yuzi-yu usti qoramtir, ichi oqish kafti bu yerlardan olisdagi o‘zga iqlimlardan darak berib turadi”.

“Zehgir” atamasi ham o‘z ma’nosida qo‘llanilgan, ushbu atama “ kamon otilganda barmoqqa kiyiladigan quvursimon moslama, o‘ymoq” degan ma’noni anglatadi.

“***Rishta”*** **–** ingichka arqon, chilvir. Asarda ham o‘z ma’nosida kelgan: “Andoq ustalar borki, zehgirni havoga otib, o‘q bilan urib olgaylar”.

Keyingi leksik birligimiz ***“sarrof”*** so‘zidir. Ushbu leksik birlik arabchadan olingan so‘z bo‘lib, “pul almashtiruvchi, yirik pullarni mayda qiluvchi “ degan ma’nolarni anglatadi. ***“Zunnor” (***arab.“chilvir”) – charmdan yasalgan maxsus kamar, belbog‘. Arab xalifaligi davrida musulmon davlati hududida yashab, boshqa dinga e’tiqod qiluvchilar – zimmiy (asosan, yaxudiy va xristian)lar musulmon emasligining belgisi sifatida uni majburan taqishgan. Asarda ham o‘z ma’nosida kelgan: “ Tog‘a-jiyan eti borib ustixonaga yopishgan kishilar, beliga zunnor bog‘lagan hind-u va yaxudiy sarroflar, matofurush do‘konlari oralab o‘ta-o‘ta, tuprog‘i o‘ynab yotgan ko‘chalardan ota bog‘iga qaytishdi”.

“***Og‘acha”-*** opa. ***“ Tobadan”*** **–** nur tushishi uchun qilingan kichik darcha. “Ko‘rgandirsiz, tobadondan tushgan quyosh nuri la’ma-la’ma, ya’ni tolim-tolim bo‘ladur”

“Muhosara” so‘zi “qamal” degan ma’nolarni anglatadi va asarda ham shunday ma’noda kelgan: “ u muhosaraga olgan yoxud yoygan qo‘shinlar oldida Maymana amirining tarqoq-sarqoq askari ne? “. ***“Man”*** **– “**og‘irlik o‘lchov birligi, bir Xuroson mani – 2,35kg.

“Junge” – kema . ***“Mamlu”*** **–** to‘la, “***axtar”-*** yulduz. Asarda bu so‘zlar ham o‘z ma’nosida kelgan: “ He devon, Olloh-olloh jungekim, sofiy alfozdan to‘la gavhar bo‘lgay va sipehr avroqikim, pok maoniydan mamlu axtar bo‘lgay…”. So‘nggi so‘zimiz ***“atibbo”***, ushbu leksik birlik ”tabiblar” degan ma’noni anglatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarixiy asarlardagi tarixiy so‘zlar va arxaizmlarni o‘rganish orqali o‘sha davr muhitini aniqroq tasavvur qilishimiz, shuningdek, ajdodlarimiz foydalangan va hozirda biz bilmaydigan so‘zlardan ham boxabar bo‘lishimiz mumkin. Shu sababli ham, tarixiy so‘zlarni tadqiq qilish, ularni o‘rganish va o‘rgatish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sultonov. I (2021) Alisher navoiy Toshkent: Adabiyot

2.Jamolxonov. H (2005) hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin.

3.“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006-2008) Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat milliy nashriyoti.

ERKIN A’ZAMNING “OTOYINING TUG‘ILGAN YILI” ASARIDA IBORALAR TAHLILI

Abdug‘afforova Zuhra Azamat qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 1-kurs talabasi
zabdugafforova71@gmail.com

Annotatsiya. *Bu maqola badiiy asarlarning lingvopoetik tahlilida frazeologik birliklar(iboralar)ning ahamiyatini o‘rganadi. Ushbu maqolada badiiy matnning ekspressiv xususiyatini ta’minlashda iboralarning roli yoritiladi va ularning tahlili Erkin A’zamning “Otoyining tug‘ilgan yili “asari misolida ko‘rib chiqiladi. Maqola iboralarning badiiy matnning til qiymatini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi va ko‘proq tushuncha beradi.*

Kalit so‘zlar: *Frazeologiya, frazeologik birliklar, iboralar, lingvopoetik tahlil, ekspressivlik, estetik.*

Abstract. *This article explores the significance of phraseological units(idioms)in linguo-poetic analysis of literary texts. It highlights the role of idioms in contributing to the expressive features of literary texts, and examines how these idioms can be analyzed and explained with their meanings by using as an example Erkin A’zam’s work “The year of the Otoy’s birth”. It provides insight into ways in which idioms can enhance the linguistic value of a literary text, and offers a deeper understanding of the role of phraseological units in literary analysis.*

Keywords: *Phraseology, phraseological units, idioms, linguo-poetic analysis, expressiveness, aesthetic.*

Badiiy asar tili nihoyatda murakkab va o‘ziga xos xarakterga ega ekanligi asar tilini tadqiq qilish ehtiyojini yuzaga keltirdi."haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar g‘ishtdan, oynadan, po‘latdan quriladi. Adabiy asarning muzika, rassomlik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglar, bo‘yoqlar vositasida emas, so‘zlar vositasi bilan yaratilishida ko‘rinadi. Badiiy til har qanday adabiy asaarning spesifikatsiyasini belgilaydigan eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Badiiy til nazariyasi esa adabiyot nazariyasiga oid masalalarning birinchisida turadi”. (Yo‘ldoshev M. 2009 й, 4-bet) Badiiy asar tahlilida fonetik-fonologik, morfologik, sintaktik tahlillardan tashqari asar qahramonlari shaxsiyatini ochib berishda iboralarning roli benihoya ahamiyatlidir.

Tilshunoslikning frazeologiya sohasi frazemalarning semantik, struktual-grammatik xususiyatlari bilan bir qatorda funksional uslubiy imkoniyatlarini ham o‘rganadi. (БЕКМУРОД ЙЎЛДОШЕВ ФРАЗЕОЛОГИК УСЛУБИЯТ АСОСЛАРИ (ўкув қўлланмаси, Самарканд-1998, 4-bet). Iboralar yirik til birligi bo‘lib, kamida ikkita mustaqil so‘z (leksema)dan tarkib topadi, so‘zlovchi nutqida (lison) tayyor holda bo‘ladi, ibora ma’nosi uning tarkibidagi leksemalarning ma’nosiga teng bo‘lmaydi, ma’no jihatdan turg‘un hisoblanadi va boshqa so‘z

bilan almashish imkoniyatiga ega emas. Iboralar nutqni yanada obrazli qilib ifodalashga xizmat qiladi.

Frazeologiya tilshunoslikda mustaqil fan sifatida yaqinda paydo bo‘lgan. Uning shakllanishida V.V.Vinogradov, N.N.Amosova, A.V.Kunin o‘z hissasini qo‘shgan. Nemis tilshunosligida esa M.D.Stepanova, I.I.Chernishova ,Teo Shippen va boshqalar tadqiqotlar olib borgan.

Tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ilk bor rus tilshunosi V.D.Polivonov tahlil qiladi va frazeologiya leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas, balki mustaqil tilshunoslik bo‘limi ekanligini asoslab bergan. “Leksikologiya so‘zlarning leksik ma’nolarini, morfologiya so‘zlarning grammatik ma’nolarini, sintaksis esa so‘z birikmalarning grammatik ma’nolarini o‘rganadi. Ammo alohida olingan, ko‘chma ma’noli so‘z birikmalarining individual ma’nolarini o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limiga ehtiyoj sezilmoqda”. (Innovative Academy, Turaboyeva Lobar Quramboyevna, Qoraqalpoq davlat universiteti 2-bosqich magistranti https://doi.org/10.5281/zenodo.7722812,17-bet).

Frazeologiya sohasida ilmiy faoliyat olib borgan tilshunos olimlardan biri A.Mamatov o‘zbek frazeologik birikmalarini shakllanish jihatdan 4 guruhga bo‘lib tasnif qiladi:

1.Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog‘liqligi jihatidan shakllangan iboralar:ichi qora, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq, ko‘ngli bo‘sh.

2. Kasb-korga bog‘liqligi jihatidan shakllangan iboralar: bo‘zchining mokisidek.

3.Hayvonlarga xos obrazlar asosida shakllangan iboralar: ichini mushuk tirnayapti, ilon po‘st tashlaydi va hokazo.

4.Dinga bog‘liqligi jihatidan shakllangan iboralar: xudo yorlaqab va hokazo.

Voqelikni tasvirlashda frazeologik iboralarning ahamiyati salmoqli. Iboralar so‘z tegashga, ifodalayotgan so‘z ma’nosini aniq, tushunarli, lo‘nda ifodalashga yordam beradi va fikrni jonli va ta’sirchanligini ta’minlaydi. Iboralarning ma’no nozikligini tahli etishda xalqimizning sevimli yozuvchisi Erkin A’zamning “Otoyining tug‘ilgan yili”asarida foydalanilgan iboralarga to‘xtalamiz. Asarda

berilgan frazemalarni “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” Sh. Rahmatullayevning lug‘atidagi ma’nolarini keltirib o‘tmoqdaman.

Bo‘yin egmaslik*- itoatda bo‘lmaslik -nega raqiblari qarshisida bo‘yin egmadi.(“Отойининг тугилган йили“, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 48-bet*). Yozuvchi bu iboradan qahramonning qaysarligini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun foydalangan.

Dami ichiga tushmoq*- oshkor bo‘lishidan qo‘rqib gapirmaslik- damimiz ichimizga tushib qaytdik.(Отойининг тугилган йили, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1981-й, 33-bet).* Bu gapda qo‘llanilgan ibora asardagi qahramonlarning bir joydan hech bir ishning uddasidan chiqmay ilojsiz qaytganlarini bildirish uchun foydalanilgan.

Dog‘da qolmoq*- biror narsaning kutilganda bo‘lmagani uchun o‘kinmoq, alamzada bo‘lmoq- yana yurak yutib yugurdingiz, biroq yana dog‘da qoldingiz.(“Отойининг тугилган йили“, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 17-bet).* Bu ibora qahramonning kimnidir ustidan kulayotganini ifodalagan.

Ensasi qotmoq*- ranjib noxush bo‘lmoq- Bo‘stonning husniga ishonibmi, bir kun shoira bo‘lib qolsam ajab emas,degan nochor ilinjda erinmay qalam qitirlatishi ensamni qotiradi.(“Отойининг тугилган йили“, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 6-bet).*Yozuvchi bu iborani matnga olib kirish orqali qahramonning bo‘layotgan voqeadan g‘ashi kelayotganini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan.

Gap qaytarmoq*- e’tiroz javobini bildirmoq- goh michmanga gap qaytarib jazoga yo‘liqaman, goh yana bir balo.(“Отойининг тугилган йили“, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 10-bet*).Qahramonning hamma bildirilgan fikrga ergashib ketmaydigan, o‘z fikriga ega xarakter egasi ekanligini yoritib bergan.

Iztirob chekmoq*- ruhan azoblanmoq- bir og‘iz kechirim so‘rashdan bo‘yin tovlaganim oqibatida iztirob chekdim.(“Отойининг тугилган йили“, Ғафур*

Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти , 1981-й,69-bet.) Ibora pok qalbli qahramon siymosini ochib bergan.

Kosasi oqarmaslik*- yaxshilik,ro‘shnolik ko‘rmaydi- shartakining kosasi oqarmaydi. (“Отойининг тугилган йили”, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат наш риёти, 1981-й, 24-bet).* Asarda bu ibora ona tomonidan farzandining keskin xarakterini o‘zgartirishi uchun turtki berish maqsadi bilan qo‘llangan. Ona fazrzandini bu iborani qo‘llash orqali qo‘rqitib qo‘ymoqchi bo‘lgan.

Kayfi chog‘*- xursand- uning g‘oyatda kayfi chog‘ edi. (“Отойининг тугилган йили”, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 67-bet.)* Asar qahramonlaridan biri Ahmadov domlani juda xursand ekanligini ushbu ibora orqali ko‘rsatib bergan.

Ko‘ziga issiq ko‘rinmoq*- tanishdek tuyilmoq - qayerdadir uchratgan kabi ko‘zimga issiq ko‘rina boshladi. (“Отойининг тугилган йили“, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й,33-bet).* Bu ibora qahramon bir insonni oldin ham ko‘rganiga ishora berish vazifasini bajargan.

Ko‘ngli yo‘q*- mayli yo‘q- o‘zining unchalik ko‘ngli yo‘q edi. (“Отойининг тугилган йили”, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 22-bet*). Bir insonga nisbatan qalbida muhabbat yo‘qligini ko‘rsatish maqsadida foydalanilgan.

Ko‘ngli sovimoq*- avvalgi yaxshi munosabati yo‘q bo‘lmoq- birov qayg‘uraverib, cho‘pdek ozib ketadi, birovning dunyodan butunlay ko‘ngli soviydi. (“Отойининг тугилган йили”, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 28-bet).* Asarda qahramonning insonda bu hayotga qiziqish yo‘qolishi mumkin degan, degan fikrini xulosasi sifatida qo‘llangan.

Ko‘ngli g‘ash bo‘lmoq*- noxush ish bo‘ladigandek tashvish qilmoq - ko‘nglim g‘ash bo‘lib, undan ham, o‘zimdan ham hafsalam sovidi.(“Отойининг тугилган йили”, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 35-bet). Yuqidagi ibora qahramonning tashvishli vaziyatini namoyon etgan.*

Luqma tashlamoq*- biror kishining nutqi davomida shu nutqni bo‘luvchi gap ilova qilmoq- kibernetikaning falsafaga nima aloqasi bor? (“Отойининг*

тугилган йили", Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й,52-bet). Bu iIbora vositasida qahramonning qitmirligiga urg‘u berilgan.

Miq etmaslik*- biror so‘z ham gapirmaslik- miq etmay bezrayib o‘tiraverdim. (“Отойининг тугилган йили", Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 49-bet*). Qahramonning osonlik bilan bo‘yin egamasligini, hech bir gapni osonlikcha aytmasligini, bir so‘z bilan aytganda qaysar ekanligini ko‘rsatib bergan.

Nazar tashlamoq*- qisqa muddat qaramoq- oldiroqda o‘tirgan, bo‘yalaverganidan ko‘z-qoshi chaplashib ketgan ikki qiz dam-badam o‘girilib menga nazar tashlab qo‘yar edi. (“Отойининг тугилган йили", Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 20-bet).* Qahramonning ayyor va sezgir ekanligini yozuvchi ushbu ibora orqali yaqqol ko‘rsatib bergan.

Nazarga ilmaslik*- mensimaslik, pisand qilmaslik- menga o‘xshagan uncha-muncha kimsalarning nazariga ilmas-biron bir amaldorning kechasi ham ko‘zoynak taqib uxlaydigan arzandasi bilan yursa kerak. (“Отойининг тугилган йили," Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 70-bet*). Asarda bu ibora qiz bolaga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, qizning g‘ururli ekanini ifodalagan.

Ozor bermaslik*- ranjitmaslik- negaki, u hech kimga hech qachon ozor bermaydi, o‘zi ham hech kimdan ozor ko‘rmaydi. (“Отойининг тугилган йили", Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 7-bet).* Muhiddin isimli asar qahramonini mehribon va oqko‘ngil ekanligini yuqorida qo‘llangan ibora orqali kitobxonga anglatgan.

Oshig‘i olchi*- doim omadi keladigan, yutadigan- bilaman, Muhiddin Salohiddinovning oshig‘i olchi. (“Отойининг тугилган йили", Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 7-bet).* Bu ibora orqali qahramonning ozroq tanqid qilish xususiyatga ega ekanligini ko‘ramiz.

Pinak buzmaslik*- tana harakatini o‘zgartirmay turish- raqiblarim tumtaraqay qochish o‘rniga negadir nariroqqa borib saf tortgancha pinak buzmay turishdi. (“Отойининг тугилган йили", Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва*

санъат нашриёти , 38-bet). Bu iboradan raqiblari harakatiga hayron qolgan qahramon holatini anglash mumkin.

Po‘stagini qoqmoq*- ayovsiz tanqid qilmoq- darsga kech qolsam-xo‘mrayadi, arazlagandek salomlashmaydi, birvarakayiga kelmay qo‘ysam-majlisda po‘stagimni qoqadi. (“Отойининг тугилган йили”, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1981-й, 14-bet*). Ushbu ibora qahramon tomonidan universitetdagi domla haqida fikr berayotganida foydalanilgan bo‘lib, domlaning qattiqqo‘l xarakteri borligini bildirish maqsadida asarga olib kirilgan.

Sirkasi suv ko‘tarmaydi*- tanqidga mutlaqo chiday olmaydi- ulg‘aygandan keyin birov unga “Sirkasi suv ko‘tarmaydigan xilidan” deb baho bersa, birov “Injiq, ko‘ziga hamma xunuk ko‘rinadigan badbin “der ekan. (“Отойининг тугилган йили,” Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 4-bet).* Qahramonning tanqidga chidat olmasligini ko‘rsatish uchun qo‘llanilgan.

Tomdan tarasha tushgandek*- qo‘qqisdan, kutilmagam tarzda va qo‘pol tarzda- bitta osh qilmaymizmi?-dedi hovliqib, tomdan tarasha tushgandek. (“Отойининг тугилган йили”, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти , 1981-й, 39-bet).* Bu ibora asarda bosh qahramonni kaltaklagan bezorilardan biri tomonidan aytilgan bo‘lib, bu fikrni qahramon kutmaganligini ko‘rsatish uchun yozuvchi tanlagan. Bezorining hovliqma xarakterli ekanligini ham sezish mumkin.

Xafsalasi pir bo‘moq*- biror ishning natijasi o‘zi xohlaganday, o‘ylaganday bo‘lib chiqmaslik- xafsalamiz pir bo‘lib izimizga qaytdik. (“Отойининг тугилган йили”, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти ,1981-й, 31-bet*). Bu iboradan asarda qahramonning bir rejasi amalga oshmay qolganini o‘quvchiga bildirish maqsadida foydalanilgan.

Xayoliga keltirmaslik*- o‘ylamaslik, idrok qilib ko‘rmaslik-u yerga borishni xayolimga ham keltirmagan edim. (“Отойининг тугилган йили”, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти , 1981-й, 41-bet).Gapda qo‘llanilgan ibora orqali qahramon hayoti davomida umuman borishni o‘ylab ham ko‘rmagan manziliga borganini sezish qiyin emas.*

Yaqin bo‘lib qolmoq*- qadrdon bo‘lib qolmoq- biz u bilan paxta terimiga chiqqanimizda yaqin bo‘lib qolgan edik. (“Отойининг тугилган йили”, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 60-bet).* Yozuvchi bu ibora orqali qahramonning o‘ziga yaqin inson topganini ifodalamoqchi bo‘lgan.

Yuragi shuv etmoq*- bir lahza ichida qo‘rqish aralash hayajonlanmoq- yuragim shuv etib birdan g‘ashlandi.(“Отойининг тугилган йили”, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981-й, 67-bet*). Bu iborani qo‘llashdan maqsad qahramonning bir lahzalik bezovta holatga tushib qolganini bildirish edi.

O‘rtaga olmoq*- tanbeh berish yoki ko‘ndirish maqsadida ko‘plashib gapirmoq- bunday qarasak, to‘rtburchak ustun orqasida bir to‘dasi qandaydir yigitni o‘rtaga olib chug‘urlashib turishibdi. (Отойининг тугилган йили, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти , 1981-й, 62-bet*). Odamlar yigitni nimadir qilishgan ko‘ndirishayotganini ko‘rsatish maqsadi bilan ushbu ibora asarga kiritilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, statistik metodga ko‘ra, asar matnida aynan bir xil keltirilgan iboralarni hisobga kiritmaganda jami 67 ta iboraning ishtiroki kuzatiladi. Yaxshi ko‘rmoq, yomon ko‘rmoq, tomdan tarasha tushgandek, g‘ashiga tegmoq, xayoliga keltirmaslik, pinak buzmaslikkabi iboralar takror holda qo‘llanilgan. Bundan tashqari, matnda ayrim iboralarning o‘z ma’nosidan foydalanilgan. “Gap shundaki, mutolaadan toliqqanimda bosh ko‘tarib unga qarayman.”(“Отойининг тугилган йили”, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1981-й, 64-bet). Ushbu gapda bosh ko‘tarmoq birikmasi isyon qilmoq (ibora) ma’nosini emas, balki quyi turgan boshini yuqoriga kimga yoki nimagadir qarash maqsadida ko‘tarmoq (o‘z ma’no) ma’nosini ifodalagan. Iboralar kishi nutqini bezaydi, boyitadi fikrni yanada go‘zallashtiradi. Tahlilga tortilgan badiiy asarda qo‘llangan iboralardan o‘zbek tilining naqadar boy til ekanligini namoyon etishda, voqelikni ifodalashga, asar qahramonlarining xarakterini ochib berishda, ichki insoniy kechinmalarini ifodalashda, ularning aytmoqchi bo‘lgan fikrini kitobxonga oson va tez yetkazib berish maqsadida foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma'rufjon Yo'ldoshev, (2009) Badiiy matnning lisoniy tahili, Алишер Навоий номидаги Узбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти,
2. Бекмурод Йўлдошев, (1998) Фразеологик Услубият Асослари (ўкув қўлланмаси, Самарканд.
3. Hasanboy Jamolxonov, (2013) Hozirgi o'zbek adabiy tili,"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-
4. Turaboyeva Lobar Quramboyevna, Innovative Academy, O'zbek tilida frazeologiya masalalarining tadqiqiga doir, Qoraqalpoq davlat universiteti 2-bosqich https://doi.org/10.5281/zenodo.7722812,17-bet.
5. "Отойининг тугилган йили", (1981) Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
6. Maksetova Zuhra To'rebayevna Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o'rganilishi va ularning tasnifi Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq filiali
7. Rahmatullayev Sh. (1978) O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent

ZULFIYA IJODIDA BADIIY MATN QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR

Ahmadova Gulchiroy Bahriddin qizi
ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti, 1-kurs
Ahmadovaguli6@gmail.com
Ilmiy rahbar:Davronova Zarnigor

Annotatsiya.*Ushbu maqolada shoira Zulfiyaning ijodidagi badiiy matn qismlarini bog'lovchi vositalar tahlili yuzasidan fikr yuritilgan bo'lib, shoira ijodidagi she'rlar asosida badiiy matn qismlarini bog'lovchi vositalarning qo'llanishi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *takror birliklar, zamon va makon birliklari, alliteratsiya, murojaat birliklari, parsellyatli birikmalar.*

Abstract.*This article discusses the analysis of the means of connecting the parts of the artistic text in the work of the poetess Zulfiya, and the use of the means*

of connecting the parts of the artistic text is studied based on the poems of the poetess.

Keywords*: repeat units, units of time and space, alliteration, reference units, parceliate compounds.*

Matnda gaplar o‘zaro turli sintaktik aloqa vositalari yordamida birikadi. Ularga takroriy bo‘laklar, olmoshlar, xiazmatik konstruksiyalar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so‘zlar kabi turli leksik grammatik birliklar kiradi.(Ma’rufjon Yo‘ldoshev, Zokirjon Isaqov, Shohqadam Haydarov, Badiiy matnning lisoniy tahlili, 2010, 16-bet). Badiiy matn qismlarini bog‘lovchi vositalarga to‘xtaladigan bo‘lsak, bunda, asosan, ijodkorning ayni o‘sha vaziyatga munosabatini ifodalashga xizmat qiladi.

Takror yordamida birikish: birinchi gapda qo‘llangan ayrim affikslar, so‘z, so‘z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo‘llanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin.Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta’kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi.(Ma’rufjon Yo‘ldoshev, Zokirjon Isaqov, Shohqadam Haydarov, Badiiy matnning lisoniy tahlili, 2010, 18-bet). Bunday vositalarga shoira Zulfiyaning she’rlarida turli misollar uchratishimiz mumkin. Bunda shoiraning “Yaratish dardi” nomli she’rini misol qilib olamiz:

Yaqinlashgan sayin qamashadi ko‘z
Yaqinlashgan sayin salqin olar tan,
Yaqinlashgan sayin har zarra yulduz
To‘zonin ko‘tarar bu oyna sathdan.(Zulfiya, Saylanma, 2015, 32-bet)

Ushbu she’riy parchada takror yordamida birikish usulini uchratamiz. Shoira she’rida bu usuldan foydalanish orqali o‘quvchida hissiy ekspressivlikni namoyon qilgan deyishimiz mumkin. Ayni shu usulda shoira bir necha bor qalam tebratgan.

Yoyilgan oynaband ulkan binolar,
Yangi institut, yangi fabrika
Yangi mehmonxona, yangi kinolar
Yangi taqdirlilar abadiylikka

Olib kirgan husn, yangi jilolar. (Zulfiya, Saylanma, 2015, 36-bet)

Shoiraning ushbu she'ridan olingan parcha orqali shuni aytish mumkinki, ushbu o'rinda **"yangi"** so'zini takrorlash orqali o'z she'rida ta'kid ma'nosini ham ifodalab kelgan.

Zamon makon ifodalovchi birliklar yordamida ham matnni shakllantirish va uning komponentlarini bog'lash mumkin. Makonni bildiradigan leksemalar ham matnni shakllantiruvchi vosita bo'la oladi. (Ma'rufjon Yo'ldoshev, Zokirjon Isaqov, Shohqadam Haydarov, Badiiy matnning lisoniy tahlili, 2010, 21-bet). Bunga ham shoira ijodida bir qancha misollarni ko'rishimiz mumkin.

Erta bahor edi butun tabiat

Yashil baxmal bilan yopilgan edi,

Yomg'ir suvlari-la yetilgan yerlar

Kuchli qo'llar bilan chopilgan edi.(Zulfiya, Saylanma, 2015, 48-bet)

Bu misrada shoira makon zamon birliklaridan foydalanish orqali kitobxonga ayni jumlalarni to'liqroq yetkazib berish maqsadini birinchi o'ringa qo'yadi. Shoiraning qalami ostida bitilgan voqealar aynan qaysi vaqtda ro'y berayotgani o'quvchiga makon zamon birliklari orqali aniq yetkazib berilgan.

Murojaat birliklari va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida, nutq jarayonida keng qo'llaniladigan o'zaro aloqa aralashuviga faol xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'zida turli modal ma'nolarini tashiydigan o'tkir, ta'sirchan vositadir. (Ma'rufjon Yo'ldoshev, Zokirjon Isaqov, Shohqadam Haydarov, Badiiy matnning lisoniy tahlili, 2010, 21-bet). Shoira ijodida ko'p bora yorga, do'stga, bahorga va shu kabi murojaatlarga duch kelamiz. Albatta, shoirada bu usuldan foydalanish orqali ayni fikrni bildirish istagini ko'rishimiz mumkin. Buni bir qancha misollar orqali ko'rib chiqamiz.

Ey xayollar, yelday sezdirmay,

Kelasiz-u, chulg 'aysiz uyim

Hatto bezgan chog'da ham g'oyat

Ko 'ksingizga tashlayman o'zim.(Zulfiya, Saylanma, 2015, 55-bet)

Bunda misraning boshlanishidayoq murojaat birligi mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Shoira bu murojaati orqali qalb kechinmalarini ochiq bayon etadi. Bu esa o‘quvchida ham ayni shu muhitda yashash uchun bir vosita hisoblanadi. Shu o‘rinda yana bir misolni ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

Go‘zal tuproq uzra qo‘yildi oqshom,

Kunduz olar dam.

Jo‘shqin mushoira etadi davom

Do‘stim, kel sen ham.(Zulfiya, Saylanma, 2015, 63-bet)

Shoiraning “Mushoira” nomli ushbu dostonida qo‘llangan murojaat birligi chaqiriq ma’nosini ifodalayotganini ko‘ramiz. Dostonning bu yo‘sinda boshlanishining sababi har bir o‘quvchini asarni yurakdan his etishga chaqiradi.

Parsellyatli tuzilmalar yordamida birikish. Og‘zaki nutqda, matnda ba’zan muloqot talabiga ko‘ra yaxlit bir jumlada uzilish sodir bo‘ladi. Ma’lumki, ta’kid og‘zaki nutqda ohang, pauza, mantiqiy urg‘u kabi vositalar yordamida amalga oshirilsa, matnda parsellyatli tuzilmalar matn komponentlarini ekspressiv-stilistik maqsadga ko‘ra qayta tartiblash orqali namoyon bo‘ladi.(Ma’rufjon Yo‘ldoshev, Zokirjon Isaqov, Shohqadam Haydarov, Badiiy matnning lisoniy tahlili, 2010, 21-bet). Keltirilayotgan misollar orqali nafaqat shoira ijodi balki bog‘lovchi vositalar haqida ham ko‘nikma shakllantirib borishimiz mumkin. Yana bir bog‘lovchi vositalardan biri parsellyatli birliklar hisoblanadi. Ushbu birlik shoira she’rlarida qanday o‘rin egallaganini ko‘rib chiqamiz:

Qancha ishonch, umid baxsh etar

Ham vatanga, ham menga bu dil

Qoya kabi yonimdan chiqib,

Suyan deydi kiftimga dadil. (Zulfiya, Saylanma, 2015, 67-bet)

Ushbu misra orqali shoiraning o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan tuyg‘ularini juda go‘zal ifoda etganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda shu usul orqali bildirilayotgan ta’kid misrada yetakchilik qiladi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytishim mumkinki, badiiy matn qismlarini bog‘lovchi vositalar nafaqat nazmda, balki, nasrda ham katta

ahamiyatga ega. Ushbu birliklar ko‘rib chiqqan misollarimizda ham matnning kuchini ta’minlab beruvchi asosiy tayanch bo‘g‘in sanaladi. Matn kuchi deganda, matnning ekspressivligi, emotsionalligi, kitobxonni jalb qila olishi kabi bir qancha xususiyatlar tushuniladi. Zulfiya she’rlarida ham xuddi shu birliklar orqali shak-shubhasiz o‘quvchini o‘ziga qarata olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoira she’rlarida takror yordamida birikish usullari ko‘p qo‘llanilgan. Aynan mana shu jarayon orqali ham she’rlarda ta’sirchanlik yanada ortgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’rufjon Yo‘ldoshev, (2010) .Zokirjon Isaqov, Shohqadam Haydarov “Badiiy matnning lisoniy tahlili” Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent.
2. Zulfiya (2015) “Saylanma” Toshkent:”Akademnashr”
3. Ma’rufjon Yo‘ldoshev (2008) “Badiiy matnning lisoniy tahlili” Toshkent.
4. Zulfiya (2006) “Saylanma”, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent

BADIIY ASARLARDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANISHI VA ULARNING TILSHUNOSLIKDAGI MOHIYATI

Adashaliyeva Kamola Sherzod qizi,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti3-kurs talabasi
adashaliyevakamola@gmail.com
Ilmiy rahbar: f.f.d(PhD) Dildora To‘rayeva

Annotatsiya. *Ushbu maqolada iboralar ifodalangan ma’no, ularning ahamiyati, ko‘chma ma’noda qo‘llanishi, shuningdek, badiiy asarlarda ishlatilishi va ularda ifodalangan mazmun to‘g‘risida so‘z yuritildi. Iboralarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy ish qilgan yoki ularning tildagi ilmiy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan o‘zining shaxsiy fikrlarini keltirib o‘tgan chet ellik hamda o‘zbek tilshunos olimlarning qarashlariga munosabat bildirildi. Lingvistik jihatdan turg‘un birikmalarning o‘ziga xosligi, ularning boshqa til birliklariga o‘xshash va ulardan farqli bo‘lgan jihatlariga alohida urg‘u berildi. Bir qator ilmiy kitoblarga asoslangan holda frazeologizmlarning tildagi o‘rni va qo‘llanilishi oid ma’lumotlar berildi.*

***Kalit so‘zlar**: ibora, frazeologiya, leksikologiya, ko‘chma ma’no, badiiy asar, tasviriy ifoda.*

***Abstract.** This article discusses the meaning of expressions, their importance, figurative use, as well as their use in fiction and the content expressed in them. The views of foreign and Uzbek linguists who have done scientific work on the study of expressions or expressed their personal opinions aimed at revealing their scientific significance in the language were reacted to. Particular emphasis was placed on the uniqueness of linguistically stable compounds, their similarities and differences from other language units. Based on a number of scientific books, information was provided on the place and use of phraseology in the language.*

***Keywords:** phrase, phraseology, lexicology, figurative meaning, artistic work, figurative expression.*

Ma’lumki, iboralar(turg‘un birikmalar) tilshunosligimizda ikki va undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’nosi bir so‘zga teng bo‘lgan, kengayish xususiyatiga ega bo‘lmagan so‘zlardir. Tilshunoslikda frazeologizmlar deb yuritiladigan ushbu birliklarni o‘rganuvchi bo‘lim frazeologiyadir.Ushbu bo‘lim tarkibidagi har bir so‘z mustaqil emas, balki bir-biriga bog‘lanib, yaxlit bir, ya’ni hatto birgina so‘zning ma’nosi ham anglashilgan mazmunga mos kelmaydigan, ko‘chma ma’no ifodalovchi birliklarni o‘rganadi. Garchi ular ham so‘zlar kabi faqat bir ma’no anglatsa-da, qo‘llanilish jihatidan so‘zlardan ko‘ra kengroq tushuncha. Shu xususida olim A. G. G‘aniyevning fikrlariga e’tibor qaratish o‘rinlidir: “Frazeologizm-so‘zdan ko‘ra kengroq tushuncha. Uning tuzilishiga singish uchun frazeologizmni tashkil etuvchi komponentlar, birliklarning tuzilishi va ma’nosini tahlil qilish kerak”. Olimning fikrlaridan ham bilish mumkinki, iboralar masalasiga alohida e’tibor qaratish kerak. Ya’ni iboralarning tuzilishi, ularning yuzaga kelish masalalari yetarli darajada tadqiq qilinmagan.

5. Iboralarning qo‘llanishidagi o‘ziga xosliklar badiiy asarlar tarkibida keluvchi, umuman olganda, tilshunoslikka yangi kirib kelgan iboralarni tahlil etishga undaydi. Misol tariqasida G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asariga e’tibor qaratilsa, bir necha yangi iboralarni topish mumkin: “Pul-dardi kabob”, “egasi yo‘q

mol-afandiniki”, “qora po‘stakdan burga qidirish qiyin”, “zirapchani nina bilan olganday” kabi.(Fayziyev.Sh, 2021, 19) Yoki yana boshqa misollarni ham keltirish mumkin: “Qo‘ylar xuddi sutga tushgan sichonday boshlarini ko‘tarib suzar edilar”, “Har ikkovimizning yuragimiz dard tekkan yaproqday qaltirab turibdi”. (Ahmedov.S, Qo‘chqorov. R, Rizayev.Sh, 2017, 39) Ushbu iboralarning asar tarkibida qo‘llanishi ham matn va vaziyat talabidan kelib chiqqanini alohida ta’kidlash lozim. Ya’ni asar yaratilayotgan paytda mavjud holatga munosabat bildirish yuzasidan paydo bo‘lgan. G‘afur G‘ulom bilan bir qatorda Abdulla Qahhorning ham ijodida vaziyat nuqtayi nazaridan kelib chiqqan bir necha iboralarni ko‘rish mumkin. Ayniqsa, uning “O‘g‘ri” hikoyasi ibora-yu, maqollar bilan boyitilgan. Masalan: “Qobil bobo yor-do‘stlari bilan kengashdi – pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo‘ladi? Ma’lum bo‘ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan”.(Rahmonov. V, 2017, 314) Ushbu parchada qo‘llanilgan “begim deguncha kishining beli sinar ekan” iborasi ham mavjud vaziyat taqozosiga ko‘ra asarga olib kirilgan. Ya’ni asarda mansabdor shaxslarning poraxo‘rligi, muammolarni osonlik bilan hal qilib bermasligi nazarda tutilyapti. Iboralalarning lingvistik jihatdan tahliliga e’tibor qaratilsa, ular tarkibida qo‘llangan so‘zlar ma’nosi, umumiy paydo bo‘lgan ma’noga to‘g‘ri kelmasligini ko‘rish mumkin. Misol uchun, “aravani quruq olib qochmoq” iborasining ma’nosi gapni boshqa yoqqa burmoq degan mazmun ifodalamoqda. Ammo uning tub ma’nosiga qaralsa, shunchaki, “aravani sudramoq” degan ifoda kelib chiqadi. Ya’ni aynan shu joyda ham iboraning obrazli tafakkur mahsuli ekanligi, fikrlash nuqtayi nazaridan olganda u tayyor holda nutqqa olib kirilgan til birligi ekanligini bilish mumkin. Demak, ular ongda tayyor holda mavjud bo‘lishiga ko‘ra tasviriy ifodalarga o‘xshab ketadi deyish mumkin. Chunki tasviriy ifodalar ham biron bir narsaning ikkinchi nomi sifatida mavjud vaziyatga mos tarzda tayyor holda olib kiriladi. Shuningdek, aytib o‘tish lozimki, iboralar ko‘plab bahslarga sabab bo‘lgan birliklar sanaladi. Ularning kelib chiqishi, qo‘llanilishi jihatidan ma’lum to‘xtamga kelinmagan. Shu jihatdan rus tilshunosi V. V. Vinogradov “frazeologiya” atamasining vazifalari, maqsadlari, mohiyatini tushunishning noaniqligi to‘g‘risida

ta’kidlab o‘tgan. Endi yana bir masalaga e’tibor qaratilsa, iboralarning yakka o‘zi frazeologiya bo‘limi tarkibiga kirib, so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishiga alohida urg‘u berilyapti.Vaholanki, iboralar ham so‘zlar kabi yaxlit ma’no ifodalar ekan, frazeologiyani so‘zlarni o‘rganuvchi leksikologiya bo‘limining bir tarkibi deb qarash o‘rinlimi? Yoki frazeologiya bo‘limining o‘zinigina ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlar yig‘indisi deya alohida mustaqil bo‘lim sifatida qarash to‘g‘rimikin? Shu o‘rinda rus tilshunosi Y. D. Polivanovning fikrlari ahamiyatga molik: “Leksikologiya so‘zlarning leksik ma’nolarini, morfologiya so‘zlarning grammatik ma’nolarini, sintaksis esa so‘z birikmalarning grammatik ma’nolarini o‘rganadi. Ammo alohida olingan, ko‘chma ma’noli so‘z birikmalarining individual ma’nolarini o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limiga ehtiyoj sezilmoqda.” Aynan ushbu fikrlarga tayangan holda ko‘chma ma’no anglatuvchi so‘zlar, ya’ni iboralarni o‘rganuvchi alohida bo‘lim sifatida frazeologiyani olish mumkin.Bunda iboralar shaklan boshqa birikmalarga, masalan, so‘z birikmalariga o‘xshab ketsa-da, u faqat bitta so‘roqqa javob bo‘lishi, birikma tarkibidagi so‘zlarning erkin qo‘llana olmasligi bilan tubdan farq qiladi.

6. Iboralar nutqda qo‘llanganda, ularning ma’nolarini bilmaslik fiklarni xato tushunilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, “do‘ppisi yarimta” iborasining ma’nosi “beg‘am”, “beparvo” degan mazmunni ifodalaydi. Ammo iboraning o‘ziga e’tibor qaratish bilangina uning ma’nosini ilg‘ash qiyin. Uni bir ko‘rishdayoq yarimta ekan, demak, “nochor”, “kambag‘al” ma’nosida tushunib olish hech gap emas. Shu sababli ham iboralarning ma’nosini yetarli darajada bilish zarur. Yoki “yuragini oldirib qo‘ydi” iborasiga diqqat qaratilsa, uning ma’nosi, go‘yoki “nimadandir qo‘rqqanidan, bexosdan bo‘lgan voqeadan yuragini oldirib qo‘ydi” degan mazmunni ifodalayotganga o‘xshaydi. Vaholanki, ma’no umuman boshqacha, ya’ni “ko‘ngli sovidi, bezillab qoldi” degan tushunchani ifodalaydi. Bunday misollarni yana ko‘plab topish mumkin. Ularni bilishning yagona yo‘li- e’tibor bilan o‘rganib chiqish. Chunki iboralar tilshunoslikda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Endi iboralarni o‘rganish jarayonida yana bir masalaga e’tibor qaratish lozim. Yuqorida aytib o‘tilgandek, iboralar so‘zdan ko‘ra

kengroq tushuncha. Shuningdek, ular obrazlilik, ekspressivlik xususiyatiga ega bo‘lib, so‘zdan ko‘ra anchagina ta’sirchanroq ma’no ifodalashga xizmat qiladi. Ular o‘rtasida xuddi leksemalar kabi kabi antonimlik, sinonimlik xususiyatlari mavjud bo‘lib, ulardan turli o‘rinlarda foydalanish nutqni yanada ta’sirchan, go‘zal qiladi. Misol uchun, “kapalagi uchib ketdi-yuragi yorila yozdi”, “ og‘zi qulog‘ida-do‘ppisi osmonda” kabi bir-biriga sinonim iboralar bo‘lib, ulardan biri “qo‘rqmoq”, yana biri “xursand” leksemalariga to‘g‘ri keladi. Yoki frazemalar antonimligiga misol tariqasida “yuragi joyiga tushdi- xotirjam bo‘ldi”, “yuragiga g‘ulg‘ula tushdi-xavotirlandi” kabi iboralarni keltirish mumkin. Iboralar sinonimiyasi ham, antonimiyasi ham nutqning mazmundor bo‘lishi, umuman, nihoyatda boy ekanligidan dalolat beradi. Aynan shuning uchun ham frazeologiya bo‘limi leksikologiya bo‘limi bilan chambarchas holatda lingvistikada muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Fayziyev Sh. (2021) O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar. Toshkent: Tadqiqot,.

2.Rahmonov V. (2017) Adabiyot 7-sinf.– Toshkent: Sharq.

3.Ahmedov S, Qo‘chqorov R, Rizayev Sh. (2017) Adabiyot 6-sinf.–Toshkent: Ma’naviyat

4.https://cyberleninka.ru

5.https://www.in-academy.uz

6.https://uztext.com/65707-text.html

ABDULLA ORIPOV IJODIDA INTERTEKSTUALLIK

Allamuratova Jannat Maqsad qizi

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 1-kurs talabasi

J92245215@gmail.com

Annotatsiya. *Dunyo tilshunosligida matnni inson tafakkuri mahsuli sifatida o‘rganish psixolingvistik,sotsiolingvistik, pragmalingvistik tadqiqotlarning amalga oshirilishiga imkon berdi. Badiiy matn persepsiyasi va bu jarayonga intertekstuallik hodisasining ta’sirini o‘rganish ham badiiy asar tahlili, matnning*

o‘ziga xosligi, kitobxon uchun foydali jihatlarini aniqlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, badiiy matndagi intertekstual birliklarni aniqlash, ularning mazmuniy persepsiyaga ta’siri masalasini o‘rganish tilning yangi, lekin tadqiq qilinmagan jihatlarini o‘rganishda yordam beradi. O‘zbekiston Qahramoni, yozuvchi,shoir A.Oripovning ijodida ham intertekstuallik alohida o‘ringa ega. Uning she’rlarida zimdan ilohiy ishq, vatanga muhabbat, sovet ittifoqining yurtimizga olib kelgan talafotlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir intertekstuallikni she’r va asarlariga qo‘shish orqali o‘zining asarlarini yanada o‘qishli, mazmunan va ma’nan boy qilishga erishgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning she’rlaridagi intertekstuallik muhim voqea-hodisalarga, tarixiy shaxs yoki biror bir afsonaviy o‘rin joyga ishorat tarzda yanada tushunarli yozilgan. Ushbu maqolada A.Oripov she’riyatidagi misollar tahliliga e’tibor qaratamiz.

Kalit so‘zlar: *intertekstuallik, lingvistik birliklar, afsona, mif, hadis, intertekst.*

Abstract. *In world linguistics, the study of text as a product of human thinking has made possible psycholinguistic, sociolinguistic, and pragmalinguistic development. The study of the perception of the artistic text and the impact of the phenomenon of intertextuality on this process is useful for the analysis of the artistic work, the originality of the text, and a useful feature for the useful reader. Also, the identification of intertextual units in the artistic text, the study of their impact on meaningful perception helps in learning new, but unexplored aspects of the language. Intertextuality has a special place in the work of the Hero of Uzbekistan, writer, poet A. Oripov. In his poems, divine love, love for the motherland, and the losses that the Soviet Union brought to our country are clearly visible. It would not be wrong to say that the poet made his works more readable, rich in content and meaning by adding intertextuality to his poems and works. Intertextuality in his poems is more clearly written in the way of referring to important events, historical person or some legendary place. In this article, we will focus on the analysis of examples in A. Oripov's poetry.*

Keywords: *intertextuality, linguistic units, legend, myth, hadith, intertext.*

XX asr gumanitar bilimning turli sohalari, birinchi navbatda,tilshunoslik va adabiyotshunoslikda har tomonlama ko‘rib chiqilgan soha Intertektuallikdir. Bu atama fransuz olimasi Y.Kristeva tomonidan 1967-yilda ilmiy muomalaga kiritildi. (https://uz.eferrit.com/intertekstuallik/) Intertekstuallik tamoyilini matnda tashkil toptiruvchi asosiy elementlar, lingvistik birliklar bu – intertekstdir. Intertekstuallikka oid manbalarda intertekstuallik va intertekst terminlari alohida olingan holda tadqiq qilingan. Biz o‘zimizdan avvalgi o‘zbek tilida bu borada amalga oshirilgan ishlarda shu terminni “intermatn” sifatida qaralganini kuzatdik. *(M.Homidova, 2020,30-bet)*

“Intertekst” atamasi “inter” – o‘rta, “tekst” -matn so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan bo‘lib, matn ichida keladigan matn yoki uning qismlarini anglatadi. Intertekstuallik esa bevosita ana shu hodisani anglatuvchi atama sanaladi.

Ma’lumki, badiiy matnda intertekst sifatida afsona, mif, hadis, didaktemalar, boshqa bir yozuvchining asaridan parcha, maqol, matal kabilar keng qo‘llanadi. Chunki yozuvchi ko‘proq intertekst sifatida xalq ichidagi hikmatli so‘zlar, maqollar, hadislardan foydalanadi. Shu sababli ham o‘quvchi matn ichidagi matnni darrov anglab oladi va nima haqida gap ketayotganini mustaqil idrok eta oladi. O‘zbek tilidagi mashhur dostonlardan, she’r va qo‘shiqlardan, Qur’on va hadislardan, rivoyat va kinofilmlardan olingan parchalarni ham intertekst sifatida baholashimiz mumkin. Masalan, A.Oripovning “Seni ona dedim…” she’ridagi bir bandga e’tibor bersak:

Sen desam, ming yillar sajdaga kelib,
Poyingga chechakday to‘shalmog‘i chin.
***Alpomish** yonida **Oybarchin** bo‘lib,*
*Sen – **Farhod** qoshida yashnagan **Shirin**.*
*(*А.*Орипов, 2001,69-bet)*

Ushbu she’riy parchadagi intertekstuallikning asosini “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod va Shirin va “Alpomish” dostonidagi Alpomish va Barchinoy tashkil qiladi.

Intertekstuallik haqida jiddiy izlanishlar olib boegan rus olimasi Fataeva esa badiiy matndagi intertekst turlari sifatida quyidagilarni belgilaydi:

1. Allyuziya
2. Reminisentsiya
3. Epigraf
4. Sarlavha
5. Havola(sitata)
6. Aforizmlar
7. Maqol, matal

Berilgan ushbu tasnif asosan g‘arb olimlari tomonidan taklif etilgan hisoblanadi. *(M.Homidova,2020,38-bet)*

Allyuziya – “Badiiy adabiyotda va notiqlik san’atida tarixiy voqea yoki mashhur asarlariga ishora qilishdan iborat stilistik figuralardan biri*”. (Hotamov H, 1979, 27-bet”)*

Tarixiy voqealar, mahshur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma’lum bo‘lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardagi turg‘un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish natijasida ham intertekstuallik yuzaga kelishi mumkin.*(M.Yuldashev, “Badiiy matn lingvopoetikasi”,Toshkent-2008, 119-bet)* A.Oripovning ijodida ham “Qur’oni Karimdan” olingan diniy rivoyatlarga duch kelamiz. Masalan, uning “Armaniston” she’rining ba’zi misralarida ko‘rishimiz mukin:

Go‘zal Armaniston, ey qadim diyor,
Ey, ***Odam Atoning*** *o‘gay bolasi,*
Qancha ko‘p darbadar farzandlaring bor,
Barining ko‘ksida o‘kinch nolasi.

Reminisentsiya (Lot. Reminissentiya -xotirlash, eslash) – so‘zidan olingan bo‘lib, adabiy asarlardagi ilgari mavjud bo‘lgan asarlarni yodga soluvchi nuqtalardir. Masalan, Rauf Parfi she’rlarida A.Blok, Ulug‘bek Hamdamda Navoiy asarlari tilga olingan. . *(M.Homidova,2020,45-bet)*

Juda ko‘p hollarda xalq maqollarining ishtirokiga ko‘ra badiiy matn intertekstuallik kasb etadi. Bunda mazmuniy uyg‘unlik barobarida *deydilar,deganlaridek* kabi qator lisoniy ifodalar asosiy intermatn aloqasining izchilligini ta’minlaydi. Masalan, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida: “Kechqurun qobil bobo aminning oldiga boradigan bo‘ldi. Quruq qoshiq og‘iz yirtadi deganlaridek, aminga qancha pul olib borsa bo‘ladi.”

Ba’zan ijodkor boshqa bir adibning asaridagi mashhur misralarni o‘z asariga kiritadi. *(M.Yuldashev, “Badiiy matn lingvopoetikasi”,Toshkent-2008, 128-bet)* Masalan, A.Oripovning “Alvido, ustoz” G‘.G‘ulomga bag‘ishlangan she’rini ulkan shoirning mashhur satrlari bilan boshlagan:

“Zo‘r karvon yo‘lida yetim bo‘tadek

Intizor ko‘zlarda xalqa-xalqa yosh…”

Sarbonim, qo‘lingdan ketdimikin erk,

Sarbonim, ne uchun ko‘rsatmaysan bosh…

(https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdulla-oripov-yangi-sherlar.html)

Shuningdek, mana shunday xususiyatlarni A.Oripovning birqancha she’rlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, uning “Shogird maqomi” she’ridagi bandga e’tibor bersak:

*Alloma **Beruniy** qazosi kuni*

Bir savol yechimin qilibdi armon.

Hadisi sharif ham uqtirar buni:

“Boring ilm deya hatto chin tomon”.

(https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdulla-oripov-yangi-sherlar.html)

Ushbu she’rda band ichida intertekstuallik hadis orqali va tarixiy shaxs orqali o‘z aksini topgan. Birinchi misralardayoq Beruniyning G‘azniy tomonidan 1048-yil asir olingani va u shahid bo‘lganligi haqidagi ma’lumot yaqqol ko‘zga tashlanadi. Parchaning oxirgi misrasida “Ilmni hatto chinga borib o‘rganing” deyilgan sahih hadislardan biri keltirilgan. Ushbu hadisdagi Chin faqatgina mamlakat emas, uzoqlik ma’nosida ishlatilganini ham ko‘rishimiz mumkin. Yoki uning “Ko‘pchilik” she’ridagi bandni olsak:

*Buyuk **Brunoni** yoqdilar o‘tda,*

Quyoshni markazdir degani uchun.

Millionlab nasoron boqdi sukutda

Inson rad etgandi ilmning kuchin.

https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdulla-oripov-iyun-sherlari.html

Bandagi misralarda ham intertekstuallik tarixiy shaxs bilan va shu shaxs bilan bog‘liq tarixiy hodisa orqali ifodalangan. Ya’ni, Giordano Bruno panteizm namoyondasi, geliosentrik g‘oyani rivojlantirgan, Quyosh sistemasidan tashqarida tirik mavjudotlar yashaydigan olamlar bor deganligi uchun dahriylikda ayblanib 8 yil qamoqda yotgani va oqib yuborilgani haqidagi voqeani tasavvur qilishimiz mumkin. (https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Giordano_Bruno)

Shoirning she’rlarida epigraf sifatida tanlangan bir qancha maqol, she’r va g‘azallardan olingan parchalarni ham uchratamiz. Masalan, “Tarbiya” she’ridagi epigraf maqol bilan ifodalangan: *(А.Орипов 2000, 258-бет)*

“Kengga keng dunyo,

Torga tor dunyo.”

Bu maqol “Tarbiya” she’rida keltirilishi, she’rda ham aytilganidek, insonni har bir narsadan nolimasligiga, boshiga biror bir ish tushsa uni sabr bilan yengib o‘tishi kerakligiga va doimo shukr qilib yashashiga undaydi. Shoir ba’zi misralarida G‘. G‘ulomning she’rlaridan ham parchalar olib epigraf sifatida qo‘llagan. Uning 4 jildlik “Tanlangan asarlar” to‘plamining birinchi jildidan joy olgan “Momo oftob” she’ridagi epigrafni olsak:

“Eng kichik zarradan Yupitergacha

O‘zing murabbiysan.”

G‘. G‘ulom.

(А.Орипов, 2000, 273-бет)

Bu she’rning 1977-yilda yozilganiga e’tibor qilsak, ushbu she’rda shoir SSR davrini oftobga murojaat tarzida go‘zal tarzda yoritgan. Bunda shoir o‘zini chorasiz qolgan Muqannadek his qiladi va unga hamma joyga baravar nur sochishini iltijo qiladi.

Shoir ijodida mumtoz adabiyotimiz namunalaridan biri bo‘lmish g‘azal namunalaridan ham foydalanganini uchratamiz. Uning “Suv parisi” she’rida Atoyinig *“Ul sanamki suv yaqosinda paridek o‘ltirur”* misralarini epigraf qilib olish orqali intertekstuallikning go‘zal namunasini yaratgan. *(А.Орипов 2000, 23-бет)*

Badiiy matnda aforizmlarni qo‘llash asarni anglab olishda katta hissa qo‘shadi. Aforizm – tugal fikrni anglatuvchi, o‘tkir mazmunli qisqa va lo‘nda jumla. Aforizmlar xalq maqollariga o‘xshab ketadi. Uning xalq maqollarida farqi, aforizm ma’lum shaxsga mansub bo‘ladi. A. Oripov tarjima sohasida ham yetuk ijodkor hisoblanadi. Shu sababli u ba’zi she’rlarida jahon adabiyoti namunalaridan ham foydalangan. Masalan, uning “Uchqur hayol sohibi yigit” deb boshlanuvchi she’rining epigrafi nemis adibi Gyote aforizmi bilan ifodalanadi:

Umid bilan suqilgan tayoq,

Bir kun berar meva-yu yaproq.

Gyote

Bu she’rda ifodalanganidek, insonlarni noumid bo‘lmaslikka, tashqi muhitdagi insonlarning so‘zlariga e’tibor bermaslikka undaydi. Xalqimiz orasida ham “Katta-katta shoirlar kichik-kichik qishloqlardan chiqadi” degan ibora mavjud. Ya’ni:

Yillar o‘tdi… barg yozdi axir

Umid bilan suqilgan tayoq.

Sharaf senga, sabot va aql

Sharaf senga, mehnat va idrok!

Olim bo‘lib qaytdi u, balli,

Cho‘llariga suv chiqargali…

(А.Орипов, 2000, 72-бет)

Inertektsuallik terminiga bugungi kunda juda keng va mohiyatan chuqur hodisa sifatida qaralmoqda. Albatta intertekstuallik bu faqatgina nasriy yoki she’riy asarlardan parcha keltirib qo‘yish emas, uning ostida etnik, milliy-mental aloqadorlik mavjudligi yotadi. Shu orqali bunday asarlar o‘quvchini yanada jalb

etadi va tushunishni osonlashtiradi. Yana shuni ham aytishimiz mumkinki, intertekstuallik bu badiiy ifoda imkoniyatlarining estetik-ta'sir quvvatini oshiradigan va shuning uchun ham badiiy matn o'rganuvchisining doimiy e'tiborda tutilishi lozim bo'lgan hodisalardan biridir. Intertekstuallik orqali biz ijodkor shoirlarimizning bizga anglatmoqchi bo'lgan barcha jumlalar tarixiy voqea bo'lib ko'z oldimizda gavdalanadi. A.Oripovning ijodi ham o'rganuvchining doimiy e'tiborida bo'lib kelgan. Uning she'riyati intertekstuallikka boy va chiroyli tarzda ifodalangan. U intertekst uchun manba sifatida ko'proq hadislarimizga, buyuk bobolarimizga, xalqimizning qiyin damlarni boshidan kechirgan bir qancha tarixiy voqea-hodisalarga murojaat qilgan. Uning yuqoridagi keltirilgan she'rlarida keltirilgan shaxs nomi bilan bog'liq voqea-hodisalar orqali butun bir millatning asrlar oshib yashab kelayotgan tarixini anglashimiz mumkin bo'ladi. She'rning birgina misrasida butun boshli tarix gavdalanganini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon esa bevosita she'rlarida intertekstuallikni qo'llash orqali namayon bo'lgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamalakatimizdagidek boy tarix, bobolarimzdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam tariximiz haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi, katta ma'naviyat olib kelishi zarur."- dedilar. A.Oripov she'riyatidagi tarixga nazar bu biz uchun kelajak avlodga, qoldirilgan meroslarga bee'tibor qolmasligimizni eslatib turuvchi eng katta boylikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Homidova.M. (2020). Badiiy matn perseptsiyasida intertekstuallik.Toshkent
2. Yuldashev.M.(2008). Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent. Fan nashriyoti.
3. Hotamov H, Sarimsoqov B. (1979). Toshkent. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha va o'zbekcha izohli lug'ati. O'qituvchi nashriyoti.
4. Орипов А .(2000).Танланган асарлар, 1-Ж. Тошкент. Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

5. https://uz.eferrit.com/intertekstuallik/
6. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdulla-oripov-yangi-sherlar.html
https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdulla-oripov-iyun-sherlari.html
7. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Giordano_Bruno

BADIIY MATNDA INTERTEKSTUALLIK

Akbarova Dilso'z Sherzod qizi,
ToshDO'TAU O'FF 1-kurs talabasi,
akbarovadilsoz4@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada intertekstuallik tushunchasi, uning nazariy asoslari, intertekstuallikning turlari, badiiy matnda intertekstual birliklarning tahlili, badiiy matnni kitobxon tomonidan to'g'ri tushunilishi va matnning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishda intertekstual birliklarning ahamiyati haqida hamda uning ko'rinishlari bo'lgan epigraf, sarlavha hamda sitata (havola) yuzasidan fikr-mulohazalar qayd rtilgan.*

Kalit so'zlar: *Intertekstuallik, intertekst, allyuziya, epigraf, havola (sitata), maqol.*

Abstract. *This article outlines the concept of intertextuality, its theoretical foundations, the types of intertextuality, the analysis of interactive units in the literary text, the correct understanding of artistic text by the reader and the importance of interactive units in understanding the true content of the text, as well as its views of epigraphs, titles, and quotes (links)*

Key words: *Intertextuality, intertext, allusion, epigraph, reference (citation), proverb.*

Bugungi kunda intertekstuallik atamasi faol qo'llanmoqda. Bu atama Y.Kristeva tomonidan 1967-muomalaga kiritilgan. O'zbek tilshunosligida bu atama dastlab M.Yo'ldoshevning tadqiqotlarida uchraydi. "Intertekst" atamasi "inter" – o'rta, "tekst" – matn so'zlarining birikuvidan tashkil topgan bo'lib, matn ichida keladigan matn yoki uning qismlarini anglatadi. Intertekstuallik esa bevosita ana shu hodisani anglatuvchi atama sanaladi(M.Xomidova,2020,30-bet). Demak, intertekstuallik deganda matn orqali boshqa bir matnning ma'nosini ochib berish yoki ayni bir vaziyatni to'laqonli aks ettirishni tushunishimiz mumkin. Asosiy

matnga olib kiriladigan o‘zga matn yoki uning muayyan unsuri yozuvchi niyatiga ko‘ra asosiy matn strukturasining turli qismlaridan joy olishi mumkin. Badiiy matnda intertekstuallik xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladi.

Xususan, uning bir necha turlari mavjud. Intertekstuallik haqida jiddiy izlanishlar olib brogan rus olimasi Fatyeyeva badiiy matndagi intertekst turlar sifatida quyidagilarni belgilaydi:

1. Allyuziya
2. Reminispensiya
3. Epigraf
4. Sarlavha
5. Havola
6. Aforizmlar
7. Maqol, matal

Biz bilamizki, matnning bir butunligini ta’minlashda sarlavhaning ham nihoyatda muhim o‘rni bor. Chunki sarlavha beriladigan matnning, umuman, asarning kichik bir mazmuni ham hisoblanadi. Asarga beriladigan sarlavhada ham intertekstuallik hodisasini uchratishimiz mumkin. M.Yo‘ldoshevning tadqiqotlari ham buni isbotlaydi: “ Shuhratning “Oltin zanglamas” romanining nomi “Asal aynimas, oltin zanglamas” maqolining qisqargan shakli hisoblanadi, Odil Yoqubovning “Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim” dramasining nomi ayni shu shakldagi maqol ekanligi kitobxon tomonidan osongina idrok etiladi. Yoki O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” romanining nomi “Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin” maqolining ikkinchi qismidir”(M.Yo‘ldoshev,2008, 119-bet). Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Bu orqali yozuvchilar asarda ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyalarini kitobxon ongiga mohirlik bilan singdiradi.

Badiiy matnda intertekstuallikni yuzaga keltiradigan usullardan yana biri epigrafdir. Badiiy matnda epigraf, albatta, badiiyat uchun xizmat qilishini bilamiz. O‘zbek badiiy matnida bunday intertekstuallikning turli xil ko‘rinishlari mavjud. Badiiy matnda xalq maqollari epigraf qilib olinadi. Masalan, Eshqobil Shukurning “Olomon” hikoyasida “Och nimalar yemaydi, to‘q nimalar demaydi” maqoli

epigraf qilib olingan. Biz bundan ko‘rishimiz mumkinki, hikoyada eng avvalo “nafs” tushunchasi ustunlik qiladi. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoniga Nazrul Islomning “Tug‘ilgansan ozod, mudom ozod bo‘lib qol” misralari, O‘tkir Hoshimov “Xayollarga bo‘laman tutqun…” hikoyasida Mirtemirning quyidagi she'rini keltiradi:

Ko‘rmay desam, ko‘zim ko‘r emas,
Yurmay desam, oyog‘im butun.
Ammo qalblar ortiq jo‘r emas,
Xayollarga bo‘laman tutqun.

Bu misralar orqali bilishimiz mumkinki, hikoyada muhabbat mavzusi ko‘tarilgan. Insonda shunday xotiralar bo‘ladiki, eslashni istamasak-da, ular yodimizga tushaveradi va mana shu xotiralar bizni o‘z asiriga aylantiradi. Shu sababli ham parchaning oxirgi misrasi hikoya sarlavhasi darajasiga ko‘tarilgan.

Yoki Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasida qo‘llangan epigraf esa o‘sha davrning ijtimoiy holati, insonlarning qay darajada ilojsiz qolganliklaridan dalolat beradi:

Uylar to‘la non, och-nahorim, bolam,
Ariqlar to‘la suv, tashnai zorim, bolam.

Allyuziya (lotincha, “ishora”, “hazil”) – barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktlarga ishora qilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan Sharq she’riyatida keng qo‘llangan talmeh san’atigayaqin keladi. Farqli jihati shuki, talmehda ko‘proq tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, allyuziyada ijodkor o‘z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ham ishora qilishi mumkin. Ya’ni allyuziyada ishora obyektining doirasi kengroq (M. Xomidova, 2020, 39-bet). Masalan, Xurshid Do‘stmuhammadning “Jajman” hikoyasida: “ – Yopiray! – deb yubordi shoshganidan. U turgan joyida qotib qoldi, irodasini jamlashga urinib, ko‘zini pirpiratdi – bo‘lmadi. – O‘zing madad ber, **Axuramazda**! – dedi pichirlab”. Yoki Iqbol Mirzoning “O‘zbek” she’rida ham allyuziya uchraydi:

*Haftalab yo‘l qarab sarg‘aymas **Kumush**,*

Tog‘ni talqon qildi bobomeros musht,

Tin oldi dovonga boqib ***Alpomish****,*

Tog‘larni qo‘pordi yoylaring, o‘zbek.

Sirojiddin Sayyidning “Vatan” she’rida ham allyuziyaga ko‘zimiz tushadi:

Valilardan ibrat so‘ylar qadim sahrolar,

So‘ndi qancha saltanatlar, qancha tug‘rolar.

Maqbaralar aytsin lekin, aytsin ***Zuhrolar,***

Yer ostidan suhbat aylar hanuz ***Kubrolar,***

Termiziylar *bedor yotgan qo‘rg‘onim, Vatan.*

Matn tarkibida uchraydigan intertekstning eng keng tarqalgan turlaridan yana biri bu sitata (havola) lardir. O‘TIL da uning izohi shunday berilgan:

“Sitata(lot. Sitatum – chaqirmoq, da’vat qilmoq, nomlamoq)biror matndan, adabiy, musiqiy va shu kabilardan aynan ko‘chirilgan parcha , iqtibos”.

U matnning boshqa matnlar bilan aloqadorlikda umumiy ma’noga ega ekanligini bildiradi. Sitatalar matnning ichida kelib, turli maqsadlarda qo‘llanadi. Xususan, badiiy matnda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan afsona, rivoyat kabilar, Qur’on qismlaridan parchalar, hadislardan namunalar, shuningdek, muallifning o‘z asaridan yoki boshqa muallif aarlaridan parchalar keltiradi(M. Xomidova, 2020, 44-bet) Masalan, Toxir Malikning “ Shaytanat” asarida: “ Albatta, Alloh sizlarga haq va’da qilgan edi. Men esa (yolg‘on) va’da berib, sizlarni aldagan edim. (Lekin) men uchun sizlarning ustingizda hech qanday hukmronlik yo‘q edi, illo men sizlarni (kufr yo‘liga chaqirishim bilanoq) o‘zingiz menga itoat etdingiz. Endi meni emas o‘zlaringizni malomat qilingiz…” Ushbu parcha Qur’oni karim “Ibrohim" surasining 22-oyati hisoblanadi. Yoki Iqbol Mirzo “Bonu” romanida Halima Xudoyberdiyeva ijodidan parcha keltiradi: “Chiroyli she’riy javob topish maqsadida kursdoshlarning yon daftari-yu telefon xotirasini titkilab chiqdik. Va nihoyat hammamizga bir she’r ma’qul bo‘ldi:

O, ilk muhabbatim, iliq muhabbat,

Totli tuyg‘ularga to‘liq muhabbat!

Bahor quyoshiday issiq bo‘lgin-u,

Bahor havosiday o‘zgarma faqat!”

Xulosa qilib aytish mumkinki, intertekstuallik barcha matnlar uchun umumiy hodisa bo‘lib, badiiy matnda uning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Chunki intertekstuallik kitobxon xotirasida saqlangan bilimlarni faollashtiradi, qolaversa, asar g‘oyasini va asardagi ayni holatni qisman ochadi. Bu hodisa orqali aytilmoqchi bo‘lgan fikr yanada oydinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toxir Malik (2018) “Shaytanat”1-kitob, Toshkent, 3-bet.

2. Xomidova M. F. (2020) “Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik”, Toshkent, 150 bet.

3. Yo‘ldoshev M. (2008) “Badiiy matnning lingvopoetikasi”, Toshkent, 160 bet.

4. O‘TIL 4-jild, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 443-bet

ZAMONAVIY O‘ZBEK TERMINOLOGIYASIDA LEKSIK-SEMANTIK HODISALAR

Axmedova Aynura Quanishbay qizi

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs

aynuraaxmedova345@gmail.com

***Annotatsiya**: ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek terminologiyasi va chet tillaridan o‘zlashgan va o‘zlashayotgan terminlar haqida mulohazalar bildirilgan, ular orasidagi leksik- semantik hodisalar xususida fikr yurg‘izilgan. Ayniqsa terminlar o‘rtasidagi polisemiya hodisasi bir nechta misollar asosida yoritilgan va tegishli xulosalar chiqarilgan.*

***Kalit so‘zlar:** termin, zamonaviy o‘zbek terminologiyasi, o‘zlashma termin, internet terminologiyasi, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari, leksik-semantik hodisa, monosemantik, polisemiya, mazmuniy aloqadorlik.*

***Abstract:** in this article, comments are made about modern Uzbek terminology and terms borrowed from foreign languages, and lexical-semantic phenomena between them are discussed. In particular, the phenomenon of polysemy between terms is highlighted on the basis of several examples, and relevant conclusions are drawn.*

Key words: *term, modern Uzbek terminology, borrowed term, Internet terminology, modern directions of linguistics, lexical-semantic phenomenon, monosemantic, polysemy, semantic relatedness.*

Terminlar semantik jihatdan maxsus tushunchalarni ifodalaydigan, ularning har biri o‘z ma’nosiga ko‘ra unikal bo‘lgan, umumadabiy so‘zlardan bir ma’noliligi, aniqligi, sistemliligi, kontekstdan xoliligi va emotsional jihatdan neytralligi bilan ajralib turuvchi so‘z va so‘z birikmasidir.

O‘zbek tili terminologiyasi o‘zbek tilshunosligining hozirgi kunda o‘ta shahdam va dinamik tarzda rivojlanayotgan sohalaridan biri bo‘lib, o‘zbek tili lug‘at boyligining o‘sib hamda kengayib borishida muhim manba rolini bajarib kelmoqda. Bugungi globallashuv davrida o‘zbek terminologiyasining salmoqli qismini tarixiy-an’anaviy terminlardan tashqari yangi termin-o‘zlashmalar ham tashkil qiladi. D.Saidqodirovaning “Ingliz va o‘zbek tillarida internet terminlarining lingvistik tadqiqi” nomli dissertatsiyasida olimaning olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra, birgina internet terminlarining 54% ni o‘zlashmalar, shulardan rus tilidan o‘zlashgan internet terminlari 31% ni, ingliz tilidan aynan o‘zlashgan baynalmilal internet terminlari 23% ni tashkil etgan. Internet terminlaridan tashqari o‘zbek tili ilmiy terminologiyasining ham muayyan qismi ingliz va rus tilidan o‘zlashgan terminlardan tashkil topgan.

So‘nggi yillarda o‘zbek terminologiyasini tartibga solish va takomillashtirish borasida ko‘pgina tadqiqotlar olib borildi, lug‘atlar yaratildi. Tarixda qo‘llangan terminlar izohiga bag‘ishlangan X.Y.Bekmuhammedovning “Tarix terminlari izohli lug‘ati”, M.Ismoilov, A.Sharapovlarning “Tarix atamalari lug‘ati”, H.Dadaboyevning “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati”; huquqshunoslik doirasida F.Bakirovning “Yuridik terminlar lug‘ati”, Z.Muqimov, O.Tursunovlarning “O‘zbek davlatchiligida qo‘llangan tarixiy-huquqiy atamalar”; tilshunoslik sohasida A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”, N.Mahkamov, I.Ermatovlarning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”; tibbiyot sohasida A.Qosimovning 4 jilddan iborat “Tibbiy terminlar izohli lug‘ati” kabi terminologik lug‘atlar shular jumlasidandir.

Terminlarga qo‘yiladigan talablardan biri uning monosemali, ya’ni bir ma’noli bo‘lishidir. Shuning uchun terminologik sistemadagi terminlarning salmoqli qismini monosemantik terminlar tashkil qiladi. Shu bilan birga u yo bu sohada qo‘llanayotgan ayrim terminlardan bir nechta ma’nolarni ifodalash uchun foydalanilayotgani sir emas. Xususan, tilshunoslikda **aksentuatsiya** o‘zlashmasi quyidagi ma’nolarni ifodalash maqsadida ishlatilmoqda:

1. So‘z yoki gapdagi ma’lum qismlarni urg‘u yordamida ajratish;
2. Tilning urg‘u sistemasi;
3. Matnda urg‘uni belgilash (1: 83).

Bunday polisemali, ya’ni ko‘p ma’noli terminlarga kod, ssenariy kabi terminlar ham kiradi.

1. **Kod** (frans. Code, lot.codex – qonunlar majmui) – turli axborotlarni uzatish, qayta ishlash va saqlash uchun qo‘llaniladigan ma’lum tartibdagi shartli belgilar tizimi. Bu termin bugungi kunda tilshunoslikda, tilshunoslikning ichki zamonaviy yo‘nalishlarida faol qo‘llanilmoqda:

a) *Kompyuter lingvistikasida*: axborotni yozib olish vositasi (usuli). Bu raqam va harflar ketma-ketligi bo‘lib, elektron lug‘atlar, dasturlar yaratishda kodlardan foydalaniladi. Lug‘atning har bir so‘ziga mutanosib keluvchi kodlar ishlab chiqiladi va unda so‘zning barcha zaruriy morfologik, sintaktik, leksik xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar jamlangan bo‘ladi: Grammatik ma’lumot, adreslar, tarjima, sinonim, antonim, mutanosib sharhlar. Masalan, elektron lug‘atlarda kiritilgan so‘zlar o‘rniga ularning birinchi harflari va tartib raqamlari yoziladi (“katta” so‘zi o‘rniga K0083).

b) *Sotsiolingvistikada*: muloqot vositasi bo‘lib, u tabiiy tillar (o‘zbek, rus, ingliz va h.k.) hamda sun’iy tillar: esperanto, zamonaviy mashina tillari, morze alifbosi, turli signallar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Sotsiolingvistikada lisoniy hamjamiyatdagi muayyan muloqot vositalari: til, dialekt, jargon va tilning uslubiy ko‘rinishlari tushuniladi.

c) *Psixolingvistikada*: til ma’nosida. Nutqni idrok qilishda kodlash hodisasi yuz beradi. Inson qandaydir bir axborotni eshitadi va uni ongida kodlaydi.

Mana shunday ko‘plab axborotlar inson ongida, lisonda kodlangan shakllarda yashaydi.

Sanab o‘tilgan yo‘nalishlardan tashqari lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, neyrolingvistika kabi deyarli barcha tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida mazkur termin faol qo‘llanadi. Tilshunoslikdan tashqari boshqa quyidagi sohalar lug‘atida ham ushbu termin tez-tez uchrab turadi. Bu terminlarning barchasini muayyan bir axborot yoki belgini saqlash, mustahkamlash semasi birlashtirib turadi:

2. *Dasturlash va informatika*: muayyan dasturlar va raqamli hisoblash mashinalarini tayyorlash va yaratishda shartli belgilardan foydalaniladi. Har bir belgi son yoki harflar bilan kodlashtiriladi.

3. *Telemexanika*: ma’lumotlarni aloqa kanali orqali uzatish uchun mo‘ljallangan signallar tizimi.

4. *Astronomiyada*: kometalar, yangi va o‘rta yangi yulduzlar kashf qilinganligi, sayyoralarda, osmon jismlarida noyob hodisalar kuzatilganligi va boshqa axborotlar xususida rasadxonalar va astronomik telegrammalar orasida o‘zaro telegraf axborotlari almashishda qo‘llaniladigan so‘z va raqamlar tizimi.

5. *Harbiy sohada*: axborotlarni kodlash insoniyat tomonidan faqat amallarni bajarish qulay bo‘lishi uchun emas, balki muayyan axborotni sir saqlash uchun ham qo‘llaniladi. Harbiy mazmundagi maxfiy ma’lumotlarni, axborotlarni yashirin saqlash va uzatish uchun foydalaniladigan shartli belgilar tizimi.

Ssenariy (ital. scenario, lot.scenarius – sahnaga oid aloqador).

1. Pyesa, opera balet spektakllari, ommaviy tadbirlar hamda tomoshalarning rejasi, syujet tuzilishi;

2. Kino san’ati va televideniye vositalari yordamida gavdalantirib ko‘rsatish, ekranlashtirish maqsadida yozilgan adabiy-dramatik asar.

3. Barchaga ma’lum ushbu termin keyingi yaqin yillarda tilshunoslik sohasiga ham o‘zlashdi va tilshunoslikning ayrim zamonaviy sohalarida faol termin sifatida qo‘llanilmoqda:

1) *Kognitiv tilshunoslik*: biror bir tipik hodisaga oid o‘zaro bog‘liq faktlarning ularning uzviyligini aks ettiruvchi namunaviy shakl misolida yoritilishidir. Ushbu namunaviy struktura ma’lum voqelik bo‘lagiga oid harakatlar, holatlarning uzviy munosabatlaridan iborat bo‘ladi (masalan, restoranda tushlik, dars jarayoni, institutda qabul, muzey ziyorati va h.k.).

2) *Kompyuter lingvistikasi*: voqea-hodisalar, harakatlar ketma-ketligining kauzal bog‘liqlik tamoyili asosidagi zanjiri. Bunda oddiy voqea-hodisalar zanjiri emas, balki ushbu harakatlar ketma-ketligida kauzal bog‘liqlik tamoyili amal qiladi, ya’ni har bir harakat natijasi shartli sanaladi, uning ta’siri va oqibatida navbatdagi ish-harakat sodir bo‘lishi mumkin. Har bir ssenariyda rol bajaruvchilari mavjud. Ssenariylar real hayotda uchraydigan vaziyatlarni aks ettiruvchi holatlar asosida yuzaga keladi.

Demak, leksik-semantik hodisalar: polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya, giper-giponimiya, partonimiya, graduonimiya tildagi umumiste’mol so‘zlardan tashqari terminlar orasida ham sodir bo‘ladi. Biz ushbu maqolamizda terminlar orasida polisemiya hodisasini bir nechta terminlar orqali yoritishga harakat qildik. Polisemiya, ya’ni ko‘p ma’nolilik hodisasi terminlar ma’nolari o‘rtasida bog‘liqlik, leksemalarning semantik tarkibidagi leksik ma’nolar orasida mazmuniy aloqadorlik borligiga tayanadi. U terminlar o‘rtasidagi asosan, metaforik va metonimik ma’no ko‘chishi oqibatida yuzaga keladi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan terminlar orasida ham mazmuniy bog‘lanish mavjud, ya’ni birida muayyan axborotni saqlash, mustahkamlash semasi, ikkinchisida esa oldindan rejalashtirilgan ketma-ket voqea-hodisalar zanjiri, strukturasi kabi semalar buni ta’minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev H. (2019) O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent

2. Hojiyev A. (2002) Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan

3. Jamolxonov H. (2013) Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2006) Besh jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi

5. Rashidov T.R. (1989) Politexnika lug‘ati. – Toshkent

6. Safarov Sh. (2006) Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor

7. Safarov Sh. (2008) Pragmalingvistika. – Toshkent

8. Safarov Sh. (2013) Semantika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi

9. Usmonova Sh. (2014) Psixolingvistika. – Toshkent

10. Usmonova Sh va boshq.(2014) Sotsiolingvistika. – Toshkent

11. Xolmanova Z. (2020) Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent

12. Xudoyberganova D. (2015) Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo

13. Xudoyberganova D. (2013) Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan

YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINING OTLASHUVI

Bobodo‘stov Yusuf Oydin o‘g‘li,
ToshDO‘TAU OAT 3-kurs talabasi
bobodostov.yusuf@bk.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi mustaqil so‘z turkumlarida otlashuv jarayoni, so‘z turkumlari otlashuvining o‘ziga xos xususiyatlari, bundan farqli o‘laroq nazariyotda shu paytgacha yordamchi so‘z turkumlarida otlashuv hodisasi yo‘q deb talqin qilingani va uchramagani, hozirgi kunga kelib esa, yordamchi so‘z turkumlarining otlashuv hodisasi amaliy tilshunoslik uchun nazariyot talabi ekanligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Amaliy tilshunoslik, nazariy tilshunoslik, fahmiy bilish, nazariy bilish, otlashuv, mustaqil so‘z turkumlari, yordamchi so‘z turkumlari, egalik shakllari, kelishik shakllari, ko‘plik shakli, otlashgan ko‘makchi, otlashgan bog‘lovchi, yordamchi so‘z turkumlarining otlashuvi, belgili otlashuv, belgisiz otlashuv*

Abstract: *In this article, the process of conjugation in independent parts of speech, the specific features of the conjugation of parts of speech, in contrast to this,*

it is interpreted that there is no phenomenon of conjugation in the parts of speech received so far in the theory and that it has not been found, until now and the output is about the theoretical requirement for the derivation of derivational nouns in applied linguistics.

Keywords: *Applied linguistics, theoretical linguistics, comprehension, theoretical knowledge, conjugation, independent parts of speech, auxiliary parts of speech, possessive forms, agreement forms, plural form, infinitive auxiliary, infinitive conjunction locative, auxiliary word groups conjugation, marked conjugation, unmarked conjugation*

Ma’lumki, nazariy bilimlar hosil bo‘lishi uchun, nazariy bilimga asos bo‘lgan hodisa ,albatta, borliqda uchrashi, amliyotda kuzatilishi va bir qadar insonlar tomonida idrok etishi lozim. Buni hatto tabiat qonuniyati deb tan olsak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu hodisa borasida Filologiya fanlari do‘ktori professor Baxtiyor Mengliyevning ilmiy bilish tog‘risidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir.

“Falsafada ilmiy bilishning navbatma-navbat takrorlanib turuvchi ikki turi farqlanadi:

a) fahmiy (empirik, amaliy, tajribaviy) bilish;

b)nazariy (idrokiy, mantiqiy, aqliy) bilish;

Birinchi bosqichda o‘rganilayotgan manbaning tarkibiy qismlari, belgi-xususiyatlarini aniqlash, saralash, tartiblash va tasvirlash amalga oshiriladi. Bunda asosiy e’tibor o‘rganish manbayining sezgi a’zolari bilan anglanuvchi tashqi, zohiriy xususiyatlarini aniqlashga qaratiladi. Aslida bu hali tom ma’nodagi ilmiy bilish emas, lekin ilmiy o‘rganishning zaruriy, tarkibiy qismi, bosqichi hosoblanadi.

Nazariy bilish empirik, ya’ni fahmiy bilishsiz amalga oshmaydi. Empirik bilish jarayonida to‘plangan faktik material nazariy bilish jarayonida aqliy tafakkur yo‘li bilan umumlashtirilib, ularning mohiyati ochiladi ”.(Mengliyev, 2020, 6-8-bet)

Biz ham yuqorida tatqiq qilishni maqsad qilgan mavzularimizni ham ayni shu tamoyil bo‘yicha o‘rgansak maqsadga muvofiqdir.

Avvalo otlashuv hodisasining qanday hodisa ekanligiga ta’rif bersak. Otlashuv hodisasi bu otdan boshqa so‘z turkumlari(sifat, son, olmosh, ravish, fe’l, harakat

nomi, sifatdosh kabi)ning ot qabul qila oladigan egalik, kelishik va ko‘plik shakllarini qabul qila olishi va gapda ot bajargan grammatik va leksik vazifani bajarishidir. Otlashgan so‘zlar esa shartli ravishda ***otlashgan sifat, otlashgan son, otlashgan harakat nomi*** kabi atamalar bilan nomlanadi. Bunday holat odatda gapda ot so‘z turkumi o‘z vazifasini bajarmayotganda, ya’ni tushub qolganda yuz beradi. Misol tariqasida quyidagi gapga e’tibor qilamiz:

Og‘irning ostidan, yengilning ustidan o‘tma.

Bu vaziyatda sifat so‘z turkumidagi so‘zning ot qabul qilishi lozim bo‘lgan kelishik(chiqish -dan/ qaratqich -ning) shakllarini olganligini ko‘rishimiz mumkin. Berilgan gapni esa ma’noviy jihatdan to‘ldirsak, quyidagi holat yuz beradi:

Og‘ir ishning ostidan, yengil ishning ustidan o‘tma.

Aynan shu hodisa o‘zbek tilshunosligida otlashuv hodisasi deb ataladi. O‘z navbatida ushbu hodisaning ilmiy adabiyotlarda yoritilishiga e’tiborimizni qaratamiz. Xususan M.Hamroyev, D. Muhammedova, D. Shodmonqulova va boshqalarning hammuallifligida nashrdan chiqqan “Ona tili” darsligida bu hodisa sifat so‘z turkumi misolida quyidagicha izohlanadi.

“Sifat turkumidagi so‘zlar ba’zan ot turkumidagi so‘zlarning ma’nosini ifodalab, uning vazifasini bajarib kelishi mumkin. Bunda sifat o‘zining leksik va grammatik ma’nosini yo‘qotib, predmetlik ma’nosini ifodalaydi. Gapda sifat bog‘lanib kelayotgan otning tushib qolishi natijasida sifat uning predmetlik ma’nosini ham, morfologik belgisini ham, sintaktik vazifasini ham o‘z ustiga oladi. Misol: *Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi* gapida yaxshi (odam), yomon (odam) sifatlari tushib qolgan kim? so‘rog‘ga javob bo‘lgan, bosh kelishikdagi, ega vazivasidagi ot vazifasini bajargan”.(Ona tili, 2007, 106-bet)

Yoki A.Anorbekova va Sh. Mirzayevalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida, son so‘z turkumi misolida quyidagi talqinni ko‘rishimiz mumkin.

“Gapda son bog‘langan ot tushib qolishi mumkin. Bunday holda son otlashadi. Otlashgan son xuddi otlarga o‘xshab egalik, ko‘plik va kelishik qo‘shimchalarini oladi: beshga, uchni, ikkimiz, ikkinchilar”. (Anorbekova,

Mirzayeva, 2012,111-bet) Bunday misollarni fe'l, olmosh, ravish so‘z turkumlari, harakat nomi va sifatdoshlar misolida ham ko‘plab uchratamiz.

Bunday fikrlarni biz yana D. Lutfullayeva, R.Davlotova, M.Saparniyozova, Sh. Rahmatullayev kabi tilshunos olimlarimizning tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin. Lekin biz sanab o‘tgan bu olimlar tadqiqotlarining hech qaysi birida yordamchi so‘z turkumlarining otlashuvi haqida ma'lumot uchramaydi va bu hodisa haligacha nazariyaga kiritilmay kelinadi.

Bizda esa o‘z-o‘zidan yordamchi so‘z turkumlarida otlashuv hodisasi uchraydimi degan o‘rinli savol tug‘iladi. Yordamchi so‘z turkumlarining mustaqil so‘roqqa ega emasligi, leksik ma'no anglatmagani, balki, ularda otlashuv hodisasi bor deb qaralmasligining asosiy sababidir. Quyida esa bu fikrlar bir qadar bir yoqlamali ekanligi va yordamchi so‘z turkumlarining grammatik va leksik sathida otlashuv hodisasi uchrashini bir qancha faktik dadillar orqali isbotlashga harakat qilamiz.

Avvalo o‘zbek tilida kundalik so‘zlashuvchilarning doimiy nutqida ko‘plab uchraydigan, yordamchi so‘z turkumlari tarkibiga kiritilgan bog‘lovchi va ko‘makchilar borligini va bu yordamchi so‘zlar so‘zlashuvchilar nutqida tez-tez otlashuv hodisasiga uchrab turishini rad etib bo‘lmaydi. Biz yurorida keltirib o‘tgan emperik va fahmiy bilishga doir fikrlarga muvofiq tarzda nafaqat tilga oid , balki barcha sohalardagi nazariy bilimlarning hosil bo‘lishi bu nazariy bilimlarning amaliyotda borligi yoki yo‘qligi bilan bog‘liq. Holbuki, tilga oid nazariy bilimlar va ma'lum bir hodisa asosida kiritilgan qoidalar ham amaliyot natijasida yuzaga kelgan ekan, nega biz takidlayotgan yordamchi so‘z turkumlarining otlashuv hodisasi amaliy asosga ega o‘laroq, tilshunoslikning amaliy asosi bor nazariy bilimlari qatoriga ilmiy fakt o‘laroq qo‘shilmasligi kerak. Quyida bu hodisisaning ilmiy haqiqat ekanligini bir qancha misollar orqali isbotlashga harakat qilamiz.

Quyidagi ona tili o‘qituvchilari nutqida kundalik uchrab turadigan nutqiy kontekstga e'tibor qiling:

Biz "bilan" so‘zini ham ko‘makchilar ham bog‘lovchilar tarkibida

uchratishimiz mumkin. Lekin siz ko‘makchilar tarkibidagi “bilan” ni bog‘lovchilar tarkibidagi “bilan” bilan adashtirmasligingiz kerak! ***(O‘qituvchilar tilidan)***

Endi berilgan gap tarkibidagi ***“bilan” ni*** so‘ziga e’tiborimizni qarataylik. Bu yerda ***“bilan” ni*** so‘zi ot qabul qilishi kerak bo‘lgan tushum kelishigining -ni qo‘shimchasini olyapti va gapda otlashib kelyapti. Bundan tashqari biz bu jarayonning boshqa so‘z turkumlari otlashgani kabi sodir bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni ***“bilan”*** so‘zidan so‘ng ot so‘z turkumidagi ***“so‘z”*** so‘zi tushib qolyapti. Gapni to‘ldirsak quyidagi holat yuzaga keladi:

*Lekin siz ko‘makchilar tarkibidagi bilan so‘zini bog‘lovchilar tarkibidagi bilan bilan(**yoki bilan so‘zi bilan**) adashtirmasligingiz kerak!*

Shuni ta’kidlash mumkinki, berilgan gap tarkibida yordamchi so‘z turkumidagi so‘zlarning otlashib kelayotganini inkor qilib bo‘lmaydi. Gapda so‘zlar rostdan ham otlashish qoidalariga to‘la mos kelyapti, ya’ni M. Hamroyev asarida ta’kidlanganidek otlashib kelayotgan so‘zlar predmetlik ma’nosini ifodalayapti. Yana bir jihati e’tiborliki, bu strukturani ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklama tarkibidagi barcha birliklarga nisbatan qo‘llash mumkin.

Misol tariqasida yana ikkita nutqiy kontekst yaratamiz va otlashuv hodisasining bog‘lovchilar tarkibida ham uchrayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

1-matn

— Amaki, men sizning aytgan hamma shartlaringizga ko‘nishga tayyorman. Agar… siz menga…!

— Agari(agar-pagar)yo‘q! Gap tamom vassalom. Bu uyda mening aytganim bo‘ladi!

2-matn

— Endi Rustambek, gaplarimni diqqat qilib eshitgan bo‘lsangiz, men nima demoqchi ekanligimni allaqachon anglagan bo‘lsangiz kerak? Agar rozi bo‘lsangiz, bu ishni kechiktirib o‘tirishgahech hojat yo‘q.

— Ha Hikmat aka. Aytganlaringizga roziman-u, ammo bir lekini borda. Lekini shuki, men siz aytgan ishni biroz kechiktirib turishga ehtiyoj sezaman…!

Bu ikki kontekstda biz “***agar***” shart bog‘lovchisining va *“**lekin**”* inkor bog‘lovchilarining otlashib, egalik qo‘shimchasini olayotganiga guvoh bo‘lamiz. Yana bir misol. Abdulla Qahhorning “O‘jar” hikoyasidan olingan quyidagi gaplarga e’tibor beramiz:

Lekin, birodar… Qani ichaylik! A uff… Lekin, birodar, har yomonning bir “ammo”si bo‘lishi kerak, har yaxshining bir “lekin”i. Hozirgi tarbiya yaxshi. Hech shubhasiz yaxshi!(A.Qahhor, 2019, 98-99-bet)

Misolda ko‘rganimiz gap tarkibidagi ***ammo*** va ***lekin*** inkor bog‘lovchilari egalik ***(-i/si)*** shakllarini qabul qilyapti va bu o‘rinda otlashuv ya’ni ***“yordamchi so‘z turkumlarining otlashuv hodisasi”*** yuz beryapti. Keltirilgan misollarda kuzatilgan hodisani esa shartli ravishda ***otlashgan bog‘lovchi*** va ***otlashgan ko‘makchi*** deyishimiz mumkin. Lekin bu hodisalarning e’tiborli jihati shundaki, hamma misollarda yordamchi so‘z turkumidagi so‘zlar predmetlik ma’nosini bildirayotgan bo‘lsa-da, birinchi va keyingi o‘rinlarda berilgan misollar orasida biroz farqni ko‘rishimiz mumkin:

Lekin siz ko‘makchilar tarkibidagi “bilan” ni bog‘lovchilar tarkibidagi “bilan” bilan adashtirmasligingiz kerak! gapida tushib qolgan ot so‘z turkumidagi so‘zni tiklasa bo‘ladi. Misol uchun ***“bilan”ni — bilan so‘zini*** kabi. Ammo ***Aytganlaringizga roziman-u, ammo bir lekini bor-da.*** gapida tushib qolgan otni tiklab bo‘lmaydi, lekin uni matnning umumiy ma’nosidan anglashimiz mumkin.

Bundan kelib chiqadiki, yordamchi so‘z turkumlari tarkibidagi otlashuv hodisalarining hammasi ham bir xil emas va ular farqlanadi. Ularni shartli ravishta ***belgili otlashuv*** va ***belgisiz otlashuv*** kabi atamalar bilan atash mumkin. Shu va shunga o‘xshash holatlarning xalq maqollari va badiiy adabiyotlar tarkibida ham kuzatilishi bu kabi birliklarning keng xalq ommasi tilida doimiy ravishda qo‘llanilib kelayotganligiga yaqqol isbot bo‘la oladi va bu hodisalar nazariyotda aks etishi shart bo‘lgan ilmiy zaruratga aylanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish o‘rinliki, o‘n yillar davomida tadqiq qilinmagan, joiz bo‘lsa nazardan chetda qoldirilgan yordamchi so‘z turkumlarining otlashuv hodisasi ayni ilmiy faktdir. Yuqorida ko‘rib o‘tgan bir qancha misollarimiz va qisqa

tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, namuna tariqasida keltirilgan holatlar hammasi emas va izlanish jarayonida yana boshqa holatlarga ham duch kelish mumkin. Bu hodisani esa yanada chuqurroq o‘rganish tadqiq qilish va o‘zbek tili grammatikasining amaliy asosi bor nazariy bilimlari qatoriga kiritish tilshunoslarimiz qilishi kerak bo‘lgan muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anorbekova, A., Mirzayeva, Sh. (2012). Hozirgi O‘zbek adabiy tili: Akademik litseylar uchun ma’ruzalar matni. Toshkent: Noshir. 316 b.
2. Hamroyev, M., Muhamedova, D. va b. (2007). Ona tili. Toshkent: IQTIDOD-MOLIYA. 242 b.
3. Mengliyev, M. (2020). Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent: Tafakkur bo‘stoni.
4. Qahhor, A. (2019). Anor. Toshkent: Donish qishlog‘i. 240 b.

BADIIY MATNNI BOG‘LOVCHI VOSITALAR (YO‘LDOSH ESHBEKNING “YIG‘LAYOTGAN QIZ“ SHE‘RI MISOLIDA)

Jumayeva Iroda Berdiyor qizi,

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 1-kurs

Irodajumayeva515@gmail.com

Annotatsiya. *Yo‘ldosh Eshbekning “Yig‘layotgan qiz” she‘rida badiiy matnni bog‘lovchi vositalardan mahorat bilan foydalanilgan. Badiiy matnni bog‘lovchi vositalar, asosan, takrorlar she‘rda ohangdorlikni va ta’sirchanlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Murojaat birliklari va infinitiv gaplar ham badiiy matnning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.*

Kalit so‘zlar: *Badiiy matnni bog‘lovchi vositalar, leksik takrorlar, anafora, epifora, assonans, alliteratsiya, murojaat birliklari, infinitiv gaplar, olmosh takrori, ot takrori, fe‘l takrori.*

Abstract. *Yo‘ldosh Eshbek’s poem “Crying girl” skillfully uses the means of connecting the artistic text. The means of connecting the artistic text mainly repetitionsserved to provide melodiousness and impressiveness in the poem.Units of reference and infinitive sentences are also important in the formation of artistic text.*

Keyvords*: *Means of connecting the artistic text, lexical repetitions, anaphora, epiphora, assonace, alliteration, reference units, infinitive sentences, pronoun repetition, noun repetition, verb repetition.

Badiiy matnning shakllanishida takrorlarning o‘rni va ahamiyati.

Birinchi gapda qo‘llangan ayrim affikslar, so‘z birikmasi, yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo‘llanishi orqali matn shakllantiriladi. Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta’kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Nutqning ta’sichanligi ortadi (Yo‘ldoshev, 2010, 18-bet).

Badiiy asar mualliflari tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o‘quvchining diqqatini tortish, uni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun badiiy asarlarda tovush va tovushlar yig‘indisini, so‘z va so‘zlar yig‘indisini, gaplarni takror qo‘llab urg‘uni kuchaytiradi, nutqqa keskinlik kiritadi. Takror uslubiy vosita sifatida badiiy asarda qahramonning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini konkretroq ifoda etish uchun qo ‘llaniladi. Matnda bir so‘z yoki so‘z birikmasining qayta-qayta takrorlanishi o‘sha so‘z yoki so‘z birikmasi bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatning kuchaytirilib ta’kidlanishiga xizmat qiladi. (Lapasov, 1995, 48-bet)

Takrorlarning bir necha xil ko‘rinishlari bor, ular ham matn shakllanishi muhim vazifa bajaradi: Alliteratsiya, assonans, anafora, epifora kabilar.

Alliteratsiya deb undosh tovushlarning uslubiy maqsadlarda takrorlanishiga aytiladi (Yo‘ldoshev, 2010, 19-bet).U takrorning bir ko‘rinishi bo‘lib, badiiy nutqni yanada ohangli, ifodali bayon etish uchun qo‘llaniladi. Bu ko‘pincha she‘riy asarlarda uchrab, o‘zaro qofiyadosh, ohangdosh, bir xil so‘zlarning yoki bir xildagi tovush va qo‘shimchalarning takrori asosida vujudga keladi(Lapasov, 1995, 50-bet).

Yo‘q, seni aldagan, birov aldagan,

U seni sevgandir, yo‘q, yo‘q, sevmagan (Йулдош Ешбек, 1998, 8-бет).

Ushbu misrada qo ‘llangan s tovushi takrorning alliteratsiya ko‘rinishida namoyon bo‘lgan.

Anafora deganda so‘z yoki so‘z birikmalarining she‘riy misralar boshida takrorlanishi tushuniladi(Yo‘ldoshev, 2010, 19-bet).

Vijdonsiz nomusli niqobin qo‘ymas,

Vijdonning har dami ruhiy iztirob.

Vijdonsiz xatosiz kunlardan to‘ymas,

Vijdon bu xatodan ulg‘aygan azob (Йулдош Ешбек, 1998, 8-бет).

Anaforaning namunasi ushbu misralarda vijdon va vijdonsiz so‘zining misra boshida takror kelishi orqali aks etgan.

Epifora misralar oxiridagi so‘z yoki qo‘shimchalarning takrorlanishini ifodalaydi(Yo‘ldoshev,2010, 19-bet).

O‘nta mard o‘g‘loning bo‘lguncha yig‘la,

Yuzta mard o‘g‘loning bo‘lguncha yig‘la,

Mingta mard o‘g‘loning bo‘lguncha yig‘la,

Paymonang to‘lguncha, to‘yguncha yig‘la (Йулдош Ешбек, 1998, 8-бет).

Keltirib o‘tilgan bandda leksik takrorning epifora usulidan mahorat bilan foydalanilgan. “Yig‘la” so‘zining takror kelishi she‘rda aytilayotgan fikrni yanada ta’sirchan va jozibali aytishga xizmat qilgan.

Assonans unli tovushlar takroridir(Yo‘ldoshev, 2010, 19-bet).

Beshafqat diydormi og‘ir judolik,

Yo‘qotish tomchilar, topish tomchilar (Йулдош Ешбек, 1998, 8-бет).

Ushbu o‘rinda qo‘llangan o tovushining takrori she‘rga o‘zgacha ohang baxsh etgan.

Takrorlar qo‘llanish o‘rniga ko‘ra gorizontal va vertikal takrorlarga bo‘linadi. Bunday takrorlar, ayniqsa, she‘riy matnlarda o‘ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga ko‘ra ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori, fe‘l takrori kabilarga bo‘linadi(Qurbonova, Yo‘ldoshev, 2014, 32-bet).

Bir og‘ir bog‘ ichra og‘ir qadamlar,

Tashlab kelayotgan og‘irgina qiz (Йулдош Ешбек, 1998, 8-бет).

Ushbu misralarda uch o‘rinda kelgan og‘ir so ‘zi sifat takrori bo‘lib kelgan va she‘rda o‘ziga xos ohangdorlikni yuzaga chiqargan.

Tomchilar ko‘zingdan norasidalik,

So‘zga aylanmagan yonish tomchilar.

Beshafqat diydormi og‘ir judolik,

Yo‘qotish tomchilar, topish tomchilar (Йулдош Ешбек, 1998, 8-бет).

Fe‘l takrorining yorqin namunasi “tomchilar” so‘zi orqali ifodalangan. Uch misrada to‘rt o‘rinda bu so‘zning takrorlanishi she‘rga jozibalilik va ko‘tarinkilik baxsh etgan.

Yo‘q, seni aldagan, birov aldagan,

U seni sevgandir, yo‘q, yo‘q, sevmagan.

Ko‘ksingga chiroyli o‘qlar qadagan,

Birovlar aldagan, birov aldagan (Йулдош Ешбек, 1998, 8-бет).

She‘rda qo‘llangan “seni” va “birov” olmoshining takror qo‘llanilishi she‘r mazmuniga ta’kidlash fikrni yanada kuchaytirib aytish kabi vazifalarni yuklagan.

Bu dunyo aslida aldoqchilardir,

Bu dunyo aslida yig‘layotgan qiz (Йулдош Ешбек, 1998, 8-бет).

“Bu” olmoshi va “dunyo” ot so ‘z turkumidagi so‘zning takroran kelishi she‘rning so‘nggi oxirggi misralaridagi fikrlarning yakunlovchisi bo‘lib xizmat qilgan.

Takroriy birliklar joylashish tartibiga ko‘ra ham tasnif qilinishi mumkin: simmetrik takror va assimmetrik takror. Shuningdek, o‘rtadagi masofaga ko‘ra guruhlashda o‘rinli takror va o‘rinsiz takror farqlanadi. Badiiy asarlarda ma’lum bir fikrning turli shakllarida takrorlanishiga qarab mazmuniy takror turini ham kuzatishimiz mumkin(Qurbonova, Yo‘ldoshev, 2014, 31-32-betlar).

Murojaat birliklari va ularning matn shakllantirishdagi imkoniyatlari.

Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida, nutq jarayonida keng qo‘llaniladigan, o‘zaro aloqa aralashuviga faol xizmat qiladigan, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan ta’sirchan vositadir. Mumtoz badiiyat ilmida murojaat birliklari nido va iltifot san‘ati

doirasida o‘rganilgan. Murojaat birliklari nutqda tinglovchi e‘tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foiydalaniladi. Bunday birliklarda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi turli kommunikativ munosabatlar ifodalangan bo‘ladi(Yo‘ldoshev, 2010, 21-bet).

Men senga talpinib also tolmasman,

Men seni sevaman, yig‘layotgan qiz (Йулдош Ешбек, 1998, 8-бет).

Infinitiv gaplar grammatik asosi harakat nomi bilan ifodalanadigan, yakka so‘z yoki bir necha so‘zdan iborat bo‘lgan birlik(Yo‘ldoshev,2010, 22-bet).

Aldanmoq tilarman senga ko‘p marta,

Aldanmoq dunyoga nazar, anglamoq.

Aldanmoq ko‘z yoshi qilmoq, yo‘q artmoq,

Aldanmoq kurashga otlanmoq, demak (Йулдош Ешбек, 1998, 8-бет).

Bunday gaplar mazmunan ish-harakatni atab, shu munosabati bilan ajablanishni, shodlanishni va shunga o‘xshash holatlarni, shunga bog‘langan hayajonlarni bildiradi.Ushbu misrada qo‘llangan harakat nomi shaklidagi “aldanmoq” so ‘zi ham shu kabi holatlar bilan bevosita bog‘liqdir.

Xulosa

Yo‘ldosh Eshbekning “Yig‘layotgan qiz” she ‘ri takrorlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoir so‘zlarni takror qo‘llash orqali she‘rning ohangdorligi va ta’sirchanligini oshirgan. Birgina she‘rda takrorning bir necha ko‘rinishlarining qo‘llanilishi shoirning yuksak so‘z qo‘llash mahoratidan darak beradi.Takror vositasi shoir she‘riyatining g‘oyaviy pishiqligi, badiiy mukammalligi Yo‘ldosh Eshbek ijodining o‘ziga xosligi bilan ifodalanadi. She‘r boshidan oxiriga qadar turli o‘rinlarda kelishi orqali shakllantirilgan. Badiiy takrorlar she‘rda ohangdoshlik ta’minlagan, ta’sirchanlikni oshirgan, mo‘jizaviy ma’no yuklagan. Takrorlar tasvirning ifodaliligini oshirgan, mazmun va shakl uyg‘unligini hosil qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Lapasov, J. (1995). Badiiy matn va lisoniy tahlil. Toshkent: “O‘qituvchi”

2.Qurbonova, M, Yo‘ldoshev, M. (2014). Matn tilshunosligi. Toshkent: “Universitet “.

3.Yo‘ldoshev, M. (2010). Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.

4.Йулдошев, М. (2008). Бадиий матн лингвопоэтикаси. Тошкент.

5.Йулдош Ешбек.(1998). Яхшиликка карайман.Узбекистан ЛКСМ Марказий Комитети “Ёш гвардия“ нашриёти.

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE’RLARIDA BADIIY MATN QISMLARINI BOG‘LOVCHI VOSITALARNING QO‘LLANILISHI.

Jo‘rayeva Hilola Orifxon qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs
hilolajurayeva2005@gmail.com
Ilmiy rahbar: Davronova Zarnigor

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy matn qismlarini bog‘lovchi vositalar va ularning qanday maqsadlar bilan matn tarkibida qo‘llanilishi xususida ma’lumotlar berildi. Abduvali Qutbiddin she’rlarida qo‘llanilgan matn tarkibini bog‘lovchi birliklar shoirning bir necha she’rlari misolida tahlil qilindi. Takror qo‘llanuvchi birliklarga alohida to‘xtalindi va tegishli misollar asosida ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *Takror qo‘llanuvchi birliklar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, nominativ gaplar, murojaat birliklari, alliteratsiya, assonans, anafora, epifora.*

Abstract. *In this article, information was given about the means of connecting parts of the artistic text and what purposes they are used in the composition of the text. The connecting units used in the poems of Abduvali Qutbiddin were analyzed on the example of several poems of the poet. Re-usable units are highlighted and discussed based on relevant examples.*

Keywords: *Repetitive units, units expressing time and space, nominative sentences, reference units, alliteration, assonance, anaphora, epiphora.*

Matnda gaplar o‘zaro turli sintaktik aloqa vositalari yordamida birikadi. Ularga takroriy birliklar, olmoshlar, xiazmatik konstruksiyalar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so‘zlar kabi turli leksik-grammatik birliklar kiradi (M.Yo‘ldoshev, Z.Isaqov, Sh.Haydarov.2010.16-bet).

Tilshunos olim A.Mamajonov matn komponentlari o‘rtasida mustahkam sintaktik aloqa mavjudligini ta’kidlaydi va bu aloqaning o‘ziga xosligini “Tekst lingvistikasi” deb nomlangan risolasida izohlab o‘tadi (M.Qurbonova, M.Yo‘ldoshev.2014.28-bet).

Badiiy matn qismlarini bog‘lashda takror qo‘llanuvchi birliklar, parsellyatli tuzilmalar, nominativ va infinitiv gaplar, murojaat birliklari kabi vositalarning alohida ahamiyati bor. Ushbu vositalarni badiiy matn tarkibida qo‘llash orqali shoir yoki yozuvchi o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlaydi, aytmoqchi bo‘lgan fikrni yanada ta’sirchan ifodalab beradi. Bunday vositalar ko‘plab ijodkorlar asarlarida qo‘llanilib kitobxonga emotsional-ekspressivlikni bag‘ishlaydi. Misol uchun, istiqlol davri adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Abduvali Qutbiddin she’rlarida qo‘llangan bog‘lovchi vositalarni tahlil qilish misolida ushbu vositlarning nutqni teran, batafsil ifodalab bera olish imkoniyatlarini ko‘rishimiz mumkin.

Takrorlar yordamida birikish. Birinchi gapda qo‘llangan ayrim affikslar, so‘z, so‘z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo‘llanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta’kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi (M.Yo‘ldoshev, Z.Isaqov, Sh.Haydarov.2010.118-bet).

Xiyla kech tushibdi sevaylik desak,
Bizga olako‘zroq xiyla zamona.
Xiyla sen ham biroz qahrli ertak,
Xiyla men ham biroz chala devona.

https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduvali-qutbiddin-sherlar-nayson-va-xayol-kechasi-toplamlari.html

Shoir ushbu misralarda “xiyla” so‘zini takrorlash orqali badiiy matnda ta’kid, tasdiq ma’nolarini ifodalagan deyishimiz mumkin va u bu yo‘l bilan she’rning ta’sirchanligini yanada yaxshiroq ifodalab bergan.

Takrorning bir necha ko‘rinishlari bor, ular ham matn tashakkulida uslubiy vazifa bajaradi: alliteratsiya, assonans, anafora, epifora kabilar.

1.Alliteratsiya deb undosh tovushlarning uslubiy maqsadlarda takrorlanishiga aytiladi: (M.Yo‘ldoshev, Z.Isaqov, Sh.Haydarov.2010.28-bet)

Bu dunyoda topganim halol,

Burda nonim, umrim va yana,

Bu dunyoda topinganlarim

Bo‘ldi vatan va yana onam!

https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduvali-qutbiddin-sherlar-nayson-va-xayol-kechasi-toplamlari.html

Ushbu parchani o‘qigan o‘quvchi har bir misraning “B” harfi bilan boshlanayotganiga alohida e’tibor qaratadi. Shoir aynan shu alliteratsiya hodisasi bilan she’rxonga o‘zgacha zavq-shavq hissini uyg‘otadi.

2. Assonans. Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional-ekspressivlik bag‘ishlash maqsadida qo‘llaniladigan fonetik usullardan biridir. Adabiyotlarda assonans aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladigan ohangdoshlik ekanligi bayon qilingan (M.Yo‘ldoshev, Z.Isaqov, Sh.Haydarov.2010.18-19-betlar)

Yuzing burishtirma, mening bu yuzim,

Bosganman goh kishan, goh tikanlarga.

Ichgan bo‘lsam ichdim, hayrat qimizin,

Ezildim ezilib ezilganlardan.

https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduvali-qutbiddin-sherlar-nayson-va-xayol-kechasi-toplamlari.html

To‘rtinchi misradagi har bir so‘zning “E” harfidan boshlanishi assonansni hosil qilgan va bu hodisa bilan shoir o‘z uslubiy maqsadini ifodalagan.

O‘quvchining diqqatini jalb eta olgan va aynan shu misra tufayli she’rni yanada ifodali tasvirlab bera olgan.

3. Anafora. Anafora deganda so‘z yoki so‘z birikmalarining she’riy misralar boshida takrorlanishi tushuniladi. (M.Yo‘ldoshev, Z.Isaqov, Sh.Haydarov.2010.19-bet)

Hech kim suygan emas, meni senchalik,

Hech kim sevgan emas meni yurakdan

Hech kim to‘kilmagan sendek elanib,

Hech kim to‘kilmagan sendek elakdan.

https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduvali-qutbiddin-sherlar-nayson-va-xayol-kechasi-toplamlari.html

She’riy parchaning har bir misrasi “hech kim” so‘zi bilan boshlanib, anaforani yuzaga keltirgan. Ushbu hodisa orqali shoir she’rni yanada go‘zal tasvirlab bergan deb ayta olamiz. Shu bilan birga misralarga ta’kid ma’nosini yuklaganini ham ko‘rishimiz mumkin.

4. Epifora. Epiforada esa misralar oxiridagi so‘z yoki qo‘shimchalarning takrorlanishi nazarda tutiladi (M.Yo‘ldoshev, Z.Isaqov, Sh.Haydarov.2010.19-bet).

Urf-u rusumingdan boshlagan edim,

Eski do‘koningni xushlagan edim,

Dur-u marjoningni ushlagan edim,

Oqibat manglayim mushtladim, quyosh,

Biror bor boshimga tekkizmading bosh.

https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduvali-qutbiddin-sherlar-nayson-va-xayol-kechasi-toplamlari.html

She’riy parchaning dastlabki uch misrasi va oxirgi ikki misrasi o‘zaro ohangdosh so‘zlar bilan yakunlangan. “boshlagan”, “xushlagan”, “ushlagan” so‘zlari aynan bir xil qo‘shimchalar bilan, “quyosh” va “bosh” so‘zlari mos ohang bilan yakun topib, epiforani hosil qilgan va o‘z navbatida emotsional-ekspressivlikni vujudga keltirgan vosita bo‘lib kelgan.

Zamon va makon ifodalovchi birliklar yordamida ham matnni shakllantirish va uning komponentlarini bog‘lash mumkin. Badiiy asardagi voqea-hodisalar muayyan vaqt asosida ro‘yobga chiqadi (M.Yo‘ldoshev, Z.Isaqov, Sh.Haydarov.2010.19-bet)

Qip-qizil turnani kutdim o‘ttiz yil,

Yechay deb bo‘ynidan billur halqani

Otamga shifolar so‘rdim o‘ttiz yil

Rahm qani?

Shafqat qani?

https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduvali-qutbiddin-sherlar-nayson-va-xayol-kechasi-toplamlari.html

Ushbu she’riy matnning shakllanishida vaqt ma’noli birligining alohida xizmati bor. Birinchi va uchinchi misrada qo‘llanilgan “o‘ttiz yil” birikmasi matndagi xronologik ketma-ketlik, izchilliklni aks ettirib kelgan. Faqat badiiy asardagi vaqt tushunchasi real hayotdagi vaqt muntazamligidan farq qilishi mumkin.

Nominativ gaplar ham matnni shakllantiruvchi sintaktik birliklar hisoblanadi. Atov gaplar biror narsa-buyumning mavjudligini tasdiqlaydi yoki ko‘rsatadi. Ular matnda yolg‘iz qo‘llanmaydi, ulardan keyin atov gap mazmunini ochuvchi, tavsiflovchi boshqa gap yoki gaplar keltiriladi (M.Yo‘ldoshev, Z.Isaqov, Sh.Haydarov.2010.21-bet)

Qabriston…

Bobom qabri…

Salom, sukutga cho‘mganlar…

Suv pufaklar yorilayotgan buloq…

Illatlardan holi baliqlar…

Vaqt ekkan chinor…

Bobom tinchmikin…

https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduvali-qutbiddin-sherlar-nayson-va-xayol-kechasi-toplamlari.html

Shoirning ushbu she’ri misolida atov gapning badiiy matn hosil qilishda qanchalik ahamiyatli ekanini ko‘rishimiz mumkin. Birgina “qabriston” leksemasidan so‘ng lirik qahramon xayolida bobosining qabri va shu bilan bog‘liq hodisalar gavdalandi. Natijada go‘zal she’riy matn hosil bo‘ldi.

Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida, nutq jarayonida keng qo‘llaniladigan o‘zaro aloqa aralashuviga faol xizmat qiladigan, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan, o‘zida turli modal ma’nolarni tashiydigan o‘tkir, ta’sirchan vositadir (M.Yo‘ldoshev, Z.Isaqov, Sh.Haydarov.2010.21-bet)

Sen mangu ketguvchi,
Men mangu daydi,
Selday oqavergum qayroqlar urib.
Sen araz urguvchi,
Men esa g‘araz,
Kelgin, yashaylik bir bora, hurim.

https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduvali-qutbiddin-sherlar-nayson-va-xayol-kechasi-toplamlari.html

Ushbu misralarni o‘qishimiz bilan ikkinchi shaxsga murojaat sezilib turadi. Aynan shu murojaat shakli ham badiiy matnning shakllanishida, uning yaxlit kompozitsion butunligini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega vositadir. Umuman olganda, yuqorida ko‘rib o‘tilgan vositalarning bari badiiy matn yaxlitligini ta’minlashda ishtirok etadigan zarur birliklar hisoblanadi. Shu sababli ko‘plab shoir va yozuvchilar o‘z asarlarida bu vositalardan turli uslubiy maqsadlarda foydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Yo‘ldoshev, Z.Isaqov, Sh.Haydarov (2010). “Badiiy matnning lisoniy tahlili” Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent.
2. M. Qurbonova, M.Yo‘ldoshev (2014) “Matn tilshunosligi” Toshkent

3. Abduvali Qutbiddin hayoti, faoliyati, asarlari, she'rlari tahlili, mukofotlari haqida ma'lumot. https://baxtiyor.uz/abduvali-qutbiddin-haqida-ma-lumot/

4. Abduvali Qutbiddin. She'rlar. "Nayson" va "Xayol kechasi" to'plamlari. Xurshid Davron kutubxonasi. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduvali-qutbiddin-sherlar-nayson-va-xayol-kechasi-toplamlari.html

5. Maxmudova Kamola Bolbekovna (2023) "Abduvali Qutbiddin she'riyatida milliy qadriyatlar" Journal of Universal Science Research 1 (3)

ILMIY USLUB VA ILMIY MATN TUSHUNCHALARINING NAZARIY VA AMALIY TAHLILI

Mahmudova Guliruxsor Bahriddin qizi
NamDU magistranti mahmudovaguliruxsor1995@mail.ru
Ilmiy rahbar: Hakimov Muhammadjon
FarDU Filologiya fanlari doktori professor

Annotatsiya. *Maqolada ilmiy uslub va ilmiy matn tushunchalarining nazariy va amaliy tahlili . Hamda ilmiy uslubning fonetik, leksik xususiyatlari, ilmiy uslubning asosiy vazifasi — tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini, muayyan fikrning mantiqiy isbotini aniq ta'riflash haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar. *Uslub, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub, leksik xususiyat, fonetik xususiyat, morfologik xususiyat, janr xususiyati.*

Abstract. *Theoretical and practical analysis of scientific method and scientific text concepts in the article. The phonetic and lexical features of the scientific method, the main task of the scientific method - to clearly describe the phenomena of natural and social life, and the logical proof of a certain idea are also discussed.*

Keywords. *Style, formal style, scientific style, journalistic style, artistic style, lexical feature, phonetic feature, morphological feature, genre feature.*

Alohida vazifaga egaligi bilan ajralib turuvchi ilmiy nutq uslubi haqida tilshunos A.J.Omonturdiyev to'g'ri ta'kidlaganidek, ilmiy uslubning asosiy vazifasi biror fikrni aniq ta'riflashga qaratilgan: " Nutq uslublari tizimini tashkil etuvchi vositalarning bir-biri bilan o'zaro aloqasi ayni shu nutq uslubining asosiy vazifasidan kelib chiqadi. Masalan, ilmiy uslubning asosiy vazifasi — tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini, muayyan fikrning mantiqiy isbotini aniq ta'riflash va izohlashdan iborat.

Ilmiy uslubning mantiqiy xarakteri uning leksik-frazeologik va grammatik xususiyatlarida o‘z ifodasini topadi”(1).

Ilmiy uslub haqida “O‘zbek tili stilistikasi” kitobida quyidagi fikrlar keltirilgan: “Ilmiy nutq uchun fikrni aniq, logik izchillik bilan ifodalash xarakterlidir. Bunda isbot va xulosa, konkret material va uni umulashtirish, sabab va natija munosabatlari o‘zaro bog‘liq holda ifodalanadi”(2). Bu fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, ilmiy uslubda fikrlar aniq, xulosa tugal tarzda beriladi, sabab-natija munosabati esa bog‘liq tarzda bo‘ladi. Bu esa ilmiy matnning mukammal shaklini hosil qiladi.

Ilmiy uslubning asosi terminlar (atamalar) bilan bog‘liqligi haqidagi fikrlarni ko‘plab tilshunoslar qayd etib o‘tishgan. Xususan, Shomaqsudov ilmiy stil haqida batafsil yoza turib shunday fikrlarni o‘rtaga tashlaydi: “Ilmiy uslub ilmiy terminologiya bilan bevosita bog‘liq. Ilmiy terminlar ilmiy uslubning leksikasini tashkil qiladi. Lekin ilmiy asarlar tili faqat terminlardangina tashkil topmay, unda abstrakt leksika va ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega bo‘lgan umumxalq so‘zlari ham keng qo‘llanadi. Mazkur uslubda yana fanning turli sohalariga oid simvol va belgilar, raqamlar ham ishlatiladi”(3). Mazkur fikrlar ilmiy uslub haqidagi o‘rinli fikrlardir. Boisi, bulardan biz ilmiy uslubning ikki xususiyati bilan tanishamiz, ya’ni ilmiy uslub deganda ayrimlar faqat terminlar bilan faol ishlashni tushunadi. Ammo bu biryoqlama masala. Ilmiy uslubda terminlardan tashqari ko‘p ma’noli so‘zlar hamda qo‘llanish doirasi chegaralanmagan so‘zlardan ham foydalaniladi. Bu esa ilmiy uslubning shakllarida namoyon bo‘ladi. Ilmiy uslub o‘zida faqat ilmiylikni, mantqiqiylikni ko‘rsatish barobarida ularni oddiy kishilarga ham tushunarli shaklda ifodalashga ham xizmat qiladi. Bularni isboti tarzida tilshunos S.Sultonsaidovaning ilmiy uslubning turlari va ularga berilgan tavsiflarni keltirish o‘rinlidir: “Ilmiy uslub bir necha xilga bo‘linadi: ilmiy-texnikaviy, ilmiy-ommabop, ilmiy-o‘quv, ilmiy-publitsistik va ilmiy-hujjat stillari. Ilmiy-texnikaviy stilda ilmiy maqola, ma’ruza va monografiya, disertatsiya yoziladi. Ilmiy-ommabop stilda axborot ommabop tarzida ilmiy jihatdan tushuntiriladi. Bunda ma’lumot sof ilmiylikdan biroz soddalashtiriladi va har bir sohaning ilmiy yutuqlari ommaga ma’lum so‘zlar bilan bayon qilinadi.

Ilmiy-o‘quv stilida darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, uslubiy qo‘llanmalar va uslubiy maqolalar yoziladi. Ular o‘quvchilar uchun tushunarli so‘zlar bilan ilmiy jihatdan bayon qilinishi kerak. Ilmiy-publitsistik stilda ommabop risolalar, ilmiy-ommabop maqolalar yoziladi. Ularda ilmiy terminlar bo‘lishi bilan birga ommaning hissiyotiga ta’sir qiladigan so‘zlar ishlatiladi. Ilmiy-hujjat stilda ixtiro uchun olinadigan hujjat yoki unga tegishli adabiyotlar tasvirlanadi. Bunday hujjatlarda ilmiy axborot to‘g‘risida ma’lumot beriladi va u huquqiy jihatdan himoya qilinadi”(3).

O‘zbek ilmiy stilida obrazli nomlarning o‘rni juda ahamiyatli ekanligini ta’kidlab o‘tgan Xalilova esa ilmiy uslub leksikasining emotsional va obrazli bo‘yoqqa ham ega bo‘lishini quyidagi atamalar vositasida ochib beradi: oq tuproq, qora tuproq, qizil tuproq, sariq tuproq, qo‘ng‘ir tuproq, sho‘rtuproq, vulqon gumbazi, vulqon o‘chog‘i .., kabi . Ammo shuni ta’kidlash ham kerakki, badiiy uslubdagi obrazlilik bilan bu obrazli so‘zlar qo‘llanishi o‘rtasida farq katta. Badiiy uslubda ular emotsional tas’ir uchun xizmat qilsa, ilmiy uslubda ma’lum narsaning nominativ nomini bildiradi(4). Bu fikrlardan ko‘ramizki, yuqoridagi kabi bir qancha so‘z va so‘z birikmalari ham ilomiy uslubning asosiy vazifasi bo‘lgan biror bir masala yuzasidan ilmiy fikr, mantiqiy mulohaza berishga xizmat qilmoqda, ular uslubiy bo‘yoqqa ega so‘zlar bo‘lsa-da, ilmiy uslubning asosiy vazifasidan uzoqlashmagan holda qo‘llanmoqda.

Ilmiy uslubning ko‘rinishlarini soddaroq shaklda bergan Omonturdiyev uni ilmiy maqola, risola, dissertatsiya, monografiya va ma’ruza kabi turlarga bo‘lib beradi: “ Ilmiy uslub fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘ladi. Shunga ko‘ra o‘ziga xos vazifa bajaradi. Ilmiy nutq asosan, ilmiy ishlar nutqi bo‘lib, uning aniq ko‘rinishlari ilmiy maqola, ilmiy risola, dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy ma’ruzalar shaklida namoyon bo‘ladi”(5).

Sh.Shomaqsudov ilmiy uslub bo‘yicha bir qancha fikrlarni keltirish barobarida ilmiy stilning grammatik qurilishi mantiqiy bog‘liqlikni, izchillikni, sintaktik aniqlikni talab qilishini, shuning uchun ilmiy stilda ellipsis (nazarda tutilgan birorta so‘zning tushib qolishi) hodisasining ahamiyatsiz ekanligini aytib o‘tadi.

Ilmiy uslubning fonetik, leksik xususiyatlari haqida S.Sultonsaidova fikr bildirib quyidagi xulosalarga keladi:

1. Ilmiy stil fonetik xususiyatlarga ega emas. Chunki ilmiy stil adabiy me'yor asosida yoziladi.

2. Fan, texnika, san'at, siyosat, diplomatiya sohalarida borliqni mantiqiy jihatdan bilishga qaratilganligi sababli so‘z va terminlarning nihoyatda ravshan va aniq bo‘lishi talab qilinadi. Lekin ular qayta-qayta takrorlansa, bir xillikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun olimlar oldida ilmiy bayonning xususiyatiga ziyon yetkazmaydigan va uning jonli hamda ta'sirchanliligini ta'minlaydigan terminlarning sinonimik variantlarini topish masalasi turadi.

3. Ilmiy matnda tushunchalarning ifodasi muhokama, munozara va xulosalar shaklida bo‘lib, ular qat'iy mantiqiy izchillikka asoslangan bo‘ladi. Bu stilda mantiqiylik eng asosiy belgi bo‘lsa-da, fikr qat'iy dalillanishi kerak. Tahlil va sintez bir-biridan ajralmagan holda qo‘llaniladi, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. Shu orqali qonuniyatlar ochiladi(6).

Sh.Shomaqsudov esa ilmiy stilning sintaktik xususiyatlari tadqiqi davomida quyidagicha sintaktik xususiyatlarni sanab o‘tadi:

1.Ilmiy ifodada izchillikni ta'minlovchi muayyan so‘z tartibiga amal qilish muhimdir. Bunda o‘zbek adabiy tilining grammatik qurilishi talablariga rioya qilinadi.

2. Ilmiy nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri unda qo‘shma gap, uning murakkab tiplarining qo‘llanishidir.

3. Ilmiy tekstlar uchun to‘liq gaplar xarakterli. Bunda to‘liqsiz gap fikrning aniqligiga putur yetkazadi(6).

Yuqoridagi bir qancha fikrlardan kelib chiqib, ilmiy uslubning asosiy xususiyatlari sifatida biz atamalarning ushbu uslub doirasida keng tarzda qo‘llanishini keltira olamiz. Bundan tashqari ushbu uslubning xususiyatlari sifatida quyidagilarni ham keltirish mumkin:

1. Ilmiy uslubda yozilgan matn mantiqiy jihatdan bog‘liq, izchil, aniq tarzda ifodalanadi. Unda tasviriy vositalar qo‘llanmaydi.

2. Ilmiy stildagi matnda fe’llar majhul va aniq nisbat shakllarida ifodalanib, ular emotsionallikdan holi bo‘ladi.

3. Ilmiy matndagi gaplar orasida biriktiruvchi, zidlov, ayiruv bog‘lovchilari qo‘llanadi.Fikrlarga munosabat tarzda qo‘llanuvchi binobarin, fikrimizcha, jumladan, ya’ni, masalan, xullas, demak, chunonchi kabi bir qancha so‘z va so‘z birikmalari qo‘llanadi.

4. Ilmiy tadqiqot ishlarida esa tasniflashlarda raqamlardan, grafik chizmalardan ham keng foydalaniladi.

5. Ilmiy matnda murakkab gaplar, to‘liq gaplardan ko‘proq foydalaniladi. Bularning bari matnning mantiqiy izchilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

6. Ilmiy matn o‘zbek adabiy tilining grammatik qurilishiga to‘liq rioya etgan holda yoziladi.

7. Muallif individualligining kam sezilarli bo‘lishi ham ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darslik, o‘quv qo‘llanmasi, o‘quv-metodik qo‘llanma, dastur, ma’ruza matnlari, taqriz va referat singarilar uning ana shu janr ko‘rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma’lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me’yoriga ko‘ra umumiylikni tashkil etadi.

Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari to‘g‘risida M.Mukarramovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining ilmiy stili” monografiyasida quyidagi fikrlar bayon qilingan: “Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda me’yor sifatida e’tirof etilgan grammatik ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. So‘z turkumlaridan ot faol, ko‘pincha takror qo‘llanadi. Subyektiv baho shakllari xos emas. –lar ko‘plikdan boshqa semantik-uslubiy ma’nolarni ifodalamasa-da, atama hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiy egalik ustun turadi, I-II shaxs qo‘shimchalari ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol. Undov va taqlid so‘zlar ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan”.

Ilmiy nutq uchun deyiladi, aytiladi, yoritiladi, bayon qilinadi, aniqlanadi, tekshiriladi, foydalaniladi, ta’riflanadi singari xoslangan fe’llar mavjud. Fe’lning

majhul daraja shakli ham bu uslub uchun xos. Ammo hozirgi-kelasi zamon shaklidan tashqari xarakterli zamon ko‘rsatkichi yo‘q. Kishilik olmoshlari kam qo‘llaniladi. Bu gap faqat muallif va men ma’nolarida qo‘llaniladigan hamda kamtarlik ma’nosini ifodalaydigan biz olmoshiga tegishli emas.

M.Mukarramov ushbu monografiyasida “Adabiy tilning konkret ko‘rinishlari bo‘lgan so‘zlashuv, badiiy, publisistik, rasmiy-hujjat va ilmiy nutqlarning real mavjudligini tan olsak, u vaqtda har bir nutq turining o‘z modal ma’no ifodalovchi so‘zlarini ham tan olishimizga to‘g‘ri keladi” degan mulohazani aytib, demak, xullas, darhaqiqat, haqiqatan, shubhasiz, albatta, darvoqye, masalan, jumladan, ayniqsa, xususan, aksincha, afsuski singari modal so‘zlar va modal ma’no anglatuvchi boshqa birliklarni tahlil qilgan.

Shu tarzda ilmiy uslubning ammo, lekin kabi o‘z bog‘lovchilari, bilan, uchun, kabi, singari, haqida, to‘g‘risida, tufayli, sababli, doir, oid, binoan, tashqari, qaraganda, asosan, muvofiq, qadar singari ko‘makchilari borligini ham qayd qilish to‘g‘ri bo‘ladi.

Ilmiy uslubda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi hamda bayonning tabiatidan kelib chiqib, bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol. Undov, atov gaplar qo‘llanilmaydi, nutq monologik xarakterda bo‘ladi. Rasmiy uslubdagiga o‘xshab gap tuzilishining odatdagi tartibi qo‘llaniladi. Qo‘shma gap faol ishlatiladi. Darak gap asosiy mavqyeni egallaydi, so‘roq va buyruq gaplar deyarli qo‘llanilmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tilimizdagi barcha uslublar qatori ilmiy uslub ham o‘zining ma’lum vazifasini bajaradi va mana shu vazifani bajarish davomida yana ham yangi izlanishlarni payo qiladi. Sababi fanning turli sohalarida yoziladigan matnlarning har biri o‘ziga xos o‘rganishga, izlanishga muhtoj. Bu esa tilshunoslar oldiga katta vazifa yuklaydi.

Matnga G‘arb tilshunoslari tomonidan berilgan ta’rifda gaplarning ketma-ket bog‘lanishi, gaplar zanjidi matnda asosiy jihat ekanligi, busiz matn yuzaga kela olamasligi ta’kidlab o‘tilgan. Matnga ta’rif berilganda ikki jihatga asosiy e’tiborni qaratish joiz, bog‘lanishlilik va yaxlitlik. Bu ikki jihat gaplar ovrtasida va gaplarning

mazmuniy-grammatik birligi asosida yuzaga keladi. Tilshunoslikda matnning turli xususiyatlariga ko‘ra har xil turlari mavjud. Matn tiplarini belgilashda nutq uslublarining ham ahamiyati katta. “Matn tiplarini belgilashdagi yana bir omil-nutqning funksional uslublaridir. Bu o‘rinda matn lingvistikasining asoschilaridsn biri nemis tilshunosi R.Xarvegning “Uslub-bu matn tuzish usulidir” degan gapini esga olish mumkin. Ayni paytda I.R.Galperin ham stilistik vositalar bilan bir qatorda matnlarning tipologik tasnifi lingvostilistikaning predmeti bo‘lishi zarur ekanligini ta’kidlaydi”. Bunda u albatta, har qanday matnning u yoki bu funksional uslubga xos bo‘lishini nazarda tutgan. Tabiiyki, uslub matnning yashash tarzi, mavjudlik shaklidir”(7). Bu fikrlar bilan olim har bir uslubning o‘ziga xos shakli va tartibiga ega matnlarning mabjudligini sanab o‘tadi va uslublarga tayanga holda matnning quyidagi beshta turini keltirib o‘tadi:

“1)spontan-so‘zlashuv matni (oldindan tayyorgarliksiz amalga oshirilgan og‘zaki suhbat), 2) rasmiy hujjat matni (qonun, farmon, qaror, buyruq, ma’lumotnoma, tarjimayi hol kabi), 3)ilmiy matn (monografiya, dissertatsiya, ilmiy maqola, darslik, o‘quv qo‘llanmasi, tezis, ma’ruza kabi) 4) publitsistik matn (ijtimoiy-siyosiy mavzudagi maqolalar, ocherk, gazeta materiallari kabi), 5) badiiy matn (roman, hikoya, she’r, doston, pyesa kabi)”. Bu tasnifga tayanib ilmiy matnning ta’rifini keltirib o‘tish lozim.

Ilmiy matn - bu his qilish va baholash uchun tegishli malakaga ega bo‘lgan kishilar doirasi uchun yaratilgan tadqiqot faoliyati natijasidir. Buni iloji boricha informatsion qilish uchun muallif yozma tilni, maxsus vositalarni va materiallarni taqdim etish usullarini qo‘llaydi. Ko‘pincha, ilmiy matn - nashr etilgan yoki chop etishga mo‘ljallangan ish bo‘ladi. Ilmiy rejaning matnlari og‘zaki taqdimot uchun maxsus tayyorlangan materiallarni, masalan, konferensiya yoki akademik ma’ruza hisobotini o‘z ichiga oladi.

Ilmiy matn bu ma’lumot fanning tamoyillari va usullari bilan olingan yozma hujjat. Rasmiy va obyektiv so‘zlar bilan yozilgan, chunki uning asosiy maqsadi ma’lumot berishdir.

Ushbu turdagi matnda uzatilgan xabarning haqiqiyligi tekshirilishi kerak. Unda batafsil bayon qilingan har bir narsani yuqori darajadagi ishonchga ega manbalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Yozuvning ushbu turida ilmiy metod tushunchalariga rioya qilish juda muhimdir. Xulosalar gipotezani tekshirish yoki rad etishga xizmat qiladi va bunga aniq va aniq erishish kerak.

Ilmiy matnlarning barchasida maslahat manbalarining mualliflik huquqi hurmat qilinishi kerak. Xuddi shu tarzda, nashrni yoki ma’lumot olingan joyni aniq ko‘rsatib berish juda muhimdir. Shu tarzda, o‘quvchilar taqdim etilgan g‘oyalarni tasdiqlashlari, e’tiroz bildirishlari yoki kengaytirishi mumkin.

Kasbiy leksika bilan ifodalash - ilmiy tilda aniqlikka erishish uchun eng samarali usuldir. Ilmiy matnda muallif o‘z nuqtai nazarini bildirishdan va tadqiqot doirasida aktyor sifatida ko‘rinishdan qochadi. Shu sababli ilmiy matnlarni yozishda passiv ovoz va shaxssiz ifoda shakllari ustunlik qiladi. Ilmiy uslubning har bir matnida qurilishning o‘ziga xos mantiqi mavjud bo‘lib, u tuzilish qonunlariga mos keladigan aniq bir shaklga ega. Odatda tadqiqotchi quyidagi sxemaga rioya qiladi:

1.Muammoning mohiyatiga kirish, uning dolzarbligi va yangilanishi;

2.Tadqiqot mavzusini tanlash (ba’zi hollarda obyekt);

3.Maqsadlarni belgilash, muayyan vazifalarni bajarish davomida hal qilish;

4.Tadqiqot mavzusiga har qanday tarzda ta’sir etadigan ilmiy manbalarni ko‘rib chiqish, ish uchun nazariy va uslubiy asoslarni tavsiflash;
5.Terminlarning asoslanishi;

6.Ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyati;

7.Ilmiy ishning mazmuni;

8. Eksperimentning tavsifi, agar u amalga oshirilsa;

9.Tadqiqot natijalari, uning natijalari bo‘yicha tuzilgan xulosalar.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, ilmiy uslub va ilmiy matnlar inson hayotida, fan turli yo‘nalishlarida o‘zining katta ahamiyati bois izlanishlarga, tadqiqotlarga asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonturdiyev A.J. Abduraimova Sh.I. (2016) O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. –Toshkent, 38-bet

2. Shomaqsudov A. va boshqalar. (1983) O‘zbek tili stilistikasi. –Toshkent. “O‘qituvchi”, 144-bet

3. Shomaqsudov A. va boshqalar. (1983) O‘zbek tili stilistikasi. –Toshkent. “O‘qituvchi”, 24-bet

4. Sultonsaidova S. (2009) O‘zbek tili stilistikasi. –Toshkent, 20-bet

5. Xalilova M. (2009) O‘zbek tili stilistikasi asoslari. “Farg‘ona”. 49-bet

6. Omonturdiyev A.J. Abduraimova Sh.I. (2016) O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. –Toshkent, 46-bet

7. Sultonsaidova S. O‘zbek tili stilistikasi. (2009) –Toshkent, 22-bet

8. Shomaqsudov A. va boshqalar. (1983) O‘zbek tili stilistikasi. –Toshkent. “O‘qituvchi”, 144-bet

9. Yo‘ldoshev M. (2008) Badiiy matn lingvopetikasi. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 86-bet

DEVELOPMENT OF PHONOSTYLISTIC COMPETENCE FOR LEARNING IN ENGLISH LANGUAGE

Mirkomilova Nazokat Mirkhalilovna,
Student of TSUE Faculty: Corporate Governance,
Group:Banking and Audit(BDA-68)
mirkomilova.nazokat@mail.ru,
Senior teacher of TSUE: Eshmatova Yulduz (Phd)

Abstract. The article is devoted to the progress of professionally oriented approaches to teaching of phonostylistic capability at English classes. Common necessities to knowledge and skills of the professionally preoccupied with language competence and strategies of its enhancing in the higher education are defined.

Keywords: Linguistic competence, phonetic aspect, communication, phonostylistic education, linguist-teacher, intonation, sound.

Annotatsiya. Maqola ingliz tili darslarida fonostilistik qobiliyatni o‘qitishda professional yo‘naltirilgan yondashuvlarning rivojlanishiga bag‘ishlangan. Oliy

o‘quv yurtlarida til malakasi va uni takomillashtirish strategiyasi bilan mashg‘ul bo‘lgan kasbiy bilim va ko‘nikmalarga bo‘lgan umumiy ehtiyojlar aniqlanishi keltirib o`tilgan.

Kalit so‘zlar: Lingvistik kompetentsiya, fonetik jihat, aloqa, fonostilistik ta’lim, tilshunos-o‘qituvchi, intonatsiya, tovush.

Introduction

Nowadays, the pronunciation side of pedagogical speech is increasingly being criticized. In this regard, the relevance of the consideration of problems related to the formation of phonostilistic competence of a foreign language teacher. According to scientists, phonostylistic competence is a multicomponent system of knowledge, skills, and abilities related to rhythmic-intonational expressiveness of speech and characterized by mastery of phonetic, prosodic, and functional-stylistic aspects of language.

General statistics about the phonostylistic, value of this term. Tempo of speech and attention paid to speech as criterion of understanding of speech and the main types of phonostylistic processes. Phonostylistics in a second language, it’s problems. The term phonostylistics stands for the phonological processes conditioned by style, i.e. style-sensitive or style-dependent ones. A scale of styles may be set up in a variety of ways, still it is generally encompassed within the extremes of emphatic vs. informal, with formal in between. The term style is used in sociolinguistics to refer to «the variation that occurs in the speech of a single speaker in different situational contexts» (Cheshire 1992: 324). The variants come from a single language or dialect, «though it is recognized that the same social and psychological principles govern switching of language, of dialect, and of style» (Cheshire 1992: 324). Situational contexts are typically described in terms of relative formality. The factors triggering stylistic variation have been identified as topic, setting and relationship between interlocutors (Hymes 1974). The argument is that during the first half of the 20th century linguists have shown interest in written form of the language and so the emphasis in language study was laid on analyzing written speech. It is only during the last 50 years that the situation has

changed. It may be said that it was the invention of the tape-recorder and other technical aids that was the real turning point in phonetics and linguistics in general.

English language teachers' professional competences. In accordance with the competence approach to the professional education of foreign language educators, we regard the proficient foreign language competence as the fundamental one taking into account its multiple-aspect content. Among its constituents, the emphasis is put on building the following core ones: cultural and linguistic competences, linguistic and didactic competences, social and educational competences, professional and educational competences.

Why is it so necessary for phonetic aspect of the language that is in the focus of our attention? Although it may seem "an old concern" and "the least culturally loaded", today the perception of this subject is different. The phonetic material of a language can be viewed as a source of cultural information, especially ethical norms and performance patterns. So, the purpose of the paper is to show that studying a foreign language phonetics can be treated as a means of the formation of the linguistic sociocultural competence and also to illustrate the way we embody these principles in developing a student's personality with wide world outlook, critical thinking, contextual guess, culture of conversation and appropriate behavior. All this enables a student to become a full-fledged participant of cross-cultural communication in social, cultural, educational and professional spheres carried out in a foreign language.

M.A.Sokolova grounds her classification on intonation and singles out such intonation styles are as follows:1. Informal style. (Conversational/Familiar.); 2. Academic style. (Scientific.); 3. Publicistic style. (Oratorial.); 4. Declamatory style. (Artistic/Belles-letters (fiction and drama.) 5. Informational style. The effective functioning of the model developed by us for the formation and development of phonological competence (prosodic component of FC) in the process of teaching English depends on several factors: the competence of the teacher, namely, knowledge of the theoretical provisions of the developed model, its theoretical and methodological foundations, components; the ability to

creatively implement this model; a set of organizational, planning, constructive and monitoring aptitudes; personal qualities of the teacher; a set of pedagogical conditions that allows you to effectively implement the model; selection and structuring of the content of the development process of the formation and development of phonological competence in the process of teaching English. (4)

Common European recommendations for language education provide a more complete and comprehensive definition of phonetic competence, which includes knowledge and skills of perception and product:

– sound units (phonemes) of the language and ways of their implementation in a particular context (allophones);

– phonetic features of phoneme differentiation (distinctive features, such as sonorism, nasality, proximity, labiality);

– phonetic structure of words (syllables, phonetic segments, oral accents and tones);

– phonetics of the sentence (prosody): the accent and rhythm of the phrase;

– intonation;

– phonetic reduction: vocal reduction, strong and weak forms;

– assimilation;

– elision.

In the modern world, in order to be professionally competent, the teacher must, on the one hand, constantly learn, engage in self-education, and on the other hand, self-actualize in pedagogical activity. A teacher, self-fulfilling, self-fulfilling, does not just function in society, but also invests himself in his values, as pupils.The most comprehensive explanation of the professionally significant qualities of the teacher is given by V. A. Slastenin: «Teacher is not only a profession, the essence of which is to translate knowledge, but a high mission of creating a person who affirms a person in a person». The professional competence of any teacher should be comprehensive. The structure of the special competence of a foreign language teacher consists of the following components: 1)Communicative competence (professionally oriented knowledge of a foreign

language); 2)Linguistic competence (assuming knowledge of the basic theoretical provisions on language as a social phenomenon, its connection with thinking, the culture of the people, the origin and development of language); 3) Linguist (knowledge of the culture of the country of the studied dialectal, its history and contemporary problems of development, as well as about life, everyday life, games, popular books, songs, films, and the ability to use this knowledge in selecting the content of instruction); 4).Linguistic competence (knowledge of age-specific features of development students, the patterns of their physical and mental improvement).

Authorizing to I.I.Golovchanskaya (2016:115), "suprasegmental organization acts as a key phonostylistic means and not only allows by ear, even without taking into account lexical and grammatical content, to determine, identify gender, age, dialect, etc. belonging of the speaker, but also indicates his social status and profession."

Competence is the acquisition of linguistic concepts through practical English phonetics taught in the curriculum, fundamental phonetic units, and various levels of sound phenomena such as sounds and phonemes, words and phrases, and sentences, as well as relations between graphemes and phonemes. - the investigation of regulatory elements that completely capture the acoustic phenomenon. Five categories can be used to categorize all phonological knowledge: 1) practical language knowledge; 2) knowledge related to language theory; 3) knowledge of the relationship between the grapheme and the phoneme; 4) knowledge of the signs of phonetic transcription; and 5) knowledge of the relationship between the grapheme and the phoneme

H. F. Borisko recognizes the taking after abilities of an independent individual

– characterize their objectives for learning a remote dialect and set particular objectives for them, select the fitting devices, ways and implies to illuminate and accomplish them;

– cognizant usage of self-knowledge forms;

– utilize strategies of procuring information and abilities, adjust them to yourself;

– control, checking and direction of not as it were the method of learning and

free work, but moreover discourse and non-verbal behavior within the setting of intercultural communication;

– plan their aptitudes and capacities for future proficient exercises, etc.

Presently, determining the professional competence of the teacher, one cannot ignore its information competence, which provides the talents of its activity with information contained in educational disciplines and scholastic fields, as well as in the surrounding world. Using information technology in the professional training of the teacher involves the interaction of the teacher and the beginner in some information environment in which the announcement process is conducted in the language of this background. To form an information and technological computer it is necessary to create certain pedagogical conditions that will strengthen the information component of the subjects taught by the linguist-teacher.

Conclusion In the course of mastering a foreign language the formation of the phonetic competence is one of the means of forming the more general, linguistic sociocultural, competence. It is the teacher who plays a very important role in making students understand the necessity of mastering the phonetic aspect of the language for the purpose of successful cross-cultural communication. The volume and the choice of the material studied are determined by stages of learning a foreign language, though we consider it appropriate and encourage teachers to work with all the three phonetic components (sounds, intonation, phonostyles) even at the initial stage. Thus, the following the above-mentioned strategies of enhancing professionally oriented foreign language competence will promote training highly-qualified specialists according to generally accepted standards in language proficiency for realizing their professional prospering people’s lives in the international community.

References:

1. V.A. Bolotov, V.V. Serikov, (2003), “Competence Model: from the Idea to Education Programme”, in Pedagogics, vol. 3, pp. 8-15.

2. Kuzmina, N. V. (1990). Professionalism of the personality of the teacher and the skill of industrial training. Kuzmina. — M.: High school. —— 198 p.

3. M.A. Sokolova. (2016). – Челябинск**,** ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ФОНЕТИКА АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА: Изд-во Юж. -Урал. гос. гуман.-пед. ун-та, А.В. Зырянова– с.116

4. Common European Framework of Reference Learning, teaching, assessment (Electronic Resource). – Cambridge: Cambridge University Press 2002,– 260 p. – Mode of access.

5. Chapter V. (2023), MODIFICATION OF VOWELS IN CONNECTED SPEECH – раздел Иностранные языки, ПРАКТИЧЕСКАЯ ФОНЕТИКА АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ' -> Reduction in English

6. Головчанская И.И. (2016), Фоностилистическая компетенция учителя как необходимое условие произносительной реализации иноязычной профессиональной речи. // Дискуссия. № 7(70). – С.113-117

7. Badanbekkyzy Zaure &Abu A. T. (2021), “STRUCTURE AND CONTENT OF STUDENTS ' PHONETIC COMPETENCE IN ENGLISH”.–83-84 p.

8. H. F. Borisko &Goncharova H.L. (2016), Formation of foreign phonetic and phonological competence among students-linguists: on material science.Stavropol, 96 p.

BOLALAR NUTQIDAGI INDIVIDUAL ASSOTSIATSIYALARNING LEKSIK TAHLILI

Mirnosirova Dilbar Nodirbek qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi.
Dnodirbekovna@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida kuzatiladigan individual assotsiatsiyalarning leksik tahlili berilgan bo‘lib, unda asosiy e’tibor stimul so‘z va unga berilgan javob reaksiyasi orasidagi semantik aloqaga qaratilgan. Individual assotsiatsiyalarni leksik jihatdan tahlil etishda lingvistik*

tadqiqot metodlarining tavsiflash, tasniflash, komponent va statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *assotsiativ maydon, individual assotsiatsiya, jamoaviy assotsiatsiya, leksik tahlil, semantik aloqadorlik*

Abstract: *The article provides a lexical analysis of individual associations observed in th espeech of preschool children, in which the main attention is focused on the analysis of the semantic connection between the stimulus word and the response reaction given to it. In the lexical analysis of individual associations, descriptive, classification, component and statistical analysis methods of linguistic research methods were used.*

Key words: *associative field, individual association, collective association, lexical analysis, semantic relatedness*

Tilshunoslikda maydon nazariyasi haqida olimlarning turli fikrlari mavjud. Assotsiativ maydon boshqa maydonlardan farqli ravishda barcha sath birliklarini o‘z ichiga qamrab oladi. Assotsiativ maydon bir-biri bilan assotsiativ bog‘langan til birliklari yig‘indisi sifatida muhim ma’lumotlar bazasi hisoblanadi (Lutfullayeva, 2017, 63-bet). Unda bir-birini yodga solish mexanizmi asosida bog‘langan til birliklari o‘z aksini topadi. Ayni vaqtda assotsiativ maydon til egalarining olamni idrok etishi, dunyoqarashi, turli sohalarga oid bilimlarini yaqqol ko‘rsatuvchi prizma vazifasini ham o‘taydi. Boisi, assotsiativ maydondan sinaluvchilarning dunyoqarashi, ruhiyati, qiziqishlari bilan bog‘liq holda xotirasida qayta tiklangan til birliklari joy oladi. Assotsiativ maydon yadro va chegara qismlaridan iborat bo‘lib, mazkur maydonning yadro qismida stimul so‘z bo‘yicha xotirada tiklangan qo‘llanish chastotasiga ko‘ra faol javob reaksiyalari, chegara qismida esa passiv javob reaksiyalari o‘rin oladi. Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan assotsiativ maydonga xos xususiyatlarning o‘rganilishi davomida uning umumiy va personal, an’anaviy yoki vaqtinchalik, struktur jihatdan sodda va murakkab, hosil qilinishiga ko‘ra tabiiy yoki sun’iy, qo‘llanish doirasiga ko‘ra o‘ta jo‘n va ilmiy kabi turlarga ajralishi kuzatilgan (Абрамов, 2001, стр. 124).

Masalaning biz uchun ahamiyatli tomoni assotsiativ maydon birliklarining individual yoki jamoaviy xarakterga egaligidir.

Ma’lumki, har bir individ tevarak atrofda bo‘layotgan voqea-hodisalarni o‘z bilim darajasi, dunyoqarashi, voqelikka munosabati asosida qabul qiladi. Bu jarayonda inson ongida muayyan voqea-hodisa, narsa-predmet, harakat-holat haqidagi tasavvur hosil bo‘ladi. Aynan shu tasavvur individual assotsiatsiyalarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Individual assotsiatsiyalarning shakllanishida til egalarining kasbi, ijtimoiy holati, millati, yoshi kabi omillarning ta’siri seziladi. Ammo shu bilan birga individual assotsiatsiyalar insonning sezgi organlari bilan bevosita aloqador bo‘lib, inson biror ta’sirni qay tarzda seza olsa, shu shaklda reaksiya berishi kuzatiladi. Shuningdek, har qanday so‘zning tushunilishi jihatdan jamoaviy hamda individual ma’nosi borligi ta’kidlanadi. Bunda bir so‘zning omma tomonidan bir xil shaklda tasavvur etilgan shakli ma’no, unga tavsif berilgan shakli esa individual assotsiatsiya sifatida baholanadi (Хошимова, 2011, стр. 91-93).

Bolalar nutqi ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajribalar davomida ularning nutqida salmoqli individual assotsiatsiyalar mavjudligi aniqlandi. Kattalar nutqi ustida o‘tkazilgan tajribalardan farqli ravishda bolalarda individual assotsiatsiya hosil bo‘lish jarayoni sinaluvchining kasbi bilan bog‘liq holatda emas, balki bolaning yoshi, jinsi, millati hamda ijtimoiy holati bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. 7 yoshgacha bola so‘z haqidagi bilimlarning barchasini atrof-muhitdan faqatgina eshitish, ko‘rish va his qilish orqali o‘rganadi. Bolaning yoshi ulg‘ayib borgani sari uning so‘z boyligi ham kengayib boradi. Bu jarayonda bolaning lisoniy ongida har bir so‘zning umumiy - barchaga ma’lum ma’nosi bilan bir qatorda individual – bolaning tafakkuri mahsuli sanalmish tavsifiy ma’nosi ham shakllanadi. 4 yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning lug‘at zaxirasidan 1228 ta leksik birlik joy oladi (Шевцова, 1996). Ushbu leksik birliklarning barchasi ma’lum nutqiy vaziyatdagi tashqi ta’sir natijasida boshqa til birliklari bilan birgalikda assotsiativ maydonni tashkil etadi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan sinaluvchilar nutqi ustida o‘tkazilgan tajribalar davomida ma’lum bo‘ldiki, bolalardagi assotsiativ maydonning 75% ni jamoaviy leksik assotsiatsiyalar, 25% ni individual

leksik assotsiatsiyalar tashkil etadi. Bolalar nutqida ifodalangan individual leksik assotsiatsiyalar so‘zlar orasidagi o‘zaro ma’noviy yaqinlik, sinonimlik, antonimlik, uyadoshlik va ba’zi hollarda ma’no ko‘chishi vositasida hosil bo‘lishi kuzatildi. Shuningdek, individual leksik assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishida ko‘rish va eshitish sezgisi faol ishtirok etadi. Boisi, yuqorida ta’kidlanganidek, bola 7 yoshgacha olam haqidagi bilimlarni ko‘rish va eshitish orqali egallaydi. Muayyan stimul so‘zga reaksiya taqdim etish jarayonida esa bu bilim o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Masalan, sinaluvchi Odiljonova Z. (6 yosh)ga stimul so‘z sifatida *avtomat* so‘zi berilganda ***tanga*** deya javob berdi. Buning sababi so‘ralganda tir o‘yinida tanga tashlab avtomat otilishini ko‘rganligini bayon etdi. Xuddi shu holatni Ergasheva D. (6 yosh) bilan o‘tkazilgan tajribalar davomida ham ko‘rishimiz mumkin. Sinaluvchiga *metro* so‘zi taqdim etilganda ***eshik yopiq*** javob reaksiyasini berdi. Bola metropolitendagi bekatlar orasida beriladigan ogohlantirish chaqiruvlarini eshitganligi bois, javob berishda shu chaqiruvning bir qismi lisoniy xotirada qayta tiklangan.

Shakl va ma’no xususiyatiga ko‘ra sinonim va antonimlardan foydalanish salmoqli o‘rinni egallaydi. Nosirxo‘jayev U. (6 yosh) *osmon* stimul so‘ziga ***past*** deya javob berdi. Bu o‘rinda e’tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan yana bir nuqta bola tomonidan osmon va yer so‘zlarini ***tepa*** va ***past*** shaklida idrok etilishidir. Bu holat maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida uchraydigan o‘ziga xosliklardan biridir. Shuningdek, kuzatuvlar davomida individual assotsiatsiyalarni ifodalashda sheva elementlaridan ham foydalanilganligi aniqlandi. Bunga misol tarzda Sultonboyev B. (6 yosh) tomonidan *doktor* stimul so‘ziga Toshkent shahar shevasiga mansub ***do‘xtir*** so‘zini reaksiya sifatida taqdim etganligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ma’lumki, tilshunoslikda partonimiya til egalari nutqida ko‘p uchraydigan hodisa sifatida baholanadi. Ushbu hodisa zamirida so‘zlovchi nutqida butun-bo‘lak munosabatidagi birliklarning ifodalanishi yotadi. Partonimiya hodisasi bolalar nutqidagi individual assotsiatsiyalar tarkibida ham uchraydi. Boisi, bolaning lisoniy xotirasi biror narsa-buyum, voqea yoki harakatni qismlari orqali xotirada

saqlab qoladi. Tashqi tomondan berilgan biror ta’sir natijasida bu qismlar yig‘ilib, butunni tashkil etishi yoki aksincha, butunning qismlarga bo‘linishi yuzaga keladi. Sinaluvchi Narzullayeva H. (6 yosh) nutqidagi *banan* so‘ziga nisbatan paydo bo‘lgan ***po‘choq*** reaksiyasi bola nutqida individual assotsiatsiyaning hosil bo‘lishiga turtki berdi. Bu o‘rinda *banan* va *po‘choq* leksemalari orasidagi partonimik munosabat *banan* so‘zi yodga olinganda shu predmetga tegishli bo‘lgan qismning xotirada qayta tiklanishi asosida paydo bo‘lgan. Butun-bo‘lak munosabatidagi individual leksik assotsiatsiyalarga quyidagi reaksiyalarni ham misol qilib keltirishimiz mumkin:



Abdujalilov I. (5 yosh) tomonidan *bog‘cha* stimul so‘ziga nisbatan berilgan ***gruppa*** reaksiyasida muayyan o‘rin-joy va uning tarkibida mavjud bo‘lgan qism ifodalangan va bu orqali butun-qism munosabatidagi partonimik leksik assotsiatsiya maydonga kelgan. Keltirilgan misollarning ikkinchisida ham aynan shu holat kuzatiladi. Savdo-sotiq markazi sanaluvchi bozor geografik maydoni turli xildagi do‘konlardan tashkil topganligi uchun sinaluvchining xotirasida mazkur so‘z yodga olinganda uning bir bo‘lagi qayta tiklangan. Qutbiddinxo‘jayeva M. (6 yosh) ning *yuz* so‘ziga nisbatan bergan ***lab*** reaksiyasida esa o‘rin-joy va uning bir qismi o‘rtasidagi assotsiativ aloqa emas, balki predmet va uning qismi bilan bog‘liq partonimik munosabatdagi individual leksik assotsiatsiya ifodalanganligini ko‘rish mumkin.

O‘rta yoshdagi (5-6 yosh) maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari nutqi ustida o‘tkazilgan tajribalar davomida sinaluvchilar tomonidan predmetning belgisi, xususiyatini bildiruvchi so‘zlarga nisbatan aynan shu xususiyatni o‘zida mujassam etgan narsa-hodisa nomini taqdim etish holatlari

ham uchradi. Bu holatda berilgan javob reaksiyalarining salmoqli qismi ko‘ruv xotira tasavvuri orqali shakllanadi. Masalan, Usmonov M. (6 yosh)ga *dahshat* so‘zi taqdim etilganda ***fantan*** deya javob berdi. Chunki bola xotirasida aynan ***fantan,*** ya’ni favvoraning ko‘rinishi, ovozi bilan bog‘liq holat saqlanib qolgan. Bunda stimul va reaksiya o‘rtasida semantik bog‘liqlik emas, balki tashqi omillarning ta’siri kuzatiladi. *Qizil* so‘ziga berilgan javob reaksiyalarida ham aynan shu holat kuzatildi. Odiljonova Z. (6 yosh) ga ushbu so‘z stimul sifatida taqdim etilganda ***gorchitsa*** deb, boshqa bir sinaluvchi Abdujalilov I. (5 yosh) esa ***qorbobo*** deb javob berdi. Bu o‘rinda ham sinaluvchi tomonidan predmetdagi tashqi belgiga e’tibor qaratilgan. *Qorbobo* so‘zida asosiy e’tibor uning kiyimiga qaratilgan bo‘lib, javob berishda ham qorboboning o‘zi emas, uning qizil rangdagi kiyim kiyishi va kiyimlardagi aksessuar qismlari (kamar, qalpoq, qo‘lqop, sovg‘a solingan qop)ning shu rangda ekanligi inobatga olingan. Xuddi shu stimulga berilgan *gorchitsa* so‘zida esa biroz boshqacha holatni kuzatamiz. *Gorchitsa* deyilganda bola tomonidan rus tilidagi *горчить - achchiq bo‘lmoq, горкий- achchiq* ma’nosi tushunilgan. Achchiq ta’mga ega ba’zi mahsulotlarning (qalampir, qizil murch) qizil rangda bo‘lishi sinaluvchining lisoniy ongida leksik assotsiatsiya hosil bo‘lishiga turtki bo‘lgan omildir. Ayrim o‘rinlarda bola tomonidan narsa-predmet, shaxs, harakat-holatga xususiyat, sifat berish ham mavjud. Bu kabi holatlarga misol qilib *Non* so‘ziga berilgan ***sayrog‘ non (Nosirxo‘jayev U. 6 yosh)*** *suv* so‘ziga berilgan ***harom suv (Sultonov A. 5 yosh)*** birikmalarini keltirish mumkin.

Ma’lumki, so‘zlashuv uslubi tilning barcha unsurlarini o‘zida qamrab oladi. Unda ayrim xorijiy til elementlarini uchratish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi ustida o‘tkaziladigan assotsiativ tajribalar og‘zaki tarzda olib borilishi bois, so‘zlashuv uslubining yuqoridagi jihati assotsiativ maydon birliklariga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Sinaluvchilar stimul so‘zlarga nisbatan reaksiya bildirar ekan, muayyan til elementidan foydalanilishi yoxud shu tilga xos leksik birlikni reaksiya sifatida taqdim etilishi kuzatildi. Shodmonova M. (6 yosh) dan *suv* so‘zi eshitilganda xotirasiga ilk kelgan tushuncha nima ekanligi so‘ralganda sinaluvchi ***napitka*** deya javob berdi. *Napitka* so‘zi rus tilidagi *напиток* so‘zining

keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib, ichish uchun tayyorlangan mahsulot ma’nosini beradi (Ожегов, Шведова, 1995, стр. 961). O‘zbek tilida ichimlik shaklida qo‘llaniluvchi bu so‘z *suv* so‘zi bilan suyuq shaklga ega bo‘lganligi, shuningdek, har ikki so‘zda ham *ichish* semasi mavjudligi uchun semantik yaqinlik kasb etadi. So‘zlashuv uslubida *ichimlik* so‘zi ko‘p hollarda *napitka* tarzida qo‘llanganligi bois, bolaning lisoniy xotirasida so‘zning boshqa tildagi shakli qayta tiklangan. Yuqoridagi holatga 6 yoshdagi Bahodirova S. bilan o‘tkazilgan suhbat jarayonida ham guvoh bo‘lindi. Sinaluvchi *limon* so‘ziga nisbatan *nordon* ma’nosini beruvchi rus tilidagi ***кислый*** so‘zini, *oila* stimuliga esa ingliz tilidagi ***family*** so‘zlarini reaksiya sifatida taqdim etgan. Bu jarayonda bola ulg‘ayib katta bo‘lgan oila yoki ta’lim muassasasidagi bilingval muhit e’tiborga molikdir. Tabiiy yoki sun’iy tarzda yuzaga kelgan bilingvizm natijasida bola lisoniy ongida so‘zning o‘zbek tilidagi shakli emas, balki muayyan chet tilidagi shakli saqlanib qolgan va bu tashqi ta’sir natijasida nutqda ifoda etilgan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bolalar nutqida kuzatiladigan individual assotsiatsiyalar o‘z-o‘zidan emas, balki so‘zlar orasida kuzatiladigan semantik bog‘liqlik asosida yuzaga keladi. Ayrim holatlarda esa ekstralingvistik omillarning ta’siri sababli muayyan so‘z va u orqali yuzaga kelgan leksik assotsiatsiya orasida semantik bog‘liqlik kuzatilmasligi mumkin. Ammo bu o‘rinda bolaning shu so‘z bo‘yicha tasavvuri, so‘zni tushunish darajasi namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абрамов, В. (1997). *Теория ассоциативного поля // Лексикология, фразеология, и лексикография русского языка:* https://studfile.net/preview/4513363/

2. Хошимова, Н. (2011). *Прагматические аспекты при исследовании ассоциаций //* Вестник МГОУ. Серия «Русская филология».- № 6. – С. 91-93.

3. Шевцова, Н. (1996). *О некоторых особенностях детской лексики (на примере китайского языка)* https://cyberleninka.ru/article/n/o-nekotoryh-osobennostyah-detskoy-leksiki-na-primere-kitayskogo-yazyka

4. Lutfullayeva, D. (2017). *Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi.* (140 bet). Toshkent: MERIYUS.

DISKURS TERMININING LINGVISTIK MOHIYATI, KO‘LAMI VA TALQINI

Nurimova Diyora Qurbon qizi,
Profi universiteti o‘qituvchisi
diyoranurimova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada diskurs konsepti, uning lingvistikada yuzaga kelishi, jahon va o‘zbek tilshunoslari tomonidan u bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida so`z boradi. Bugungi kun tilshunosligida uning o‘rni va o‘rganilishiga oid fikr va xulosalar keltiriladi. Diskursning lingvistik mohiyatiga doir nazariy va ilmiy qarashlar talqiniga alohida to‘xtaladi. Shuningdek, ijtimoiy fanlarda diskurs istilohining qo‘llanishi hamda amaliy ahamiyati bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar*: diskurs, tahlil, lisoniy, nolisoniy, lirik diskurs, grammatika, lug‘at tarkibi, matn, sotsiopragmatika.*

Abstract. *This article talks about the concept of discourse, its occurrence in linguistics, and the researches carried out on it by uzbek and world linguists. Thoughts and conclusions are given regarding its study in today’s linguistics. Special attention paid to the interpretation of theoretical and scientific viewson the linguistic essence of discourse. Also, the use and importance of discourse theryin social sciences is described.*

Keywords: *discourse, analysis, linguistic, non-linguistic, lyric discourse, grammar, vocabulary content, text, sociopragmatics*

Tilshunoslikning rivojlanishi jarayonida lingvistlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning aksariyati zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari hamda antroposentrik paradigma bo‘yicha qilinayotgan ishlardir. Ilmiy izlanishlar orasida “diskurs”, “lirik diskurs” atamalari ham ko‘p uchramoqda. U nafaqat tilshunoslikning, balki adabiyot, sun’iy intellekt, huquq, falsafa, mantiq,

psixologiya, kompyuter tilshunosligi, neyrolingvistikaning ham tadqiqot obyektlaridan biri sanaladi. Ushbu fanlarning har biri diskurs atamasini o‘z doirasida tahlil etadi hamda nazariy fikr va xulosalar keltiradi. Tilshunoslikda esa diskurs pragmalingvistika va matn tilshunosligining asosiy o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. U so‘zlovchi hamda tinglovchi o‘rtasida o‘zaro fikr almashinish, bir-biriga ekspressiv ta’sir etishning lisoniy va nolisoniy shakllaridan biridir.

Diskursni bitta tushuncha ifodalaydigan birliklar qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi. Chunki “diskurs” atamasi (fr. discours, ing. discourse, lot. dicursus oldinga orqaga yugurish; harakat, aylanish; suhbat, gaplashish) tillarda turli tushunchalarini ifodalab bergan. Umumlashtirgan holda diskursni ijtimoiy muloqotning asosiy shakli va matnni lisoniy va nolisoniy omillar asosida tushunishga tayangan hodisa deb izohlash mumkin. Ma’lumotlarga ko`ra, diskurs-tahlil kognitiv va sotsiokognitiv paradigmada XX asr o‘rtalarida yuzaga kelgan. Bu soha bo‘yicha izlanishlar yevropa va rus tilshunoslari ishlarida ko‘p uchraydi. O‘zbek tilshunosligida esa diskurs pragmalingvistikaga oid tadqiqot va monografiyalardagina uchraydi.

Adabiy aspektdagi diskurs masalasi fransuz olimlari M. Fuko, S. Todorov, Y. Kristeva, R. Bart asarlarida, shuningdek, rus tilshunoslari M. M. Baxtin, Y.M Lotman, V. I. Tyup tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan, S. N. Broytman, I. P. Smirnov, I. V. Samarukov, Y. Rudnev, P.V. Kovalev (Abdunazarova, 2021,15-bet), xususan, nutq nazariyasi, diskurs tahlil masalalari biroz o‘rganilgan. Bu atama ilk bora amerikalik tilshunos Z. Xarrisning 1952- yilda nashr etilgan “Diskurs tahlili” nomli maqolasida keltirilgan.

Tilshunoslikda diskurs termini bilan bog‘liq bir qator nazariya va fikrlar mavjud. Antroposentrik tilshunoslikning muhim qismi bo‘lgan diskurs axborot almashinuviga xizmat qiladi va badiiy muloqot turi sifatida aks etadi. Diskurs yadrosida, avvalo, inson, ya’ni yozuvchi, kitobxon hamda personaj turadi. Shuningdek, matn diskursi lisoniy va nolisoniy omillarni ko‘rsatadigan kognitiv hodisadir. Diskurs haqidagi umumiy tushunchalarni jamlagan holda rus tilshunos olimi Y. S. Stepanov pragmatikani alohida fan sifatida belgilaydi. Uning markazi

deb esa uzun va mazmunan aloqador matn, diskursni ko‘rsatadi. Inson har qanday hodisaning muallifidir. U suhbat, voqea yoki yakun bo‘lishi mumkin. (Stepanov, 1981, 332) Olim o‘z tadqiqotlarida diskursning “til ichida til” ekanligini qayd etadi. Ammo maxsus shakl beriladi. Haqiqatan ham u tilda mavjud, biroq uning “grammatikasi” va “lug‘aviy qatlami” sifatida emas.

Har bir diskursning grammatik, semantik va pragmatik markazida ma’lum hodisa aks etgan matn turadi hamda u gap yoki nutqda so‘zlovchi va tinglovchi anglaydigan natija sifatida namoyon bo‘ladi. Unga hajman chegara qo‘yilmaydi. Sababi u bir yoki ikki so‘zdan, ba’zan esa yuz minglab so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin. Diskurs matn tarkibidagi birdan ortiq gap yoki gapdagi mustaqil qismdir. Adabiyotshunoslar uni to‘rt asosiy turga bo‘ladi: bahs, tavsif, tushuntirish va hikoya. (https://www.supersummary.com/discourse-in-literature-defination-examples/)

Ijtimoiy fanlarda diskurs istilohini insonlar muloqotining ijtimoiy va madaniy an’analari kesishgan nuqta sifatida tahlil etishadi. Chunki ong har qanday fikrni so‘zga aylantirishi, uni muloqot jarayoniga tayyorlab, nutq yaratishi jamiyat va undagi madaniyatga uzviy bog‘liq. Bunga misol tariqasida pitsa va palov leksemalari ostida yashiringan diskursni olishimiz mumkin. Palov o‘zbek millati vakillari uchun sevimli taom bo‘lsa, pitsa ham italyanlar lug‘at boyligida asosiy o‘rin egallaydi. Har bir madaniyatga xos bo‘lgan leksema bizning kommunikatsiyamiz hamda fikr orqali ta’sir qilishimizda bevosita ishtirok etadi.

Matn tilshunosligida diskurs istilohini T. M. Nikolayeva quyidagi belgilar bilan izohlaydi:

1)matn bilan uzviy bog‘liq;

2)matnning og‘zaki so‘zlashuv shakli;

3)dialog;

4)aytilgan va anglangan fikrlar yig‘indisi;

5)ma’lum bir holatni og‘zaki yoki yozma shaklda yetkazish (Nikolayeva, 1978,467).

Olimning fikrlaridan diskurs va uning mavzu ko‘lami xususida turli xulosalar yuzaga keladi. Diskurs matnni faqat grammatik tuzilishi doirasida emas, balki ekstralingvistik jihatdan, ya’ni matnda aks etgan fikrni pragmatik, sotsio-kulturologik, psixologik faktorlarga ham tayangan holda muhokama qilishdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, diskurs og‘zaki nutq va yozma matnda axborot almashinuvi vositasi hamda ma’lum mavzuga oid matnlar yig‘indisidir. Diskurs tahlil va diskurs yuzasidan qilingan asosiy qarashlar Harrisning ishlarida uchraydi. U diskursni nutqni tahlil qilish usuli, shu bilan birga bitta jumlani tilshunoslikda kengaytirish deb izohlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, diskurs XX asrning ikkinchi yarmida semiotika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari kesishgan nuqtada yuzaga keldi. U oxirgi o‘n yilliklarda ommalashayotgan atama bo‘lgani uchun ham barcha mazmunini qamrab oladigan umumiy ta’rif mavjud emas. Diskurs bevosita milliy madaniyat va matn yaratuvchisi bilan bevosita bog‘liq. Bu istilohni chuqurroq tadqiq etish zamonaviy tilshunoslik muammolarini tahlil etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdunazarova N. (2021) ,“Diskurs”ni izohlash bo‘yicha turlicha yondashuvlar. Academic research in educational sciences. №4

2. Stepanov. Yu. (1981) Pragmatikadagi izlanishlar., 332-bet.

3. Nikolayeva. (1978), Matn lingvistikasi. 467-bet.

4.(https://www.supersummary.com/discourse-in-literature-defination-examples/)

POETIK FIGURALARDA “ME’YORDAN ORTIQLIK” SEMANTIKASINING IFODALANISHI

Oripova Mavluda Baxriddinovna
ToshDO‘TAU lingvistika yo‘nalishi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya.*Ming yillik tarixga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotimizga nazar tashlasak, badiiy tasvir masalasi doimo she’riyat ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Adabiy asarlarda she’riy san’atlardan o‘rinli foydalaniish - ijodkorning o‘z tilini naqadar kuchli bilishi va til imkoniyatlaridan mohirona foydalana olish qobiliyati kuchli shakllanganligidan deb qaraladi. Yorning naqadar go‘zal va iffatliligi hamda o‘ziga xos xususiyatlarni “me’yordan ortiq” tarzda ifodalash uchun badiiy san’at vositalari yetakchi omildir.*

Kalit so‘zlar: *“me’yordan ortiqlik”, she’riy san’atlar, semantika , lingvokulturologiya*

Abstract. *Let’s take a look at our classical literature, which has a thousand year history, the issue of artistic imege has always been in the center of attention of poets. Artistic tools are the leading factor in exspressing the beauty and chastity of yor in an exstraordinary way.*

Keywords: *an excess of the norm, poetic arts, semantic, linguistics*

Ma’lumki, she’riy san’atlar badiiy asarda ifodalangan fikrlarning hayotiyroq, ta’sirchanroq chiqishiga , lirik va epik timsollarning yanada yorqinroq gavdalanishiga, har bir baytda musiqiylik, jozibadaorlikni ta’minlashga xizmat qilgan. She’riy san’atlar ijodkorning badiiy salohiyatini ko‘z-ko‘z qilish emas, balki ijodkorning badiiy tafakkur ko‘lami, yuksak madaniy, ijtimoiy, axloqiy, tarbiyaviy g‘oyalarni jilolantira olish san’atkorligi ifodasi bo‘lib kelgan. She’riy san’atlarni qo‘llashda “me’yor masalasi”ham mihimdir, ya’ni she’rda haddan tashqari ko‘p san’at qo‘llash maqbul bo‘lmaganidek, ularga e’tiborsizlik bilan qarab, asardagi g‘oyalarni , fikrlarni badiiy bezaklarsiz ifodalash ham she’r qiymatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi shubhasizdir.

Haqiqatdan ham mumtoz adabiyotimizga nazar tashlasak, buyuk sohibi kalomlar o‘z asarlarida badiiy san’at vositalarini o‘rni va me’yori bilan

qo‘llaganlar. Atoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Ogohiy va Nodira hamda Uvaysiy, Furqar, Muqimiy kabi yetuk ijod ahlining noyob meroslari fikrimiz isbotidir. Ushbu ijodkorlar qo‘llagan har qanday badiiy san’at g‘oyani badiiy ifodalash , lirik va epik timsollarni yorqin gavdalantirish, jilo va ta’sirchanlik bag‘ishlash vazifasini bajaradi.

She’riy san’atlar ,avvalo, mantiqiylikka ega bo‘lishi , ya’ni qo‘llanayotgan san’at hayot mantiqiga mos kelishi va unga zid bo‘lmasligi kerak. Masalan, she’rda qo‘llangan tashbehda tasvirlanayotgan ikki narsa – o‘xshatilgan va o‘xshagan narsa o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik bo‘lishi kerak.

Adabiyotimiz tarixiga murojaat qilsak, barcha davrlarda she’riy san’atlarni qo‘llash borasida me’yor she’r va ilm ahlining e’tiborida bo‘lib kelganligiga guvoh bo‘lamiz. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida do‘sti Husayin Boyqaroning she’r ilmi haqida so‘z borar ekan , quyidagi voqea hikoya qilinadi:

Bahor kunlarining birida Alisher Navoiy Ustozi Mavlono Lutfiy bilan uchrashib qoladi. Lutfiy hazratlari yog‘ayotgan yomg‘irga ishora qiladi va Amir Xisrav o‘z g‘azallaridan birida shu xususida nafis bir o‘xshatish qilganini eslatadi:”… mahbuba bahor ayyomi bir tomon borur erdi, yomg‘ir tufayli yerga yiqilay debdi-yu , o‘ta nozikligidin yomg‘ir rishtasini ushlab turib olibdi.” Navoiy ushbu tasvirdan hayratga tushib, saroy ahliga ham so‘zlab beribdi. Ammo, hammani lol qoldirgan bu tasvirga Husayin Boyqaro e’tiroz bildiribdi. Navoiy buning boisini so‘raganida, hukmdor “ ul e’tiroz buldurkim, muqarrardurkim, rishtag‘a dag‘i hamul holdur. Rishtaikim, mayli quyi bo‘lg‘ay, aning madadi birla yiqiladurg‘on o‘zin asramog‘i maholdur” deb javob beribdi. Demak, Xisrav Dehlaviy qo‘llagan mubolag‘ada she’riy san’at bilan hayot haqiqati o‘rtasidagi mantiqiylik buzilgan. Shunday ekan har qanday ijodkor badiiy tasvir vositalaridan foydalanganda ushbu qoidalarga izchil amal qilishi kerak bo‘lgan.

“Me’yordan ortiqlik” semantikasi badiiy adabiyotda turli xil she’riy san’atlar orqali ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Oshiqning yoki ma’shuqaning o‘ziga xos sifatlari keltirilganda turli xil badiiy san’at vositalaridan foydalaniladi.

Qadimda *ilmi bade'* (badiiylik ilmi, poetik obraz yaratish vositalarini o‘rgangan), *ilmi qofiya* (she'rdagi qofiyadoshlik bilan shug‘ullangan), *ilmi aruz* (sher vazni o‘lchovi bo‘lgan) – bular maxsus fan sifatida o‘rganilgan. Bu uch yo‘nalishda o‘rganilgan she'riyatni forsiy she'r ahli *"Ilmhoyi segona" (* bilimlar uchligi) deb atashgan.

Ilmi bade' ning boshqacha nomi *"Badoye' us-sanoye*" , ya'ni badiiy san'atlardir.

San'at arabcha *"sun"* so‘zidan olingan bo‘lib, "*yaratmoq",* ya'ni badiiylik yaratishdir.

Badiiy san'atlarning quyidagi turlari bor:

1. Ma'naviy san'atlar (ma'noga tegishli)
2. Lafziy san'atlar(shaklga oid)

Dastlab poetik figuralarda "me'yordan ortiqlik" semantikasini ma'naviy san'atlarda ifodalanishini ko‘rib chiqamiz: Masala,

Mubolag‘a (giperbola) – arabcha " lof urish, bo‘rttirish" degan ma'nolarni anglatib, tasvirlanayotgan narsa, shaxs va voqea-hodisalarning muayyan jihatlarini bo‘rttirib, me'yordan ortiq kuchaytirib tasvirlash usulidir. Sharq mumtoz she'riyatida mubolag‘a san'atiga she'r ziynati sifatida qaralib, "**ahsanahu akzabahu"** , ya'ni eng yaxshi she'r yolg‘on she'rdir degan naqlga amal qilganlar. Alisher Navoiyning

Mehr emas, ohim o‘tidin ko‘kka yetmish bir sharar,

Ayb emastur gar desam: "Dam ursam aflok o‘rtanur"

Oshiqning sevgan yori hajrida chekkan iztiroblari g‘oyatda kuchaytirib me'yordan oshirib tasvirlangan: ko‘kdagi quyosh oshiq yerda chekkan oh o‘tining bir uchquni. Bu xil bo‘rttirilgan tasvir tufayli oshiq qiyofasi , ichki holati, qalbida mavj urgan ehtiroslari ta'sirchan , jozibali if odalangan. Aflok- Mubolag‘a quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. *Tablig‘*- tasavvur qilish, aqlan ishonish mumkin,hayotda ham uchrashi mumkin bo‘lgan voqealarning bo‘rttirilgan tasvir usuli.

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,

Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi

Baytining ikkinchi misrasida mubolag‘aning aynan tablig‘ turi qo‘llangan. Zero, visolni va’da qilgan mahbubning kelmagani oqibatida oshiqning kechasi bilan uxlamay chiqishi bo‘rttirilgan tarzda ifodalangan va bu holatni o‘quvchi ko‘z oldida tasavvur qila olishi mumkin.

2. *Ig‘roq* – belgi yoki harakatning aqlan ishonish mumkin bo‘lsa ham , lekin hayotda amalga oshirish mumkin bo‘lmagan me’yordan ortiq tarzda bo‘rttirilgan tasvir usuli. Masalan,

Ul sanamkim suv yaqosinda paritek o‘ltirur,

G‘oyat nozukligidin suv bila yutsa bo‘lur.

Atoyining yuqoridagi baytida tasvirlanishicha , ul sanam nihoyatda go‘zal , go‘allikda parilardan qolishmaydi , shunchalar nozik xilqatki, uni oshiq bir qultum suv bilan yutib yuborsa.

Mubolag‘aning ushbu turiga Alisher Navoiyning “Hamsa” asari tarkibiga kiruvchi har bir dostonida ko‘plab o‘rinlarda duch kelamiz. “Farhod va Shirin” dostonida Shirinning oti oyoqlari chirmashib yiqilay deganda, Farhod borib otni ko‘tarib olish voqeasi tasvirlandi:

Chu oshiq ongladi qilg‘och taammul,

Ki eldin tushkudekdur yer uza gul.

Yer o‘pmaklikka majnuntek ham o‘ldi,

Quyosh ostida gardundek ham o‘ldi.

Ko‘tardi orqasiga badponi,

Nechukkim badpo ul dilraboni.

... Chu ikki-uch yig‘och gom urdi shaydo

Bo‘lib oldinda qasr-u havz paydo,

Qadamni qo‘ydi qasr ayvoni sori,

Salomat raxshi birla shahsuvori.

Farhodning bir necha ming km yo‘lni ot va Shirinning ko‘targan holda bosib o‘tishi , aqlan qabul qilish mumkin bo‘lsa-da, lekin hayotda buni amalga oshirish dushvordir, albatta, bu jumlalarda Farhodning naqadar kuchliligi me’yordan ortiq

bo‘rttirilgan holda tasvirlangan. Navoiyning mahorati shundaki, hayotda amalga oshirib bo‘lmaydigan hodisaga so‘z sehri orqali kitobxonni ishonishga majbur qiladi. Yoki:

Qamarg‘a buyla tosh o‘lg‘och havola ,
Bo‘lib qalqon aning olida hola.

Ko‘rib anjum yog‘arni ul ushshoq tosh,
Taharrukdin o‘g‘irlab har taraf bosh.

Ushshoq tosh aylabon gardun yuzin resh,
Nechukkim qullar hamun yuzin resh.

Falak har lahza bosh o‘g‘urlab,
Yer uzra yog‘durug‘a tosh o‘g‘urlab.

Jafo toshiki holo charx etar fosh,
Hamonkim tuganmaydur hamul tosh.

Farhod tog‘ning toshlarini yo‘nar ekan, uning shiddatli metinidan uchgan toshlar borib hatto oyga tegadi. Oyga toshlar shu xilda otilavergach, u atrofdagi gardishni o‘ziga qalqon qilib oladi, yulduzlar esa bu toshlar yog‘inini ko‘rib o‘z boshlarini turli tarafga olib qochaveradi. Cho‘qqilardan sahroning yuzi ilma-teshik bo‘lgandek, ushoq toshlar osmon yuzini g‘alvir qilib yuborgan. Ayni vaqtda osmon har nafas boshini olib qochgani bilan yer yuziga qayta-qayta yog‘dirish uchun o‘sha toshlardan foydalanadi. Taqdir – falak jafo toshini yog‘dirishdan haligacha to‘xtamaganining sababi ham hali o‘sha yig‘ib olgan toshlarning tugamaganidir. Albatta, bu jumlalarda ham me’yordan ortiq bo‘rttirilgan tasvirlarga guvoh bo‘lamiz.

3. *G‘uluv* – mubolag‘aning eng yuqori darajasi bo‘lib, bunga aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham mumkin bo‘lmagan me’yordan ortiq tarzda bo‘rttirilgan tasvir usuli. Alisher Navoiyning

Har qizil gulkim, yuzing shavqida olib isladim,

Yetgach ohim shu'lasi oni sarig' gul ayladi.

baytlariga diqqat qaratsak, unda g'uluv qo'llanganiga guvoh bo'lamiz. Zero, shoir tasviricha, oshiq o'z ma'shuqasining qizil yuzini sog'ingani uchun qizil gulni olib hidlar ekan, ohi shu'lasidan u sariq gulag aylanib qoladi . Tasvirlanayotgan ushbu hodisani aqlan ham qabul mqilolmaymiz, ya'ni qizil gulning inson ohi bilan sariq gulag aylanib qolishiga aqlimiz bovar qilmaydi ham, bu xil hodisa hayotda yuz berishi ham mumkin emas. Ammo, lirik qahramon holatini shu darajada me'yordan ortiq bo'rttirib tasvirlagan shoir o'quvchini oshiq kechinmalarining naqadar kuchli ekaniga ishontira oladi, natijada hayotiy bo'lmagan hodisa ham tasavvurida haqiqatga aylangandek bo'ladi.

Ishqing o'tin gar Navoiy desakim aylay raqam,

So'zidin kuyar qalam , qurur qaro, erur davot.

Baytini ko'zdan kechirsak, ushbu misralar ham g'uluv asosida shakllanganiga guvoh bo'lamiz. Zero, so'z sehridan, so'zdan qalamning kuyib, siyoh qurib, siyohdonning erishiga aqlimiz ham yetmaydi, bunday holatlar hayotda ham yuz bermaydi. Demak, bu yerda so'zning qanchalar kata kuchga ekanligiga ishora mavjud. Zero, ona xalqimiz ham " yaxshi gapga ilon inidan , yomon gapga pichon qinidan chiqadi" dagan naqlni ko'p takrorlaydi.

Mubolag'a og'zaki nutqda ham, xalq og'zaki ijodi namunalarida ham, yozma adabiyotda ham ko'plab ushraydi, ayniqsa xalq og'zaki ijodida mubolag'aning aynan g'uluv turini juda ko'p uchratamiz. Maktab darsliklarida berilgan "Ravshan", "Rustam", "Alpomish", "Kuntug'mish" dostonlaridan mubolag'aning go'zal namunalari o'rin olgan.

Tikilsam quriydi daryoning suvi,

Na'ra tortsam qular qo'rg'onning timi.

Bu o'zbekni alp Qorajon biladi ,

Changallasa tog'ni talqon qiladi.

" Alpomish" dostonida keltirilgan ushbu parchada Alpomishning pahlavonligi me'yordan ortiq bo'rttirilgan holda tasvirlangan.

“Zulxumoroyning bu yog‘ida to‘qson besh, bu yog‘ida to‘qson besh - o‘n kam ikki yuz kokili bor, bir yog‘ini tilla suvga botirgan, bir yog‘ini kumush suvga botirgan, tong shamolida qotirgan. Jamoli chillaning qoriday tingjirab (1 yaltiramoq, ko‘zni olmoq) , yaltirab o‘tirgan.”

Demak yuqoridagi “Ravshan” dostonidan olingan parchaga nazar tashlasak, asarning bosh qahramoni Zulxumorni ciroyi ta’riflanar ekan, shunchaki “*sochlari uzun”* birikmasini o‘rniga “*bu yog‘ida to‘qson besh, bu yog‘ida to‘qson besh – o‘n kam ikki yuz kokili bor”* deya mubolag‘aning eng oliy darajasi qo‘llanib ma’no me’yordan ortiq tarzda bo‘rttirilgan.

Shuningdak, “ Aynoq kal zo‘r edi, ot, tuya, arava ko‘tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko‘chmoqchi bo‘lsa, piyoda ketar edi.”“Ravshan “ dostonidagi ushbu parchada Aynoqkalning polvonligini muallif “ *ot, tuya, arava ko‘tarolmas edi “* deb “polvon” semasini me’yordan ortiq darajada kuchaytirgan.

Bu va bunga o‘xshagan holatlar dostonlarda juda ham ko‘plab uchraydi va albatta, bu o‘quvchi tasavvur olamining kuchli shakllanishiga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Hamid Olimjon “Semurg” dostonida xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan mubolag‘a tasviridan foydalanadi. Chinordagi “kattalik” semasini - “ chinor shohi bulutlar orasidan ko‘rindi” mubolag‘asi bilan, Semurg‘ning “kuchliligini” – “changalida zo‘r arslon , tumshug‘ida botmon don” mubolag‘asi bilan, devning “dahshatliligini” – “devning boshi va oyog‘i o‘rmonni tutib ketdi, sig‘may chetga ham o‘tdi” mubolag‘asi bilan me’yordan ortiq bo‘rttirib ifodalaydi. Keling shu o‘rinda Bunyodning chinorni qo‘porish epizodini ko‘rib chiqamiz:

Bunyodaga g‘ayrat kirdi,
Yuragiga dard kirdi.
Yurib bahodirona,
Otga mindi mardona.
Qattiq bir qamchi soldi…
Ot yashinday qo‘zg‘oldi
O‘t singari yo‘l oldi.

Bulutlar orasida Yozib borib qulochin,

Go‘yo bir buyuk lochin

U chinorga o‘tirdi,

Go‘yoki o‘qday urdi.

Chinor tomiri bilan

Qo‘porildi guvillab,

Shamol kabi uvillab,

Zo‘r shoxlar yerga ketdi,

Tomir osmonga yetdi.

Yer uzra tushib Bunyod,

Bo‘lib ***dunyo-dunyo*** *shod.*

Go‘zal duldul otida,

Otining qanotida,

Ko‘zlarida zo‘r yog‘du,

Kulib turar edi u.

Yuqoridagi ajratib ko‘rsatilgan misralarga yoki so‘zlarga e’tibor qilsangiz, muallif Bunyodning bahodirligini bo‘rttirib, oshirib tasvirlagan. Zamonaviy hajviyotda ham mubolag‘adan keng foydalanib kelingan. Erkin Vohidovning “ Boshindadir”hajviy she’rida olifta yigitcha tasviri quyidagicha me’yordan ortiq kulgili qilib tasvirlangan.

Nay misol shim kiygan ul

Sandiqdayin tufli *bilan,*

Hurpayib turgan ***savatdek***

Soch *aning boshindadir.*

Litota- tasvir ob’ektini ataylab, me’yordan ortiq darajada kichraytirib, zaiflashtirib tasvirlash usuli , ya’ni behad kichraytirilgan mubolag‘adir.Masalan,

Bo‘ying sarv-u sanobardek, ***beling qil,***

Vafo qilgan kishilarga vafo qil.(Xorazmiy)

Xorazmiy yuqoridagi baytida yorni ta’riflar ekan , yor qaddi-qomatining tikligini sarv va sanobar daraxtiga o‘xshatadi hamda belining nozikligini ***qil***

leksemasi bilan ifodalaydi. Bizga ma'lumki , sharq adabiyotida yorning sifatlari keltirilganda *xipcha bel, ingichka bel , nozik bel* birikmalaridan foydalanilgan. Ammo, Xorazmiy tomonidan yorning ingichka belini ***qil*** leksemasi bilan berilishi "noziklik" semasining "me'yordan ortiq" darajada ifodalanishiga olib kelgan.

Navoiy asarlariga nazar tashlasak litota san'atining nodir namunalariga guvoh bo'lamiz:

*Qo'lida **tesha,** yo'q teshakim, **gurz,***

*Aning teshasi ollida **qaro tog'**,*

*Aningdek kim pichoq ollida **saryog'**.*

Hazrat Navoiyning o'ziga xos mahorati shundaki, "Layli va Majnun" dostonida keltirilgan ushbu parchada mubolag'a, ya'ni bo'rttirish hamda litota, ya'ni kichraytirish san'atlarini bir paytda qo'llash orqali ham "katta" va "kichik" semalarini me'yordan ortiq tarzda ifodalashga erishilgan . Demak, yuqoridagi misralarda Farhod teshasining o'tkirligini ta'kidlash va bo'rttirish niyatida tog'-toshlarni o'ta darajada kichraytirib *saryog'* leksemasi bilan ifodalaydi va natijada "kichiklik" semasining aql ishonmaydigan darajada me'yordan ortiq ifodalanishi yuzaga keladi.

Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi,

O'z haddini bilib belidin o'lturur quyi.(Lutfiy)

Bu so'zning mazmuni shu qadar issiq,

***Quyosh** bir kichik **sham** uning oldida. (Uyg'un)*

Uyg'unning ushbu misralariga nazar tashlasak, Vatan , ona so'zlarining tafti shu qadar issiqki, ularning oldidada *quyosh* leksemasining atigi bir kichkina *sham* leksemasi bilan ifodalanishi litota san'atining chiroyli namunasidir.

Keling quyida Maxmur ijodiga doir "Hapalak" she'riga murojat qilamiz va unda uchragan litota san'atiga doir baytlarni tahlil qilamiz.

Ey jahondori zafar , kavkabayi davri falak,

Go'sh qil, qissayi qishloqi xarobi Hapalak.

Turfa qishloqi g'azabkarda ki parandalari,

Tovuqi ignachi-yu , o'rdag-u g'ozi kapalak.

Bor-u yo‘q uylarni banda bayon gar qilsam,

Bir katak , ikki kappa, uch olachuq , to‘rt katalak.

Demauy, balki zaminkandir agar kirsa kishi,

Har taraf betiga urgaylar aning ko‘rshapalak.

Xalqini ko‘rsang agar o‘lasi-yu qoq-u xarob,

Ochlikdan egilib qomati misli kamalak.

Ajirig‘ tomirini o‘g‘urida mayda tuyib,

Qaynatib kunda ichar , otini derlar sumalak.

Gar tahorat qilsa qavmi suv topolmay nochor,

Betini qum birla yub (ko‘ziga) surgay guvalak…

She’rni o‘qirkanmiz, ijodkor Hapalak qishlog‘ining qashshoq hayotini yoritishda she’rda ko‘pgina o‘rinlarda litota san’atidan o‘rinli foydalanadi. Qishloqning ijtimoiy ahvoli shu darajada xarobki, hatto, parandalari ham bu nochorlikdan bir ahvolga kelib qolgan, ya’ni tovuqlar don-dun yemay o‘ta darajada ozib ketganligini - ignachi, ya’ni ninachiga, o‘rdak va g‘ozlarning bu og‘ir ahvoldagi holatini - kapalakka o‘xshatgan. Ijodkorning mahorati shundaki, shunchaki oddiy qilib nochorlikdan tovuq, o‘rdak va g‘ozlari juda ozib ketgan deyishdan ko‘ra, ularni ignachi va kapalakka o‘xshatib, *“ozg‘inlik’* semasini “*me’yordan ortiq*” darjada bo‘rttirib qo‘llagan va bu o‘quvchi ko‘z oldida obrazli tarzda namoyon bo‘ladi.

Keyingi misrada ijodkor qishloq aholisining uy-joylarini tasvirlashga o‘tadi va uylari juda kichkina va xarobligini “me’yordan ortiq” darajada kichraytirib, *bitta katak , ikki kapa, uch olachuq, va to‘rt katalak* deb tasvirlaydi. Keling endi quyida *katak,kapa, olachuq va katalak* so‘zlarining izohini yoritib o‘tamiz.

katak – ot so‘z turkumi, o‘tirish , yotish joyi ma’nosini anglatadigan tojikcha “kat” otiga kichraytirish ma’nosini ifodalovchi **–ak** qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, parandalar turishi, yotishi uchun yasalgan kichik bo‘lmalardan iborat uycha ma’nosini anglatad: ***tovuq katak, g‘oz katak***.Bundan tashqari, ***ari uyasi katagi, shaxmat katagi, burun katagi, katak daftar*** kabi ko‘rinishlarda ham qo‘llaymiz.

kapa – ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib, vaqtincha yashash uchun usti shox-shabba bilan yopilgan omonat turar joy, chayla ma’nosini anglatadi.*Bahor va yoz kunlari kapada kun o‘tkazish mumkin-u ammo qahraton qishda ,ayniqsa,kechalari sira chidab bo‘lmasdi. Sharipov “Xorazm”*

olachuq – ot soz turkumi, namat va yog‘ochdan yasalgan chayla ma’nosida, mo‘gul ko‘chma uy-joylaridan biridir.

katalak- ot so‘z turkumi, tojikcha **katak** otiga yanayam kichraytirish ma’nosini ifodalaydigan **–ak** qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, o‘ta darajada kichik katak, juda kichik , ko‘rimsiz yashash xonasi ma’nosini anglatadi. O‘zbek tilida –akak qo‘shimchasi tarkibidagi birinchi k tovushi l tovushiga almashtirilgan.

Bizga ma’lumki, Maxmur ijod qilgan davr XIX asrning boshlari Qo‘qon xoni amr Umarxon davriga to‘g‘ri keladi va bu davrda yuqorida sanab o‘tgan uylar ijodkor tomonidan ataylab yo‘qchilik va og‘ir ijtimoiy hayotni yoritish uchun “kichik hajmli uy” semasini “me’yordan ortiq” bo‘rttirib litota san’atidan foydalangan holda tasvirlangan va bu ,albatta, ijodkorning o‘ziga xos mahoratidir.

Xulosa qilib aytganda, badiiy san’at vositalar nafaqat ijod mahsulining ta’sirchan chiqishini, balkiijodkorning o‘z tilini naqadar kuchli bilishi va til imkoniyatlaridan mohirona foydalana olish qobiliyati kuchli shakllanganligini ham ko‘rsatib turuvchi omillardir.

Ma’lumki, she’riy san’atlar badiiy asarda ifodalangan fikrlarning hayotiyroq, ta’sirchanroq chiqishiga , lirik va epik timsollarning yanada yorqinroq gavdalanishiga, har bir baytda musiqiylik, jozibadaorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

She’riy san’atlar ijodkorning badiiy salohiyatini ko‘z-ko‘z qilish emas, balki ijodkorning badiiy tafakkur ko‘lami, yuksak madaniy, ijtimoiy, axloqiy, tarbiyaviy g‘oyalarni jilolantira olish san’atkorligi ifodasidir.

Biz ushbu ishimizda badiiy san’atlarning ayrimlarinigina tahlil qildik, ammo o‘zbek tili turli-tuman imkoniyatlarga boy til ekanligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi va bu badiiy san’atlarimizda ham o‘z aksini topadi. Mubolag‘a, litota,

ruju,anafora, alliteratsiya va shu kabi san'atlar orqali "me'yordan ortiqlik" semantikasi kuchli tarzda ifodalana olishini turli xil misollar orqali ko'rib chiqdik . Ayniqsa hazrat Navoiyning asarlarida badiiy san'atlarning kuchli tarzda ifodalanganligiga guvoh bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Durdona Xudoyberganova (2013) Matnning antoposentrik tadqiqi.- Toshkent
2. Mahmudov N. (2010) O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati.- Toshkent.
3. Abduvahob Madvaliyev (2003) Ozbek tilining izohli lug'ati - 5 jildli.
4. Yo'ldashev M. (2010) Badiiy matnning lisoniy tahlili – Toshkent.
5. Safarov R. (1996) Leksik-semantik munosabatning turlari. – Toshkent.
6. Rahmatullayev Sh. Sememalarning semalar sastavi va bog'lanish masalalari.-
7. Qo'chqorov I. (1997) So'z ma'nosi va uning valentligi. – Toshkent: Fan.
8. Qlichev E. (1982) Badiiy tasvirning leksik vositalari. –Toshkent: Fan.
9. Hakimova M. (2001) O'zbek tilida matnning pragmatik talqini. – Toshkent.
10. Boboyev T., Boboyeva Z. (2001)Badiiy san'atlar. – Toshkent.
11. Hojiahmedov A. (1998) Sheriy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent.

AYOLLAR NUTQIGA XOS MUROJAAT SHAKLLARINING KOGNITIV ASOSLARI

Oripova Zaxro Shokir qizi,
ToshDO'TAU Lingvistika (o'zbek tili)mutaxassisligi, 2-kurs magistranti
zaxrooripova99@gmail.com,

Annotatsiya. *Ushbu maqolada murojaat shakllarining ayollar nutqida qo'llanishida o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan bo'lib, mazkur birliklarning yaratilishiga asos bo'luvchi kognitiv omillar o'rganilgan. Chunki muloqot xulqi va vokativlar millat xarakterining uzviy bir qismi, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Maqolamizda mazkur lingvistik birliklarning ana shu jihatlarini tahlilga tortib, o'z fikr-mulohazalarimizni bayon qildik.*

Kalit so'zlar: *Murojaat, vokativ, muloqot xulqi, undalma, kognitiv lingvistika, gender tilshunoslik.*

Abstract. *In this article, the specific features of the forms of reference in the use of women's speech are highlighted, and the cognitive factors underlying the creation of these units are studied. Because communication behavior and vocatives are an integral part of the nation's character, they are inextricably linked. In our article, we analyzed these aspects of these linguistic units.*

Keywords: *Address, vocative, communication behavior, motivation, cognitive linguistics, gender linguistics*

Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, qo‘rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma’no ottenkalari qo‘shilgan holda ifodalanishi – eng avvalo ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog‘liq. Til esa ana shu munosabatni qanday bo‘lsa o‘shanday, asliga mos holda ro‘yobga chiqishi uchun vosita bo‘ladi.

Murojaat shakllari barcha xalqlarga muloqotni zarur tarzda olib borish uchun katta ahamiyat kasb etishi, suhbatdoshlarning yashash joyi, millati, jinsi, yoshi, kasbi va boshqa ijtimoiy belgilariga oid ma’lumot berishi haqida mulohaza yuritiladi. (S.Mo‘minov, 2000, 35-bet) Tildagi mazkur birliklarni madaniyatdan ayri holda tasavvur qilish mumkin emas. Yakovenko ta’kidlaganidek, madaniyatning barcha sohalari, barcha ma’naviy va madaniy birliklari inson ongida o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham madaniyatda biror narsa yo‘qki, inson tafakkurida o‘z aksini topmasa va idrok qilinmasa. Madaniyatning inson ongida aks topishida belgi tizimlarining roli katta va buning eng asosiy vositasi, albatta, tabiiy til tizimidir. Ammo madaniyatda mavjud bo‘lgan kognitiv birliklarning ba’zilari lisoniy voqelanish jarayonidan chetda qolishi, ya’ni lisoniy nom olmasdan qolishi ham ehtimoldan holi emas. Shunday ekan har bir madaniy birlik, albatta, kognitiv tafakkurda idrok etilmay qolmaydi. Har bir shaxs tug‘ilganidan olamni o‘rgana boshlaydi. Atrof-muhitdagi jismlar, hodisalar va shaxslarni ularning xususiyatidan hamda til imkoniyatidan kelib chiqqan holda nomlaydi. Bu esa tafakkurning idrok faoliyati kognitiv qobiliyat bilan uzviy bog‘liqdir. Ular turli so‘zlashuv jarayonlarida, turfa sharoitlar va lisoniy

jarayonlarda vujudga keladi, kommunikatsiya jarayonini tiklash, bu jarayonni faollashtirish, nutqiy faoliyatni me’yorida ushlash uchun xizmat qiladi.

Odatda nutq egasi nutq yo‘naltirilayotgan shaxsning mavqeyidan kelib chiqib, o‘z xatti-harakatlarini unga yo‘naltiradi.(N.Ahmedova, 2008, 96-bet) Kishilar o‘rtasidagi jins tafovutlari ham leksikada farqlarni vujudga keltiradi. Shu sababli, biz o‘z tadqiqotimizning o‘rganish obyekti bo‘lgan murojaat birliklarining erkaklar va ayollar nutqida qay tarzda qo‘llanishini alohida tadqiq qilishni maqsad qildik. Ayollar uchun qo‘llanadigan murojaat shakllari quyidagi konseptual maydonda vujudga kelishi mumkin:



Maqolamizda ayollar nutqiga xos bo‘lgan murojaat shakllarining kognitiv asoslarini tahlil qilamiz. Ayollar nutqiga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘rganib, ularning hosil bo‘lishida tafakkurning roli, madaniyat va tafakkurning o‘zaro aloqadorlikdagi ta’siri masalalarini o‘rganamiz. Ayollar nutqida kuchli ta’sirchanlik, emotsional-baholovchi leksik birliklarning ko‘pligi xos bo‘lsa, erkaklar nutqi uchun kasbiy atamalarning ko‘pligi, ta’sirchan vositalarning juda kamligi, voqea-hodisalarga sovuq munosabatda bo‘lish va fikr ifodalashda o‘ziga xos dag‘allik mavjud bo‘ladi. Umuman, ayollarda yomon, erkaklarda esa yaxshi his-tuyg‘ularni ochiqdan ochiq ifodalash o‘zbek tilida kamdan kam kuzatiladi.

Shuni qayd etish lozimki, o‘zbek tilida nutq qaratilgan shaxsga nisbatan emotsional munosabatning kuchli ifodalanishi ko‘proq ayollar nutqida kuzatiladi: O‘zimning ulginam, suyanchiqginam, - derdi shunday paytlari onasi uni erkalab. –

Silardi deb dunyoda yashab yuribman-da, mening mehribonginam. (N.Eshonqul. 2019, 25-bet).

Yuqoridagi matnda qo‘llanilgan ulginam, suyanchiqginam, silardi deb dunyoda yashab yuribman-da, mening mehribonginam kabi leksik, morfologik va sintaktik birliklar erkalash, yupatish kabi ma’nolarni ifodalagan va mazmun ekspressivligini, emotsionalligini ta’minlashga xizmat qilgan. Xalqimiz qadriyatida ayol kishiga ojiza, zaifa, nozik hilqat sifatida qarash ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelgani bois ayollar o‘g‘il farzandiga yoki umuman oilasidagi erkak kishilarga suyanib, ularning g‘amxo‘rligi ostida yashashga odatlanishgan. Shuning uchun ularning nutqida erkaklarga qaratilgan murojaatlarda *suyanchig‘im, tayanchim, polvonim, tog‘im* kabi yoki afsonaviy qahramonlarga taqlidan *Alpomishim, Farhodim* kabi o‘zining kuchi bilan nom chiqargan timsollar nomi bilan atash holatlari ko‘p uchraydi. Erkak kishilarning xususiyati, qudrati, ya’ni oila boshlig‘i, oila boquvchisi, ayollar himoyachisi, nasl davomchisi ekani ayollar ongida skript sifatida muhrlanib qolganligi mazkur misollarimizda o‘z tasdig‘ini topgan. Nafaqat bu misollarda, balki har bir murojaat yaralishida kishilar ongida bolalikdan, hayot jarayonida kechirgan taassurotlari asosida shakllangan skriptlar asos vazifasini bajaradi. Bu birliklarning shevaga xos variantda berilishi til shaxsi namoyon bo‘lishida muhim komponentlardan hisoblanadi.

Tadqiqotlar jarayonida biz avval individual alohida shaxslar ongida kechayotgan lisoniy va kognitiv jarayonlarni kuzatsak-da, pirovardida ularning umummilliy xususiyatlarini tavsiflashga o‘tamiz. Kognitiv jarayonlarni milliy madaniyat bilan bog‘lovchi asosiy vosita tildir.(В.Маслова, 2004, 85-bet) Shu sababdan kognitiv tilshunoslik uchun lisoniy va kognitiv ong jarayonlarini milliy madaniyatda yaratiladigan, vujudga keladigan faoliyat shart-sharoitlari bilan bog‘lab o‘rganish nihoyatda muhimdir. Umuman olganda til va ong madaniyatdan yiroq, holi holda mavjud bo‘la olmaydi. Ular bizning ijtimoiy tajribalarimiz, ajdodlarimizdan o‘zlashtirgan an’analarimiz, qadriyatlarimiz natijasidir. Agarki, til bizning qanday fikrlayotganimizni anglatsa, madaniyat ma’lum bir jamoa nima qilayotganligi va nima fikrlayotganligini ifoda etadi (Sh.Safarov, 2006, 25-bet).

O‘zbek tilida ayollar nutqida –im egalik qo‘shimchasining erkalash ma’nosining ifodalanishida faolligi seziladi. O‘zbek tilida o‘zlik olmoshining o‘zimning qo‘zichog‘im, o‘zimning toychog‘im, o‘zimning asalim kabi birinchi shaxs birlikdagi ko‘rinishi ishtirokidagi erkalash ma’nosini ifodalovchi ayrim leksik birliklar, yuklamalar, his-hayajonni ifoda etuvchi til birliklari, takrorlash, metafora kabi stilistik vositalarasosan ayollar nutqida fikrning ta’sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi seziladi. Bundan tashqari, ayollar va erkaklar nutqining o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri ayollarning erkaklarga qaraganda nutqiy vaziyatda ko‘proq xushmuomalalik, odoblilik hamda hurmat ko‘rsatishga harakat qilishlari yaqqol sezilib turadi. Masalan,Voy uyingga bug‘doy to‘lgurlar, voy ko‘paygurlar, kela qolinglar, - deydi ovozi tovlanib (O‘.Hoshimov, 2015, 126-bet).

Erkaklar va ayollar nutqida uchraydigan murojaat shakllari semantikasi turfa xil. Ular nutqida qo‘llaniluvchi so‘zlar ham ijobiy, ham salbiy bo‘yoqda bo‘lishi mumkin. Erkaklar nutqida ko‘proq qo‘pol, so‘kish, dag‘al so‘zlar bilan murojaat ifoda etilsa, ayollar nutqida kuchli emotsiyaga berilish, his-tuyg‘u va kechinmalar orqali ifodalash, qarg‘ish so‘zlar qo‘llash kabi holatlar ko‘p uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarova Z. (2007) O‘zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom-i.diss… Toshkent. 135-bet.

2. Safarov Sh. (2006) Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, Sangzor. 92-bet.

3. Аҳмедова Н. (2008) Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. Тошкент. 154-bet.

4. Маслова В. А. (2004) Когнитивная лингвистика. Минск, ТетраСистемс. 124-bet.

5. Мўминов С.М. (2000) Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол.фан. д-ри. ... дисс.автореф. Тошкент. 140-bet.

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDAGI O‘XSHATISHLARNING PRAGMATIK TAHLILI

Shaxnoza Qurbonova Xolbek qizi,
ToshDO‘TAU Lingvistika mutaxassisligi
2-bosqich magistranti
shantijahongir@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilida o‘xshatishlarni pragmatik jihatdan tahlili Abdulla Qahhor hikoyalari misolida tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qahhor, pragmalingvistika, pragmatik tahlil, hikoya, o‘xshatish.*

O‘xshatishlar tilning eng ajoyib mantiqiy figuralaridan biri bo‘lib, asrlar davomida olimlar tomonidan mantiq nuqtai nazaridan ham, poetika va ritorika nuqtai nazaridan ham o‘rganib kelingan. O‘xshatishlar, metaforalar, frazeologizmlar tilning boyligini va o‘ziga xosligini ko‘rsatib beruvchi manba bo‘lib, bu boradagi tadqiqotlar til ilmida doimo dolzarb bo‘lib kelgan. N.Mahmudov insonning dunyoni bilishida o‘xshatish-qiyoslash benihoya katta o‘rin tutishini ta’kidlaydi. “Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining barcha sohalarida kuzatiladi” (Mahmudov, 2011, 19-24).

O‘xshatish deb “ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, aniqroq, bo‘rttiribroq ifodalash” ga aytiladi.

Ma’lumki, o‘xshatishlar ko‘pqirrali xususiyatga ega bo‘lgan murakkab hodisadir. O‘xshatishlar tahliliga bag‘ishlangan ko‘plab ishlarda uni o‘rganishda uchta yondashuv mavjud: 1) gnoseologik yondashuv, unga ko‘ra o‘xshatishlar bilish yoki bilish jarayoni sifatida tushuniladi; 2) kognitiv (mantiqiy) yondashuv, unda o‘xshatishlar til tuzilmalarini qurish uchun ma’lum mantiqiy model sifatida namoyon bo‘ladi; 3) lingvistik yondashuv, o‘xshatishlar orqali ma’lum bir til tuzilishi nazarda tutiladi.

O‘xshatish stilistik qurilma sifatida matnda turli vazifalarni bajarishi mumkin. Ular orasida tasviriy, baholovchi, satirik effekt yaratish funksiyasini,

shuningdek taqdimotning aforistik shakli funksiyasini ta'kidlash kerak. O'xshatishlar tilshunoslar tomonidan turlicha nuqtayi nazardan o'rganilgan. Lingvopoetika xususiy-mullaf o'xshatishlari, ya'ni erkin o'xshatishlarga e'tibor qaratsa, lingvokultrologiya uchun turg'un o'xshatishlar muhimdir. "Turg'un o'xshatishlar milliy ong jumbog'ini yechishda imkon beradigan yorqin obrazli vositalardan biri hisoblanadi", "dunyoni o'ziga xos milliy tarzda ko'rish o'xshatish semantikasida aks etadi" (Разуваева, 2009, 10-11).

M.Yo'ldoshev o'xshatishlarni ikki turga ajratadi: an'anaviy va xususiy muallif o'xshatishlari. "Xususiy-muallif o'xshatishlari yozuvchining o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o'z o'xshatishlaridir"(Yo'ldoshev, 2007).

O'xshatishlarning tilimizda qo'llanilishi juda qadimiy manbalarga borib taqaladi. Bu esa ushbu mavzuning o'rganilish qimmatini oshiradi. Mahmud Qoshg'ariy ilk marta o'xshatishni hosil qiluvchi qo'shimchalar haqida ma'lumot beradi[5]. Ko'plab tarixiy asarlarimizda ulardan badiiy-poetik hodisa sifatida keng foydalanilganini ko'rishimiz mumkin.

Masalan, Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida ushbu poetik vositadan unumli foydalanib, betakror misralar yaratgan. Bu asar o'xshatishning tarixiy shakllaridan keng foydalanilganligi bilan ham ahamiyatli.

O'xshatishlarning pragmatik xususiyatlari ham o'ziga xos. Ixsham shakl orqali ko'proq axborot berishda, ma'noni implisit ifodalashda o'xshatishlardan foydalanish mumkin.

– *dek,* – *day* affikslari presuppozitsiyaga ishora qiluvchi eng faol vositalaridir. Bu affiklar o'xshatishlarning shakllanishi uchun asosiy vosita sifatida qo'llaniladi. "Formal tilshunoslikda bu affikslar ravish yasovchi qo'shimcha sifatida berilgan. [-*dek*], [-*day*] affikslari orqali yasalgan ravishlar harakat va holatning yashash asosida ifodalangan narsa yoki belgi xususiyat bilan o'xshashligi, qiyoslanishini bildiradi" [Sayfullayeva, 2009].

Tadqiqotimiz davomida Abdulla Qahhorning "Mayiz yemagan xotin", "Ayb kimda?", "Anor", "Ayajonlarim", "Bashorat", "Kartina", "Oq aroqning qora ishi"

va “Dahshat” hikoyalaridagi o‘xshatishlarni pragmalingvistik jihatdan tahlil qilib o'rganib chiqdik.

Xotin chars bedanaday patillab, qochmoqchi bo‘lganida yuzini karnaygulning poyasiga urib oldi (Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasi). Ushbu misolda *bedanaday patillab* o‘xshatishi erkin o‘xshatish bo‘lib, bedana qush bo‘lganligi uchun qanotlarini patillatadi degan presuppozitsiya anglashiladi.

Xotini eshik yonida devorga suyanganicha turar, rangi murdanikiday, o‘zi qaltirar edi (Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasi). Keltirilgan misolda *rangi murdanikiday* o‘xshatishli qurilma ishtirok etgan bo‘lib, murdaning rangi oppoq bo‘ladi degan presuppozitsiya anglashiladi.

Olib kelgan suratingizdagi odamlar xuddi kishining aftiga qarab turganga o‘xshaydi, igna bilan hammasining ko‘zini o‘yib qo‘ydim (Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasi). Ushbu gapda *xuddi* ko‘makchisi orqali o‘xshatishli qurilma ishtirok etgan.

Qo‘ying endi, minba’d yolg‘on gapirmaydi. Voy, tavba, ruschadan nega «yaxshi», baloday gapiradi shekilli-ku! (Abdulla Qahhorning “Ayb kimda?” hikoyasi) Keltirilgan misolda *baloday* o‘xshatishi ishtirok etgan bo‘lib, erkin o‘xshatish turiga misol bo‘ladi.

Anor daraxtlarida anor shig‘il, choynakday-choynakday bo‘lib bo‘lib osilib yotipti (Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi). Keltirilgan misolda *choynakday-choynakday* erkin o‘xshatish ishtirok etgan bo‘lib, anor choynakday katta-katta bo‘lib pishgan degan presuppozitsiya anglashilgan.

Masjiddagi keksa baqaterak orqasidan ko‘tarilgan qizg‘ish o‘t ko‘kka olovli iz qoldirib juda yuqoriladi va go‘yo osmonga urilganday chilparchin bo‘lib, «po‘p» etdi (Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi). Keltirilgan misolda *go‘yo* yordamchisi orqali o‘xshatishli qurilma ishtirok etgan.

Umidani siz ham gulday asrang, hech qachon so‘lmasin, hamisha yashnasin! (Abdulla Qahhorning “Ayajonlarim” hikoyasi) Keltirilgan misolda

gulday o‘xshatishi ishtirok etgan bo‘lib, gul nozik va chiroyli bo‘ladi degan presuppozitsiya anglashiladi.

Shaharda bo‘lsalaring kir-chiringni o‘zim chinniday qilib yuvdirib, dazmollatib beraman! (Abdulla Qahhorning “Ayajonlarim” hikoyasi) Keltirilgan misolda *chinniday* erkin o‘xshatish ishtirok etgan bo‘lib, chinni yaltirab toza bo‘lib, turadi degan presuppozitsiya anglashiladi.

Oldinda xon, ko‘rinmas askar quyunday borar edi (Abdulla Qahhorning “Bashorat” hikoyasi). Keltirilgan misolda *quyunday* erkin o‘xshatish ishtirok etgan bo‘lib, quyun qop-qora, qalin bo‘ladi degan presuppozitsiya anglashiladi.

Said Jalolxon xuddi baland yerdan o‘zini tashlaganday, yuragi «shuv» etib, qanotchiqardi va uchdi (Abdulla Qahhorning “Bashorat” hikoyasi). Keltirilgan misolda *xuddi* ko‘makchisi orqali o‘xshatish ishtirok etgan.

Uning so‘ziga qaraganda, uzumning har boshi to‘rvadek va g‘ujumlari tutning donasidek zich bo‘lishi kerak edi (Abdulla Qahhorning “Kartina” hikoyasi). Keltirilgan misolda bir emas ikkita erkin o‘xshatish ishtirok etgan bo‘lib, *-dek* qo‘shimchasi orqali yasalgan.

Lola dadasidan ko‘zini olmay, turtinib-surinib, oyoq ostidagi ko‘lmak suvlarni sachratib, qaldirg‘ochday tinmay chug‘urlab borar edi (Abdulla Qahhorning “Oq aroqning qora ishi” hikoyasi). Keltirilgan misolda *qaldirg‘ochday* erkin o‘xshatishi ishtirok etgan bo‘lib, qaldirg‘och tinmay chug‘urlaydi degan presuppozitsiya anglashiladi.

Faqat shugina emas-da, xotin mastning qusig‘i artilgan lattaday qo‘lansa shu odam bilan bir ko‘rpada yotib kelayotibdi! (Abdulla Qahhorning “Oq aroqning qora ishi” hikoyasi) Keltirilgan misolda *mastning qusig‘i artilgan lattaday qo‘lansa* o‘xshatishli qurilmasi ishtirok etgan bo‘lib, mastning qusig‘i artilgan latta qo‘lansa bo‘ladi degan presuppozitsiya anglashlgan.

Kimsan Qoraboyev qo‘g‘irchoqdek qizchasi Lolani yetaklab, xotini bilan ajrashgani sudga ketayotibdi (Abdulla Qahhor). Keltirilgan misolda *-dek* qo‘shimchasi orqali o‘xshatish ishtirok etgan bo‘lib, qo‘g‘irchoq nozik va chiroyli bo‘ladi degan presuppozitsiya anglashiladi.

Shamol goh och bo‘riday uvillar, goh o‘lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag‘illar, hech narsa-hech narsa ko‘rinmas edi (Abdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasi). Keltirilgan misolda bir emas ikkita *och bo‘riday* va *o‘lim changaliga tushgan mushukday* o‘xshatishli qurilma ishtirok etgan. Erkin o‘xshatish turiga misol bo‘ladi.

Hamma o‘tirgan yerida go‘yo bir qarich cho‘kkanday bo‘ldi va tin olmay bir-biriga qaradi (Abdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasi). Ushbu misolda *go‘yo* yordamchisi orqali o‘xshatish ishtirok etgan.

Dodxoday odam go‘riston deganda tizzasi qaltirasa, birov «olamga podsho qilaman» degan taqdirda ham bormasa, borolmasa-yu, bu qiz mushtday boshi bilan, «arziydigan narsa bo‘lsa men boraman» desa! (Abdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasi) Keltirilgan misolda *mushtday boshi bilan* degan o‘xshatishli qurilma ishtirok etgan. Erkin o‘xshatish turiga misol bo‘ladi.

Unsin boshini ko‘tarib, balo-qazoday tikilib turgan dodxoga bir ko‘z tashladi-yu, yana boshini egib, lekin dadil javob berdi (Abdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasi). Keltirilgan misolda *balo-qazoday tikilib turgan* o‘xshatishli qurilma ishtirok etgan.

Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozorboshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab, qarshisidan esayotgan shamolga so‘z bermay, ba’zan irg‘ishlab borar edi (Abdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasi). Keltirilgan misolda *xuddi* yordamchisi orqali o‘xshatish ishtirok etgan.

Unsin boyagi gapni duoday tez-tez qaytarib, qo‘rquvni o‘ziga yo‘latmayotgan bo‘lsa ham, ko‘ngliga «o‘likning qornimikin» degan gaplar keldi (Abdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasi). Keltirilgan misolda *–day* qo‘shimchasi orqali erkin o‘xshatish ishtirok etgan bo‘lib, shunchaki so‘zlar duoga o‘xshatilgan.

Uzoq-yaqinda do‘playib turgan go‘rlar, xuddi birov tuproqni ko‘tarib chiqayotganday harakatga keldi (Abdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasi). Keltirilgan misolda *xuddi* yordamchisi orqali o‘xshatishli qurilma ishtirok etgan.

Unsin beixtiyor bir qadam orqaga chekindi, lekin shu ondayoq xuddi o‘likdan qo‘rqmasligini birovga pisanda qilayotganday, baqirdi (Abdulla

Qahhorning “Daxshat” hikoyasi). Keltirilgan misolda *xuddi* yordamchisi orqali o‘xshatishli qurilma ishtirok etgan.

Sandalda o‘tirib pinakka ketgan dodxo uyg‘onib tamshandi, boshini ko‘tarib Unsinni ko‘rdi-yu, “jon berayotipti” deb o‘yladi shekilli, ko‘zlari olaydi, undan ko‘zini olmay sekin o‘rnidan turdi, xuddi o‘lim xavfidan qochganday, bir irg‘ib sandaldan oshdi-da, o‘zini eshikka urdi (Abdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasi). Keltirilgan misolda *xuddi* yordamchisi orqali o‘xshatishli qurilma ishtirok etgan.

– *dek,* – *day* affikslari o‘xshatish munosabatidan tashqari qiyos mazmunini ham ifodalaydi.

Umuman, o‘xshatishli qurilmalar o‘ziga xos ma’no ifodalovchi vositalar bo‘lib, yashirin ma’noga ishora qilishi bilan gapni mazmunan murakkablashtiradi, insonning harakat-holatini obrazli tarzda tasvirlashda hamda ixsham shakl orqali ko‘proq axborot berishda, ma’noni implisit ifodalashda qo‘l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. (2011) O‘xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli // O‘zbek tili va adabiyoti. 3-son.
2. Разуваева Л.В. (2009) Сравнения как средство репрезентации художественной картины мира (на материале русской прозы конца XX– начала XXI веков): Дисс. … канд. филол. наук. – Воронеж. – С. 10.
3. Mahmudov N. (2017) O‘xshatishlar va milliy nigoh // Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so‘z. – B.166-175
4. Yo‘ldoshev M. (2007) Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, – 124 b.
5. Qoshg‘ariy M. (1967) Devonu lug‘atit turk. – Toshkent, – B. 488.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B.va b. (2009) Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent. – 416 b.

USMON AZIM SHE'RIYATIDA SINTAKTIK VOSITALARNING QO'LLANISHI

Qurolova Ro'zabonu Olim qizi
ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti, 1-kurs
qurolovarozabonu7@gmail.com

Annotatsiya. *Zamonaviy o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning birinchi yarmida boshlangan. Shu davrdan boshlab badiiy asar tilini o'rganishda o'ziga xos yo'llarni belgilash, badiiy matnni turli xil lingvistik usullarda tahlil qilish masalalari o'rganila boshlandi. Shuningdek, ushbu maqolada badiiy matnni sintaktik jihatdan tahlil qilish, asar matnida ishtirok etgan sintaktik vositalarni aniqlash, uning tinglovchiga ta'sir doirasini o'rganish masalalari Usmon Azim she'rlarini tahlil qilish orqali yoritib berilgan. Maqolani o'qish jarayonida badiiy matnda sintaktik vositalar qo'llanishining sabablari, muhim jihatlari, insonga ta'sir doirasi kabi kerakli ma'lumotlar berib o'tilgan. Shu bilan birga Usmon Azimning "She'riyat" sarlavhali she'rida qo'llangan sintaktik vositalarni aniqlashda sintaktik usuldan foydalanilgan va uning bir necha turlari misolida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar**:** *badiiy matn, emotsional-ekspressivlik, sintaktik vosita, sintaktik usul, sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik so'roq, inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza, o'xshatish, epifora, intonatsiya.*

Abstract. *In modern Uzbek linguistics, the scientific study of the language of artistic works began in the first half of the 20th centure. From this period, the issues of determining specific ways in learning the language of artistic works, analyzing the artistic text in various linguistic methods began to be studied. Also, in this article, the issue of syntactic analysis of the artistic text, identification of syntactic tools involved in the text of the work, study of its impact on the listener are highlighted through the analysis of Usman Azim's poems. In the process of reading the article, necessary information such as the reason for the use of sintactic tools in the artistic text, their important aspects, and the scop of their influence on a person were given. At the same time, the method of syntactic*

analysis was used to determine the syntactic tools used in Usman Azim's poem called "Poetry" and analyzed on the example of several of its types.

Keywords: *artistic text, emotional-expressiveness, syntactic device, syntactic method, rhetorical question, inversion, ellipsis, gradation, antithesis, simile, epiphora, intonation.*

Badiiy matn asar mazmunini ifodalaydigan, tinglovchiga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo‘lgan, muallif o‘z ixtiyoriga ko‘ra tildan erkin foydalana oladigan murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnni fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari tomonidan tahlil qilish mumkin. Badiiy matnda qo‘llanilgan uslubiy bo‘yoqdor, emotsional-ekspressivlikni ifodalaydigan so‘zlarni tahlil qilishda sintaktik usuldan foydalanamiz. Badiiy matnning insonga ta’sirchanligini, emotsional-ekspressivlikka ega bo‘lishini ta’minlaydigan vositalar sintaktik vositalardir. Badiiy matnda sintaktik vositalarning qo‘llanilishi matnga bo‘rttirishlik, ta’sirchanlik, ta’kidlanganlik kabi xususiyatlarni beradi. Bu haqida tilshunos olim Adham Abdullayev *"sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog‘lovchilarning maxsus qo‘llanilishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so‘roq gap" kabi uslubiy figuralar "fikrning o‘ta ta’sirchan ifodalanishi"*ga xizmat qilishini ta’kidlaydi.*(Адхам Абдуллаев, «Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули»,1987,58-bet)* Olim sintaktik usul haqida quyidagi ma’lumotlarni ham berib o‘tadi: *"Sintaktik sinonimiya, so‘roq, buyruq gaplarning ayrim ko‘rinishlari, undov gaplar, bir sostavli gaplar (ayniqsa, uning egasiz bir sostavli gap deb nomlangan turlari), inkor va tasdiq formalarining aks ma’noda qo‘llanilishi, gapning inversiv tartibda tuzilishi, gapning qiyoslash asosida qurilishi va maxsus stilistik figuralar ekspressivlik ifodalashning sintaktik usulini tashkil etadi".(Адхам Абдуллаев, «Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули»,1987,7-bet)*

Filologiya fanlari doktori, professor Ma’rufjon Yo‘ldoshev uslubiy vositalarga aloqador bo‘lgan. *"1.Sintaktik parellelizm. 2.Emotsional gap. 3.Ritorik so‘roq gap. 4.Inversiya. 5.Ellipsis. 6.Sukut. 7.Gardatsiya. 8.Antiteza. 9.Farqlash.*

10.O‘xshatish” kabi o‘nta hodisaga to‘xtalish bilan cheklanadi. *(Yo‘ldoshev M, “Badiiy matnning lisoniy tahlili”, 2008, 76-bet)*

Olimlarning fikrlariga qo‘shilgan holda ekspressivlikni ifodalashda sintaktik usulning yana bir turi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Bu tur nutqning ohangi, tovushning navbatma-navbat ko‘tarilishi va tushishidan hosil bo‘luvchi intonatsiya hodisasi hisoblanadi. Intonatsiya hodisasi asosan og‘zaki nutqda namoyon bo‘ladi. Yozma nutqda esa tinish belgilari orqali ifodalanadi. Badiiy matnni nutqqa ko‘chirganimizda yoki she’rni ifodali o‘qish jarayonida ekspressivlikni, gapning ta’sirchanligini ifodalash maqsadida intonatsiyadan foydalanamiz. She’riyatda ham sintaktik vositalarning qo ‘llanilishi ko‘p hollarda uchraydi. Bu jarayon birinchi galda she’rning ifoda ta’sirchanligini oshirishi, ekspressivlikning namayon bo‘lishi, ma’no-mohiyatining to‘laqonli ifodalanishi ba’zan esa qofiyalanishi uchun kerak bo‘ladi.

Atoqli shoir Usmon Azimning she’rlarida sintaktik vositalarning yaqqol ko‘zga tashlanishini ko‘rishimiz mumkin. Badiiy matnda qo‘llaniluvchi vositalarning biri sintaktik parallelizmdir. Parallelizm deb yonma-yon gaplarning bir xil sintaktik qurilishidan tarkib topishiga aytiladi. Manbaalarda parallelizm shunday ta’riflanadi: *“Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va, eng muhimi, unga tinglovchini to‘la ishontira olishdan iborat. Ular til uslubiy vositalarining boyishi manbaalaridan biri bo‘lib, poetik nutqda ko‘p qo‘llanadigan eng mahsuldor va ta’sirchan sintaktik birlik hisoblanadi.”(Шукуров Р, «Синтактик параллелизмнинг услубий вазифалари», 2004, 73-bet).* Filologiya fanlari doktori, professor Natan Mallayev badiiy san’atlarning biri bo‘*lmish “Saj o‘zining ohangdorlik xususiyatiga ko‘ra ritmik -sintaktik parallelizmni vujudga keltiruvchi omil”* ekanligini keltirib o‘tadi. *(Натан Маллаев,«Бадиий матн тахлили ва талкини муаммолари», 2012, 288-bet).* Bilamizki, saj nasrdagi qofiyani shakllantiradi va uning shu imkoniyati sintaktik parallelizmni vujudga keltiradi. Osonroq qilib tushuntiradigan bo‘lsak, sintaktik parallelizmda bir nechta gaplar sintaktik(gap bo ‘laklari tartibi) jihatidan bir xil shakllanadi. Misol tariqasida shoirning “Saylanma” to‘plamidan o‘rin olgan

“She’riyat” nomli she’rining tahlilini keltirib o‘tamiz.*(Усмон Азим, Сайланма: Шеърлар, 1995, 12-bet)*

Ko‘zlari chaqmoq tulpor,

Tuyog‘i chaqmoq tulpor.

Suvliq lablarin yirtgan,

Yo‘llari bayroq tulpor.

Yuqoridagi “Ko‘zlari chaqmoq tulpor”, “Tuyog‘i chaqmoq tulpor”, “Yo‘llari bayroq tulpor” misralarida sintaktik parallelizmni ko ‘rishimiz mumkin. Bu uch misra ham sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gap hisoblanadi. Ushbu bandda o ‘xshatish namunalari ham uchraydi. She’rda tulporning ko‘zlari chaqmoqqa, tuyog‘i chaqmoqqa o‘xshatilyapti. Chaqmoq shiddatkor tabiat hodisasi. Shuning sababli tulporning ko‘zlarining chaqmoqqa o‘xshatilishi uning shiddatli va tezkor ekanligidan dalolat beradi. Xalqimizda “tuyog‘idan o‘t chaqnaydi” degan ibora bor . Tulpor tuyog‘ining chaqmoqqa o‘xshatilishi esa keltirilgan iboradagi singari undan o‘t chaqnashining badiiy ifodasidir. Bu yerdagi tulpor obrazi she’riyatning ramziy ma’nosidir. Shoirning nazdida she’riyat shunday chaqmoqdek shiddatli va tezkor hodisadir. Shu yerda yana bir jihatga e’tibor beradigan bo‘lsak, she’riy san’atning epifora deb nomlanuvchi turi ham qo‘llangan. *“Epifora misralar oxiridagi tovush, so‘z yoki so‘z birikmasi takroridan iborat. Epifora qat’iy tizimli takror bo‘lib, misrada kelish o‘rniga ko‘ra anaforaga ziddir. Chunki anafora misra boshidagi so‘z yoki so‘z birikmasi takrori bo‘lsa, epifora misra oxiridagi til birligi takroridir”. (No‘monova M. “Hamid Olimjon she’rlarida leksik takrorlar”, 2021,3-4-betlar)* Qisqacha qilib aytadigan bo‘lsak, epifora she’riyatda misralar oxirining takrori ekan, bu yerdagi “tulpor” so‘zi epiforaga misoldir.

Bir bosgan izing guldan ,

Bir bosgan izing kundan.

Quyosh bo‘lib *lang‘illab,*

Ajrab borasan tundan.

She’rning ikkinchi bandidagi dastlabki ikki misra yuqoridagidek sintaktik parallelizm namunasi. Keyingi misradagi “Quyosh bo‘lib lang‘illab” birikmasida

ham o‘xshatish sa’atidan foydalanilgan. Ma’lumki, o‘xshatish san’atida ko‘pincha -day, dek qo‘shimchalari qo‘llaniladi. Va unga bu yerdagi “bo‘lib” so‘zi sinonim kelgan va o‘xshatishni vujudga keltirgan. To‘rtinchi qatorida esa “Ajrab borasan tundan” misrasi keltirilgan va bu inversiyani hosil qilgan. Bilamizki inversiyada gap bo‘laklarining tartibi o‘zgaradi. Xuddi shu misrani asliga qaytaradigan bo‘lsak, “tundan ajrab borasan” gapi hosil bo‘lib to‘ldiruvchi va kesimning o‘rin almashinuvi kuzatiladi.Bu misrada qo‘llangan inversiya bir jihatdan qofiya va ritmni hosil qilish vazifasini bajarmoqda.

O‘jar tulpor, tong tulpor,

Yo ‘llari osmon tulpor.

Parvozingga kuch bo ‘lsin,

***Berayinmi jon, tulpor** ?!*

She’rning uchinchi bandiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak “Berayinmi jon, tulpor?!” misrasida ikki turdagi sintaktik vositadan foydalanilgan. Bularning biri yuqorida keltirilgan inversiya hodisasidir. Ya’ni “jon” va “berayinmi”(to‘ldiruvchi va kesim) ning o‘rni almashib inversiyani hosil qilmoqda. Ikkinchi hodisa esa ritorik so‘roq gap hisoblanadi. Ritorik so‘roq gap ham badiiy matnning emotsionalligini ta’minlovchi uslubiy vositalardan sanaladi va nutqga ko‘tarinkilik kayfiyatini beradi. Bunday gaplar tasdiq va inkor mazmuniga ega b‘lib javob talab etmaydi.

***Samo**larda uch sho‘x-sha’n,*

*Mayli **yer**da qolsin tan.*

***Ey**, qaldirg‘och qanotim,*

Sen mening mast ruhimsan!

Keyingi banddagi “Samolarda uch sho‘x-sha’n”, “Mayli yerda qolsin tan” misralarida antitezadan foydalanilgan. Antiteza – badiiy asardagi bir-biriga zid voqea-hodisalarni mantiqan qiyoslash va qarshilantirish hodisasi. Bunda zid ma’noli so‘zlar va qo‘shimchalar, zidlovchi bog‘lovchilar, iboralardan foydalanishimiz mumkin. Tilshunos olim Ma’rufjon Yo‘ldoshev antitezani *“Mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-*

qarshi qo‘yish, zidlash hodisasi” deb ta’riflaydi.*(Yo‘ldoshev M. “Badiiy matnning lisoniy tahlili”, 2008,81-bet)* Usmon Azimning ushbu she’rida qo‘llangan “samo” va “yer” so‘zlari bir-biriga nisbatan antitezani hosil qilmoqda. Shu bandning uchinchi misrasida esa qo ‘llangan “ey” undov so‘zi o‘sha misrani emotsional gapga aylantirgan. Ta’kidlaganimizdek, emotsional gaplar ham sintaktik vositalar qatoridan joy olgan. Emotsional gaplar so‘zlovchining juda xursandligi yoki xafaligi, umuman olganda, uning his-hayajonini bildiradi. Ushbu she’r misralarida esa “ey” undov so‘zi vositasida murojaat shaklidagi emotsional gapdan foydalanilgan. So‘nggi misrada ham shoir his-hayajon gapning namusasini qo‘llagan va biz buni undov belgisidan bilib olishimiz mumkin. Usmon Azimning birgina shu “She’riyat” nomli she’rida o‘xshatish, inversiya, ritorik so‘roq gap, sintaktik parallelizim, antiteza va emotsional gap kabi sintaktik vositalardan foydalanilganining guvohi bo‘ldik. Shoirning yana bir “Kim nimadir dedi yaproqqa” deya boshlanuvchi she‘rining ikkinchi bandida

Bog‘ nimadir dedi tuproqqa

Muhim bir gap… *Anglamoq mahol.*

misralari mavjud. Bu misralarda ellipsis hodisasi bor. Ellipsis (yun. tushurib qoldirish, yetishmaslik) - nutq yoki matndagi sintaktik qurilma tarkibidan biror bir so‘z yoki gap bo‘lagining tushirib qoldirilishi. Bu turdagi tushirilish tilning ixchamligini ta’minlaydi. Lekin tinglovchiga zaruriy axborotni yetkazishga halaqit bermaydi. Yuqorida keltirilgan she’riy misrada bog‘ tuproqqa nimadir deydi. Bu aytilgan „nimadir“ muhim bir gap va bu gap shoirni o‘ylashga majbur qiladi. Uni anglash mushkul. Aynan she’rning shu nuqtasida ellipsis xodisasi bor.

Men chaqirdim: *-Kel, etdi zavol!*

Men qichqirdim: *-Kimga? -elanib!...*

Sarosima uvladi shamol –

Tilka-pora qorga belanib…

Usmon Azim qalamiga mansub keltirilgan yana bir she’riy bandda gradatsiya hodisasi qo‘llanilgan. Maqola avvalida gradatsiya badiiy matnda qo‘llaniluvchi

sintaktik vositalarning bir turi ekanligini aytib o‘tdik. Gradatsiya bu pog‘onama-pog‘ona yuksalish. Gradatsiyada bosqichma-bosqich qay tarzda bir nuqtadan boshqasiga o‘tishni ko‘rsatishga harakat qilinadi. Gradatsiya mohiyatiga ko‘ra ko‘tariluvchi va pasayuvchi gradatsiyalarga bo‘linadi. Misol uchun, *“Kitoblar juda sabrlidir. Biz ularni qo‘limizga olgunimizcha kunlar, oylar, yillar o‘tib ketadi.* (*Tojimamatova M “O‘qimasangiz yo‘qolib qoladigan kitob haqida eshitganmisiz?”, 2020).* Bundagi kun, oy, yil zinama-zina shaklda qo‘llanilib mantiqan gradatsiyani hosil qilmoqda. Shoirning berilgan she’ridagi birinchi, ikkinchi misralarida “Men chaqirdim” , “Men qichqirdim” gaplari gradatsiyaning yaqqol namunasi sanaladi. Aytganimizdek bu misolda gradatsiya bosqichma-bosqich shakllangan va u ko‘tariluvchi gradatsiyadir. Maqoladan o‘rin olgan Usmon Azimning ba’zi bir she’rlarini sintaktik jihatdan tahlil qilish orqali badiiy matnda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan sintaktik vositalarni ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy asarni sintaktik jihatdan tahlil qilish, sintaktik vositalarning ma’lum bir uslubiy ma’nolarda qo‘llanilishini o‘rganish hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Badiiy asar tilini o‘rganishda sintaktik usuldan foydalanish asarning hissiyotimizga to‘laqonli ta’sir qilishini va aniqlash darajasini bilishga ko‘maklashadi. Ushbu maqolada Usmon Azim she’rlarida qo‘llangan sintaktik vositalarni aniqlash va tahlil qilish asnosida asarning estetik vazifasini teran anglash va tushunish orqali tinglovchiga qay darajada ta’sir ko‘rsatishini qisman bo‘lsa-da, tushunib yetdik. Kelgusida o‘zbek tilshunosligida badiiy matnni tahlil qilishning bu yo‘nalishida yanada keng ko‘lamli ishlar olib borilishi kerakligini inobatga oladigan bo‘lsak, bu usulda hali ko‘plab tadqiqot va nazariyalar amalga oshirilishi zarur deb hisoblayman. Umuman olganda, badiiy matnni har jihatdan tahlil qilish, uning lisoniy xususiyatlarini o‘rganish til vositalarining nutqda ma’lum bir uslubiy ma’nolarda qo‘llanilishini tadqiq etish kabi amaliy ishlarni olib borish bugungi kun tilshunoslari uchun zarur va muhim deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’rufjon Yo‘ldoshev, (2008) “Badiiy matnning lisoniy tahlili”, X.T “Hamidov N.H.” matbaa korxonasi, Toshkent.
2. Muxtasar Tojimamatova, (2020). “O‘qimasangiz yo‘qolib qoladigan kitob haqida eshitganmisiz?” yuz.uz sayti.
3. No‘monova M. (2021) “Hamid Olimjon she’rlarida leksik takrorlar”ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723, 2021

4.Адхам Абдуллаев, (1987). «Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули», «Фан» нашриёти, Тошкент.

5.Натан Маллаев, (2012). «Бадиий матн тахлили ва талкини муаммолари», Низомий номидаги ТДРУ, Тошкент.

6.Усмон Азим, (1995). Сайланма: Шеърлар «Шарқ» нашриёти — матбаа концерни.

7.Ўринбоев Б, Қўнғуров П, Лапасов Ж, (1990). «Бадиий текстнинг лингвистик тахлили», «Ўқитувчи».

6. Шукуров Р, (2004) «Синтактик параллелизмнинг услубий вазифалари» ЎТА.

BADIIY ASARLARDA YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINING O‘ZIGA XOS QO‘LLANILISHI

Ro‘ziqulova Sevinch Abror qizi,
ToshDO‘TAU OTAT 1-kurs talabasi
maknunam8@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yordamchi so‘z turkumlarining badiiy asarlarda o‘ziga xos holatda ishlatilishi,gaplarning o‘zaro bog‘lanishi va uning ma’nosida yordamchi so‘zlarning tutgan o‘rni ularning misralardagi joylashuv pazitsiyasi, ularning bir nechta o‘ziga xosliklari va bu o‘ziga xoslikning badiiylikka qo‘shgan hissasi haqida*

Kalit so‘zlar: *yordamchi so‘z turkumlari (ko‘makchi bog‘lovchi yuklama) , dialektlar, dialektalizm,inversiya,grammatik ma’no, folklor*

Abstract. *In this article, the use of auxiliary word groups in artistic works in a unique position, the interconnection of sentences and the role of auxiliary words in its meaning, their position in poetic verses, their several peculiarities and this about the contribution of originality to artistry*

Keywords: *auxiliary groups of words (auxiliary connecting load), dialects, dialectism, inversion, folklore.*

Tilshunosligimizda yordamchi so‘z turkumlari uchga bo‘linadi, yani bog‘lovchi, ko‘makchi va yuklama. Yordamchi so‘z turkumlari asosan, gaplarni, so‘z birikmalarni bir biriga teng yoki tobe bog‘lashga,ularning ma’nosiga qo‘shimcha ma’no yuklashga xizmat qiladi. Ular shevalarda, badiiy asarlarda, folklor janrlarda o‘ziga xos ifodalanadi. Badiiy asarlarda qo‘llanilib dialektizmni hosil qiladi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tog‘ay Murod o‘zining betakror, xalqona til bilan yozilgan asarlari tufayli mashhur bo‘ladi. Adib o‘ziga xos xalqona ,yani shevaga doir so‘zlarni , iboralarni , shu bilan birgalikda yordamchi so‘zlarni ham o‘z o‘rnida dialektal variantlarini qo‘llaydi. Yordamchi so‘z turkumlarining badiiy adabiyotda qo‘llanishini Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asari misolida tahlil qilamiz. Ushbu asarda yordamchi so‘z turkumlarining (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama) qo‘llanilishini, ularni adabiy til bilan qiyosini ko‘rib chiqamiz. **Yuklama:** Ham yuklamasi asarda **- *da, -am, -yam*** bo‘lib keladi.Bu esa ***ham*** yuklamasining bir necha dialektal variantlarda kelishiga misol bo‘la oladi va u gapning ma’nosiga qo‘shimcha ma’no yuklashga xizmat qiladi. *Masalan:*

Shunda-da bir nimani eshitmadi .

Hojar ko‘r go‘rniyam biladi.

Menam boraman ...

Bu qo‘shimcha dialektal qo‘shimcha bo‘lib nafaqat Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar’’ asarida balki, uning boshqa roman, qissalarida ham ko‘zga tashlanadi.

Asarda yana bir qancha ***uzra, bilan ,-chi, -da, ham , mi, hamda , sari , sayin kabi, va*** **(vhk) kabi ko‘makchi, bog‘lovchi yuklamalar keladi.**

Uzra ko‘makchisi *Hamisha bug‘doyday serob bo‘lsin deya kuyov boshi uzra bir hovuch bug‘doy sepdi.*

Bilan ko‘makchisi

Kuyov oshnalari bilan chimildiqqa ravona bo‘ldi.

Ha-a-a !!! Sen hali meni uyingdan haydayapsanmi? Meni-ya?

Vazifadosh ko‘makchi ***(qoshiga)*** qo‘llangan misollar ham mavjud bo‘lib, ko‘proq asar qahramonlarining nutqidan emas , muallif nutqida uchraydi va hozirgi adabiy tilda biroz farq qiladi, ya’ni **qoshiga** o‘rnida **qoshig‘a** ko‘rinishida qo‘llangan va asarning yanada badiiyroq bo‘lishiga xizmat qilgan. Alohida grammatik ma’no ifodalaydi va boshqaruvli birikmani hosil qiladi.

Yanga bo‘lmish og‘ayni jamoa qoshig‘a bordi.

Keyingi misolda esa - ku yuklamasi berilgan kuchli ta’kid ma’nosini berib kelgan.Gapning oxirida esa -a so‘roq yuklamasi ishtirok etgan. Ba’zi o‘rinlarda -ku yuklamasi -u bo‘lib qo‘l lanadi, uni bir necha misollar orqali fikrimizni dalillab o‘tamiz.

Yo... yo‘g‘e! U hali go‘dak-ku . Darrov-a?

So‘roq yuklamasi **ham** asarda juda ham ko‘p o‘rinlarda keladi , eng ko‘p qo‘llanadigan unumli so‘roq yuklamalardan biridir, so‘roq gaplarning bir necha marotaba takroriy holatda kelishi, so‘roq ma’nosini kuchaytirishga va badiiylikka xizmat qilgan. ***O‘zi baqting xushmi? Momosi , Eson omon yuribsanmi? To‘rt muchaling butmi?***

-da yuklamasi tilshunoslikda ta’kid manosini bildiradi va asarda ta’kid ma’nosini kuchaytirish uchun,aynan -da yuklmasa ko‘p o‘rinlarda kelgan va asarda ma’noni yanada kuchliroq, asarni badiiyroq chiqishiga xizmat qilgan.

Soatga ishonmayman. Soatda jon yo‘q-da (ta’kid ma’nosi)

-a yuklamasi

Hay-hay-hay bolaning sadag‘asi ketsanga-a. Uff farzandsizlik qursin-a befarzandligi quribgina ketsin-a (his-hayajon, kuchli emotsiya)

Ushbu asarda -ku yuklamasini -u o‘rnida ishlatilgan o‘rinlar bor. Yuklamalar asosan emotsional-expressivlikni beradi va ko‘proq boshqa uslublarga qaraganda badiiy, uslublarda va so‘zlashuv uslubida ko‘proq qo‘llangan.

-Momosi ,men ularni ko‘rdim...-dedilar – men senga aytib edim-u, hazrati Hizr yuzimizdan o‘tolmaydi deb!...

-da yuklamasi kuchli ta’kid ma’nosini ifodalab ,asarda takrorlanib kelgan o‘rinlari uchraydi achchiq kinoyani kuchaytirish maqsadida unumli qo‘llanilgan.

1.Mehmon degan qosh qorayguncha o‘tira berar ekan-da. Ro‘zg‘or deganni-da o‘ylaydi-da...- dedi.

2.Kumushbibi qayerda bo‘lsa Otabek-da shu yerda bo‘ladi-da. Ikkinchi namunada ikkita **-da** yordamchi so‘z turkumining grammatik ma’nosi turlicha birinchisida **-da** ham ayiruv yuklamasi hisoblanadi, ikkinchisi esa kuchaytiruv ta’kid yuklamasi hisoblanadi. Demak, bir xil ko‘rinishdagi ikki qo‘shimchaning ikki xil vazifa, ikki xil grammatik ma’nosi mavjud ekan.

Oqshom tag‘in-da oppoq , tag‘in-da nafis bo‘ldi.

Navbatdagi misol tag‘in -da yana ham manosini beradi. Ma’noni kuchaytirib ta’kidlab berishga xizmat qilmoqda .

Asarda xalq og‘zaki ijodi na’munalari ham berilgan bo‘lib , unda go‘zal misralar, allalar, yor- yorlar keltiriladi va shu bilan birga ularda yordamchi so‘z turkumlari nihoyatda unumli va o‘rinli keltiriladiki, asar baadiyligiga xalqona chiqishiga zamin yaratgan desak mubolog‘a bo‘lmaydi. Masalan:

Yorishmoqda olis chek ham,
Tong fusunkor ,suluv biram, G‘azal
yang‘lig‘ jarangdor dam, Yangroq xavo
esingdami?

Ushbu misrada ham yuklamasi , yanglig‘ ko‘makchisi va mi yuklamasi ishtirok etgan. Ular inversiya hodisaga uchrab doimiy o‘rnidan gapning oxiriga ko‘chgan. Keyingi misrada

Dasht-u dalada uzum ,alla-yo alla ,
Uzganimni kim bilar -a alla-yo alla-yo,

Xasrat-u armon bilan , alla-yo alla-yo,

Jon berganimni kim bilar-a alla-yo , alla-yo...

Bu yerda dasht-u dala so‘zi vazifadosh bog‘lovchi yordamida grammatik bog‘lanayapti. Va ushbu -u vazifadosh bog‘lovchi o‘rnida va sof bog‘lovchisini ham qo‘llashiniz mumkin bo‘ladi. -a so‘roq yuklamasi va mi so‘roq yuklamasi ushbu gapdagi bitta so‘zda ikki xil so‘roq yuklamasi ishtirok etgan.

- *Yo chini bilan u shunday o‘yga bordimikin-a?*

Uchun sof ko‘makchisi maqsad manosida qo‘llangan

Laylatu Ul-Qadrni cho‘chitib yubormaslik uchun yo‘talmay yotdi.

Xulosa so‘ngida badiiy adabiyotimizda tilimizning , til birliklarini bir qancha o‘xshash variantlarini topdik ularni grammatik manolarini chuqur o‘rgandik. bular juda ham ko‘p. Ayniqsa, xalq dostonlari badiiy adabiyotlarda ko‘proq uchraydi. Bu birgina yordamchi so‘zlar misolidagi namunalar edi. Asarda yordamchi so‘z turkumlari turli xil variantlarda, turli o‘rinlarda, har xil shaxslarning nutqida turlicha o‘ziga xos uslubda qo‘llangan. Ayni bir xil yuklama ikki vazifada kelgan, ikki xil grammatik mano ifodalagan yordamchi so‘zlar ham mavjud bo‘lib ularni yaxshi o‘rganib tilshunos sifatida yaxshi farqlay olishimiz zarur. Tilimiz shunchalik boy va betakrorki, nafaqat so‘zlarda rang baranglik , variatsiyalilik hatto qo‘shimchalarda va yordamchi so‘z turkumlarida ham mana shunday o‘ziga xoslikni ko‘rishimiz mumkin ayniqsa xalq og‘zaki ijodi namunalarida xususan, O‘zbekiston Xalq yozuvchisi Tog‘ay Murod asarlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Tilshunoslik fanini turli adabiyotlar bilan birgalikda o‘rganish til birliklarini boshqacha variantlarini ko‘rib chiqish bilan til haqidagi ko‘nikma va bilimlarimiz yanada ortadi. O‘zbek tilining boy,betakror jihatlarini o‘rgangan holda unga o‘zimizning hissamizni qo‘shib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Murod (2019) “Tanlangan asarlar” “Sharq” nashriyoti Toshkent.

2. Ashirboyev Samixon (2013) “O‘zbek dialektologiya” -Toshkent.

3. Xolmonova, Zulxumor, (2019) “Tilshunoslikka nazariyasiga kirish” Toshkent: “Nodirabegim” nashriyot

ODIL YOQUBOVNING “OQQUSHLAR, OPPOQ QUSHLAR” ASARIDA QO‘LLANGAN KITOBIY LEKSIKAGA OID SO‘ZLAR TAHLILI

Saparova Gulshoda Asqarali qizi,
DTPI O‘FF 3-kurs talabasi
saparovagulshoda210@gmail.com
Ilmiy maslahatchi: Sanjar Amirqulov,
DTPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri
amirqulov.sanjar@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada iste’dodli ijodkor Odil Yoqubovning istiqlol davrida yaratilgan “Oqqushlar, oppoq qushlar” romanida qo‘llangan kitobiy leksikaga oid so‘zlarning asar badiiyatiga qo‘shgan hissasi, qahramonlar xarakteri va davr ruhini yoritishdagi muhim roli tahlilga tortilgan. Shu jumladan, romanda foydalanilgan kitobiy leksikaning tarkibiy qismi hisoblangan ilmiy terminlar, badiiy so‘zlar, publisistik leksemalar, rasmiy ishga oid so‘zlar alohida-alohida tasnif qilingan va ularning badiiy xususiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Kitobiy leksika, ilmiy terminlar, badiiy so‘zlar, publitsistik so‘zlar, rasmiy ishga oid so‘zlar, eskirgan so‘zlar, poetik so‘zlar.*

Abstract. *In this article, the contribution of the book lexical words used in the novel “Swans, White Birds” by the talented creator Odil Yaqubov to the art of the work, the character of the characters and the important role of the spirit of the era are analyzed. Including scientific terms, artistic words, journalistic lexemes, words related to official work, which are part of the book lexicon used in the novel, are separately classified and their artistic features are analyzed.*

Keywords: *Book lexicion, scientific terms, artestik words, journalistic words, words related to official work, obsolete words, poetic words***.**

Tilning lug‘at tarkibi turfa xil bo‘lganidek, leksemalarning turli nutq turlarida bajaradigan vazifasi va bildiradigan xususiyati ham rang-barangdir.

Nutq turlarining mohiyatidan kelib chiqqan holda ilmiy nutq uchun ilmiy terminlar, rasmiy nutq uchun rasmiy ishga oid so‘zlar, badiiy nutq uchun badiiy so‘zlar, so‘zlashuv nutqi uchun og‘zaki nutqqa oid so‘zlar shu nutq turining leksik jihatdan xarakterlovchi lug‘aviy birliklar sanaladi. (Umurqulov, 2021, 111-bet)

Badiiy nutq keng qamrovli leksik tarkibni talab qilganligi sababli uning qurilishini faqat badiiy uslubga xoslangan so‘zlargina tashkil qila olmaydi. Vaholanki, voqealari aks etayotgan davr, xarakteri ifoda etilayotgan obraz va qahramonlar, ularning yashash hududlari va milliy qiyofasi badiiy asarda o‘z ifoda maqsadiga to‘la erishishi uchun badiiylikka xizmat qiluvchi turli san’atlar, sintaktik figuralar, troplar singari vositalardan tashqari ilmiy terminlarni, publitsistik so‘zlarni va rasmiy ishga oid leksikaga ham ehtiyoj sezadi.

Kitobiy so‘zlarning badiiy xususiyatlarini atroflicha tadqiq etish biror bir badiiy ijod namunasini lingvistik tahlil qilishni taqozo etadi. Shu maqsadda Odil Yoqubovning “Oqqushlar, oppoq qushlar” romanida qo‘llangan kitobiy so‘zlarni badiiy tahlil qilamiz. Asarda kitobiy so‘zlarga keng o‘rin ajratilgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, kitobiy so‘zlar o‘z tarkibida to‘rt guruhga bo‘linadi: badiiy so‘zlar, ilmiy terminlar, publitsistik leksika va rasmiy ishga oid so‘zlar.

Ilmiy terminlar badiiy nutqda qo‘llanilganda ham, asosan, fanning qaysi sohasiga oidlik xususiyatini saqlaydi. Chunki ilmiy terminlar badiiy nutqda ham, asosan, ilmiy nutqda bajaradigan vazifasini bajaradi. (Umurqulov, 2021, 121-bet)

Xususan, romanda fan va texnikaga oid terminlar keng qamrovli foydalanilgan. Masalan, bog‘bonchilikda ishlatiladigan **ishkom, payvand, xomtok** *(Erta bahor tokni ko‘tarib, ishkomlarga urdir, suv ber, birini payvand qil, birini xomtok, degandek, ming bir ishi bor),* paxtachilikka oid **g‘o‘za** *(Ajabo, hozir, ming-ming gektar qo‘riq yerlar ochilayotgan paytlarda bu suvsiz adirda go‘za ekish kimning xayoliga keldiykin?),* dehqonchilik buyumlaridan **panshaxa** *(Bir necha yigitlar bir tonnacha paxtani panshaxa bilan ag‘darib, oftobda quritishmoqda edi)* qishloq xo‘jalik texnikasiga oid **traktor** *(Shavvoz undan bog‘ ishlariga juda qo‘l keladigan mitti chex traktorini so‘rab borgan edi),* ilmiy tadqiqot faoliyatiga doir **maqola** *(Kechagi ikki maqolangiz ja zo‘r chiqibdi),* kommunikativ texnika mahsuli bo‘lgan **telegramma** (*Juda vaqtida keldingiz-da, kecha telegramma beruvdik),* fizikaga oid terminlardan **harorat** *(Ulug‘bekning peshonasi cho‘g‘day issiq, chamasi, harorati qirqdan kam emas edi),* matematikaga oid **kilometr** *(Bu yerdan nari borsa yigirma kilometr keladi),*

talimning yuqori bosqichi bo‘lgan **aspirantura** *(Rasul olim bo‘lish niyatida aspiranturada qoldi),* texnik ehtiyot qismlaridan **pritsep** *(Pritseplar, shiyponlar, chumoliday o‘rmalab yurgan odamlar…)* singari terminlar fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Asarning publisistik leksikasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular mavzu ko‘lami jihatidan ikki turga ajraladi: maxsus publitsistik so‘zlar va ijtimoiy siyosiy so‘zlar. Olimlar tomonidan publitsistika va badiiy adabiyotning mushtarak jihatlari haqida shunday fikrlar keltiriladi: “Hodisalarga yondashish funksiyasi, ta’sir qilish vositalari jihatidan publitsistika bilan badiiy adabiyot o‘zaro yaqinlashadi. Badiiy adabiyotning asosiy vazifasi voqelikni obrazli suratda aks ettirish va kitobxonga estetik ta’sir etishdan iboratdir. Gazeta ham voqelikni aks ettiradi, lekin u voqealarni badiiy tarzda emas, ko‘proq publitsistik uslubda kundalik nutqimiz yordamida ifodalaydi”. (Boboyeva, 1998, 126-bet)

Asarda qo‘llangan siyosiy-ijtimoiy so‘zlar qatoriga “sobiq SSSRda qishloq xo‘jaligida tashkil etilgan yirik davlat xo‘jaligi” ma’nosini anglatgan **sovxoz** *(Bugun oqshom uni sovxoz direktori chaqirib qoldi),* “almashlab ekishga amal qilmagan holda dalaning o‘zida faqat bir xil ekinni muttasil yetishtirish” ma’nosini anglatuvchi **monokultura** *(Bu, deydi, hammayoqni bir xil ekin qilib, monokultura qilib yuboribsiz-ku),* o‘sha davrda faoliyat ko‘rsatgan **rayon matbuot jamiyati** *(Ammo bir yil o‘tmasdanoq uni rayon matbuot jamiyatiga boshliq qilib ko‘tarishdi),* **viloyat xalq kontroli komiteti** *(Do‘st-birodarlarni ishga solib, viloyat xalq kontroli komitetidan bitta odam topdi),* **respublika xalq kontroli komiteti** *(U ko‘pdan beri viloyatdan markazga, respublika xalq kontroli komitetiga o‘tish harakatida yurar ekan)* singari so‘z va so‘z birikmalar kiradi. Badiiy matnda bu kabi atamalarning keltirishning asosiy sababi voqealar yuz berayotgan davrning ijtimoiy-siyosiy ruhini kitobxonga sezdirishdir.

Rasmiy ishga oid so‘zlar badiiy asarda qo‘llanilganda ham, asosan, rasmiy uslubga xoslikni ta’minlash vazifasini bajaradi. Biroq badiiy asarlarda qahramon nutqini xarakterlash, qahramonning saviyasini ko‘rsatishda rasmiy ishga oid so‘zlardan uslubiy maqsadlarda foydalaniladi (Umurqulov, 2021, 121-bet).

“Oqqushlar, oppoq qushlar” romanida rasmiy ishga oid **e’lon** (*Tashqari eshik tepasida ko‘k bo‘yoq bilan qing‘ir-qiyshiq yozilgan e’lon osig‘liq turardi: “Hamma-paxtada!”)* so‘zi keltirilgan. Ushbu leksema mustabid hokimiyat yuritgan siyosatning ayrim qirralarini ochishga xizmat qilgan. Mazkur guruh so‘zlarini davom ettiradigan bo‘lsak, hozir ham rasmiy-yuridik organ hisoblangan **militsiya** *(O‘rmon xo‘jaligidagi ish hali ham militsiyaga o‘tmagan), “*hujjatlar yig‘indisi” ma’nosini bildiradigan **papka** *(Farmonov kechasi uning papkasidagi hujjatlarni ko‘rib shunday quvonib ketdiki…)* singari so‘zlar uchraydi. Bu kabi so‘zlar har jihatdan rasmiyligini saqlab qolgan va qahramonning huquqiy savodxonligini, saviyasini ochiqlash uchun istifoda etilgan.

Asar matnida qo‘llangan badiiy so‘zlar miqdori anchaginani tashkil qiladi. Bu, albatta, tabiiy hol. Chunki, matn badiiy ekan, uning asl mohiyatini badiiylikka xizmat qiluvchi so‘zlar namoyon qiladi. Ushbu so‘zlar badiiy so‘zlar deb nomlanib, biz o‘rganayotgan kitobiy leksika tarkibining salmoqli qismini tashkil qiladi.

Atoqli tilshunos Bekpo‘lat Umurqulov badiiy so‘zlar haqida fikr yuritar ekan ularning xususiyatlarini shunday tasniflaydi: a) boshqa nutq turlarida deyarli qo‘llanilmaydi; b) umumiste’moldagi sinonimlardan nozik ma’no ifodalash xususiyatlarining mavjudligi bilan farqlanadi; d) talaffuzda jarangdor, mazmunan jozibali bo‘lganligi uchun badiiy fikr ifodalashga mos. (Umurqulov, 2021, 129-bet).

Romanda ijodkor badiiy so‘zlardan ustalik bilan foydalanib, o‘z oliy maqsadiga erishishga harakat qilgan. Badiiy so‘zlar, o‘z navbatida, ma’noviy jihatdan eskirgan va poetik so‘zlarga bo‘linadi. Dastlab asarning eskirgan so‘zlardan iborat leksikasi bilan tanishamiz.

Tilshunos olim Q. Samadov ta’kidlaganidek, arxaik va tarixiy so‘zlarni badiiy nutqda qo‘llanilishidan asosiy maqsad davr ruhini berish, personajlar nutqini xarakterlash, voqelikni tabiiy tarzda gavdalantirishdan iborat. (Samadov, 1991, 10-bet)

Shunday ekan, “Oqqushlar oppoq qushlar” romanida o‘sha davr muhitini to‘laqonli yaratish, o‘quvchiga ma’lum bir so‘zlarning hozir eskirgan bo‘lsa ham, avvalgi davrda iste’molda bo‘lganini anglatish maqsadida foydalanilgan **jom** *(Oysuluv katta mis jom bilan ikki chelak issiq suv hozirlab qo‘ygan ekan*) so‘zi uy ro‘zg‘or buyumini anglatadi; harbiy sohaga doir eskirgan **sarkarda** (O‘tmishda avom xalq hazrat Ukkosha deb atagan bu qabr aslida katta bir sarkardaning mozori bo‘ib chiqadi) so‘zi qahramonning o‘tmishda harbiy lavozimga ega bo‘lganligini ko‘rsatish uchun xizmat qilgan.

Asarda qo‘llangan poetik so‘zlar haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, ularning har biri go‘zal ma’no nozikliklariga ega va umumiste’moldagi sinonimlaridan farqli ravishda, ma’lum nutq uslubi uchun xoslangan. Masalan, **orti** *(Vertolyot “Bog‘i eram”ning ortida, boya samolyot qo‘ngan taqir joyda kutib turardi)* so‘zi umumiste’moldagi orqasi so‘zi bilan, **batamom** (*U otasi Muzaffar Farmonovning batamom aksi)* so‘zi umuman so‘zi bilan ma’nodosh, belgi-xususiyat, emotsional-ekspressivlik jihatdan farqlanmaydi. Ammo bu so‘zlarning dastlabkilari orti va batamom so‘zlari badiiy nutq uchun tabaqalangan. Bu ularning ixcham va jarangdorligi bilan izohlanadi. Badiiy nutqqa xos **jilva** so‘zi, asosan, “noz-karashma bilan qarash” ma’nosini ifodalaydi. Ammo biz tahlil qilayotgan nasriy matnda **jilva** so‘zi “nozik ko‘z qarash” ma’nosini emas, balki “aks etmoq” ma’nosini ifodalagan: *Simobday miltiragan mungli ko‘zlarida hayratomuz bir ifoda jilva qilardi.*

Nutq ma’no hosil qilish jarayoni bo‘lganidek, so‘z yasalishi uchun ham asosdir. Yangi yasamalar, ko‘proq, badiiy nutqda paydo bo‘lib, shu nutq orqali umummuomalaga kirib boradi. Ana shunday badiiy nutqda yasalib, umumiste’molga kirgan so‘zlar qatoriga “Oqqushlar, oppoq qushlar” romanida qo‘llangan **xushlamoq, xushqad, xushsurat, nohalol, shersimon** singari so‘zlar kiradi. Shu o‘rinda **nohalol** *(Shaharga jo‘natib yuborgani ham endi ko‘ziga nohalol bir narsa bo‘lib ko‘rina boshladi)* so‘zining poetik vazifasiga diqqat qaratmoq joiz. Adabiy tilda “halol” so‘zining zid ma’nosini ifodalovchi “xarom” so‘zi bo‘lishiga qaramasdan, adib “nohalol” leksemasini yasaydi. Buning asosiy

sababi xaromning ma’nosi va ta’sir kuchini biroz bo‘lsa-da kamaytirishdir. Bu esa shu so‘zni o‘z nutqida ishlatgan asar qahramonining yumshoq fe’lliligi va juda yuqori didga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, “katta va qadimiy” ma’nolarini o‘zida aks ettiruvchi **muazzam, ko‘hna**, **ulug‘vor;** “xursand” semasini ifodalovchi **mas’ud, mamnun** sinonimik qatori ham asarda badiiy so‘z vazifasini o‘tagan. Ularning barchasi badiiy matnda o‘zining jozibadorligi va ta’sir kuchi bilan kitobxonga zavq bag‘ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi kabi, asosan, yozma uslubga xos bo‘lgan kitobiy so‘zlar badiiy asar qiymatini oshiradi va unga leksik rang-baranglik bag‘ishlaydi. Biz tahlil qilgan “Oqqushlar, oppoq qushlar” asarida iste’dodli yozuvchi Odil Yoqubov ilmiy terminlarni, rasmiy ishga oid so‘zlarni, publitsistik va badiiy so‘zlarni qo‘llashda o‘z mahoratini ishga solib, adabiyotning go‘zal namunasini yaratishga muvaffaq bo‘lgan, desak, aslo adashmagan bo‘lamiz. Zero, har qanday so‘z mahoratli ijodkor qo‘lida haqiqiy san’at yaratilishida katta hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E, Boboyeva A, Assomiddinova M, Umurqulov B. (1998). O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent: Fan.
2. Samadov Q. (1991). O‘zbek tili uslubiyati. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Umurqulov B. (2021). Badiiy nasr jozibasi. Toshkent: Muharrir.
4. Yoqubov O. (2012). Oqqushlar, oppoq qushlar. Toshkent: Sharq.

BADIIY MATNLARDA “MEN” KISHILIK OLMOSHINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Saylaubaeva Bibigul Jenisbay qizi

ToshDO‘TAU O‘TAT 1-kurs talabasi,

Annotatsiya: *Maqolada olmoshlar haqida umumiy ma’lumotlar va “Men” kishilik olmoshining semantik va lingvopoetik xususiyatlari Usmon Azim she’riyati misolida ochib berilgan. Bunda Usmon Azimning 1195-yilda nashr qilingan “Saylanma”si tadqiqot obekti sifatida tanlab olindi va to‘plamdagi sherlar statistik tahlilga tortildi. Tahlil natijasida shaxs olmoshi o‘z ma’nosidan tashqari*

ko‘chgan holda qo‘llanishiga ham e’tibor qaratilgan. “Men” konsepsiyasi, “ideal men” va “real men” masalasi ham ushbu maqolada ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Olmosh, kishilik olmoshlari, o‘ziga baho berish, “Men” konsepsiyasi, ideal va real men, lingvopetika.*

Annotation: *In the article, general information about pronouns and the semantic and linguopoetic features of the personal pronoun "I" are revealed on the example of Usman Azim's poetry. In this case, Usman Azim's "Saylanma" study, published in 1195, was selected in Uzbek language, and the lions in the collection were subjected to statistical analysis. Paying attention to the fact that the personal pronoun of analysis is used outside of its meaning. The concept of "I", the issue of "ideal me" and "real me" is also revealed in this article.*

Keywords: *Pronouns, personal pronouns, self-evaluation, "I" concept, ideal and real me, linguopedics.*

Olmoshlar barcha davrlarda tilshunoshlik uchun qiziqarli ayni paytda nutq egasining lisoniy imkoniyatlarini ko‘rsatib beruvchi muhim omil hisoblangan.Ulardan unumli va oqilona foydalanish poetik nutqning ham qimmatini oshiradi.

Ma’lumki , so‘zlar ma’noviy belgisiga ko‘ra uch tipga bo‘linadi:

a) mustaqil ma’noli so‘zlar (fe’l, ot, sifat, son, ravish, taqlid so‘zlar);

b) bo‘sh- ishora ma’noli so‘zlar (olmosh);

d) yordamchi so‘zlar (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, ko‘makchi fe’llar).

“Ishoraviylik” ramzi bilan ataluvchi olmosh boshqa leksemalardan ajralib turadi.O‘zbek tilshunosligida olmoshning doirasi va vazifasi zo‘rma-zo‘rakilik bilan ancha chegaralanib “ot, sifat, son,balki fe’l, ravish, taqlid, undov, gap va hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan.

Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo‘lgan umumiy (mavhum) ma’noni anglatadi. Olmosh bildiruvchi ma’no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi.Ular o‘zlari almashtiruvchi so‘z kabi morfologik jihatdan o‘zgaradi.

Jumladan, badiiy matnlarda, xususan, Usmon Azim she’riyatida hayotning butun ziddiyotlarini his etadigan lirik qahramonning g‘oyat rang-barang kechinmalari ifodasini ko‘ramiz. Ma’lumki, she’riyatda lirik qahramon kechinmalarida “Men”- shoir shaxsiyati va uning hayot haqidagi qarashlari umumlashtirish bilan birga, muayyan stilistik, poetik va semantik vazifalarni bajaradi.Shoir yaratgan lirik qahramon o‘tmishni, o‘zi yashayotgan davrni chuqur his etadi. Shu bilan birga, u kelajak haqida ezgu niyatlar qiladigan davr kishisining murakkab timsoliga aylanadi.

Arab tilshunosligida olmosh alohida so‘z turkumi sifatida berilmagan, balki har bir so‘z turkumi ichida “yashirin ma’noli so‘z” (zamirlar) sifatida alohida guruhlarga ajratilgan. Chunonchi,kitob, daftar, Abbos -aniq ma’noli ot bo‘lsa, men, sen, kim, nima – yashirin ma’noli ot (zamir otlar)dir. Yoxud oq, qizil, chiroyli – ma’lum ma’noli sifat hisoblansa, bunday, shunday kabilar “zamir sifat”dir.

Quyida shoir Usmon Azimning she'rlaridagi “Men” kishilik olmoshining lingvopoetik xusuyilarini tahlilga tortamiz.

Qo‘riqchilar boqadi hayron,
*Hech kim **<u>menga</u>** demaydi:”To‘g‘ri!..*
Sen bir mo‘min, begunoh inson,
O‘lishi shart, axir, u-o‘g‘ri!”
(“Tush” she’ridan)

Shoir yuqoridagi satrida o‘ziga o‘zi baho beryapti, ya’ni shoirga hech kim sen to‘gri, mo‘min, begunoh inson ekanligini aytmayotganligini ta’kidlaydi.

***<u>Men</u>** quvonib gul uztgandim,*
Kim yuzimga itqidi xasni?
Sig‘inganim, suyanganim manim,
Baxtli bo‘lish mumkin emasmi?

Yuqoridagi satrlarda “Men” olmoshi o‘tgan zamondagi fe’l bilan bog‘lanib, o‘zining nochor ahvolda qolganini, baxtli bo‘lish uchun nimalar qilganini ta’kidlagan.

Ma’lumki, kishilik olmoshi shaxs olmoshi deb ham yuritiladi, chunki shaxsga ishora qiladi. Shaxs olmoshining qo‘llanishida ayrim o‘ziga xoslik bor. Shaxs olmoshi o‘z ma’nosidan tashqari ko‘chgan holda qo‘llanishi mumkin.

Men *yor dedim… Laylimi yo, Shirinmi yo!*

Yoki endi tug‘ilajak biror malak?

Mana, ***men****, deb ko‘z oldimda bo‘ldi paydo,*

Mana, ***men****, deb she’rdan boqdi yakto yurak.*

Umumiy ko‘rinishda psixologiyada “Men” konsepsiyasining ikki shaklida ajratib ko‘rsatilgan-real va ideal. “Real” tushunchasi zinhor bu konsepsiyaning haqiqatdan realligini nazarda tutmaydi. Bu yerda eng asosiy shaxsning o‘zi haqidagi tasavvuri “Qanday bo‘lsam shundayligimcha” mazmunidagi g‘oyaning ifodasidir. (Oripova, 226-227-bet)

Men

javobsiz xatman

Faryodlarim beun.

Negadir

sendan o‘zganing

Javobi

Kerakmas

men*ga…*

Usmon Azim yuqoridagi satrlarida men-kishililik olmoshini -man bog‘lovchisi bilan bog‘lagan. -man bog‘lovchisi men kishilik olmoshining ma’nosini ochib berishga xizmat qilgan. Ya’ni insonning qanday bo‘lsa shunday ekanligini ko‘rsatish uchun “Real”menni yaqqol ochib bergan.

Ideal “Men” konsepsiyasi esa bu shaxsning o‘zi haqidagi (istagidagi) tasavvuri ya’ni “Qanday bo‘lishni istayman” g‘oyasining ifodalanishidir.

Farishtalar boqqusi hurram

Tangri rahmat so‘zlarin aytar

Men*-chi, tinmay yig‘layman purg‘am:*

“Qaytar, ***menga*** *do‘stimni qaytar!”*

(“Kuzgi bog‘” she’ridan)

Usmon Azim yuqoridagi satrlarida esa men kishilik olmoshining “Ideal” men tushunchasini kelasi zamon bilan ifodalagan. Bundan xulusa qilishimiz mumkinki, shoir ideal menini kelasi zamonsiz qo‘llay olmaydi.

Insonni o‘zi haqidagi tasavvurlari g‘oyalari, bahosi va xulq-atvor tendensiyalari yig‘indisi “Men” konsepsiyasi deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda “Men” konsepsiyasi subyektni o‘zi haqidagi eng umumiy ustanovkalari tizimidir. (Oripova,228-bet) “Men” konsepsiyasi odamni turli sohalarda muvaffaqiyatini va zaif tomonlarini belgilaydi va 3 ta rolni bajaradi:

Birinchidan-shaxsning ichki o‘zaro roziligiga erishishga turtki beradi.

Meni *seving,*

Mendan *nafratlaning -*

Boshqasiga ruxsat bermayman.

Men *sizni sevaman,*

Va nafratlanaman,

Mayda tuyg‘ularni ko‘rmayman ravo.

Ikkinchidan-odamni tajribasini ifodalaydi.

Betaqot kurashning vayronligida

Yiqildim - vujudi ruhim chilparchin

Mening *mag‘lubligim zindonligiga*

Botinib boqmadi biror Oybarchin.

Uchinchidan-shaxsning umumiy tasavvurlarini kutish manbasi bo‘lib ifodalaydi.

Go‘ro‘g‘lidan aytgin! Har bir so‘zing o‘ng

Shoir, ***men*** *- vujudman. Sen tirik yurak.*

Mendan *uyalmagin .* ***Men*** *kirgandan so‘ng*

Zax yerning osti ham -osmondan yuksak.

(“Go‘ro‘g‘li “she’ridan)

Men *quladim ko‘z yoshlaringga*

Tushlaringga undan ham nari

Men *quladim qaroshlarishta-*

Borsa kelmas muhabbat sari.

Xulosamiz shuni ko‘rsatadiki, Usmon Azim she’riyatida olmoshning barcha turidan keng foydalangan. Bunga dalil sifatida shoirning she’rlarini statistik tahlil qilganimizda olmoshlarning katta miqdorini ya’ni 41% ni kishilik olmoshlari tashkil etgan. Shoir she’riyatida lirik qahramon kechinmalarida “men”-shoir shaxsiyati va uning hayot haqidagi qarashlari umumlashtiradi. Shu bilan birga Usmon Azim sheriyatini lingvokultorologik jihatdan tadqiq etilishiniga keng yo‘l ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshqalar. (2009) Hozirgi o‘zbek adabiy til. Toshkent.
2. Usmon Azim. (1995) Saylanma. Toshkent.
3. SH. Rahmaatullayev. (2009). Hozirgi o‘zbek adabiy tili.
4. Oripova Sh. Psixologiyada men konsepsiyasisi talqini// So‘ngi-ilmiy tadqiqotlar nazariyasi
5. www.Expert.psychology.ru

XORAZM DIALEKTLARIDA QO‘LLANILADIGAN LEKSEMALARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Sotliqova Barchinoy Alisher qizi

ToshDO‘TAU OTAT, 2-kurs talabasi

barchinoysotliqova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Rafiqjon Zaripov Ergashboy o‘g‘li

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm dialektlarida qo‘llaniladigan leksemalarning semantik, morfologik va yasalish xususiyatlari ochib berilgan. Xorazm shevasida foydalaniladigan, ammo hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lmagan,shuningdek, kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan dialektizmlar tahlil qilingan hamda ushbu shevaga oid so‘zlar semantik jihatdan mavzuviy guruhlarga ajratilgan. Mazkur tadqiqot Xorazm viloyati Xiva tumani qishloqlari bo‘yicha olib borilgan kuzatish natijasi sanaladi.*

Kalit so‘zlar: *adabiy til, sheva so‘zlari, fonetik o‘zgarish, qarindoshlik, semantik tahlil, morfologik tasnif, lug‘at.*

Abstract*. In this article, the semantic, morphological and compositional features of lexemes used in Khorezm dialects are revealed. Dialectisms used in the Khorezm dialect, which do not exist in the modern Uzbek literary language, and which have undergone strong phonetic changes, are analyzed, and the words of this dialect are semantically divided into thematic groups. This study is the result of observation conducted in the villages of Khiva district of Khorezm region.*

Key words*: literary language, dialect words, phonetic change, kinship, semantic analysis, morphological classification, dictionary.*

Istiqlol yillariga yetganimizdan so‘ng yurtimizda fan, madaniyat, ta’lim-tarbiya, texnika, iqtisodiyot, siyosat sohalarida mustaqillik tufayli juda katta ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi va bundan keyin ham ular davom etaveradi. Shu sababli ular adabiy tilimizda ham, shevalarimizda ham o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbek adabiy tili xalq shevalaridan o‘ziga kuch oladi, chunki sheva bo‘lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo‘lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asosi bo‘lmasa, har qanday adabiy til vaqt o‘tishi bilan o‘lik tilga aylanadi. O‘zbek shevalarini o‘rganishning ahvoli va kelajagi masalasini o‘ylab ko‘rish kerak. Agar sal befarqroq bo‘lsak, shevalarimizning bugungi dialektal boyligi va betakror nufuzini ilmiy manbalarda saqlab qolishdan ojiz bo‘lib qolamiz. Ta’kidlash joizki, o‘zbek shevashunosligi borasida olimlarimiz izlanishlar olib borishyapti, shunday bo‘lsa-da, bu sohaning hali ochilmagan qirralari ko‘p.

Xorazm shevasi leksikasini o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada Fattoh Abdullayev katta tadqiqot ishlarini olib borgan va bu sheva bo‘yicha qimmatli nazariy ma’lumotlar to‘plagan, shuningdek, Xorazm shevalarining ancha mukammal lug‘atini birinchi bo‘lib yaratgan mashhur dialektolog olimdir. Shuningdek, Y.Jumanazarov Janubiy Xorazm dialektining sintaktik tuzilishini, S.Ashirboyev esa qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalarining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini o‘rgangan, Y.Bobojonov esa Janubiy Xorazm etnografik leksikasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan va shu nomda 1997-yili

kitob nashr ettirgan. Ammo zamon rivojlanishi bilan barcha sohalarda o‘zgarish bo‘ladi va bu albatta, shevalarda ham o‘z aksini topadi. Shunday ekan, hozirgi globallashuv jarayonida Xorazm shevalari bo‘yicha yechilmagan muammolar o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Xorazm dialektida qo‘llaniladigan leksemalarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lmagan, shevada ishlatiluvchi leksemalar: bakli, qapi, hiyli, jo‘nqi, nax, yarchiq va boshqalar (bu turdagi leksemalar soni ko‘pchilikni tashkil etadi);

2. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud, ammo shevada boshqa ma’noda qo‘llaniladigan leksemalar: ata, aka, uka, apa, taka, o‘ymoq, solma;

3. Kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan leksemalar: burunch(guruch), na-chun(nima uchun), dishan(tashqari), pishik(mushuk), ajji(achchiq).

Birinchi turga mansub leksemalar Xorazm shevasida faol qo‘llaniladi, bunday so‘zlar adabiy tilda uchramaydi, ammo shevadagi ma’noni beradigan muqobiliga egadir. Misol uchun, shevadagi *bakli* so‘zi adabiy tilda *yopiq* leksemasiga teng. Ammo *bakli* shaklidagi so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud emas.

O‘zbek tilining Xorazm shevasida ishlatiladigan ayrim so‘zlar adabiy tilda anglatadigan ma’nosidan farqli o‘zga ma’noni bildiradi. Qarindoshlik nomlari hisoblangan *aka, uka, opa, ota* kabi so‘zlar adabiy tilda mavjud bo‘lib, shevada anglatgan ma’nosi bilan keskin farqlanadi. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi “farzandli, bola-chaqali er kishi” ma’nosini beruvchi *ota* leksemasi shevada dada ma’nosida *aka* leksemasi bilan ishlatiladi. Sababi shuki, ota leksemasi boboga nisbatan ishlatiladi. Adabiy tildagi “bir ota-onadan tug‘ilgan katta o‘g‘il farzand” ma’nosini anglatuvchi *aka* leksemasi esa shevada *og‘a* leksemasi bilan ifodalanadi. *Opa* leksemasi esa ona ma’nosida ishlatiladi, chunki “katta qiz farzand” ma’nosini bildiruvchi *apka* leksemasi shevada mavjud. (O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari, 2022, 42-bet). Quyidagi jadvalda bunday leksik birliklarga namunalar keltiramiz:

Adabiy tilda	**Xorazm shevasida nomlanishi**

bobo	ota
dada	aka
aka	Og‘a
ona	apa
opa	apka

Adabiy tilda “echkining erkagi” ma’nosini anglatuvchi *taka* leksemasi shevada umuman o‘zgacha ma’noni anglatadi. Ushbu leksema Xorazm viloyatining ko‘pchilik tumanlarida *yostiq* ma’nosida keng qo‘llaniladi (Abdullayev F., 1961, 140-bet). Ajablanarli jihati shuki, ma’nolar orasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q. Shuningdek, *o‘ymoq* va *solma* leksemalari adabiy tilda fe’l so‘z turkumiga mansub bo‘lib, *o‘ymoq* leksemasi “biror narsa bilan kovlab, chuqur hosil qilmoq” manosini, *solma* leksemasi esa “biror narsa ichiga joylamoq, qo‘ymoq” ma’nosining bo‘lishsiz shaklini anglatadi. Shevada esa ushbu leksemalar ot so‘z turkumiga mansub bo‘lgan “angishvona” va “kichik ariq” ma’nosida qo‘llaniladi. Shuningdek, biz quyidagi jadval asosida Xorazm shevasiga oid leksemalarni mavzuviy guruhlarga ajratib, ularni morfologik jihatdan tasnifladik, ayni paytda bu kichik dialektologik lug‘at hamdir (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1981, 20-631-betlar; F.Abdullayev., 1961, 16-126-betlar):

T/r	**Oziq-ovqat**		
	Shevada nomlanishi	**Adabiy tildagi muqobili**	**So‘z turkumi**
1.	Annapiyda	Chilonziyda	Ot
2.	Rujja	Ko‘ksulton	Ot
3.	Chiya	Olcha	Ot
4.	So‘lqildaq	Qozon kabob	Ot
5.	Ijjan	Qiyma	Ot
6.	Yumurta	Tuxum	Ot
7.	Gashir	Sabzi	Ot
8.	Kadi	Qovoq	Ot
9.	Barak	Chuchvara	Ot
O‘simliklar			

10.	Chingirik	Shakarqamish	Ot
11.	Chimishka	Kungaboqar	Ot
12.	Nalcha	Nihol	Ot
13.	Yelo‘y	Yalpiz	Ot
14.	Yo‘rinja	Beda	Ot
15.	Mejina	Mag‘iz	Ot
Uy hayvonlari			
16.	Pishik	Mushuk	Ot
17.	Gechi	Echki	Ot
18.	O‘jak	Buzoq	Ot
19.	Tamancha	Ninachi	Ot
20.	Qarinja	Chumoli	Ot
Qarindoshlik atov birliklari			
21.	Og‘o	Aka	Ot
22.	Apka	Opa	Ot
23.	Biyi	Kelinoyi	Ot
24.	Doyi	Tog‘a	Ot
25.	Qayinbika	Qayin opa	Ot
26.	Baldiz	Qayin singil	Ot
27.	Axtiq	Nabira	Ot
28.	Bavak	Chaqaloq	Ot
Jihozlar			
29.	Yo‘g‘ich	Jo‘va	Ot
30.	Ustar	Stol	Ot
31.	Bichqi	Arra	Ot
32.	Arja	Sandiq	Ot
33.	Qopi	Eshik	Ot
34.	Tuncha	Ko‘za	Ot
35.	Patik	Tom	Ot
Narsa-buyum			

36.	Sarinjaq	Arg‘imchoq	Ot
37.	Diljak	G‘ildirak	Ot
38.	Zangi	Narvon	Ot
39.	Karvuch	G‘isht	Ot
40.	Qoriq	Egat	Ot
41.	Chalur	Shim	Ot
42.	Nox	Ip	Ot
43.	Solma	Ariq	Ot
44.	Qo‘noq	Qazg‘oq	Ot
45.	O‘ymoq	Angishvona	Ot
Insonga xos xususiyatlar			
46.	Hiyli	Tannoz	Sifat
47.	Jo‘nqi	Maqtanchoq	Sifat
48.	Jirpi	Sho‘x (salbiy)	Sifat
49.	Utuk	Ziqna	Sifat
O‘rin – joy bildiruvchi birliklar			
50.	Otiz	Dala	Ot
51.	Mush	Chekka	Ot
52.	Ashaq	Past	Sifat
53.	Xaras	Tegirmon	Ot
54.	Dig‘iriq	Tor yo‘lak	Ot
55.	Uchak	Tom	Ot
Sifatlovchi birliklar			
56.	Im-sim	Jim	Sifat
57.	Yilimji	Iliq	Sifat
58.	Suji	Chuchuk	Sifat
59.	Bakli	Yopiq	Sifat
60.	Yaxti	Yorug‘	Sifat

Yuqoridagi leksemalarning ko‘pchiligi morfemik jihatdan tub so‘z hisoblanadi. Ulardan adabiy tildagi muqobili *ko‘chat* bo‘lgan *nalcha* leksemasining

o‘zak qismi *nal* bo‘lib, -cha otlarning kichraytirish qo‘shimchasidir. Kuzatishlarimiz jarayonida amin bo‘ldikki, shevada ushbu leksema o‘zak qismining o‘zi ham nutqda faol qo‘llaniladi va bu kichraytirish ma’nosiga ta’sir qilmaydi. Shuningdek, yopiq ma’nosini beruvchi *bakli* leksemasi tarkibidagi -li sifat yasovchi qo‘shimcha deb qaralmaydi. U tub sifat hisoblanib, shevada *bak* degan so‘z mavjud emas.

Ushbu kichik tadqiqot keng ko‘lamda olib borilsa, bu jadval ancha kengayib, dialektologik lug‘at vujudga keladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lmagan, ammo shevada ishlatiladigan leksemalarni o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritish bilan bog‘liq amaliy va nazariy tadqiqotlarni jonlantirish lozim. Yuqorida keltirilganidek, bu kabi leksemalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Zero, tilimiz boyligini oshiradigan bunday so‘zlarni o‘rganish va saqlab qolish bugungi globallashuv jarayonida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev.F. (1961). O‘zbek tilining Xorazm shevalari. – Toshkent: O‘zbekiston SSR FA nashriyoti, 631 b.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (1981). – Moskva: Rus tili nashriyoti, 631 b.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2020). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 1- tom, 680 b.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2020). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2-tom, 671 b.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2020). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 5-tom. 591 b.

6. O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. (2022). – Toshkent: Donishmand ziyosi, 41-44-betlar.

POLISEMIYA VA OMONIMLAR QIYOSI

Tilovova Hilola Komil qizi,
JDPU o‘zbek tili va adabiyoti
fakulteti, 3-bosqich talabasi
xilolatilovova2002@gmail.com

Annotatsiya. *Ko‘p asrlar davomida o‘zbek tili takomillashdi. Natijada hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksikasi, fonetikasi, orfografiyalarida ma’lum me'yorlar yuzaga keldi. Tilda ijtimoiy vazifalar ortishi bilan tilning lug‘at boyligi ham o‘zgarishga uchraydi. Bir ma’noli, ko‘p ma’noli, sinonim yoki omonimlar yuzaga keldi. Yuzaga kelgan shaklan o‘xshash so‘zlar - polisemiya va omonimlarni bir-biridan farqalamoq zarur. Ushbu maqolada omonimlarning yuzaga kelishi, shakldoshlarning o‘zaro farqlari, polisemiya - ko‘p ma’noli so‘zning omonimlar bilan qiyosi tahlilga tortiladi.*

Kalit so‘zlar: *Omonim, momosemiya, polisemiya, leksik ma’no, semema, leksema, ekstralingvistik omil, o‘z ma’no, ko‘chma ma’no, metaforik ko‘chish*

Abstract. *The Uzbek language has improved over many centuries. As a result, certain norms have emerged in the lexicon, phonetics, and orthography of the modern Uzbek literary language. With the increase of social tasks in the language, the vocabulary of the language also changes. Single-meaning, multiple-meaning, synonyms or homonyms have appeared. It is necessary to distinguish words that are similar in form - polysemy and homonyms. In this article, the occurrence of homonyms, mutual differences of formatives, polysemy - the comparison of polysemous words with homonyms is analyzed.*

Keywords: *Homonym, momosemy, polysemy, lexical meaning, sememe, lexeme, extralinguistic factor, own meaning, figurative meaning, metaphorical transfer*

Hozirgi o‘zbek adabiy tili kursi vazifalaridan biri talabalarga hozirgi o‘zbek tilining fonetik sistemasi, leksik tuzilishi, so‘z yasalishi va grammatik qurilishi, punktuatsion sistemasi haqida bilim berish, ular asosida talabalarda adabiy til me'yorlari bo‘yicha malaka hosil qilishdir.

Adabiy til – umumiy xalq tilining tovush, so‘z va grammatik qurilishida mavjud bo‘lgan qonuniyatlarni ma’lum normaga solib turuvchi mezon. Bu mezon shu tilda so‘zlovchi barcha vakillar uchun umumiy. Me’yorlar amal qilinishi muhim bo‘lgan qismlari bilan zaruriydir. Ular hujjatlarda, darslik va qo‘llanmalar, lug‘atlarda qayd etiladi.

Tildagi o‘zgarishlar tabiat va jamiyatdagi o‘zgarishlarga turtki bo‘lgan yangi hodisalar natijasida ro‘y beradi. *“Leksik ma’no qotib qolgan, o‘zgarmas hodisa emas, u ancha barqaror bo‘lsa-da, ma’lum omillar ta’sirida o‘zgarishi mumkin.” (Jamolxonov. H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. TOSHKENT: Talqin, 2005. - B156)*

Ko‘p asrlar davomida, adabiyotlar yaratilishi natijasida o‘zbek tili takomillashdi. Vaholanki, hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksikasi, fonetikasi, orfografiyalarida ma’lum me’yorlar yuzaga keldi. Shu tarzda tilda ijtimoiy vazifalar ham ortadi. Ijtimoiy vazifalar ortishi bilan tilning lug‘at boyligi ham o‘zgarishga, kengayishga uchraydi. Narsa-predmet ko‘payadi, so‘z ortadi, ixtirolarga yo‘l ochiladi. Bir so‘z bilan aytganda, nom ko‘payadi. Ular lug‘atdan joy oladi. Izohli, imloviy lug‘atlar zaxirasi boyiydi.

Masalan, burun so‘zining dastlab odam a’zosini anglatishi uning monosemik xususiyati va keyinchalik ekstralingvistik (ijtimoiy-iqtisodiy) hodisalar tufayli polisemantiklik kasb etishi leksik ma’noga ta’sir qiluvchi bir omildir. Keyinchalik tikuv mashinasining burni, choynakning burni kabi tushunchalar paydo bo‘ldi. Lingvistik omillarda kontekst vaziyati muhim rol o‘ynaydi.

So‘zlar bir ma’noli va ko‘p ma’noli bo‘lishi mumkin. Bir ma’nolilik (monosemiya)ka atamalar yoki boshqa tildan kirib kelgan so‘zlarni kiritsak, ko‘p ma’nolilar sirasiga dastlab bir ma’noga, keyinchalik (yuqoridagi ta’sirlarda) ko‘p ma’nolilikka ega bo‘lgan so‘zlarni kiritamiz. Monosemik: *matematika, choynak, maqsad, qo‘shiq, Chinoz, bank, gazeta, qarindosh, palov, Sevara, dissertatsiya.*

Bir so‘z har xil narsaning nomi bo‘lishi va bu ma’no ottenkalari bir- biriga yaqin bo‘lishi mumkin va bu ko‘p ma’nolilikni yuzaga keltiradi (etak, ko‘z, oyoq, yuz, qo‘ltiq, bosh, burun).

Polisemantik so‘zlar haqida Sh. Abdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev va boshqalar muallifligidagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” qo‘llanmada shunday deyiladi: “Polisemantik so‘zlar qanchalik bir-biriga yaqin bo‘lmasin, bu ma’nolar o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Xuddi shu xususiyat ko‘p ma’noli so‘zni omonimlardan farqlaydi‘‘. (Abdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev M va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘qituvchi. 1980. - B 125) Omonimlar bir xil tovush qobig‘iga ega bo‘lgan birdan ortiq so‘zlardir. Ular boshqa-boshqa so‘zlar bo‘lganidan ular orasida bog‘lanish ham bo‘lmaydi.

Polisemantik so‘zlar omonim (shakldosh)lardan bildirgan ma’nolarida o‘xshashlik va bog‘liqlik mavjudligi (ko‘z: odamning ko‘zi, ignaning ko‘zi – odam ko‘zi ko‘rish organi, ignaning ip o‘tadigan teshikchasi bo‘lgani uchun shaklan ko‘zga o‘xshatiladi. Yoki yoqa: kiyim yoqasi, ariq yoqasi - kiyimning boshlang‘ich qismidagi bosh kiradigan chet qismi - yoqa. Ariqning chetki qismi shunga yaqinlashtirilgan holda yoqa deyiladi)shakldosh so‘zlardan o‘zaro farqlaydi. Omonimlar talaffuzi bir xil bo‘lgan so‘zlardir. Omonimlar deyarli bir xil yoziladi. Chunki ular bir xil fonetik strukturaga ega bo‘ladi. Omonimlar shaklan bir xil bo‘lsa- da, mazmunan yaqin bo‘lmaydi(qil - harakat, fe‘l; qil - ingichka narsa, ot) Chehrasi o‘xshash odamlarni eslash mumkin. Ularning qiyofasi o‘xshash bo‘lsa-da qarindosh emas. Ko‘p ma’noli leksemalar esa qiyofadosh, ham qarindosh. Mazmunan bir-biriga uzoq bo‘lgan omonimlardan ularni farqlash lozim.

Omonimlarda ko‘rinish, forma bir xil, lekin ma’no, turkumlik belgisi noo‘xshash. Yot so‘zi fe’l, sifat turkumlariga xos. Yod leksemasi bir tomondan “yod etish”, “yodga olish” ma’noli xotira ma’nosini, bir tomondan yod moddasini anglatadi. *“YOD - (lot. iodum < yun. iodes – binafsha rangli) Mendeleyev davriy sistemasining VII guruhiga mansub kimyoviy element, asosan dengiz o‘simliklaridan olinadigan to‘q kulrang kristall modda” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Elektron variant)*

Kel, ey Olloyor, so‘z ko‘tah qilg‘il,

Belingni bog‘la, azmi roh qilg‘il...

*Oqardi **soch**, nadomat ashkini **soch**,*

Yaqong ushla, dahongni ma'zirat och.

"Oqardi soch, nadomat ashkini och" birinchi "soch" – odamning sochi, ot, keyingisi – fe'l.

Ko'rinib turganidek, odamning sochi bilan fe'l turkumidagi "soch" so'zi ma'noviy jihatdan yaqin emas. Har ikkisi ikki xil turkumga mansub. Shuni ta'kidlash kerakki, omonimlarni qo'llash aynan peziyada juda o'rinli va foydali. Jarangdorlik, yengil ohangdorlikni yuzaga keltiradi, shuningdek, o'quvchini bu so'zlar qiyosi yuzasidan fikr yuritishga undaydi.

Yaqong ushla, dahoni ma'zirat och,

Yoling oqi asar qilmadi hola.

Uyola** yur boqib har dam **uyola.

Havo birlan tuzuk ish qilmading hech,

*Bo'lubdur **kech**, havas bozoridan **kech**.*

Yoling oqi asar qilmadi, ot turkumi olingan. Keyingi qatorda, uyalib yur, deb - a ravishdosh shakl qo'llangan(uyola yur) va bu fe'l sanaladi. U yo'lga har doim uyalib qara, demoqda shoir o'ziga.

Yoki mana bu gapga e'tibor bersak,

Olov tuyg'ulardan ajib mung qoldi,

Ko'zgu yuragimda oydin ruh hazin. (Usmon Azim. To'plam. Jimlik. TOSHKENT: 2012. - B 4.) Parchadagi "olov tuyg'ular" birikmasida tuyg'uning olovdek qizdiruvchi ekanligi ifoda etilgan. ***Olov tuyg'ular*** birikmasi orqali ma'no ko'chishining metafora usuli yuzaga kelgan.

Yoki:*Men qiynaldim xayolimning qanotida,*

Dengizlarni ko'targancha tolib uchdim. ***Xayolning qanotida*** birikmasi ham metafora ma'no ko'chishini hosil qilgan.

Ko'p ma'noli so'zlarda ularning bir- biriga yaqin tushunchalar ifodalanadi. Birini aytish bilan bu so'z qaysi so'zdan ko'chib chiqqanligi ilg'anadi. ***Odam oyog'i yetadigan joylarmi axir?!*** - desak, ***odamning oyog'i*** uning haqiqiy a'zosi, vazifasi yurish yoki tik turg'izish. ***Stolning oyog'i sinib qolibdi,*** gapidagi "oyoq" stulni tirab, tik turg'izadigan qismi ekani ma'lum bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, vazifa

va shakl jihatdan o‘xshashlik mavjud. Odam oyog‘i- asl ma’no, “stul oyog‘i” ko‘chgan ma’no ekanligi ma’lum bo‘ladi va natijada ko‘p ma’nolilikning yuzaga kelganini anglaymiz. Ana shu o‘xshashlik bizga ko‘p ma’noli leksemani omonim leksemalardan ajratishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev M va b. (1980). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘qituvchi.– 446 b.
2. Jamolxonov. H. (2005). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. TOSHKENT: Talqin.
3. So‘fi Olloyor. (1991) .“Sabot ul – ojizin”. Mehnat,– 212 b.
4. Usmon Azim. (1995). Saylanma. Toshkent,– 283 b.
5. Usmon Azim. (2012) Jimlik. Toshkent, – 318 b.

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “QADIMDA BO‘LGAN EKAN“ HIKOYASINING LEKSIK–SEMANTIK XUSUSIYATLARIGA KO‘RA TAHLILI

Turg‘unboyeva Aziza Tursunboy qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 1- talabasi
aturgunboyeva7@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning “ Qadimda bo‘lgan ekan“ hikoyasi leksik-semantik xususiyatlariga ko‘ra tahlil qilingan bo‘lib,ijodkorning qanchalik mahoratli tarzda shevaga xos bolgan so‘zlardan, vulgarizm, varvarizm va boshqa leksik birliklardan qay darajada foydalanganligiga va ushbu birliklarning asardagi o‘rni bilan bog‘liq masalalarga misollar orqali to‘xtalib o‘tiladi.*

Kalit sozlar*:ma’nodoshlik, zid ma’noli so‘zlar, eskirgan so‘zlar, sheva so‘zlari, chet va haqorat so‘zlari, barqaror birikmalar.*

Abstract. *In this article, Shukur Kholmirzayev's short story "Qadimda bo‘lgan ekan" is analyzed according to its lexical-semantic features, how skillfully the author uses slang words, vulgarism, barbarism and other vocabulary units and the role of these units and examples are given.*

Keywords*:synonyms, words with opposite meanings, obsolete words, slang words, foreign and insulting words, stable combinations.*

Ma’lumki, badiiy matn ijodkorning dunyoni,voqelikni obrazli-estetik idrok qilishi mahsuli sifatida paydo bo‘ladi.Badiiy asar tili ana shunday murakkab o‘ziga xos hodisa.(Маръруфжон Йулдошев.Бадиий матн лингвопоетикаси.Тошкент Узбекистон Республикаси Фанлар академияси.«Фан» нашриёти.2008.148-bet).Shukur Xolmirzayev asarlari matni ham bir darajada murakkabliklarga ega.Uning asarlari badiiy jihatdan boy va turli rang-barangliklarga ega. Misol uchun, SamDU filologiya fakulteti magisranti Ulugmuradova Munira o‘z ilmiy ishiga Shukur Xolmirzayev asarlarini manba sifatida olib, yozuvchi asarlarida uchrovchi murojaat birliklarini misollar orqali tahlil qilsa, Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabasi Munira Akbarova yozuvchilar asarlarida uchrovchi g‘ayrioddiy eskirgan birliklar nomli ishida Xolmirzayev asarlarida ham g‘ayrioddiyliklar borligini ochib beradi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalari lingvopoetik jihatdan boy. Hikoya hajman qisqa bo‘lsa-da,unda turli birliklarni ko‘rishimiz mumkin.Ushbu hikoyada dialektizmlar ko‘plab uchraydi. **Dialektizmlar** - badiiy asarda shevaga xos birliklarni qo‘llash . Yozuvchilar o‘z qahramonlarini o‘zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli, tasvirlar ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni ishlatadilar. Sheva so‘zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o‘zida aniq aks ettirish bilan birga “badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo‘llanishi bilan bog‘liqdir” (Ma’rufjon Yo‘ldoshev.Badiiy matnning lisoniy tahlili.Toshkent.2008.62-bet.).

- ***Chorbog‘di*** *tashlab ketdi-ku?*

- ***Gapti*** *bo‘lma! — O‘sar endi kigizni mushtladi*

- *E, xudo, nima* ***gunoyim*** *bor edi?*

- ***Jedim***. ***Ekki*** *bo‘lak qand bilan non berdi kelinim* (https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan.html).

Bu o‘rinda fonetik dialektizmlar qo‘llangan. Fonetik dialektizmlar asosan, tovushlarni o‘zgartirib qo‘llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovush

qatlamini qavatlab qo‘llash ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi (Ma’rufjon Yo‘ldoshev.Badiiy matnning lisoniy tahlili.Toshkent.2008.62-bet). Tovushlar bilan emas, bevosita so‘zlar orqali namoyon bo‘ladigan dialektizmlar - **leksik dialektizmlardir**. Leksik dialektizmlar ham o‘z navbatida ichki guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi: **sof leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar** va **semantik** dialektizmlar (Ma’rufjon Yo‘ldoshev.Badiiy matnning lisoniy tahlili.Toshkent.2008.62-bet.).

Bachadan *nolimang, - dedi shunda Hojar. O‘sar* ***sholcha*** *chetini tashlavorib, kerishdi (*https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan.html).

Bola so‘zi **bacha**, **gilam** so‘zi **sholcha bo‘lib is**hlatilgan. Biror so‘z adabiy tilda ham, shevada ham mavjud bo‘lib, shevada adabiy tilda bo‘lmagan ma’nosi bilan qo‘llana oladigan so‘zlar **semantik dialektizmlar** deb yuritiladi (Ma’rufjon Yo‘ldoshev.Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent .2008.62-bet).

-Urmang-urmang, ***otasi.***

- urmayman

*- **Kampir**, menga ayt, — dedi O‘sar boshini egib* (https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan.html).

Yuqoridagi misolda er -xotinning bir -biriga murojaati ko‘rsatilgan va bunday murojaat shakli ma’lum hududlarida qo‘llaniladi. Qahramonlar o‘rta yosh bo‘lsalar -da, bir-birini shu yo‘sinda chaqiradi. Bu misolda semantik dialektizm namunasining guvohi bo‘lish mumkin.

Grammatik dialektizmlar - so‘z tarkibidagi qo‘shimchalarning o‘zgartirib qo‘llash orqali hosil bo‘ladi. Bu bevosita so‘zlash nutqida yaqqol ko‘rinadi, yozuvchi qahramonlar nutqining jonli chiqishi uchun ushbu birliklardan foydalanagan.

*- Gapir. **Ichimdi** yeb ketyapti. **Enamdi** so‘kmang. **Enamdi** so‘kmang* (https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan.html).

Yozuvchi mahalliy koloritni ko‘rsatish uchun hududiy chegaralangan so‘zlardan ham o‘rni bilan foydalanadi. Shukur Xolmirzayev Surxon vohasida tug‘ilib, o‘sganligi sababidanmi aksar asarlarida qahramonlar nutqidan ularning qaysi hududdan ekanligini bilib olish mumkin. Ushbu hikoyada ham shu jihat bor va bu asarni o‘qigan kitobxon e’tiborini tortmay qolmaydi.

Sinonimlar(ma’nodosh so‘zlar) tilning lug‘aviy jihatdan boylik darajasini ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos vositadir. Tilda ma’nodosh so‘zlarning ko‘p bo‘lishi tilning estetik vazifasini yana-da to‘liq bajara olishini osonlashtiradi (Ma’rufjon Yo‘ldoshev.Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent .2008.52-bet).

*O‘sar Hojarga uylangach (uylanganigayam yigirma yildan oshdi), ana shu eski uychaga taqab bir dahliz va bir mehmonxona-yotoqdan iborat boshpani qurib olgan edi: hamon shu **boshpana** — bularning **qo‘rg‘oni*** (https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan.html).

Bu birliklarning bir o‘rinda qo‘llanishidan bu gapga ta’kid ma’nosi yuklangani bilishimiz mumkin.Ya’ni boshpanalari hali ham shu qo‘rgon bu orqali turmushi o‘zgarmagan degan ma’nosi hosil bo‘lyapti.

Leksik-frazeologik sinonimya – ibora va so‘z ma’nodoshligi bo‘lib, bir so‘z frazeogik birlik ,ikkinchisi esa oddiy leksik birlik qo‘llansa ushbu hodisa yuz beradi. Bu ta’sirchanlikni kuchaytirishga xizmat qilgan.

*Xotini yana ayvonga yetgan edi, tilini tiydi: kampir eshitadi. — Lekin baribir hidini sezdi, dedi ichida va **ta’bi xira** bo‘lib, battar **jahli** chiqa boshladi* (https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan.html).

Zid ma’noli so‘zlar deb nutq jarayonidida bir-biriga qarshi so‘zlarni qo‘llashga aytiladi. Tilda zid ma’noli so‘zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta’sirchanligini ta’minlashda qulay vositalardan biridir (Ma’rufjon Yo‘ldoshev.Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent .2008.57-bet).

***Kunduzi** uxlaydi-da, **kechasi** uyg‘oq: goho o‘zidan-o‘zi (balki qo‘rqqanidan) xassasi bilan eshik-derazani urib, kimlarnidir so‘kadi va go‘yo*

allakimlar bilan gaplashadi..(https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan.html).

Hozirda qo‘llanish doirasidan chiqqan **eskirgan so‘zlarga** ham asar davomida duch kelinadi. Badiiy asar tilidagi eskirgan so‘zlarni tahlil qilishda asar yozilgan davrni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Chunki, so‘zlar yozuvchi yashagan, ijod etgan davrdayoq eskirgan bo‘lishi mumkin bo‘lganidek, asar yozilgan davrda faol iste'molda bo‘lib, keyinchalik iste'moldan tushgan bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunda uchramaydigan faqat tarixiy narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi so‘zlar **istorizm** (tarixiy so‘zlar) deyiladi (Ma’rufjon Yo‘ldoshev.Badiiy matnning lisoniy tahlili.Toshkent.2008.60-bet).

G‘ir etib boradi-yu, obkeladi-da momosini. ***Selsovetdan*** *telefon qilib tur* (https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan.html).

Eskirgan so‘zlar davr tasvirini ko‘rsatgan, garchi asar 1990-yil yozilgan bo‘lsa-da, rus so‘zlari,terminlari iste’moldan chiqmaganligi kuzatiladi.Hozirgi kunda bu so‘zlar iste’mol doirasidan chiqib ketgan.

Tilning lug‘at tarkibiga kiritilmgan, faqatgina og‘zaki nutqda mavjud bo‘lgan bunday chet so‘zlaridan badiiy nutqda voqealar bo‘lib otayotgan o‘ringa ishora qilish, nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarni milliy mansubligini, qahramonlar xarakteri haqida ma’lumot berish maqsadida foydalaniladi (Бадиий матннинг лингвопоэтикаси.Узбекистон Республикаси ФА “Фан" нашриёти. 2007.60-bet). **Varvarizm** , ya’ni chet so‘zlarini qo‘llash.Bu o‘rinda o‘sha davrda iste’molda bo‘lgan tilimizga chetdan kirgan so‘zlarning keltirilishi O‘sarni “qishloqi” kishi sifatida emas, balki “o‘ruscha “ so‘zlardan ham xabardor inson qilib ko‘rsatadi.

Enag‘ar enam bo‘lsa, otamdan kelgan ***izvishenini*** *o‘qiboq fe’li aynigan. Bu hayot* ***nervinniy*** *qilib qo‘ygan bo‘lsa, nima qilay?* (https://khdavron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan.html)

Tilshunoslikda **vulgarizm** deb ataluvchi haqorat so‘zlarida ota salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator semalar juda ochiq ko‘rinib turadi. Haqorat so‘zlari badiiy asarda , asosan, qahramonlar nutqida ishlatiladi (Бадиий матннинг лингвопоэтикаси.Узбекистон Республикаси ФА “Фан" нашриёти. 2007.60-bet)

He, ***enag‘ar,*** *- deb iljayib turdi O‘sar.Momom* ***enangdi*** *, - deb so‘kib yubordi* (https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan.html).

Hikoya bosh qahramoni O‘sar nutqiga e’tibor qiladigan bo‘lsak , uning nutqida **vulgarizmga** (haqorat so‘zlarni qo‘llash) oid so‘zlar ko‘p uchraydi . Bu har bir kitobxonda O‘sarga qandaydir salbiy munosabatni uyg‘otishi mumkin. Demak, ijodkorning xalq kishisi nutqini ochib berishi orqali kitobxonda tasavvur uyg‘ota olgan. Yozuvchi qahramonning xarakteri xususiyatini va shu bilan birgalikda sodda xalq kishisi tasvirini chizib bergan.

Maqollar – grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda yoki ham ko‘chma ma’noda, ham o‘z ma’nosida qo‘llanadigan hikmatli xalq iboralaridir (Бердиёров Х, Расулов Р. Узбек тилининг паремиологик луғати.Тошкент, «Укитувчи», 1984.11-bet).

- Iloyi, shu kampirning yoshiga yetma. O‘zing ham-ku ,bo‘lganingcha bo‘lgansan.

*- Hoy,****birovga o‘lim tilagandan ko‘ra, o‘ziga umr tilashi kerak*** *kishi* (https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan.html).

Bu orqali so‘zlovchi shu vaziyatda o‘zining bir qadar haqligini bildirmoqchi bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Shukur Xolmirzayev hikoyalari badiiy jihatdan yetuk bo‘lib, ularni tahlilga tortish jarayonida matn boylining guvohi bo‘lamiz. Leksik- semantik vositalar bevosita kishi hissiyotlariga ta’sir qiladi. Shukur Xolmirzayevning xohlagan asarini olib uni tahlilga tortsak, matndagi jonli tasvirlarni, sodda xalq kishisi, qishloq hayotining ufurib turishini

ko‘ramiz.Bunday jonli tasvirli matn yarata olgan yozuvchining ijodkorligiga tahsin aytamay ilojimiz yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ma’rufjon Yo‘ldoshev (2008).”Badiiy matnning lisoniy tahlili “.Toshkent.

2. Бадиий матннинг лингвопоэтикаси. (2007). Узбекистон Республикаси ФА “Фан" нашриёти.

3..Бердиёров Х, Расулов Р. (1984). Узбек тилининг паремиологик луғати.Тошкент: «Укитувчи».

4.https://khdavron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan.html

TURKIY TILLAR VA O‘ZBEK TILI SO‘Z TURKUMLARI TIZIMIDA RAVISHNING O‘RNI

Uzoqova Sitora Salimovna
ToshDO‘TAU O‘TT fakulteti, 302-guruh talabasi
sitorauzoqova22@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ravishning boshqa so‘z turkumlari orasida tutgan o‘rni, uning turlari haqida ma’lumot beriladi. O‘zbek va boshqa turkiy tillar so‘z turkumlari tizimidagi ravishning o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Morfologiya, ravish, areal, so‘z turkumlari, adverb, turkiy tilshunoslik.*

Abstract: *This article provides information about the place of ravish among other word groups and its types. Mutually different and similar aspects of the approach in the system of word groups of Uzbek and other Turkic languages are analyzed.*

Keywords: *Morphology, idiom, areal, word groups, adverb, Turkish linguistics.*

So‘z turkumlarining tasnifi va tahlil tamoyillarini o‘rganish uzoq tarixga ega. So‘z turkumlari masalasi tilning eng muhim birliklaridan biri, ya’ni tushunchaning shakliy ko‘rinishi hisoblanadigan so‘z bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ushbu masala qadimgi davrlardan buyon tilshunoslar, faylasuflar hamda boshqa yondosh fan

vakillarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Har bir tildagi so‘zlar o‘zining grammatik belgisi va semantik xususiyatiga qarab turli xil guruhlarga bo‘linadi. Grammatik qurilishi jihatdan har xil bo‘lgan tillardagi so‘zlarning qo‘llanish doirasi, semantik xususiyatlari, grammatik belgilari, o‘zaro birikishi doim ham bir xil bo‘lavermaydi.

Turkiy tillar tarixida ravishlar mustaqil so‘z turkumi sifatida eng yosh, kenjasi bo‘lib, qadimgi turkiy til davrida boshqa guruhdagi so‘zlar hisobiga alohida so‘z guruhi sifatida endigina shakllanayotgan edi. Ravish so‘z turkumi boshqa so‘zlar guruhi singari morfologik va semantik qayta shakllanish sababli ma’lum bir darajada kengayib borayotgan turkum hisoblanadi. Shuni aytish joizki, ravish so‘z turkumi nafaqat turkiy tillarda, balki jahon tillari, xususan, Sharq tilshunosligida ham nisbatan kenja so‘z turkumidir. Ravishning (arab tilshunosligida ***“zarf”***, Yevropa tilshunosligida esa “***adverbial”*** *– fe’loldi* so‘zlar) fanda muammo bo‘lib kelganligi tilshunoslar tomonidan qayta-qayta ta’kidlanadi.

Ravish so‘z turkumi **“XV-XIX asrlar o‘zbek tili morfologiyasi”** kitobida ham turlicha talqin qilinadi. Ravish tilning asosiy grammatik va leksik kategoriyalaridan biri sifatida qadimdan amalda bo‘lgan. Umumiy xususiyatlariga ko‘ra boshqa turkumlarga mansub so‘zlar bilan o‘xshash bo‘lgan ravishning o‘zigagina xos xususiyatlari ham mavjud.

Boshqa turkumga oid so‘zlar bilan grammatik munosabatga kirishganda hech qanday so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha olmaslik shakliy va semantik- funksional barqarorlik ravishga xos asosiy belgidir. Ravish turkumiga kiruvchi bir qator so‘zlar tarkibida uchraydigan zamon va makon, vosita kelishiklari, egalik ko‘plik affikslari shu so‘zlar tarkibida o‘z paradigmatik xususiyatini yo‘qotgan va qo‘shilib kelgan so‘zlar bilan ajralmas bir butunlikni tashkil qilib, ularga chatishib ketgan bo‘ladi.

Ravishlarning boshqa so‘zlar bilan grammatik aloqaga kirishuvi bitishuv yo‘li orqali sodir bo‘ladi.

Mustaqil so‘z turkumi sifatida shakllanish, rivojlanish va qaror topish jarayonida ravish turkumiga oid so‘zlar sostavi vazifadoshlik asosida o‘zga so‘z

turkumlaridan turli yo‘llar orqali ajralib chiqqan shuningdek, boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar hisobiga to‘lib, kengaya boradi. Mana shunga ko‘ra ham tuzilishi va tarkibi jihatdan ham ravish rang-barangdir.

Tadqiq qilinayotgan davrlarga mansub manbalar tilida ham tuzilishiga ko‘ra sodda va tarkibli ravishlar iste’molda bo‘lgan. Komponentlarning ishtirokiga ko‘ra sodda ravishning tub (asliy) va yasama (nisbiy), tarkibli ravishning esa qo‘shma juft, takror va murakkab turlari mavjud. Bu kitobda ravish yasalishi, ya’ni ravishlarning morfologik, sintaktik usullarda yasalishiga alohida to‘xtalib o‘tilgan, hamda ravishlarning tuzilishini esa takror, juft va aralashtirilgan ravishlar misolida ko‘rib chiqishgan. Qolaversa bu kitobda ravish so‘z turkumining darajalanish ko‘rinishlari ham yoritilgan, oddiy, qiyosiy, orttirma darajalar berilgan. Qiyosiy darajaning morfologik usulida, sintaktik usulida va sintaktik-morfologik usullarida ochib berilgan.

Keyinchalik olimlar X. Abdurahmonov, A. Rafiyev, D. Shodmonqulovalarning **“O‘zbek tilining amaliy grammatikasi”** oliy o‘quv yurtlari uchun tayyorlangan o‘quv qo‘llanmasida ravish so‘z turkumini quyidagicha qarashlar asosida yoritilgan. Ish-harakat bilan bog‘liq bo‘lgan payt, sabab, o‘rin, daraja-miqdor kabi ma’nolarni bildiradigan so‘zlar turkumi ravish hisoblanadi. Ravishlar harakat bilan bog‘liq holatlarni ifodalashi, o‘ziga xos yasovchi qo‘shimchalarni olishi, gapda ko‘pincha hol vazifasida kelishi bilan boshqa so‘z turkumlaridan ajralib turadi. Masalan*: Abror jo‘rttaga ketib qoldi. Men kechqurun yo‘lga tushaman. Biz ko‘p o‘qiymiz.* Ravishlar odatda fe’lga bog‘lanib keladi. Ravishlarning ma’no va grammatik jihatdan turlari: holat, daraja-miqdor, payt va o‘rin ravishlariga bo‘linadi deya ta’kidlaydi.

Sh. Yo‘ldashev, A. Primov, R. Yo‘ldoshevlarning **“Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”** o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida turkiy tillardagi ravish so‘z turkumi haqida quyidagicha ta’kidlanadi: *“Turkiy tillardagi ravish turkumidagi so‘zlar harakatning belgisi va belgining belgisini anglatadigan so‘zlar bo‘lib, ular gapda, asosan, hol, ba’zi holatlarda aniqlovchi vazifasini bajarib keladi. Ushbu turkumdagi so‘zlar, ko‘pincha, yangi birliklar bilan*

to‘ldirilib boriladi. Ravishlar, birinchidan, otning kelishik va fe’lning ravishdosh formalarining ajratilishi, ikkinchidan, unumli modellar bo‘yicha so‘z yasalishi, uchinchidan, kalkalash va so‘zlarni o‘zlashtirish natijasida hosil bo‘ladi. Ayni paytda, ravish turkumidagi so‘zlar ot, sifat hamda ko‘makchilar bilan doimo aloqada bo‘ladi. Ravishlarning bunday atributiv holatdagilari sifatga o‘tadi, bundan tashqari, otlashishi va ko‘makchilarga aylanishi mumkin. Asl ravishlarning ko‘pchiligini, asosan, funksional ravishlar deb ataladigan asl otlar tashkil qiladi. Qadimgi yozma yodgorliklar materiallari shuni ko‘rsatadiki, sifatlik belgisiga ega bo‘lgan otlarning aksariyati, ularning genezisiga qaramasdan (ot o‘zakli, ravishdosh va h.k.), yarim funksional edilar. Hozirgi turkiy tillardagi ravishlar, odatda, morfologik jihatdan bo‘linmaydigan dastlabki va yasalgan, ya’ni affiksal va qo‘shma (keyingisi asliy, juft, ba’zan, takrorni o‘z ichiga oladi).”

Dastlabki ravishlarning tarkibi ko‘pchilik tillar bo‘yicha, quyidagi ayrim sabablarga ko‘ra, bir-biriga mos kelmaydi: 1) tilning mintaqaviy holati; 2) tilning areal aloqasi; 3) turli tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ishlar.

Dastlabki ravishlarning umumturkiy fondi hanuz yetarlicha o‘rganilmagan. Affiksal ravishlar genetik jihatdan “kelishik” formalariga borib taqaladigan va ravishdoshlarning so‘z yasaydigan modellaridan hosil bo‘ladi. -lay, -layin va -cha affikslari bilan yasalganlar umumturkiy ravishlar hisoblanadi.

Ravishlarning areal shakliga -jasïna (o‘g‘uz tillari), -lata (qoraqalp., boshq., tat., no‘g‘.), -lap (qoz., turkm., olt., o‘zb., tat., no‘g‘.) va -day (no‘g‘., tat., qum., boshq., qoraqalp., o‘zb.) affikslari bilan yasalgan ravishlarni kiritish mumkin. Keyingi tur ko‘pchilik tillarda hozirgi kelishik paradigmasiga to‘g‘ri kelishi mumkin.

Barcha turkiy tillarda ravishlar makon kelishiklarining ajratilgan shakllari: jo‘nalish, o‘rin va chiqish kelishiklari shakllari, -cha, -g‘aru va -ïn affiksli ravishlar mavjud. Shuningdek, genetik jihatdan turli tipdagi so‘z birikmalariga mos keladigan murakkab tarkibli modellarni ham umumturkiy deb hisoblash mumkin. Barcha turkiy tillarda ravishlarning quyidagi juft tiplari qayd etilgan: gag. gejä-gündüz, no‘g‘. bügün-erten, o‘zb. nari-beri, sal. anda-sïnda (unda-bunda) kabi.

Turkiyshunoslikda turkiy tillarning eng qadimgi davrlaridanoq ravishlarning shakllanishi boshlanganligiga shubha yo‘q. Bu turkumdagi so‘zlarga sifat, holat, hollik shaklidagi otlar ravish formalariga o‘tishi kuzatiladi.

H. Dadaboyev va Z. Xolmonovalarning **“Turkiy tillarning qiyosiy tarixiy grammatikasi”** nomli o‘quv qo‘llanmasida ravish so‘z turkumi quyidagicha ta’riflanadi: *“Ravish harakatning, belgining belgisini bildirib keladigan mustaqil so‘z turkumidir. Ravishlar, odatda, fe’lga yoki predikativlik vazifasida kelgan sifat va ravishlarga bog‘lanib keladi. Fe’lga bog‘langanda fe’ldan anglashilgan harakatning qay tarzda bajarilish jarayoni, bajarilish vaqti, o‘rni, sababi, maqsadini, sifat yoki ravishlarga bog‘langanda esa ulardagi belgining darajasini ko‘rsatadi. Ravish maxsus so‘z o‘zgartiruvchi shakllariga ega bo‘lmagan so‘z turkumidir. Ravish morfologik xususiyatlariga ko‘ra maxsus so‘z yasovchi affikslar va daraja ko‘rsatkichlariga ega. Ravishlar tarkibidagi sintaktik shakl yasovchilar yaxlitlanib qolgan.”*

Xulosa qilib aytganda, ravish so‘z turkumi turkiy tilshunoslikning bosh muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Uni atroflicha o‘rgangan olim V. V. Vinogradov *“mustaqil so‘zlarning hech bir guruhiga sig‘may qolgan so‘zlar ravish turkumiga yig‘ilgan”* deb haqqoniy baho bergan edi. Ularning ma’no va vazifasi ot, sifat, son, olmoshlarga yaqin turishi arab va Yevropa tilshunosligida qayd etilgan. Sharq va G‘arb tilshunosligi ravishlarni ma’no va vazifasi jihatdan emas, balki boshqa birortasiga xos bo‘lmagan belgi - o‘zgarmaslik belgisi bilan ismlardan farqlaydi.

Ammo o‘zbek tili grammatik qurilishining tavsifiga bag‘ishlab yozilgan ko‘plab ilmiy adabiyotlar va darsliklarda ravishlarning o‘zgarmaslik tabiati inobatga olinmagan. O‘zbek tilshunoslari ravishni rus tilidan, ya’ni ***“наречие”*** ning muqobili sifatida talqin qilishgan va natijada *“kecha, kunduz, tong, oqshom”* kabi payt otlari*; “atrof, bu yerda, u yerda, old, orqa”* kabi o‘rin otlari; *“oz, mo‘l, butun, to‘la”* kabi miqdor sifatlari; *“keyin, past, baland, yuqori”* kabi o‘rin sifatlari ravish turkumi doirasida o‘rganilgan.

Qolaversa fanda ravish so‘z turkumining ziddiyatli talqinga egaligini quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin:

1. Ravish boshqa so‘z turkumlari hisobidan boyigan so‘z turkumi, ya’ni ravish boshqa so‘z turkumlardan morfologik semantik qayta shakllanish sababli paydo bo‘lgan guruhdir;

2. Ravish so‘z turkumi guruhining “soddalanish” “tublanish”, “adverbializatsiyalashish “ asosida tarkib topgan. Shu sababli bo‘lsa kerak, akademik V. V. Vinogradov ravish so‘zlarni guruhlardan ortib qolgan “chiqitlar” bilan qiyoslaydi;

3. Ravishning turkiy tillar(o‘zbek tili)da va ziddiyatligi talqini, o‘zbek tili hodisalariga rus tili grammatikasi qolipi asosida yondashilganligi oqibatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev H A., Xolmonova Z T. (2015). *Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi*, - “Tafakkur bo‘stoni” nashriyoti, Toshkent.
2. Yo‘ldoshev Sh., Primov A., Yo‘ldashev R. (2020).Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi,- Urganch.
3. Абдурахмонов Х, Рафиев А., Шодмонкулова Д. Узбек тилининг амалий грамматикаси
4. Асадов Т. Х. (2009).Суз туркумлари тизимида равиш – дисс.
5. Рустамов А. (1990)XV-XIX асрлар Узбек тили морфологияси. // Узбекистон ссж «Фан» нашриёти.

DÁSTANLAR TILINDE «HAYAL-QÍZLAR» KONCEPTINIŃ AŃLATÍLÍWÍ («ShÀRIYAR» DÀSTANÌNÌŃ MÌSALÌNDA)

Xojabaeva Dámetken Teńelbay qızı,
NMPI Qaraqalpaq tili hám ádebiyatı qánigeligi 2-kurs magistrantı
xojabaevadametken@gmail.com

Annotaciya:*Maqalada dástanlar tilinde, sonıń ishinde «Sháriyar» dástanınıń tilinde «hayal-qızlar» konceptiniń qanday leksemalar menen bildiriliwi úyrenilgen hám dástannan mısallar keltirilip hár birine analiz jasalǵan. Dástandaǵı «hayal-qızlar» konceptin ańlatıwshı sózler házirgi kúnde ádebiy tilde qollanılıw órisi*

boyınsha salıstırılıp, hár tárepleme úyrenip shıǵılǵan. Ayırım sózlerdiń folklor menen ádebiy tildegi qollanılıw ózgeshelikleri itibarǵa alınıp, mánisi túsindirilgen.

Gilt sózler: *folklor, dástan, sóz, koncept, leksema, máni hám taǵı basqa.*

Annotatsiya:*Maqolada dostonlar tilida, shuning ichida «Sháriyar» dostonining tilida «ayol-qizlar» kontseptining qanday leksemalar bilan bildirilishi o'rganilgan va dostondan misollar keltirilib har biriga analiz qilingan. Dostondagi «ayol-qizlar» kontseptini anglatuvchi so'zlar hozirgi kunda adabiy tilda qo'llanilishi jihatidan taqqoslanib, har tomonlama o'rganib chiqilgan. Ba'zi bir so'zlarning folklor bilan adabiy tildagi qo'llanilish xususiyatlari e'tiborga olinib, ma'nosi tushuntirilgan.*

Kalit so'zlar: *folklor, doston, so'z, kontsept, leksema, ma'no va hokazo.*

«Koncept» termini házirgi til bilimi izertlewlerinde jiyi ushırasadı. «Koncept» degenimiz ne? Házirshe bul sorawǵa tolıq juwap tabılmadı. Bunıń tiykarǵı sebebi bolsa «koncept» túsiniginiń júdá abstrakt ekenligi, onıń tiykarındaǵı «mental struktura» anıq materiallıq kóriniske iye bolmastan, al aqıl – oylaw procesinde payda bolatuǵın sanadaǵı dúzilme ekenligi menen baylanıslı. Onıń ústine «koncept» ataması túsinik, máni, mazmun sıyaqlı basqa mental qubılıslar menen qatar turadı. (Abdinazimov Sh, 2020. 142-bet).

«Koncept» ataması latın tilindegi conceptus (toplaw, oylanıp qalıw, baslap jiberiw) sózinen alınǵan. Bul sóz francuz tilinen inglis tiline «túsiniw» kórinisinde awdarmalanǵan. Koncept sózi german hám roman tillerinde «túsinik, ideya, ulıwmalastırılǵan pikir» degen mánilerdi ańlatadı. Sońǵı jıllarda koncet máselesi boyınsha da bir qansha miynetler islenip atır. Máselen, R. S. Ibragimovanıń kandidatlıq dissertaciyasında «hayal» konceptiniń ózbek hám francuz tillerindegi sáwleleniw usılları izertlengen (Abdinazimov Sh, 2020, 43-bet). Qaraqalpaq til biliminde bolsa, bul másele ele izertlewdi talap etedi.

Túsinik penen sóz arasında oǵada tıǵız birlik bar, olar ekewin bir – birinen ajıratıp taslawǵa bolmaytuǵını sıyaqlı, olardı birdey dep qarawǵa da bolmaydı. Sebebi, sóz tildiń birligi bolsa, túsinik oylawdıń birligin quraydı. Sóz predmettiń ózi emes, al sol predmet haqqındaǵı túsiniktiń tilimizde sóz formasında

túsiniletuǵın, qabıl etiletuǵın real sáwlesi. Yaǵnıy, biz túsinikti sóz arqalı qabıl etemiz. Máselen, tilde «hayal – qızlar» túsinigin ańlatatuǵın sózler júdá kóp. Sonlıqtan da, biz tómende xalqımızdıń hasıl ǵáziynesi bolǵan folklorda, onıń eń iri janlarınan biri bolǵan dástanlar tilinde «hayal – qızlar» konceptiniń bildiriliwin «Sháriyar» dástanınıń mısalında úyrenip shıǵıwǵa háreket ettik. Dástanda «hayal – qızlar» túsinigin ańlatıwshı tómendegi leksemalar ushırasadı. Máselen, ele turmısqa shıqpaǵan qız mánisin ańlatıw ushın dástan tilinde *qız, ǵarrı qız* leksemaları qollanılǵan:

Úyge úńilip qarasa, úsh *janan qız* otır, bir-birinen ziyada (Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 225-bet). Mısalda qollanılǵan qız leksemasınıń aldında mine usı konceptti ańlatıwsh janan sózi de dizbeklesip kelgenin kórsek boladı. Bul leksema ózinde qızlarǵa tán bolǵan náziklik, ádep-ikramlılıq, sulıwlıq mazmunın jámleydi.

«*Ǵarrı qızdıń* yar dárti bar» degen naqıl áne shunnan qalǵan eken (Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 225-bet). Mısalda keltirilgen ǵarrı qız lekseması awızeki sóylewde de óz waqtında turmısqa shıqpay otırıp qalǵan qızlarǵa qarata qollanıladı, dástanda da naqıl-maqal quramında mine usı mánini ańlatıp kelgen.

Miyrimi sheksiz ana konceptin ańlatıw ushın bolsa dástan tilinde *ana, apa, mama, ene, káábasım* leksemaları qollanılǵan. Máselen: Shul waqta patsha: - Bárekella, *mama*, dártime dárman eken ǵo, kózime ráwshan eken ǵo, miyriban *anam* eken ǵo, *káábam* eken ǵo, - dep qolın qaltasına saldı, bir qısım qızıl tillá aldı, kempirdiń qolına saldı (Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 229-bet). Biraq, sonı da aytıp ótiw kerek, mama lekseması dástan tilinde tek ǵana mástan kempirge qarata dástan qaharmanları tárepinen aytıladı:

Mástan mama eshitip,

Úyge atıp kiredi (Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 231-bet).

Atqan *ǵarrı mama* eken, jatqan jeri suw eken dep kitapqa túship tur (Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 233-bet). Keltirilgen mısalda mama

sózine ǵarrı sóziniń dizbeklesip keliwi arqalı mástan kempirdiń júdá qartayǵan ekenligi ańlatılǵan.

Al, házirgi kúnde bolsa bul sóz ana mánisinde, tuwǵan anaǵa qarata qollanıladı. Apa lekseması bolsa ajapa, atalas apaǵa baylanıslı da qollanıla beredi. Dástan tilinde bul leksema tómendegishe paydalanılǵan:

Ne gúnayım apa sizlerge,

Úmitimdi Alla bergey bizlerge (Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 234).

Ber súyinshi dádesi,

Bizler iyttiń enesi(Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 231-bet).

Ene leksemasınıń búgingi kúnde mánisi ózgergen bolsa da dástan tilindegi mánisinen júdá alıslap ketpegen bolıp, kúyewiniń anası yaǵnıy, qáyinenege qarata aytıladı.

Ómirlik joldas mánisin bildiriw ushın bolsa dástan tilinde *zaypa, nashar, qatın, kúndes* leksemaları jumsalǵan: Àne òtken zamanda, zamannıń òtken shaǵında, Ulıqmannıń hadal waǵında, Xandàrya boyında Zàrepshe xan boldı, yashı on altıda baq berdi, hàzireti altın tax berdi, bir *zaypa* bilan òmir sùrdi, ondın nıshan kòrmedi. Shul toqqız *nashardan* jerge ingá dep túsken nárestege názeri túshmey ketti (Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 225-bet).

Toqqız qatın, bilseń, bizge kúndesti,

Tıńla kúnim endi qalay ótedi (Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 228).

Keltirilgen mısaldaǵı kúndes lekseması bir erkektiń bir neshe hayallarına qarata qollanıladı. Qatın lekseması bolsa dástan tilinde kóbirek toqqız qatınǵa baylanıslı qollanıladı hám unamsızıraq mazmun ańlatıp keledi.

Bunnan basqa da, dástan tilinde hayal-qızlar konceptin ańlatıw ushın *sińlim, kelin, kempir, ámmem, kánizler hám jeńge* leksemaları jumsalǵan. Máselen:

Izimnen bolǵan joq jalǵız bir sińlim,

Bizdi tashlap siz qayerge bararsız (Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 228-bet).

Toppıǵanası tozǵan, arqaǵanası qozǵan, eki dizesi qulaǵınan ozǵan, eki kózi máshtey, tula boyı tastay, oshaq basına sıymaǵan, *kelin* qolında turmaǵan, elatına sıymaǵan, maqaw *kempir*, pes kempir tayar boldı aldınan.

Bárekella, mama, dártime dárman, birubar *ámmem* ekenseń ǵo (Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 229-bet).

Tandır bashındaǵı kánizler,

Bir urtlam suwsın bersinler (Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 236-bet).

Sapar tartıp berman qaray júripseń,

Bul saparıń, jeńgelerim, oń bolsın (Қарақалпақ фолклоры. 11–том, 2009, 238-bet).

Keltirilgen mısallardaǵı sińli lekseması ózinen kishkene qız tuwısqandı ańlatsa, kelin balanıń kelinshegin, ámme balaǵa ákeniń ajapası yáki sińlisi mánisin, kánizler saraydaǵı hayal-qızlardı, jeńge aǵanıń kelinshegi mánilerin bildiredi hám dástan tilinde de usılay qollanılǵan.

Juwmaqlap aytqanda, joqarıdaǵı mısallardan kórinip turǵanınday, «Sháriyar» dástanınıń leksikasında hayal-qızlar konceptin ańlatıwshı leksemalar júdá kóp hám hár túrli, bul bolsa dástanlar tilindegi koncept máselesi ele de izertlewdi talap etetuǵın máselelerden biri ekenligin ańlatadı.

Ádebiyatlar:

1. Abdinazimov Sh. (2020). Lingvokulturologiya. Nòkis.: Qaraqalpaqstan.

2. Қарақалпақ фолклоры. (2009). 11 - том. Шәрияр. Т. Маьнавият.

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ЧЕЛОВЕКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИМИ ЕДИНИЦАМИ С КОМПОНЕНТОМ ЗООНИМОМ

Сагатова Зарима Бахтияровна,

докторант Каракалпакского Государственного Университета

город Нукус, Каракалпакстан

zarima.1881@gmail.com

Аннотация: *В данной работе изучаются и сопоставляются способы представления психологического состояния человека фразеологическими единицами с компонентом зоонимом в английской и каракалпакской языковых картинах мира.*

***Ключевые слова**: концепт, лексема, фразеологизм, лингвокультурология, характеристика, языковая картина мира*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biz ingliz va qoraqalpoq tillaridagi dunyo rasmlarida zoonimik komponentli frazeologik birliklar yordamida shaxsning psixologik holatini ifodalash usullarini o'rganamiz va taqqoslaymiz.*

Tayanch so`zlar: *tushuncha, leksema, frazeologizm, lingvokulturologiya, xarakteristika, dunyoning til tasviri*

Язык предстает как «когнитивный процесс, включенный в общий когнитивный механизм в качестве основной формы фиксации знаний о мире» (Ковшова, 1996, 9). Рассматривая язык как органическую часть разума, связанную с другими когнитивными структурами и процессами — восприятием, мышлением, вниманием, памятью, когнитивный подход подразумевает детальное изучение и раскрытие законов и механизмов функционирования языка в его взаимодействии с человеком. Как совершенно справедливо отмечает В.А. Маслова, «в когнитивистике главное внимание уделяется человеческой когниции, исследуются не просто наблюдаемые действия, а их ментальные репрезентации (внутренние представления, модели), символы, стратегии человека, которые и порождают действие на основе знаний; т.е. когнитивный мир человека изучается по его поведению и деятельности, протекающих при активном участии языка, который образует речемыслительную основу любой человеческой деятельности - формирует ее мотивы, установки, прогнозирует результат» (Маслова, 2006, 8). В когнитивной лингвистике внимание лингвистов переключается на выявление роли языка как условия и орудия познания. Именно язык позволяет получить полное и адекватное представление о человеческом сознании и разуме. Когнитивный анализ ФЕ не просто обнаруживает номинацию того или иного явления, предмета, но и выражает отношение, раскрывает информацию, формирующую содержание фразеологизма. Когнитивный анализ позволяет представить фрагменты мира и их национальное видение отдельными блоками, которые могут быть включены в периферию более крупных блоков

знаний. Таким образом, анализ отдельных фразеосемантических полей и выделение в их рамках моделей, способствует обнаружению и национальных особенностей членения мира, и проявлению мышления в каждом фразеологизме. Актуальность представляется и общим интересом современной лингвистики к выявлению национальной специфики в рассматриваемых структурах языка.

Радость

В периферии данного концепта в рассматриваемых языках организованы следующие ФЕ с компонентом-зоонимом:

• англ. (5 ФЕ): *to kill the fatted bull* — букв, заколоть упитанного быка — в знач. радостно кого-либо встретить; *bull's eye* — букв, бычий глаз — центр яблока (мишени), успех, удача; *to grin like a Cheshire cat* — букв, усмехаться как Чеширский кот - ухмыляться, улыбаться во весь рот; *every dog has his day* — букв, у каждой собаки есть свой день — и на нашей улице будет праздник; *like a dog with two tails* — букв, как собака с двумя хвостами — в знач. рад радешенек, очень довольный.

• кк. (2 ФЕ): *жетинши аспанда ушыӯ* — букв, летать на седьмом небе — очень радоваться; *ийесин көрген ийттей былғаңлаӯ*— букв, радоваться как собака увидевшего хозяйна — очень радоваться.

Концепт «радость» в каракалпакском языке реализуется посредством зоонимов «ийт» (собака). Для английского языка значимыми являются образы «собаки» (dog), «кошки» (cat), «быка» (bull). В английском и каракалпакском языках наблюдается семантическое тождество ФЕ, однако образные компоненты не совпадают: *every dog has his day* — и на нашей улице будет праздник; *ийесин көрген ийттей былғаңлаӯ*— букв, радоваться как собака увидевшего хозяйна — очень радоваться. ФЕ *to grin like a Cheshire cat* — букв, усмехаться как Чеширский кот - ухмыляться, улыбаться во весь рот приобрела особую популярность благодаря книге JI. Кэрролла «Алиса в стране чудес».

Фразеологизмы библейского происхождения могут и расходиться с их библейскими прототипами, т.к. в некоторых случаях библейский прототип со временем был переосмыслен. Например, ФЕ *to kill the fatted bull* в притче о блудном сыне употребляется в значении «заколоть упитанного быка». Позднее данная ФЕ приобрела новое значение «радостно кого-либо встретить».

Счастье

В периферии данного концепта в рассматриваемых языках организованы следующие ФЕ с компонентом-зоонимом:

• англ. (2 ФЕ): *lucky dog* — букв, везучая собака — в знач. счастливец; *(as) happy as a clam* — букв, счастлив как моллюск — в знач. очень счастлив.

• кк. (5 ФЕ): *жерден жети қоян тапқандай* — букв, как будто нашёл семь зайцев с земли — в знач. очень счастлив; *жылқысы таўға шығар* — букв, у него лощадь доберётся до вершины — в знач. счастливый человек; *ийт несийбели* — букв, везучий как собака — в знач. счастливчик; *ийти де түлки алар* — букв, у него и собака лис ловит — кому. поведется (поживется), у того и петух несется; *пышығы қоян тутар* — букв, у него и кот зайцев ловит — кому. поведется (поживется), у того и петух несется.

Как показывает материал, каракалпакский язык отличается вариативностью образов, выражающих концепт «счастье». «Заяц» (қоян) или «лошадь» (жылқы) как символ счастья присутствует в следующих ФЕ: *жерден жети қоян тапқандай* — букв, как будто нашёл семь зайцев с земли — в знач. очень счастлив; *жылқысы таўға шығар* — букв, у него лощадь доберётся до вершины — в знач. счастливый человек. У англичан данное понятие символизируют «собака» (dog) и «моллюск» (clam). Например, *lucky dog* — букв, везучая собака - в знач. счастливец; *(as) happy as a clam* — букв, счастлив как моллюск - в знач. очень счастлив. Хотя «собака» (ийт) тоже символизируют «счастье, везение» в каракалпакском языке: *ийт несийбели* — букв, везучий как собака — в знач. счастливчик; *ийти де түлки алар* —

букв, у него и собака лис ловит — кому. поведется (поживется), у того и петух несется.

Страх

В периферии данного концепта в рассматриваемых языках организованы следующие ФЕ с компонентом-зоонимом:

• англ. (1 ФЕ): *to have butterflies in one's stomach* — букв, иметь бабочек в чьем- либо желудке - душа замирает, мурашки бегают, дрожать от страха, волнения.

• кк. (6 ФЕ): *қасқырды көрген ийттей* — букв, словно собака, увидевшая волка — в знач. испугаться от встречи лицом к лицу; *қолға түскен қояндай* — букв, дрожит, словно пойманный русак — в знач. очень сильно испугаться; *қабаған ийттен қорқпа, үндемеген ийттен қорқ* — букв, не бойся собаки лающей, а бойся собаки молчаливой — не бойся собаки брехливой, а бойся молчаливой; *қорққан ийт үш күн үрер* — букв, пуганая собака лает три дня — пуганая ворона куста боится; *қояндай қалтыраў* — букв, дрожать как заяц — в знач. испугаться; *қоян жүрек* — букв, зайчье сердце - в знач. испуганный.

Группа ФЕ со значением «страх» не столь многочисленна в обоих языках. В английском языке зооним «бабочка» (butterfly) лег в основу обозначения страха: *to have butterflies in one's stomach* — букв., иметь бабочек в чьем-либо желудке — душа замирает, мурашки бегают, дрожать от страха, волнения. В каракалпакском языке употребительными оказались следующие зоонимы: «ийт» (собака), «қоян» (заяц).

Для характеристики пугливого человека образ «зайца» (қоян) стал инвариантным компонентом в каракалпакском языке: *қояндай қалтыраў* — букв, дрожать как заяц — в знач. испугаться; *қолға түскен қояндай* — букв, дрожит, словно пойманный русак — в знач. очень сильно испугаться. Отрицательный образ «собаки» прочно укоренился в сознании каракалпаков, о чем свидетельствуют следующие ФЕ: *қасқырды көрген ийттей* — букв, словно собака, увидевшая волка - в знач. испугаться от встречи лицом к

лицу; *қабаған ийттен қорқпа, үндемеген ийттен қорқ* — букв, не бойся собаки лающей, а бойся собаки молчаливой - не бойся собаки брехливой, а бойся молчаливой; *қорққан ийт үш күн үрер* — букв, пуганая собака лает три дня — пуганая ворона куста боится.

Удивительно, что образ «зайца» для характеристики пугливого человека отсутствует у англичан.

Беспокойство, волнение

В периферии данного концепта в рассматриваемых языках организованы следующие ФЕ с компонентом-зоонимом:

• англ. (6 ФЕ): *like a cat on hot bricks* — букв, словно кошка на горячих кирпичах - как на иголках; *to smell a rat* — букв, чуять крысу — чуять недоброе, неладное; *I am a worm today* — букв, я сегодня червь — не в своей тарелке; *the worm of conscience* — букв, червь совести — угрызения совести; *cats scratch at somebody's soul* - букв, кошки скребут (в чьей-то) душе - кошки скребут на душе; *a fish out of water* — букв, рыба вне воды — не в своей тарелке.

• кк. (5 ФЕ): *аяғы күйген таўықтай* — букв, как курица с обоженной ногой; *шыбын шаққандай* — букв, словно ужаленный мухом - словно ужаленный; *кеўлине қурт түскендей* — букв, в душу влез червь - в знач. переживать, беспокоиться о чем-либо; *торға түскен балықтай* — букв, как рыба, уловленная на сеть; *ишин ийт тырнағандай*— букв, в животе царапает собака — собаки на душе скребут.

Как видно из вышеперечисленных примеров, в английском языке для описания беспокойства, волнения используются следующие зоонимы: «cat» (кошка), «rat» (крыса), «worm» (червь), «fish» (рыба). В каракалпакском языке: «таўық» (курица), «шыбын» (муха), «қурт» (червь), «балық» (рыба) «ийт» (собака). Таким образом, наблюдается совпадение образных компонентов во ФЕ. Сравн.: англ.: *a fish out of water* — букв, рыба вне воды — не в своей тарелке; кк.: *торға түскен балықтай* — букв, как рыба, уловленная на сеть; англ. *like a cat on hot bricks* — букв, словно кошка на

горячих кирпичах — как на иголках; *аяғы күйген таўықтай* — букв, как курица с обоженной ногой.

В английском и каракалпакском языках встречаются ФЕ, которые имеют тождественную семантическую специфику, но их лексическое наполнение не совпадает: *cats scratch at somebody's soul* —— *ишин ийт тырнағандай* —— кошки скребут на душе, беспокоиться о чем-либо.

Таким образом, когнитивно-сопоставительный анализ фразеологических единиц разных языков показывает, что выполняющие дидактическую функцию и двойственно представленные в языке, с одной стороны репрезентируют нравственные знания, с другой, - реализуют бытовые представления, выступают как универсальные, так и национально-специфические фрагменты языковой картины мира.

Использованных литератур:

1. Абдиназимов Ш., Толыбаев Х. (2020). Лингвокультурология. Нукус: Каракалпакстан.

2. Ковшова М.Л. (1996). Культурно-национальная специфика фразеологических единиц (когнитивные аспекты). (244 с.). Дисс. ... канд. филол. наук. Москва.

3. Маслова В.А. (2006). Введение в когнитивную лингвистику. (296 с.) Москва: Флинта, Наука.

4. Попова З.Д., И.А. Стернин. (2001). Очерки по когнитивной лингвистике. Воронеж: Истоки.

5. Скитина Н.А. (2007). Лингвокогнитивный анализ фразеологических единиц с зооним̆ным компонентом (на материале русского, английского и немецкого языков). (227 с.). Дисс. ... канд. филол. наук. Москва.

НАЦИОНАЛЬНОЕ СВОЕОБРАЗИЕ РУССКОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА

Шариповой Зарнигор Холмуродовны,
Студента магистранта
филологического факультета БухГУ
z.x.sharipova@buxdu.uz

Аннотация. *Русский язык, как и любой другой естественный язык, отражает определенный способ восприятия мира. Владение языком предполагает владение концептуализацией мира, отраженной в этом языке. Совокупность представлений о мире, заключенных в значении разных слов и выражений русского языка, складывается в некую единую систему взглядов и предписаний, которая в той или иной степени разделяется всеми говорящими по-русски.*

Ключевые слова и фразы: лингвоконцептология; лингвокультурология; языковая картина мира; концепт; концептосфера.

Annotatsiya. *Rus tili, boshqa tabiiy tillar singari, dunyoni idrok etishning ma'lum bir usulini aks ettiradi. Tilni bilish bu tilda aks ettirilgan dunyoni kontseptuallashtirishga ega bo'lishni anglatadi. Rus tilining turli so'zlari va iboralarining ma'nosida mavjud bo'lgan dunyo haqidagi g'oyalar yig'indisi barcha rus tilida so'zlashuvchilar tomonidan u yoki bu darajada baham ko'riladigan o'ziga xos yagona qarashlar va retseptlar tizimiga aylanadi.*

Kalit so'zlar: lingvokonseptologiya; lingvokulturologiya; dunyoning til tasviri; tushuncha; kontseptsiya sohasi.

Представления, формирующие картину мира, входят в значения слов в неявном виде. Пользуясь словами, содержащими неявные, «фоновые» смыслы, человек, сам того не замечая, принимает и заключенный в них взгляд на мир. Напротив того, смысловые компоненты, которые входят в значение слов и выражений в форме непосредственных утверждений и составляют их смысловое ядро, могут быть (и нередко бывают) осознанно оспорены носителями языка. Поэтому они не входят в языковую картину мира, общую для всех говорящих на данном языке.

Поскольку конфигурации идей, заключенные в значении слов родного языка, воспринимаются говорящим как нечто само собой разумеющееся, у него возникает иллюзия, что так вообще устроена жизнь. Но при сопоставлении разных языковых картин мира обнаруживаются значительные расхождения между ними, причем иногда весьма нетривиальные.

Особый интерес представляют те конфигурации смыслов, которые повторяются в качестве фоновых в целом ряде языковых единиц. Анализ русской лексики позволяет выявить целый ряд мотивов, устойчиво повторяющихся в значении многих русских лексических единиц и фразеологизмов, и многие из таких «сквозных мотивов» представляются особенно характерными именно для русской языковой картины мира. Поскольку показательными для языковой картины мира являются неявные смыслы, их обнаружение, как правило, требует детального семантического анализа.

Именно сквозные мотивы языковой картины мира составляют основную трудность и для перевода, и для межкультурной коммуникации. Это и понятно. Переводчик, как правило, стремится точно передать те компоненты смысла, которые находятся в фокусе внимания. Фоновых компонентов он часто вообще не замечает, а если и заметит, то нередко бывает готов ими пожертвовать. Следует иметь в виду, что, пытаясь передать их средствами другого языка, он почти неизбежно привлечет к ним внимание, переведет их из почти незаметного «фона» в фокус, а это также будет искажением исходного смыслового задания. Аналогичным образом, при общении с представителями иных культур человек, говорящий на неродном языке, стоит перед выбором: использовать модели (conversational routines) языка общения, обременяя свое высказывание смыслами, чуждыми исходному коммуникативному намерению или обращать на себя внимание нестандартностью речевого поведения и излишне акцентировать смыслы, которые на родном языке оставались бы «в тени». Решение в каждом конкретном случае зависит от целого ряда параметров. Но совершенно

нелишним является осознание проблемы и исследование всего того, что, не попадая в фокус высказывания, составляет сквозные мотивы дискурса на данном языке. Здесь необходимо, не ограничиваясь общими сентенциями об особенностях национальной «ментальности» или «национального характера», опираться на тщательный семантический анализ, использующий все достижения современной лингвистики.

Истинность неявных компонентов смысла, формирующих языковую концептуализацию мира, носители языка обычно воспринимают как нечто само собою разумеющееся, пока кто-то не поставит ее под сомнение. Таким образом, в соответствии с предложенным пониманием «языковая концептуализация мира» некоторого языка - это система представлений, входящих в значение языковых единиц данного языка. Сравним следующие представления, характерные для русской языковой концептуализации мира: «в жизни всегда может случиться нечто непредвиденное» (если что, в случае чего, вдруг), но при этом «всего все равно не предусмотришь» (авось);
«чтобы сделать что-то, бывает необходимо предварительно мобилизовать внутренние ресурсы, а это не всегда легко» (неохота собираться/собраться, выбраться), но зато «человек, которому удалось мобилизовать внутренние ресурсы, может сделать очень многое» (заодно); «человеку нужно много места, чтобы чувствовать себя спокойно и хорошо» (простор, даль, ширь, приволье, раздолье), но «необжитое пространство может приводить к душевному дискомфорту» (неприкаянный, маяться).

Для русской языковой концептуализации мира характерно также восприятие мира на основе оппозиции «горнего» и «дольнего» (в сравнение можно привести такие пары слов, как быт - бытие, добро - благо, радость - удовольствие). При этом излишнее внимание к «дольнему», к быту, к мелочам жизни никак не одобряется. О том, что с точки зрения русской языковой концептуализации мира хорошо, когда человек бескорыстен и даже нерасчетлив, свидетельствует, в частности, положительная окрашенность

слов широта и размах, и резко отрицательная оценка мелочности (сравните также отрицательную окраску таких слов, как корысть).

Понятие картины мира относится к числу фундаментальных понятий, выражающих специфику человека и его бытия, взаимоотношения его с миром, важнейшее условие его существования в мире. Картины мира чрезвычайно многообразны, так как это всегда своеобразное видение мира, его смысловое конструирование в соответствии с определенной логикой миропонимания и миропредставления. Они обладают исторической, национальной, социальной детерминированностью. Существует столько картин мира, сколько имеется способов мировидения, так как каждый человек воспринимает мир и строит его образ с учетом своего индивидуального опыта, общественного опыта, социальных условий жизни.

Список литературы:

1. Антюфеева Е. В. Тема любви и ее репрезентация в художественно-речевой структуре рассказов И. А. Бунина: дисс. … к. филол. н. Барнаул, 2005. 191 с.

2. Балашова Е. Ю. Концепты *любовь* и *ненависть* в русском и американском языковом сознании: дисс. … к. филол. н. Саратов, 2006. 262 с.

3. Вильмс Л. Е. Лингвокультурологическая специфика понятия «любовь» (на материале русского и немецкого языков): дисс. … к. филол. н. Волгоград, 1997. 211 с.

4. Воркачев С. Г. Концепт любви в русском языковом сознании (Электронный ресурс). URL: http://lincon.narod.ru/love.htm (дата обращения: 16.12.2013).

5. Гибадуллина Л. З. Объективация концептов «Любовь» и «Семья» в татарской и русской языковой картине мира (на материале современной женской прозы): автореф. дисс. … к. филол. н. Уфа, 2012. 18 с.

6. Данькова Т. И. Концепт «Любовь» и его словесное воплощение в индивидуальном стиле А. Ахматовой: дисс. … к. филол. н. Воронеж, 2000. 214 с.

II BOB

O‘ZBEK TILI TARIXI, TARJIMASHUNOSLIK VA LINGVOPOETIKA MASALALARI

USMON AZIM SHE'RIYATIDA ANAFORA VA EPIFORANING LINVOPOETIK XUSUSIYATI

Abdunazarova Jasmina Sirojiddin qizi,
ToshDO'TAU,O'FF 1-kurs talabasi
abdunazarovajasmina57@gmail.com

Annotatsiya.*Ushbu maqolada Usmon Azim she'riyatida qo'llangan takrorning xususiyatlari bayon etilgan. U orqali yuzaga kelayotgan ma'no va takrorning qo'llanish o'rniga ko'ra turlari tahlil etilgan. Shoir lirikasining takrorlarga boyligi anafora va epifora misolida dalillangan.*

Kalit so'zlar*: Takror, anafora, epifora, lingvopoetika, Usmon Azim.*

Abstract*. This article describes the features of repetition used in Usman Azim's poetry. The meaning that arises through it and the types of repetition according to the anaphora, lace of use is analyzed.*

Keywords*: Repetition, anaphora, epiphora,linguopoetics,Usman Azim.*

Matn tarkibida til birliklari turli sintaktik aloqa vositali orqali birikib, ular bir-biridan ma'lum bir uslubiy vazifa bajarishi bilan farqalanadi. Ularga takroriy bo'laklar, olmoshlar,xiazmatik konstruksiylar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so'zlar kabi turli leksik-grammatik birliklar kiradi. (Yo'ldoshev M,2012,13-bet) Takrorlash - bu mantiqiy urg'uni ko'rsatadigan nutq shakli bo'lib, kalit so'z yoki kalit iboraga o'quvchi e'tiborini jalb qilish uchun zarur bo'lgan vositadir. Badiiy usul, badiiy san'at sirasida takrorlar nutq(matn) turli o'rinlarda keladi. Takror vazifasida asosiy vosita:tovush, so'z ,so'z birikmasi, ibora, gap, hatto, butun bir misra (misralar) ham bo'lishi mumkin.Takrorlar she'riyatda ham, nasrda ham keng qo'llaniladi. Takror usulidan ritm yaratish, aytilayotgan fikrlarni ta'kidlash, bog'lash, solishtirish yoki qarama-qarshi qo'yish uchun foydalaniladi. Takrorlardan foydalanishda hech qanday cheklov yo'q, biroq ko'p takrorlash zerikarli bo'lishi va hatto stilistik ta'sirini buzishi mumkin. She'riyatda biror-bir maqsadli takror:she'rda musiqiylik va ohangdoshlikni ta'minlaydi, ma'noni bo'rttiradi va kuchaytiradi, yangi ma'no kasb etadi ,kitobxon diqqatini jalb etadi va o'qimishliligini oshiradi.Takrorlarning bir necha ko'rinishlari mavjud bo'lib, shulardan biri anafora va epiforadir.

Anafora - so‘z yoki so‘z birikmalarining she’riy misra boshida takrorlanishi.Anafora matning kompozitsion butunligi uchun xizmat qiladi.Leksik-grammatik vositalardan biri bo‘lgan takrorning bu turi she’riy misrada o‘ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi.Anafora (yun. “ana” va “pherein”) yuqoriga chiqarish.Parallel tuzilgan nutq parchalari (mas.misralar) boshida aynan bir unsurning takrorlanishidan iborat uslubiy qo‘llanish.Zid. “epifora”.Anafora-she’riy misralarning boshida yoki nasriy asardagi gaplarning oldida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh so‘z va iboralarning takrorlanib kelishi.(A.Hojiyev,2002,14-bet).Darhaqiqat,Usmon Azim lirikasining anaforalarga boyligi, ayniqsa, leksik takrorning bu turini mahorat bilan qo‘llaganligi she’rning ta’sir kuchini yanada oshirgan.Keltirilgan fikrlarni yanada boyitish uchun Usmon Azim she’rlari misolida bir nechta namunalarni ko‘rib chiqsak:

*“**Bu yerda** o‘zlari uchun yig‘lamas,*

***Bu yerda** ‘yig‘latar birovning dardi,*

***Bu yerda** birovning g‘ami muqaddas,*

***Bu yerda** tabarruk o‘zganing qadri.”* (Usmon Azim,1995,99-bet)

Usmon Azim “Saylanma” sidan olingan ushbu she’riy parchada ohangdosh takror so‘zlar ma’noni kuchaytirgan. Shoir ”Teatr” she’rida anaforani o‘zgacha qo‘llagan, xususan, bu ta’sirchanlikni oshirgan, ta’kidni kuchaytirgan. Yana shunday misollardan biri:

“Bu uyda yashashar bir-birin poylab,

***Bunda** ezgu tuyg‘u qovjirar pinhon.*

***Bunda** faqat charchoq kezadi yayrab.*

***Bunda** uvalanib boradi inson.*

***Bunda** bir burchakda tishlab labini,*

Tegrasiga boqar jiddiy,beshavqat-

***Shu uyning** bo‘lajak odil qotili,*

***Shu uyning** o‘zida tug‘ilgan nafrat.* ” (Usmon Azim,1995,108-bet)

Ushbu parchada *“bunda”* va *“shu uyning”* anaforalari qo‘llangan. She’rda *“bunda”* so‘zi to‘rt marta, *“shu uyning”* so‘zi ikki marta takrorlangan.Usmon

Azim ushbu she’rida anafora qo‘llash orqali chiroyli ritm yaratgan. Har bir takrorda,ya’ni,takrordan takrorga o‘tish jarayonida fikrlar bir-biri bilan bog‘langan. Ko‘rinib turibdiki,keltirilgan misollardagi har bir misrada qo‘llanilgan anafora takrorlari misralardagi ma’noni umumlashtirgan.

Dedilar:yashamoq-umrlik kurash

Kurashdim*-shon uchun,rizq-u ro‘z uchun*

Kurashdim *sevgi deb ko‘ksimda otash*

Kurshdim*-qush kabi erkin soz‘ uchun.”* (Usmon Azim,1995,143-bet)

Anaforaning bandlar doirasidagi takrori ham turli shakllarda bo‘lib,bunday takror she’r qismlari-bandlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi. Anafora ijodkor aytmoqchi bolgan fikrni kitobxonga takror va takror uqtiradi,misralarning estetik kuchini oshiradi,ularga ohangdorlik,musiqiylik bag‘ishlaydi. Yuqorida keltirililgan misralar esa bunga yaqqol misol. Anafora she’riy nutqning mazmuniga,tagma’nolariga ta’sirchanlik baxsh etuvchi vosita hamdir. Anaforik elementning qo‘llanilishi she’riy misrada o‘ziga xoslikni keltirib chiqaradi va nutqning tovush uyg‘unligini oshiradi.

*“**Mening ko‘kragimda** otlar chopadi,*

Mening ko‘kragimda *beayov qirg‘in.*

Ming bitta *yuragim o‘lim topadi,*

Ming bitta *hayotim bo‘ladi surgun.”* (Usmon Azim,1995)

Usmon Azim she’riyatida epifora takroriga ham alohida e’tibor qaratilgan. Takrorning mazkur turi shoir she’riyatiga o‘ziga xos jozibadorlik kashf etgan. Epifora-badiiy takror turlaridan biri. Epifora misralar oxiridagi so‘z yoki qo‘shilmalarning takrorlanishi. (M.Yo‘ldoshev,2012,15-bet). Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki,epifora anaforaga teskari hodisadir. Epifora takrorning boshqa turlari singari hozirgi zamon o‘zbek she’riyatida keng qo‘llanmoqda. Usmon Azim ijodida ham epiforaning turli shakllarini uchratamiz. Anafora ogzaki va yozma nutqda, epifora esa asosan,yozma nutda qo‘llaniladi.(Sultonsaidova,2009,64-bet).

*“Bir ‘ojar dovulda o‘chib **qolyapman,***

*Tuyangdan sirg‘anib tushib **qolyapman.***

Yo‘lingda qumlarni quchib ***qolyapman, -***

To‘xta-ya,to‘xtagin,umrim takrori. " (Usmon Azim,1995,403-bet)

Usmon Azim qalamiga mansub “Xotima” she’rida epifora takroridan unumli foydalanilgan. Yetti banddan iborat mazkur she’rda “o‘tding sen”, “ketdilar”, “firoqdir”, “qolyapman”, “qildim” kabi epifora takrorini uchratishimiz mumkin. Xususan, quyidagi she’rda epifora takrori turli shakllarda namoyon bo‘ladi, ya’ni, asosan band doirasida takror hosil qilib, band(to‘rtlik)ning barcha misralarida,dastlabki uch misralarida,ikkinchi va uchinchi misralarida epifora takrori namoyon bo‘ladi. Uning yana bir she’rida ham shunday holatga guvoh bo‘lishimiz mumkin:

“Men senga hamisha omonlig‘ ***berdim,***

Qiyinini oldim-osonlig‘ ***berdim****,*

Har kuni jonimdan qurbonlig‘ ***berdim****-*

Ko‘yingda qurbonlik bermoq cheksizdir. ” (Usmon Azim,1995,391-bet)

Mazkur misrada “berdim” so‘zi qo‘llangan holda epifora yuzaga kelgan. Shuningdek,” o‘tkinchi”, “lahzadir”, “qo‘ydi” kabi epiforalar ham mazkur she’rning dastlabki uch misralarida uchraydi. Bu orqali esa ohangdorlik,fikr ta’sirchanligi va ta’kidga erishilgan. Bir qarashda band oxiridagi so‘z radifni eslatadi va juda ko‘p vaziyatlarda bu ikki turni farqlash qiyin. Chunki radif ham she’r misralari oxirida takrorlanuvchi so‘z yoki so‘z birikmasidan iborat. Ammo takror qo‘llangan so‘z radif bo‘lishi uchun o‘zidan oldingi so‘z qofiyalangan bo‘lishi va she’rning boshidan oxirigacha bitta radif takrorlanishi kerak. Epiforda esa bunday talab yo‘q.

*“Zamin bilan osmon-****sen-u menman****,*

*Sahar bilan oqshom-****sen-u menman****.*

Yer-u osmon aro bir ish bordir-

*Ishqdan bunyod hijron-****sen-u menman****.”* (Usmon Azim,1995,390-bet)

Umuman olganda, Usmon Azim she’riyatida epiforik takrorlar juda ko‘p qo‘llaniladi va ularning har biri uslubiy vazifa bajardi. Shoir ijodida takrordan

foydalanish mahoratini ham ijodkorga xos yo‘nalish va uslub deb bemalol aytib o‘tish mumkin.

“Qon yutgan ko‘rimlar uchun ***kechirgin****,*
Bemahal o‘limlar uchun ***kechirgin****.*
Ko‘zimning yoshligi uchun ***kechirgin****.*
Dunyoning toshligi uchun ***kechirgin****.*
Kechirgin*-ko‘yingda adashganimni,*
Kechirgin*-ko‘yingda tinmaganim-chun.*
Kechirgin*-erk uchun taloshganimni*
Va erk senligingni bilmaganim-chun.” (Usmon Azim,1995,405-bet)

Usmon Azim qalamiga mansub ushbu she’r o‘zining qamrov ko‘lami bilan ajralib turadi. She’rning daslabki to‘rt misrasida “kechirgin” so‘zi vositasida epifora va keyingi bandning uch misrasida anafora bo‘lib kelmoqda. Matn qismlarini takrorning bu turlari orqali ketma-ket bog‘lay olish shoir mahoratidan darak beradi.

“Parvardigor,
Har *lahzam-****dard****,*
Har *nafasim-****dard****,*
Har *qafasim-****dard****,*
Har *barbodim-****dard,***
Har *ozodim-****dard****...”* (Usmon Azim,1995)

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Usmon Azim she’riyatida takrorlar o‘rinli,ma’lum bir maqsad ko‘zlangan holga qo‘llangan. Bu esa yuqorida aytib o‘tilganidek, aytilayotgan fikrlarni ta’kidlash,o‘zaro aloqadorlik,ohangdorlik hosil qilish uchun foydalanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. O‘zME,2002
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Nukus: Universitet,2012.
3. Sultonsaidova S. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent: Universitet,2009
4. Usmon Azim. Saylanma-Toshkent.1995.
5. Shofqarov A.M. O‘zbek tilida badiiy takror. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019.

BADIIY ASARDA ESKIRGAN SO‘ZLARNING QO‘LLANISH O‘RNI VA AHAMIYATI (MIRKARIM OSIMNING “ZULMAT ICHRA NUR” ASARI MISOLIDA)

Anvarjonova Shaxnozaxon Lochinbek qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 1-kurs talabasi,
anvarjonovashaxnoza99@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi eskirgan so‘zlarning badiiy asardagi o‘rni va ahamiyati Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” asari misolida o‘rganiladi. Maqolada ayrim so‘zlar izohiga alohida to‘xtalib, ma'nolari sharhlanadi. Maqolani o‘rganish tarixiy mazmunda yozilgan ilmiy va badiiy asarlar tilini tushunishda va ularning mazmunini to‘g‘ri talqin qilishda tayanch vazifani bajaradi. Qolaversa, ushbu manba foydalanuvchiga eskirgan so‘zlar izohi bo‘yicha kichik hajmli lug‘at sifatida xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *eskirgan so‘zlar (ishlatilmaydigan so‘zlar), arxaizm, istorizm, leksik eskirish, lug‘at sathi, leksema.*

Abstract. *In this article, the role and importance of obsolete words in the Uzbek language in the work of art is studied on the example of Mirkarim Osim's "Zulmat ichra nur". Studying the article plays a key role in understanding the language of scientific and artistic works written in historical context and in correctly interpreting their content. In addition, this resource can serve the user as a small glossary of obsolete words.*

Keywords: *obsolete words (words that are not in use), archaism, historicism, lexical obsolescence, vocabulary level, lexeme.*

Bilamizki, tilning vujudga kelishidan tortib to hozirgi kungacha bo‘lgan o‘zgarishlar uning lug‘at sathida o‘z aksini topadi. Lug‘at sathi tildagi shevalar, argonlar, varvarizm, vulgarizm, neologizm kabi bir qator birliklarni qamrab oladi. Mazkur maqolada ushbu sath birliklaridan biri bo‘lgan eskirgan so‘zlar haqida fikr yuritiladi. Eskirgan so‘zlar (ba'zi manbalarda ishlatilmaydigan so‘zlar shaklida ham uchraydi) garchi tilning qo‘llanish davri cheklangan leksikasi tarkibiga kirsa-da, uning o‘zbek tilshunosligidagi, qolaversa, badiiy adabiyotdagi o‘rni va ahamiyati beqiyos. Badiiy adabiyotda va tarixiy asarlarda bu turdagi so‘zlardan

foydalanish o‘sha davr milliy koloritini yaratish uchun xizmat qiladi. Biz buni Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” asari misolida ko‘rishimiz mumkin. Navoiy hayotiga bag‘ishlangan ushbu asarda ijodkor bir qator tarixiy so‘z va iboralardan foydalanadi. Biz ularni tahlilga tortishdan avval eskirgan so‘zlarni ikki guruhga tasniflaymiz: istorizm va arxaizm. Bu o‘rinda Hasanboy Jamolxonovning tildagi so‘zlarning leksik eskirishi haqidagi ilmiy qarashlariga alohida to‘xtalmaslikning imkoni yo‘q: “Leksik istorizmlar o‘tmish voqeligi bo‘lgan narsa-hodisalarning nomlaridir. Istorizmning muhim belgilaridan biri shuki, uning ifoda jihati (nomemasi) va mazmun jihati (sememasi) birga eskiradi, binobarin, leksema yaxlit holda hozirgi til birligi bo‘lmay qoladi. Ya’niki, leksik istorizmlarda so‘zlar bilan birga u anglatuvchi ma’no birdek eskiradi. Xalqlar taraqqiy etgani sari ularning maishiy hayotida ham ko‘plab yangilanishlar paydo bo‘ladi va bu tarixiy so‘zlarni - istorizmlarni vujudga keltiradi.”Yo‘lovchilar har yer-har yerda bo‘lgan sho‘r quduqlardan suv chiqarib, meshlarini to‘ldirib olar edilar" (ZIN,11). Ushbu gapdagi mesh so‘zining izohiga diqqatimizni qaratsak. Mesh - oshlangan teridan tikilgan og‘zi tor qop,sanoch. Asosan, suyuq narsalar uchun ishlatilgan. Ammo vaqtlar o‘tishi bilan odamlar orasida bunday narsaga ehtiyoj kamaydi va umuman iste'moldan chiqdi. Natijada mesh so‘zi ham istorizmlar tarkibiga kiritildi. "Zulmat ichra nur" asarida bunday istorizmlar (tarixiy so‘zlar)ni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Jumladan:

Shaxsning lavozimiga, kasb-koriga ko‘ra:

Muhrdor - xon, amirlar saroyida muhr saqlovchi amaldor;

Dorug‘a:

1.Shahar posbonlari sardori.

2.Shahar hokimi.

3.Bosh mirshab.

4.Shahar idorasi boshlig‘i;

Tarxon(darxon) - soliqdan va har qanday majburiyatlardan ozod qilingan;imtiyozli, daxlsiz;

Mingboshi:

1.Daha yoki qishloq oqsoqoli, hokimi

2.Qo‘shin boshlig‘i

Yuzboshi:

1.O‘rta Osiyo xonliklarida (18-19-asrlarda) yuzta otliq askarga qo‘mondonlik qiluvchi harbiy boshliq.

2.Qishloq yoki mahalla oqsoqoli;

Jallod - O‘rta Osiyo xonliklarida o‘lim jazosiga hukm qilinganlarning boshini oluvchi, o‘lim jazosi haqidagi hukmni ijro etuvchi shaxs.

Parvonachi - ko‘pincha podshoh yonida bo‘lib, farmonlarini yozib turuvchi, ishlar haqida podshohga hisobat qiluvchi amaldor;

Dodxoh:

1.Buxoro amirligida arzchilar shikoyatini amirga yetkazib, javobini shikoyatchilarga bildiruvchi amaldor.

2.Qo‘qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor;

Ayoqchi - sharob quyuvchi, kosagul;

Chopar - davlat ahamiyatiga ega va oshig‘ich xabarni yetkazish uchun yuborilgan otliq, suvori;

Payk - xabarchi, elchi, darakchi; xizmatkor;

Maxdum - ulamo va ruhoniylar, pir va ustozlarga beriladigan unvon, laqab va shu unvonga ega bo‘lgan kishi;

Sahhof:

1)gazeta, kitob sotuvchi

2) kitoblarni muqovalovchi usta, moqovasoz.

Narsa otlari:

Kuloh - tepa tomoni ingichkalashib chiqqan qalpoq, bosh kiyimi;

Dinor - qadimda musulmon mamlakatlarining oltin tangasi;

Juzvdon(juzgir, juzdon) - qog‘oz, xat-hujjatlar solib qo‘yiladigan, charmdan, matodan yoki kartondan yasalgan jild, xalta yoki muqova.

Suroh - bo‘yni ingichka may idishi;

Mesh - oshlangan teridan tikilgan og‘zi tor qop,sanoch. Asosan, suyuq narsalar uchun ishlatilgan;

To‘rsiq - mesh, sanoch;

Mayi nob - qizil may;

Kejim - urush vaqtida otga yopiladigan, o‘q o‘tmaydigan maxsus yopinchiq;

Taq(i)ya - sidirg‘a matodan tayyorlangan gulsiz do‘ppi;

Xiroj - yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida, jumladan O‘rta Osiyoda o‘rta asrlar va yangi davrda davlat tomonidan undirilgan yer solig‘i;

Tamg‘a - qadimda chetdan kiritilgan molga belgi solishda olingan boj;

Ko‘shk - qadimda baland, bahavo qilib solingan yengil imorat;

Ilg‘or - qo‘shinning oldingi qismi, avangardi.

Zodi rohila:

1.Ot-ulov, yuk hayvoni.

2.Yo‘l ozuqasi;

Faroiz:

1)yerning hajmini o‘lchash bilan shug‘ullanuvchi , hisob-kitoblarga oid soha.

2)fiqh ilmida:bajarilishi shart bo‘lgan amallar haqidagi bo‘lim,jumlada, shariatning merosini taqsim qilish haqidagi qoidalarga oid bilimlar.

O‘rin-joy otlari:

Karvonsaroy - karvonlar qo‘nishi, tunashi uchun maxsus moslangan joy; saroy;

Yasovulxona - yasovullar, soqchilar va qurol-yarog‘ turadigan bino yoki maxsus xona;

Zodi rohila:

1)ot-ulov, yuk hayvoni ;

2) Yo‘l ozuqasi.

Harakatni ifodalovchi so‘zlar:

Kushoyish - biror qiyin ishning oson hal bo‘lishi, yengil bitishi;

Suyurg‘ol etmoq - shoh, xon, amir tomonidan amaldor va sarkardalarga saltanat oldida ko‘rsatgan alohida ximati uchun in’om qilingan yer-suv, mol-mulk;

Leksik eskirishning ikkinchi turi arxaizm deb yuritiladi. Arxaizm o‘z o‘rnini boshqa leksemaga bo‘shatib bergan leksik birlik. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa-hodisa boshqa leksema bilan atalib, avvalgilari istemoldan chiqib ketadi (Ra’no Sayfullayeva. “Hozirgi O‘zbek adabiy tili”. Toshkent 2010. 175-bet). Bu turdagi eskirishda so‘zlarning ma'nolari saqlanadi yoki aksincha so‘z saqlanib, ma'no o‘zgaradi:

“Ota-onadan yetim, homiysiz qolgani yetmagandek, musofir yurtida u mafosil(suyak sirqirashi) kasaliga mubtalo bo‘lib qoldi” (ZIN,25). Ushbu gapdagi mafosil so‘zi bugungi tilimizdagi arterit, revmatizm kasalligining eskirgan nomi. Ko‘rib turganimizdek, so‘z eskirsa-da, ma'no saqlangan. Shuni ham e'tiborga olish lozimki, leksik istorizmlardan farqli ravishda leksik arxaizmlar tarkibida fe'l so‘z turkumiga oid so‘zlar ko‘p uchraydi. Boisi fe'llar nutqimizda doimiy foydalaniladigan so‘zlar tarkibiga kiradi. Garchi davr taqozosi bilan uning nomi boshqasiga o‘zgarsa-da, ma'no saqlanib qoladi(beganmoq - hozirgi tilimizda yoqtirmoq). Harakat istorizmi paydo bo‘lishi uchun esa, avvalo, narsa nomi eskirishi kerak. So‘ng u bilan birga bajariladigan harakat ifodalovchi so‘z ham eskiradi. Masalan, yuqoridagi beganmoq so‘zini tarixiy so‘zga aylanishi uchun u bilan birga keluvchi oshiq, ma'shuq, ishq kabi so‘zlar ham istorizmga aylanishi lozim. Ya'niki, istorizmga aylanayotgan fe'l yakka o‘zi emas, uyadoshlarini ham tarixiy so‘zga aylantiradi. Shu boisdan harakatni ifodalovchi ko‘plab eskirgan so‘zlar arxaizm tarkibiga kiradi.

Eskirayotgan narsa nima ekanligiga qarab, bu turdagi eskirishni ham ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1.A r x a i z m – n o m e m a - hozirgi paytda mavjud bo‘lgan voqelikning eskirgan nomi. Masalan: dudoq (lab).

2. A r x a i z m – s e m e m a - hozirgi tilda mavjud bo‘lgan leksemaning eskirgan ma’nosi (Hasanboy Jamolxonov. “Hozirgi O‘zbek adabiy tili”. Toshkent 2013. 315-316 betlar). Masalan: tuman (qadimda o‘n ming sonini ifodalash uchun xizmat qilgan.Bugunga kelib shakl saqlangan, ammo u anglatuvchi ma'no o‘zgargan),

jo‘ra(qadimda bir kiyimli ikki bo‘lakdan iborat ipak mol ma’nosini anglatgan, lekin hozir bu so‘z do‘st, o‘rtoq ma’nosida qo‘llaniladi).

Quyida biz " Zulmat ichra nur" asaridagi arxaik so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin:

Narsa oti:

Muguz - hayvon shoxi;

Tug‘:

1)Bayroq,alam;

2)Musulmonlarning yog‘och dastaga o‘rnatilgan qo‘tos, ho‘kiz yoki ot dumidan va yarim oy tasviridan iborat bayroqsimon belgisi. So‘zning ushbu ma’nodagi shakli tarixiy so‘z hisoblanadi;

Yarmog‘ - tanga, aqcha, pul;

Ustuvona/ustivona - silindr

Xun - qon

Chilchiroq - asli kelib chiqishi qirqta chiroq degan ma’noni anglatadi.Ko‘p shamli chiroq; qandil;

Tubichoq – ot turi;

Og‘och – daraxt;

Dastor – salla;

Satranj(ba'zi asarlardan shatranj) – shaxmat;

Asp – ot;

Fag‘fur – chinni;

Aqcha – pul;

Fan nomlari:

Sarf - arab tili tilshunosligining morfologiya bo‘limi;

Riyoziyot – matematika;

Falakiyot – astronomiya;

Shaxs otlari:

Cherik - askar, jangchi;

Valad - o‘g‘il bola, o‘g‘il farzand;

Ko‘shtigir - kurashchi, polvon;

Sipoh - askar, jangchi;

Bandi - mahbus ,asir;

Zindonchi - qamoqxona nazoratchisi;zindonbon.

Harif:

1)sherik, jo‘ra ulfat;

2)biror kimsaga zid harakat qiluvchi,qarshi kurashuvchi; raqib;

Mirza - yozuv-chizuv ishlarni olib boradigan mansabdor shaxs,kotib;

Kitobdor – kutubxonachi;

Ahbob – do‘st;

Sifatlar:

Riyokor – ikkiyuzlamachi;

Usruk - mast (ko‘zga nisbatan suzilgan);

Misqoli - yuqori sifatli, nafis; shunday matodan tayyorlangan;

Mustar - g‘amgin,qayg‘uli,muhtoj;

Tar - toza,asil, yaxshi;

Mustahiq - munosib, loyiq, sazovor.

Ravishlar:

Kulli - to‘liq , butunlay.

Son:

Haftum – yettinchi.

Harakat va holat fe'llari:

Yag‘mo etmoq - ta’lon-taroj, buzg‘unlik qilmoq;

Zoil bo‘lmoq - yo‘qolmoq, chekinmoq, daf bo‘lmoq;

Beganmoq – yoqtirmoq;

Uyumoq – uxlamoq;

Oyilmoq - xushyor tortmoq;

No‘sh qilmoq – ichmoq;

Yonmoq – qaytmoq;

Darj etmoq:

1)Qayd qilmoq;

2)ifodalamoq;

3)Yozib qo‘ymoq;

Mubaddal bo‘lmoq - o‘zgartirmoq, almashtirmoq;

Sunmoq - tutmoq , uzatmoq;

Yuklama:

Dog‘i – ham;

O‘sru(usru, asru) - rosa, juda;

O‘rin-joy otlari:

Qal’a - devor bilan o‘ralgan qo‘rg‘on,shahar;

Kent – shahar;

Rasadxona - qadimgi sharq observatoriyalarining nomi;

Bo‘luk - mavze’, daha;

Lashkargoh - lashkar kelib qo‘nadigan joy,harbiy qarorgoh,lager;

Zindonxona:

1)Amir va xonlar zamonida yer ostiga qurilgan qamoqxona;turma;

2) ko‘chma ma’noda azobxona, g‘urbatxona, azob-uqubat makoni;

Takya:

1)boshpana, turar-joy, makon;

2)shevada yostiq, bolish; suyanchiq (so‘zning ushbu ma'nosi eskirgan emas);

Tamug‘ - jahannam, do‘zax.

Umuman olganda, eskirgan so‘zlarning ikki turi ham tarixiy asar va badiiy adabiyotlarda juda ko‘p uchraydi. Faqat o‘sha davrdagina ishlatilib, bugungi kunda qo‘llanilmaydigan bu kabi leksik birliklar asarning realligini ta'minlab, o‘sha davr muhitini kitobxonga "yuqtirish" uchun xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, tarixiy va arxaik so‘zlar tilning boyib borish manbalaridan biri sifatida ko‘plab kitoblarda qayd etilgan. Til tarixini o‘rganish mobaynida shunday so‘zlarni uchratamizki, ular ayni damda ishlatilayotgan yangi so‘zlardan o‘zining ixchamligi va talaffuzga qulayligi bilan ajralib turadi. O‘ylaymanki, tilimizga kirib kelayotgan har qanday neologizm (chet el so‘zlari) ni nutqqa to‘g‘ridan to‘g‘ri olib kirmasdan, uning

muqobilini o‘z til tariximizdan qidirsak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Zero, har bir til o‘z ichki imkoniyatlaridan (tarixiy so‘zlar, shevalar, so‘z yasalishi kabi) to‘laqonli foydalanish orqali so‘z boyligini, milliyligini va eng muhimi o‘zligini saqlab qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirkarim Osim (2021), “Zulmat ichra nur”, Toshkent, 156 bet.

2. Xurshida Norxo‘jayeva (2006) “O‘zbek tilining eskirgan so‘zlar o‘quv lug‘ati”, Qarshi, 81 bet.

3.Hasanboy Jamolxonov (2013), “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, Toshkent, 314-318-betlar.

4.Ra’no Sayfullayeva (2010), “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”,Toshkent, 630 bet.

5.Zulxumor Xolmonova (2020), “Tilshunoslik nazariyasi” Toshkent, 255 bet.

6.O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Toshkent, 2021.

ALEKSANDR PUSHKINNING “KAPITAN QIZI” TARJIMASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Axmadov Dostonbek Xasanboy o‘g‘li,
ToshDO‘TAU TNA (rus)fakulteti 1-kurs talabasi
axmadovdostonbek01@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mashhur yozuvchi Abdulla Qahhorning mutarjimlik faoliyati tadqiq etilgan. Uning ayrim tarjimalariga xos ba’zi jihatlar qiyosiy aspektda o‘rganilgan. Tarjima asarlarining turli yillardagi nashrlari o‘zaro qiyoslanib, mutarjim mahoratiga doir ba’zi bir mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Kapitan qizi”, mutarjim mahorati, qiyosiy aspekt, tarjimon laboratoriyasi, epigraf tarjimasi.*

Abstract. *This article examines the translations of the famous writer Abdulla Kahhar. Some aspects which are specific to some of his translations are studied in a comparative aspect. Publications of translated works in different years were compared and some comments on the the skill of translator were expressed.*

Keywords: *Captain’s daughter, translator’s skill, comparative aspect, translator’s laboratory, epigraph translation.*

XX asr o‘zbek adabiyotida o‘zining bemisl o‘rniga ega adib Abdulla Qahhor o‘zining salkam 40 yillik ijodiy umri davomida tarjimon sifatida hajmi va mundarijasi tarafidan ham, badiiy salmog‘i jihatidan ham yozuvchilik merosidan kam bo‘lmagan adabiy yodgorlik qoldirdi. Yozuvchi Abdulla Qahhorning birinchi asari matbuotda bosilganidan (1924) tarjimon A. Qahhorning dastlabki asari dunyo yuzini ko‘rguncha oradan qariyb 7 yil o‘tdi (Mamajonov, 1985, 41-bet).

1931-yili rus yozuvchisi A. Serafimovichning *“Temir oqim”* romani, F. Gladkovning *“Olovli ot”* qissasi, 1932-yili Ivan Lening *“Tog‘ oraliqlari romani”* uning tarjimasida bosilib chiqdi. 1933-yili esa M. Shaginyanning *“Gidrosentral”* romani, M. Sholoxovning *“Ochilgan qo‘riq”* romanidan parcha, M. Gorkiyning *“Mening dorilfununlarim”* qissasi, A. Klossning *“Bizning parvoz – ilgari bos”* nomli hikoyalar to‘plami A. Qahhor tarjimasida nashr etildi. Bulardan tashqari, u o‘sha yili M. Gorkiyning qator adabiy-tanqidiy va ijtimoiy ruhdagi maqolalarini tarjima qilib, avval turli matbuot sahifalarida, keyinroq esa alohida kitob holida o‘zbek kitobxonlariga taqdim etdi. *“Gorkiy haqida xotiralar”* kitobini o‘zbekchalashtirdi. “Temir oqim” ustida birmuncha ishlab, yangidan nashr ettirdi. Bu asarlar A. Qahhorning tarjimon sifatidagi ijodining dastlabki bosqichini tashkil etadi (Salomov, 1966, 67-bet). Mazkur tarjimalarning muvaffaqiyatli tomonlari ham, o‘ziga yarasha nuqsonlari ham yetarlicha.

Keyinchalik A. Qahhor o‘zining dastlabki tarjimalariga qanday munosabatda bo‘lganligi haqida yozuvchining umr yo‘ldoshi Kibriyo Qahhorova shunday xotirlaydi: *“20-yillarda Abdulla Qahhor Serafimovichning “Temir oqim” romanini tarjima qilgan ekanlar. O‘zbekiston Davlat nashriyoti bu kitobni qayta nashr qilmoqchi bo‘lib Abdulla Qahhorga murojaat etganda: “U yillari men rus tilini tatalab o‘qigan edim, shuning uchun bu tarjimadan voch kechdim” deb, nashriyotga rasmiy ravishda ariza bergan edilar. Nashriyot bu tarjimani menga topshirdi.”* (Qahhorova, 1987, 24-bet).

Abdulla Qahhor hayot hodisalariga tiyrak ko‘z bilan qaraydigan, ularning mohiyatini teran his qilib, badiiy ifoda etadigan san’atkor bo‘lish bilan birga o‘ziga xos go‘zal nasriy uslub egasi sifatida ham tanila boshladi. Uning ifodasidagi

soddalik, ravonlik, ayni paytda, fusunkor obrazlilik tarjimalarida ham namoyon bo‘la boshladi.

Abdulla Qahhor 1936-yilning oxirlarida mashhur shoir A. S. Pushkinning *“Kapitan qizi”* qissasini tarjima qiladi. Asar dastlab “Sovet adabiyoti” jurnalining 1937-yil 2 va 3-sonlarida bosilib chiqdi. Shunisi diqqatga sazovorki, mutarjim tarjimalari orasida eng ko‘p chop etilgani ham *“Kapitan qizi”*dir. Bu qissa salkam bir asr mobaynida salkam o‘n besh marta o‘zbek tilida dunyo yuzini ko‘rdi (Salomov, 1983, 38-bet).

Ma’lumki, tarjima Vatan adabiyoti hodisasi bo‘lishi uchun uning eng yetakchi namunalari bilan bo‘ylasha olishi kerak. Bu degani, boshqa xalq yozuvchisining o‘z adabiy-lisoniy muhitida yaratgan asari yuksak g‘oyaviy-badiiy qimmatga ega bo‘lishi bilan birga tarjimon uni o‘z xalqining adabiy an’analariga tayangan holda ona tili imkoniyatlari bilan asliyatdagidek maromga yetkazib voqe qilishi lozimligini bildiradi. Buning uchun esa badiiy ijod taqozosiga ko‘ra tarjima ustida qayta-qayta ishlash, unga sayqal berish, ma’no salmog‘ini oshirib, joziba sehrini kuchaytirib borish talab etiladi (Salomov&Komilov, 1979, 75-bet). A. S. Pushkin *“Tarjimonlar — ma’rifatning chopar otlaridir”* (Salomov&Komilov, 1979, 137-bet) deganida ularning oliyjanob maqsad yo‘lida chekadigan zahmatlariga ham ishora qilgan bo‘lsa ajab emas. Shu jihatdan Pushkinning “Kapitan qizi” asari tarjimasi va uni takomillashtirish borasida mutarjimning ijodiy izlanishlarini kuzatish o‘rinlidir.

A. Qahhorning “Kapitan qizi” tarjimasi ustidagi uzoq yillik izlanishlari uzviy kuzatilganda shunday tasavvur hosil bo‘ladiki, go‘yo o‘zbek adibi o‘z ijodiy yuksalishining har bir bosqichida mahorat kuchini Pushkin asarida yana bir bor sinab ko‘rganga o‘xshaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, tarjimani mukammallashtirish maqsadida uni qaytadan qo‘lga olish, original ijoddagi asarni qayta ishlashdan farq qiladi. Tarjimaviy ijod psixologiyasini o‘rgangan mutaxassislar bu xildagi “qaytish”ga tarjima jarayonining davomi sifatida qaraydilar (Salomov &Komilov, 1979, 124-bet).

Abdulla Qahhorning tarjimonlik faoliyatida ko‘zga yaqqol tashlanib turadigan xususiyatlardan biri shuki, uning mutarjim sifatidagi mahorati charxlanib borishiga ko‘ra ikki muhim bosqichga bo‘linadi:

a) lisoniy va adabiy malaka orttirish bosqichi (taxminan 20-yillarning oxiridan 1936-1937-yillargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr tarjimalari uchun muvaffaqiyatli chiqqan o‘rinlar bilan birga lug‘aviy xatolarning uchrab turishi, asliyat ma’nosini chuqur tushunib yetmaslik, muallif uslubini hamma vaqt ham his qila bilmaslik, asliyat matnidagi grammatik qurilish ta’siridan qutulolmaslik kabi qusurlar xos edi. Mutarjim bu davrda amalga oshirgan ba’zi tarjimalaridan butunlay voz kechadi yoki ayrimlarini keyinchalik tahrirlaydi);

b) mahorat bosqichi, ya’ni 1937-yildan keyingi davr (bu davr “Kapitan qizi” va “Uylanish” asarlarining tarjimasi bilan boshlanadi).

A. Qahhor tarjimasining birinchi jurnal variantidayoq asliyatni so‘zma-so‘z o‘girishdan qochish, so‘z va iboralar zamiridagi obrazni qayta tiklashga intilish aniq sezilib turadi. Unda muvaffaqiyatli tarjima qilingan ko‘pgina o‘rinlar borki, ular asarning eng so‘nggi nashrigacha ham hech bir tahrirga ehtiyoj sezdirmasdan yashab kelmoqda. Misol tariqasida ayrim parchalarga murojaat qilamiz.

Qissada bir obraz tilidan Shvabrin haqida gap borar ekan, **“Он и в господа бога *не верует*”** (Пушкин, 1940, 104-стр.) degan so‘zlarni uchratamiz. Rus tilida inkor shaklidagi *“не верить”* fe’liga o‘zbek tiliga aynan shunday inkor ma’nodagi bir nechta so‘zlarni keltirish mumkin. Masalan, “ishonmaydi, iqror emas, tan olmaydi” va hokazo. Ammo bizda bu so‘zning inkor ma’nosidagi, ammo tasdiq shaklidagi muqobili – *“munkir”* so‘zi ham borki, tarjimon bu vaziyatda bu so‘zdan zargarona foydalanadi: **“U xudoga ham *munkir*”** (Pushkin, 1987, 49-bet). Asarda g‘irt piyonista va savodsiz fransuz murabbiysi Boprening kayfi taroq paytidagi ahvoli shunday tasvirlanadi:

“Бопре в смятении хотел было привстать, и не мог: **несчастный** француз был мёртво пьян. Семь бед, один ответ” (Пушкин, 1940, 85-стр.).	“Bopre hayajon bilan turmoq istasa ham, faqat yeridan qo‘zg‘ala olmadi. Chunki, **badbaxt** fransuz o‘lgiday mast edi” (Pushkin, 1939, 3-bet).	“Bopre gangib, o‘rnidan turmoqchi bo‘lgan edi, tura olmadi: **bechora** fransuz o‘lguday mast edi. O‘n baloga bir davo deganlar” (Pushkin, 1987, 2-bet).

Albatta, **“несчастный”** so‘zining *“baxtsiz”* deb berilishi tabiiy narsa. Ammo ayni kontekst ichida asarning birinchi tarjimasidagi kabi, Boprega nisbatan **“badbaxt”** so‘zining qo‘llanishi uslubiy jihatdan tarjimonning yutug‘i sanaladi. Aslida ham, Bopre “baxtsiz” emas, “badbaxt” edi.

Asarda bir vaziyatda yosh Grinyov kapitanning qizi Mashaga ko‘ngil qo‘yib qolgach, yurak kechinmalarini she’rga solib, Shvabringa o‘qib beradi. Avval Mashaga sovchi qo‘yib, rad javobini olgan Shvabrinning bundan g‘ashi keladi va maqtov o‘rniga piching qiladi: **“А кто эта Маша перед которой изъясняешься нежной страсти и в любовной напасти?”** (Пушкин, 1940, 109 стр.). Qissaning Abdulla Qahhor tarjimasidagi barcha nashrlarda ham asliga muqobil, badiiy barkamol quyidagi jumlani o‘qiymiz: **“Bu qadar nozik ehtiros arz etib, muhabbatpesha bo‘lganing Masha kim o‘zi?”** (Pushkin, 1987, 53-bet). Boshqa bir vaziyatda Grinyov qo‘zg‘olonchilarning oqsoqollari orasida kazakcha kiyinib olgan Shvabringa ko‘zi tushib, **“hayron-hayron qoldim”** (Pushkin, 1987, 67-bet) deydi. Bu - **“неописанному моему изумлению”** (Пушкин, 1940, 117 стр.) jumlasining tarjimasi. Asl nusxada hayratning tasvirga sig‘masligi aytilsa, o‘zbekchada uning cheksizligi shundoq bilinib turadi.

Asarning o‘zbekcha jurnal variantidan so‘ng kitob bo‘lib bosilgan dastlabki nusxasidayoq (1939) tuzatish va to‘ldirishlar o‘z o‘rnini ola boshladi. “Kapitan qizi” qissasiga **“береги честь смолоду”** (Пушкин, 1940, 82 стр.) maqoli epigraf qilib olingan. Aslida bu *“береги платье снову, а честь смолоду”* degan rus maqolining bir bo‘lagi bo‘lib, asarning birinchi bobida Grinyovning otasi tilidan

aytiladi (Пушкин, 1940, 82 стр.). Tarjimaning dastlabki variantida garchi epigraf keltirilmagan bo‘lsa-da (payti kelganda aytish kerakki, ilk variantda boshqa boblarga tegishli epigraflar ham o‘girilmagan), matnda *“kiyimni yangiligidan, nomusni yoshlikdan ehtiyot qil”* deb to‘g‘ri ifodalangan. Keyingi barcha nashrlarda ham maqol matn ichida ana shu holda saqlanadi. Biroq 1939-yil nashrida nima uchundir epigraf **“yoshligingdan nomusingni saqla”** (Pushkin, 1939, 1-bet) tarzida keltirilgan. 1947-yil nashrida ham aynan shunday uchraydi. Faqat 1955-yilgi va undan keyingi barcha nashrlarda maqoldagi mantiqiy urg‘u o‘z o‘rnini topadi: **“nomusingni yoshlikdan ehtiyot qil”** (Pushkin, 1987, 2-bet).

Ba’zan asliyatdagi birgina so‘zni noto‘g‘ri tarjima qilish oqibatida asarning g‘oyaviy mazmuniga, yozuvchi niyatiga jiddiy putur yetkazish mumkin. “Kapitan qizi” qissasi tarjimasida ham shunday hol kuzatiladi. Pugachyov Belogor qal’asini ishg‘ol qilgach, o‘z tarafiga o‘tmagan ofitserlarni bir-bir osa boshlaydi. Navbat Grinyovga kelganda uni dor tagiga sudrab borayotganlar beixtiyor **“Не бось, не бось”** (Пушкин, 1940, 153-стр.) deyishadi. “Ajab emas”, “ehtimol” ma’nosida aytilgan bu so‘z 1937 va 1939-yillarda **“qo‘rqma, qo‘rqma”** (Pushkin, 1939, 89-bet) deb berilgan. Ko‘rinib turibdiki, tarjimon *“не бось”*ni *“не бойся”* (shevada — *“не бойсь”)* so‘zi bilan chalkashtirgan. Natijada voqealar mantig‘iga nomuvofiq vaziyat vujudga kelgan. To‘g‘ri, “qo‘rqma” deyish ham dalda, lekin tayin qatlga hukm etilgan dushmaniga qarata bu so‘zni aytish biroz noo‘rindir. Aslida esa bu so‘z dushmanining ko‘nglini ko‘tarish uchun emas, balki yoshgina yigitchaning juvonmarg bo‘layotgan umriga achinayotgan oqko‘ngil, samimiy kishilarning yuraklaridan otilib chiqqan xitobdir. Axir ular odam o‘ldirishni kasb qilib olgan jallodlar emas, zulm va istibdod jondan o‘tib, qahr-g‘azab otiga mingan oddiy jabrdiyda kishilar edi. Qissaning 1955-yilgi bu jumla nashrida **“balki avf etilarsan”** (Pushkin, 1987, 91-bet) tarzida o‘girilgan. Bunda garchi keskin psixologik vaziyat manzarasi bor shiddati, hayajoni bilan aks etmagan bo‘lsa-da, har holda asliyatda aytilmoqchi bo‘lgan ma’no qisman tiklangan.

“Kapitan qizi” qissasining o‘zbekcha tarjimasi 1939-yildan boshlab xiyla mukammal izohlar bilan nashr etildi. Bu esa kitobxonlarning asar voqealarini

to‘laroq tushunishlariga yordam beradi. Muhimi shundaki, tarjimon ana shu izohlarni ham, asar boblariga qo‘yilgan epigraflar-u matn ichida uchraydigan she’r va qo‘shiqlarning ham tobora sayqallanishiga, asliyatdagi badiiy vazifasini bajarishiga alohida e’tibor bergan. Misol uchun, Grinyovning Mashaga atab yozgan she’ri o‘zbekchada bir-biridan tamoman farq qiluvchi uchta variantga ega (1937, 1939 va 1955-yillardagi nashrlar).

Umuman olganda, Abdulla Qahhorning mazkur asar tarjimasiga kiritgan tuzatishlarini ularning xarakter-xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

a) asliyatdagi ma’no noto‘g‘ri tushunilib, tarjima qilingan o‘rinlarni tuzatish;

b) asliyatda tasvirlanayotgan vaziyat mantiqi, personajlar tabiati taqozosiga muvofiq tuzatishlar (uslubiy izlanishlar natijasi);

d) vaqt o‘tishi bilan ayrim so‘z va atama-istilohlarning qo‘llanish sohasi torayganligi sababli kiritilgan tuzatishlar;

e) tarjimani matn ostidagi izohlar bilan boyitish, tushirib qoldirilgan o‘rinlarni qayta tiklash.

Xullas, “Kapitan qizi” tarjimasida erishilgan ijodiy yutuqlar Abdulla Qahhor tarjimonlik faoliyatida ijobiy burilish davri boshlanganligidan dalolat beradi. Abdulla Qahhorning original va tarjimaviy ijodi har doim o‘zaro uzviy aloqada, bir-birini to‘ldirib kelgan. Xususan, original ijodda erishgan muvaffaqiyatlari, orttirgan mahorat va malakasi keyingi tarjimalarining sifatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmasdan, oldin qilingan tarjimalarni qaytadan qo‘lga olish va ularni takomillashtirishga undagan. Natijada Pushkinning “Kapitan qizi” kabi tarjimalar bir necha bor qayta ishlanib, sayqal topgan, badiiy yuksaklikka ko‘tarilgan. Bu, ayni paytda, mutarjimning estetik prinsiplari ham uning ijodiy imkoniyatlariga hamqadam mukammallashib borganligidan dalolat beradi. O‘z navbatida mutarjim prinsiplarining takomiliga mavjud adabiy-estetik muhit va kitobxonlar saviyasi singari obyektiv omillar muttasil o‘z ta’sirini o‘tkazib turgan.

Abdulla Qahhorning o‘zi ham yozuvchilik, ham tarjimonlik ijodi bilan o‘zbek o‘quvchisi badiiy didi, saviyasining yuksalishiga katta hissa qo‘shdi. Uning o‘z

asarlari singari tarjimalari ham hamon el xizmatida - yuksak badiiy mahorat samarasi, ulkan nafosat manbayi sifatida takror-takror nashr etilib, yangidan yangi kitobxonlar avlodining ma'naviy ehtiyojlarini qondirib kelmoqda.

Muhimi shundaki, A. Qahhor tarjimalarida asliyat uslubini aks ettirish hech mahal mutarjim ijodiy shaxsiyatining yo'qolishi hisobiga bo'lmagan. Aksincha, teran milliy badiiy tafakkur tarzi va uslubiy an'analariga tayangan san'atkor qalami bilan qayta tiklangan asarlar adabiyotimizda o'z munosib o'rnini topa oldi. Natijada yozuvchi Abdulla Qahhorning o'zbek nasriga qo'shgan hissasi mutarjim Abdulla Qahhor ulushi bilan yanada boy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamajonov, S. (1985). *O'zbekistonda badiiy tarjima tarixi: (tarjima tarixidan lavhalar*). (41-bet). Toshkent: "Fan" nashriyoti.
2. Pushkin, A. (1939). Kapitan qizi. (1, 3, 89-betlar). Toshkent: O'zdavnashr.
3. Pushkin, A. (1987). Kapitan qizi. (2, 53, 67, 91-betlar). Toshkent: "Yosh gvardiya" nashriyoti.
4. Qahhorova, K. (1987). *Chorak asr hamnafas*. (24-bet). Toshkent: "Yosh gvardiya" nashriyoti
5. Salomov, G'. (1966). *Til va tarjima.* (67-bet). Toshkent: "Fan" nashriyoti
6. Salomov, G'. (1983). *Tarjima tashvishlari.* (38-bet). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
7. Salomov, G'., Komilov, N. (1979). *Do'stlik ko'priklari: (poeziya va tarjima).* (75, 124, 137-betlar). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
8. Пушкин, А. (1940). *Дубровский. Капитанская дочка.* (82, 85, 104, 117, 153-стр.). Москва: Государственное издательство художественной литературы.

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FE'LLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI TADQIQI

Abduraimova Dildora Karimovna,
ToshDO'TAU TNA 1-bosqich talabasi
abduraimovadildora2311@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida fe'l va uning vazifasi, fe'lning munosabat shakllari: zamon, shaxs-son, mayl kategoriyalari va ularning*

o‘zbek tilidagi ahamiyati hamda ingliz tilidagi muqobillari haqidagi fikrlar misollar bilan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. *Fe’l, fe’lning munosabat shakllari, zamon, shaxs-son, mayl, o‘zbek tili, ingliz tili.*

Annotation. *In this article, the verb and its function in the Uzbek and English languages, the relational forms of the verb: tense, person-number, mood categories and their importance in the Uzbek language and their alternatives in the English language are explained with examples.*

Key words. *Verb, relational forms of the verb, tense, person-number, mood, uzbek and English languages.*

Bugungi kunda turli xil chet tillarini o‘rganish zamonamizning dolzarb talablaridan biriga aylanib ulgurgan. Ayniqsa ingliz tili bular ichida eng mashhuri hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda dunyo aholisining har yettitadan bittasi ingliz tilida so‘zlasha olar ekan. Shuningdek, malakatimizda ham hukumat tomonidan ushbu sohaga nisbatan bir qancha qarorlar va takliflar berildi, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov tomonidan 2012-yil 10-dekabrda ingliz tilini rivojlantirishga oid qaror e’lon qilindi. Unga muvofiq, 2013-2014-o‘quv yilidan boshlab respublikamizning barcha hududlarida chet tillarini, asosan, inliz tilini umumta’lim maktablarining birinchi sinflaridan boshlab bosqichma bosqich o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi. Ammo hammamizga ma’lumki, o‘z ona tilini bilmay turib, chet tilini o‘rganish mushkul masala. Chunki har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari, grammatikasi mavjud va buni o‘rganish uchun o‘z ona tilimizning grammatikasini yetarli darajada bilish talab etiladi. Ikki til o‘rtasidagi turli o‘xshashliklar, farqlar, qarama qarshiliklar o‘quvchini yanada chuqurroq o‘rganishga da’vat etadi. Bunga namuna sifatida, grammatikaning kichik bir qismi bo‘lmish fe’l so‘z turkumini olishimiz mumkin.

Shaxs va narsaning harakat va holatini bildiruvchi mustaqil so‘zlar fe’l deyiladi. Fe’llar *nima qilmoq?* va *nima bo‘lmoq?* so‘roqlariga javob bo‘ladi. Aynan shu xususiyatiga ko‘ra fe’llar o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham harakat va holat fe’llariga ajraladi. *Uxlamoq (to sleep), turmoq (to stand), gapirmoq (to*

speak) kabi fe'llar harakatni, *qo'rqmoq (to afraid), zavqlanmoq (to enjoy), yoqtirmoq (to like)* kabi fe'llar esa inson sezgi organlari bilan sezishi mumkin bo'lmagan biologik jarayonni ya'ni holatni bildiradi. Masalan: *Alisher shoshib darsga kirdi.* (nima qildi?). *Gullar qiyg'os ochildi*. (nima bo'ldi?) *Izoh:* gulning ochilishi juda sekin sodir bo'ladigan jarayon bo'lib, inson ko'zi ilg'amaydi va uni biologik moslamalarsiz kuzatib bo'lmaydi.

Fe'l quyidagi xususiyatlariga ko'ra, mustaqil so'z turkumi sifatida xarakterlanadi:

1. Harakat, holat yoki jarayon sifatidagi leksik-grammatik ma'nosi.
2. O'ziga xos o'zak yasovchi quyidagi suffikslar (-ize, -en, -ifly) va prefikslarga (re-, over-, out-, miss-, un-,) hamda leksik-grammatik so'z morfemalarga egaligi.
3. Fe'l boshqa so'z turkumlariga qaraganda so'z o'zgartirish va so'z yashash borasida ancha rivojlangan, bunga sabab uning bir qancha grammatik kategoriyalarga egaligidir.
4. Fe'lning o'ziga xos tarzda bog'lanishi.
5. Gapda turli sintaktik vazifalarda kela olishi.

Fe'llar harakat, holat va jarayonni ifodalab, zamon, shaxs-son, mayl va nisbat kabi grammatik kategoriyalarga ega bo'lgan so'z turkumi hisoblanadi. Fe'l asoslariga qo'shilib gapda kesim vazifasida kelishiga xoslovchi shakllar *fe'llarning munosabat shakllari* hisoblanadi. Fe'llarning zamon, shaxs-son, mayl qo'shimchalari munosabat shakllari sanaladi. Zamon, shaxs-son, mayl shakllaridan xoli bo'lgan fe'l asosi **fe'lning noaniq shakli** hisoblanadi va bu shakl o'zbek tilida "–moq" qo'shimchasi, ingliz tilida esa "to" predlogi yordamida ifodalanadi. Masalan: yoz+***moq*** (***to*** write), o'qi+***moq*** (***to*** read), esla+***moq*** (***to*** remember)

Ish-harakatning voqea bo`lishi (yoki bo`lmasligi) mantiqan zamon bilan bog`liq bo`ladi. Fe'llardagi zamon nutq so`zlanib turgan paytga nisbatan qiyoslangan holda aniqlanadi, ya'ni ish-harakat nutq so`zlanib turgan paytdan oldin, nutq so`zlanib turgan paytda, nutq so`zlanib turgan paytdan so`ng bajarilishi yoki bajarilmasligi mumkin. O'zbek tilida 3 xil zamon (o'tgan, hozirgi, kelasi)

shakli mavjud bo‘lib, ularning o‘zi harakatning sodir bo‘lgan vaqti va holatiga aniqlik kiritish maqsadida yana bir necha turlarga bo‘linishi mumkin.

Harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtdan oldin sodir bo‘lganini anglatuvchi fe’l shakli o‘tgan zamon shakli hisoblanadi. O‘zbek tilida besh xil o‘tgan zamon shakli mavjud bo‘lib, bu gapning ma’nosi va morfologik jihatdan aniqlanadi . O‘tgan zamon shakllari fe’l asosiga –di(yaqin o‘tgan zamon qo‘shimchasi), -ib (-b) (o‘tgan zamon hikoya q.), -gan (-kan, -qan)(uzoq o‘tgan z.q.), -moqchi edi (o‘tgan zamon maqsad), -ar edi (-r edi) (o‘tgan zamon davom q.) kabi qo‘shimchalarni va ulardan keyin shaxs-son shakllarini qo‘shish orqali hosil qilinadi.

Masalan*: Umida maktabda a’lo baholarda o‘qigan.* Mazkur misolda fe’l uzoq o‘tgan zamon shaklida qo‘llanilib, ish harakat bajaruvchi tomonidan ancha oldin sodir bo‘lganligi ya’ni hozirda u maktabda o‘qimasligini, bu ish harakat esa maktab davrida sodir bo‘lganligini ifodalamoqda. Yana bir misol, *Oldinlari xat yozarding*. Ushbu gapda esa biz fe’lga o‘tgan zamon davom qo‘shimchasini qo‘shish orqali o‘tgan davomiy zamon hosil qilinganligini ko‘rishimiz mumkin ya’ni misolda o‘tgan zamonda davomiy sodir bo‘lgan ish harakat ifodalanmoqda.

Shuningdek, ingliz tilida ham o‘tgan zamon (Past tense) shakli mavjud bo‘lib, to‘rtga bo‘lib o‘rganiladi. Bular ‘past simple’, ‘past continuous’, ‘past perfect simple’, ‘past perfect continuous’.

Past simple – o‘tgan oddiy zamon fe’li bo‘lib, o‘tgan zamonda bo‘lib o‘tgan ish-harakat uchun ishlatiladi. Ingliz tilidagi fe’llar o‘tgan zamonda tuslanishiga ko‘ra ikki guruhga to‘g‘ri tuslanuvchi (regular) va noto‘g‘ri tuslanuvchi fe’llar (irregular) ga bo‘linadi. To‘g‘ri tuslanuvchi fe’llarning o‘tgan zamon shakli **“-ed”** qo‘shimchasi orqali hosil qilinadi. Ingliz tilidagi ushbu qo‘shimcha o‘zbek tilining ***“-di, -gan”*** qo‘shimchalariga to‘g‘ri keladi. Masalan ‘*I waited for him day and night’* bu jumlani o‘zbek tiliga “Men uni kecha-yu kunduz kutdim” tarzida tarjima qilish mumkin. *Laylo passed her examination because she studied very hard.* (Laylo imtihonidan o‘tibdi, chunki u juda qattiq tayyorlangan edi)

Quyida ingliz tilidagi noto‘g‘ri fe’llar jadvalidan bir qismini ko‘rishingiz mumkin.

Infinitive	Simple Past	Past participle
Abide	abode	abode
Arise	arose	arisen
Awake	awoke	awoken
Be	was/were	been
Bear	bore	borne / born

Past continuous – o‘tgan zamon davom fe’li bo‘lib, o‘tgan zamonda muayyan bir paytda yoki biror ish harakat sodir bo‘lganda davom etib turadigan ish-harakatni ifodalaydi. O‘tgan zamon davom fe’lini hosil qilishda to be yordamchi fe’li ikkinchi shakliga ya’ni **was/were** shakliga keltirilib, asosiy fe’lga esa **“-ing”** (o‘zbek tilidagi ***-yapti***) qo‘shimchasi qo‘shiladi.

Masalan: *This time last year I was living in Bukhara.* (Men o‘tgan yili shu paytda Buxoroda yashayotgandim). *I was walking home when I met Doli.* (Men Doli bilan uchrashganimda uyga piyoda ketayotgan edim)

1. ***Past perfect simple*** – tugallangan oddiy zamon bo‘lib, “had+past participle” tarzida yasaladi. Masalan: *When Zebo arrived the party, Amir had already gone home* (Zebo ziyofatga yetib kelganda Amir allaqachon ketib bo‘lgandi)
2. ***Past perfect continuous*** – tugallangan o‘tgan zamon davom fe’li bo‘lib, “had been+-ing” tarzida yashaladi. Masalan: *Sarvar was out of breath. He had been running.* (Sarvar hansirayotgandi. U yugurgan ekan)

Hozirgi zamon fe’li

Harakat-holatning gap aytilayotgan paytda sodir bo‘layotganini ifodalovchi fe’l shakli hozirgi zamon shakli deyiladi. Hozirgi zamon fe’l asosiga –moqda, -yotir (-ayotir), -yap, -yotib (-ayotib). O‘zbek tilidagi 4 ta fe’l (yot, tur, o‘tir, yur) –ib (-b) o‘tgan zamon qo‘shimchasi bilan qo‘llansa ham hozirgi zamon davom ma’nosini ifodalashi mumkin. Ingliz tilida hozirgi zamon ‘Present simple’(hozirgi oddiy

zamon) hozirda doimiy takrorlanib turadigan ish-harakatni ifodalab, uchinchi birlikda asosiy fe'lga "-s, -es" qo'shiladi va Present continuous(hozirgi davomiy zamon) nutq so'zlanib turgan paytda davom etib turgan ish-harakatni ifodalab, to be yordamchi fe'li tuslanib, asosiy fe'lga –ing qo'shimchasi qo'shiladi.

PS: The earth go*es* round the sun. (Yer quyosh atrofida aylanadi)

PC: We are reading a fiction book. (Biz badiiy kitob o'qiyapmiz)

Kelasi zamon

Harakat holatning gap aytilayotgan vaqtdan keyin sodir bo'lishini ifodalaydigan fe'l shakllari kelasi zamon shakli hisoblanadi. Bu zamon shakllari fe'l asosiga –ay(-y) (oddiy kelasi zamon), -ur(-r), -ar(-r) (kelasi zamon gumon), -moqchi (kelasi zamon maqsad), -ajak(-yajak), -gay, -gu (aniq kelasi zamon) qo'shimchalari va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan: O'zbekiston qudratli davlat bo'l*ajak*! Sevara Amerikada o'qi*moqchi*.

Kelasi zamon ingliz tilida asosan, wish/shall va *to be going to* birikmalari bilan ifodalanadi. To be going to iborasi present continous zamonida bo'lganiga qaramay kelasi zamonni ifodalash uchun xizmat qiladi va o'zbek tilida "biror ish qilmoqchi bo'lmoq/qilyapti" deb tarjima qilish mumkin. Masalan: *I am going to the cinema*. (Men kinoga bormoqchiman); *What are you going to do on Saturday evening?* (Shanba kuni kechki payt nima qilmoqchisan?) Will/Shall esa asosan, nutq so'zlangan paytda biror ish qilishga qaror qilinganda ishlatiladi. Masalan: *I can see you are busy, so I will not stay long*. (Band ekanligingizni ko'rib turibman, shuning uchun ko'p qolmayman)

Fe'llarning shaxs-son kategoriyasi

Fe'l asosida ifodalangan harakat-holatning bajaruvchisini ko'rsatuvchi shakllar shaxs-son shakllari deyiladi. Fe'llarning l va ll shaxsi maxsus qo'shimchalar bilan ifodalanadi, ammo lll shaxsda ko'pincha maxsus morfologik ko'rsatgich bo'lmasligi mumkin. Bunday holatda zamon qo'shimchasi shaxs-son ma'nosini ifodalaydi. Shaxs-son qo'shimchalari asosan zamon qo'shimchalaridan keyin keladi.

SHaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	*yozdim, yozgan edim*	*yozdik, yozgan edik*
II	*yozding, yozgan eding*	*yozdingiz, yozgan edingiz*
III	*yozdi, yozgan edi*	*yozdi(-lar), yozgan edi(-lar)*

Shaxs-son qo‘shimchalarining uchta asosiy vazifalari mavjud:

1 Harakat va holatning bajaruvchisini ko‘rsatadi.

2 Fe’lni kesim sifatida shakllantiradi.

3 Kesimni ega bilan shaxs-sonda moslaydi.

Fe’llarning shaxs-son kategoriyasi ingliz tilida deyarli mavjud emas, chunki kishilik olmoshlarining o‘zi gapda shaxs-son vazifasini bajarib, fe’llarga ta’sir o‘tkazadi. Ammo, faqat lll shaxs birlikdagi he/she/it olmoshlari present simple zamonida fe’llarga –s, -es qo‘shimchalarini qo‘shish orqali boshqa kishilik olmoshlaridan farqlanib, ajratib ko‘rsatiladi va mana shunday gaplarda shaxs-son kategoriyasi o‘zbek tilidagi kabi yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan: *He does not do anything to help me.* (U menga hech yordam bermaydi)

Fe’llarning mayl kategoriyasi

Fe’lda ifodalangan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istak, shart, maqsad ma’nolarini ifodalovchi fe’l shakllari mayl shakllari sanaladi. Harakatning voqealikka munosabatini ko‘rsatuvchi grammatik kategoriya mayl kategoriyasi deyiladi. Mayl kategoriyasi zamon va shaxs-son kategoriyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, hammasi birgalikda fe’lning tuslanish sistemasini tashkil qiladi, predikativlik ifodalanish formasi hisoblanadi. Shunga ko‘ra mayl kategoriyasi harakatning voqealikka munosabatinigina emas, balki bajaruvchi bilan harakat orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ham ifodalaydi.

1.Xabar (ijro) mayli fe’l anglatgan harakat va holatni ma’lum zamonda bajarilishi, ijro etilishi haqida xabar beradi. Bu mayl shakli ish-harakat uch zamonning birida ijro etilganligini, uning mavjudligini yoki harakat shu

zamonlarning birida bajarilmaganligini, inkor etilganligini anglatadi. Albatta, harakatning bajarilishini inkor etish xabar maylining ma'nosini o'zgartirmaydi. Chunki bu shaklida ham real hodisa – o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarda harakatning bajarilmaganligi ifodalanadi. Masalan: Men yoshlik qilib, bekordan-bekorga erkimni qo'ldan berib qo'yganman. Ingliz tilida ham xabar mayli mavjud bo'lib, " ***Indicative mood***" deb yuritiladi, ammo hech qanday qo'shimchaga ega emas. *Masalan*, I lost my book. (Men kitobimni yo'qotdim)

2. Fe'lning *shart mayli* boshqa biror harakat, voqea-hodisaning bajarilishi uchun shart, vosita bo'ladigan, istalgan, faraz, mo'ljal qilingan harakatni bildiradi. Shart mayli shakli fe'l negiziga -sa mayl yasovchisini qo'shish va tuslash bilan hosil qilinadi: olsam, olsang, olsa, olsak, olsangiz.

3. Fe'lning *buyruq-istak mayli* so'zlovchining harakatni bajarishga buyurishini, qistashini, undashini anglatadi va har bir ma'no ottenkasi o'ziga xos ohang bilan xarakterlanadi: Ishingni tugat. Buyruq-istak maylining tuslanishi shunday:

Birlik. Ko'plik.

1-shaxs boray(-in), ishlay(-in) boraylik, ishlaylik

2-shaxs bor(gin), ishla(-gin) boring, ishlang(iz)

3-shaxs borsin, ishlasin borsin(lar), ishlasin(lar)

Buyruq-istak maylidagi fe'llar quidagi ma'nolarni anglatadi: Sof buyruq, nasihat, maslahat, qachiriq, do'q po'pisa, iltimos, xohish. Buyruq-istak mayli ingliz tilida ***Imperative mood*** deb yuritiladi, ammo u ma'lum bir qo'shimchalarga ega emas. Gapdagi ma'nolariga qarab, turli so'z yoki birikmalar bilan (asosan, modal fe'llar bilan) ifodalanadi: maslahat va nasihat ma'nosida, *should* – It is important that he should return tomorrow. Iltimos ma'nosida *would, could* yoki gap oldidan asosan, *please* so'zlari bilan qo'llanadi – Please, would you mind passing me the salt?

Maqsad mayli biror-bir ish-harakatning bajarilish bajarilmaslik haqidagi maqsadini bildiradi. "*–moqchi"* qo'shimchasi yordamida yasaladi. Misol: *Men bormoqchiman, u ham kelmoqchi*. Ingliz tilida maqsad mayliga o'xshash mayl mavjud emas, shuning uchun u ifodalaydigan ma'noni Indicative mood ya'ni xabar

mayli bilan o‘zaro taqqoslashimiz mumkin. Masalan: *I want to be a teacher.* (Men o‘qituvchi bo‘lmoqchiman). Ushbu misoldan ko‘rishimiz mumkinki, ingliz tilida maqsad mayli aksariyat hollarda xabar mayli orqali ifodalanadi.

Xulosa qilib qayd etadigan bo‘lsak, fe’l so‘z turkumi o‘zbek tilida ham ingliz tilida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib, grammatik strukturalari, tuzilishi, o‘ziga xos qo‘shimchalari, nisbat kategoriyasi hamda fe’lning aniq va noaniq shakllari mavjud. Ushbu maqolada esa fe’l so‘z turkumining faqatgina munosabat shakllari ya’ni zamon, shaxs-son, mayl haqidagi fikrlar ikki tilda ham misollar bilan dalillandi va shu bilan bir qatorda farqli jihatlari o‘rganilib, kerakli o‘rinlarda taqqoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmatov F. (2018) “English grammar in Practice 3”, “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 5-nashr.
2. G‘apporov M, Qosimova R.(2010) “Ingliz tili grammatikasi” o‘quv qo‘llanmasi, Toshket, “Turon-iqbol”.

NORMUROD NORQOBILOV IJODIDAGI KO‘CHIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI (“OVUL ORALAGAN BO‘RI” QISSASI MISOLIDA)

Jo‘raqobilova Madina Xurram qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi 1-kurs talabasi
joraqulovamadina768@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining taniqli ijodkori Normurod Norqobilovning “Ovul oralagan bo‘ri” asaridagi ko‘chimlarning lingvopoetik xususiyatlari yoritilgan. Ko‘chimlarning lingvopoetik xususiyatlarini yorqinroq tushuntirish uchun tahlil usulidan foydalanilgan. Maqolada asosan tahlil yetakchilik qilsa-da, asar voqealari haqida ham fikr bildirilgan. Maqolada ko‘chimlarning turlari ko‘rsatilgan va ko‘chimlar haqida ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ko‘chim, metafora, sinestetik metafora, jonlantirish, tasvir mahorati, lingvopoetik tahlil.*

Abstract. *In this article, the linguopoetic features of the transitions in the work of the well-known creator of Uzbek literature, Normurod Norqobilov, "Ovul oralagan bo'ri" are highlighted. The method of analysis was used to clarify the linguopoetic features of migrations. Although the analysis is the leading part of the article, an opinion is also expressed about the events of the work. The article shows the types of migrations and provides scientific information about displacements.*

Keywords: *displacement, metaphor, synesthetic metaphor, revitalization, image skill, inguopoetic analysis.*

Yozuvchi hayotni xarakterlar va manzaralar vositsida aks ettirar ekan, jonli xalq tili boyliklardan ham, adabiy til normalaridan ham keng foydalanadi; o'z navbatida ham jonli tilning, ham adabiy tilning o'sishiga hissa qo'shadi. Yozuvchi asarning mavzuyi, voqealarning mohiyati va personajlarning xarakteriga qarab so'z va iboralar tanlaydi, gap qurilishi usullaridan, dialektlardan, inversiya, arxaizm, neologizm, jargon va boshqa leksik resurslardan foydalanadi(Boboyev,2002,158-bet). Leksik resurslar tarkibiga ko'chimlarni ham kiritishimiz mumkin. Ko'chimlar deyilganda "adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi" nazarda tutiladi (Yo`ldoshev,2008,87-bet).

Davrimizning iste'dodli va taniqli adiblaridan biri Normurod Norqobilov ijodida tabiatga bo'lgan munosabat ajralib turadi. U adabiyotimizda yutimizning sirli-sehrli hamda fusunkor tabiati manzaralarini shoirona tarzda so'z orqali ifodalab bera oladigan mahoratli yozuvchi, nabotot va hayvonot olamini mehr bilan baland pardalarda kuylay oladigan hofiz, quyuq ranglarda chizib beruvchi rassom qiyofasida namoyon bo'lmoqda. Yozuvchining barcha asarlari bunga guvohlik bera oladi. Uning "Ovul oralagan bo'ri" qissasida yovvoyi hayvon hisoblangan bo'rilar hayoti tabiatdan uzulmagan holda tasvirlangan. Aynan, bunday tasvirlar yaratishda ijodkorga ko'chimlar juda qo'l kelgan. Mahoratli ijodkor Normurod Norqobilovning "Ovul oralagan bo'ri" qissasida ko'pgina

ko‘chimlar qo‘llangan va bu ko‘chimlarning asar mazmunini yoritishdagi xizmati kattadir. Misol uchun:

Endi uning dimog‘iga qishloq hidi – tutun, tezak, pichan, va yana qandaydir yot hidlar qitiqlardi. Yovvoyi yirtqich uchun dunyoda bundan badbo‘y hid yo‘q… Baxtiga ***achchiq izg‘irin*** *qarshidan esar va shu sabab qishloq itlari hozirgacha jim edi* (Norqobilov,2005,8-bet).

Ijodkor ushbu parchada ko‘chimlarning eng ko‘p qo‘llanuvchi turi hisoblangan metaforadan ifodalikni va ekspressivlikni kuchaytirish uchun foydalangan. Narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishiga metafora deyiladi. Metafora ko‘chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda “istiora” deb yuritilgan(Yo‘ldoshev,2008,87-bet). Yuqoridagi parchada **achchiq izg‘irin** so‘z birikmasi metaforaning sinestetik metafora turini hosil qilgan. Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa – tushunchaga o‘xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko‘chma ma’no yuzaga keladi(Yo‘ldoshev,2008, 91-bet). Aynan, **achchiq izg‘irin** so‘z birikmasidagi **achchiq** sifatida sineststik metafora sodir bo‘lgan. Maza-ta’m ma’nosini bildiruvchi achchiq so‘zi yozuvchi mahorati tufayli **kuchli**, **shiddatli** ma’nosida ishlatilgan. Bunga o‘xshagan ko‘chimlarni butun asar davomida kuzatishimiz mumkin.

Hammamizga shu narsa ma’lumki, ijodkor o‘z asaridagi bitta so‘zni ham maqsadsiz ishlatmaydi. Yozuvchining eng katta quroli so‘zdir, shuning uchun biz ijod sohiblariga ta’rif berayotganimizda so‘z san’atkori deb bejiz aytmaymiz. So‘zning go‘zalligini, betakrorligini yanada boyitishda ko‘chimlarning o‘rni alohida hisoblanadi. Go‘zal tasvir yaratish uchun ko‘chimlardan foydalangan holda Normurod Norqobilov “Ovul oralagan bo‘ri” qissasida quyidagi parchani keltiradi:

Kun bulutli edi. Havodan qor hidi anqir, ***achchiq shamolda*** *tebranayotgan yulg‘unzordan chiqqan bo‘rilar galasi chog‘roqqina taqir yalanglikda to‘xtaydi. To‘dadan ajralgan ikki bo‘ri yalanglik o‘rtasida yuzlashadi. Chinoq, tishlarini dahshatli irjaytirib, chamasi shunday deydi:* ***“Esingni yig‘, bola, chatoq qilaman!***

“Cho‘ng kallaning qulog‘iga gap kirmaydi, o‘rlikda davom etadi: ***“Shuni deganman, shuni deya o‘laman”.*** *Chinoq yana og‘irlik qiladi (Norqobilov,2005,13-bet).*

Ushbu kichchik bir parchada ijogkorning so‘z qo‘llash mahoratiga qoyil qolamiz, u jangga tayyor, ichidan nafrat to‘lgan va shu paytda hech narsani o‘ylamayotgan bo‘rilar holatini tasvirlashda intoq ko‘chimidan foydalangan. Intoq -nutq sohibi sifatida tasvirlash, insondek gapirtirish demak(Yo‘ldoshev,2008,90-bet). Misolda keltirilgan parchadagi bo‘rilar tilidan aytilgan **Esingni yig‘, bola, chatoq qilaman** yoki **Shuni deganman, shuni deya o‘laman** jumlalari orqali vaziyatni, obrazlar xarakterini yaxshi his qilamiz. Aynan, mana shu parchaning o`zida yozuvchi yana bir ko‘chimdan foydalangan. Bu **achchiq shamol** so‘z birikmasi bo‘lib, bunda achchiq sifati sinestetik metaforani yuzaga keltirgan.

Maza-ta’m ma’nosini ifodalovchi achchiq so‘zi **kuchli, tezkor** ma’nolarini vaziyat talabi bilan o‘zida jamlagan.

Normurod Norqobilovning “Ovul oralagan bo‘ri “qissasida tabiatning bir bo‘lagi hisoblangan bo‘rilarni sadoqat timsoli sifatida tasvirlash mavjud. Qissaning tasirchanligini oshirishda ijodkor jonlantirish usulidan ham unumli foydalangan. Bunga quyidagi misolda guvoh bo‘lamiz:

Dasht g‘amgin, qirlar xo‘mraygan*, ko‘kda o‘laksaxo‘r qush paydo bo‘lgan, adirlikda boyagi tulki pildirab ketib borar, nishablikda unga qarshi yana bir tulki tushib kelar*(Norqobilov,2005, 26-bet).

Asarda tabiat tasviri ko‘p o‘rinlarda uchraydi, chunki yozuvchi bo‘rilarning haqiqiy hayotini tabiat bilan hamohanglikda ifodalashga harakat qilgan. Ajoyib tabiat tasvirini yaratishda jonlantirish usuli yozuvchiga yordam berganini ko‘rishimiz mumkin. Jonlantirish istioraning bir ko‘rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo‘lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko‘chirish orqali paydo bo‘ladigan tasvir usulidir(Yo`ldoshev,2002,89-bet). Yuqoridagi parchada **dasht g‘amgin** va **qirlar xo‘mraygan** deya jonlantirishdan foydalaniladi, chunki g‘amgin bo‘lish, xo‘mrayish insonga xos bo‘lgan xususiyatdir va bu xususiyatlar shunchaki oddiy

holatni ifoda qilmaydi. Bu tasvirda qiyin vaziyatga tushib qolgan bo‘rining tabiatga bergan bahosini ko`rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohaza va tahlillardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, ko‘chimlar asar tilini tipiklashtirishda, davr ruhini aks ettirishda va personajlarning muayyan vaziyatdagi ruhiy kechinmalarini ifodalashda ijodkorga yaqindan yordam beradi. Tahlillar natijasida barcha ko`chimlar uchun umumiy xususiyatlar borligini angladik, ya’ni badiiy matnni lingvopoetik tahlilga tortganda ko‘chimlar deb ataladigan tasvir vositalarining deyarli barchasining asosida o‘xshatish, chog‘ishtirish mavjudligini sezamiz. Demak, ko‘chimlar tasvirni o‘xshashlik, aloqadorlik asosida yoritishning eng samarali usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. (2002). *Adabiyotshunoslik asoslari*. Toshkent.
2. Norqobilov N. (2005). *Ovul oralagan bo‘ri*.
3. Yo‘ldoshev M. (2008). *Badiiy matnning lisoniy tahlili*. Toshkent

FRAME ANALYSIS OF COGNITIVE METAPHOR IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY TEXT

Kurbonova Guzal Khujamurodovna,
TSUULL 2nd year Master Comparative linguistics
guzal.qurbonova1998@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy asarlarda aks etgan kognitiv metaforalarni freym strukturasi bo‘yicha tahlil qilishdan iborat. Freymlar so‘z ma’nolari va ularning aloqador birliklarini strukturaviy jihatdan o‘zida aks ettiradi. Ushbu kichik izlanishning asosiy yangiligi muallif lisoniy dunyosidagi ramziy ma’nolarni ifodalashda kognitiv metaforaning o‘rnini ko‘rsatib berishdir. Tadqiqot obyekti sifatida O.Genriyning “So‘nggi yaproq” hamda Ulug‘bek Hamdamning “Uzoqdagi Dilnura” hikoyalari olindi. Maqolada qiyoslash tadqiqot metodidan foydalanildi.*

Kalit so‘zlar. *kognitiv metafora, freym strukturasi, freymlar, konseptual ma’lumot, muallif lisoniy dunyosi.*

Abstract. *This article aims to figure out cognitive metaphor in English and Uzbek literary works based on frame structure. It should be noted that frames help to represent word meanings and their associative links in a well-constructed way. The novelty of this research is that the role of the cognitive metaphor to illustrate symbolic meaning in the author's world picture has been analyzed by the examples of "The Last Leaf" by O.Henry and "Uzoqdagi Dilnura" by Ulugbek Hamdam. The method that was used in the research work is comparative analysis.*

Keywords. *cognitive metaphor, frame structure, frames, conceptual information, author's world picture.*

Analyzing metaphors in terms of cognitive view in the literary text is one of the crucial tasks of cognitive metaphorical analysis. Since, it provides the conceptual information of the whole text. In the following, we can highlight some significant theoretical assumptions of cognitive metaphorical analysis:

- find the metaphorical expressions used in the text;
- specify the cognitive metaphor's source domain and the knowledge structure that makes it up;
- examine the target domain's associative and textual links;
- reveal the generic space, including the target domain's common conceptual features;
- elucidate the new conceptual features that emerge in the blend as a result of cross-domain mapping;
- define the metaphor's conceptual significance and its role in the author's individual world picture representation.

It is difficult to overestimate the role of cognitive metaphors in fictional texts because, through conceptual metaphorical analysis, missing implicit components and their connections can be restored; implications and inferences can be drawn (Ashurova D. and Galiyeva M., 2018, p.135-136).

The short story "The Last leaf" by O. Henry is taken to analyze cognitive metaphor. The story illustrates conceptualization of metaphors. In the first stage,

we will briefly discuss the plot and the details of the story. "The Last Leaf" is a short story written by O. Henry. The short story was published in 1907 in his collection of "The Trimmed Lamp and Other Stories". "The Last Leaf" is a tragic story with elements of sacrifice, hope, and despair. The story revolves around three main characters: two girls, Johnsy (also known as Joanna) and Sue. Behrman was the name of the third character. Greenwich Village serves as the setting for the story. It is a thriving artist colony. Johnsy and Sue are emerging artists in their respective fields. Johnsy dreams about painting the Bay of Naples, but she falls ill unexpectedly. She is suffering from pneumonia. She believes that if the ivy vine on the wall outside her window loses all of its leaves, she will die as well. Behrman is an elderly character who was a well-known painter in his day. His only wish, however, is to paint one last masterpiece, but he is unable to do so. The tone of the story is both depressing and hopeful.

The story's central theme is hope. The author's goal is to emphasize that Johnsy's fate is not falling, but she should gain new hope. This demonstrates how even a small act can light the lamp of hope in someone's heart. The story's other major theme is sacrifice. Behrman gives up his life in order to give Johnsy some hope. He is aware that Johnsy believes she will die when the last leaf falls. So, he gives up his own life to paint his final masterpiece. The tree's ivy leaf was hand-painted. In addition, the title serves as a symbolic purpose here as well. The ivy tree's last leaf symbolizes *death* at the beginning of the story, as Johnsy compares her life with its falling. However, Behrman's sacrifice turns last leaf into the symbol of hope and life.

The story is full of metaphors and stylistic devices. There is also implicit meaning in the story. Firstly, we analyze the story in the frame structure and then find cognitive metaphors. Analysis of cognitive metaphors reveals the hidden meaning of the story. Before analyzing "The Last leaf" in the frame structure, it is useful to provide some theoretical information about Frame Semantics and frames.

The Frame Semantics is one of the important theories that is developing within the discipline of Cognitive Linguistics. It was firstly elaborated by Charles

Fillmore in 1982. According to the scholar, "*Frame semantics deals with looking at word meanings in a particular way, it also depicts fundamentals for making new words and phrases and these fundamentals add new meanings to words*". Ch. Fillmore defines frames as a system of structured categories in accordance with some motivating context and they play an important role for describing linguistic meanings" (Fillmore, 1982, p. 111-112). V. Evans and M. Green proposes Frame Semantics as a comprehensive explanation on how meanings are organized and connected to words in a semantic structure and how these connections provide us access to our conceptual system, the inventory of structured knowledge that we use to navigate the world. (Evans and Green, 2006, p.222-223). Ashurova D.U and Galiyeva M.R claims that *frames* reflect a complicated knowledge structure that consists of a group of associated words and concepts. Frames include two levels: the upper and the lower level. The upper level is the name of the frame; the lower level consists of slots and subslots which give concrete information about the situation in the context. All slots and subslots in the frame are closely interconnected to each other. Each of them has their own meaning and role. This meaning can be implicit or explicit. (Ashurova D.U and Galiyeva M.R, 2018, p.32-33).

According to the analysis of the plot of "The Last leaf", we can deal with the story in the frame structure. "The Last leaf" serves as a name of the frame, therefore it is the upper level. The lower level includes main slots and its subslots. So, we generate five slots:

1. Slot: Theme (hope and hopelessness: Johnsy; sacrifice: Behrman).
2. Slot: Location (Greenwich: rooms with good light and low cost).
3. Slot: Period (Autumn: leaves had fallen from its branch).
4. Slot: Characters (Sue: strong, kind and hopeful; Johnsy: weak and hopeless; Behrman: an old artist, renowned painter, sacrifice his life to help Johnsy).
5. Slot: Illness (Mr. Pneumonia: a cold stranger: with his icy fingers; a bad sickness: touching many people, hurrying).

In the next stage, we analyze each slot individually. Initially, the main slot is **Theme**. It has two subslots: hope, hopelessness and sacrifice. Subslots also consist their components: While Johnsy symbolizes hopelessness, Behrman gives her hope to live, as a result, he is a symbol of sacrifice. The second slot is called **Location**. Setting plays an important role in the story, because unlike other places, Greenwich is the village of painters with good light and low cost. The third slot is **Period**. Autumn illustrates the implicit meaning of the title, as the last leaf falls from its branch only in autumn. The fourth slot is **Characters**. Subslots are Johnsy, Sue and Behrman. Each character has their own characteristic features and these are represented in subslots:

- Johnsy: weak and hopeless;
- Sue: strong, kind and hopeful;
- Behrman: an old artist, renowned painter, sacrifice his life to help Johnsy.

The last slot is called **Illness**. The author personifies him as Mr. Pneumonia and in the following extract of the story, Mr. Pneumonia is described with the details of personification. *"Toward winter **a cold stranger** entered Greenwich Village. No one could see him. He walked around **touching one person** here and another there with his **icy fingers**. He was a bad sickness. Doctors called him Pneumonia. On the east side of the city he **hurried, touching many people**; but in the narrow streets of Greenwich Village he did not **move so quickly**." (*O.Henry, "The Last leaf", 1907, p. 13)

In the frame, Mr. Pneumonia has two subslots: *a cold stranger* with his icy fingers and *a bad sickness* touched many people and hurrying. These subslots help to reveal the character of Mr. Pneumonia and explain him to the readers.

The first cognitive metaphor which illustrates conceptual information in the text is **LAST LEAF IS DEATH**. It can be categorized in the following implicit fragments:

- *Leaves. On the tree. When **the last one falls, I must go**, too. I've known that for three days. Didn't the doctor tell you?"*

- *"It is the last one," said Johnsy. "I thought it would surely fall during the night. I heard the wind.* ***It will fall*** *today, and* ***I shall die at the same time.****"* (O.Henry, "The Last leaf", 1907, p. 14).

Symbolic meaning of "Last leaf" can be inferred in conceptual analysis which requires collection of denotative meaning of lexeme from dictionaries. In addition to definition, we have analyzed associative links which were taken from Word Associations Network.

Last leaf:

1) **coming after all others** in time or order; **final;**
2) **most recent** in time; latest;
3) **the last person** or thing;
4) the one occurring, mentioned, or acting **after all others**;
5) being **the only remaining;**
6) belonging to **the final stage** (as of life);
7) **the only thing, person,** or part of something that remains.

Analysis of associations of "Last leaf":

Duration, Forever Second, Goodbye, Mughal, Outpost, First, Filming, Dying, Obligatory, Lonesome, Rainy, Desperate, Drain, Night, Peak, Survivor, Unicorn, Eruption, Minute, Hardcover, Azure, Overhaul, Whorl, Finisher, Bastion, Tenure, Stanza, Sacrament, Extremity, Abdicate, Transmit, Indefinitely.

DEATH

1) the action or fact of **dying** or being killed; **the end** of the life of a person or organism;
2) the state of **being dead**;
3) the cause or occasion of **loss of life**;
4) a cause of ruin;
5) an instance of **dying**;
6) the state of being **no longer alive:** the state of being dead;
7) **the passing or destruction** of something inanimate.

Analysis of associations of death:

Sick, Dishonored, Premature, Condolent, Pestilent, Malefactor, Sad, Mournful, Punishable, Painless, Accidental, Instantaneous, Avenging, Lamented, Imminent Tragical, Shameful, Ghastly, Agonizing, Impending, Cruel, Inglorious, Starving, Expiatory, Condemning, Revengeful, Bewailing, Untimely, Loving, Scared, Final, Dark, Heavenly, Eternal, Suffering, Free, Depressed, Farewell, Dangerous, Sacrificial, Inevitable, Mysterious, Traitorous, Sudden, Vain the death of a martyr, War, Evil Poisonous, Threatening, Afterlife, Reviving.

The second cognitive metaphor which illustrates conceptual information in the story is **LAST LEAF IS HOPE.** The cognitive metaphor can be categorized in the following implicit fragments:

- *"Something has made that last leaf stay there to show me how bad I was.* ***It is wrong to want to die. I'll try to eat now****. But first bring me a looking-glass, so that I can see myself. And then I'll sit up and watch you cook."*
- *"Look out the window, dear,* ***at the last leaf on the wall.*** *Didn't you wonder why it never moved when the wind was blowing? Oh, my dear, it is Behrman's great masterpiece—he painted it there the night that the last leaf fell.*" (O.Henry, "The Last leaf", 1907, p. 17).

In the next step, we consider dictionary definitions and associative chains of hope. **Hope:**

1) a specific instance of **feeling hopeful**;
2) the general feeling that **some desire** will be fulfilled;
3) grounds for **feeling hopeful** about the future;
4) someone (or something) on which expectations are centered;
5) one of the three Christian virtues;
6) **expect and wish**;
7) **be optimistic; be full of hope**; have hopes;
8) intend with **some possibility of fulfilment**.

Analysis of associations of hope:

Disappointment, Hereafter, Reconciliation, Tiding, Sake, Regret, Pardon, Glimmer, Despair, Deliverance, Cape, Optimism, Aspiration, Consolation, Gleam, Cling, Expectation, Salvation, Redemption, Bing, Hodgson, Happiness, Faith, Immortality Repentance, Fortitude, Ambition, Future, Sorrow, Fear, Forgiveness, Encouragement Joy, Perseverance, Crosby, Lure, Solace, Abandon, Resurrection, Dearest, Ladyship, Gama.

According to the cognitive metaphorical analysis of the story, we reveal the implicit and conceptual meaning of the title "The Last leaf". At the beginning of the story, Johnsy loses her hope to recover completely, as she believes that if last leaf of the tree falls, she will also die. It can be noted that "last leaf" symbolizes *death* and *hopelessness.* So, we can highlight cognitive metaphor as **LAST LEAF IS DEATH.**

However, Behrman, an old artist, gives hope to Johnsy by painting his last and great masterpiece. After seeing the last leaf is still on the tree in spite of strong wind and rain, Johnsy begins to think that she should try to eat and get well, even last leaf wants her to live. "Last leaf" or masterpiece gives Johnsy *aspiration*, *desire* and *ambition* to live. As a result, **LAST LEAF IS HOPE** can be viewed as cognitive metaphor.

The next story to analyze cognitive metaphor is "Uzoqdagi Dilnura" by Ulugbek Hamdam. The story narrates comparing life in the city and the village. There are so many characters in the story, but the mains include Kozimjon, Yunus uncle and Dilnura. The story begins with the death of Yunus uncle. He is very naive and hardworking person. He was born in the village and his whole life passes there. Unfortunately, he has problem with his legs and this leads to him to die. Kozimjon is an elegant character who was born in the village, but lives in the city. He is the director of the company, rich and authoritative. However, he could not be able to participate his uncle's funeral because of his romantic problems. Dilnura is a daughter of Yunus uncle. She is an example of very naive and impatient Uzbek girl in front of her father's death.

The main theme of the story is that life is fleeting and passing. Every person dies one day, but we do not know when death comes. Yunus uncle's death can be regarded as unexpected situation, however, nobody can do anything. Moreover, in the story it is impressed that light and interesting city life makes people not think about life and its meaning deeply. This is given by the example of Kozimjon, as he cares about his parents, siblings and relatives only when he is together with them in the village. In other cases, he is preoccupied with his own activities in the city. His heart and feelings are not with them; he is very apart from them. The title has also symbolic meaning. "Uzoqdagi Dilnura" symbolizes the distance of hearts.

There are abundance of stylistic devices and expressive means in the story, mainly, metaphor takes the main role in the story and it reveals the conceptual information and implicit meaning that are intended by the author. Firstly, we will analyze the story in the frame structure and find cognitive metaphors according to the fragments which are taken from the story. As it is mentioned above, frames consist of slots and subslots. "Uzoqdagi Dilnura" is the name of the frame. It has five main slots which serve to make up the plot of the story and subslots that represent the main information of the text:

1. Slot. Mavzu: 1) hayot o'tkinchi: o'lim bizga juda yaqin; 2) qalblarning yiroqligi: "Uzoqdagi Dilnura".

2. Slot. Makon: 1) shahar hayoti: juda tez va shiddatkor, maftunkor va rang-barang, qalblar mehrga zor; 2) mehr-oqibat tuyg'ulari, oila, bola-chaqa tashvishi bilan o'tayotgan kunlar.

3. Slot. Vaqt: erta bahor – yomg'ir suvi, tuproq yo'l, ko'm-ko'k dala, tuproq yo'l.

4. Slot. Qahramonlar:

- Kozimjon - oilasiga qalban begona va yiroq;
- Yunus tog'a – juda sodda va mehnatkash qishloq odami;
- Dilnura – mehribon, hayot sinovlari oldida ojiz oddiy qishloq qizi.

5. Slot. Milliylik: dafn marosimi (qaytish qipti, oxirati obod bo'lsin, Alloh sabr bersin).

So, we have introduced five slots in the frame. The next step is to deal with each slot individually. The first slot is **Mavzu**. It includes two subslots: 1) *hayot o'tkinchi: o'lim bizga juda yaqin.* In this subslot, one of the themes of the story is represented. In the following fragment, it can be seen that life is passing and also people are guests to it:

*"Ko'zlar***… *ko'zlar bu o'tkinchi dunyoga tashrif buyurib**, yana adam sahrosiga abadiy ravona bo'layotgan yo'lovchilarga aylandi – qoldi. Shunda u... Kozimjon* ***dunyo, umr, hayot deganlarining asl holini – ibtido va intihosini qalb ko'zi bilan ko'rgandek his qildi o'zini.*** *His qildi-yu ajab hollarga tushdi: o'zining ham o'sha son-sanoqsiz odamlardan – yo'lovchilardan zarracha farqi yo'qligini angladi."* (Ulug'bek Hamdam, "Uzoqdagi Dilnura", 2010, p. 5)

As it is mentioned, "Uzoqdagi Dilnura" is a symbol of the distance of hearts. Kozimjon lives in the city, it is true that he is far from his village where he was born and his relatives. However, the main thing which is intended by the author is that Kozimjon's feelings are also distant. That is the reason why he feels uncomfortable with them.

The second slot is called **Makon.** In this slot, the city life and village life are compared with each other their differences are given in subslots:

- shahar hayoti: juda tez va shiddatkor, maftunkor va rang-barang, qalblar mehrga zor;
- mehr-oqibat tuyg'ulari, oila, bola-chaqa tashvishi bilan o'tayotgan kunlar.

Kozimjon's life can be example for city life. Although he has his own wife and daughters, he has also some girlfriends. However, his wife does not know about these things. Sometimes, Kozimjon is very rude to his family. In contrast, Yunus uncle's life illustrates village life. He is always busy with his family and cares about earning money to fund his children.

The third slot is **Vaqt**. The period in the story is spring. It is described with the following phrases: *yomg'ir suvi, tuproq yo'l, ko'm-ko'k dala, tuproq yo'l.*

The next slot is **Qahramonlar**. In the subslots, description is given to each character:

- Kozimjon - oilasiga qalban begona va yiroq;
- Yunus tog‘a – juda sodda va mehnatkash qishloq odami;
- Dilnura – mehribon, hayot sinovlari oldida ojiz oddiy qishloq qizi.

The last slot is called **Milliylik.** Mainly, the story narrates about funeral. In the story, some cultural-specific phrases are also given*:*

- *qaytish qipti – to die;*
- *oxirati obod bo‘lsin – May God forgive him;*
- *Alloh sabr bersin – to be patient.*

The first cognitive metaphor which provides conceptual information in the text is **KO‘NGIL – SHAM.** This cognitive metaphor can be interpreted by the following fragment:

*“Kozimjon onasidek bo‘p qolgan mehribon ayolning tanish taftini tuydi**: ko‘ngli allanechuk bo‘lib tokchada eriyotgan shamdek titradi**.”* (Ulug‘bek Hamdam, “Uzoqdagi Dilnura”, 2010, p. 4).

Now, we deal with the denotative meaning of “Ko‘ngil” from “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” and its synonyms

Ko‘ngil:

1. Kishining his-tuyg‘u va kechinmalari manbai; yurak, qalb, dil.

2. Fe’l-atvor, harakter, xulq.

Analysis of synonyms of “Ko‘ngil”: yurak, qalb, dil.

Analysis of dictionary definitions:

Sham:

1. Mum, sham, chiroq.

2. To‘ng‘aladigan yoki quyuqlashgan yog‘dan o‘rtasiga pilik qo‘yib yasalgan tayoqchasimon chiroq.

3. Yorug‘lik kuchining o‘lchov birligi: kuchi yuz sham bo‘lgan lampochka.

Analysis of synonyms of “Sham”: chiroq, yorug‘lik.

The second cognitive metaphor we discover from the story is **KO‘ZLAR - YO‘LOVCHILAR.** In the following, the text fragment is given to prove why the author resembles ko‘zlar (eyes) to yo‘lovchilar (passer-byes):

“Ko‘zlar…ko‘zlar *- bu o‘tkinchi dunyoga tashrif buyurib, yana adam sahrosiga* ***abadiy ravona bo‘layotgan yo‘lovchilarga*** *aylandi – qoldi.”* (Ulug‘bek Hamdam, “Uzoqdagi Dilnura”, 2010, p. 5).

Analysis of dictionary definitions:

Ko‘z:

1. Tirik mavjudotning ko‘rish a’zosi: ko‘z qorachig‘i, ko‘z oqi, ko‘z kosasi.
2. Nazar, nigoh, qarash.
3. Ko‘rish qobiliyati: ko‘zi xira, ko‘zi o‘tkir, ko‘zi ojiz.
4. Biror narsaning ko‘zga o‘xshab ketadigan qismi: derazaning ko‘zi, buloqning ko‘zi.

Analysis of synonyms of “Ko‘z”: gavhar.

Analysis of dictionary definitions:

Yo‘lovchi:

1. Yo‘lda ketayotgan o‘tib borayotgan shaxs.

2. Biror bir transportda ketayotgan shaxs.

Analysis of synonyms of “Yo‘lovchi”: yo‘lchi, o‘tkinchi.

According to the analysis of dictionary definition and their synonyms of the given words, we can state that cognitive metaphors, **KO‘NGIL – SHAM** and **KO‘ZLAR-YO‘LOVCHILAR** represent conceptual information which is intended by the author.

All in all, the following conclusions can be made:

- cognitive metaphor takes important position to illustrate author’s world picture and symbols in literary works;

- frames help to represent the concept and its associative links in well-developed way;
- Last leaf" symbolizes both hope and death simultaneously;
- "Uzoqdagi Dilnura" is a sign of the distance of heart and feelings.

References:

1. Ashurova D. and Galiyeva M. (2018) Cognitive linguistics. Toshkent: "VneshInvestProm".
2. Evans V. and Green. M. (2006) Cognitive linguistics: an introduction. Edinburgh university press.
3. Fillmore CH. J. (1982) Linguistics in the morning society. Seul, Korea: Hanshin Publishing Company.
4. Henry. O. (1907) The Trimmed Lamp and Other Stories, https://books.google.com.
5. Hamdamov U. (2010) "Uzoqdagi Dilnura". https://www.ziyouz.com.
6. Madaliyev A. (1981) "O'zbek tilining izohli lug'ati." Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti.
7. Hojiyev A. (1974) "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati". Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
8. https://dictionary.cambridge.org.
9. https://www.merriam-webster.com.
10. https://www.dictionary.com.
11. https://www.collinsdictionary.com.
12. http://wordassociations.ru/search?hl=ru&w.

YO‘LDOSH ESHBEKNING “YIG‘LAYOTGAN QIZ” SHE’RINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Muxtorova Sevinch G‘aybulla qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 1-kurs talabasi
sevinchmuxtorova@gmail.com

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Yo‘ldosh Eshbekning "Yig‘layotgan qiz" she'ri lingvopoetik jihatdan tahlil qilinadi. Yozuvchining so‘z tanlash mahorati va she'rdagi badiiy tasvir vositalar haqida to‘xtalib o‘tiladi.*

***Kalit so‘zlar:** ko‘p ma'nolilik, metafora, qarshilantirish, anafora, epifora, gradatsiya, paremik vosita*

Abstract.** In this article, the poem “Yiglayotgan qiz” by the folk poet of Uzbekistan Yoldosh Eshbek is analyzed from linguopoetic point of view**.** The writer's choice of words and artistic imagery in the poem will be discussed**.

***Keywords.** Ambiguity, metaphors, oppose, anaphora, epiphany,gradation, paremic medium*

Tilshunoslikning lingvopoetik sohasi davrning dolzarb ilmiy-nazariy masalalari, muammolari, tadqiqiy vazifalari bilan xarakterlanadi. Xususan, adabiy ijodlar, yetuk badiiyat namunalarini lingvopoetik xususiyatlar nuqtayi nazaridan kuzatib, o‘rganib borish bu yo‘nalishdagi tahlilni izchil yo‘lga qo‘yish bugungi o‘zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir. Har qanday badiiy matn asosida so‘z va shu so‘zlarning mantiqiy birlashishi natijasida hosil bo‘lgan sodda va murakkab tuzilishga ega sintaktik birliklar yotadi.(М. Йулдошев. Бадиий матн лингвопоэтикаси) Yo‘ldosh Eshbek *“Yuksak daraxtlar”,“Moviy turnalar”, “Hayot chechagi”, “Mangu masofa”* kabi she'riy to‘plamlar muallifi hisoblanadi. Shoir dastlab “*Yig‘layotgan qiz”* manzumasi bilan keng adabiy jamoatchilik va she'riyat muxlislarining e'tiborini qozondi. Adabiyotshunos Abdumurod Tilavov Yo‘ldosh Eshbekning “Yig‘layotgan qiz” kitobiga “She’r bag‘rida ezgulik bordir” nomli maqola ham yozgan. Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Yo‘ldosh Eshbekning *“Yig‘layotgan qiz”* she'ri misolida so‘zning badiiy asar qimmatini oshirishdagi muhim jihatlari to‘g‘risida to‘xtalmoqchimiz. Avvalo, yozuvchining

she'rlarida badiiy takrorning juda ko‘p qo‘llanilishini va unda ta'kid ma'nosi kuchaytirilishini aytib o‘tamiz. Bu she’rning ilk misralaridanoq ko‘zga tashlanadi:

*Bu **og‘ir** bog‘ chra **og‘ir** qadamlar*

*Tashlab ketayotgan **og‘irgina** qiz. ("Qizg‘aldoqlar ochildi" 12 -bet)*

Yuqoridagi misralarda og‘ir so‘zining ko‘p ma'nolilik xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin. Bilamizki, ko‘p ma'noli so‘zlar orqali yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklaridan foydalanish mahorati namoyon bo‘ladi. Bu misralarda distant holatdagi sifat takrorining o‘zgarish bilan qo‘llanishini ko‘ramiz. Birinchi holatda og‘ir leksemasi bog‘ so‘zi bilan birga kelib "mungli", " qayg‘uli" kabi semalarni ifodalagan . Ikkinchi holatda og‘ir qadamlar birikmasi sokin, shoshilmay bosilgan qadam ma'nosida qo‘llanilgan. Keyingi holatda esa -gina qo‘shimchasi bilan kelib erkalash ma'nosini ifodalagan va ijobiy ma'no qirrasiga ega bo‘lgan so‘z hisoblanadi.

Dunyo ko‘zlaringdan dunyo alamlar

Tomchilar** har biri bir **ulkan yulduz. (Yo‘ldosh Eshbek, 2016, 12-bet)

Alamdan oqayotgan ko‘zyoshning har biri ulkan yulduzga o‘xshatilgan. Tilshunoslikda ko‘chimning bunday turi metafora deb yuritiladi.

Tomchilar ko‘zingdan norasidalik

So‘zga aylanmagan yonish tomchilar.

Beshafqat diydor**mi **og‘ir judolik

***Yo‘qotish** tomchilar, **topish** tomchilar.* (Yo‘ldosh Eshbek, 2016, 12-bet)

Tilda zid ma'noli so‘zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalaridan biridir.Bunda diydor va judolik, yo‘qotish va topish so‘zlari o‘zaro qarshilantirilgan. Ma'lumki, tilshunoslikda metaforaning 2 turi farqlanadi: leksik metaforalar, xususiy muallif metaforalari.(М. Йулдошев. Бадиий матн лингвопоэтикаси) Yuqoridagi to‘rtlikda xususiy-muallif metaforasi hisoblangan beshafqat diydor birikmasi va leksik metafora hisoblangan og‘ir judolik birikmalari qo‘llanilgan.

Yo‘q, seni aldagan,birov aldagan,

U seni sevgandir, yo‘q,yo‘q, sevmagan.(Yo‘ldosh Eshbek, 2016, 12-bet)

Ushbu misralarda aytib qaytish,ya’ni mumtoz adabiyotdagi ruju san’ati orqali, kuchaytiruv-ta’kid ma’nosi yana-da aniq sezilib turadi.

Vijdonsiz nomusli niqobin qo‘ymas

Vijdonning har dami ruhiy iztirob.

Vijdonsiz xatosiz kunlardan to‘ymas

Vijdon bu - xatodan ulg‘aygan azob. (Yo‘ldosh Eshbek, 2016, 13-bet) Ushbu to‘rtlikda vijdon so‘zi orqali asosdosh so‘zlar hosil qilingan.Natijada urg‘u vijdon so‘ziga tushib kitobxonni o‘ziga jalb qilgan. Keyingi o‘rinlarda takrorning turli shakllarini ko‘rish mumkin. Anafora deganda so‘z yoki so‘z birikmalarining misralar boshida takrorlanishini tushununamiz.

Aldanmoq *tilarman senga ko‘p marta*

Aldanmoq *- dunyoga nazar, anglamoq.*

Aldanmoq *- ko‘z yoshi qilmoq, yo‘q, artmoq*

Aldanmoq*- kurashga otlanmoq demak.* (Yo‘ldosh Eshbek, 2016, 13-bet)

Keyingi o‘rinlarda so‘zlarning misra so‘ngida takrorlanishini ko‘ramiz. Bu holat epifora deb yuritiladi.

O‘nta *mard o‘g‘loning bo‘lguncha* ***yig‘la***

Yuzta *mard o‘g‘loning bo‘lguncha* ***yig‘la***

Mingta *mard o‘g‘loning bo‘lguncha* ***yig‘la***

Paymonang to‘lguncha, *to‘yguncha* ***yig‘la****.*(Yo‘ldosh Eshbek, 2016, 13-bet)

Ushbu bandning murojaat shaklida ifodalanishi (2-shaxs, buyruq mayli) she'r ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Gradatsiya – nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon hisoblanadi. (A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.2002) O‘nta - yuzta - mingta so‘zlari miqdoriy gradatsiyaga misol bo‘la oladi. Bundan tashqari, yuqoridagi bandda frazeologik birlik ham (paymonasi to‘lmoq) qatnashgan bo‘lib, uni paremik vosita sifatida tahlil qilish aynan badiiy asarga lingvopoetik jihatdan yondashuvning asl ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Seni yupatmoqqa jur'at yo‘q menda

Sen mening kechmishim, umrim bo‘lagi.

Faqat men qayg‘ular tilarman senga

Kattakon quvonchning unsiz o‘lanin! (Yo‘ldosh Eshbek, 2016, 13-bet)

Ushbu to‘rtlikda inversiya hodisasi mavjud. Ma'lumkin, inversiya deb gap bo‘laklarining o‘rin almashinishi yoki gap bo‘laklarining joylashish tartibining ma'lum bir maqsad bilan o‘zgarish hodisasiga aytiladi. She'riyatda ifodalilikni, ohangdorlikni ta'minlovchi vosita sifatida ko‘p ishlatiladi. Keyingi bandda esa kontekstual sinonimlikni ko‘rishimiz mumkin. Lazzatxo‘rlar va qaroqchilar so‘zi she’riy matnda ma’nodosh bo‘lib kelgan.

*Ular **lazzatxo‘rlar, qaroqchilardir,***

Umrlari uzun, sob bo‘lmas,esiz!

Bu dunyo aslida aldoqchilardir,

Bu dunyo aslida yig‘layotgan qiz! (Yo‘ldosh Eshbek, 2016, 13-bet)

Yozuvchi dunyoni yig‘layotgan qizga o‘xshatyapti va natijada chiroyli,ohorli o‘xshatish yuzaga kelgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yozuvchi ijodida metafora, o‘xshatish, anofora, epifora kabilar faol ishtirok etgan. Yo‘ldosh Eshbek tilimiz qonuniyatlarini puxta o‘rgangan inson sifatida ulardan unumli va kerakli o‘rinlarda foydalana olgan. Shoir ijodidagi she’rlarning o‘rganilish obyekti tahlil yo‘sini juda ko‘p hali ochilmagan qirralardan iborat va ularning har jihatiga ilmiy yondashgan holatda tahlil qilish lozim. Har bir so‘zning qo‘llanilish doirasi, strukturasi, semantikasi, ularning lingvopoetik jihatdan ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlat:

1. Qurbonova. M., Yo‘ldoshev. M. (…) *“Matn tilshunosligi”*, Toshkent. Universitet
2. Yo‘ldosh Eshbek, (2016). *“Qizg‘aldoqlar ochildi”*. “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent.
3. Хожиев. А.Тилшунослик терминлалининг изохли лугати. Тошкент. "УМЭ"
4. Йулдошев. М. (2008). Бадиий матн лингвопрэтикаси.

O‘ZBEK, INGLIZ, RUS TILLARIDA “JINS” MA’NOSINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR

Nematova Shaxnozabonu Israiljon qizi,
ToshDO‘TAU Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti, 1-kurs
shaxnozabonu5151@gmail.com

Annotatsiya. *“Jins” kategoriyasiga bo‘linish butun dunyo tillari miqyosida ko‘plab uchraydi, lekin bir-biriga o‘xshash va farqli jihatlari ko‘p. Ushbu maqolada mana shu masalaga batafsil to‘xtalingan. Maqola 3 ta til qiyosida jins ma’nosini bildirib keluvchi yoki ularga ishora qiluvchi so‘zlarni o‘rganadi. Shuningdek, keltirilgan ma’lumotlar va qilingan izlanishlardan kelib chiqib yakuniy xulosalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Til, jins kategoriyasi, o‘zbek tili, ingliz tili, rus tili, erkak, ayol, masculine, feminine, neuter, женский, мужской, средний, род*

Abstract. *The division into the category of "gender" is found in all languages of the world, but there are many similarities and differences. The article in your hand deals with this issue in detail. The article examines words that express or refer to gender in comparison of 3 languages. Also, the final conclusions are given based on the showed information and research.*

Keywords: *language, gender category, uzbek, english, russian, male, female, masculine, feminine, neuter, женский, мужской, средний, род*

Yer yuzidagi barcha tillar o‘zining alohida, bir-biriga o‘xshamaydigan leksikasi, grammatik tuzilishi va uslubiyatiga ega. Shuningdek, “jins” kategoriyasi ham turli tillarda turlicha ifodalanadi.

Avvalo, *jins* so‘zining o‘ziga to‘xtalsak. Jonli organizmlarning biologik va jismoniy xususiyatlariga ko‘ra ikki (erkak va urg‘ochi) turidan biri jins hisoblanadi (https://savodxon.uz/izoh jins). Tilshunoslik nuqtayi nazaridan oladigan bo‘lsak, jinsni erkak, ayol va o‘rta (jonsiz yoki qaysi jinsda ekanligi noma’lum bo‘lgan neytral tushunchalar) turlarga ajratish mumkin.

Dunyodagi deyarli 50% tillarda jinsga ajralish bor. Masalan, barchamizga tanish bo‘lgan rus tili bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ammo turkiy tillar oilasiga

kiruvchi o‘zbek tilida hamda hind-yevropa tillar oilasiga mansub ingliz tilida bunday hodisa kuzatilmaydi. Ushbu tillarda jinsni farqlash uchun ma’lum bir qo‘shimchalar yoki tilda turg‘un holda faqat bir jins vakili uchun ishlatiladigan so‘zlardangina foydalaniladi.

Ilmiy manbalarda o‘zbek tilida jins kategoriyalari haqida deyarli hech qanday ma’lumot uchramaydi. Chunki olimlar ushbu tilda bunday hodisa yo‘q ekanligini ta’kidlashadi. Eski ingliz tilida *masculine, feminine* va *neuter (erkak, ayol va umumiy)* jinslari mavjud bo‘lgan. Ammo keyinchalik, aniqrog‘i XVII asrdan so‘ng ingliz tili grammatikasidan jins kategoriyasi umuman chiqib ketgan. Bunga asosiy sabab esa tilning osonlashishi, nutqqa qulay bo‘lishidir (Verba L. History of the English language, 2004).

O‘zbek tilida shunday so‘zlar borki, ular ma’lum bir jinsga bevosita ishora qilib turadi. Masalan, *qiz, buvi, juvon, opa, singil, ona, xola, amma, kelin* so‘zlari **ayol** jinsni bildirayotgan bo‘lsa, *o‘g‘il, buva, aka, uka, ota, amaki, tog‘a, kuyov* so‘zlari **erkak** jinsni ifodalab kelyapti.

O‘zbek tilini ingliz tili bilan solishtirganimizda anchagina o‘xshash jihatlarni topishimiz mumkin. Xususan, *daughter, mother, grandmother, aunt, sister, bride (qiz, ona, buvi, xola yoki amma, opa yoki singil, kelin)* so‘zlari to‘g‘ridan to‘g‘ri **ayol** jinsiga ishora qiladi. *Son, father, grandfather, uncle, brother, groom (o‘g‘il, ota, amaki yoki tog‘a, aka yoki uka, kuyov)* so‘zlari esa jinsning **erkak** ekanligini ko‘rsatadi.

Slavyan tillar guruhiga mansub rus tilida esa yuqoridagi ikki tildan umuman farqli ravishda **род (jins)** tushunchasi bor. Ular **ayol, erkak va o‘rta (женский, мужской и средний)** turlarga bo‘linadi. Faqatgina erkaklarni bildiruvchi: *отец, гражданин, юноша, старец,* shuningdek, ayollarni bildiruvchi: *девушка, гостья, внучка,* so‘zlarida ingliz, o‘zbek tillariga o‘xshashlikni uchratishimiz mumkin.

Bundan kelib chiqadiki, asosan, qarindosh-urug‘likni ifodalovchi so‘zlarda jinsga ajralish yaqqol kuzatiladi va bu barcha tillarga birdek xos. Bundan tashqari, erkak jinsni ifodalayotgan so‘zga ***–a*** qo‘shimchasi qo‘shilganda hosil bo‘ladigan

so‘z jinsning ayol ekanligini ko‘rsatishi o‘zbek tilida ko‘p uchraydigan hodisadir. Misol uchun, *kotib – kotiba; raqqos – raqqosa; muallim – muallima, shoir – shoira, olim – olima, asir – asira*. Bu holatning yuzaga kelishiga sabab esa arab tilining o‘zbek tiliga ta’siridir.

Ingliz tilining o‘zbek tiliga yana bir o‘xshash tomoni bor. Quyidagi misollar buni aniq isbotlaydi: *actor – actress (aktyor – aktrisa), poet – poetess (shoir – shoira), prince – princess (shahzoda – malika), hero – heroine (qahramon yigit – qahramon qiz).*

Rus tilida ham yuqoridagi kabi holatni kuzatamiz, ya’ni *учитель – учительница, ученик – ученица, продавец – продавщица, студент – студентка, журналист журналистка* (https://irlc.msu.ru/irlc_projects/speak-russian/time_new/rus/grammar/). Qayd etish joizki, bu uch tilda ham qo‘shimchalar orqali jinsni farqlash imkoniyati mavjud. Bu esa tarjima jarayonini osonlashtirishga yordam beradi.

Rus tilida ot so‘z turkumidagi so‘zlarning jinsga ajralishini bolaligidan ona tili sifatida o‘rgangan insonlar juda yaxshi farqlay olishadi. Ammo ikkinchi yoki uchinchi til sifatida o‘rganuvchilar esa bunday farqlanishni yodlab chiqishlari zarur. Aks holda ularning nutqida ko‘plab chalkashliklar yuzaga keladi.

1. Rus tilida erkak jinsiga quyidagi otlar kiradi:

✓ Asosida *–й* harfi bor yoki qattiq undoshlar bilan tugagan otlar: *руче**й**, паспор**т;***

✓ Asosida yumshoq undoshlar bor, shuningdek, *-ж* va *–ш* undoshlari bilan tugagan so‘zlar: *ко**нь**, пля**ж;***

✓ *Путь* so‘zi.

2. Quyidagi otlar ayol jinsiga mansub:

✓ Oxiri *–а, -я* unlilari tugaydigan bosh kelishikdagi so‘zlar: *радуг**а**, зар**я;***

✓ Asosida yumshoq undoshlar bor, shuningdek, *-ж* va *–ш* undoshlar bilan tugagan so‘zlar: *те**нь**, мы**шь**.*

3. O‘rta jinsga quyidagilar kiradi:

✓ Oxiri *–о(-е)* unlilari bilan tugaydigan bosh kelishikdagi so‘zlar: *облак**о**, сомнени**е**;*

✓ Oxiri *–мя* bilan tugaydigan so‘zlar (10 ta): ***имя**, **время**, **племя**, **знамя**, **бремя**, **семя**, **стремя**, **темя**, **пламя**, **вымя**;*

✓ *Дитя* so‘zi. (Ayrapetyan A.G., Novikova D.D. Сопоставительная, 2016)

Biroq, masalan, shunday so‘zlar borki ular ham ayol, ham erkak jinsida, *метель* (bo‘ron) – ayol jinsida, *тополь* (terak) – erkak jinsida. Ularning tuzilishi, tugashi deyarli bir xil. Bunday vaziyatda rus tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotganlar lug‘atga, albatta, murojaat qilishga majbur bo‘lishadi.

Umumiy jinsga mansub bir qator so‘zlar ham chalkashliklarni keltirib chiqaradi: *недотрога, соня, невежа*. Biz yuqorida ayol jinsiga tegishli so‘zlar *–а, -я* unlilari bilan tugaydi degan edik. Bu misollar esa istisno ekanligini yangi til o‘rganayotganlar avvaldan bilmaydi. Demak, rus tilini o‘zlashtirayotganda, albatta, grammatik kitoblar va lug‘atlar bilan ishlash talab etiladi. Bundan kelib chiqadiki, rus tili biz o‘rganib, tahlil etayotgan ingliz va o‘zbek tillaridan jins kategoriyasi bo‘yicha tubdan farq qiladi (Ayrapetyan A.G., Novikova D.D. Сопоставительная характеристика категории рода в русском и английском языках, 2016)

Rus tilida bo‘lgani kabi o‘zbek tilida ham o‘ziga xosliklar bor. O‘zbek tilida bir murojaat shakli (*qoqindiq*) mavjudki, u faqat **ayol**larga nisbatan ishlatiladi, erkaklarga qarata bunday murojaat qilish to‘g‘ri emas (Madvaliyev A. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2021). Masalan, - *Voy, onaginang aylangur, bo‘yginangga **qoqindiq** bo‘lay, - deb Sharofatbibi uzoq vaqt bag‘ridan Komilani qo‘ymadi*(Oybek, Oltin vodiydan shabadalar).

Xirom aylamoq fe’li ham faqat **ayol**larga nisbatan ishlatiladi va jins kategoriyasi mazmunda yaqqol ko‘rinib turadi:

*Turkona **xirom ayladi** ul sho‘xi diloro,*

Dil mulkini bir go‘shai chashm ayladi yag‘mo. (Turdi Farog‘iy)

Aynan fe’llar orqali jinsni ko‘rsatish rus tilida ham mavjud, ammo bu tilda grammatik qo‘shimchalar yordamida jinsni ifodalash mumkin. Bunda mazmun ham, shakl ham so‘zlovchining, tinglovchining yoki III shaxsdagi insonning qaysi

jinsda ekanligini ko‘rsatib turadi. Masalan, *Я* ***купила*** *вкусный торт*. Demak, bundan kelib chiqadiki, fe’llar yordamida ham jinsni ifodalash imkoniyati mavjud.

Yana bir muhim jihat shuki, ingliz tilida III shaxs birlik olmoshlari (he, she, it) jinsni farqlaydi. Masalan, *He loves playing basketball – U (o‘g‘il bola) basketbol o‘ynashni yoqtiradi.* Ingliz tilida *he* olmoshi orqali harakatni bajaruvchi shaxs erkak jinsidan ekanligi bilinib turibdi, ammo uni o‘zbek tiliga tarjima qilganimizda *u* olmoshi jinsni aniqlamayapti. Aynan mana shu yerda bu ikki til orasida kattagina farqni ko‘rishimiz mumkin. Rus tili bilan solishtirganimizda esa ingliz tili kabi bu tilda ham olmoshlarda jinsga ajralish bor ekanligini bilib olamiz. Masalan, *он, она, оно* olmoshlari yuqoridagi fikrga yaqqol misol bo‘la oladi. Bundan kelib chiqadiki, ba’zi tillarda olmosh so‘z turkumida ham jins kategoriyasi mavjud.

Yuqoridagi fikrlarni xulosalab shuni qayd etish lozimki, jins kategoriyasi fonetik, leksik, semantik tomondan turli tillarda turlicha ifodalanadi. Biz yuqorida ingliz, rus, o‘zbek tillari qiyosida atroflicha shu masalani o‘rganib chiqdik. Izlanish jarayonida har xil o‘xshashliklar va farqli jihatlarni aniqladik. Jinsga ajralish masalasi hozirgi kunda o‘rganilishi zarur bo‘lgan hodisa ekanligini alohida ta’kidlash zarur va bu qiyosiy tilshunoslik hamda tarjimashunoslik uchun dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madvaliyev A. va boshqalar. (2021). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston
2. Verba L. (2004). History of the English language. New York : Novaknyha
3. Ayrapetyan A.G., Novikova D.D. (2016) Сопоставительная характеристика категории рода в русском и английском языках. :Young scientist
4. https://irlc.msu.ru/irlc_projects/speak-russian/time_new/rus/grammar/
5. https://savodxon.uz/izoh?jins

“CHOLIQUSHI” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING QIYOSIY TAHLILI

Nasriddinova Iroda Saydiddin qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 3-bosqich talabasi
irodanasriddinova236@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda Rashod Nuri Guntekin qalamiga mansub “Choliqushi” romanidagi frazeologik birliklar, o‘zbek va turk tillaridagi nashrlar asosida qiyoslanib tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil natijasida ikki tildagi birliklarning o‘xshash va farqli jihatlari yoritib berildi. Asarning o‘zbek tilidagi nashri tahlili asosida tarjimonning mahoratiga ham to‘xtalib o‘tildi.*

Kalit so‘zlar. *fraza, frazeologizm, ekvivalent ibora, leksik birliklar, xarakter, badiiy tarjima, qiyosiy tahlil.*

Abstract. *Phraseological units in the novel 'The Wren' by Reşat Nuri Güntekin were analyzed by comparison based on publications in Uzbek and Turkish languages. As a result of comparative analysis similarities and differences of units in two languages were explained. Based on the analysis of the Uzbek edition of the work the accomplishment of translator was also observed.*

Key words*. phrase, phraseology, equivalent phrase, lexical units, character, artistic translation, comparative analysis.*

Xalqlar madaniy hamkorligining mustahkamlanishida adabiyotning o‘rni benihoya kattadir. Millat va elatlar madaniyati yuksalishini adabiy aloqalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bir adabiyotning boshqa adabiy muhitga kirib borishi esa, eng avvalo, badiiy tarjima orqali amalga oshadi. Badiiy tarjima uzoq tarixga ega bo‘lgan, davrlar o‘tishi bilan yanada kengayib, chuqur ildiz otib borayotgan adabiy jarayonlardan biridir. U turli millat va elatlarga mansub kishilar o‘rtasida do‘stlik va birodarlik rishtalarini bog‘lashga, insonparvarlikning yuksak g‘oyalariga xizmat qiladi. Xalqlar azaldan o‘zaro muloqotga ehtiyoj sezganliklari uchun o‘z asarlari, ijod namunalari orqali ham fikr almashgan, muloqotda bo‘lgan. Tarjima qilingan adabiy asarlar o‘tmishdan hozirgi kungacha bo‘lgan xalqlar madaniyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ikki xalq o‘rtasidagi uzviy munosabatlarni ko‘rsatadi.

Ma’lumki, turk va o‘zbek tillari genetik tipologiya jihatdan qarindosh tillar oilasiga mansub, ya’ni bir til oilasidan o‘sib chiqqandir. Qarindosh tillarni qiyoslab o‘rganishda ulardagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash uchun ularning badiiy asarlariga ham murojaat qilamiz. “Choliqushi” romani barcha adabiyot ixlosmandlarining e’tiborini tortgan, eng keng tarqalgan asarlardan biridir. Asar 1922-yilda chop etilgan. Unda yosh qiz Farida va uning Komronga bo‘lgan muhabbati haqida so‘z yuritiladi. Nafratni muhabbatidan ustun qo‘yib, g‘ururi va sevgisi orasidagi kurashni to‘xtatolmagan Farida uzoq vaqt azob va qiyinchilikda o‘z yaqinlaridan olisda yashashga majbur bo‘ladi. Asar voqealari bosh qahramonning iztiroblar girdobida qolgani va o‘z muhabbatiga erishishigacha bo‘lgan qiyinchiliklarni bayon qiladi. Roman o‘zbek tiliga taniqli adib, mohir tarjimon Mirzakalon Ismoiliy tomonidan tarjima qilingan. O‘zbekcha nashrdagi frazeologik birliklar tarjimasi tarjimonning o‘z tilini ham, tarjima qilinayotgan asar tilini ham, ijod sirlari va badiiy tarjima qonuniyatlarini ham mukammal egallaganini ko‘rsatib turibdi. Aynan mana shu tarjima davomida ijodkor so‘zlar qolipida bir birikma bilan ko‘plab ma'noni aks ettirgan bo‘lib, u ma'noni yanada yoniq aks etishiga , hamda o‘qiguvchi uchun tushuncha tezda hosil bo‘lishiga xizmat qilgan. Bunday bo‘lishiga sabab yozuvchi so‘zlarni qo‘llashdan oldin ma'no, mohiyat, shaxsiyat, asar tili, milliyat masalalari, sujetdagi tizimlilikning qolipdan buzilib ketmasligi, zanjirning ketma-ketlikda harakatlanish o‘rni va tuzilishiga diqqat qaratgan. Natijada nutq va asar tili qorishib asarni jonli qilgan. Yozuvchi bularni amalga oshirishda, albatta, frazeologik iboralarni qo‘llagan. Shular orqaligina asar qiziqarli, o‘qiganda nim tabassumga yoki achchiq kinoyaga sabab bo‘ladigan mimikalarning paydo bo‘lishiga xizmat qilgan. Fraza bitta birlikni tashkil etadigan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ikki yoki ikkitadan ortiq so‘zlar guruhi sifatida tavsiflanadi. Asarlarda frazalar bir jumla yoki bir so‘z bo‘lib kelib ba'zida eng katta gaplarning va jumlalarning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Frazeologik iboralar esa asarning emotsiyasini va undagi ekspressivlik miqdorini oshiradi, badiiy bo‘yoq beradi. Hissiyotlarning uyg‘onishiga sababchi bo‘ladi. “Frazeologik iboralar nutqning ta’sirchanligini, emotsional-ekspressivligini

ta'minlovchi asosiy vosita sifatida nutqimizning ko'rki hisoblanadi. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi...". (Sayfullayeva R., B.128.)

Tarjimon tarjima orqali o'z mahorati va ijodkorning uslubini aks ettiradi. Har ikkala tildagi iboralarni qiyosiy o'rganishda ularning mazmun jihatdan bir-biriga to'la yoki qisman mos kelishi, o'xshashligi hamda bir tilda mavjud bo'lgan frazeologizmlarning ikkinchi tilda ekvivalentga yoki variantga egaligiga e'tibor qaratish lozim. Quyida asardagi har ikki til doirasida mavjud bo'lgan, mazmun-shakl, ekspressiv-uslubiy xususiyatlarni o'zida saqlagan iboralarni keltirib o'tamiz: "Can" komponentli iboralar: O'zbek va turk tillarida "can" (jon) so'zidan tashkil topgan ko'chma ma'noli birikmalar obyekti tana a'zolarining nomlaridan iborat frazeologik iboralar orasida ko'p sonni tashkil qiladi. Ushbu "can" komponentli idiomalarning biz e'tibor qaratishimiz kerak bo'lgan jihati har qaysi iborada mantiq umumiyligi, "can" (jon)ning asos bo'lib kelayotgani, ular orasidagi mantiqiy yaqinlik, shakl bir-biriga tamoman to'g'ri kelganligini yuzaga chiqarganidadir.

1.Canını yakmak− jonini og'ritmoq.

"Canını yakmak" iborasi turk tilida jismoniy azob bermoq yoki zarar, qayg'u keltirmoq, xafa qilmoq, tashvishlantirmoq ma'nolarini ifodalaydi (dersimiz.com/deyimler-sozlugu). O'zbek tilida esa bu ma'noda "azob berar edim, qiynar edim" deb tarjima qilish mumkin. (Z.M. Ma'rufov)

Ammo tarjimon o'z o'rnida bu ikki birlikdan foydalanmay oddiygina jonini og'ritar edim" deb qo'llagan va turk tilidagi iboraning izohini butunlay aks ettirib asar tili ravonligiga erishilgan*: "Çocukluğumda bana hoyrat derlerdi. Galiba hakları da vardı. Kiminle oynarsam canını yakar, bağırtırdım…" (Reşat Nuri Güntekin – Çalıkuşu.) – "Kichikligimda meni qilig'i sovuq deyishardi. Balki bu to'g'ridir ham. Nimagaki, kim bilan o'ynasam, jonini og'ritar, dodlatar edim"*.(Rashod Nuri Guntekin Choliqushi). Ko'rib turganimizdek asarda keltirilgan

iboralar xalq tiliga juda yaqin bo‘lib, bu bizga asarni tez va oson tushunishimizga yordam beradi.

2.Canı sıkılmak – joni siqilmoq.

“Canını sıkmak” iborasi turk tilida biror kishi, narsa, hodisa tufayli qattiq g‘azablanish, xafa bo‘lish, halovati yo‘qolishi ma’nolarini ifoda etadi. Canı sıkılmak iborasiga o‘zbek tilida obrazli asosi “yurak” so‘zidan iborat ko‘chma ma’noli birikmalar ham muvofiq keladi. Masalan, “yuragi siqilmoq”. Bu o‘rinda “yurak” jon so‘zining sinonimi sifatida ko‘rinadi. Tarjimada bu iboraning o‘rniga “ta’bini xira qilmoq” iborasini tanlash, albatta, kontekstga bog‘liq. O‘zbek tili iboralar lug‘atida “ta’bi xira bo‘lmoq”, “ta’bi tirriq bo‘lmoq” iboralari “kayfiyati yomonlashmoq, xafa bo‘lmoq” (Sh. Rahmatullayev T,1978. −B223) ma’nolariga ega. Shuning uchun tarjimon bu birikmani yuqoridagi iboraga moslashtirib, juda muvaffaqiyatli tarjima qilgan:

“– Ne vakit geleyim? dedim.

– iki, üç gün sonra. Işin iki, üç gün uzaması canımı sıkmıştı…”(Tadqiqotda keltirilgan turk tilidagi barcha misollar quyidagi manbadan olindi: Reşat Nuri Güntekin - Çalıkuşu www.Cepsitesi.Net Keyingi o‘rinlarda faqat sahifa ko‘rsatiladi.).(137)

“– Qachon kelay? – dedim. – Ikki-uch kundan keyin. Ishning ikki-uch kunga cho‘zilishi ta’bimni xira qilgan edi…” (Tadqiqotda keltirilgan o‘zbek tilidagi barcha misollar quyidagi manbadan olindi: Rashod Nuri Guntekin .Choliqushi, www.ziyouz.com Keyingi o‘rinlarda faqat sahifa ko‘rsatiladi.)(71)

3.Can alacak yeri – jon tomiri.

“Can alacak yeri” iborasi turk tilida biror narsaning eng muhim nuqtasi ma’nosini ifodalaydi. Bu jumladagi birlikka ham e’tibor qaratilsa, ikki tilda ham obrazli asosi “can” (jon) so‘zidan iborat ibora asliyatdagi ma’no bilan mazmunan bir-biriga muvofiq kelgan:

– “Ma Sor, aziz annemizi melekler ziyarete gelmiş” gibi bir sözle en can alacak yerinden vururdum…(26)

– *“Ma soeur, maloyikalar aziz onamizni ziyorat qilgani kelishibdi., degan so‘zlar bilan jon tomirini uzib olardim…(*11)

Romanda qahramonlarning hayoti, turmush tarzi, ruhiy holati, kechinmalarini ta’sirchan ifodalash uchun turli frazeologik birliklar ishlatiladi. Aynan shu kabi frazalar bilan ifodalangan jumlalar asar tilini boyitgan. Yuqorida keltirib o‘tgan tillardagi o‘xshash va farqli iboralarning ma'nosi, tuzilishidagi tizimlilik bu tillarning qiyosiy jihatdan o‘shashligiga , ularda birgina tovushlar orqaligini ba'zida ma'no farqlanib kelishini ko‘rsatgan. Birgina misol “can” so‘zi orqali biz iboralarning ma'nosi bilan tanishdik. Asarning har yerida turlicha ma'no berishini kuzatdik. O‘zbek tilida ham xuddi shunday bo‘lib birgina so‘z ko‘pgina iboralar uchun ma’no hosil qiladi. O‘zbek va turk tillarida mavjud bo‘lgan “bir yastığa baş koymak”(bir yostiqqa bosh qo‘ymoq) iborasi turk tilida turmush qurmoq, yaxshi va yomon kunlarini birga o‘tkazmoq ma’nolarini ifodalaydi: *“Manastırlı Hanım, cahilliğime acır gibi, gülümseye gülümseye: – A hemşireceğim, gözümü açtım, onu gördüm. Bunca yıl bir yastığa baş koyduk. Kocadan ayrılmak kolay mı?” (153)*

“–Aylanay singlim, axir u ko‘z ochib ko‘rganim-a! Shuncha yil bir yostiqqa bosh qo‘yib keldik. Erdan ayrilish osonmi, aylanay! – dedi.” (80)

Ba’zi lug‘atlarda obrazli asoslari aynan muvofiq keladigan birikmalarni ishlatishdan hadiksirash hollari ham uchraydi – bu so‘zma-so‘z tarjima emas, aksincha tillardagi juda ajoyib hodisa, ulardagi umumiylik va yaqinlikni ko‘rsatuvchi ajoyib namunadir”. (Саломов.Г, (1961). Asarni o‘qish jarayonida “Gece gündüz dememek”(kechani kecha, kunduzni kunduz demaslik), “Gönlunu rahat etmek”(ko‘ngli to‘q bo‘lmoq), “Kendini tutamamak”(o‘zini tutolmaslik), “Yer yarılsa yere geçse”(yer yorilsa, yerga kirsa) “Ümidini kesmek”(umidini uzmoq), “Dişini sıkmak”(tishini tishiga qo‘ymoq) kabi misollarni uchratishimiz yuqoridagi izohlarga uyg‘un ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Ya’ni bu birliklar har ikki tilda bir xil tushunchani ifodalaydigan bir xil iboralardir. Ba’zi iboralarning o‘z ma’nosida qo‘llana olishi yoki boshqa bir yangi ma’no ifoda etishi ham kuzatiladi. Misol uchun: *“Halbuki ihtiyar kadın, dün gece büsbütün açıldı…”(337). –“ Lekin, kecha kechqurun kampir yuragini ochib soldi…”(*182)

“Büsbütun açılmak”(yuragini ochib solmoq) frazemasi har ikki tilda ayni tushunchani ifodalaydigan qisman farqli, mazmun jihatdan o‘xshash xususiyatlarni o‘zida saqlagan namunalardan biridir. “Büsbütun açılmak”(yuragini ochib solmoq) iborasiga tarjimon shunchaki yondashmagan. Ikkinchi bir tilga o‘girar ekan matndagi shaxs ichki olamining, ruhiy kechinmalarining tasviriga alohida e’tibor qaratadi. Bu o‘rinda tarjımonning mahoratini, asl nusxadagi ma’no-shakl xususiyatini ikkinchi bir tilda ham o‘z o‘rnida to‘g‘ri talqin qila olganligini ta’kidlash o‘rinlidir. Ular asarning badiiy qimmatini oshirishga imkon beradi. Bu kabi iboralarni quruq, so‘zma-so‘z o‘z ma’nosida tarjima qilib ikkinchi tilga o‘tkazish ularning o‘z qiymatini yo‘qotishiga, badiiy tasvirga putur yetishiga sabab bo‘ladi.

Tarjima shunday san’atki, unda biror so‘z yoki iboraning tarjimasini shundaygina lug‘atdan olib, ikkinchi matnga ko‘chirib qo‘yib bo‘lmaydi. Lug‘at, ko‘p hollarda, jumladan, tasvirlanayotgan voqeani, vaziyatni ifodalash uchun ojizlik qilib qoladi. Ana shu vaziyatda frazalarni shunchaki ko‘r-ko‘rona, to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilib qolmasdan, balki individual qarashlarini, o‘zining badiiy yondashuvini qo‘shib fikriy g‘alizlikdan qutula olganligi tarjimonning eng katta yutug‘idir. Tadqiqotimiz markazida turgan bu ikki til kelib chiqishi bir, qardosh tillar bo‘lishiga qaramay, barcha iboralarning ma’nosi doim ham yaqin yoki shaklan o‘xshash bo‘lavermaydi. Leksik birliklar singari frazeologizmlar ham ko‘p ma’noli va ko‘p vazifali bo‘lganligi tufayli mazmun jihatdan mos ikki til birliklari tarjimada har doim ham bir-birlarini almashtiravermaydi. Unday uslubdagi tarjimani chinakam tarjima namunasi deb ayta olmaymiz. Badiiy asarning ikki tildagi frazeologik birliklarini qiyosiy tahlil qilish jarayonida har ikki tilda ayni tushunchani ifodalaydigan butunlay boshqa iboralar uchraydi. Turk tilidagi iboralarning o‘zbek tilida aynan shunday mazmunga ega bo‘lgan turi bo‘lmasa ham, ammo uning o‘xshash qoliplari bor. Yuksak tarjimonlik mahoratiga ega bo‘lgan ijodkor Mirzakalon Ismoiliy, mumkin qadar, ana shunday birikmalarning o‘zbek tilida mavjud muqobillarini ishlatgan. Bunday iboralarni tarjima qilish jarayonida ijodkor o‘z lug‘at boyligidagi birliklardan o‘z o‘rnida

foydalanib fikrga ta’sirchanlikni, hissiy bo‘yoqdorlik ma’nolarini yuksak darajada mujassamlashtira olgan. Asardagi yana bir misolga to‘xtalib o‘tamiz: “Süklüm püklüm geri döndü. (Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib ketdi)

*“Fakat o hızla biraz gittikten sonra ne düşündüyse düşündü, süklüm püklüm geri döndü…” (41) - “Lekin, Narimon izidan bir necha odim bordi-yu, keyin nima o‘ylasa o‘ylagandir, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib qaytib keldi…”(*19)

“Süklüm püklüm” iborasi turk tilida xuddi xatoga yo‘l qo‘ygan odamdek, qo‘rqib orqaga qaytmoq,bo‘shashmoq ma’nolarini anglatadi. Bizning ona tilimiz shu qadar boyki, boshqa tillardagi istalgan iboraga undan ekvivalent yoki muqobil variant topsa bo‘ladi. Ayniqsa, gap qardosh tillar haqida ketsa. Tarjimada bu ibora uchun “Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib ketdi” frazemasi tanlangan. Tabiiyki, ijodkor buni ko‘r-ko‘rona tanlamaydi. O‘zbek tili iboralar lug‘atida “Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq”, “Qo‘ltig‘idan tarvuzi tushmoq” birliklari aynan turkcha iboraning ikkinchi izohi “bo‘shashmoq” ma’nosini ifoda etadi.(Sh. Rahmatullayev, 222).

Bu o‘rinda ikki til doirasidagi idiomalar kontekstdaki asl mazmunni saqlagan holda, biri ikkinchisining o‘rniga to‘la-to‘kis mos kelgan.

“Orada olsa kim kime, dum duma”(Yopig‘liq qozon yopig‘lig‘icha qolmoq).

“–Avuç içi kadar bir yer, dedi. Nerede bulursun o taşına toprağına kurban olduğum İstanbul'u. Orada olsa kim kime, dum duma. Buranın dedikodusu boldur… (150)

*“ – E, bu yer kichkina hovuchday, joy qizim, – dedi.– Bu yer qayerda-yu, toshidan, tuprog‘idan o‘rgilay, Istambul qayerda! Bunday gap u yerda bo‘lsami, hech kim bilmaydi, yopig‘liq qozon yopig‘ligicha ketaveradi. Bu yerning g‘iybati ko‘p...”(*178)

Asardagi “Kim kime dum duma” iborasi turk tilida birov birovga ahamiyat bermaydigan, hamma narsa juda murakkab bo‘lgan vaziyatni tasvirlash uchun ishlatiladi. Tarjimon *“Yopig‘liq qozon yopig‘ligicha qolmoq”* frazemasini vaziyat nuqtayi nazaridan kelib chiqib tanlagan deyishimiz mumkin. Chunki bu ibora birov birovga ahamiyat bermaslik emas, aksincha, bo‘lib o‘tgan voqea, hodisani birov bilmaslik, oshkor qilmaslik ma‘nolari ifoda etadi. Bu jihatdan esa o‘zbek tilidagi

ma’no asl ma’nodagi ikkinchi izohga, ya’ni hamma narsa juda murakkab bo‘lgan vaziyatni tasvirlash uchun foydalanilgan deya olamiz.

Romanda uchragan *“Ağzının payını vermek”(tanobini tortib qo‘ymoq)* iborasi turk tilida qo‘pol so‘z va xatti-harakat bilan javob berib, qilgan ishidan pushaymon qildirish, haddini bildirib qo‘yish ma‘nolarini ifoda etadi. O‘zbek tilidagi “tanobini tortib qo‘ymoq” iborasi ham aynan yuqoridagi mazmunni anglatadi va ular ifodalagan tushunchaga butunlay to‘g‘ri kela oladi. Shundan kelib chiqib, ikki birlikni bir-biriga munosib ekvivalent birikmalar deb hisoblashga to‘liq asosimiz bor:

“ – Yok hemşire hanım, yok! dedi. Aldırış etme. Müstahaktır o terese, ikide birde kendinden daha edepsiz biri çıkıp ağzının payını vermezse rahat etmez, it dişi, köpek dirisi…”

*“– Yo‘q, singlim, yo‘q, xavotir qilma. U shunga munosib ablah. Gohi-gohida o‘zidan ham odobsizroq odam chiqib tanobini shunaqa tortib qo‘ymasa, joni rohat ko‘rmaydi bu it tish, it teri!”(*127)

Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi” romanida ishlatilgan idiomatik va obrazli iboralar juda ko‘p va ularni Mirzakalon Ismoiliy mahorat bilan tarjima qilgan. “Frazeologik iboralarning ma’nosi va obyekti mazmun va shakl masalasidir. Ikki tilda birikmaning barcha shakl va obyekti belgilari muvofiq kelsa ham, ammo asosiy narsa – ma’no monandligi bo‘lmasa, bu birikmalar bir-biriga ekvivalent yoki muqobil bo‘lolmaydi. Frazeologizmlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilganda asosiy dastak ma’nodir”.(Саломов.Г, Б.104). Shundan kelib chiqib tarjimon ham asl matndagi ma’noni bir xil kuch bilan yetkaza olgan.

O‘zbek va turk xalqlari tili, dini, tarixi, madaniyati, qadriyatlari mushtarak bo‘lgan qardoshlardir. Ikki xalq tilidagi frazeologizmlar ma’no jihatidan, nutqda qo‘llanilish jihatidan bir-biriga juda yaqin. Mirzakalon Ismoiliy tarjimasi sinchliklab tadqiq etilganda, frazeologik birliklar orqali xalqlarimiz o‘rtasidagi ruhiy mushtaraklik, dunyoqarashning bir-biriga uyg‘unligi, turkiy tillarning keng ifoda imkoniyatlari yaqqol ko‘rinib turibdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, frazalar nutqda, asarlarda ularning mazmuniy va ma’naviy shaklini kengaytirishga hamda boyitishga xizmat qilishini biz ushbu maqolamiz orqali ifoda etdik. Shu maqsadda muloqotda nutq o‘stiruvchi vositalarni, ulardan foydalanish usullarini, iboralar va tasviriy ifodalarni o‘rganish muhimdir. Har bir tilda bo‘lgani kabi turk tilida ham frazeologik iboralar muhim tadqiqot mavzusi bo‘lib, shu paytgacha ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Ushbu ilmiy maqoladan shuni xulosa qilish mumkinki, o‘zbek tilining naqadar keng ko‘lamli ekanligi va boyligini isbotlovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu frazeologizmlardir. Frazeologizmlar va frazeologik birliklarning o‘ziga xosligini isbotlovchi ko‘plab ilmiy ishlar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratilgan bo‘lishiga qaramasdan hali ushbu sohada qilinishi zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy ishlar va yechilishi kerak bo‘lgan ko‘plab muammolar mavjud. Kelgusida ushbu yo‘nalishda bajariladigan dissertatsiyalarning ham salmog‘ining ortib borishi ham frazeologizmlar yo‘nalishida yangi bosqichni boshlab beradi. Mazkur maqolada turk tilidagi iboralarning tematik tasnifi va semantik xususiyatlari atroflicha yoritib berilgan. Boshqa chet tillari kabi turk tili ham iboralarga boy til hisoblanadi. Ushbu maqolada turk tilidagi ayrim iboralarning tasnifi va semantik xususiyatlarini Rashod Nuri Guntekin asaridagi misollar orqali tahlil qilindi. Biz ushbu tadqiqotimizda ikki xalq tiliga xos bo‘lgan iboralar , bir so‘z qo‘llab ko‘p ma’no beruvchi frazalarni o‘rgandik. Farqlashimiz davomida ikki til miqyosida keng qo‘llanadigan frazemalarning mohiyatini asar tahlili davomida guvohi bo‘ldik. Tarjima davomida ham Mirzakalon Ismoiliyning mohirona mahorati orqali bizga frazemalarning to‘laqonli ravishda tarjimasi yetib keldi . Bu esa asarni yanada nutqda ravon bo‘lishi uchun yo‘l ochdi. Tarjimada shakl va mazmun munosabatini bejirim talqin etish hamda tarjimaning badiiy nafosati va milliy xususiyatini yuzaga keltiruvchi barcha lisoniy-uslubiy vositalar vazifalarini ijodiy aks ettira oladigan muqobil til va nutq birliklari tanlash vazifasi qo‘yiladi. Chunonchi, muallif tomonidan foydalanilgan har bir bayon va tafsilot, har qanday so‘z va ibora asosiy g‘oyaning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etadiki, asarning tarkibiy qismini tashkil etadigan bunday badiiy-tasvir

vositalarning to‘la-to‘kis idrok etilishi va tarjimada ijodiy qayta yaratilishigina muloqot maqsadiga erishish imkoniyatini beroladi. Joizki, biz ushbu maqolamiz orqali o‘qiguvchiga ikki tilda qo‘llanuvchi frazemalarning ba’zilaridan misollar orqali keltirib o‘tdik. Ulardagi o‘xshash va o‘xshash bo‘lmagan birliklarni farqladik. Qiyosiy jihatdan ularning farqini izohlarda qoldirdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Guntekin Rashod Nuri. (2019) *“Choliqushi”*. –Toshkent: Kamalak-PRESS.

Ma’rufov.Z. (…). *“O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”,*

Rahmatullayev Sh. (1978),“O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” – Toshkent.

Sayfullayeva R. (2009) .”Hozirgi o‘zbek adabiy tili”.−Toshkent.

HUSSIN Faris Muhammed Nasreddin. (2022), *“Reşat Nuri Güntekinin “Çalıkuşu”Adlı Romanının Arapça Çevirisi ile Mukayesesi”*. Bursa.

Keskin Şengül. (2020) “*Çalıkuşu Romanı ve Dizilerinde Kadın Karakter Temsillerinin Feminist Perspektiften Değerlendirilmesi*.”

Саломов.Г. (1961) Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир.−Тошкент: ФАН.

WWW.dersimiz.com/deyimler-sozlugu

www.ziyouz.com.

https://tez.yok.gov.tr/UlusalTezMerkezi

www.Cepsitesi.Net

USMON AZIMNING “BAXT HAQIDA BALLADA” SHE’RINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Temirova Sabina Qahramon qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 1-kurs talabasi
temirovasabina286@gmail.com

Annotatsiya. *O‘zbek xalqining ma’naviy dunyosini shakllantirishda g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatayotgan shaxs – Usmon Azimdir.Ushbu maqolada shoir she’riyatining mazmuni,badiiyati,so‘z tanlash mahorati haqida to‘xtalib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Usmon Azim, ta’kid, jonlantirish, takror, metafora, antonim, parsellatsiya,tasviriy vosita, emotsional-ekspressivlik*

Abstract. *Osman Azim is a person who was has a very strong and affective influence on the information of the formation of the spiritual world of the Uzbek people.This article focuses on the content of the poet’s poetry,the artistry and the skill of choosing words*

Keywords. *Osman Azim, emphasis, revive, repait, metaphor, antnonym, parcellation, figurative exspression, emotsional-exspressiveness*

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetik yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda xalqimiz orasida yetishib chiqqan so‘z san’atkorlarining badiiy ijodlari,ular tomonidan yaratilgan badiiy asarlar tilining uslubiy, badiiy-estetik jihatlari haqida so‘z yuritilgan, ularda yozuvchi yoki shoirning o‘ziga xos tili va uslubi, badiiy til vositalaridan foydalanish mahorati, milliy an’ana va qadriyatlarimizga bo‘lgan munosabati, voqea-hodisalar tasvirini berishda o‘ziga xos yangidan yangi so‘z va iboralar yaratishi kabi masalalar to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Ushbu maqolada ham biz o‘zbek adabiyotining zabardast va qalami o‘tkir ijodkorlaridan biri bo‘lgan Usmon Azimning “Baxt haqida ballada” she’rini ham lingvistik, ham poetik tomonlama tahlil qilamiz.

Usmon Azimning ko‘pchilik e’tirofiga sazovor bo‘lgan “Baxt haqida ballada” she’rida baxtning badiiy go‘zal tasviri bilan bir qatorda, o‘zbek tilining o‘ziga xos boy imkoniyatlari ham she’rda o‘z aksini topgan. She’rning dastlabki bandini tahlil qilsak:

Men baxtni ko‘rganman. Ko‘rganman. Aniq.
O‘rdada nogahon kelgan ro‘baro.
Qish kuni. Paltoga olgan o‘ranib.
Besas bir hayratda qotganman: -Voy-bo‘!

She’rning birinchi misrasidayoq shoir baxtni aniq uchratganligi takidlayapti. *“Qish kuni.Paltoga olgan o‘ranib”* ushbu misra esa atov gapning sodda yig‘iq turiga misol bo‘la oladi. To‘rtlik so‘nggidagi *“-Voy-bo‘!”* birikmasi she’rda alohida emotsional-ekspressivlikni vujudga keltirgan.

Yo‘lkalar chetida baland daraxtlar

Qator tizilishgan. Beharakat. Jim.

Dong qotgan bekatlar, qorlar, shiorlar…

Ammo baxt ekanin bilmaydi - hech kim.

To‘rtlikning dastlabki ikki satrida parsellyatsiya hodisasining yorqin namunasini ko‘rishimiz mumkin (Parsellyatsiya – komunikativ ekspressiv sintaksisda xususan badiiy matnda benihoya muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sintaktik komunikativ hodisa). *“Dong qotgan bekatlar, qorlar, shiorlar”* ushbu misrada shoir xususiy-muallif metafora turidan mohirona tarzda foydalangan. She’rning uchinchi bandidan baxtni jonlantirish boshlanadi.

Baxt juda ***chiroyli*** *edi!* ***Chiroyli!***

Chiroyli! *– sovuqda yuzin yashnashi.*

Hatto qor poyida g‘ichirlar edi.

Tanini ezsa ham o‘tkir poshnasi.

Bu banddagi *“Chiroyli”* so‘zining uch marta qo‘llanilishi lingvopoetikadagi takrorlarning qo‘llanish o‘rniga ko‘ra gorizontal takrorga misol bo‘la oladi.

Yuzi tegrasida ro‘moli tuman

Bir uchi kiftiga tashlanga edi.

Lollikdan boshqa hol bo‘lgan edi man’-

Uni ko‘rib shu ish boshlangan edi.

Ushbu bandda shoir mavhum tushuncha bo‘lgan baxtni jonlantirgan. Uni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan, baxt uning yonidan o‘tib ketgan-u, u bilan bir zumgina nigohlari to‘qnashgan. Shoir baxt bilan so‘zlashmagan bo‘lsada: *“Faqat lablariga qo‘ngan tabassum”* deya baxt bilan uchrashgan damni yodga oladi.

Shundan buyon menga bu dunyo bir pul!

Nomard g‘alvalari *berolmas ozor.*

Yuragim erta kech she’r bilan mashg‘ul -

Baxtni uchratganman! ***Nima g‘amim bor****!*

She’rning ushbu to‘rtligida ham ko‘chim turning metafora hodisasiga duch kelamiz: *“Nomard g‘alvalari* berolmas ozor**”** , ya’ni nomard so‘zining belgi

xususiyati insonga nisbatan qo‘llaniladi. Bu she’rda esa *nomard g‘alvalar* ya’ni endi nomard so‘zining belgi xususiyati g‘alvalarga ko‘chirib o‘tkazilyapti. Bu to‘rtlikda yana zid ma’noli so‘zlar ya’ni antonimik qator ham mavjud: *“erta – kech”* so‘zlari zid ma’nolilikni ifodalagan. Satr so‘nggidagi “Nima gapim bor!” birikmasi orqali shoir ritorik so‘roq gapdan she’rda foydalangan.

Yonib kirib kelsam (yurishim ***sarbast!****)-*
Fasod davralarga g‘iybat tinadi,
Axir, menga hech kim kelolmaydi bas –
Baxtga duch kelganim barcha biladi.

Shu o‘rinda she’rda qo‘llanilgan *“sarbast”* so‘zini tahlil qiladigan bo‘lsak , *Sarbast* (fors. ozod, erkin) o‘zbek she’riyatining uchinchi she’riy tizimi hisoblanadi. *“Yurishim sarbast”* ya’ni baxtni uchratganim tufayli men ozod va erkinman. Men kirgan davralarda g‘iybat tinadi deb shoir o‘zining baxtga duch kelganini yana bir bor ta’kidlab o‘tadi.

Mardligim bilishar do‘st-u yov ogoh,
Nechun yur deb baxtni qistamaganman.
Baxtni etmaganman ne uchun hamroh
Bebaxt bo‘lishini istamaganman.

She’r so‘nggida esa yana qarshilantirish ya’ni mumtoz adabiyotda tazod san’atiga shoir *“do‘st -u yov”* zid ma’noli so‘zlari orqali murojaat qiladi. She’r yakunida esa shoir nima sababli baxtni o‘ziga hamroh etmaganini o‘quvchiga anglatib ketgan.Chunki, agar u baxtni o‘ziga hamroh etsa baxtni bebaxt qilib qo‘yaman deb havotirlandi.Shuning uchun baxtni o‘zining o‘z holicha qolishini istaydi.

Usmon Azim ijodida she’riy asarlar tilining badiiy jihatdan obrazi va bo‘yoqdor, ifodali va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlovchi lingvopoetik vositalardan o‘xshatish, metafora,sinekdoxa, metonimiya, antiteza, jonlantirish kabilar faol ishtirok etgan. Usmon Azim poetik matnlarda jamiyat hayotida, kishilarning kundalik turmushida yuz berayotgan turli voqea-hodisa, narsalarni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq gavdalantirish uchun o‘xshatish, metafora, metonimiya, jonlantirish

kabi vositalardan mahorat bilan foydalanadi. Bunda ular lingvopoetik vosita sifatida kitobxonga badiiy-estetik ta'sir etish vazifasini bajaradi. Usmon Azim tilimiz qonun-qoidalariga amal qilgan holda o'rni bilan o'ziga xos betakror poetik manzaralar, ruhiy holatlar tasvirlarini yaratadi.Lingvopoetik vositalar shoir asarlarida tilga olingan tushunchalar, fikr va tasavvurlarni ma'lum bir obrazlar sifatida kitobxon ongida muhrlaydi hamda badiiy-estetik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonova M., Yo'ldoshev M. (2014), *"Matn tilshunosligi",* Toshkent.
2. Usmon Azim (2020), *"Baxt haqida ballada"* Ikar.
3. Йулдошев.М, (2008) *"Бадиий матн лингвопоэтикаси"*, Тошкент: Фан.

STYLISTIC FEATURES OF TOPONYMS IN LITERARY TEXT

Tursunova Nafisa Shuxratovna,
TSUULL, MA Student, Comparative Linguistics,
linguistic translation studies
nosha.tursunova1990@mail.ru

Abstract. *This article discusses the main features and importance of toponyms by analyzing different kinds of examples of Uzbek literary works. In particular, examining the role of toponyms in fiction, the various functions of illuminating creative artistic intentions and illustrating the wide potential of these units. Moreover, the functions of the place names in the artistic text have also been analyzed.*

Keywords. *onomastic units, toponym, literary text, macro-scale, intertextuality.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek adabiy asarlarining turli namunalarini tahlil qilish orqali toponimlarning asosiy xususiyatlari va ahamiyati haqida so'z boradi. Xususan, toponimlarning badiiy adabiyotdagi o'rni, ijodiy badiiy niyatlarni yoritishdagi turli vazifalarini o'rganish va bu birliklarning keng imkoniyatlarini ko'rsatish. Bundan tashqari joy nomlarining badiiy matnda qanday vazifalarda kelishi ham tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar. *onomastik birliklar, toponim, badiiy matn, makroko‘lam, intertekstuallik.*

One of the biggest problems faced by philologists in recent years is the problem of the place of onomastic units in the literary text. There are several studies in which onomastic units are approached as a poetic device that provides the multi-layeredness of literary text (Михайлов В.Н,1966, 54-66-б). These studies present ideas about the functions of names in a work of art. For example, according to Russian linguist V.Bondaletov, names perform aesthetic, symbolic, ideological, and descriptive functions as well as nominative functions in an artistic text (Бондалетов В.Д, 1983, 28-б). Professor V.I.Suprun mentions that the names also serve as similes, and in some works, the acquisition of metaphorical meaning is shown as a special task (Супрун В.И, 2000, 17-б).

Today, in the field of linguistics, poetic onomastics is being formed as a separate field. It is connected to the fields of lexicology, semiotics, poetry, and text linguistics. Since poetic onomastics is a field directly related to the literary text, in the works related to it, the onomastic units of the literary text are used in accordance with the artistic purpose of the creator.

The names of geographic objects, or toponyms, make up the majority of the onomastic units in Uzbek. A significant portion of the Uzbek lexicon consists of toponyms, and lexical-semantic, grammatical, etymological, and poetic analysis is one of the major challenges facing linguists today. It is well known that the word “toponym” is derived from the Greek topos – *“place”*, onoma – *“name”*, meaning the name of the place”. E. Begmatov studied toponyms as a linguistic and spiritual phenomenon. In Uzbek linguistics, the works of linguists such as F.Ishakov, B.Umurkulov, B.Choriev on the stylistic features of toponyms used for various purposes in literary literature have been published (Исҳоқов Ф, 1980, 54-70 б; Умуркулов Б, 1985, 28-29-б; Чориев Б, 1989, 95-96 б). Commenting on the proper names of such events in fiction, the linguist E. Kilichev says: “The study of the names of geographical locations in the language of fiction is important, first of all, for

the development of toponymic science, and then for the author's style" (Қиличев Э, 1982, 62-63-б).

At this point, it should be noted that toponyms perform an aesthetic function in the artistic text. Toponyms, like any tool used in a work of art, serve the writer's artistic intent. Toponyms in the literary text are studied in two groups:

- Real toponyms
- Unreal toponyms

Real toponyms, that is, place names that exist in the language, are used for various purposes in literary texts. For example, some toponyms appear figuratively in the literary text and create serious expressiveness. In the following example, the *"Kamchatka"* toponym is used for this purpose:

➢ *Kechasi olmadek lampochka xira yoritib turgan, sichqon hidi bilan to'lgan barakda yig'ilish bo'ldi. Birinchi kurslar eng chekkada, qamishzorga tutashib ketgan uchastkada edi. Odat shu, birinchi kurslarni «Kamchatka»ga yuborishadi* (O'.Hoshimov. "Tushda kechgan umrlar").

As we know, Kamchatka is the name of one of the most remote regions in Russia. The name of this country is also used in our language in such meanings as *"the farthest", "very far place", "difficult place to go".* In the literary text, this toponym acts as an onomastic metaphor and is used to give the meaning of the edge of any place.

Also, there are many toponyms in Alpomish heroic epic. In the following artistic text, we see the toponym Askar tog' as an onomastic metaphor. Literally meaning "Mountain of Fire", Asqar tog' is found mountain name that appears in Turkic epics. It refers to a mountain of the sun or a mountain inhabited by benevolent spirits in folklore examples. In Uzbek linguoculture, this name forms an association with a large, great mountain. Askartog', the name of the mountain, was used as a linguopoetic tool to create the onomastic metaphor, which means "brave, energetic"

➢ *Kelar ichimizdan xo'rsiniq chuqur.*

Asqar tog' edik-ku, nurayotirmiz.

Ko‘namiz, ne iloj, shunga ham shukur,

Harqalay ko‘z tirik, ko‘rayotirmiz, (E.Vohidov “Keksalik gashti”)

In the next example, the toponym of the Sahara Kabir is used to exaggerate the reality. Through this example, the writer created an impressive expression by comparing the vastness and desolation of the house to the Sahara desert.

Xonim (ichkaridan ovozi). Bo‘sto-on! Bo‘ston, o‘zingizmi? Ha, ha... Nima-a? Nima bo‘pti?.. Al-o! Al-o! E, padaringga la’nat! Tag‘in ishlamay qoldi-ya! Uy emas bu, sahro! Sahroyi Kabir! (E.A’zam. “Jannat o‘zi qaydadir”).

In Uzbek artistic texts, the toponym Kaaba is the most actively used onomastic unit. As we all know, Kaaba is the main sacred temple of Islam and the most important center of Muslims around the world. In the following example, the Kaaba is used figuratively, creating an onomastic metaphor. In this case, it exists as an artistic expression of the meaning of “the highest, holy place, place of worship” and formed the poetonymic scale based on simile, comparison and equalization.

➢ *Samoda yuribdi hanuz yolg‘iz oy,*

Tanholik qiynaydi uni hoynahoy.

Yo‘qlikdan axtardim sening vaslingni,

Kim qayga sig‘insa, Ka’ba o‘sha joy.

➢ *Onajon, Ka’bam o‘zing,*

Sensiz jahonni na qilay?

Bo‘lmasang yonimda sen,

Bu oshiyonni na qilay?!

So, real place names demonstrate the following linguopoetic features in the artistic text: they create intertextuality, comes in a symbolic meaning and increases the effectiveness of the text, forms the text, shows that the creator belongs to a certain region. Also, real toponyms are often used metaphorically in literary texts. Thus, we saw that the Kamchatka toponym is used in the definition of “*the remotest part of a place”*, and the Sahara toponym is used in the meaning of *“a*

place isolated from the outside world". Such toponyms mostly acquire figurative meaning and keep the status of a topopoetonym in the literary text.

The linguopoetic features of unreal toponyms in the literary text are also unique. For example, M. Shaykhzoda uses the imaginary toponym *Salamabad* for *Tashkent* in his lyrical poem "Tashkentnoma".

- *Odamlarga qo'yganday laqab, Shaharlarning sharafin oqlab – Qo'yilganda unvonlar maxsus, Toshkentimiz olgan taxallus "Salomobod" bo'lar edi, rost, Bu taxallus shahrimizga mos!...* (M.Shaikhzoda. "Toshkentnoma").

Another famous Uzbek poet E. Vahidov skillfully used unreal toponyms in his works. He named the village of the hero Matmusa as *Donishqishloq* in his comic work called "Donishqishloq latifalari".

- *Donishqishloq degan joy Bordir bizning tomonda,*

O'sha qishloq ahlidek Dono xalq yo'q jahonda.

In this poem, the toponym is not used in its nominative meaning. On the contrary it is used in the opposite meaning, that is, the people of this village are not wise, but are described as very simple, illiterate people.

It can be seen that fictional toponyms have a significant expressive value to the literary text. They act as a linguopoetic tool such as imagery, subjective attitude like the name of Salomabad, humorous spirit like the name of Donishqishloq in the artistic text.

Reference:

1. Михайлов В.Н. (1966), *"Экспрессивные свойства и функции собственных имен в русской литературе"* // Филологические науки. – Москва

2. Бондалетов В.Д. (1983) *"Русская ономастика"* – Москва Просвещение.

3. Супрун В.И. (2000) *"Ономастическое поле русского языка и его художественно-эстетический потенциал."* – Волгоград.

4. Исҳоқов Ф. (1980) *«Зарбулмасал»даги топонимлар ҳақида Лексика, стилистика ва нутқ маданияти масалалари*.– Тошкент.

5. Умуркулов Б. (1985) *“Стилистические функции топонимов в поэзии Гафура Гуляма”*, Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джизак.

6. Чориев Б. (1989) *“Ғафур Ғуломнинг топонимлардан фойдаланиш маҳорати”* Ономастика Узбекистана.

7. Қиличев Э. (1982) *“Бадиий тасвирнинг лексик воситалари.”* – Тошкент: Фан.

O‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARI. O‘RIN-PAYT KELISHIGI QIYOSI

Usanova Qademay Muratbay qizi
Ajiniyoz nomidagi NDPI
Turkiy tillar fakulteti 1-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: f.f.n.,dots. M. Xudayarova

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida otlarning kelishik kategoriyasi, o‘rin-payt kelishigini qiyoslash, o‘xshash va farqli tomonlari tadqiq etildi.*

Kalit so‘zlar. *O‘rin-payt kelishigi, ish-harakat, vositali to‘ldiruvchi, hodisa, grammatika, hol, grammatik vositalar.*

Abstract. *In this article, Uzbek, Russian and Karakalpak languages studied the category of agreement of horses, the comparison of place-time Agreement, similarities and differences.*

Keywords:*Place-time Agreement, work-action, tool filler, event, grammar, case, grammatical means.*

O‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ot predmet ma’nosini bildiradi. Har 3 tilda ham otning ma’nosi turli-tuman bo‘lib, u jonli predmetlarni (*it-собака-iyt, mushuk-кошка-pıshıq) (bola-ребёнок-bala, qush-птица-qus*), narsa, predmet va hodisalarni *(sut-молоко-su‘t), (yomg‘ir-дождь-jawın), (daftar-тетрадь-da‘pter, kitob-книга-kitap), (majlis-собрание-jıynalıs)* ataydi.

Ot (yoki otlashgan so‘zning) boshqa so‘zlarga bo‘lgan sintaktik munosabatini ko‘rsatuvchi ma’nolar va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllar tizimiga

kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi oltitda grammatik ma’no va uni ifoda etuvchi shakllarni o‘z ichiga oladi. Bularga bosh, qaratqich, tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklarining grammatik ma’nolari hamda bu grammatik ma’noni ifodalovchi -ning, -ni, -ga(-ka, -qa), -da, -dan kelishik shakllari kiradi. Har bir kelishik o‘z nomi, ifoda shakliga ega, ma’lum so‘roqlarga javob beradi(Hamroyev M. 2007. - B. 87-88).

O‘rin-payt kelishigi -**da** bilan shakllanib, bir qancha ma’nolarni ifodalaydi. Endi bu kelishikni o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ko‘rib chiqamiz.

O‘zbek tilida o‘rin-payt kelishidagi ot ish-harakatning bajarilish o‘rnini, paytini va ish-harakatning bajarilishida vosita bo‘lgan predmetni anglatadi. Bu kelishik shaklidagi ot qanday leksik ma’noni anglatishiga qarab o‘rin, payt, obyekt ma’nolarini anglatadi. Shu ma’nolariga ko‘ra o‘rin-payt kelishigi shaklidagi ot kimda? nimada? qayerda? qachon? kabi so‘roqlarga javob beradi. O‘zbek tilida o‘rin-payt kelishigi -**da** affiksi bilan shakllanadi(Hamroyev M. 2007. - B. 87-88). Masalan: ***Shovvozlarda*** *shuncha hunar bor ekan-ku, bilmay yurgan ekanmiz* (H.N.).

Rus tilida o‘rin-payt kelishigiga mos keladigan kelishik yo‘q. Shuning uchun o‘rin-payt kelishigidagi so‘zlarning grammatik ma’nolari rus tilida turli kelishik shakllari va boshqa grammatik vositalar bilan beriladi(Azizov O. 1965. – B. 33).

Qoraqalpoq tilida o‘rin-payt kelishigi – **orin sepligi** deb yuritiladi. Bu kelishik -da/-de, -ta/-te affikslari bilan shakllanadi.

Qoraqalpoq tilidagi o‘rin-payt kelishigidagi otlar kimde? nede? qayaqta? qayerde? kabi savollarga javob berib, narsa yoki ish-harakatning o‘rnini bildiradi. Gapda to‘ldiruvchi va hol vazifasida keladi(Da‘wletov A. 2010. - B.106). Masalan:***Ko‘lde*** *ko‘p baliq qaldi dep otirg‘oy* (K.S.). – ***Ko‘lda*** *ko‘p baliq qoldi deyaptiku*.

Endi o‘rin-payt kelishigidagi otlar qanday vazifalarda kelishini ko‘rib chiqamiz.

O‘zbek tilida o‘rin-payt kelishigidagi otlar quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

1.Ish-harakatning bajarilishida vosita bo‘lgan predmetni anglatib, kimda? nimada? so‘rog‘iga javob beradi va gapda vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi. Masalan: *Bolaga otaning mehnati singan bo‘lsa, so‘ng u bolaning* ***xulq-atvorida*** *bilinadi (Yusuf Xos Hojib).*

2. Ish-harakatning bajarilish o‘rnini anglatib, qayerda so‘rog‘iga javob beradi va gapda o‘rin holi vazifasi bajaradi. Masalan: *Vohidlarning* ***qishlog‘ida*** *boshqa yerlarda juda kam uchraydigan halim va shirin olma bor* (O.Y.).

3.Ish-harakatning bajarilish paytini anglatib, qachon? so‘rog‘iga javob beradi va gapda payt holi vazifasida keladi. Masalan: ***Bahorda*** *shaftoli gullari ko‘m-ko‘k maysalar ustida to‘kilib qoladi* (M.I.).

4.Ish-harakatning bajarilish holatini anglatib, qanday? savoliga javob beradi va gapda ravish holi vazifasini bajaradi. Masalan: *Ular musiqani chuqur* ***sukutda*** *tinglar edi* (O.Y.).

Ba’zan predmet yoki hodisaning bo‘lish o‘rnini, yoshini holatini anglatib, qayerda? nechada? kimda? nimada? so‘roqlaridan biriga javob berib, gapda kesim vazifasini bajaradi(Hamroyev M. 2007. - B. 87-88). Masalan: *Singlim* ***uyda****. Barno yigirma* ***yoshda****. Kuch* ***birlikda****.*

Rus tilida o‘rin-payt kelishigidagi so‘z:

1.Ish-harakat yoki predmet o‘rnini bildirib kelsa, rus tilida odatda ***в*** yoki ***на*** old ko‘makchisi hamda предложный padejdagi ot bilan beriladi. Masalan: *Мой друг учится* ***в Москве****. – Mening do‘stim* **Moskvada** *o‘qiydi. Ваши книги* ***на столе****, а костюм* ***в шкафу****. – Kitoblaringiz* **stolda***, kostyumingiz* **shkafda***.*

2.Ish-harakat vaqtini bildirib kelsa, rus tilida payt ravishi bilan yoki turli old ko‘makchi hamda tushum . творительный, предложный kelishiklardagi so‘z orqali beriladi. Masalan: *Хлопок собирают* ***осенью****. – Paxta* **kuzda** *teriladi. Эту книгу прочител* ***за неделю****. – Bu kitobni bir* **haftada** *o‘qib chiqdim.*

3.Boshqa grammatik ma’nolari rus tilida u old ko‘makchisi hamda qaratqich kelishigidagi ot bilan va boshqa grammatik vositalar bilan beriladi. Masalan: ***У кого*** *есть сегодняшияя газета*? – **Kimda** *bugungi gazeta bor*?

Qoraqalpoq tilida o‘rin-payt kelishigi quyidagi ma’nolarda va o‘rinlarda qo‘llaniladi:

1.Narsaning o‘rnini bildirib, vositali to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Masalan: *Qaraqalpaq **a‘debiyatinda** ataqli shayirlar ko‘p (T.Q.). – Qoraqalpoq **adabiyotida** taniqli shoirlar ko‘p.*

2.Ish-harakatning o‘rnini bildirib, hol vazifasida keladi. Masalan: *O‘zim **fermada** isleymen (K.S.). – O‘zim **fermada** ishlayman.*

3.Vaqt ma’nosidagi otlar o‘rin-payt kelishigida belgili vaqtni bildirib, payt holi vazifasida keladi. Masalan: *Otirispalar, ko‘binese **keshte** bolatug‘in edi* (T.Q.). – *O‘tirishlar, ko‘pincha kechki payt bo‘lar edi*.

4.Ish-harakatning yuzaga chiqish quroli bo‘lgan narsani bildirib, vositali to‘ldiruvchi vazifasida keladi(Da‘wletov A. 2010. - B.106). Masalan: *Sa‘skede awilg‘a **mashinada** ispolkom predsedateli Tog‘izbaev penen Ma‘diyar keldi (Sh. S.). – Tushdan keyin qishloqqa **mashinada** ispolkom predsedateli Tog‘izbaev bilan Ma‘diyar keldi.*

Xulosa qilib aytganda, o‘rin-payt kelishigining ma’nosi o‘zbek va qoraqalpoq tillarida deyarli bir xil. Rus tilida bunaqa kelishik yo‘q. Rus tilida o‘rin-payt kelishigi old ko‘makchilar, qaratqich kelishigidagi ot va boshqa grammatik vositalar yordamida beriladi. O‘zbek tilida o‘rin-payt kelishidagi ot ish-harakatning bajarilish o‘rnini, paytini va ish-harakatning bajarilishida vosita bo‘lgan predmetni anglatsa, qoraqalpoq tilida asosan, narsa yoki ish-harakatning o‘rnini bildiradi. O‘zbek tilida chiqish kelishigi, vositali to‘ldiruvchi, o‘rin va payt holi, ravish holi vazifasida kelsa, qoraqalpoq tilida ham ko‘pgina hollarda vositali to‘ldiruvchi va yana hol, payt holi vazifasida keladi. Bularning hammasi o‘z navbatida, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridani qiyoslashda ozgina qiyinchilik tug‘dirmasa ham, rus tili bilan bu tillarni qiyoslashda bir qancha tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anorbekova A, Mirzayeva Sh (2011), *“Hozirgi o‘zbek adabiy tili”* Toshkent: “Noshir” nashriyoti.
2. Azizov O v.b.(1965) *“O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi”* Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.
3. Da‘wletov A v.b. (2010), *“Ha‘zirgi qaraqalpaq a‘debiy tili”* No‘kis: “Bilim” nashriyoti.

SHAVKAT RAHMON SHE’RIYATIDA KONTRAST VA ANTITEZA

Xaytaxmatova Dilnavoz Alijon qizi
ToshDO‘TAU, O‘FF 1-kurs talabasi
dxaytaxmatova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada lingvistika va adabiyotshunoslik elementlarini qamrab olgan lingvopoetika fanining sintaktik tahlil qilish hodisalari antiteza va kontrast haqida yozilgan. Qarshilantirishga asoslangan bu vositalar Shavkat Rahmon she’rlari misolida tahlil qilingan. O‘zbekiston xalq shoiri Shavkat Rahmonning qay darajada antiteza va kontrastlardan foydalanganligi tahlil qilingan. Natijada, uning ijodida, asosan, tabiat tasviri orqali inson portretini gavdalantirishi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar*: Kontrast, antiteza, lingvopoetika, Shavkat Rahmon, leksema, tabiat tasviri.*

Abstract*. In this article, the phenomena of syntactic analysis of the science of linguopoetics, which covers the elements of linguistics and literary studies, is written about antithesis and contrast. These tools based on opposition are analyzed on the example of Shavkat Rakhman’s poems. The extent to which Shavkat Rakhman, the National Poet of Uzbekistan, used antithesis and contrasts was analyzed. As a result, it was found that in his work, he embodies the portrait of a person mainly through the depiction of nature.*

Keywords*: Contrast, antithesis, linguopoetics, Shavkat Rakhman, lexeme, image of nature.*

Badiiy matnni til nuqtayi nazaridan tadqiq etish lingvistikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik o‘rtasida

yuzaga kelgan va har ikki sohaning elementlarini qamrab olgan fan lingvopoetikadir. Zamonaviy o‘zbek filologiyasida XX asrning birinchi yarmida badiiy asar tilini ilmiy asosda o‘rganishning boshlanishi ikki ulkan alloma-adabiyotshunos va adib *Izzat Sulton* hamda zabardast tilshunos *Ayyub G‘ulom* nomlari bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlash mumkin (Yo‘ldoshev, 2008, 12-bet). Hozirgi davrga kelib lingvopoetika bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiyalar qilinmoqda. Xususan, I. Mirzayev, Sh. Shoabdurahmonovlarning tadqiqotlari yuqoridagi so‘zimizning isbotidir. Kontrast va antiteza ayni fanning tahlil vositalaridan biri hisoblanadi.

Kontrast badiiy matn strukturasi rivoji va tashkil topishida ishtirok etuvchi kompozitsion-nutqiy vosita sifatida obrazlar va tasvir qarama-qarshiligiga asoslanadi. ***Antiteza*** esa kontrastga nisbatan torroq tushuncha bo‘lib, u ham so‘zlarning zidlanishi (antonimya)ga asoslanadi. **Antiteza** (*antithetis - qarama-qarshi qo‘yish, zidlash*) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo‘yish, zidlash hodisasiga aytiladi (Qurbonova, Yo‘ldoshev, 2014, 78-bet). Shavkat Rahmon she’rlari misolida bularga bir nechta namunalarni ko‘rib chiqsak:

“*Ibtidoiy,o‘tkir qoyalar...*
Bu tog‘larning osmoni moviy,
bunda ***gullar*** *farishtasimon,*
bunda hatto ***toshlar*** *samoviy*” (Rahmon, 1997, 25-bet).

Shavkat Rahmon “Saylanma”sidan olingan ushbu she’riy parchada ***“gullar”*** va ***“toshlar”*** leksemalari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan. Natijada lingvistikada antonimya, adabiyotshunoslikda esa qarshilantirish (tazod) san’ati yuzaga kelgan. Shoir zid ma’noli so‘zlarni qo‘llash orqali emotsionallikni ta’minlagan. Yana shunday misollardan biri:

“*Umr ham o‘tganday...*
go‘yo bir kunda
nastarin guliday ***ochilib so‘ldik***.

Bir nafis gul ko‘rdik yovuz junnda,

orzulab *ismini* ***armona*** *qo‘ydik,*

ismi jismiga mos armona bo‘ldi,

bu gulga tikilib vayrona bo‘ldik” (Rahmon, 1997, 186-bet).

Ushbu parchada ham yuqoridagi parcha singari antonimik munosabatdagi **“*ochilmoq*”** va **“*so‘lmoq*”** leksemalari antiteza bo‘lib kelgan. Ijodkor umrning o‘tishini nastarin guliga qiyoslaydi. Insonning ruhiy kechinmalarini tabiatga ko‘chirish orqali go‘zal tashbehlar qo‘llaydi. Shavkat Rahmon o‘zining faylasufona qarashlarini tabiat bilan hamohang tarzda ijodida aks ettirgan. Omon Matjon ta’rifi bilan aytganda, “she’rlarini qog‘ozga emas, yal-yal yonayotgan o‘tga yozgan ijodkorlar”dan biridir. Uning yana bir she’rida shunday deyilgan:

“*Shamolzor darada chayqaladi tun,*

Oqarishib *borar oyning pallasi.*

Qonimni qonimga tanitib qo‘ydi

qorong‘i *tunlarning*

o‘t musallasi. ” (Rahmon, 1997, 119-bet).

Ushbu she’rda adib ***“oqarishib”*** va **“*qorong‘i*”** leksemalarini qarshilantirgan va bu orqali kontrast yuzaga kelgan. Bu kontekstda kontrastning leksik-semantik turi qo‘llangan va she’rning g‘oyaviy, estetik qiymatini ta’minlashga xizmat qilgan. Bundan tashqari she’rda ***“tun chayqalishi”***, ***“oyning pallasi”*** singari ko‘chimlar qo‘llangan.

Kontrast hissiy (timsollar, tasvirlar, obrazlar) va aqliy, mavhumiy (so‘z, tushuncha, qonuniyat tariqasida) tarzda namoyon bo‘ladi hamda jismlar, hodisalar o‘rtasidagi farqlanuvchi alomatlarni mujassamlashtiradi. Bu hol inson idrokida timsolning qarama-qarshisi paydo bo‘lishiga olib keladi:

“*Men endi dunyoning aksiga emas,*

Ko‘ziga qararman devona bo‘lib,

Otashin bo‘ronday aylanar nafas,

Har lahza ***hayotdir****,*

Har lahza - ***o‘lim****.*” (Rahmon, 1997, 142-bet).

Shavkat Rahmonning yuqoridagi she'rida esa ***"hayot"*** va ***"o'lim"*** tushunchalari zidlangan. Inson idrokida mavjud ushbu antonimik juftlik biri eslanganda, boshqasi beixtiyor xayolda gavdalangani sabab biz uni antitezaga misol deb olishimiz mumkin. Ushbu kontekstda zidlangan leksemalar nafaqat she'rning estetik ta'sirchanligini va badiiyatini oshirgan, balki unga qo'shimcha tarzda pand-nasihat ruhiyatini ham yuklagan. Shoirning yana bir she'rida esa shunday deyilgan:

"*Oniy jamolidan ko'zim qamashdi,*

lahzada ***qorayib*** *qoldi* ***qorliklar****,*

Yildirim singari o'tkir qarashdan

Zaminga quladim baxtiyrlikdan." (Rahmon, 1997, 147-bet).

Ushbu parchada ***"qorayib"*** va ***"qorliklar"*** antisemiyani hosil qilgan."Qor" leksemasi nutq oqimida ifodalanganda, ongimizda uning zidi sifatida "qoraygan" tushunchasi gavdalanmaydi. Kontrast insonning salohiyati, aql-zakovati, turmush tajribasi, umumiy saviyasi, tabiat va jamiyatga nisbatan munosabatiga bog'liq qonuniyat sifatida ijtimoiy hayotda vujudga kelaveradi hamda hukm suraveradi:

*"****Past*** *daraxtlar esa*

kunni to'sdi deb,

egallab oldi deb yuksak olamni,

baland *daraxtlarning g'iybatin qilar*

har o'tgan yo'lovchi yelga zorlanib." (Rahmon, 1997, 100-bet).

Ushbu matn parchasida belgining me'yordan ortiq va kam ekanligini anglatuvchi ***"past"*** va ***"baland"*** sifatlari antitezani hosil qilgan. Bu yerda "*past daraxt*" va " *baland daraxt*" bir-biriga obraz sifatida qarshilantirilgan. Yuqoridagi misralar "*daraxtlarning g'iybat qilishi*", "*yo'lovchi yer*" singari konstruksiyalar estetik ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. Shoir yana bir she'rida esa tug'ilgan maskani tasvirini chizishda antitezadan foydalanadi:

"*Bahaybat yaproqlar diyoridaman,*

ulkandir bu yerning ***gul****-u* ***toshlari****.*

Aylanar ko'k osmon yoyilmasida

bahaybat suvlarning

gulduroslari...” (Rahmon, 1997, 98-bet).

“O‘shni kezganda o‘ylaganlarim” she’ridan olingan ushbu parchada shoir ***“gul”*** va ***“tosh”*** leksemalarini qarshilantirgan. Kontekstda ikkisini yonma-yon qo‘llash umumiy makon semasini anglatishga xizmat qilgan. Ijodkorning yana bir she’rida esa falsafiy qarashlar antitezalar orqali ifodalangan:

“***Uzoq****dan qarasang-*

moviy sayyora

rang-barang tovlanma nurdan yaralgan.

Yaqin*dan qarasang-*

boshidan-oyoq

tikonli simlarga chirmab o‘ralgan ” (Rahmon, 1997, 152-bet).

Ushbu she’riy parchada ***“uzoq”*** va ***“yaqin”*** so‘zlari antitezani yuzaga keltirgan. Semik antonim bo‘la oladigan ***“bosh”*** va ***“oyoq”*** leksemalarining juft qo‘llanishi umumiylikni ifodalagan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, badiiy asarda kontrast va antitezani qo‘llash ta’sirchanlikni oshiradi. Muallif ifodalamoqchi bo‘lgan tasvir aniqlashadi. Lingvopoetikada matnni lingvistik tahlil qilishda ijodkorning mahorati zidlantirayotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yana-da aniq ko‘rinadi. Shavkat Rahmon she’riyatida semantik jihatdan bir-biriga zid leksemalarning qo‘llanishi she’r poetik strukturasining shakllanishida ham xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonova. M, Yo‘ldoshev.M. (2014) *Matn tilshunosligi.* Toshkent: Universitet.
2. М. Йўлдошев. (2008). *Бадиий матн лингвопоэтикаси*. Тошкент: Фан.
3. Shavkat Rahmon. (1985). *Gullayotgan tosh*. Toshkent: Yosh gvardiya.
4. Shavkat Rahmon. (1997).*Saylanma.* Toshkent: Sharq.

SINXRON TARJIMA JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN ASOSIY STRATEGIYALAR

Dilnoza Shonazarova Dilshod qizi,
ToshDO'TAU TNA fakulteti,1-kurs magistranti
dilnozafsi29@mail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola sinxron tarjima jarayonida foydalaniladigan asosiy tarjima strategiyalarini o'z ichiga oladi. Maqola davomida asosan kutish, stolling, so'zlarni qoldirib ketish, ma'noni umumlashtirish, kompressiya, dekompressiya hamda bashorat qilish strategiyalari yoritib berilgan. Nazariy ma'lumotlar ingliz-o'zbek tillari misolida asoslangan.*

Kalit so'zlar. *strategiya, kompressiya, dekompressiya, stolling, bashorat qilish, asliyat tili, tarjima tili.*

Abstract. *This article defines the main strategies in the process of simultaneous interpretation. Article mainly emphasizes waiting, stalling, omission, approximation, compression, decompression and anticipation strategies. Theoretical information is based on the example of English-Uzbek languages.*

Key words. *strategy, compression, decompression, stalling, anticipation, source language, target language.*

Sinxron tarjima strategiyasi – bu tarjimon vazifasini bajarish usuli bo'lib, u nutq so'zlovchining kommunikativ niyati, ya'ni so'zlanayotgan matnning asliyat tilidan tarjima tiliga o'girish jarayonida ma'ruzachining madaniy va shaxsiy xususiyatlari, nutq mazmuni, til kategoriyalari va boshqa omillarni hisobga olgan holda adekvat tarzda tarjimani amalga oshirish hisoblanadi. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turganidek, strategiya tushunchasi nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik omillarni ham o'z ichiga oladi. Tarjimadan asosiy maqsad to'g'ri va adekvat tarjimaga erishish bo'lganligi sababli ushbu jarayonida nutqning har bir segmentida muayyan strategiyadan yoki bir vaqtning o'zida bir nechta strategiyalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Shuningdek, tarjima jarayonida strategiyalardan birini asos qilib olish ham mumkin, bu vaziyatda qolganlari qo'shimcha bo'ladi. Masalan, dastlab tanlangan strategiya kerakli natija bermagan

taqdirda, vaziyatdan chiqish maqsadida strategiya o‘zgartiriladi yoki unga qo‘shimcha boshqa strategiyadan foydalaniladi.

Tajribali tarjimonning ma’lum bir strategiyani tanlashi asosan sof avtomatik rejimda bo‘ladi. Tarjima strategiyalaridan unumli foydalanish asosan tajribaga bog‘liq. Yangi ish boshlagan sinxron tarjimon strategiyalardan foydalanishda qiyinchiliklarga uchrashi, ularni unumli ishlata olmasligi mumkin. Ammo tajriba oshgani sayin ulardan foydalanish tempi ham o‘zgarib, rivojlanib boradi.

Shuni yodda tutish lozimki, har bir tarjima strategiyasi lingvistik hamda ekstralingvistik omillar, nutq mazmuni, tempi va boshqa asosiy omillarni inobatga olgan holda, ehtiyotkorlik bilan tanlanishi lozim. Shuningdek, bir strategiya ish bermagan taqdirda, jarayondan to‘xtab qolmay birini boshqasiga o‘zgartirish orqali vaziyatni o‘nglab ketish ham tarjimon oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Aks holda, tarjimada muvaffaqiyatsizlik kuzatiladi. Quyida sinxron tarjima jarayonida ishlatiladigan asosiy strategiyalar o‘zbek-ingliz tillari misolida yoritib beriladi:

Kutish strategiyasi. Jahon tarjimasi amaliyotida, kutish strategiyasi ko‘pincha semantik fe’l jumlada oxirgi joyda joylashgan tillardan tarjimada, shu jumladan ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilganda ko‘proq foydalaniladi. Ushbu strategiyada tarjimonning asosiy vazifasi to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun iloji boricha ko‘proq ma’lumot olib so‘ngra gapirishdir. Kutish strategiyasi shundan iboratki, agar ma’no mavjud gapdan aniq bo‘lmasa, bir vaqtning o‘zida tarjimon biroz to‘xtab, matnning qo‘shimcha tarkibiy qismlarini kutadi. Sinxron tarjimon vaqtincha gapirmay kutib turganligi sababli tinglovchini noqulay holatga keltirmasa, bir necha soniya davomida pauza qilish mumkin. Sinxron tarjimon vaqtincha tarjima yetishmasligi tufayli ma’lumot oluvchini noqulay holatga keltirmasa, bir necha soniya davomida pauza qilishi mumkin (Setton, 1998, 50-bet).

Stolling strategiyasi. “Stolling – bu tarjima materialini yetkazishni sekinlashtirish yoki o‘ta uzayib ketgan pauzani to‘ldirish uchun hech qanday yangilikni o‘zida aks etmagan tematik ma’lumotni takrorlash yo‘li bilan vaqtdan yutishga urinishdir” (Jil, 1995, 130-bet). Stolling tarjimashunoslik adabiyotlarida

ko‘pincha asliyat tilida gapdagi fe’lning oxirgi o‘ringa joylashtirilishi bilan bog‘liq muammolarni hal etish texnikasi sifatida ta’riflanadi. Kutish strategiyasidan farqli o‘laroq mazkur strategiyani qo‘llashda sinxron tarjimon pauza ushlamaydi, balki uni tematik ma’lumotlar bilan to‘ldiradi, bir qator vaziyatlarda qaytariqlardan ham qochmaydi. Kutish strategiyasidagi singari vazifa kengroq kontekstga ega bo‘lish uchun vaqtdan yutishdir. Ko‘pincha stollingdan kutish strategiyasini qo‘llashning imkoni bo‘lmagan vaziyatlarda ishlatiladi. Vaqtdan yutish strategiyasi tarjimon yetarli darajada tematik ma’lumotga ega bo‘lgan va matndagi mavhum bo‘lakni shu ma’lumot bilan almashtira olishi mumkin bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi (Ismatullayeva, 2013, 34-bet).

So‘zlarni qoldirib ketish strategiyasi. Ushbu strategiyadan odatda tarjimon bir xil ma’noli va bir-biriga o‘xshash so‘zlarni ishlatishdan qochgan taqdirda foydalaniladi. Shunisi ayonki, sinxron tarjima jarayoni juda tez amalga oshadi va ushbu jarayonda iloji boricha vaqtni tejash hamda ma’noni saqlagan holda ma’lumotni qisqa va lo‘nda qilib yetkazib berish muhimdir. Masalan, gapda bir so‘z ishlatilib, unga qo‘shimcha izohlovchi berilgan yoki bir gapda sinonimlar ketma-ket kelgan hollarda ortiqcha so‘zlarni tushirib qoldirish, ya’ni tarjima qilmaslik mumkin. So‘zlarni qoldirib ketish strategiyasi eng ko‘p ishlatiladigan strategiyalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijasida ushbu strategiya umumiy sinxron tarjima jarayonida ishlatiladigan strategiyalarning 31% ini tashkil qilishi aniqlangan (Said Shiyab&Riyad Hussein, 2000, 8-bet).

Ingliz tilidagi matn	**O‘zbek tilidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima**	**Strategiyadan foydalanilgan tarjima**
Today, the COVID-19 pandemic, <u>which became a global disaster,</u> and its not only social and economic, but also spiritual and political	Bugungi kunda Covid-19 pandemiyasi <u>global miqyosda fojiaga aylangan,</u> u bizni diqqat markazimizda bo‘lib,	Bugungi kunda Covid-19 pandemiyasi bizni diqqat markazimizda bo‘lib, nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy, balki ruhiy hamda siyosiy jihatdan

consequences are in the focus of our attention.	nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy, balki ruhiy hamda siyosiy jihatdan ham ta’sir ko‘rsatmoqda.	ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ma’noni umumlashtirish strategiyasi. Bu strategiya odatda gapdagi biror bir so‘z yoki so‘z birikmasini to‘liq yoritib berishga vaqt yetmagan taqdirda ishlatiladi. Ushbu holatda bir necha so‘z bilan ifodalanishi kerak bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi o‘rniga unga muqobil bir xil yoki o‘xshash ma’no beruvchi so‘z tanlanadi. Ammo ma’noni umumlashtirish strategiyasi gap ma’nosini o‘zgartirib yubormasligi va nutq tarjimasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim. Bu strategiyadan foydalanish sinxron tarjima jarayonida gapdagi so‘zlar sonini qisqartirish hamda vaqt tejashga katta yordam beradi. Shuning uchun ham tadqiqotlarga ko‘ra, sinxron tarjima jarayonida ushbu strategiyadan 25% gacha foydalanilishi aniqlangan (Said Shiyab&Riyad Hussein, 2000, 8-bet).

Ingliz tilidagi matn	**O‘zbek tilidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima**	**Strategiyadan foydalanilgan tarjima**
They have already patched up their historical hatreds.	Ular allaqachon o‘zaro ginalardan voz kechishdi.	Ular allaqachon o‘zaro kelishib olishdi.

Kompressiya. Kompressiya sinxron tarjimadagi eng ko‘p foydalaniladigan strategiyalaridan biri hisoblanadi. U tarjimada ma’lumotni ixchamlash, uni kamroq so‘zlar bilan ifoda etish va asosiy ma’noni yetkazib berish bilan ifodalanadi. (G‘afurov&Mo‘minov&Qambarov, 2012, 176-bet). Shuni yodda tutish lozimki, kompressiyada gap hajmini qisqartirish jarayonida gap mazmuni buzilmasligi va asosiy mazmun saqlab qolinishi lozim. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinganda sintaktik, lug‘aviy va semantik kompressiya yuz berishi mumkin.

Ingliz tilidagi matn	**O‘zbek tilidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima**	**Strategiyadan foydalanilgan tarjima**

In particular, attention should be given to the use of appropriate and immediate technology where possible.	Ayniqsa, zarur bo‘lganda kerakli va o‘rtacha texnologiyalarning foydalanilishiga e’tibor qaratilishi kerak.	Kerakli va o‘rtacha texnologiyalarga e’tibor qaratilishi kerak.

Dekompressiya. Sinxron tarjimadagi dekompressiya usuli ingliz va rus tillarida ma’noni kengaytirish (expansion) so‘zi orqali ham ifodalanadi (Chernov, 1987, 156-bet). Ushbu strategiya kompressiya strategiyasining aynan teskarisi hisoblanadi. Bu jarayonda gapdagi so‘zlarni yanada aniqroq ifoda qilish maqsadida qo‘shimcha so‘zlar qo‘shib tarjima qilish holati kuzatiladi. Tabiiyki, bu strategiyadan har doim ham foydalanib bo‘lmaydi. Undan tarjima jarayonida vaqt yetarli bo‘lganida, nutq so‘zlovchi pauza qilganda yoki qulay imkoniyat bo‘lganda foydalanish tavsiya qilinadi.

Ingliz tilidagi matn	**O‘zbek tilidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima**	**Strategiyadan foydalanilgan tarjima**
Over the last two decades, this Forum has become a meeting point for business and politics.	Oxirgi 20 yil ichida ushbu forum biznes va siyosat yonma-yon keladigan manzilga aylandi.	Oxirgi 20 yil ichida ushbu forum biznes va siyosiy soha yetakchilari yonma-yon keladigan manzilga aylandi.

Bashorat qilish strategiyasi. Sinxron tarjimada bashorat qilish strategiyasi gapdagi ba’zi so‘z yoki so‘zlarning nutq so‘zlovchi tomonidan aytilmasidan turib taxmin qilib aytilishidir. Ehtimoliy bashorat strategiyasi tarjima adabiyotlarida asosan fe’l so‘nggida turuvchi konstruksiyalar yoki tayanch ot tushunchasi ma’noli guruhning so‘nggida joylashgan vaziyatlar uchun qo‘llanishi mumkin bo‘lgan strategiya sifatida ta’riflanadi (Cetton, 1997, 53-bet). Ayniqsa bir til olasiga

mansub bo‘lmagan tillar, masalan, o‘zbek-ingliz tillari juftligida gaplarning sintaktik tuzilishi butunlay farq qiladi. O‘zbek va ingliz tillaridagi gapning sintaktik tuzilishidagi farq quyidagi jadvalda ifodalangan:

Til	**Gap tartibi**
Inglizcha	ega+kesim+to‘ldiruvchi
O‘zbekcha	ega+to‘ldiruvchi+kesim

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, agar tarjimon o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilayotgan bo‘lsa, u egani eshitgandan so‘ng ingliz tiliga fe’lni tarjima qilishi kerak bo‘ladi. O‘zbek tilida fe’l gap oxirida kelgani sababli esa, uni uzoq kutib turish oradagi boshqa gap qismlarining unutilib qo‘yilishiga olib keladi. Shuning uchun ham bu vaziyatda tarjimon fe’lni bashorat qilishga harakat qiladi.

O‘zbekcha matn	**Inglizcha matn**	**Izoh**
Hukumat ta’lim sohasida maxsus qaror qabul qildi.	Government adopted a special resolution on education.	Ushbu gapda tarjimon ta’lim so‘zini eshitishi bilanoq avtomatik ravishda qaror qabul qilmoq so‘zini bashorat qiladi.

Sinxron tarjimon sohada ishlashi va ko‘proq ma’lumot bilan tanishgani sari uning tarjimani bashorat qilish mahorati ham oshib boradi. Professional sinxronistlar ushbu soha bilan chuqur tanish bo‘lishadi, shuning uchun ham ularning bashorat qilish jarayoni yanada muvaffaqiyatli amalga oshadi. Ba’zi hollarda ushbu strategiya ish bermay qolishi, ya’ni bashorat qilingan so‘z to‘g‘ri bo‘lib chiqmasligi ham mumkin. Bu kabi hollarda tarjimonga gapdagi xatoni to‘g‘irlab ketish maslahat beriladi.

Xulosa qilib aytish shuni aytish mumkinki, sinxron tarjima jarayonida strategiyalardan foydalanish ish ko‘lamini yaxshilash va yanada sifatli tarjimani amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, qaysi strategiyadan foydalanilganiga qarab, ular ish jarayonini yanada osonlashtirish, tarjima jarayonida pauza qilishdan saqlanish, ma’noni yanada aniqroq ifodalab berish,

so‘zlarni tushirib qoldirish yoki ma’noni umumlashtirish orqali vaqtdan yutish kabi imkoniyatlarni ham yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismatullayeva, N. (2013). *“Sinxron tarjima masalalari”* (ma’ruza matnlari). (34-bet). Toshkent.
2. G‘afurov, I., & Mo‘minov, O., & Qambarov, N. (2012). *“Tarjima nazariyasi”.* (176-bet). Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni.
3. Said Shiyab, & Riyad Hussein. (2000). *‘On the Use of Compensatory Strategies in Simultaneous Interpretation.’* (pp. 8-9). Meta.
4. Setton, R. (1998). *‘Meaning Assembly in SI.’* (pp. 50).
5. https://president.uz/en/lists/...

“DEVONI LUG‘OTIT TURK” DAGI MALAKA HOLATI FE’LLARI

Eshboyeva Shoira Bakir qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi 3-kurs
eshboevashoira@gmail.com

Annotatsiya. *Qadimgi turkiy til davrida ham fe’l boshqa barcha so‘z turkumlariga nisbatan murakkab, semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriya hisoblangan. Ushbu maqolada “Devoni lug‘otit turk”dagi malaka holati fe’llari “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilgan fe’llarga qiyoslagan holda o‘rganildi. Davr taraqqiyoti natijasida leksemalar semasida ma’lum o‘zgarishlar, ya’ni ayrim so‘zlarda ma’no kengayishi yoki torayishi yuzaga kelganligi kuzatildi.*

Kalit so‘zlar. *lug‘at, fe’l, holat fe’llari, harakat fe’llari,ob’ekt, sub’ekt.*

Abstract. *Even in the period of the ancient Turkic language, the verb was considered the most complex, semantically diverse grammatical category compared to all other word groups. In this article, verbs in the “Devoni lug‘otit turk” were studied in comparison with the verbs listed in “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” and “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. As a result of the*

development of the period, it was observed that certain changes in the lexeme scheme, that is, the expansion or narrowing of the meaning of some words.

Keywords: *vocabulary, verbs, state verbs, action verbs, object, subject.*

Fe’l boshqa barcha so‘z turkumlariga nisbatan enga amaliy, eng murakkab va ayni vaqtda semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriyadir. O‘zbek tilshunosligida fe’l so‘z turkumi bo‘yicha juda ko‘p ishlar qilingan. Biroq shunga qaramay, fe’l turkumida hali to‘la hal etilmagan, munozarali masalalar, mohiyati yetarli ochilmagan hodisalar anchagina bor.

Fe’llar harakat ma’nosini bildiruvchi so‘zlardir. Grammatikada harakat tushunchasi juda keng bo‘lib, *uxlamoq, yotmoq, turmoq* kabi fe’llar ifodalaydigan holatlarni, *ko‘rmoq, cho‘chimoq, zavqlanmoq, qahrlanmoq* kabi fe’llar bildiradigan pisixik o‘zgarishlarni, *gullamoq, o‘smoq* kabi fe’llar bildiradigan biologik jarayonlarni va shu kabi hodisalarni o‘z ichiga oladi. Bulardan har birining o‘ziga xos xususiy tomonlari bo‘lishi bilan bir qatorda ularning hammasi uchun umumiy bo‘lgan tomoni ham bor, ya’ni bularning hammasi zamon bilan bog‘liq holda yuz beruvchi hodisa hisoblanadi(Hojiyev,1973,4).

Ushbu maqolada qadimgi turkiy tilda qo‘llangan holat fe’llari, ya’ni malaka holati fe’lini o‘rgandik. XI asr obidasi bo‘lmish “Devoni lug‘otit turk” asari leksikasini tarixiy jihatdan o‘rganish jarayonida yodgorlikda keltirilgan fe’l so‘z turkumiga oid leksemalarning ko‘pchiligi harakat fe’llari ekanligining guvohi bo‘ldik. Shu o‘rinda, devonda holat fe’llari ham o‘rin olgan. O‘zbek tilidagi holat fe’llari ob’ektiv asosiga ko‘ra tabiat va jamiyatdagi, o‘simliklar va hayvonot olamidagi, inson biologiyasi, fiziologiyasi va psixikasi bilan bog‘liq muayyan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Demak, holat fe’llari moddiy asosiga(ob’ektiga) ko‘ra kengligi va murakkabligi, materiyaga xos turlicha holatlarni o‘ziga “joylashtirishi” bilan boshqa semantik maydonga kiruvchi fe’l leksemalardan ajralib turadi. Holat fe’llari ma’nosida reallashuvchi holat muayyan logik sub’ekt doirasidagina sodir bo‘lishi, undan tashqariga chiqmasligi, unda qolishi bilan xarakterlanadi. Holat fe’llari holat ifodalaydi, kimdir(nimadir) muayyan holatda bo‘ladi(Rasulov,1989,19-bet). Holat fe’llari nutqda faol qo‘llanadi, chunki ular

borliqdagi narsa-predmetlarga, shaxsga, hayvonga xos turlicha holatlarni ifodalaydi. Bundan tashqari, ular murakkab semantik strukturasi bilan ham ajralib turadi. Shunga ko‘ra ular ma’noviy guruhlarga ajratilgan.

Malaka holati fe’llari jonli mavjudotda biror harakat-hodisaga, predmetga nisbatan paydo bo‘lgan muayyan munosabatni, shakllanib, mustahkamlanib doimiy, davomiy xususiyatga aylangan ko‘nikma, o‘zlashtirilgan odatni anglatadi. Bunday ko‘nikma, odatlar asosan insonga xos muhim xususiyat sifatida baholanadi. Ular inson xarakterining bir ko‘rinishi, voqe bo‘lishidir. Malaka holati fe’llari quyidagilar: *odatlanmoq, ko‘nikmoq, o‘rganmoq*(Rasulov,1989,24-bet).

“Devoni lug‘otit turk”da boshqa holat fe’llariga qaraganda malaka holati fe’llari kam ekanligining guvohi bo‘lamiz. Devonda ikki o‘rinda kelgan va bu so‘zlar ham o‘zaro sinonim. Bular: **öграндї-** va **jэрсінді-** fe’llaridir. Har ikkala fe’l ham “o‘rganmoq” ma’nosida kelgan. Birinchi so‘z biror bir narsani o‘rganmoq ma’nosida: ол білік öграндї – *u ilm, hikmat o‘rgandi*(DLT,I,253-bet). Bundan tashqari, biror bir hunarni o‘rganishga ham shu so‘z qo‘llangan. Ikkinchisi esa biror joyga moslashmoq, o‘rganmoq ma’nosini ifodalagan: эр jэріг jэрсінді – *odam bir yerga joylashib oldi, u yerga o‘rgandi*(DLT,III,119-bet). Ushbu so‘zlarning birinchisi o‘zgarishsiz holda saqlanib, nafaqat Navoiyning davrida, balki hozir ham xuddi shu shaklda faol qo‘llanib kelmoqda. Ikkinchi shakli esa hozirda iste’moldan chiqqan.

XV asrga kelib “o‘rganmoq” fe’li o‘zida ikki xil semani jamlaganining guvohi bo‘ldik. Ya’ni Alisher Navoiy ham o‘zining asarlarida ushbu fe’ldan keng foydalangan va xuddi shu ma’nolarni ifodalash uchun qo‘llagan:

Ta’lim olmoq:

…tong erta qori qoshig‘a borib, qiroat o‘rganar erdim.

Ilm o‘ldi sharaf din aro har oying‘a,

Bormoq bo‘lur o‘rgangali ani Ching‘a.

Biri ulkim, ilm o‘rganurga ranj tortti-yu, amal qilmadi… nasriy asarlarida ham, devonlarida ham ilm o‘rganish ma’nosini ifodalab kelyapti. Ikkinchi holatda esa:

Odat qilmoq, o‘rganmoq:

Ey ko‘ngul, ul otashin orazg‘a ko‘p o‘rganmagil,

Nogah ayrilsa, firoqi o‘tig‘a o‘rtanmagil(ANATIL,III,611-bet). Ya’ni biror shaxsga yoki joyga o‘rganib, moslashib qolish nazarda tutilgan.

Har bir til yillar o‘tishi bilan sayqallanib boradi. Ba’zi leksemalar semasi torayishi, yoki aksincha kengayishi mumkin. O‘rganilayotgan so‘zning to‘rt asr davomida bir xil ma’no ifodalab kelganining guvohi bo‘ldik. Ammo hozirgi kunda ushbu so‘z semasida kengayish yuzaga kelgan. Mahmud Qoshg‘ariy ushbu so‘zning ikki xil ma’nosini ko‘rsatgan bo‘lsa, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da besh xil ma’no ifodalashi ko‘rsatilgan:

1. Bilim, kasb, ish va shu kabilarni o‘zlashtirmoq, egallamoq, bilib olmoq. *Ishni oddiy betonchilikdan boshlagan o‘smir asta-sekin kerakli kasblarning hammasini o‘rganib oldi.*

2. Siri, mohiyati, mazmuni va shu kabilarni aniqlash, belgilash maqsadida tekshiruv, kuzatuv, tahlildan o‘tkazmoq. *Bu dalillarni sinchiklab o‘rganib, Quyoshning nisbatan tinch paytida kosmik nurlanish yerdan uzoq joylarda kishi uchun xavfli bo‘lmasligi kerak, degan xulosaga kelish mumkin.*

3. G‘ayritabiiy, noqulay kabi tuyilmaydigan holga aylanmoq, shunday sezilmoq, qabul qilmoq. *Xalq bunga haqli edi, chunki bunday tinchsizliklarni ko‘ra-ko‘ra juda o‘rganib qoldi.*

4. Odat qilmoq. *To‘qqizinchiga o‘tguncha ichishni, chekishni o‘rgandim.*

5. O‘zini yaxshi aloqada tutmoq, moslashmoq, bog‘lanib (“o‘ziniki bo‘lib”) qolmoq. *Xola bir-ikki kun ichida yangi sharoitga o‘rgandi, qo‘shnilar bilan tanishdi*(O‘TIL,V,178-bet).

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, davrlar o‘tishi bilan leksema semasi kengayib boradi. XI asrda bir so‘z bir yoki ikki ma’noni anglatgan bo‘lsa, Navoiyning davriga kelib bu so‘zlarni yanada kamroq o‘rinlarda ishlatishgan. Ayniqsa, hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa bu so‘zlar o‘z ma’nosidadan tashqari ko‘chma ma’nolarda ham qo‘llanilayotganiga guvoh bo‘lamiz. Har bir so‘z dastlab muayyan bir ma’noni ifodalaydi. Keyinchalik tarixiy taraqqiyot, fan texnikaning

takomillashuvi, semantik ko‘chish natijasida qo‘shimcha yangi semalar kasb etib, iste’mol doirasi kengayib boradi. Binobarin, ko‘p ma’nolilik til rivojida katta o‘rin tutib, uning lug‘at tarkibining boyishiga ulkan hissa qo‘shadi. XI asrda bir so‘z bir yoki ikki ma’noni anglatgan bo‘lsa, hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa bu so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’nolarda ham qo‘llanilayotganiga ham guvoh bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. III tom. (1983). Toshkent.
2. Hojiyev A. (1973). Fe’l. Toshkent.
3. Rasulov R. (1989). O‘zbek tilida holat fe’llari va ularning obligator valiantliklari. Toshkent.
4. Qoshg‘ariy M.(1960). Devoni lug‘otit turk. I tom. Toshkent.
5. Qoshg‘ariy M.(1960). Devoni lug‘otit turk. III tom. Toshkent.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V tom. (2007). Toshkent.

“QISSASI AR-RABG‘UZIY” ASARIDA KELISHIKLAR KATEGORIYASI

Habibullayeva Sunbula Vohid qizi Alisher

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs

habibullayevasunbula@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada eski turkiy til davri (XIII-XVI asrlar) manbasi bo‘lmish asar tarkibidagi kelishiklar kategoriyasi, ularning o‘ziga xosligi, kelishiklarning qo‘llanilishi va ularning turli variantlari gaplar misolida o‘rganildi. Har bir kelishik qat’iy bitta qo‘shimchaga ega. Shu qo‘shimchaning turli variantlari esa farq qiladigan yoki qolganlariga zid ma’noni anglatish uchun xizmat qiladigan shakllar emas balki ularning variantlaridir. Maqolada kelishiklar variantliligini va o‘ziga xosliklarini “Qissasi Rabg‘uziy” asari misolida, turli gaplar tarkibida ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *Qissasi Rabg‘uziy, kelishiklar kategoriyasi, eski turkiy til davri, variantlilik.*

Abstract. *In this article, the category of conjunctions in the work, which is the source of the old Turkic language period (XIII-XVI centuries), their uniqueness, the use of conjunctions and their various variants were studied on the example of sentences. Each conjugation has exactly one suffix. The different variants of this suffix are not forms that differ or serve to mean the opposite of the rest, but their variants. In the article, the variants and peculiarities of the conjunctions were considered in the composition of different sentences using the example of the work "Rabguzi's Story".*

***Keywords**: Rabguzi's short story, category of conjugations, Old Turkic period, variation.*

Manbalardagi grammatik xususiyatlar orqali muallifi bo‘lmasada biz manbani qaysi davrga va asrga tegishli ekanligini bilib olishimiz mumkin. Shu jumladan kelishiklar tizimi ham manbaning qadimgi turkiy til, eski turkiy til yoki hozirgi o‘zbek adabiy tili davrlaridan biriga tegishli ekanligini aniqlashda yordam beruvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Kelishiklar gapda otning yoki otlashgan so‘zning fe’lga ba’zan boshqa so‘z turkumiga munosabatini ifodalaydigan fo‘rmalardir. Eski o‘zbek tilida hozirgi o‘zbek tilidagidek, 6 ta kelishik shakli saqlangan. Turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlari uchun xarakterli bo‘lgan vosita kelishigi shakli XIII-XIV asrlarga oid yozma yodgorliklar tilida ham ma’lum darajada qo‘llangan. XV asr va undan keyingi davrlarda vosita kelishigining qo‘llanishi ancha chegaralangan bo‘lib, o‘zining grammatik xususiyatini yo‘qotgan va kelishik kategoriyasi sifatida iste’moldan chiqqan.(Ashirboyev, Azimov, 2012, 17- bet).

Turkiy tillardagi kelishiklar tizimi haqida X.A.Dadaboyev, Z.T.Xolmominovaning “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”dan, eski o‘zbek tili davrida kelishiklar kategoriyasi haqida Ashirboyev S., Azimov I. “o‘zbek tilining tarixiy grammatikasi” o‘quv qo‘llanmasidan, “Qissasi Rabg‘uziy” asarining til xususiyatlari, leksikasini esa Baxtiyor Abdushukurovning “o‘zbek adabiy tili tarixi”, “Eski turkiy adabiy til leksikasi” kitoblaridan ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Ularga asoslangan holda maqolada

Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asaridagi kelishiklar tizimi, ularning qo‘llanilishi va variantliligini ko‘rib chiqamiz.

“Qissasi Rabg‘uziy”da **qaratqich kelishiginig** *–ning, -nung* va ba’zi o‘rinlarda *-ung* shakllari uchraydi.

*-ning. Yilon Odam va Havvoning taxtinda o‘tru kelib to‘ruqdi, og‘zi**ning** tili oltinda Iblis so‘zladi.*

*-nung. Mavlo azza va jalla qamug‘**nung** ko‘nglinga dushman qildi.*

*-ung. Nuh Iblisni kemi ichinda ko‘rdi ersa aydi: «Ey mal’un, kim**ung** farmoni birla kirding?».*

Qaratqich kelishigining qo‘llanishi haqida Ashirboyev S., Azimov I. o‘zining “o‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”o‘quv qo‘llanmasida quyidagilarni yozgan: *-ning*. Mazkur qo‘shimcha har qanday negizlarga qo‘shila beradi. *–nung*. Qaratqich kelishigining bu varianti oxirgi bo‘g‘inda lablangan unlilar qatnashgan negizlarga qo‘shiladi. *-ung*. Bu qo‘shimcha kim olmoshi bilangina qo‘llangan.

Asarda **tushum kelishigining** *–ni -n*, hattoki *-ng* va *-un* variantlarini ham ko‘rishimiz mumkin.

*-ni. Nuh payg‘ambar yilon**ni**, chizon**ni** kemaga izmadi, Odamg‘a sizdin zarar tegar teb.*

-n. Bu qo‘shimcha varianti eski o‘zbek tilida ancha faol qo‘llangan. Lekin u III shaxs egalik qo‘shimchasidan keyin qo‘shilgan(Ashirboyev, Azimov, 2012, 18-bet).: *Odamnung kolbati**n** kelturdi kemiga qo‘zdi.*

*-ng. Amoliqa malik ul xabarni bilib yavloq qo‘rqti. Fir’avn halok bo‘lg‘ani**ng** (bo‘l+gan+i+ng yani ni) eshitmish erdi.*

-un. Ikki o‘g‘li birla erdi, bo‘ri yedi birisin,

*Birni baliq eltdi ko‘rdi ani o‘zi o‘z ko‘z**un**.*

Jo‘nalish kelishigining *–ga, –g‘a, -ka, -qa* hattoki *-u, -da* variantlarini uchratamiz.

*-ga. Solih kishilarin uru boshladilar. «Solihni biz**ga** ko‘rguzu bering», tedilar.*

*-ka. Yana aymishlar: Bo‘zchilik ezgu sino‘at turur. Qamug‘ o‘luk**ka** va tirik**ka** yarar.*

-*g‘a, -qa*. varianti unli va jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi, –qa qo‘shimchasi jarangsiz undoshlar va *g‘, h* undoshlari bilan tugagan negizlarga qo‘shiladi(Ashirboyev, Azimov, 2012, 19-bet).: *Tikonlik yerga tushti, anlarga qarg‘adi. Yana aymishlar: tering suv**g‘a** yo‘l boshladilar; Shayx**qa** o‘tru chiqdi. Olim aydi: «Ey shayx kelmaging bizga sevinch bo‘ldi».*

-*u. Qamug‘ sajda qil**u** kirdilar Shom xalqi nazzorag‘a turdilar.*

-da. *YORLIG‘ bo‘ldi: otalaringiz yeri Shom viloyati turur an**da** (o‘sha yerga, u yerga) boring.*

Yanada qiziqarli tomoni shundaki, Rabg‘uziy asarida bir gapning o‘zida jo‘nalish kelishigining ikki xil shaklini qo‘llaydi. Misol uchun: *Bani Isroil umonchi ul erdi, Misr**g‘a** kirgaymiz qolg‘an qibtiylarni qul qilg‘aymiz, ular biz**ga** na qildilar ersa bizma anlar**g‘a** qilg‘aymiz.*

O‘rin-payt kelishigi faqat *–da* shaklida qo‘llangan: *Shisg‘a bo‘zchilik o‘gratu berdi, qamug‘ hirfalarda ungay teb. «Ev ichin**da** ko‘lka**da** o‘lturub ishlagil», tedi*.

Chiqish kelishigi faqat *–din* shaklida ifodalangan: *Yana aymishlar: Maryam ona raziyallohu anho juhudlar**din** qochmishda bo‘zchilar**din** yo‘l so‘rdi. Yovuz yo‘lg‘a yo‘lchiladilar.*

Yana muhim ma’lumotlardan biri eski turkiy til davrida chiqish kelishigining -din va -tin variantlari birgalikda qo‘llangan bir paytda ushbu asarda faqat –din shaklidan foydalanilgan.

Shu bilan bir qatorda asardagi qaratqich va tushum kelishiklarini belgisiz qo‘llanishlariga ham guvoh bo‘lishimiz mumkin.

*Qobilning o‘fkasi keldi, aydi: «Men Hobilni o‘lturayin. Qiz **(ni)** yema, xalifaliq **(ni)** yema manga qolsun», teb.*

*Fir’avn **(ning)** urug‘i yo‘q erdi, Fir’avndin so‘ng Homon yetti yil tirildi. Andin so‘ng o‘ldi.*

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, eski turkiy til davrida kelishiklarning variantlarga boy ekanligi “Qissasi Rabg‘uziy” asari misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Asar o‘zining leksik, morfologik jihatlari bilan bir

qatorda morfemik xususiyatlari bilan ham tilshunoslik uchun muhim manba, yirik tadqiqot obyekti bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdushukurov B. (2020) “O‘zbek adabiy tili tarixi”.Toshkent

2. Abdushukurov B. (2015) “Eski turkiy adabiy til leksikasi”.Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”

3. Dadaboyev X., Xolmominova Z. (2015) “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”. Toshkent

4. Аширбойев С., Азимов И. (2012) Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси (ўқув қўлланма).Тошкент: ТДПУ

“BOBURNOMA”DAGI UY HAYVONLARI TADQIQI

Kenjayeva Dildora Eshmamatovna,
ToshDO‘TAU Lingvistika mutaxassisiligi 2-kurs magistranti
k.dildora@bk.ru

Annotatsiya:*Ushbu maqolada “Boburnoma” matnida uchraydigan uy hayvonlarining qo‘llanishidagi farqli va o‘xshash xususiyatlar ochib beriladi. Asardagi uy hayvonlari qo‘llangan o‘rinlar keltirilib, ularning qisman etimologiyasi ham keltiriladi. Maqola lug‘atlar bilan taqqoslangan holda yozilgan.*

Kalit so‘zlar: *Uy hayvonlari, ot, it, mushuk, sigir, ho‘kiz, qo‘y, qo‘chqor, eshak, xachir.*

Abstract: *This article explores the similarities and differences in the use of domestic animals in the “Boburnoma” text. The places where pets are used in the play are given and their partical etymology is also given. The article is written in comparison with dictionaries.*

Keywords: *Home animals, hours, dog, cat, cow, ox, oven, ram, donkey,mule.*

“Boburnoma” memuar hamda qomusiy manba hisoblanadi. Unda yigirmadan ortiq sohaga doir muhim ma’lumotlar qayd etilgan bo‘lib, bu faktar shu sohalar tarixini yoritishda muhimligi barobarida ma’lum ma’noda ularning taraqqiyotiga ham xizmat qiladi (Xolmonova, 2021, 30-bet). Hayvonlar nomini bildiruvchi terminlar yuzasidan olib borilgan ishlar, jumladan, A.M.Sherbak tadqiqotlarida

zooniyoshi, jinsi va zotiga qarab xilma-xil bo‘ladi. Bu farqlanish faqat xo‘jalik ishlarida foydalaniladigan hayvonlarda kuzatilishi, boshqa boshqa hayvonlarda bunday toifalanish kuzatilmaydi (Xolmonova, 2021, 257-bet). “Boburnoma”da uy hayvonlarining nomlanish jarayonini quyidagi ma’lumotlar asosida taqdim etamiz.

Ot qadimgi turkiy xalqlarda ot-ulov vazifasini bajarib, asar matnlarida o‘zgarishsiz shaklda uchraydi. Kelib chiqishi *at, aqta=ot* so‘zi, *atan* “bichilgan tuya” so‘zlariga bog‘langan (Abdushukurov, 2020, 21-bet). O‘zbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan: at>ât (Rahmatullayev, 2006, 258-bet). “Boburnoma”da ot ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Samarqand qamalida: *“Otqa bo‘g‘uz kam yoft bo‘ldi. Anda tajriba bo‘ldikim, bori yafroqlardin tut yafrog‘i qaro yig‘och yafrog‘i otqa sozvorroq emish”*-ma’lumoti beriladi. Shuningdek, Kobulda bo‘taka o‘tining Andijonda butka o‘ti deyilishi, ot uchun yaxshi yemishligini aytadi (“Boburnoma”, 1960, 198-bet). Boburga bo‘ysungan beklarning tuhfalarida ot asosiy o‘rinda bo‘lgan: *“to‘qquz ot (bir kechimlik ot) va uch yuz shohruhiy peshkash qilib ko‘rdilar”* (“Boburnoma”, 1960, 289-bet), *“bir kejimlik ot peshkash kelturub, mulozamat qildi”* (“Boburnoma”, 1960, 290-bet). Ot eng yaxshi sovg‘a sifatida tortiq qilingan. Yana bahodirliq oti, tupchoq (chopqir) ot, egarlik ot shakllarida ham kelgan. Kark otga o‘xshatilgan: *“O‘zga hayvonottin otqa mushohabati ko‘praktur. Nechukkim, otning uluq qorni bo‘lmas, muning ham uluq qorni yo‘qtur, nechukkim, otning oshuq o‘rnida parcha so‘ngagi bo‘lur, muning ham oshuq o‘rnida parcha so‘ngagi bor; nechukkim otning ilgida kumuk bo‘lur”* (“Boburnoma”, 1960, 345-bet). Nilagov otga qiyoslangan: *“Yana nilagovdur, balandligi otcha bo‘lg‘ay, otdin bir nima inichkaraktur”* (“Boburnoma”, 1960, 346-bet). Ot yakka tuyoqlilarga mansub o‘txo‘r, sutemizuvchi yirik ish-ulov hayvoni sifatida berilgan (O‘TIL, 2006, 150-bet).

It qadimgi turkiy tilda *iyt* shaklida aytilgan y undoshi talaffuz qilinmay, i unlisi cho‘ziq aytilib, keyinroq bu ham yo‘qolgan: *iyt>i:t> it*. “Nariga surilgan” ma’nosini anglatgan *iyt* fe’liga bog‘lanadi (Rahmatullayev, 2006, 126-bet). Zoonim *ït, it*, arabcha *kalb* shakllarida bo‘lgan (Abdushukurov, 2020, 10-bet).

“Boburnoma”da it tarzida keladi. Hind qushi shapparaning *“boshi itning kuchuguning boshiga o‘xshar”* (“Boburnoma”, 1960, 351-bet) deyiladi. Kuchuk itning bolasi ma’nosini anglatgan. Qadimgi turkiy tilda va Navoiy asarlarida ham *kučük* shaklida qo‘llangan. *Kuč-Küč* so‘zi qadimda “it” ma’nosini bildirgan (Abdushukurov, 2020, 10-bet). Forscha o‘zlashma bo‘lgan kuchuk kichkina; mayda; kichik yoshli ma’nolarini bildirib, itning bolasi, yetilmagan yosh it ma’nosini bildiradi (O‘TIL, 2006, 442-bet). Kuchuk zoonimi ba’zi shevalarda aynan it o‘rnida ma’nodosh sifatida ishlatiladi. Samarqand qamalida: *“...faqir va miskin it etini, eshak etini yiya kirishtilar”* (“Boburnoma”, 1969, 148-bet). Bobur ovqatdan zaxarlanganda, it orqali aniqlangan: *“...ul qayni itga berib, itni saxlag‘aylar. Tonglasig‘a bir pahra(uch soat)ga yovuq it beholroq bo‘lub, qorni dam qilg‘ondek bo‘ldi…”* (“Boburnoma”, 1960, 376-bet). It uy-ro‘zg‘orni qo‘riqlash, ov qilish maqsadlarida saqlanadigan to‘rt oyoqli sutemizuvchi uy hayvoni hisoblanadi (O‘TIL, 2006:240).

Mushuk kichik kemiruvchi jonivorlar bilan oziqlanuvchi mushuk *miškič, muš* shaklida *kök* va *kövük* so‘zlari bilan “erkak mushuk” ma’nosini bildirgan: *kök muš, kövük muš.* Uning *müšük, möšük*, *müšük* shakllari bo‘lib, B.Abdushukurov qarashicha, *muš* shakli *piš-piš, miš-miš* vokativ so‘ziga aloqador deb hisoblaydi (Abdushukurov, 2020, 8/9-bet). “Boburnoma” matnida mushuk tarzida ikki o‘rinda keladi. *“Ro‘bai parron bir jonivordir, mushukdin uluqroq, ikki qo‘li bila ikki butining orasida pardadur..*” (“Boburnoma”, 1960, 193-bet). Xuki obiy o‘xshatiladi: *“suvda o‘ynar vaqt mushuk yo‘sunluq ko‘rinadur”* (“Boburnoma”, 1960, 352-bet). Hozirgi adabiy til variantida mushuksimonlar oilasiga mansub, yirtqich sutemizuvchi (O‘TIL:240)) sifatida barqaror.

Qo‘y turkiy xalqlarda mayda shoxli hayvonlarning umumiy nomini ham anglatgan. *Qoyïn*, *qoy, qon, qoyun* shakllarida bo‘lgan. *Qonun (qon)* umumoltoy shakli –un kichraytirish ma’nosini ifdalagan (Abdushukurov, 2020, 32/33-bet). Uning *qoj* shakli bo‘lib, keyinchalik, *qoj, qoy* shakllari ma’noda farqlanib, *qoy* “sovliq” ma’nosini, *qoj* “qo‘chqor ” ma’nosini anglata boshlagan (Rahmatullaev,

2008, 583-bet). “Boburnoma”da sovg‘a sifatida asosiy o‘rinda bo‘lgan. *“...o‘n sekkiz ming qo‘yni qo‘rg‘ondag‘i yigitlarga…yigitlarning ko‘chlarig‘a ulashti”* (“Boburnoma”, 1960, 111-bet). *“Bir peshkash qilg‘onda qirq ming qo‘y peshkash qildi”* (“Boburnoma”, 1960, 101-bet). O‘lja sifatida qo‘y olingan: *“yuz mimgdan ortuqroq qo‘y va uch mingga yovuq teva olib keldilar”* (“Boburnoma”, 1960, 115-bet). Hind tabiati o‘simliklarining ba’zi xususiyatlari qo‘yning a’zolariga mengzalgan. Kayla(banan) daraxtning *“uluq g‘unchasi qo‘y yuragi vaz’liqdur”* (“Boburnoma”, 1960, 353-bet), kadhil daraxtining mevasi: *“...biaynihi qo‘yning qornidurkim, kissadek qorinning ichi tashqari bo‘lg‘ay”* (“Boburnoma”, 1960, 354-bet). Sepsorning *“yo‘g‘onligi qo‘ycha bo‘lg‘ay, mundin uluqroq ham bo‘lur emish…”* qiyosi ham bor (“Boburnoma”, 1960, 351-bet). Qo‘y go‘sht, jun, sut va terisi uchun boqiladigan juft tuyoqli, kavsh qaytaruvchi sutemizuvchi uy hayvoni hisoblanadi, muchal yilining sakkizinchisi: go‘spand (O‘TIL, 2008, 398-bet).

Sigir zoonimi *sïğïr, sağïr, sïyr, sigir* ko‘rinishlarida bo‘lgan. U “buqa”, “ho‘kiz”, “umuman qoramol” (*yïlqï qara)* ma’nolarini bildirgan. *Iŋäk* termini ham shevalarda sigirni bildiradi (Abdushukurov, 1960, 40-bet). “Urg‘ochi qoramol” ma’nosida qadimgi turkiy tilda ham bo‘lib, asli *sыg‘ыr* tarzida talaffuz qilingan: *sыg‘ыr>sigir* (Rahmatullayev, 1960, 284-bet). “Boburnoma”da sigir forscha *govmish* so‘zi orqali ifodalangan:*“qalin gov va govmish tushdi”* (“Boburnoma”, 1960, 205-bet). *“...govmish kelturub, jangalga solib, sherni chiqarg‘aylar”* (“Boburnoma”, 1960, 298-bet). *“...gov va govmish o‘ljasig‘a tog‘din va tuzdin jat va kajur behad va beqiyos kelur edi”* (“Boburnoma”, 1960, 325-bet). *“Yana karkdur; ..zaxomati uch govmishcha bo‘lg‘ay”* (“Boburnoma”, 1960, 345-bet). *“Yana sahroyi govmishdir. Bu govmishdin xili uluqroqdur. Shox shu govmishning shoxidek keyinga boqa yotuq emastur”* (“Boburnoma”, 1960, 346-bet). *“Biri sheri obiydur, ..kishini va balki govmishni olur emish”* (“Boburnoma”, 1960, 351-bet). “Boburnoma”da gov “ho‘kiz”, govmish “sigir” ma’nosida kelgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida forscha: gov sigir (O‘TIL, 2006, 508-bet), govmish yirik shoxli hayvon; ho‘kiz ma’nosini anglatadi. Zotli, sersut sigirga nisbatan qo‘llanadi

(O‘TIL, 2006, 508-bet). *Govvos* forscha ohu, shohdor kiyik, bug‘u ma’nosini ifodalab, katta sigirga nisbatan ham qo‘llanadi (O‘TIL, 2006, 508-bet).

Ho‘kiz “bichilgan qoramol” ma’nosiga ega *öküz, ögüz*, A.Navoiy asarlarida hozirgi shaklda uchraydi. S.Mutallibov XI asr tilida sheva farqlaridan biri: so‘z boshida ayrim unlilar oldidan bir “h” orttirish hodisasi deb keltiradi. *ho‘l-öl.* Qadimgi turkiy yodgorliklarda *atan buqa* “ho‘kiz” A.Navoiy asarlarida arabcha *savr*, fors-tojikcha *gāv* o‘zlashmalari ham qo‘llanilgan (Abdushukurov, 2020, 43-bet). Zoonimning etimologiyasi *öküz>höküz>hokaz>hokiz* bo‘lib, asli “erkak qoramol”, ma’nosi torayib “bichilgan erkak qoramol” sifatida qo‘llangan (Rahmatullayev, 2008, 597-bet). “Boburnomada” ikki leksema *o‘y* va forscha *gov* leksemalari ho‘kiz ma’nosini ifodalagan: *“qalin gov va govmish tushdi”* bunda *gov* so‘zi *o‘y* deb izohlanadi (“Boburnoma”, 1960, 205-bet). O‘y so‘ziga fonetik yaqin *ud* terminining *ud, uz, uy* variantlari bo‘lib, sigir ma’nosini bildirgan. A.Navoiy asarlarida *uy* shaklida ishlatilgan (Abdushukurov, 2020, 39-bet). O‘y va uy fonetik o‘xshash bo‘lib, qoramol tushunchasiga umumiy qo‘llangan, keyinchalik ho‘kiz ma’nosini anglatgan deyish mumkin. *“..ulug‘ bir ko‘l yoqasida tushub, o‘y quvlauk”* (“Boburnoma”, 1960, 412-bet). *“O‘yga ko‘z soling, o‘yni iturmang...”* (“Boburnoma”, 1960, 153-bet). Hindistonda charx orqali sug‘orishda foydalaniladi: *“arg‘amchining bir uchini o‘yg‘a bog‘labdurlar. Bir kishi o‘yni haydamoq kerak, bir kishi dalv suvin to‘kmak kerak. Har qatla o‘y tortib, dalvni chiqorib, yonar mahalda ul arg‘amchi o‘yning yo‘lig‘akim, o‘y siyduk va tezagi bila mulavvasdur, tegib yana chohga tushar* ” (“Boburnoma”, 1960, 344-bet). Hind ho‘kizi ta’rifida ham *o‘y* terminidan foydalanilgan. *“Yana birgina o‘ydur, kichikkina o‘ydur. Ul yerlarning uluq qo‘chqoricha bo‘lg‘ay. Go‘shti bisyor yumshoq va lazizdur”* (“Boburnoma”, 196, 346-bet). Nilagovning *“tuvori o‘yning tuvoridek ayridur”* (“Boburnoma”, 1960, 346-bet). Ho‘kizning terisi (o‘yning xomi) faol ishlatilgan: *“...o‘yning xomidan arg‘amchilar eshib, bir-biriga bog‘lagaylar”* (“Boburnoma”, 1960, 334-bet). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ho‘kiz ikki yoshdan oshib, qo‘shga yaraydigan holga kelgan, bichilgan erkak qoramol ma’nosini bildiradi (O‘TIL, 2008, 570-bet).

Qo‘chqor *qočuŋar, qochŋar,* “erkak qo‘y”, ya’ni qo‘chqor ma’nosini ifodalab, uning *qočqar, qočqar, qoč, qošqar* fonetik shakllari mavjud (Abdushukurov, 2020, 35-bet). Qadimgi turkiy tilda “bichilmagan erkak qo‘y” ma’nosidagi zoonim ((qoch+un=qochuŋ)+a=qochuŋa)+r=qochuŋar>qochŋar> qochqar>qochqâr shaklini olgan (Rahmatullayev, 2000, 589-bet). Hind ho‘kizining kattaligi qo‘chqorga mengzalgan: *“Ul yerlarning uluq qo‘chqoricha bo‘lg‘ay.”* (“Boburnoma”, 1960, 346-bet). “Boburnoma”da qo‘chqor zoonimi ayni shaklda ifoda etilgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sovliqni urug‘lantiradigan, bichilmagan erkak qo‘y ma’nosini ifodalaydi (O‘TIL, 2008, 417-bet).

Eshak yovvoyi eshakning xonakilashtirilgan turini *äšäk* bo‘lib, *ešgäk, äškäk, äšyäk, äčäk,* A.Navoiy asarlarida *ešäk* shaklida berilgan (Abdushukurov, 2020, 3-bet). “Boburnoma” matnida eshak shaklida kelgan. Asosan, yuk tashuvchi hayvon va kinoyali gaplarda o‘z ifodasini topgan. *“..yayoq va eshakni jolabonlar bila kechurdilar”* (“Boburnoma”, 1960, 289-bet). Samarqand qamalida: *“Anga yettikim, faqir va miskin it etini, eshak etini yiya kirishtilar.”* (“Boburnoma”, 1960, 148-bet) deb yozadi. Zoonim fors tilidagi *xar, xarro* terminlari bilan ham ifodalangan. Xar forscha eshak *kam qo‘ll. ayn.* Eshak (O‘TIL, 2008, 384-bet). *“va kumosh raxtlik xar, zinlik moyalar va sakarlot va maxmal chodirlar…”* tarzida xar so‘zi orqali ifodalangan (“Boburnoma”, 1960, 275-bet). Bir davrada mutoyiba tarzida aytilgan baytda urg‘ochi eshak tilga olinadi. (“Boburnoma”, 1960, 323-bet).

Xachir ot bilan eshak o‘rtasidagi bu hayvon *qatïr, qağatïr, qačir, xatïr,* shakllari keltirilgan. G.Vamberining farazicha, *qatïr//qačïr//xačïr* qat=“aralashtirmoq”, “adashtirmoq”, “qo‘shmoq” fe’lidan kelib chiqqan (Abdushurov, 2020, 30-bet). “Boburnoma”da xachir shaklda kelib, Boburning o‘z xachiri bo‘lgan: *“Xirilji o‘g‘risi kelib, mening bir jibalar charda otimni va yana bir xossa xachirimni chorbog‘din chiqarib eltti”* (“Boburnoma”, 1960, 217-bet). Yuk tashuvchi hayvonlardan biri bo‘lgan: *“..qator-qator nar va moya tevalar va xachirlar va kumosh raxtlik xar..”* (“Boburnoma”, 1960, 275-bet). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida xachir ot (biya) bilan eshak (hangi)dan urchigan, yuk tashuvchi uy hayvoni (O‘TIL, 2008, 393-bet) deb ta’riflanadi.

“Boburnoma”da uy hayvonlarining nomlanishi bugungi terminlar bilan juda yaqinligi ko‘zga tashlanadi. Ot, it, mushuk, qo‘y, qo‘chqor asl holicha, sigir forscha, ho‘kiz, eshak ham forsiy, ham turkiy nomlarda qo‘llangan. Qo‘y va sigir zoonimlarining umumiylikdan xususiylikka o‘tishi kuzatiladi. Ho‘kizning o‘y termini bilan nomlanishi ko‘pchilik uchun yangilik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Абдушукуров Б. (2020). XI-XIV асрларга оид ёзма манбалар тили, Тошкент, Нодирабегим.

2. Исҳоқов Ф. (2008). ‹‹Бобурнома››учун қисқача изоҳли луғат. Андижон. «Andijon nashriyot-manbaa »

3.З.М.Бобур. (1960). ‹‹Бобурнома›› ЎзФАТошкент.

4. Раҳматуллаев Ш. (2000). Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд (туркий сўзлар). Тошкент,«Университет».

5. Холмонова З. (2021). ‹‹Бобурнома››- тил қомуси. Тошкент, «Akademnashr»

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (2006-2008) 5 жилдлик. Тошкент, “O‘zbekiston nashriyoti”.

SON SO‘Z TURKUMI VA UNING TARIXIY ILDIZLARI

Odambayeva Umida Baxtiyor qizi,
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti,2-kurs
odamboyevaumida@gmail.com
Ilmiy rahbar:Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Annotatsiya. *Ushbu maqolada son so‘z turkumining qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o‘zbek tillarida qo‘llanilish doirasi haqida fikr yuritiladi. Turkiy tillarda sanoqning paydo bo‘lishi va nomlanishi haqida ma’lumot beriladi. Sonlarning davrlararo ishlatilishi, ulardagi qo‘llanilgan affikslarning o‘xshash va tafovutli jihatlariga urg‘u beriladi. Sonlarning hozirgi kun uchun xos bo‘lmagan xususiyatlari orqali ularning tildagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar*:* *Sonlar, sanash sistemasi, noaniq son, yasama sonlar, numerativlar.*

Abstract. *This article discusses the scope of the number word group in Ancient Turkic, Old Turkic and Old Uzbek languages. Information the appearance and naming of the number in Turkic languages is given. Emphasis is placed on the cross-period use of numerals, the similarities and differences of the affixes used in them. Their significance in language is revealed through the unusual features of numbers.*

Key words: *Numbers, counting system, indefinite number, artificial numbers, numeratives.*

O‘zbek tili morfologiyasi hamda uning taraqqiyoti, rivojlanishida har bir so‘z turkumining o‘z o‘rni va ahamiyati bor. Jumladan, son so‘z turkumining ham boshqalari singari ahamiyati tilshunosligimiz uchun muhim.

Sonlar shaxs yoki narsalarning sanog‘ini, miqdorini, chamasini, to‘dasini bildiradi.

Turkiy tillar tarixida sanoqning kelib chiqishi kishining o‘zidan boshlangan. To‘g‘rirog‘i, kishi o‘z barmoqlarini sanash orqali sonlarga nom qo‘ygan. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘ngacha bo‘lgan sonlarning kelib chiqishi, ularning tub, lug‘aviy anglami kishi barmoqlarining nomi, o‘rni yoki holati bilan bog‘lanadi. Masalan, *bir* soni bosh barmoq (xalq tilida *bašmaldaq*)qa bog‘lanadi. *İkki* undan keyingi (bosh barmoqdan keying ilk barmoq); *üč* – qo‘lning uchida joylashgani uchun shunday atalgan va boshqalar (Sodiqov, 2009, 164-bet). Agar o‘ngacha bo‘lgan raqamlarning nomlanishini etimologik jihatdan tadqiq qilinsa, bu fikr o‘z isbotini topadi. Bu jarayon turkiy tillarda son so‘z turkumining kelib chiqishi, eng asosiysi, turkiy tillarning tarixiy ildizlari kishilik jamiyatining ilk chog‘lariga, tilning paydo bo‘lish paytlariga ildiz otganligidan xabar beradi. Demak, son turkumiga kiruvchi so‘zlarimiz bizga jamiyatning dastlabki, ya’ni kishi sanashni o‘rgana boshlagan chog‘laridan qolgan meros ekan. Qadimgi turkiy til davrida esa son turkumi takomillashib, bir tugal tizimga aylangandi. Unga ko‘ra, qadimgi turklarda “nol” soni yo‘q bo‘lgan, chunki “nol” – *yo‘q son*. Sanoq esa “bir”dan boshlangan. Inson tug‘ilgan paytida bir yosh hisoblangan, sababi ona qornidagi davri qo‘shib

hisoblangan. Bir yil o‘tgach, inson ikki yoshga to‘lgan va shu sanoqda yoshiga yosh qo‘shila borgan. *Hozirgi kunda ham ushbu holat qaysidir jihatdan saqlanib qolgan, chunki inson vafot etganda “marhumning yoshi nechada edi?” deb so‘ralganda “ona qorni bilan falon yoshda” deya javob beriladi.*

Eski turkiy tilda “sanoq”ni *saqïš* deyilgan. Bitiklarda *san saqïš* atamasi ham uchraydi, bu “son sanog‘i, hisob”ma’nosini bildiradi. Bu so‘z ayrim joy otlari tarkibida hozir ham uchrab qoladi. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismida *Saqïšman* degan mahalla bor. Ushbu toponimning yasalishi quyidagicha: *saqïš* (sanoq) so‘zidagi *š* tovushi *č* ga aylangan; *-man* – kishi oti yasovchi qo‘shimchadir. Demak, *saqïčman* (<*saqïšman*) so‘zi “sanoqchi, hisobchi” degan ma’noni bildiradi. O‘tmishda bu so‘z lavozimlardan birini anglatar edi. Chamasi, xon saroyida yoki davlat idoralarida hisob-kitob ishlari bilan shug‘ullanuvchi kishi shu mahallada yashagan, mahallaning oti ham shundan kelib chiqqan bo‘lishi kerak (Sodiqov, 2009, 163-164-betlar)

Hozirgi o‘zbek tilida sonlarda yasalish mavjud emas. Qadimgi turkiy tilda esa sonlarda yasalish mavjud bo‘lgan. Masalan: *iki*ning asli *ilki*dir *(il-ki>ilki>iki.* Hozirgi o‘zbek tilida ikki). Qadimgi turkiy tilda *il* – “old” degani. *İl*ning qutb (“Sharq”) ma’nosi ham bor, chunki Sharq old tomonda, *ki* – “oidlik”ni ifodalovchi qo‘shimcha,*“ilki”* – oldindagi, dastlabki, avvalgi” degan ma’noni beradi. Lekin mantiqqa ko‘ra “so‘zlovchi(bir)dan keyingi” dir. Shu sababli tartibda ikkinchi bo‘lib turadi.

Boshqa bir qator sonlar ham yasalgan. Masalan, “yigirma” soni *iki* dan hosil bo‘lgan: *iki-r-mi>yiki-r-mi>yigirmi*. *Ellik* soni *el* (barmoq) so‘zidan yasalgan: *ellik* – “beshta o‘nlik” degani. Yoki: *altï-mïš>altmïš*, *yeti-mïš>yetmïš*. Demak, *-miš, -mïš* qo‘shimchasi birikni o‘nlikka aylantirmoqda. Sonlarning yasalishiga yana misol keltiramiz*: sekiz on>säksän* (“sakkizta o‘n”), *toquz on> toqsan* (“to‘qqizta o‘n” degani).

Toquz soni *toq* so‘zidan yasalgan. *Toq* so‘zi “qoniqish hosil qilish; to‘lishish; sokinlik” ma’nolarini anglatadi. *Toquz* soni birliklarning yakunlovchisi (ya’ni, oxirgi birlik) bo‘lgani uchun shunday atalgan, “to‘xtagan, yakunlangan” ma’nosini beradi, -

(u)z yasovchi qo‘shimcha. Yoki *yüz* sonining kelib chiqishi *yüz* (“sirt, yuza”) ga bog‘lanadi. O‘nliklarning yakunida, sirtida turgani uchun shunday atalgan. “Kishining yuzi” anglamidagi *yüz* ham shu ma’noda. Demak, *säkiz (<säk-iz), toquz (<toq-uz), otuz (<ot-uz)* sonlari *-z* qo‘shimchasi bilan yasalgan; *altmiš (<altï-miš), yetmiš (<yeti-miš*) sonlari esa *-miš, -miš* qo‘shimchasi bilan yasalgan.(Sodiqov, 2009, 166-bet).

Qadimgi turkiy tilda sonlar to‘rt darajalidir.

Birliklar: *bir* – 1, *iki~äki* – 2, *üč* – 3, *tört* – 4, *biš~bäš~beš* –5, *altï* – 6, *yiti~yäti~yeti* – 7, *säkiz~sekiz* – 8, *toquz* – 9.

O‘nliklar: *on* – 10, *yigirmi* – 20, *otuz* – 30, *qïrq* – 40, *ilig~älig~elig~elli* – 50, *altmiš* – 60, *yitmiš~yätmiš~yetmiš* –70, *sekiz on~säksän* – 80, *toquz on~toqsan* – 90.

Yuzliklar: *yüz* – 100, *iki yüz* – 200, *üč yüz* – 300 va boshqalar.

Minglar: *biŋ~miŋ* yoki *biŋ~miŋ* – 1000, *iki biŋ* – 2000, *üč biŋ* – 3000 va boshqalar. Qadimgi turkiy yodgorliklarda *tümän* so‘zi 10000ni bildirgan. Bundan yirik sonlarga uning ko‘paytmasi qo‘shib aytilgan: *beš tümän* – 50 000, *on tümän* – 100000 va shu kabilar. Qo‘llanilishiga misol keltiramiz: *Tabğač oŋ tutuq bes tümän sü kelti.* –Tabg‘ach o‘ng tutuqning besh tuman qo‘shini keldi (Rahmonov & Sodiqov, 2009, 125-bet).

VI-X asrlardagi yozma yodgorliklarda songa oid xususiyatlardan biri bunda kichik sonlar oldin, katta sonlar keyin keladi: *yäti otuz* -27, *bir qirq*- 31, *säkiz yetmiš* – 68, *yüz bäš älig* – 145. Sanashning bu tartibi XI asrgacha amal qilgan, XI asrdan keyin hozirgidek qo‘llangan.

Qadimgi turkiy manbalarda qayd etilgan sanash tizimi bilan birga boshqa sanash usuli ham amal qilgan. Ya’ni katta son oldin, kichik son keyin keladi. Bunda tarkibli sanoq son qismlari III shaxs egalik shaklidagi *artuqï* so‘zi yordamida bog‘lanadi: *otuz artuqï tort* – 34, *qïrq artuqï bäš* – 45, *bir tuman artuqï yeti biŋ* – 17 ming.

Yodnomalarda 102, 190, 250 kabi sanoq sonlar quyidagi tartibda hosil qilinadi: avval birlik, keyin yuzlik, minglik va boshqalar keladi: *yüz iki* - 102, *iki yüz elig* - 250, *tört yüz toquz on altï*- 496, *yüz toquz on* - 190, *tuman* – 10 000, *tört tuman* - 40 000(Abdushukurov, 2019, 60-bet).

Qadimgi turkiy tilda sonlarning morfologik tuzilishi quyidagi tartibda bo‘lgan:

Sanoq son. Sonning bu turi morfologik ko‘rsatgichga ega bo‘lmagan va aniq miqdorni bildirgan: *bir, iki, yigirmi, yuz* va boshqalar. Dona son ma’nosi ko‘p hollarda sanoq son bilan ifodalangan: *Süsi üč biŋ ärmiš* “lashkari uch mingta askardan iborat ekan” (To‘nyuquq).

Tartib son. Tartib sonlar sanoq son asosiga *–nč, -inč, -ïnč, -unč* singari affikslarni qo‘shish orqali hosil qilingan: *ikinč* “ikkinchi”, *üčünč* “uchinchi”.

Taqsim son. Sanoq sonlarga *–ar, -är, -rar, -rär, -sar* qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil qilingan: *birär* “bittadan”, *üčär* “uchtadan” kabi.

Jamlovchi son qo‘shimchasi *–ağu, -äğü* ko‘rinishida bo‘lgan: *tortağu* “to‘rtov”.

Dona sonlar sanoq sonlarga *–ta, -da* affikslarini qo‘shish orqali yasalgan: *onta* “o‘nta” , *ikidä* “ikkita”.

Chama sonlar sintaktik usul bilan berilgan, ya‘ni quyi tartibdagi birlik boshqa yuqori miqdordagi son bilan keladi: *iki üč, tört bäš.*

Hisob so‘zlar, ya’ni *numerativlar*dan ham o‘z o‘rnida foydalanilgan. Masalan, *yolï* “marta”, *bağ* “bog‘”, *sürük* “suruv”.

Bitiglarda “yarim” ma’nosini *sïŋar* so‘zi bildiradi: *Sïŋar süsi ebig barqïğ yulğali bardï, sïŋar süsi süŋüšgäli kelti* – Qo‘shinining yarmi uy-joyini bo‘shatgani bordi, yarim qo‘shini jang qilgani keldi (Rahmonov.O‘zbek tili tarixi.2009.126-bet).

Qadimgi yodgorliklarda *az* (oz), *qop* (ko‘p) *uqush* (ko‘p), *qamug‘* (bari) sonlari ham qo‘llanilgan (Aliyev va Sodiqov,1994. 63-bet).

Eski o‘zbek tilida ham sonning hozirgi o‘zbek tilidagi turlari mavjud bo‘lgan.

Sanoq son. Sonning bu turi tuzilishiga ko‘ra: *sodda* va *tarkibli* sanoq sonlarga bo‘lingan. Sodda sanoq sonlar birlik, o‘nlik, yuzlik, minglik shakllarida bo‘lgan. 2, 7, 8, 9, 30, 50 sonlari tarkibidagi o‘rtada kelgan (k), (t),(q), (1) undosh tovushlar arab yozuvida bir belgi bilan beriladi: *iki*(2), *yeti* (7), *sekiz* (8), *toquz* (9), *otuz* (30), *elik* (50). Bu undoshlarning tashdid orqali yozilishi, ikkilanishi “Tafsir”, “Najhul farodis”, “Guliston bit-turkiy”kabi XIII—XIV asrlarga oid ayrim manbalarda uchraydi. *30, 50*

sonlari “Devonu lug‘atit-turk”da ham tashdid orqali yozilgan (Abdurahmonov , Shukurov va Mahmudov, 2008, 125-bet) .

XIII—XIV asrlarga oid ayrim manbalarda 50 soni oxirgi (k) undoshisiz *eli (-elli*) shaklida ham yozilgan: *alti yuz eli ikki* (Tafsir).

Eski o‘zbek tilida *tuman, lak* sonlari yakka holda qo‘llanmagan, bular oldidan albatta kichik miqdordagi son birga kelgan: *Bir lak afg‘an yig‘libdur* (BN).

Tarkibli sanoq sonlar. Eski o‘zbek tilida ham tarkibli sanoq sonlarning hosil bo‘lishida hozirgi o‘zbek tilidagi kabi oldin katta son, undan so‘ng kichik son keladi: *on besh, miŋ toqquz yüz olti* kabi. Tarkibli sanoq sonlarning qismlari odatda yordamchi vositasiz birikkan. Ammo, ba’zan son qismlarning bog‘lovchi vosita orqali birikish hollari ham uchraydi. Masalan, *Yigirmi dag‘i bir* (SHN). Ushbu keltirilgan misolda *dag‘i* bog‘lovchisi tarkibli sanoq son qismlarini biriktirish vazifasini o‘tagan.

Noaniq son. Bunday sonlar taxminiy hamda noaniq miqdorni ifodalab, mazmunan sanoq sonlarga yaqin turgan. Noaniq son eski o‘zbek tilida asosan *kөp, az* so‘zlari bilan ifodalangan.

Bundan tashqari, eski o‘zbek tilida *noaniq son* ma’nosida forscha *bisyar* (ko‘p) so‘zi ham ishlatilgan: *Eshitmish-men ki, Banu kārdāndur // pari paykar dag‘i bisyar dāndur*.

XIII - XIV asrlarga oid manbalarda *noaniq son* ma’nosida qadimgi turkiy yodgorliklar tiliga xos bo‘lgan *telim* (ko‘p), *өküsh* (ko‘p) so‘zlari ham ancha keng qo‘llanilgan: *Telim kishilar өldi, tālim qān tөküldi*. (Abdurahmonov , Shukurov va Mahmudov, 2008, 128-bet).

Tartib sonlar eski o‘zbek tilida –nchi/-nchı (undoshdan keyin *–inchi/ -ınchi, -unchi/ -ünch*i) affiksini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilingan. Tartib sonning bunday yasalishi XI asr yodgorligi “Qutadg‘u bilig” asarida ham uchraydi: *ikkinchi*-davlat, *üchünchi*- aql.

Jamlovchi sonlar sanoq sonlarga qadimgi turkiy tildagi *–ag‘u / -ägü* affikslari bilan bir qatorda *–ag‘un / -egun, -av/ -äv, -avlan/ -āvlān, -ala/ -ālā* qo‘shimchalarini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilingan.

Dona sonlar eski o‘zbek tilida morfologik usul bilan hosil qilinmagan. Bu davrda *–ta / -tä* affiksi bilan dona son yasash *bir* soni chegaralangan xolos. Masalan, *Birtä yarmaqni ikki bolub*… (Navoiy).

Taqsim sonlar eski o‘zbek tilida quyidagi usullarda hosil qilingan:

1.Sanoq sonlarga *–ar/-är* (unlidan keyin: *-shar/ -sher, -rar/ -rär*) affiksini qo‘shish orqali: *birär* (bittadan), *üchär* (uchtadan).

2. Sanoq sonlarga *–ın/ -in (-un/ -ün*) qo‘simchalarini qo‘shish yo‘li bilan: *birin-birin* (bittadan).

3. Sanoq sonlarni hech qanday morfologik qo‘shimchalarsiz faqat takrorlash orqali: *on-on* (o‘ntadan), *otuz-otuz* (o‘ttiztadan). *Korgüzür san’atin bari bir-bir* (Navoiy). Ma’lumki, turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili o‘zida uzoq va ko‘p mingyilliklar tarixini mujassamlashtirgan. Bir qarashda oddiydek ko‘ringan tilimiz qancha chig‘iriqlardan o‘tib, sayqallanib bugungi ko‘rinishga ega bo‘lgan. Jumladan, tilimiz morfologiyasining bir qismi hisoblangan son so‘z turkumi ham bundan mustasno emas. Til tarixida sonlarning qo‘llanilishini o‘rganar ekanmiz, turkiy xalqlar orasida sonlarning paydo bo‘lishi ham o‘sha davr morfologiyasi, ham davr grammatikasidan xabardor bo‘lamiz. Qolaversa, bugungi kunda leksikamizdan arxaik so‘z sifatida o‘rin olgan yoki biz uchun umuman tanish bo‘lmagan hisob so‘zlarning tilimiz rivojlanish bosqichlarida foydalanilgan o‘xshash va farqli shakllarini uchratamiz. Hozirgi o‘zbek tilida ravish so‘z turkumi sifatida qaraluvchi so‘zlardan ba’zilarining qadimgi turkiy til davrida son sifatida ishlatilishi haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz. Hozir amalda bo‘lgan adabiy tilimiz uchun xos bo‘lmagan, ammo qadimgi, eski turkiy tillardagi sonning ayrim xususiyatlari dialektlarimizda mavjud ekanligining guvohi bo‘lamiz. Demak, bundan xulosa shuki, tilimiz rivojlanishing har qaysi davrida sonning ahamiyati muhim bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, G‘. Shukurov, Sh. Mahmudov, Q. (2008) *O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi.* Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari miliy jamiyati nashriyoti.

2. Abdushukurov, B. (2019) *Qadimgi turkiy til*. Toshkent: Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

3. Aliyev, A.va Sodiqov, Q. (1994) *O‘zbek adabiy tili tarixidan* Toshkent: O‘zbekiston.

4. Rahmonov, N va Sodiqov, Q. (2009) *O‘zbek tili tarixi.* Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.

5. Sodiqov, Q. (2009) *Turkiy til tarixi.* Toshkent: Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti.

6. Sodiqov, Q. (2006) *Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi.* Toshkent: Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti.

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA ORONIMIYALARNING BERILISHI

Risqulova Muslima Sherbo‘ta qizi,
GulDU Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
muslimariskulova2003@gmail.com1

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qomusiy olim Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida berilgan oronimiyalar tahlilga tortilgan. Devondan bir qator relef shakllari haqida XI asrga oid qiziqarli va qimmatli ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Devonda berilgan oronimiyalar soni, taxminimizga ko‘ra, 26 tani tashkil etdi. Ular vodiy, sahro, yaylov, dovon, cho‘qqi, tog‘, jarlik, tepalik kabi bir qator relef shakllari sifatida berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Oronimiyalar - relef shakllari, vodiy, sahro, dovon, cho‘qqi, tog‘, bog‘cha, yaylov, jarlik va b.*

Abstract. *In this article, lexicographer Mahmud Koshgari's work "Devonu Lugotit Turk" has been analyzed. From the Devonian, we can get interesting and valuable information about a number of landforms from the 11th century. According to our estimate, the number of oronimias given in Devon was 26. They*

are given as a series of landforms such as valley, desert, pasture, pass, peak, mountain, ravine, hill.

Keywords: *Oronyms - landforms, valley, desert, pass, peak, mountain, garden, meadow, ravine, etc.*

Tilshunoslikda dastlab so‘zlarning o‘rganilishi yuzasidan turli xil fikr va qarashlar mavjud. Biroq shunday bo‘lsada, har qanday bildirilgan fikrlar ilmiy asosga egaligi bilan ajralib turadi. Biz ushbu maqolada o‘z davrining ilmiy asoslariga ega bo‘lgan, hamda bir necha bor tahliliy ma’lumotlardan o‘tgan Markaziy Osiyoda va G‘arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar devon Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida oronimiyalarning qo‘llanishi va berilishi xususida fikr yuritmoqchimiz. **Oronimiya (**yunoncha oros – tog‘, onoma – nom) yer yuzasining relef shakllari – tog‘lar, cho‘qqilar, qirlar, daralar, tekisliklar, jarlar nomlari hisoblanadi. Devonda ushbu relef shakllari haqida XI asrga oid bir qator qiziqarli va qimmatli ma’lumotlarni olishimiz mumkin.

Olib borilgan tahliliy ma’lumotlarimizga ko‘ra, devonda 7 ta vodiy, 3 ta sahro, 6 ta yaylov, 1 ta bog‘cha, 1 ta qumlik, 1 ta dovon, 1 ta cho‘qqi, 2 ta tog‘, 1 ta jarlik, 1 ta tepalik, 1 ta dashtlik nomlari – umumiy hisobda 26 ta oronim berilgan. Hozir ulardan ayrim namunalar keltirib o‘tamiz: ***vodiy*** nomlari 7 ta bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: *Ila(Ili), Ertish(Irtish), Jamar, Etil* – tillarning eng yaxshisi – jag‘ma, tuxsi kabilarning tili va shuningdek, Ila(Ili), Ertish(Irtish), Jamar, Etil vodiylaridan uyg‘ur shaharlarigacha bo‘lgan joylarda yashovchilar tilidir[i] (Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. –Toshkent: O‘zfanakadnashr, 1963. I. 66/110/118/ 330/122/314-2/66/103-2=12 o‘rinda)

Dastlabki shakliy ko‘rinishiga nisbatan Ila, Ala, Ertish kabi nomlar fonetik jihatdan biroz o‘zgarib ketgan va hozir Ili, Olay, Irtish shaklida yoziladi (Qorayev S. Toponimika. 0‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. –Toshkent: 2006. –B. 301) Devonda keltirilgan so‘zlardan yana biri “Banokat” so‘zi bo‘lib, O‘g‘uzlar oko‘z so‘zini o‘zlarining shaharlari joylashgan Banokat vodiysi

ma’nosida qo‘llaydilar(Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I tom. – Toshkent: O‘zfanakadnashr, 1963. –B. 91).

Banokat, Fanokat, Sharqiya, Shohruxiya – Sirdaryoning o‘ng sohilida, Ohangaron (Iloq) daryosining Sirdaryoga qo‘shilish joyidagi karvon yo‘li yoqasida joylashgan qadimiy shahar xarobasi (1-18-asrlar). Mo‘g‘ullar istilosi davrida (1220) Banokat vayron bo‘lgan. 1392-yilda Amir Temur Banokatni qayta tiklab, o‘g‘li Shohrux sharafiga Shohruxiya deb atagan. 18-asr boshlarida o‘zaro urushlar natijasida vayron bo‘lgan. Banokat harobasining bir qismini Sirdaryo yuvib ketgan. Banokat nomi „Boburnoma“ da „Fanokat“ deb nomlanadi. Banokat nomining ikkinchi qismi, „kat“ so‘zi, sug‘dcha qo‘shimcha bo‘lib, shahar ma’nosini bildiradi. Uning boshqa shakllari Samarqand, Xo‘jakand (Xo‘jand), Xo‘qand (Qo‘qon) va Chochkand (hozirgi Toshkent)dagi kabi kat, kant, qanddir.

Devonda keltirilgan vodiylardan yana biri *Qizil vodiysi* bo‘lib, u Qashqarda joylashgan. She’rda shunday kelgan:

“Qizil, sariq arqashib,

Jepkin, jashil jo‘zkashib,

Bir-bir kero‘ jo‘rkashib,

Jalinuq anu tanlashur” (O‘sha manba. –B.375)

Qizil, sariq gullar bir-biriga suyanishib, yashil rayhonlar bir-biri bilan o‘ralashib ko‘rinadi. Ularni ko‘rgan kishi tang qoladi, hayron qoladi. Parchada keltirilgan qizil so‘zi Qashqardagi vodiy ma’nosini anglatmayapti.

J(i)la - Qaz suwi dengizi J(I)la vodiysiga quyiladi (O‘sha manba. –B. 165).

Bizningcha, Ili daryosi atrofini nazarda tutgan bo‘lishi mumkin. Ili - hozirda Xitoy va Qozog‘iston husudida joylashgan daryo. Asosiy irmoqlari: Qosh, Xo‘rgo‘s, Chilik, Charin, Talg‘ar, Qaskelen, Kruti va b.

Devonda tilga olingan ***yaylov*** nomlari quyidagilar:(6 ta)

Ala – Farg‘ona yaqinidagi yaylov(O‘sha manba. –B.110); *Chag‘la* – Uch qabilasidagi yaylovning ismi(O‘sha manba. –B.405); *Tajiz* – Qashqar yaqinidagi bir yaylov. Balandligi uchun uni Tarig‘ art tajiz deyishadi(O‘sha manba. –B.136); *Tajzan tajiz* – boshqa bir yaylov oti (O‘sha manba. –B.136); *Jiz ew tajiz* –

Barsag‘on yaqinidagi bir yaylov oti(O‘sha manba. –B.136); Jonariq – Bolasag‘un yaqinidagi bir yaylov nomi(O‘sha manba. –B.136).

Bizning fikrimizcha, devonda tog‘larga alohida atab qo‘yilgan nomlar 2 dona. Ular Quz va Altunqon.

Quz – Kun tushmas tog‘, faqat kun oqqandagina chapdan kun tushadigan tog‘. U kunning chap tomonida bo‘ladi. Unda doimo qor va sovuq bo‘ladi. Maqolda shunday kelgan: Quzda qar okso‘mas, qojda jag‘ okso‘mas – Quz tog‘ida qor kamaymaydi, shuningdek, qo‘yda yog‘ kamaymaydi(O‘sha manba. –B.315).

Keyingisi *Altunqon* nomi bo‘lib, devnda shunday keltiriladi: “Shoh Shu Chinga yetdi. U Zulqarnayn orqasiga tushgan edi. Uyg‘urlarga yaqin bir yerda Shu Zulqarnaynga askar yubordi. Bu to‘qinish Altunqon degan bir tog‘da bo‘lgan edi. Bu hozir Altunxan deyilgan tog‘ nomidir” (O‘sha manba. –B.422).

Hasanovning ta’kidlashicha, tog‘larga unda ko‘proq uchraydigan o‘simliklar yoki hayvonlarga qarab shunday nomlar berilgan(Hasanov H. Mahmud Koshg‘ariy. –Toshkent: O‘zfanakadnashr, 1963. –B.32): azig‘lig‘ tag‘ - ayiqlik tog‘, ayig‘i ko‘p tog‘(Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I tom. –Toshkent: O‘zfanakadnashr, 1963. –B.164); soqaqlig‘ tag‘ - qizildan ko‘ra oqlik rangi o‘tkir, kiyigi ko‘p tog‘; so‘qoq - oq kiyik(O‘sha manba. –B.457); sug‘urlug‘ tag‘ - vabr deyilgan mushuk kattaligidagi bir xil hayvon ko‘p yashaydigan tog‘; ularlig‘ tag‘ - kakligi ko‘p bo‘lgan tog‘; basarlig‘ tag‘ - sarimsoqli tog‘(‘sha manba. –B.455); sog‘anlug‘ tag‘ - yovvoyi piyoz o‘sadigan tog‘(O‘sha manba. –B. 459).

Hasanov qushlag‘ joy nomini ham nimagadir tog‘ nomlariga – oronimlarga kiritib ketgan. Lekin “Devonu lug‘otit turk”da qushlag‘– qushlar ko‘p bo‘ladigan joy, u yerda ov qilinadi degan ma’lumot keladi. Qushlag‘ tog‘ nomi sifatida berilmaydi(Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I tom. –Toshkent: O‘zfanakadnashr, 1963. –B.432; Hasanov H. Mahmud Koshg‘ariy. –Toshkent: O‘zfanakadnashr, 1963. –B.32).

Bizning fikrimizcha, Hasanov keltirib o‘tgan so‘zlar tog‘larga atab qo‘yilgan alohida nomlar emas. Faqat o‘sha yerda mavjud bo‘lgan o‘simlik yoki hayvonga

nisbat berib, ishlatiladigan sifat ma’nosida keluvchi so‘zlar. Masalan, Chimyon tog‘larida qor ko‘p bo‘lganligi sababli unga qorlik (-liq, -lig‘, -lug‘) yoki qorli deb nom berolmaymizku. Bu so‘zlar tog‘ning sifati bo‘la oladi, xolos.

Devonda keltirilgan *jarlik* nomi:

Qara jalg‘a – Turk diyori bilan Farg‘ona orasidagi yaqin borib bo‘lmaydigan jarlik. Maqolda shunday kelgan: Qara mun kelmagincha qara jalg‘a kechma – xatarli kun kelmaguncha, zinhor qora jilg‘adan o‘tma, chunki u yer hech vaqt qori arimaydigan mushkul joydir(Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I tom. – Toshkent: O‘zfanakadnashr, 1963. –B.40). Jilg‘a, yilg‘a – jildirab oqadigan soy. Deyarli barcha turkiy tillarda jilg‘a, yilg‘a, ilg‘a, yelg‘a, jalg‘a kabi fonetik shakllarda “soy”, “sayoz jarlik” singari ma’nolarda ishlatiladi va ko‘plab joy nomlari tarkibida uchraydi. Jilg‘a “jilmoq”, “siljimoq”, “surilmoq” ma’nosidagi jil, yil fe’lidan kelib chiqqan. “Suv” ma’nosidagi qadimgi turkiy yil so‘zidan hosil bo‘lgan degan fikr ham bor. O‘zbekistonda Qorajilg‘a, Sarijilg‘a, Kaltajilg‘a kabi mikrotoponimlar uchraydi (Konimex tumanida Jilg‘a degan ovul bor)(Qorayev S. Toponimika. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 1963. –B.189)

Devonda berilgan *qumlik* nomi: Bag‘ram qum – Qashqar bilan Yorkent o‘rtasidagi qumlikka Bag‘ram qumi deyiladi (elangan qum, mayin qum)(O‘sha manba. –B.447).

Bitta cho‘qqi nomi: Badalart – O‘ch bilan Barsag‘an orasidagi, o‘tish qiyin bo‘lgan bir cho‘qqi(O‘sha manba. –B.337). Yana bitta tepalik nomi berilgan: Jafg‘u art – Yafg‘uga yaqin bir tepalik(O‘sha manba. –B.39). Bitta dovon nomi: Aruq-turuq – Farg‘ona bilan Qashqar orasidagi qiyin, baland yo‘l, dovon(O‘sha manba. –B.361).

S.Qorayev yuqoridagi uch nomni bir guruhda dovon deb qo‘ya qoladi. S.Mutallibov esa ularni alohida-alohida cho‘qqi, tepalik, dovon deb keltiradi. Umuman olganda, ularni sinonim so‘zlar hisoblangani uchun bitta guruhga kiritgan to‘g‘riroq bo‘ladi, bizningcha ham. Sinonimlar (yunoncha sinonimos – bir ismli) – ma’nosi bir xil, lekin shaklan turlicha bolgan so‘zlar (bel, dovon, ko‘tal, ort, oshuv, aqba).

Art, ort – qadimiy georafik atama “dovon”, “tog‘ yo‘li”. Geografik nomlar tarkibida, xususan, Qirg‘izstonda saqlanib qolgan: Ayiqart, Qayinart, Qizilart(Qorayev S. Toponimika. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 1963. –B.40).

Dovon (mo‘g‘ulcha daban) – tog‘ning oshib o‘tish qulay bo‘lgan joyi, art (qadimiy turk so‘zi), aqba (arabcha), bel (turkiy), ko‘tal (forscha) so‘zlari ma’nodosh(Qorayev S. Toponimika. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 1963. –B.182).

Xulosa qilib aytganda, “Devonu lug‘otit-turk” asarida, ayniqsa, qabila va urug‘ tillariga oid lingvistik ma’lumotlar ancha batafsil berilgan. Bunda har so‘zning ma’nolari (polisemiya, omonim, sinonim, antonim va arxaik so‘zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so‘zlarning etimologiyasiga to‘xtalib o‘tadi. Tovushlar (fonemalar)ning tahlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, cho‘ziq va qisqa unlilar, ularning talaffuzi va orfografiyasi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil izohlangan. Morfologiya sohasida so‘z turkumlarini, davr an’anasiga ko‘ra, 3 so‘z turkumiga: fe’l, ism, bog‘lovchiga bo‘lib, ularning yasalish va turlanish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tadi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qo‘llangan oronimiyalar bugungi kunda to‘liq iste’molda bo‘lmasa-da, biz XI asr va ungacha bo‘lgan davrlardagi diyorimiz geografiyasi haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lishimizda bu asarning ahamiyati kattadir. Buni biz yuqorida keltirgan misollarimizda ham ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov H. (1963). Mahmud Koshg‘ariy. Toshkent: O‘zfanakadnashr.
2. Mahmud Koshg‘ariy. (1963). Devonu lug‘otit turk. Toshkent: O‘zfanakadnashr.
3. Qorayev S. (2006). Toponimika. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent.

UNLI VA UNDOSHLAR TIZIMI, ULARGA XOS XUSUSIYATLAR

Rahimova Nasiba Nurg‘ali qizi,
CHDPU Gumanitar fanlari fakulteti, 2-kurs
hakimbetovaholida@gmail.com
Ilmiy rahbar: Muratova Nafisa

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qadimgi turkiy tilning fonetikasi, ayniqsa unli va undosh tovushlar tizimi, ularning qay tarzda ishlatilganligi haqida fikr yuritilgan va bugungi kun, ya’ni hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan bog‘langan holda ular o‘rtasidagi farqlar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qadimgi turkiy til, unli, undosh, fonetika, hozirgi o‘zbek adabiy tili, tovushlar.*

Abstract. *This article talks about the phonetics of the ancient turkic language, especially the system of vowels and consonants, the ways of their use, r and eveals the differences between them in connection with the modern uzbek literary language.*

Keywords: *Ancient turkic language, vowels, consonants, phonetics, modern uzbek literary language, sounds.*

Ma’lumki, fonetika ma’lum bir til unli va undosh tovushlarining turli davrlardagi taraqqiyoti, har bir taraqqiyot davri uchun xos bo‘lgan fonetik sistema, ayrim unli va undosh tovushlarning shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti, asosiy fonetik qonuniyatlar kabi masalalarni o‘rganadi.Qadimgi turkiy til fonetikasi, undagi unli va undosh tovushlar haqida aniq va qat’iy bir fikr aytish mushkul, chunki ularning bevosita talaffuz me’yorlarini kuzatishdan, tadqiq qilishdan mahrummiz. Bu haqda yodnomalar tilini o‘rganish orqali xulosalar chiqarish mumkin.Qadimgi turkiy tilda sakkizta unli fonema bo‘lib, ular bir-biridan qatori, tor-kengligi, lablanish-lablanmasligiga ko‘ra farq qiladi. Bulardan – a, ы, o, u orqa qator va ə, i, ө, ɣ old qator unlilaridir. Keng unlilar – a, ə, o, ө; tor unlilar – i, ы, u, ɣ. Lablanmagan unlilar – a, ə, o, ө; lablangan unlilar – o, ө, u, ɣ (Rahmonov, Sodiqov, 2009-yil, 70-bet)

A – lablanmagan, keng va orqa qator; ə – lablanmagan, keng lekin old qator unlidir. Bu unlining talaffuzi qozoq va qirg‘iz hamda ko‘pgina turkiy tillarda, o‘zbek tilining singarmonizmli lahja va shevalarida saqlangan.

Ы unlisi lablanmagan, tor va orqa qator; i lablanmagan, tor, old qator unli. Bu ikki unli fonema hozirgi o‘zbek adabiy tilida va singarmonizmsiz lahja va shevalarda ы ning oldinga siljishi natijasida konvergentsiyaga uchragan, ya’ni bir fonema (i)ga aylangan. Ammo o‘zbek tilining singarmonizmli lahja va shevalarida hamda boshqa turkiy tillarda o‘z holicha saqlangan. Qadimgi turkiy tilda ham orqa qator ы bilan old qator i ikki mustaqil fonemadir.

O unlisi lablangan, keng va orqa qator; ө ham lablangan, keng. Lekin old qator unlidir. Qadimgi turkiy tilda orqa qator o bilan alohida ikki fonemadir.

U unlisi lablangan, tor va orqa qator; ү ham lablangan, tor, lekin old qator unlidir. Bu unlilarning ham hozirgi holati ө va o unlilariniki singaridir. Qadimgi turkiy tilda ham u va ү alohida fonemadir.

Hozirgi õ unlisini qadimgi turkiy tilda a unlisi ifodalaydi. Masalan hozirgi bõsh, so‘zi bash, qo‘r so‘zi qar tarzida talaffuz etiladi (Nematov, 1992, 16-bet)

Undosh tovushning shakllanishida albatta shovqin qatnashadi, u nutq apparatidagi (masalan, og‘iz bo‘shlig‘idagi) aktiv va passiv a’zolarning bir-biriga tegishi yoki juda yaqinlashishi natijasida hosil bo‘lgan to‘siqdan havo oqimining portlab yoki sirg‘alib (a’zolarga ishqalanib) o‘tishidan paydo bo‘ladi. Bunday to‘siq fonologiyada fokus deyiladi. Demak, undoshlarda fokusning bo‘lishi shart. Qadimgi turkiy tilda quyidagi undoshlar amalda bo‘lgan:v, l, m, n, ң, r, b, g, d, z, g‘, y, p, t, s, sh, k, q, ch

1. Sonorlar: l, m, n, ң, r

2. Jarangli: b, g, d, z, g‘, y

3. Jarangsizlar: p, t, s, sh, k, q, ch

Qadimgi turkiy tilda b, m, p lab undoshlari mavjud. Sirg‘aluvchi lab undoshi f yo‘q. O‘rxun yozuvida v uchun maxsus harf yo‘q. Uning o‘rnida b ni bildiruvchi harf ishlatiladi. Uyg‘ur yozuvida esa v uchun maxsus harf bor. B undoshi lab-lab,

portlovchi, jarangli, shovqinli undosh bo‘lib, so‘z boshida ham, o‘rtasida ham, oxirida ham uchraydi: bu, yabg‘u (amir), sab (nutq).

M undoshi b dan uning talaffuzida burun bo‘shlig‘ining – ishtiroki borligi va shovqinsizligi bilan farqlanadi. Demak, m lab-lab, nazal, portlovchi, sonor (shovqinsiz) undoshdir.

P undoshi b dan jarangsizligi bilan farq qiladi. Bu undosh hamma pozitsiyalarda uchraydi: Purum (Rum), Apa tarqan (unvon), tep (deb).

V undoshi, yuqorida aytilganidek, faqat uyg‘ur yodnomalarda bor. V faqat so‘z o‘rtasi va oxirida o‘rxun yodnomalaridagi b o‘rnida uchraydi: sav (nutq), səvinch (sevinch).

S til oldi-tish, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh fonema bo‘lib, qalin (velyar) va ingichka (palatal) variantlariga ega.

Z undoshi s dan faqat jarangliligi bilan farq qiladi.

T undoshi s dan faqat portlovchililigi bilan farq qiladi.

D undoshi z dan faqat portlovchililigi bilan farq qilib, so‘z o‘rtasi va oxirida uchraydi. Bodun (xalq), od (zamon).

N undoshi d dan sonorligi bilan va nazalligi bilan farqlanadi. Demak, bu tovush til oldi, portlovchi, sonor, nazal undosh bo‘lib, so‘z boshida kamroq va boshqa pozitsiyalarda ko‘proq uchraydi. Neңg (narsa), ana (ona), ben (men).

L undoshi n dan yon tovushligi va burnaki emasligi bilan farq qiladi. (yon yoki laterial undosh deb o‘pkadan chiqqan havoning tilning bir yoki ikki yonidan o‘tishi natijasida hosil bo‘lgan tovushga aytiladi.)

R undoshi l dan yonsizligi va qaltiroqligi bilan farq qiladi. (Qaltiroq yoki vibrant undosh deb til uchining titrashi natijasida vujudga kelgan tovushga aytiladi).

Qadimgi turkiy tilda til oldi –tanglay, jarangsiz undoshlardan ch bilan sh bor.J bilan ж esa yo‘q. Ch portlovchi, sh – sirg‘aluvchi undosh: chab (shuhrat), shad (unvon).

Y til o‘rta va til orqa variantlarga ega bo‘lgan sirg‘aluvchi sonor fonemadir. Yablaq (yomon), ay (oy).

K (q) til o‘rta (k) va chuqur til orqa (q) variantlariga ega bo‘lgan portlovchi, jarangsiz, undosh fonemadir. G (g‘) fonemasi k (q) dan jarangliligi bilan farq qiladi.

Qadimgi turkiy tilda g‘ (g) so‘z o‘rtasida va oxirida uchraydi: qag‘an (xoqon), ogut (o‘git).

Q tovushi g‘ (g) dan nazalligi va sonorligi (shovqinsizligi) bilan farq qiladi. Bu fonema ham til o‘rta va chuqur til orqa variantlariga ega bo‘lib, so‘z o‘rtasida va oxirida uchraydi: уаңы (yangi), аң (ong) (www.ziyonet.uz)

Qadimgi turkiy tilda bo‘g‘iz undoshi h va til orqa x undoshi yo‘q.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili qadimgi turkiy tildan ancha farq qiladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida unli fonemalar quyidagi uch belgi asosida tasnif qilinadi:

1. Lablarning ishtirokiga ko‘ra: a) lablashgan unlilar (u,o‘,o). Bu unlilarni talaffuz qilishda lablar doira shaklida bir oz cho‘ziladi; b) lablashmagan unlilar (i,e,a). Bu unlilarni talaffuz qilishda lablar doira shakliga kirmaydi va cho‘zilmaydi. Tasnifning bu turi fonologik sistemadagi “lablanish-lablanmaslik oppozitsiyasi” talablaridan kelib chiqadi.

2.Tilning vertikal harakatiga ko‘ra: a) yuqori tor unlilar (i,u). Bu unlilarni talaffuz qilishda og‘iz tor ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham tor bo‘ladi; b) o‘rta keng unlilar (e,o‘). Bu unlilarni talaffuz qilishda og‘iz o‘rta darajada ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham o‘rtacha kenglikda (yuqori ko‘tarilish bilan quyi ko‘tarilish orasida) bo‘ladi; d) quyi keng unlilar (a,o). Bu unlilarni talaffuz qilishda og‘iz keng ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham yuqoridagi ikki holatdan ancha keng bo‘ladi. Tasnifning bu turi fonologik sistemadagi “tilning uch darajali ko‘tarilishi” oppozitsiyasiga asoslanadi.

3.Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko‘ra: a) old qator unlilar (i,e,a). Bu unlilarni talaffuz qilishda tilning uchki qismi pastki tishlarga tiraladi (demak, oldinga cho‘ziladi); b)orqa qator unlilar (u,o‘,o). Bu unlilarni talaffuz qilishda

tilning uchki qismi pastki tishlarga tiralmaydi (demak, bir oz orqaga tortilgan bo‘ladi)(Jamolxonov , 2005-yil 51-bet)

O. Azizov hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmini quyidagicha tasnif qiladi:

1. Tilning ko‘tarilishi va uning tanglay tomon yaqinlashuviga ko‘ra:

a) til oldi (oldingi qator) unlilari – i(ъ),e;

b) til orqa (orqa qator) unlilari – ы(ь),a,u,o;

2.Lablarning holati va ishtirokiga ko‘ra:

a) lablangan – u, ÿ,o ;

b) lablanmagan – (ä), a, (a),i,ы.

3.Tilning ko‘tarilishi va og‘izning ochilish darajasiga ko‘ra:

a) tor unlilar – i,ы,u,Ÿ

b) o‘rta keng unlilar – e,o,ö.

d) keng unlilar – ə(ä),a, (a). (Jamolxonov, 2005-yil, 70-bet)

Yuqoridagi tasnifni xulosalab, muallif shunday deydi: “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida oltita unli fonema bo‘lib, ularni belgilariga ko‘ra jadvalda shunday ko‘rsatish mumkin

Konsonantizm hozirgi o‘zbek adabiy tili undosh fonemalari tizimidir. Bu tizim 24 fonemani – b,v,g,d,j,(dj),z,y,k,l,m,n,ŋ,p,r,s,t,f,x,ch,sh,к,ғ,h tovushlarini o‘z ichiga oladi . Biroq manbalarda o‘zbek adabiy tili undoshlari miqdoriga oid boshqa fikrlar ham mavjud: 22ta (S. Otamirzayeva, Y.D. Polivanov, 2002-yil, 9-bet) , 23ta (A.K.Borovkov, I.A.Kissen, 1979-yil 21-bet) , 25ta (A.N.Kononov, V.V.Reshetov, A.Abduazizov 1959-yil, 212-bet). Demak, hozirgi o‘zbek adabiy tili undosh fonemalari miqdori masalasida tilshunoslikda tugal bir fikr yo‘q.

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish lozimki, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi unli va undosh tovushlarning rivojlanish taraqqiyotida qadimgi turkiy til davri fonetikasining ahamiyati juda katta. Qadimgi turkiy til davridagi tovushlar talaffuz jihatdan bugungi kundagidan farq qilgan. O‘zbek tilida undosh fonemalarning soni ko‘pligi tufayli oppozitsiyalar ham anchadir. Unli fonemalar esa bir belgi asosida uch va ikki a’zoli ziddiyatni, ikki belgi asosida olti a’zoli ziddiyatni hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Azimov, I, Rahmatov, M. (2005) Qadimgi turkiy til. TDPU.

2.Jamolxonov, H. (2005). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (51-bet). Toshkent: Talqin.

3.Nematov, H. (1992). O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi. Toshkent: “O‘qituvchi”.

4.Otamirzayeva, S., &Yusupova M. (2002). O‘zbek tili. (9-bet). Toshkent. Поливанов, Е. (1922) Звуковой состав ташкентского диалекта. Ташкент: Наука и просвещение.

5.Rahmonov, N., Sodiqov, Q. (2009) O‘zbek tili tarixi. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.

6.Боровков, А.К. (1961).Краткий очерк грамматики узбекского языка. Узбекско-русский словарь. М.:Гос.изд-воиностранных и национальных словарей. Киссен, И.А. (1979). Курссо поставительной грамматики русского и узбекского языков. Издание третье. (с. 21.) . Ташкент: “Ўқитувчи” .

7.Кононов, А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.-Л.:Изд-во АН, Решетов В.В. (1959) Узбекский язык. Часть1. Введение. Фонетика. (с. 212). Ташкент: Учпедгиз. Абдуазизов А.{19,54,66}.

8.Махмудов, А. (1986). Согласные узбекского литературного языка. (с. 8). Ташкент: «Фан».

9.Нурмонов, А. 17,17-18;севортян Э.В. материалы к сравнительной фонетике турецкого, азербайджанского и узбекского литературного языков. Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Фонетика.-М.:Изд-во АН, 1955.

10.www.ziyonet.uz.

“BOBURNOMA” ASARIDAGI FITONIMLAR STRUKTURASI

Rasulova Gulbahor Normahmat qizi,
ToshDO‘TAU Lingvistika yo‘nalishi 2-kurs magistranti
gulbahorrasulova9425@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Boburnoma” asarida keltirilgan fitonimlarning struktur xususiyatlari haqida so‘z boradi. Sodda, qo‘shma, juft va takror holda qo‘llangan fitonimlar haqida ma’lumotlar keltirilib, qanday usulda yasalganligi haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Ma’lumotlarni keltirishda tarixiy manbalarga tayanilgan. Bundan tashqari asarda keltirilgan birikma holdagi o‘simlik nomlari ham tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *fitonimlar strukturasi, yasalish usullari, morfologik usulda yasalgan fitonimlar, sintaktik usulda yasalgan fitonimlar, semantik usulda yasalgan fitonimlar.*

O‘simlik dunyosi qadimgi davrlardan boshlab hozirgacha o‘rganilib kelinmoqda. O‘simliklarning juda ko‘p turi mavjud bo‘lib, ulardan turli o‘rinlarda foydalaniladi. Ba’zilaridan tabobatda keng foydalanilsa, ba’zilaridan ozuqa uchun, ba’zilaridan esa kundalik hayotda keng foydalaniladi. Tabiatda keng tarqalgan har bir o‘simlikning insoniyat hayotida tutgan o‘z o‘rni bor. Mana shunday tabiatning ajralmas bo‘lagi bo‘lgan fitonimlarni o‘rganishda tarixiy asar “Boburnoma” ning o‘rni beqiyos. Chunki ushbu asarda Farg‘onadan Hindistonga qadar yer, joy, tog‘, o‘lkalarda o‘sadigan daraxt, o‘simlik, o‘t-o‘lan, gullar haqida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Ushbu asarda uchraydigan fitonimlarning strukturasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular tuzilishiga ko‘ra: sodda, qo‘shma, takror hamda birikma shakllarda uchraydi va morfologik, sintaktik va semantik usullar orqali yasalgan. Bizga ma’lumki, sodda so‘z shaklidagi fitonim nomlari ham ikki xil bo‘ladi: sodda tub va sodda yasama shaklidagi o‘simlik nomlari. Sodda tub shakldagi o‘simlik nomlariga hozirgi o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan *o‘rik, archa, behi, bodom, pista, yong‘oq, ro‘yan, yalpiz, piyoz, sabzi, tok, tut, limon* kabilar kiradi. Yuqorida keltirgan anor, o‘rik, archa, behi, pista, yong‘oq, ro‘yan, sabzi, tok, limon (limu shaklida) kabi fitonim nomlari “Boburnoma” asarida ham uchraydi. Bulardan tashqari asarda qayd etilgan tut, uzum, lola, gul, o‘t, tol, terak

kabi bir qator hozirgi o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan fitonimlarni, beyr, anba, ja’mun, jaasun kabi bir qator Hindiston hududida tarqalgan o‘simlik nomlarini ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularda hozirgi kunda yasama so‘zlik holati kuzatilmaydi, ularda yasovchi qo‘shimchalar bo‘lmaganligi sababli sodda tup so‘z hisoblanadi. Hozirgi vaqtga kelib ba’zi bir tup so‘z hisoblanadigan o‘simlik nomlari diaxronik yoki tarixan yasama nom bo‘lgan. Masalan, na’matak, isiriq, zanjabil kabilar shular jumlasidandir. Bundan tashqari yuqorida sodda tup so‘z sifatida keltirgan “*archa*” so‘zi ham xuddi shunday so‘zlar sirasiga kiradi. *“Archa”* so‘ziga hozirgi kunda sodda tup so‘zlar sifatida qaralsa ham, ammo bu so‘z tilshunos olim Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining e’timologik lug‘ati” da qadimgi turkiy tilda *sarv* daraxtining bir turini anglatgan *“ard”* so‘ziga kichraytirish ma’nosini ifodalovchi -cha qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingani va keyinchalik qator kelgan uch undoshdan (rdch) oradagisi aytilmaydigan bo‘lgani; o‘zbek tilidag a unlilari ä unlilariga almashgan (ard+cha=ardcha >archa >ärchä) holatga kelib qolgani aytib o‘tilgan. Bu o‘rinda shuni aytishimiz mumkinki, keltirib o‘tilgan o‘simlik nomlari tarixan – diaxronik nuqtai nazardan yasama ot shaklida yuzaga kelgan bo‘lsa ham ularning yasamaligi hozirgi davr nuqtai nazaridan sezilmas holatga kelib qolgan.

Sodda yasama shakldagi o‘simlik nomlari morfologik yo‘l bilan yasalib, ular asosga ma’lum bir so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali yasaladi. Hozirda tilimizda mavjud bo‘lgan olcha, tuxumak, qizilcha kabi o‘simlik nomlari bilan bir qatorda “Boburnoma” asarida keltirilgan bug‘doy ma’nosini anglatuvchi *oshlig‘, sebarga, olucha* kabi o‘simlik nomlari ana shunday so‘zlar sirasiga kiradi. Yuqorida keltirilgan *“olcha” va “olucha”* so‘zlari bir xil ma’noga ega bo‘lib, danagi dumaloq, eti to‘q qizil mayda meva ma’nosini anglatadi. *“Olu”* so‘ziga o‘zbekcha -cha affiksini qo‘shish orqali yasalgan va u tovushi tushirilib olcha shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Asarda esa *“olucha”* ko‘rinishdagi shakli uchraydi. Asarda o‘rin-joy oti yasovchi -iston va tojikcha -zor qo‘shimchalari orqali yasalgan o‘simlik o‘sadigan hududni anglatuvchi

arg‘uvonzor, balutiston, nilufarzor, sebargazor kabi joy nomlariga ham duch kelamiz.

Qo‘shma so‘z shaklidagi o‘simlik nomlari ikki mustaqil so‘zning o‘zaro qo‘shilishidan hosil bo‘ladi va o‘zining mustaqil ma’nosini yo‘qotadi. Qo‘shma so‘z shaklidagi o‘simlik nomlari bir so‘z turkum doirasida ham, har xil so‘z turkumi doirasida ham birlasha oladilar. Shuning uchun ular ikki tarkibli qismdan tashkil topadilar. Asarda keltirilgan barcha fitonimlar ot so‘z turkumiga oid bo‘lib, ularning qaysi so‘z turkumlariga tegishli so‘zlar bilan yasalganiga qarab farqlanadi. (ot+ot) tarzida yasalgan o‘simlik nomlariga nayshakar, mehrigiyoh, ayiq o‘ti, gul chikon, jikin tola kabi turkiycha fitonimlarni hamda *Sohibi Samarqand* (uzum navi), *Sebi Samarqand* (olma navi) kabi forsiycha fitonimlar misol bo‘la oladi. (sifat+ot) tarzida yasalgan qo‘shma fitonimlarga uluq limu, qaro yemish kabilar kiradi. Misol qilib keltirgan qaro yemish fitonimining asarda sodda so‘z shaklida emluk tarzida qo‘llangan. (ot+sifat) tarzidagi dilshabih so‘zini, (ot+ot) dona kalon so‘zlarini ham kiritish mumkin. Bundan tashqari asarda so‘z birikmasi shaklidagi o‘simlik nomlari ham uchraydi va ular ajratib yoziladi. Ular ko‘pincha bitishuv yo‘li bilan hosil bo‘lgan o‘simlik nomlarini tashkil qiladi. So‘z birikmasi shaklidagi o‘simlik nomlariga *qora uzum, qizil olma, qizil kaneyr, qizil gul, qizil arg‘uvon, chuchuk noranj, xurmoyi hindiy, shaftoluyi kordiy* kabilar kiradi. Bundan tashqari olu-bolu kabi juft so‘z shaklidagi, gal gal limu kabi takroriy so‘z shaklidagi o‘simlik nomlari ham keltirilgan . O‘zbek tilida o‘simlik nomlari yuqorida aytib o‘tganimizdek, morfologik, semantik va sintaktik usullar yordamida hosil qilinadi. Bundan tashqari hozirgi kunda sodda tub so‘z hisoblanadigan *“meva”* so‘zi ham asli (sifat + ot) ikkita mustaqil so‘zdir. Bu so‘z tarkibida ikkita komponent mavjud bo‘lib, keyinchalik ular o‘zaro kirishib ketgan, o‘zaklar o‘rtasida morfologik qayta bo‘linish sodir bo‘lgan. Yaxshi, mazali, yoqimli ma’nolarini anglatuvchi, forscha *meh-beh* va hosil ma’nosini beradigan *bar-bor* kabi ikki mustaqil so‘zdan tarkib topgan va keyinchalik bir so‘z holatiga kelib qolgan

Asardagi shaftoli so‘zi ham ikki komponentdan tashkil topgan. “Биринчи компанент шафт-шапд- шапт-шепт-шабд-шепд- шопт-шифт булиб- иккинчиси олу- алу-оли- ал-али-ула-ул-алиы –олълар композитсион усулда ясалган булиб, аниқловчи – аниқланмиш (сифат+ от типидадир)” (B.Bafoyev, 1991, 10-bet). Demak, so‘zning birinchi komponenti shaft bo‘lib, oq rang ma’nosini ifodalovchi sifatdir. Ikkinchi komponent olu-oli esa fors – tojik tilida meva nomlarini ifodalab keluvchi umumnomdir.

Asardagi morfologik usul bilan yasalgan fitonimlar. O‘zbek tilida qo‘shimcha qo‘shish orqali yasalgan o‘simlik nomlari kam o‘rin oladi. Morfologik usul bilan yasalgan fitonimlarda qayerga va nimaga nisbat berilishi kabi ma’nolar anglashiladi. Tub so‘zlarga -cha, -qi, -ak, -g‘un singari qo‘shimchalar qo‘shilib, ular morfologik usul bilan yasalgan o‘simlik nomlarini hosil qiladi. Asarda keltirilgan -cha affiksi orqali yasalgan olucha, archa va shunga o‘xshash bir qator sodda yasama fitonimlar morfologik usul bilan yasalgan fitonimlarga misol bo‘la oladi. Hozirgi kunda sodda tub so‘zlar sirasiga kiritilayotgan “olma” so‘zi ham tarixan yasamadir. Ushbu so‘z turli davrlarda ba’zi tovush o‘zgarishlariga uchragan. Navoiy asarlarida olma shaklida qo‘llanilgan:

Obi o‘lub tugmay zar paykari,
Oqi qizil olma duru gavhari .

Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida *alma, almila* shaklida qo‘llanilganligi haqida B.Bafoyevning “Ko‘hna so‘zlar tarixi” kitobida keltirilgan. Bu so‘zning turkiy tillardagi asosi al-ol hisoblanib, qadimgi qo‘llanilishida i unli tovushi ham o‘zak tarkibida (ali) bo‘lgan. So‘z yasovchi qo‘shimcha - ma turkiy tillar uchun hisoblanib, inkor ma’nosini ifodalaydi. Olma so‘zi fors-tojikcha olu-oli hamda turkiy so‘z yasovchi qo‘shimcha - ma ning qo‘shilishidan yasalgan va bu meva olular turkumiga kirmasligini anglatadi. Chunki olular turkumiga kiradigan mevalarning bitta katta donagi bo‘lgan. Olu so‘zi shaftoli, zardoli, olucha olu-boli, olxo‘ri kabilar turiga kiruvchi mevalarning umumiy nomi hisoblangan. Olma mevasida esa, aksincha, kichkina ko‘p donakli bo‘lganligi sababli olular turkumiga kirmaydi ma’nosida qo‘llangan. So‘zning tarixiy tuzilishi quyidagicha:

olma < ol + m + la < ol (i) + mi+ la < ol +i = u + ma

tarzida bo‘lib, ayrim tovush o‘zgarishlariga uchragan ya’ni i va u unlilarining almashinib qo‘llanishi yoki keyinchalik i unli tovushining tushib qolgan (B.Bafoyev, 1991, 14-bet).

Demak, olma so‘zi yasama so‘z bo‘lib, fors-tojikcha olu-oli so‘ziga turkcha so‘zning inkor ma’nosini yasaydigan –ma qo‘shimchasi qo‘shilgan.

Asardagi sintaktik usul bilan yasalgan fitonimlar. O‘zbek tilida o‘simlik nomlarini yasalishida sintaktik usul morfologik usulga nisbatan ancha ko‘pchilikni tashkil qiladi. Garchi shunday bo‘lsa ham asarda bunday fitonimlar sirasiga kiradigan fitonimlar kamchilikni tashkil qiladi. Sintaktik usul bilan qo‘shma juft, takroriy fitonimlar hosil qilinadi. Sintaktik usul bilan hosil qilingan fitonimlarni tashkil etgan komponentlar (qismlar) semantik-grammatik va talaffuz jihatidan birikib, yaxlit leksik butunlikka aylanib ketgan. Asardagi mehrigiyoh, dilshabih, nayshakar kabi o‘simlik nomlari kiradi. Sintaktik usul bilan yasalgan qo‘shma so‘zlar tarkibidagi komponentlar qo‘shib yoziladi.

Asardagi semantik usul bilan yasalgan fitonimlar. Bu usul bilan so‘z yasalganda tilda mavjud bo‘lgan so‘z ma’nosining o‘zgarishi natijasida leksema tarkibidagi leksik ma’nolar orasidagi aloqa uziladi va yangi so‘z hosil bo‘ladi. Semantik usul bilan yasalgan ikki ma’noli so‘zning o‘zaro birikishidan boshqa bir yangi ma’noning vujudga kelishi o‘simlik nomlarida ham uchraydi. Asardagi *ayiq o‘ti* kabi o‘simlik nomlari mana shunday fitonimlar sirasiga kiradi. Bu o‘simlik nomlarini tashkil qiluvchi so‘zlar orasidagi ma’no metafora usulida ko‘chgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek tili leksikasi, ya’ni lug‘at boyligi doimo taraqqiyotda bo‘lib, u ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy o‘zgarishlar natijasida rivojlandi va taraqqiy etadi. Ana shu o‘zgarish va taraqqiyot tufayli tilimizning leksik qatlami yangi birliklar bilan boyib boradi. Tilimizdagi yangi leksik birliklarni o‘rganishda “Boburnoma” asari qimmatli manba vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bafoyev, B. (1991). *Ko‘hna so‘zlar tarixi.* (10,14-bet). Toshkent: Fan.

2.Rahmatullayev,Sh. (2000). *O‘zbek tilining etimologik lug‘ati.* Toshkent:Universitet.

3.Xolmanova, Z.T. (2021). *“Boburnoma” – til qomusi.* Toshkent: Akademnashr, 2021

4.Xolmanova, Z.T.(2003) *“Boburnoma” – eski o‘zbek tilidagi nodir manba.* O‘quv qo‘llanma. –Toshkent.

5.Zahiriddin Muhammad Bobur. (2002). *Boburnoma.* Toshkent: Sharq.

6.Zahiriddin Muhammad Bobur. (2017). *Boburnoma.* Toshkent:Sharq.

“BOBURNOMA” ASARIDA TIBBIYOTGA OID SEMANTIK MAYDON

Safoyeva Shodiya Ma’ruf qizi,
ToshDO‘TAU lingvistika(o‘zbek tili)
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
shodiyasafoyeva@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi tibbiyotga oid leksemalar leksik-semantik jihatdan tahlil ostiga olingan. Zahiriddin Muhammad Bobur dunyo madaniyatida istedodli shoir, voqelikni teran anglagan va yorqin chizgilarda tasvirlagan noziktab ijodkor, mahoratli sarkarda, adolatli hukmdor, ma’naviy–ma’rifiy taraqqiyot asoschisi hamda buyuk imperator sifatida iz qoldirgan. ”Boburnoma” matni XV-XIV asrlardagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston tarixiy muhiti, ijtimoiy-siyosiy, maishiy tizimiga oid qaydlarni o‘z ichiga olgan.*

Kalit so‘zlar: *Tabiiy fan, leksik-semantik xususiyat, tibbiyot, muolaja jarayoni, ichki kasallik, tashqi kasallik.*

Abstract. *In this article, lexemes related to medicine in Zahiriddin Muhammad Bobur’s work “Boburnoma”are analyzed from a lexical-semantic point of view. Zahiriddin Muhammad Bobur left his mark on world culture as a talented poet, a subtle creator who deeply understood reality and depicted it in bright lines, a skilled general, a just ruler, the founder of spiritual and edicational development, and a great emperor. Text of “Boburnoma” XV-XIV it contains notes*

on the historical environment, social-political, household system of Central Asia, Afghanistan and India in the centuries.

Key words. *Natural science, lexical-semantic feature, medicine, treatment process, internal disease, external disease*

Asar leksikasida faol o‘rin tutuvchi ijtimoiy soha leksikasidan biri bu-tibbiy terminlar.Bu soha terminlarini maqolada boshqa terminlarga qaraganda ko‘proq va aniqroq tarzda ochib berishga harakat qilamiz.Tabobat sharqda qadimdan taraqqiy etgan soha sanaladi.Tabobat ilmi,uning taraqqiyoti,o‘ziga xos jihatlari ilmiy asosda tahlil etilgan.(Hakimlar hikoyati.-Toshkent,1983,1985;Tabobat durdonalari.-Toshkent,1990;Hasaniy M,Karimova S.Navoiy davri tabobati.-Toshkent,1991;Tabobat xazinasi durdonalari.-Toshkent,1987). Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari hozirgi zamon meditsinasi uchun ham dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida tibbiy terminlar diaxronik nuqtayi nazardan tahlil qilinmagan. Kasallik nomlari va ularning xususiyatlari sinxronik jihatdan o‘rganilgan.(Husanov.A. Kasallik nomlari tarixidan // O‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligining ba’zi masalalari.-Toshkent,1973.-B.19-20)

Kasallik nomlari tarixi, struktur-morfologik xususiyatlari, kasallik nomlarining shakllanish usullari va tibiiy terminlarning o‘zlashish jarayonlari alohida mavzu sifatida yoritilgan. Tibbiy terminlar taraqqiyotida bu sohada yaratilgan tarixiy lug‘atlar hamda hozirda yaratilayotgan izohli lug‘atlarning ahamiyati katta.

Bobur o‘z davrida tibbiyotga va tabiblarga alohida e’tibor bilan qaragan.Bu holat dastab jismoniy holat, ehtiyoj sababli bo‘lsa, keyingi o‘rinlarda hukumdorning istedodli shaxslarga davlat arbobi sifatidagi munosabati bilan belgilanadi.Bobur mashhur tabiblarni saroyga jalb etgan. “Boburnoma”da musavvidi avroq”(noma’lum kotib) hukumdorning tabiblarga munosabati, Boburning xos tabibi Yusufiy haqida ma’lumot yozib qoldirgan. Boburning tibbiyotga munosabatida Yusufiy kabi tabobat sohiblarining o‘rni beqiyosdir.Boburning tibbiyot haqida bilimlarga ega bo‘lishida uning tabiblar bilan

olib brogan suhbatlari muhim o‘rin egallaydi. Bobur tabiblarning faoliyati,davolash usullari haqida fikr yuritadi.Xususan,oyog‘idagi yarani davolagan tabib to‘g‘irisida quyidagicha ma’lumot beradi:*Yaramni boqqali Attika baxshi otliq mo‘g‘ul jarrohini yiboribturlar.*Uning davolash usullari haqida ham ma’lumot beradi: *Jarrohliqta bisyor hoziq edi. Kishining mag‘zi chiqsa,doru berur edi. Ildizdin har turliq yara bo‘lsa edi,oson muolaja qilur edi.Ba’zi jarohatqa malhamdek doru qo‘yar edi,ba’zi yaraga doru berar edi.* Bobur Attika tabibning singan maydalanib ketgan suyaklar o‘rniga doruni un qilib sepib, yana o‘z holiga qaytarish darajasida davolashini “viloyat jarrohlari andoq mudavodin ojizdurlar” deb baholaydi.

Boburning tibbiyotga doir mulohazalari, eski o‘zbek tilida faol qo‘llangan terminlar “Boburnoma”da o‘z ifodasini topgan. Asardagi tibbiyotga oid terminlarni quyidagicha tasniflashni joiz deb topdik:

1.Kasallik nomlari.

2.Kasallik bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar.

3.Dori –darmon nomlari.

4.Muolaja jarayoni bilan bog‘liq terminlar.

Maqolamizda kasallik nomlarini yoritishga harakat qildik. Kasallik nomlarini ikki qismga ajratib o‘rganamiz:

a) tashqi jarohatlar nomini bildiruvchi terminlar:

obila- 1) “po‘rsildoq,qavariq yara; 2) “chechak” .F.Is’hoqovning “Boburnoma uchun qisqacha izohli lug‘at” asarida shu tarzda izohlangan.Kasallikka qarshi emlash tadbiri ommalashmagan o‘sha davrda obila yomon oqibatlarga olib kelgan: *…Zaynab Sultonbegim… ikki-uch yildin so‘ng obila zahmati bila olamdin bordi.* Bobur asarda kasallik turini bildiruvchi ushbu so‘zdan obrazli tarzda foydalanadi. Kasallikni kishining noxush, axloqsizligi(fisqi), hayosizligi(bebokligi) uchun berilgan ilohiy jazo sifatida baholagan: *Xoja Abdulla Marvariy fosiq va bebok edi, fisqning* sh*omatidin obila marazig‘a giriftor bo‘lib, ushbu baliya bila-o‘q olamdin naql qildi.* Mazkur termin birikmalar tarkibida kelib,kasallik belgilarini to‘liq yoritishga xizmat qilgan: *obila zahmatida* “ kasallik azobi” semasi, *obila marazida*

kasallik semasi, *obila jarohatida* *"*kasallikning zohiriy ifodasi" semalari dastlabki e'tiborda turadi.

Piyagdin ko'chgan ayyomda vujudimda obila jarohati paydo bo'lib edi. Obila kasalligi xalq orasida "chechak" nomi bilan mashhur.Kasallikning bu tarzda nomlanishi uning belgilari bilan bog' lanadi.Qizil toshmalarning toshishi-chechak deb nomlanadi. Xalqda *chechak* bilan birgalikda *qizamiq* termini ham qo'llanadi. Ammo bularning boshqa-boshqa kasallik ekanligini Ar-Roziy o'z asarlarida qayd etgan.(Abu Bakr Ar-Roziy. Kasalliklar tarixi.-Toshkent: Xalq merosi, 1994.-B.39.)

Dobg' uli-"chipqon yara": *"...bu behuzurliq hanuz yaxshi bo'lmaydur edikim , o'ng yuzimga dobg'uli chiqti, ... bu maraz uchun muzhil ham ichtim";*

Zahm-"yara, jarohat": *Bovujudi zahm Samad andoq choparkim...; tosh zahmi* birikmasi o'q otar qurol toshi "o'qi" tegishidan hosil bo'lgan yarani bildirgan:… *munda ul qabohatining tadorukiga darvozada fasil tubiga kirganda tosh zahmi bila o'ldi;*

Qort-yara, jarohat; "*bir-ikki yildin so'ng Ali Do'stning iligiga qort chiqib o'ldi*"; Ayrim birikmalar kasallik sabablari, yuzaga kelish jarayonini ifodalagan va tibbiy terming aylanib borgan: *sovuq olishi: Andoq kim ba'zining ilik-oyog' in sovuq oldi; mag' iz chiqishi (*mag' z-"miya"*): Kishinig mag'zi chiqsa, doru berur edi.*

Shikast ("sinish"), *ko'r, ma'yub* so'zlaari "tashqi jarohat" natijasidagi kasallik tushunchalarini ifodalashga xizmat qilgan termin sifatida qo'llangan.

b) ichki kasalliklarni bildiruvchi terminlar:

Qulunj- "ichak kasalligi, yo'g'on ichakda bo'ladigan kasallik- o'g'riq": *Sayid Yusufbek bir necha kun burunroq qulunj zahmati bila tengri rahmatig'a boribtur.Qulunj* tarixiy tibbiy manbalarda *qulanj* shaklida qayd etilgan bo'lib, "ichakka og'riq beruchi kasallik"ni bildirgan;

Mafosil -ushbu kasallik nomi F.Is'hoqovning "Boburnoma uchun qisqacha izohli lug'at"ida "bo'g'inlar" tarzida ifodalangan. Z.Xolmanovaning "Boburnoma-

til qomusi” monografiyasida “bo‘g‘im zirqirash kasali” tarzida izohlangan; hozirda “revmatizm”: *Mafosil zahmati jihatidin namoz qila olmas edi;*

Aflij-“Boburnoma”ning 1960-yilda chop etilgan nashrida shu tarzda qo‘llangan. 2002-yildagi nashrida esa *aflaj* tarzida uchratish mumkin: *Tarix to‘qqiz o‘n yettidamen Samarqandni olg‘onda,Muhammad Valibek va Darvesh Ali kitobdor mening qoshimda edilar.Ul vaqt aflij bo‘lib edi.*Yozuvchi ushbu xastalikni keltirib o‘tganda uning belgilari,alomatlari,inson tanasida qanday hoatlar ro‘y berishi xususida ham aytib o‘tadi. *...ilik-oyog‘idin qolib;*

Quyong - “falajlik”: *Quyong tashvishi jihatidin mihvadek nima yasab,Boron yoqasidin shahrg‘acha meni ko‘tarib..;*

Sa’ab quyong – “falajning og‘ir ko‘rinishi” : *Ramazon oyining o‘n uchida manga sa’ab quyong tashvishi bo‘ldi,andoqkim,qirq kungacha meni buyondin- ul yonga kishi evurur edi. Sa’b* so‘zi F.Is’hoqov tomonidan tuzilgan lug‘atda “kasallik turi: quyon kasalligi” tarzida izohlangan.

“Qiyin, og‘ir, mashaqqatli”ma’nosidagi sa’ab kasallik darajasidan shakllangan termin sanaladi.Asarda *sa’ab* so‘zi boshqa tushunchlarga nisbatan ham sifatlovchi vazifasini bajargan: *sa’ab muxotara*- “xatar” : *Ushbu yurtta mening volidam xonim va Kohmardta qolg‘an urug‘ sa’ab muxotara o‘tqarib,kelib qo‘shildilar;*

Zocha-“ tuqqanda sodir bo‘ladigan qon ketish kasalligi: *O‘shal farosatta-o‘q zocha zahmati bila tengri rahmatiga bordi;*

Sohib uzr – “ tomoq og‘rig‘ i ” : *Bu kun yana sohib uzr bo‘ldum,to‘qqiz kunga tortti; Chupchuq bezgak* – “ chumchuqqa nisbatan berilgan kasallik nomi” ; Dastlab hayvonlarda uchragan kasallik nomlari ularning nomi bilan yuritilgan: *fil kasalligi,tulki kasalligi.*(Abu Bakr Ar-Roziy. Kasalliklar tarixi.-Toshkent: Xalq merosi, 1994.-B.231.)

Qadimgi turkiy tilda bezgak “isitma kasalligi” ma’nosida qo‘llangan. “Boburnoma”da ham xuddi shu ma’noni bildirgan: *...Xojandning ovlog‘i va qishlog‘i bisyor yaxshidur. Oq kiyik, bug‘umaral,qirg‘ovul va tovushqoni ko‘p bo‘lur. Havosi bisyor mutaaffindur, kuzlar bezgak ko‘p bo‘lur. Andoq rivoyat*

qildilarkim,chupchuq bezgak bo'lg'ondur. Derlardik, havosining taaffuni shimoldag'i tog' jihatidindur.

Kalolat –" so'zlashda tilning tutilishi". Boshqa bir o'rinda kasallikning turkiy nomi- *til tutilishi* tarzida qo'llangan: *Andoqkim to'rt kungacha tilim tutildi,og'zimg'a paxta bila suv tomizurlar erdi.*

Hasba –" toshma" …*Qutlug' Nigorxonimga hasba marazi oriz bo'ldi, fasd qildilar, noqis voqe bo'ldi.*

Oriza –" baxtsiz hodisa,asorat " Ushbu kasallik muayyan davr, muddatga cho'zilgan. *Sulton Mahmudxong'a oriza bo'ldi; Har mundoq orizakim bo'ldi, aqalli bir oy qirq kunga tortti;*

Rezandaliq – " tumov kasalligi " …*Bigromda tushganda rezandaliq bo'lib isittim;* Bu kasallik oqibatida *yo'tal, surfa* kabi xastaliklar kelib chiqqan*; Yo'tal: ... oqshomi rezandaliq bo'lib isittim, bu rezandaliq yo'talg' a tortti;*

Surfa : Bu rezandaliq surfag'a munjar bo'ldi. Ar-Roziyning asarlarida *isitma* ham kasallik sifatida keltirilgan.Alisher Navoiying asarlarida ham *isitma* kasallik nomi sifatida qayd etilgan.Biz o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan "Boburnoma"asarida ham isitma alohida kasallik tushunchasini ifodalovchi sifatida qo'llangan: … *Bildimkim, bu isitma qondindur. Har isitqonda g'arqi araq bo'lmag' uncha isitma qo'ymas edi.* Jumlada keltirilgan *"g'arqi araq" tushunchasi* izofiy birikma bo'lib, isitmaning tarqash jarayonida kuzatiladigan "kuchli terlash" tushunchasini ifodalaydi. Jumladan, asarda *muhriq* isitmaning o'tkir ko'rinishini bildirgan: *muhriq isitma tori bo'ldi. Muhriq* – "kuydiruvchi, yondiruvchi, o'rtovchi " ma'nosini beradi. " Boburnoma" asaridan tashqari XIV asrda ham isitma kasallik nomi sifatida qo'llangan.(Tarjumon-XIV asr yozma obidasi.- Toshkent:Fan,1980. – B. 65.)

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida qo'llagan tibbiyotga oid leksemalar o'sha davr uchun ham bugungi kun uchun ham ahamiyatga molik bo'lgan deyish o'rinlidir.Yozuvchi asar tarkibida xalq orasida mashhur bo'lgan so'zlar yoxud ancha vaqtdan beri qo'llanmagan leksemalardan ham foydalangan. Ularni atroflicha tahlil qilgan .

Asar XV-XIV asrda mavjud bo‘lgan ammo hozirda keng iste’molda bo‘lmagan yoki umuman qo‘llanilmaydigan so‘zlar, kasallik nomlari, ularni davolash usullari haqida batafsil ma’lumot beradigan qimmatli manbadir.Ushbu asar turli xil fan sohalarining taraqqiyoti uchun xizmat qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Bakr Ar-Roziy. (1994) Kasalliklar tarixi.-Toshkent: Xalq merosi,
2. Hakimlar hikoyati. (1983)-Toshkent1985;Tabobat durdonalari.-Toshkent,1990;
3. Hasaniy M, Karimova S. (1991) Navoiy davri tabobati.-Toshkent,;
4. Tabobat xazinasi durdonalari(1987).-Toshkent.
5. Husanov.A. (1973) Kasallik nomlari tarixidan // O‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligining ba’zi masalalari.-Toshkent.-B.19-20.
6. Tarjumon-XIV asr yozma obidasi. (1980). Toshkent:Fan,– B. 65.
7. Xolmanova Z.T. (2021) “Boburnoma”-til qomusi.-Toshkent:Akademnashr
8. Xolmanova Z.T. (2003) “Boburnoma”-eski o‘zbek tilidagi nodir manba. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. (2002) Boburnoma. – Toshkent: Sharq
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. (2017) Boburnoma. – Toshkent:Sharq
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2008) –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi

QADIMGI TURKIY TIL VA ESKI O‘ZBEK TILIDA KELISHIK KATEGORIYASI TARAQQIYOTI

G‘ulomova Go‘zal Lochin qizi,

CHDPU Gumanitar fanlari fakulteti 2-kurs

gozalgulomova03@gmail.com

Ilmiy rahbar: Muratova Nafisa

Annotatsiya. *Ushbu maqola qadimgi turkiy til va eski o‘zbek adabiy tili davrida qo‘llanilgan kelishik kategoriyasi qo‘shimchalarining taraqqiyotini ko‘rsatishga,ularning muhim sintaktik xususiyatalarini ochib berishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kategoriya,affiks,qadimgi turkiy til, eski o‘zbek tili,qadimgi yodnomalar.*

Abstract. *This article aims to show the development of the suffixes of the category of agreement used in the period of the ancient Turkic language and the old Uzbek literary language and to reveal their important syntactic features.*

Keywords: *Series, affix, ancient turkic language, old uzbek language, ancient writings.*

Qadimgi turkiy til davridan to hozirgi o‘zbek adabiy tili davrigacha bo‘lgan tilimizning tarixiy taraqqiyoti davomida kelishiklarda sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi. Xususan, ularning soni o‘zgardi. Shunday bo‘lsa ham ular turkiy tillarning bosh kategoriyasi bo‘lib qolaverdi.

Ma’lumki, kelishik ot yoki otlashgan so‘zni boshqa so‘zlar bilan munosabatini bildiruvchi kategoriya. Bu sintaktik kategoriya garchi qadimgi turkiy til davridan beri qo‘llansada, ular hozirgi shakllaridan unchalik farq qilmagan. Zero, ularni bugungi kun o‘quvchisi ham deyarli qiyinchiliklarsiz farqlay olishi mumkin.

Qadimgi turkiy tillarda kelishik kategoriyasi

Turkiy tillarda kelishik tizimining ikki ko‘rinishi mavjud. Birinchisi, nisbatan qadimiy bo‘lib, bobo til davriga xosdir. Ikkinchisi, nisbatan keyinroq, ya’ni asos til davrining so‘nggi bosqichlarida paydo bo‘lgan, deb qaraladi. Turkologlar qadimgi turkiy tildagi kelishiklar soni haqida turlicha fikr bildiradilar. V.V Radlov 8 ta, I.A.Batmanov 6 ta, V.I.Nasilov 7 ta, A.Kononov 11 ta kelishik mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydilar. (Raxmonov,2009,120-121-bet)

Qadimgi yodgorliklar tilida kelishiklar soni 7 ta, ya‘ni vosita kelishigi ham mavjud bo‘lgan. Kelishiklarning har biri bitta qo‘shimchaga ega,faqat ularning turli fonetik variantlari bor:

1) Bosh kelishik: uning maxsus affiksi yo‘q.

2) Qaratqich kelishigi*:-qa,-kä/-ğa,-gä/-a,-ä/-ğaru,-gärü/-qaru,-kärü/-ğar,-gär/-qar,-kär/-ru,-rü/-ra,-rä*

3) Jo‘nalish kelishigi:*-qa,-kä/-ğa,-gä/-a,-ä/-ğaru,-gärü/-qaru,-kärü/-ğar,-gär/-qar,-kär/-ru,-rü/-ra,-rä*

4)Tushum kelishigi:*-ğ,-g(-ïğ,-ig/-uğ,-üg),-ni,-nï/-n,-ï,-i*

5) O‘rin-payt kelishigi*:-da,-dä/-ta,-tä*

6)Chiqish kelishigi*:-dan,-dän/-tan,-tän/-din,-dïn/-tin,-tïn/-dün,-dun/-da,-dä/-ta,-tä*

7)Vosita kelishigi*:-n(-ïn,-in/-ün,-un)*

Bosh kelishik. Bu kelishikning maxsus qo‘shimchasi yo‘q, ya’ni nol shaklda. U boshqa kelishiklarning yasalishi uchun asos bo‘ladi.

Qaratqich kelishigi. Qaratqich kelishigi qaralmishdan anglashilgan shaxs-narsaning shu kelishikdagi so‘z anglatgan shaxs-narsaga xosligini,qarashliligini bildiradi. U belgili yoki belgisiz qo‘llaniladi. Belgili qo‘llanganda xoslik ma‘nosi aniq ko‘rinib turadi: *Bo‘dun bo‘gzi to‘q arti- Xalqning qorni to‘q edi* (To‘nyuquq). Belgisiz kelganda esa ma’no mavhum va umumiy bo‘ladi. Bunday holatda so‘zning qaratqich kelishigida ekanini qaralmishga qo‘shilib kelgan egalik affiksi orqali anglashiladi.

Jo‘nalish kelishigi. Jo‘nalish kelishigidagi ot ish-harakat muhitini,harakat-holatning bajarilish paytini,ish-harakatning bajarilishida vosita bo‘lgan predmetni bildiradi.

Bu kelishik qo‘shimchasi turli xil bo‘lib, qadimgi turkiy tilda *-qa,-kä* variantlari ustun bo‘lgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida aynan shu shakllar *-ğa,-gä* qo‘shimchalari o‘rnida qo‘llangan:*Turk bo‘dun Tabg‘achqa ko‘rur, arti-Turk xalqi Tabg‘achqa qaram edi* (To‘nyuquq).

Yodgorliklar tilida jo‘nalish kelishigining *-ğaru,-qaru,-kärü,-gärü* affikslari faol foydalanilgan. Masalan:...*O‘ngra Turk qag‘ang‘aru sulalim*(To‘nyuquq).

-a (-ya),-ä (-yä) affikslari: *inimä, bodunama.*

Tushum kelishigi. Qadimgi turkiy tilda tushum kelishigining *-n,-ni,-ï,-i* qo‘shimchalari bilan birga *-ğ,-g(-ïğ,-ig,-uğ,-üg)* affikslari ham faol qo‘llanilgan Masalan: *Altun yïsïğ, aša kalitimiz, Ärtis ögüzüg käčä kältimiz* (To‘nyuquq).

O‘rin-payt kelishigi. Bu kelishik otning ish-harakat o‘rni, payti, sababi, maqsadi ma’nolarini ifodalaydi: *Tängi-tög tänridä bulmuš türük*(Kul tegin).

Chiqish kelishigi. Chiqish kelishigi ish-harakatning kelib chiqish nuqtasi, manbasi, o‘rni, sababi yoki vositasi bo‘lgan narsani ko‘rsatadi.*Turk bo‘dun qanin bulmayin Tabg‘achda adrilti* (To‘nyuquq). *O‘ngra Qitayinda, biriya Tabg‘achda,quriya Qurdanta, yiraya O‘g‘uzda aki-uch bing sumuz kaltachimiz barmu na?* (To‘nyuquq)

Vosita kelishigi. Qadimgi turkiy tilda hozirgidan farqli holda yettinchi - vosita kelishigi ham qo‘llanilgan. Bu kelishik belgisi *-n* bo‘lib, o‘zak negizning fonetik-fonologik tabiatiga bog‘liq ravishda *-ïn,-in,-un,-ün* shakllariga ega bo‘ladi. Masalan:*Sücig sabïn, yïmšaq ağïn arïp,ïraq bodunuğ ančа yağutïr ermis- Shirin so‘zi bilan, nafis ipaklari bilan avrab,yiroq xalqlarni yaqinlashtirar ekan* (Kultegin, Katta bitig) (Dasaboyev, Xolmonova, 2018,68-bet)

Eski o‘zbek tilida kelishik kategoriyasi

O‘zidan oldingi davrlarning adabiy-lisoniy an’analari ta’siri ostida shakllangan, XIV asrning 2-yarmidan XIX asr oxirlarigacha amalda bo‘lgan eski o‘zbek tilida oltita kelishik mavjud edi. Sababi XIII-XIV asrlar orasida vosita kelishigi formasidagi so‘zlarning bir qismi ravish so‘z turkumiga ko‘chib o‘tgan. Bu ko‘chish asosan payt bildiruvchi so‘zlarda amalga oshgan: *qыshыn, yazыn, ertin, kechin, tunun* kabi. Bu so‘zlar tarkibidagi *-ын,-in,-n* vosita kelishigi affikslari bo‘lib, keyinchalik so‘zning tarkibiy qismiga aylangan va ular ravish so‘z turkumi sifatida shakllangan.

1)Bosh kelishik: -

2)Qaratqich kelishigi*:-nin,-nun,-nïn,-in,-ın,-un,-ün*

3)Tushum kelishigi*:-nı,-ni,-n,-ı/-i*

4)Jo‘nalish kelishigi: *-g‘a/-gä,-qa/-kä,-a/-ä*

5)O‘rin-payt kelishigi*:-da/-dä,-ta/-tä*

6)Chiqish kelishigi*:-dın/-din,-tın/-tin,-dan/-dän,-tan/-tän,-dun/-dün,-tun/-tün*

Bosh kelishik.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bo‘lganidek eski o‘zbek tilida ham bosh kelishikning hech qanday morfologik shakllari bo‘lmagan. Bosh kelishikka maxsus affikslar qo‘shilib boshqa kelishik shakllari hosil qilinadi.

Bu kelishikning gapdagi asosiy sintaktik vazifasi egadir: *Ularning ustiga yuborilgan o‘zbaklar ularni qirga qochirdi* (Boburnoma).

Qaratqich kelishigi

Qaratqich kelishigi qo‘shimchalari bir affiksning turli fonetik ko‘rinishlari hisoblanadi. Ulardan qay birining qo‘llanilishi esa shu qo‘shimchalarni qabul qiluvchi so‘zning fonetik tuzilishiga bog‘liq.

-nın/-nin bu affikslar so‘zning oxirgi bo‘g‘inida lab unlisi bo‘lmagan so‘zlarga qo‘shilib keladi: *mirzoning ustiga* (Boburnoma); *kishining suhbatin* (Navoiy).

-nun/-nün affikslari labial garmoniyaga asosan yuzaga keladi. Ya’ni so‘zning oxirgi bo‘g‘inida unli lablangan bo‘lsa, affiks tarkibidagi unli ham lablangan bo‘ladi: *so‘zning rasti* kabi.

-ın/-in,-un/-ün shakllarining qo‘llanishi “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘otit turk”da ham *biz,siz,kim* olmoshlari bilan chegaralangan. Bu shakllar O‘rxun-Enasoy va qadimgi uyg‘ur yodgorliklari tiliga xos bo‘lib, qo‘llanish doirasi ham ancha keng bo‘lgan. (Andurahmonov,Shukurov, Mahmudov, 2008, 84-bet)

Tushum kelishigi

-ni/-nı tushum kelishigining asosiy affikslari sifatida eski o‘zbek tili taraqqiyotining barcha davrlarida keng foydalanilgan. Masalan: *elni, yarni, kishini, tilni, ayaqni, tag‘ni.*

-n affiksi esa III shaxs so‘zlariga qo‘shilgan: *U kitobin oldi* (U kitobni oldi); *Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum pisand etmas* (Navoiy).

-i/-ı affikslari I shaxs birlikdagi so‘zlarga qo‘shilib ishlatilgan. *Adl qulog‘ila eshit halimi,Zulm qilur,bashi, manga zolimi* (Muqimiy).

Jo‘nalish kelishigi

Eski o‘zbek tilidagi jo‘nalish kelishigining asosiy affikslari *-gä/-g‘a,-qa/-ka*. Affikslardan qay birini qo‘llanilishi esa shu qo‘shimchalarni qabul qiluvchi so‘zning xususiyatiga bog‘liqdir.

-g‘a unli yoki jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi: *suvg‘a, yolg‘a.*

-qa jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi: *toshqa, yurtqa*.

Singarmonizm qonuniyatiga asosan unli yoki jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarga *-gä*, jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga *-kä* tarzida qo‘shilgan: *tishka, avga*.

Ma’lumki, qadimgi turkiy tilda jo‘nalish kelishigining *-g‘ärü,-gärü,-qaru,-kärü,-ra/-rä,-ru/-rü* affikslari mavjud bo‘lgan. Ammo ular eski o‘zbek adabiy tili davriga kelib iste’mol doirasi ancha chegaralanib, ravish so‘z turkumiga o‘tgan. Masalan: *tashqaru,ichkärü*.

O‘rin-payt kelishigi

Eski o‘zbek tilida o‘rin-payt kelishigining jarangli undosh bilan boshlanuvchi *-da/-dä* va jarangsiz undosh bilan boshlanuvchi *-ta/-tä* shakllari qo‘llangan: *yolda,sozda.* Bu affiks III egalik shakllaridagi so‘zlarga qo‘shilganda *-n* undoshi orttiriladi: *qolina, hozina.*

Chiqish kelishigi

-din/-dın,-tin/-tın bu affisklari chiqish kelishigining asosiy shakllaridir. *El tamizidin hazar et,alaman* (Muqimiy).

-dan/-dän,-tan/-tän bu affikslar XIII–XV asr yodgorliklarida uchraydi.*Su ichkanda dudog‘ingdan su tomsa* (S.Saroyi).

Chiqish kelishigi affiksining *-dun/-dün,-tun/-tün* shakllari asosan oxirgi bo‘g‘inida lab unlisi bo‘lgan so‘zlarga qo‘shiladi. *O‘shul o‘g‘ul anasining ko‘rguzundan a’uzni ichip...*(O‘g‘uznoma).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdurahmonov, G‘., Shukurov, Sh., Mahmudov, Q. (2008). O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi (84-109 bet). Toshkent.

2.Abdurasulov, Y. (2008).Turkiy tillarning qiyosiy tarixiy grammatikasi (89-91 bet). Toshkent.

3. Boburnoma. (1968). (64-147 bet). Toshkent.

4.Dadaboyev, X.A., Xolmanova, Z.T. (2015). Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi (68-bet). Toshkent.

5.Fozilov, E. (1965). O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi (17-18 bet). Toshkent.

6.Rahmonov, N. (2009). O‘zbek tili tarixi (120-121 bet) . Toshkent.

7.Sodiqov, Q. (2006) .Turkiy yozma yodgorliklar tili:adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. Toshkent.

8.Tursunov, U. (2009).O‘zbek tili tarixi (120-121 bet). Toshkent.

9.Turniyozov, N., Rahimov, A. (2006). O‘zbek tili (93 bet). Samarqand.

10.To‘xliyev, B., Karimov, B., Usmonova, K. (2017). 10-sinf adabiyoti. Darslik. (30-42 bet). Toshkent.

11. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sayfi-saroyi.html

12.https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/muhammad-aminxo-ja-muqimiy-1850-1903

13. https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-ruboiylar-vatuyuqlar-badoyi-ul-bidoya-devonidan.html

III BOB

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, JAHON ADABIYOTI MUAMMOLARI VA BOLALAR ADABIYOTI

HIKOYA TRAGIZMI

Bobonazarova Sunbula,
ToshDO‘TAU O‘FF 2-kurs talabasi
sunbulabobonazarova@gmail.com
Ilmiy rahbar: Komiljon Hamroyev

Annotatsiya. *Hikoya g‘am-anduh bilan boshlanib, fojelik bilan yakun topadi. Aynan mana shu vaziyatlar hikoya tragizmini tashkil etadi. Ushbu maqolada Andre Moruaning “Tanatos mehmonxonasi” hikoyasida tragik vaziyatlar va tragik qahramon xususida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tragik obraz, qahramon,daraja, vertikal, katarsis, fojelik.*

Abstract. *The story begins with sadness and ends with tragedy. It is these situations that constitute the tragedy of the story. This article discusses the tragic circumstances and the tragic hero in Andre Moreau's story “Hotel Thanatos”.*

Keywords: *Tragic image, hero, level, vertical, catharsis, tragedy.*

Hikoyani tahlil qilishdan avval muallif to‘g‘risida qisqacha to‘xtalsak. Kitob sahifalarini ochar ekanmiz, “Andrea Morua - hayot muallimi” deb nomlangan sahifa bilan boshlaymiz. Darhaqiqat, Morua hech bir sohani chetlab o‘tgan yozuvchi emas, bundan tashqari u Fransiyaning qalami o‘tkir tanqidchisi ham edi. Andrea Morua, to‘liq ismi Emil Solomon Velgilim Erzog bo‘lib, yozuvchi 1885-yili Ruandan uncha uzoq bo‘lmagan Elfebeda dunyoga kelgan. Hayoti davomida juda ko‘plab asarlar yozgan. Bundan tashqari, ingliz romantizmi vakillariga avtobiografik “Areil yoki Shelli hayoti”, “Dezraelning hayoti”, “Bayron hayoti” kabi asarlar yozganki, keyinchalik bu asarlar “Romantik Angilya” nomli trilogiya ostida chop qilina boshlagan. Va aynan mana shu ijodkor shu ruhdagi asarni yozishi faqat uning shaxsiyatigagina xos va mosdir. Asar Andrea Moruaning “Chorshanba uchun binafshalar” kitobining “Tanatos mehmonxonasi” nomli hikoyasi bo‘lib, tashqaridan qaraganda unchalik ahamiyat kasb etmaydigan qahramon hisoblanadi. Ammo uni yaxshilab tahlildan o‘tkazsak, bu qahramonda tragik obraz belgilarini ko‘ramiz. Hikoyaning qisqacha sharhi: voqealar bor pulini ikki yillik aksiyalarga tikkan va kasodga uchragan o‘ttiz yoshli Jan Mony muvaffaqiyatsizligi bilan boshlanadi. U o‘z kompaniyasiga sakkiz yuz to‘qson uch

dollar pul topshirishi kerak edi. Ammo u bariga qo‘l siltaydi va o‘lish haqida o‘ylay boshlaydi. U o‘z maqsadiga yetish uchun “Палас отель Танатос” Ню-Мексико” deb nomlangan Meksika mehmonxonasiga yo‘l oladi. Chunki bu mehmonxona o‘z o‘limini bo‘yniga olgan insonlarning o‘limini kafolatlovchi mehmonxona edi. Mehmonxona Meksikaning inson qadami yetishi ancha qiyin bo‘lgan yerlarda joylashgan bo‘lib, mehmonxona xo‘jayini aytganidek, hech bir davlat organlari bu joy bilan qiziqmas edi. Asar so‘ngida qahramonimiz yashashga ishonch va kelajakka umid topganida, o‘limga yuz tutishi bilan yakunlanadi. Endi nega bu qahramonni tragik obraz sifatida baholaganimiz to‘g‘risida suhbat yuritsak. Hikoya aynan baxtsizlik bilan boshlanib, fojia bilan yakun topadi. Yosh, navqiron bo‘lishiga qaramasdan qimmat, ammo yashash qiymati qarshisida bir chaqaga teng bo‘lgan pul uchun o‘z joniga qasd qilmoqchi bo‘lgan Jan Mony ko‘z o‘ngimizda yetuk qahramon emas, aksincha, go‘l, notavon, noshud bir odam qiyofasida namoyon bo‘ladi. Bu esa, albatta, o‘quvchi qalbida Monyga bo‘lgan nafratni yuzaga keltiradi. Aynan mana shu belgilar qahramonimizni qandaydir ma’noda obrazga aylantiradi. Chunki unga endi hech birimiz befarq emasmiz. Barchamizda unga nisbatan bir tuyg‘u borki, albatta, bu tuyg‘u ijobiy emas. Bu bir tomoni.

Ikkinchidan, Monyni mehmonxonada tanishgan ayol bilan bo‘lgan suhbatiga to‘xtalsak. Uning faqat muvaffaqiyatsizligi uchun emas, balki muhabbatda, umuman hayoti davomida yashash lazzatini his qilmaganini ko‘rishimiz mumkin. Ya’niki qahramonimiz ilk muhabbatidan rad etilgani, alamiga o‘z yurtidan ketib, boshqa davlatda ishlay boshlagani va umuman boshqa bir ayol bilan oila qurgani, kasodga uchraganidan so‘ng esa uni tashlab ketgani. Bu balolarning barchasi yig‘ilib oxir uning vujudini, nafaqat vujudini, balki ruhiyatini toliqtirib yuborganining guvohi bo‘lamiz. Biror inson unga umid uchqunlari bermasligi, yordam qo‘li cho‘zmasligi. Xuddiki, birorta ham charog‘on yulduzi bo‘lmagan qaro tunda tentirab yurgan odam holatiga o‘xshaydi. Ya’ni Monyning kechirgan o‘tmishida tragediyaning umidsiz lahzalari ko‘zga tashlanadi. Va aynan mana shu to‘satdan bilib qolingan haqiqat orqali bizda qahramonga bo‘lgan salbiy tuyg‘ular

biroz yumshay boshlaydi. Axir kim ham muhabbat dardini yengilik bilan qabul qiladi?

Uchinchidan, qahramon holati. U avval boshdan mehmonxona xo‘jayiniga diniy jihatdan yaxshi tarbiyalangani va agar qo‘lidan kelsa, bu holatni to‘g‘ri qabul qilishga yordam berishini so‘raydi. Tragik obrazlarda kuzatilganidek, o‘z-o‘zi bilan juda ko‘p murosa yuritadi. Tanlagan yo‘lidan qaytish haqida ham juda ko‘p o‘ylaydi. Biroz vaqt shunchaki yashaydi. Ammo bu yashash mobaynida o‘z ichki meni va uni har daqiqa taqib etib turgan o‘lim vahimasi bilan kurashib o‘tkazadi. Aslida ham shunday emasmi? Mana shu daqiqalarni reallikka ko‘chirgan muallifga ham qoyil qolmay ilojimiz yo‘q. Aynan mana shu holatlarda tragik obrazlar kabi bizning qahramon ham katarsis jarayonini boshdan kechiradi.

To‘rtinchidan, qahramonning ayanchli halokati. Bu jarayon ham oddiy o‘lim bilan tugallanib qoladigan vaziyat emas. Muallif bu o‘limni shunday yozganki, qahramonga bo‘lgan shu hissiyotlaringiz darajasi salbiylikka to‘g‘ri kelmaydigan darajada yuqori ijobiylikka ko‘tariladi. Yani vertikal ko‘tarilishning nol darajasidan eng yuqori cho‘qqisiga boradi desak, yanglishmaymiz, meningcha. Tasavvur qiling, samolyotdan qulayapsiz. Ammo birdan samolyotda parashut bo‘lishi yodingizga tushdi. Qanchalar baxtiyorsiz. Sizda yashash hissi qaytadan paydo bo‘ladi. Qaytadan orzu qilish. Qaytadan sevish, yig‘lash, kulish... Barini qaytadan amalga oshirish hissi. Afsuski, parashutni topolmadingiz va quladingiz. Bu qanday qo‘rqinchli manzara. Qanday fojelik. Bizning qahramon ham aynan mana shunday achinarli vaziyatda o‘lim topdi. Mony bir kun avval xo‘jayin xonasiga kirdi. O‘z qarori o‘zgarganini, hayotini tanishgan ayoli bilan yangitdan boshlashini aytdi. Xo‘jayin ham bunga ishongandek ko‘rsatib, joniga oro kiritdi. Biroq aynan mana shu nuqtalarda mehmonxona xo‘jayini o‘z maqsadini ishga solar edi. Mony esa hech narsadan bexabar insonlardek o‘z yotog‘iga yo‘l oldi va shu kecha miriqib uyquga cho‘mdi. Xo‘jayin buyrug‘iga binoan, shu kecha Mony is gazidan zaharlanib o‘ldi. Biz boshida laqma va noshud deb o‘ylagan

qahramonimiz asar so‘ngida fojelikka yuz tutgan obraz sifatida ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Моруа, А. (2015). Чоршанба учун бинафшалар. Тошкент: Янги аср авлоди.

2. Сувон Мели. (2017). Сўзу сўз.Тошкент: Шарқ.

“QIROL LIR” VA “ABULFAYZXON” ASARLARIDA MASXARA VA XAYOL OBRAZLARINING BADIIY FUNKSIYASI

Bozorova Aziza Otabek qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF, 2-kurs talabasi
azizabozorova020@gmail.com
Ilmiy rahbar: Hamroyev Komiljon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Vilyam Shekspirning “Qirol Lir” va Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” asarlarida Masxara va Xayol personajlarining o‘xshash va farqli jihatlari ustida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Drama, komediya, tragediya, syujet, polifonik, katarsis.*

Abstract. *This article discusses the similarities and differences between the characters of Maskhara and Khayol in William Shakespeare's King Lear and Abdurauf Fitrat's Abulfayzkhan.*

Keywords: *Drama, comedy, tragedy, plot, polyphonic, catharsis.*

Har bir badiiy asar insonlarning his-tuyg‘u va ichki kechinmalari, ularning jamiyat bilan, boshqa insonlar, mavjud tuzum yoki ichki “men”i bilan bo‘lgan konfliktlarni qandaydir darajada o‘zida aks ettiradi. Drama odatdagi odamlar, komediya esa odatdagi odamlardan tubanroq kimsalar, tragediya odatdagi odamlardan ma’nan yuksakroq shaxslar tasvirlanadigan janr turidir. Tragediyada tragik obraz asar markazida turadi, barcha obrazlar harakati tragik obraz bilan kesishadi va hatto asar kompozitsiyasi ham tragik qahramonning ma’nan poklanish jarayoni asosida bo‘ladi. Umuman, tragik qahramonning mavjud tuzum va qonuniyatlarga qarshi isyon qilishi, o‘zi teng bo‘lmagan kuchlar bilan kurashishga majbur bo‘lishi, aybsiz aybdorga aylanishi yoki yaqin insonlaridan pand yeyishi,

xato qilishi, lekin qahramon maqsadlarining doim ulug‘vor va ezgu bo‘lishi tragik obrazning o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. Ushbu maqolada “Qirol Lir” va “Abulfayzxon” asarida yuqoridagi xususiyatlarni o‘zida jamlagan Lir va Abulfayzxon qahramonlariga Masxara va Xayol obrazlarining ta’siri, ulardagi o‘xshashlik va farqli jihatlari ustida mulohaza yuritishga jazm etdik.

Ikki asarning syujet chizig‘ida ham bosh obraz sifatida hukmdorlar tasvirlanadi. Badiiy adabiyotda esa hukmdorlarga tragik qahramon sifatida qarash an’anaga aylangan fikrlardan biri va mana shu qahramonning asosiy xususiyati bo‘lmish asar davomida boshqa obrazlardan ma’nan yuksalib borish yo‘lidagi psixologik holatini ochib berishda asosiy funksiya vazifasini Masxara va Xayol obrazlari o‘taydi.

“*Qahramon qalbida kechadigan og‘ir, zil-zambil kechinmalarni ifodalash uchun tabiiy hodisalar qulay ramz, yaxshi vosita bo‘la oladi. Peyzaj, ya’ni badiiy asarda tasvirlanadigan tabiat hodisasini asar arqog‘iga san’atkorona singdirib, unga yangi o‘lchov – samoviy miqyos baxsh etish faqat buyuk ijodkorlarga nasib etadigan amaldir.”*(Сўзу сўз, 2017, 495). Bu jumla ustoz adabiyotshunos Suvon Melining “Samoviy miqyos: “O‘tkan kunlar” va “Qirol Lir” maqolasidan olingan bo‘lib, adabiyotshunos bo‘ron sahnasini asarda shunday funksiya bajarishini, ya’ni qahramonning ichki kechinmalari va ruhiy holatini ochib berishda bo‘ronning vazifasini tahlil ostiga olgan.

Ko‘rishimiz mumkinki, Masxara va Xayol obrazlari asarda eng teran obraz sifatida aks ettiriladi. Chunki ikki asarda ham muallif obrazi – muallifning asar zamirida ko‘zlagan tarbiyaviy ahamiyati shu obrazlarning asar syujetida tutgan o‘rni, harakati orqali ochib boriladi. Lekin biz Masxara va Xayol obrazlariga alohida, individual qahramon sifatida qarashimiz kerak emas. Masxara va Xayol tragik qahramonlarning polifonik xususiyati, ya’ni ularni ijobiy tomonga tortib turuvchi bir qirrasidir. Bu xususiyat “Abulfayzxon” dramasida qahramon uchun tun-u kun uyqu yo‘qligi, ko‘zini yumishi bilan Xayol o‘zi nohaq o‘ldirishga hukm qilgan odamlar qiyofasida namoyon bo‘lishi asarda Xayol obrazining Abulfayzxon tabiatida vijdon funksiyasini bajarishi orqali voqelanadi.

“*Kenja malikamiz Fransiyaga jo‘nab ketganlaridan buyon masxaraboz juda qayg‘urib munglanib qolgan*” (Қирол Лир, 1981, 198). Ritser tilidan aytilgan bu jumlaga e’tibor beraylik. Nima uchun masxara Kardeliyaning haydalganidan qayg‘uga botgan, munglangan? Axir, asarda muallif Kardeliya va Masxara o‘rtasidagi munosabat haqida to‘xtalmagan-ku? Nega bu jumla qo‘shilishi kerak edi? Fikrimizcha, buning sababini Masxarani Lirning bir qirrasi deb qarash orqali anglab yetishimiz mumkin. Masxarada Lirning donoligi, adolatliligi bilan birgalikda Kardeliyaga nisbatan chin otalik mehri ham jamlangan edi. Asarda Kardeliyaning eng sevimli qiz bo‘lgani bir necha marotaba takrorlangan. Lir qizini haydagani, unga nisbatan adolatsizlik qilganidan qayg‘uda, ammo undagi kibr-u havo, laganbardorlik buni tushunib yetishga yo‘l qo‘ymaydi.

O‘quvchi sezishi mumkin bo‘lgan yana bir jihat – Xayol va Masxara obrazlarining asar kompozitsiyasidagi harakatida o‘ziga xoslik ko‘rinadi. Masxara va Xayol asarning ma’lum qismlaridagina ko‘rinish beradi, o‘z vazifasini bajaradi va yana qahramonga singib ketadi. Bu holat “Qirol Lir” tragediyasida Masxaraning Lirga batamom singib ketib sahnadan tushib qolishiga to‘g‘ri kelsa, “Abulfayzxon” dramasida esa Abulfayzxon yolg‘iz qolgan vaqtlarida Xayol unga singib ketadi va unda vijdon tuyg‘usini uyg‘otishga zamin yaratadi. Ya’ni ikki qahramon ham o‘zini-o‘zi taftish qilish darajasida turganda Xayol va Masxara bilan birlashib, ular bilan ajaralmas butunlik hosil qiladi. Shu hodisadan keyin asar boshidagi tragik qahramon bilan asar oxiridagi tragik qahramonda juda katta farq borligi namoyon bo‘ladi.

Tragik asarlarning kulminatsion nuqtasi katarsis holati bo‘lib, katarsis – bu qahramonning iztirob olovida poklanishi demakdir. Bu holat biz tahlil ostiga olgan asarlarimizda ham mavjud bo‘lib, “Qirol Lir” asarida ustoz Suvon Meli tahlil qilgan bo‘ron sahnasiga to‘g‘ri keladi:

“*O‘kiraver! Chinqiraver! Quyaver yomg‘ir,*
Guldurashuv, chaqin yomg‘ir – tabiiy ofat.
Mening qizim emassizki buncha zulm uchun
Men sizlarni qarg‘asam-u, yo gina qilsam

Men sizlarga podshohlikni topshirmagan

Va sizlarni o‘z bolam deb atamaganman.

Sizlar menga mu’te bo‘lgan qudrat emassiz,

Dahshat o‘la ermak uchun o‘kiravering.”(Қирол Лир, 1981, 198).

Ushbu sahnada tasvirlangan inson zoti chidashi qiyin bo‘lgan dovul, ya’ni oddiy odamlar chiday olmaydigan achchiq iztirob iskanjasida Lirni bunga bardosh berishi uni qaytadan tug‘ilishiga sabab bo‘ladi, boshqa odamlardan yuksaltiradi va endilikda o‘quvchida Lirga nisbatan g‘azab emas, achinish hissini uyg‘otishga zamin yaratadi. Suvon Meli tili bilan aytganda, “qahramon zohiridagi talatumlarning botiniga ko‘chishi”da Masxaraning o‘rni Lirning ruhiyatidagi o‘zgarish, o‘z-o‘zini taftish qilib, asalida kim ekanini tushunib yetishida hayot haqiqatiga asoslangan hikmatlari bilan ochib berishdadir.

“Abulfayzxon” dramasida Xayol qahramonni ruhiy katarsis holatiga tayyorlab boradi. Xayolni Abulfayzxon psixologiyasidagi o‘rni asosan qahramonning yolg‘iz qolgan vaqtida ko‘zga tashlanadi. Xayolning qahramon psixologiyasiga kuchli ta’sir etgan achchiq so‘roqlari, tinimsiz ruhiy qiynoqlari natijasida qahramon o‘zgaradi va endilikda faqat qahramon yolg‘iz qolgan vaqtida emas, Abulfayzxon bilan butkul birlashib ketib uning psixologik holatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mana shu holat asarning kulminatsion nuqtasi hisoblanib, Rahimbiy Abulfayzxonni uy qamog‘ida saqlayotgan vaqtlarga to‘g‘ri keladi. Shundan keyin Abulfayzxon o‘zgaradi, o‘ziga yuqoridan qaraydi, farzandlari, oxirati haqida o‘ylay boshlaydi. O‘quvchi asar boshidagi qahramon bilan asar oxiridagi qahramon orasidagi farqni yaqqol sezadi. Endilikda o‘quvchi Abulfayzxonga zolim shoh emas, tuzumning va o‘z nafsining qurboni bo‘lgan bechora inson sifatida qaray boshlaydi.

Bu ikki asarni solishtirganimizda har qanday mushtaraklikning ham farqli jihatlari bo‘lishini ko‘rishimiz tabiiy. Bu paradoksal hodisa bo‘lib, ikki obraz bir-biriga qanchalik o‘xshamasin, ular ikki alohida-alohida ong mahsuli ekani, Sharq va G‘arb dunyoqarashini o‘zida mujassam etgani bilan bir-biridan farqlanadi. Masxara obrazi asar qurilishida qahramonning psixologik holatini ochib berishi,

ruhiy katarsis holatiga tayyorlashi bilan birgalikda o‘zining voqealar kechimidagi o‘rniga ko‘ra alohida obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Xayol obrazi uchun esa asar voqealar rivojida alohida qahramon ajratilmagan. U asarda bola, ayol, Abulfayzxonning akasi, asar oxirida esa Siyovush ko‘rinishlarida nomoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Masxara va Xayol ikki asarda ham keng qamrovli vazifa bajarib, asosan, qahramon qilgan ishlarini taftish qilib boruvchi vijdon vazifasini o‘tashi, tragik qahramonning poklanishida katarsis holatiga tayyorlash funksiyasini bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурауф, Ф. (2000). Абулфайзхон.Тошкент: Маънавият.

2. Вильям, Ш. (1981). Қирол Лир. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.

3. Сувон, М. (2017). Сўзу сўз. Тошкент: Шарқ.

FARHOD MUSAJON QISSALARIDA BOLA RUHIYATI IFODASI

Fayzulloyeva Dilfuza Ikrom qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi
dilfuzafayzullaeva2002@gmail.com

Annotatsiya. *Adabiyotshunoslik ilmi uchun hozirgi adabiy jarayonni tadqiq etish, uni boshqa davrlardan farqlab turuvchi jihatlarini aniqlash muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada XX asr o‘zbek qissachiligiga, xususan, bolalar adabiyotiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan Farhod Musajonov ijodida bola obrazining o‘ziga xos jihatlari muallif tomonidan qay darajada ifodalay olinganligi yoritib berilgan, yozuvchining milliy adabiyotimizda tutgan o‘rni atroflicha tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Bolalar adabiyoti, prinsip, estetik did, bola ruhiyati, sxematizm, didaktika, xarakter.*

Abstract. *For the science of literature, it is important to study the current literary process, to determine the aspects that distinguish it from other periods. In*

this article, Farkhod Musajonov, who made a great contribution to Uzbek short stories of the 20th century, in particular, to children's literature, describes the extent to which the unique aspects of the image of children were expressed by the author, the role of the writer in our national literature has been thoroughly studied.

Keywords: *Children's literature, principle, aesthetic taste, child psychology, schematism, didactics, character.*

Ma’lumki, badiiy adabiyotning doimiy va eng muhim obrazlaridan biri sifatida bola obrazi va bolalik tasviri alohida ahamiyatga ega. Bola timsoli umumlashma obraz sifatida o‘z ichiga bola obrazlarining tipologiyasi, bola dunyosi, bolani o‘rab turgan muhit va bola obrazining ruhiyatini qamrab oladi. Bolalar adabiyotining asosida ham barcha san’at turlari kabi birinchi galda ijodkorning g‘oyaviy-estetik maqsadi yotadi. Shu maqsadning ifodasi bolalar adabiyotining o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy omildir. *“Bolalar adabiyotida tanlangan mavzuning originalligidan ko‘ra kitobxonning uni qabul qilishi, tushunishi muhimroqdir”* (Egamov, 1976, 39-bet).

XX asr adabiyotida o‘zbek qissalaridagi bola obrazi orqali davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-tarixiy muammolari, qahramon ruhiyatining tubsiz qatlamlariga nazar tashlash tamoyili tadrijiy ravishda o‘z badiiy ifodasini topdi. Agar asr boshi va o‘rtalaridagi bola obrazlarida, asosan, ijtimoiy faollik kuzatilgan bo‘lsa, yuz yillik oxirlariga kelib, ularning ichki olami, muhit bilan to‘qnashuvdagi ruhiy holatlari tasviri yetakchilik qila boshladi. Ma’lumki, bolalar adabiyoti kuchli tarbiya qurollaridan biri hisoblanadi (Matchonov, 2011, 333-bet). Shuning uchun ham tanqidchilikda bolalarga atalgan qahramonlarni tahlil qilinganda ularning hayotiyligi va tarbiyaviyligi haqida birdek fikr yuritish muhim ahamiyatga ega. *“Chinakam iste’dod bilan yozilgan har bir adabiyot va san’at asari doimo umuminsoniy manfaatlarni ifoda etadi. Bu ifoda badiiy adabiyotda obrazli tarzda tasvirlanadi”* (Qahramonov, 1991, 6-bet).

Yuqoridagi xususiyatlar ifodasini o‘zbek bolalar adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, iste’dodli yozuvchi, o‘zining uslubiga ega ijodkor Farhod

Musajonov ijodida yaqqol ko‘rish mumkin. O‘zbek bolalar adabiyotining asosiy mavzusini Vatanga muhabbat, beg‘ubor bolalik, do‘stlik, hunar va ilmga qiziqish kabi mavzular tashkil etadi. Ammo Farhod Musajonning “Orzuga ayb yo‘q” va “Bo‘sh kelma, Aliqulov” qissalarida ko‘tarilgan masalalar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Qissalar asosan o‘rta yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallanganligiga qaramay, katta yoshdagi qahramonlar fazilat va qusurlarini ham o‘zida namoyon etadi. Bu asarlarni kattalar ham qiziqish bilan o‘qib chiqishi va o‘zi uchun yangilik kashf etishi mumkin. “Orzuga ayb yo‘q” qissasidagi Sayfi, To‘lagan, Gulmira, Malohat, Jamila bilan “Bo‘sh kelma, Aliqulov”dagi Sanjar, Shoqayum, Ra’no, Nodira obrazlari bir-biriga juda o‘xshash qilib tasvirlanganiga qaramay, har ikki qissa bir-biridan ayri muammolarni yoritishga xizmat qilgan. *“Adib bolalar xarakteridagi muayyan qusurlarni jonli manzaralarda tasvirlab, ularni qoralaydi. Muhimi shundaki, yozuvchi qusurlarni qoralaydi-yu, lekin shu qusur egasining o‘zini qoralamaydi, aksincha, uni mehr bilan tasvirlaydi, uning har qanday qusurdan xalos bo‘la olishiga ishonch bildiradi”* (Sharafiddinov, 1985, 110-bet).

“Orzuga ayb yo‘q” qissasida Sayfi biroz sho‘x, yolg‘onchi, xayolparast tasvirlansa-da, asar davomida kitobxon uni oilaparvar, mehnatkash, vijdonli, yuragi toza bola sifatida yaqindan taniy boshlaydi. U To‘lagan ismli o‘rtog‘i bilan kinostudiya ochishni, kino suratga olib mashhur bo‘lishni orzu qiladi va ikki do‘st bu yo‘lda ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Pul topish maqsadida qariyalarga yordam berishadi, ammo biror marta ham ulardan pul olishmaydi. Shu o‘rinda yozuvchi bolalar ruhiyatidagi poklik, qalbi tozalikni yorqin tasvirlaydi. Bundan tashqari davr muammolari, oilaviy muhit, taqdir zarbalarining aynan bola hayoti misolida ochib berilishi yozuvchining katta yutuqlaridan biri sanaladi. Sayfining otasi Rahim aka onasi Muborak opani “bedavo dard”i bo‘lsa ham tashlab ketmaydi (Musajonov, 2005, 48-bet). Qissa davomida kitobxon sadoqatdan kuchliroq tuyg‘u yo‘qligini, bunga erishish uchun oilada ishonch, sevgi-muhabbat yuqori o‘rinda turishini anglab yetadi. Eng muhimi, qissa qahramonlari bo‘lgan bolalar har qanday vaziyatda ham orzu qilishdan to‘xtamaydi, kelajakka umid va

kelgusi maqsadlariga bo‘lgan yuksak ishonch bilan hayotidagi to‘siqlarni birma-bir yengishadi.

“Bo‘sh kelma, Aliqulov” qissasida esa Sanjarning butunlay o‘zgarishini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu qissada ham adibning bola ruhiyatini yaxshi bilishi ko‘rinib turadi. Aliqulov har kuni darsga qanday qilib “2”dan qutulib qolish usullarini o‘ylab keladi. Sinfdoshlari orasida “Toyloq”, “Bo‘taloq” degan laqablar bilan mashhur. *“…lekin Aliqulov yomon bola emas, unda ham kollektivchilik tuyg‘usi bor, u ham adolatni yaxshi ko‘radi, ishbilarmon, serg‘ayrat, mehribon, o‘qituvchilarini zimdan hurmat qiladi, hatto ularni ranjitib qo‘yganida, o‘zicha vijdoni qiynalib, ezilib yuradi. Aliqulovning bu sifatlari turli ishlar jarayonida sekin-asta ochila boradi. U bolalar bilan birga temir-tersak yig‘ishda o‘zini ko‘rsatadi. 8-martda ukasi bilan birgalikda onasini tabriklab, ko‘nglini ko‘taradi. Shu tarzda Aliqulov obrazi sekin-asta ochila boradi…”* (Sharafiddinov, 1985, 116-bet). Har kuni “ikki” qo‘yishdan charchagan ona tili o‘qituvchisi va sinf rahbari Nasiba opa Aliqulovni oldiga chaqirib, maktabda majlis bo‘lgani, unda Sanjar sababli sinfi eng oxirgi o‘rinni olganini tushkun kayfiyatda, qalbida alam bilan aytib beradi. Shu voqeadan so‘ng Sanjardagi salbiy xususiyatlar ijobiylashadi va kitobxon uning kelajagiga umid bilan qaray boshlaydi. Bu qissada ham adib xarakterlar ta’sirida hayotiylik prinsipiga qat’iy amal qiladi.

“Farhod Musajonov kitobxonning ortidan ergashmaydi, balki undan oldinroq yurishga intiladi. U o‘rtacha kitobxon didiga moslashmaydi, balki uning estetik didini tarbiyalashga, shakllantirishga harakat qiladi. Farhod Musajon bolalar yozuvchisi sifatida hikoyalari va qissalari bilan qator yorqin obrazlar va unutilmaydigan, o‘ziga xos xarakterlar yaratdi. Uning obrazlarida bolalar o‘zlariga yaqin, o‘zlari yaxshi biladigan odamlarni ko‘radi, ulardan ibrat oladi. Uning ijodi munozaraviy xarakterga ega – u ko‘pgina asarlarda hali butkul yo‘qolib ketmagan sxematizmga, didaktikaga qarshi. U bolalarga ishonmaslikka, mensimaslikka qarshi. Uning asarlaridagi haqqoniylik va samimiyat bolalarga nisbatan ulkan muhabbatdan, ular qarshisida o‘z burchini, mas’uliyatini chuqur tushunishdan tug‘ilgan” (Sharafiddinov, 1985, 117-bet).

Xulosa qilib aytganda, Farhod Musajon qissalarini mutolaa qilar ekanmiz, yozuvchining bola ruhiyatini naqadar keng ilg‘ay olgani, o‘z ijodida aks ettirganini sezishimiz qiyin emas. Uning biz yuqorida tadqiq etgan “Bo‘sh kelma, Aliqulov”, “Orzuga ayb yo‘q”, “Bir qultum buloq suvi” kabi qissalarida yozuvchi mahorati bor bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamov, X. (1976). *Bolalar dunyosi*. Toshkent: Yosh gvardiya.

2. Qahramonov, Q. (1991). *Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti*. Toshkent: Fan.

3. Sharafiddinov, O. (1985). *Go‘zallik izlab.* Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.

4. Musajonov, F. (2005). *Bo‘sh kelma, Aliqulov.* Toshkent: Sharq.

5. Matchonov, S. (2011). *Bolalar adabiyoti: san’atmi yoki tarbiya.* Toshkent: Turon-Iqbol.

URUSH KATEGORIYASINING FALSAFIY VA ADABIY TALQINLARI

Nodira Ibrohimova,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti
yopo.89@mail.ru

Annotatsiya*. Mazkur maqolada urush mavzusi adabiy va falsafiy tomonlama tahlil qilinadi. Tarixda iz qoldirgan faylasuflar va yozuvchilarning urushni qoralovchi va oqlovchi fikrlari taqdim etiladi. Qadimdan davrdan to hozirgi zamonaviy adabiyotgacha o‘lmas mavzu sanalgan urushning salbiy va ijobiy taraflari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Urush, adabiyot, falsafa, talqin, yozuvchi, faylasuf.*

Abstract*. This article analyzes the topic of war from a literary and philosophical point of view. The opinions of philosophers and writers, which condemning and justifying war are presented. The negative and positive sides of war, which is an immortal theme from ancient times to modern literature, are revealed.*

***Keywords**: War, literature, philosophy, interpretation, writer, philosopher.*

Urush jahon adabiyotining o‘lmas mavzularidan biridir. Urushda har bir insonning asl qiyofasi ochiladi - u vatanparvar yoki xoin, qo‘rqoq yoki jasur, hal qiluvchi daqiqada qahramonlik qilishga qodir yoki qochqin. Urush mavzusi azaldan faylasuf va yozuvchilarning e’tiborini tortib kelgan. Urushni harbiy fan va harbiy tarix, siyosatshunoslik va sosiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik, dinshunoslik va huquqshunoslik kabi qator fanlar o‘rganadi. Ularning har biri urushni ma’lum nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi, uning alohida tomonlarini, xususiyatlarini, munosabatlarini ochib beradi va tahlil qiladi. Shu bilan birga, ularning hech biri bu haqda to‘liq va yaxlit tushuncha bermaydi. Chunki urush o‘ta murakkab hodisa bo‘lib, uning chegaralari aniq emas.

Ba’zi faylasuflar urushda yuqori ma’no ko‘rishgan. Gegel urushning yuksak ahamiyatini shunda ko‘radiki, u tufayli xalqlarning ma’naviy salomatligi saqlanib qoladi, urush xalqlarni parchalanishdan saqlaydi. Nemis faylasufi Fridrix Nisshe *“Urush va jasorat qo‘shnini sevishdan ko‘ra ko‘proq buyuk ishlarni amalga oshirdi”*, - deb yozgan. Fransuz faylasufi Prudon fikricha, urush “ilohiy hodisa, adolatli, ezgu, axloqiy, muqaddas, diniy vahiyning alohida turidir”.

Albatta, psixologik yondashuv tarafdorlari urushning manbai aynan inson ruhiyati, degan fikrda. Faylasuflardan yana biri Zigmund Freyd insonda o‘z-o‘zini yo‘q qilish zarurati bor deb hisoblagan va uni o‘lim instinkti deb atagan. U odamni boshqaradi va o‘zining xavfsiz mavjudligini ta’minlash uchun uning tajovuzkorligini tashqi ob’yektlarga yo‘naltirishga majbur qiladi. Faylasufning ta’kidlashicha, o‘lim instinkti tajovuzni ozod qilishni rag‘batlantiradi va urushlarni boshlaydi. Eynshteynga yozgan “Urush muqarrarmi” nomli maktubida u odamlarda tabiiy ravishda manfaatlar to‘qnashuvi bo‘lib, ularni zo‘ravonlik yo‘li bilan hal qilishga intilayotganini yozgan. Zo‘ravonlikning pirovard maqsadi, Z.Freydning fikricha, “o‘z talablari yoki qarama-qarshiliklaridan voz kechishga” majburlashdir (Freyd, Z. 1932). Bunday natijaga qarama-qarshilikni yo‘q qilish, ya’ni insonning o‘limga bo‘lgan instinktiv ehtiyojini qondiradigan raqibni yo‘q qilish orqali erishish mumkin.

Ingliz faylasufi Tomas Gobbs *“...inson tabiatida urushning uchta asosiy sababi bor deb hisoblagan: birinchisi raqobat; ikkinchisi ishonchsizlik; uchinchisi shon-shuhratga chanqoqlik”* (Gobbs, 1964, 151-bet). Birinchi sabab – odamlardan foyda olish maqsadida, ikkinchisi – o‘z xavfsizligi uchun, uchinchisi – nomus uchun bir-biriga hujum qilishdir.

Niderland faylasufi Benedikt Spinoza ham T.Gobbs ta’limotini to‘ldirib, dunyoni qo‘lda qurol bilan himoya qilish kerakligini ta’kidlagan edi: *“Axir, tinchlik urushning yo‘qligi emas, balki ruhning mustahkamligidan kelib chiqadigan fazilatdir...”* (Spinoza, 1957, 312-bet).

Ingliz faylasufi Jon Lokk xalq farovonligi uchun urushni oqlash mumkin deb hisoblagan, shuning uchun *“...xalqlar o‘z qiroliga qarshilik ko‘rsatishga qonuniy haqli”* (Lokk, 1960, 129-bet). Nemis faylasufi Kantning harbiy-falsafiy tafakkur rivojiga qo‘shgan hissasini qayd etish lozim. Nemis faylasufi amalda birinchi marta urushni axloqiy pozitsiyalardan tahlil qildi, lekin shu bilan birga, I.Kant urushlar mutlaq yovuzlik emasligini haqli ravishda yozgan. Urushning ijobiy tomonlari ham bor: u xalqlarning ko‘chishiga hissa qo‘shadi, ayrim hollarda o‘zini-o‘zi mudofaa qilish sifatida namoyon bo‘ladi, agar u davlatning umumiy va ezgu maqsadlari yo‘lida amalga oshirilsa, oqlanishi kerak. Ammo shunga qaramay, nemis faylasufi I. Kant falokati, mashaqqatlari, qurbonlari uchun urushlarni rad etish, taqiqlash va umuman yo‘q qilishning zaruriy shartlarini ta’kidlaydi. U o‘zining “Abadiy tinchlik sari” risolasida davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar muammolarini tahlil qiladi. Kant, agar u yashirin urush tahdidini o‘z ichiga olgan bo‘lsa, hech qanday tinchlik shartnomasi haqiqiy emasligini ta’kidladi: *“Darhaqiqat, aks holda bu tinchlik emas, balki faqat sulh, harbiy harakatlarni vaqtincha to‘xtatishdir”*. I.Kant o‘z mulohazalarida optimist sifatida gapirib, jamiyat odamlarning ma’naviy jihatdan yuksalishi orqali, muqarrar ravishda ideal holatga – urushlar va qo‘zg‘olonlarsiz dunyo sari qadam tashlashiga ishongan.

Urush obrazi yozuvchilar (F.M.Dostoyevskiy, L.N.Tolstoy), sotsiologlar (P.Sorokin), iqtisodchilar (I.S.Bliox) va albatta, faylasuflar (N.Berdyayev, E.Trubetskoy, V.Solovyov) asarlarida keng tasvirlangan. Aynan V.Solovyov

kitoblarida ezgulik va yovuzlik kurashi nuqtai nazaridan urushning chuqur ma’nosini ochishga harakat qilingan. U “urush – yovuzlik” ekanligini aniq ko‘rsatib beradi. Ammo zamonaviy sharoitda urushni butunlay inkor etib bo‘lmaydi va buni Solovyov juda yaxshi tushunadi. Jahon madaniyati rivojida aynan urush salmoqli hissa bo‘lib, uning yordamida Solovyovning fikricha, yunon madaniyati, xristian dini, ko‘plab ilmiy va boshqa g‘oyalar tarqaldi. Va aynan diniy poydevor urushni bartaraf etishning ma’naviy poydevoriga aylanishi kerak. Solovyov urushni faqat tinchlikni saqlash yoki tiklash uchun urush bo‘lsagina oqladi: bunday urush adolatli. Urush quldorlikni yuzaga keltirdi, ammo urush iqtisodiyotning rivojlanishini ham rag‘batlantiradi. Urush samarasiz ijtimoiy institutlarni yaxshiroqlari bilan almashtirish vositasidir.

G‘arb adabiyoti tarixidagi eng qadimiy asar - Homerning “Iliada”si aynan urush mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif Troya jangidagi yarim afsonaviy qahramonlarning sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. Qadimgi Rimning eng mashhur shoiri Vergiliy ham urush haqida “Eneida” dostonini yozgan. Donishmand Senekaning fikricha, urush - bu maqtaladigan vahshiylikdir. Fukidid esa “urush - zo‘ravonlik o‘qituvchisi” deb ta’kidlaydi. Agar qadimgi va o‘rta asrlar yozuvchilari o‘z asarlarida, asosan, afsona va rivoyatlarga asoslangan bo‘lsa, ularning keyingi izdoshlari dalillarga - hujjatlar yoki o‘zlarining hayotiy tajribasiga tayanishni afzal ko‘rishgan. Jumladan, Lev Tolstoy Vatan urushi tugaganidan so‘ng o‘zining mashhur “Urush va tinchlik” dostonini yaratishda uning bevosita ishtirokchilarining xotiralari va tarixchilarning tadqiqotlaridan foydalangan. Bu haqiqatan ham mashaqqatli ish edi: romanni yozish uchun Tolstoyga olti yilcha vaqt kerak bo‘ldi va u ba’zi sahnalarni aniqroq tasvirlash uchun 20 martagacha asarni qayta yozdi.

Ayrim yozuvchilar tarixiy tafsilotlarni chuqur o‘rganishni emas, balki urushning mohiyatiga e’tibor berishni afzal ko‘radilar. Nobel mukofoti sovrindori Gabriyel Garsia Markes ham o‘zining eng mashhur “Yolg‘izlikning yuz yili” romanida shunday usuldan foydalanadi. Unda yozuvchi qonli fuqarolar urushi fonida Buyendiya oilasining bir necha avlodlari hayotini, Markesning tug‘ilgan

joyi Kolumbiyada hukumat va partizanlar o‘rtasidagi qurolli to‘qnashuv va bu urush natijasida yuzaga kelgan keyingi fojiali voqealarni ko‘rsatib bergan. Ko‘pchilik yozuvchilar kabi Markes uchun ham urush, birinchi navbatda bosh qahramonlarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va xulq-atvoriga ta’sir etuvchi omil sifatida muhimdir.

Jahon yozuvchilarining urush haqidagi fikrlarida deyarli uyg‘unlikni kuzatish mumkin. Fransuz adibi Volter: *“Urush og‘a-ini bo‘lib yashash uchun tug‘ilgan kishilarni yovvoyi hayvonlarga aylantiradi”*, - deydi. Rus yozuvchisi Lev Tolstoy urushning oqibati har doim ommaviy qashshoqlik va ommaviy buzuqlik bo‘lganini ta’kidlasa, nemis adibi **Erix Mariya Remark** urushning nima ekanligini haqiqatda murdalar biladi: faqat ular hammasini oxirigacha anglab yetganini aytadi. **Antuan de Sent Ekzyuperi urushni terlama kasaliga, Bernard Shou** esa bo‘riga qiyos qiladi**. Yozuvchi Jorj Oruellning fikricha,** urushni eng tez yakunlashning yo‘li – mag‘lubiyatga uchrashdir. Hind allomasi **Javoharla’l Neru** aytadiki, *“urush haqiqat va insoniylikni rad etishdir. Gap faqat odamlarni o‘ldirishda emas, ular u yo yoki bu tarzda baribir o‘ladi, balki ongli va qat’iy ravishda nafrat va yolg‘onni insonlarga tarqatishdir”.*

Mazkur fikrlarga zid o‘laroq yunon faylasufi Arastu urushning maqsadi tinchlikdir, deb aytadi. Fransuz yozuvchisi Pol Rebu ham atom bombasini qo‘llashdan maqsad ijobiy, deb hisoblab, atom qurolidan foydalanishni oqlaydi: bu ortiqcha sonli odamlarni yo‘q qilish uchun zarur vositadir (Rebu, 1959, 253-255 bet). Uning konsepsiyasida urush to‘liq asoslanadi, u yashash vositasi sifatida, insoniyat taraqqiyotining zaruriy bosqichi sifatida qaraladi.

Rus yozuvchisi Vladimir Mayakovskiy aytganidek, *“Urush eng katta shakkoklikdir”.* Rus yozuvchilarining urushi haqidagi bayonotlarini Maksim Gorkiyning mashhur iqtiboslari bilan davom ettirish mumkin: *“Men urushni butunlay vahshiylik ekanligini va bir-biriga hech narsada aybi bo‘lmagan odamlar bir-birini yo‘q qilishi deb bilaman”*. Tabiiyki, urushni boshidan o‘tkazgan, uni o‘zi bilgan odamning pozitsiyasi yumshoqroq. Biroq bu yerda ham biz XX asrning

o‘zida o‘n millionlab odamlarning hayotiga zomin bo‘lgan bu misantropik ishg‘olni keskin rad etishni ko‘ramiz.

O‘zbek yozuvchilar ham urush haqida o‘z mulohazalarini yozib o‘tgan. Jumladan, yozuvchi Abdulla Qahhor bu haqida *“...urush faqat mamlakatni g‘orat qilmaydi, undan ham yomonrog‘i odamlarni, xalqni ruhan g‘orat qiladi, shunday qiladiki, qul hayotini kechirayotgan, insonga nomunosib hayot kechirayotgan odamda shu hayotga qarshi norozilik, isyon ruhi butkul so‘nadi”*, - deydi (uchildiz.uz)

O‘tkir Hoshimov “Ertaklarda-urush. Dostonlarda-urush. Kitoblarda-urush. Kinolarda-urush” der ekan, urushda g‘olib va baxtli odam bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Negaki, urush odamni odam o‘ldirishga majbur qiladi. Odam o‘ldirgan odam esa hech qachon baxtli bo‘lmaydi. *“Urush degan palakatni, ko‘pincha, kaltafahm siyosatdonlar o‘ylab topadi. To‘nkamijoz generallar boshlaydi. Jabrini esa begunohlar tortadi. Begunoh askar. Begunoh ota. Begunoh ona. Begunoh kelin. Begunoh go‘dak…”* (www.mushohada.uz). Tog‘ay Murod esa urush davrida buyuk-buyuk asarlar yaratilganini aytadi. *“Ocharchilik yillarida buyuk-buyuk asarlar yaratilgan. Qamoqxonlarda buyuk asarlar yaratilgan”*, - deydi u o‘z kundaliklarida (ziyouz.uz).

Nega urush mavzusi falsafa va adabiyotni tark etmaydi? Ko‘plab ziyolilar san’atdagi urush mavzusini abadiy deb atashadi, lekin bu o‘quvchilar jang sahnalarini yaxshi ko‘rishidan emas, albatta. Sababi urush haqidagi asarlarda insonlarning asl qiyofasi ochiladi, kim ekani ma’lum bo‘ladi, sinovlarda toblangan qahramonlar taqdiri va kechinmalari tinchlikda yashayotgan o‘quvchi uchun har doim qiziq va ahamiyatli. Urush mavzusi barcha mamlakatlar va xalqlar adabiyotidagi asosiy mavzulardan biridir. Yozuvchilar o‘tmishdagi janglarni ko‘rmagan bo‘lsalar ham sodir bo‘lgan voqyealar haqida o‘ylashadi va yozadilar. Sababi har qanday qurolli to‘qnashuv insoniyatga zarar yetkazadi, tarix va san’atda qonli iz qoldiradi. Bu iz urush tasvirini yasama qahramonlik va soxta go‘zallikdan mahrum qilish, qahramonlar avlodlari o‘sha dahshatli voqealarning takrorlanishiga

hech qachon yo‘l qo‘ymaslik uchun kerak. Ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlashni adabiyotda topish mumkin.

Shunday qilib, urush san’atda hamisha muhim o‘rin tutadi, chunki yangi avlodlar ongiga qon to‘kilishiga, insonparvarlikka nafratni faqat ijodkorlargina singdira oladi. Adabiyotning kuchi shundaki, u haqiqiy tarixiy xotirani saqlab qoladi va uni o‘tmishdagi xatolarni takrorlamaslikni o‘rganadigan qahramonlar avlodlariga yetkazadi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Freyd, Z. (1932). Urush muqarrarmi? (Zigmund Freydning Albert Eynshteynga maktubi). https://freudproject.ru
2. Gobbs, T. (1964). Tanlangan asarlar. (151-bet). M.: Tafakkur.
3. Lokk, J. (1960). Tanlangan falsafiy asarlar. (129-bet) M.: Sosekgiz.
4. Rebu, P (1959). Trop d’enfants. (253-255 bet).
5. Spinoza, B. (1957). Tanlangan asarlar. (312-bet) M.: Gospolitizdat.
6. http://uchildiz.uz/abdulla-qahhor-o‘gitlari
7. http://www.mushohada.uz/index.php/2019-10-28-06-45-45/item/250-r-shda-hakikat-bulmajdi
8. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/togay-murod/togay-murod-kundalik-daftardan/

XUDOYBERDI TO‘XTABIYEV NASRI VA IJODIY REJALARI TAHLILI

Karimova Nafisa,

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada yozuvchining ijod haqidagi mulohazalari tahlil etilgan. Bolalar adabiyotidagi kashfiyotlari biografik metod asosida o‘rganilgan. Asar yozishdan oldin ijodiy reja va prototip muhimligi maqolaning muhokama markazida turibdi. Yozuvchining o‘zga ijodkorlar bilan hamfikrligi, ijodiy hamkorlik masalalariga to‘xtab o‘tilgan. Yozuvchi laboratoriyasini o‘rganishda kundaligi va maqolalaridan iqtiboslar olingan. Bolalar nasrining o‘ziga xos jihatlari X.To‘xtaboyev ijodi misolida o‘rganilgan. Xulosalar ilmiy dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *ijod psixologiyasi, ijodiy reja, obraz, ilhom, iste’dod darajasi*

Abstract: *The article analyzes the writer's opinions about creativity. His discoveries in children's literature were studied based on the biographical method. The importance of a creative plan and prototype before writing a work is at the center of discussion of the article. The writer's agreement with other artists,*

creative cooperation issues are discussed. In the study of the writer's laboratory, quotes from his diary and articles were taken. The specific aspects of children's prose are studied on the example of the works of H. Tokhtaboyev. The conclusions are scientifically proven.

Key words: *psychology of creativity, creative plan, image, inspiration, level of talent*

O‘zbek bolalar adabiyotining eng mashhur ijodkori Xudoyberdi To‘xtaboev asarlari har bir yangi avlod qalbidan munosib o‘rin egallab kelmoqda. Uning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Besh bolali yigitcha”, “Shirin qovunlar mamlakati”, “Jannati odamlar”, “Mungli ko‘zlar” kabi asarlari o‘z o‘quvchisini topib kelmoqda. Yozuvchining ijodiy ishlari o‘zbek munaqqidlari tomonidan juda puxta badiiy tahlilga tortilgan, nazariy tadqiq etilgan. Tadqiq talab etadigan yana bir masala borki, bunisi bizni yozuvchi shaxsiyatiga ko‘proq yaqinlashtiradi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xudoyberdi To‘xtaboevning ijod psixologiyasi xususida so‘z yuritmoqchimiz. Har qanday ijodkorning ijod laboratoriyasiga kirish uchun ma’lum bir tadqiq usulini talab etadi. Yozuvchi bilan o‘tkazilgan suhbatlar, intervyular, yozuvchining kundaliklari va xotiranoma shaklida bitilgan esselari bizga o‘sha tadqiq usulini qo‘llashimiz uchun sharoit yaratadi. Suhbatlardan fikrimizni dalillash yoki tadqiqot bo‘yicha yangi xulosa chiqarishda foydalanishimiz mumkin.

Nazarimizda, ijodkor iste’dodini rivojlantiruvchi omillar ham bor. Bulardan biri ijodiy ishiga munosib ijobiy rag‘bat olishidir. “Bolalarning sevimli yozuvchisi” deb nomlangan suhbat –maqolada yozuvchining dastlabki ishlari haqida shunday xotira bor: “Bir hikoyam universitet to‘plamida bosilib chiqqan. “Tayoqning ikki uchi bor” deb nomlanardi. Yozuvchi Odil Yoqubov “Sizdan yaxshi yozuvchi chiqar ekan, faqat mashq qilish kerak”, -deb maslahat berib meni yana ilhomlantirib yubordi”(1.To‘plam, 2021, 123-bet). Rag‘bat ilhom bag‘ishlaydi, albatta. Rag‘bat ilhomlantirish bilan birga yaxshiroq ishlash, rag‘batga munosiblik maqomini saqlab qolish ma’suliyatini ham yuklaydi.

Yozuvchi Xudoyberdi To‘xtaboev buni yaxshi his qilgan holda, ijodiy faoliyatini maqola va hikoyalar yozish bilan takomillashtirib borgan.

Ijodkorga beriladigan rag‘batni e’tirofdan farqlash lozim. Rag‘bat masalasi ijodiy parvozga sho‘ng‘iyotgan yosh qalamkashga tegishlidir. O‘z paytida munaqqid, professional yozuvchi va ustozlardan o‘rinli rag‘batlantirilgan qalamkash, ilhomga qanot bog‘lab, kelajakda e’tiroflarga sazovor asar yozishi mumkin. X. To‘xtaboev Odil Yoqubovdan kichik hikoyasi uchun iliq so‘z eshitgan paytida u talaba edi. Yozuvchilikka dastlabki qadam qo‘yilgan paytlar edi. “Sariq devni minib” nomli sarguzasht roman yozgani uchun Albert Lixanov, S. Poletaev, Irina Vasyuchenko, Dolarie Shuls kabi jahonning taniqli adabiyotshunos, yozuvchilarining va ayniqsa, Rimning buyuk ertakchisi Janni Rodarining e’tirofiga sazovor bo‘lganida, qirq yoshda edi(manba: ziyonet.com). O‘tgan asrning 70-80-yillar yozuvchi ijodining gullab-yashnagan davri bo‘lgan. Xronologik tartib bilan ko‘rib chiqish rag‘bat va e’tirofning farqini tushunishimizda yaxshi yordam beradigan bir usuldir. Mazkur farq haqidagi tushuncha ijod laboratoriyasi tadqiqida iste’dod tarbiyasi va darajasi, degan yana bir lavhani ochadi. Shu o‘rinda, iste’dodda uslub qanday shakllanishi haqidagi so‘z yuritmoqchimiz. Xudoyberdi To‘xtaboev o‘z suhbatida talabaligini eslab, shunday degan “O‘sha paytlarda “Hakim Nazir -novelist” degan mavzuda kurs ishi yozayotgan edim. Keyinchalik shu mavzuda diplom ishimni ham yozdim. Shu bahona bo‘lib, Hakim Nazir ijodini rosa o‘rgandim, yozish “texnikasi”ni asosan Hakim Nazirdan o‘rganganman”. Bu dastlabki ijodiy mashqlarning uslubi uchun asos bo‘lgan. Iste’dodning dastlabki holati va darajasiga xos holat, deb baholash mumkin. Har qanday yozuvchi o‘qib – o‘rganish orqali o‘zlashtirgan texnikasini yillar o‘tib, o‘zgartiradi. Agar o‘zgarmasa, bu uslub taqlidiga aylanadi va yozuvchi o‘z iste’dod darajasini oshirmaganidan darak beradi. Xudoyberdi To‘xtaboev keyinchalik professionallik bilan yozgan asarlarida shaxsiy uslubini shakllantirib borgan edi. Xudoyberdi To‘xtaboev bolalar uchun yozayotgan asarida roviy tilini qo‘llash, bola tilidan ishonarli va ochiq-oydin bayon qilishni shaxsiy uslub sifatida shakllantirgan. Uning “Sariq devni minib”, “Besh bolali yigitcha”, “Shirin qovunlar mamlakati”,

“Jannati odamlar” kabi asarlarining barchasida beg‘ubor bolalikning ovozi keladi. Ular birinchi shaxs tilidan aytilgan. Yozuvchi bu uslubni tanlash orqali, asarning ommalashishida muvaffaqiyatga erishdi, deyish mumkin. Chunki birinchi shaxs birlikda bayon etilgan asar qahramoni kitobxonga tez yaqinlashadi. Har qanday yoshdagi kitobxon retsepsiyasi “men” deb gapirayotgan matnning ichida tezroq kiradi va qisqa muddatda asarni o‘qib tugatadi. “Sariq devni minib” asarining bosh qahramoni Hoshimjonni barcha kitobxonlar o‘ziga do‘st, deb biladilar. “Men sizga aysam”, “Bilasizmi, men”, “Nega desangiz” kabi murojaatlardan so‘ng, kitobxon albatta, Hoshimjon men bilan gaplashyapti, deb hisoblaydi. Kitobxon va asar qahramonini do‘stlashtira olish, Xudoyberdi To‘xtaboevning iste’dodi naqadar yuksakligini dalillaydi. Mazkur asarning yozilish tarixi va yozuvchining ijodiy maqsadi ijod psixologiyasi doirasida ko‘rib chiqiladigan masalalardir.

“Sariq devni minib” asari 1964-1968-yillar oralig‘ida yozilgan. Asarning bosh qahramoni Hoshimjon ismli bola sehrli qalpoqcha topib olib, uning yordamida “a’lo” baho oladi, bir qancha kasb egasi sifatida o‘zini sinab ko‘radi. Biroq unga bilimsizlik va dangasalik orqasidan kelgan, sehrli qalpoqcha yordamida erishilgan mansablar buyurmaydi. Bilimsizligi tufayli ishdan haydalib, o‘z xatosini tushunib yetadi. Maktabda fanlarni yaxshi o‘zlashtirish, mehnat qilish bilan inson kamol topishini anglaydi. Asarda qalpoqcha ham jonli tasvirlangan bo‘lib, u ham buni aynan Hoshimjonning o‘zi tushunib yetishini xohlagan edi. Asarning g‘oyasini ko‘tarib turuvchi badiiy detal –bu sehrli qalpoqchaning qanday paydo bo‘lishi va bosh qahramon prototipi kim ekanini laboratoriyada aniqlaymiz.

Yozuvchilar avvalo, biror kasb, sohasi mutaxassisi bo‘ladilar. O‘z faoliyatlari davomida orttirgan tajribalari bilan duch kelgan muammolariga yechim izlash va shu asnosida yangi bir maqsadni kashf etadilar (2. Karimova.N. 2020, 34-bet). Ijodkorning kasb orqasidan qo‘ygan maqsadi ijodkorona xarakter tusini olishi shubhasiz. Yozuvchi Xudoyberdi To‘xtaboev uzoq yillar davomida maktabda dars bergan. Shu yillar davomida u o‘z o‘quvchilariga yaxshi o‘qimasa, ertaga hech

nimaga erisha bo‘lmasligini tushuntirishga obdon harakat qiladi. Aynan mana shu pedagogik harakat Hoshimjonlar haqida asar yozish kerak, degan ijodiy maqsadni keltirib chiqaradi. Yozuvchi xoh pedagog, xoh muharrir bo‘lsin, borinki, u shifokor bo‘lib ishlasa ham, beixtiyor qalam tutishga majburiyat tug‘diradigan nimadir bor. Bu ma’naviyat qayg‘usi yoki o‘z insoniylik vazifasini sidqidildan bajarish hissi bo‘lishi mumkin. Yozuvchi qaerda faoliyat yuritishidan qat’iy nazar o‘z vazifasini ijodkorona bajarish hissi uni hamkasblaridan ajratib turadi.

Yozuvchi ta’kidlashicha, Hoshimjonning prototiplari Ali va Mahmud ismli o‘quvchilari bo‘lgan ekan (1. To‘plam. 2012, 155 –bet). Yozuvchida bilim orqali yaxshi kasb egasi bo‘lishni faqat maktabdagi o‘quvchilarga emas, kitobxon – o‘quvchilarga ham tushuntirish maqsadi bor edi, biroq uni yuzaga chiqarish uchun turtki topilmayotgandi. Bunday ham masuliyatli, ham insoniy, ham ijodiy maqsad ijodiy rejalari orasida biroz muddat yashagan keyin amalga oshgandi. Chunki o‘tgan vaqt ichida sho‘x, quvnoq, yerga ursa, ko‘kka sapchidigan o‘quvchilar maktabni bitirishgan. Yozuvchi o‘sha ikki o‘quvchisidan maktub oladi. (Maktub jo‘natilganda, maktabdagi bolakaylar ancha ulg‘ayib, harbiy xizmatni o‘tab yurgan bo‘lishgan). Xatda, o‘quvchilari To‘xtaboevning haqligi tan olib, o‘qimasang, hech kim bo‘lolmaysan, degan dakkilarning mazmunini endi tushunib yetishganini aytishgandi. Xatda o‘quvchilari “Qani, endi sehrli kuch bo‘lsa-yu, biz beshinchi sinf o‘quvchisi bo‘lib qolsak”, deb o‘tib ketgan fursatlariga afsus qilishgan. Xudoyberdi To‘xtaboevning asariga mana shu afsus Sehrli qalpoqcha obrazida kirgan. Yozuvchi boshqa o‘quvchilar ham Ali va Mahmud kabi afsuslanib yurmasinlar, deb o‘z ijodiy rejasini amalga oshiradi. Asarda Hoshimjon beshinchi sinfga aylanmaydi, aksincha Sehrli qalpoqcha vositasida maktab o‘quvchisidan katta odamga aylanadi.

Yozuvchining bolalar dunyosiga befarq bo‘lmagani, maktublarni javobsiz qoldirmasligi, bolalar ma’naviyati va tafakkurini dangasalikdan himoyalash maqssadini oliyjanob insoniylik, deb bilamiz. Ijod olami eng qiziqarli, jonli hayratga boy olamdir. Ijod laboratoriyalaridan ba’zida o‘zimizni izlaymiz.

Xudoyberdi To‘xtaboevning ijod laboratoriyasidan beg‘ubor bolalik orzularini, hayolot parvozlarini topamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тўплам (2021). *Худойберди Тўхтабоев замондошлар наздида. Дунёга танилган адиб* . Тошкент: “Mumtoz so‘z”
2. Karimova.N. (2020) *Ijodxona sirlari*. Toshkent: “Muharrir”.
3. www.Ziyonet.com internet portali

HAMZA VA SHILLER IJODIDA MA’RIFAT MASALASI TALQINI (“ZAHARLI HAYOT YOXUD ISHQ QURBONLARI” VA “ MAKR VA MUHABBAT” ASARLARI MISOLIDA)

Qaxramonova Sabinabonu Dilshodovna,
ToshDO‘TAU O‘FF 2-kurs talabasi
sabinabonuqaxramonova@mail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Hamza va Shiller dramalaridagi o‘sha davr ma’rifatchilik masalasining mushtarak jihatlari yoritilgan. Asarlardagi muammolarning kelib chiqishida ma’rifatsizlik yotishi asos qilib ko‘rsatilgan. Jamiyatdagi kamchiliklar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ma’rifat, jaholat, jadid, o‘zlikni anglash, dunyoparastlik, manfaat, makr, vahshat*

Abstract. *This article highlights the common aspects of the issue of enlightenment of that time in Hamza’s and Schiller’s dramas. Lack of enlightenment is shown as the basis of the problems in the works. Shortcomings in society are revealed*

Keywords: *Enlightenment, ignorance, modernity, self-awareness, worldliness, interest, trickery, horror*

Ma’rifat arabcha so‘z bo‘lib, “arafa” fe’lidan olingan “mijmiy masdar”dir. Uning ma’nosi -“ bilimdonlik”. Ma’rifatli inson o‘zligini anglagan, hayotdagi o‘rni, maqsadi haqida biladigan insondir. Ma’rifatli insonlardan tashkil topgan jamiyat yuksak jamiyat hisoblanadi. Jadidchilar va nemis ma’rifatchiligi namoyandalari shunday jamiyatni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Bu

davrda yozilgan romanlar, dramalar ham shunga xizmat qildi, jaholatni fosh qildi. Yevropa va Sharq ,ma'rifatchilari teatr yangi g'oyalarni targ'ib etuvchi maydon, u xalqning barcha vakillariga birdek ta'sir qiladi, deb hisoblashdi va sahna asarlari yarata boshlashdi. Jamiyatdagi kamchiliklarni birin-ketin asalarda ifodalashdi. Demakki, shunga ehtiyoj bo'lgan, xalqning mafkurasi shunga ehtiyoj sezgan. Ular ommani shu turishda botqoqlikka botishini istashmagan, yangi bilim-ko'nikmaga ega, zamonaviy fikrlaydigan avlod tarbiyalash tarafdori bo'lgan.

Avvalo, qiyoslanayotgan bu ikki asarning yaratilgan davriga ahamiyat beraylik: biri nemis ma'rifatchiligi davri adabiyoti bo'lsa, ikkinchisi, jadidchilik davri adabiyoti hisoblanadi. Bu ikki asarning yaratilish davridan kelib chiqib aytish mumkinki, ikkisi ham bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish jarayoniga to'g'ri keladi. "*Jamiyat hayotidagi jiddiy o'zgarishlar, tarixiy siljishlar davrida (Yevropadagi XVIII asr va Turkistondagi XX asr boshlari esa ayni shunday davr edi) yangicha fikrlaydigan kishilarni tarbiyalash masalasi birinchi o'ringa chiqdi, zero yangi mafkurani, yangi dunyoqarashni odamlar ongiga sig'dirmay turib, jamiyatdagi islohotlarni amalga oshirib bo'lmaydi*."(U.Saidov.2004.31-bet) Ulug'bek Saidov fikrlaridan ham bilsak bo'ladiki, ushbu davrlarda yashagan ijodkorlarning asosiy maqsadi taraqqiyotda ortda qolgan xalqni ilm-ma'rifat borasidagi qarashlarini boyitish, zamonaviy fikrlashni targ'ib etish bo'lgan. Zero, yozuvchi va ijodkorlar har zamon jamiyatdagi kamchiliklarni ko'ra olganlar va ularni o'z asarlarida aks ettirganlar va yechim izlaganlar.

Quyidagi asarlardagi muammolarning kelib chiqishida ham jamiyatdagi kamchiliklar sabab bo'ladi. Masalan, asar bosh qahramonlari Mahmudxon va Maryamxon hamda Ferdinand va Luizaning sof muhabbatiga rahna soluvchi eng katta omil - tabaqalashtirish. Boy yigitning kambag'al qizga bo'lgan muhabbati, afsuski, mansabdor otalar tomonidan yoqlanmaydi. Farzandlarning xohish-istaklari inobatga olinmaydi. Otalarga farzandlarning baxti emas, mol-dunyo, manfaat birinchi o'rinda turadi. Asarlarni o'qish jarayonidan bilamizki, faqatgina bosh qahramonlar ilm-ma'rifatli, qolganlar esa bu borada ortda qolgandek tuyuladi. Aslida ham shunday. "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" qahramonlari tilidan

bot-bot takrorlanadgan “jaholat”, “ma’rifat”, “zulm”, “vahshat” kabi so‘zlarning qo‘llanishi ham fikrimizning ayni isbotidir. Xususan, Hamza o‘z qahramoni Mahmudxon tilidan ayttirgan “ O jaholat! Maorifsiz davlat! Ey johil otalar, ey johil onalar” kabi norozilik kayfiyatidagi jumlalari ham yolg‘iz o‘zining va Maryamxonning ota-onasiga qarata emas, balki o‘sha davrning barcha ma’rifatsiz ota-onalariga qarata aytilgandir. Hatto Maryamxon ham biladiki, boshiga tushgan zulmlarning barchasida johil, dunyoparast ota-onasi sababchidir. “Makr va muhabbat”da ham ko‘rinadiki, ilmsizlik oqibatida qilingan makr-hiyla alal oqibat qahramonlarni halok qiladi. Tabaqalashtirish, sinfiylik, shuhratparaslik shu kabi muammolarga sabab bo‘ladi. Shilller asarida o‘zining obro‘si uchun o‘g‘liga axloqsiz ayolni ravo ko‘rishdan ham tab tortmaydigan, bir kambag‘alga hiyla bilan zulm qilgan ota obrazi orqali ma’rifatsiz amaldorning bir ko‘rinishini ochib bergan. Luizaning onasi ham dunyoparast bir ayol. Millerning dashnomlariga qaramasdan, ko‘p o‘rinlarda kaltabinlik qilgani yaqqol ko‘rinadi. Maryamxon onasining suhbatidan ham ma’lumki, uning onasi ham boylikka qiziqib, qizining baxtini o‘ylamaydi va oxirida pushaymon bo‘ladi, vaholanki, hayotda qiz bolaning eng yaqini, eng ko‘p tushuadigani onasi emasmi? Ular baxtli hayotni pulda deb tasavvur qilishadi, aslida, ularning bu fikrga kelishlarida ham uquvsiz jamiyat aybdor. Hamma narsani pul, obro‘, shuhrat bilan o‘lchaydigan muhit aybdor. Ikkala asarda ham qahamonlarning boylikka ruju qo‘ygani, mansab, manfaat ortidan boshqalarga jabr qilganliklari tasvirlangan. Bundan tashqari qizlarga bo‘lgan munosabat ham e’tibordan chetda qolmaydi. O‘zi xohlamagan inson bilan majburan turmush qurishdan; o‘z muhabbatidan majburan voz kechishdan va yana barcha jabr-sitamni, tahqirliklarni ko‘tarib yurishdan og‘iri yo‘q. Maryamxonning eshonga qarata meni bu yerga majburiyat , zulm keltirdi, deya achchiqlanib gapirishidan ham Hamza o‘z maqsadini qahramonlari tilidan ko‘p bora ochiqdan ochiq bildirganligiga guvoh bo‘lamiz. Hattoki asarning yakuni ham quyidagi misralar bilan yakunlanadi: “Oh, jaholat! Dod g‘aflat! Faryod, zaharli hayot!” Asardagi jabrdiydalar shunchaki muhabbat dardidan qutulmoqchi bo‘lishmadi, ular jamiyatdan qochmoqchi, johil kimsalar girdobidan qutulmoqchi edilar. Bu tuban

jamiyat ularni qabul qila olmadi, ular jamiyatni qabul qila olmadi. Lekin ularning hayotdan umidlari, maqsadlari ko‘p edi. Mahmudxon maslakda, fikrda, ilmda eng birinchi hayotdosh bo‘lib turgan Maryamxonni zodagonlar qiziga alishmaydi. Uning uchun moddiyat muhim emas, uning orzusi yangi avlodni ilmli bo‘lishini ko‘rish, ilm yo‘lida xizmat qilish edi. Maryamxonni ham, Luizani ham ko‘p o‘rinlarda oqila, farosatli, ilmli deya tasvirlanadi. Ularni sadoqatda, muhabbatda va boshqa qator munosabatlarda o‘rnak qilib ko‘rsatiladi. Luizaning Ledi bilan, Graf bilan bo‘lgan suhbatida ham uning maqsadi, orzulari tilidan yaqqol sezilib turadi, ammo unga nisbatan qilingan makr, adolatsizlik kichik jussasi uchun og‘irlik qiladi.

Asarlarda o‘sha davr insonining qalbi, tuyg‘ulari, xohish-istaklariga nisbatan adolatsizliklar yaqqol tasvirlangan. Boylik, manfaat, insonning qadridan, sof tuyg‘ulardan ustun turgan. Yozuvchilar asar qahramonlari orqali o‘sha davr aholisini gavdalantirgan. Tuban qalbli kimsalarning yuzini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan va bunga erishishgan. Ayniqsa, “Makr va muhabbat”da keltirilgan gersogning bir ayol uchun olingan taqinchoq tovoni sifatida yetti ming o‘g‘lonni Amerikaga jo‘natib yuborishi “baliq boshidan” qabilidagi iborani yodga soladi. Zero, davlat rahbarlari xalqni o‘ylasa, ularga nisbatan adolatda bo‘lsa, ilm-ma’rifatda barchadan ustun bo‘lsagina, davlatda yuksalish bo‘ladi. Bunday sahnalarning keltirilishi bilan ijodkor o‘z davri amaldorlari faoliyatidagi kamchiliklarni ochib bermoqchi bo‘lgan. O‘sha davr amaldorlarini ilm, uquv, aql-zakovat, adolatda ilg‘or bo‘lishi lozim ekanligini silliqlik bilan ko‘rsatishgan. Ziyoli, ma’rifatli jamiyatni yaratish uchun avval katta lavozimdagilardan boshlashni afzal bilishgan. Fikrimizni quyidagi jumlalar bilan dalillasak:*“ XVIII asr nemis ma’rifatchilik adabiyoti o‘z xalqiga milliy birlik, o‘z kuchlariga ishonch, adolatga intilish kabi tuyg‘ularni singdirdi. Ma’rifatpavarlar uchun aql-idrok bosh masaladir. Ular insonning aqliy faoliyatiga, odamiylik fazilatiga, shu bilan birga, ma’rifatparvarlik g‘oyasiga yuqori baho berishadi. Ma’lumki, Yevropa XVIII asr ma’rifatchiligining aksariyati “ma’rifatli hukmdor” g‘oyasini ilgari surar edilar”.* (U. Jo‘raqulov, K. Hamroyev 2021.126-bet)

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bu kabi sahnalar insondagi, jamiyatdagi chirkinliklarni bartaraf etishda yetakchilik qiladi. Tahlilga tortilgan yuqoridagi ikki asar qahramonlari jamiyatning bir bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ldi va o‘sha davr muhitini ochib berishda katta hissa qo‘shadi. Barcha zamonlarda uchraydigan fisq-u fasod, makr, manfaatparastlik kabi illatlarning oqibatini mohirona ko‘rsatadi. Insonlardagi adolatsizlik, zulmkorlik qattiq qoralanadi. Ilm-ma’rifat barcha zamon uchun jamiki muammo va kamchiliklarni yenguvchi qurol, degan g‘oya ilgari suriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari.
2. Fridrix Shiller, Makr va muhabbat.
3. Jo‘raqulov, U., Hamroyev, K. (2021) Qiyosiy adabiyotshunoslik.
4. Saidov, U. (2004) Yevropa ma’rifatchiligi va milliy uyg‘onish.
5. Iogan Peter Ekkerman (2016). Gyote bilan gurunglar.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA JADIDCHILIK HARAKATINING NAMOYANDALARI

Rahimova Nasiba Nurg‘ali qizi,
CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti 2-kurs
hakimbetovaholida@gmail.com
Ilmiy rahbar: Nafisa Roxmanova

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nafaqat o‘zbek, balki qozoq jadidlarining xalqlarni ilm-ma’rifatli qilish uchun olib borgan sa’y-harakatlari, ta‘lim tizimida amalga oshirgan islohatlari, jadidlar uchun umumiy bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlari, ular o‘rtasidagi hamkorliklar va birgalikda amalga oshirilgan ishlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilar, o‘zbek, qozoq xalqlari, ma’rifat, ilm, maorif, madaniyat, islohatlar, ijtimoiy-siyosiy, tatar, inqilob, adabiyot, tilshunoslik, she’r, turklar.*

Abstract. *In this article, the efforts of not only Uzbekistan, but also Kazakhstan jadids to enlighten the people, their reforms in the education system,*

specific characteristics of jadids, cooperation between them and joint activities were discussed.

Keywords: *Modernists, uzbek, kazakh peoples, enlightenment, science, education, culture, reforms, socio-political, tatar, revolution, literature, linguistics, poetry, turks.*

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha jadid — yangi) — XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrim-tatarlar o‘rtasida vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqaldi.Turkistonda jadidchilik harakati uch soha orqali faoliyat ko‘rsatdi. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta’lim usulini yangilash), san’at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilm-ma’rifatli qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg‘unlashuvi natijasida, o‘zligini, o‘z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston jadidchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo‘lida katta ishlar qilindi. Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat kabilar turgan.

1917-yil jadidchilik harakati o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Fevral inqilobidan so‘ng o‘zbek, tatar va qozoqlar birlashishga ahd qiladilar va “Turon“ uyushmasi zaminida “Shuroi Islomiya“ jamiyati tuzildi (asoschilari Munavvarqori, Abduvohidqori Abduraufqoriyev, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev). Qozoq, o‘zbek xalqlari ayni o‘sha vaqtdan boshlab yanada yakdillik bilan bir bo‘lib, ziyolilarni ko‘paytirishni maqsad qildilar. Qozoq jadidchilaridan Saken Sayfulin, Axmet Baytursinov, Mag‘jan Jumaboyev kabilar o‘zbek jadidchilari bilan birgalikda harakat qilishgan. Umuman olganda, o‘zbek – qozoq adabiy aloqalari haqida so‘z ketganda, biz ,avvalo, ikki xalqning tarixiy

ildizi birligini aytishimiz kerak. Qadim-qadimdan bu ikki xalq yonma-yon yashab, bir daryodan suv ichib, bir yaylovda chorvachilik qilganlar. O‘zbek-qozoq xalqlarining do‘stligi, adabiyotlarining ruhiy yaqinligi haqida gap borganida beixtiyor G‘afur G‘ulomning “Qozoq elining ulug‘to‘yi” she’ridagi quyidagi misralari yodimizga tushadi:

Ming yillarga bar tutqazmas

Qardoshlik tariximiz.

Ikki boshga bir manglayday

Yarqiroq taqdirimiz.

Zero, adibimizning ushbu o‘xshatishida ikki qondosh, yelkadosh xalqning azaliy birdamligini aks ettiruvchi muazzam bir doston ko‘lamidagi ma’no aytilgan. O‘zbek-qozoq adabiyotlaridagi o‘zaro hamkorlik jarayonini atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov shunday ta’riflagan: *“XX asr boshlarida o‘zbek adibi Abudulla Qodiriy yaratgan romanlar qozoq yozuvchilari uchun ham adabiy maktab bo‘lgani haqida Muxtor Avezov ko‘p yozgan... Qozoq adabiyotidagi epiklik, xalq og‘zaki ijodiyotiga moyillik kabi xislatlar, asosan, mumtoz adabiyot an’analari ruhida shakllangan o‘zbek adabiyotini yanada yorqin ranglar bilan boyitishga munosib hissa qo‘shdi. Ikki xalq adabiyoti vakillarini bamisoli egizakka o‘xshatish mumkin, zero, Muxtor Avezov va Oybek, G‘afur G‘ulom va Sobit Muqonov, Abdulla Tojiboev va Mirtemir, Abdulla Oripov va O‘ljas Sulaymonovlar adabiyot maydonida bir-biriga hamnafas bo‘lib qalam surdilar...”* (Alimbekov, 2020-yil, 5-bet) Hozirgi kunda ham bu xalqlarning yakdilligi yo‘qolmagan. 1917-yildagi jadidchilik harakatlarida ham ikki xalq yonma yon birga bo‘lishdi. Masalan, qozoq she’riyatining buyuk namoyandasi, otashnafas shoir Mag‘jan Jumaboyning nomi xalq orasida afsonaga aylanib, qalblardan o‘chmas joy olgan. U 1893-yilning may oyida dunyoga kelgan. O‘n to‘rt yoshidan she’r yoza boshlagan. Shoir asarlari o‘sha paytlarda qozoq, tatar tillarida nashr qilinuvchi gazeta, jurnallarda chop qilingan. “Cho‘lpon” nomli ilk she’rlar to‘plami 1912-yilda Qozon shahrida bosilgan. Ulug‘ shoirning “Bayan botir” nomli dostoni 1922-yilda Toshkentda yozilgan va shu yerda nashr qilinuvchi “Sana”

(“Tafakkur”) jurnalining 3-5-sonlarida e’lon qilingan. Mag‘jan Jumaboy ijodiyoti – tutqun qalb faryodlarining, ozodlik nashidasini qo‘msab oh urgan dil dardlarining ifodasidir. Shoir butun umri bo‘yi mustamlaka kishanlarini parchalab tashlashga da’vat qiluvchi she’rlar yozdi. Isyonkor ruhdagi she’rlari uchun mustabid hukumat zindonlarida o‘tirib, oxir-oqibatda stalinchi yovuzlar qo‘lida halok bo‘ldi. Mag‘janning olovli she’rlari uzoq yillar mobaynida xalqdan yashirib kelingan edi. Faqat mustaqillik tufayligina bu isyonkor she’rlar yana o`z xalqining ma’naviy xazinasiga aylandi (Alimbekov, 2020-yil, 40-bet) 1924-yilda Moskvadagi “Yoshlarning adabiy jamiyati”da Mag‘janning Toshkentda chiqargan she’riy kitobi (1923) muhokama qilinadi va uni millatchilikni kuylaganligi, tasavvufni, tarixni ulug‘lagani qattiq tanqid ostiga olinadi. Shundan so‘ng Mag‘jan millatchi, turkchi, boylar tarafdori sifatida ayblanadi. 1927-yilda Qozog‘istonga qaytib, bir muddat Qiziljarda o‘qituvchilik qilgach, xalq dushmani sifatida qamaladi (1929). 1935-yilda Gorkiy yordamida qamoqdan chiqadi. Biroq 1937-yilda takror qamalib, 1938-yil martida otib o‘ldiriladi. Mag‘jan 1988-yilda oqlangan. (uz.m.wikipedia.org)

Yana bir jadidchilardan biri Qo‘stanay viloyatining Jankeldin tumanidagi Saritubek ovulida tug‘ilib-o‘sgan Ahmet Boytursunov qozoq xalqining XX asr boshlaridagi milliy-ozodlik harakati yo‘lboshchilaridan biri, davlat arbobi, shoir va publitsist sifatida tanilgan. U qozoq tili va adabiyotining tadqiqotchisi, qozoq imlosining islohotchisi, shuningdek, ma’rifatparvar shoir hamdir. Uni haqli ravishda qozoq adabiyotshunosligi fanining asoschisi, deb atashadi. U qoldirgan “O‘quv quroli” darslik kitobi qozoq tilida yozilgan to‘ng‘ich alifbe o‘quv-qo‘llanmalaridan hisoblanadi. U yozgan ko‘plab she’rlar xalq qo‘shiqlariga aylanib ketgan. 1921-1925-yillarda Orenburgdagi Qozoq xalq ta’limi institutida,1926-1928-yillarda Toshkentda qozoq tili va adabiyoti, madaniyat tarixidan dars bergan. Buxorodagi jadidchilik harakatlarida faol ishtirok etdi. Xalqning ma’naviy yetakchisiga aylandi. Afsuski, uning uyi, ish joyi tintuv qilinib, 1909-yil 1-iyulda hibsga olindi, 1910-yil 21-fevfalgacha 8 oy qamoqxonada saqlandi. Qozog‘istonda yashash imkoniyatidan mahrum bo‘ldi va Orenburgga o‘tkazildi (edebi.net)

Saken Seyfullin ham qozoq jadidchilarining yorqin namoyandasi. U 1894-yil 15-oktabrda Jezqazg‘an viloyatining Oqadir tumanidagi “Qarashilik” qishlog‘ida tug‘ilgan. U qozoq adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan shoir. Uning “Ko‘kchatov”, “Qizil ot” dostonlari va she’rlari qozoq she’riyatining 30-yillardagi eng yaxshi asarlaridan hisoblanadi. “Baxt yo‘lida”, “Qizil shunqorlar” kabi dramalari adibning qozoq sahna san’atida yorqin iz qoldirganini isbotlaydi. 20–30-yillar qozoq she’riyatida o‘ziga xos maktab yarata olgan shoir mustabid tuzum muhitida o‘z iste’dodi, salohiyatini to‘la namoyon qila olmagan bo‘lsa-da, she’rlari, yirik dostonlari xalq dilidan joy olib, qozoq adabiyotining nodir namunalariga aylangan. (З. Қабдолов, С. Қирабаев, Х. Әдібаев, 2011-yil, 89-bet) Saken Sayfulin bir she’rida eski hayotni panjarasiz bog‘ shaklida qozoq xalqini esa o‘sha bog‘dagi qurigan daraxtlar timsolida tasvirlaydi. Yana bir asarida qozoq xalqini qorong‘u uyda o‘tirgan odamga o‘xshatadi. Ularni faqat ilmli, ziyoli qilsagina, o‘sha qorong‘ulikdan tashqariga chiqa olishi yoki sham yoqa olishi mumkinligini eslatadi. Sakenning har bir she’rlarida baland ot minib chiqqan, dalalarni larzaga solib qo‘shiqlar kuylayotgan jangchi yigit bor. Ot ovozi eski hayotni tinchligini buzadi, yangi davr shiorini yoyadi. Barcha xalqlarni, millatlarni ma’rifatli bo‘lishga, har bir xalqni o‘z o‘rni borligiga, tinch turgan dengizdek emas, balki asov otdek har bir qadamidan o‘t chaqnaydigan yoshlarni yetishtirishga chaqiradi.

Buni qarangki, Cho‘lpon ijodida ham xalqini ko‘rib qattiq qayg‘uga tushgan ijodkorni ko‘z oldimizga keltiramiz. Shoirning “Butun kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib xalq ichiga boraylik” kabi satrlarida xalqni birlashtirsa, juda katta yengilmas kuch bo‘lishini, mustamlakachilarga qarshi kurasha olish mumkinligini ko‘rsatgan. Faqatgina buning uchun birdamlik va savodxonlik talab qilinardi :

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir...

Cho‘lpon odamlarimizning savodxon, bilimli va ma’rifatli bo‘lishini, millat mustaqilligini orzu qilgan va unga intilib yashagan.

Shu narsani alohida aytib o‘tish joizki, o‘zbek jadidchilaridan biri bo‘lmish Mustafo Cho‘qay haqida aytmaslikning iloji yo‘q. 1890-yil dekabrida tug‘ilgan Mustafo Cho‘qay, Turkiston general-gubernatorligi markazi bo‘lgan Toshkent gimnaziyalaridan birida o‘qiydi va talabaligidanoq o‘zining favqulodda iste’dodini namoyon qiladi. Sultonxon Jusup 2010-yili “Ozodlik” muxbiri bilan qilgan suhbatida shunday degan edi : *“Sovetlar tomonidan “xalq dushmani” deb e’lon qilingan Mustafo Cho‘qay¸ nafaqat qozoq xalqi¸ balki butun Turkiston xalqlari mustaqilligi uchun kurashgan siyosiy arbobdir¸ degandi Mustafo Cho‘qay hayoti va siyosiy faoliyati tadqiqotchisi”* (ozodlik.org). Mustafo Cho‘qayning butun Turkiston xalqlari tarixida tutadigan o‘ziga xos o‘rni¸ uning bu xalqlarni milliy davlatlarga bo‘lmasdan¸ ularning yagona Turkiston bayrog‘i ostida birlashishlari uchun kurashganidir. Mustafo Cho‘qay 1941-yilning 27-dekabrida Berlinda sirli tarzda olamdan ko`z yumdi. Hozirgi kunda Mustafo Cho‘qayning qabri Berlindagi Shahidlar qabristonida ta’mirlanmoqda. O‘sha yerda qabrini ta’mirlayotgan turk ustalari Mustafo Cho‘qayni birinchi O‘zbekiston Prezidenti deb bilishar ekan va juda qattiq hurmat qilishar ekan. Undan tashqari Mustafo Cho‘qayning qabrini ziyorat qilishga Ozarbayjon, Qozog‘iston yoshlari tashrif buyurar ekan. Hattoki qabrini ta’mirlash va xotirasini abadiylashtirish uchun qozog‘istonlik yoshlar juda katta mablag‘ ajratishgan ekan. Lekin Turkiya Diyonat Vazirligi bu taklifni rad etib, hammasini o‘zlari qilishini bildiribdi (flashvideo.rferl.org) Ma’lumot o‘rnida aytib o‘tish kerakki, 2017-yil 27-noyabrda Turkiston muxtoriyati tuzilgan kunning 100 yilligi Qozog‘istonda nishonlangan va Mustafo Cho‘qayga bag‘ishlab hujjatli film olingan (ozozdlik.org). Ko‘rib turganingizdek, asli sirdaryolik bu insonga e’tibor juda katta. Biz shunday ma’rifatparvar insonning avlodi ekanligimizdan faxrlanamiz.

Umuman olganda, Mustafo Cho‘qay yoki Cho‘lpon bo‘ladimi, Saken Sayfulin bo‘ladimi - bularning g‘oyasi, fikri, dardi bir bo‘lgan. Ular xalqini, yurtini, millatini yovuzlar qo‘lidan ozod qilib, savodxon, ziyoli bo‘lishini juda qattiq istaganlar. Yuqoridagi qozoq jadidchilarning tarjimayi holiga e’tibor qaratgan bo‘lsangiz, ularning hammasi Toshkentda o‘qigan, faoliyat yuritgan,

o‘zbek jadidchilari bilan birga ijod qilgan, ishlagan. Ikki xalq birgalikda harakat qilgan. Shuning uchun ham bizning tarixiy ildizimiz bir. Biz ikki xalq yonma-yon yashab kelgan qardosh xalqlarmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. A. Alimbekov. (2020). Qardosh turkiy xalqlar adabiyoti . Toshkent.
2. З. Қабдолов, С. Қирабаев, Х. Әдібаев. (2011). Қазақ әдебиеті. Almata.
3. edebi.net.
4. ozodlik.org.
5. flashvideo.rferl.org.
6. uz.m.vikipedia.org.

JEK LONDONNING “SHIMOL HIKOYALARI”DA QAHRAMONLAR XARAKTERI

Shamsiyeva Dilafruz Faxritdin qizi,
ToshDO‘TAU Oliy adabiyot kursi, 2-kurs
uljanoy1963@gmail.com

***Annotatsiya**. Mazkur maqolada Amerika yozuvchisi Jek Londonning “Shimol hikoyalari” qahramonlarining xarakterlari haqida so‘z boradi. Qahramonlardagi olijanoblik, ochko‘zlik, g‘urur, qasoskorlik, kechirimlilik, xudbinlik kabi hislatlar shakllanishiga turki bo‘lgan omillar tahlil qilinadi. Hikoyalardagi erkak va ayol qahramonlar o‘rtasida uyg‘unlik va farqlar ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** Amerika adabiyoti, Jek London, “Shimol hikoyalari”, xarakter, nafs.*

***Abstract**. This article is about the characters of short stories of the North by the American writer Jack London. Factors contributing to the formation of feelings such as nobility, greed, pride, revenge, forgiveness, and selfishness in the characters are analyzed. Harmonies and differences between the male and female characters in the stories are revealed.*

***Keywords**: American literature, Jack London, “Northern stories”, character, lust.*

Jek London amerikalik yozuvchi, publitsist, jamoat arbobi, mashhur hikoya va romanlar muallifidir. U yigirma yilga yaqin vaqt mobaynida 200 dan ortiq

hikoya, 20 ta roman va 3 ta sahna asari yozdi. Jek Londonning “Shimol Odisseyasi” turkumidagi “Ajdodlar da’vati” ,“Oq qoziqtish” qissalari, “Hayot qonuni”, “Hayotga muhabbat” va “Gulxan” nomli hikoyalari ancha mashhur.

Jek Londonning “Shimol hikoyalari” qahramonlarida nafs bilan ichki kurash tasviri yaqqol seziladi. Individualistlarga, boylikka, shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga intilayotgan yirtqichlarga, xudbinlar, pulning kuchi, daromadga bo‘lgan ishtiyoqli qahramonlarga London qarshi turadi. Bu yerda biz ijobiy qahramonlar va nafs muammosiga duch kelamiz.

Shimoliy hikoyalarning ijobiy qahramoni jamoaviy tasvirdir. U ko‘plab belgilarga xos bo‘lgan turli xil individual xususiyatlarni birlashtiradi. Shimoliy hikoyalar ijobiy qahramonlarining asosiy xususiyatlari nimada? Qoidaga ko‘ra, ularning barchasi qiyinchilik va xavf-xatarlar oldida orqaga chekinmaydigan kuchli, jasur odamlardir. Ularning barchasi juda faol. Qat’iy iroda, maqsadga erishishda qat’iyatlilik London qahramoniga xos xususiyatlardan biridir.

Shimoliy hikoyalarning ijobiy qahramonlari insonparvar, erkparvar. Ular nafaqat odamlarga, balki hayvonlarga ham mehribon. Haqiqiy romantika insondan tabiat bilan, uning uchun yaratadigan to‘siqlar bilan kurashishni talab qiladi. Londonning irodali, faol qahramonlari sovuqqa, ochlikka chidab, tabiiy ofatlarga qarshi kurashadi.

Shimoliy hikoyalar sahifalaridagi erkak qahramonlar yonida ajoyib ayol obrazlari mavjud. Ko‘pgina hikoyalarda ayollar markaziy o‘rinni egallaydi va ular nafsga bo‘ysunmas haqiqiy qahramonlardir. Erkak kabi ayollar ham juda xilma-xildir. Bu yerda oq tanlilar va hindular, tashrif buyuruvchilar va keksalar, sodiq xotinlar va sarguzashtchilar aks etadi.

Garchi ko‘p hollarda London qahramonlari go‘zal ayollar bo‘lsa-da, ularning asosiy ustunligi go‘zallikda emas. Yozuvchi uchun ularning ichki mazmuni muhimroqdir. Ular qanday insonlar, qanday qobiliyatlari bor, nimalarga qodir - bular uni birinchi navbatda qiziqtiradi. Erkaklar singari London ham ayollarning matonatliligi, irodaliligi va qiyinchiliklarni yengish qobiliyatini qadrlaydi. Jasoratni prinsip sifatida belgilab, London qahramonlari jasur odamlarga qoyil

qolishadi va qo‘rqoqlarni yoqtirmaydilar. Qo‘rqoqlikdan ular nafratlanadi va eng katta illatlardan biri deb hisoblaydi. London qahramonlari ochko‘z, badnafs odamlardan nafratlanadi.

Shimoliy hikoyalarda salbiy ayol obrazlari ham mavjud: bevafo xotinlar, yengiltak qizlar, yollanma sarguzashtchilar. Biz bu ayollarni to‘g‘ridan to‘g‘ri tanqid qilinishini ko‘rmaymiz, ammo ularning xatti-harakati obyektiv ravishda qoralanadi. Xiyonatning o‘zi ham qoralanmaydi. London er va xotinning sevgisiz yashashda davom etishi tarafdori emas. Lekin ular halol, ochiqchasiga tarqalishlari kerak, buni bir-biriga aytishi lozim deydi. Bunday hollarda yolg‘on va aldov, xiyonat va janjalga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Har qanday sharoitda ham or-nomus va insoniy qadr-qimmat saqlanib qolishi kerak. Aks holda odamlar jazolanadi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, shimoliy hikoyalarida salbiy ayol belgilari nisbatan kam uchraydi. Shimol ular uchun qulay joy emas. Hikoyalarda yozuvchi sevadigan, odamiyligi, samimiyligi, o‘ziga yaqin bo‘lgan qahramon, irodali ayollar obrazlari ustunlik qiladi. Ularda nafosat, go‘zallik timsolini, chin ayollik timsolini ko‘radi. (Jek London, 2021, 3-bet) Ularga munosabati pokiza, yuksak. Shu bilan ayol har doim yuqoriga ko‘tariladi, romantiklashadi. Uning asarlarida muhabbat yuksak axloqiy tuyg‘u sifatida tasvirlangan. Bu insonga olijanob ta’sir ko‘rsatadi, unda olijanob turtkilarning paydo bo‘lishiga, insoniyatning rivojlanishiga yordam beradi. Yozuvchi ayolga nisbatan past darajadagi mavjudod sifatida munosabatni qoralaydi. Uning uchun ayol o‘rtoq, erkak bilan xavf va qiyinchiliklarni baham ko‘radigan, qiyin paytlarda maslahat yoki harakat bilan yordam berishga qodir do‘stdir. Bularning barchasi shimoliy hikoyalardagi ayol obrazlarining katta badiiy, axloqiy, kognitiv va tarbiyaviy ahamiyatini belgilaydi.

Jek London hikoyalari hayotiy voqelikka asoslangan bo‘lib, ular yozuvchining o‘ta sinchkov, kuzatuvchan shaxs ekanidan dalolat beradi. Bu asarlar bilan tanishgan o‘quvchi hayotni yanada chuqurroq o‘rganadi, uning past-u balandlikdan iborat yo‘l ekanini his qiladi, muallifning jonli tasvirlarida o‘z hayoti bilan uyg‘un bo‘lgan qandaydir o‘xshash chizgilarni ko‘radi. Yozuvchi qalamiga mansub asarlarning bugungi kungacha yashab, muxlislari tarafidan sevib-

ardoqlanib kelinayotganining siri ham shunda. 1899-yilda Amerika jurnallarida shimol hayotidan olib yozilgan “Yo‘ldagilar sharafi uchun”, “Olis o‘lkada”, “Oq sukunat”, “Jis-Uk qismati”, “Ayol kishining jasorati” kabi hikoyalari paydo bo‘ldi. “Shimol hikoyalari” to‘plami adibga olamshumul shuhrat keltirdi. Quyida ulardan ayrimlarini tahlil qilamiz.

“Oq sukunat”. Qorning cheksiz kengliklari o‘rtasida uch kishi omon qolishga va uyiga qaytishga harakat qilmoqda. Ulardan biri Mailmute Kid. Qolgan ikkitasi Meyson va Rut, uning hindistonlik rafiqasi. Sayohatchilarning oziq-ovqat zaxiralari juda kam va ular o‘z jamoalaridagi itlarni qanday ovqatlantirishni bilishmaydi. Hayvonlar ochlik va g‘azabdan doimo janjalni boshlaydilar. Kunduzgi to‘xtash vaqtida Meyson Rutni yupatishga harakat qiladi va ularga tez orada uyga qaytishlarini va hammasi yaxshi bo‘lishini aytadi. Issiq choy sayohatchilarni isitadi va xavfsiz qaytishga umid uyg‘otadi. Ular hazillashib, g‘amgin fikrlarni haydash uchun turli xil hikoyalarni o‘ylab topadilar. Zaifroq itlar qiynalishadi. Meyson umidsizlikdan ulardan birini kaltaklab o‘ldiradi. Kid do‘stidan jahli chiqadi, lekin hech narsa demaydi. O‘zidan g‘azablangan Meyson ulkan qarag‘ay o‘sgan butalar orasidan oldinga yuradi. Sayohatchilar bir zum to‘xtashadi va hukm surgan sukunatda qari daraxt to‘g‘ridan to‘g‘ri Meysonga qulab tushadi.

Indian va Kid unga yordamga shoshilishadi. Qarag‘ay daraxtini kesib, og‘ir yaralangan odamni ozod qilishadi, terilari bilan o‘rab, olov yoqishadi. Sayohatchilar indamay tunab qolishadi. Ular Meysonning falaj ekanligini va harakat qila olmasligini tushunishadi, uni qutqara olmaydilar. Ertalab Meyson do‘stiga xotini homiladorligini aytadi va uni qutqarishni so‘raydi. Buning uchun u Kidni otib tashlashga ko‘ndiradi. Kid buni qilishdan bosh tortadi va ovga ketadi, lekin bo‘sh qo‘l bilan qaytib keladi. Bu vaqtda jamoaning itlari Rutga hujum qilib, do‘konlaridagi baliqlarni yeyishadi. Bundan tashqari ozroq ovqat qolgan, itlar o‘rtasida janglar tez-tez bo‘lib turardi. Ular jamoadagi kuchsizlangan itni tishlab olishadi. Bu yerda qolish xavfli edi.

Kid qarag‘aylarni egadi, keyin Meysonni daraxtlar uni ko‘tarishi uchun ularga bog‘laydi. Rut itoatkor xotin sifatida erining so‘nggi irodasiga bo‘ysunadi va ketadi. Kid boshqa itlar guruhi bilan o‘rtog‘i o‘lguncha kutishga majbur bo‘ladi. Ammo u o‘lmaydi. Va keyin Kid do‘stining iltimosini bajaradi. Bitta o‘q, bitta pichoq bilan. Meyson qarag‘aylar tomonidan ko‘tarilib, osmonga uchib ketadi. Hikoya ba’zida barcha his-tuyg‘ularni unutib, qiyin tanlov qilish kerakligini o‘rgatadi. (Jek London, 2019, 56-bet).

“Oq so‘yloq”. Qahraton qishlarning birida Kichi ismli it egasidan qochib o‘rmonga kirib, bo‘rilar to‘dasiga qo‘shilib qoladi. U yerda ko‘payadi. Biroq, shimoliy cho‘lning sovuqligi hech kimni, hatto kuchukchalarni ham ayamaydi. Ularning hammasi o‘ladi, faqat bitta kuchukchadan tashqari. Oilani qandaydir tarzda boqish uchun bo‘ri otasi silovsin bilan o‘limgacha kurashishga qaror qiladi, lekin halok bo‘ladi. Endi kuchukchada onasidan boshqa hech kim yo‘q. U o‘sadi va shu bilan birga ular tabiatdagi hayotning barcha qonunlarini o‘rganadilar. Va asosiysi - yeyish yoki o‘lish. Kuchliroq kuchukcha Kichi bilan ov qila boshlaydi. Bir kuni u ov qilib yurib, ilgari uchramagan jonivorlarni ko‘radi. Bu hindular bo‘lib chiqadi. Ulardan biri kuchukchaga yaqinlashadi va unga tegmoqchi bo‘ladi, lekin u qo‘lini tishlaydi. Darhol javoban kuchukcha boshiga zarba oladi va baland ovozda qichqirishni boshlaydi. Onasi unga yordam berish uchun yuguradi, lekin hindu uni taniydi va uni nomi bilan chaqiradi. Va birdan kuchukchaning ko‘z o‘ngida mag‘rur va qo‘rqmas onasi xo‘jayiniga qarab sudrala boshlaydi. Shunday qilib, kuchukcha hindularning lageriga kiradi. Endi uning egasi va ismi bor - Oq So‘yloq.

Yangi hayot yarim bo‘rining didiga mos kelmaydi. U yangi qonunlarni o‘rganishi va ularga muvofiq yashashi kerak. Asosiy qonun - inson tanasi muqaddas va siz uni tishlay olmaysiz. Shu bilan birga, u doimo o‘zini begona his qiladi va boshqa itlar tomonidan hujumga uchraydi. Kunlarning birida kuchukcha qochib ketadi. Ammo orzu qilingan erkinlik u kutgandek go‘zal emas. Natijada, Oq So‘yloq hindularga qaytadi. Uning egasi Grey Beaver uy hayvonini chana itiga aylantirish vaqti keldi, deb qaror qildi. Vaqt o‘tishi bilan xo‘jayin bu qarorida xato

qilmagani ma’lum bo‘ladi – Oq So‘yloq o‘z ishini shu qadar a’lo darajada bajaradiki, uni jamoaga boshliq etib tayinlashdi. Bunday ish Oq Fangning shakllanishini yakunlaydi va u endi yarim bo‘ri kuchukcha emas, balki itdir.

Grey Beaver savdo qilish uchun Fort Yukonga borishi kerak bo‘lgan vaqt keladi. O‘zi bilan Oq So‘yloqni olib ketadi. Bu yerda it birinchi marta oq tanli odamlar bilan uchrashadi, ularni xo‘jayinidan ham kuchliroq xudolar deb biladi. Biroq bu joylarda urf-odatlar juda qo‘pol va oq tanlilarning asosiy o‘yin-kulgilaridan biri itlar o‘rtasidagi jang bo‘lib, ularning egalari pul olardilar. Bu yerda Oq So‘yloqning raqiblari yo‘q. Va mahalliy aholining ko‘pchiligi bunday itga ega bo‘lishni xohlaydi. Xushbichim Smit ismli qabih odam Oq So‘yloqni aldab sotib oladi va kaltaklar yordamida u endi uning xo‘jayini ekanligini ko‘rsatadi. Bu yerda yarim bo‘ri jangovar itga aylanadi va xushbichim Smit undan juda ko‘p pul topadi. Bu buldog maydonga kirguncha davom etadi, u raqibini deyarli o‘limgacha tishlaydi. Mag‘lubiyatga uchragan Oq So‘yloqni ko‘rgan xo‘jayini uni kaltaklay boshlaydi. Biroq, tashrif buyurgan odam Vidon Skott vaziyatga aralashadi. U itni buldogdan ozod qiladi va uni Pretty Smitdan sotib oladi.

Oq So‘yloq tezda tuzalib ketadi, lekin yangi egasiga iliqlik ko‘rsatmaydi. Aksincha, u butun g‘azabini ko‘rsatadi. Biroq Skott yetarlicha tushunish va sabr-toqatga ega va u mehribonlik bilan it uchun uzoq vaqt davomida uxlab yotgan tuyg‘ularni uyg‘otishga muvaffaq bo‘ladi. Iliq munosabat uchun Oq So‘yloq sevgi va sadoqat ko‘rsatadi. Skott bir necha kunga ketganida ham it hayotga qiziqishini yo‘qotadi va uning qaytishini intiqlik bilan kutadi. Bir kuni kechqurun Smit Oq So‘yloqni o‘g‘irlamoqchi bo‘ladi, lekin u qilgan noto‘g‘ri ishi uchun juda qimmatga tushadi. Biroq Vidonning Kaliforniyaga qaytish vaqti keladi va u yangi iqlim uning uy hayvoni uchun mutlaqo mos emasligini tushunadi. U itni yopiq uyda qoldiradi, lekin u derazani sindirib, paroxod tomon yuguradi. Skott uni o‘zi bilan olib ketadi.

Yangi uyga Oq So‘yloq tezda ko‘nikadi. U egasining oilasi bilan do‘stlashadi, hatto uni dastlab tanimagan cho‘pon Kolli ham uning yaqiniga aylanadi. Bir kuni

kechasi bir vaqtlar Vidonning otasi tomonidan sudlangan jinoyatchi uyga yashirincha kirib keladi. Oq So‘yloq u bilan olishadi. Uning yashash imkoniyati yo‘q edi, lekin shimoliy cho‘l jonivori o‘limga qarshi kurashadi va uni mag‘lub qiladi. U oyoqqa turganida uni Kolli va ularning bolalari kutib oladi. (Jek London, 2020, 34-bet)

Shunday qilib, “Shimol hikoyalari”da salbiy qahramonlarning nafsga berilishi oqibatlari ayanchli yakun topishi realistik chizgilar bilan ochib beriladi. Yaxshi odamlar ham qarshisida ikki yo‘l turadi: boylik yoki omon qolish. Qahramonlar ko‘pincha ikkinchi yo‘lni tanlaydi va yashashga bo‘lgan ishtiyoq har qanday nafs girdobidan insonni saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chet el adabiyoti tarixi, (1979). Qo‘llanma. Toshkent.
2. London, Jek. (2019). Shimol hikoyalari.Toshkent: Ziyo nashr.
3. London Jek. (2020). Bir kunlik qo‘nalg‘a. Toshkent: Zabarjad media.
4. London Jek. (2021). Shimol odisseyasi. Toshkent.
5. London Jek. (2018). Muhabbat va matonat. Toshkent: O‘zbekiston.

“ATIRGULNING TIKONI” HIKOYASIDA BADIIY SARLAVHANING POETIK VAZIFASI

Sheraliyeva Zarnigor Dilshod qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 3-kurs talabasi
zarnigorsheraliyeva0@gmail.com,
Ilmiy rahbar: dotsent Komiljon Hamroyev

Annotatsiya*. Ushbu maqolada jahon adabiyotining yirik vakili Gabriel Garsia Markesning “Atirgulning tikoni” hikoyasi tahlilga tortilgan. Asar g‘oyasi, mohiyatini belgilashda sarlavhaning tutgan o‘rni xususida mulohazalar yuritilgan. Bu borada bir qator adabiyotshunos olimlar: Dilmurod Quronov, Hotam Umirov, Komiljon Hamroyevlarning badiiy asar sarlavhasi haqidagi nazariy qarashlariga tayanilgan.*

Kalit so‘zlar: *Hikoya, sarlavha, detal, obraz, tugun, ziddiyat, ramz, peyzaj.*

***Abstract**. This article analyzes the story "Thorn of the Rose" by Gabriel García Márquez, a major representative of world literature. The role of the title in determining the idea and essence of the work is discussed. In this regard, a number of literary scholars: Dilmurod Kuronov, Hotam Umirov, Komiljon Hamroyev, relied on their theoretical views on the title of the literary work.*

***Keywords:** Story, title, detail, image, knot, conflict, symbol, landscape.*

Har qanday badiiy asar uchun sarlavha shu asarning muhim komponenti hisoblanadi. Nega deganda butunboshli asar g‘oyasi, ijodkorning nima demoqchi ekanligi ham aynan sarlavha orqali namoyon bo‘ladi. Sarlavha *“asar mohiyatidagi asosiy nuqtani urg‘ulab, ma’lum ma’noda asarning qabul qilinishini boshqaradi”* (Quronov, 2018, 197). Bu to‘g‘rida bir qator adabiyotshunoslarimiz ham atroflicha fikr yuritib, sarlavhaning asar kompozitsiyasida tutgan o‘rni nihoyatda ahamiyatli ekanini asoslab beradilar. *“Aniqlik va qisqalik nasrning birinchi ustunligidir. U fikrni talab etadi. Busiz go‘zal hikoya hech narsaga xizmat qilmaydi. Asar sarlavhasi bir yoki bir nechta so‘zda ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan fikrni o‘zida aniq, nomlanishidanoq o‘quvchini o‘ziga jalb qilishi lozim. Bu juda ham azobli, ayni paytda rohatlidir”* (Umurov, 2004, 136). Dotsent Komiljon Hamroyevning “Hikoya kompozitsiya” monografiyasida keltirilgan fikrlarga ko‘ra, *“ijodkor matn mazmunini ma’lum bir so‘z yoxud jumlaga jo qilar ekan, badiiy asar mohiyatini sarlavhaga yashiradi. Boshqacha aytganda, sarlavha ijodkorning badiiy niyati, asar g‘oyasi, obrazlar tizimi va barcha unsurlarni yagona fokusga jamlovchi mitti asardir”* (Ҳамроев,2020,102). Shular bilan bir qatorda asar sarlavhasi yozuvchining zukkoligi, iste’dod doirasini ko‘rsatib turuvchi vositadir. Chunki yuqoridagi fikrlarni inobatga oladigan bo‘lsak, badiiy asarga mos sarlavha tanlash ijodkordan katta mahorat talab qiladi. Bu jihatdan kolumbiyalik yozuvchi Gabriel Garsia Markesni tom ma’noda mahoratli yozuvchi deb atashda hech qanday mubolag‘a yo‘q. Markes jahon adabiyotida o‘ziga xos uslubga ega yozuvchilardan hisoblanadi. Yozuvchi ijodiga baho berib, uning romanlari-yu qissalarini tahlilga tortganlar yetarlicha topiladi. Biz ham shular izidan borib, “Atirgulning tikoni” nomli mo‘jaz hikoyasi orqali adib ijodiga munosabat

bildirmoqchimiz. Umuman olganda, buyuklar bahoga muhtoj emas. Bu urinishni shunchaki adib ijodiy olamiga kirishdagi qadamlardan deb tushunasiz.

“Atirgulning tikoni” — detal sarlavha. Ya’ni detal sarlavha sifatida asar yuqorisiga chiqqan bo‘lib, u hikoyaning butun mohiyatini ochib beradi. Sarlavhani ikki tomondan — odatiy ham ramziy tushunib, asarni tahlil qilish mumkin. Birinchisi — oddiy ma’noda Nenaga sovg‘a qilingan atirgulning tikoni. Shu kichkina detal asar qahramonlari hayotini butunlay o‘zgartirib yuboradi. Hikoya avvalida hashamatlarga, kayf-safoga to‘la hayot tasviri bilan boshlangan hikoya so‘ngida tamoman o‘zgacha yakun topadi. Asar boshidagi qahramon tasviri bilan yakundagi qahramon tasviri ham tubdan farq qiladi. Boshda Billi Sanches faqatgina hayotning zavq-shavqlari, o‘yin-kulgulariga, boylik, dabdaba va shu kabi dunyo matohlariga berilgan yengiltabiat inson bo‘lib ko‘rinadi. Yakunda esa hayotning mohiyatini bir qadar anglashga uringan, o‘zini taftish qilishni boshlagan qiyofada namoyon bo‘ladi. Uni bu holda keltirgan —atirgulning tikoni. Aynan shu detal uni muhimroq narsalar xususida o‘ylashga majbur etdi. Shu sabab mana shu paytgacha duch kelmagan kichik qiyinchiliklarni bir o‘zi yengib o‘tishga to‘g‘ri keldi, oz bo‘lsa-da hayotning past-balandlarini ko‘rdi. Xuddi shundan kelib chiqib, endi sarlavhani ramziy ma’noda tushunishga harakat qilsak. Atirgul — bu hayot ramzi. Uning guli bu hayotning go‘zalliklari, chiroyli lahzalari, qahramonimiz Sanches tushungan zavq-shavqlari, shodliklaridir. Ammo asl masala atirgulning tikoni ham bor ekanida! Ya’ni tikon — bu hayotning ikkinchi tarafi: azobli kunlari, qorong‘uliklari, sinovlari. Asar qahramonlari ham atirgulning faqatgina guliga qarab mushohada etgandilar, ammo hayotning o‘zi ularga (aniqrog‘i, Sanchesga!) bu gulning tikoni borligini ham eslatib qo‘ydi. Atirgul tikoni qahramonga ko‘p narsalardan saboq berdi:

1. **Shukr qilishni o‘rgandi**. (Asar matni bilan asoslaymiz: *“Xonaning bittagina derazasidan ko‘roydinday nur tushib turardi. Bitta karavot, bitta javon, bitta stul, poyiga tog‘ora qo‘yilgan obrez — xonadagi bor bisot shu, tag‘in bularning bari shu darajada bir-biriga taqalib turibdiki, nari-beriga biror qadam bosishning iloji yo‘q. Atrofdan kimyoviy dorining hidi anqiydi. “Nima bo‘lganda*

ham qish izg‘irinida ko‘chada yotgandan yaxshi-ku”, deya o‘ziga tasalli berdi Billi Sanches” (Markes, 2019, 632))

2. Faqat mol-dunyo, aniqrog‘i, boshda mashinasi bilan ovora bo‘lib hatto o‘zini, ovqatlanishni, Nenaga e’tibor berishni esdan chiqargan Billi kasalxonadan qaytib Nena haqida o‘yladi. Asar boshida “25 ming funtga xarid qilingan qo‘g‘irchoq” sifati yopishtirilgan sevgilisi haqida **qayg‘urish, o‘zini taftish qilish kabilarni o‘rgandi**. Asardan parcha: *“Umrida birinchi marta o‘zini g‘arib va yolg‘iz his etdi. Shuncha yildan beri Nenasiz qanday yashadi ekan-a?”* (Markes, 2019, 632) Fikrimizcha, Sanchesning Nenaga bo‘lgan muhabbati xuddi shu joydan boshlandi. Mana shu anglamlardan so‘ng, e’tibor beradigan bo‘lsak, uning hayotida Nena asosiy o‘ringa chiqa boshladi. Asar boshida qahramon faqat “shu paytgacha mingan moshinalarining hech qaysi teng kela olmaydigan “Bentli” mashinasi”ga mahliyo bo‘lib, hamma narsani unutgandi, ammo keyin — musibatlar boshlangan lahzadan so‘ng mashinasi ahamiyatsiz bo‘lib qoldi. Shu o‘rinda yana bir fikrni aytib o‘tish o‘rinli. Kolumbiyada Markes asarlarini boshdan oxir tahlil qilgan bir tanqidchi yozuvchi kitoblarini o‘qib, “Markes asarlaridagi ayol obrazi, bu — umid, g‘oya va yechim ekan”, degan xulosaga kelgan ekan. Qaysidir ma’noda ushbu hikoyada ham Billidagi o‘zgarishlarga Nena sabab bo‘ldi. Aynan ayol tufayli u yolg‘izlikka duch keldi, shuning o‘ziyoq uning hayotida burilishlar yasadi. Tabiatiga mutlaqo zid bo‘lgan, umuman qilib ko‘rmagan ishlariga qo‘l urdi: kitob o‘qimoqchi bo‘ldi hatto. Qolaversa, “dushanba kuni xotinining chiqishiga xonani sal sarishta qilib qo‘ymoqchi bo‘ldi, shunda po‘stinining etagida qotib qolgan qon dog‘larini ko‘rdi. Safar xaltasidan xushbo‘y sovun olib dog‘larni yuvishga kirishdi”.

3. **Muammolarni individual hal qilishni o‘rgandi:** avvaliga jomadon qulfini sindirish kerakligi (chunki kalit Nenaning sumkasida qolib ketgan edi), keyin qahvaxonada yegulik buyurish uchun fransuzcha javob-muomala o‘rganishi va hokazo.

4. **Mas'uliyatni his qilish, vaziyatdan oz bo'lsa-da xulosa chiqarishni o'rgandi:** jarimaga tortilgandan so'ng mashinasini belgilangan joyga olib qo'yadigan bo'ldi.

5. **Atrofni, insonlarni, tabiatni kuzatib, ularga e'tibor berishni boshladi.** Shu o'rinda asardagi Eyfel minorasi bilan bog'liq tasvirni keltirsak: *"Butkul dovdirab qolgan Billi Sanches Yarash maydoniga arang yetib bordi. Tomlar tepasida bo'y cho'zib turgan Eyfel minorasini ko'rib, yaqin tuyuldi shekilli, sohil yoqalab yurishga qaror qildi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, yanglishganini, minora ancha olisda ekanini, buning ustiga, har lahzada o'rni o'zgarib turishini payqadi".* Tasvirdagi Eyfel minorasi ham aynan ramziy ma'no kasb etgan. Minora bu Sanches yaqin deb o'ylagan dunyo lazzatlari, baxt, shodlik ramzidir. Ammo hayot quvonchlari biz o'ylagandek yaqin emas, aslida. Sanchesning yanglishgani, minora ancha olisda ekani shunga ishora qilsa, har lahzada o'rni o'zgarib turishi qismatning beqarorligi, hayot ham istagan onda o'zgarishi mumkinligi ifodasidir.

Yozuvchi obrazlar tasviri, peyzaj yoxud oddiy bayon zamiriga ham ana shunday chuqur ma'no singdirgan. Xullas, Markes asarning butun mohiyatini sarlavhaga shunday mahorat bilan yuklaydiki, uning benazir ijodiy nafosatiga tan bermay ilojimiz yo'q. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yozuvchi sarlavhaga olgan detal quyidagi xususiyatlari bilan ahamiyatlidir:

1. Voqealarni uyushtirish, boshqarish, tugun hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etgan.

2. Hayot ziddiyatlarini ko'rsatishda ustuvorlik qilgan; detal orqali bir obrazda hayotning ikki ziddiyati birgalikda tasvirlangan; insonlar o'rtasidagi konflikt, oilaviy munosabatlarning ziddiyati keng bayon qilinmasa-da, ishoralar orqali Markesga xos mahorat bilan ochib berilgan.

3. Qahramonni tarbiyalash, turmushdagi o'zgarishlar sabab uning ruhiy va ma'naviy dunyosidagi ma'lum ma'nodagi poklanish vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Muxtasar qilib aytganda, asarning muhim badiiy komponentlarini birgina detalga jo qilganining o‘ziyoq Gabriel Garsia Markesning benazir iste’dod sohibi ekaniga dalildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Markes, G.G. (2019). Tanlangan asarlar.
2. Quronov, D. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.
3. Sulton, I. (2005). Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O‘qituvchi
4. Umurov, H. (2004). Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
5. Ҳамроев, К. (2020). Ҳикоя композиция

NAVOIY VA SHEKSPIR: IKKI DAHO – IKKI BEBAHO

To‘xtasinova Sayyoraxon Abdurasul qizi,
ToshDO‘TAU OTAT, 2-kurs talabasi
sayyoratukhtasinova0414@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sharq va G‘arb adabiyotining gultoji bo‘lgan ikki ijodkor Navoiy va Shekspir adabiy merosining o‘ziga xos va takrorlanmas qirralari qiyosiy tadqiq qilinadi. Mashhur shaxslarning ular haqida bildirgan fikrlari o‘rganiladi. Ikki ijodkorning asarlari ham bugungi kunda qay darajada ahamiyatli ekanligi aks ettiriladi. Ular o‘rtasidagi zamon va makon xususiyatlarining o‘xshash va farqli jihatlari qiyoslar orqali ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar*: Navoiy, Shekspir, Sharq adabiyoti, dramaturgiya, Hamlet, Farhod, tasavvuf, adabiy meros.*

Abstract: *This article compares the unique and inimitable quality of literary heritage of Navoi and Shakespeare — two writers of the flower East-West literature: Furthemore, it has been studied and introduced studies about them written by famous scholars. The importance of their work is emphasized. The similarity and differences between their work is compared based on time and space.*

Keywords*: Navoi, Shakespeare, Oriental literature, drama, Hamlet, Farhod, mysticism, literary heritage.*

Badiiy adabiyotni cheksiz ummonga qiyoslasak, xato bo‘lmaydi. Va bu ummonning ikki ulkan to‘lqini mavjud desak, bu to‘lqinlarning biri Sharq adabiyotining yorqin vakili, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy bo‘lsa, ikkinchisi G‘arb adabiyoti dramaturgiya san’atining gullab-yashnashiga ulkan hissa qo‘shgan ingliz adibi Vilyam Shekspirdir. Har ikki ijodkor o‘rganilsa arziydigan ijod yo‘liga, tadqiq qilsa yarashadigan salmoqli adabiy merosga ega. Ushbu maqolada turli xil taqqoslar va misollar orqali ularning hayot va ijod yo‘llari to‘g‘risida so‘z yuritamiz.

‘‘Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir’’ (Karimov, 2008, 30-bet). Mumtoz ijodkorimiz Alisher Navoiy haqidagi ushbu fikrlar muallifi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovdir. ‘‘*Dramaturgiya san’atida hanuzgacha Shekspir bilan hech kim tenglasha olgani yo‘q. Uning nomi yoniga faqat uning o‘z nominigina yozish mumkin’’* (Shekspir, 2007, 5-bet). Shekspir to‘g‘risida aytilgan ushbu yuksak e’tirof taniqli rus tanqidchisi V.G.Belinskiyga tegishli. Har ikki fikr ham ikki ijodkorning o‘z davrida, o‘z yo‘nalishida beqiyos bo‘lganliklarini tasdiqlaydi. Shu o‘rinda Navoiy ijodini uzoq yillar davomida o‘rgangan taniqli adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetovning bir fikrini keltirib o‘tish lozim: *‘‘Mabodo Navoiy boshqa asar yozmasdan faqat ‘‘Xazoyin ul-maoniy’’ni, hatto uning tarkibidagi bitta devon – ‘‘G‘aroyib us-sig‘ar’’ yoki ‘‘Navodir ush-shabob’’, yoxud ‘‘Favoyid ul-kibar’’ni yaratganda ham adabiyotimiz tarixida eng ulug‘ shoirlarimizdan biri bo‘lib qola berar edi’’* (To‘xliyev, 2017, 105-bet). Ushbu fikrga qo‘shimcha sifatida agar Navoiy boshqa janrlarda ijod qilmasdan, faqat ruboiylarini yaratganda ham mana shunday ulkan obro‘ va martabaga ega bo‘laverishi mumkinligi aytib o‘tilgan. Filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqul esa Shekspir haqida: *‘‘Sharqdagi ayrim so‘fiy va mutasavvuflar shon-shuhratdan qochib, yozgan asarlariga ism-shariflarini yozishmagan. Shekspir esa kitob nashri bilan qiziqmagan. Sonetlaridan bo‘lak hech nima yaratmaganida ham, u dunyoning eng ulug‘ shoirlari davrasidan o‘rin*

egallardi'' (Shekspir, 2007, 7-bet), - deya ta'kidlab o'tgan. Darhaqiqat, Shekspirning birorta ham kitobi uning o'zi hayotlik davrida chop etilmagan.

Navoiy va Shekspirning qalam tebratgan janrlari ham, yaratgan qahramonlari ham bir-birlaridan butunlay farq qiladi. Lekin yaxshilab o'rganilsa, personajlar orasida bir-biriga yaqin turuvchilarini topish mumkin. Masalan, Shekspirning ''Hamlet'' tragediyasi qahramoni Hamlet ''fazilatga boy, xislatga kon, diyonat matlabi uchun kurashuvchi'' sifatida tasvirlanadi. Bu sifatlar o'z o'rnida bizga Alisher Navoiyning ''Farhod va Shirin'' dostonidagi Farhod obrazini eslatib yuboradi. Ikki obrazni o'zaro qiyoslashni boshlaganimizda esa o'xshashliklar bilan bir qatorda tayingina farqli tomonlar ham ko'zga tashlanadi. Farhod – poklanish matlabi ila komillik sari intilayotgan solik timsoli (Yo'ldoshev, 2019, 85-bet). Hamlet – oila posboni, jamiyat g'amxo'ri, asosiysi, sharaf va nomus qasoskori. Farhodning yo'li – ishq, iymon yo'li mashaqqatli, ammo oxiri sharafli. Hamlet – oshiq, sodiq va fidoyi. Xiyonatdan qaqshagan bir valiahd sifatida oxir-oqibatda u o'zi uchun o'lim – najot, sukut – farog'at, degan qarorga keladi. Bir qarashda ancha farqli tuyulgan bu ikki personajni taqqoslashimizning yana bir muhim sababi bu – tasavvuf. Hamlet obrazini mabodo sharqlik bir ijodkor yaratganda edi, undagi fazilatlarni, albatta, tasavvufga bog'lab yoritish zaruriyati tug'ilardi. Tasavvuf va G'arb dunyosi, tasavvufning g'arb madaniyatiga ta'siri haqida bizda ma'lumotlar uncha ko'p emas. Holbuki, g'arb ijodkorlari Sharq tasavvufiga qiziqib o'rganishi, mutasavvuf ijodkorlarning asarlarini o'zlashtirilishi kabi jarayonlar G'arbda bundan bir necha asrlar avval yuz bera boshlagan. Shekspir ham ijod bilan shug'ullanish bilan birgalikda Sharqning mashhur so'fiy va mutasavvuflarining faoliyatidan ham xabardor bo'ladi. Va o'zidagi bu tasavvufiy g'oyalarni Hamlet obrazi orqali aks ettiradi. Hamlet inson yomon xulq-atvor, tuban his-tuyg'ular quli ekan, demak, u nafs quli, nafsoniy va shahvoniy hislar malayi, degan tushunchaga tayanadi. Bir o'rinda u *''Darvesh o'zi orzu qilgan rohatiga yetadi''*(Shekspir, 2007, 17-bet) deydi. Orzu aylagan rohat-farog'atiga Hamlet garchi erishmagan bo'lsa-da, moddiy dunyoning qonli, qayg'uli hodisalari, taxtparastlik jinoyat va xiyonatlari, bir-biridan jirkanch oqibatsizliklar uni haq yo'li, haqiqat ishqidan

chetlashtira olmaydi. Sharqlik orif va darveshlarga Hamlet shu qadar ruhdosh. Farhod esa barchamizga ayon bo‘lganidek, o‘zbek adabiyotidagi tasavvufning tarbiyalashi lozim bo‘lgan komil inson obrazidir. Nafsni yengish orqali inson ruhan poklanadi. Poklanishga erishgan komil inson, ayni paytda, yuksak odob-axloq timsoliga ham aylanadi. Bunday obrazni Navoiy o‘z asarida Farhod orqali kashf etadi.

Ibn Xaldunning ta’riflashicha, *‘‘Iroda – har qanday qo‘rquvni xasday kuydirib tashlovchi qalbdagi yonishdir’’*. Hamlet qalbida gurullab alanga olgan aynan shunday olov uni isyonkorlikka, qasos olishga undagan. Farhodga esa so‘nggi damda, o‘z joniga qasd qilish onida, ana shu olov yetishmaydi, aksincha, u o‘zi bilan birga ‘‘tug‘ilgan’’ ishqni hamma narsadan ustun ko‘radi. Shirinni o‘zi uchun iymon timsoli deb bilgan holda yorsiz, ishqsiz, iymonsiz yashagandan ko‘ra bu dunyoni tark etishni afzal biladi.

Adabiyot ana shunday turfa xil taqdirlarni, xilma-xil ko‘ngillarni personajlar orqali insonlarga ko‘rsatib beradi. Garchi obrazlarni yaratgan ijodkorlar butunlay boshqa davr, boshqa joy, boshqa irq, boshqa din va boshqa millat vakillari bo‘lsa-da, ularning insoniyat uchun, adabiyot uchun ko‘rsatgan namunalari ularga bo‘lgan mehrning va ixlosning so‘nishiga also yo‘l qo‘ymaydi. Adabiyotni bir bo‘ston deb bilsak, adiblar uning gul-u rayhonlari bo‘lib, borliqni xushbo‘y iforga burkayveradi.

Adabiyot dunyosida o‘z asarlarida eng ko‘p so‘z qo‘llagan ijodkor sifatida Alisher Navoiyni bilsak, keyingi yuqori o‘rinlarda, albatta, Vilyam Shekspirni ham uchratamiz. Shu o‘rinda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Alisher Navoiy to‘g‘risida bildirgan yana bir mashhur jumlaga e’tibor qaratish lozim: *‘‘Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biror-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa’’*(Karimov, 2008, 29-bet). Ulug‘ nemis adibi Gyote esa:

‘‘Shekspirning nihoyasi yo‘q’’, - deya buyuk ingliz dramaturgiga cheksiz izzat-hurmat bildirgan. O‘z navbatida Ibrohim Haqqul ham: *‘‘Shekspir merosi – abadiy so‘nmas mash’ala. Uning nuri necha asrlarkim, dunyo xalqlarining ko‘nglini munavvar etib, o‘z tegrasida birlashtirib keladi, insonlarni insonlarga tanitadi, ellarni ellarga yaqinlashtiradi, hech qachon zulmatning ziyodan g‘olib kelolmasligiga kitobxonni ham, tomoshabinni ham ishontiradi, yo‘ldan adashganlarga yo‘l ko‘rsatadi, ezilgan, jabr chekkanlarni suyaydi’’*(Shekspir, 2007, 37-bet), - deya aytib o‘tgan e’tirofi bilan bizlarning Shekspirga bo‘lgan ehtiromimizning yanada oshishiga sababchi bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, har ikki ijodkorning ham ijod yo‘li tahsinga sazovor, ifoda uslubi o‘ziga xos. Sharqliklarning Navoiysi Yevropa ahli uchun qanchalik suyukli bo‘lsa, G‘arbning atoqli adibi Shekspir ham Sharqda shunchalik yuksak e’tirofda. Ikki ijod vakilini o‘zaro taqqoslashdan maqsad esa ularning birini ustunroq, birini pastroq darajaga qo‘yish emas, balki ularning har ikkisidagi beqiyosliklarni, betakrorliklarni ko‘rsatib berishdir. Adabiyotning vazifasi ham birovni birovdan ajratish emas, millatlarni bir-biriga yaqinlashtirish, insonlarda odamiylik tuyg‘ularini tarbiyalashdir. Shunday ekan, biz ham adabiyot osmonidagi eng yorqin ikki yulduzning nur-u shu’lasidan bahramand bo‘lishda davom etamiz. Adabiyotsevar kitobxonlar bor ekan, Navoiy va Shekspir hamisha tillarda va dillarda!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I. (2008). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. (29-30-b).
2. Shekspir, V. (2007). Saylanma. Toshkent. (5-37b).
3. To‘xliyev, B va boshq. (2017). Adabiyot. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi uchun darslik. Toshkent. (105-b).
4. Yo‘ldoshev, Q va boshq. (2019). Adabiyot. O‘rta ta’lim muassasalarining 9-sinfi uchun darslik. Toshkent. (85-b).

THAKUR IJODIDA INSON VA JAMIYAT MUNOSABATLARI TALQINI (“SHUBHA” HIKOYASI MISOLIDA)

To‘xtayeva Fotima Shamsiddin qizi,
ToshDO‘TAU OTAT 2-kurs talabasi
tuxtayevafotima2@gmail.com

Annotatsiya. *Insoniyat badiiy tafakkuri rivojida jahon adabiyotining tutgan o‘rni va ahamiyati barchamizga ma’lum. Ushbu maqolada jahonning zabardast ijodkori, yozuvchi va jamoat arbobi Robindranath Thakurning ijodi, asarlarida munosabatlari haqida fikr yuritildi va tahlilga olindi.*

Kalit so‘zlar: *Ma’rifatparvarlik, hurlik, Shubha, hikoya, gumanizm, oila va jamiyat.*

Abstract. *We all know the role and importance of world literature in the development of human artistic thinking. In this article, the world's most enduring creator, writer and public figure, Robindranath Thakur, thought about and analyzed society and human relations in his works.*

Keywords: *Enlightenment, freedom, Shubha, story, humanism, family and society.*

Nafaqat hind adabiyoti, balki jahon adabiyotining eng yorqin ijodkorlaridan biri bo‘lgan Robindranath Thakurning asarlari barchamizga ma’lum va mashhur. Mahatma Gandi, Javoharla’l Neru, Romen Rollanning adib haqidagi bildirgan fikrlari esa adib ijodini baholashda bizga qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Thakur - XX asrning buyuk yozuvchisidir. U hind adabiyotida shoir, dramaturg, romannavis sifatida o‘zining nomini qoldirdi. Adib ko‘plab maqolalar, falsafiy asarlar yozgan bo‘lib, bu asarlari ichida til va adabiyotga oid ilmiy maqolalari va maktab darsliklari alohida o‘rin tutadi. Adibning nasriy asarlarida erk, ozodlik, ma’rifat g‘oyalari tarannum etiladi. “Xalq qalbi” nomli qo‘shig‘i buning yorqin dalilidir. Adib vatanini hur, xalqini ozod ko‘rishni istagani bois asarlarining qahramonlari o‘zligini tanigan, o‘z millati uchun qayg‘uradigan, irodasi mustahkam, aqli teran shaxslardir.

Adibning deyarli barcha katta va kichik asarlarida, qolaversa, lirikasida ham personajlarning ichki kechinmasi birlamchi ahamiyatga ega. Adibning “Nur va

soyalar", "Jazo", "Hisob- kitob" asarlarini o‘qish davomida gapimizning tasdig‘ini topamiz. Thakur asarlarida insonparvarlik yo‘nalishi faol xarakter kasb etadi. Vatandoshlarining ayanchli ahvoliga qarshi norozilik, insonga achinish va hamdardlik bildirish bilan cheklanib qolmaydi, balki uni o‘z baxti va huquqlari uchun kurashishga da'vat etadi.

Ijodkor qalamiga mansub hajmi salmoqli, ammo mazmun jihatidan katta ma'no va mazmun, ibrat tashigan "Shubha" hikoyasini tahlil qilish orqali esa ayni mana shu holatni ko‘ramiz. Hikoyada aniq ko‘rsatilmasa-da, jamiyatdagi qoloqlik, insonlarning ma'naviy tubanlik sari boshlovchi qusur va kamchiliklar mahorat bilan yoritib berilgan. Qahramonlar ziddiyati asosida qurilgan ushbu hikoyada pok insoniy tuyg‘ularning toptalishi, insonlarning nuqson va kamchilklari sababli jamiyatdan ajratilishi yaqqol ko‘rsatilgan. Yuqoridagi ta'rif va tavsifdan ayon bo‘ladiki, jamiyat bunday insonlarni qabul qilmaydi. Uning uchun mas'ul va javobgar bo‘lmaydi. Bu esa dunyodagi eng qabih harakat, ya'ni insonlarning ma'naviy halokatiga sabab bo‘luvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Hikoya bosh qahramoni Shubha samimiy va sofdil, ezgu tuyg‘ular egasi, pokiza qalb sohibasi sifatida gavdalantirilgan. *"Ko‘zlari qora, shahlo, kipriklari uzun, lablari qiz qalbida tug‘yon urgan hislarni aks ettirib, gul bargiday titrab turardi"* (Olimov S. Adabiyot Toshkent: Sharq. (324 b) - deya ta'rifdan ma'lum bo‘ladiki, qahramon siyrati va surati bir-biriga monand. Ammo bu ta'rifning go‘zalligi va ismining ma'nosi va jozibasiga qaramasdan qizda bir kamchilik bor edi, ya'ni u tilsiz, zabonsiz edi. Bu esa hikoyada qahramonning butun xislat va fazilatini yo‘qqa chiqaradi.

Hind jamiyatida ham to‘y marosimlardagi sep- sarpo ishlari, munosib nomzod kuyov topish- bularning barchasi jamiyatdagi ortiqcha dabdabaga berilish, ijtimoiy hayotda qiz farzandga qanaqadir ma'noda e'tiborning pastligidan darakdir. Hikoya yozilgan davrdan boshlab bugungi davrgacha bo‘lgan vaqtga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jamiyatdagi marosimlarni tashkil qilish borasida qilinayotgan xatti-harakatlar bizni unchalik ham quvontirmaydi. Bugungi kunda ham bu boradagi eski an'analar o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

“Shubha”da oila munosabatlari ham yoritib berilgan. Qiz farzandni turmushga berish holat va maqsadidan ayon bo‘ladiki, jamiyatda ayol mavqeyiga juda past nazar bilan qarash, avj olgandek go‘yo. Bu kabi hikoyadan o‘rin olgan holat va vaziyatlar o‘sha davrning juda katta bir ilmsizligi, ayolga va xotin-qizlarga munosabatning yomonligini ko‘rsatadi. Masalan, *“Katta qizlarini, odat bo‘yicha ko‘p taraddud va xarajatlar bilan erga berdilar* (Olimov S. Adabiyot 8-sinf uchun darslik, 2009, 324-b) kabi so‘zlardan bizga ma’lum bo‘ladiki, oilada qiz farzandni faqat kelgusida yaxshi bir kuyovga erga berish uchun tarbiya qilishgandek, nazarimizda. Qizining turmushi uchun kuyov tomonga istagan mablag‘ini berishga rozi ota-onani tasavvur qilavering. Demak, qizni amallab erga bersa bo‘ldi. Qolgani muhim emas. Kenja qizi bo‘lmish Shubha obrazida ham mana shunday holat guvohi bo‘lamiz. Otasi Banikontxa qizini erga berarkan, uning keyingi hayoti bilan qiziqmaydi ham. Qizini yangi xonadon qanday qarshi oladi, soqovligini bilsa, keyingi hayoti qanday kichadi, bu kabi savollar bizni qiziqtirgani kabi oila kattalarini, jamiyatni qiziqtirmaydi. Adib nazarida mana shunday jaholatdan, ma’rifatsizlikdan qutulish kerak edi. Thakur hikoyada ma’lum bir voqeani shunchaki bizga bayon etib bermaydi. Balkim, hamisha yurtining hur va mustaqilligi, jaholatdan uzoqligini istab qahramonlarga ma’lum ma’noda ramz va vazifa yuklaydi. Jamiyatda Shubha kabi jamiyatdan ajratilgan, inson sifatida kamsitilgan insonlar kam emasdi. Adib ushbu hikoya orqali butun insoniyatga, qolaversa, jamiyatda insoniylik g‘oyalari, gumanizmni targ‘ib qiladi. Shuning uchundir adib Shubhani faqatgina hayvonlar tushuna olishi va faqat ular bilan do‘stligi haqida yozgandir. Inson hamisha uning tushunishlariga muhtoj. U kim bo‘lmasin, kasb-korining ahamiyati yo‘q. U - buyuk yaratiq. Allohning buyuk yaratig‘i. Hikoya qahramoni Shubhaning ayanchli taqdiri barchamizga ta’sir qilmasdan qolmaydi. Adib qahramon orqali tilsiz, zabonsiz holda mustaqillik istayotgan butun jamiyatni istayotgandek go‘yo. Ammo xulosa shuki, mustaqillik va hurlikka bu yo‘ldan borib bo‘lmaydi. Hikoyada tom ma’noda insonlardagi shafqatsizlik, bir- birini tushunmaslik, qolaversa, ma’naviy ojizlik mahorat bilan tasvirlangan.

Bugungi kunda har qaysi jamiyatda tenglik, adolat, inson qadr-qimmatiga hurmat hamisha birlamchi ahamiyatga ega. Jamiyatda teng huquqlilik va inson manfatlaridagi ustuvorlik eng yuksak axloqlarning ko‘rinishidir.

Thakur ijodida hamisha insoniylik prinsiplari yuqori saviyada aks ettiriladi. Sababi ijodkordagi ilm va salohiyat, ma’rfatga intilish va xalqini rivojlantirishi uchun qilingan har bir xatti-harakatlar shundan dalolat beradiki, har qanday maqsadga, orzu va intilishga erishsa bo‘ladi. Buning uchun hamjihatlik, ilm va ma’rifat, basirot ko‘zlari bo‘lsa bas, deb hisoblaydi va barcha asarlarida adib shuni targ‘ib qiladi. “Yana”, “Chinor”, “Nay”, “Yo‘l” she’riy to‘plamlarida esa hind milliy xarakteriga xos tipik obrazlarni yaratib, o‘z e’tiborini umumxalq ahamiyatiga ega bo‘lgan muammolariga qaratar ekan, Thakur doimo oddiy odamni ulug‘lashga harakat qiladi. Xalqning og‘ir iztiroblarga to‘la hayotini tasvirlar ekan, shoir nima uchun odamlar baxtsiz, ularning qashshoq yashashlariga sababchi kim, yer yuzida hayot qurish uchun nimalar qilish kerak, degan savollarga javob izlaydi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ijodkor qanday asar yaratmasin, markazida hamisha insoniylik va uning kamolotini targ‘ibi namoyon bo‘ladi. Shuning uchundir Thakur asarlari nafaqat hind adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham noyob asarlar sirasiga kiritilgan, hattoki 1913-yilda Xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgandir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov, S. (2009). Adabiyot. Toshkent: Sharq. (324 b).

2.Rabindranath Thakur. (2006.) Hikoyalar. Toshkent: Sharq. (272 b).

3. https://ru.wikipedia

4. https://n.ziyouz.com

FITRAT HIKOYALARIGA BIR NAZAR

Tursunaliyeva Shodiya Abdullo qizi,
ToshDO'TAU O'FF 2- kurs talabasi
tursunaliyevashodiya593@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Fitratning diniy mavzudagi "Zayd va Zaynab" hikoyasi tahlilga tortilib, asosan, hayotining "darz ketish" pallasidagi diniy qarashlari yoritildi. Hikoya boshqa asarlar, hadislar bilan qiyosiy o'rganildi. "Zayd va Zaynab hikoyadagi "halol va harom" tushunchalarining, o'rganilishi "tutingan farzandning xotinini nikohiga olish" masalalariga urg'u beriladi. Payg'ambar alayhissalom bilan "Zaynab" (r.a)ning turmushlari haqidagi fikrlar borasida manbalar o'rganilgan holda qiyosiy taqqoslandi.*

Kalit so'zlar: *payg'ambarlik, irsiyat, hiyla, ilm-ma'rifat, "darz ketish".*

Abstract: *In this article, Fitrat's religious story "Zayd and Zaynab" was analyzed, and mainly his religious views during the "break" phase of his life were highlighted. the story was studied comparatively with other works, hadiths. "Zayd and Zaynab of the concepts of "halal and haram", in the issue.Study focused on the story of "marriying the wife of a captured child" Is given "Zaynab" with the Prothet The cources were studied and compared.*

Keywords*: prophethood, heredity, tirck, knowledge, "crack".*

Abdurauf Fitrat jadidchilik milliy ma'rifatparvarlik harakatiga salmoqli hissa qo'shgan dramaturg, yozuvchi, shoir adabiyotshunos hisoblanadi. Fitrat ijodini o'rganar ekanmiz, uning adabiyotshunos, balki o'z o'rnida tilshunoslik mahoratiga ham ega bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Fitrat ko'pqirrali va sermahsul ijodkor bo'lib, uning ijodiy ishlari xalqni jaholat, turg'unlik, g'aflatdan uyg'otish ilm - ma'rifatga chorlash, ozod, erkin va baxt-saodatli hayotga undash edi. Fitrat adabiy jarayonda diniy va dunyoviy bilimlar egasi sifatida qalam tebratgan. Ijodkor 20 yil madrasada tahsil olgan. Fitratning ijodiga nazar tashlasak uning diniy mavzuda yozgan asarlariga ko'zimiz tushadi. Shu jumladan, Fitratning ijodini o'rganar ekanmiz, "Zayd va Zaynab" sarlavhasi ostidagi hikoya e'tiborimizni tortdi.

Hikoyani shartli ikki qismga bo‘lib tahlil qilishni, boshqa manbalar bilan qiyoslashni lozim topdik.

Hikoya quyidagicha boshlanadi: *“Arab quyoshining qup-quruq, o‘tkir ezguchi nuri endigina tog‘ boshlarini qizarta boshlagan , kimsasiz tor ko‘chalardan kechaning og‘irligi hanuz ko‘tarilmagan edi”* (Hiylayi shar’iy 1976. (95-bet)) .Hikoya qahramonlari Payg‘ambar Muhammad (s.a.v), ularning tutingan o‘g‘illari Zayd ibn Xorisa va Zaynab binti Jahsh. Hikoya asal voqeasi bilan boshlanadi va Payg‘ambar alayhissalomning Jahshning qizi Zaynabga nikohlanishlari bilan yakun yasaladi. Bizga ma’lumki, Payg‘ambar alayhissalom ayollari Oisha onamizning hiylalariga ishonib asalni harom qiladilar. Bu voqea, ya’ni asalning harom qilinishi Imom Buxoriyning “Al- jomi’ as-sahih’’ to‘plamida ham keltirilgan. Fitratning ushbu hikoyasiga ham shu hadis asos qilib olingan. Hadisda ham Oisha (r.a) rivoyat qiladilar: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Zaynab binti Jahshning hujrasiga kirib, u yerda asal tanovul qilib, uzoq qolib ketadirgan odat chiqardilar. Shunda men Hafsa birlan til biriktirib: *“Agar Janob Rasululloh birortamizning hujramizga kirib kelsalar, ul zotga “Sizdan mag‘ofir (asalga o‘xshash sassiq yelim) hidi kelyaptimi, mag‘ofir tanovul qildingizmi?” deb aytamiz, deb kelishib oldim. Keyin, Janob Rasululloh xotinlaridan birining huzuriga kirib erdilar, u ul zotga boyagi gapni aytdi. Janob Rasululloh: “Yo‘g‘-e, Zaynab binti Jahshning huzurida asal tanovul qilgan erdim, endi sira ham asal tanovul qilmayman!” — dedilar”.* (Imom Buxoriy, 1991. 304-bet). Ul zotning asal va holvani yaxshi ko‘rib iste’mol qilishlarini bilgan zavjalari hammasi til biriktirib Zaynab binti Jahshning oldilarida ko‘p qolmasliklari uchun hiyla qilishdi.

Fitratning bu hikoyasida ham qumg‘on ko‘targan bir guruh arab ayollari o‘zaro gaplashib ketishadi. Asal haqidagi gap Ummu Zahro tomonida aytib beriladi. *“Muhammadning asalni harom qilganini eshitgan edingizmi?*

-Ha, eshitgan edik. O‘n kun bo‘di. Musulmonlar “endi asal harom bo‘ldi” deb hamma asallarini to‘kkan edilar.

-Mana shunda Muhammadning xotinlari aldag‘on ekanlar.

-Qanday aldaylar uni. Payg‘ambarni aldab bo‘lurmi?

-Muhammadning qo‘g‘irchoq xotini Oysha bu masalada yolg‘iz Muhammadni emas, uning xudosini ham alday yozg‘on”.

Musulmon sharqida insonning shakllanishida, asosan, ta’lim-tarbiya muhim o‘rin tutadi degan qarash mavjud. Bunda “Qur’on” va “Hadis” asos qilib olinadi. Fitrat ham bolalik paytlaridan ayni mana shunday ilmlarni o‘rgangan, ma’naviy xazinasi boy, musulmonlar tomonidan islom tayanchi deb atalgan Buxoroyi sharifda dunyoga kelgan. Islomiy e’tiqod va oqsuyaklik unga irsiy meros bo‘lgan deyish mumkin.

Ma’lum muddat o‘tib uning shaxsiyati va dunyo qarashida ma’lum o‘zgarish ham yuz beradi. Xususan, uning shakllanib qolgan aqidasiga darz ketadi. Fitratning shaxs sifatida shakllanishida ham shu “darz ketish” dinamikasini kuzatish mumkin. Avvaliga uning “Qur’on” oyatlaridan tafovut izlash ko‘rinishida, keyin islohchilik, g‘oyalarini ko‘tarib chiqishda ko‘rinadi. (Jo‘raqulov,U. 1998, 30-bet). Bunga misol tariqasida “Shaytoning tangriga tangriga isyoni” (1924), “Zayd va Zaynab”, “Me’roj” kabi diniy asarlarini keltirishimiz mumkin.

Hikoyada ko‘rinadiki, Payg‘ambar alayhissalomning islom diniga mos bo‘lmagan gaplarni aytishlari, qiziqqonlik qilib xotinlarining baridan kechganlari, Alloh taolo halol qilgan narsani, ya’ni asalni harom deb uni to‘kib isrof qilishgani, va o‘zlari buni hiyla ekanligi bilib yana asalni halol qilish haqida oyat nozil qilishini so‘raganlari musulmon odam uchun g‘alizroq tuyuladi. Bundan ko‘rinadiki, hikoyada Payg‘ambarimizning fitratlariga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarni u zot tomonlaridan bajarish yuklatilgan. Buni ham yuqoridagi fikrimizning dalili sifatida keltirishimiz mumkin. Fitratni ayni dindan qaytgan, zamonaviy termin bilan aytganda “ateist’” bo‘gan deya olmaymiz, aksincha, uning e’tiqodiga “darz ketgan”. Hikoyaning shartli ikkinchi qismi Payg‘ambar alayhissalomning Zaynab binti Jahshga nikohlanganlari haqida desak bo‘ladi. Hikoyada bu quyidagicha aks etadi: *“Qumg‘on ko‘tarib kelayotgan ayollarning ichida islomni qabul qilgan Zaynab ham bor edi. U ayollarning gapiga qo‘shilmay kelardi. Payg‘ambarimizning tutingan o‘g‘illari, qullari Zayd ibn Xorisa. Zayd va Zaynab hovuz oldida uchrashib birga ketadigan bo‘lishadi. Zaynab:*

-Bizni sevishganimizni sezganga o‘xshaydilar Payg‘ambarning menga qarashlari boshqacha.

-Seni olmoqchimi? -dedi Zayd.

-Shundoqqa o‘xshaydi.

Ikkalasining suhbati davom etadi. Zayd ham Zaynab ham bir birlariga ko‘ngil qo‘yishgan. Payg‘ambar ham Zaynabga ko‘ngil qo‘ygan.

Zakoi Kunrapaning “Hazrat Payg‘ambarimiz va islom dini”, “Payg‘ambarlar tarixi” asarlarida ham shu voqea keltiriladi. *“Hazrati Payg‘ambar va Islom dini” kitobida “Zaynab binti Jahsh Payg‘ambarimizning juda yaqin qarindoshlaridan edilar. Zaynabning birinchi zavji Rasuli akramning ozod qilgan qullari va tutunga farzandlari Zayd edi. Zayd va Zaynabni nikohlab, bir tomondan musulmonchilikda haqiqiy tenglikni ko‘rsatmoqchi bo‘ldilar. Rasuli akramning bu takliflari qarshisida Zaynab istamay turmushga chiqdi”*.(Kunrapa,Z. 619-bet) Asarda aytilishicha, turmushdan ma’sud bo‘lolmadilar. Zaynab mag‘rur bo‘lganlaridan Zaydning ko‘nglini o‘ksitar edilar. Bundan zavjlari chidolmadilar. Zaynabni taloq qilishlarini aytdilar. Payg‘ambar Zaydga: “Juftingni o‘z huzuringda ushlagin , Allohdan qo‘rqqin “ deb tanbeh berdilar.

Bularni hikoyadan kelib chiqib qiyoslaydigan bo‘lsak, Muhammad tutingan o‘g‘lining xotiniga ularning baxtiga qarshi chiqib uylanmoqchi, kabi bo‘htonlar aytiladi. “Yevropaning mutaassib tarixchilariga ergashib” Fitrat ham Payg‘ambarimizni Zaynabning jamoliga oshiq qilib tasvirlaydi. Vaholanki, Zaynab Rasuli akramning yaqin qarindoshlari bo‘la turib uni avvallari ko‘rmaganmidilar? Xullas, Zayd Zaynabni taloq qilgandan so‘ng unga uylanadilar. Tutingan o‘g‘lining taloq qilgan xotiniga uylanish haqida oyat ham nozil bo‘ladi. Bundan maqsad johiliya arablarida bo‘lgan yomon bir illatni bartaraf etish edi, bu maqsadni amalga oshirish uchun “Zayd va Zaynab” (r.a.) voqeasi hayotiy asos bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imom Buxoriy.(1991) “Al-jomi’As-sahih” 4 tom, 3-kitob (304-bet) Toshkent.

2. Jo‘raqulov,U. (1998). “Fitratning tadqiqot mahorati” (30-bet) Filol. fan. dok.diss. Toshkent.

3. Kunrapa, Z. “Payg‘ambar va Islom tarixi” (619-bet) Toshkent.

4. Turdiyev Sh (1973). “Hiylaiy shar’iy” (95-bet).

GYOTENING ADABIY-ESTETIK QARASHLARI

Umarova Maftuna Saidmurod qizi,
Ilmiy rahbar-Komiljon Hamroyev,
ToshDO‘TAU O‘FF 4-kurs talabasi
maftuna.umarova4477@gmail.com,

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Gyotening adabiy-estetik qarashlarini o‘zida jamlagan ba’zi suhbat, adabiy-tanqidiy fikrlari tahlilga tortilgan. Xususan, uning “She’riyat va haqiqat” asarida keltirilgan qarashlari va Ekkerman bilan gurunglari asosiy manbaalardir. Aytilgan fikrlar yangiligi, o‘ziga xosligi va haqqoniyligi bilan juda muhimdir. Poeziya, poetik tafakkur, shakl va mazmun birligi kabi tushunchalar Gyote fikrlari asosida sharhlangan.*

Kalit so‘zlar: *Adabiy-estetik qarashlar, poeziya, poetik tafakkur, “lazaret poeziya”, “Tirtey poeziya”, antisipatsiya.*

Abstract. *This article analyzes some of Goethe's literary and critical thoughts, which include his literary and aesthetic views. In particular, his views presented in "Poetry and Truth" and his discussions with Eckermann are the main sources. The ideas expressed are very important for their novelty, originality and truthfulness. Concepts such as poetry, poetic thinking, unity of form and content are interpreted based on Goethe's thoughts.*

Keywords: *Literary and aesthetic views, poetry, poetic thinking, "infirmary poetry", "Tirtey poetry", anticipation.*

Yohan Volfgang Gyote nemis adabiyotida rang-barang she’riyati, dramatik asarlari, dostonlari, tarjimalari, adabiy-tanqidiy, ma’rifiy maqolalari, nasriy asarlari bilan o‘ziga xos o‘rin egallagan ijodkorlardan biridir. Uning adabiy-etetik qarashlari, o‘z zamondoshlari ijodi va shaxsiyati haqida yuritgan fikrlari hamon dolzarbdir. Aytilgan fikrlar yangiligi, o‘ziga xosligi va haqqoniyligi bilan juda muhimdir. Ushbu maqolada Gyotening adabiy-estetik qarashlarini o‘zida jamlagan

ba’zi suhbat, adabiy-tanqidiy fikrlari tahlilga tortilgan. Xususan, uning “She’riyat va haqiqat” asarida keltirilgan qarashlari va Ekkerman bilan gurunglari asosiy manbaalardir.

Yohan Peter Ekkerman qalamiga mansub “Gyote bilan gurunglar” asarida Gyote o‘zining san’at, poeziya, ijod va ijodkor labaratoriyasiga oid qarashlarini bildirib o‘tadi. Misol uchun, u poeziya haqida *“Tobora amin bo‘lyapmanki, poeziya insoniyat erishgan yutuq va u hamma yerda, barcha zamonlarda ming-minglab odamlarda yuzaga chiqaveradi. Bittasi boshqasidan ko‘ra buni yaxshiroq bajaradi, bittasi boshqasidan ko‘ra suv yuzida uzoqroq suzadi, bor gap shu. Ularning har biri she’r yozish oson emasligini o‘ylashi, mabodo birortasi yaxshi she’r yozib qolsa, mag‘rurlanib ketmasligi lozim.”* Poeziyaning insoniyatga yuborilgan bir ne’mat ekanligini, uning ma’naviy ehtiyojlarni qondirishdagi o‘rnining beqiyos ekanligi haqida yana ko‘plab fikrlar Gyote tomonidan ilgari surilgan. Bundan tashqari shoir poeziyaning vazifasi haqida, ba’zi shoirlarning uni qanday suiste’mol qilishi haqida fikr yuritadi:

“Shoirlar hamma narsani yozaverishadi, go‘yo ular bemor-u butun dunyo lazaretdek. Hammasi iztiroblar-u, yer yuzidagi azob-uqubatlar, narigi dunyodagi rohat-u quvonchlar haqida yozishadi. Shusiz ham hammaning ko‘ngliga qil sig‘magan paytda biri ikkinchisining qalbiga yanada tushkunlik olib kiradi. Bu poeziyani tom ma’noda suiste’mol qilish bo‘ladi, aslida poeziya bizga hayotdagi arzimas to‘siqlarni yengib o‘tish va odamlar qalbida hayot va qismatidan mamnunlik tuyg‘usini uyg‘otish uchun berilgan.” Shu yo‘nalishda she’r yozgan shoirlar she’riyatini “lazaret poeziya” ya’ni azob-uqubat poeziyasi, deb ataydi va unga kurashuvchalik va jangovorlik ruhidagi “Tirtey poeziya”sini qarshi qo‘yadi.

Ba’zan ijodkorlar yangicha va ulkan syujetli asar yozishga harakat qilishadi, ammo uddalay olishmaydi. Shu kabi vaziyatlarda Gyote o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda aytadiki: “*Men oldin ishlangan syujetlarga murojaat qilishni maslahat beraman. Ifigeniya timsoliga necha martalab qo‘l urilgan, ammo ular har xil; negaki, har bir ijodkor mavzuga o‘z nazari bilan, o‘ziga xos uslub bilan yondashadi.”*

Va ba’zan bir shoirning she’ri boshqasinikiga o‘xshab qolsa ham, hech qanday muammo yo‘qligini ta’kidlaydi. *“Dunyo qanday bo‘lsa, shunday qolaveradi, voqealar takrorlanaveradi, bir xalq boshqasi singari yashaydi, sevadi va his etadi, nega endi bir shoir ikkinchisiga o‘xshatib she’r yozmasin? Hayotiy voqealar bir-biriga o‘xshash, demak, she’rlar ham o‘xshash bo‘ladi-da.”* Darhaqiqat, dunyoning bir burchagidagi odam bilan boshqa burchagidagi odam ayni hislarni kechirayotgan, ayni muammolardan azob chekayotgan va balki bir xil narsani orzu qilayotgan bo‘lishi mumkin. Natijada, barchamiz bir inson farzandi va bir ruh hosilasi emasmizmi?!

Ba’zan yangilik qilish orzusida qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yadigan shoirlarni shunday tanqid qiladi: *“Hamma gap ham mana shunda, hozirgi shoirlarimiz ham xuddi shunday qilishlari zarur, ular bo‘lsa, bu mavzu allaqachon ishlanganmi yoki yo‘qmi, deb so‘rab-surishtirishadi, shimol-u janubdan ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan voqealarni qidirishadi, ko‘pincha bu voqealar shafqatsiz, qo‘pol bo‘ladi-da, qancha silliqlamagin, o‘shanday qolaveradi. Oddiy syujetga mohirona ishlov berish orqali tuzuk biror narsa chiqarish esa yuksak iste’dod va aql talab qiladi, ularda ayni shu narsa yetishmaydi.”*

Bundan tashqari Gyote poetik kayfiyat, predmet va asarda shakl va mazmun birligi haqida ham fikr yuritadi: *“Shakl poetik kayfiyatdan kelib chiqadi. She’r yozayotgan paytda bu haqda o‘ylaydigan bo‘lsang, jinni bo‘lasan va biror tuzuk narsa yaratolmaysan”.* Gyotening so‘zlariga ko‘ra, haqiqiy ijodkor ijod jarayonida asarning shakli haqida alohida o‘ylab o‘tirmaydi. Ijod jarayonidagi kayfiyatning o‘zi shaklni paydo qiladi. Agar ijodda sun’iylik mavjud bo‘lsa, shakl va mazmun nomutanosibligi yuzaga keladi. *“Har bir poetik shakl o‘z ta’sir kuchiga ega. Agar mening “Rim elegiyalari” to‘plamim mazmunini Bayronning “Don Juan”i ohangi va uslubiga ko‘chirilsa, mening barcha aytgan gaplarim yaramas bir narsaga aylanib qolardi.”* Bundan kelib chiqadiki, ijodning ilohiy jarayon ekanligini, san’at asari qalb va ruh holatining aksidir. Badiiy asarda nafaqat shakl balki mazmun ham, katta ahamiyatga egadir. Gyotening quyidagi gaplari bunga misol bo‘la oladi:

“She’riyatda mazmun nihoyatda muhimligini anglab yetishingiz kerak, holbuki, buni hech kim tushunishni istamaydi, ayollarimizda-ku bu haqda tasavvur ham yo‘q. Qanday ajoyib she’r, deyishadi ular, ammo bunda faqat she’rdagi hissiyotlar, so‘zlar, misralarni nazarda tutishadi. She’rning asl qudrati mazmunda, tasvirlangan holatda ekanligi haqida o‘ylab ham ko‘rishmaydi. Shu tariqa mazmunan bir pulga qimmat bo‘lgan minglab she’rlar dunyoga keladiki, ulardagi ko‘tarinki tuyg‘ular va jarangdor misralarda go‘yo haqiqiy hayot aks etadi. Odatda bundaylar mazmun muhim emas, she’r texnikasini egallasak, marra bizniki, deb o‘ylashadi.”

Har qanday davrda, har qanday xalq adabiyotida bunday shoirlar bo‘lgan va bo‘lajak. Gyote haqiqiy shoir kim degan savol mohiyatini ochishga intiladi: *“Haqiqiy shoirda hayot haqida tug‘ma bilim bo‘ladi, uni tasvirlash uchun unchalik ham tajriba, amaliy ko‘nikma kerak bo‘lmaydi.”* Ana shu tug‘ma bilim, ya’ni voqea-hodisalarni oldindan ko‘ra bilish, his-tuyg‘u orqali bilish antisipatsiya deb nomlanadi. Antisipatsiya shoir iste’dodiga mavzu mos kelgan joygacha yetib boradi. Antisipatsiyaning chegaralanganligi yoki keng qamrovliligiga qarab, iste’dod ham yuksak yoki o‘rtacha darajada bo‘lishi mumkin.

Gyote zamondosh ijodkorlarni baholar ekan, ularning ham ijodiga, ham shaxsiyatiga urg‘u beradi. Buyuk ingliz yozuvchisi Bayron haqida u shunday deydi: *“Lord Bayron ijod jarayonida buyuk, fikr-o‘yga berilganda esa go‘dakka aylanadi.”* Millatdoshlarining asossiz fikrlariga javob qaytarmagani uchun Gyote uni shunday deb ataydi. *“Inglizlar Bayron haqida nima xohlashsa aytaverishsin, ammo shuni bilib qo‘yishsinki, ularda unga teng keladigan shoir yo‘q. U hech kimga o‘xshamaydi va hammasidan yuksakroq turadi. Men ijodkorlik degan narsani dunyodagi biror odamda bu darajada uchratmaganman.”* Uning shaxsiyati haqida esa: *“U o‘zini o‘zi anglab yetmasdi. Bugungi kun bilan yonib yashar, nima qilayotganini mulohaza qilib ham o‘tirmasdi. U ko‘ngli nimani tusasa shuni qilar, boshqalarga esa hech narsani ravo ko‘rmas, shu tariqa o‘z hayotini o‘zi zaharlab barchani o‘ziga dushman qilib qo‘ygan edi”*

Shekspir haqida ham bir qancha iliq fikrlar aytib o‘tgan: *“Insoniyat hayotida u chetlab o‘tgan, u tasvirga olmagan biror mavzu yo‘q! Shu qadar silliq, emin-erkin tasvirlaganki! Shekspir haqida gapirish mushkul, barcha aytilganlar asossiz. U teatr shoiri emas, u sahna haqida o‘ylamagan ham, sahna uning buyuk tafakkuriga torlik qiladi, aslini olganda, bu yorug‘ olam ham unga torlik qiladi.”*

Gyote do‘sti va hammaslagi Shillerni shunday ta’riflaydi: *“Shillerning barcha asarlariga ozodlik g‘oyasi singdirilgan va uning o‘zi ham madaniyat manzillarida o‘zgarib borgani sayin g‘oya ham o‘zgacha qiyofa kasb etib bordi. Yoshligida bu jismoniy ozodlik bo‘lib, uni shoir o‘z asarlarida ifoda etdi, yoshi o‘tgan sayin bu ideal ozodlik g‘oyasiga aylandi. U literary and aesthetic views, poetry, poetic thinking, "infirmary poetry", "Tirtey poetry", anticipation. birorta yirik syujetga dadil kirishar, uni goh u goh bu tomondan tekshirib ko‘rar, goh undoq goh bundoq tahlil qilar, har tomonlama mulohaza qilib ko‘rardi. U o‘zi tanlagan har qanday syujetga faqat tashqi tomondan nazar tashlar, uni sekin-asta ichdan rivojlantirib borish unga begona edi. Talantiga beqarorlik xos bo‘lib, hech bir narsani oxiriga yetkazmasdi.”* Goratsiy bilan Hofizga esa o‘z davrlaridan ilgarilab ketgan va jamiyatdagi inqirozlarni achchiq kulgi bilan tanqid qilgan insonlar deya ta’rif beradi.

Xulosa qilib aytganda, adibning adabiy-estetik qarashlarini hayot, adabiyot, shoir va she’riyat, jamiyat oldidagi burch, ijod mas’uliyati, o‘tmish saboqlari, tarixdan o‘rganish, buyuk shaxslar hayotidan ibrat olish, Vatan oldidagi qarzdorlik hissi, o‘zligimizni anglash, qadriyatlarga sodiqlik kabi ko‘rkam mulohazalarning sintezi tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yohan Peter Ekkerman. (2016). “Gyote bilan gurunglar”. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti.

2. Goethe. “Poetry and Truth”

3. Zarifboy Ibodullayev. (2012). Tibbiyot psixologiyasi. Toshkent: Cho‘lpon

GYOTE HIKMATLARI

Xayitova Shahlo,
ToshDO'TAU O'FF 2-kurs talabasi
Kxayitovashahlo@gmail.com
Ilmiy rahbar: Komiljon Hamroyev

Annotatsiya. *Ushbu maqolada buyuk nemis adibi Gyote hikmatlari haqida fikr yuritilgan. Unda Gyote hikmatlari va Sharq adabiyoti taqqoslangan. Sharq mavzularining Gyote hikmatlaridagi ifodasi xususida umumlashma xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so'zlar: *G'arb va Sharq adabiyoti, Gyote hikmatlari, adabiy ta'sir ,sharq mavzusining lirik talqini, ruboiy, to'rtlik, an'ana, sintez.*

Abstract. *This article discusses the wisdom of the great German writer Goethe. It compares Goethe's wisdom and Eastern literature. General conclusions were made about the expression of Eastern themes in Goethe's Proverbs.*

Keywords*: Western and Eastern literature, Goethe's wisdom, literary influence, lyrical interpretation of Eastern themes, rubai, quaternity, tradition, synthesis.*

Eng avvalo, G'arb va Sharq deganimizda ko'z oldimizga bir-biridan uzoq ikki madaniyat, ayro qit'alar va sivilizatsiyalar keladi. Lekin hech qaysi davlat, madaniyat, va xalq boshqalaridan ayro holda shakllanolmaganidek, qadimgi Yunon madaniyatining Sharq renessansiga, Sharqning Yevropa uyg'onish adabiyotiga ta'siri borligiga tarix o'z guvohligini beradi.

Juda qadim davrlardan beri bir xalq adabiyoti namunalaridan ikkinchi bir xalq ham bahramand bo'lib kelgan va ular ortasida adabiy aloqa va sintezlashuv jarayoni yuz bergan. Ma'lum bir adib asarlari esa bunday davrlarda xalqlar o'rtasidagi tutashtiruvchi vazifani bajarishi mumkin. Yohann Volfgang Gyotening "G'arb-u Sharq devoni" ham ulkan ikki madaniyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajargan deb bemalol ayta olamiz. Hikmatlarni daf'atan o'qigan o'quvchida uni G'arb emas, Sharq kishisi yozgan degan mubolag'a paydo bo'lishi ham shubhasiz. Bunda G'arb kishisining asarlarida Sharqdan ruhiy quvvat olib yozilgan devon borligi, unda qadimgi Yunoniston, Rim ilm-fani bilan birgalikda Sharq tafakkuri

yaqqol namoyon bo‘lishi ham bir madaniyatning boshqasiga ta’siri borligini yaqqol ko‘rsatadi. Shu o‘rinda “G‘arb-u Sharq” devoni ham ikki adabiy aloqa sintezlashuvidan paydo bo‘lgan asar deya ayta olamiz. Devonni Gyote Jomiy, Navoiy, Sa’diy, Firdavsiy, Rumiy ijodidan ta’sirlanib yozadi va, ayniqsa, Hofizning ta’siri yanada sezilarli. Kitob o‘n ikki bobdan iborat bo‘lib, uning oltinchi bobi “Hikmatnoma” deb nomlangan. o‘z nomi bilan anglashinib turganidek, bir qarashda sharq hikmatlari, ibratli so‘z va maqollarini eslatuvchi qit’a fard va ruboiylardan tashkil topgan bobda Sharq ruhi va tafakkur jilosi ufurib turadi. U quyidagi to‘rtlik bilan boshlangan:

“Toki bo‘lsin muvozanat unda paydo,
Qo‘yib chiqdim kitob uzra tumorlarni.
Kim ilohiy igna bilan uni tiksa,
Darddan xalos qilgay bemorlarni”

Gyote bu jumlalar bilan ushbu bob va butun dunyoga ishora qilyapti. Tumor sharq kishisi uchun juda ham tanish bo‘lgan, ichiga duo yozilgan, odamni balo-yu qazolardan asrovchi narsa. Shoir esa tumorlarni kitobga qo‘yyapti. Demak, bizni balolardan asrovchi so‘zlar kitobga yashiringan. Ilohiy igna esa ilohiy bilimlar. Agar biz shoir so‘zlarini ilohiy bilimlar bilan bog‘lay olsak, ichimizdagi savollariga javob topamiz. Va har qanday bemor qalb ham devondagi g‘azallardan o‘zi uchun shifo topa oladi. Endi esa diqqatimizni mana bularga qaratsak:

“*Taqdir imtihon etsa gung bo‘l odamzod,*
Foyda bermas aylamak ming dod-u faryod.”

Musulmon olamida yaxshilik ham, yomonlik ham Allohdandir degan qarashlar mavjud. Taqdir Alloh tomonidan bitilgan va buni o‘zgartirish bandalarining qo‘lidan kelmas. Donishmand adib bu yerda taqdir kajrafdorliklaridan dod-u faryod qilish o‘rniga sabr qilishni uqtiradi. Islomdagi eng buyuk tushunchalardan biri ham sabr. Xalqimizda “Sabr qilsang, g‘o‘radan holva bitar” degan maqol ham bor. Bu jumlalarning ikkinchi bir tomoni esa inson taqdir oldida har doim ojizligi. Biz qancha chiranganimiz bilan taqdirimizga yozilganidan ortig‘iga erisha olmasmiz. Qadimgi yunon dramaturgalaridan biri Esxilning

“Zanjirband Prometey” tragediyasida shunday jumlalar bor: “*Lekin donolar shafqatsiz taqdirga tan berishadi-ku axir*”. *(.“Занжирбанд Прометей” ЭсхилEsxil “)* Bu gap Gyotedan ham, hozirgi kunimizdan ham ancha yiroq paytlarda yozilgan. Adabiyotning mo‘jizaligi ham shunda bo‘lsa kerak. Asl so‘z qudratini asrlar oshsa-da yo‘qotmaydi.

“Ahmoqlarga berma e’tibor,
Ular so‘zlab o‘zin etar fosh.
Qiyomatda donolar zinhor
Kamtar bo‘lib ko‘tararlar bosh.”

Bular esa birdaniga yodimga “Ahmoq bilan teng bo‘lmoq” iborasini solib yubordi. Hayotda ham “Dono ahmoq bilan teng bo‘lar ekanmi”, “Ahmoq bilan bahslashsang, undan nima kaming qoladi?” kabi so‘zlarni juda ko‘p eshitamiz. Kamtarlikka esa eng oliy xislatlardan biri sifatida qaraladi. Oxirgi ikki qatorlar esa hammaga tanish Erkin Vohidovning “Kamtarlik haqida” she’ri bilan go‘yo hamohangdek. Ular o‘rtasida asrlar bor bo‘lsa-da, adabiy an’ana va ruhiy yaqinlik XX asr o‘zbek shoiri she’rida ham bu obrazni paydo qilgan.

“Qahramonga berolgay baho
Kimki erur jasur, hamda mard.
Tanimoq-chun odamni ammo
Hayot yoz-u qishin o‘tash shart.”
(Gyote “G‘arb-u sharq devoni)

Shu o‘rinda Gyote “Sharhi”da “Hikmatnoma” bobi haqidagi fikrlarini keltirib o‘tsak: *“Hikmatnoma hammadan avval ma’no va mazmun jihatidan “Tafriqnoma” va “Ranjnoma” boblarini to‘ldiradi, shuning uchun mazkur boblarga o‘ta hamohang. Har holda sharqona hikmat, donishmandlik butun bobdagi she’rlarning o‘ziga xos tiyratida saqlangan; bu hol his etiladigan va yalt etib ko‘zga tashlanuvchi syujetlarga taalluqlidir. Zero, mazkur baytlarda fikr qisqa va lo‘nda ifodalangan, bularni masal desak ham arziydi. Bunday sharqona murakkab uslub bizning muhitda quruq, xuddi tartibga solingan proza kabi tuyulishi mumkin. Har holda qadimiy nemis xalq maqollaridagi ma’no-mazmun qisqa masal shaklida*

bo‘lib, Sharq hikmatlariga misol bo‘la oladi” (Gyote “G‘arb-u Sharq devoni” 158-b). Ya’ni Gyote hikmatlarida faqat Sharq emas, G‘arb hikmatlarining ham o‘rni borligini ham ko‘ramiz. U zamondoshlariga hikmatlarini tushuntirish uchun nemis xalq maqollarini misol sifatida aytadi.

Yana yuqoridagi to‘rtlikka qaytadigan bo‘lsak, faqat qahramonlar emas, boshqalarga ham to‘g‘ri baho bera olishimiz uchun o‘zimiz o‘sha odamning vaziyatini boshdan kechirgan bo‘lishimiz kerak. Vaziyatni his qilmasdan turib esa unga haqiqiy baho bera olmasligimiz mumkin. Odam o‘zini anglagan sari hayotni ham shunchalik anglab boradi. Hayotni anglashning sharti esa uning yoz-u qishlarni o‘tash. Bu yerda ham biz ulkan tajribani ko‘ramiz. Gyote ushbu asarini yoshi ancha ulg‘aygan va hayot chig‘iriqlaridan o‘tgan paytida yozadi. Hayot past-balandidan o‘tilgan sari odam ham donishmandlashib boradi. Quyidagi hikmatlar ham oldingisining mazmuniga yondoshdek:

“- Ko‘rsatgum atrofni ochiq,
Lekin avval yuksaklikka chiq.”

Hayotda ham shunday emasmi? Tepaga chiqmasdan turib atrofni qanday ko‘ramiz? Yonimizda sodir bo‘layotgan narsalarni ochiq ko‘rishimiz uchun ularga yuqoridan nazar sola olishimiz kerak. Mana shunday ajoyib xulosalardan yana biri:

“Luqmon xunuk”- deding bas,
Luqmon so‘zi - dur.
Shirinlik qamishdamas,
Shakarda erur.”

Luqmoni hakim - Sharqda hammaga tanish bo‘lgan obrazlardan biri. Gyote ham uni tanigan va u haqidagi rivoyat va asarlardan boxabar bo‘lgan. Qur’oni Karimda ham alohida “Luqmon” surasi bor. Bu o‘rinda shuni ham eslatib o‘tish joizki, Qur’oni Karim suralari XI asrdan boshlab g‘arb tillariga tarjima qilingan. Gyote Qur’oni Karimni 1772-yil D.F.Megerlin tarjimasida nemis tilida o‘qiydi. O‘zi esa oltinchi sura “An’om”ni lotinchadan nemis tiliga to‘la tarjima qiladi. (Gyote “G‘arb-u Sharq devoni” 122-bet)

Xalq orasida ham Luqmon haqidagi rivoyatlar juda ham keng tarqalgan. U turli ko‘rinishlarda: hakim, murshid, pir sifatida namoyon bo‘ladi. Luqmon juda badbashara bo‘lishi bilan birgalikda o‘z aql-u farosati bilan, dur so‘zlari bilan asrlar osha yashab kelayotgan donishmanddir. Hamda Yevropada mashhurligi Luqmondek bo‘lgan Ezop ham juda badbashara kishi bo‘lgan. U ham o‘z topqirligi, har qanday vaziyatga aql bilan yondashib yechim topa olishi evaziga qullikdan yuqori darajaga ko‘tariladi. Uning masallari dunyo ma’naviyati xazinasidan joy olishga ulgurgan. Bizda ham “Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar”, “Yaxshi gap jon ozig‘i” kabi maqollar juda ham ko‘p. Gyote ham bu o‘rinda haqiqiy go‘zallik tashqi ko‘rinishda emas, dono so‘z va hikmatda ekanini bildiryapti. Shakarqamishning ham shirinligi uning shakarida. Biz uni boshqa qamishlar kabi bee’tibor qoldirmaymiz, balki shakardan foydalanamiz. Firdavsiy “Shohnoma”sida ham Bahrom Go‘r haqidagi boblarda shunday so‘zlar bor:

“Har so‘z o‘z o‘rnida ishlatilsa gar,

Unga teng kelolmas yoqut-u gavhar.”

Bu yerda ham o‘z o‘rnida ishlatilgan so‘z yoqut-u gavhardan ham ustun qo‘yilyapti. Biz yuqorida tilga olganimizdek, Gyote Sharq allomalari ijodi bilan ham, hayoti bilan ham yaxshi tanish. Ulardan ilhomlanib sharqona g‘azallar bitgan. Shunday ekan, shoir ijodida bunday omixta o‘rinlar bo‘lishi shubhasizdir. Endi esa yana bir quyma satrlardan joy olgan hikmatni keltirsak:

“*Iso eshagi hatto,*

Makkaga borsa hamki,

o‘zgardi deyish hatto,

o‘zgarmas aslo hangi.”

Bu yerda majoz vositasida tabiati o‘zgarmas odamlar ko‘rsatilyapti. Hamda bu Alisher Navoiyning “It bo‘lur, eshak bo‘lur, aslo bo‘lmas odamiy” misralarini ham beixtiyor yodga olishimizga sabab ham bo‘ladi. Vosita ham ularda bitta, ya’ni qamish. Bunday mutanosiblik Sa’diy Sheroziyning “Guliston”ida ham bor:

“Bulutdan chin hayot yomg‘iri yog‘sa,

Tol darax shoxida meva pishmaydi.

Urinma yomonni yaxshi qilishga

Bo‘yrabop qamishdan shakar chiqmaydi.

E’tibor qilaylik, bu satrlarda ham qamish obrazi qatnashyapti. Bunda shakarqamishning shakari emas, bo‘yrabop qamishdan shakar chiqmasligi ijodkor uchun asos. Gyote Sharq an’anaviy obraz vositalaridan foydalangani bu yerda yana o‘z tasdig‘ini topadi. Endi esa Muhammad Yusufning “Lolaqizg‘aldoq” she’ridan parchani ham ko‘rib o‘tsak:

“*Yomon kunlar bir kun yaxshi bo‘lar-u,*

Yomon odam yaxshi bo‘lmas hech qachon.”

Ba’zi yomon insonlarning o‘zgarmas tabiati Muhammad Yusuf ijodiga ham ko‘chib o‘tishi ajablanarli bo‘lmasa kerak. Hayot davom etar ekan, odamlar ham doimo mavjud. Hayot bor ekan, unda oq va qora ranglar, yaxshi va yomon insonlar bor. Ular davom etar ekan, adabiyot ham davom etadi. Adabiyot davom etgan joyda ijodkorlar o‘rtasidagi obrazlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar ham tuganmasdir. Bu jarayon xalq og‘zaki ijodida ham uchraydi: Masalan: “Tog‘ joyidan qimirladi desa ishon, odam o‘zgardi desa ishonma”. Ota-bobolarimiz tilidan aytilgan bu so‘zlar kecha yoki bugun paydo bo‘lgan emas, balki millionlab yillar avval yaratilib, obrazli taffakkurimizdan joy olgan so‘zlardir. Yana shuni ham aytish joizki, bu, albatta, hamma insonlarga taalluqli masala emas. Tavba eshiklari biz uchun har doim ochiq.

“*Bexato kas yo‘q erur, biroq*

Sening xatong o‘zgaga saboq.

Qayg‘urmasdan tashlagin qadam,

Har xatodan o‘rganar odam.”

Bu misralar esa sharhlarga ham muhtoj emas deb o‘ylayman. Zeroki, bu hayotda mukammal inson yo‘q. Xato qilish esa bandalarga xos xislat. Muhimi esa xatolarimizdan o‘rganish va o‘zimiz uchun kerakli xulosalar chiqara olishdir. Xulosa sifatida shuni ayta olamizki, Sharq an’analari, ijodi, madaniyati ta’siri ostida yaratilgan “Sharq va G‘arb devoni” tarkibidan joy olgan “Hikmatnoma” bobidagi hikmatlar har ikkala mintaqaning estetik qarashlarini o‘zida

mujassamlashtira olgan, har birimiz uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, ajoyib hayotiy xuloslar mahsulidir. Haqiqiy adabiyot namunasi esa bir xalq tafakkuridan ancha yuqorida turadi. Hind xalq eposi “Kalila va Dimna”, Konfutsiy, Ezop hikmatlari hozirgi kunga qadar yashab kelayotganining siri ham shunda bo‘lsa kerak. Gyote hikmatlari ham yaratilgan davridan hozirga qadar ma’naviy ehtiyojlarimizni qondira oladigan purma’no so‘zlardir. Faqatgina “Hikmatnoma” bobi emas, balki butun doston, hamda Gyotening boshqa asarlari olinsa ham ajoyib tadqiqot obyekti bo‘lishi mumkin.

“*Menga takror tekkani har joyda naqd,*

Davlatim Vaqtdir, dalam hosili Vaqt”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Guliston”, Sheroziy, www.ziyouz.com kutubxonasi.

2. “Ғарб ва Шарқ Девони”, Ёҳанн Волфганг Гёте.

3. “Занжирбанд Прометей”, Эсхил.

4. “Шоҳнома” , Фирдавсий Узбекистон фанлар академияси, “Фан” нашрёти, Тошкент ,1992.

G‘OYAT BAXTIYOR VA G‘OYAT QASHSHOQ

Gulshanoy Yo‘ldoshaliyeva Dilmurodjon qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 3-kurs talabasi
gulshanoyyuldosheva@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada asar tahlili va undagi detallarning ahamiyati haqida so‘z boradi.. Hikoyada mif va dinning bir mavzudagi voqealari qiyoslanadi. Asar muallifi kichik hikoya orqali nima demoqchiligini ochib berishga harakat qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Mif, detal, Injil, leksika, ma’bud, Dionis, Ilyos(a.s).*

Abstract. *In the article, it is discussed about its analysis and the importance of the details in it. In the story, the events of myth and religion are compared. An attempt was made to reveal what the author of the work wanted to say through a small story.*

Keywords: *Myth, detail, Bible, lexicon, god, Dionysus, Ilyas.*

Yozuvchining shaxsiyati yaratgan asariga ta’sir qilmay qolmaydi. Asarni mutolaa qilish jarayonida ba’zi jumlalarni tushunmay qolamiz yoki tahlil qilishga kelganda ikkilanib, bir qarorga kelolmaymiz, asarni noto‘g‘ri tahlil qilib ham qo‘yishimiz mumkin.. Shunday vaziyatlarda biz yozuvchining shaxsiyati, yashagan davridagi muhitga murojaat qilamiz. Biror badiiy asarni o‘qishdan oldin yozuvchining shaxsiyati bilan tanishib keyin asarni o‘qish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman. Sababi yozuvchi istamagan taqdirda ham uning shaxsiyati asarga yashirincha ko‘chadi.

Uilyam Folknerning “Qora musiqa” asarini o‘qish jarayonida yuqoridagi so‘zlar o‘z isbotini ko‘rsatdi. Asarni birinchi o‘qish jarayonida deyarli tushunmadim, xuddiki, hikoyaning ayrim matnlari tushib qoldirilganga o‘xshaydi. Ikkinchi, uchinchi o‘qiganimda “nimaga?”, “nima uchun?” degan savollar qamroviga oldi. Uilyam Folkner shaxsiyati va u yashagan davr ijtimoiy hayoti bilan tanishganimdan keyin asar o‘z mevasini berdi.

Hikoya nima sababdan “Qora musiqa” deb nomlangan? “Musiqa” va “qora” leksikasiga murojaat qildim: musiqa- insonning hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini notaga soluvchi san’at turi. Qora so‘zining esa qorong‘u, nursiz, ziyosiz ma’nolari ham borligi izohli lug‘atda qayd etilgan. Asarning nega “Qora musiqa” deb nomlanishiniga asosiy sababi insoniyatning hayoti qora musiqadek nursiz notaga terilib ketayotganligi bo‘ldi.

U.Folkner ham Mijlstonning hayoti orqali insoniyatning botqoqqa botayotganini, nafsini oliy darajaga ko‘targan insonlarni, bashariyatning ma’nisizlikka, tubanlikka, bee’tiborlikka yuz tutayotganini tasvirlab beradi. Jamiyat shu darajada tubanlashdiki, atrofda bo‘layotgan ayanchi manzaralarga beparvolik bilan qarash avj oldi. Asar markazida Mijlston emas, jamiyat turadi. Asarning boshida Mijlstonning boshidan kechirganlari xuddiki bir zamonlar hazrati Ilyosning boshidan o‘tganidek, uni ham o‘zi anglab bo‘lmas, shafaqgun ko‘klarga ko‘tarib ketdi. Hikoya bir qulflangan eshik deb olsak, mana shu jumla asarning kaliti edi. Ilohiy kitoblarda keltirilgan hazrati Ilyos voqeasida ham butga sig‘inib zalolatga yuz tutgan xalqni hidoyatga chaqirgan ularni ilyos a.s

ogohlantiradi. Folkner esa, hikoya orqali aysh-ishratga,kibrga, ichkilikka, harom ishlarga(sharobga suv va spirt qo‘shgan odamlar), beparvolikka mukkasidan ketgan jar yoqasidagi jamiyatni hikoya orqali ogohlantiradi.

Detallarda sir yashirin:

1. Sibizg‘a - tunukadan yasalgan nay. Sibizg‘adan kuy nola bilan chiqadi. Kuy chalinganda insonning ichini ezib yuboradi. Asarning “Qora musiqa” deb nomlanishiga asosiy sabab Mijlstonning hayoti ham xuddi g‘amgin kuyga o‘xshaydi. Ikkinchidan, sibizg‘ani misis Dayming xonim pichoq deb o‘ylagani ham tabiiy, tunuka chiroq shu’lasida tovlanib pichoqqa o‘xshab ko‘ringanini aytadi. Pichoqni og‘ziga solib mahluq ovoz chiqardi deydi, Mijilston esa hikoya qilayotganida “men sibizg‘ani bor kuchim bilan pufladim” deydi. Sibizg‘a metamarfoza bo‘lganini isbotlab beradi. Ya’ni Mijilstonning favnga aylanishi.

2. Injil- Injilda ham “illiya” voqeasi keladi. Asarni boshidanoq bu kalit so‘z bilan asarning voqeligidan bashorat qiladigan detal.

3. 3.Tol - bu Mejilston. “meni o‘ranadigan narsam bir bog‘ tol deydi. Kunora yuvmayman, yig‘ishtirmayman. boshimni olib ketmoqchi bo‘lsam ham, yengilgina o‘zim ketaman” deydi. Tol daraxti, boshi xam turadi xuddi Mijilstondek. Tol mevasiz daraxt. Mijilistonda ham farzand yo‘q bo‘lgan... Ko‘p badiiy asarlarda daraxt tagida sirli voqealar bo‘ladi. Lekin daraxt hechkimga bir og‘iz sotmaydi. Mejiliston ham 25 yil davomida ispan tilini juda yaxshi bilgan ko‘p voqealarga guvoh bo‘lgan, o‘zi haqida har qanday gapni eshitgan, eshitmaslikka olgan. Men o‘g‘ri emasman, degan gapidan bilib olsa bo‘ladi.

4. Bashorat: “mayli ular boy badavlat bo‘lsinlar. Ularni gazetalarda yozishsin, lekin seni ulardan kam joying yo‘q” Martaning bu gapi Mijilstonni suyuntiradi, aslida esa shu gapdan keyin hikoyadagi burulish bo‘ladi.

5. Tokzor va taka-favn. Tokzor - bu nafs timsoli. Tokzor bilan bog‘liq nafsiga qul uchta inson hayoti hikoya qilinadi:

6. Uzum sotuvchi-oyog‘i sinishiga sabab taka suzib yuborgani.

7. Uzumdan sharob tayyorlab sotuvchi - suv va spirt qo‘shib ko‘p qo‘shaverib mashinasi bosib o‘ldi.

8. Tokzorni buzib, ko‘l qilib Rim kemasida aysh-ishrat qilishni ko‘zlagan misis Dayming xonim, bu ham nafsning bir turi. Ko‘ziga taka ko‘rinib, ketishga majbur bo‘ldi.

Tabiiyki, savol tug‘uladi: nega Folkner noxush voqealarni uzumzor va takalar bilan bog‘lagan, Folkner boshqa tasvir topolmaganmi? Nega boshqa hayvon emas, aynan echki? Mahluq ham yarim taka, yarim odam edi, nega boshqa hayvon emas faqat “taka” markazda?

Tokzor va taka mifologiya bilan bog‘liq. Sharob ma’budi Dionis yerdagi odamlarning mashaqqatli mehnatini ko‘rib, ularga yuqori olamdan ambroziya urug‘ini olib tushadi va yerga ko‘mib ketadi. Keyinchalik odamlar ambroziyadan sharob tayyorlab aysh-ishratga o‘rganadilar. Bundan xabar topgan Zevs Dionisni jazolab yerga badarg‘a qiladi. Uning umri yerda oddiy odamlar ichida o‘tadi. O‘limidan so‘ng Zevs gunohlarini kechirib yana ma’bud darajasiga ko‘taradi. Uzumzorlar shu tariqa vijudga kelgan. Dionisning ko‘rinishi echkinikidek, shoxlari va tuyoqlari borligi xuddiki Mijlstonning ko‘rinishi bilan hamohang, yangi tokzor egalarining har gal echkilar bilan jazolanishi ham go‘yoki Dionisning g‘azabini chiqarish bilan bog‘liq. Dionis ambroziyani odamlar charchagan zavq olishlari uchun olib tushgan edi, lekin odamlar sharob ichiga suv qo‘shib ko‘paytirdilar, uzumzorlarni buzib ishratxonaga aylantirmoqchi bo‘ldilar. Odamlarning bu qilmishi yuqori olam qahrini keltirdi, jazolar bera boshladi, keyin Mijliston orqali ogohlantirish berildi. Bu yerda ham odamlarni haddan oshgan qilmishlari uchun jazo berilayotgani, insonlar qonuniyatni buzayotgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qonuniyat buzildimi, jazo - muqarrar.

Injildagi illiya voqeasiga to‘xtalsam. Asarning boshida Mijilston hayoti hazrati Ilyos(a.s) hayotiga o‘xshatiladi, bir yonib o‘chdi deb. Injilda hazrati Ilyos (a.s) voqeasida bani Isroil qavmini Ilyos (a.s) hidoyatga da’vat qiladi. Ular qabul qilishmagandan keyin Allohga jonini olishini, mashaqqatlardan xalos qilishini so‘raydi. Shunda Alloh taolo esa jonini olmay so‘ragan narsasini muhayyo qilishini aytadi. Ilyos alayhissalomga uch yil davomida istagan vaqtida yomg‘ir yog‘dira olish qudrati beriladi. Uch yil o‘tgandan so‘ng bani Isroil qavmi yana

Ilyos alayhissalomdan yuz o‘giradi. Rivoyatlarga ko‘ra uni samoga ko‘tarilib ketgan deyishadi. Asarning boshidanoq bu kalit so‘z bilan asarning voqeligini bilib olsak bo‘ladi. Mijlston ham oddiy hayoti davomida ko‘pchilikni kuzatib yuradi, ogohlantiruvchiga aylangan kunda uni o‘ldirmoqchi bo‘lishadi va u goyib bo‘ladi. Ayni Ilyos (a.s) bilan bog‘liq.

Folkner mahorat bilan mifologiya va injildagi bir mavzudagi voqeani qiyoslab “Qora musiqa” asariga olib kirgan. Asarning maqsadi ogohlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uilyam Folkner. (2018). Qora musiqa. Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&url=https://kh-davron.uz-

HANS KRISTIAN ANDERSEN ERTAKLARIDA SAFAR MOTIVINING BADIIY TALQINLARI

Yusupova Ferangiz Shahriyorovna,
ToshDO‘TAU O‘FF 1-kurs talabasi
yusupovaferangiz2@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Andersen ertaklarida qo‘llanilgan safar muammosi, turli sinovlar haqida mulohaza yuritilgan. Nafaqat bolalarni, balki har qanday yosh toifasidagi insonni safar orqali tarbiyalash qanchalik foyda berishi, bu orqali sodir bo‘ladigan ma’naviy jihatdan inson ongining o‘sishi to‘g‘risida fikrlar berib o‘tilgan. Yozuvchi ertaklaridagi sarguzasht bilan bog‘liq voqealar o‘rganilgan. Andersen o‘z ertaklaida nima uchun aynan sayohat motividan foydalangani sabablari o‘z ifodasini topgan.*

Kalit so‘zlar: *Ertak, safar motivi, sinov, badiiy syujet, bolalar adabiyoti, badiiy detall, “Qalayi askarcha”, “Qor malikasi”, “Dyumchaxon” ertaklari.*

Abstract. *In this article the journey and various trials in Andersen’s fairy tales are discussed. Not only children, but also people of any age group, how beneficial it is to educate people through travel, thoughts about the spiritual growth that takes place in a person through is are highlighted. The cases related to*

adventure in the writer's fairy tales are analyzed. The reasons why Andersen used the travel motif widely in his fairy tales are expressed.

Keywords: *Fairy tale, trip, trial, literary plot, children's literature, literary detail, "The Steadfast Tin Soldier", "The Snow Queen", "Thumbelina".*

Bugungi davrda hal etilishi, o‘rganilishi, tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan biri bolalar adabiyoti hisoblanadi. Sababi avvalboshidanoq kitoblar bilan, uning ichidagi turfa sarguzashtlar-u qahramonlar bilan birga o‘sgan bolalar ertaga jamiyatni saqlab qoladi, yurt kelajagi taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shadi. Biroq bolalar uchun asar yaratish ko‘p mehnat talab qilishini, yozuvchi-yu shoirning ancha ter to‘kishiga to‘g‘ri kelishini ko‘plab ijodkorlar ta'kidlashgan. Xususan, Said Ahmadning ham shunday gapi bor: *"Bolalar uchun yozayotan yozuvchi shu asar tugamagunicha bola bo‘lib turmasa, bu asarni hech kim o‘qimaydi, bir o‘qiydi-yu tashlab yuboradi"*. ("XXI asrda bolalar kitobxonligi: muammo va vazifalar" mavzusidagi Respublika konferensiya maqolalar to‘plami, 2019, 15-bet). Darhaqiqat, bolalar dunyosini qayta kashf etish, ularga mos asarlar bitish, bizgacha yetib kelganlarini esa saralab chiqish murakkab jarayon bo‘lishiga qaramasdan qilinishi lozim bo‘lgan muhim vazifadir.

Dunyo bo‘ylab bugunga qadar sevib o‘qilayotgan, bolalar adabiyoti mezonlariga mos tushadigan asarlar muallifi daniyalik Andersenning ertaklari butunjahon bolalari uchun hech eskirmaydi, qayta-qayta o‘qilaveradi, qolaversa, multfilmlar yaratilgani ham fikrimizni asoslaydi. Sababi yozuvchining hech bir ertagi yo‘l-yo‘lakay yozilib ketavergan emas. Yozuvchi ularni hayoti davomida kuzatganlaridan xulosa qilib, sayohatlari davomida yozgan. Ertak qahramonlari ma'lum bir to‘siqlardan o‘tadi, qiynaladi, sinovlarda toblanadi hamda eng asosiysi, oxirida ezgulikka erishadi, qahramon bo‘ladi. Ayniqsa, ushbu ertaklarda safar, sarguzasht motivi ham yetakchi vazifa bajaradi.

Andersenning "Sobit qalayi askarcha" ertagining bosh qahramoni bo‘lmish qalayi askarcha yaratilishi, ya'ni qalaydan quyilishi bilanoq o‘zining boshqa sheriklaridan farqli edi. Ushbu farq aksariyat asarlarda kuzatiladigan bosh qahramonning tashqi tomondan kuchliligida emas, balki asosiy qahramon bo‘lsa-

da, jismoniy jihatdan kemtikligida edi: askarchaning bitta oyog‘i yo‘q edi. Garchi u boshqa 24 askarcha singari miltig‘ini yelkasida tutib sobit tursa-da, uning boshqalarda uchramaydigan yana bir ustunlik tomonini yozuvchi ko‘rsatib berishni lozim topdi. Buning uchun Andersen o‘z ertak qahramonini kutilmagan bir sabab bilan safarga chiqardi. Olabo‘jining bir go‘zal raqqosa sabab askarchaga nisbatan adovatidan kelib chiqqan bu safar bosh qahramon uchun sinovlarga boy edi, albatta. Askarcha bu safar mobaynida yomg‘irlarda qolib ketdi, gazeta qayiqchaga o‘tqazilib, qo‘rqinchli daryoda suzishga majbur qilindi, kalamushlar hujumiga duchor bo‘lish bilan birga kattakon baliq qornida ham bir necha kunlarini o‘tkazdi. Lekin u hech bir sinovda o‘z maslagidan kechmadi: miltig‘ini osgancha bir oyog‘ida qilt etmay sobit turaverdi. Tabiiyki, u endi sinovlarni yengib o‘tgani uchun qandaydir usulda taqdirlanishi kerak. Eng birinchi navbatda taqdir uni yana o‘z uyiga, do‘stlari, safdoshlari safiga qaytardi. Shuncha davr mobaynida u har taraflama o‘zgardi, albatta. Ma’naviy jihatdan o‘sdi, dunyoqarashi o‘zgardi. Bundan tashqari ertakda uchraydigan bir tasvirga e’tibor qaratish lozim. *“Uning bo‘yoqlari ham o‘chib ketibdi, bunga qayg‘u sababmi yoki sayohatlari sabab, buni ham hech kim bilmas emish”*. (Jahon xalq ertaklari, Ma’mura Qutliyeva, 2016, 60-bet) Asar syujetining boshlanishida qalayi askarchaning bir karton raqqosaga oshiq bo‘lib qolishi yoritilgan. Ehtimol bu g‘am shundandir yoki, haqiqatan, safar davomida shunday bo‘lgandir. Lekin yo‘ldagi qiyinchiliklardan qolgan askarcha rangining ko‘chib ketishi ham yoki g‘amdan qolgan asoratlar ham asosiy fikr qaratiladigan nuqta emas. Kitobxon diqqatini askarchaning bu davr mobaynida ichki dunyosi, sabri, matonati, muhabbatining o‘zgarmay, aksincha, bir pog‘onaga yuqorilaganiga qaratmog‘i kerak. Afsuski, ertakning oxiri ijobiy yakun topmaydi. Ertak qahramonlari ustidan yana taqdir o‘z hukmini o‘tkazadi. Qalayi askarcha bir bebosh bola sabab, nozik raqqosa esa yelvizak sabab olovga tushib kul bo‘lishadi. Vaholanki, endigina o‘z muhabbatiga yetishgan qahramonlarning jisminigina olov kuydira oladi xolos. Jazirama otashning tafti ularning jismini-zohirini kuydirgan bo‘lishi mumkin, lekin ikkalasining ham botiniga: birining mittigina qalayi yurakchasiga, ikkinchisining esa go‘zallik belgisi-gulto‘g‘nag‘ichiga zarar yetkaza

olmaydi. Askarcha esa bu olamdagi eng oxirgi safari davomida ham, ya'ni olov ichida ham sobitligini yo‘qotmay o‘zining ma'nan yetukligini isbotlab berdi.

Andersenning yana bir ertagi "Qor malikasi"da sof qalbli, hali dunyoning past-u balandini anglab yetmagan bolalarning ajoyib sarguzashtlari yoritiladi. Ushbu ertakda bir bola taqdiriga bog‘liq holda butun dunyo taqdirini qutqarishdek vazifa kichginagina qizaloqning chekiga tushgan edi. Qizcha bir nechta sinovlarni yengib o‘tib zarur bo‘lgan joyga mehr taftini olib borishi kerak edi. Gerdaning ushbu sof tuyg‘usi sarguzashtlari davomida yanada o‘sadi. Andersen o‘z qahramonlarini sinash uchun bu ertagida ham ularning boshiga yana bir kulfat yog‘dirib, bolakaylarni safarga chiqarib yuboradi. Ushbu uzoq sayohat davomida muallif xronotop masalasiga ham alohida e'tibor qaratganini ko‘rish mumkin. Gerda Kayni izlab yo‘lga otlanganida ilk bahor edi. Shu sabab uning dastlabki sarguzashti ham dabdurustdan qiyin darajali sinovlardan boshlanmadi. Aksincha, Gerda borgan birinchi joy hiylagar kampirning gullar hidi mast qiladigan gulzori edi, qizaloq esa bu yerda bahor hamda yoz fasllarini o‘tkazdi. Keyinchalik esa qiz oldidagi sinovlar ham qiyinlasha bordi. Kuz faslida Gerda manzil so‘rashga ham biror kimsa topolmay qarg‘a vositasida olijanob shahzoda va malikaning mehmoni bo‘ldi. Yaqin do‘stini izlab chiqqan qizga taqdir shunday saxiylik qildiki, hattoki, qaroqchi qiz ham o‘z odatiga nomuvofiq ravishda Gerdaga yordam berdi. Eng og‘ir va yakunlovchi sarguzashtlar qish faslida bo‘lib o‘tdi. Bu paytda ham qizaloq yolg‘iz qolib ketmadi. Qishning qattol sovuqlarida Lapland kampir, fin xotindan tortib shimol bug‘usi ham Gerdaga ko‘maklashishdi. Shuncha sinovlarni yengib o‘tib ham qo‘rqinchli, ham qiziqarli sarguzashtlarni boshdan kechirib qizaloq o‘z do‘stini topdi. Gerdaning mehr tafti nafaqat Kayning qalbiga, balki butun muzli o‘lkaga bahorni olib kela oldi.

Yana shunisi ahamiyatliki, Andersenning ertak qahramoni faqatgina dunyoning qaysidir bir aniq qismida emas, balki daryolarda ham, janub va shimolda ham sinovdan o‘tkazildi. Unga yordam berganlar esa hayvonlar-u qushlar(qarg‘alar), turfa xil gullardan tortib insonlargacha edi.

Andersen ertaklarining juda katta qismini o‘z sayohatlari davomida chiqargan xulosalaridan, ko‘rgan manzaralaridan kelib chiqib yozgan. “Sayohat qilish – yashash demakdir” , - deb yozgan bolalar yozuvchisi Andersen chet elga 29 ta sayohat uyushtirib, Daniyadan tashqarida 9 yildan ortiq yashab jildlab kitoblar yozganligi ham fikrimizning isbotidir.

Yana bir mashhur ertak “Dyumchaxon”da esa bu safar ham yana kichkinagina qizaloqning o‘z baxtini topguniga qadar bir necha yo‘llarni bosib o‘tishiga to‘g‘ri kelishi voqealari tasvirlanadi. Hali hech qanday qiyinchilikni ko‘rmagan, tug‘ilishi bilanoq durlar-u gullar orasida yashab kelayotgan, o‘zi esa atigi bir dyum bo‘lgan qizchaning taqdiri esa kutilmaganda o‘zgarib ketadi. Andersen Dyumchaxonni goh ochofat va noshud ona-bola qurbaqalarning tajovuzi, goh farosatsiz tillaqo‘ng‘iz va jamoasining ma’nisiz bo‘htonlari, gohida esa hamma narsani pul bilan o‘lchaydigan sichqon-u ko‘rsichqonning makr hamda ahmoqona qilmishlari girdobiga tashlab, uni sinovdan o‘tkazadi. “Qor malika”sidagi Gerdadan farqli o‘laroq Dyumchaxonga yordam kechroq yetib kelganini payqash mumkin. Chunki Gerda yo‘lda uchratgan deyarli har bir personaj unga yordam bergan edi. Lekin Dyumchaxonga yordam nisbatan kechroq - yaxshiliklari evaziga do‘sti Qaldirg‘och tomonidan berilganini ko‘ramiz. Aslida, ertaklar orasidagi bu turfa xillik ham taqdirning xilma-xilligidan dalolatdir.

Ertak oxirida esa har xil kunlarni boshidan kechirgan Dyumchaxon Farishtalar shahzodasi taklifini faqat qalbi bilan emas, balki aqli bilan ham astoydil o‘ylab keyin qabul qildi. Maqsad ham shu edi aslida. Chunki qizaloq safar davomida dunyoqarashining ancha o‘sganini mana shu yerda isbotlab beradi.

Umuman olganda, safar, sayohatning barcha uchun nafi katta ekanligini nafaqat Yevropa adabiyoti vakillari, qolaversa, Sharq mutafakkirlari, shoir-u yozuvchilari ham ko‘p ta’kidlashgan. Xususan, Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida safar va uning foydalariga bag‘ishlab bir bob ajratgan edi. Ushbu bob orasida esa quyidagi fikrlarni ham uchratamiz: *“Safar ayriliqqa uchraganlarni maqsadiga yetkazuvchi va mahrumlarni murod uyiga olib kiruvchidir. Safar xom*

odamlarni pishiruvchi va taomlarni singdiruvchidir”. (6-sinf Adabiyot darsligi, II qism, S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov, Sh. Mirayev, 2017, 41-bet).

Andersen ham bolajonlarning ongini har taraflama o‘stirish, ularni yoshligidanoq dunyo sirlaridan xabardor bo‘lishga undash maqsadida o‘z ertaklarida safar motividan foydalanishni afzal biladi. Shu bois g‘o‘r, hali yaxshi-yu yomonni ajrata olmaydigan, kichkinagina Dyumchaxon, Gerda, Qalayi askarcha singari qahramonlarini mashaqqatli safarlarda, turli sinovlarda toblab ertaklariga olib kiradi. Umuman olganda, bolalik chog‘laridanoq bolakaylarga sarguzashtlarga boy kitoblar o‘qib berish, keyin esa ular bilan birgalikda ushbu ertaklarni muhokama qilish farzandlarimizning adabiyotga, shu bilan birga hayotga bo‘lgan muhabbatining ortishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Izzat Sulton. (2005). Adabiyot nazariyasi. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa uyi.

2 S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov, Sh. Mirayev, (2017). 6-sinf “Adabiyot” darsligi, II qism. Toshkent: Ma’naviyat.

3. Qutliyeva.M. Jahon xalqlari ertaklari. (2016). Toshkent: Yangi asr avlodi.

4.https://www.britannica.com/biography/Hans-Christian-Andersen-Danish-author

5.https://www.goodreads.com/author/quotes/6378.Hans_Christian_Andersen

FRANS KAFKA: YOLG‘IZLIK, QO‘RQUV, ADABIYOT

Malika Yusupova Baxtiyor qizi,
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti
myusupova01@gmail.com

Annotatsiya. *XX asr adabiyotida o‘ziga xos uslub va yo‘nalishga ega ijodkor Frans Kafkadir. Frans Kafka shaxsiyati ham, asarlari ham mavhumlig-u chigalliklarga, sir-u murakkabliklarga boydir. Hikoyalaridan tortib romanlariga qadar Kafkaga xos ruh, Kafkaga xos hissiyot, Kafkaga xos uslub sezilib turadi. Kafkaning kechinmalari, jamiyatning inson qalbiga solgan qo‘rquvlari,*

yolg‘izliklari, begonaliklari o‘z ifodasini topgan asari “Jarayon” romanidir. Mazkur maqolada Frans Kafkaning ‘‘Jarayon’’ romani va undagi obrazlar, ramzlar va muallif uslubi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Uslub, ramz, qahramon, jarayon, absurd, mantiqiylik.*

Abstract. *Franz Kafka is a creator with a unique style and direction in the literature of the 20th century. Franz Kafka's personality and works are full of abstractions and complications, secrets and complications. From his stories to his novels, Kafka's spirit, Kafka's emotion, and Kafka's style can be felt. Kafka's novel "The Process" is a work in which the experiences, fears, loneliness, and alienation of the society instilled in the human heart are expressed. This article discusses Franz Kafka's novel "The Process" and its images, symbols, and author's style.*

Keywords: *Style, symbol, character, process, absurdity, rationality.*

Frans Kafka jahon adabiyotining eng ko‘p tortishilgan va bahslarga sabab bo‘lgan yozuvchisidir. Uning ham shaxsiyati, ham asarlari yuzasidan juda ko‘p o‘rganishlar, tadqiqotlar olib borilgan. Kafka garchi ilk modernizm davrida yashagan bo‘lsa-da, uning asarlarida keyinchalik shakllangan post-modernizm belgilarini ham ko‘rish mumkin.

Frans Kafka jahon adabiyotida yaratgan adabiy uslubi muallif nomi bilan konsepsiyaga aylanib, adabiyot dunyosida o‘z o‘rnini egallagan yagona yozuvchidir. Bu uslub adabiyotda “Kafkacha”(“Kafkaesque”) atamasi bilan nomlanib, bu tushuncha nafaqat adabiy uslubni, balki psixologik, ijtimoiy va siyosiy sohalarni o‘ziga qamrab oladi. Bu atama ilk marta 1973-yilda “Katta nemis lug‘ati” da qo‘llanilgan. Lug‘atda bu atama “*sirli, g‘ayrioddiy, tahdid qiluvchi, qo‘rqinchli*” ma’nolarida qo‘llangan. (Oraliş, Meral 13-bet) Keng ma’noda olganda esa “kafkacha” atamasi Kafka bilan bog‘liq barcha tushunchalar: umidsizlik, chorasizlik, yolg‘izlik, qo‘rquv, shubha, aybdorlik kabi tuyg‘ularni o‘z ichiga oladi.

Ingliz shoiri va akademigi Jeremi Adler “Kafkaesque” tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “qo‘rqinchli tushlar, hamma narsani qamragan

byurokratiya, bosh aylantiruvchi totalitarizm, cheksiz ierarxiyalar va chuqur ekzistensial og‘riq”.

“Kafkacha” uslub atamasi boshqa yozuvchilar uslubiga o‘xshamagan, butunlay o‘ziga xos uslubni ifodalash uchun ishlatiladi.

“Kafkacha” uslub Kafkaning hayotiy tajribalarga tayangan holda yozilgan asarlari natijasi o‘laroq vujudga kelgan uslubdir. Xayol kuchining cheksizligi, tush ichidagi voqelik, voqelik ichidagi tush, qanday yozish, qanday yozmaslik, hayotdan ma’no izlashga urinish, dunyoni anglashga intilish kabilar bu uslubga o‘ziga xoslik beradi.

Kafka uslubining shakllanishiga eng katta turtkini uning o‘zi yashagan jamiyatga begonaligi berdi. Bu begonalashuvga xristiyanlar orasida yahudiy bo‘lib yashashi, chex tilida so‘zlashuvchilar orasida Praga nemischasida gaplashishi, sug‘urta xizmati bilan shug‘ullangan badavlat tijoratchining o‘g‘li bo‘lishi, otasi tarafidan ham jismoniy, ham ruhiy ezilishi, Habsburglar sulolasi boshqaruvi ostida Pragadagi byurokratik zulm, davlat-xalq munosabati kabi diniy, ijtimoiy, siyosiy sabablarni keltirish mumkin.

U yolg‘izlik va jamiyat o‘rtasiga chegara chizib, jamiyatni o‘z yolg‘izligidan kelib chiqib tasvirlashga harakat qilgan. U butun tashqi olamga, undagi insonlar va mavjudotlarga nisbatan begonalikni his qiladi. Bu holatni Kafka quyidagi so‘zlar bilan ifodalaydi: “*Men o‘zimni shunchalik kuchsiz va baxtsiz his qilyapmanki, yuzimni o‘rmon tuprog‘iga ko‘mdim, yer yuzidagi narsalarni atrofimda ko‘rishga toqat qila olmayapman chunki…”* (Wagenbach K (1997) 60-bet)

Adabiyot Kafkaning tanazzulga yuz tutgan dunyoga javobidir. Kafkaning faqat adabiyot uchun yashagani ma’lum. *Adabiyot u uchun hayoti mazmuni, yashashi uchun sabab, uni hayotga bog‘lagan eng muhim, hattoki, yagona bog‘ va umid yulduzi bo‘lgan.* (Löwy, Michael, (2017) 13-bet) *“Chigalliklardan qochishni, atrofimdagi va ichimdagi ovozlarni o‘chirishni istardim, shu sabab yozishni boshladim”* degan edi Kafka. (Kafka, F. (2017) 23-bet)

Yozish - Frans Kafkaga o‘zini ifoda etishi uchun bir imkoniyat edi. *“Baxtni, quvonchni, qobiliyatni va har qanday imkoniyatni men adabiyotdan topdim”* degan edi Kafka o‘z kundaligida. (Kafka, F. (2017) 34-bet)

Uzun va mulohazali jumlalar, bedor tunlar, oqargan sochlar va egilgan yelkalar natijasi o‘laroq, o‘z bilganlarini, his-tuyg‘ularini, hayotdan olgan xulosalarini so‘zlar orqali qog‘ozga to‘kkan Kafka kitobxonlarini o‘zining kichik va qorong‘u dunyosiga tortadi. Qog‘oz va qalamdan boshqa tasallisi bo‘lmagan Kafka eng avval umidlaridan, keyin orzularidan, oxirida esa ismidan ham voz kechadi. *“Mening hech narsam yo‘q, ismim ham yo‘q, hattoki…Uni ham senga berdim”* degandi Kafka maktublarining birida. (Esra, Eser (2017) 3-bet) Hayotining so‘ngiga qadar K. sifatida qoldi.

Kafkaning kechinmalari, jamiyatning inson qalbiga solgan qo‘rquvlari, yolg‘izliklari, begonaliklari o‘z ifodasini topgan asari “Jarayon” romanidir. “Jarayon” romani “qo‘rquv asri” deya atalgan XX asrda insoniyatning qismatiga aylangan, qochib qutilish imkonsiz bo‘lgan hibs hayoti haqida hikoya qiladi. “Jarayon” romani bir kun ertalab to‘satdan hibsga olingan, ammo shunga qaramay, odatiy hayotida davom etishiga ruxsat berilgan bir insonning hikoyasidir. Maks Brodning fikriga ko‘ra, “Jarayon” romani Kafkaning sevgilisi Feliche bilan yashagan bir kunini anglatadi. Feliche Kafkani oila a’zolari oldida turmush qurish ma’suliyatidan qochishda ayblaydi. Bu ayblov Kafkaga qattiq ta’sir qiladi va o‘sha kun tunda o‘tirib, modern aadabiyotdagi eng mashhur boshlang‘ich jumlalardan birini yozadi: *“Aftidan kimdir Yozef K. ga tuhmat qilgan chog‘i, birovga yomonlik qilmagani, biron bir nojo‘ya ish sodir etmaganiga qaramay, uni hibsga olishdi”.* (Kafka, Frans. (2016) 20-bet) Kafka bu romanni yozib, o‘ziga tasalli qidiradi, ammo bu asar ham unga tasalli bera olmaydi.

Kafka 1914-yil 29-iyul kuni Yozef K. ismini ilk marta shu parchada keltiradi. Bu parcha qisqa vaqtda “Jarayon” romaniga aylanadi. 1914-yil avgust boshlarida romanning ilk va oxirgi bo‘limlarini yozadi. Oktabr boshida yozishi sekinlashadi va yanvarda Kafka “Jarayon” romanini yozishni to‘xtatadi. Romanni ilk va oxirgi bo‘limlarini yozgan Kafka oradagi bo‘limlarni keyinchalik parchalar shaklida

tugatishga harakat qiladi. Roman bo‘limlarining joylashuvi bugungi kunda bahsli masaladir.

Kafka huquq fakultetidagi ustozi Hans Grossning o‘g‘li yosh psixoanalist Otto Gross bilan poyezdda tanishadi. Otto Grossning boshiga kelgan voqealar “Jarayon” romani voqeligi uchun turtki bo‘ladi. Anarxist doiralar bilan munosabatda bo‘lgan Otto Gross otasining buyrug‘i bilan o‘z uyida tutuqlanadi. Bu voqea 1913-yil 20-dekabrda “Aksiyon” jurnalida shu mazmunda chop etiladi:

” 9-noyabr, yakshanba kuni peshin vaqtida taniqli olim Doktor Otto Gross Vilmersdofdagi uyida o‘zini politsiya xodimlari deb tanishtirgan uch nafar odam tomonidan oqshomga qadar majburan tutuqlandi”. Bu xabar bizga “Jarayon” romanining boshlanishini eslatadi. (Leyla Coşan. (2016) 22-bet)

Kafkaning butun qahramonlari haqiqiy hayotning xayoliy insonlaridir. Ularning bu hayotda o‘z ishlari, yumushlari, yashash tarzlari bor, hamma narsa jamiyatga, tuzumga mos, jamiyatga moslashmagan, unga begona bo‘lgani esa qahramonlarning ruhlari, xolos. Ehtimol, Kafkaning qahramonlari adabiyot tarixining eng murakkab qahramonlaridir. Shunday murakkab qahramonlardan biri Yozef K. dir. Xo‘sh, Yozef K. kim?

Yozef K. jarayonning umidsiz chirog‘i, nomsiz shaharning yagona aholisi, davlatning rahm-shafqatiga mahkum etilgan mahbus. Yozef K. roman davomida nima sababdan ayblanganini bilmagan, huquq tizimi tanlagan qurbonlardan biridir. Burjua huquq tizimi bir tomondan sud mahkamasining doimiy ishlab turishi, ikkinchi tomondan qamoqxonalarni to‘ldirish uchun o‘ziga yangi-yangi qurbonlar, yang-yangi “jinoyatchilar” qidiradi. Sud hokimiyatining bu ayanchli ahvoli roman-da Yozef K. tilidan aytilgan *“... Qafasning biri qush qidirishga chiqdi!”* so‘zlari orqali ochib berilgan.

Yozef K. Kafkaning aybsiz insonlarni jazolash, qiynash, yo‘q qilishga uringan bir tuzumga qarshi qo‘ygan qahramonidir. Yozef K. o‘zini zulmkor tuzum ostida ezilishdan, yo‘q bo‘lishdan qutqarishga urinadi. U begona va yolg‘izdir bu hayotda. Buni K. ning tilidan aytilgan quyidagi so‘zlardan anglash mumkin: *“Inson bu dunyoda o‘ttiz yil yashagandan keyin va men kabi doim yolg‘iz*

kurashmoqqa majbur bo‘lgan bo‘lsa, odam chor-nochor har qanaqa tasodiflarga ham odatlanib qolar, har narsadan siqilmaslik, yuragiga yaqin olmaslik payida bo‘lar ekan. Ayniqsa, bugungiga o‘xshaganini”.

“Aftidan kimdir Yozef K.ga tuhmat qilgan chog‘i, birovga yomonlik qilmagani, biron-bir nojo‘ya ish sodir etmaganiga qaramay, uni hibsga olishdi”. (Kafka, Frans. (2016) 20-bet) Shu so‘zlar bilan boshlanadi roman. O‘z xonasida nonushtasini kutar ekan Yozef K. kutilmaganda xonaga kirgan ikki qo‘riqchidan o‘zining hibsga olingani xabarini oladi. Hayotining oddiy kunini yashash umidi bilan uyg‘ongan Yozef K. kunni boshlar ekan, hayoti bir kun avvalgidek davom etadi deb o‘ylaydi, ammo barchasi qorishib ketadi va u endi odatiy hayotini yashay olmasligini, o‘z hayotiga egalik qila olmasligini anglaydi. Ikki qo‘riqchi Yozef K. ning barcha savollarini javobsiz qoldiradi, asl vaziyatni bilishga uringan K. ning umidini puchga chiqarib, o‘zlari ham ayblovning sababini bilmasliklarini va bu narsa ularning xizmat vazifasiga kirmasligini aytadi. Butun asar davomida bu holat davom etib, qahramon o‘zining qatl etilishigacha borgan bu g‘alati sud jarayonining mohiyatini qancha urinmasin, to‘liq anglay olmaydi, nima uchun ayblanayotganini ham bila olmaydi. Diqqat bilan e’tibor qaratadigan bo‘lsak, asarda aslida haqiqiy bir sud jarayoni ham yo‘q. Kafka asarda Yozef K. zotan hayot tarafidan tutuqlangani, faqat buni hech qachon tushunib yetmaganini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi.

Kafkaning o‘zi advokat bo‘lishiga, asarda huquqiy masalani yoritishiga qaramay, asarga bir huquqshunos nuqtai nazaridan yondashmadi. Kafka asarda o‘sha davrdagi Avstriya-Vengriya qonunlari asosida jinoiy javobgarlikka tortilgan Yozef K.ning boshidan kechirganlarini va byurokratiya mansabdorlarining xulq-atvorini ustalik bilan tasvirlay olgan.

Kafka “Jarayon” romanida qahramonning adolat yo‘lidagi urinishlarini anglatarkan, roman endi adabiy asar chegarasidan chiqib, huquqiy tartibga rioya etmasdan, o‘z istagiga ko‘ra harakat etgan tuzum yaratgan qo‘rqinchli dunyoning ko‘zgusi bo‘lib qarshimizga chiqadi.

Romanning ilk bo‘limidan g‘alati bir holatga guvoh bo‘lamiz. Kutilmagan vaziyatda hibsga olinganini bilgan Yozef K. ning ilk harakati jamiyatdagi huquqiy qoidalar mantig‘iga ko‘ra bo‘ladi, ya’ni u kimligini isbotlash uchun hujjatlarini qidirishga tushadi. Normal huquqiy davlatlarda qilinishi lozim bo‘lgan ilk ish ham shu aslida, ya’ni hibsga olingan kishining ilk shaxsi aniqlanishi kerak. K. ham shunga ko‘ra harakat qiladi, hujjatlarini qidiradi, dastlab shaxsiy guvohnomasini topadi, ammo bu *“bir parcha qog‘oz unga ishonchsiz, kimligini isbotlash uchun yetarsizday tuyiladi, ancha urinib, tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasini topish payida bo‘ladi”*. (Kafka, Frans. (2016) 25-bet) O‘ttizinchi tug‘ilgan kuni tongida kimligini isbotlashga urinadi asar qahramoni. Ammo huquqiy davlatning vakillari o‘laroq qarshimizga chiqqan qo‘riqchilar uning kimligiga ham, hujjatlariga ham parvo qilmaydi, o‘zlariga yuklatilgan vazifani so‘zsiz bajarishga harakat qilishadi.

“Jarayon” romanini qonunning inqirozga yuz tutganini ko‘rsatuvchi asar deya ta’riflagan Shiffermyuller romandagi qonun ustuvorligiga ishora qiluvchi qismga e’tiborni qaratadi*: “Kafkaning romanidagi bu parchani qonun ustuvorligining inqirozi sifatida o‘qish mumkin. Bu inqiroz huquqiy davlatning ortiga yashiringan holda namoyon bo‘ladi.* (Leyla Coşan. (2016) 24-bet)Bu vaziyatni asarda Yozef K. tilidan aytilgan quyidagi so‘zlardan bilish mumkin: *“Axir u huquqlar kafolatlangan, osoyishtalik hukmron davlatda yashayapti-ku, bunda qonunlar buzilmasligi darkor, shunday ekan, dabdurustdan yotog‘iga bostirib kirishga kimning haqqi bor?”* (Kafka, Frans. (2016) 24-bet)

Asarda davlatning asl qiyofasi yashiriladi. Davlat bilan muammosi bo‘lgan shaxs na muammonining ildizini ko‘ra oladi, na yechimga erisha oladi. Davlat insoniylikni yo‘qotgan, faqat o‘ziga buyurilgan vazifalarnigina bajaruvchi bir qancha xizmatchilar qiyofasida namoyon bo‘ladi. “Jarayon” da Yozef K. ham muammoni hal qilish uchun davlat xizmatchilariga yaqinlashadi, ulardan yordam kutadi, ularga yaqinlashgani sari maqsadidan uzoqlashadi. Normal jamiyatda asosiy vazifasi sudlanuvchining huquqini himoya qilish bo‘lgan advokatlar K.ni asl maqsadidan chalg‘itadi, burchi adolatni ta’minlash hisoblangan sud mahkamalari sudyalarning kayfiyatiga qarab ishlaydi, o‘ziga yangi qurbonlar izlaydi.

Aslini olganda, sudyalar va advokatlarning ham K. dan hech bir farqi va ustunligi yo‘q. Ular ham K. kabi davlatning oddiy xizmatchilari, ularning asosiy ishi davlatga xizmat qilishdir. Buni Ruhoniy tilidan aytilgan quyidagi so‘zlardan bilib olish mumkin*: “Aytishlaricha, eshik og‘asi Qonun qasrining ichkarisi haqida hech vaqoni bilmaydi, unga faqat eshik oldidagi yo‘lak ma’lum, shuning uchun ham shu yerda u yoqdan-bu yoqqa borib kelib turadi, xolos. U Qonun qasrining ichkarisini og‘zidan ona suti ketmagan go‘dakday tasavvur qiladi va ichkaridan arzgo‘yga qaraganda ham ko‘proq qo‘rqadi, deb taxmin qilishadi. Hammasidan ko‘ra, uning vahimasi arzgo‘ynikiga qaraganda bir necha barobar kuchli ham, arzgo‘y Qonun qasrining ichidagi mirg‘azab soqchilar kunini ko‘rsatishi qulog‘iga quyilganiga qaramay, zor urib ichkariga kirish payida bo‘ladi, eshik og‘asi esa hatto buni istamaydi”.* (Kafka, Frans. (2016) 328-bet)

Mahkama xizmatchilarning hech biri bu ustun kuchning kim ekanligini,nimalar qila olishi mumkinligini bilmaydi, ular faqatgina xuddi mexanizmning vinti kabi davlatga qaram holda o‘z vazifasini bajaradi, xolos. Davlat uchun xizmatchilarning hech qanday qadr-qimmati yo‘q, davlat uchun muhimi bu ularning o‘z xizmat vazifasini to‘la-to‘kis bajarishidir. Shaxs o‘zini fido qilgan sari davlat yashaydi, gurkiraydi. Asosiysi, davlatning omon qolishi, yashashidir.

Yozef K. dastlab hibsga olinishi sababiga qiziqsada, keyinchalik bu qiziqish u uchun ahmoqona tuyiladi, butun e’tiborini sababni bilishga emas, jarayonga qaratadi. Ortiq hayotining qolgan bir yili butunlay jarayonga bag‘ishlanadi. Aslini olganda, Yozef K. hibsga olingandan keyingi hayoti tutuqlanmasdan avvalgi hayotidan ko‘p ham farq qilmaydi. K. dan tashqari hech kim bu holatni payqamaydi, jarayon ular uchun ma’nosizdek tuyilmaydi. Bunday befarqlik ularning baxtli hayotlarida davom etishlariga sabab bo‘lsa, jarayonning asl maqsadini anglab yetish Yozef K. ni umidsizlikka va jamiyatga begonalashuvga olib keladi.

Yozef K. butun asar davomida noma’lum jinoyati sabab o‘zini doim aybdor his etishga majbur qilinadi. Tuzum uni o‘ziga o‘zi hukm chiqarish va o‘zini

o‘limga mahkum etishga majburlaydi, shaxs ustidan g‘alaba qilishga urinadi. Ammo tuzum shu darajada jirkanch va pastkash ediki, bunday *“mahkama na aybi isbotlangan, na aybdorligiga ishontirilgan ayblanuvchini qurbon qilibgina, g‘alaba qozonishi mumkin, xolos”.* **(**Kafka, Frans. (2016) 224-bet)

Ma’lumki, Kafka dastlab romanning ilk va oxirgi qismlarini yozib tugatgan. Bunday yangicha yozish uslubida o‘ziga xos ramziylikni ko‘rish mumkin. Asarning boshi va yakuni ma’lum, xuddi biz yashayotgan dunyo kabi, xuddi Yozef K. ga ochilgan da’vo kabi. Kafka romanning ilk va oxirgi qismlarini chegara qilib, bu ikki qism orasida Yozef K. taqdiri uchun bo‘sh joy qoldiradi go‘yo. Yozef K. ning butun harakatlari, o‘zini oqlashga urinishlari, asar voqealari ilk va so‘nggi qism oralig‘idagi o‘sha bo‘shliqda sodir bo‘ladi. Kafka bu orqali “qonuniy” sud jarayonining boshi va yakuni avvaldan ma’lumligi, shu sabab da’vo qurbonining ham taqdiri avvaldan yozib qo‘yilgani, u o‘zini oqlash uchun qancha harakat qilmasin, aybsizligini isbotlashga urinmasin bari befoyda va samarasizligini ko‘rsatishga intiladi.

Yozef K. ba’zan bir qahramon sifatida qarshimizga chiqadi. Inqirozga yuz tutgan tuzumni tuzatishga intiladi, tizim qarshisida mardonavor turadi. Huquq tizimidagi avval boshqalar ko‘rmagan bo‘shliqlarni topib, o‘z foydasi uchun qo‘llashga urinadi. Faqat uning vazifasi huquq qal’asini zabt etib, yakson qilish emas, raqibini yengish va o‘zidan keyin bu qonunning tuzog‘iga tushishi mumkin insonlar uchun o‘zini qurbon qilish bilan cheklanadi.

Jamiyatda hech kimga zarar bermasdan, hech kimni rohatsiz qilmasdan, e’tibor tortmasdan yashashga uringan K. dastlab o‘zining aybsizligiga, oqlanishiga katta ishonch bildiradi, aybsizligini isbotlashga urinadi. Ammo u yashayotgan tuzum tuman ortida qolgan tog‘ga o‘xshardi, tuman tarqalguncha tog‘ning butun haybati namoyon bo‘lganidek, vaqt o‘tgan sari tuzumning asl yuzi ko‘rina boshlaydi. Tuzumning asl kuchini anglagani sari o‘zining naqadar ojizligini his etib boradi. K. ning qalbidagi ulkan ishonch o‘rnini ulkan bo‘shliq egallaydi va o‘zini tuzumga butunlay taslim bo‘ladi va o‘limni sovuqqonlik bilan qarshilaydi. O‘limi oldidan Yozef K. shunday so‘zlar bilan o‘z hislarini ifodalaydiki, kitobxon

uning o‘limiga achinmaydi, o‘lim uning uchun yagona qutulish yo‘li ekanini anglaydi*: “Menga qolgan yagona ish oxirigacha fikrlashdan qolmaslik va aql-u hushni yo‘qotmaslik. Hayotiy ehtiyojlarimni qondirish uchun men hamisha yigirmata qo‘lim bo‘lishini orzu qilardim, ammo hammasi ham olqish olish uchun emas edi. Nahotki men hozir ustimdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish jarayoni bir yil sudralganiga qaramasdan biron-bir saboq chiqarib olmaganimni ko‘rsatsam? Yo‘q, yo‘q, shunday deb gapirib yurishlarini aslo istamayman! Bu yo‘lda menga hardamxayol va hissiz kishilarni hamroh qilib qo‘ygani uchun Yaratgandan minnatdorman”.* (Kafka, Frans. (2016) 338-339-bet)

“Yolg‘onga asoslangan dunyo tartibiga qarshi aybnoma” bo‘lgan “Jarayon” romanida Kafka byurokratiya sabab kelib chiqadigan barcha kamchiliklar, muammolar va chigalliklarni ochib berishga harakat qildi. Kafka bu chigalliklar ichida o‘zini topishga, ozodlikka intilgan insonning ojizona kurashi va oxir-oqibat hayot jarayonidagi mag‘lubiyatini qahramoni Yozef K. misolida ko‘rsatadi.

“Jarayon” romanini insonning erkini, istak va xohishlarini bo‘g‘adigan, oxir-oqibat halokatga yetaklaydigan jamiyatning mantiqsiz qonunlariga qarshi isyon deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kafka, Frans. (2016) Jarayon. Toshkent.“ Yangi asr avlodi”,– 448 b.

2. Kafka, F. (2017) Yalnızlık Bir Uçurumdur: Aforizmalar. Gözde Karalök (çev.), Aylak Adam Yayınları, İstanbul.

3. Esra, Eser. (2017) Kafkaesk nedir?

4. Leyla Coşan. (2016) Hukukun Kırılma Noktaları. Istanbul .

5. Löwy, Michael, (2017). Kafka: Boyun Eğmeyen Hayalperest.

“QIRQ KAL” ERTAGI SEMANTIKASI

Ziyoratova Nigora G‘anijon qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 1-kurs talabasi
Nziyoratova04@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalq ertaklaridan biri bo‘lgan “Qirq kal” ertagi tahlil uchun tanlangan. Xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lmish*

ertaklarning har biri o‘zida turfa ma’no ko‘lamini yashirgan bo‘ladi. Ertaklar turli hayotiy va xayoliy uydirmalar asosiga qurilsa-da, o‘tmishdagi ma’lum haqiqatlardan xabar berishi “Qirq kal” ertagi asosida isbotlab beriladi. Maqolada mazkur ertakdagi obrazlar va ular o‘rtasidagi munosabatlar tahlili, ertakda qo‘llangan obraz va detallar orqali ifodalanmoqchi bo‘lgan ramziy ma’no, xususan, epik makon va zamon tushunchalarining ertakdagi o‘rni, ularning ertak matni va mazmunidagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, ertakdagi murakkab xarakterlar va chigal vaziyatlar adabiyot va folklor na’munalari asosida qiyosan tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: *Kal, cho‘pon, ramziy obraz, ramz, Shum bola, kampir, kallar, folklor*

Abstract. *In this article, one of the Uzbek folk tales, the tale “Forty Bald” is selected for analysis. Each of the fairy tales, which are examples of folklore, hides a different meaning. Although fairy tales are based on various real and imaginary fictions, the fact that they inform about certain truths of the past is proved by the fairy tale “Forty Bald”. The article discusses the analysis of the characters in this fairy tale and the relationship between them, the symbolic meaning that is intended to be expressed through the images and details used in the fairy tale, in particular, the place of the epic space and time concepts in the fairy tale, their importance in the text and content of the fairy tale. In addition, complex characters and complicated situations in the fairy tale were comparatively analyzed based on examples of literature and folklore.*

Keywords*: Bald, shepherd, symbolic image, symbol, Shum bola, old woman, bald people, folklore*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotining eng sermazmun, serko‘lam va go‘zal namunalari bo‘lgan ertaklar mislsiz bebaho ma’naviy merosimiz hisoblanadi. Ushbu janrning tarixiy ildizlari qadim davrlarga borib taqalgani bois tag mohiyatida bag‘oyatda chuqur va teran ma’no yashiringan bo‘ladi. Ularning tubiga yetmoq uchun esa o‘sha davrning, xalqning o‘ziga xos odatlari, hayot tarzi, dini va miflaridan yetarlicha xabardor bo‘lmoq talab etiladi. Shu kabi o‘zida turfa ma’no

qirralarini namoyon qiluvchi ertaklarimizdan biri ”Qirq kal”dir. Ertakning qisqacha mazmuni shundan iboratki, o‘ttiz to‘qqiz kal bo‘ladi, bir kal esa ularning qatoriga qo‘shilmoqchi bo‘ladi, 39 kal unga sigirini so‘yib, o‘zlariga bo‘lib berishi va keyin o‘zlari ham sigirlarini so‘yib ziyofat qilishlarini aytadilar. Kal ularning aytganini qilgandan so‘ng gaplaridan tonishadi. Kal esa sigirining tulumini olib yo‘lga chiqadi, ketayotib shudgor qilayotgan, lekin qo‘sh bilan omochni bog‘laydigan tulupi uzilgan dehqonlarga allaqancha don-dun, g‘alla, pul evaziga tulupni almashib qaytadi va boshqa kallar ham bundan ko‘rib, sigirlarini so‘yib tulupni ko‘chada baqirib sotmoqchi bo‘lishadi, bundan hamma kuladi. Ular kaldan alamlarini olish uchun uning kapasiga o‘t qo‘yishadi. Kal nima qilarini bilmay, kapasining kulini qopga solib yo‘lga tushadi va bir malika eshagida uni daryodan o‘tirib qo‘yishini so‘raydi, kal esa bu qopidagi asli tilla ekanligini, uni o‘tirib qo‘ysa kulga aylanib qolishi mumkinligini aytib, hiyla bilan malikani shunday taqdirda bir qop tilla berishga ko‘ndiradi va uddalaydi. Kulning ham pul turishiga ishongan boshqa kallar kapalariga o‘t qo‘yib, ko‘chada kul sotib yana uyalib qolishadi. Bu orada kalning onasi o‘lib qoladi, kal uni eshakka o‘tqizib yo‘lda bug‘doy yanchayotgan xirmonchilarga duch keladi va ataylab eshagini xirmon tomonga haydab yuboradi, xirmonchilardan biri eshakni nariga quvaman deb, bir urganida ustidagi kampirning o‘ligi yumalab ketadi. Kal onamni o‘ldirib qo‘yding, deb dod-voy qilganida, xirmonchilar onasini dafn qilib, o‘ziga bug‘doy u-bu nasalar berib tinchitadilar. Qaytgach esa bularni so‘raganlarga onasining o‘ligi evazigaligini aytadi. Ertasi kun boshqa kallar ham onasini o‘ldirib, ko‘chada sotishga olib chiqib, bu safar ham mulzam bo‘lishadi. Endi bu kalni o‘ldirmoqchi bo‘lib quvishadi, qochib borayotgan kal bir cho‘ponga duch kelib, ular o‘zini malikaga zo‘rlab uylantirmoqchi ekanliklarini aytib, cho‘pon bilan kiyimlarni almashadi. Cho‘ponni kal deb o‘ylab daryoga uloqtirib qaytganlarida yana o‘sha kalning bir gala qo‘ylarni haydab kelayotganini ko‘rishadi. Qo‘ylarning ko‘l ichida ekanligini bilgan kallar ularning suvdagi aksini ko‘rib o‘zlarini ko‘lga tashlab halok bo‘ladilar.

Ko‘rinib turganidek, ushbu ertakdagi har bir motiv, obraz va detal shunchaki bo‘lmay, ma’lum bir maqsad uchun xizmat qilmoqda. Sujet chizig‘ida tugun sigirni so‘yishdan boshlanadi va voqealar rivojiga kiriladi. Bunda asosiy konflikt kal va 39 kal orasida bo‘lib, butun ertak ularning ziddiyat va bahslari asosiga quriladi. Qolganlar: qo‘shchi, xirmonchi, malika va cho‘pon kabilar shu ziddiyatlar asosida kirib kelgan qo‘shimcha obrazlardir.

Cho‘pon obraziga xalq ertaklari, dostonlari va shu kabi qator janrlarda ko‘p murojaat qilinadi. U, asosan, malikaga oshiq bo‘lgan yigit, pahlavon yoki biror kimsaga yo‘l ko‘rsatuvchi, maslahat, yordam beradigan ko‘makchi qahramon kabi funksiyalarda bo‘y ko‘rsatadi. Xususan, “Alpomish“ dostonida qahramon safari chog‘ida Barchin va Qorajon bilan bog‘liq tushni cho‘ponlarning qo‘shxonasida ko‘rishi va Alpomishning yelkasida cho‘pon Qultoyning panja izi borligi,shuningdek, yurtiga aynan uning qiyofasida qaytishida Qultoyni cho‘pon qiyofasidagi ajdodlar kulti vakililigiga amin bo‘lamiz (Eshonqulov, J.Mif va badiiy tafakkur,2019, 53-bet). Ba’zi ertaklarda esa mazkur obraz yolg‘onchi, badnafs xulq egasi bo‘lib keladi. Misol uchun “Yolg‘onchi cho‘pon” ertagidagi kabi. Ushbu ertakda ham salbiy sifatlar bilan maydonga chiqadi. Qochib borayotgan kal cho‘pon bilan kelishib, kiyimlarni almashib, cho‘ponga xuddi o‘ziga o‘xshab qochishda davom etishini uqtiradi. Kallar cho‘ponni tutib daryoga tashlashadi. Shu o‘rinda savol: nahot cho‘ponni ushlab olishgach, uning kal emasligini bilishmagan, tanishmagan bo‘lsalar? Buni folklordagi shartlilik xususiyati bilan izohlash mumkin. Chunki ertak voqealari hadeb hayot haqiqatiga moslanaversa oddiy realistik hikoyadan farqi qolmaydi. Shu bois ertakdagi shartlilik tinglovchini voqea oqimidan og‘ishmay borishiga zamin yaratadi. Ayni o‘rinda kiyim bilan bog‘liq motiv muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, xalqimizda azal-azaldan kiyim magiyasiga aloqador e’tiqodiy qarashlar mavjud. Jumladan, chaqaloqning chilla davrida kiyim kiydirish marosimi bilan bog‘liq udumlarda tikilgan ko‘ylak avval it, ot va qoziq kabilarga kiydirilib, keyin chaqaloqqa kiydirilgan. Maqsad esa chilla davrida xavf solishi mumkin bo‘lgan ins-jins, yovuz ruh va balo-qazolarni bolaga emas, o‘sha hayvon yoki predmetlarga yo‘naltirishdir (Jabborov M, va Murodova M. O‘zbek

mifologiyasi. 53-bet). Ertakdagi bu holatni ham shunday izohlash mumkin: kal o‘zi duch kelishi mumkin bo‘lgan fojiani kiyim vositasida cho‘ponga yo‘naltirdi.

Kampir obrazi ham izohga ega. Kalning onasi o‘ligini sotgani haqidagi hiylaga ishongan kallar ham o‘z onalarini o‘ldirib, sotishga olib chiqishadi. Bu motiv tarixiy asosga ega, chunki qadimda insonlar qarib qolgan, quvvatdan ketgan va o‘lim yoqasida turgan ota-onalarini kimsasiz tog‘-u toshlar, cho‘l-u biyobonlarga suv va ovqatsiz tashlab ketishgan (“O‘zbek mifologiyasi”). Kallar tomonidan onalariga qilingan shavqatsizlikni ham ayni qadimdagilar odatining bir ko‘rinishidek qabul qilish mumkin. Demak, bu ertakning tarixiy ildizlari ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Ertakda malika obraziga ikki o‘rinda murojaat etiladi: kallardan qochayotganda cho‘ponni ishontirishda va kal tomonidan malikani daryodan o‘tirib qo‘yishda. Bunda birinchi vaziyatda nafs, ikkinchisida o‘ziga xos ramziy ma’no tashiydi. Shuningdek, bu o‘rinda kul va tilla, ularga parallel bo‘lgan kal va malika poetik juftligini ikki nuqtai nazardan sohillar kesimida tasnif va tahlil qilish mumkin: 1.O‘lchoviga ko‘ra: a) salmoq; b) mavqe; d)ramzan. 2.Ramziy ifodasiga ko‘ra. Birinchi - sohildagi vaziyatning salmoq jihatidan tasnifida, qopdagi kulning, ya’ni haqiqatning sirti kal tomonidan tilla deb yolg‘on bilan o‘raldi. Demak, haqiqat tarozisida kul og‘irroq tosh bosadi. Narigi sohilda esa bu holat o‘zgardi: Ro‘yo haqiqatga aylandi. Kul ahamiyatsiz, endi tilla birinchi planga chiqib oldi. Mavqe jihatidan tahlilda o‘rtadagi daryo tarozi pallalari almashinuvida vosita vazifasini bajargan. Daryo kechilishidan oldin kul tilladan qiymatan qadrsiz bo‘lganidek, kal ham oliy mansabdagi, zodagon malikadan past mavqeda edi. Daryodan o‘tilgach, kul tillaga o‘rin almashishi kabi kal ham aql-zakosi bilan ma’nan yetakchilikka erishdi. Malika esa aksincha, oliy darajadan quyi pog‘onaga tushib qoldi. Bular xuddi teskari proporsiyani eslatadi: biri tepaga chiqdi, biri esa pastga tushdi. Ushbu poetik juftliklarning o‘z ramziy ma’nolari uchinchi tasnifda o‘z aksini topadi. Bu yerda malika-tilla va kul-kal juftliklari alohida-alohida bir qobiq sifatida o‘zaro zidlanadi. Ular asnosida ko‘rinish va mohiyat, ya’ni surat va siyrat ziddiyati vujudga keladi. Ko‘rinish va surat malika-tilla juftligida namoyon

bo‘lsa, mohiyat va siyrat, shubhasiz, kal-kul poetik juftligiga ishoradir. O‘rtadagi daryo esa xuddi filtr vazifasida kelgan. Ikkinchi tur tasnifda kul detali yuqoridagi tasnifdagi ifodasidan farq qiladi. “Xullas, qadimgi insonlar suv o‘zga olamda ko‘chish vositalari deb sanagan hamda daryo va dengizlarni tog‘ va cho‘llarini, o‘rmonlarni ruh makon topadigan manzil sifatida tasavvur etgan” (“O‘zbek mifologiyasi”). Demak, yuqoridagi fikrdan daryoni inson hayot yo‘li, umri, kulni esa umr daryosini kechayotib hamroh bo‘lgan boylik, chiroy va shon-shuhrat kabi dunyo havaslaridir deyish mumkin. Malika esa vaqtinchalik dunyoga berilgan va narigi sohil, ya’ni u dunyoda tilla degani kul bo‘lib chiqqani kabi, haqiqat deya o‘ylagan dunyo asli foniy va ro‘yoligini tushungan inson ramzidir.

Kallar obrazida ham o‘ziga xos ma’no va mazmun tajassumini ko‘rish mumkin. Kal obrazi, odatda, aqlli, topqir shaxs va oddiy xalq vakili, dushman, to‘siqlarni yengib o‘tuvchi qahramon sifatida gavdalanadi. Hozir nega boshqa kallarga nisbatan bunday sifatlash ishlata olmaymiz? Holbuki, ular ham kal. Asosan, kal obraziga uddaburonlik xos bo‘lardi, lekin bu ertakdagi 39 kal nodon, kaltafahm, hasadgo‘y va yolg‘onchi. Bunga izoh berish uchun sehrli raqamlarga murojaat qilish kerak. Ma’lumki, 40 soni bilan bog‘liq juda ko‘plab tushunchalar mavjud: qirq kunlik chilla, ertak va dostonlarda 40 kecha va kunduzlik to‘y, qirq yigitlar, qirqin kanizlar...vh. “Alpomish” dostonida aka-ukalar qirq kecha-kunduz ravzada yotishadi, lekin 39-kechada ularning duosi qabul bo‘lmayotgani xabarini oladilar, lekin qirqinchi kunigina ularning duosi qabul bo‘ladi. Agar duosi qabul bo‘lmaganini eshitiboq, 39-kuni qaytishganida ularning duosi inobatga olinmas, ya’ni bir kunsiz qolgan 39 kun mutlaqo bekor. Demak, qirq soni asli kam ham, ko‘p ham bo‘lmagan bir yaxlitlikdir. 39 kalning ertakda bunday salbiy va nuqsonli fe’l egalari bo‘lganligiga sabab ham ayni shu: ular yaxlit bir mukammal butunlik bo‘lishlari uchun bir kal yetmayotgandi, aniqrog‘i, ularda bo‘shliq bor. Bu bo‘shliq esa o‘sha bir kal tomonidan to‘ldirilmaganligi, kemtiklik borligi sabab qolgan kallar shunday nobop atvor egalari sifatida qolaverdi. Zero, to‘liq bo‘lmagan har qanday butunlik mukammal bo‘la olmaydi.

Endi kalning o‘ziga to‘xtalsak, u folklor janrlarida juda faol obraz sanalib, doston, maqol va topishmoqlarda ma’lum poetik yukiga ega. Misol uchun “Ravshan“ dostonidagi aka-uka kallar jismonan va ma’nan yuksak bo‘lgan holda kal sifatiga egalar. Ertaklarda bosh qahramon vazifasida kelgan kal, devona kabilar ko‘rimsiz va qashshoq holda tasvirlansa-da, murakkab vaziyatlarda o‘z zakovatlarini namoyon qilishadi. Folklorning chuqurroq qatlamlarida kal obraziga nisbatan salbiy ma’no, ya’ni makkor, dog‘uli, mug‘ombirlik sifatlari xoslangan, lekin keyinchalik salbiy ma’nodagi ayyorlik ijobiylik bo‘yog‘iga ega ustaomonlik va zukkolikka o‘rin almashgan (Musayev K.2005,Tarjima nazariyasi asoslari. T:Fan. 214-215-betlar). Demak, bu ertakda kal obrazi mehnatkash oddiy xalq vakili hamda zakovatli, topqir shaxsni anglatsa-da, ma’lum ma’noda salbiy sifatlarini ham saqlagan. Bir qarashda u ustaomonligini doim ham to‘g‘ri yo‘lga sarflayvermagan va boshqalarning soddaligi evaziga pul va davlat orttirgandek. Demak, uning asosiy maqsadi boylik bo‘lib, bu holda kalni ham salbiy obraz deya xulosa chiqarishga to‘g‘ri keladi. Lekin yakuniy fikrga kelishdan oldin badiiy adabiyotimizdagi “Shum bola” qissasi qahramonini kalga ma’lum ma’noda qiyoslab o‘tmoq lozim. Shum bola ham ko‘p yolg‘on gapiradi, boshqalarni aldaydi, lekin gap uning aldashi emas, kimlarni aldashida. U borgan joylardagi insonlar doim xudbin va munofiq kimsalar bo‘lib, qahramon tomonidan, ta’bir joiz bo‘lsa, “tarbiyanadi”. Kal ham shunday: e’tibor qilinsa, u boylikka, qo‘ylarga ega bo‘lyapti, lekin har safar yana ortiga qaytyapti. Uning dardi mol-dunyo bo‘lganida barcha erishganlarini olib u joylardan bosh olib ketsa ham bo‘lardi, ammo har safar ortga, kallarning oldiga qaytyapti. Demak, maqsadi kallarni mot qilish, chunki kal boshida saflariga olish uchun ularga ishongan edi, adovatni u emas, kallarning o‘zi boshladi. Qachondir kallar o‘zi kabi yana kimnidir chuv tushirmasligi uchun hozir shunday qilishiga to‘g‘ri kelgan. Bu yo‘lda u barcha imkoniyatlarini (hatto onasining o‘ligini ham) qo‘llayapti. Demak, kal va shum bola xarakteridagi quvlik va ayyorlik, ma’lum ma’noda, yomonlarni jazolashga yo‘naltirilgan.

E’tiborga molik jihatlardan biri ertakdagi epik makon va zamonlar hisoblanadi. Zamon nuqtayi nazaridan dehqonlarning shudgor qilishi,

xirmonchilarning hosilini yanchishi, bundan tashqari, sigirni so‘yish bilan bog‘liq voqeada qishki gap-gashtak, ya’ni “Sherda” marosimi unsurlari ko‘zga tashlangani bois voqealar kuz oxiri va qishning boshlariga to‘g‘ri keladi. Epik makonlar bu voqea boshlangan joy, shudgor, xirmon, daryo, yaylov, ko‘l va yana dastlabki makonga qaytiladi. Safar tadriji esa gorizontal yo‘nalishda kechgan. Makonlarning ikkitasi suv bilan bog‘liq: ko‘l va daryo. Yuqorida daryo haqida so‘z yuritganda uning olamlar o‘rtasidagi ma’lum bir chegaraligi aytilgan edi, shu fikrning davomi sifatida quyidagi jumlalarni keltirish mumkin: “Olov, suv, tuproq inson ruhini o‘zga olamga ko‘chirish vositalari sanaladi. Shuningdek, daryo, dengizlar, tog‘, cho‘l, o‘rmon ruh makon topadigan manzil sifatida tasavvur qilinadi” (Jo‘rayev M., Murodova M. O‘zbek mifologiyasi). Darhaqiqat, ertakda yuqorida tilga olingan uchala unsur: suv, olov va tuproq ham qatnashgan. Demak, suv havzalari, umuman, suv nafaqat xalq og‘zaki ijodida, balki badiiy adabiyotda ham o‘z maxsus vazifasiga ega. Misol uchun, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida Rayhon arabning Xoljuvonni bir kosa suv bahonasida qo‘lga kiritishi, vaqt o‘tib esa Go‘ro‘g‘li chechasini ko‘l bo‘yida uchratishi, Zaydinoyni ham shu bahona bilan olib qochishida, Otabek va Kumushning ilk bor hovuz bo‘yida uchrashishlari hamda shu kabi qator asarlarda ham oshiq va ma’shuqaning uchrashuvlari suv bo‘yida yuz berishi, ertaklarda (masalan, “Ming bir kecha”) qahramonlarning sehr qilish yoki evrilishlarida suv asosiy vositaligi bejiz emas. Cho‘ponni kallar jarga tashlashi va boshqa usulda o‘ldirishlari mumkin edi, lekin aynan ko‘lga tashladilar. Buni ham yuqoridagi suv bilan bog‘liq qarashlarga taqash mumkin.

Ertakda satirik, yumoristik va kinoyaviy o‘rinlarni ham uchratish mumkin. Qaysidir o‘rinda ma’lum qahramonlarning fe’l-atvori, qilgan ishlari, xatti-harakatlari tinglovchi nafratiga va tanqidiga sabab bo‘ladi. Bu kabi satirik o‘rinlarga, eng avvalo, kallarning kalning sigirini yeb, uni laqqa tushirishi bir tomondan kulgiga sabab bo‘lsa, bir tomondan ularga nafrat uyg‘otadi. Xuddi shu kabi kalning onasi o‘lganini bilsa-da, eshakka o‘tqizib olib chiqishi va yiqilganida aybni xirmonchiga yuklashi kalning ijobiy sifatliligiga shubha uyg‘onadi. Unga ishonib, kallarning o‘z onalarini o‘ldirishlarini qattiq va ayovsiz tanqid ostiga

olishga arziydi. Yuqoridagi misollarda qahramonlardagi illatlari, kamchilik va fe'lidagi qusurlari ochiq oydin, keskin tanqidga olinadi va g'azab uyg'otadi. Ertakda kalning hiylasiga ishongan kallarning sigirlarini so'yishi, yo'lda terisini baqirib sotishi, kapalariga o't qo'yib, kulini yo'llarda pullamoqchi bo'lishlari, suvdagi qo'ylarning aksini ko'rib, o'ylab-netmay ko'lga o'zlarini tashlashlari, kalning gapiga ishongan cho'ponning laqmaligi kabi yumorga yorqin misol bo'luvchi voqealar ham mavjud. Bunda ular yengil kulgi uyg'otadi, ya'ni satiradagi kabi zaharxanda o'rniga, beozor kulgu va ma'lum ma'noda achinish bo'ladi. Shuningdek, kal sigiri terisini sotib qaytgandagi boshqalarga teri serdaromad ekanligini aytishi, kulning ham bozori chaqqonligi, o'likni ham pullash mumkinligi, ko'l ostida qo'ylarning ko'pligini aytishida kinoya qo'llagan. Asli uning gaplari, kallarning savollariga javoblari ostida zohiran piching va istehzo yashiringan. Chunki o'ziga nisbatan qilingan yomonliklarga bu tarzda bosiq va xotirjam javob qaytarish orqali u kallarning ustidan kulish, mazax qilish hamda ularning "aqlini kiritib qo'yish"ni maqsad qilgan.

Xalqimiz boy ma'naviy merosining go'zal namunalari bo'lgan ertaklar asrlar mobaynida sayqal topib, yanada jilokorlik kasb etgan. Ularda millatmizga xos insonparvarlik, adolat, halollik, rostgo'ylik, mardlik va jasurlik kabi fazilatlar ulug'lanib, yolg'onchilik, munofiqlik, hasadgo'ylik, sotqinlikdek manfur illatlar qoralanadi. Barcha ertaklarda ham doim bu kabi ikki qarama qarshi kuch: ezgulik bilan yovuzlik ziddiyatga kirishadi, yakunida esa ezgulik va u tomondagi kishilar g'alaba qilib, o'z murod-maqsadlariga erishadilar. Bu janrga tinglovchiga pand-nasihat berib, uni turli illatlar, qora ishlardan tiyadigan, shu bilan birga, estetik zavq beradigan xayoliy va hayotiy uydirmalar silsilasidan iborat janr sifatida qaraladi. Qachonlardir ertaklar kishilar hayotida muhim o'rin tutgan, ya'ni u ma'lum bir marosim yoki yig'ilishlardagina aytiladigan tarkibiy qism sanalib, keyinchalik kundalik turmush tarzida keng, faol va birmuncha erkin qo'llana boshlagan. Hayotiy-maishiy ertaklar turkumiga kiruvchi "Qirq kal" ertagida esa manfur illatlar ustidan g'alaba qilish uchun ba'zida ulardan-da tubanroq bo'lishga to'g'ri kelishi mumkinligiga kal obrazi orqali guvoh bo'lamiz. Demak, ertaklar

ramzlar va hayot haqiqatlari vositasida tinglovchi ma'naviy olamiga ta'sir qilib, uni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Ayni boisdan ham ular nihoyatda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi badiiy pishiq pandnomadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqulov J. (2019) . Mif va badiiy tafakkur. Toshkent.
2. Jabborov M. va Murodova M.http://library.navoiy-uni.uz/.
3. Madayev O. (2010) O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent.. Mumtoz so'z.
4. Musayev K. (2005). Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. Toshkent:Fan.
5. Sarimsoqov B.(1986). O'zbek marosim folklori. Toshkent. Fan.

«ҚОРҒАНСЫЗДЫҢ КҮНІ» ПОВЕСІНДЕГІ ҚОРҒАНСЫЗДАР ТАҒДЫРЫ

Айдана Қанатбек қызы Меденова

Низами атындағы Ташкент мемлекеттік педагогика университеті

Қазақ тілі және әдебиеті бағытының II курс студенті

medenovaak@gmail.com

Аннотация. Неге «Қорғансыздың күні»? Неге «Ғазизаның тағдыры» немесе «Ғазиза туралы оқиға» емес? Мұхтар Әуезов «қорғансыз» сөзімен тек бір ғана қыздың емес, тұтас бір ұлттың, халықтың жағдайын сипаттағандай. Ғазиза – қазақ халқының бейнесі, ал Ақан – халықты қанаушы жоғары тап өкілдерінің сипаты іспеттес. Өзінің билігін және қамқоршысы жоқ қараусыз қыздың жағдайын пайдаланып, қара басының қамын жеп жасаған әрекеті шынымен бүгінгі күнгі кейбір шенділерді бейнелейтіндей.

Кілт сөздер: Мұхтар Әуезов, Ғазиза, Ақан, Күшікбай қорғансыздар, әлеуметтік-адамгершілік, теңсіздік, қорғансыздың күні.

Abstract. Why "Day of the Defenseless"? Why not "The fate of Gaziza" or "The story of Ghaziza"? Mukhtar Auezov used the word "vulnerable" to describe the condition of not only one girl, but of the entire nation and people. Gaziza is the image of the Kazakh people, and Akan is like the character of the representatives of the upper class who exploit the people. The way he used his power and the situation of an abandoned girl without a guardian to take care of the black head really represents some of today's leaders.

Keywords: Mukhtar Auezov, Gaziza, Akan, Kushikbay defenseless, social and moral, inequality, day of the defenseless.

Әлемдік мәдениетке аса зор үлес қосқан қазақ халқының ұлы тұлғалары кім дегенде, алдымен ауызға алынар есімнің бірі — Мұхтар Әуезов. Алаштың заңғар жазушысы, ХХ ғасырдағы қазақ әдебиетін биік шыңға көтерген ұлы тұлғаның артында қалған ұлан ғайыр мұрасын зерделеп, ой елегінен өткізу үшін де әр ұрпақтың өз айтар сөзі, таным түсінігі болатыны сөзсіз. Ғасырлар бойы көшпелі тіршілікті басынан кешіріп, ХІХ ғасырдың бел ортасында жол айырығына келген қазақ өмірінің барлық әрі мен нәрін, сыны мен сырын, соры мен бағын теңдессіз тарихи тұлға Абай тағдыры арқылы әрі көркем, әрі түпсіз ой көзімен ашып берген суреткер туралы талай-талай ізденістер жалғаса бермек. Алайда М.Әуезов ХХ ғасырдың 20-30 жылдары қазақ арасындағы оқиғаларды арқау етіп жазған әңгіме-повестерімен өзінің авторлық колтаңбасын айқындап алды. Оның осы көлемі шағын шығармалары суреткердің терең интуициясы мен бай қиялы арқасында тамаша өріліп шыққан туындылар еді. Бұл жайында белгілі ғалым Қайым Мұхаметжанов: “Тегінде Мұхтар Әуезов шығармасын ойдан алып, қиялмен жазған емес, оның әрбір шығармасының негізі шын өмірде болған және болатын оқиғаның көркем әдебиетіміздегі шежіресі, оның әрбір кейіпкері, өмірде болған адамдардың ұлы шығармагердің құдіретті қаламымен мүсінделген көркем образдар” деп, ұлы жазушының құдіретті қаламымен қатар, көргені мен көңілге түйгені мол болғанын, әрбір шығармасының астарында өмір шындығы жатқанын айтады.

Мұхтар Әуезов — ұлы жазушы, ғалым, қоғам қайраткері, сөз асылын тере білген көркем сөз шебері. Қазақ халқы шешен, дарынды халық десе, алдымен ана тілінің бары мен нәрін бойына сіңіре білген осы ұлы қаламгерге арнап айтылары анық. Оның әрбір шығармасы адамгершілікті, ізгілікті, достықты, татулықты дәріптеу, еңбекті сүюге баулу және жас ұрпақтың білімге деген құштарлығын ояту мақсатында жазылғанына кәміл сенімдіміз.

Оның шығармаларында реализм мен эпикалық фольклор тамаша үйлесімін тауып, әлемдік әдебиеттегі үздік туындылармен терезесі тең келіп отырды. 1920 жылдары М.Әуезов туындыларының негізгі тақырыбы — қарапайым халықтың азабы, езгіге түскені ғана емес, халықтың рухани оянуы, азаттыққа ұмтылуы. Жазушы рулық алауыздықты айыптайды, оны халықтың бірлігі мен ынтымағына қарсы қояды. Көптеген шығармаларында он тоғызыншы ғасырдың ортасынан, жиырманшы ғасырдың ортасына дейінгі қазақ халқы өмірінің панорамасы көрсетілген.

Әуезов шығармашылығының заңғар шыңы — “Абай жолы” роман-эпопеясы болды. Бұл туралы белгілі неміс жазушысы және аудармашысы Альфред Курелла қазақтың тұңғыш эпопеясымен танысу кезіндегі сезімдерін білдіріп, былай деген болатын: *“Сіз әлі Абайды оқымадыңыз ба?! Онда сіз мүлдем ештеңе оқымағаныңыз. Бұл — таңғажайып, бұл — керемет! Далаға жан біткіп, дүние алғаш жаралғандағы мөлдір табиғатымен, бар тіршілік-тынысымен, тәуелсіз тұлғалы жандармен сіздің көкірегіңізге кеп орнайды. Олардың бойындағы қызулық пен құмарлық қандай, дәл Шекспир суреттеген бейнелердің өзі”.* “Абай жолы” роман-эпопеясының маңыздылығы оның қазақтың ұлттық болмысын сипаттаудың, алаш елінің еркіндікке, азаттыққа құштарлығын айқындаудың кілті болған шынайы халық шығармасына айналуында.

Бодандықтың зілмауыр қайғы-қасіреті мен әділетсіз қараңғы қоғамның қорлық-зорлығы салдарынан жүдеп-жадаған, кетеуі кеткен дала тірлігінің бейшара халі Мұхтар Әуезовті "Абай жолын" жазғанға дейін де қилы қиянға сүйреп, оның жүрегін қынжылтады, санасын сары уайымға салады. Бірақ ол сары уайымға тізгін беріп, ел-жұртының, туған даласының ертеңінен күдер үзген жоқ. Керісінше тас қараңғы түннен кейін де жарқырап күн ашылатынына кәміл сенді.

Мұхтар Әуезовтің 1921 жылы жазылған “Қорғансыздың күні” әңгімесі қазақ ауылындағы қарапайым халық өмірінің бір көрінісін терең тамырынан қопарып әкеліп, бейшара қорғансыз жандардың тұрмыс-тіршілігіндегі жан

түршігерлік азап пен ауыртпашылық аса шыншылдықпен әсерлі бейнелейді. Бұнда автор қарапайым халықты, әсіресе, қорғансыз жандарды отаршылдар бір қорласа, ел жуандары ебін тауып, екі қорлайтынын, олардың көз жасын сүртіп, зарын тыңдайтын заң, үкімет, әділет дегенің жоқ екендігін паш етеді. Осылайша жас қыз Ғазизаның өлімі арқылы сол тұстағы атқамінерлердің халық қамын ойлауы былай тұрсын, есесіне хайуандай жыртқыш, жаудай қатыгез, топастықтарын анық-айқын суреттейді.

Әңгіме аса әсерлі табиғат көрінісін суреттеумен басталады: *“С. қаласының оңтүстігін жайлаған елдің қалаға қатынасатын қара жолының үстінде Арқалық деген тау бар. Даланың көңілсіз ұзақ жолында қажып келе жатқан керуенге Арқалық алыстан көрініп, дәмелендіріп тұрады. Жолдың аузында көлденең созылып жатқан тұрқы он шақырымдай болғанмен, енсіз кереге сықылды, жалғыз тау. Не бауыры, не сыртында ықтыртын жоқ ысқаяқ. Арқалық жадағай, жалғыз қабат болған соң, қыс күнінде жел терісінен соқса да, оңынан соқса да паналығы жоқ азынап тұрады. Қыстың басынан екі жағын қар алып, жұмыртқадай қылып тегістеп тастайды”.*

Жазушы даланы соншама қатігез етіп суреттеуі тегін емес. Қазақтың жүдеу күйін, оған жаны ашымастық, қыстан жаман қысып жіберген хал-ахуалын бейнелеуге бұл сурет оқырманды даярлайтындай. Құлазыған құла тұз, жалаңаш дала, қаһарлы қыс, бұрқаған боран... Бұл өңірдегі табиғаттың осы көрінісінің өзі-ақ әлдебір жұпыны, жоқ-жітік халдің хабаршысындай адамға ауыр ой салады. Сонда бұл сурет тек қана табиғат көрінісі емес, сол кездегі заман сипаты, адам тағдыр-тірлігінің түрі тәрізденеді. Автор шығармадағы қорғансыз кейіпкерлердің ішкі жан дүниесіндегі ерекшеліктерді де суреттеп өтеді, ал езуші залымдардың сыртқы портретін ғана суреттейді. Мысалы, *“Иесіз қорада қуатсыз, қорғансыз үш әйел құлазып, зарлап қалғанда, маңайынан жиылған көрші-қолаңшы ғазиздердің сүйегін суық қабырға салғанын ойлағанда, әрқашан Ғазизаның жүрегі шаншып, өңі қашып, көзінен ыстық жасы тамшылап кетуші еді”*, деп Ғазизаның ішкі күйзелісін барынша аша түссе, ал жауыз Ақан туралы *“суық*

қарайтын қисық біткен кішілеу өткір көзді, түксиген қабақты, күлгендегі пішіні құмарлыққа көп салынғандығын білдіреді”, деген сөздерде асқан қатыгездікті қысқа да нұсқа бейнелейді.

Сөйтіп, М.Әуезов кейіпкерлерін бір-біріне қарама-қарсы қою арқылы олардың әрқайсысына тән қасиеттерді күйшейтеді. Бұған қоса, болыстың қымбат киімдеріне қарама-қарсы көрсетілген кедей-кепшіктің бейшара жағдайын суреттеу де осындай маңызды рөл атқарады. Тіпті шығармадағы пейзаждың "мұзды асу", "батып бара жатқан күн", "қанды көз", деген сияқты детальдары әңгімеге мазасыз көңіл-күй әкеледі. Пейзажды суреттей отырып, жазушы қаңырап бос қалған қыстақтардың қабырғаларын итеріп, оларды мекен еткен қасірет пен апаттар халықтың басынан өткізген тағдыр-тіршілігі екенін көрсетуге тырысады. Мұхтар Әуезов бұл әңгімесінде кейіпкердің ішкі күйін берумен байланысты психологиялық талдаудың шеберлігін, пейзаж бен портрет байланысының жаңа принциптерін көрсетті. Ғазизаның сезімінің толыссыздығын білдіретін үзік-үзік тіркестерге құрылған монологы оны далаға итермелейтіндей желдің екпінімен үндесіп, қызды өлімге апарған қара күштерді символикалық түрде меңзейді.

Сұрықсыз қысқы даланың келбетін, айықпайтын ызғарды сезіндіре отырып, жазушының алдағы трагедияны болжауы — бұл суреттеменің көркемдік-эстетикалық қуаты. Жаһандағы қылт еткен тіршілік атаулыны зәрлі үскірігімен жайпап келе жатқан қаһарлы табиғат өз үстемдігін жүргізіп тұр. Астан-кестен әлемнің ортасында тіршіліктің нышанын уақытша ғана білдіріп тұрған қаралы үй де жалғыз. Кешегі күні жалғанды жалпағынан басқан, дәуірінің арыстаны — Күшікбай батырдан да жалғыз қалған белгі — мола ғана. Дәурені өтпестей болған батыр моласының үстінде ақтүтек боран сан түрлі қимылмен “биге салады”. Әңгімеші ақсақал айтатын Күшікбайдың тарихы да әркімді өз қасіретімен жалғыз күресуге мәжбүр еткен алауыздықтың тарихы сияқты болып естіледі. Кемпірдің монологы да жалғыздықтың зарын күй етіп шертеді.

Жазушының ой ағысы тірі жандарды да өлілермен байланыстырады. Жол үстіндегі екі бейіт — Ғазизаның әкесі Жақып пен жалғыз бауыры — Мұқаштың бейіті. Шай үстінде кемпір келген қонақтарына өз жайы, өз күйкі тірлігінен сыр ақтарады. Қарт кемпірдің әңгімесінен біз баласы мен немересінің сүзектен өлгендігін, олардың өлімінен кейінгі ағайындарының зорлығы туралы, ақыры ағайындарының пұшық Мәрденге Ғазизаны күйеуге бермек болған ниеттері туралы білеміз. Сөйтіп, табиғаттың суық ызғарына адамдардың жауыздығы қосылып, жалғыздық қасіретінің зарлы жырының орындалуына куә боламыз. Ол жыр сырттағы, бәрін жалмап-жұтып, панасыз, “қорғансыз” әлемді қуып келе жатқан боран уілімен сабақтасып, азалы әуенге басып, әлемдік жалғыздық әнұранына айналады.

Кеңістік толы азалы үн, гуіл, боран, сол боран адам тағдырымен ойнап, оны қақпақыл ғып, қаңбақ қып шыркөбелек айналдырғандай… Әңгіме барысында кемпірдің де өткеніне көз тастап, оның да жас кезінде шешесі өліп, өгей шешесінің қолында жетімдіктің зардабын көргендігін білеміз. Өлім, жетімдік, сөйтсек, бұл әулеттің бесігінен жабысқан зобалаң екен. Ғазиза бесіктен, туа сала қорғансыз, панасыз екен. Кемпір: “Құдайдың менің өз басымнан аяған қазасы бар ма?” — деп еңірегенде, оның құдайы — тағдыр екендігіне мойынсұнасың. Ал кемпір әңгімесін салқын да салғырт тыңдап отырған Ақан туралы “Жүрегін зорлықпен жұмсартайын десе де, аздан соң сезімсіз салқын қалпына қайта барып отырды” деген жолдар – “екі көзі жамаулы кішкене терезеге гуілдеп соғып, әр жеріндегі тесігінен бу болып, кіріп тұрған” табиғат ызғарымен астасып, бұл үйдің ішін де мұздата бастағандай әсер қалдыратыны анық.

Әңгіменің ішкі сезіміне беріліп, сол сезіммен жүріп отырсақ, мынаған куә боламыз: шай ішіліп, ет желініп болған соң, қонақтардың аттарына шөп салуға шыққан Ғазизаға Ақан зұлымдық жасайды, қыз арына сөйтіп сызат түсіреді. Дүние және жетімдік. Кеңістік және жалғыздық. Әлемнің ақтүтек боранының алдындағы тұлдай жалаңаш адам, “қорғансыз” адам. М.Әуезов адам жалғыздығының қасіретті трагедиясын осылайша суреттейді. Ғазиза

өмір қиындығын қаршадайынан көріп келе жатса да тағдырдың асқан қатыгездігін Ақан мен Қалтайдан көреді. Ғазизаның жалғанда қорғаны жоқ. “*Қорлық, мазақ көрген Ғазизаның көзінен дүниенің барлық қызығы кетті. Жастығына лайық болған үміт, қиял бәрі де ойын басқан қараңғылыққа батты, көңіліндегі өмір сүрсем деген үміттің ақырғы жалыны сөнді… Көңіліндегі таусыншақ сезімнің ойлатқаны: енді үйге кіріп қайтемін? Үйде мен көретін не қызық қалды? Бишара болған шешелерім ақырғы қайғымды көрмей-ақ, білмей-ақ қойсын. Қайғылы бір сыр көрге бір-ақ кетсін дегендей болып тысқа шықты. Күн әуелгі қалпынша: ақ түтек болып борап тұр. Біресе өкіріп, біресе гуілдеп, құтырынып ұйытып соққан қатты жел Ғазизаға “жүр-жүр” дегендей болып, дедектетіп жүріп кетті”*.

Ақырында ішкі әлемін аласапыран дауыл кернеген Ғазиза мына жалғанның жаттығын сезініп, одан бас тартады. *“Бұрынғы бейнет, бишаралық былай тұрсын, мынау көрген мазақ не? Осынша қорлау, неге?.. Бүгінгі өмір бойында құлағы естімеген зорлық зұлымдықты көруге не жазық қалып еді?.. — ешбіріне жауап жоқ. Бірақ қайда жүрсе де, артынан көлеңкесіндей қалмай жүрген бір сорлылық, бір жылау”. “Жауыздықтың жас құрбаны қасіретке толы өмірінің азапты ақ түтегінен адасып өліп, мәңгі толас тапқандай”.* Яғни, Ғазиза үшін тап қазір өлімнен қашатын жол қалмаған. Осы ойға бекіген ол басы ауған жаққа қаңғып кетпейді, ол өлілердің мекені молаға беттейді. Шын еркіндік сонда деп біледі. Басында Ғазиза өз тағдырына мойынсұнғандай кейіп танытса, оның аяғына таман өз тағдыры үшін күреске түседі.

Автор кеңістікті әдейі алай-дүлей боранға толтырып, кейіпкерін соған қарсы қояды. Алайда Ғазиза — тағдырына мойынсұнбаған, тіпті оған қарсылық көрсетуге талпынған. Әуезовтің осынау алғашқы әңгімесінің өзінде өзгеге ұқсамайтын өзіндік мәнер-машығы бар, жүйрік жорға қаламның ізі сайрап тұр. Мұндағы шұрайлы тіл, шырайлы стиль, дараланған адам характерлері, нәзік лиризм, терең психологизм нәтижесінде, нақты әлеуметтік ортаның айқын сипатын беретін таза, мөлдір шындық Сәбит

Мұкановтың: “Қорғансыздың күні” атты алғашқы әңгімесін Мұхтар шын мағынасындағы европалық прозаның дәрежесіне көтерді”, деп дәл айтылған тұжырымын сөзсіз растайды.

Әңгімені оқып шығып оқырман терең ойға шомады. *“Қазақ қыздары неліктен қорғансыз болған?”, “Қазаққа қорған болар ерлердің тірлігі ме осы?”,* — деген сұрақтар еріксіз мазалайды. Осындай үлкен мәселені көтерген кемеңгер жазушының кең құлашына, сезімнің, ойдың, небір нәзік иірімдерін соншалық бай тілмен дөп басатын шеберлігіне қайран қаласың. Оның “Қорғансыздың күні” әңгімесі көркемдік ауқымы мен әлеуметтік-адамгершілік мәні жағынан шағын романмен пара-пар, десек артық айтқандық бола қоймас. Мұхтар Әуезов әңгімелерінен біз қазақ елінің сол кездегі хал-ахуалын, жабырқау жүзін айдан анық көреміз.

Пайдаланылған әдебиеттер:

1. Әуезов М. (2003).Қорғансыздың күні. – Алматы: «Атамұра»
2. М.Әуезов тағылымы. (1987) Алматы.
3. Дәдебаев Ж. (1991) Мұхтар Әуезов. – Алматы: «Рауан»
4. Нұрғалиев Р. (1997).Әуезов және Алаш. – Алматы: «Санат»
5. https://massaget.kz/blogs/proza/24683/

V BOB
O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI VA MA’RIFATPARLIK DAVRI ADABIYOTI MUAMMOLARI

GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARIDA MAQOLLARNING QO‘LLANILISHI

Abdullayeva Rufina Usman qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF, 2-kurs
rufinaabdullayeva1@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida qo‘llanilgan maqollarning qay darajada asarning mazmunini ochib berganligi, maqollarning asar tilini boyitib, uning g‘oyaviy-badiiy qimmatini, shiradorligini oshirishga xizmat qilganligi hamda asarda aksar xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan saj, ya’ni nasriy ifodaning qofiyalanishidan ham foydalanilganligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *“Zarbulmasal”, “Toshbaqa bilan Chayon”, “Tuya bilan bo‘taloq”, saj, maqol.*

Abstract. *In this article, the extent to which the proverbs used in Gulkhani’s work “Zarbulmasal” revealed the content of the work, the fact that the proverbs enriched the language of the work and served to increase its ideological-artistic value and richness, as well as the saj characteristic of most folk oral works in the work, or It is said that is also used to rhyme the prose expression.*

Key words: *“Zarbulmasal”, “Scorpion with Tortoise”, “Bull with Camel”, saj, proverb.*

Gulxaniy adabiy merosini, asosan, ikki turdagi asarlar forsiy va turkiy tillardagi lirik she’rlari hamda “Zarbulmasal” asari tashkil etadi. Shoir “Zarbulmasal” dagi singari,lirik she’rlarida ham o‘ta an’anaviylik va kitobiylikdan qochgan, xalqona soddalikka intilgan. Asarda Yapoloqqush bilan Boyo‘g‘lining quda-anda bo‘lishi, Yapaloqqushning o‘g‘li Kulonkirga Boyo‘g‘lining qizi Gunashbonuning olib berilishi sarguzashtlari majoziy, o‘tkir hajviya tarzida tasvirlanadi. Gulxaniy qushlarning o‘zaro murakkab munosabatlari asosida o‘z davri ijtimoiy hayotining tanqidiy manzarasini yaratadi.

“Zarbulmasal” deb nomlanishiga sabab,unda yozuvchi xalq tilidagi maqol va masallarni tasvirlanayotgan hayotiy voqealarga mos ravishda zarblash – “masal urmoq”, “masal orttirmoq” usulida ish tutgan. U o‘zbek va tojik tillaridagi bir

qancha maqol, masal va hikmatli so‘zlardan o‘ziga xos badiiy mahorat bilan ijodiy foydalandi. Bu uning og‘zaki ijodini yaxshi bilishidan dalolat. Asarda keltirilgan har bitta maqol asarning mazmunini ochib berishga yordam beradi. Maqollar “Zarbulmasal” ning tilini boyitib, uning g‘oyaviy-badiiy qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

“Zarbulmasal”ning bosh g‘oyasi – xalq maqollari, hikmatlari, matal va hikoyatlari orqali insoniyatni ma’naviy g‘aflatdan ogoh etish. Uning nuqsonlarini fosh etib, kamolot yo‘lini ko‘rsatish. Komil insonni tarbiyalash.

“Zarbulmasal”da u yoki bu hikoya tarkibida, ularning xulosasi o‘rnida maqol, matallar keltiriladi. Asar ko‘proq axloqiy-ta’limiy hikoyalardan iborat bo‘lib, maqol, matallar, ularning tarbiyaviy xulosasini o‘zida jam etadi. Bu janrdagi asarlarning asosiy xususiyati ularda majoziy usul qo‘llanilishi, ya’ni voqea va hodisalar hayvonlar, qushlar tilidan hikoya qilinishidir. Muallif o‘zi tanqid qilayotgan kishilar ta’qibidan cho‘chib shu usulni qo‘llagan desak adashmagan bo‘lamiz. Gulxaniy “Zarbulmasal”da ijodiy foydalangan ko‘pgina maqol, matal, masal, hikmatli so‘zlar ham xalqimizning jonli tilida va yozma adabiyotida qo‘llaniladi. Bu maqollarda kishilarning mehnatsevarlik, har bir masalaga aql-idrok bilan yondashish, to‘g‘rilik, sofdillik, sabotlilik kabi ajoyib fazilatlari ulug‘lanadi.

“Zarbulmasal” xalq og‘zaki ijodi durdonalari-maqol, masal va hikmatli so‘zlardan oqilona foydalanilgan asar. Xususan, Yapaloqqush bilan Boyo‘g‘lining bir-biriga quda bo‘lish voqeasini bayon qilish orqali o‘sha zamon uchun xarakterli voqea-hodisalarni va ularga o‘z munosabatini aks ettiradi. Yapaloqqushning Boyo‘g‘li uyiga sovchi bo‘lib kelishi voqeasda Yapaloqqush va Boyo‘g‘li, Boyo‘gli va Gunashbonular o‘rtasida bo‘lgan suhbatda quyidagi maqollar ishlatilgan:

“Avval taom, so‘ngra kalom”, “Ayron tilab kelsang, chelakingni yashurma”, “Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas”, Ko‘pga kengash, o‘z bilganingni qil” – bu maqollar Yapaloqqush va Boyo‘g‘li o‘rtasida; “O‘lturgan qiz o‘rin topar”, Ertagi savdoning dahsar og‘irlig‘i bor”, “Kechki

ekinning xatari bor” kabi maqollar esa Boyo‘gli va Gunashbonuning suhbatida uchraydi. Ularning bir-biriga aytgan masalalari, maqollari orqali asarning g‘oyaviy mazmunini ochadi.

“Maymun bilan Najjor” masalida hunar va hunar ahli ulug‘lanadi. Masalini hikoya qilishda Hudhud “Yumuruq bukulib sang bo‘lmas, echki yugurib lang bo‘lmas” maqolini qo‘lingdan kelmaydigan ishga aslo urinib kulgi bo‘lma, ko‘r-ko‘rona birovga taqlid qilib falokatga yo‘liqma, degan fikrni yetkazib berish uchun qo‘llagan.

“Toshbaqa bilan Chayon” masalida bir-biriga zid va qarama-qarshi ikki obraz berilgan: Toshbaqa – aqlli, farosatli, safarlarda ko‘p yurib, ancha tajriba orttirgan, insofli, sodiq va qadrdon do‘st timsoli. U o‘z hamrohi Chayonning suvdan o‘ta olmasligini bilgach, unga yordam qo‘lini cho‘zadi. Lekin u Chayonning xiyonatini ko‘rgach, uni halok qiladi. Gulxaniy bu masali orqali Chayonga o‘xshagan odamlar bilan do‘st va hamroh bo‘lmaslikka, kishi o‘zini va taqdirini o‘shanday kishilarga topshirib qo‘ymaslikka chaqiradi. Chayon butun umri davomida birovlarga yomonlik qiladigan, ularga ziyon-zahmat etkazadigan, yaxshilikni bilmaydigan, yaxshilikka yomonlik qaytaradigan, xiyonatkor toifalarning ramziy obrazidir. Toshbaqa chayonga yordam berish istagida unga: “Ey birodar, seni daryodan o‘tkazib qo‘ygani keldim, ustimga min, lekin bejo harakat qilma, o‘z joningga jabr qilasan”, – desa ham, Chayon: “Har kim o‘z maslahatini o‘zi bilur”, – deb Toshbaqaning orqasiga mingandan keyin, ortiqcha harakat qila boshlaydi va: “Sen bilmaysanmi Chayonning muddaosi, xoh do‘stning ko‘ksiga, xoh dushmanning orqasiga bo‘lsin, nish urishdir”, – deya javob qiladi.

“Toshbaqa bilan chayon” masalida “Yaxshilik qil suvga ot, suv bilmasa baliq bilur, baliq bilmasa Xoliq bilur”, “Ishonmagil do‘stingga, somon tiqar po‘stingga”, “Aslning xato bo‘lmas, nojinsning oshnosi bo‘lmas”, “Bo‘ynida illati borning oyog‘i qaltiraydi” kabi maqollar qo‘llangan. Bu maqollarning qo‘llanilishi ushbu masalning mohiyatini o‘quvchiga chuqurroq yetkazib berish, kishilarni xushyorlikka, zolimlarga qarshi qattiqqo‘l, sezgir, shafqatsiz bo‘lishga undaydi; do‘stga do‘st, dushmanga ayovsiz bo‘lish kerakligini uqtiradi.

Gulxaniy ba’zi maqollarni ko‘chma ma’noda ham qo‘llaydi. Bu mumtoz adabiyotda istiorani yuzaga keltirgan. “Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas” iborasi bir ishni bitkazish uchun harakat qilishga, mashaqqat chekishga to‘g‘ri keladi, degan ma’noda ishlatilgan. Asarda saj: bir yoki bir necha gapdagi ayrim so‘zlarning vazn yoki raviyda mos kelishi (nasriy ifodaning qofiyalanishi) dan unumli foydalangan. Boyo‘g‘lining tilidan olingan ushbu jumlalar bung misol bo‘la oladi: “Farosatning oyog‘i oqsoq, tevadek yegani sho‘rva va yantoq, ilgari o‘tgan so‘zning birini ming qilib so‘zlarga toq, oyog‘idan osilgan sutqoq qushg‘a o‘xshash Jalil bo‘qoq…”. Yana bir misol: “Bu turganlaring navola do‘stlari, piyola hariflari, taom emakka hozir, maslahatga aqli qosir, bazmda bo‘ynida munchoq, urushda harbasi oshpichoq birla o‘xloq, podshodin tegani — amli o‘roq, to‘g‘ri so'zga to‘g‘onoq, kurk tovuqdek suvga pisharga o‘ngroq.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Gulxaniy o‘z asarini yaratishda xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalana olgan. Asar folklorizmga juda boy. “Zarbulmasal” dagi deyarli barcha maqol va masallar hozirgacha ham xalqning og‘zidan tushmagan. Asardagi “Bugungi ishni ertaga qo‘yma”, “Uyat o‘limdan qattiq”, “Evi bilan so‘zlaganning qurboni bo‘l”, “Yolg‘on masal turmas”, “Bo‘ynida illati borning oyog‘i qaltirar”, “Yaxshi bilan yurding – etding murodga, yomon bilan yurding – qolding uyatga” kabi maqollar xalq donoligini ifodalab keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulxaniy. (2016). Zarbulmasal. Toshkent. Ma’naviyat.
2. Rahmonqulov, O. (2006). O‘zbek adabiyoti tarixi (XVII-XIX asr I yarmi). Toshkent. Adabiyot Jamg‘armasi nashriyoti.
3. Jumaxo‘ja, N., Adizova, I. (2020). O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). Toshkent. Innovatsion-Ziyo.

MUHAYYIR RUBOIYLARIDA QOFIYA VA RADIFNING O‘RNI

Akbarova Muhabbat Shavkatjon qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek adabiyoti (adabiyotshunoslik)
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
muhabbatakbarova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qo‘qon adfabiy muhitining yirik namoyandasi Muhayyir ijodida muhim o‘rin tutuvchi ruboiylarining poetikasiga to‘xtanilgan. Ruboiylardagi qofiya va radif munosabati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ruboiy, qofiya, o‘zak tarkibiga ko‘ra turi, tuzilishiga ko‘ra turi, mujarrad, murdaf, muqayyad, muassas, mutlaq, radif, raviy, tavjih*.

Abstract. *This article focuses on the poetics of the rubai, which plays an important role in the work of Muhayyir, a major representative of the Kokan literary environment. The relation of rhyme and radif in Rubaiyyah is revealed.*

Key words: *Rubaiy, rhyme, type according to the composition of the root, type according to the structure, mujarrad, murdaf, muqayyad, institution, absolute, radif, narrator, tavjih.*

Qo‘qon adabiy muhitining yirik namoyandalaridan biri Muhammadqul Muhammadrasul o‘g‘li Muhayyir o‘zbek mumtoz adabiyotida asarlarining o‘rni va salmog‘i bilan Muqimiy va Furqat singari iste’dodli ijodkorlar qatorida turadi. Qo‘qon adabiy muhitining Furqat, Hamza, Zavqiydek ijodkorlari Muhayyir bilan hayotda ham, ijodda ham do‘st tutinganlar. Maktublarida eng yaqin qadrdonlar qatorida eslaganlar.

Muhyi, Muqimiy, Nusrat, ahbobimiz Muhayyir,
Furqat chekor qomuya cho‘x ishtiyoq (Zavqiy, 1960, 103-bet).

Ijodiy xazinasidan g‘azal, muxammas, murabba, musaddas, ruboiy kabi janrlar o‘rin olgan. Asarlarining yana bir noyob manbasi – uning o‘z qo‘li bilan ko‘chirilgan bayozi hisoblanadi. Bundan tashqari, Muhayyir “Qirq hadis”ni nazmiy tarjimasini ham kitobxon ommasiga taqdim qilgan (Dehqonov, 2010, 3-4-bet).

Mumtoz adabiyotimizda barcha she’riy janrlarning asosini vazn, qofiya va she’riy san’atlar tashkil etadi. Biz hozirda vazn, qofiya, she’riy san’atlarni she’riy

unsur sifatida bilamiz, bu ham to‘g‘ri, ammo avvalboshda bu unsurlar “Ilmlar uchligi” deb atalgan fanni hosil qilgan va bu xususida bir qancha asarlar yaratilgan: Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a”, Umar Roduyoniy “Tarjimon ul-balog‘a”, Shams Qays Roziy “Al-mo‘jam” va boshqalar.

Bu maqolamizda Muhayyir ijodiyotida muhim o‘rin tutuvchi janrlardan biri bo‘lgan ruboiylarda qofiya va radifning qo‘llanilishiga to‘xtalamiz.

Qofiya – misra oxirida so‘z yoki so‘zlar qo‘shilmasining o‘zaro ohangdosh bo‘lib kelishi. Qofiya mumtoz she’rshunoslikda vazn kabi she’riy ritrmni vujudga keltiruvchi asosiy unsur sanalib, bayt so‘ngida qo‘llanilishi zaruriy talablardan biri bo‘lgan (Yusupova, 2020, 289-bet).

Qofiya o‘zak tarkibi va tuzilishi jihatdan farqlanadi, o‘z navbatida, o‘zak tarkibiga ko‘ra mujarrad, murdaf, muqayyad, muassas turlarga bo‘linadi. Muhayyir “Devon”idan “Qirq hadis”dan tashqari 70ta ruboiy o‘rin olgan. Ruboiylarda qofiyaning har ikki turidan unumli foydalanilgan. Ijodkor badiiy mahoratining yuksakligini yana bir narsa ko‘rsatadiki, ruboiyning ham xos, ham tarona ruboiy turida bu qofiyalarning juda go‘zal namunalarini qo‘llagan. Quyidagi jadvalda o‘zak tarkibiga ko‘ra qofiya turlarining ruboiylar soni bo‘yicha statistikasini berib o‘tamiz:

O‘zak tarkibiga ko‘ra qofiya turlari				
Mujarrad	Murdaf	Muqayyad	Muassas	Jami
31	38	1	-	70

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, murdaf qofiya yetakchi o‘rin tutadi. Murdaf qofiya ba’zan “ridfli qofiya” ham deyiladi va ikki turli bo‘ladi: *ridfi asliy:* raviydan oldin cho‘ziq unli keladi. Masalan, *dildor – bedor*. **“r”** – raviy, **“o”** – ridfi asliy. Ikkinchi turida raviy va ridfi asliy orasida bir undosh keladi va bu *“ridfi zoyid”* deyiladi: **rost– xost**, **“o”** - cho‘ziq unli, **“t”** – raviy, **“s”** – ridfi zoyid. Lekin Muhayyir ruboiylarida murdaf qofiyaning faqatgina birinchi turini uchratamiz. Misol uchun:

Afsuski behuda kechirdim ***avqot,***

Yo‘q jurmu gunahdin o‘zga menda ***hasanot.***

Gar bo‘lmasa sendin menga ummidi ***najot,***

Netgumdurur ey shafi’i davri ***arasot****.*

Ushbu taronayi ruboiyda *avqot, hasanot , najot va arasot* so‘zlari qofiya hisoblanadi va barchasida **“t”** harfi – raviy, raviydan oldingi **“o”** - cho‘ziq unli bo‘lib kelmoqda. Yoki:

Ey ishqida sargashta qamar bilan ***quyosh,***

Vafingda qilur ko‘ngul tilim birla ***talosh.***

Hamdingni demakda yor o‘lub hushu xirad

Qildilar alar nihoniy asrorim ***fosh****.*

Yuqoridagi xos ruboiyda esa *quyosh, talosh, fosh* so‘zlari qofiya, ular tarkibidagi **“sh”** – raviy, **“o”** - cho‘ziq unli.

Muhayyir ruboiylarida yetakchilik jihatidan mujarrad qofiya ikkinchi o‘rinda turadi. Mujarrad qofiyaning har ikki turi (**raviyning cho‘ziq unli bilan yakunlanishi**: *paydo – shaydo, “o” – raviy;* **raviydan avval qisqa unli – *tavjihning* kelishi:** *sahar – zahar, “r” – raviy, “a” – tavjih*)dan ham foydalanilgan.

Mujarrad qofiya	
Raviy cho‘ziq unli bilan yakunlangan	11
Raviydan avval tavjih kelgan	20

Jadvaldan ma’lumki, tavjih ishtirok etgan qofiyadan birinchisidan ko‘ra ko‘proq foydalanilgan.

Ey zoti nabilar masnadi shohi ***arab****,*

Faxri rusulu payambari pok ***nasab****.*

Tun-kun chekibon mashaqqatu ranju ***ta’ab***

Bo‘lding hama ummating najotig‘a ***sabab****.*

Ushbu taronayi ruboiyda *arab, nasab, ta’ab, sabab* so‘zlari qofiya bo‘lib kelgan, **“b”** – raviy, **“a”** – qisqa unli hisoblanadi.

Ey mug‘bacha, yo‘qtur menga beboda ***farah***

G‘am daf’i uchun tut menga bir-iki ***qadah****,*

Iyd oyi tug‘ildi-yu bo‘ldi fasli navro‘z

Davringda necha elga farah, menga ***tarah.***

Xos ruboiyda esa *farah, qadah, tarah* so‘zlari qofiya hisoblanadi, **“h”** – raviy, **“a”** – qisqa unli.

Biz yuqoridagi ruboiylarda tavjih ishtirok etgan mujarrad qofiyani ko‘rdik. Endi qofiya raviy bilan yakunlangan ruboiylarga to‘xtalamiz.

Qaysi tilu dil birla deyin hamdu ***sano****,*

Ey Hayyi qadim va Podshohi ***yakto****,*

Vasfingda ko‘rib o‘zlarin ojiz ***uqalo***

Derlar xo‘blaring hama “La ilma ***lano****”.*

Hamd mavzusidagi ushbu taronayi ruboiyda *sano, yakto, uqalo, lano* so‘zlari qofiya sanaladi va **“o”** unlisi raviy bo‘lib kelmoqda.

O‘zak tarkibiga ko‘ra turining uchinchisi hisoblangan muqayyad qofiya esa birgina ruboiy tarkibida uchraydi. Muqayyad qofiya turida o‘zakdagi qisqa unlidan so‘ng qator undosh keladi:

Umr o‘tkaribon aysh ila no‘sh aylab ***shahd****,*

Jam’ etgali dunyoni necha qilsang ***jahd****,*

Borganda qilib shafoatingdin umid

Oxirda bo‘lur tiyra lahad jisminga ***mahd****.*

Bu ruboiyda *shahd, jahd, mahd* so‘zlari qofiya, “**a**” qisqa unlidan keyin “**h**” va “**d**” undoshlari qator undosh bo‘lib kelyapti. O’zak tarkibiga ko‘ra qofiyaning muassas turi qatnashgan ruboiy “Devon”da uchramaydi.

Endi qofiyaning tuzilishiga ko‘ra turining ruboiylar tarkibiga qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz. Qofiya tuzilishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: muqayyad va mutlaq qofiya.

Qofiyaning tuzilishiga ko‘ra turlari (70 ruboiy)	
Muqayyad qofiya	62
Mutlaq qofiya	8

Tuzilishiga ko‘ra muqayyad qofiya turi mutlaq qofiyadan ko‘ra ko‘proq uchraydi. Muqayyad qofiya – raviy harfi bilan yakunlangan qofiya. Undan keyin qofiyaning boshqa harflari ishtirok etmaydi.

Har necha hakim aylasa juhdu ***jadal****,*

Qilmoqqa falakni mushkilotini ***hal***

Bir zarrani kunhiga yetolmas hargiz

Kim fikri berur aning xayolig‘a ***xalal****.*

Ushbu ruboiyda *jadal, hal, xalal* so‘zlari qofiya hisoblanadi, **“l”** harfi raviy bo‘lib undan keyin qofiya harflari ishtirok etmagan.

Muhayyir tuzilishiga ko‘ra mutlaq qofiya (raviydan keyin qofiyaning boshqa harflari – vasl, xuruj, mazid, noyiraning kelishi) turida 8 ta ruboiy yozgan.

Raqs urmoq agarchi bo‘ldi ***parvonag‘a*** *xos,*

Ishq ichra erur mn kabi ***devonag‘a*** *xos,*

Husni ravish, tag‘ofulu istig‘no

Ham g‘amzau nozu ishva ***jononag‘a*** *xos.*

Ushbu ruboiyda *parvonag‘a, devonag‘a, jononag‘a* so‘zlari qofiya bo’lib, “**g‘**” va “**a**” tovushlari raviydan keyingi harflar hisoblanadi.

Muhayyir qofiyaning har ikkala turida ham samarali ijod qilgan. Ijodkor g‘azallari singari ruboiylarida ham radifdan foydalangan. Bu ruboiylarning ohangdorligini yanada oshirgan.

Radif – qofiyadan keyin takrorlanuvchi so‘z. She’riy janrda ifodalanayotgan fikrni takrorlash va asosiy g‘oyani kuchaytirishni ta’minlaydi. Muhayyir ruboiylarining 17 tasida radifdan foydalangan. Yana bir qiziq jihati shundaki, aynan g‘azallarida foydalangan radiflarini ba’zi ruboiylarida ham qo‘llagan va har ikki janrda o‘ziga xos tutadi, buni esa g‘azallardagi fikrning mantiqiy davomi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Masalan,

Hariymikim ollidin o‘tmagay bodi sabo ***gustoh,***

Nechuk qo‘yg‘ay qadam ul yerg‘a mendek benavo ***gustoh****.*

Ushbu g‘azalda *“****gustoh****”* so‘zi radif hisoblanadi va quyida *gustoh* so‘zi radif bo‘lib kelgan ruboiyni ko‘ramiz:

Ma’shuq sorig‘a ochmag‘il ko‘z ***gustoh****,*

Har kimni ollida demagil so‘z ***gustoh****.*

Tut posi adabki, kuydi g‘ayrat o‘tig‘a

Dilbar ollida aning kabi yuz ***gustoh***.

Yoki:

Lablaring vasfini yozsam olibon gar ***kog'az,***

Bo'ladur lavhi mutallo ko'zina har ***kog'az.***

Ushbu matla' bilan boshlanuvchi g'azalda ***"kog'az"*** so'zi radifdir. Ruboiyga e'tibor bersak:

Yozg'anda so'zungni topti zevar ***kog'az,***

Andoqki bo'lub maxzani gavhar ***kog'az.***

Toj o'rnida qo'ydilar bosh uzra bir-bir

Shahlarg'a yuborganingda sen har ***kogaz.***

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Muhayyirning g'azaliyoti singari ruboiyoti ham qofiya va radif jihatidan juda go'zal va jarangdor. Qofiya va radif munosabati ijodkor badiiy mahoratini yana bir bor namoyon qilgan. Ruboiylarda ilgari surilgan mavzu, asosiy g'oya qofiya va radif asosida kitobxonga yaqinlashtirilgan, ularning ritmik ohangdorligini oshirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dehqonov, A. (2010). Devon. (3-4-bet.) "Muharrir" nashriyoti. Toshkent.
2. Zavqiy. (1960). Tanlangan asarlar. (103-bet). O'zbekiston davlat badiiy adabiyot.
3. Yusupova, D. (2020). Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Akademnashr.

"LUBOBU-L-ALBOB" TAZKIRASIDA MUHAMMAD AVFIY ADABIY QARASHLARINING AKS ETISHI

Allanazarova Kamola Dustmurodovna,

O'zMU Adabiyotshunoslik:o'zbek adabiyoti

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

allanazarovakamola021@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIII asr adabiy muhitiga ulkan hissa qo'shgan Muhammad Avfiy hayoti va ijodi hamda "Lubobu-l-albob" tazkirasining fors va turkiy tazkiralarga ta'siri haqida ma'lumot berilgan. Avfiy o'z adabiy-tanqidiy qarashlarida so'z va so'z san'atining jamiyatdagi rolini to'g'ri belgilagan*

holda qalam ahli ijodiga, she'rlarining badiiyati, badiiy g'oyaviy xususiyatlaridan kelib chiqib baho-munosabat bildirgan. Shoir ijodiyoti saviyasini belgilashda uning ma'naviy qiyofasi, ichki dunyosining go'zalligiga ham alohida e'tibor bergan.

Kalit so'zlar: *Muhammad Avfiy, Alisher Navoiy, hikoyat, tazkira, "Lubobu-l-albob", fors adabiyoti, adabiy muhit.*

Abstract. *This article describes the life and work of Muhammad Avfi, who made a huge contribution to the literary environment of the XIII century, and the influence of the tazkira "Lubobu-l-albob" on the Persian and Turkic Tazkira. In his literary and critical views, Avfi correctly defined the role of words and art of words in society, and expressed his opinion on the creativity of the poets, based on the artistry and artistic ideological characteristics of their poems. When determining the level of the poet's creativity, he paid special attention to his spiritual image and the beauty of his inner world.*

Keywords: *Muhammad Avfi, Alisher Navoi, hikayat, tazkira, "Lubobu-l-albob", Persian literature, literary environment.*

Muhammad Avfiyning adabiy merosi: "Lubobu-l-albob" va "Javome'u-l hikoyat" asarlari nafaqat o'z davri hamda bugungi kun adabiyotshunoslik ilmida ham muhim adabiy manba hisoblanadi. Fors-tojik adabiyotida bizgacha yetib kelgan, chinakam mukammal fors tilidagi to'ng'ich tazkira asar Muhammad Avfiyning "Lubobu-l-albob" tazkirasidir. Avfiy tazkirasi IX-XIII asr adabiy muhitidagi qizg'in ijodiy jarayon va ko'tarinkilikning o'ziga xos ko'zgusi bo'lib, muhim tarixiy-adabiy ahamiyat kasb etadi. Tazkira shoirlar hayoti, ijodi, umuman, adabiy muhitning yetakchi asosiy qirralarini asosan, xolis, aks ettirganligi, boy faktik materiallar asosida vujudga kelganligi bilan ishonchli manba hamdir.

"Lubobu-l-albob" Avfiyning adabiy-tanqidiy qarashlarini aks ettiruvchi manba hamdir. Tazkirada keltirilgan ma'lumotlarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, asarning muqaddima qismida Avfiy so'z va uning qudrati, she'riyat haqidagi o'z fikrlarini bayon etsa, tazkiraning asosiy boblarida shoirlarning hayot yo'li, ijodiy faoliyati xususida, ayrim o'rinlarda o'z ijodi to'g'risida so'zlaydi.

Tazkiranavis o‘z tanqidiy qarashlarini bayon etishda boy faktik materiallarga asoslangan. O‘ziga xos ifoda uslubida ish ko‘rgan. Tazkiranavis asosiy e’tiborini so‘z san’atining ijtimoiy vazifasi, til, badiiy mahorat, janrlar, ijodkorlarning badiiy salohiyati kabi masalalarga qaratadi. Avfiy bildirgan baho-munosabatlarni quyidagicha qismlarga ajratish mumkin:

1. Avfiyning so‘z va so‘z san’atiga munosabati;
2. Avfiyning she’riyat va janrlarga munosabati;
3. Avfiyning shoirlarga bergan bahosi: maqtovlar va tanqidiy qarashlar.

Avfiy tazkiraning muqaddima qismida Ollohga hamd-u sano bitish bilan birga so‘z xususida ham bayon etadi. So‘zni Yaratganning insoniyatga baxsh etgan ilohiy ne’matlaridan biri sifatida talqin etadi. Odamzotni haqiqiy inson sifatida kashf etadigan, uni ommaga tanituvchi, iste’dod va iqtidorini, ma’naviy olamini, aqliy qudratini namoyon qiluvchi so‘z ekanligini qayta-qayta ta’kidlaydi. Bu e’tirof muallifning so‘zning bashariyat tarixidagi ahamiyatini teran idrok etganligining yaqqol ifodasidir.

Avfiy she’riyatni yuksak qadrlaydi. Buni tazkiraning dastlabki to‘rt bobini nazariy ma’lumotlarga bag‘ishlab, ushbu boblarda she’r va shoirlik fazilatlari, she’rning lug‘aviy ma’nosi, birinchi she’r yozgan kishi hamda fors tilida birinchi she’r yozgan ijodkor haqida keltirgan ma’lumotlarida ko‘rish mumkin.

So‘z san’atkorlari haqida bayon etar ekan, avvalambor, ularning ijodiy salohiyatlariga e’tiborini qaratadi. She’r va shoirga nisbatan so‘z san’ati va shoirlik iste’dodi asosiy masala deb bilgan adabiyotshunos olim sifatida qalam ahliga shu nuqtai nazardan baho beradi. Ijodiy kamolotga erishgan, so‘z san’atini puxta egallagan, kuchli badiiy mahorat sohibi bo‘lgan shoirlarni chuqur hurmat bilan tilga oladi. Ular qalamiga mansub she’rlarni go‘zal ijod namunasi sifatida e’tirof etadi. Toyyib Boharziy, Maymandiy, Atobek Xaviy, Muhammad binni Ali Samarqandiy, Sadriddin Nishoburiy, Tojiddin Obiy, Ma’sud Ahmad kabi mohir so‘z san’atkorlari Avfiy olqishiga sazovor bo‘ldilar. Chunonchi, Ma’sud Ahmadning badiiyat bobidagi o‘tkir istedodini munosib baholab, shunday yozadi:

“Uning baytlari dilga xushlik va yoqimlilik baxsh etib, atrof joylarga tarqaldi, ruboiylari sabab nomi mashhur bo‘ldi. Iyhom va zuvajhayn she’r san’atlar u tufayli qayta odad tusiga kirib, g‘oyat teranlashdi” (Avfiy, 2014, 301-bet).

Muallif tazkirada shoirlar ijodidagi janr rang-barangligi masalasiga ham to‘xtaladi. Bu orqali mumtoz adabiyotda mavjud janrlardan yigirmaga yaqini, xususan, ruboiy, qit’a, hikoyat, qasida, g‘azal, masnaviy kabi janrlarning tazkirada keltirilgan shoirlar ijodida istifoda etilganligini ko‘rsatib beradi.

Avfiyning mana shunday yirik badiiyat yaratishi asosida yoshlikda egallagan bilim va tajribalari bilan birga o‘z davrigacha yashagan va zamondosh bo‘lgan shoir va yozuvchilar ijodini ham teran o‘rganganligi yotadi. Avfiyga ana shu bilim va tajribalari adib va shoirlar ijodini mutaxassis bir so‘z san’atkori sifatida baholash, turli ijtimoiy tabaqaga mansub kishilarning insoniylik xususiyatlari tog‘risida dadil va haqqoniy munosabat bildirish, din va ilm-fan arboblari, kasb-hunar egalari, iqtidori, ularning jamiyatdagi o‘rni, xizmatlari borasida atrofli so‘z yuritish imkonini tug‘diradi. Avfiyning shoirlar haqidagi ma’lumotlarini, shartli ravishda, ijtimoiy mansublik jihatidan: podshoh va shahzoda shoirlar haqidagi ma’lumotlar; saroy a’yonlari haqidagi ma’lumotlar; jamiyatning turli qatlamiga mansub bo‘lgan ijodkorlar haqidagi ma’lumotlar kabi guruhlash mumkin. Avfiyning shoirlar obrazini yaratishda alohida jihatlar mavjud: ijodkorlarning o‘ziga xos individual tomonlarini yoritishga harakat qilishi, ijodkorlar uslubini adabiyotshunos olim sifatida tahlil etishi, ijodkor qiyofasini baholashda tanqidiy ruhning kam sezilishi.

Avfiy shoirlar ijodi, ularning xulq-atvorlariga oid ayrim tomonlarini qay darajada haqqoniy, xolisona baholay olgani, shuningdek, qamrab olingan boy faktik materiallarda o‘sha davr adabiyotiga munosabat qaysi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lgani, nazariy masalalarning yoritilishi, umuman, tazkiranavis tomonidan adabiy ijod, xususan, shoirlar va she’riyatning jamiyat taraqqiyotidagi, rolini qanday mezon bilan o‘lchagani, uning adabiy-tanqidiy, adabiy estetik qarashlari tahlilida ro‘y-rost ko‘rish mumkin.

Shunisi diqqatga sazovorki, Avfiy har bir yozuvchi ijodiga aniq yondashadi, yozuvchining yutuq va kamchiliklari haqida ham aniq xulosalar chiqaradi. Avfiy Buxoriy tazkirasida jamlangan shoirlar, ularning mumtoz adabiyot va fan tarixidagi o‘rni davrimizda hali yetarlicha o‘rganilmagan. Bu shoirlar asarlari sharq mumtoz adabiyotining umumiy yo‘nalishi, uning taraqqiyot yo‘llari mumtoz sharq she’riyatida keng qo‘llanilgan ruboiy, qit’a, hikoyat, qasida, g‘azal, hajv, janrlarining paydo bo‘lishi va takomillashuvi, tarse’ tajnis, tarji’band, murabba’ singari she’riy shakllarni o‘rganish hamda tadqiq etishda muhim rol o‘ynaydi.

Qolaversa, ular orasida Rudakiy Samarqandiy, Asir Axsikatiy, Rashidiy Samarqandiy, Tohir Chog‘oniy, Munjiq Termiziy, Umar Termiziy, Am’aq Buxoriy, Mansur Samarqandiy, Sobir Termiziy, Xattot Termiziy, So‘zanniy, Shahob Buxoriy, Mo‘yad Samarqandiy, Aruziy Nizomiy Samarqandiy, Karimiy Samarqandiy, Kofiy Buxoriy, Abu Bakr Nasafiy singari o‘z davrining buyuk allomalari, Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-ta’limiy asar, fors-tojik badiiy nasrining birinchi va yirik yodgorligi “Qobusnoma” asari bilan shuhrat topgan Unsuru-l-maoliy Kaykovus, “Siyosatnoma” asarining muallifi Nizomulmulk, she’riyat nazariyasiga oid “Hadoyiq as-sehr fi daqoiq ash-she’r” (“She’riy nozikliklardan sehr bog‘lari”) tajnis, zulqofiyatayn, savol-javob kabi she’riy san’atlar haqida so‘z yuritilgan, keyingi davr shoir va adabiyot olimlariga qo‘llanma sifatida xizmat qilgan asar yaratgan Roshiddidin Votvot kabi ko‘plab ijodkorlar ham o‘rin olganki, ular ijodi mumtoz adabiyot va O‘rta asr Sharq ilm-fani taraqqiyoti tarixida muhim o‘rin tutadi.

Muhammad Avfyning “Lubobu-l-albob” tazkirasining yana bir muhim jihati shundan iboratki, asarda ayrim tarixiy voqealar bayonining keltirilishi va o‘sha davr hukmdor sulola vakillari haqidagi muhim ma’lumotlarning ham mavjudligidadir. Mazkur asar faqat shoirlar ijodi va hayoti haqidagi ma’lumotlardangina iborat emas.

Unda Avfiy o‘zi keltirgan namunalarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi, shakliy ko‘rinish, vazn va badiiy-tasviriy vositalarning qo‘llanishi va ma’no jilvalari haqida ham fikr yuritib boradi (Homidiy, 1999, 52-58-bet). Unda

ijodkorlar tartibsiz, xayolga kelgan tarzda emas, balki geografik o‘rinlar, sulolaviy tartiblar va xronologik jihatlarni hisobga olgan holda keltirilgan. Bu muallifning nafaqat badiiy muhit odami ekanligi, balki tarix, geografiya kabi ko‘plab fanlar borasida ham bilimli shaxs bo‘lganligiga dalildir. Bu beqiyos xazina ko‘p xalqlar tazkirachiligiga samarali ta’sir etgan. Tazkirada qasida, ruboiy, masnaviy, qit’a, g‘azal, lug‘z kabi janrlar o‘rin olgan. Bularni biz tazkiradagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkin.

Asarda badiiy san’atlarga doir shoirlar ijodidan bir qator misollar keltirilgan: tarse’, tajohil ul-orif, talmeh, tardi aks va boshqa badiiy san’atlarni uchratishimiz mumkin (Boltaboyev, 2019, 234-bet). Avfiy adabiyotshunos sifatida o‘z tazkirasida shoirlar ijodini keltirish bilan bir qatorda, umuman adabiyot nazariyasi, xususan she’riyat muammolarini ham ayrim o‘rinlarda keltirib o‘tadi. Tazkirada o‘zi tilga olgan shoirning qaysi tilda ijod qilganiga ham befarq qaramaydi. “Lubobu-l-albob” IX-XIII asrlar adabiy hayotining muhim bir hujjatidir. Bu asar o‘z davridagi adabiy hayotni ma’lum darajada yoritib berish bilan birga, so‘z san’atining taraqqiyotiga ham xizmat qildi. Fors tazkirachiligining to‘ng‘ich asari bo‘lgan “Lubobu-l-albob” o‘zidan keyin bir qator tazkira, majmua va bayozlarning vujudga kelishiga yo‘l ochdi va bir namuna bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avfiy, B. (2014). Lubobu-l-albob. Toshkent: Mumtoz so‘z.
2. Axmedov, B. (1967). Davlatshoh Samarqandiy. Toshkent: Fan.
3. Boltaboyev, H. (2019). Jahon adabiyotshunosligi tarixi. Toshkent: Mumtoz so‘z.
4. Homidjon, H. (1999). Ko‘hna sharq durdonalari. Toshkent: Sharq.

SAYFI SAROYI TATABBU'LARI POETIKASI

Asadullayeva Munira A'zamjon qizi,
ToshDO'TAU, O'FF 2-kurs
Asadullayevamunira26@gmail.com
Ilmiy rahbar:fil.fan.dok DilnavozYusupova

Annotatsiya.*Ushbu maqolada Sayfi Saroyining Mavlo Qozi Muhsin, Mavlono Is'hoq, Mavlono Imod Mavlaviy, Ahmad Xoja as-Saroyi kabi zamondosh shoirlarning g'azallariga yozgan tatabbu'lari "ilmlar uchligi"-ilmi badi', ilmi aruz,ilmi qofiya asosida poetik tahlil qilingan. Tatabbu'lar xususiyati ochib berilgan. Uslublar va misralardagi so'z qo'llash nozikliklari badiiy va ilmiy jihatdan namoyon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Tatabbu', "ilmlar uchligi", badiiy san'atlar, qofiya,g'azal turlari*

Abstract. *This article Sayfi Sarayi's prefaces to the ghazals of contemporary poets such as Mavla Qazi Muhsin, Mavlana is'haq, Mavlana Imad Mavlavi, Ahmad Khoja as-Sarayi are poetically analyzed on the basis of the "three sciences"-ilmi badi', ilmi aruz, ilmi qafiya. The characteristics of tatabbu' are revealed. The subtleties of use of words in styles and verses are artistically and scientifically demonstrated.*

Keywords: *Tatabbu', "three sciences", artistic arts, rhyme, ghazal types*

Sayfi Saroyi – XIV asrda yashab ijod etgan va shoir va tarjimon sifatida tanilgan yirik namoyandalardan biri. Sa'diy Sheroziyning "Guliston"asarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning ijodida tatabbu'lar ham salmoqli o'rin egallaydi. Shu bilan birga, u bilan bir davrda qalam tebratgan Qozi Muhsin, Mavlono Is'hoq, Mavlono Imod Mavlaviy, Ahmad Xo'ja as-Saroyi kabi shoirlarg'azallariga o'xshatmalar yozgan va mushoira kechalari (yuqoridagi shoirlar bilan) o'tkazgan. Adabiyotimizda shoirning ijod namunalari va zamondoshlari haqidagi ma'lumotlar yetarli emas. Ma'lumki, tatabbu' (ar. biror narsaning izidan borish; kuzatish) – o'zga bir shoir she'ridan ta'sirlanib, undagi vazn, qofiya va radifni saqlagan holda asar yaratish. U san'at yana nazira, o'xshatma va javobiya deb ham nomlanadi. Mumtoz poetika deganda "ilmlar

uchligi” (ilmhoyi segona-she’riyat masalalari bilan shuG‘ullanuvchi tarmoq) nazarda tutiladi (Yusupova, 2020, 191-bet). Bu ilm alohida uchta soha: ilmi qofiya, ilmi badi’, ilmi aruzlarni o‘z ichiga oladi. Uchala ilmlarni jamlagan holda yuqorida ismlari keltirilgan shoirlar g‘azallarini va Sayfi Saroyining ularga yozgan javobiyalarini tahlil qilamiz. Mavlo Qozi Muhsin:

Sevdugum ban odamiylar jonidur,

Qamu xublar xubining sultonidur.

Kechti Layli, kechti Shirin xubliG‘i

Ushbu kun menim shahim davronidur…

Bug‘azal yetti baytdan iborat. Vazni – ramali musaddasi mahzuf, ya’ni *foilotun\foilotun\foilun.*

Taqte’si: -V--/ -V--/ -V-

Ushbu g‘azal **oddiy yoki odatiy** (adabiyotshunoslikdagi g‘azal turlari) turiga kiradi. Qofiyalanishi: a-a, b-a, c-a, d-a… Mumtoz she’riyatda ko‘p uchraydigang‘azal turi hisoblanadi. Qofiyalari: ***jonidur-sultonidur, davronidur, hayronidur, darmonidur, qonidur, Kan’oniydur, rahmoniydur.*** G‘azal qofiyalariga nazar tashlasak, “n” harfi raviy va undan keyin harflarning davom etishi bilan mutlaq qofiyani yuzaga keltiradi. Bilamizki, qofiyalar o‘zak tarkibiga ko‘ra bir necha turlarga ajraladi. Yuqoridagi g‘azalning qofiyalari murdaf qofiya turiga misol bo‘ladi. Bunday qofiya turida raviy harfidan oldin cho‘ziq unli ishtirok etganini ko‘rishimiz mumkin.

Ilmi badi’ning asosini badiiy san’atlar tashkil qiladi. Ular, ya’ni badiiy san’atlar uchta katta guruhga bo‘lingan (Atoulloh Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi” risolasida): lafziy (so‘z shakli bilan aloqador bo‘lgan san’atlar), ma’naviy (o‘xshatish va dalillash asosidagi san’atlar) va mushtarak (shakl va ma’no munosabatlariga asoslangan san’atlar) (Yusupova, 2020, 251-252-betlar) g‘azaldagi har bir bayt mubolag‘a bilan “to‘yintirilgan”. Bu birinchi baytdanoq namoyon bo‘ladi. Shoir yorini Eron go‘zallaridan eng go‘zalining sultoni (Qamu xublar xubining sultonidur) deb ta’riflagan. Ikkinchi baytdagi Layli va Shirin-adabiy asar qahramonlari hamda 6-baytda qo‘llangan Yusufi Kan’oniy – Ya’qub

alayhissalomning o‘g‘li kabi obraz va tarixiy shaxslar orqali talmih san’ati hosil bo‘lgan. 4- baytda yangog‘ (yanoq) va dudog‘ (lab) so‘zlari o‘zaro ma’no jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lganligi tufayli **tanosub** san’ati yuzaga kelgan. G‘azal tahlilida sanab o‘tilgan san’atlar (tanosub, mubolag‘a, talmih) ma’naviy san’atlar qatoriga kiradi.

Xuddi shu vazn va qofiyada Sayfi Saroyi aytadi:

Ul yuzli oykim, jahonning jonidur,

Bu zamona xublarining xonidur.

Yosamin tan, qomati sarvi ravon,

Zulfi jannat bog‘ining rayhonidur…

Qofiyalari*:* ***jonidur-xonidur, rayhonidur, fattonidur, qurbonidur, nuroniydur, davronidur, hayronidur.*** Badiiy san’atlarning qo‘llanilishi Muhsinning g‘azalidan bir muncha farq qiladi. Bunda tashbih san’atidan ko‘proq foydalanilgan. Tashbih o‘xshatish san’ti demakdir. Uning bir necha qismlari mavjud. Ul yuzi oykim (1-bayt) deb tasvirlaganda, ul yuzi (yorning yuzi)-mushabbah, oykim-mushabbahun bih. 2-bayt butunicha tashbih san’atida. Ko‘zlari davri qamar (3-bayt), qoshi yosin (4-bayt), qamar yuz (6-bayt) kabi o‘xshatishlarda tashbihning ikki unsuri-mushabbahun va mushabbahun bih qatnashgan. Tan, qomat, zulf (2-baytda); kirpug, qosh; o‘q, nishon (4-baytda); ko‘z, yuz (6-baytda) so‘zlari tanosub san’atini hosil qilgan.g‘azalning maqta’sida mubolag‘a o‘rinli qo‘llangan. Masalan, Go‘yo Haq taolo (Yaratgan) sun’ining (yaratiqning) go‘zalligiga hayron. Muhsinning g‘azalida mubolag‘a san’ati asosiy o‘rin tutgan bo‘lsa, Saroyining Muhsinning g‘azaliga bog‘lagan tatabbu’sida esa tashbih san’ati ustunlik qiladi. Mavlono Is’hoq g‘azaliga to‘xtalamiz endi.

Nazar qil bizga bir soat, ayo mahbubi ruhoniy

Aningtek bizni xush ko‘r kim bekansun aqli ruh oni

Ko‘zumning babaki ichra xayoling naqsh erur mutlaq,

Yana aqlim sening husnung tangirG‘ab fikri hayroni…

7 baytdan iborat ushbug‘azal hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Taqte’si: **V---/V---/V---/V---**

Bu g‘azal ham yuqoridagi g‘azal kabi oddiy (odatiy) turi hisoblanadi. Qofiyalanishi: **a-a, b-a, c-a, d-a…** Qofiya turi esa mutlaq qofiya hisoblanadi. Ruhoniy va ruh oni (1-bayt) so‘zlari tajnisni paydo qilgan. Zanahdoning qudug‘i, Iskandar, Xizr obi hayvoni, Nuh to‘foni kabi tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar orqali talmih san’ati yuzaga kelgan. “Qaro zulfing zanjirtek” birikmasida esa tashbih san’ati keladi. Tashbihning mushabbah (zulf), mushabbahbihi (zarjirtek), odoti tashbih (-tek) qismlari mavjud. Yostiq, to‘shak (6-bayt); bosh va yon so‘zlarida tanosub san’ati qo‘llangan. Ba’zi misralarida so‘z o‘yinlari va mubolag‘alarni mohirona o‘rniga qo‘ygan. Xuddi o‘sha vazn va qofiyada Sayfi Saroyi aytadi:

Taolalloh, zehn surat zehn mahbubi ravhoni,
Kim oning husni shavqindan ko‘ngillar bo‘ldi nuroni.
Mufarrih shevali dilbar, tili to‘ti, so‘zi shakkar,
Kiyik ko‘zli, qamar manzar, malohat mulki sultoni…

Yuqoridagi g‘azallardan ajralib turadigan jihati – uning g‘azali musajja (ikkinchi baytdan boshlab ichki qofiya qo‘llash) g‘azal turida yozilganligi.

*Mufarrah shevasi **dilbar**, tili to‘ti, so‘zi **shakkar**,*
*Kiyik ko‘zli, qamar **manzar**, malohat mulki sultoni.*

Dilbar, shakkar va manzar baytdagi ichki qofiyalar.g‘azalning tuzilishiga (ketma-ketligiga) va mazmuniga sinchkovlik bilan nazar tashlasak, ta’did san’atini boshdan oyoq qo‘llagani seziladi. Ta’did-so‘zlarning sanash ohanggi va ketma-ketligi orqali ta’kid kuchayishi. Tabiiyki, so‘zlarda sanash ohanggi bor ekan, tanosub va tashbih san’atlari ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, ikkinchi baytda mufarrih shevali, tili va so‘zi kabi birikma va so‘zlar tanosubni yuzaga keltirgan. Va shu bayt to‘lig‘icha tashbih san’atidan tashkil topgan. Bo‘yidur sarvning toli, yuzi jannat gulistoni (3-bayt); kunashtek (4-bayt); qoshing bayram oyidur (7-bayt) kabilar ham tashbihni hosil qilgan. Birinchi va beshinchi baytlarida (taolalloh; ey dilbari manzur) nido san’atidan foydalanilgan. Nido-lirik qahramonning ichki tuyg‘ulari junbushga kelganda olamdagi istagan narsaga murojaat qilishi.

Mavlono Is'hoqg'azalida talmih san'atidan foydalanib, tarixda o'tdan shaxslar va voqealar asosida hijronda ekanligi va yorning qo'l yetib bo'lmas hilqat ekanligini bayon qilgan. Va talmihlarning ishtiroki go'yo shoh tojiga o'rnatilgan qizil yoqut singari baytlarga o'zgacha go'zallik beradi. Sayfi Saroyining tepadagig'azalga o'xshatmasida esa talmeh san'atini birorta baytda qo'llanilmagan. Aksincha, Saroyi baytlarini tashbihlar bilan ifodalagan. Mavlono Imod Mavlaviy aytadi:

Dilbarimning nechaga tegru men qulin qinda tutar,

Men qilichmuman, ajabkim, meni ul qinda tutar.

Bu qilichdek meni qinda tutmasin, qilsin nazar,

Kim qilich ko'p tursa qinda, yuzin pas qinda tutar…

6 baytdan iborat ushbu g'azal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. "Tutar" radiflig'azal. **Qofiyalari:** qinda-qinda, qinda, zavqinda, shavqinda, qaroqinda, firoqinda. "n" harfi raviy bo'lib kelgan. G'azalning birinchi va ikkinchi baytlariga qarasak, tajnis qatnashririb nasif baytlar tizganini ko'ramiz. Masalan,

Bu qilichdek meni qinda tutmasin, qilsin nazar,

Kim qilich ko'p tursa qinda, yuzin pas qinda tutar (2-bayt).

G'azal mazmunidan kelib chiqsa, shoir "qin" so'zining turli ma'nolarini qo'llab, yorining vafosizligi haqida so'zlaydi. Tahlil qilingan boshqa g'azallarda hali uchramagan tazod san'ati shu g'azalning uchinchi baytida keladi.

Men tururman bu qin ichra mubtalo ojiz bo'lub,

*Ul ulashu **tunu kun** kendini zavqinda tutar.*

"Bu qilichdek" (2-bayt), "kundek" (6-bayt) so'zlari orqali tashbih san'ti hosil bo'ladi. Shoir o'quvchiga mubolag'aning " lazzat"ini beshinchi baytda beradi.

Qarshi boqsa olam uzra jumla aqlindan ketar,

Joduning aslin magar dilbar qaroqinda tutar.

Mavlaviyningg'azalida yuqoridagig'azallarga nisbatan o'zgachalik bor. Chunki shoir g'azalida boshqa zamondosh shoirlari qo'llamagan so'z (maqta'da yorga nisbatan "ko'rkli" deya murojaati) va she'r san'atidan foydalangan. Va g'azal

“qin” so‘zi tufayli nafosatlik kasb etadi. Bu so‘zg‘azalda qo‘llangan barcha ma’no va shakllarning markazi va jamlovchisi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘sha vazn va qofiyada Sayfi Saroyi aytadi:

Bu falak nechun meni doim qara qinda tutar,

Bu otim Sayf o‘ldiG‘uchunmi qara qinda tutar.

Qanda bir erdam eri bo‘lsa oni ko‘zdan solib,

Tekma bir erdamsiz erni ko‘z qaroqinda tutar…

Qofiyalari: qinda-qinda, qaroqinda, quloqinda, yangoqinda, ishtiyoqinda, firoqinda, ihtiroqinda. Mavlaviy g‘azalida yorga ko‘rkli deya sifat bersa, Saroyi esa malih (4-bayt) deya sifatlaydi.g‘azalda tajnis va tashbih san’atlari yetakchilik qiladi.

Ol *bilan* ***oldi*** *ko‘ngul mendan bir oy yuzli malih,*

Kim muanbar holi asvad ***ol*** *yangoqinda tutar. (4-bayt).*

Ol so‘zining turli ma’nolari orqali tajnis san’atini yuzaga keldi. To‘rtinchi (oy yuzli) va yettinchi (yuzi oy) baytlarida tashbih namunalarini ko‘rishimiz mumkin. G‘azallarni tahlil qilish jarayonida Sayfi Saroyining so‘z o‘yinlariga, qofiyalarga, san’atlarni o‘z o‘rnida mahorat bilan joylashtirilishiga didi baland ekanligini ko‘rib o‘tdik. Xulosa qilib aytganda,Mavlono Qozi Muhsin, Mavlono Ishoq, Mavlono Imod Mavlaviy, Ahmad Xoja as-Saroyi, Xorazmiylarning ijod namunalarini xolis kuzatgan holda shuni aytish mumkinki, ularning g‘azallari bir-birlaridan san’atlari, so‘z qo‘llash usullari bilan hamda shakllari bilan ajralib turadi. Sayfi Saroyi ijodi sermahsul bo‘lishi bilan birga, u so ‘zlardan ko‘p va ho‘p foydalangani ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tatabbu’larini kuzatish natijasida, u (Sayfi Saroyi) nazira bog‘lagan har bir shoir g‘azallaridagi obrazlar,baytlar soni, badiiy san’atlarning xilma-xilligi jihatidan Saroyining g‘azallari birmuncha ustunliklar seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfi Saroyi. (1968). She’rlar. Guliston. Toshkent. “G‘afur G‘ulom” nashriyoti.

2. Yusupova, D. (2020). Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Toshkent. Akademnashr.

3. Nasimxon Rahmonov. (2017). O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). “Sano-standart” nashriyoti. Toshkent.
4. Anvar Hojiahmedov. (2018). Aruz nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr.

SAYFI SAROYINING “GULISTON-BIT TURKIY” ASARI TARKIBIDAGI RUBOIYLAR POETIKASI

Hazratqulova Shohsanam Sharofiddinovna,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs
sharofiddinovnashohsanam@gmail.com
Ilmiy rahbar: fil.fan.dok., prof. Dilnavoz Yusupova

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sayfi Saroyining “Guliston-bit turkiy” asari tarkibidagi ruboiy va dubaytiylar poetikasi o‘rganilgan. Ayrimlari ilmi aruz, ilmi badiiy, ilmi qofiya asosida tahlil qilingan. Sayfi Saroyi ruboiylari poetikasining o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilgan va xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so‘zlar: *Shayx Ahmad Taroziy, Funun ul-balog‘a, Alisher Navoiy, Mezon ul-avzon, ruboiyi xosiy, musarra ruboiy.*

Abstract. *In this article, the poetics of rubai and dubaytiya in the work “Gulistan-bit Turki” by Sayfi Saroi is studied. Some of them have been analyzed based on the science of aruz, science of art, and science of rhyme. The specific aspects of the poetics of the rubai of Sayfi Saroi have been studied and conclusions have been drawn.*

Keywords: *Sheikh Ahmad Tarazi, Funun ul-Balaga, Alisher Navoi, Mezon ul-Avzon, Rubaiyi Khosi, Musarra Rubai.*

O‘zbek klassik adabiyoti lirik janrlarga boy. Bu janrlar shaklda ham, mazmunda ham o‘ziga xos sifatlarga ega. Ularning ruh, uslub, obrazlar tizimi jihatidan ham bir-biridan farq qiladigan qirralari ko‘p. Xullas, mumtoz she’riyatimizdagi janrlarning har biri mohiyat e’tibori bilan o‘zicha bir olam, ma’no, mahorat va badiiyat xazinasi. Xuddi shu gap ruboiyga ham tegishlidir. Arabcha “to‘rtlik” ma’nosini beruvchi ushbu kichik lirik janr ikki baytdan iborat bo‘lib **a-a-b-a** yoki **a-a-a-a** shaklida qofiyalanadi. Ruboiyning **a-a-b-a** tarzida

qofiyalangan shakli **ruboiyi xosiy yoki erkin ruboiy** deb ataladi. Shu vaqtgacha ko‘p o‘rinlarda, maktab darsliklarida ham ruboiyning **a-a-a-a** tarzida qofiyalanganini **taronayi ruboiy** deb yuritib kelinar edi, lekin oxirgi ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, ruboiyning ushbu shakli **ruboiya yoki ruboiyi musarra’** deb ataladi.(*Yusupova, 2020, 215-bet).* Ruboiyning janr xususiyatlari haqida **Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”** asarida dastlabki ma’lumotlar beriladi:*“Ruboiy to‘rt misra bo‘lur. Avvalg‘i va ikkinchi va to‘rtinchi misraida qofiya keltururlar. Va uchinchi misrai ixtiyoriydur. Agar qofiya keltursalar, ruboiyi musarra’ derlar... Va agar uchinchi misrada qofiya kelturmasalar, ruboiyi xosiy o‘qurlar”.(* Ahmad Taroziy, 1994-yil*).* Unga ko‘ra Navoiygacha turkiy she’riyatda ruboiyning qat’iy vaznda bo‘lishi talab qilinmagan. Ahmad Taroziy misol tariqasida keltirgan **forsiy to‘rtliklar hazaj bahrida**, **Nasimiy va Sakokkiydan keltirilgan ruboiylar esa ramal bahriga** tegishli. **Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”** asarida mazkur janr haqida shunday yozadi:*“Ruboiy vaznikim, oni “dubaytiy” va “tarona” ham derlar, hazaj bahrining “axram” va “axrab”idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va vaznedur bag‘oyat raboyanda”*(Alisher Navoiy, 1967, 157-b).

Sayfi Saroiyning 1968-yil G‘afur G‘ulom nashriyoti tomonidan nashr etilgan ***“She’rlar.Guliston”*** *kitobini o‘rganib chiqish jarayonida bu kitobning she’rlar qismida 1ta turkiy va 3ta forsiy,* “Guliston-bit turkiy” asari tarkibida esa 39ta turkiy tildagi ruboiy mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Bu ruboiylarning 7tasi ruboiyi xosiy, 1tasi esa ruboiyi musarra’dir. Ushbu 8 ruboiy hazajning axrab va axram shajaralarida yozilgan. Ruboiylarning barchasida ham vazn talablariga rioya qilinmagan, ularning qolgan 31tasini dubaytiylar tashkil etadi:

T/R	*Janr nomi*	*Soni*	*Keltirilish o‘rni*
1.	*Ruboiy*	*8*	*1-b,3; 2-b,1; 6-b,2; 8-b,2 .*
2.	*Dubaytiy(hazaj)*	*18*	*1-b,4; 2-b,4; 3-b,1; 4-b,1; 5-b,5; 6-b,2; 8-b,1.*

3.	*Dubaytiy(ramal)*	*6*	*1-b,4; 3-b,1; 8-b,1.*
4.	*Dubaytiy (xafif)*	*3*	*1-b,2; 7-b,1.*
5.	*Dubaytiy (mutaqorib)*	*2*	*1-b,1; 8-b,1.*
6.	*Dubaytiy(rajaz)*	*1*	*8-b.*
7.	*Dubaytiy (mujtass)*	*1*	*5-b.*

Dastlab, sof ruboiy janrida yozilgan to‘rtliklardan bir nechtasini ko‘rib chiqamiz:

O‘ltur bukun, o‘ltura bilursan, ey yor,

Oz o‘t biyisa, yonar bu shahru bozor.

Yo, qurmag‘a qo‘yma dushmaningni zinhor-

Kim, o‘q bila yiqmag‘a bukun fursat bor. (*Sayfi Saroyi*, 1968, 233-b)

O‘l	Tur	Bu	ku	n+o‘l	tu	ra	bi	Lur	san	ey	yor
-	-	V	V	-	V	-	V	-	-	-	~
Oz	o‘t	Bi	Yi	sa	yo	nar	Bu	Shah	ru	bo	zor
-	-	V	V	-	V	-	V	-	-	-	~
Yo	Qur	Ma	g‘a	qo‘y	ma	dush	ma	Ning	ni	zin	hor
-	-	V	V	-	V	-	V	-	-	-	~
Kim	o‘q	Bi	La	yiq	ma	g‘a	Bu	Kun	fur	sat	bor
-	-	V	V	-	V	-	V	-	-	-	~

Ushbu **a-a-a-a** tarzida qofiyalangan she’r **musarra’ ruboiy** hisoblanib, **axrab shajarisining hazaji axrabi makfufi solimi azall** --*V/V-V-/V---/ (maf’uvlu/mafoilun/mafoiylun/fo‘)* vaznida yozilgan. Qofiyadosh *yor-bozor-zinhor-bor* so‘zlari tuzilishiga ko‘ra **muqayyad qofiya** bo‘lsa, o‘zak tarkibiga ko‘ra **murdaf qofiyadir**. 1-misradagi 2 *o‘ltur* so‘zi **takrir** badiiy san’atini, 1-va 2-misradagi bir xil “r” tovushlari **tavzi’** badiiy san’atini yuzaga keltirgan. Hozirgi kunda ushbu badiiy san’at “alliteratsiya” deb yuritiladi.

Sahro elitek umr baqosi kechti,

G‘am javri dag‘i farax safosi kechti.

Jofiy saqinur, jafo biza qildim deb,

Qoldi anga bizdan ul, jafosi kechti. (*Sayfi Saroyi*, 1968, 85-b)

Sah	ro	E	li	tek	Um	r(i)	ba	Qo	si	kech	ti
-	-	V	V	-	-	V	V	-	-	-	-
G‘am	jav	Ri	da	g‘i	Fa	rax	sa	Fo	si	kech	ti
-	-	V	V	-	V	-	V	-	-	-	-
Jo	fiy	Sa	qi	nur	Ja	fo	bi	Za	qil	dim	deb
-	-	V	V	-	V	-	V	-	-	-	-
Qol	di	A	nga	biz	Da	n+ul	ja	Fo	si	kech	ti
-	-	V	V	-	V	-	V	-	-	-	-

Ushbu **“kechti”** radifli ruboiyi **a-a-b-a** tarzida qofiyalanganligi tufayli **ruboiyi xosiydir**. Qofiyadosh *baqosi-safosi-jafosi* so‘zlari tuzilishiga ko‘ra **mutlaq**, o‘zak tarkibiga ko‘ra **mujarrad qofiyadir**. Ruboiyning 1-misrasi **hazaji axrabi makfufi solimi abtar** --*V/V--V/V---/- (maf’uvlu/mafoiylu/mafoiylun/fa)*, 2-3-4-misralar esa **hazaji axrabi maqbuzi solimi abtar** --*V/V-V-/V---/- (maf’uvlu/mafoilun/mafoiylun/fa)* vaznida yozilgan. 4-misradagi *bizdan* so‘zining oxirgi tovushi o‘zidan keyingi *ul* so‘ziga qo‘shilib vazn talabiga ko‘ra **vasl** hodisasi yuzaga kelgan. She’rning dastlabki misrasida *–dek* o‘xshatish qo‘shimchasi orqali **tashbeh**, 2-misradagi *g‘am va farax* so‘zlari **tazod**, 3-misradagi *jofiy, jafo* so‘zlari **ishtiqoq** badiiy san’atlarini yuzaga keltirgan.

Endilikda esa kitobda keltirilgan dubaytiylar tahlini ko‘rib chiqamiz. Asarda eng ko‘p uchraydigan dubaytiy hazajda ekanligini hisobga olgan holda, kitobda anchayin kam uchraydigan ramal, xafif, mutaqorib, rajaz, mujtass vaznlarida yozilgan dubaytiylarni tahlilga tortamiz:

Boshimiz ustunda bu xalqi jahon,

Sayr etgaylar er uzra ko‘b zamon.

Eldan elga keldi bizga mamlakat,

Eyla ham ketkay kelib eldan ravon. (*Sayfi Saroyi*, 1968, 82-b)

Bo	shi	miz	Us	tun	Da	bu	xal	qi	ja	hon

-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Say	r(i)	Et	gay	lar	E	r+uz	ra	ko‘p	za	mon
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
el	da	n+el	Ga	kel	Di	biz	ga	mam	la	kat
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Ey	la	ham	ket	kay	ke	lib	el	dan	ra	von
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-

Ushbu ruboiyi xosiy **ramal bahrining musaddasi mahzuf** vaznida yozilgan. 2-misradagi *er* so‘zidagi oxirgi *“r”* tovushi undan keyingi uzra so‘zining birinchi bo‘g‘iniga, 3-misradagi *eldan* so‘zidagi *“n”* tovushi o‘zidan keyingi so‘zning dastlabki bo‘g‘iniga qo‘shilib vazn talabiga ko‘ra **vasl** hodisasi yuz bergan. Qofiyadosh *jahon, zamon, ravon* so‘zlari tuzilishiga ko‘ra **muqayyad**, o‘zak tarkibiga ko‘ra **murdaf** qofiyadir. 3-4-misralardagi *keldi-ketdi* so‘zlari **tazod** badiiy san’atini yuzaga keltirgan.

Malik ne’mati ul kishiga xarom-
Ki, fursat damin kuzatmas tamom.
Ketar qadring ul dam kelib so‘zlasang,
Ulular qotinda yaramas kalom. (*Sayfi Saroyi*, 1968, 63-bet)

Ma	lik	ne’	ma	ti	ul	ki	shi	ga	xa	rom
V	-	-	V	-	-	V	-	-	V	-
Ki	fur	sat	Da	mi	ni	ku	zat	mas	ta	mom
V	-	-	V	-	-	V	-	-	V	-
Ke	tar	qad	Ri	ngul	dam	ke	lib	so‘z	la	sang
V	-	-	V	-	-	V	-	-	V	-
U	lu	lar	Qo	tin	da	ya	ra	mas	ka	lom
V	-	-	V	-	-	V	-	-	V	-

Bu ruboiy ham **a-a-b-a** tarzida qofiyalanganligi tufayli **ruboiyi xosiydir**. Qofiyalanib kelgan *xarom, tamom, kalom* so‘zlari tuzilishiga ko‘ra **muqayyad**, o‘zak tarkibiga ko‘ra esa **murdaf qofiya** turiga kiradi. She’r **mutaqqoribi**

musammani mahzuf vaznida yozilgan. 3-misradagi *ketar, kelar* so‘zlari **tazod** badiiy san’atini yuzaga keltirgan.

Ey jafoning elin qo‘yub belga,
Ne qadar qilg‘asan bu zulm elga.
Sog‘in ul kunnikim tutub netar,
Malokul-mavt xalqingi elga. (*Sayfi Saroyi*, 1968, 61-bet)

Ey	ja	Fo	ning	e	lin	qo‘	yub	bel	ga
-	V	-	-	V	-	V	-	-	-
Ne	qa	Dar	qil	g‘a	san	bu	zul	m+el	ga
-	V	-	-	V	-	V	-	-	-
So	g‘i	n+ul	kun	ni	kim	tu	tub	ne	tar
-	V	-	-	V	-	V	-	-	-
Ma	lo	Kul	mav	t(i)	xal	qi	ngi	el	ga
-	V	-	-	V	-	V	-	-	-

She’rning qofiyalanish shakli **a-a-b-a** shaklida ekanligi uning **ruboiyi xosiy** ekanligini ko‘rsatib turibdi. Qofiyalanib kelgan *elga, belga, elga* so‘zlari tuzilishiga ko‘ra **mutlaq** , o‘zak tarkibiga ko‘ra **mujarrad qofiya** turiga kiradi. Ruboiy **xafifi musaddasi maxbuni maqtu’** *–V--/V-V-/-(folotun/mafoilun/fa’lun)* vaznida yozilgan. 2-3-misralarda vasl hodisasi mavjud. 4-misrada *Malokul-mavt* ya’ni o‘lim farishtasi Azroilning eslanishi she’rda **talmeh** san’atini yuzaga keltirgan.

Ey g‘arra bo‘lg‘an molina bo‘lur vujuding kal-adam,
Hasrat bilan eltur seni erga bu dinoru diram.
Dunyo matonidan tilar bo‘lsang tamattu’ olmag‘a,
Ko‘rguz xaloyiqqa saho chun haq senga qildi karam. (*Sayfi Saroyi*, 1968, 229-b)

Ey	g‘ar	ra	bo‘l	g‘an	mo	li	na	bo‘	lur	Vu	ju	ding	ka	la	dam
-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Has	rat	bi	lan	El	tur	se	ni	er	ga	Bu	di	no	ru	di	ram

-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Dun	yo	ma	to	Ni	dan	ti	lar	bo‘l	sang	Ta	mat	tu’	ol	ma	g‘a
-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Ko‘r	guz	xa	lo	yiq	qa	sa	ho	chun	haq	Se	nga	qil	di	ka	ram
-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-

Ushbu she’r **rajazi musammani solim** vaznida yozilgan kitobdagi yagona dubaytiy hisoblanadi. Qofiyalangan *adam, diram, karam* so‘zlari tuzilishiga ko‘ra **mutlaq qofiya** hisoblansa, o‘zak tarkibiga ko‘ra **mujarrad qofiyadir**. Qofiyaga tanlangan so‘zlarda biroz saktalik bor. Dubaytiyda pand nasihat ohangi sezilib turganidan ushbu she’rda **kalomi jomi’**(ar.jamlovchi, umumlashtiruvchi so‘z) (*Yusupova D, 2020, 276-b).* badiiy san’ati mavjudligini bilishimiz mumkin.

Endilikda kitobdan o‘rin olgan yagona **mujtass** vaznida yozilgan dubaytiyni tahlil qilamiz:

Sen ul zarifi jahonsan, ayo yuzi gulgun,
Bo‘lub jamolinga oshiq kunash kelur har kun.
Bu husn ichinda naziring ne erda bo‘lg‘aykim,
Yuzi qamar harakotu shamoili mavzun. (*Sayfi Saroyi*, 1968, 174-bet)

Se	n+ul	Za	Ri	Fi	ja	hon	san	a	yo	yu	zi	gul	gun
V	-	V	-	V	V	-	-	V	-	V	-	-	-
Bo‘	lub	Ja	Mo	Li	nga	o	shiq	ku	nash	ke	lur	har	kun
V	-	V	-	V	V	-	-	V	-	V	-	-	-
bu	hus	n+i	chin	da	na	zi	ring	ne	er	da	bo‘l	g‘ay	kim
V	-	V	-	V	V	-	-	V	-	V	-	-	-
Yu	zi	Qa	Mar	ha	ra	ko	tu	sha	mo	i	li	mav	zun
V	-	V	-	V	V	-	-	V	-	V	-	-	-

Dubaytiyda qofiyalangan gulgun, kun, mavzun so‘zlari tuzilishiga ko‘ra muqayyad, o‘zak tarkibiga ko‘ra esa mujarrad qofiya turiga kiradi. She’r **mujtassi musammani maxbuni maqtu’** *V-V-/VV--/V-V-/-- (Mafoilun, failotun,*

mafoilun,fa'lun) vaznida yozilgan. 1-3-misralarda vazn talabiga ko'ra **vasl** hodisasi yuz bergan. She'rda **tashbeh** va **tashxis** badiiy san'atlari mavjud.

Sayfi Saroyi ruboiylari asosan pand-nasihat ruhida bo'lib, **hazaj, ramal, rajaz, mutaqorib, xafif va mujtass** vaznlarida yozilgan. **Tazod, tashbeh, talmeh, tavzi', takrir, tashxis va ishtiqoq** badiiy san'atlaridan unumli foydalanilgan. Qofiyaning barcha turi mavjud. Lekin tuzilishiga ko'ra **muqayyad,** o'zak tarkibiga ko'ra **murdaf qofiya** ko'proq uchraydi. Kitobda jami **39ta ruboiy** mavjud. Ruboiylarning katta qismi qariyb **80%ini dubaytiylar** tashkil etadi.

Sayfi Saroyi yashagan davrda ruboiy yozishning qonun-qoidalari to'liq rivojlanib ulgurmaganligini inobatga olsak, uning ijodida ruboiy shaklidagi xalq og'zaki ijodida tarqalgan **she'r(dubaytiy)**lar uchrashi tabiiy hol. Lekin shu bilan birga asarda ruboiyning barcha vazn qoidalariga rioya qilingan **7ta ruboiyi xosiy va 1ta musarra' ruboiy** mavjud. Professor Dilnavoz Yusupovaning "Aruz va mumtoz poetikaga kirish" darsligida turkiy adabiyotda ruboiyning ilk bor qo'llanilishi **Hofiz Xorazmiyning**, **musarra' ruboiyning** qo'llanilishi esa **Alisher Navoiyning** nomi bilan bog'liqligi haqida ma'lumot beriladi.

Sayfi Saroyi ijodida ruboiy janrining qo'llanilishiga oid xulosalar esa turkiy adabiyotda ruboiyning uchrashiga doir fikrlarni yana bir bor ko'rib chiqishimiz kerakligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

3. Alisher Navoiy. (1967). Mezon ul-avzon. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.
4. Ahmad Taroziy. (1994). Funun ul-balog'a. O'zbekiston adabiyoti va san'ati.
5. Hojiahmedov A. (2018). Aruz nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.
6. Yusupova D. (2020). Aruz va Mumtoz poetikaga kirish. Toshkent: Akademnashr.
7. Sayfi Saroyi. (1968). She'rlar.Guliston. Toshkent: G'afur G'ulom.
8. Sayfi Saroyi. (1986). Gulistoni bit-turkiy". Toshkent: G'afur G'ulom.
9. Haqqulov I. (1981). O'zbek adabiyotida ruboiy. Toshkent: Fan.

TURKISTONDAGI IJTIMOIY-MADANIY AHVOLGA BIR NAZAR: FITRATNING NASRIY ASARLARI MISOLIDA

Jovliyev Azamat Shamamatovich,
ToshDO'TAU Adabiyotshunoslik
yo'nalishi 2-kurs magistranti
azamatjovliyev@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning* **"***Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususinda qilg'an munozarasi" va "Hind sayyohi bayonoti" asarlari asosida Buxoro amirligi aholisining madaniy-siyosiy va ijtimoiy ahvoli bayon etilgan.*

Abstract. *This article describes the cultural, political and social situatin of the population of Bukhara Emirate based on the works of Abdurauf Fitrat "Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususinda qilg'an munozarasi" and "Hind sayyohi bayonoti".*

Kalit so'zlar: *jadid maktablari, madaniy hayot, mudarris, firangi, hind sayyohi.*

Keywords: *jadid schools, cultural life, mudarris, firangi, indian tourist.*

Bizga ma'lumki, Abdurauf Fitratning *"Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususinda qilg'an munozarasi"* va *"Hind sayyohi bayonoti"* asarlarida boshqa bir yurt vakili tilidan Buxoro, umuman, turkistonliklar aholisining yashash sharoiti, ijtimoiy ahvoli va madaniy hayoti aniq bo'yoqlarsiz yoritib berilgan. XIX asr oxirida Buxoro amirligi aholisi 2 millionga yaqin bo'lgan. Uning tarkibiga Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo vohasi va hozirgi Tojikiston hududining ayrim viloyatlari, hozirgi Turkmanistonning Murg'obgacha bo'lgan bir qismi kirar edi. Shahar va qishloqdagi aholining ko'pchilik qismida o'zbeklar, tog' va tog'oldi joylarida tojiklar yashar, Marv tomonlarda esa turkmanlar, shimoliy va sharqiy yerlarda qozoq va qirg'izlar yashar edi. Rusiya podsholigi bilan 1868-yilgi shartnoma Buxoro amirligi taqdirini tubdan o'zgartirib yubordi. Avvalgi amir hokimiyati hududi suverenitet va mustaqillikdan mahrum bo'lib, Podsho Rossiyasiga qaram va tobe bir davlatga aylanib qoldi.

Garchi siyosiy mustaqilligidan mahrum bo‘lsa-da, Buxoro amiri o‘z fuqarolari ustidan cheklanmagan hokimiyatini qo‘lida saqlab qolgan edi.

Fitrat Buxoro jamiyatining ijtimoiy-madaniy ahvoli xususida: *“Buxoroning najib millati bo‘lg‘an vatandoshlarim, birmuncha vaqtdan beri jadid va qadim ixtilof chiqqani ba’zi millat xoinlarining xato va fasodlaridan boshqa narsa emasdir. Muqaddas vatanimizni parchalab, uning ahli jamoasini jadid va qadim unvonlari ostida ikki firqaga ajratib, ularning birini ikkinchisiga dushman qilib qo‘ydilar. Xor va xarobligimizning asosiy sababi musulmonlarning emas, balki o‘sha ma’nisiz ixtilofdan ma’lum bo‘ldi.”*, (Abdurauf Fitrat, 2000, 45-bet) deya ta’kidlab o‘tar ekan, o‘sha davrdagi aholi madaniy-siyosiy qatlami orasidagi jadid-qadim firqalarining jamiyat rivoji yo‘lidagi mas’luliyatni angalshi lozimligini aytadi. Ikki firqaga bo‘linmasdan birtan-u bir jon bo‘lib, aholining ijtimoiy va siyosiy ongini uyg‘otishga birdek mas’ul bo‘lishlarini aytadi. *“Binobarin, har kim o‘zini dini mubini islomning xizmatida bilsa, uyimizni buzg‘uchi bu ixtilofni biz – buxorolilar orasida ko‘tarishga harakat qilsin.”* (Abdurauf Fitrat, 2000, 46-bet) Muallif, avvalo, o‘zi shu ishga birinchilardan bo‘lib tashabbus ko‘rsatgani holda, jamiyat hayotidan arz qiluvchi bir risola yozamoqchi bo‘lganligini aytadi: *“Banda ham bu maslaki muqaddasning soliklaridan biri bo‘lgan holda, shu kunlarda bir hikoyat yozdimki, bu buxoroli bir mudarrisning Xajg‘a bora turib, Hindistonda bir farangi ila usuli jadida ham usuli qadim xususinda qilg‘an munozarasi bo‘lib, mazkur hikoyat ushbu masalani tugal hal qilg‘andir.”* (Abdurauf Fitrat, 2000, 48-bet) Fitrat risolani yozar ekan, maslaning ahamiyatini, jiddiyatini shu kichik bir asar orqali shoyadki bilsa, o‘sha jadid-qadim jamoalari ko‘zlarini ochsa degan maqsadni ko‘zlaydi. **“***Shoyad bir risola suratida va buxorolilarning suhbati tarzida tartib qilib, nashr qilmoqni istaganim shu vasila ila muhtaram vatandoshlarim mas’alaning haqiqatidan ogoh topib, o‘rtadagi ixtiloflarni tark qilib, hammalari ittifoq bilan hidoyat yo‘liga qadam qo‘ysalar. ”* (Abdurauf Fitrat, 2000, 50-bet)

Tarix kitoblarining o‘sha davrdagi *“zarvaraqlari”*ga qaraydigan bo‘lsak, Buxoro aholisining, dehqonlarining aksariyat ko‘pchiligi kambag‘allikda kun

kechirardi, chunki yer va ish hayvonlari amir va uning amaldorlari qo‘lida edi. Aholining ilm toifalari ham madrasalarda 200-300 yil oldingi ta’lim dasturlariga amal qilgan holda, darslarni o‘rganib 20-30 yillik eng gullaydigan umrini madrasada o‘tkazardi. Shu davr yuqori qatlam aholisining nazarida hamma odamning ilmi bo‘lishi mumkin emas. Agar hammasi olim bo‘lib ketsa, boshqa ishlar egasiz qoladi degan iptidoiy tushunchalar bo‘lgan. Buxoro shahrining o‘zida 70 ming atrofida aholisi bo‘lganini hisobga oladigan bo‘lsak, uning bor yo‘g‘i 10 dan biri ilmni qisman egallagan. Ular ham 20-30 yil umrini eskicha ta’lim dasturi bilan savod chiqargandan so‘ng kasb egallagan. Bu holatni asardagi mudarris bilan farangining suhbatidan bilib olish mumkin.

Asarda Buxoro yurtining har tomondan ahvoli shikoyat yo‘sinida, tanqid yo‘sinida ochib berilgan. Buxoroda shunchalik ko‘p madrasalar bo‘lsa-da, u yerdagi ta’lim tizimining, yuqorida aytilganidek, eski shaklda qolayotgani kishini hayratga solidi. Davlat arboblari chetda tursin, hatto ilm ahllari, ziyoli ahllarini bu holat parvoyiga ham kelmaydi. Ilm ahllaridan bo‘lgan mudarrisning quyidagi gapi, ayniqsa, juda hayratda qolarli. *“Farangi: ... Endi aytingchi, bu ikki milyo‘n odamning hammasi ham ilmlimi yo yo‘q? Mudarris: Yo‘q, hammasining ilmli bo‘lishi mumkin emas. Agar hmmasi olim bo‘lib ketsa, boshqa ishlar egasiz qoladi. Mudarris: Ha, mening aqidam shudir. Yurtdoshlarim har shu aqidaga sherikdirlar. Agar hamma kishilar ilm tahsili bilan band bo‘lsalar, boshqa kasb-u korlar qolib ketib, dunyo xarob bo‘lar”.* (Abdurauf Fitrat, 2000, 53-bet) Bunaqangi jaholatdan, madaniyatning ma’nosizlashganini ko‘rishimiz mumkin. Aslida, ilmga e’tibor berilsa, xalqning ilmiy va madaniy salohiyati oshadi va jamiyat taraqqiyotida muhum ahamiyat kasb etadi. Farangining gaplaridan ham bilish mumkinki, Yevropa chuqur g‘aflat uyqusidan ilm tufayligina uyg‘ondi, qishloq xo‘jaligi yangicha usullar hisobiga o‘zining oldingi an’analarini saqlagan holda rivoj topdi. Buxoro yerlarida esa eskicha usuldagi holat davom etgan. Ta’lim va ma’daniyatning islohoti haqida Fitratning *“Hind sayyohi bayonoti”* asarida ham quyidagi fikrlar keltirigan. Buxoroning ta’lim va madaniy islohi Mirzo Sheroziy degan ulamo tomonidan ikki yuz yil oldin amalga oshirilgan va bunda

madrasalarda darslar 20-30 yil davomida har bir asarning bosh sahifalarinigina yodlash, ma'lum duolarni takror etish bilan davom etgan, arab tilini o'rganishdagi holat ham xuddi shunday bo'lgan. Hindistonlik sayyoh tilidan: *"Mana ikki yuz yildirki, o'zining ilmiy qimmatini yo'qotmish. Mirza Sheroziyning kelishi bilan Buxoro ulamolari "ziyodati lafzi salosin" ma'nisini tahqiq etishdik naf'siz ishg'a berilib, adashmishlar. Turkistonlilarning ko'bchiligi ayni shunda tahsil ko'rganlari bois buxorolilarga ergashib, ular ham jaholat va g'aflat botqog'iga botmishlar. Alal-oqibat madaniyat osmonining porloq yulduzi, insoniyat kitobining nurli shifasi bo'lmish Turkistonni do'stu dushman oldida eshitish va gapurish bobida uyatliq bir holg'a etkazmishlar, halokatg'a mubtalo etmishlar."* (Abdurauf Fitrat, 2000, 98-bet). Muallif shuningdek, G'arb madaniyati va ilmi haqida to'xtalarkan, G'arb bir paytlar chuqur madaniyatsizlik va jaholat uyqusida ekanligini ta'kidlaydi. Ular salib yurishlari vaqtida va sharqlik savdogarlarning ta'sirida Islom svilizatsiyasini, Sharqning buyuk madaniyatini o'zlarida joriy qila boshladi. Va bu ularni nafaqat jismoniy tomondan, balki madaniy-ilmiy tomondan rivojlantira bordi. Buxoro ahlining ba'zi ulomolari o'z manfaatlari yo'lida hatto hadislarni ham o'zlariga moslashitirib olish holatlari urf tusiga kirgan va buni Fitratning hindistonlik tilidan aytgan gaplaridan ham bilsa bo'ladi. "*Buxoro ruxoniylaridan eng mo'tabar maqomg'a ega bo'lmish bir jamoalari bugungi kunda haqiqiy ilmdan Mutlaq xabarsiz qolmishlar… Yigirma yil tahsil olib, yana yigirma yil dars berib, andin so'ngra muftiylik mansabiga erishganlar, Hadislar to'qib chiqarmishlar…*" (Abdurauf Fitrat, 2000, 99-bet) O'sha davrning taomiliga ko'ra madrasalarda muftiyni tayinlash jarayoni ham mutlaqo adolatdan yiroq, sinab ko'rish tekshirib ko'rishdan uzoq shaklda tashkil qilingani ham yetishajak mullabachchalarning taqdirini belgilagan. Natijada shu mullabachcha ham o'zining sarflagan xarajatlarini muftiy bo'lgan kezda ustozlaridan orttirib shogirdlaridan undirib olgan. *"Farangi: Sizning va yurtdoshlaringizning bu aqidasi botildir. Mudarris: Nega? Farangi: Shuning uchundirki, agar ilmga rag'bat dunyo xaroblig'i va ba'zi ishlarning egasiz qolishig'a sabab bo'lsa, "Ilmni Chindan bo'lsa ham izlang". Binobarin, Buxoro ishlari shu qadar jaholatg'a botganki,*

aholi ilmli bo‘lg‘anidan keyingina tartibga tushadi… Taassufki, Siz musulmonlar toifasi Qur’on karim va Hadisning ma’nolaridan juda yiroqlashib ketgansiz… Boshqacha fikr qilmaysizki bu muborak majmua (Qur’oni karim)ni Hazrati Hakimi Azal (Alloh) o‘zining buyuk farishtasi orqali olamning oqillarig‘a bekorga jo‘natmagan edi. Albatta, buning asrori bordirki U (Alloh)ning amrlarini amalda qo‘llaylik, uning ta’qiqlaridan saqlanaylik. Biz frangilar diningizning dushmani esakda, diniy xusumatlarimiz taqozo qilg‘anidek, Qur’on va hadislaringizni kuydirish o‘rniga, ulardan o‘z manfaatimiz nuqtayi nazaridan foydalanmoqqa, chanqog‘imizni qondirmoqqa o‘rgandik. Uning amrlarini amalga oshirdik va favqulodda taraqqiyotga erishdik. Va sizlar g‘aflatda qolib, Qur’on karimning saodatli hukmlaridan hamda hikmatli xabarlaridan bahra ololmay, tanazzul tubiga tushdingiz.” (Abdurauf Fitrat, 2000, 49-bet)

Xulosa qilib aytganda, Fitrat o‘sha yillarda yozgan asarlarida ham tarixiy o‘tmishga murojaat etganiga qaramay, mustamlakachilarning Turkistonda olib borgan g‘ayrimilliy siyosatiga faol munosabat bildirib, zulm va zo‘ravonlikka asoslangan *“yangi tuzum”*ni keskin qoralagan. Shuningdek, bunga nafaqat tashqi mustabid tuzum, balki ichki siyosiy-itimoiy ahvol, madaniyat va qadriyatlarning buzulishi ham sabab bo‘lishini ko‘rsatib beradi. Jamiyatning jamiyat bo‘lishida, davlatning yuksak bir rivojlangan davlat bo‘lishida amaldorlar qatori yurtning ziyolilari, ulamolari, olimlari ham birdek mas’ulligini yuqoridagi asardan ham bilib olish mumkin. Fitrat ijodining shu davrdagi yetakchi motivi — mustamlakachilarga qarshi istiqlol uchun kurash g‘oyasi *“Chin sevish”* va *“Hind ixtilolchilari”* asarlarida, ayniqsa, yorqin ifodalangan. Dramaturg Turkistonda Sovet hokimiyati yillarida sodir bo‘layotgan fojiali voqealarni Angliyaning mustamlakasi bo‘lgan Hindistonga ko‘chirib, ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashayotgan hind ixtilolchi (istiqlolchi)lari siymosida, ma’lum ma’noda, o‘z vatandoshlari obrazini yaratdi. *“J. Neruning e’tirof etishiga ko‘ra, Fitratning bu asarlari hind xalqining mustamlakachilikka qarshi olib borgan kurashiga kuch va madad bergan.”*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. (2000). Tanlangan asarlar. I jild. Toshkent. Ma'naviyat.
2. Abdurauf Fitrat. (2003). Tanlangan asarlar.III jild. Toshkent. Ma'naviyat.
3. Boltaboyev,H. (2007). Fitrat va jadidchilik *ilmiy-tanqidiy maqolalar*. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nazriyoti.
4. kh-davron.uz elektron kutubxonasi.
5. www.ziyo.uz elektron kutubxonasi.

"QISASI RABG'UZIY" ASARIDA KELTIRILGAN JANRLAR TADQIQI

Latipov Abdulatif G'iyosiddin o'g'li,
ToshDO'TAU OTAT 2-kurs
abdulatiflatipov11@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi qissalar tarkibida kelgan adabiy janrlar tahlil etiladi. Rivoyat, hikoyat, hikmat, latifa, foyda kabi janrlardan parchalar o'rganiladi. Epik janrlarning qissalar mazmunini ochishdagi o'rni aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *Qisasi Rabg'uziy, savol va javob, hikoyat, rivoyat, latifa, foyda, janrlar.*

Abstract. *This article analyzes the literary genres included in the stories in the work "Qisasi Rabguzi". Excerpts from genres such as narration, story, wisdom, and anecdote are studied. The role of epic genres in revealing the content of stories is determined.*

Keywords: *Qisasi Rabguzi, question and answer, story, narration, anecdote, benefit, genres.*

Turkiy qavmlar orasiga Islom dinining kirib kelishi natijasida payg'ambarlar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan va Qur'oni Karim, hadislar asosida qurilgan asarlarni yaratish an'anaga aylandi. Shu jarayon turkiy qavmlar ichida Berkaxon hukmronligi davridan boshlab, to Oltin O'rda adabiy muhitigacha rivojlanib bordi. Mana shunday davrda yaratilgan Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari payg'ambarlar va avliyolarning hayot yo'li, faoliyati, ularning mo'jizalari, ularga berilgan xususiyatlar haqida ma'lumot beradi. Adabiyotshunoslikda bunday asarlar

tipiga agiografik asarlar deyiladi. Agiografik asarlar deganda payg‘ambarlar hayoti va faoliyati haqida ma’lumot beruvchi asarlarni tushunamiz. “Qisasi Rabg‘uziy” asari ham mana shunday asarlar sirasiga kiradi.

Ma’lumki, Rabg‘uziy haqida ma’lumotlar biror manba orqali bizgacha yetib kelmagan. Ayni shu asarda biz adib haqida ba’zi ma’lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Asar an’anaviy yo‘l bilan boshlangan, ya’ni Ollohga hamd, payg‘ambarimiz Muhammad(s.a.v)ga nat va asarni To‘qbug‘abekka atab yozgani uchun ham uning madhi keltirilgan. Muqaddimada adib asarni qachon yozganini keltirib o‘tadi. Unga ko‘ra asar hijriy 710-yil, milodiy 1332-yilda yaratilganini bilib olamiz.

Muallif asarni yaratishda manba sifatida Qur’oni Karimni va o‘zidan oldin yaratilgan bir qancha asarlarni ya’ni Abu Is’hoq Nishopuriyning forscha “Qisas ul-anbiyo”, Vahb ibn Munahhibning arab tilidagi “Ka’b ul-axbor” ni keltiradi. Bundan tashqari, Sharqda mashhur bo‘lgan Tustariy va Xoroniylarning “Qisas ul-anbiyo” larini ta’kidlab o‘tgan.

“Rabg‘uziyining “Qisasi Rabg‘uziy” asari boshqa “Qisas ul-anbiyo” lardan faqat tuzilishi va til jihatidangina emas, balki muallifning biron dalilni tasdiqlash yoki rad qilish uchun sinchkov olim sifatida munosabat bildirgani bilan farq qiladi.” (Rahmonov, 2017, 232-bet). Asar 72 qissadan tashkil topgan.Qissalar tarkibida epik janrlar – hikoyat, latifa, rivoyat, savol va javob, hikmat, hadis kabilar; Lirik janrlar – qasida, g‘azal, she’r, to‘rtlik kabilar mavjud. Quyida epik janrlarni o‘rganib chiqamiz.

Hikoyat. Bu janr qissalarning tarkibida berilgan. Rabg‘uziy qissaning qahramoni- biron payg‘ambar yoki boshqa shaxsning hayotidagi biron voqeani tasdiqlash, kitobxonning diqqatini jalb qilish uchun o‘sha voqea mazmuniga hamohang hikoyat keltiradi. (O‘sha manba. 241-bet) Deyarli har bir qissa tarkibida hikoyatlar uchraydi. “Hazrati Yusuf alayhissalom qissasi” tarkibida ham bir nechta hikoyatlarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Zulayho har xil yo‘llar orqali Yusuf alayhissalomga yetisholmagach uni zindonga soldirishi voqeasidan so‘ng Adolat haqida bir hikoyat keltiradi. Unga ko‘ra, Bir podshoh hajga borib,

hojilar qatorida turishni orzu qiladi. Ammo podshohlarning dushmani ko‘p bo‘lgani sababli haj safariga borolmaydi. Shunda podshoh vazirlaridan bir amal o‘rgatishlarini, u ham haj savobini topishini aytadi. Shunda vazirlardan biri shaharda oltmish karra haj qilgan buzrukvor borligini va undan bir martalik haj savobini sotib olishi mumkinligini aytadi. Podshoh u insonni topib bir martalik haj savobini sotishini so‘raydi. Buzrukvor: “Ey podshoh, men har bosgan qadamimni dunyo boyligiga sotaman.”,-deydi. Podshoh esa buncha boyligi yo‘qligini aytadi. Shunda buzrukvor: “ Zulmrasida kishiga bir marta adl qilib, dodiga yetsang va uning savobini menga bersang, men senga hamma hajimning savobini beraman”,-deydi. Xuddi shu mazmundagi hikoyat Xojaning “Miftoh ul-adl” asarida ham keltirilgan. Bu asarda zohid o‘zining yigirma marta amalga oshirgan hajining savobini podshohning bir soat adl qilganining savobiga alishishga rozi bo‘ladi. Bir soat qilingan adolat savobi odamlarning, farishtalarning va hurlarning ibodatidan ortiqligi aytiladi. Har ikkala asar ham podshohlarga atab yozilgani sababdan pand-nasihat, o‘git sifatida shunday mazmundagi hikoyat kiritilgan. Adiblarning bunday hikoyatlarni keltirishidan maqsad: podshohlarni adolatli bo‘lishga chaqirish va hech bir fuqaroga adolatsizlik qilmaslikka undash edi. Bir marta qilingan adolat 60 karra amalga oshirilgan haj-u inson,farishta,hurlarning ibotadidan ustunligini shu hikoyatlar orqali bilib olishimiz mumkin.

Latifa. Asarda uchraydigan latifa termini bugungi kundagi kulgi va yumorga asoslangan janrga aloqasi yo‘q. Asarga kiritilgan latifalarda mo‘jizaviy voqealar hikoya qilinadi. Mo‘jizaviy voqea muhim xulosalarga, o‘git va hikmatlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu janr “ Hazrati Yusuf alayhissalom qissasi” tarkibida keladi. Qissada keltirilgan latifalarning biri Yusuf va Zulayho o‘rtasidagi mojaro haqida hikoya qiladi. Yusuf ishqida yongan Zulayho eri Misr Aziziga Yusuf ustidan tuhmat qiladi. Bu mojaroda kim haq, kim nohaqligini Zulayho kanizagining beshikda yotgan to‘rt oylik bolasi “ Agar Yusufning ko‘ylagi oldidan yirtilgan bo‘lsa, Yusuf aybdor. Agar orqadan yirtilgan bo‘lsa, Zulayho aybdor” deya guvohlik beradi. Shu orqali Zulayhoning nohaqligi isbotlanadi. Latifada keltirilgan mo‘jizaviy voqea, ya’ni to‘rt oylik chaqaloqning guvohlik berishi

mojaroli vaziyatga barham beradi. Bu latifa Yusuf alayhissalomning doim rost so‘zlashlarini isbotlash uchun ham qissa tarkibiga kiritilgan. Zulayho obrazi orqali esa yolg‘onning umri qisqaligini va yolg‘onchi hech qachon o‘z maqsadiga yetolmasligini ko‘rish mumkin.

Rivoyat. Qissalar tarkibida tez-tez uchraydigan janrlardan biridir. Rabg‘uziy keltirgan rivoyatlarda qahramonning mo‘jizalarini, uning hayotiga oid voqealarni bayon qiladi. “ Qisasi Rabg‘uziy” da rivoyatlarning shunday turi borki, urf-odatlar, aqidalar rivoyatga asos bo‘lgan. Bunday rivoyatlarda voqea bayonidan ko‘ra, ma’lum bir udumlarning paydo bo‘lish sabablari asosiy o‘rin egallaydi. Masalan, Hazrati Ismoil qissalarida Ibrohim alayhissalom Bibi Xojarga uylanganlaridan so‘ng peshonalaridagi nur Bibi Xojarga o‘tadi. Buni ko‘rib Bibi Soraning jahllari chiqib, “ Xojarning uch yeridan qon chiqaraman”, deb qasam ichdilar. Bibi Sora Xojarni savalayotgan paytlarida Jabroil alayhissalom farmoni ilohiyni keltiradilar. Unda Ibrohim alayhissalomga Bibi Sorani bu yo‘ldan qaytarishi, Olloh taolo zulm qilguvchilardan aslo rozi bo‘lmasligi aytilgan edi. Shunda Ibrohim alayhissalom Bibi Soraga Xojarning ikki qulog‘i va burnini teshishini aytdilar. Bibi Sora u kishi aytgan ishni qildilar va Xojar ko‘rksiz bo‘ldi deb quvondilar. Farmoni ilohiy bilan hazrat Jabroil alayhissalom jannatdan ikki sirg‘a olib kelib Xojarning quloqlariga va bir buloqi olib kelib burunlariga taqdilar. Ayollarning sirg‘a va buloqi taqishlari shundan qoldi. Aslida Bibi Sora Bibi Xojarni ko‘rolmasliklaridan, u kishiga bo‘lgan hasadlaridan shu ishni qiladilar. Soraning hasad qilishlariga sabab Ibrohim alayhissalom qo‘llaridagi Muhammad (s.a.v.) ning nuri Bibi Xojarga uylangach Xojarga o‘tib ketishi edi. Bibi Sora to‘qson yoshga kirgan bo‘lsalar ham farzandlari yo‘q edi. Shu sababdan Muhammad (s.a.v) nuri u kishida zoil bo‘lmaydi. Mana shu hasadlari tufayli ham Olloh habibim deb atagan payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) nurlarini Soraga o‘tkazmaydi.

Foyda. Bu janr asarga didaktik ruhdagi voqealarni hikoya qilish maqsadida kiritilgan. Bu janrda keltirilgan fikrni tushunish ortiqcha kuch talab etmaydi. Masalan, Qisasi Yusuf Siddiq alayhissalom qissasida Zulayhoning nomaqbul xatti-harakatiga javoban tarbiyaviy mazmundagi hikmatli so‘zni keltiriladi: “Ey

mo‘min, o‘z yozuqingni o‘zgaga yuklamagil, yuklading ersa mavlo o‘g‘londek aning arig‘ligin bilturgay, seni rasvo qilg‘ay.”(Rabg‘uziy. 1990, 128-bet) Bunda inson o‘z aybini o‘zgalarga yuklmasligi, aks holda Olloh tuhmatchining aybini hammaga oshkor qilib, uni jazolashi muqarrar ekanligi aytilgan. Bunday hikmatli so‘zlar asarning badiiy qimmati va xalqchilligini kuchaytirish maqsadida asarga kiritilgan.

Savol va javob. Rabg‘uziy deyarli barcha qissalar tarkibida savol va javob keltiradi. Bunday savol va javoblar voqeaga aniqlik kiritishga, o‘quvchilarni ishontirishga va hech qanday savol qolmasligi uchun keltiriladi. Masalan, “Muso alayhissalom qissasi”ning Muso alayhissalomning asolari bayoni qismida Musoning bir asolari borligi, uning mo‘jizaviy qirralari ko‘rsatiladi. Keyin Olloh taolodan nido keladi: “ Ey Muso, asongni yerga tashla!” Yerga tashlagan paytlari katta to‘rt oyoqli ilonga aylanadi va Muso alayhissalom qo‘rqadilar. Yana nido bo‘ldi: “ Ey Muso, qo‘rqmagin, avvalgidek tayoq qilaman.” Xuddi shu yerda savol beriladi:

Savol: Ibrohim alayhissalom Namrudning o‘tidan qo‘rqmadilar. Muso alayhissalom asodan bo‘lgan ilondan qo‘rqdilar. Nimaga?

Javob: Ibrohim alayhissalom maxluqning o‘ti bo‘lgani uchun qo‘rqmadilar, Xoliqqa ishondilar, ko‘ngillariga qo‘rqinch tushmadi. Bu ilon Xoliqning qudrati edi, shuning uchun qo‘rqdilar.(Rabg‘uziy, 2009, 127-bet). Bunday savol va javoblar voqelarga aniqlik kiritish va o‘quvchilarni ishontirish,ularda ortiqcha savol tug‘ilmasligi uchun keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Qisasi Rabg‘uziy” asari payg‘ambarlar hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi nodir asardir. Asar qissalardan tashkil topgan bo‘lib, har bir qissada bir nechta janrlardan foydalangan holda payg‘ambarlar hayoti yoritib beriladi. Demak, “Qisasi Rabg‘uziy”da adabiy janrlarning qissalar tarkibida alohida syujet asosida bayon etilganini ko‘rish mumkin. Epik janrlar qissalar mazmunini ochishda, tasvirlanayotgan voqealar va obrazlar tizimini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosuriddin Rabg'uziy.(1990),(2009). Qisasi Rabg'uziy. -Toshkent: 128-bet, 127-bet.
2. Nasimxon Rahmonov (2017). O'zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). Toshkent: Sano-standart. 232,241-betlar
3. Zilola Shukurova(2019). "Qisasi Rabg'uziy"da folklor an'analar. Toshkent.

"BOBURNOMA" ASARINI O'RGANISH ORQALI YOSHLAR QALBIGA QOMUSIY BILIMLARNING SINGDIRILISHI

Madaminova Mehrinozbegim Baxtiyor qizi,
TOShDO'TAU O'FF, 2-kurs
madaminovamehrinozbegim@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi, uning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasi, turli sohalar bilimdoni sifatidagi qobiliyatlari tadqiq qilingan.Ulug' ajdodlarimiz merosini o'rganish orqali yosh avlodga tarixiy merosimizga hurmat tuyg'usini oshirish,ularni munosib tarbiyalash vazifalari ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *"Boburnoma", qomusiy, darvesh, rub'i maskunda, qarshi, qalam, ko'p tillilik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, san'atshunoslik, tabiatshunoslik, hayvonot olami,matematika.*

Abstract. *The article examines the personality of Zahiriddin Muhammad Babur, his contribution to world culture, and his abilities as a scholar in various fields. Through studying the heritage of our great ancestors, the tasks of raising the respect for our historical heritage and educating them in a proper manner were put forward.*

Keywords: *"Boburnoma", encyclopedia, dervish, "rubi maskunda", counter, pen, multilingualism, literary studies, linguistics, art studies, natural studies, animal world, mathematics.*

Biz Zahiriddin Muhammad Boburni mumtoz shoir sifatida taniymiz,uning mohir so'z ustasi sifatida go'zal g'azallar, ruboiylar muallifi deb tan

olganmiz.Biroq Bobur hazratlariga jahoniy shuhrat keltirgan asar “Boburnoma”dir, yanada, aniqrog‘i, uning turli tillarga qilingan tarjimalaridir. Asarning fors tiliga o‘girilishi Hindistondan Turkiyagacha bo‘lgan ulkan hududlarga, ziyolilarga yetib bordi, degan edi “Boburnoma”ni ko‘chirgan va tarjima qilgan kotib. Shoh, lashkarboshi, adib Boburning “Vaqoe” keyinchalik “Boburnoma” nomida shuhrat qozongan asari Boburning ongli hayoti va faoliyatining muhim qismining kundaliksimon bayonidir. Bu haqda ijodkor shunday ruboiy bitadi:

Bu olam aro ajib alamlar ko‘rdum,
Olam eliding turfa sitamlar ko‘rdum.
Har kim bu “Vaqoe” ni o‘qir, bilgaykim,
Ne ranj-u ne mehnat-u ne gamlar ko‘rdum.

Boburni taqdirning achchiq qismati tufayli jabr chekkan shaxs qiyofasida she’riy asarlarini tahlil qilganmiz, hamisha o‘rganamiz.

Quyida esa buyuk sayyoh, olim Boburning teran mushohadalarini tahlil qilishga jur’at etdik. Avvalo, ijodkorning noyob iste’dod egasi ekanligi, voqea-hodisalarga odilona baho berganligini ta’kidlab o‘tish joizdir.Adibga olamshumul obro‘ keltirgan fazilatlaridan biri ana shu to‘g‘riso‘zlikdir. Ulkan so‘z san’atkori sifatida nom qozongan shoir so‘zning manbasi bo‘lgan adabiyotshunoslik to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldiradi.

Biz “Boburnoma”ni haqiqiy adabiyotshunoslik asari deb ayta olamiz. Asarda 50 ga yaqin shoirning ismi, asarlari va ular haqida ta’riflar aytib o‘tilgan. Dillarimizga jo bo‘lgan ushbu ta’rifni fikrimizning isboti sifatida sizlarga havola etamiz: *“Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she’r aytubturlar, hech kim oncha ko‘b va xo‘b aytqon emas”.*

Sharqda axloq-odobning otasi bo‘lgan Sa’diy Sheroziy va uning “Bo‘ston”, “Guliston” asarlaridan “Boburnoma”da o‘nlarcha misollar keltirilgan. “Guliston” dan quyidagi misolni keltirganki**:** *“O‘n darvesh bir gilamga sig‘ib yotarlar-u, ikki podshoh bir qal’aga sig‘maydi”*. Husayn Boyqaro vafoti munosabati bilan Muzaffar mirzo va Badiuzzamon mirzoning sheriklikda taxtga chiqishlariga yuqoridagi hikmatni misol qilib keltirgan.

Asarda noyob fikr va ma’lumotlar ko‘pki, undan tarixshunos ham, adabiyotshunos ham, geograf ham o‘ziga zarur bilimlarni olishi mumkin. *“Rub’i maskunda ”*degan iboraga Bobur qayta-qayta to‘xtalib o‘tadi.

“Rub’i maskun”-yerning inson yashaydigan qismi.(buyuk geografik kashfiyotlargacha Yer kurrasining to‘rtdan biridagina odamlar yashaydi deb hisoblangan).Adabiy va tarixiy asarlarda insoniyat tamadduniga nisbatan ishlatilgan ifoda*: “Rub’i maskunda Samarqandcha latif shahar yo‘q”*

(“Boburnoma”, 1989, 44-b) yoki: *“Yana Hiriykim, rub’i maskunda andoq shahar yo‘qtur ”* (188 a).

Olimning adabiyotga oid bilimlari bilan birga tilshunos sifatidagi qarashlari ham e’tiborga sazovordir. “Boburnoma”da etimologiya, fonetika xususida ko‘p ma’lumotlar berilgan. “Boburnoma” yozilmaganida Qarshi shahrining nomlanishini bilmagan bo‘lar edik.

“Qarshi” so‘zi turkiy dostonlarda va tarixiy asarlarda *“zid”, “ro‘para”, “saroy”, “qasr”* ma’nosini bildiradi. Bobur shahar sifatida nomlangan **“Qarshi”** so‘zining *mo‘g‘ulcha* ekanini va bu so‘z *“qabriston”* ma’nosini izohlab, shaharning mo‘g‘ul istilosi qurboni bo‘lganligi bilan dalillaydi. Boburmirzo birinchi bo‘lib **“adabiy til”** tushunchasini **“qalam”** so‘zida ifodalagan tilshunosdir**:** *“Elining lafzi (tili, so‘zi) qalam bila rostdur. Ani uchunki Alisher Navoiy asarlari Hirotda yaratilib, shuhrat qozongan bo‘lsa-da, bu til bilan yozilgan”.* Bobur ziyrak tilshunos sifatida ayrim joylardagi ko‘p tillilik hodisasiga ahamiyat beradi: *“O‘n bir - o‘n ikki tilda Kobul viloyatida so‘zlashadilar: arabiy, forsiy, turkiy, mo‘g‘uliy, hindiy, afg‘oniy, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg‘oniy. Bunchalik har xil qavmlar boshqa tillarda gaplashuvi hech bir viloyatda yo‘q”.*

Endi ushbu asarda keltirilgan tarixga oid nodir ma’lumotlarga ham qisman to‘xtalsak: “Boburnoma” haqiqiy tarixiy asar. Unda XV asrning oxiri XVI asrning birinchi yarmigacha Xuroson, Movaraunnahr, Hindistonda kechgan muhim tarixiy voqealar o‘z aksini topgan.Asarda yuzlab tarixiy shaxslarning nomlari bor. Ularning ayrimlari haqidagi ma’lumotlar har qanday tarixiy asarda topilmaydigan

noyobligi, muhimligi bilan dunyo olimlarini lol qoldiradi. Husayn Boyqarodek buyuk shohning Bobur iborasiga ko‘ra **“Temurbek o‘rnida bo‘lgan”** Husayn Boyqaroning sustkashligi, Shayboniyxonga qaqshatqich zarba berish o‘rniga mudofaa bilan cheklanishi, Husayn Boyqaro farzandlarining bazm-u sozda mohir-u jangda yaroqsizligini tahlil qilib bergan.

Joylar, shaharlarga ham betakror fikrlar aytgan: *“Yana Hirotkim, yerning odamlar yashaydigan qismida bunday shahar yo‘qtur; Sulton Husayn mirzoning sa’y -harakatlaridan Hirot zeb-ziynatda birga o‘n, balki yigirma baravar obod bo‘lib edi”,*-deya ta’riflaydi. (Z., M., Bobur, 2014, 305-b.)

“Boburnoma” Amir Temur, Shohrux mirzo, Abu Said mirzo, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Xoja Abdulloh Ahror, Umarshayx mirzo, Ahmad Tanbal, Xusravshoh, Ismoil Savafiy kabi shoh va shahzodalar, pir-murshidlar haqida muhim tarixiy ma’lumotlarni o‘zida aks ettirganligi, haqiqatni bo‘yamay ko‘rsatganligi bilan qimmatlidir. Otasi haqida ham, o‘zi haqida ham ro‘y-rost yozadi. Kamchiliklarini uyalmay tan oladi.

Turli sohalar haqida fikr yuritganda adib san’atshunoslik sohasiga alohida to‘xtalib o‘tadi.“Boburnoma”ni chinakam san’atshunoslik asari deyish mumkin. Unda san’atning juda ko‘p turlari: raqs, kuy, ashula va tasviriy san’atga doir ma’lumotlar berilgan. Zamonasining mashhur hofizlari: **Ruxdam, Hofiz Hoji;** raqqoslari: **Tengriquli, Ramazon, Mir Badr;** sozandalari: **Qulmuhammad Udiy, Shayxiy Noiy, Shohquli Gijjakiy, Xo‘ja Abdulloh Marvariy;** bastakorlar: **G‘ulom Shodiy, Mir Azu;** rassomlar: **Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar** haqida, ularning kuy, qo‘shiq, raqs, rasmlari haqida tasvirlab beradi: *“Musavvirlardan Behzod edi. Musavvirlik san’atini juda nozik qildi. Biroq soqolsiz kishilarning chehrasini yaxshi ochmaydi: iyagini uzunroq tortadi. Soqolli kishining yuzini qoyilmaqom qilib chizadi”*- kabi o‘zining zukko bahosini ifodalab o‘tadi.

Asar barcha sohalarga tegishli namuna sifatida qimmatlidir. Jumladan tabiatshunoslik faniga oid qadrli ma’lumotlar ko‘pligi bilan ham qiziqarlidir. “Boburnoma”da Farg‘onadan Hindistonga qadar yer, joy, tog‘, o‘lkalarda

o‘sadigan daraxt, o‘simlik, o‘t-o‘lanlar, gullarning 50dan ortig‘i haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Hindistonda o‘sadigan **“anba”** haqida shunday ma’lumot beradi: *“Hindistongagina xos mevalardan biri anbadir…Uni aksar xom uzadilar, uyda turib pishadi. Xomi yaxshi osh qatig‘i bo‘ladi. G‘o‘rasining murabbosi ham yaxshi bo‘ladi. Ikki xil yeyiladi: birini siqib po‘la qilib, terisini teshib, suvini ichadilar, yana birini koshiy shoptolisidek terisini archib yeydilar. Yaproqlari shoptoli bargiga o‘xshaydi. Tanasi ko‘rimsiz va xunukdir”.*Tabiatshunoslikka oid ma’lumotlarning qiziqarli va qimmatli deya baholashimizning yana bir sababi shuki, asarda hayvonot dunyosiga ham Bobur alohida to‘xtalgan. Asarda Hindiston va Afg‘oniston tevarak-atrofidagi biz nomlarini eshitmagan, ko‘rmagan o‘nlab yovvoyi, xonaki hayvonlar, qushlar, hatto xilma-xil baliqlar haqida o‘qib hayratga tushdik. Esdalikda 50 dan ortiq hayvonotlar haqida ma’lumot berilgan**.**Andijonning ov qushlari haqida shunday yozadi:*“Ov qushi ham ko‘p bo‘ladi. Qirg‘ovuli behad semiz bo‘ladi. Shunday rivoyat qiladilarki, bir qirg‘ovulning go‘shtini to‘rt kishi yeb tugata olmaydur”. Yoki Hindiston hayvonlari haqida: “Hayvonotki, Hindistongagina xosdir. Yovvoyi hayvonlardan biri fildir. Hindistonlik uni “xatiy” deydi… Fil yirik jussali va ziyrak jonivordir. Filning yemak-ichmagi faqat xartumi bilandir. Xartumi bo‘lmasa, yashay olmaydi. Xartumining ikki yonida - yuqori engagida ikki yirik tishi bor; tomga va daraxtga ushbu tishlarini qo‘yib, zo‘rlab qulatadi… Filning tuki yo‘qdir”.*(Z., M., Bobur, 2014, 564-b.)

Ushbu kerakli ma’lumotlar bilan birgalikda ulug‘ olim matematikaga oid tushunchalarni ham asarda keltirib o‘tgan.Jumladan sanoq va o‘lchovga oid birliklar matematiklar uchun ham qimmatlidir.

Sanoq sonlarning quyidagicha izohi berilgan:

1 lak – 100 ming;

1 karo‘r – 100 lak- 10 mln.

1 arb – 100- karo‘r – 1 mlrd.

1 karb – 100 arb – 10 trillion;

1 niyl – 100 arb – 10 trillion;

1 padam – 100- niyl – 1 kadrillion;

1 sank – 100 – padam – 100 kvadrillion.

Uzunlik o‘lchovlari:

1 mil – 4000 qadam – 2800 – m;

1 qadam – 1,5 karn – 70 sm;

1 tutam – 4 elik – 7,5 sm;

1 elik – 6 jav arzi – 2 sm;

1 jav arzi(arpa doni eni) -3,5 sm;

“Boburnoma”ning “Hinduston” qismida Movaraunnnahr va Xurosonda qo‘llangan o‘lchov(shar’iy, yig‘och kabi) va sanoq (tuman) birliklari qatorida hind o‘lchovlaridan ham erkin foydalanilgan.Bu o‘rinda Bobur hind o‘lchov va sanoq tizimida ulkan kattalikdagi sonlar borligini bayon qilib, Hindiston mamlakatining bepoyonligi, yig‘iladigan daromad va soliq ham shunga yarasha bo‘lishini ta’kidlagan (“Boburnoma”, 1989, 290 a).

Og‘irlik o‘lchovlari:

1 rattiy – 100 mg;

1 ma’sha – 8 rattiy- 820 mg;

1 ta’ink – 4 ma’sha – 3,3 g; (“Javohir va marvaridni ta’nk bila tortadurlar”)

1 misqol – 5 ma’sha – 4,1 g;

1 to‘vla – 2,2 misqol – 9 g;

1 ser – 14 to‘vla – 125 gr;

1 botmon – 40 ser – 5 kg;

1 ma’niy – 12 botmon – 60 kg;

1 manyasa – 100 ma’niy – 6 tonna.

Asarni o‘rganib, turli fan sohalari egalari o‘zlari uchun muhim bo‘lgan tarixiy ma’lumotlarni olishi mumkinligi bilan birga, Bobur shaxsining keng mushohadali, o‘tkir zakovatli ekanligiga yana bir bora tan bermay iloji yo‘q.Ulug‘ ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur sinovli taqdir egasi sifatida davrning qiyin kunlarida yashadi, biroq millatimizga xos nekbinlik uni go‘zalliklardan

bahramand bo‘lishga, atrofidagilarga to‘g‘ri qalb bilan yondashishga, berilgan qisqagina umrdan unumli foydalanishga undadi.

“Boburnoma” asarini tadqiq qilish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

+ kishini ma’naviy kamolotga yetaklaydi;

+ har taraflama salohiyatini oshiradi;

+ hayotni sevishga o‘rgatadi;

+ kitobxonlik madaniyatini oshishiga hissa qo‘shadi;

+ farzand tarbiyasiga amaliy yordam beradi;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur, (1983). Tanlangan asarlar. Toshkent: O‘qituvchi.

2. Zahiriddin, Muhammad, Bobur, (1994). Devon.Toshkent: Fan.

3. Boburnoma, (1989).(44-b, 290-b). Toshkent: Yulduzcha.

4. Pirimqul Qodirov, (2016). Yulduzli tunlar. Toshkent: Sharq.

5. Zahiriddin, Muhammad, Bobur, ensiklopediyasi, (2014). (305-b) Toshkent: Sharq.

6. Rahmonov, V., (2015). Mumtoz so‘z sehri. Toshkent: O‘zbekiston.

7. Zahiriddin, Muhammad, Bobur, (1994). Devon. (564-b). Toshkent: Fan.

“BOBURNOMA”DAGI BA’ZI RUBOIYLAR TAHLILI

Mardonova Maftuna Olimjon qizi

ToshDO‘TAU OTAT 2-kurs

mardonovamaftuna12@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Boburnoma”dagi ruboiylar mavzusi va g‘oyasi, ular qanday ijtimoiy-tarixiy vaziyat taqozosi bilan yozilgani aniqlangan. Ruboiylarda Bobur ruhiyati va kechinmalar tasviri tahlilga tortilgan. Tarixiy asarda nazmiy parchalarning berilishi asarning adabiy-estetik qimmatini oshirgan. Bobur ruboiylarining mavzu ko‘lami, g‘oyaviy yo‘nalishini aniqlashga xizmat qilgan. “Boburnoma”da ruboiylar muallif shaxsini o‘rganish, o‘sha davr adabiy muhiti haqida tasavvur qilish imkonini beradi.*

Abstract. *In this artickle, the topic and idea of the Rubaiyats in "Boburnoma" and the social and historical situation in which they were written are determined. The description of Babur's mentality and experiences in the Rubaiyats is analyzed. In "Boburnoma" the rubai's serve to define the author's personality and allow one to imagine the literary environment of that time.*

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, ruboiy, ijtimoiy-tarixiy vaziyat, mavzu, g‘oya, qofiya, tatabbu.*

Keywords*:* *“Boburnama”, rubai, social-historical stuation, topic, idea, rhyme, tatabbu*.

O‘z hayoti davomida charxning ne-ne jabr-u jafolarini tortgan, “ahli jahondin yaxshilig‘” ni kam ko’rgan, sharoit taqozosi bilan “o‘z yurtini qo‘yib, Hind sorig‘a yuzlangan” buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiy janrida barakali ijod qilib, keyingi avlodga nodir badiiy asarlarini meros qoldirdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur yoshligidan badiiy adabiyotga, she’riyatga qiziqqan, Otoyi va Sakkokiy, Lutfiy va Navoiy kabi o’zbek shoirlari, Xusrav Dehlaviy, Hofiz, Sa’diy, Jomiy kabi fors-tojik shoirlarining asarlarini qunt va sabot bilan mutolaa qildi. U 1506-yil kuzida Hirotda bo‘lganida Alisher Navoiy uyida yashagan, ulug‘ shoir asarlarining, xususan, “Xazoyin ul-maoniy”ning nodir qo‘lyozmasi bilan tanishib chiqqan va undan terma devon tuzganligi haqida “Boburnoma”da shunday yozilgan:

“…Alisherbekning uylarini tayin qildim. Xiridan chiqquncha Alisherbekning uylarida edim”. “Odina kuni, oyning yigirma uchida Alisherbekning to‘rt devonidin buhur va avzon tartibi bila g‘azallar va abyotkim, intixob qiladur edi, itmomg‘a yetti”. (Bobur, 2002, 248-bet.).

Bobur she’r san’atini ilhom va ishtiyoq bilan turli mashhur va mo‘tabar manbalar orqali sinchiklab o‘rganib, nazm ishiga bel bog‘laydi. “Boburnoma”da 1500-1501-yil voqealarini bayon qilar ekan, u shunday deydi: “Ul fursatlarda birar, ikkirar bayt aytur edim. Vale g‘azal tugatmaydur edim”. (Bobur, 2002, 19-bet)

Bobur asta-sekin ruboiylar, tuyuqlar, masnaviylardan tugallangan g‘azallar, bitib, she’riy kamolot cho‘qqisiga ko‘tariladi. “Boburnoma”ni ko‘chiruvchi kotib

kitob oxirida shunday yozadi: “Va fazilat bobida kamlig‘i yo’q erdikim, nazm va nasr va turkiy va forsiy bebadal aytur edi. Alalxusus, turkiy devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib aytibtur…”. (Bobur, 2002, 391-bet).

“Boburnomadagi” ruboiylarni Bobur qo‘liga qog‘oz, qalam olib yozgan emas, balki o‘sha paytdagi ma’lum bir tarixiy jarayonda, kutilmagan vaziyatlarda, ko‘ngil kechinmalarini behosdan aytib yuboradi. Bu bilan o‘zining badihago‘y (hozirjavob) ijodkorligini ham ko‘rsatadi. “Shayboqxon Samarqandni olg‘onda, Mulla Binoiyni mulozim qilib edi. Shayboqxon bila edi. Samarqand fatxidin necha kundin so‘ngra Samarqandg‘a keldi. Qosimbek andin badgumon bo‘lub, Shahrisabz sari ruhsat berdi. Necha kundin so‘ng chun fazilatliq kishi edi, gunohi sodir bo‘lmaydur edi, Samarqandg‘a kelturduk. Doim qasida va g‘azal o‘tkarur edi. Navoda bir amal mening otimg‘a bog‘lab o‘tkardi. O‘shul asnoda bir ruboiy aytib o‘tkardi.

Ruboiy:

Ne g‘alla maro ka-z o‘tavonam no‘shid,

Ne muhmali g‘alla to tavonam po‘shid.

Onroki na xo‘rdanastu ne po‘shidan,

Dar ilmu hunar kujo tavonal ko‘shid.

Ul fursatlarda birar, ikkirar bayt aytur erdim. Vale g‘azal tugatmaydur erdim. Birgina turkiy ruboiy aytib yibordim.

Ruboiy:

Ishlar borki ko‘nglungdag‘idek bo‘lg‘usidir,

In’omu vazifa bori buyrulg‘usidir.

Ul g‘allau muhmalki deb erding, berdim.

Muhmalg‘a bo‘yu g‘alladin o‘t to‘lg‘usidir.

Mullo Binoiy bu ruboiyning so‘nggi misraning qofiyasini radif qilib o‘zga qofiya bila bir ruboiy aytib o‘tkardi:

Mirzomki, shoxi bahru bar bo‘lg‘usidur,

Olamda hunar birla sar bo‘lg‘usidur.

Bir muhmal uchun muncha inoyat bo‘ldi,

Musta'mal agar desam, nelar bo'lg'usidur. (Bobur, 2002, 81-bet)

Binoiyning birinchi ruboiysidan anglashiladagan xulosa shunday: "Na yegulik g'allam bor va na kiyishga asragan kiyimim bor. Yeydigani, kiyadigani bo'lmagan kishi ilm va hunarg'a qanday urina olsin?"

Boburning javobicha:

"Ishlarning bari ko'nglundagidek bo'ladi, in'om, vazifang buyriladi, sen g'alla so'raganingda berdim, senga berilgan g'alla uyingni to'ldirdi."

Ushbu ruboiylar orqali bir necha fiklarni keltirishimiz mumkin. Bulardan birinchisi, she'riyatning Bobur Mirzo uchun oshufta ko'ngulga tasalli berish vazifasini o'tagan. Ikkinchidan, ko'zdan kechirilgan lavhalar Bobur Mirzo ijodiy takomil yo'lini tiklashda, muallif asarlarining paydo bo'lish tarixi, shu bilan bog'liq ravishda u yoki bu asar maydonga kelgan paytdagina uning shaxsiy kayfiyatini aniqlashda "Boburnoma"ning zaruriy manba ekanligini ko'rsatadi. Shu kichik bir manzaraning o'zi Zahiriddin Muhammad Boburning ijod ahliga xayrixohlik bilan qaraganidan, ularga moddiy va ma'naviy madad ko'rsatib turganidan dalolat beradi. Bobur Mirzo ruboiysi va unga Kamolidin Binoiyning javobiya she'ri buning yorqin dalilidir. Kamoliddin Binoiyning ruboiysi yana bir jihatdan ahamiyatli. Ya'ni uning o'zbek tilini yaxshigina bilganligi va ba'zan bu tilda ham qalam tebratib, she'rlar bitib turganligidan dalolat beradi.

Bobur Mizro qonida jo'shib turgan she'riyatga bo'lgan mehr uni, hatto, mag'lubiyat va ruhiy tushkunlik chulg'agan damlarda ham tark etmaydi. Aksincha, madad va dalda beradi, so'lg'in kayfiyatini ko'taradi, umid va ishonch sari boshlaydi. Zabardast adibdagi mana shu ikki qarama-qarshi qutb talvasasi "Boburnomada" o'chmas iz qoldirgan. Asarning 1501-1502-yillar voqealari bayoni qismidan o'sha tushkunlik, ruhiy qiynalish azob-iztiroblari aks etgan mana bu parchani olib ko'raylik:

"Bizga Qurbon iydi Shohruhiyada bo'ldi. Betakalluf o'tub, xon qoshig'a Toshkandga bordim. Bu ruboiyni aytib edim. Ma'lum qofiyasida taraddudim bore di, ul mahalda she'r mustalaxotig'a muncha tatabbu qilmaydur edim. Xon xushtab kishi edi, she'r aytur edi, agarchi saru somonlik g'azali kamroq edi, bu ruboiyni

xonga o‘tkarib, taraddudimni arz qildim. Ko‘ngul tingundek shofiy javob topmadim…Ruboiy budur:

Yod etmas kishini g‘urbatda kishi,

Shod etmas ko‘ngulni mehnatda kishi.

Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi hech

G‘urbatda sevinmas emish, albatta, kishi. (Bobur, 2002, 89-bet.)

“Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini adabiyotshunoslikda adib boshidan o‘tkazgan kunlar yilnomasi sifatida baholashadi. Ammo shoir she’riyati muallifning ichki dunyosini bor shiddati bilan o‘quvchiga yetkazuvchi noyob ma’naviy xazinadir. Bobur ruboiylarida chuqur falsafiy ma’no ifodalangan. Ular “Boburnoma”da keltirilgan tarixiy voqea-hodisalar bilan hamohang, ularni mazmunan to‘ldiradi”. (Ma’rifat gazetasi, 2008, 1-bet)

Xulosa qilib aytganda, Bobur davri, undan oldingi shoirlar ijodida ruboiy janrida an’anaviy ishq, oshiq va ma’shuq, ayrim hollarda ijtimoiy masalalar qalamga olingan bo‘lsa, Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylarida inson ichki kechinmalarining rango-rang jilolari, ijtimoiy-tarixiy muammolarning o‘ziga xos uslubda aks etganini ko‘ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’rifat gazetasi. (2008). Toshkent.
2. Mutrib Samarqandiy. (2013) Tazkirat ush-shuaro. Toshkent.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. (2002). Boburnoma. Toshkent.

ZAVQIY HAJVLARINING USLUBI

Mavlonova Aqida Mahmud qizi,

ToshDO‘TAU O‘FF 4-kurs

aqidamavlonova160@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ro‘y bergan o‘zgarishlarning adabiyotga va davr ijodkorlariga ta’siri, ma’rifatparvarlik adabiyotning shakllanishi, Muqimiy va Zavqiylarning adabiy davralar tashkil etishi va bu adabiy davralarning Zavqiy*

ijodiga ta'siri masalasi o'rganilgan. Shu bilan birgalikda Zavqiyning satirik va yumoristik asarlar yozishdagi uslubi va yozilish tarixi yuzasidan fikr-mulohazalar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: *Adabiy muhit, demokratik adabiyot, hajviyot, satira, yumor.*

Abstract. *This article examines issues such as the Kokan literary environment of the end of the 19 th century and the beginning of the 20 th century and the influence of this period on the artists. At the same time, Zavqiy's style of the writing satirical and humorous works and opinions on the history of writing were studied.*

Keywords: *Literary environment, democratic literature, humor, satire.*

Milliy adabiyotimiz tarixida XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari adabiy merosi alohida ahamiyatga ega. Qo'qonda Muqimiy (1850-1903), Furqat (1859-1909), Zavqiy (1853-1921), Nisbatiy (1903 yil vafot etgan), Muhayyir (1845-1918), Qori Yusuf Muntazir (1899 yil vafot etgan), Usmonxo'ja Zoriy (1839-1916) kabilar adabiy davra tashkil etdilar. Vodiyning mashhur shoirlaridan biri, "toji shoiron" (shoirlar shohi) deb e'zozlangan Muhyi (1835-1911) bo'lsa, ikkinchisi, shubhasiz, "Haziniy to'ra" deb ardoqlangan Ziyovuddin Haziniy (1867-1923) edi. Asli piskentlik Said Akmalxon (1834-1883), marg'ilonlik qozi Xo'jajonxo'ja Rojiy (1838-1918), Namangandan Nodim (1844-1910), Ibrat (1862-1937), Andijondan Abdurazzoq Bimiy (1847-1918), Xo'janddan Toshxo'ja Asiriy (1864-1916), Sayramdan Yusuf Sayromiy (1845-1912), Toshkentdan Karimbek Kamiy (1865-1922) kabilar Qo'qondagi adabiy suhbatlarda tez – tez ishtirok etib turar edilar (Qosimov B., Shusupov Sh., Dolimov U. va boshqalar, 2004, 18-b.).

Adabiyotshunos U.Jo'raqulov XX asr boshlaridagi yangi estetika shakllanishining bir qator obyektiv va subyektiv omillarini keltirib, quyidagicha mulohaza bildiradi: "Avvalo, shuni aytish joizki, Turkiston xalqi yangi asrga mustamlaka o'laroq qadam qo'ydi. Mustamlakachilik siyosati bir tomondan millatning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotiga g'ov bo'lgan bo'lsa, boshqa

yoqdan uning ozodlik yo‘lida yangi imkoniyatlar izlashiga, uyg‘onishiga zamin hozirladi” (Jo‘raqulov, 2006, 76-b.).

Bu davr adabiyotining sho‘rolar davridagi noxolis talqinlari xususida professor Sh.Yusupov bunday yozgan edi: “…XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti tarixini yoritishda ham shu boshi berk ko‘chaga kirib qolindi. Bu davr adabiyotidan hajv yozgan (demokrat), rus fan-texnika madaniyatiga xayrixohlik bilan qaragan (ma’rifatparvar) bir necha Qalam sohibi g‘arazli maqsadlar bilan ajratib olinib, hammaga ko‘z-ko‘z qiladigan yuksaklikka chiqarib qo‘yildi. …Ular bilan bir davrda yashab, birgalikda ijod qilgan, fikr ko‘lami va badiiy mahorati jihatidan ulardan aslo kam bo‘lmagan Muhyi, Qoriy Xo‘qandiy, Nisbatiy, Havoiy-Umidiy, Xaziniy, Qunduziy kabi… nihoyatda boy adabiy xazinamizni shunaqangi chalakam-chatti qilib ko‘rsatish bu xazina haqida o‘quvchilarda qanday chalkash taassurot qoldirgani o‘z-o‘zidan ayon” (Yusupov, 2003, 68-b.).

Muqimiy atrofida uyushgan shoirlar tez-tez adabiy va mushoira kechalari tashkil etib turganlar. Bu haqida G‘.Karimov ham manbalarda keltirgan: “Muqimiy atrofida uyushgan shoirlar tez-tez adabiy kechalar, mushoira kechalari tashkil etib turardilar. Bunday adabiy kechalar ba’zan Zavqiyning “Madrasayi oliy” dagi yarim xarobaga aylangan xujrasidagi ishxonasida o‘tkazilar edi. Hazil-mutoyibani sevgan serzavq bu shoirlar Zavqiy ishxonasining eshigi ustiga Muqimiy qalami bilan bitilgan quyidagi misralarni yozib qo‘ygan edilar:

Bu Ubaydullohning koshonasi,
Usta Solih o‘g‘li do‘konxonasi
Ey birodari ahli tamiz,
Eski maxsi-yu kavush tikamiz.

Zavqiy shu adabiy to‘da bilan birgalikda ijodiy kamolotga erishdi va xalq o‘rtasida shoir sifatida shuhrat qozona boshlaydi (Karimov, 1975, 181-b.).

Zavqiy o‘zbek demokratik adabiyotining mashhur namoyondalaridan biri bo‘lib, Muqimiyning zamondoshi va yaqin maslakdoshidir. U demokratik adabiyot yaratishga, ayniqsa undagi hajviyotni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Zavqiy

nomi keng xalq ommasi o‘rtasida hurmat bilan tilga olinadi. Zavqiy oddiy xalq ichidan chiqqan va o‘z orzu-istaklarini, alam-hasratlarini hamda kurashlarini kuylagan shoirdir. Xalqimiz bu shoirni haqqoniy so‘zlari uchun, pokiza va samimiy qalbi uchun sevadi va uning jo‘shqin, yuksak badiiy asarlaridan zavq olib, ularni qayta-qayta o‘qiydi (Karimov, 1987, 219-b.).

Yoshligidanoq real hayot haqida chuqur va atroflicha fikr yuritgan Zavqiy hayotdagi har bir hodisadan xulosa chiqarishga harakat qilardi va buni o‘z she’rlarida aks ettirar edi. Ijodkor o‘z she’rlarida real hayot haqida chuqur va atroflicha fikr yuritadi. Lirik she’rlarida ham Muqimiy va Furqatlar kabi Alisher Navoiy yo‘lini tutib, ilohiy ishq- muhabbatni emas, insoniy muhabbatni qalamga oldi. Zavqiy juda ko‘p hajviy she’rlar yaratgan ijodkordir. Ulardan bizning davrimizga yetib kelganlari o‘z davri uchun muhim masalalarni yoritganligi bilan ahamiyatlidir. *“Muncha ko‘p”, “Dar mazamati zamona”, “Zamona”, “Ajab zamona”, “Yangiqo‘rg‘on qishlog‘i”, Zolim puli”, “G‘uddaslik boy”, “Abdurahmon shayton”, “Ahli rasta”, “Talading baring”, “Veksel”* kabi hajviyalarida zavod, fabrika, korxona egalari, qishloq boylari, savdogarlarning kirdikorlari o’ziga xos uslubda ochib beriladi. Shoir bu hajvlarni yozishda ularning fe’l atvorini, xalq orasidagi laqab-u xulqini yaxshi bilganligidan mohirona foydalangan.

Zavqiyning hajvlari uslubi haqida adabiyotshunos X.Razzoqov shunday fikr bildiradi: “O‘zbek xalqining boy, obrazli tili, adabiyoti, urf – odati, didini yaxshi bilgan shoir Zavqiy o‘z she’rlarining badiiyligi, mazmuni ustida nihoyatda qunt bilan ishladi, xalq tili boyligidan, maqollari, aforizm, atamalari, qochirimlaridan barakali foydalandi, o’z she’rlarining yumoristik kuchini, ta’sirchanligini oshirdi” (Zavqiy, 1950, 7-b.).

Zavqiy asarlarining muhim qismini uning hajviyoti tashkil etadi. G‘.Karimov o‘zining “O‘zbek adabiyoti tarixi” (XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha) kitobida Zavqiy hajvlarini mavzu ko‘lami va uslubiga ko‘ra ikki guruhga: satira va yumorga bo‘ladi.

Satirik she’rlar. Zavqiy demokratik adabiyotda Muqimiy boshchiligidagi satirik maktabning ko‘zga ko‘ringan namoyondalaridan biridir. Uning satirasi o‘zining tematik doirasi, hayotiy hodisalarni baholashi va g‘oyaviy-estetik pozitsiyasi jihatidan demokratik adabiyotning umumiy-ijodiy prinsiplaridan farq qilmaydi. Zavqiy satiralarida ham ijtimoiy hodisalar xalq manfaati nuqtayi nazaridan baholab, turmush illatlari qattiq tanqid qilinadi, sotsial adolatsizlik shafqatsizlik bilan fosh etilib, eksplutator sinflarga mansub bo‘lgan hamma ijtimoiy tabaqalarning ayanch obrazlari chiziladi.

Zavqiy satiralarining ma’lum bir gruppasi shoir hayot kechirgan davr va uning kirdikorlariga bag‘ishlangandir. Ma’lum siklni tashkil qiladigan va “sotsial satira” deb atalishi mumkin bo‘lgan bunday asarlarda shoir zamonaning noqobilligidan, odamlarning norasoligidan, tartiblarning noo‘rinligidan achchiq shikoyat qiladi. Bu satiralar shoirning turmush, ijtimoiy tuzum va undagi qonun-qoidalarning mohiyati haqidagi qarashlarini, orzu-istaklarini aks ettiradi. *“Zamona kimniki?”, “Dar mazammati zamona”, “Bo‘l”, “Muncha ko‘p”* she‘rlari ana shunday satiralar jumlasidandir (Karimov, 1975, 196-b.).

X.Razzoqov ham Zavqiy satira va yumorlariga o‘z munosabatini bildirib, shunday deydi: “Zavqining satira va yumori eksplutatorlarning turli namoyondalari hayotidagi yaramas nuqsonlarga nisbatan g‘azab, piching, kesatish, joyi kelganda haqorat, fosh qiluvchi kulgu formasida ifodalanadiki, bu o‘zbek xalqi og‘zaki ijodining keng ommalashgan priyomlaridandir (Zavqiy, 1950, 7-b.)

Buning yorqin dalili sifatida 1905 – 1906 yillarda yozilgan 47 baytlik *“Hajvi ahli rasta”* she’rida 46 nafar boyni nomma- nom tilga oladi. Har birining fe’l atvori keskin satrlarda chaqib ko‘rsatilgan. Bu ham yetmagandek uni katta qog‘ozga ko‘chirtirib, Qo‘qonning eng gavjum saylgohiga, Mo‘ymarakdagi gavjum terakka osib qo‘yadi. Katta shov- shuv bo‘ladi. Rasta ahli shoirni tutib kaltaklaydi. Ustidan garonish (shahar hokimiga) va uyezd hokimiga arz qiladilar. Hokim she’rni tilmochga tarjima qildirib o‘qiydi, Zavqiyni tergab tanbeh beradi. Sibirga surgun qilishini aytadi. Ko‘p o‘tmay shoirning ushbu mojaroga javoban *“Talading baring”* she’ri yoziladi.

Bir eski to‘nga bu xusumating,
Bijg‘ib ichingda necha illating,

G‘o‘dayib Sibir qilaman debon,
Bir avaxtaga solmading baring!

Zavqiyning ushbu “Talading baring” she’ri nisbatan sodda, chunki unda voqealik bayoni bor. Lekin shunday bo’lsa-da, bu she’rda Zavqiyga xos bo‘lgan keskin o‘xshatishlar, kinoyalar bor. Masalan, *“Olaqarg’adek yiqg‘ilib cho’qib…” “It quvgan soqovdek hovliqib…”, “Misli it pashsha chaqqan moda xar”* ushbu misollar fikrimiz isbotidir.

Shoir satiralaridagi yana bir muhim jihati shuki, she’rlari shoir yashagan davr va uning kirdikorlariga bag‘ishlanib qolmay qahramonlar ham ayni shu davrning kishilaridir. Masalan: *“Veksel”, “Dar hajvi shoh Inoyat qo‘rboshi”, “Obid mingboshi haqida hajv”, “Hajvi Ahmadxo‘ja qozi va Tariqi tarix”, “Abdurahmon shayton”, “G‘udoslik boy haqida hajv”, “Voqiayi qozi saylov”, “Rohzon Ergash”* kabi satiralarni keltirish mumkin.

Xususan, *“Veksel”* satirasi haqida G‘.Karimov shunday yozadi: “Jamiyat hayotida borgan sari kuchayib borayotgan kapitalistik munosabatlarni va ularning illatlarini tanqid qilish Zavqiy satiralarida muhim o‘rinni egallaydi. Bu jihatdan uning ushbu she’ri xarakterlidir. Shoirning bu she’ri muxammas shaklida yozilgan bo‘lib, u Zavqiy bilan Muqimiyning birgalikdagi ijod mahsulidir, to‘g‘rirog‘i, Zavqiy g‘azaliga Muqimiy bog‘lagan muxammasdir. Bu she’rning qanday yaratilishidan qat’iy na’zar, undagi misralar va misralardagi ilgari surilgan g‘oyalar har ikkala shoirga ham barobar taalluqlidir.

“Veksel” she’rida Farg‘ona vodiysida endigina rasm bo‘layotgan qarz berib veksel olish, shu yo‘l bilan kambag‘al dehqon va kosib-hunarmandlarni iqtisodiy qullik girdobiga tortish usuli haqida fikr yuritiladi. Sirtdan qaraganda kambag‘allarga yordamdek ko‘ringan, aslida esa eksplutatsiyaning kapitalizm davridagi niqoblangan, nozik shakli bo‘lgan bu veksel xalq gardanidagi sirtmoq edi (Karimov, 1975, 198-199-b.).

Xususan, *“Hajvi yiqchi eshon”* satirasida Mingtepa eshonining tariqat da’vosin qilib xalqning boshiga ko‘p balolarni solganligi, har kimning boshiga ming tillo zarar qilib xonavoyran qilganligi va oxir oqibat qilmishiga yarasha Qodirquli mingboshi tomonidan osilganligi, agar osilmaganda Mahdiylikni da’vo qilishi satrlarda yoritilgan.

O‘t yugurturding “karomat” deb qilib bid’at o‘choq,

Qilmadi bu ishni hech olamda bir tarso eshon.

Nomuborak maqdaming Mingtepani qildi xarob,

Gar qadam qo‘ysang chiqargay dudlar daryo, eshon.

Din ahllarini fosh etish o‘zbek demokratik adabiyotining markaziy temalaridan biri biri bo‘lib, bu temada Zavqiy ham yaxshi asarlar yaratgan. “Hajvi yiqchi eshon” satirasi Zavqiyning ana shunday asarlaridan biri bo‘lib, u xalq o‘rtasida “Dukchi eshon” yoki “Yiqchi eshon” nomi bilan shuhrat topgan Muhammad xalfaga qarshi qaratilgandir.

Tarixdan ma’lumki, Dukchi eshon bir to‘da mutaassib din ahllariga bosh bo‘lib olib, 1898-yilda Andijon yaqinidagi Marhamat qishlog‘ida “g‘azovot” shiori bilan, ya’ni kofirlarni mamlakatdan haydab, shariatga asoslangan musulmon davlati tuzish shiori bilan panislomizm bayrog‘i ostida fitna ko‘tardi. Keng xalq ommasining ozodlik harakatini o‘z manfaatiga bo‘ysundirishga intilgan yuqori tabaqalarning bu intilishlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi va jamiyatning ilg‘or qismida g‘azab-nafrat hislarini uyg‘otdi (Karimov, 1975, 200-b.).

G‘. Karimov bu satira haqida quydagi fikrlarni yozadi: “Ushbu g‘azal 21 baytdan iboratdir. Asar Dukchi eshon voqeasi bo‘lib o‘tgan yili – 1898-yilda Andijonda yozilgan. She’rning yozilgan yilini Zavqiyning o‘zi ham asar oxirida abjad hisobi bilan ko‘rsatib o‘tadi:

Har kishi bu sho‘rishi Farg‘onadin so‘rsa nishon,

Zavqiy aytur: “jon” chiqib tarixidur “ig‘vo eshon”.

Bu baytdan ko‘rinib turganidek, Zavqiy bu voqeani “Farg‘onaning sho‘rishi” ya’ni baxtsizligi, zo‘r kulfati deb hisoblaydi. Chindan ham she’r boshdan-oyoq

Dukchi eshonga la'natlar yog'diruvchi misralardan tashkil topadi. Zavqiy Dukchi eshonni obod yerlarni vayronaga aylantiruvchi "kasofatlik vujud" deb biladi, uni xalq o'rtasida "vabo paydo qiluvchi ofat" deb hisoblaydi (Karimov, 1975, 200-b.).

Zavqiy satirasining tematikasida katta o'rin turgan masalalardan biri chor chinovniklar va mahalliy amaldorlarni tanqid qilishdir. …Chor hukumati hukmronligi davrida tug'ilgan bu holat ko'p demokrat shoirlar ijodida o'zining satirik-tanqidiy ifodasini topdi. Bu muhim temani Zavqiy ham qalamga olib qator satirik asarlar ("Dar hajvi Inoyat Qo'rboshi", "Zolim puli", "Uy puli" va boshqalar) yaratdi (Karimov, 1975, 201-b.).

"Dar hajvi shoh Inoyat qo'rboshi" satirasini tahlil qiladigan bo'lsak, Qo'qon shahar qo'rboshisi haqidagi hajv quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Tinglasangiz, ahbob, bu so'z boshini,
Tavsif etay kim iki avboshini.

Shohi Inoyatki amal davrida,
Nechani(ng) oqizdi ko'zin yoshini.

Yuqoridagi tasvirlarda, qo'rboshining qanday inson bo'lganligini bilish qiyin emas, albatta. Lekin bundan keyingi misralarda tasvir darajasi yanada yuqorilashadi:

Kelsa kishi qoshig'a arz etgali,
Tergan edi kiprik ila qoshini.

Qilsa kishi fosh vafo shevasin,
Ortgay edi anga jafo toshini.

Qolmadi Xo'qandda kishi totmagan,
Zaqqumi zahr iki lain oshini.

Zavqiyning yuqorida sanalgan satiralaridan tashqari *"Pashshalar"* radifli ikki hajviyasi, *"Ot", "Otingiz", "Qimorboz usta Tursun", "Buqoq"* kabi yumorlari ham ajoyib badiiy mahorat bilan yaratilgan asarlardir.

Xususan, 1890-yilda yozilgan *“Ta’rifi kalish”* hajviyasini olaylik, g‘azal shaklida yozilgan ushbu kichik she’rda Zavqiy yarim hazil aralash kalish sifatlarini bayon etadi. Hatto ushbu hajviyaning so‘nggi baytida shoir ruscha so‘zlardan ham foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin:

O‘ruscha maxtasa Zavqiy: xorosho,

Juvon, pir, mard-u zan monandi ishdur.

Shoirning *“Otim”* hajviyasi esa Muqimiy bilan mushoira tarzida yozilgandir.

Adabiyotshunos G‘.Karimov bu haqda: “Ot siklini tashkil etgan ikki she’rning biri “Otim” yumori bo‘lib, bu she’r Muqimiyning shu mavzudagi asariga javobdir. Muqimiy va Zavqiy o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik bu she’rlarda uchraydigan mushtarak baytlarda ham ko‘rinib turadi (Karimov, 1987, 240-b.).

Zavqiy hajviy asarlari bilan XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi adabiy jarayonga o‘ziga xos xissa qo‘shdi. Aytish joizki, bu davr ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar adabiyotda ham aks etmay qolmadi. Tashkil etilgan adabiy davralar bo‘layotgan o‘zgarishlarga ijodkorlarning munosabati keskinlashishiga, adolatsizlikka va amaldorlarning qilmishlarini fosh qilishga xizmat qildi. Zavqiy hajvlarini soda, ravon tilda, tilimizning boyligidan aforizm-u maqollaridan foydalangan holda ifoda etdi. Xalq orasida bo‘ldi va shuning uchun ham baralla xalq dardini kuylay oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘raqulov U. (2006). Hududsiz jilva. Toshkent: Fan.

2. Karimov G‘. (1975). O‘zbek adabiyoti tarixi (uchinchi kitob). Toshkent: O‘qituvchi.

3. Karimov G‘. (1987). O‘zbek adabiyoti tarixi (uchinchi kitob). Toshkent: O‘qituvchi.

4. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va boshqalar. (2004). Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti darsligi. Toshkent: Ma’naviyat.

5. Yusupov Sh. (2003). Tarix va adab bo‘stoni. Toshkent: Ma’naviyat.

6. Zavqiy tanlangan asarlar. (1950). Ikkinchi nashr (Nashrga tayyorlovchi H.Razzoqov). Toshkent.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY DRAMALARIDA RAMZLAR TAHLILI

Miradxamova Munisa Shamsiddin qizi,
ToshDO'TAU OTAT, 2-kurs
miradkhamovamunisa@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasini tahlil etib, undagi ramzlarni ochishga va unda ilgari surilgan g'oyani yoritishga harakat qilindi.*

Kalit so'zlar: *Zaharli hayot, ramzlar tizimi, jadidchilik go'yasi, jaholat, fojia.*

Abstract. *This article analyzed Hamza Hakimzada Niazi's drama "Poisonous Life or Victims of Love" and tried to open the system of symbols in it and illuminate the idea put forward in it.*

Key words: *toxic life, symbol system, the idea of modernism, ignorance, tragedy.*

Hamzaning "Zaharli hayot…" dramasi 1915-yil yozilib 1916-yil sahnalashtirilgan, 4 pardalik fojia. Undan fojia (tragediya)ga xos pafos ufurib turadi. Muallifning o'zi: "Turkistonning o'z maishatindin olingan qiz, kuyov fojiasi" deb ta'rif beradi. Hamza bu dramasini bevosita Fridrix Shillerning "Makr va muhabbat" dramasidan ruhlanib yozgan deb aytsak bo'ladi. Sababi, bu ikki dramaning g'oyasi va tuzilishi ancha yaqin. "Zaharli hayot…" dramasi jadidchilikni targ'ib qilish, ma'rifatparvarlikni yoyish g'oyalari ruhida yozilgan.

Dramaning qisqacha syujeti haqida gapiradigan bo'lsak, boshlanishidanoq Mahmudxonning xonasini "ovrupacha ziynatlangan" ligi haqida ma'lumot beriladi. Mahmudxon va Abduqodirboy suhbatidan shu narsa anglashiladiki, har qanday vaziyatda ham Mirzo Hamdamboy Mahmudxonga Maryamxonni olib bermasligini aytadi. Mirzo Hamdamboy el ichida shuhrat topgan, obro'li kishilardan bo'lgani uchun nafaqat Qo'qonda Buxoro, samarqand, Qashqarda ham nomi chiqqanligini aytib o'tadi. Bittagina o'g'li bo'lganligi uchun o'zidan yuqori bo'lmasa ham, o'zi bilan barobarroq oiladan kelin olishini uqtiradi. Shu va shunga o'xshash so'zlaridan Mirzo Hamdamboyni boylikka o'ch, shuhratparast, ilmdan bexabar va

ma’rifatdan yiroq inson deb anglashimiz mumkin. Chunki u o‘z o‘g‘lining baxtini pul bilan o‘lchaydi, kosibning qizini o‘ziga tenglashtirmaydi. Shu orada Hazrat Eshonning Qosimxon degan xalfasikelib qolib, Maryamxonni Eshonga nazr bo‘ganligi, murid ovidan kelib qolsa shu oyda to‘y ham bo‘lib ketishi mumlinligini aytadi. Vaholangki Eshonning 6 ta xotini bor edi. (Oltiariqlik xotini vafot etib 5 ta qolgan bo‘ladi). Mirzo Hamdamboy bu so‘larni eshitib Abduqodirboyni hijolat qilib jo‘natadi. Maryamxon va Mahmudxonning birgalikda orzu-umidlari bor edi. Ular birgalikda qizlar maktabi ochib, darsliklar yaratmoqchi edilar. Biroq, Maryamxonning ma’rifatdan, ilmdan yiroq, pulga o‘ch ota-onasi zo‘rlik bilan Eshonga turmushga beradi. Mahmudxondan ayrilib Eshonga turmushga chiqgan Maryamxon bu azobga chiday olmay o‘zini zaharlaydi. O‘z sevgisidan ayrilgan Mahmudxon Maryamxon qabri boshida bu tuban, jaholat botqog‘iga botgan zamondan zorlanib nola qiladi. Bu ishlar jaholatdan, g‘aflatdan, ilmsizlikdan bo‘lganini afsuslanib gapiradi. Bu zamonni: insoniyatni, vijdonni, adolatni, mehr-shafqatni, jondan ortiq farzandIni aqchaga sotadigan zamon deb kuyunadi va o‘zini otib o‘ldiradi.

Ramzlar tizmiga to‘xtaladigan bo‘lsak dramada faqatgina Mahmudxon va Maryamxonni ilmli, ma’rifatli obrazlar deb olishimiz mumkin. Mahmudxon bo‘ysunuvchan, Maryamxon esa isyonkor.Mahmudxon o‘z fikr va qarorlarini otasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ayta olmaydi. Xuddi jadidlar o‘z g‘oyalarini sho‘ro hukumatiga ayta olishmaganlaridek. Bunda Mahmudxonni milliy jadidlarimizning umumlashma g‘oyasi deydigan bo‘lsak, Mirzo Hamdamboyni sho‘ro hukumati (hokimiyat) deb olsak bo‘ladi. Bizga jadidchilik g‘oyalari Yevropadan kirib keldi (Ismoil G‘aspirali- Qirim). Maryamxonni ana shu Yevropa jadidlarining g‘oyasi ramzida ko‘rishimiz mumkin. Muallifning qahramonlarga ism qo‘yish mahorati ham yuksak darajada rivojlangan. Jadidchilik g‘oyalariga asli dindan birozgina bo‘lsada xabari bo‘lmagan, o‘ta tuban, xudbin, sudxo‘r, “Eshon”lar qarshi bo‘lishgan, ularni ta’qib qilib dinsizlik, kofirlikda ayblashgan. Xalq oldida o‘zlarini taqvoli, din bilimdoni qilib ko‘rsatib “ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan” razil ishlarini din ostida amalga oshirishgan. Afsuski, xalq buni bilmagan va

anglamagan. Dindan gapirgan har mullani haq deb o‘ylashgan. Sababi, xalq na dunyoviy, na diniy bilimlardan xabardor bo‘lgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki Hamza “Zaharli hayot…” dramasi orqali xalqni ma’rifatli bo‘lishga undaydi. Ayollarni ham o‘z huquqlarini anglashiga, ilm olishga intilishga chaqiradi. Ota-onalar tomonida boylik uchun o‘z farzandlarini qurbon qilishlikdn qaytaradi. Ushbu drama g‘oyalari barcha zamonlarga, jumladan hozirgi davrga ham to‘la mos tushadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Niyoziy, H.H. Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari.
2. Qosimov, B. (2004). Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti.
3. Shiller, F. Makr va muhabbat.

“QUTADG‘U BILIG” BADIIYATI AKS ETGAN TADQIQOTLAR

Odilova Dilobar,

ToshDO‘TAU lingvistika yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Hozirgi kunda qadimgi yozma yodgorliklar, mumtoz manbalarni o‘rganishda, ularni tahlil qilishda bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Olimlar mumtoz asarlarda yashiringan sir-u sinoatlarni yechish orqali tilshunoslikning yanada ravnaq topishiga o‘zlarining katta hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Ana shunday tahlil qilishga arzigulik asarlardan biri, shubhasiz, Yusuf Xos Hojibning “ Qutadg‘u bilig” dostonidir. Ushbu maqolada “Qutadg‘u bilig” asari yuzasidan izlanish olib borgan olimlar hamda ularning tadqiqotlari haqida ma’lumotlar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Adib mahorati, tadqiqot, lingvistik tahlil, doston, turkiy til, xilma-xillik, transkripsiya.*

Abstract. *Currently, a number of research works are being carried out in the study of ancient written monuments, classical sources, and their analysis. Scientists have been contributing to the further development of linguistics by solving the mysteries hidden in classic works. Undoubtedly, one of the works worth*

analyzing is Yusuf Khos Hajib's epic "Kutadgu Bilig". This article provides information about the scientists who conducted research on the work "Kutadgu Bilig" and their research.

Key words*: Literary skill, research, linguistic analysis, epic, Turkish language, diversity, transcription.*

Milliy g‘ururimiz bo‘lgan tilimizni har tomonlama o‘rganish o‘z milliy qadriyatlarimizni tiklashdek ulug‘ ishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bu yuksak vazifani bajarishda xalqimizning qimmatli xazinasi hisoblangan mumtoz asarlarga murojaat qilish ko‘zlangan maqsadga erishishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ulug‘ ajdodlarimizning bizga qoldirgan buyuk meroslari o‘zining badiiy saviyasi, betakror uslubi, xilma- xil so‘zlarga boyligi bilan asrlar osha yashab kelmoqda. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni ham ana shunday nodir asarlardan biri hisoblanadi. Asarni yozishda Yusuf Xos Hojib turkiy tilning barcha imkoniyatlaridan, so‘z boyligidan mohirona foydalangan. Uning o‘zi “Men turkcha so‘zlarni yovvoyi tog‘ kiyigi kabi bildim. Shunga qaramay ularni avaylab-asrab qo‘lga o‘rgatdim”, - deb yozadi.

“Qutadg‘u bilig” asari juda ko‘p olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Asarning birinchi ilmiy nashri A. Joberga taalluqli hisoblanadi. A. Jober nashri G. Flyugel, I. Berezin, N. Ilminskiylarning diqqatini tortadi. Vena nusxasining birinchi to‘liq nashri atoqli mojar turkologi G. Vamberi tomonidan amalga oshirilgan. Uning turkiylar haqidagi fikriga ko‘ra: “Eng muhimi shundaki, turkiylar o‘zlarining bilimdonliklari bilan butun dunyoni larzaga solgan. Shunisi isbot talab etmaydigan haqiqatki va ayni paytda hayratlanarliki, bizning Ovro‘pada ibtidoiy hayot hukm surgan bir paytda ularda milliy adabiyot ravnaq topgan”. Olib borilgan tadqiqotlar G. Vamberi nashrida doston mazmun yetarlicha ochib berilmagani, ba’zi o‘rinlarda xatolar mavjudligini ko‘rsatdi.

Qutadg‘u biligni o‘rganishda akademik V.V. Radlovning xizmati alohida e’tirofga loyiqdir. Olim asarni nemis tiliga tarjima qilgan va 1900-yilda Qohira va Vena nusxalari transkripsiyasini amalga oshirgan. Dostonning til xususiyatlarini monografik planda o‘rganish XX asrning oxirlarida boshlandi. R. Arziyev asarning

leksik-stilistik xususiyatlariga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Tadqiqotda “Qutadg‘u bilig” leksikasining lingvostilistik tahlili amalga oshirilgan. Metafora, epitet kabi tasvir usullari yoritilgan. Dostonda otlardan hosil qilingan metaforalarning nisbatan ko‘pligi ta’kidlangan. Inson tanasi qismlari (bosh, jigar, bo‘yin, yuz), zoonimlar (arslon, bo‘ri, ot, qo‘y) asosidagi metaforalar izohlangan. Asar g‘oyasini ifodalashga xizmat qilgan grammatik, leksik vositalarning uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan. Yusuf Xos Hojib ijodidagi kontekstual, okkozional antonimlar keltirilgan. “Qutadg‘u bilig” ni ommalashtirishda buyuk allomamiz Abdurauf Fitratning nomini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Olim “Qutadg‘u bilig” ning Namangan qo‘lyozmasi nusxasidan parchalar e’lon qilgan.

A. Kasiyeva “Qutadg‘u bilig” dagi metaforalarning leksik-semantik xususiyatlari”ni o‘rgandi. Jumladan, olima asarda qo‘llangan baγïrsaq va tapuγčï so‘zlarini quyidagicha izohlaydi: Метафора бағырсақ тапуғчы – “сердечный слуга – сердце” бағыр [печень], в русском переводе “ ближе сердце в груди”, а в англ. “[его] держи близко к груди”

Kasiyeva mulohazalarida *bag‘ir “jigar”* leksemasining “yaqinlik” semasi anglashiladi, ya’ni *bag‘ir “jigar”* ko‘krak qafasida yurakka eng yaqin a’zo sifatida tilga olingan. Olima talqinlaridan inson yaqinlarining – o‘g‘a-ini, opa-singillarning *“jigar”* ga nisbatlanishi sabablari ayon bo‘ladi. Yusuf Xos Hojib asarini O‘zbekistonda nihoyatda keng miqyosda o‘rganilishi uchun ilmiy asos yaratib bergan olim, hech shubhasiz, Qayum Karimovdir. Bu olim asarni lingvistik jihatdan juda batafsil o‘rgandi, mazkur asarni o‘rganish uchun olim butun umrini sarfladi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Olimning eng yirik xizmatlaridan biri shundaki, u asarning butun turkshunoslar e’tirof etgan transkripsiyasini yaratdi, hozirgi o‘zbek tiliga tavsif qilish prinsiplarini ishlab chiqdi, shu asosda asarning o‘zbekcha tabdilini yaratdi, nisbatan ilmiy talablarga javob bera oladigan nashrini amalga oshirdi, asarning matni, til xususiyatlari, topilishi va o‘rganilishiga oid, uning badiiyatiga aloqador bo‘lgan ko‘plab maqola va kitoblarni yozdi. Olimning doston tili kelishiklar kategoriyasiga bag‘ishlangan izlanishida bosh, qaratqich, tushum,

jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish va vosita kelishiklarining voqelanish yo‘llari, ularning qanday ma’nolarni ifodalashi, sintaktik funksiyasi, ko‘makchili konstruksiyalarning kelishiklar o‘rnida yoki ular bilan birga qo‘llanishi xususida batafsil mulohaza yuritilgan.

“Qutadg‘u bilig” asarining tadqiqi rivojiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan olimlardan yana biri Boqijon To‘xliyev hisoblanadi. U asarning badiiy xususiyatlari haqida juda ko‘plab maqolalar e’lon qildi, bu borada jiddiy tadqiqotlarni amalga oshirdi. U “Qutadg‘u bilig” ning janr xususiyatlari borasida ancha salmoqli ishlarni amalga oshirdi, dostonning vazni hamda qofiya tizimini alohida va chuqur tekshirdi, doston poetikasida muhim o‘rin tutgan tasvir vositalarini, tasvir prinsiplarini tadqiq etdi. Asarning poetikasini o‘rganish asosida bir necha risola, o‘quv qo‘llanmasi va alohida monografiya nashr ettirdi. Uning asarni keng kitobxonlar ommasi orasida targ‘ib etishdagi xizmatlari ham katta. Bu borada u asarning bolalarbop variantini nashr ettirishdan boshlab, ancha salmoqli maqolalargacha yozganini eslash o‘rinli bo‘ladi.

Doston tilidagi sifatlarning ko‘p ma’noliligi qozog‘istonlik G. Bayaliyevaning maqolasida ma’lum darajada yoritilgan. V. Vinogradov, S. Axmanova, G. Paul, L. Shcherba, E. Galinka- Fedoruk, H. Amosova, K. Axanov kabi lingvistiklarning polisemiya haqidagi ta’rif va mulohazalaridan so‘ng olima “Qutadg‘u bilig” matnida **ked** sifatining to‘rt, **kek** otining uch, **kel**= fe’lining uch, **kes**= fe’lining ikki, **ken** sifatining uch ma’noda qo‘llanganini ta’kidlaydi. Dostonda 31 bor qayd etilgan **az** “ oz, kam” sifatining uch, 163 bor ishlatilgan **al** “ qizil” ning ikki ma’noligi ta’kidlangan. Uqushliq “ aqlli” sifatining 148 marta qo‘llangani aniqlangan. Shuningdek, doston tilidagi sifatlarda sodir bo‘lgan metaforik va metonimik ko‘chimlar hodisasiga ashyoviy misollar yordamida diqqat qaratilgan. Sifatlarning otlashuvi XI asr turkiy manbalarga ham xosligi e’tirof etiladi.

“Qutadg‘u bilig” asarida harbiy ish va harbiy san’at bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi terminlar miqdori ancha bo‘lib, ular “Исфаҳсалар нәкүә- тег кәрәкин айур” (lashkarboshilar qanday bo‘lishi kerakligini aytadi) bobida uchraydi. Yusuf

Xos Hojib tomonidan ishlatilgan harbiy istilohlar maxsus tadqiqot obyektiga aylantirilmagan. Asarda mansab, rutba, unvon, qismlar, askarlar, asosiy jangovar harakatlar, qurol-aslaha, anjom, mudofaa inshootlari nomlari e'tirof etilgan. Doston hamda " Devonu lug'otit turk" ga xos bo'lgan harbiy terminlar muayyan qismining keyingi davrlarida iste'moldan chiqish sabablari ko'rsatilgan.

Keyingi yillarda ham "Qutadg'u bilig" asarini tadqiq qilish ishlari jadallashdi. Jumladan, H.Abdullayev Xalq maqollarining "Qutadg'u bilig" poetikasidagi o'rni va badiiy-estetik funksiyalari haqida ilmiy izlanishlar olib bordi. Q. Sidiqov asar to'rtliklarining inglizcha badiiy tarjima xususiyatlarini o'rgandi va ommaga tadbiq qildi.

F. Abdujabborova esa "Qutadg'u bilig" dagi shaxs belgi-xususiyatini anglatuvchi leksikani maxsus o'rgandi, fe'l-atvor bildiruvchi leksemalarning semantik xususiyatlarini tahlil qildi.

Bundan tashqari, M. Xolmurodova "Qutadg'u bilig" asarini leksik-semantik jihatdan tahlil qilgan. U asar haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari turkiy tilda bitilgan ilk badiiy dostondir. "Qutadg'u bilig" leksikasini o'rganish turkiy tillarning, xususan, o'zbek tilining keng imkoniyatlarini yoritishda, o'z va o'zlashgan qatlam munosabatini belgilashda, hozirgi o'zbek tilida qo'llanish holatini aniqlashda, semantik jarayonlarni tahlil qilishda, buyuk mutafakkir qarashlarini, so'z qo'llash mahoratini tahlil qilishda ahamiyatlidir". U asardagi o'z va o'zlashgan qatlam leksikasini statistik jihatdan tahlil qilgan va asarda turkiy leksemalarning 84% ni tashkil etishini isbotlagan. Qonuq, yitur, bork, inak, satu, zija kabi leksemalarning hozirgi kundagi o'zbek shevalarida ham faol qo'llanishini ta'kidlab o'tgan. Asardagi leksemalarni 32 ta semantik guruhga mansubligini aniqlagan. Leksemalarning atash ma'nosidan tashqari emotsional- ekspressiv vazifalarda kelishi, asar badiiyatini ta'minlovchi ko'chim turlari bo'lgan metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ko'chim turlarining o'rnini asoslab bergan.

Xulosa qilib aytganda, "Qutadg'u bilig" asari xorijlik hamda o'zbek olimlari tomonidan ko'p marotaba tadqiq qilingan. Bu izlanishlar hali-hanuz

davom etib kelmoqda. Zero, bu asarni qancha o‘rganganimiz sari uning badiiyati yashiringan yangi eshiklar ochilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdujabborova F. “ Qutadg‘u bilig” dagi shaxs belgi-xususiyatini anglatuvchi leksika. Filol. fan. nomz…diss. –T.,2011.
2. Abdullayev X. Xalq maqollarining “ Qutadg‘u bilig” poetikasidagi o‘rni va badiiy-estetik funksiyalari. Filol. fan. nomz…diss. –T.,2005.
3. Abdurahmonov G‘. (2011). T o‘xliyev B., Rustamov A., Dadaboyev H. Qutadg‘u bilig. I,II jildlar. –Toshkent: Jahon print.
4. Xolmurodova M.(2019) “Qutadg‘u bilig” leksikasi. Filol. fan. fal. dok.-ri (PhD). –Toshkent.
5. Юсуф Баласагунский. Благодатное знание/ Издание подготовил Иванов С.Н. – М.: Наука, 1983.
6. Арзиев Р. Лексико-стилистические особенности языка поемы «Кутадгу билик» Юсуфа Хас Хаджиба. Дисс. канд. филол. наук. –Алма-Ата, 1991.
7. Касиева А. Лексико-семантический анализ метафор “ Қутадғу билиг”. – Бишкек, 2005.
8. Каримов Қ. “ Қутадғу билиг” ни транскрипсия ва тавсиф қилиш принсиплари.- //Ж. Ўзбек тили ва адабиёти, 1970.
9. Каримов Қ. Категория падежа в язике “ Қутадғу билиг” . Автореф.дисс…қанд.филол.наук. – Т., 1962
10. Баялиева Г “ Қутадғу билик” дастаны тилиндеги көпмағыиналы сын симдер// Тилтаным. Языкознание. – Алматы, 2003.
11. Дадабаев Ҳ., Насыров И., Ҳусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент: Фан, 1990.
12. www.wikipedia.org.
13. www.kitobdunyosi.uz.

BOBURNING LIRIKASIDA PEYZAJ VA SHE'RIY SAN'ATLAR

Qayumova Feruza Zayniddin qizi,
ToshDO'TAU O'FF, 4-kurs

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning peyzaj yaratishda she'riy san'atlarni qo'llash, ijodkor sifatida an'anaviy she'riy san'atlar mazmunidan foydalangan holda badiiy yangilik yaratish masalasi tadqiq etiladi. Badiiy san'atlarning peyzajning yoritilishida tutgan o'rni, Bobur lirikasigagina xos bo'lgan xususiyatlari o'rganiladi. Zahiriddin Bobur ijodida peyzaj lirik qahramon ichki olamini yoritish vositasi ekani asnosida, bu jarayonda she'riy san'atlar ayni ruhiyatdagi ziddiyatlar ifodasining yoritilishida muhim o'rin tutishi, ularning shakliy va mazmuniy xususiyatlari masalasiga to'xtalinadi. Peyzaj va she'riy san'atlar masalasi ilmiy va badiiy asnosda yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Peyzaj, lirika, badiiy san'atlar, tazod, talmeh, tanosub, tajnis, takrir, iyhom, g'azal, ruboiy.*

Abstract. *This article examines Zahiriddin Muhammad Babur's use of poetic arts in landscape creation, creating artistic innovation using the content of traditional poetic arts as a creator. The role of artistic arts in the illumination of the landscape, the features unique to Babur's lyrics are studied. According to the fact that the landscape is a means of illuminating the inner world of the lyrical hero in the work of Zahiriddin Babur, in this process, the poetic arts play an important role in the expression of conflicts in the psyche, and the issue of their formal and substantive characteristics is discussed. The issue of landscape and poetic arts is covered in scientific and artistic terms.*

Keywords: *Landscape, artistic arts, tazad, talmeh, tanosub, tajnis, takrir, ihom, ghazal, rubai, lyrics.*

Peyzaj badiiy asarning badiiyatini yuksaltiruvchi eng muhim omillardan biridir. She'riy san'atlar va peyzaj uyg'unligi esa badiiyatning yanada mukammallashuviga sabab bo'luvchi ijodiy jarayondir. *"Peyzaj badiiy asar shaklining tarkibiy qismi bo'lib, u g'oyaviy mazmun ifodasiga xizmat qiladi. Peyzaj muallif asarda ilgari surgan g'oyaviy maqsadni ifodalashda u bilan*

uyg‘unlashadi” (Erkinov, 1988, 6-bet). Har bir ijodkor san’at asarini yaratayotganda, albatta, tabiatdan ilhom oladi. Qushlarning sayrashi-yu, daraxtlarning shivirlashi, jilg‘alarning shildirashi-yu hasharotlarning chiyillashi bularning barchasida qandaydir bir mo‘jiza yashiringandek. Tabiat – mo‘jizalarga boy. Haqiqiy shoirgina bu mo‘jizani tushunadi, anglaydi, his etadi va boshqalarga ham badiiy shaklga solgani holda yetkazib beradi. Bu jarayonda turli badiiy vositalarni qo‘llaydi, unumli foydalanadi. Ayni shunday badiiy tasvir vositalaridan biri – she’riy san’atlardir. Lirikada *“Tabiat faqatgina fon emas, balki asar umumiy g‘oyasi va mazmunining ajralmas qismiga aylanadi va ma’lum darajada shoir kechinmalarining, u ilgari surmoqchi bo‘layotgan g‘oya va mazmunning bir qismi bo‘lib qoladi”* (Rahimjonov, 1979, 9-bet). Bu jarayonda tabiiyki tabiatga munosabatning she’riy san’atlar vositasida ifodalanishi chinakam badiiylikni yuzaga keltiradi. Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida peyzaj masalasi alohida o‘rganilishi joiz bo‘lgan masalalar sirasiga kirishiga sabab, tabiat shoir ruhiy kechinmalarining rassomidir. Shoir o‘z lirik kechinmalarini: shodligi, qayg‘usi, iztirobi-yu sog‘inchini, afsuslari-yu iqrorlarini tabiatning tasviriga uyg‘unlashtirgan holda bog‘laydi va aks ettiradi. Ammo tuyg‘ular tasvirini faqatgina peyzaj bilan bog‘lab berishning o‘zi ijod badiiyatining yuksalishi uchun yetarli hodisa emas. Shoir endi o‘z tuyg‘ulari va tabiatni uyg‘unlashtirish asnosida, ular o‘rtasidagi zidlikni, o‘xshashlikni, farqlarni ko‘rsatib beradi va bu jarayonda badiiy san’atlar uning asosiy badiiyat quroliga aylanadi. Boburni “peyzaj ustasi” deb atasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning ayni shu mahorati hajman kichik shaklga ega bo‘lgan ruboiylarda ham tabiat bilan muloqotga kirishishida namoyon bo‘ladi. Jumladan, bir ruboiysida “yel” va “sabo”ni o‘ziga eng yaqin sirdosh deb biladi. Ma’shuqaga bo‘lgan muhabbatini ham, Xurosonga sog‘inchli xabarlarini ham “yel” va “sabo” orqali hayqiriqlar bilan yo‘llaydi. Ularga eng yaqin kishisidek murojaat qiladi va ularni jonlantiradi. Shoir bir ruboiysida “yel”ni o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurti tomonga yo‘naltirib, salomini yetkazishini so‘rab shunday yozadi:

Ey yel, borib ahbobga nomimni degil!

Har kim meni bilsa, bu payomimni degil!

Mendin demagil gar unutilgan bo‘lsam

Har kimki meni so‘rsa, salomimni degil!

Ko‘rinib turganidek, uning uchun shamolning salom aytish hodisasi o‘z-o‘zidan tashxisning belgilarini ifoda etsada, bu ruboiyda bu she’riy san’at yetarlicha bo‘y ko‘rsatmaydi. Ammo *“She’riyat uchun xos bo‘lgan bir necha zaruratlar: nuktapardozlik (yangi fikrlar ayta olish mahorati), jozibali badiiy san’atlardan me’yorida ustalik bilan foydalanish sehrgarligi va ehtiros jo‘shib turgan rangin tuyg‘ular talqini boburona samimiy she’riyat fazilatlaridir”* (Z.M.Bobur, 2017, 9-bet). Zero, badiiy san’atlar asarda ifodalangan g‘oyalarning hayotiyroq, ta’sirchanroq ifodalanishini, misralar, bayt va bandlarning lafziy nazokati, jozibadorligini ta’minlovchi vositalardir. Bu jihat Boburning “Bahor ayyomidur, dog‘i yigitlikning avonidur” g‘azalida yuqorida tahlil etganimiz ruboiysidan ko‘ra yaqqol namoyon bo‘la boshlaydi:

Yana sahni chaman bo‘ldi munaqqash ranga gullardin

Magarkim sunining naqqoshig‘a rang imtihonidur.

Baytdagi munaqqash va naqqosh so‘zlari o‘zaro tanosubni yuzaga keltirgani holda, tabiatning bu qadar betakror go‘zallikka egaligini uning “Naqqosh”ining mahorati bilan bog‘laydi. Ollohning qudratini tabiatning birgina lahzasida aks etishini badiiy yoritar ekan, tanosubning badiiy kuchi orqali asar jozibasini yanada yuksaltiradi. Xuddi shu g‘azaldagi boshqa bir baytda esa tabiat elementlari bo‘lmish gul, gulshan, sarv, bog‘ kabi vositalardan foydalangani holda husni ta’lil va badiiy tasvir uy‘unligini yaratadi:

Yuzing, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori

Qading, ey gul, hayotim bog‘ining sarvi ravonidur.

Ko‘rinib turganidek, bu baytda shoir ma’shuqaning yuzi va qaddini chiroyli tabiat vositalariga qiyoslamoqda. Yuzini toza – gulzorga, qaddini – bog‘ining sarvi ravoniga mengzamoqda.

Boburning oshiqona lirikasida ham tabiat va she’riy san’atlar uyg‘unligi yuksak badiiyatni, betakror lirik ifodani yuzaga keltiradi. Zero, *“Bobur g‘azallarining asosiy mavzusi oshiqona ehtiroslar, mushtoqliklar, yolvorishlar,*

iztiroblar-u kuyib yonishlardir" (Z.M.Bobur, 2017,10-bet). Shu o‘rinda shoirning bir g‘azalida oshiqning ma’shuqasiga iltijosi talqinida yigit yuzining kuzgi yaproqdek sarg‘ishligini, mahbubaning lola yuzi qirmiziligini tazod vositasida o‘ziga xos tarzda ifodalaydi:

Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzing hajrida sarg‘ardim

Ko‘rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrayi zardim!

Oshiqning ezgin holatini tabiat vositalari bo‘lmish xazon va gulning holatini qarshilantirish orqali ifodalaydi. Ammo bu kabi ifodalar Bobur ijodidagi eng oddiy badiiy topilmalardir. Adabiyotshunos olim Normat Yo‘ldoshev yuqoridagi baytni quyidagicha talqin qilgan: *"ushbu baytdagi "xazon yaprog‘i", "hajr", "chehrayi zard" —kuz manzarasini hosil qiluvchi tashbehlar. Oshiq yuzi yorning hajrida "xazon yaprog‘i yanglig‘" sarg‘aygan. Bu sarg‘ayish yor hijroni emas, diyor hijroni hamdir"* (Yo‘ldoshev, 1994, 65-bet). Demak, kuz tasviri zamirida Boburda yor va diyor hajri vasf etilgan. Uning lirikasiga chuqurroq kirib borilgani sari peyzajning mohiyati, she’riy san’atlarning qo‘llanishi murakkablashib, o‘ziga xos ko‘rinish kasb etib boraveradi:

Sabzasi gullar bila jannat bo‘lur Kobul bahor

Xossa bu mavsumda Boron yozisi-yu Gulbahor.

She’rda bahor va yoz ma’no jihatdan qarama-qarshi so‘z hisoblanadi. Bobur yuqoridagi baytda bir yoki ikki so‘zni ikki ma’noda qo‘llash san’ati bo‘lgan iyhomni ham qo‘llagan. Chunonchi, “Gulbahor” so‘zi ism va Gulbahor tog‘i ma’nolarida qo‘llangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mumtoz poeziyada Boburdek tabiatga oshiq shoirni topish mushkul. U tabiatni madh etar ekan, o‘z ruhiyatidagi evrilishlarni peyzaj vositasida badiiylashtiradi. Shoir tabiatdan shunchaki manzara yaratmaydi, balki mohiyat izlaydi. Bobur tabiat vositalari: xazon yaproqlaridan, maysalarning ohista tebranishlaridan, chaman gullaridan ruhiyat tilsimlarini izlaydi. Shu jihatdan olimlar *"Bobur – buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, tarixchi, faqih, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko‘pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi"*, –deya

ta'kidlashadi. (Qudratullayev, 2004, 14-bet) Insoniyat tarixida Boburchalik iqtidor va fazilatlari beqiyos kishilar juda kam uchraydi. Bu holat yuqorida tahlil etilgan barcha misralarda yaqqol seziladi. Peyzaj va she'riy san'atlar uyg'unligidagi badiiy mahorat Bobur lirikasi jozibasining mingdan bir qirrasi xolos deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkinov, A., (1988). Navoiy peyzaj ustasi. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
2. Qudratullayev, H., (2004). Bobur shaxsiyatining yorqin jihatlari. Toshkent: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi.
3. Rahimjonov, N., (1979). Davr va o'zbek lirikasi. Toshkent.
4. Yo'ldoshev, N., (1994). Cho'lpon she'riyatida peyzaj. Toshkent.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. (2017). Boburnoma. Toshkent: O'qituvchi.

JADID HIKOYACHILIGIDA MOTIVLAR VOSITASIDA G'OYAVIY MAQSADGA ERISHISH

Safarov Xoliyor Berdiyarovich,

ToshDO'TAU adabiyotshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti

xoliyorsafarov@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadid hikoyachiligada yuz bergan uslubiy o'zgarishlar, mualliflarning motivlar yordamida g'oyaviy maqsadga erishish yo'llari, to'y, safar, tush kabi motivlar qahramon ruhiy olami hamda davr nafasini aks ettirishda muhim vosita ekanligi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Hikoya, motivlar, tush, safar, to'y, bazm.*

Abstract. *This article describes the methodological changes in modern storytelling, the ways of authors to achieve their ideological goals with the help of motifs, and the fact that motifs such as wedding, journey, dream are an important tool for reflecting the spiritual world of the hero and the spirit of the era.*

Keywords: *Story, motives, dream, trip, wedding, party.*

Adabiyot tarixini kuzatadigan bo'lsak, motiv ijodkorning badiiy niyatini amalga oshirishning muhim omili ekanligiga guvoh bo'lamiz. Jadid namoyondalari ham o'zlarining ma'rifatparvarlik g'oyalarini amalga oshirishda motivlardan unumli foydalanishgan. Motivning asl mohiyatiga e'tibor beradigan bo'lsak,

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da unga *“motiv (fr. motif - kuy, ohang) – syujetning tarkibiy elementi, asarning asosiy mazmuni, mavzui*” tarzida izoh berilgan. U xalq og‘zaki ijodi zamirida o‘sib, nafaqat nasriy, balki she’riy asarlarda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Rus olimi A.I.Beletskiyning fikricha, *“motiv bir paytlar barcha mazmunni afsonaga bergan, tushunarli xarakterdagi oddiy jumla, ibtidoiy aqlga tushunarsiz hodisalarni obrazli tushuntirish”*dir. A.N. Veselovskiy mif va ertaklarni tahlil qilib, u motiv eng oddiy hikoya birligi bo‘lib, uni keyinchalik parchalab bo‘lmaydi, degan xulosaga keladi. Ammo Oybek shunday yozadi: “*Har bir lirik asarni uch qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismda bosh fikr, bosh motiv ifodalanadi, ikkinchi qismda yordamchi yangi motivlar ila mavzu ochilar, uchinchi qismda fikr va tuyg‘ular doirasi berkiladi. Buni xotima deb atalar, xotimada fikrlar, tuyg‘ular aniqlanib, o‘tkirlanib, bir tekstga to‘planar...*” (Hamroyev K, 2020. 32-bet) Oybekning ushbu fikrlari jadid hikoyalarda qo‘llanilgan motivlarni aniqlashga ko‘mak beradi.

Motivning badiiy asardagi o‘rnini magnitga qiyoslash mumkin. Boisi u syujet chizig‘idagi jarayonlarni bir ipga tizib turadi. Jadid hikoyachiligida motivning eng ko‘p quyidagi ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi.

1. Maktub. 2. Safar. 3.Tush. 4.To‘y. 5.Bazm qilish. 6.Qotillik.

Hikoyalarda eng ko‘p va samarali qo‘llanilgan motiv safar va to‘ydir. Jadidlar o‘z asarlariga ma’rifatparvarlik g‘oyalarini singdirgan ekan, insonning qalb ko‘zi ochilishi uchun u safar qilishi va dunyo ko‘rishi kerakliigini, safar davomida o‘zi yashayotgan muhitning qanchalar qoloq va jaholatga botganligini to‘la his etish kerak edi. To‘y millatning ma’naviy qiyofasini ko‘rsatuvchi eng yaxshi vosita.

Maktub motivi o‘zbek adabiyotida azaldan mavjud bo‘lib, dastlab xalq og‘zaki ijodida, xususan, “Alpomish” dostonida ham qo‘llanilgan. Jadid hikoyachiligi yalovbardori bo‘lgan Abdulla Qodiriy “Juvonboz” hikoyasida ushbu mumtoz motivdan unumli foydalanadi. Raufboy oilasiga yozgan birinchi xat hikoyada katta burilish yasamagan bo‘lsa-da, unga Turkistondagi savdogar do‘stidan kelgan xat hikoyaga burilish yasab, voqealar rivojini o‘zgartirib yuboradi. Raufboy bankdan pul olishga vaqti yo‘q edi. Shu bois o‘g‘li nomiga

notariusdan vakolat qilib beradi-da, “*Pulni bankadan olgandan so‘ng menga yuborarsan, chunki arzon bahog‘a mol olaman, ko‘b foyda qilsam Xudo xohlasa yana kelganimda seni uylanturub qo‘yaman*”, (Qodiriy, 2017. 48-bet) deydi. Sa’dulla esa bankdan pulni oladi-yu, otasiga yubormay maishatiga ishlatib yuboradi. Raufboy o‘g‘liga yana xat yozadi. Sa’dulla esa “*Men ham munda savdogarchilik qilub, anchagina foydalik bo‘ldum, mollarimni sotib, oqcha qilub tezlik ila sizg‘a yuboraman, mundan xotirjam bo‘lasiz*”, deb yolg‘on maktub bitadi. Aslida bu pullar uning maishatiga ketgan, oxir-oqibat boshiga yetgan edi... Umuman olganda, muallif maktub orqali o‘z badiiy niyatiga erishgan. Qodiriy keyinchalik ham “O‘tkan kunlar” romanida ushbu motivdan unumli foydalangan...

Safar motivi. Inson hayotidagi tub burilishlar, ongli o‘zgarishlar safar davomida yuzaga chiqadi. Shu boisdan safar motivining adabiyotda o‘rni beqiyos. Uning ilk namunalari xalq og‘zaki ijodi, xususan, ertak va dostonlarda aks etgan. Qodiriyning “Juvonboz” hikoyasida ham Raufboyning tijorat maqsadida boshqa o‘lkalarga, ayniqsa, Turkistonning mashhur shaharlarida ko‘p bo‘lgan va safar davomida ong-shuuri yuksalib, o‘g‘lining o‘qimishli bo‘lishini istagan, ammo Sa’dulla noqobil farzand edi. Jadid hikoyachiligida safar motivining eng go‘zal namunalari Cho‘lponning “Do‘xtur Muhammadiyor” hikoyasida o‘z ifodasini topgan. Hikoya qahramonining otasi Hoji Ahmad 15 yoshida Misr, Istambul, Fas-Marokash, Bulujiston, Eron va Afg‘onistonni ko‘rgan, Rusiyani o‘n yilcha sayohat qilgan kishi edi. Shu boislan ham o‘g‘lining ma'rifatli bo‘lishini istardi. Otasining vahshiyona o‘limidan so‘ng “*Turkistonning jaholat daryosida sevina-sevina suzganini ko‘rgan Muhammadiyor xafachilikdan sil kasaliga yo‘luqdi*” (Cho‘lpon, 1994. 272-bet). Davolanish bahonasida u Kavkazga boradi. So‘ngra Boku, Shveytsariya, Frantsiya, Italiya, Turkiya, Ruminiya, Bolgariya, Odessa kabi shahar va davlatlarda bo‘ladi. Bu safarlar davomida u o‘z yurti bilan boshqa davlatlarning madaniyatini, aholisining turmush tarzini solishtiradi. Natijada qanchalar qoloq bir jamiyatda yashayotganligiga amin bo‘ladi. Yurtiga qaytgach o‘z hisobidan shifoxona, bog‘cha, qiroatxona, xayriya jamg‘armasi ochadi, gazeta-jurnallar nashr ettiradi.

Tush motivi. Badiiy asarlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan motiv, shubhasiz, tushdir. Uning ildizlari xalq ertaklari va dostonlaridan suv ichgan bo‘lib, “Irq bitigi”dan tortib, “Shayx Sa’non qissasi”, Alisher Navoiy asarlari, “Boburnoma”gacha qo‘llanilgan va bugungi kun asarlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birgina “Alpomish” dostonini oladigan bo‘lsak, “*Dostondagi befarzandlik, ulg‘ayish, sinov, safar, uylanish va uyga qaytish motivlari bevosita tush motivi bilan chambarchas bog‘liq holda keladiki, tush bu o‘rinda voqealar rivoji uchun asosiy poydevor vazifasini o‘taganini ko‘ramiz*” (Eshonqul J, 2011. 153-bet). Tush motivi jadid hikoyachiligida ham samarali qo‘llanilgan. Fitratning “Qiyomat” hikoyasi syujeti Ro‘ziqul – “Pochamir”ning isitma aralash ko‘rgan tushi asosiga qurilgan. Pochamirning o‘limi, Munkar-Nakir bilan savol-javobi, savob-u gunohlarining o‘lchanishi, “Qil ko‘prik”dan o‘tishi, barcha-barchasi tush orqali ifoda etiladi. Bizningcha, Fitratning bu kabi hikoyalari yurtda dahriylik avj olayotgan bir paytda dinga bo‘lgan munosabat va arosatda qolgan mazlumlarning alahsirashidan boshqa narsa emas... Behbudiyning “Bir a’mo bolaning hasrati” hikoyasi ham to‘liq tush asosiga qurilgan bo‘lib, unda davr qabohatlaridan yorug‘lik istayotgan va bu tushlariga kirib chiqayotgan bola tasvirlanadi. Bola bularni “eshitarmanki...” deya ifodalaydi. Uning go‘zal kunni, suv bo‘yidagi gullarni, qushlarning uchishini, dengiz mavjlarini, oq yelkanli kemalarni, tog‘lar, daralar, maydonlar... barchasini ko‘radi va ularning barchasini Ona diydoriga almashishini aytadi. Ona esa Turkiston...

To‘y motivi. Ushbu motiv ham qadimiylik kasb etib, ildizlari xalq og‘zaki ijodi, xususan, ertak va dostonlarga borib taqaladi. To‘y motivi jadid hikoyachiligida Qodiriyning “Uloqda”, Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola”, Elbekning “Anorgul” hikoyalarida uchraydi va turlicha vazifani bajarib keladi. “Uloqda” hikoyasida to‘yning bir qismi bo‘lgan uloq va undagi ota-tasir, sovrin uchun kurashish, umuman, xalqning tomoshaga o‘chligi haqida so‘z boradi. Asar syujeti uloq vositasida rivojlanadi va barcha voqeliklar shu tizimga solinadi. Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” hikoyasida esa to‘y qoliplovchi xarakterda. Eshoniga nazrga narsa topolmay “sadag‘asi ketsun” deb o‘n yettiga chiqqan qizini

berib yuborgan Samandar akaning, u dunyosi yaqin qolgan keksa eshonning ahvoli, turg‘un jamiyat fuqarolarining turmush tarzi, madaniy hayoti, ma'naviyati to‘y vositasida yuzaga chiqadi. Tomoshago‘y va laganbardor muridlarning olqishi bilan eshon “*titrak qo‘llarini aravaga uzatib, qizni ko‘tardi va bir-ikki odum bosg‘ondan so‘ng yerga qo‘ydi. Yana xalq chuvirlashib ketdi:*

- *Barakalla, taqsir, barakalla!*

- *Bo‘sh kelmadilar taqsirim!*

- *Hali bellari baquvvat ekan taqsirimning!*” (Cho‘lpon. 1994. 291-bet).

Jaholatga botgan va xurofotga berilgan olomon to‘yni va keksa eshonni olqishlaydi. Faqat bir kishi, *“bir burchakda ko‘cha poylab yotg‘on Mamat qorovul yig‘lag‘onday qilib hushtagini chalib oldi-da:*

- *Nimasini aytasiz, yigitlar, dunyo o‘zi shunday teskari dunyo ekan… Lolaning ustiga qor yog‘di!.. - dedi”.*

To‘y motividan unumli foydalanilgan yana bir asar Elbekning “Anorgul” hikoyasi bo‘lib, unda qishloq turmushini to‘y orqali ko‘rsatish asosiy maqsad qilib olingan. Bunda xotin-qizlarning aql-zakovati, topqirligi, asriy an’analarga sodiqligi, to‘y marosida esa o‘lan, lapar, yor-yor avjiga chiqishi, qizning ketar chog‘idagi ko‘z yoshlari “yig‘i kechasi” deb atalishi, to‘yning ertasiga “yuz ochiq” marosimi o‘tkazilishi mahorat bilan ochib berilganki, bu kabi an'analar xalqning azaliy qadriyatlarini ifoda etib qolmasdan, o‘quvchining ma’naviy kamoloti uchun ham xizmat qiladi.

Bazm qilish motivi. Badiiy ijoddajin va ajina obrazlarining bazm qilish motivi ham uchrab turadi. Ijodkorlar jannat, do‘zax, pari, parizod, farishta, azroil, yalmog‘iz, ajdar, jin, dev kabi afsonaviy-diniy tushunchalarni qo‘llashda tush yoki xayoliy talqinlardan foydalanishadi. Qodiriy ham “Jinlar bazmi” hikoyasida ana shunday mumtoz motiv orqali badiiy niyatga erisha olgan. Muallif bazm joyni shunday tasvirlaydi: “*Bir-ikki odum qadam Hamdam xumdonchining maydoniga tomon yurdim… Yiroqdan kelgan yorug‘likni sezib, tevaragimga qaradim-da, hayron bo‘lib qoldim… qarshimdag‘i maydondan o‘tkir nur sharpasi tushar edi. Bugina emas, kishilarning chag‘ir-chug‘ur so‘zlashib kulushlari, gijdang-gijdang*

bilan childirma, ora-chora dutor, tanbur, g‘ijjak kabi sozlarning zaif, ammo yurakni qitiqlayturg‘an tovushlari eshitilar edi. Men tong qotib bir necha vaqt turib qoldim. Darhaqiqat, boyqushlar uyasi bo‘lgan bir vayronada bunday voqeaning yuz berishi kishini, albatta, hayron qilar edi” (Qodiriy A, 2017, 12-bet). Muallif voqeani qanchalik ishonarli tarzda hikoya qilmasin, asar oxirida muallim afandi tilidan “Vahima, xayolot!” deydi va o‘quvchini bahsga chorlaydi.

Qotillik motivi. Qonun ustuvor bo‘lmagan, inson haq-huquqlari paymon etilgan muhitda qotilliklar yuz berishi tabiiy. Cho‘lpon davr ruhiyatidan, jaolatga botgan Turkiston hayotidan so‘zlar qilar ekan “Do‘xtur Muhammadiyor” hamda “O‘ktabr qizi” hikoyasida ushbu motivdan foydalanadi. Hikoyada Do‘xtur Muhammadiyorning otasi Hoji Ahmad bilan bir muallimni vokzalga kuzatib qaytayotganida qimorbozlar pul talashib, mushtlashayotgani ustidan chiqib qoladi. Hoji Ahmad nasihat qilmoqchi bo‘lganida ularning biri uni bo‘g‘ib o‘ldiradi, Muhammadiyorni yarador qiladi. Qonga qon, jonga jon. Muallif Muhammadiyorning qasd olishini istaydi, “*Lekin otasini o‘lduruvchilar bular bo‘lmay, balki jaholat ekanligini o‘ylab tinchgina otasini ko‘mdi. Va o‘zi jaholat ila chindan olishmoqga qaror qildi. Jaholat ila olishmoqning quroli, asbobini esa otasi aytub ketkan edi. Ya'ni, jaholatga qarshu to‘p, miltiq, toponcha, xanjar, o‘q-doru yolg‘uz - o‘quv, o‘quv, o‘quv edi!*” (Cho‘lpon. 1994. 272-bet). “O‘ktabr qizi” hikoyasida esa hayotidagi zulmatni yorib, sahnaga chiqqan va dutor jo‘rligida o‘zbek dardlarini kuylayotgan, zang bosib kelayotgan dillarga ta’sir qilib, zanglarni yuvayotgan qizning eri tomonidan o‘ldirilishi oshkora qotillik bo‘lib, muallif uni “*Vannaycha milio‘n sonliq o‘zbek xotun va qizlar o‘rdusining yolg‘iz birgina osiyasi, birgina bog‘iyasi edi. Vannaycha turmushga, qullar, cho‘rilar turmushiga isyon qilg‘on, kishanlarni yumshoq qo‘li bilan uzgan, parchalag‘on bir o‘zbek qizi edi*” (Cho‘lpon. 1994. 307-bet), deya ta’riflaydi, qorong‘ulikka ko‘nikkan millat ko‘zi yorug‘likka chiday olmasligini, yorilib ketishini Vannaycha misolida ochib beradi.

Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, jadid namoyondalari o‘z ma’rifatparvarlik g‘oyalarini xalqqa yetkazishda hikoyalarda maktub, safar, tush, to‘y, bazm, qotillik

kabi motivlarlar unumli foydalanishdi. Bu omma hayotiga yaqin, har kuni duch kelayotgan manzaralar bo‘lib, ulardan xulosa chiqarish oson edi. Bundan ko‘rinadiki, motivlar qanday holatda qo‘llanilishidan qat’iy nazar muallifning ijodiy maqsadi uchun xizmat qiladi va novatorligini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqul J. (2011). O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. Toshkent: Fan.
2. Hamroyev K. (2020). Hikoya kompozitsiyasi. Monografiya. Toshkent: Nurafshon biznes.
3. Qodiriy A. (2017). Diyori bakr. Toshkent: Info Kapital Group.
4. Cho‘lpon. (1994) Asarlar. 2-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU.

RAVNAQ HAYOTI VA IJODINING O‘RGANILISHI

Shadiyeva Dilafruz Abduxalil qizi,

ToshDO‘TAU O‘FF 4-kurs

dilijan.shad@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada XVIII asrda yashab ijod etgan Pahlavonquli Ravnaq ijodining o‘rganilishiga oid tadqiqotlar haqida ma’lumotlar berilgan. Shu bilan birga shoir adabiy merosi dastlab manbashunoslik va matnshunoslik aspektida amalga oshirilishi lozimligi yuzasidan fikr - mulohazalar qayd etilgan*

Bundan tashqari Ravnaqning o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni hamda uning qo‘lyozma devonidagi she’rlari haqida umumlashma fikrlar berilgan. Shoirning biografiyasiga oid dastlabki ma’lumotlar esa Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asari asosida yoritilgan.

Kalit so‘z: *devon, qo‘lyozma, Ravnaq, g‘azal, muxammas, shoir, ta’rix.*

Abstract. *The article provides information about the research on the study of Pahlavonquli Ravnaq from Khorezm, who lived and created in the second half of the 18th century. At the same time, opinions were noted that the poet’s literary heritage should first be realized in the aspect of source studies and textual studies.*

In addition, general opinions are given about Ravnaq’s place in the history of Uzbek literature and his poems in the manuscript divan. The preliminary

information about the poet's biography is covered on the basis of Ogahi's historical work "Firdavs ul-iqbal".

Keyword: *divan, manuscript, Ravnaq, ghazal, muxammas, poet, ta'rix.*

Buyuk Xorazm davlati tarixida juda ko'plab xonlar taxtga o'tirdilar. XVIII asrga kelib esa bu jaroyon juda tezlashib ketdi. Bu davrda Xorazmda Shohg'ozixon(1765-1767), Muhammad Amin inoq(1770-1790), Avazbiy inoq (1782-1804), Eltuzarxon(1804-1806), Muhammad Rahimxon I (1806-1825)lar kabi bir qancha xonlar hukmronlik qilgan. Mana shu tahlikali zamonda Xorazmda Andalib, Muhammad Xoksor, Roqim, Nishotiy kabi yuksak iste'dodli shoirlar qatori Pahlavonquli Ravnaq ham yashab ijod etgan (Munis va Ogahiy, 2010, 520-bet).

Pahlavonquli Ravnaq haqidagi ma'lumotlar birinchi bo'lib Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" tarixiy asarida uchraydi (Munis va Ogahiy, 2010, 106-155). Munis bu asarida Pahlavonquli Ravnaq haqida ikki o'rinda to'xtalgan. Dastlab Ravnaqning Shoh Temurg'oziga bag'ishlab yozgan ta'rixidan parcha keltiriladi: *"Hamul kun Temurg'ozixon Muhammadamin mehtarning taqviyati bila Muhammadamin bek bila Muhammad inoqg'a ul ikki amiri maqtulning mansablarin shafqat qildi. Va* ***amiri kabir*** *Muhammadamin* ***inoq****ning ibtidoyi davlati ul kundindur. Va Bichan yili Muhammadamin mehtar bila xon o'rtasida ba'zi umuri mulkiy jihatdin vahshat tushdi. Bu sababdin aning buyruqi bila Safar dasturxonchi va Abdusattorboy xonni o'ldurdilar. Aning favtig'a mavlono Pahlavonquli Ravnaq ta'rix aytibdurkim. Ta'rix:*

Shah Temurg'ozi jahondin borg'ach,

Bo'ldi ta'rix anga "xurshidi janob" (Munis va Ogahiy, 2010, 106-155-bet).

V.Abdullayev 1964-yilda "O'zbek adabiyoti tarixi" xrestomatiyasida Munisning ushbu asarida berilgan "Ta'rix"dan kelib chiqib, Pahlavonquli Ravnaqni *"1730-yil tug'ilib, XVIII asrning oxirlarida vafot etgani"* taxmin qilinadi (Abdullayev, 1964, 174-175-bet). Bu fikrni tasdiqlashda "Ta'rix"dagi "Xurshedi janob" jumlasini abjad hisobiga o'girib, **1176-hijriy, milodiy 1763-64-yillar** bo'lsa kerak deya ko'rsatadi.

Ushbu “Ta’rix”dagi “Xurshedi janob” jumlasidagi harflarni abjad hisobidan qayta tekshirganilganda (X – 600, u – 6, r – 200, sh –300, i – 10, d – 4, j – 3, n – 50, a – 1, b - 2) hijriy 1176 kelib chiqdi. Uni milodiy yilga aylantirganimizda **(1176- (1176:33)+622=)** 1762-yil ekani ma’lum bo‘ldi.

“O‘zbek adabiyoti tarixi” xrestomatiyasida shoir “Ta’rix”ining yozilgan yilni milodiyda **bir, ikki yil**ga noto‘g‘ri ko‘rsatilgani aniqlanildi (Abdullayev, 1964, 174-175-bet).

Bu xrestomatiyada shoirning O‘zR FA Sharqshunoslik institutida №291-II inventar raqami ostida “Devoni Ravnaq” qo‘lyozmasi saqlanayotgani, uni kotib Muhammad Yusuf ko‘chirgani aytiladi. Biroq bu qo‘lyozmada shoirning qanday she’riy janrdagi she’rlari kiritilgani xususida ma’lumot berilmaydi. Bundan tashqari Xevada Muhammad Rahim II davrida tuzilgan “Bayozi mutafarriqa” qo‘lyozma bayozda shoirning she’rlari ham bor deyiladi (Abdullayev, 1964, 174-175-bet). Ushbu manba hozirda Sharqshunoslik instituti asosiy fondida №6960 - inventar raqami ostida saqlanadi.

1785-yilda Muhammad Amin Mehtarning qizi vafot etgan. Shu munosabat bilan uning do‘sti Pahlavonquli Ravnaq marsiya yozgan. Ushbu marsiyasining matla’yi Xivadagi Pahlavon Muhammad mazorotiga kiraverishda (o‘ng tomonda) Muhammad Amin Mehtar tomonidan solingan xona – maqbaraning eshigi tepasiga o‘rnatilgan marmar toshga *“Yo Rab, ul hur yerin ravzayi rizvon etgil, Nozanin ruhini masti mayi g‘ufron etgil”* misralari ko‘chirilgani aytiladi (Abdullayev, 1964, 174-175-b; 4, 2006, 92-95-bet).

V.Abdullayev 1978-yil “O‘zbek adabiyoti tarixi” xrestomatiyasida esa shoir tug‘ilgani va vafot etganini uning voqeaband g‘azali mazmuniga binoan: *“Ravnaq o‘zining kasal bo‘lib, yor - do‘stlari tomonidan unutilganligi, Matniyoz vazirning kelib shoir ahvolidan xabar olganligini… Matniyoz 1803-1804-yillar Eltuzarning qaraqalpoq ustiga qilgan hujumiga qatnashgan va juda ko‘p tilla, mol-mulkka ega bo‘lib qaytgan Muhammad Niyozbekning yasavulboshisi”* bo‘lganligi aytiladi. Demak, shoir XIX asrning dastlabki yillarida ham hayot bo‘lgan (Abdullayev,

1964, 174-218-bet). Shunga asosan shoirni “1725-1805 – yillarda yashab ijod etgan” degan xulosaga kelingan.

“Firdavs ul-iqbol” asarining yana bir o‘rnida, ya’ni shoirning Nishotiy bilan “munozara”ga kirishgani haqida ma’lumotlar uchraydi. Bu hol quyidagicha qayd qilingan: *“... ul chog ‘da* ***tarokima*** *tavoyifidin* ***taka*** *xalqi navkarlik tariqasi bila kelib, Yangiariq va Ostona hududida mutamakkin erdilar. Alar sharorati zotiy va jaholati jibilliy harakatidinkim, ul tavoyifidin badtiynat maxsusidur, ba’zi umuri noshoyista tamhidig‘a iqdom ko‘rguzub, balki, farmoni vojib al-iz’ondin goho bo‘yun to‘lg‘ar edilar. Andoqkim, safari mazkurda Fozilbekning mulozimatidin taxalluf joyiz tuttilar Muhammadamin inoq bu jihatdin alarni Fozil bek kelgandin so‘ng yurtdin chiqadi. Bir necha kundin so‘ng Bobo bekkim, moddayi fasod va xamirmoyayi* ***inoq*** *erdi,* ***taka****din Zamonbek va* ***solur****din Otqiron Bahodirni yuz kishi bila o‘z inisi Abdulrahmon bekning mulozimatida Jonmurod* ***inoq****g‘a madad uchun yubordi. Mavlono Pahlavonquli Ravnaq bu bobda taarruz (tegajoqlik) yuzidin bu baytni aytib yubordi.* ***Bayt:***

Qo‘rqitma mani Sorito-yu, Butu Buroqingdin,

K…g‘a g‘am Otqironu Angg‘oqingdin.

Ma’lum bo‘lsunkim “Angg‘iloq”din iborat Zamonbekdur. Va ***qozi*** *Muhammadniyoz Nishotiykim, Jonmurod* ***inoq****ning anis va jalisi erdi, bu baytni aning javobida aytib yubordi. Bayt:*

Qo‘rqutma mani Boynazaru Bekpo‘lotingdin,

K…g‘a ne g‘am turkmonu chovduru sholotingdin.

Va Muhammadamin ***inoq*** *bu xabarni eshitib, hazmu ehtiyot jonibin mar’i tutub, Toji* ***biy*** *qiyotni ikki yuz kishi bila Xo‘jaylining muhofazatig‘a nomzad qildi…*”(Munis va Ogahiy, 2010, 155-156-bet). Olmosxon Abdurahmonova o‘zining “Nishotiy munozaralarining matniy tahlili” PhD tadqiqot ishida *“Pahlavonquli Ravnaq va Muhammad Niyoz Nishotiyning bir davrda yashagani va ikkala shoirning o‘zaro “sho‘x yo‘sinda” mushoira olib borgan”*i haqida aytadi (Abdurahmoniva, 2021, 36-bet). Bu ma’lumotlar Muhammad Yusuf Bayoniyning “Tavorixi Xorazm” asarida borligini aniqlaydi. V.Abdullayev esa *“...Muhammad*

Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida ham ushbu hajviy parcha…" borligini aytib o'tadi (Qo'lyozma, №7421; Abdullayev, 1964, 174-175-bet).

1966-yilda V.Zohidov "O'zbek adabiyoti" xrestomatiyasida Pahlavonquli Ravnaq hayoti va ijodiga doir ma'lumot berib o'tadi. Bunda *"Ravnaq hayoti va ijodi to'liq o'rganilganicha yo'q"* deya to'g'ri ta'kidlaniladi (Zohidov, 1966, 161-200-bet). Shoir fors-tojik va turkiy tilda ijod qilingani aytiladi. Buni shoirning O'zR FAShI da №922 raqami ostida saqlanayotgan bir qo'lyozma devoniga ko'chirilgan she'rlar misolida beradi. Biroq bu qo'lyozma devonni ko'chirgan kotibni *"Muhammad Yaqub ibn Usto Qurbonniyoz Xorazmiy devon"* emas "*Muhammad Yusuf*" deb yanglish ma'lumot beradi. Bunda shoirning 24 g'azal, va 1 mustazod, 2 ta Navoiy g'azaliga, 1 ta Fuzuliy g'azaliga yozilgan taxmislar hamda 1 ta qasida ilova qilinadi (Qo'lyozma, №922, 1-80-bet) Dastlab biz shoirning nashrdagi **g'azallarining** birinchi misralarini quyida berib o'tdik: *"Surtub yuzumi tun kecha dildor eshigida…"*(10 bayt), *"Na bir qosidki yetkursa salomim jona jonimg'a…"*(7 bayt), *"Bu kun bir dilraboni ko'rdimki sochi ol yangog' uzra…"*(7 bayt), *"Yondim sevarim, xoh inon, xoh inonma…"* (11bayt), *"Ey malak siymoki, olam xalqidur hayron sango..."* (7 bayt) , *"Jilva qilib yuz ia ul sanami komyob…"* (11 bayt), *"Xaramdin chiqti ul sarvi gulandonim xirom aylab…"* (9 bayt), *"Ne niholi umr erur sarvi xiromoningcha xo'b…"* (7 bayt), *"Va'dayi vasl berib aylamak ehmol nedur…"* (9 bayt), *"Ul parivashki quyoshdek guli ruxsorasi bor…"* (7 bayt), *"Inoyat chog'i do'st istig'noi nozin ko'r…"* (7 bayt), *"Xo'blar jahonda sendek sohibjamol emastur…"* (9 bayt), *"Dunyoi dunki kimga dey oing vafosi bor…"* (7 bayt), *"Ne ishvau, ne nozu karashma, ne adodur…"* (9 bayt), *"Ne jo'rayi zamonada bor erkan e'tibor…"* (7 bayt), *"Bu ne tole' edikim qilmadi imdod hanuz…"* (9 bayt), *"Chiqsa noz aylab haramdin sho'xi siyminsoq qiz…"* (10 bayt), *"Ohkim, tushgali bu zoli falakka ishimiz…"* (11 bayt), *"Keldingu ketding ko'rimay, ey par paykar sanam…"* (7 bayt), *"Evrulay boshiga, zebo sanamim, dildorim…"* (10 bayt), "*Xush kelibsan buyon, parizodim…"* (13 bayt), *"Ul o'tlug' chehrakim olamg'a o't solmish jamolidin…"* (8 bayt), *"Ayladi*

yor jahondin safar, afsus – afsus…" (13 bayt), "*Ne oy yuzlik, shaker guftorlig' zebo sanamdur bu…"*(11 bayt). **Mustazodni birinchi misrasi:** *"Mastona chiqib qatlima bodom qabog'i, beboki sitamgar…"* (14 band), **Navoiy va Fuzuliy g'azallariga Ravnaq taxmislari**: *"Garchi a'jozi Masiho ma'li durposhindadur…"* (5 band), *"Ne sitam gar yetsa sendin, jonajonim sen mening…"* (5 band), *"Xodisoti dahri dundin ko'nglinga g'am bo'lmasun…"* (5 band). **Qasida:** *"Buncha javring degil, ey charxi sitamkor, nedur…"* (42 bayt).

V.Abdullayev 1978-yildagi xrestomatiyasida ham Pahlavonquli Ravnaq hayoti va faoliyatiga oid qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan (Abdullayev, 1978, 262-285-bet). Pahlavonquli Ravnaq davriga qadar "Ravnaq" taxallusi bilan ijod qilgan ko'plab shoirlar haqida qaydlar bor. Bunda Pahlavonquli Ravnaq she'rlari *"Ravnaq lirikasining janr xususiyatlari"*, *"Ravnaq lirikasining tematik doirasi va g'oyaviy motivlari", "Ravnaq lirikasining poetik xususiyatlari"* singari guruhlarga ajratilib, mavzui ko'lami yoritib berilgan. Bundan tashqari Pahlavonquli Ravnaqning shu kunga qadar bir qo'lyozma devoni, ya'ni O'zR FAShI da №922-inventar raqami ostida saqlanayotgan manba yetib kelganligi aytilgan. Ushbu devonda shoirning 258 g'azal (4168 misra), bir mustazodi (14 misra), 22 muxammasi (745) va 5 qasidasi (324 misra) kiritilgani, jami 5251 misradan iborat 286 lirik asarlari bor deyiladi. Ammo ushbu qo'lyozmani ko'chirgan kotib haqida ma'lumot bermaydi. Bu ma'lumotlar 2006-yilda Rahmonqul Orzibekov tomonidan tayyorlangan "O'zbek adabiyoti tarixi" o'quv qo'llanmada ham aynan uchraydi (Orzibekov, 2006, 92-95-bet).

Biz ushbu qo'lyozma devonni ko'zdan kechirganimizda **253 ta** g'azal, **1 ta** mustazod, **20 ta** (bundan 13 tasi **Navoiy**, 3 tasi **Fuzuliy**, 4 tasi **o'z g'azaliga** yozilgan) muxammas hamda **6 ta** qasida ko'chirilgani ayon bo'ldi. Bundan ko'rinadiki, V.Abdullayev shoir g'azallarini 5 taga, muxammaslar sonini esa 2 taga ko'p bergani ko'zga tashlandi. **Qasida**ni esa **bitta**ga kam sanagani ma'lum bo'ldi (№922, 1-80-bet).

V.Abdullayevning 1982-yilda "Adabiy-tanqidiy maqolalar" sarlavhasi ostida "Saylanma"si nashr qilingan. Uning *"Muxammasoti mutafarriqa" kitobidagi*

shoirlar – Navoiy izdoshlari” maqolasida Pahlavonquli Ravnaq, Nishotiy, Roqim, Andalib, Sarvar, Volahiy, Vafoiy, Kiromiy, Ohiy, Mavzun, Jinoiy, Rif’atiylarning Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy Shaydoiylarning g‘azallariga muxammaslar bog‘lagani haqida ma’lumotlar beradi (Abdullayev, 1982, 146-153-bet). Ayniqsa Ravnaq, Nishotiy, Kiromiylarning Navoiy g‘azallariga bog‘langan muxammaslarini anchagina yuqori baholaydi. Buni quyidagilarda ko‘rish mumkin: *“Alisher Navoiyning “barot - zakot”, “manzari – pari”, “tutubmen - unutubmen”, “deyin”, “Yana”, “mening”, “sanchar” kabi qofiya yoki radiflar bilan tugagan g‘azallarga Pahlavonquli Ravnaq tomonidan to‘qilib, “Muxammasoti mutafarriqa” da keltirilmish muxammaslar haqiqatan ham pishiq va maqtovga sazovor muxammaslardandir. Masalan:*

Tokay mani, ey gardun, g‘am xastasi qilgaysen,

Hijron qilichin tortib, bag‘rim necha tilgaysen,

Ey baxt, qachon bir kun holim so’ra kelgaysen,

Sanchilgan ajal xori ishq uchrasa bilgaysen,

Kim jong‘a balo neshin hajr o‘zgacharoq sanchar…” (Abdullayev, 1982, 146-153-bet).

Ayyomiyning “O‘t chaqnagan satrlar”ida XVII - XVIII asrlarda Xorazmda Andalib, Roqim, Pahlavonquli Ravnaq, Muhammad Xoksor kabi iste’dodli shoirlar yashagani aytib o‘tilgan. Bunda sharqshunos olimlar va adabiyotshunoslar XVII asrda Xorazm ma’daniy va adabiy muhiti haqida, ko’pincha, bir yoqlama fikr yuritilganligi yuzasidan qaydlar uchraydi. Yunus Yusupov *“Akademik V.V.Bartoldning XVII asrda faqat Abulg‘ozi bo‘lgan va XVIII asrda esa* ***“adabiyotda jimjitlik davri edi”*** degan fikrini inkor etadi (Ayyomiy, 1983, 15-16-bet). Bu davrda siyosiy o‘yin (taxt uchun kurash)lar, oddiy xalqning esa yashash tarzi bilan bog‘liq bir qancha voqealar ro‘y bergan. Ammo Xorazmda Andalibning “Yusuf va Zulayho”, “Zaynularab”, “Layli va Majnun”, Nishotiyning “Husnu Dil”, “Qushlar munozarasi”, Munisning “Munis ul ushshoq”, “Firdavs ul iqbol” kabi bir qancha go‘zal asarlari dunyoga kelgan (Abdurahmonova, 2021, 36-bet; Abdullayev, 1964, 174-175-bet). Shu bilan birga o‘zining betakror iste’dodiga ega

bo‘lgan shoirlardan yana biri Pahlavonquli Ravnaq ham bu davrda yashagan. Shoir masnaviy, ruboiy, murabba’ muxammas, qasida, ta’rix, mustazod janrlarida ijod qilgan. U Navoiy va Fuzuliylar ijodidan ta’sirlanib, bir qancha naziralar, muxammaslar yozgani yaqqol ko‘zga tashlanadi (Qo‘lyozma, №922). Shu bilan birga shoirga zamondosh bo‘lgan Roqim ham, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida yashagan Shermuhammad Munis ham, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi shoirlar: Mirzo, Mutrib, Tabibiy va boshqa bir qancha shoirlar Pahlavonquli Ravnaq ijodidan ta’sirlanib muxammaslar yozgan. Bu esa *Yunus Yusupovning* yuqoridagi fikrlarini to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi (Qo‘lyozmalar: №7054; №2679/II, 280; №L-8731).

Shu kungacha o‘rganilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, shoirning she’rlari to‘liq nashr qilinmagan. Pahlavonquli Ravnaq she’rlari matnshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazardan tadqiq qilinishi zarur. Shoirning ijodini o‘rganishda dastlab, uning qo‘lyozma manbalarga ko‘chirilgan she’rlarini to‘plash lozim. Shu bilan birga shoirning she’rlari ko‘chirilgan barcha qo‘lyozmalarni ilmiy-monografik tavsifini amalga oshirish, e’lon qilingan she’rlarini esa matniy-qiyosiy jihatdan farqlarini ko‘rsatish lozim. Keyin esa shoir qo‘lyozma devonini nashrga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa shoir she’rlari badiiyatini o‘rganishga zamin yaratadi.

Shoir hayoti va ijodining o‘rganilishiga oid tadqiqotlardan quyidagicha **xulosa**larga kelish mumkin:

- dastlab shoir biografiyasiga doir ma’lumotlar Munisning “Firdavs ul-iqbol” (1813-yilgacha) asarida berilgan. Undan keyin esa XIX asr ikkinchi yarmida yozilgan tarixiy (Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”) asarda ham shoirning ijodi haqida ma’lum ma’lumotlar borligi aniqlandi. Mustaqillik yillaridan oldin Pahlavonquli Ravnaq hayoti va ijodi V.Zohidov, V.Abdullayev, Ayyomiylar tomonidan o‘rganilgan. 1967-yil O.Rasulova tomonidan *“Shoir Pahlavonquli Ravnaq”* nomli nomzodlik ishi amalga oshirilgan (Ammo bu tadqiqot ishi hozirda topilmadi). Mustaqillikdan keyin esa, 2006-yil

R.Orzubekov “O‘zbek adabiyoti tarixi” o‘quv qo‘llanmasida shoir ijodining o‘rganilishi, asarlarining badiiyatiga oid ma’lumotlar berib o‘tgan.

- ikkinchidan, Munisning “Firdavs ul-iqbol”da Ravnaqning Temurg‘ozixon o‘limiga bag‘ishlab yozilgan “Ta’rix”i berilgan. V.Abdullayev bu “Ta’rix”ning yozilgan yilini aniqlashda abjad hisobida 1763-1764-yillar deb ko‘rsatgan. Biroq biz buni qayta tekshirganimizda “Ta’rix” 1763-1764-yillar emas, 1762-yilda yozilgani oydinlashdi.

- uchinchidan, shu kunga qadar Pahlavonquli Ravnaqning 24 ta g‘azali, 3 ta muxammasi, 1 ta qasidasi nashr qilingan. Yana ayrim (*matla’* va *maqta’* qismlari) g‘azal va muxammaslari xristomatiyalarda berilgan. Bundan ko‘rinadiki, shoir asarlari mazmuni mohiyati ko‘lami va badiiyati to’liq o‘rganilmagan. Buning uchun Ravnaq ijodini o‘rganishda dastlab uning qo‘lyozmalardagi adabiy merosi matnshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asallayev, A., Rahmonov V., Musurmonqulov, F. (2015) Badiiy san’atlar – Toshkent. Tafakkur nashriyoti.
2. Hamroyeva, O. (2022) Mumtoz qofiya nazariyasi asoslari – Toshkent. Bookmany print.
3. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVII – XIX (I yarmi) asrlar). (2006) (Nashrga tayyorlovchi Rahmonqul Orzibekov). – Toshkent, O‘zbekiston Yozuvchilaruyushmasi Adabiyot jamg ‘armasi nashriyoti.
4. Munirov, Q. (1960) Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. – Toshkent, 1960, 93-95-betlar.
5. Мунис ва Огаҳий. (2010) Фирдавс ул-иқбол. – Тошкент, Янги аср авлоди нашриёти. –Б. 520.
6. Ўзбек адабиёти. (1966) Хрестоматия. IV том. I китоб (Нашрга тайёрловчи В.Зоҳидов). – Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти. – Б. 101-161.
7. Ўзбек адабиёти тарихи. (1964) Хрестоматия. 2-китоб. (XVII асрдан XIX асрнинг иккинчи ярмигача). (Нашрга тайёрловчи В.Абдуллаев). –Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти. –Б. 174-175.

8. Ўзбек адабиёти тарихи. (1978) Хрестоматия. V томлик. III том (XVI асрдан XVIII асрнинг 70-йилларигача). (Нашрга тайёрловчи В.Абдуллаев). – Тошкент, Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. – Б. 304;

9. Абдураҳмонова, О. (2021) Нишотий мунозараларининг матний таҳлили. Ф. ф. б. ф. д. (PhD) дисс. – Тошкент, –Б. 36.

10. Ўзбек адабиёти. (1966) Хрестоматия. Тўрт томликка илова. V том, 1-китоб (Нашрга тайёрловчи В.Зоҳидов). –Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти. –Б. 161-200.

11. Абдуллаев, В. (1982). Сайланма. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1982. – Б. 146-153.

12. Бартольд, В.В. (1927) История культурной жизни Туркестана. – Ташкент, стр. 101.

13. Айёмий. (1983) Ўт чақнаган сатрлар. – Тошкент, – Б. 15-16.

14. Жумаев, Н. (1991) Мунис ғазалиёти. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Б. 1- 162.

Manbalar:

1. Pahlavonquli Ravnaq. O‘zR FAShI qo‘lyozmalar fondi, 922.
2. O‘zR FAShI qo‘lyozmalar fondi. Bayoz, 7054.
3. Mutrib Xonaxarob. O‘zR FAShI qo‘lyozmalar fondi, 2679/II, 280.
4. Tabibiy. Munis ul-ushshoq. O‘zR FAShI qo‘lyozmalar fondi, L-8731.
5. Muhammad Yusuf Bayoniy. Tavorixi Xorazm. O‘zR FAShI qo‘lyozmasi, inv. №7421.

LUTFIY G‘AZALLARIDA RANG VA TASVIR

Suyarova Pokiza Anvar qizi,
ToshDO‘TAU OTAT 3-kurs
pokizasuyarova@gmail.com
Ilmiy rahbar: fil.fan.dok., dotsent v.b Umarova Sohiba

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turkiy xalqlar adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Mavlono Lutfiy qalamiga mansub g‘azallardagi rang va tasvir bog‘liqligi haqida so‘z yuritiladi. Qora, oq, qizil, yashil kabi ranglardan*

foydalanish orqali yanada yorqin, ta'sirchan va go'zal poetik tasvir yaratish badiiy mahorati shoir g'azallarini tahlil etish orqali ko'rsatib berilgan. Lutfiy she'riyatida rang bilan bog'liq timsollarning badiiy san'atlar uyg'unligida turli xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular faqat muayyan badiiy tasvir vositasi emas, balki shoir maqsadini ifoda etishda murojaat etilgan ramziy-majoziy ifodalar ham ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar*:* *Mavlono Lutfiy, g'azal, bayt, qora, oq, qizil, tazod, oshiq, ma'shuqa.*

Abstract. *This article talks about the relationship between color and image in the ghazals written by Mavlano Lutfiy, one of the great representatives of the literature of the Turkic peoples. The artistic skill of creating a more vivid, impressive and beautiful poetic image by using colors such as black, white, red, yellow is shown by analyzing the poet's ghazals. In Lutfiy's poetry, there are various manifestations of symbols related to color in the harmony of artistic arts.*

Key words*:* *Maulana Lutfiy, Turkish, ghazal, bayt, black, white, red, tazad, lover, mistress.*

XIV asr oxiri XV asr boshlarida, temuriylar davrida, o'z davrining yetuk namoyondalari Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Atoyi, Sakkokiy va boshqa ko'plab turkigo'y shoirlar yashab ijod qilishgan. Mana shunday ijodkorlardan biri, o'z zamonasining "Malik ul-kalomi" deya e'tirof qilingan shoir Mavlono Lutfiydir. Lutfiy ham dunyoviy ham diniy-tasavvufiy bilimlarni chuqur egallagan, Navoiy tili bilan aytganda "forsiy va turkiyda naziri yo'q" shoir edi. Lutfiy o'z ona tili- turkiy tilda ijod qilib, mashhurlikka erishgan va forsiyda ham she'rlar bitib, o'z mahoratini namoyon qila olgan. Lutfiy asarlari tilining soddaligi, ohangdorligi, samimiyligi, ortiqcha bo'yoqdorlikdan holiligi va o'qilishi osonligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, XIV-XV asrlarda Xurosonda g'azal janri she'riyatning asosiy va yetakchi janrlaridan biriga aylangan edi. Lutfiy g'azallarida ishqiy mavzu asosiy o'rinda turadi. Ushbu g'azallarda shoir talmeh, tajnis, tazod, irsoli masal kabi she'riy san'atlardan ustalik bilan foydalangan. Shu bilan birga shoir g'azallarida

ranglar bilan bog‘liq o‘ziga xos tasvirlar mavjud. Asosan Lutfiy g‘azallarida obrazlilikni kuchaytirish uchun ranglardan foydalangani ma’lum bo‘ladi. Umuman, mumtoz poeziya, xususan, Navoiy ijodida ranglarning ramziy ifodasi haqida professor Yo. Is’hoqov shunday yozadi: “Navoiy poeziyasi uchun xarakterli bo‘lgan poeziya usullaridan biri –ranglarni ramziy qo‘llanishidir. Navoiy bir qator g‘azalarida muayyan bir holatni bo‘rttirib ko‘rsatishga yordam beradigan rangga murojaat qiladi va g‘azalning boshidan oxiriga qadar tasvir ana shu rangga bog‘liq holda boradi. Masalan, g‘azallarda shoir qahramonnig hijron kunlaridagi ruhiy holatini sariq (oshiqning hazin holati), qora (baxti qoralik) ranglar vositasida yorqin tasvirlaydi. (Ishoqov Y, 1983, 119-124-b.) Biz bu holatni Mavlono Lutfiyda g‘azallarida ham ko`rishimiz mumkin.

G‘azalnavislikda katta va favqulodda mahoratga ega bo‘lgan Mavlono Lutfiyning lirik asarlarini jamlangan “Sensan sevarim” devonidagi go‘zal baytlar bilan tanishamiz.

Ko‘zung qorasi fitna, vale oqi balodur,

Jonlar oladur, vah, ne balo ko‘zi qarodur? (Lutfiy, 1987, 52-b.)

Bu bayt ishqiy mavzuda yozilgan bo‘lib, oshiqning ma’shuqani tasvirlagani aks etgan. Bayt mazmuniga e’tibor qaratsak, yor ko‘zining qoraligi o‘ziga rom qilish uchun va lekin oqi ofat, baxtsizlikdir, bu ko‘zing qorasi qanday ofat, jonlarni oladi. Oshiq ma’shuqaning bir qarashini tasvirlar ekan, uning qarashi oshiqqa ham hayot baxsh etishi, ham jonini olishi aytilmoqda.

Ushbu baytdagi tasvir vositasida poetik hodisa yuz beradi. Ya’ni, ko‘pchilik shoirlar ma’shuqani ko‘zini tasvirlar ekan, ko‘zning qorasini, gavharini tasvirlaydi, lekin Lutfiy bunga o‘zgacha yondashgan holda ko‘zning oqini ham tasvirlaydi. Bu shoirning so‘z imkoniyati cheksizligidan dalolat beradi. Lutfiy baytda qora va oq so‘zlarini qo‘llab, tazod (zidlashtirish) san’atini vujudga keltirgan. Biz faqat, Lutfiyning “Sensan sevarim” devoni bilan cheklanib qolmadik, xususan, devon nashrga tayyorlanishidan oldin chop etilgan “ Tanlangan asarlari” bilan ham tanishib chiqdik. Quyida shu asardan olingan bayt bilan tanishamiz.

Mundoqki yaxshi yerga tushubdur topib qabul,

Shak yo‘qki, muqbil ul dudog‘ing xoli hinduyi. (Lutfiy, 1960, 100-b.)

Mazmuni: “Oshiq ma’shuqani yuzidagi qora xolini tasvirlar ekan, uning duolari qabul bo‘lganligini ta’kidlab, qora xoli dudog‘i ustiga qo‘nganigini shu bilan yorning dudog‘i baxtli ekanligini, go‘zal jumlalarda ifodalaydi”. Lutfiy shu o‘rinda xol so‘zini qora so‘zi bilan ifodalamay, qora ma`nosini beruvchi hindu so‘zi bilan ifoda etadi. Bu ham shoirning ranglarni ma’nosini beruvchi so‘zlarni qo‘llashda ustamonligini ochib beradi.

Sarnavishtim bo‘ldi har yondin baloyi muttasil,

Boshtakim, ko‘zum o‘shul qoshi qarog‘a uchradi. (Lutfiy, 1960, 101-b.)

Mazmuni: “Eng boshidan, ko‘zim o‘shal qoshi qoraga uchraganida, mening peshonamga ba’lolar yog‘ilishi taqdir bo‘ldi”. Ushbu jumlalar orqali Lutfiy oshiqning tilidan, ma’shuqaning jamolini tasvirlar ekan, yorning birgina qoshi qaroligi bilan uning butun jamolini, husnda tengsiz mahliqo ekanligini tasvirlab beradi. Bu sinekdoha ya’ni qism orqali butunni ifodalash hisoblanadi. Lutfiy birgina so‘zni chiroyli tasvirlash orqali yorning butun go‘zalligini ochib berganligini ko‘rishimiz mumkin.

Zulfitek oshufta tole’man qamarning davrida,

Ne qaro baxt erdikim, bu benavog‘a uchradi? (Lutfiy, 1960, 101-b.)

Bu bayt yuqoridagi baytning davomi hisoblanadi. Mazmunini quydagicha: “Oy yuzli yorimning zulfidek unga devonaman, bu g‘ariblik qanday qaro baxt edi”. Bizga ma’lumki, yorning yuziga yopishib turuvchi sochiga zulf deyiladi. Shoir bu joyda mubolag‘a- bo‘rttirishni qo‘llab, men yorimga uning zulfidek yaqinman va unga shaydoman demoqchidir. Lutfiy ushbu baytda tasvir vositalaridan bir, “qaro baxt” so‘zini ishlatadi. Shoir bu so‘zning o‘rniga baxtsizlik desa ham bo‘lar edi, lekin shoir , “qaro baxt” so‘zi orqali ma’noni yanada kuchaytirib, mubolag‘a san’atini qo‘llamoqda. Lutfiy o‘z g‘azallarida yoki baytlarida ranglarni, ular bilan bog‘liq tasvirlarni qo‘llar ekan ularga o‘zgacha bir ma’no va ma’lum bir vazifa yuklaydi.

Donayi xoling tamannosida, ey gul xirmani,

Qil nazarkim, chehrayi zardum yoshurdi koxni. (Lutfiy, 1960, 99-b.)

Baytning mazmuni: “ Ey to‘plangan gul xirmoni, sening yuzingni, donayi holingni istagida, vaslingni xohishida, bir nazar qilgin, mening yuzim sarg‘ayganlikda somonni yashirdi”. Lutfiy adabiyotimizda go‘zal misralar yaratishi va ulardan kutilmagan xulosalar chiqarishi bilan ajralib turadi. Yuqoridagi bayt ham buni isbotlaydi. Oshiq o‘zini holatini shunday tasvirlaydiki, yorini vasliga erishish xohishida uning yuzi somon rangi sariq bo‘lsa, undan ham o‘tar darajada sarg‘ayib, xastalanganlini, uning bir bor qiyo boqishiga zor ekanligini tasvirlab beradi.

Qachon teksun yuzung sorig‘ yuzumg‘a,

Qovushmaytur xazon birla bale, yoz. (Lutfiy, 1987, 104-b.)

Mazmuni: “ Qachonki, mening , sening hajringda sarg‘aygan yuzimga sening yuzung tegsa, bu bir- biriga mos bo‘lmaydi. Bu go‘yoki, tabiatdagi yashillik bila xazon kabidir. Ular bir- birlariga mos emas” .

Endi ushbu baytdagi tasvir vositasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ishqiy mavzuda yozilgan baytlarda o‘z yoriga nisbatan yuksak baho berish, har bir oshiq uchun xos xususiyat hisoblanadi. Lutfiy g‘azallarida, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yuqoridagi baytda oshiq sevikli, go‘zal yorini yuksak darajaga ko‘taradi va o‘zini unga loyiq deb bilmaydi. Va buni tabiatdagi hodisalar bilan bog‘lab, tasvirlaydi.

Oltun kibi chehra bo`ldi sorig‘,

Ul siym bikin saqoqingizda. (Lutfiy, 1960, 88-b.)

Mazmuni: “ Ey yor, sening kumushdayin oq iyagingni ko‘rib, mening yuzim oltin kabi sarig‘ bo‘ldi” . Lutfiy oshiq holatini tasvirlar ekan, oltin, kumush so‘zlari bir-biriga zid qo‘yish bilan, tazod san’atini qo‘llagan.

Qonimg‘a qarortti ko‘z, o‘shul jodu qaroqkim,

Bir o‘q otimi yerdin, aning oqi ko‘rinur. (Lutfiy, 1960, 99-b.)

Lutfiyning ishqiy baytlaridan, biri hisoblanmish ushbu baytda ham, oshiqning yori visolidagi ahvoli, yorining chiroyi aks etgan. Mazmuni: “ Yorimning jodudek qaro ko‘zi xususan, ko`zining qorachig‘i, gavhari menga qarab, qizil qonimni qoraytirdi, yorimning ko‘zini oqi ham shunchalik musaffo, tozaki, bir o‘q otimi masofasida ham ko‘rinib turadi”.

Bunday go‘zal turkiycha, o‘qilishi oson, sodda, tasviri go‘zal baytlar, g‘azallar yozish faqat Lutfiyga xosdir. Yuqoridagi bayt tasviriga e’tibor bersak, shoir yorining ko‘zini qorasi va oqini alohida tasvirlaydi, bu ko‘pchilik shoirlarda uchramaydigan holat. Birgina yorining ko‘zining qorasi, oshiqni qizil qonini qoraytirib yuborishini mubolag‘a yo‘li bilan, oqi esa musaffoligidan uzoqdan ham ko‘rinib turishini go‘zal jumlalarda so‘zni mohirona qo‘llab tasvirlaydi.

Ey do‘stlarim, ohu ko‘zin ko‘rmayin o‘lsam,

Zinhor, soching tobutim uzra qora bodom. (Lutfiy, 1960, 74-b.)

Mazmuni: “Ey do‘stlarim, agar uning ohu ko‘zlarini ko‘rmayi o‘lsam,mening tobutim ustiga qora bodom soching”. Ushbu bayt tashbeh (o‘xshatish) hodisasining yorqin misoli hisoblanadi. Qora bodom va ohu ko‘z so‘zlari o‘xshatish hodisasini yuzaga keltiruvchi omillar hisoblanadi.

Yuzungdin lola rang eltib uyolib, shaharga kirmas,

Aning bo‘ynin kishi bog‘lab kelturmog‘uncha sahrodin. (Lutfiy, 1960, 82-b.)

Mazmuni: Bizga ma’lumki, lola gullarning sarasi, bahor faslining eng tarovatli va manzarali gullaridan biri. Shoir ushbu baytda oshiq tilidan yoriga, “Sening qizil yuzingdan lola uyalib, shaharga kirmaydi. Qachonki, biror kishi uni bo‘ynidan bog‘lab olib kirmaguncha, ungacha u uyalib, sahroda yuradi” . Bizga ma’lumki, lola guli dashtliklarda o‘sadigan o‘simlik. Shoir bundan mohirona foydalanib, uning dashtda o‘sishinig sababini, shaharda uning yori borligi uchun deya mubolag‘a bilan tasvirlamoqda. Bu baytning tahlili uchun bizga biror bir lug‘at ham kerak emas, sof turkiycha go‘zal, mubolag‘a va tashbehlarga boy bayt. Bu baytni o‘qigan inson bu misralarni bundan VI asr muqaddam yozilganligiga ishonishi qiyin.

Shunday ekan biz Mavlono Lutfiyni turkiy adabiyoti asoschilaridan biri desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. G‘azal mulkining sultoni Navoiy ham o‘z asarlarida Lutfiyni ustoz sifatida ulug‘laydi. Biz yuqorida Lutfiyning ba’zi bir rang va tasvir bilan bog‘liq g‘azal baytlarini keltirib sharhlab o‘ttik, xalos. Shoirning har bir g‘azalida juda ko‘plab badiiy san’atlarni, purma’no so‘zlarni o‘zida jamlagan misralarni uchratishimiz mumkin. Ohori to‘kilmagan, chuqur ma’no

mujassamlashgan bu satrlar biz uchun katta yodgorlikdir. Sof turkiycha go‘zal va mazmunli, takrorlanmas shoh satrlari bilan Mavlono Lutfiy Hazratlari turkiy adabiyot xususan, o‘zbek adabiyoti ravnaqiga o‘z hissa qo‘shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati I. (1983). Toshkent:O‘zSSR. Fan.

2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati II. (1983). Toshkent: O‘zSSR. Fan.

3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati III. (1984). Toshkent: O‘zSSR.Fan.

4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati IV. (1985). Toshkent: O‘zSSR.Fan.

5. Ishoqov Y. (1983). Navoiy poetikasi. Toshkent: Fan.

6. Lutfiy. (1987). Sensan sevarim.Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at.

7. Lutfiy. (1960). Tanlangan asarlar. Toshkent:O‘zSSR. Davlat badiiy adabiyot.

FITRAT HIKOYALARIGA BIR NAZAR

Tursunaliyeva Shodiya Abdullo qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF2- kurs
tursunaliyevashodiya593@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Fitratning diniy mavzudagi “Zayd va Zaynab” hikoyasi tahlilga tortilib, asosan, hayotining “darz ketish” pallasidagi diniy qarashlari yoritildi. Hikoya boshqa asarlar, hadislar, bilan qiyosiy o‘rganildi. “Zayd va Zaynab hikoyadagi “halol va harom” tushunchalarining, o‘rganilishi ‘“tutingan farzandning hotinini nikohiga olish” masalalariga urg‘u beriladi. Payg‘ambar alayhissalom bilan “Zaynab” (r.a)ning turmushlari haqidagi fikrlar borasida manbalar o‘rganilgan holda qiyosiy taqqoslandi.*

Kalit so‘zlar: *Payg’ambarlik, irsiyat, xiyla, ilm-ma’rifat, “darz ketish”.*

Abstract. *In this article, Fitrat’s religious story “Zayd and Zaynab” was analyzed, and mainly his religious views during the “break”*

phase of his life were highlighted. the story was studied comparatively with other works, hadiths. "Zayd and Zaynab of the concepts of "halal and haram", in the issue.Study focused on the story of "marriying the wife of a captured child" Is given "Zaynab" with the Prothet The cources were studied and compared.

Keywords: *Prophethood, heredity, tirck, knowledge, "crack".*

Abdurauf Fitrat jadidchilik milliy ma'rifatparvarlik harakatiga salmoqli hissa qo'shgan dramaturg, yozuvchi, shoir adabiyotshunos hisoblanadi. Fitrat ijodini o'rganar ekanmiz adabiyotshunos balki o'z o'rnida tilshunoslik mahoratiga ham ega bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Fitrat ko'pqirrali va sermahsul ijodkor bo'lib, uning ijodiy ishlari xalqni jaholat, turg'unlik, g'aflatdan uyg'otish ilm -ma'rifatga chorlash, ozod, erkin va baxt-saodatli hayotga undash edi. Fitrat adabiy jarayonda diniy va dunyoviy bilimlar egasi sifatida qalam tebratgan. Ijodkor 20 yil madrasada tahsil olgan. Fitratning ijodiga nazar tashlasak uning diniy mavzuda yozgan asarlariga ko'zimiz tushadi. Shu jumladan Fitratning ijodini o'rganar ekanmiz "Zayd va Zaynab" sarlavhasi ostidagi hikoya e'tiborimizni tortdi. Hikoyani shartli ikki qismga bo'lib tahlil qilishni ,boshqa manbalar bilan qiyoslashni lozim topdik.

Hikoya quyidagicha boshlanadi: "Arab quyoshining qup-quruq, o'tkir ezguchi nuri endigina tog' boshlarini qizarta boshlagan , kimsasiz tor ko'chalardan kechaning og'irligi hanuz ko'tarilmagan edi" (Turdiyev,Sh. Hiylayi shar'iy 1976. (95-bet) .Hikoya qahramonlari Payg'ambar Muhammad (s.a.v), ularning tutingan o'g'illari Zayd ibn Xorisa va Zaynab binti Jahsh. Hikoya asal voqeasi bilan boshlanadi va Payg'ambar alayhissalomning Jahshning qizi Zaynabga nikohlanishlari bilan yakun yasaladi. Bizga ma'lumki Payg'ambar alayhissalom ayollari Oisha onamizning hiylalariga ishonib asalni harom qiladilar. Bu voqea ya'ni asalning harom qilinishi Imom Buxoriyning "Al- jomi' as-sahih'' to'plamida ham keltirilgan. Fitratning ushbu hikoyasiga ham shu hadis asos qilib olingan. Hadisda ham Oisha (r.a) rivoyat qiladilar: "Rasululloh sallallohu alayhivasallam Zaynab binti Jahshning hujrasiga kirib, u yerda

asal tanovul qilib, uzoq qolib ketadirgan odat chiqardilar. Shunda men Hafsa birlan til biriktirib: “Agar Janob Rasululloh birortamizning hujramizga kirib kelsalar, ul zotga “Sizdan mag‘ofir (asalga o‘xshash sassiq yelim) hidi kelyaptimi, mag‘ofir tanovul qildingizmi?” deb aytamiz, deb kelishib oldim. Keyin, Janob Rasululloh xotinlaridan birining huzuriga kirib erdilar, u ul zotga boyagi gapni aytdi. Janob Rasululloh: “Yo‘g‘-e, Zaynab binti Jahshning huzurida asal tanovul qilgan erdim endi sira ham asal tanovul qilmayman!” — dedilar”. (Imom Buxoriy, 1991. 304-bet). Ul zotning asal va holvani yaxshi ko‘rib iste’mol qilishlarini bilgan zavjalari hammasi til biriktirib Zaynab binti Jahshning oldilarida ko‘p qolmasliklari uchun xiyla qilishdi.

Fitratning bu hikoyasida ham qumg‘on ko‘targan bir guruh arab ayollari o‘zaro gaplashib ketishadi. Asal haqidagi gap Ummu Zahro tomonida aytib beriladi. “Muhammadning asalni harom qilganini eshitgan edingizmi?

-Ha, eshitgan edik. O‘n kun bo‘di. Musulmonlar “endi asal harom bo‘ldi” deb hamma asallarini to‘kkan edilar.

-Mana shunda Muhammadning xotinlari aldag‘on ekanlar.

-Qanday aldaylar uni. Payg‘ambarni aldab bo‘lurmi?

-Muhammadning qo‘g‘irchoq xotini Oysha bu masalada yolg‘iz Muhammadni emas, uning xudosini ham alday yozg‘on”.

Musulmon sharqida insonning shakllanishida, asosan, ta’lim-tarbiya muhim o‘rin tutadi degan qarash mavjud. Bunda “Qur’on” va “Hadis” asos qilib olinadi. Fitrat ham bolalik paytlaridan ayni mana shunday ilmlarni o‘rgangan, ma’naviy xazinasi boy, musulmonlar tomonidan islom tayanchi deb atalgan Buxoroyi sharifda dunyoga kelgan. Islomiy e’tiqod va oqsuyaklik unga irsiy meros bo‘lgan deyish mumkin.

Ma’lum muddat o‘tib uning shaxsiyati va dunyo qarashida ma’lum o‘zgarish ham yuz beradi. Xususan, uning shakllanib qolgan aqidasiga darz ketadi. Fitratning shaxs sifatida shakllanishida ham shu “dars ketish”

dinamikasini kuzatish mumkin. Avvaliga uning “Qur’on” oyatlaridan tafovut izlash ko‘rinishida, keyin islohchilik, g‘oyalarini ko‘tarib chiqishda ko‘rinadi. (Jo‘raqulov,U. 1998, 30-bet). Bunga misol tariqasida “Shaytoning tangriga tangriga isyoni” (1924), “Zayd va Zaynab”, “Me’roj” kabi diniy asarlarini keltirishimiz mumkin.

Hikoyada ko‘rinadiki, Payg‘ambar alayhissalomning islom diniga mos bo‘lmagan gaplarni aytishlari, qiziqqonlik qilib xotinlarining baridan kechganlari, Alloh taolo halol qilgan narsani ya’ni asalni harom deb uni to‘kib isrof qilishgani, va o‘zlari buni xiyla ekanligi bilib yana asalni halol qilish haqida oyat nozil qilishini so‘raganlari musulmon odam uchun g‘alizroq tuyuladi. Bundan ko‘rinadiki hikoyada Payg‘ambarimizning fitratlariga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarni u zot tomonlaridan bajarish yuklatilgan. Buni ham yuqoridagi fikrimizning dalili sifatida keltirishimiz mumkin. Fitratni ayni dindan qaytgan, zamonaviy termin bilan aytganda “ateist’” bo‘gan deya olmaymiz, aksincha uning e’tiqodiga “darz ketgan”.

Hikoyaning shartli ikkinchi qismi Payg‘ambar alayhissalomning Zaynab binti Jahshga nikohlanganlari haqida desak bo‘ladi. Hikoyada bu quyidagicha aks etadi: “Qumg‘on ko‘tarib kelayotgan ayollarning ichida islomni qabul qilgan Zaynab ham bor edi. U ayollarning gapiga qo‘shilmay kelardi. Payg‘ambarimizning tutingan o‘g‘illari, qullari Zayd ibn Xorisa. Zayd va Zaynab hovuz oldida uchrashib birga ketadigan bo‘lishadi. Zaynab:

-Bizni sevishganimizni sezganga o‘xshaydilar Payg‘ambarning menga qarashlari boshqacha.

-Seni olmoqchimi? -dedi Zayd.

-Shundoqqa o‘xshaydi Ikkalasining suhbati davom etadi. Zayd ham Zaynab ham bir birlariga ko‘ngil qo‘yishgan. Payg‘ambar ham Zaynabga ko‘ngil qo‘ygan.

Zakoi Kunrapaning “Xazrat Payg‘ambarimiz va Islom dini”, “Payg‘ambarlar tarixi” asarlarida ham shu voqea keltiriladi. “Hazrati

Payg‘ambar va Islom dini” kitobida “Zaynab binti Jahsh Payg‘ambarimizning juda yaqin qarindoshlaridan edilar. Zaynabning birinchi zavji Rasuli akramning ozod qilgan qullari va tutunga farzandlari Zayd edi. Zayd va Zaynabni nikohlab, bir tomondan musulmonchilikda haqiqiy tenglikni ko‘rsatmoqchi bo‘ldilar. Rasuli akramning bu takliflari qarshisida Zaynab istamay turmushga chiqdi”.(Kunrapa,Z. 619-bet) Asarda aytilishicha turmushdan ma’sud bo‘lolmadilar. Zaynab mag‘rur bo‘ganlaridan Zaydning ko‘nglini o‘ksitar edilar. Bundan zavjlari chidolmadilar. Zaynabni taloq qilishlarini aytdilar. Payg‘ambar Zaydga: “Juftingni o‘z huzuringda ushlagin , Allohdan qo‘rqqin “ deb tanbih berdilar.

Bularni hikoyadan kelib chiqib qiyoslaydigan bo‘lsak, Muhammad tutingan o‘g‘lining hotiniga ularning baxtiga qarshi chiqib uylanmoqchi kabi bo‘htonlar aytiladi. “Yevropaning mutaassib tarixchilariga ergashib” Fitrat ham Payg‘ambarimizni Zaynabning jamoliga oshiq qilib tasvirlaydi. Vaholangki, Zaynab Rasuli akramning yaqin qarindoshlari bo‘la turib uni avvallari ko‘rmaganmidilar? Xullas, Zayd Zaynabni taloq qilgandan so‘ng unga uylanadilar. Tutingan o‘g‘lining taloq qilgan xotiniga uylanish haqida oyat ham nozil bo‘ladi. Bundan maqsad johiliya arablarida bo‘lgan yomon bir illatni bartaraf etish edi. bu maqsadni amalga oshirish uchun “Zayd va Zaynab” (r.a.) voqeasi hayotiy asos bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘raqulov,U. (1998). “Fitratning tadqiqot mahorati” Filol. fan. dok.diss. Toshkent.
2. Imom Buxoriy. (1991). “Al-jomi’As-sahih” 4 tom, 3-kitob Toshkent. Qomuslar Bosh nashriyoti
3. Kunrapa,Z. (1995). “Payg‘ambar va Islom tarixi” Toshkent.
4. Turdiyev, Sh. (1973). “Hiylaiy shar’iy”. Toshkent. G‘afur G‘ulum nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti

“SABOT UL-OJIZIN’’DAGI BA’ZI HIKOYALAR TAHLILI

Usmonova Maftuna Valijon qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF, 2-kurs
maftunausmonova22@gmail.com,

Annotatsiya. *So‘fi Olloyorningning ‘‘Sabot ul-ojizin’’ asari diniy-axloqiy yo‘nalishdagi pandnoma bo‘lib, islom dinida yuksak darajada ko‘riladigan fazilatlar bayoni va ularga mos hikoyatlardan iborat kitobdir. Mazkur maqolada ‘‘Hikoyati Abdulloh ibn Muborak’’, ‘‘Hikoyati Sa’d-u Said’’, ‘‘Hikoyati shayx Imom Basriy’’, ‘‘Xalilulloh o‘g‘li Ismoil alayhissalom bayoni’’ hikoyalarining tahlili, asarning badiiy qiymati va kompozitsion tuzilishiga oid fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar*:* *Didaktika, hikoyat, kompozitsiya, islomiy madaniyat, oyat, sura.*

Abstract. *Sufi Ollayor's work "Sabot ul-Ojizin" is a religious-ethical work, it is a book containing a description of virtues that are highly regarded in the Islamic religion and stories corresponding to them. In this article the analysis of the stories of "Abdullah bin Mubarak", "Sa'd-u Said", "Sheikh Imam Basri", "Khalilullah's son Ismail alayhissalam bayoni", the artistic work opinions about its value and compositional structure are stated.*

Keywords: *Didactics, story, composition, Islamic culture, verse, sura.*

Tarixning oltin bitiklari shuni ko‘rsatadiki, xalqimiz ziyolilari barcha davrlarda o‘z jamiyatlarining ilmli bo‘lishiga harakat qilishgan va buni o‘zlari uchun ustuvor vazifa deb hisoblaganlar. XVII-XVIII asrlarda yashab ijod qilgan, asarlari bilan millat farzandlarini ma’rifat tomon yetaklagan, yirik diniy ulamolardan biri So‘fi Olloyordir. Ismidan ham ma’lumki, ‘‘Olloyor’’ ‘‘Alloh hamrohi, do‘sti’’ demakdir. Darhaqiqat, So‘fi Olloyor tasavvuf ilmining kamolga yetgan namoyondalaridan, o‘z davrining islomiy bilimlar, qonun-qoidalarni mukammal bilgan mashhur olimlaridan edi. Uni elga tanitgan va o‘tmish zarvaraqlarida ismini abadiyga qoldirgan asar ‘‘Sabot ul-ojizin’’dir. ‘‘Ojizlar saboti’’deya ataluvchi asar uch asr mobaynida madrasalarda darslik sifatida

o‘qitilgan, oldin fors tilida yozilgan bo‘lib, turkiy qavmlar iltimosiga ko‘ra ijodkorning o‘zi uni o‘zbek tiliga tarjima qilgan(Jumaxo‘ja va Adizova, 2019, 182-bet). Shu asnosida mazkur kitob xalqning ham ilmli bo‘lishida, ham badiiy tafakkuri yuksalishida muhim manba vazifasini bajargan.

Asar tuzilishi haqida so‘z borsa, ‘‘Sabot ul-ojizin’’ sharq an’analariga xos tarzda, avvalo, Allohga hamd va payg‘ambarimizga na’t bilan boshlanadi(Зоҳидов, 2018, 51 бет). Undan keyin asarning yozilish sabablari, iymon, farishtalar, sahobalar bayoni beriladi. Muborak islom dinida muqaddas sanaluvchi fazilatlar, insonni haq yo‘lga boshlovchi xislatlar, xususan, hasad va ta’madan yiroq bo‘lish, va‘dada sobit turish, qazoga rozi bo‘lish va Allohning barcha ne’matlariga shukr aytish, ko‘zni haromdan tiyish kabi masalalar to‘g‘risida so‘z boradi. Ayni ushbu axloqiy-diniy mavzular xususida gapirilar ekan, ijodkor ularni dalillash, isbotlash va masalani tub mohiyatini ochib berish uchun ham ayrim hikoyatlarni kiritadi. Jumladan, Allohga tavakkal qilish bayoni tushuntirilar ekan, Abdulloh ibn Muborak haqida hikoyat keltiriladi. Abdulloh suvsab bir quduq oldiga keladi va suvdan ichish uchun unga chelak va ip kerakligi haqida o‘ylaydi. Ammo undan keyin kelgan oq kiyikka quduq suvi to‘lib chiqadi va kiyik chanqog‘ini qondiradi. Bundan norozi bo‘lgan Abdulloh Allohdan ushbu hodisaning sababini so‘raydi, shunda bir nido:‘‘Suvsab kelgan oq kiyikni ko‘rding. U avval Bizga nazar qilib, turli ne’matlaring bilan mehmon qilding, bu suving bilan ham mehmon qilgin, dedi. Chelak bilan ipni ko‘ngilga keltirmadi. Sen esa endi bor-da suvni chelak bilan ipdan so‘ra’’-deb aytadi. Abdulloh ibn Muborak aybini anglab, taqvoda yana-da komil pirga aylanadi. Alloh taolo Qur’oni Karimning ‘‘Oli Imron’’ surasi 159-oyatida:‘‘Albatta, Alloh tavakkal qiluvchilarni sevadir’’deb aytadi (Shayx Muhammad Sodiq, 2008, 1-juz, 434-bet). Demak, tavakkal qilmoq, har ishda Allohning yozganiga ishonib, faqat Undan go‘zal umid qilmoq mustahkam iymon sohiblariga xos fazilatdir. Biz taqdirimizda nima yozilganini oldindan bilolmaymiz va shu sabab ham tavakkal qilish, eng xayrlisini faqatgina Allohdan so‘rash bilan kifoyalanamiz. Bu esa qalbga o‘zgacha sakinat, halovat beradi.

Asar shu kabi purma'no hikoyatlarga boy. Masalan, Ismoil alayhissalom haqidagi hikoyat haqida so'z borsa, voqea tasvirining ilk baytidanoq uning Qur'oni Karimdagi ''Maryam'' surasi 54-oyatida kelgan ''Sodiq ul-va'd'' ya'ni ''va'dasiga sodiq'' sifati bilan boshlanishini ko'rish mumkin (Shayx Muhammad Sodiq, 2008, 3-juz, 548-bet). Bundan kelib chiqadiki, hikoyat ahdga vafo qilishlik haqida. Ismoil alayhissalom o'ziga hamroh tutinishni istagan Abdurahmon ismli yigitni yetti yil kutadi. Abdurahmonning, meni kuting, degan va'dasi esidan chiqib, yetti yildan keyin o'sha tarafga yana yo'li tushganda, Ismoil alayhissalomning haliyam va'dasiga vafo qilib, uni kutayotganligini ko'radi va ming pushaymon chekadi. Ammo payg'ambar hech bir yomon so'z aytmay, uni xush qarshi oladi. Hikoyadan ko'plab xulosalar chiqarish mumkin. Biri aytilgan so'zning ustidan chiqish qanchalar go'zal holat ekanligi haqida anglam bo'lsa, biri sabrlilik, irodalilik inson uchun qanchalar betakror xislat ekanligi haqida xulosadir. Yana biri har qanday holatda xushmuomalalikni tildan qo'ymaslik insoniylikning eng baland ko'rinishi haqidagi mulohazadir. Ijodkor hikoya orqali ana shunday o'lmas fikrlarni ilgari surgan. Bundan tashqari ahdga vafo qilishning qiymati haqida gapirar ekan, So'fi Olloyor shunday baytni keltiradi:

So'zin buzgan kishi buzmasmi iymon?

Ul kimsa birla qilma ahdi paymon (Сўфи Оллоёр, 1991, 76 бет).

Ya'ni, kimki va'dasida turmas ekan, bergan ahdidan qaytar ekan, u iymondan ham qaytadi, unday odamdan uzoq bo'lmoq kerak, degan fikrni bildiradi.

''Hikoyati Sa'd va Said''da ham yana bir umuminsoniy tushunchaning g'oyat mo'jizakor ko'rinishini ko'rishimiz mumkin. Ikki do'st-Sa'd va Said sayohatga chiqishadi hamda Qulzum dengizida kezib yuradigan bir kemaga chiqishadi. Kema egasi Sa'dga eshkak eshishni buyurganda Said bu ishni o'zi qilishini aytadi. Shunda Sa'd ham Saiddek yo'l tutadi va do'stining osoyishi uchun harakat qiladi. Hikoyadan chiqadigan xulosa shuki, do'stga hurmat, og'ir damda yelkadosh bo'la olish, ayniqsa, safar chog'ida bu fazilatni haddi a'losida namoyon etish insoniylikning maqtovga sazovor ko'rinishidandir. Bunday voqealar yoki

shunga o‘xshash hodisalar bayoni o‘zbek adabiyoti xazinasida ko‘plab topiladi. Ammo farq shundaki, ‘‘Sabot ul-ojizin’’dagi hikoyalar diniy o‘gitlardan keyin amaliy, hayotiy tajriba vazifasini bajarib, har birining zamirida Qur’oni Karim oyatlari, hadisi sharif ko‘rsatmalari turadi. Nazarimda, ayni shu jihat asarning tez yodda qolishini, ta’sir doirasini yana-da kuchaytiradi. Zero, pand-nasihat ruhidagi asarlar ko‘p, biroq undagi didaktik vazifa ko‘pincha faqatgina qog‘ozlarda qolib ketadi. ‘‘Sabot ul-ojizin’’ esa bunday qarashlardan yiroq, uni o‘qigan kishi xoh yosh, xoh qari bo‘lsin ruhi tozarayotgaini, qalbi poklik tomon yelayotganini his qiladi.

Yana bir Shayx imom Basriy haqidagi hikoyatga nazar soladigan bo‘lsak, unda ulug‘ ustozlarning karomati, ilmli bo‘lishning xosiyati kabi davr va makon tanlamaydigan qarashlarning qalamga olinganligini ko‘rish mumkin. Shayxning bir omi muridi bo‘lib, u bir muddat ustozi suhbatlariga kelmay qo‘yadi. Shayx o‘zi uni so‘roqlab borganida, shogird har xuftonda Alloh bilan ko‘rishayotganini va shu sabab suhbatlarga bormayotganini aytadi. Dono murshid muridiga yana bu hol takrorlansa Allohga o‘z ismini aytishni so‘raydi. Shogird shunday qiladi, yana o‘zini o‘sha holga tushganini his qilganda ustozining ismini aytadi va o‘zini hojatxonada ko‘radi. Shayton uni ilmsizligi uchun o‘z domiga tortgan, bo‘layotgan hodisalarni tafakkur qilish uchun yosh muridning bilimi kamlik qilgan. Hikoyadan ham ayni shu xulosani olish mumkinki, ilmsizlik, ustozlar o‘gitlariga amal qilmaslik insonni noto‘g‘ri yo‘lga kirishiga sabab bo‘ladi. Haqiqiy va dono, mutafakkir ustozgina shogirdlarini doim haq tomonga yetaklaydi va kamolotga yetkazadi. Shoir hikoyat so‘ngida shunday baytni keltiradi:

Agar bo‘lmasa ilming, ey sabuk sayr,

Bilur boling-buvoling barchasin xayr (Сўфи Оллоёр, 1991, 54 бет).

Ya’ni ilming bo‘lmasa undan foyda ham, zarar ham birdir. Zero, sening ojiz fikringda gunoh-u yomon ishing ham xayrli ko‘rinaveradi (Ҳасан, 2000, 145 бет). Demak, ilm oq-u qorani tanishda, yaxshi-yu yomonning farqiga borishda muhim omil vazifasini bajarar ekan. Zero, Qur’oni Karimning ‘‘Mujodala’’ surasi 11-oyatida ham ilm olishning foydalari haqida shunday deyiladi:‘‘Alloh sizlardan

iymon keltirganlarning va ilmga berilganlarning darajasini ko‘taradir’’(Shayx Muhammad Sodiq, 2008, 6-juz, 84-bet).

‘‘Sabot ul-ojizin’’ pand-nasihat ruhida yozilganligi, nazariy fikrning dalili sifatida ayrim hikoyalarning keltirilishi Alisher Navoiyning besh dostonni o‘zida jamlagan ‘‘Xamsa’’ dostonlarining boshlanmasi bo‘lmish ‘‘Hayrat ul-abror’’ning kompozitsion tuzilishiga ham o‘xshab ketadi. Lekin ‘‘Hayrat ul-abror’’da alohida yigirma maqolat asosida har biridan keyin hikoyat yoxud rivoyat keltiriladi. ‘‘Sabot ul-ojizin’’da esa ko‘p holatlarda bu hodisa kuzatiladi, ammo har doim ham emas.

So‘fi Olloyorning ushbu go‘zal asari islom madaniyatidagi eng yuksak va qadrli tushunchalarning betakror ifodasi, odamiylik, komil inson bo‘lish yo‘lidagi ko‘rsatmalarning beqiyos ko‘rinishidir. Shu jihatdan ‘‘Sabot ul-ojizin’’ bugungi kun uchun ham ahamiyatli, bir necha asrdirki, o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Biz uni o‘qib-o‘rganishimiz, nasihatlariga amal qilishimiz, hikoyatlaridan tegishli xulosalarni chiqara olishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaxo‘ja, N., Adizova I. (2019). ‘‘O‘zbek adabiyoti tarixi’’. Toshkent. Noshir.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2008). ‘‘Tafsiri Hilol’’. Toshkent. Hilol-Nashr.
3. Ҳасан Б. (2000). ‘‘Рисолаи азиза’’. Тошкент. А. Қодирий номидаги Халқ мероси нашри.
4.Сўфи Оллоёр. (1991). ‘‘Сабот ул-ожизин’’. Тошкент. Меҳнат.
5. Зоҳидов, Р. (2018). ‘‘Сабот ул-ожизин’’ асарининг манбалари, шарҳлари, ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари’’, диссертатция. Тошкент.

JADIDLAR FAOLIYATIDA ILM-MA’RIFATLI YOSHLAR MASALASI

Xodjiyeva Sevinch Odiljonovna,
ToshDO‘TAU OTAT 1-kurs
sevinchxodjiyeva@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, shunday murakkab davrda jadidchilik harakatining vujudga kelishi haqida*

fikr bildirilgan. Shu bilan birgalikda mazkur davrda yashab ijod qilgan jadidchilik adabiyoti namoyondalari Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Behbudiy kabi ijodkorlar asarlari misolida yoshlarning ilm olishi, ma'rifatli bo'lishiga doir g'oyalar tahlili keltirilgan. Berilgan asarlarga munosabat bildirilib, xulosaviy fikrlar aytilgan.

Kalit so'zlar. *Jadid, ilm, ma'rifat, milliy ozodlik, yoshlar.*

Abstract. *The article expresses an opinion about the socio-political situation at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, and the emergence of the Jadidist movement in such a difficult period. At the same time, an analysis of the ideas of young people to learn and become enlightened is presented on the example of the works of artists such as Munavvarqori Abdurashidkhanov, Abdurauf Fitrat, Behbudi, who lived and created in this period. Reactions to the given works were expressed and concluding remarks were made.*

Keywords. *History, science, enlightenment, national liberation, youth.*

XIX asr oxiri XX asr boshlarida dunyo ahliga har sohada Ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek kabi ko'plab olimlarni bergan xalqimiz qoloqlik sari yuz tutib, ayanchli davrni boshidan o'tkazgani hech kimga sir emas. Shunday murakkab bir sharoitda xalqimizning orasidan yurt taqdiriga befarq bo'lmagan, milliy ozodlik uchun kurashib,ma'rifat izlagan, istiqlol uchun intilgan, ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, barkamol, har tomonlama yetuk avlodni voyaga yetkazish kabi masalarni o'zining taqdiriga aylantirgan ziyoli qatlam yetishib chiqdi. Bular jadidchilar edi. Jadidchilik XIX asr oxirlarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida "Tarjimon" gazetasi orqali vujudga keldi. Turkiya va Eronda keng yoyilgan jadidchilik harakati keyinchalik Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa ko'plab jadidlarning say harakatlari natijasida Turkistonga ham kirib keldi.

Qadimchilar jadidchilarning boshiga bir balo bo'lsa, endi o'rnashib olayotgan bolsheviklar ikkinchi balo edi. Jadidchilar o'z xalqini, farzandlarini birinchi navbatda qadimchilarning o'rinsiz xurofotlaridan, eskicha qarashlaridan, ikkinchi

tomondan esa bolsheviklarning butun erkimizni bo‘g‘ishga qaratilgan siyosatidan asrashi, qutqarishi lozim edi. Shu sababli ular, avvalo, ishni bolalarni, xalqni savodli qilib, ularning ko‘zini ochishdan boshladi. Bu yo‘lda ular uchta yo‘nalishda ish olib bordi. Maorif (maktablar ochish, darslik kitoblar yaratish), adabiyot (millik ozodlik yo‘lida asarlar yaratish), teatr (Xalq hayotidan olib yaratilgan asarlarni sahnalashtirish va xalqqa havola etish). Ular xalqni uyg‘otish, razolat botqog‘idan chiqarish uchun ilm-ma’rifat, adabiyot, san’atni asosiy quroliga aylantirishdi. Biz ushbu maqolamizda yoshlarni, aholini ilm-ma’rifatli qilish yo‘lida bitilgan asarlarni tahlil qildik.

Munavvarqori Abdurashidxonov jadidchilarning yetakchisi, xalq ozodligi uchun kurashgan, sovet hukumatining eng birinchi dushmanlaridan biri bo‘lgan shaxs edi. U jadidchilik maktablarini ochadi, u maktablar uchun o‘zi “Birinchi ustoz”, “Ikkinchi ustoz” kabi darslik kitoblar yozadi. U yurtdoshlarimiz orasidagi farzandini maktabga bermasdan, ilmdan mahrum qilib ruslarning xizmatchisi qilib yurgan otalarni qattiq qoralar ekan, farzandlarini qo‘lidan tutib maktabga olib borgan otalarni yoqlaydi. Ammo, shu o‘rnida muallimlar ham ba’zan yaxshi savodli bo‘lmaslar deb afsus qiladi. Abdurashidxonov Munavvarqorining “Yalqovlik yovimizdir” (M.Abdurashidxonov, 2022, 111-bet) she’rida:

Qo‘zg‘alingiz, ey o‘rtoqlar! Keldi bizga ishlash chog‘i,
Biz barchamiz yosh ishchimiz, ishxonamiz-maktab bog‘i
Turing, tezroq ish boshlaylik,
Yalqovlikni biz tashlaylik!

degan so‘zlar aytilib, birinchi vazifa ilm olish ekanligini nazarda tutiladi. She’r davomida yalqovlikni tashlab, ilm olishga da’vat qilar ekan, *“yurt obro‘sin yoshlar saqlar”* deydi. U har bir tirik jon belgisi o‘qish, qo‘zg‘alish, yalqovlikni yo‘qotishda deb biladi. Bizning yovimizni yalqovlikda, nodonlikda deb biladi va ularga qarshi kurashmaslikni qo‘rqoqlikdir deydi, shoir. Yalqovlikdan ilmsizlik kelib chiqadi, ilmsizlik oqibatida jaholatga yuz tutish muqarrar, shuning uchun ham shoir bu she’rida bu illatlarga qarshi chiqib, ilm olishga chaqiradi. Ushbu she’rda ilgari surilgan yoshlarning har tomonlama yetuk bo‘lishi, ilm olishi

bugungi kunda ham dolzarb mavzulardan biridir. Zero, bu haqida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: ”*Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”* (Mirziyoyev 2019, 4-bet). Chunki ilmli, aqlli, ma’naviyatli farzand yurtning boyligidir.

“*Ey qardoshlar, voy millatdoshlar!!! Ko‘zimiz g‘aflat uyqusidan ochib, atrofimizg‘a nazar solmakimiz lozimdir. Har millat o‘z saodati hol va istiqbolini muhofazatig‘a birinchi vosita ilm o‘lmakig‘a qanoat hosil qilib ilm va maorifg‘a ortiq darajada ko‘chish qilgan bu zamonda bizlar bu g‘aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbolimiz nihoyatda xavflik o‘lub hamma olamga masxara va kulgu o‘lmog‘imizda hech shubxa yo‘qdir”* (Abdurashidxonov M. 2022, 111-bet) deydi. Munavvarqori Abdurashidxonov “Sabzazor”, “Yer yuzi”, “Tajvidal Qur’on” kitoblarini yozadi va darsliklari yangi usuldagi maktablarda o‘tiladi. Millati uchun jon bergan farzandlarini xalq hech qachon unutmaydi va ularning nomi doim qalbimizda yashaydi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida milliy matbuot, teatr, ta’lim, san’at, ma’rifat sohalarini keng targ‘ib qilayotgan Cho‘lpon, Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Behbudiylarning orasida Abdurauf Fitratning ham o‘rni katta. Fitrat Turkiya, Arabiston, Hindistonga safar qiladi va Istanbuldagi dorilmualliminda o‘qiydi. Boshqa davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy jihatlardan yaxshigina taassurot olgan Fitratning Istanbuldagi ta’limdan so‘ng dunyoqarashi keskin o‘zgaradi.U Turkiyaga o‘qishga borgan talabalarga qo‘ldan kelgancha yordam beradi. Turkiyaga borib “Munozara”, “Sayha”, “Hind sayyohi bayonoti” asarlarini chop ettiradi va Buxoroga yashirincha olib kelib yosh buxoroliklarga tarqatadi. Uning “O‘gut” deb nomlangan she’ri o‘sha davrda yoshlarga qarata aytilgan, shunchaki murojaat emas, hozirgi kun yoshlari uchun ham, kelajak avlod uchun ham vatan, yurt uchun kurashish, uni asrash ruhida bitilgan da’vatdir.

Og‘ir yigit, sening go‘zal, nurli ko‘zingda

Bu millatning saodatin, baxtin o‘qudim.

O‘ylashingda, turishingda hamda o‘zingda

Bu yurt uchun qutulishning borlig‘in ko‘rdim.

Zero, boshqa jadidchilar qatori doim kuzatuvda va imkon tug‘ilishi bilan yo‘q qilishga tayyor turgan chor Rossiyasining tazyiqlariga qaramasdan *“hurkma-kirish, qo‘rqma-yopish, yo‘rilma-qo‘zg‘al!”* deb hech yashirmasdan, ochiq-oydin murojaat qilayotgan Fitratning bu so‘zlari mustamlakachi davlatni qo‘rquvga solgani aniq. Chunki , Fitrat va unga o‘xshaganlar ma’rifat, milliy ozodlik uchun hech narsadan qaytmas edi. Jumla boshida *“og‘ir yigit”* deb yigitlarga murojaat qilayotgan shoir, nega aynan ularga nisbatan *“og‘ir”* sifatini ishlatdi? Ma’lumki, o‘zbek xalqi juda sodda, mehribon xalq bo‘lib tanilgan. “Og‘ir” so‘zi bosiq ma’nosida kelib, xuddi o‘sha narsaga ishora qilayotgan bo‘lsa ajab emas. Shuning uchun ham Fitrat endi qo‘zg‘alish, yonish, davri kelganligini nazarda tutib, ushbu so‘zni mubolag‘a tarzida qo‘llaydi. “O‘gut” she’rida esa “go‘zal”, “nurli” ko‘zlarida millatning saodatini, baxtini ularda ko‘rishini aytgan shoir, yurtning qutulishini ya’ni ozod bo‘lishini ham aytib, barcha umidlari yoshlarda ekanligini nazarda tutadi. Fitrat yangi davr kishisi ekan, ba’zi xalqni taraqqiyotdan orqaga tortayotgan, insonlarga umuman foydasi tegmayotgan eskicha qarashlarni, amaldorlarning ba’zi xurmacha ishlarini she’rda *“El yo‘lini to‘sib turgan eski bulutlarni”* yo‘q qil, yondirib, yirtib tashla deb aytadi. Ya’ni u bu qarashlarni eski bulutga o‘xshatadi. Misra so‘nggida go‘yoki, yuragidan otilib chiqqan so‘zlarni yozar ekan, agar shu ishlarni qilolmasa, bu ular uchun xo‘rlik ekanligini aytib, “*yiqil,yo‘qol,ket!”* deb so‘zini yakunlaydi. Bu jumlalar xuddi Usmon Nosirning “Yurak” (Usmon Nosir 1959, 134-bet) she’riga o‘xshaydi. Zero, Usmon Nosir ham yuragiga agar sendan vatan rozi bo‘lmasa, “Yoril, chaqmoqqa aylan sen, yoril! Mayli tamom o‘lsam” deb buyruq beradi. Xuddi shunday vatan koriga yaramagan yigitning, uning yuragining, kimga va nimaga keragi bor. Bu u uchun xo‘rlik emasmi? Fitratning bunday zalvorli she’rlari adabiyotimiz tarixidan hech qachon o‘chmaydi.

O‘z umrini xalqimiz madaniyati, rivoji, ma’rifatini yuksaltirish uchun o‘tkazgan Mahnudxo‘ja Behbudiy ilk jadidchiladan biri edi va hayoti ancha qiyinchiliklarda kechdi. “Haq olinur, berilmas” (Karimov N. 2008, 37-bet) shiori bilan ozodlik uchun kurashgan Behbudiy xalqimizning ta’lim olishi uchun bepul kutubxonalar, maktablar, teatrlar tashkil etadi. Turli xil xayriya jamiyatlarini ochib ulardan tushgan pullarga yoshlarni o‘qishga jo‘natadi. “*Boshqa millat boylari faqir va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soladurlar, faqir va yetimlarning o‘qimog‘i uchun vaqf “istipendiya” lar tayin qilur, ... Biznikilar juft otila, arobasila, to‘yi ila faxr etar. Hatto o‘z o‘g‘illarini o‘qitmaydurgon boylar bordur. Bu ketishni oxiri yamondur, o‘qimoq, o‘qitmoq kerakdir”* (Behbudiy 1913, 4-5-betlar) deb xalq bolalarini o‘ylab kuyinadi. Behbudiy o‘zi ochgan teatrga birinchi bo‘lib o‘zi yozgan “Padarkush” (Behbudiy 2009, 40-51-betlar) dramasini sahnalashtiradi. Behbudiyning bu dramasi “O‘qimagan bolaning holi” deb ham nomlanadi. Keling asar nomiga to‘xtalamiz. Padarkush “ota qotili” deganidir. Man shu so‘zning o‘zi ham bir eshitilganda odamni seskantiradi. Ikkichi nomi esa buning ilm o‘rganmaganlikda, ma’rifati yo‘qligidan kelib chiqqan voqea ekanligini ko‘rsatadi. Asarda ma’rifatparvarlik g‘oyasi domla va ziyoli orqali ilgari suriladi. Asar boshida domla so‘ngra ziyoli boyning uyiga kelib farzandini o‘qitishni aytishadi. Boy esa “dunyoning sababi, izzati – boylik. Biz ko‘rurmizki, odamlar boyni mullodan avfzal bilurlar” deb javob beradi. Shu jumlalarda xalqning qanchalik tubanlashib borayotgani, odamlar pulga qarab muomala qilishini ko‘rsatib beradi. Agar u o‘qiganida edi, o‘z otasini o‘ldirish uchun yordam bermasdi va Sibrga surgun qilinib, padarkush degan tamg‘ani olmasdi. O‘quvsizlik oqibatida bir oila parokanda bo‘ldi. Bu birgina oilaning fojeasi emas, butun bir millatning fojeasidir. Zero, Toshmurodning o‘tirgan davrasi, jinoyatga sheriklar ham u qatori yoshlar edi. Nafaqat Toshmurod o‘qimagan, uning ota-onasi ham o‘qimagan, ular o‘qiganida farzandlarini ham o‘qitardi, uni yaxshi tarbiya qilardi. Zero, farzand ota-onadan o‘rnak oladi. Hamma narsa ilmga borib taqalishi tabiiy. Qachonki,millat ilmli bo‘lsa, uning kelajagi porloq, saodatli bo‘ladi. Asar boshidan oxirigacha ma’rifatni targ‘ib qiladi. Asar so‘nggida ziyoli “*Ilm va tarbiyasiz*

bolalarning oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o‘qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas edi va alar ichkilikni aslo olmas edi. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o‘qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxtliklar bo‘ladi” deb hammaga qarata murojaat qiladiki, Behbudiy o‘zining so‘zlarini ziyoli orqali xalqqa aytgan bo‘lsa ajab emas.

Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyoti namoyondalari bugungi farovon, nurli hayotimiz, erkin, ozod yashashimizning asosiy sababchilaridir. Jadidchilar bor imkoniyatlarini ishga solib, o‘lmas asarlar yaratdi, ularning zamirida faqatgina badiiy joziba emas, hurlik, ma’rifatlilik, vatanparvarlik, yoshlarning ilm ma’rifatli bo‘lishi kabi g‘oyalar ham barq urdi. Ularning har bir aytgan so‘zi quloqlarimizda xuddi o‘gitdek yangrab turadi. Mana shunday ma’rifatparvar ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lish biz kabi yoshlarning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashidxonov M. (2022). Jadidlar. (Nashrga tayyorlovchi Z. Abdurashidov) // – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi,– B. 110-111.

2.Mirziyoyev Sh.M. (2019),O‘zbekiston yoshlar mamlakati. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan. Toshkent, 24 iyul. https://strategy.uz

3.Усмон Носир. (1959). Танланган асарлар. УзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти. –Тошкент-- В.134

4.Karimov N. (2008). XX asr adabiyoti manzaralari.—Toshkent, O‘zbekiston–B.37-39 bet.

5.Behbudiy M. (1913) .Ehtiyoji millat. //Samarqand. – Samarqand, 12-yul. – Б.4-5.

6. Behbudiy. (2009). Tanlangan asarlar.(Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov) .—Toshkent, Ma’naviyat –B.40-51

ELBEK IJODINING O‘RGANILISHI

Yahyoyeva Dildora Baxtiyor qizi
ToshDO‘TAU O‘FF, 3-kurs
yahyoyevadildora@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadid adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri Mashriq Yunusov (Elbek)ning murakkab hayoti va o‘lmas ijodi borasida so‘z*

boradi. Uning ijodiy merosining bugungi kundagi ahamiyati aytilib, o‘z davrining taniqli ijodkorlari tomonidan aytilgan fikrlar bilan dalillanadi. Asosiy qismda esa ijodkor adabiy merosining o‘rganilish tarixi haqida fikr bildirilib, Nurmuhammad Qobulov, Ortiqboy Abdullayev, Haydarali Uzoqov, Ulug‘murod Amonov kabi olimlarning bu haqidagi ishlari ochiqlanadi. Elbek ijodining ushbu olimlar tomonidan tatbiq etilgan jihatlari ko‘rib chiqiladi va munosabat bildiriladi.

Kalit so‘zlar: *Elbek, ijod, o‘rganilish tarixi, ma’rifat, erk, matbuot.*

Abstract. *This article gives us about one of the prominent of Jadid literature called Mashrikh Yunusov (Elbek)’s complex life and undying creature. In the main part, an opinion is expressed about the history of the study of the literary heritage of the creator, and the works of such scholars as Nurmuhammad Qabulov, Ortiqboy Abdullayev, Haydarali Uzokov, and Ulughmurad Amonov are disclosed. Aspects of Elbek's work applied by these scientists are considered and a reaction is expressed.*

Keywords: *Elbek, creature, learning history, education, liberty, intervie.*

XX asr 20-30-yillarida Turkiston adabiyoti va matbuoti maydoniga juda ko‘p ma’rifatlilar kirib keldi. Shulardan biri yangi o‘zbek ma’rifati, madaniyati sohasida faol ishtirok etgan Elbekdir. Elbek – 20-30-yillarda samarali ijod qilgan taniqli shoir, yozuvchi, jurnalist, folklorchi, tilshunos va mashhur pedagog olimdir. Uning asl ismi Mashriq Yunusov bo‘lib, Elbek uning taxallusi hisoblanadi. Mashriq Yunusov bundan 125 yil muqaddam – 1898-yil Toshkentning Bo‘stonliq tumanidagi Xumson qishlog‘ida Yunus ota oilasida dunyoga keldi.

1917-yillardan uning adabiy ijodi boshlangan bo‘lsa, dastlabki she’rlari “El bayrog‘i”, “Turon”, “Turk so‘zi”, “Ulug‘ Turkiston” gazetalari, shuningdek, “O‘zbek yosh shoirlar to‘plami”da bosilgan. Elbek “Armug‘on”, “Yolqinlar”, “Sezgilar”, “Mehnat kuylari”, “G‘unchalar”, “Chirchiq bo‘ylarida”, “Bolalar qo‘shig‘i”, “She’rlar to‘plami”, “She’rlar”, singari she’riy to‘plamlar, “Anorgul”, “Go‘zal qiz”, “Turkiston”, “Bizniki”, “Paxta”, “O‘tmishim”, “Chirchiq”, “Batrak kolxozi”, “O‘zbekiston”, “Bog‘bon”, “Etik”, “Mergan” singari dostonlar,

“Tozagul” she’riy romani, “Qo‘shchi Turg‘un”, “Dadamat” kabi hikoyalar to‘plami muallifidir.

Elbekning she’riy va nasriy asarlarida o‘zbek xalqining yaqin tarixidan olingan, shu jumladan, shoirning kechmish-kechirmishi bilan bog‘liq voqealar tasviri muhim o‘rinni egallaydi. Zero, yetuk munaqqid va adabiyotshunos, professor Abdurahmon Sa’diyning bu boradagi fikrlari buning yaqqol dalilidir: “Keyingi davr o‘zbek adabiyotida masalchilikni Elbek boshladi. Tarjima yo‘li bilan emas, balki, masalchilikni tug‘dirish yo‘lini tutdi. Hali bu yo‘lda undan boshqa kishi ko‘rinmagan” (Qobulov N.1988, 42-bet). Ashurali Zohiriy esa “Shoir Elbek xalq mulki – og‘iz adabiyotini xalqdan olish va xalqqa qaytadan yetkazishda el tilining tushunarli ta’sirlaridan ko‘p foydalangan, el bolalar adabiyotida masalchilikni yaratgan katta san’atkor edi” (Uzoqov H. 1999, 9-bet) - deya ta’riflagan.

Elbekning hayoti va ijodini bir qancha adabiyotshunos, tilshunos va tarixchi olimlar o‘rgangan. Ular shoirning ijodini o‘rganish orqali Elbek serqirra ijodkor ekanligini isbotlashgan.

Xususan, isyonkor shoir ijodini o‘rganish o‘tgan asrning 70-80-yillaridan boshlangan bo‘lsa, mustaqillikdan so‘ng uning merosi qizg‘in tarzda to‘plana boshlandi. Adabiyotshunos, tilshunos va tarixchi olimlardan Nurmuhammad Qobulov, Ortiqboy Abdullayev, Haydarali Uzoqov, Ulug‘murod Amonov, Shoira Bobomurodova kabilar uning ijodini o‘rgandilar va nashr ettirdilar.

Adabiyotshunos Nurmuhammad Qobulov 1988-yilda nashr etilgan o‘z tanqidiy-biografik ocherkida Elbek hayoti va ijodi borasida olib borgan izlanishlarini bayon qiladi. Garchi bu kitobda bahsli o‘rinlar ko‘p bo‘lsa-da, u Elbekning samarali ijodi haqida qimmatli ma’lumotlar bera oladi. U dastlab o‘z ishida shoir ijodiga tanqidiy tarzda yondashadi: *“Ijodining dastlabki yillarida davrni to‘laqonli obrazlarda ifodalab berolmaydi, umidsizlik bor”,(Qobulov N. 1988, 6-bet)* - deya baho beradi va bir qator she’rlarini misol qilib keltirib, ularda maqsad va pozitsiya aniq ko‘rinmagan deydi. Shoirning bir qator mavzudagi she’rlarini tahlilga tortadi va ularga o‘z fikrini bildirib o‘tadi. Albatta, muallif bunda davr nuqtayi nazaridan yondashgan bo‘lishi mumkinligini esga olish zarur.

Dastlab tanqidiy ruhda yondashgan muallif keyinchalik Elbek ijodida yaxshi o‘zgarishlar vujudga kela boshlaganini va o‘z g‘oyaviy pozitsiyasini mustahkamlaganini aytadi. Jumladan, “Mening hikoyam” she’rini misol tarzida keltirib, unda shoirning maqsadi aniq ekanligini va Elbek shoirlikni ermak biluvchilarga qarata “she’r yozish menga ermak ish emas” deganini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda shoirimizning *“Men hali bitta ham she’r aytmadim, faqat she’r yo‘lidan qaytmadim” (Qobulov N.1988, 9-bet)* deya kamtarlik qilganini eslab o‘tishimiz ham o‘rinlidir. Qolaversa, ijodkorda hikoyachilikka nisbatan shoirlik ustunlik qilishini ta’kidlab, ijodida quyosh obraziga ko‘p bora murojaat qilganini va bu yangi davrning ifodasi bo‘lib kelganini aytadi. Misol tarzida esa ijodkorning “Bahor” va “Quyosh” kabi she’rlarini ko‘rsatadi.

Professor va tarixshunos olim Haydarali Uzoqovning Elbek ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan faoliyati e’tiborga molik. U shoirning ijodiy merosini o‘rganib, ularni to‘plash va xalqqa yetkazishda samarali mehnat qildi. Buning natijasi o‘laroq, u Elbekning bir nechta ma’lum bo‘lmagan asarlarini topdi va ularni saralab, 1999-yilda shoirning “Tanlangan asarlar”ini chop ettirdi. U o‘z so‘zboshisida shoirni *“Erk yo‘lida erksiz ketgan fidoiy”* (Uzoqov H. 1999, 5-bet) deya ta’riflaydi. Professor shoirning 30 dan ortiq alohida chop etilgan kitoblari, o‘sha davr gazeta-jurnallaridagi mingdan ortiq she’r, doston, ballada, xalq qo‘shiqlari, hikoya, ocherk, ilmiy-uslubiy maqola, publistitik asarlari topilganini ta’kidlashi bilan birga topilmagan asarlari ko‘pligini ham aytadi. Ayni paytda u matbuotda ham qator maqolalar bilan qatnashdi. “O‘tkir metodist muallim edi”, “O‘z elining begi edi” singari maqolalari ushbu mulohazalarimizni tasdiqlaydi.

Shu yili - 1999-yilda Ozod Sharafiddinov muharrirligi ostida Elbekning “Mungli qushim” (Abdullayev O. 1999, 5-bet) she’riy to‘plami chop ettiriladi. Mustaqillik uchun dadil kurashgan va qatag‘onga uchragan Elbekning eng sara she’rlaridan dastalangan ushbu guldastaning nashrga tayyorlovchisi filologiya fanlari nomzodi Ortiqboy Abdullayev hisoblanadi. Doktor, professor Ibrohim Yorqin “Turkistonning millatparvar shoiri Elbek” sarlavhasi ostida ushbu kitobga so‘zboshi yozadi. So‘zboshi davomida u Elbekni ko‘rganligini, u bilan birga

maktabga qatnaganligini ta'kidlaydi, uning hayotidan birmuncha xabardor ekanligini aytadi: *"Men Toshkentda Quyi Devonbegi mahallasida, Eshonxo'ja Xoniy tomonidan ochilgan yangi usul (usuli jadid) boshlang'ich maktabining so'nggi sinfida o'qiyotganimda, shoirimiz ham qishlog'idan Toshkentga kelib, bizning sinfimizda darsga qatnay boshladi. Eshonxo'ja Xoniyning boshlang'ich maktabini tugatgandan so'ng Shayxontohur yaqinidagi Munavvar qorining maktabida ochilgan Rushdiy qismiga Mashriq Elbek va men birga qatnay boshladik. U mendan 4 yoshi chamasi kattaroq edi. U 1919-yilda shoir Mirmulla, yozuvchi Muslim va Mirmuhsin aka-ukalarning kichik singlisiga uylandi, men Toshkentdan ketmasdan burun uning kichik bir o'g'li bor edi*".

2017-yilga kelib, yana bir olim Ulug'murod Amonov Elbekning "Armug'on. Yolqinlar" kitobini qayta chop ettiradi. Eslab o'tish joizki, dastlab "Turkiston jumhuriyatining davlat nashriyoti" tomonidan 1921-yilda fidokor adibning "Armug'on" va 1925-yilda "Yolqinlar" she'riy to'plamlari chop etilgan edi. Olim mazkur masallar va she'riy to'plamlari bilan tanishishi jarayonida Elbekning badiiy-pedagogik ijodini xalqqa yetkazgan Haydarali Uzoqov tomonidan to'planib, tabdil qilinib, nashr etilgan "Momaguldurak" hamda "Elbek. Tanlangan asarlar" kitoblarida uchramaydigan masal va she'rlar("Kuchsizlar dunyosi", "Sichqonlar kengashi", "Maymunning qoziligi", "Jinning olov yoqishi", "Chol bilan kampir", "Qo'ychi bilan bo'ri" masallari) borligiga guvoh bo'ladi. Shu bois ijodkorning yuqorida aytilgan topilma ikki to'plamini XX asr boshida isloh qilingan arab yozuvidan amaldagi lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvimizga tabdil qilib, nashr etganini aytib o'tadi (Amonov U. 2017, 7-bet).

Olim ilmiy izlanishda, maqolalar chiqarishda davom etadi. U turli yillarda Sh.R. Saparova bilan birgalikda "Filolog olim, muallim, bolalar shoiri Elbek", "Elbek she'rlarining besh yo'nalishdagi tasnifi" kabi maqolalarini chop ettiradi. "Elbek she'rlarining besh yo'nalishdagi tasnifi" maqolasida jadidimizning ijodidagi she'rlari besh yo'nalishda: vatan, erk, xotin-qizlar ozodligi, muhabbat va tabiat kabi mavzularda tasnif qilinib, ushbu she'rlarida o'sha bo'ronli davrning

poetik manzaralari ifodalanganligi aytilgan (Amanov U. Saparov Sh. 2021, 123-bet).

“Filolog olim, muallim, bolalar shoiri Elbek” maqolasida esa Elbekning “Yozuv yo‘llari”, “Go‘zal yozg‘ichlar”, “Armug‘on” kabi asarlari yoritilgan((Amanov U. Saparov Sh. 2022, 363-bet).

Bu kabi ilmiy izlanishlar, tahlillar va matbuotdagi chiqishlar olimlarimiz tomonidan davom ettirilmoqda. Zero, Elbek hayoti va ijodiga xolisona baho berishda bunday ishlar muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Elbek - erk yo‘lida yongan chiroq. U nafaqat ijod qildi, bolalar adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shdi, balki xalq dardini o‘zining dardi deb bildi. Uning erkinligi, taraqqiyoti kabi masalalarini o‘zining bosh maqsadi qilib belgiladi. O‘z ismiga muvofiq tarzda elning boshlig‘i, sardori, yo‘lboshchisi, begi sifatida namoyon bo‘lib, xalqni ma’rifatga chorlab, u yo‘lda hech narsasini ayamadi. Lekin, afsuski, boshqa jadidchi bobokalonlarimiz singari Elbek ham bu ulug‘ ishlari uchun rag‘batlantirilmadi, aksincha, “millatchi”, “aksilinqilobchi” sifatida ayblandi. U Turkistonning bag‘rida oq va qizil hashorotlar in qurgan, vahshiylik avj olgan bir qiyomat-qoyim davrida yashab ijod etdi. Nima bo‘lishidan qat’iy nazar bobokalonimizning o‘lmas ijodi qalblarda abadiy yashaydi. Uning asarlari bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalash uchun muhim manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев О. (1999) Мунгли қушим. Шеърлар. – Тошкент: Абдулла Қодирий нашриёти.

2. Amonov U. (2017). Elbek.Armug‘on.Yolqinlar. – Toshkent: Turon Zamin Ziyo nashriyoti,– B. 7.

3. Amonov U. Saparova Sh. (2021-yil), Elbek she’rlarining besh yo‘nalishdagi tasnifi. – Toshkent:Uz.ACADEMIA ilmiy-uslubiy jurnali, iyun. 11-jild, 6-nashr, 123-bet.

4. Amonov U, Saparova Sh. (2022) “Filolog olim, muallim, bolalar shoiri Elbek”. “Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish

muammolari: innovatsiya, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar” respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, , 13-14 may, 363-bet.

5. Elbek. (1999). Tanlangan asarlar.(Nashrga tayyorlovchi H.Uzoqov). – Toshkent:Sharq nashriyoti.– B. 9-10.

6. Ibrohim Yorqin tilga olgan Elbekning o‘sha kichik o‘g‘li - O‘zbekistondagi mashhur shahmatchi va muallim bo‘lgan Ulug‘bek Elbekov edi.

7.Qobulov N. (1988). Elbek(tanqidiy-biografik ocherk). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti,– B. 4.

AHMAD TABIBIY G‘AZALLARIDA OSHIQ VA MA’SHUQA OBRAZLARI

Yunusova Sayyoraxon Mo‘minjon qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF, 4 - kurs
abdumalikovasayyora@gmail.com.
Ilmiy rahbar: Qo‘ldosh Pardayev.

Annotatsiya. *Ahmad Tabibiy Xiva adabiy muhitida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan istedodli, serqirra ijodkorlaridan biri hisoblanadi. Tabibiy qisqa hayoti davomida turli janrlarga oid lirik asarlar yaratgan. Asarlarini adabiyotshunoslik, adabiy manbashunoslik va mantshunoslik sohalari nuqtai nazaridan atroflicha o‘rganish dolzarb ahamiyatga molik. Maqolada shoir lirik asarlari, asosan, g‘azallari misolida oshiq va ma’shuqa obrazlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ahmad Tabibiy, shoir, devon, janr, g‘azal, obraz, oshiq, ma’shuqa, tashbeh.*

Abstract. *Ahmad Tabibi was one of the prolific and talanted creators in Khiva. During his short life he wrote several lyrical writings. It’s essential to learn his works in terms of literary studies and literary source studies and anthology. In this article the poet’s lyrical works, mainly examples of two lover’s pure love in his gazals are revealed.*

Keywords: *Ahmad Tabibiy, poet, genre, ghazal, image, lover.*

Ahmad Tabibiy Xorazm adabiy muhiti ijodkorlaridan biri, ma’rifatparvar shoir, dostonnavis, taskiranavis, tarjimon, tabib, bir so‘z bilan aytganda serqirra ijodkordir. Tabibiy badiiy adabiyotning deyarli barcha turida o‘ziga xos asarlar

yaratdi. Mumtoz adabiyotning g‘azal, ruboiy, tazkira, fard, qit’a, murabba’, muxammas, musaddas, musamman, mustazod, musabba’, mutassa, muashshar, qasida, tarje’band, soqiynoma, dahrnoma kabi bir qancha namunalarida ijod qildi. Tabibiy zullisonayn shoir hisoblanadi. Asarlarini turkiy va forsiy tillarda yozgan. Shoir o‘zining qirq ikki yillik qisqa umri davomida beshta devon tartib bergan. “Tuhfatus-sulton”, “Munisul-ushshoq” (3460), “Hayratul-oshiqin” (3460), devonlari o‘zbek tilidagi she’rlardan, “Mir’otul-ishq” (928), “Mazharul-ishtiyoq” (7083) devonlari esa fors-tojik tilidagi she’rlaridan tashkil topgan.

Ahmad Tabibiy lirikasi mavzu ko‘lamini ishq-muhabbat, ilm-ma’rifat, yaxshilik, odamiylik, odob-axloq, zamondan nolish, xalq hayot tarzi masalalari tashkil qiladi.

Mumtoz adabiyotning salmoqli qismini ishq-muhabbat mavzusidagi g‘azallardan iborat. Shoir ijodida ham yetakchi mavzu bu ishq-muhabbat mavzusi hisoblanadi. Muhabbat bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday tuyg‘u-kechinmalar asosan ikki obraz: oshiq va ma’shuqa obrazlari orqali ifodalanadi. Bu obrazlar orqali shoirning bu masalaga munosabati, oshiqning sevgisi bilan bog‘liq bo‘lgan visol, hijron, firoq kabi holatlari haqida so‘z boradi.

Ma’shuqa - yor ishqiga sabab bo‘lgan, oshiq ko‘nglini rom qilgan, suyukli yor. G‘azallarda ma’shuqaning tashqi ko‘rinishini tasvirlashda go‘zal tashbehlardan foydalaniladi. Tabibiy yorning tashqi go‘zalligini ta’riflar ekan “labi g‘uncham”, “yuzi gulbargi xandonim”, qoshlari “hiloli iyd”, tishlari “sadafda duru gavhardur” singari go‘zal o‘xshatmalarni keltiradi.

Hajr za’fi birla yurmakka majolim yo‘q erur
Oni albatta qadi sarvi xiromonimg‘a ayt.

Yig‘lamoq subhu maso ko‘zumga odat bo‘lg‘anin
Ul labi g‘uncha, yuzi gulbargi xandonimg‘a ayt.

(Tabibiy, 1968, 23-bet).

Oy yuzingni sham’iga xurshidi xovardur fido,
Vey labingg‘a chashmai hayvonu kavsardur fido.

Qoshlaringni bandasi chunkim hiloli iyd erur,
La'linga majlis aro jonbaxsh sog'ardur fido.

La'l rangingg'a yoqut o'lg'usidur banda base,
Tishlaringga ham sadafda durru gavhardur fido.

(Tabibiy, 1968, 19-bet).

Shoir "Bog' aro to orazi zulfing namoyon aylading" deb boshlanuvchi g'azalida ma'shuqani qaddini ko'rgan sarv bilan shamshod hijolat loyiga botgani, jodu ko'zlari bilan boqib nargis bechorani lolu hayron aylagani haqida xabar beradi.

Sarv ila shamshod botdilar hijolat loyig'a,
Chun chamanda noz ila qadding xiromon aylading.

Jodu ko'z birla boqib haryon nigohi fitnasoz
Nargisi bechorani mabhutu hayron aylading.

(Tabibiy,1968, 23-bet).

Bundan tashqari mumtoz adabiyotda oshiq va ma'shuqaning go'zalligini birma-bir ta'riflamay, doimiy timsollarga aylangan Layli, Shirin, Majnun, Farhod, gul, bulbul kabi obrazlarga ishora qilinadi.

Tabibiy g'azallarida yoriga murojaat qilishda " jononim", "mohi tobonim", "qadi sarvi xiromonim", "zulfi parishonim", "gulbargi xandonim", "nozi farovonim" singari undalmalardan foydalangan.

Ey sabo, jonu dilim dardini jononimg'a ayt,
Tiyra shom o'lg'onlig'imni mohi tobonimga ayt.
Fitnau oshublar tushg'anligini ko'ngluma
Asru giryonlig' bila ul chashmi fattonimg'a ayt.

(Tabibiy, 1968, 23-bet).

Ma'shuqaning go'zalligini ta'riflab, ishqqa mubtalo bo'lgan va o'zini unutgan kishi bu oshiqdir. Tabibiy g'azallarida oshiqning ma'shuqa kabi tashqi

qiyofasi chizilmaydi. Fikr, tuyg‘u va kechinmalar oshiq tilidan xabar qilinadi. Oshiq- ma’shuqa visolidan umidvor, ayriliqning dardu g‘amiga mubtalo, vafodor, ishqidan voz kechmaydi.

“Bilmadim” radifli g‘azalida oshiqlik, vafosiz yorlar, o‘z holidan shikoyat qiladi.

Oshiq o‘lg‘on borho giryon ekandur bilmadim,
Odati subhu maso afgon ekandur bilmadim.
Ohkim maftunlig‘ etdim dilrabolar ahdig‘a,
Bovujudi ahdi ko‘p yolg‘on ekandur bilmadim.

Bevafolarg‘a ko‘ngul bersa agar har kimsakim,
Mubtaloyi mehnati hijron ekandur bilmadim.
Buki mayli ishq etib qoldim azobu ranjg‘a,
Qayg‘u chekmakdin o‘lum oson ekandur bilmadim.

(Tabibiy,1968, 21-bet).

Tabibiy g‘azallarida oshiq “bulbul”, “gado”, “navo” kabi timsollar orqali keltiriladi.

Ul oydin toki ishq ichra judomen,
Tuganmas dardu g‘amga mubtalomen.
Visolini tilab har rȳzu har shab,
Eshiklarda jahon ichra gadomen.
Guloso orazining shavqi birla
Chekarmen, o‘ylakim bulbul, navo men.

(Tabibiy,1968, 22-bet).

Tabibiy shoir sifatida she’riyatning nazariy asoslaridan ham yaxshi xabardor bo‘lgan. Lirikasidagi she’rlari bilan tanishgan inson bu fikrimizni ma’qullaydi. She’rlarida badiiy san’atlarni qo‘llash mahorati, she’riy shakl va mazmundagi uyg‘unlik, fikrning terangligi shundan darak beradi.

Xulosa. Tabibiy g‘azallarida oshiq va ma’shuqa obrazlarini yaratish mahorati yuksak ijodkorlardan biri hisoblanadi. G‘azallarida faqatgina oshiq va ma’shuqa obrazlarini chizmay, balki ularning kechinmalaridan o‘zning fikr va tuyg‘ularini bildirish, yetkazish vositasi sifatida foydalandi. Maqolada shoirning lirik janrdagi namunalari misolida uning lirikasidagi ishoq va ma’shuqa obrazlari tasviri, badiiy san’atlardan foydalanish va so‘z qo‘llash mahoratini yoritishga harakat qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tabibiy. (1968). Tanlangan asarlari. Toshkent. G‘ofur G‘ulom.
2. Qosimov.B va boshqalar. (2004). Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent. Ma’naviyat, 85-93-betlar.
3. Qosimov, B. (1983). Izlay-izlay topganim. Toshkent. Adabiyot va san’at.
4. Jumaxo‘ja.N , Adizova. I . (2019). O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. Noshir.
5. Vohidov. R, Eshonqulov. H. (2006). O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Adabiyot jamg‘armasi.
6. Bobojon Tarroh Azizov-Xodim. (1994). Xorazm navozandalari. Toshkent. G‘ofur G‘ulom, 75-78-betlar.
7. Amonov, Shermuhammad. (2020). “Ahmad Tabibiy ijodi va uning “Munisu-l-ushshoq” devoni nusxalari”. Oltin bitiklar. 1: 22-42 betlar.

“BOBURNOMA”DA HAQQONIYLIK VA BADIIY TALQIN

Yusupova Dinora G‘ayrat qizi,
ToshDO‘TAU adabiyotshunoslik 2-kurs magistranti
Yusupovadinar9799@gmail.com

Annotatsiya: *Madaniyat va ma’naviyat tarixida XV asr – XVI asrning birinchi yarmi o‘lmas asarlarga boy bo‘lib, bu davrda xalqimiz insoniyatga ko‘plab fan va adabiyot daholarini taqdim etgan. Xususan, Xuroson va Movaraunnahrda yuzlab shoirlar, yozuvchilar, tarixchi va bastakorlar,*

san'atkorlar yashab, ijod etdi. Fors va turkiy tillarda bitilgan durdona asarlardan forsiyzabon ham, turkiyzabon kitobxonlar ham ma'naviy ozuqa oldi. Har ikki tilda yaratilgan badiiy-tarixiy asarlar bir-birini mazmunan boyitib bordi. Ushbu maqola orqali Boburning o'sha davr muhitiga qay darajada haqqoniylik va teranlik bilan boqqani haqida so'z yuritishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: *"Boburnoma", "mardonavor uslub", memuar asar, Bobur uslubi, Hindiston, Eron, Afg'oniston manzaralari*

Abstarct. *In the history of culture and spirituality, the 15th century - the first half of the 16th century is rich in immortal works, and during this period, our nation presented many geniuses of science and literature to mankind. In particular, hundreds of poets, writers, historians, composers, and artists were blessed in Khurasan and Movaraunnahr. Both Persian and Turkic readers received spiritual nourishment from masterpieces written in Persian and Turkish languages. Artistic and historical works created in both languages enriched each other. Through this article, an attempt was made to talk about the extent to which Babur cared about the environment of that time with honesty and depth.*

Keywords: *"Boburnoma", "brave style", memory, Babur's style, landscapes of India, Iran, Afghanistan.*

"Boburnoma" faqat tarixiy asar emas. Unda o'sha davrdagi bir qator fanlarning ilmiy yutuqlari ham o'z ifodasini topgan. Bobur tog' va daralar, ko'l va daryolar, xilma-xil o'simlik va hayvonlar, turli hudud va mintaqalarning yer osti va yer usti boyliklari, u yerda yashaydigan xalqlarning urf-odati, tili, adabiyoti, ayrim so'zlarning kelib chiqishi kabi masalalar bilan ham astoydil qiziqadi. Muallif bularning hammasini erinmay kuzatadi, o'rganadi, turli kasbdagi kishilardan ma'lumotlar to'playdi.

Bu tarixiy-badiiy asar 1494-1529 yillardagi voqealarni, Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston va Hindiston xalqlari tarixi bo'yicha qimmatbaho

ma’lumotlar manbayi sifatida necha asrdan buyon turli olimlarni bahramand qilib kelmoqda.

Mohiyatiga ko‘ra, “Boburnoma” voqeiy-ilmiy-sarguzasht asar bo‘lgani bois, birinchi galda, muallifning hayotda ko‘rgan-kechirganlariga ko‘proq diqqatni qaratmoqchimiz. Boburning o‘z boshidan kechirgan mashaqqatlarni ochiq-oydin bayon qilishi ayniqsa diqqatga sazovor. Adibning tarjimayi holi, musofirlikdagi Vatan hijroni botiniy tarzda turli tasvirlarda, misralar qatiga singdirilgan fikr-mazmunda ham o‘z aksini topganki, kuzatishlarimiz orqali bu jihatga oydinlik kiritishga harakat qilamiz.

“Boburnomada muallif Hindiston haqidagi qissasini yakunlar ekan, bu mamlakatga oid umumiy qarashlarini bayon etadi. Bunda Boburning umumlashtirish san’ati, olim-u fozilligi, zukkoligi-yu boy hayot tajribasi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bobur asarining juda ko‘p joylarida, shuningdek, nazmida ham Vatandan ayri tushgani ijodiga turtki berganini yozadi. Xuroson va Movorounnahr iqlimiga xos juda ko‘p xususiyatlar Hindiston tabiatiga begonaligi, Boburdek musofir uchun u o‘lkaning iqlimi, suvi, havosi hatto hayvonoti-yu mevasi “o‘zgacha”ligining batafsil bayonini ko‘ramiz. Bu haqda fikr yurita turib, Bobur o‘z ruhiyatida o‘zgarish ro‘y berganligini ta’kidlaydi. Boylik, mulk, va yurtga ega bo‘lgani bilan ko‘ngli yarimligini, o‘z yurtida oddiy tabiiy sharoitda yashash xumori barcha narsadan ustunligini bot-bot aytadi.

Boburning sog‘inch tuyg‘ulariga yo‘grilgan o‘ylari bayoni hindlarning ‘devtiy” nomli qora shamdoni tasviri, bu o‘lkada oqar suvlar yo‘qligi va mahalliy aholi sharmli joylarini bir parcha mato bilan berkitib yurishlari haqidagi hikoyasi bilan yakunlanadi. Vatan sog‘inchini, musofir yurtda “yo‘q’larning sonini behisobligini ifodalay turib biroz yengil tortadi va Hindistonning ijobiy jihatlarini zikr etish uchun “Latofate, Hindistonda bor…”, deya so‘z boshlaydi. Asarning shu joyidan boshlab “yo‘q”lar yurtida bobosi Amir Temurning yagona saltanatini asrash, ulkan mustaqil davlatni barpo etish uchun chidam bilan yashashga tan bergan, ko‘nikkan adib va shoh Boburning qissalari o‘rin oladi.

“Boburnoma”ning Movaronnahr va Afg‘onistonga doir voqealari bayonida keltirilgan Hindiston ta’rifiga bag‘ishlangan o‘rinlarda ham tarqoq fikrli sahifalar, boda, may bazmlari shukuhini yoritgan tasvirlar ko‘pdir. Shu o‘rinda hind diyori, xalqiga berilgan bahoni keltirib o‘taylik. Jannatmakon yurti – Movarounnahr, uning Andijon, Samarqanddek shaharlari-yu, zilol suvlari, go‘zal bog‘-u tabiati, Kobuldagi go‘zal sayridan so‘ng Hindiston tabiati Boburga nomuvofiqdek, bu o‘lka urf-odati, nabotot-u hayvonoti ham begonadek… Biroq Hindiston Boburni emas, aksincha, Bobur bu yurtni tanladi, unga keldi.

“Boburnoma”da muallif o‘zining Andijondan Hindistongacha bosib o‘tgan yo‘li haqida yozar ekan, qaysi shahar va maskanga bormasin, avvalo, u joyning me’morligi, qo‘rg‘oni, tabiati va nodir voqealarga alohida e’tibor beradi. Bu tasvirlarning har biri o‘zicha e’tiborga loyiq, bir-biriga o‘xshamaydi, ayni paytda ular o‘zaro bog‘liqki, mana shu uzviylikdan badiiy jihatdan mukammal va real tasvirlar yuzaga kelgan. Afg‘onistonning Ningnahor viloyatidagi bog‘ tasvirini olib ko‘raylik: “Yer murfati, oqar suyi muttasil, havosi qishlar mu’tadil, bog‘ning o‘rtasida bir kichikrak pushta voqi’ bo‘lubtur, bir tegirmon suyi bu bog‘ning o‘rtasidin va bog‘ning ichidagi pushtaning ustidin hamisha joriydur. Bog‘ o‘rtasidag‘i chorchaman bu pushtaning ustida voqi’ bo‘lubtur. Bog‘ning g‘arbi janubiy tarafida dahi dardah havzedur, atrofi tamom norunj daraxtlaridur, anor daraxtlari ham bor. Bu havzning girdo-girdir tamom sebargazordur… Norunjlar sarg‘arg‘on mahalda bisyor yaxshi ko‘rinur, xeyli yaxshi bog‘ voqi bo‘lubtur”.

Boburning badiiy mahoratini belgilovchi yuksak hayotiy tasvirlar, qaysi mavzuga doir bo‘lmasin, haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Muallif muayyan bir tasvir obyekti haqida fikr bildirar ekan, uni bir ichki hayajon, ehtiros va hayotiy tajriba bilan uyg‘unlashtirib hikoya qiladi, tabiat voqe-hodisalarini kuzatadi. Uning fikricha, hayotda, tabiatda sodir bo‘ladigan voqealar, birinchi navbatda, Allohning irodasi, qolaversa, kishi taqdir “chizig‘i”dan ayri bo‘la olmaydi, bularning hammasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, Bobur qahraton qishda Hindikush tog‘ini ne mashaqqatlar bilan oshib, Kobul tomon tushar ekan, chekilgan azob-u uqubatlarga qaramay, tog‘dagi qalin qor tufayli o‘z odamlari

bilan eson-omon, dushmanlar qarshiligiga uchramasdan manzilga yetib olganini aytadi. Muallif fikricha, bu o‘tkir cho‘qqilardagi qalin qor taqdirning tuhfasidir: “Agarchi ulug‘ qordin necha kun xeyli tashvish ko‘rduk, vale oxir ushbu ulug‘ qor sababidin o‘zumizning manzilg‘a yetkurdik. Nechukkim, agar mundoq ulug‘ qor bo‘lmasa, andoq berah uchma va sekirtmadin kim o‘ta olg‘ay edi, balki agar ulug‘ qor bo‘lmasa, uchmada-o‘q elning ot va tevasi tamom qolg‘ay edi.

Hindikush tog‘ining ayni qahraton, qori qalin paytda oshib o‘tish “Boburnoma” muallifiga chuqur psixologik ta’sir o‘tkazgan ko‘rinadi. Asarning bir necha joyida, turli voqea va shaxslar haqida so‘z yuritganda, Bobur shu qor kechuvini eslaydi. Alloh o‘shanda o‘zi va sheriklariga ikkinchi umr baxsh etganligini bildirib shukronalar aytadi. Yuqoridagi matnda Bobur shaxsiyatidagi nozik bir jihat ham o‘z ifodasini topgan. Bobur va uning hamrohlari uchun hayot-mamot masalasi bo‘lgan bu qor kechuvidan ham adib yaxshilik belgisini qidiradi, qalin qor bois ot-ulov cho‘qqilarda qolib ketganini aytadi. Bunda Bobur inson taqdiri hamisha Alloh qo‘lida ekanini, jamiki yaxshilik va yomonlik, ro‘shnolik va qora kunlar bizning dunyoqarashimiz, fe’l-a’molimizga qarab belgilanishini ta’kidlagandek bo‘ladi.

Yana “Boburnoma” matniga murojaat etaylik. Bobur kamsonli bek va askarlari bilan qor qamalida qolganda, Yaratgandan mushkullarini oson qilishini so‘raydi. Aslida qish, qorning ham o‘z gashti bor: go‘zal tog‘ manzarasi, musaffo havo. Biroq, Bobur fikricha, bu go‘zallikni payqash, undan huzur qilish uchun kishida shunga muvofiq kayfiyat, do‘stlarning shodon davrasi lozim. Aks holda, go‘zallikning maftunkor jihatlarini ko‘z ilg‘amaydi. Ushbu ruboiy Bobur tomonidan Hindikush cho‘qqisida yaratilgani mantiqat haqiqatga yaqindir:

Qish bo‘ldiyu bo‘ldi barcha tomu tosh qor,
Jam’iyati bor kishiga bordur xush qor.
Bu qishda yamon yo‘lu parishon holim,
Yo rab, meni yaxshiliq sarig‘a boshqar.

Alloh inoyati ila u va sheriklari eson-omon bu mashaqqatdan qutulib, Kobulga keladilar. Bobur bu haqda yaqinlari, farzandlariga ko‘p hikoya qilgan

bo‘lsa kerakki, qizi Gulbadanbegim ham “Humoyunnoma”da qor kechuvi haqida ma’lumot beradi. Muhim jihati shundaki, Gulbadanbegim, yana bir karra”Boburnoma”dagi dalillarni tasdiqlaydi, ya’ni qor kechuvida askarlar podshoh va Xo‘ja Kalonbekka yo‘l ochmaganlar, balki, aksincha, shoh va vazir o‘z yaqinlari bilan qor kechib oddiy askarlarga yo‘l ko‘rsatgan.

“Boburnoma”da muallif hayotni aslicha tasvirlash uslubi orqali o‘sha davrda sodir bo‘lgan juda ko‘p tarixiy hodisalarni misoli oynada aks etgandek tasvirlab bergan. Bobur Hindistonni egallashga kirishib, kamsonli lashkar bilan yuz ming askarli Ibrohim Lo‘diy armiyasini mag‘lubiyatga uchratdi. Ana shu urush tasvirida u hindlarning temuriylar hukmronligiga qarshi kurash olib borganini san’atkorona yoritgan. Urush lavhalari, qahramonlar ruhiy holatini haqqoniy, jonli tarzda ifodalagani bois asar ta’sirchanligi oshgan. Masalan, Hindistonni dastlab bosib olib, Ibrohim Lo‘diy lashkarining asosiy qismini mag‘lubiyatga uchratgan. Bobur oliyjanoblik ko‘rsatib, Ibrohim va uning rojalariga muayyan hududlarda hukmronlik qilish huquqini qoldiradi. Keyinroq esa Ibrohimning onasiga o‘z saroyiga yaqin joydan manzil beradi. Biroq na Ibrohim va na uning yaqinlari Bobur hukmronligi ostida faoliyat yuritishni ma’qul ko‘radilar. Unga qarshi kuarashni davom ettiradilar. Hatto fitna bilan shoh Bobur taomiga zahar solib, unga ko‘p aziyatlarni ravo ko‘radilar. Sabr kosasi to‘lgan Bobur Ibrohimning oxirgi tayanchlarini yanchib, urushda o‘ldiradi va g‘animlar ustidan g‘olib chiqadi.

“Boburnoma”da Ibrohim Lo‘diy bilan bo‘lgan urush sahnalari ancha batafsil tasvirlangan. Ayniqsa, Chandriydagi jang manzarasi xolis va real tasvirlangani bilan diqqatni tortadi. Bunda Bobur hind qo‘rg‘onini zabt etish tasvirlar ekan, avvalo, o‘z lashkarining mahorati, sadoqati bilan jang qilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hindlarning hech narsadan tap tortmay urishishi, qarshilik ko‘rsatishdagi mislsiz mardlik, o‘z Vataniga sadoqatini juda jonli ifodalaydi. Harb tasvirida dushman qo‘liga asir tushishdan ko‘ra, faqat o‘zini emas, ahli ayolini qurbon qilgan, keyin o‘limga tikka borgan jangchilar xalq timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Fidoyilik, mardlik, yurtga sadoqat shunchalik xolis va jonli ifodalanganki, ularni o‘qib hayajonga tushmay iloj yo‘q.

“Boburnoma” adibning hayot daftari, tarix kitobi. Undagi manbalarda muallifning dard-hasratlariga duch kelavermaymiz. Hind diyorida Bobur shunga o‘xshash necha bor g‘alaba nashidasini surgan bo‘lmasin, baribir, ichki dard, tug‘yon uni o‘z toleyi, baxti Movaronnahrda ekanligini bildirib, tinchlik bermaydi. Taxt topib, baxt, tolega ega bo‘lmagan shoir she’rlarida lo‘nda, aniq, yuksak shoirona dard bilan ana shu ichki tug‘yonlarini bayon etgan. U vijdonli, oriyatli shaxs sifatida bu yurtdagi xalq turmushini muayyan darajada o‘zgartirganidan g‘ururlanish qatori, aziyat ham chekkan, ularni “yuz qarolig‘” deb bilgan, bosgan har qadamidan hisob berib, o‘z faoliyatini xolis baholaganki, bu —Zahiriddin Muhammad Boburning buyukligi, mardligidan dalolatdir.

“Boburnoma”dagi dalillarga asoslansak, hindlar kata-katta shaharlarini jang-u jadalsiz Bobur lashkarlari ixtiyoriga topshirgan hollari ham bo‘lgan. Lekin, baribir, yuqoridagi ko‘rsatilgan voqealar hindlarning boburiylar saltanatiga murosasiz munosabatda bo‘lganidan dalolat beradi.

Zahiriddin Muhammad Boburning muayyan muddatda mayga ruju qo‘ygani turli tashvishlari, g‘am va muammolarni bir damga bo‘lsa-da unutish, o‘tkinchi dunyo lazzatidan, yoshlik sururidan bahramand bo‘lishga intilganidandir. Uning she‘rlarida oddiy insonga xos tuyg‘ular, yor vaslidan quvonish, lazzatlanish ifodasini ko‘ramiz. Shoirning quyidagi satrlarida izhor etgan orzusi “Boburnoma”dagi do‘stlar davrasi haqidagi gapini eslatadi. She’rda lirik qahramon o‘z orzusini sevimli yor bilan baham ko‘rmoqchi:

Bir go‘shai bog‘ o‘lsayu sen bo‘lsangu men,
May quysoq ikkimiz qadah ichra bir hin.
Ondin so‘ngra oyoq ilikka olibon,
Sen tutsangu men ichsam, men tutsamu sen.

Baribir, Boburdagi ichki tug‘yon, hamiyat mayga surunkali berilishiga, rujuq qo‘yishga yo‘l bermaydi. Adib ikki-uch daf’a may ichishni to‘xtatadi, go‘yo tavba qiladi. Ammo taqdirdagi oromsizlik, beqarorlik uni qayta-qayta sharobga yetaklaydi, turmush mushkulotidan forig‘ bo‘lishni u maydan izlaydi, chorasizligini aytadi. Quyidagi satrlar hayotiy, kundalik turmushni shunchalik aniq

aks ettirganki, ular bevosita “Boburnoma”dagi real tasviralar bilan mantiqat uyg‘unlashib ketgan.

“Boburnoma”dagi bunday hayotiy tasvirlarga boy lahza va voqealardan istalgancah misol keltirish mumkin. Ularning har biri, yuqorida keltirilgan parchalardagidek, o‘zining mazmuni, badiiy ifodasi, muallifning muayyan voqea-hodisa, jonli va jonsiz mavjudotnita’riflab berishdagi originalligi, badiiyati va, qolaversa, qomusiy bilimga ega ekanligining isboti bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasan Qudratullayev, (2009). “Bobur Armoni”. “Sharq”.
2. Bobur Xalqaro Fondi:”Zahiriddin Muhammad Bobur” (2008).“Sharq”.
3. Sayfiddin Jalilov. (2006). “Bobur haqida o`ylar”.“Sharq”.

V BOB

NAVOIYSHUNOSLIK VA ARUZSHUNOSLIK MASALALARI

ALISHER NAVOIYNING KICHIK LIRIK JANRLARDAGI BADIIY MAHORATI

Abdujalilova Latofat Husniddin qizi,
ToshDO'TAU OTAT 3-kurs
latofatabdujalilova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning kichik lirik janrlardagi mahorati ochib beriladi. Alisher Navoiy qalamiga mansub qit'a, tuyuq va fardlar tahlil qilinib, ularning ma'no nozikliklari batafsil yoritib beriladi. Lirikaning kichik janrlari haqida nazariy ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'zlar: *qit'a, fard, tuyuq, mufradot,tajnis*.

Abstract. *Shows Alisher Navoi's skill in minor lyrical genres. Alisher Navoi's poems, verses and characters are analyzed and their subtleties of meaning are explained in detail. Theoretical information about sub-genres of lyrics is given.*

Keywords: *kit'a, fard, tuyuk, mufradot,tajnis.*

Lirikaning o'n oltita janrida barakali ijod qilgan ulug' mutafakkir, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy yirik janrlar bilan bir qatorda lirikaning kichik janrlarida ham o'zining badiiy mahoratini yaqqol namoyon qila oldi. Jumladan, ijodkorning qit'a janridagi merosini sarhisob qiladigan bo'lsak, bu janrning Navoiy ijodida g'azaldan keyingi ikkinchi o'rinda turishiga guvoh bo'lamiz. A.Abdug'afurov "Shoir qit'alari" nomli maqolasida Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining birinchi devoni "G'aroyib us-sig'ar", ikkinchi devoni "Navodir ush-shabob" va to'rtinchi devoni "Favoyid ul-kibar" ning har biriga 50 tadan, "Badoye ul-vasat" da esa 60 ta qit'a joylashtirilganligini ta'kidlaydi. (Abdug'afurov, 1968.) Bundan tashqari, Alisher Navoiy fors tilidagi "Devoni Foniy" va "Mahbub ul-qulub" asarlariga ham qit'a janridagi bir qancha asarlarini kiritgan.

Dastlab qit'a aslida qanday janr degan savolga javob topamiz. "O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at" nomli kitobda qit'aga shunday ta'rif beriladi: Qit'a: a. Parcha; she'rda g'azal yoki qasidadan ajratib olingan ikki-uch yoki undan ortiq bayt. (O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha

lug‘at, 426-bet.) Ushbu ta’rif qit’aning biron lirik she’rning tarkibiy qismi degan xulosaga kelishimizga sabab bo‘ladi. Ammo, ba’zi olimlar qit’a g‘azal va qasidadan ham ancha avvalroq yaratilgan deb hisoblashadi (Orzibekov, 1976, 5-bet). Qit’a bir muncha erkin janr. Unda aniq hajm yoki muayyan bir vazn bo‘lmaydi, hajman bir baytdan kam bo‘lmasligi kerak. Alisher Navoiy esa asosan 2-3 baytli qit’alar yozgan va uning ijodida 7, 9, 11 baytli qit’alarni ham uchratishimiz mumkin. Aynan qit’adan ijodkorlar ma’lum bir voqea-hodisaga o‘zlarining fikrini tez va favqulodda bildirishi uchun foydalangan. Alisher Navoiy qit’alarining katta bir qismi ijtimoiy mazmunga egadir. Ma’lumki, buyuk mutaffakkir gumanizmida odil shoh obrazi 1-o‘rinda turadi. Butun dunyoda adolat o‘rnatilishini orzu qilib yashagan ushbu ijodkor aynan shohlarning adolatli bo‘lishi kerakligini o‘z qit’alarida ham ta’kidlaydi:

Quyoshdek shoh adolat pesha qilsa,
Jahon mulkin bir damda yoritqay.
Agar zulm etsa oqshom zulmatidek
Ham ul dam tiyralik olamni tutqay. (Alisher Navoiy, 1960. 701-bet)

Pesha so‘zining 2 ta lug‘aviy ma’nosi mavjud: 1. Ish, amal. 2. Hunar, odat, san’at. Aynan bu yerda odat qilmoq mazmunida kelyapti.

Tiyra so‘zining qora, qorong‘u, g‘am-g‘ussali, qayg‘uli, xira, nursiz singari ma’nolari mavjud bo‘lib aynan bu yerda qayg‘u, g ‘am-g‘ussa ma’nolarida kelyapti.

Mazmuni: Agar shoh xuddi quyosh singari adolatni o‘ziga odat qilsa, u butun olamni bir zumda yoritadi. Agar xuddi tun zulmatidek zulm qiladigan bo‘lsa, o‘sha on butun olamni g‘am-qayg‘u tutadi.

Shuningdek, Alisher Navoiy ba’zi shohlarning jabr-zulmidan azob chekadi. Saroyda ishlab yurgan kezlarida, hattoki, o‘zining peshonasiga shunday tole yozilganidan afsuslanib quyidagi qit’ani bitadi:

Ne tole’ durki, har kimni desam yor,
Menga ul oqibat bo‘lur badandesh.
Birovdur, gar ani desam “Ko‘zumsen”

Chekar mujgon kibi qasdimga yuz nesh. (O‘sha manba, 702-bet.)

Tole: baxt, iqbol

Badandesh: niyati buzuq, buzuq niyatli, dushman, xasis.

Mujgon: kipriklar.

Nesh: tikon, o‘tkir narsaning uchi, azob yoki zaharli hayvonlarning chaqish a’zosi.

Mazmuni: Bu qanday baxtki, men biron bir kimsani o‘zimga do‘st deb bilsam, o‘sha odam oqibatda menga dushman bo‘ladi. Tole’durki deganda ijodkor peshonasining qanchalar sho‘rligidan noligan. Birovni o‘ziga nihoyatda yaqin olib ko‘zimsan desam, xuddi mana shu ko‘zlardagi kipriklar singari qasd olmoq uchun yuz bora tikan sanchadi. Ijodkor dushmandan emas, balki o‘ziga yaqin olgan kishilarining, do‘stlarining orqadan sanchgan tig‘laridan ozor chekkanligi ushbu qit’ada aks ettirilgan. Bizning fikrimizcha, ushbu qit’a Alisher Navoiy aynan Sulton Husayn Boyqaro saroyida muhrdor lavozimida ishlab yurgan kezlarida yozilgan bo‘lishi mumkin. Chunki o‘sha paytlar saroyda Alisher Navoiyga qarshi fisq-u fasod avj olgan va Alisher Navoiy iste’foga chiqishga majbur bo‘lgan edi.

Alisher Navoiy qit’alarining yana bir asosiy xususiyati shundaki, u ataylab aniq shaxslarga atab yozilgandir. Shoir qaysi muayyan shaxs obraziga murojaat qilar ekan, unga haqqoniy, to‘g‘ri baho berishga harakat qiladi. Masalan, mashhur xattot Sultonali Mashhadiyga bag‘ishlab yozilgan qit’asini olib ko‘raylik:

Qiblatul-kuttobkim, derlar ani Sulton Ali,

Kim qazo kilki masalliq, xomasi yozmas g‘alat.

Qaysi qit’amniki yozdi, bordi andin she’rlik,

El solurlar juzvdong‘a kim erur bir qit’a xat.(Orzibekov, 1976, 23-bet)

Nastaliq xatining rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan buyuk xattotga “Qiblat ul-kuttob” yuksak unvoni beriladi. Alisher Navoiy S. Mashhadiyning ayanan shu unvon sohibi ekanligini qit’aning 1-misrasidayoq ta’kidlaydi. Ushbu qit’ada Sultonali Mashhadiy o‘z kasbining haqiqiy ustasi ekanligi ta’kidlanmoqda.

Alisher Navoiy qit’alarining mazmuni yanada aniqroq bo‘lishi uchun ularga sarlavha ham qo‘yish lozim deb hisobladi. Qit’alarning aksariyati o‘z sarlavhasiga egaki, bu orqali o‘quvchi qit’aning mazmunini oldindan biroz bo‘lsada tushunib

ololadi. Alisher Navoiy qit'alari o'zining yuksak ma'nodorligi, falsafiyligi bilangina emas, badiiy tomondan g'oyat go'zal va mukammalligi bilan ham ajralib turadi.

Alisher Navoiy yirik bo'lmagan janrlardan yana biri fard janrida ham barakali ijod qildi. Jumladan, o'zi yozgan fardlarini "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining so'nggi devoni bo'lgan "Favoyid ul-kibar" tarkibiga kiritdi. Bu devon tarkibida jami 86 ta fard jamlangan bo'lib, aynan fardlar so'nggi devon tarkibiga nega kiritilganligini yirik navoiyshunos olim Nusratullo Jumaxo'ja navoiyshunoslik darslarining birida qilgan ma'ruzasida alohida ta'kidlab o'tadi. Ularning fikricha, fard janri ijodkorning falsafiy mushohadalari natijasida yaratiladi. Falsafiy mushohada va fikrlar esa har bir insonning yoshi o'tgandan so'ng paydo bo'ladi. Inson yoshlik chog'ida ham falsafiy mushohada yurita oladi.Lekin u hali hayotiy falsafa, xulosa darajasida pishib, yetilmagan bo'ladi Shuning uchun ham Alisher Navoiy fardlarni umrining oxirlarida yozgan va ularni "Favoyid ul-kibar" devoni tarkibiga jamlagan.

Fard arabcha so'z bo'lib, yakka, yolg'iz demakdir. Adabiyotshunoslik istilohida esa ikki misralik mustaqil she'rga fard deyiladi. U mufradot istilohi bilan ham ataladi. Fardlar hajman ikki misra, ya'ni bir baytdan oshmasligi kerak. Shu ikki misrada butun bir tugal fikr ifodalanadiki, u shu holicha butun bir lirik asar hisoblanadi. Fardlarning har ikki misrasi ham a-a tarizda qofiyalanishi kerak. Aks holda, uni g'azalning matladan keyingi baytlari yoki qit'a bilan adashtirib yuborish holatlari kuzatiladi. Ammo Alisher Navoiy 5 ta fardni aynan b-a tarzida qofiyalab yozgan. Masalan:

Ikki ko'zingu labing g'amidin,

Men xasta o'lib-o'lib tirildim.(www.ziyouz.com. Kutubxonasi.)

Har birimizga ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda yorning ko'zlari jon oluvchi, qotil deb tasvirlanadi. Siz buni boshqa ijodkorlarning ijodida ham kuzatishingiz mumkin. Yorning chiroyli lablaridan chiqadigan so'zlar esa oshiqning dardiga davodir. Alisher Navoiy ham yorning ikki ko'zi dastidan o'lib-

o‘lib, lablaridan chiqqan so‘zlarini eshitgach qayta tirilganini ushbu ikki misrada ta’kidlayapti.

O‘zbek adabiyotida fardiyotning ko‘p va xo‘b namunalarini yaratgan shoir Alisher Navoiy fardning o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini yanada mustahkamladi; fardiyotni ham mavzu, ham g‘oyaviy-badiiy, ham shakliy jihatdan rivojlantirdi. Alisher Navoiy fardiyotni “zoyid ul-had va benazir” shakl sifatida ta’riflaydi. Uning imkoniyatlariga katta baho beradi. (Orzibekov, 1976, 126-bet.) Alisher Navoiy qalamiga mansub 86 ta fardning har jihatdan yetukligi A.Abdug‘afurovning fikrlari qanchalik to‘g‘ri ekanligini isbotlaydi:

Ul parikim, ani demishman yor,

Odamiylig‘din o‘zga barchasi bor.(www.ziyouz.com. Kutubxonasi.).

Alisher Navoiy ushbu misralarda suyukli yorini shunchalar hajviy ta’riflayaptiki, u oshiq bo‘lgan yorida odamiylikdan boshqa barcha xislatlar bor. Ya’ni yor har tomonlama to‘kis va mukammalki, unga faqat odamiylik–vafo yetishmaydi.

Kishi aybing desa, dam urmag‘il, ul erur ko‘zgu,

*Chu ko‘zgu tiyra bo‘ldi, o‘zga aybing zohir aylarmu.(www.ziyouz.com. Kutubxonas*i.)

Mazmuni: Agar biron kishi senga aybingni aytsa, unga qarshi biron fikr aytmagin, axir u ko‘zgudir. Sizga ma’lumki, sizning aksingizni ko‘rsatib turgan ko‘zgu qarshisida biron bir so‘z aytsangiz sizning nafasingiz ta’sirida shu ko‘zgu xiralashadi va siz aksingizni ortiq ko‘rolmaysiz. Alisher Navoiy ham aynan shuni tushuntirmoqchi bo‘lyapti. Sening aybingni aytgan kishiga qarshi biron fikr aytib qo‘ysang, u senga qayta aybingni aytmaydi. Xuddiki, xiralashgan ko‘zgu ortiq senga o‘z aksingni ko‘rsatmagani kabi.

Aqlu hushum qolmadi, ko‘rgach ul oyni bodano‘sh,

Iztirobimdin hamonokim, to‘kuldi aqlu hush.(www.ziyouz.com. Kutubxonasi.)

Bodano‘sh: may, sharob ichuvchi. Bilasizki, may ichgan har qanday kishi o‘z aqlu hushini yo‘qotadi. Alisher Navoiy aynan sharob ichuvchi kishini, yorini ko‘rib, iztirob chekib, aqlu hushini yo‘qotgan oshiqqa qiyoslaydi.

Bordingu kelgum deding, ey sho‘xi ra’no, kelmading,

Angladingkim, kelmasang- o‘lgumdur, ammo kelmading. (www.ziyouz.com. *Kutubxonasi.)*

Bu yerda bormoq so‘zini Alisher Navoiy ketmoq mazmunida qo‘llayapti. Ketding-u, albatta kelaman deding, lekin ey go‘zal dilbarim, sen kelmading. Kelmasang o‘lishimni bilarding, ammo baribir kelmading.

Kishikim yorini har kun ko‘rarga o‘rganur ermish,

Chu bir kun ko‘rmas ermish, benihoyat emganur ermish.(www.ziyouz.com. *Kutubxonasi.)*

Emganur: qiynalmoq, azob chekmoq. Oshiqning dunyoda faqat bitta armoni bo‘ladi. U ham bo‘lsa ma’shuqasining visoliga yetish. Agar visoliga yetmasa ham, uni ko‘rib turish oshiq uchun kifoya. Aynan mana shuni shoir ushbu fardida chiroyli satrlar ila aks ettiryapti. Ma’shuqasiga oshiq-u beqaror bo‘lgan har qanday kishi yorini ko‘rishga o‘rganib qolar ekan. Agar bir kun ko‘rmasa, nihoyatda qiynalar ekan.

Alisher Navoiy qit’a va fard singari, tuyuqning ham go‘zal namunalarini yaratib, bizga meros qilib qoldirdi. Lirikaning bu kichik janlaridan biri asosan turkiy xalqlar adabiyotiga xos bo‘lib, tuyuqning ilk namunalarini biz Burhoniddin Ahmad Sivasiy ijodida kuzatishimiz mumkin (Orzibekov, 1976-bet. 91bet.) Tuyuq yozma adabiyotda mustaqil janr sifatida shakllangan. Bu janrga bunday tuyuq deb nom berilishi ham Alisher Navoiy fikrlariga tayanilib, tuyuq mafhumi xalq tomonidan qo‘shiqlarning to‘rtlik turiga berilgan bir nom sifatida paydo bo‘lganligini va yozma adabiyotda ham u o‘z nomini saqlab qolganligini taxmin qilish mumkin (O‘sha manba. 92-bet.) Tuyuq asosan 4 misralik she’riy janr, a-a-b-a yoki ba’zi hollarda a-a-a-a tarzida qofiyalanishi mumkin. Ramali musaddasi mahzuf yoki maqsur vaznida bitiladi. Qofiyalanishi va so‘nggi misrada muallifning taxallusi keltirilmasligi bilan bir muncha ruboiyga yaqin turadi. Ammo ruboiy hazaj bahrining axrab va axram shajaralaridagi 24 vaznda bitiladi. Tuyuq ruboiyga qaraganda ancha imkoniyati cheklangan lirik janr. Uning asosiy xususiyatlaridan yana biri shuki, tajnis she’riy san’ ati ushbu lirik janr uchun muhim ahamiyatga ega. Ozarbayjon adabiyotida tuyuq lirik janrini tajnis deb atash holatlari ham kuzatilgan. Ozarbayjon olimi F.Qosimzodaning yozishicha, adabiyotda tajnis

yaratishga, she'rlarda tajnis san'atini qo'llashga moyillikning kuchayishi poeziyada formalizmning muayyan bir tazahhuridir (O'sha manba, 93-bet.) Turkiy adabiyotda Navoiygacha bo'lgan davrda tuyuqning eng go'zal namunalari Mavlono Lutfiyning ijodida uchraydi. Lutfiyning devonida 16 ta tuyuq qayd etilgan. Alisher Navoiy esa jami 13 ta tuyuq yozgan bo'lib, ularning faqat ikkitasi qit'a tuyuqqa xos bo'lsa, qolganlari tuyuqning qoidalariga to'la rioya qilib yozilgan. Alisher Navoiy tuyuqlarini jamlab uni "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining "Badoye ul-vasat" devoni tarkibiga kiritgan. Bu tuyuqlar o'zining go'zal formasi, original tajnislari, jozibadorligi va chuqur mazmunga egaligi bilan diqqatga sazovordir.

La'lidin jonimg'a o'tlar yoqilur,

Qoshi qaddimni jafodin "yo" qilur.

Men vafosi va'dasidin shodmen,

Ul vafo, bilmonki, qilmas yo qilur.(www.ziyozuz.com. Kutubxonasi.)

Ushbu tuyuqda tajnisga olingan so'zlariga diqqat qilamiz:

1-misra: Yoqilur– "yoqmoq", bu fe'l so 'z turkumi, "il"– o'zlik nisbati, "ur"– kelasi zamon qo'shimchasining eskirgan shakli.

2-misra: "Yo" qilur– arab alifbosidagi harf. Bu yerda shu harfning shakli nazarda tutilmoqda. Ya'ni egik ma'nosi anglashilyapti.

4-misra: Yo qilur– bu yordamchi so'z turkumi+ qilmoq fe'li.

La'l– lab. Mumtoz adabiyotda ma'shuqaning kichik va qip-qizil lablari go'zallik timsoli.

Mazmuni: Labingni ko 'rib mening jonimga o't (olov) yoqiladi, chunki labing cho'g'dek qizil va totli. Qoshingni menga qilgan jafosidan qaddim yoydek egiladi.

Men yorimning vafoga va'dasidansidan shodman,

Ammo yorim vafo qiladi yoki qilmaydi, buni bilmayman.

Yana tuyuqda yashirin ma'nolar ham bor. Masalan, 1-misrada labning qizilligi olovning qizil rangda ekanligiga monand tarzda olingan. 2-misradagi qoshning qayrilma ekanligi oshiq qaddining egilganligiga monand tarzda olingan. Sizga ma'lumki, qosh egik shaklda. Ushbu tuyuqda yorning jabr-jafosi va

oshig‘iga vafo qilish yoki qilmasligi tasvirlangan bo‘lsa, keyingi tuyuqda oshiq ma’shuqasining bevafoligidan zorlanyapti:

Yog‘di javrung o‘qi hajring toshidek,

Qildi qon ko‘nglum ichin ham toshidek.

Sochqali mohim ayog‘ig‘a sipehr,

Ko‘z yoshimning la’lu durrin toshidek.(www.ziyozuz.com. Kutubxonasi.)

1-misra: Tosh– kimyoviy qattiq jism.

2-misra: Toshi– tashqari tomon nazarda tutilyapti. Ichi so‘zining antonimi.

4-misra: Tosh– qimmatbaho dur yoki la’l nazarda tutilmoqda.

Javrung– jabr + “ung” (2-shaxs egalik qo ‘shimchasining eskirgan shakli).

Sipehr– osmon.

La’l– lab.

Mazmuni: Sening jabringning o‘qi xuddi hajrning toshi singari yog‘ildi, bu esa mening ko‘nglimni ichi va tashini qon qildi. Yuqoridagi ikki misrada keltirilgan fikr quyidagi ikki misrada yanada asoslanyapti: Mening ko‘zimning yoshlari la’lu dur singari oyimning oyoqlari ostiga sochilganday yorimning jabri ham mening ustimga toshdek yog‘ilmoqda. Bu misralarda esa ma’shuqaning oshiqqa zulm qilishi odatiy hol. Oshiqning ko‘z yoshlariga ham parvo qilmasdan uni ayriliqqa giriftor qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy lirikaning kichik janrlarida ijod qilar ekan, har bir janrning talablaridan kelib chiqib yondashadi. Biron bir holatda biz bu talablardan chetga chiqilganini kuzatmaymiz. Shuningdek, ijodkor faqatgina shakl bilan cheklanib qolmaydi. Mazmuniga ham alohida e’tibor beradi. Shoir ichki kechinmalarini, qalbidagi dard-u armonlarini o‘z she’rlarida aks ettirishga urinadi. Kichik lirik janrlar orqali esa o‘z fikrini qisqa va aniqroq berishga intiladi. Shu bilan birga, har bir ijodi ostida albatta tagma’no yashiringan bo‘ladi. Yozgan qit’alarida muayyan shaxsni tasvirlashga harakat qiladiki, bu bizga Alisher Navoiy qanday zamonda yashagani yoki qanday insonlar bilan zamondosh bo‘lganini bilib olishimizga yordam beradi. Tuyuqlarining aksariyati ishqiy mavzuda bitilgan bo‘lib, bu she’riy janr orqali ajoyib so‘z o‘yinini yarata oladi. Fardlariga kelsak,

hayotning achchiq-chuchugini ta' tib ko'rgan ijodkor endi juda ham qisqa jumlalarda o'z fikrini berishga intiladi. Shu kichik misralarda fikrining ibtidosini ham, intihosini ham, hattoki, botiniy va zohiriy ma'nolarni ham o'quvchiga berishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdug'afurov, A. (1968). Shoir qit'alari. –Toshkent. O'zbekiston adabiyoti.
2. Alisher Navoiy. (1960). Badoyi ul-vasat. O'z.FA. nashriyoti.
3. O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at. (1953). Toshkent.
4. Orzibekov R. (1976). Lirikada kichik janrlar. Toshkent. "G'afur G'ulom" nashriyoti.
5. www.ziyouz.com. Kutubxonasi.

ANVAR HOJIAHMEDOVNING "ARUZ NAZARIYASI ASOSLARI" ASARI TAHLILI

Abdurahmonova Mubinabonu Muxsinjon qizi,
ToshDO'TAU O'FF, 2kurs
mubinabonuabdurahmonova7@gmail.com
Ilmiy rahbar: fil. fan. dok, prof, Dilnavoz Yusupova

Annotatsiya. *Maqolada Anvar Hojiahmedovning "Aruz nazariyasi asoslari" asari tahlilga tortildi. Asardagi aruz ilmiga oid ma'lumotlar keng o'rganildi. Tahlil davomida taklif va talqinlar ilgari suriladi. Turkiy adabiyotdagi bahrlar va ruknlar atroflicha o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Sabab, vatad, fosila, rukn, bahr, hazaj, ramal, razaj, mutaqorib, tarmoq, rukn.*

Abstract. *In the article, Anvar Kozhiahmedov's work "Fundamentals of Aruz Theory" was analyzed. The information about the science of aruz in the work has been widely studied. During the analysis, proposals and interpretations are put forward, and the verses and columns of Turkish literature are studied in detail.*

Keywords: *Sabab, watad, fossil, rukn, bahr, hazaj, ramal, razaj, mutaqarib, tarmoq, rukn.*

Soʻnggi yillarda yoshlarimiz orasida mumtoz poetikani oʻrganishga boʻlgan qiziqishning ortishi zamonaviy kitobxonning mumtoz adabiyotimizni anglashga boʻlgan ehtiyoji mahsuli deb qaralishi mumkin.Bu ehtiyojning muayyan maʼnoda qondirilishida ustoz olim, filologiya fanlari doktori, professor Anvar Hojiahmedovning hissasi katta boʻlgan desak mubologʻa qilmagan boʻlamiz. Ustoz A. Hojiahmedov oʻtgan asr soʻnggidan boshlab mumtoz poetika, xususan,aruz ilmi, badiiy sanʼatlar, qofiya ilmi, mumtoz sheʼr navlari borasida qator risolalar eʼlon qilib, unutilib borayotgan, oʻrganilishi, va oʻzlashtirilishi mumkin emasdek tasavvur uygʻotgan ilmlar: aruz va qofiya ilmiga yangidan jon bagʻishladi... (Yusupova, 2020, 3-4-bet)

Aruz oʻzining ritmik jihatlari bilan boshqa vaznlardan ajralib turuvchi sheʼriy vazn hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati misralarda choʻziq va qisqa boʻgʻinlarning muayyan tarzda takrorlanishi sanaladi. Bu oʻz navbatida sheʼriy asarlardagi mayin va jozibador musiqiy ohangni taʼminlaydi.

Anvar Hojiahmedovning “Aruz nazariyasi asoslari” asari aruz nazariyasiga doir masalalarni atroflicha qamrab olgan. U mazkur oʻlchov sistemasining turkiy adabiyotda qoʻllanilishiga doir dastlabki maʼlumot olish, bahr hamda vaznlarni aniqlash, ular asosida yozilgan sheʼriy asarlarni ifodali oʻqishga imkon yaratadi. Aruz haqidagi bu risola aruz muammolariga bagʻishlangan boshqa adabiyotshunoslik asarlari, jumladan, Alisher Navoiyning “Meʼzon ul-avzon” Boburning “Muxtasar” Atoulloh Husayniyning “Badoye us-sanoye” kabi asarlarni oʻrganishga debocha boʻlib xizmat qiladi.

Olim oʻz asarida aruz nazariyasiga doir ilk maʼlumotlarni, qisqa, choʻziq, oʻta choʻziq boʻgʻinlar, vatad, sabab, fosila atamalari tushunchasi, rukn va bahrlarning tuzilishi, turlari, zihoflar, ruboiy vaznlari va bir nechta rukn tarmoqlar haqida maʼlumotlar keltirib oʻtadi.

Navoiy oʻzining “Meʼzon ul-avzon” asarida turkiy tilda 19 bahr, 160 vazn mavjudligi haqida Anvar Hojiahmedovning bu asarida esa 11 bahrni tashkil

etuvchi 90dan ortiq vaznni borligi haqida maʼlumotlar keltiriladi. (Yusupova, 2020, 9-bet)

Asarda dastlab aruz ilmining boshqa vaznlardan, xususan, barmoq vaznidan farqlarini misollar bilan tushuntirib oʻtilgan, qisqa, choʻziq, va oʻta choʻziq boʻgʻinlarni taʼriflab ularga misollar keltirilgan.

Aruz ilmida boʻgʻinlarning qisqa yoki choʻziqligini aniqlash gʻoyat muhim jarayon sanaladi. Oʻqishga diqqat qilinmasa, misralardagi ohang chiqmaydi.Qisqa va choʻziq boʻgʻinlarning birikuvidan sabab, vatad, fosila deb atalgan terminlar tashkil etishini taʼkidlaydi.

Sabab-bir choʻziq yoxud ikkiqisqa boʻgʻin demakdir. Bir choʻziq boʻgʻindan iborat boʻlgan sabab yengil sabab (sababi xafif) ikki qisqa boʻgʻindan tuzilgan sabab ogʻir sabab (sababi saqiyl) deb ataladi.

Vatad-bir choʻziq boʻgʻin bilan qisqa boʻgʻinning birikuvidan hosil boʻladi. Bunday birikmada qisqa boʻgʻin choʻziq boʻgʻinning oldida yoki orqasida kelishi mumkin. Shunga kʼra vatadlar 2 xil boʻladi:

1. Vatadi majmu’, ya’ni qo‘shilgan vatad Misol:V-
2. Vatadi mafruq ya’ni alratilgan vatad Misol: -V

Fosila ikki yoki uch qisqa boʻgʻinning oʻzidan keyin keluvchi bir choʻziq boʻgʻin. Fosila 2 ga boʻlinadi:

Kichik fosila ikki qisqa boʻgʻin bilan choʻziq boʻgʻin birikishi Misol: VV-Katta fosila uch qisqa boʻgʻindan soʻng choʻziq boʻgʻin kelib birikma hosil boʻlishi Misol:VVV-Katta fosila oʻzbek sheʼriyatida deyarli qoʻllanmagan.

Olim oʻz asarida 8 ta rukn haqida maʼlumot keltiradi.

1.faulun V--

2.foilun -V-

3.mafoiylun V---

4.foilotun -V--

5.mustaf’ilun --V-

6.maf’ulotu ---V

7.mutafoilun VV-V-

8.mafoilatun V-VV-

Vatadi majmu’ birikmasidan ,,faulun” va ,,foilun” ikki sabab bilan bir vatadning birikuvidan “mafoiylun”, “foilotun”, “mustaf’ilun” va “maf’ulotu“, „vatadi majmu’“ so‘ng ikki sabab kelsa, “mafoiylun” rukni, „vatadi majmui’“ ikki sabab o‘rtasida kelsa, “foilotun” rukn, vatadi majmu’ ikki sababdan so‘ng kelsa, “mustaf’ilun” rukni hamda ikki sababdan so‘ng vatadi mafruq kelsa, “maf’ulotu” rukni hosil bo‘lishi haqida ma’lumotlar keltiradi.

Yana asarda bahrlar, ularning tuzilishi, sakkiz running turli tartibda birikib takrorlanishidan hosil bo‘lgan bahrlarning bir running aynan takroridan tuzilgan bahrlar, ikki xil rukndan tuzilgan bahrlar ikkita bir xil va bitta boshqa xil ruknlarning takrorlanishidan tuzilgan bahrlar haqida yozadi.

Bir ruknning aynan takrorlanishidan tuzilgan bahrlar 7 ta ya’ni faulun rukni takroridan mutaqorib bahri foilun rukni takroridan mutadorik bahri mafoiylun rukni takroridan hajaz, foilotun rukni takroridan ramal, mustaf’ilun rukni takroridan rajaz mutafilun rukni takroridan komil, mafoilatun rukni takroridan vofir bahri hosil bo‘lishini misollar bilan tushuntirib o‘tadi.

Zamona kulfatidin bu ko‘ngul dog‘ o‘ldi,dog‘ o‘ldi,

Bu charxi bemuruvvatdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi

(Uvaysiy)

Mazkur baytning ruknlari va sxemasini quyidagicha tushuntiradi:

Za-mo-na kul fa-ti-din bu ko‘-ngul do-g‘o‘l di do-g‘o‘l-di

V - - - V - - - V - - - V - - -

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Bu char-xi be mu-ruv-vat-din ko‘-ngul do-g‘o‘l di do-g‘o‘l-di.

V - - - V - - - V - - - V - - -

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Bu baytda mafoiylun rukni sakkiz marta takrorlanyapti. Demak, bu she’r hazaji musammani solim vaznida yozilgan ekan.

Ikki xil rukndan tuzilgan bahrlar sakkiztasi ya’ni, muzori, xafif, mujtass, munsarih, muqtazab, madid, basit bahrlarini keltirib o‘tadi.

Mafoiylun +foilotun=Muzori’

Foilotun +mustaf’ilun=Xafif

Mustaf’ilun+foilotun=Mujtass

Mustaf’ilun+maf’ulotu=Munsarix

Maf’ulotu +mustaf’ilun=Muqtazab

Faulun+mafoiylun=Tavil

Foilotun +foilun=Madid

Mustaf’ilun+foilun=Basit

Ikkita bir xil bitta boshqa xil ruknning takrorlanishidan qarib, mushokil, g‘arib,sa’ri bahrlari haqida ma’lumotlar keltiradi.Hazaj, ramal, muzore’, rajaz, xafif, mujtass, munsarih, sari’ bahrlaridan hosil bo‘lgan vaznlarmi misollar bilan keltirib o‘tadi. Masalan:

Mafoiylun+mafoiylun+foilotun=Qarib

Foilotun +mafoiylun+mafoiylun=Mushokil

Foilotun +foilotun+mustafʼilun=gʻarib

Mustafʼilun +mustafʼilun+mafʼulotu=sariʼ

Aruz ilmi doirasida qoʻllanilgan yuqorida keltirib oʻtilgan 19 bahrni tushuntirib oʻtadi. Ulardan hazaj, rajaz, ramal, mutaqorib, muzoriʼ, xafif, mujtass, sariʼbahrlari oʻzbek sheʼriyatida keng qoʻllaniladi. Mutadorik komil, munsarix, bahrlarida yaratilgan sheʼriy asarlar uncha koʻp emas. Ulardan sakkiztasi, xususan, vofir, muqtazab, tavil, madid, basit, qarib, mushokil,gʻarib bahrlaridan sheʼriyatimizda qoʻllanilmaydi. Aruz vaznining murakkabliklaridan biri shundaki, biz yuqorida koʻrib oʻtgan sakkiz asosiy rukn sheʼr misralarida, bahrlarda koʻpincha turli oʻzgarishlar bilan qoʻllanadi. Bu oʻzgarishlar aruz ilmida zihof deyiladi. Olim sakkiz rukn hammasi boʻlib 45 xilgacha oʻzgarishga uchrashini aytadi va bu oʻzgarishlarni uch guruhga boʻladi:

1. Ruknlar tarkibidagi boʻgʻinlarning son jihatidan oʻzgarishi, yaʼni boʻgʻinlarning tushirilishi va orttirilishi
2. Ruknlar tarkibidagi boʻgʻinlarning sifat jihatidan oʻzgarishi, choʻziq boʻgʻinlarning qisqa yoki oʻta choʻziq, shuningdek, qisqa boʻgʻinlarning choʻziq boʻgʻinlarga aylantirilishi
3. Yuqoridagi ikki xil oʻzgarishning bir vaqtda qoʻllanilishi, yaʼni ruknlar tarkibidagi boʻgʻinlarningbir vaqtda ham son, ham sifat jihatidan oʻzgartirilishi.

Aruz vaznining asosi boʻlgan ruknning turli xil oʻzgarishlarga duch kelishi natijasida ularning oʻzgargan koʻrinishlari, furuʼlari, yaʼni tarmoq ruknlar hosil boʻladi. Bunday tarmoq ruknlar soni har bir asosiy ruknda har xil miqdorga va har xil koʻrinishga ega.

Mafoiylun ruknining 12 xil tarmoq ruknini aytib oʻtadi:

1. Musabbagʻ
2. Maqbuz

3. Makfuf
4. Maqsur
5. Axram
6. Axrab
7. Mahzuf
8. Ashtar
9. Ajabb
10. Axtam
11. Abtar
12. Azall

Mafoiylun ruknining tarmoqlari shu running takrori asosiga qurilgan hazaj bahri vaznlarida, shuningdek, mafoiylun rukni ishtirokida tuziladigan muzore’ bahrlarining vaznlarida qo‘llaniladi.

Foilotun rukni 10 xil o‘zgarishga uchraydi va buning natijasida 15 tarmoq rukn yuzaga keladi.

1.Foiliyon

2.Failotun

3.Failotu

4.Failiyyon

5.Foilotu

6.Foilun

7.Failun

8.Failon

9.Fa’lun

10.Fa’lon

Foilotun ruknining solim va tarmoq koʻrinishlari ramal,muzoreʼ,xafif va mujtass bahrlarida faol qoʻllanadi. Shuningdek mustafʼilun, mafʼulotu, faulun, foilun ruknidagi tarmoqlar ruknlarni ham keltirib oʻtadi.

Koʻzdan kechirilgan ruknlar, ulardan yuzaga kelgan furuʼlarning har biri misralarda oʻzining muayyan oʻrniga ega. Ayrimlari istagan rukn oʻrnida kela olsa, boshqalari biror rukn oʻrnida kela olsa,boshqalari biror rukn oʻrnida, masalan, ikkinchi yoxud oxirgi ruknlar oʻrnidagina kelishi mumkin. Bularni puxta oʻrganishga asar debocha boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiahmedov, A. (2020). “Aruz nazariyasi asoslari”. Toshkent. “Akademnashr” nashriyoti.
2. Hojiahmedov, A. (1999). “Mumtoz badiiyat malohati”. “SHARQ” nashriyoti.
3. Yusupova, D. (2018). “Aruz va mumtoz poetika asoslari”. Toshkent. “Akademnashr” nashriyoti.

ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA SARIQ RANGNING MA’NO TALQINLARI

Alimardonova Muxsinabonu Baxrom qizi,
ToshDOʻTAU Adabiyotshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti
alimardonovamuhsinabonu48@mail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiy lirikasida ranglarning, xususan, sariq rangning poetik vazifalari tahlilga tortilgan. Sariq rangning shoir ijodida qanday ma’nolarni ifodalashi “Gʻaroyib us-sigʻar” devonidagi gʻazallar misolida koʻrib chiqilgan.*

Kalit soʻzlar: *peyzaj lirikasi, sariq rang, lirik qahramon, badiiy-estetik funksiya.*

Abstract. *This article analyzes the poetic functions of colors, especially yellow, in Alisher Navoiʼs lyrics. The meaning of the yellow color in the work of*

the poet was considered on the example of the ghazals in the book "Gharayib us-sigar".

Keywords: *landscape lyrics, yellow color, lyrical hero, artistic-aeshetic function.*

Sharq mumtoz she'riyati mazmun-mundarijasining keng qamrovliligi, poetik tasvir yo'lining o'ziga xosligi, obrazlari olamining nihoyatda boy ekanligi bilan yuksak e'tiborga sazovor. Bu she'riyatda ramziy-majoziy tasvir ustuvor bo'lib, tahlil va talqinlar so'z, timsol, raqam va ohang bilan bir qatorda ranglar simvolikasi ham mazkur ustuvorlik va o'ziga xoslikni ta'minlovchi omil ekanligini ko'rsatadi.

Ranglar deyarli har bir sohada o'ziga xos tarzda o'rganiladigan juda keng qamrovli ilm bo'lib, har bir soha mutaxassisi uning tabiatidan kelib chiqqan holda individual tarzda o'rganadi. Psixologiyada ranglarga, asosan, inson ruhiyati haqida yaqqol ma'lumot beruvchi vosita sifatida qaraladi. Xalq amaliy san'ati, me'morchilik, naqqoshlik singari sohalarda ishlatiladigan har bir rangning ham o'ziga xos funksiyasi bor. Har bir rangda ma'lum ma'noda o'ziga xos ramziylik yashiringan bo'ladi. Xuddi shu kabi badiiy adabiyot, xususan, mumtoz she'riyatimizda ham rangning o'ziga xos juda yuksak o'rni bor. Har qanday shoir ijodida ranglardan foydalanar ekan, ular vositasida botinida kechayotgan tuyg'ularni o'quvchi ongiga yaqqolroq ifodalab berishga harakat qiladi. Shu sababdan ham adabiyotda rangning badiiy funksiyasi juda keng qamrovli desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xususan, sariq rangga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ruhshunoslik ilmida bu rangni tushunuvchan, ravshan fikrlovchi kishilar yoqtirishi ta'kidlanadi. Shayx Najmiddin Kubro hazratlari talqinida bu rang iymonning belgisi hisoblangan. *Turkiy xalqlar tarixida, xususan, Amir Temur davlati va uning sulolasi hukmronlik qilgan boburiylar imperiyasi davrlarida ham sariq rang davlat ramzi sifatida ularning bayrog'ida aks etgan*.(Ўтанова. С. Алишер Навоий ғазалиётида рангсимволикаси, 2007. 12-13-бет)

Tasavvuf tariqatida ham ranglarga juda katta ahamiyat qaratilgan. So‘fiylik yo‘lini tanlagan pir-murshidlarning darajasi, bir yo‘ldan boshqasiga o‘tishi ham, asosan, ranglar bilan belgilangan. so‘fiylikdagi murakkab ramzlarni anglashda, tushuntirishda ham ranglardan foydalanilgan. Bu yo‘lga kirgan so‘fiy Haqni tanib borar ekan, uning dunyosida rangsizlikdan turli ranglarning jilvalanishi, ko‘nglida Haq jamoli tajalli qila boshlangan. Mumtoz she’riyat hamda tasavvufni o‘zida jamlagan hazrat Navoiy she’riyatini ham tasavvufsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shoir aksariyat g‘azallariga tasavvuf bilan bog‘liq g‘oyalarni singdirib boradi. Bunda Navoiy o‘zining badiiy niyatini ko‘rsatishda, tabiat jismlari, yil fasllari, ranglarga ko‘proq murojaat qiladi:

Quyoshqa gah qizarmoq, gohe sarg‘armoq erur andin
Ki, sun’ung bog‘ida ul sifat yuz ming guli ra’no.

(Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 1-10 жилдлар. 2010) Allohning bir- u borligi, barcha narsalar uning qudrati ila yaralganligini yuqoridagi g‘azalda to‘la aks etganini ko‘rishimiz mumkin. Keltirilgan parchada tabiatdagi biz unchalik e’tibor qaatmaydigan, aslida Haq taoloning bizga bergan juda katta ne’matlari tasvirlanganini ko‘rishimiz mumkin. Quyoshning ba’zan qizarishi (shafaq), ba’zida sarg‘ayishi Sendandir. Zero san’ating bog‘ida yuz ming ra’no gullar sifati mavjud, deya ulug‘laydi shoir bu baytda.

Navoiy g‘azaliyotida peyzaj elementlari hamda ranglar uyg‘unligi o‘ziga xos alohida ahamiyat kasb etadi. ”G‘aroyib us-sig‘ar” devonidan o‘rin olgan g‘azallarda turli ranglar va ular bilan bog‘liq ifodalarda ham bevosita peyzaj elementlarini uchratamiz. Unda shoir ranglar va tasvir uyg‘unligini ko‘rsatgan holda o‘zining ijodiy niyatlarini amalga oshirishga harakat qilgan. *”Aslini olganda, rangning barcha ma’no qirralari yer yuzidagi butun borliqni o‘zining nuri tajallisidan paydo qilgan Allohning qudratiga borib taqaladi. Alisher Navoiy nazmidagi rangga doir badiiy tasvirlar Allohning yaratuvchanlik qudratini, ilohiy go‘zallikni nechog‘li teran mushohada qila olganligidan dalolatdir”.*(Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. 2007. 31-32-бет.)

Navoiy g‘azaliyotida ranglar o‘ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda g‘azallar tarkibida turli ma’nolarni ifodalashga xizmat qilgan. G‘azallarda keltirilgan ranglarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, asosan, oq, sariq, qizil, yashil ranglardan ko‘p foydalanilgan.

Sariq rang shoir lirikasida qo‘llanadigan eng faol ranglardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U, asosan, g‘azallarda ayriliq, hijron, qiyinchilik kabi ma’nolarni ifodalaydi. Shuningdek, sariq yoki oltinranglari orqali lirik qahramon(oshiq) ruhiyatida kechayotgan o‘zgarishlar, oshiqning yor hijronidan achinarli ahvolga tushishi ifodalanadi. Shulardan kelib chiqqan holda shoir lirikasida qo‘llangan sariq rangning ma’nolarini quyidagicha izohlash mumkin:

1.Sariq rang oshiqona mavzudagi g‘azallarda lirik qahramon (asosan oshiq) holatini ko‘rsatib yetakchi detal:

Ko‘ngluma kelmas xazoniy bog‘ aro noranj xush
Kim, xazoni hajr aro bo‘ldi yuzum noranjvash.

2. Tasavvufiy –falsafiy g‘azallarda ilohiy mazharni sifatlashda, u yaratgan go‘zalliklarni tasvirlashda unumli foydalaniladi:

Jilvamu qildi sarig‘ bo‘rkin kiyib ul sarvinoz
Yoki chekti shu’la axzar jism ila sham’tiroz

3. Ijtimoiy mavzudagi g‘azallarda sariq rang kuz fasli bilan yondosh qo‘llanilib, dunyoning o‘tkinchiligi, umrning qisqaligiga ishora qiladi:

Har xazon bargi erur zoreki dahr ozoridin
Sarg‘arib mendek tushar ayru sihiyqad yoridin.

Shoir har bir timsolning g‘azaldagi vazifasini g‘azalga shu qadar ustalik bilan singdirib yuborganki, uning o‘rnini boshqasiga almashtirib qo‘ya olmaymiz. Shu jihatning o‘zi ham Alisher Navoiy ijodida har bir elementning alohida o‘rni borligini va uni boshqa narsa to‘ldira olmasligini yana bir marta anglab yetamiz. Alisher Navoiy g‘azallarini tabiat bilan uyg‘unlikda o‘rganish shoir asarlarining ochilmagan qirralarini yoritishga, g‘azallari mohiyatida yotuvchi ma’no-mazmunning yuzaga chiqishida poetik vazifa bajaruvchi qo‘shimcha timsollar mohiyatini anglashga ham yo‘naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўтанова.С. (2007). Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. Ғафур Ғулом нашриёти.
2. Алишер Навоий. (2011). Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 1-10 жилдлар. Ғафур Ғулом нашриёти.

BAYRAMXON G‘AZALLARIDA HAZAJ BAHRI VAZNLARINING O‘RNI

Ergasheva Kamola Mirzoxid qizi,
ToshDO‘TAU OTAT, 3-kurs
kergasheva68@gmail.com
Ilmiy rahbar: f.f.d., dots.v.b. Sh.Raxmonova

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boburiylar saroyida xizmat qilgan Bayramxon devonidagi hazaj bahri vaznlarida bitilgan g‘azallari tahlilga tortilgan. Ularning vazn xususiyatlari, o‘lchov imkoniyatlari o‘rganilgan. O‘rni bilan g‘azallarning qofiya tizimi, badiiy tasvir vositalariga munosabat bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Devon, g‘azal, hazaj bahri, musamman.*

Abstract. *This article analyzes the ghazals of the Bayramkhan, who served in the court of the Baburites, written in the hazaj bahri weights. Their weight characteristics and measurement capabilities have been studied. In turn, the rhyme system of ghazals and the means of artistic images are shown.*

Keywords: *Devan, ghazal, hazaj bahri, musamman.*

Ma’lumki, adabiy muhit muayyan saroy atrofida ijod etgan yirik shoir va adiblar ta’sirida yuzaga keladi. Adabiy muhitning vujudga kelishi, albatta, yirik ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan bog‘liq. XVI asrda Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Hindistonda o‘rnatilgan “Buyuk Boburiylar saltanati” qariyib uch asrdan ko‘proq vaqt mobaynida Hindistonda har tomonlama ravnaq topgan davlat sifatida gullab yashnadi. Bobur nafaqat siyosiy arbob, shuningdek, ijodkor sifatida o‘zidan katta va qimmatli meros qoldirishi bilan birga, o‘z atrofida ilm-fan, ijod ahlini birlashtirdi. Buning natijasida XV asrning oxiri XVI asrning birinchi choragidagi siyosiy va ijtimoiy voqealar hamda iqtisodiy tanglik girdobida bo‘lgan Hindistonga Movarounnahr va Xurosondan fan,

san’at va adabiyot namoyandalaridan iborat yangi bir guruh kirib keldi. (Xoliqulova, 2021, 974-bet)

Boburiylar tomonidan XVI asrda Hindistonda shakllangan madaniyat va adabiyotning shakllanishi saroy atrofida ko‘plab ijodkorlarning yig‘ilishiga va ijod qilishiga sabab bo‘ldi. Bu davrda Boburdan keyin Bayramxon, Forig‘iy, Yusuf Faryobiy, Johila, Diyda, Saminiy-Fahm hamda Boburning o‘g‘illari Humoyun va Komron Mirzo, qizi Gulbadanbegim barakali ijod qilgan. Yuqorida sanab o‘tilgan zullisonayn ijodkorlar orasidan Bayramxon alohida o‘ringa ega. Uning ijodi adabiyotshunoslikda kam o‘rganilgan. Shoirning otasi Sayf Alibek Bobur xizmatida bo‘lgan turkmanlarning baharlu qabilasiga mansubdir. Manbaalarda Bayramxonning yetuk sarkardalik salohiyati, davlat arbobi sifatidagi barkamol faoliyati, badiiy ijoddagi yuksak iste’dodi bayon etilgan. (G‘aniyeva, Jo‘rayev, 2013, 3-bet)

Biz quyida tahlil qilgan g‘azallar filologiya fanlari nomzodi, professor Suyima G‘aniyeva hamda filologiya fanlari doktori Jaloliddin Jo‘rayev tomonidan nashrga tayyorlangan, 2013-yil “Tamaddun” nashriyotida nashr etilgan “Bayramxon devoni” asosida tuzilgan. Ushbu devonda 47 ta g‘azal, 13 ta ruboiy va 3 ta to‘rtliklar kiritilgan. Devondagi g‘azallarni tahlil qilganimizda 47 ta g‘azaldan 15 tasi ramal bahrida, 13 tasi muzori bahrida, 9 tasi hazaj bahrida, 6 tasi mujtass bahrida va xafif, munsarih, rajaz, mutaqorib bahrlarida bittadan g‘azal yozilganligi aniqlandi. Qo‘limizdagi devon “Ey fitnada mastona…” deb boshlanuvchi g‘azal bilan boshlangan. Ushbu g‘azal 23 baytdan iborat bo‘lib, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida bitilgan:

y	it	a	a	as	o	a	o‘	ung	az	a	i	sh	o
–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–
un	ek	o	i	ar	o	i	a	on	y	i	a	ay	o

–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–

Keltirilgan g‘azal oshiqona ruhda yozilgan bo‘lib, ma’shuqaning tavsif-u tasvirlari go‘zal o‘xshatishlar, talmehlar asosida yoritib berilgan. G‘azalda Vomiq, Uzro, Shirin, Majnun, Laylo, Anqo, Sidra, To‘bi, Makka, Batho, Surayyo, Ya’qub, Tur, Muso, Sulaymon, Masih kabi tarixiy shaxslar va joy nomlari keltirilgan. Bayramxonning “Ondin” radifli g‘azali hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida yozilgan. G‘azal quyidagi matla’ bayt bilan boshlanadi:

Mafuvlu –V	Mafoiylu V – – V	Mafoiylu V – – V	Fauvlun V – –
Ko‘-zum u- Ko‘ng-lum o‘-	cha-dur, to ko‘- sa-dur-kim, o-	ra ol-g‘ay a- la ol-g‘ay xa-	sa-r+on-din, ba-r+on-din.

G‘azalda ishq mavzusi qalamga olingan. G‘azalda qo‘llangan so‘zlarning barchasi turkiy tilga mansub. Bu g‘azal noan’anaviy 5 baytdan iborat. Asosan an’anaviy g‘azallar o‘zbek mumtoz adabiyotida 7 baytdan iborat bo‘ladi. G‘azal aruzning hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida yozilgan, ya’ni *mafuvlu–mafoiylu–mafoiylu–fauvlun* vaznida bitilgan. Taqte’si: – – V/ V – – V/ V – – V/ V – – . Ondin so‘zi radif bo‘lib kelgan. She’rda **asar, xabar, nazar, jigar, zabar, muxtasar** kabi so‘zlar qofiyadosh bo‘lib, qofiyaning mujarrad turiga mansub. She’rda raviy “r” undoshi bilan yakunlanib, undan oldin tavjih – qisqa “a” unlisi kelgan. G‘azalning matla’sidan tortib maqta’sigacha qofiyaga olingan so‘z bilan radif orasida vasl hodisasi yuz bergan.

Bayramxonning “Xush ulkim…” deb boshlanuvchi g‘azali *hazaji musammani solim* vaznida yozilgan:

Mafoiylun V – – –	Mafoiylun V – – –	Mafoiylun V – – –	Mafoiylu n

			V – – –
Xu-sh+ul-kim sar- Ne-chuk-kim po-	vi-no-zim rah- d-shoh-lar mar-	m qil-g‘ay be- ha-mat ay-lar-	na-vo-lar-g‘a ga-do-lar-g‘a

Bayramxonning “Xush ulkim…” deb boshlanuvchi g‘azali 6 baytdan iborat bo‘lib, ishqiy mavzuda yozilgan. Vazni *hazaji musammani solim*, ya’ni *mafoiylun–mafoiylun–mafoiylun–mafoiylun* ohangida yaratilgan. Taqte’si V – – –/ V – – –/ V – – –/ V – – – shaklidadir. Qofiya uchun olingan so‘zlar bevosita uning vaznini ham belgilab bergan. Chunki *benavolarg‘a, gadolarg‘a* qofiyadosh so‘zlari *mafoiylun* asliy rukni ohangiga mos keladi. Ushbu so‘zlar orqali qofiyaning tuzilishiga ko‘ra mutlaq qofiya turini hosil qilgan. Baytdagi podshoh va gado so‘zlari o‘zaro zidlanib, tazod san’atini yuzaga keltirgan. Adabiyotshunoslikda yorning qomati sarv daraxtiga qiyoslanadi. Keltirilgan baytda ham buni ko‘rishimiz mumkin. Baytdagi podshohlar gadolarga marhamat aylagani kabi, sarvinozim ham benavolarga rahm qiladi degan ma’no aks etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Bayramxon ham Lutfiy, Navoiy, Bobur singari qalami o‘tkir ijodkor bo‘lib, g‘azallarida turkona ruh ufurib turadi. U o‘z davri adabiyotining yetuk namoyandalaridan hisoblanib, salaflari kabi ikki tilda ijod qilgan. Uning 2013-yil “Tamaddun” nashriyotida nashr etilgan “Devonida” jami 47 ta g‘azal bo‘lib, shundan 9 tasi hazaj bahri vaznlarida yaratilgan. Xususan, hazaji musammani solim vaznida 5 ta, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida 4 ta g‘azal yaratilganligi aniqlandi. Bugungi kunda Bayramxon ijodini o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Sababi Bayramxonning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar juda kam bo‘lganligi bois uning ijodi o‘rganilmagan. Bizning asosiy maqsadimiz esa, Bayramxon ijodini yanada kengroq o‘rganish va adabiyot ahliga havola etishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Xoliqulova, G. (2021). Bobur adabiy muhiti va uning manbalari. Scientific Journal Impact Factor, 10-son.

2.Yusupova, D. (2020). Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Toshkent. Akademnashr.

3.G‘aniyeva, S., Jo‘rayev, J. (2013). Bayramxon devoni. “Tamaddun” nashriyoti. Toshkent.

СЕНИ ТОПМОҚ БАСЕ МУЩКИЛДУРУР (БИР БАЙТ ТАҲЛИЛИ)

Ҳакимжонова Дилрабо Назиржон қизи,
ТошДЎТАУ Ўзбек филологияси факултети, 2-курс
xakimovadilrabo420@gmail.com9
Илмий раҳбар:Ф.ф.д., проф Узоқ Жўрақулов

Аннотация. *Мақолада Навоийнинг "Зиҳи ҳуснунг зуҳуридин" мисраси билан бошланувчи ҳамд ғазали шоҳбайти таҳлилга тортилади. Таҳлил асосида талқин ва таклифлар илгари сурилади. Мазкур ғазални ёзишда муаллиф "асл шаръий илмлар", яъни Қуръони Карим, Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи вассалламнинг суннатларига таянганлиги ҳар жиҳатдан очиб брилади.*

Калит сўзлар: *Исми Аъзам, асл шаръий иллар, Канзи махфий, Ваҳдат ул-вужуд, Илоҳий мазҳар, ғазал, шоҳбайт.*

Abstract*. In the article, Navoi's ghazal shahbayt beginning with the verse "Zihi husnung zuhuridan" is analyzed. Based on the analysis, interpretations and suggestions are put forward. In the process of writing this ghazal, it is revealed in every way that the author relied on "original shariah sciences", that is, the Qur'ani Karim and the sunnah of the Prophet.*

Keywords: *Ismi A'zam, original shariah sciences, Kanzi secret, Vahdat ul-vujud, Ilohi mazhar, ghazal, shahbayt.*

Сени топмоқ басе мушкилдурур, топмаслиғ осонким,

Эрур пайдолиғинг пинҳон, вале пинҳонлиғинг пайдо.

Мазкур байт Навоийнинг "Хазойин ул-маоний" куллиётига киритилган *"Зиҳи ҳуснунг зуҳуридин..."* мисраси билан бошланувчи ҳамд ғазали шоҳбайтидир. Ғазал ҳазажи мусаммани солим вазнида ёзилган. (V— — — V — — — V— — — V— — —) Ушбу мақолада асосий эътиборни ғазалнинг

шакл томонига эмас, балки, маъно қатламига қаратиб, илгари сурилган ғоянинг мазмун кўламини чуқурроқ англаш мақсадида ботиний қатламни ҳар жиҳатдан таҳлил этишга ҳаракат қиламиз. Ғазалнинг умумий ғояси юқоридаги шоҳбайт орқали ифода этилади. Навоийнинг бадиий маҳорати ҳам мазкур ғазал ғоясининг мағзини шоҳбайтда ифода этганида намоён бўлади. Навоий ҳеч бир сюжет, образ, майда деталлар, ҳатто рамзларни ҳам шунчаки келтирмайди. Келтиришдан кўзлаган маълум бир мақсади, англатмоқчи бўлган "ҳақиқати" бўлади. Бизнингча, муаллиф асарларини ёзишда "асл шаръий илмлар", яъни Қуръони Карим, Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг суннатларига таянган. Таҳлил жараёнида юқоридагилар айни ҳақиқат эканлиги ҳар жиҳатдан аён бўлади. Шоҳбайтни қуйидагича таҳлил этиш мумкин:

1. Шоир бутун бошли коинотни яратган Зотнинг Аз-Зоҳир ҳамда Ал-Батин исмлари, шу билан бирга Исми Аъзамга яширилган қудратнинг сир-у синоатини икки мисра орқали ифода этади. *Аз-Зоҳир - борлиги, мавжудлиги, якка-ю ёлғизлиги аён бўлган Буюк Зот*. (Иброҳим Нуруллоҳ, 2018, 12-бет) *Ал-Батин - ўзи мавжуд, лекин сезги воситаларимиздан махфий Зот.* (Иброҳим Нуруллоҳ, 2018, 12-бет) Яратганнинг Ал-Батин исмида яширинган сифатлар Унинг пайдолиги пинҳон, ушбу пинҳонлик туфайли Уни топмоқлик мушкул иш эканлиги, Аз-Зоҳир исмига беркитилган сифатлар эса пинҳонлигининг Ўзи пайдо эканлиги, яъни Яратганнинг ҳар бир яратиғида Унинг зуҳурини топиш мумкинлигини кўрсатади. Нажмиддин Комилов таъбири билан айтганда*:"Олий муҳаббат обьекти Мутлақ Жамол барокатидир". (*Комилов, 1996, 57-бет) Шунингдек, яширинлигининг ўзи мавжудлигининг, мукаммаллигининг, чексиз қудрат Соҳиби эканлигининг гўзал исботидир. Зеро, пинҳонлигининг ошкорлиги оламни йўқдан бор этганлигида, жумла хилқатни ўлчов-ла яратганлигидадир.

2. Мазкур байтда шоир *"Канзи махфий*"нинг сирини ошкор этади, яъни Яратган шундай марҳамат қилади: "*Мен яширин хазина эдим, Ўзимни танитмоқ учун махлуқотни яратдим".* ("Руҳул баён" тафсири) (Нурия

Челейен, 2023, 7-бет) Яратилган жамики борлиқ, барча махлуқот ва мавжудотда Яратувчининг "жилва"си намоён бўлади, чунки борлиқ, жумла яратиқда Унинг зуҳури мавжуд. "Канзи махфий"нинг сири ҳам айни шудир.

Олам ҳануз сирнинг ошкор бўлмаган хазинаси эди. Канзи махфийнинг зоҳир бўлиши йўқликнинг пардасини кўтарди. Хазинанинг очилиши сирни бўлишиш бўлди. Сир маҳрам эди, ўзини яширин тутган эди.

Яширин хазина азал асрорини очишни, сир пардасини туширишни, марҳамият чимматини кўтаришни истади. Хоҳладики, билинсин, хоҳладики, кўринсин.

Марҳамият "Алиф... Лом... Мим... "деб, бошқаларга маҳрамлик учун йўл очди. Сир очиқликка чиқди. Хазина ўзини минг бир эшик билан очди. Ҳар эшикдан сирлар оқиб чиқаверди...

Ҳар сир ўз сирини сўзлади:

"Алиф... Лом... Мим..."

*Ҳар эшикдан минг бир йўл билан кириш бошланди. Ҳар йўлнинг бошида бир ишора бор эди. (*Нурия Челейен, 2023, 7-бет*)*

3. Шунингдек, шоир мазкур байт орқали тана руҳ билан бирга жисмдан ҳам иборат экан, бу дунёда Яратганни топмоқлик, Унинг жилвасидан баҳраманд бўлмоқлик мушкул иш эканлиги, жисмнинг бунга бардош бера олмаслиги ҳақидаги улкан ҳақиқатни келтириб ўтади. Зеро, Аъроф сурасида*:"Мусо Биз белгилаган вақтда (Тур тоғига) келгач, у билан Робби бевосита гаплашди. Мусо:" Роббим! (Ўзингни) менга кўрсатгин, Сенга бир назар қилай!"-деди. (Аллоҳ):"Мени кўра олмайсан. Лекин (ана у) тоққа (бир) боқ! (Агар Мен унга бир назар солганимда тоқат қилиб) ўз ўрнида тура олса, сен ҳам мени кўрасан",-деди. Робби тоққа тажаллий (андак бир кўриниш) қилган эди, уни майдалаб ташлади. Мусо (бундан таъсирланиб) беҳуш ҳолда йиқилди. Ҳушига келгач, деди:"Сенга тасбеҳ айтурман, Сенга тавба қилдим ва мен мўминларнинг биринчиси (пешвоси)дурман". "Эй Мусо! Мен сени одамлар узра рисолаларим (Таврот битиклари) ва гаплашганим билан мумтоз (имтиёзли) этдим. Бас, сенга берганимни (қабул этиб) ол ва шукр*

қилувчилардан бўлгин!"- деди (Аллоҳ). (Аьроф, 143-144) (Шайх Абдулазиз Мансур, 2021,167-168-бетлар) Шак-шубҳасиз, Навоий мазкур икки мисрада юқоридаги икки оятнинг ҳақиқатини қаламга олган. *"Улуғ Тангри тоққа парда ортидан тажалли этади. Шунинг учун тоғ ям-яшил бўлади, гулларга тўлади, безанади. Ҳолбуки, пардасиз тажалли этса, тоғ ост-уст бўлади",-* дейди Румий ҳазратлари.

4. Шоир Буюк қудрат Соҳиби "яширинлигининг ошкорлиги" Тажаллининг борлиқда намоён бўлган зуҳуридан эканлигини тушунтиради. Шунингдек, *"Машриқ ҳам, Мағриб ҳам Аллоҳникидир. Бас, қайси тарафга юзингизни қаратсангиз, ўша томонда Аллоҳнинг "юзи" мавжуддир".* (Бақара, 115) (Шайх Абдулазиз Мансур, 2021, 18-бет) оятининг ҳикматини гўзал усулда ифода этади. Дунёга келишнинг асл муддаоси: ўзликни англаш, ўзликни англаш орқали ўзни тушуниш, ўзни тушуниш орқали Ҳақни топиш, Ҳақни топиш орқали Ҳақиқатга эришиш эканлигини уқтираркан,аввало, одамзодни *"Ваҳдат ул-вужуд"*нинг сирини англамоққа чорлайди.

5. Навоий Яратган "пинҳолигининг пайдолиги" ҳақида фикр юритаркан, шоҳбайтдан кейинги байтларда Лайлининг юзида Буюк қудрат соҳиби "жилва"си, Ширинни нинг лабида Унинг каломи намоён бўлмаганида эди Мажнун *жазба* ҳолатига тушмаган, Фарҳоднинг кўзларидан оққан ёш эса қаттиқ тошни лаълга айлантирмаган бўлар эди, дейди. Зеро, Ширин ва Лайлининг чеҳрасида *"Илоҳий мазҳар"* мавжуд. Ўзни йўқотишга сабаб бўлган қудрат ҳам айнан ана шу "жилва" да. Шу ўринда муаллиф ўзининг *"Асли ҳақиқатдир мажоз"* ҳикмати сирини ҳам, яъни мажозий ишқ воситасида ишқи ҳақиқийга етишмоқликни Яратган яширинлигининг ошкорлигига боғлайди. Бутун борлиқ Унинг зуҳуридан ташкил топган. Бу оламда Яратганни топмоқлик мушкул иш. Зеро, *"(Эй Муҳаммад!) Сиздан руҳ ҳақида сўрайдилар. Айтинг: "Руҳ фақат Роббимнинг ишидандир". Сизларга эса оз илм берилгандир".* (Исро,85) (Шайх Абдулазиз Мансур, 2021, 290-бет) Руҳнинг ҳақиқатини фақат У билади. Бироқ тафаккур эгалари Унинг қудратини, буюклигини яратган яратиқларида кўра оладилар. Чунончи,

нимаики яратилган бўлса, "илоҳий нур" тажаллиётидан пайдодир. Ал-Муҳаймин бўлган Зот яширинлигининг ошкорлиги ҳам мазкур Тажаллининг зуҳуридан.

6. Зеро, Уни топмоқлик мушкул иш, топмаслик эса жуда осон еканлигини таъкидлар экан, Навоий илгари сурган консепция негизи *"Кўзлар Уни идрок эта олмас, У кўзларни идрок этар. У латиф ва хабардор Зотдир" (*Анъом, 103-оят) (Шайх Абдулазиз Мансур, 2021) ояти ҳақиқатига бориб тақалишининг ўзи биргина мисрага башарият англаши лозим бўлган "илм"ни сиғдира олган ижодкор даҳосини кўрсатади. Чунончи, кўзга кўринмаган, кўра олмаганимиз йўқ дегани эмас. Аксинча, кўзнинг кўра олмаслигидан, нуқсонлилигидандир. Шак-шубҳасиз, Навоий Яратган "ошкорлигининг яширинлиги, яширинлигининг ошкорлиги" сирини англамоқ учун инсон деган яратиқни *"Бойқушликдан чиқиб Яқинлик Қофининг Анқоси бўлмоқ керак"* (Жалолиддин Румий таъбири) деган чорловга ундайди ҳамда *"Ийяка наъбуду"*, яъни банда тарафидан Аллоҳга берилган улкан *"ваъда"*ни унутмаганларгина Ал-Ҳакийм бўлган Зот ҳикматлари мағзини чақа олади деган улкан ғояни илгари суради. Мақтаъда ўз таслимияти билан чинакам қуллик моҳиятини гўзал усулда баён етади:

Навоий қайси тил бирла Сенинг ҳамдинг баён қилсун,

Тикан жаннат гули васфин қилурда гунг эрур гўё.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Шайх Абдулазиз Мансур. (2021). Таржима ва тафсир. - Тошкент: "Мунир" нашриёти.

2. Иброҳим Нуруллоҳ. (2018). Асмоул ҳусна ва ёсин, таборак. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.

3. Комилов Н. (1996). Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. - Тошкент: Ёзувчи нашриёти.

4. Нурия Челейен. (2023). Ҳар аёл Ҳожардир. Турк тилидан Ўткирбек Муҳаммад Собир таржимаси. - Тошкент: "Насим Кутуб" нашриёти.

“MAHBUB UL-QULUB”NING FILOLOGIYADA O‘RGANILISHI

Islombek Karimov Yaxyoitdin o‘g‘li,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
islombek19930404@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning nasriy merosi, xususan, “Mahbub ul-qulub” asarini turli nuqtayi nazardan tadqiq etish ishlari uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan jarayon bo‘lib bu jarayonda nafaqat o‘zbek filologlari, balki tojik, rus va ko‘plab boshqa xorijiy filologiya vakillari ham faol ishtirok etganligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *nasr, shoirlar, madaniy hayot, siyosiy vaziyat, adabiy muhit, hukmdorlar, dehqonlar.*

Abstract. *In this article, the research of Alisher Navoi's prose heritage, in particular, "Mahbub ul-Qulub" from different perspectives, is a process that has been going on for many years. In this process, not only Uzbek philologists, but also Tajik, Russian and many other foreign representatives of philology were also actively involved.*

Keywords: *prose, poets, cultural life, political situation, literary environment, rulers, peasants.*

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa” (Karimov. I. A, 2008, 524-bet)ga aylandi. Zero Birinchi yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Xalqning ma’naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o`ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo`lida muvaffaqiyatli ravishda olg‘a siljitishda hal qiluvchi, tab’ir joiz bo`lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir” . (Karimov. I.A, 2009, 39-bet). Millat ma’naviy kamolotining asosiy omillaridan biri bu badiiy ijod durdonalariga munosabat, unga oshuftalik, buyuk bob qoldirgan bebaho ijod namunalaridan bahramand bo‘lish, ularni har tomonlama tahlil, tadqiq va tadbiq etishdir. Bu borada “avliyolar avliyosi, mutafakkirlar mutafakkiri va shoirlar sultoni” Alisher Navoiy adabiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy “G‘azal mulkining sultoni” (M.Shayxzoda) hamda “Xamsa”ni takmil etgan” (B.Valixo‘jayev) buyuk so‘z san’atkori bo‘lish bilan birga, ilm va madaniyatning turli sohalariga oid bebaho nasriy asarlar ham yaratgan mutafakkirdir. Navoiy dahosi Sharqda avvalambor benazir lirik merosi, devonlari hamda “nazirayi benazir” “Xamsa”si tufayli shuhrat taratgan bo‘lsa, g‘arb madaniyati uni ilk marotaba aynan nasriy asarlari vositasida tanidi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, Alisher Navoiyning g‘arb ilmiy jamoatchiligiga ma’lum qilingan ilk asarlari ingliz olimi Katrmer tomonidan 1841-yilda asliyatda nashr ettirilgan "Tarixi mulki Ajam" va "Muhokamat ul-lug‘atayn" asarlari hamda fransuz sharqshunosi M.Belen tomonidan nashr ettirilgan "Xamsat ul-mutahayyirin" (1861-yilda) va "Mahbub-ul-qulub" (1866-yilda) dan parchalardir. Bu haqida rus navoiyshunos olimi Y.E.Bertelsning “Navoiy” monografiyasida (Y.E.Bertels, 2015, 97-bet) hamda akademik B.Valixo‘jayevning “Mumtoz siymolar” kitoblarida (B.Valixo‘jayev, 2002, 62-bet) ancha batafsil ma’lumot berilgan. Buning natijasida, Alisher Navoiyning nasriy asarlarini til va adabiy manba sifatida tadqiq etish g‘arb adabiyotshunosligida XIX asrning oxirlaridayoq jadal rivojlandi.

Yuqorida tilga olingan olim Y.E.Bertels o‘zining “Navoiy” monografiyasida buyuk shoir va mutafakkir hayoti va adabiy merosini tavsif va tahlil etish asnosida uning nasriy asarlari, xususan, “Mahbub ul-qulub” asariga ham alohida to‘xtaladi (Y.E.Bertels, 2015, 307-313-betlar). Olim asar mazmuni va ayrim fasllarini Navoiy hayotining so‘nggi oylaridagi voqeliklar bilan birga talqin etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Unda, jumladan, quyidagilarni o‘qiymiz:

“1500 -yil kirdi. Hirotda sharoit hamon o‘sha-o‘sha: goh u yerda, goh bu yerda shaxzodalarning allaqachon zaiflashib qolgan yurtni yanada tanazzulga tortgan qo‘zg‘olonlari bo‘lib turadi. G‘arbdan temuriylarning dahshatli dushmani – temuriylar va ularning yuvindixo‘rlarini yer yuzidan supurib tashlash vazifasini o‘z zimmasiga olgan Shayboniyxon yo‘lga tushgandi.

Shu payt hamon yolg‘izlikda hayot kechirayotgan va ahyon – ahyonda muhim topshiriqlar olib turgan Navoiy o‘zining so‘nggi kitobi – “Mahbub ul – qulub” (“Qalblar sevgilisi”) asarini yozishga kirishadi.

Mohiyatan u Sa’diy tomonidan “Guliston”da ilk marta qalamga olingan Jomiyning “Bahoriston”ida rivojlantirilgan mavzuni davom ettiradi. Kuchli didaktik yo‘nalishda yozilgan bu asar shoirning uzoq umri davomida to‘plangan tajribasini o‘zida mujassam etgan bo‘lishi va davrga baho berishi kerak edi.

Kitob maroq bilan o‘qiladi. Unda biz Navoiyning so‘ngi so‘ziga duch kelamiz. Asar yozishga o‘zini qiynagan o‘ylar bilan kirishdi. Biz uning oxirgi yillari og‘ir kechganini, qanday qorong‘i hislar uni qiynaganini bilamiz. Shuningdek biz ushbu kitob muqaddimasida gapirilgan qadrdon vatanni butunlay tashlab ketmoqchi bo‘lganidan ham xabardormiz.

Uning o‘z oldiga qo‘ygan vazifasi – nasrda juda muxtasar tarzda kishilik jamiyatining tuzilishi, kishilararo muloqot asoslari haqidagi masalaga doir fikrlarni bayon qilishdan iborat bo‘lgan. Asar nasri vaznga solingan, qofiya bilan xo‘p ziynatlangan (Y. E. Bertels, 2015, 307-bet).

Olim asar haqidagi fikrlarini tasdiqlash maqsadida zolim sultonlar hamda dehqonlar haqidagi fasllardan kattagina matnlar keltirib izohlaydi. Uning fikricha: “Mahbub ul-qulub” Navoiyning, ehtimol, eng murakkab asarlaridan biri. Bu tushunarli: u adabiyotdan ovunchoq izlaydiganlar uchun yozilmagan. Bu yerda har bir gap qalban aytilgan, o‘ylangan, aql tarozisiga solingan va shuning uchun o‘quvchidan jiddiy, mulohazali munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Uning uchun asarda davr shart-sharoitlari bilan izohlanuvchi qandaydir alamli ohang mavjud. Navoiyning umri oxirlayotgan edi. U umr bo‘yi davlatni boshqarish haqida rejalari amalga oshadi, tartib o‘rnatiladi, Iskandar Arastuning maslahatlaridan foydalangani kabi, Temuriylar ham uning pand-o‘gitlaridan foydalanadi; o‘zlari orasidan, Navoiyning fikricha, ideal tip talablariga javob bera oladigan hukmdorni tayinlaydilar deb o‘yladi. Endi u orzularining sarob ekanlagini ko‘rdi. Temuriylar uning orzu-umidlarini chippakka chiqardilar. Gullab-yashnash o‘rniga, yurt kundan-kunga xarobaga aylanib bordi, har qadamda inson huquqi oyoqosti qilindi.

Sulola ichidagi shafqatsiz qon to‘kishlar og‘a-inilarning yangidan-yangi urushlarini keltirib chiqardi. Navoiy temuriylar davlatining inqirozga yaqin qolganini angladi. Unga o‘zining barcha harakatlari so‘zda ham, amalda ham foyda keltirmagandek tuyuldi. Uning shaxsiy hayoti fojeasi shunda” (Y. E. Bertels, 2015, 313-bet).

XX asr o‘zbek adabiyotshunosligining tamal toshini qo‘ygan Abdurauf Fitrat 1928-yilda nashr ettirilgan “Aybatul haqoyiq” nomli maqolasi hamda “O‘zbek adabiyoti namunalari” xrestomatiyasida Alisher Navoiyning nasriy merosi, xususan, “Mahbub ul-qulub” va “Nasoyim ul-muhabbat” asarlariga ham murojaat etadi. Asr o‘rtalariga kelib “Mahbub ul-qulub” asarini turli nuqtayi nazardan tadqiq va tahlil etish, nashr ettirish va sharhlash ishlari ancha jadallashdi.

Mashhur adabiyotshunos va navoiyshunos A.Hayitmetov 1959-yilda nashr ettirilgan “Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari” nomli monografiyasida “Mahbub ul qulub” asariga ham murojaat etib, unda ifodalangan adabiy-tanqidiy fikrlarni sharhlaydi (A.Hayitmetov, 1993, 66-68-betlar). Olim asar tarkibidagi ikki faslga alohida e’tibor qaratadi: “Mahbub ul-qulub” da ham Navoiy ikki fasl ajratib, biri o‘n oltinchi faslni “Nazm gulistonining qushlari” zikriga, ikkinchisi – yigirma uchinchi faslni “Qissasoz va qissaxonlar” zikriga bag‘ishlaydi”.

Olim asarning eng muhim fasllaridan biri “Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida” (Xusayniy Atoulloh, 24-26-betlar) haqida mulohaza yuritib yozadi: “Bu kitobning o‘n oltinchi faslida Navoiy o‘zigacha o‘tgan va o‘z zamonida yashagan yirik shoirlarni, asosan, g‘oyaviy yo‘nalishlariga qarab, to‘rt katta guruh – “jamoat”ga bo‘ladi. Avvalgi guruhga u diniy mavzularda asar yaratgan mistik shoirlardan birinchi galda Fariduddin Attor (“Mantiq ut-tayr” avtori) hamda Jaloliddin Rumiy (“Masnaviyi ma’naviy” avtori)ni kiritgan. Ikkinchi guruhga esa, u “haqiqat asroriga majoz tariqin maxlut” qilgan, “kalomlarin bu uslubda marbut” etgan shoirlarni kiritgan. Bu guruhga u birinchi galda “Maoni ahlining nukta pardozi Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy va ishq guruhining pokbozi va pokravi Amir Xusrav Dehlaviy”, “maoni adosiga lofiz hoja Shamsiddin Muhammad al-Hofiz” va boshqalarni kiritadi. Uchinchi guruhga Navoiy “Majoz tariqi adosi” “nazmig‘a g‘olib!” va “bu shevag‘a ko‘proq rog‘ib” shoirlarni

kiritadi. Navoiyning fikricha, Hoqoniy Shirvoniy, Zohir, Savoji va boshqalar shu guruhga oiddirlar. Xarakterli tomoni shundaki, Navoiy o‘sha vaqtlardatoq o‘z ustozi Jomiy ijodining har turli, g‘oyaviy jihatdan hatto qarama-qarshi tomonlari borligini bilgan va uni bu guruhlarning birigagina kiritib qolmasdan, uning boy ijodining yuqorida zikr etilgan uch yo‘nalishning hammasiga ham mansub ekanini ochiq uqtiradi.

Eng so‘nggi (adno) guruhiga Navoiy maqtanchoq, tuturuqsiz, yozgan asarlari na g‘oyaviy jihatdan, na badiiy jihatdan talabga javob beradigan, o‘ziga mag‘rur, no‘noq, she’r yozib elga xizmat qilish emas, balki quruq nom chiqarishni mo‘ljallagan, adabiyotni bulg‘atuvchi “shoir”larni kiritadi. “Mahbub ul-qulub”ning bu o‘rni o‘sha davr adabiy hayotini xarakterlashda hamda o‘z davrining eng ulug‘ kishisi – Navoiyning o‘sha adabiy hayot a’zolariga munosabatini ochishga ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Navoiy adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi haqida shu paytgacha asar yozgan kishilar “Mahbub ul-qulub”ning bu o‘rinlariga e’tibor qilmay kelganlar. Navoiyning o‘z zamondoshlariga keskin munosabati ayniqsa bu asarda yaxshi ifodalangan(A.Hayitmetov, 1993, 68-bet).

Akademik B.Valixo‘jayevning 1964-yilda nashr ettirilgan “XI-XIX asrlar o‘zbek adabiy-tanqidiy qarashlari tarixidan” nomli tadqiqotlari, keyinchalik nashr ettirilgan “O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi” (Valixo‘jayev B, 2002) darslik-kitoblarida ham olim va mutafakkir Navoiyning nasriy asarlarida o‘z ifodasini topgan adabiy-tanqidiy qarashlar tahlilga kiritiladi.

Shu davrlarda Oliy o‘quv yurtlari uchun yaratilgan darslik kitoblarda Alisher Navoiyning nasriy asarlari hamda “Mahbub ul-qulub” asariga oid maxsus mavzular kiritila boshladi. Jumladan N.M.Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobi (Mallayev N, 1976), 5 tomlik “O‘zbek adabiyoti tarixi” akadem nashrining 2-tomidagi S.G‘aniyevaning yirik maqolasi (S. G‘aniyeva, 2010, 341-356-betlar) shular jumlasidandir. Mashhur navoiyshunos olima S. G‘aniyevaning maqolalarida asarga shunday ta’rif beriladi: “Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida o‘z zamonasiga va undagi ijtimoiy tabaqalar, guruhlar, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy

hodisalarga faol munosabat bildiradi. Lekin asar muqaddimasida o‘z aksini topgan muallifning umidsizlik kayfiyati, olam ishlari, olam ahlidan noroziligi, horg‘inlik holati asos e’tibori bilan butun kitobning hujumkor ruhi uchun xarakterli emas. Muallif o‘zining yuksak optimistik tilagini, kelajak avlodlariga qaratilgan eng pokiza tuyg‘ularini, gumanistik niyatlarini, dono o‘gitlarini asarda g‘oyat katta dadillik va o‘ziga xos qat’iylik bilan teran mazmun, serjilo badiiy bo‘yoqlarda bayon etadi” (S. G‘aniyeva, 2010, 354-bet)

1982-yilda nashr ettirilgan “O‘zbek nasri tarixidan” kollektiv monografiyasiga kiritilgan T.G‘afurjonovaning “Alisher Navoiy ijodiyoti va nasr problemalari” nomli yirik maqolasi (T.G‘afurjonova, 1995, 36-59-betlar) ham Navoiy nasri, shu jumladan “Mahbub ul-qulub” asarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etdi: “Navoiyning ijtimoiy-siyosiy va didaktik xarakterdagi “Mahbub ul-qulub” asari uning ijodiyotida nasrning eng yorqin namunasi sanalib, unda badiiy nasrga xos element va komponentlardan keng foydalanilgan” (T.G‘afurjonova, 1995, 47-bet). Tadqiqotchi Navoiyning ijtimoiy qarashlari haqida fikr yuritar ekan, riyokor shayxlar haqidagi faslni tahlil uchun tanlaydi.

“Mahbub ul-qulub” asari turkiy nasrning eng muhim xususiyatlaridan bo‘lgan “saj” usulini tadqiq etishda, Navoiy ijodi va umuman o‘zbek adabiyotida satiraning shakllanishi va taraqqiyotiga doir ilmiy ishlarda ham asosiy manbalardan biri vazifasini bajargan. Jumladan, taniqli adabiyotshunos B.Sarimsoqovning “O‘zbek adabiyotida saj’” (Sarimsoqov B, 2012), yana bir ustoz olimlardan A.Abdug‘afurovning “Navoiy ijodida satira” (Abdug‘afurov A, 1974) kabi monografiyalarda ham bu manbaga bevosita murojaat etiladi. Xususan, A.Abdug‘afurov “Mahbub ul-qulub”ning “Riyoyi shayxlar zikrida”gi faslini: Navoiy ijodidagi prozaik satiraning eng yaxshi namunasidir”, deya baholaydi (Abdug‘afurov A, 1974, 153-bet).

“Mahbub ul-qulub” asari Alisher Navoiy yaratgan adabiy tilning xususiyatlarini aks ettiruvchi qimmatli manba sifatida ham XX asrda ilmiy jamoatchilik e’tiborida bo‘ldi. Rus olimi A.K.Borovkov, o‘zbek olimlaridan S.Mutallibov, E.Umarov, X.Doniyorov, J.Hamdamov, B.Yo‘ldoshev kabilarning

til tarixiga oid ko‘plab ilmiy maqola va risolalarida “Mahbub ul-qulub” asaridagi matnlar asosida fikr yuritilganligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan frazeologiyaga oid ko‘plab tadqiqotlar yaratgan ustozimiz B.Yo‘ldoshevning 1981-yilda chop etilgan “Alisher Navoiy prozasida frazeologizmlar” nomli maqolalarida quyidagilarni o‘qishimiz mumkin: “Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida qo‘llangan quyidagi ayrim maqol tipidagi frazeologizmlar hozirgi kunda ham ishlatilib kelinmoqda: “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz”, “So‘zi hisobsiz – o‘zi ihtibossiz”, “Oz demak hikmatga bois va oz yemak sihhatqa bois”, “Og‘izga kelganin demak nodon ishi va olliga kelganni yemak hayvon ishi”, “Bilmaganin so‘rab o‘rgangan olim va orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim…” (Yo‘ldashev B, 1981, 97-bet).

“Mahbub ul-qulub”da maqol tipidagi frazeologizmlar yuqoridagidek, aynan qo‘llanish bilan birga, asar g‘oyasi va temasiga muvofiq holda ayrim o‘zgarishlarga ham uchraydi. Masalan, xalq og‘zaki so‘zlashuv nutqida “Sulaymon o‘ldi, devlar qutuldi”, “Sulaymon taxti quladi” kabi iboralar mavjud. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”ning beshinchi faslida Osaf singari vazirlar haqida so‘z yuritib “Sulaymon taxti barboddur” iborasini qo‘llaydi: “Dahr elida birovki Osaf nihoddur, bilgaykim, Sulaymon taxti barboddur” (Yo‘ldashev B, 1981, 97-bet).

“…ovozasi yeti falakdan oshmoq” frazeologizmi Alisher Navoiy uchun nazm gulistonining sayroqi qushlari, ya’ni shoirlarni madh etish vositasi bo‘lib xizmat qilgan: “Va yuz mashaqqat bila bir baytkim bog‘lashturg‘aylar, da’vo ovozasin yeti falakdin oshurg‘aylar” (Yo‘ldashev B, 1981, 98-bet)

“Mahbub ul-qulub” asari A.Fitrat nashr ettirgan xrestomatiyadan keyin, 1941- yilda chop etilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”ning I tomiga, 1959-yilda nashr ettirilgan “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasining II tomiga qisman kiritildi. Alisher Navoiyning 15 tomlik “Asarlar”i, 13-tomida asar, ayrim qisqartirishlar bilan nashr ettirildi.

“Mahbub ul-qulub” asarini matnshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va boshqa sohalarga oid manba nuqtayi nazardan tadqiq etish ishlari istiqloldan keyin yanada jonlandi, yangi-yangi yo‘nalish va usullar bilan boyidi, hatto butkul yangicha mohiyat kasb etdi, deb aytish ham mumkin.

Bu borada, ayniqsa, Navoiyning tasavvufiy qarashlarini tadqiq etishga kirishgan deyarli barcha olimlar (N. Komilov, I. Haqqul, S. Olimov, R. Vohidov, Sh. Hayitov va boshq.) “Mahbub ul-qulub”ga, undagi “Ishq” hamda ijod ahli haqidagi fasllarga murojaat etishdi. Jumladan, tasavvufshunos olimlarning ustozi N.Komilov “Farhod va Shirin” va “Layli va Majnun” asarlarining tasavvufiy mohiyati mamlakatimizda ilk marotaba alohida tadqiq etilgan “Suqrot – komil inson timsoli” (Komilov N, 1996, 203-214-betlar) hamda “Ishq otashining samandari” (Komilov N, 1996, 214-229-betlar) nomli maqolalarida Navoiyning “Ishq” konsepsiyasini asosan yuqoridagi manba – “Mahbub ul-qulub”dagi maxsus fasl asosida sharhlaydi. Darhaqiqat, “Mahbub ul-qulub”ning ikkinchi bob o‘n uchinchi fasli “Ishq zikrida” bo‘lib hajman eng katta fasllardan biridir. Unda buyuk mutafakkir ishqni uch martabaga: avom, xos va siddiqlar ishqi martabalariga ajratadi. N.Komilov ishqning birinchi va ikkinchi martabalari haqida fikr yuritib yozadilar: “Mahbub ul-qulub”da Navoiy ishqning “marotib”lari borligini aytib, uning uch turini qayd etadi: nafsoniy ishq (“avom ishqi”), “majoziy ishq” (“xavos” – xos kishilar ishqi) va ilohiy ishq (avliyolar ishqi). Bu o‘rinda Navoiyning “ishq marotibdur” degan so‘ziga diqqat qilishingizni istardik, zero, “marotib” (martabalar) so‘zi tariqat ahlining istilohlaridan bo‘lib, u solikning ruhiy-ma’naviy taraqqiyot darajasini belgilaydi. Demak, ishq insoniy kamolot darajasini ko‘rsatuvchi fazilat. Bundan tashqari, avom va xos tushunchalari ham tariqatga bog‘lanadi” (Komilov N, 1996, 216-bet) “Navoiy mazkur istilohni (xos ishqi) ko‘ngil amriga amal qilib, Tangri yo‘lida zahmat chekuvchi dili va tili Haq yodidan bo‘shamaydigan chin so‘fiylarga nisbatan qo‘llagan. Bu insonlarning ko‘ngil ko‘zgusi dunyoviy hirs-u havas g‘uboridan tozalangani sababli “pok ko‘zni pok nazar bila pok yuzga” solib, “pok mazhar”, ya’ni ilohiy jamol aks etgan alohida odamlarni sevish “vositasi bila”… mahbubi haqiqiy (ya’ni, Xudo) jamolidan bahra olmoqqa musharrafdirlar” (Komilov N, 1996, 217-bet).

Bu borada, ayniqsa, Sh.Hayitovning ilmiy ishlari e’tiborga molik. Olimning “Mahbub ul-qulub”da tasavvuf jilolari” hamda “Barkamol inson orzusi” nomli

monografiyalarida “Mahbub ul-qulub”dagi hikmatlarning irfoniy mohiyatiga oid e’tiborli fikr-mulohazalar bildirilgan.

“O‘zbek adabiyoti tarixi”ga doir nashr ettirilgan o‘quv adabiyotlarida “Mahbub ul-qulub” asariga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, akademik B.N.Valixo‘jayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” o‘quv qo‘llanmalari, 2-kitobida (Valixo‘jayev B, 2002, 116-127-betlar), buxorolik olimlar professor R.Vohidov va dotsent H.Eshonqulovning “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” nomli O‘quv qo‘llanmalarida (Eshonqulov H, 2006, 431-438-betlar) “Mahbub ul-qulub” haqida alohida mavzu kiritilgan. Eng muhimi, asar ilk marotaba to‘liq holda Navoiyning “Mukammal asarlar to‘plami” 14-tomida (Toshkent: Fan, 1998. 5-130-betlar) kitobxonlar hukmiga havola etildi. Yangi asrda esa, bu xayrli ish 2010 va 2012-yillarda o‘n tomlik nashr tarkibida qayta amalga oshirildi.

Yuqorida keltirilgan umumiy tavsifdan ma’lum bo‘ladiki, “Mahbub ul-qulub” asarini turli nuqtayi nazardan tadqiq etish ishlari bir yarim asrdan beri davom etib kelayotgan jarayon bo‘lib, har bir davr adabiyotshunosligi, uning vakillari bo‘lgan olimlarning o‘z yutuq va kamchiliklari mavjud. Bular ba’zan hukmron mafkura va uning cheklovlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ba’zan asarning mukammal matni yaratilmaganligi bilan, ba’zan esa oddiy e’tiborsizlik bilan bog‘liqdir. Masalan yuqorida tilga olingan B.Yo‘ldoshevning maqolalarida *“...ovozasi yetti falakdan oshmoq” iborasi shoirlarni madh etish vositasi bo‘lib xizmat qilganligi qayd etiladi: “Va yuz mashaqqat bila bir baytkim bog‘lashturg‘aylar, da’vo ovozasin yetti falakdin oshurg‘aylar”* (Yo‘ldoshev B, 1981, 98-bet). Vaholanki, parchada yuz mashaqqat bilan bir aytsa ham o‘zini buyuk shoir deb da’vo qiladiganlar tanqid qilingan. Yoki N.Komilovning maqolalarida “ishq marotibdur” tarzida keltirilgan birikma aslida Navoiy asarida “ishqqa marotibdur” shaklida keladi.

“Mahbub ul-qulub” asari tadqiqiga bag‘ishlangan barcha ilmiy ishlarda asar tarkibidagi she’riy matnlar yoki parchalarga ham u yoki bu darajada murojaat etiladi. Biroq bu murojaatlar,asosan, misol keltirish shaklida namoyon bo‘ladi. Akad. B.Valixo‘jayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” o‘quv qo‘llanmalari I kitobida

ilk marotaba “Navoiyning nasriy asarlaridagi she’riy parchalar” (Valixo‘jayev B, 2002, 127-140-bet) nomida alohida mavzu kiritilgan. Unda “Mahbub ul-qulub” asari tarkibidagi ayrim she’riy matnlarning janr va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida qimmatli ma’lumotlar va fikr-mulohazalar ham bildirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. (2008). Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma`naviyat.
2. O‘zbek adabiyoti tarixi. (1974) .5 tomlik. 2-tom. – T.: Fan.
3. O‘zbek adabiyoti tarixi. (1974). 5-jild 2 jild. - T .: Fan.
4. Salohiy D. (2012). Navoiy nazmiyoti (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent.
5. Abdug‘ofurov A. (1972). Navoiy ijodida satira. - Toshkent: Fan.
6. Yo‘ldoshev B. (1981). Alisher Navoiy prozasida frazeologizmlar // Alisher Navoiy ijodini o‘rganish masalalari. - Samarqand: SamDU nashri.
7. Alisher Navoiy. (1990). Tarixi anbiyo va hukamo. - Samarqand: ASN bo‘limi.
8. Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin (“Xayratlanganlar beshligi”.
9. Xojiahmedov A.V. (2008). Mumtoz badiyat lug‘ati. - Toshkent: Yangi asr avlodi.
10. Komilov N. (1996). Tasavvuf yoki komil inson axloqi. - Toshkent: Yozuvchi.
11. Hayitmetov A. (1959).Alisher Navoining adabiy-tanqidy qarashlari. - Toshkent: Fan.
12. Hayitov Sh. (1996). - Toshkent: Fan.
13. Karimov I.A. (2009). Adabiyotga e`tibor - ma`naviyatga, kelajakka e`tibor. – Toshkent: O‘zbekiston.
14. Valixo‘jayev B.(2002). O'zbek adabiyoti tarixi (o‘quv qo'llanma). II qism. - Sam.: Nashri SamDU.
15. Vohidov R., Eshonqulov H. (2006). O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (O‘quv qo‘llanma) –T.: Yangi asr.
16. Bertels. E.E. (2015). Navoiy (Rus tilidan I. Mirzayev tarjimasi). - T: Tafakkur qanoti.
17. Valixo‘jayev B. (2002). Mumtoz siymolar. 1 kit. -T.: A.Qodiriy.

18. Hayitmetov A. (1993). Navoiyxonlik suhbatlari. - T .: Fan.
19. Husayniy Atoulloh. Badoyi us-sanoyi. - Toshkent: ...
20. Valixo‘jayev B.(2002). O'zbek adabiyoti tarixi (O‘quv qo'llanma). Sam.: Nashri SamDU.
21. Mallayev N. (1976). O'zbek adabiyoti tarixi. - T .: O'qituvchi.
22. Tohirov S. (2010). O‘zbek she’riyatida aruz. – Samarqand: SamDU nashri.

“NASOYIM UL-MUHABBAT”DA XOJA MUHAMMAD PORSOGA BAG‘ISHLANGAN FASL TALQINI

Muftullayeva Gavhar Yusupovna
NavDPI tayanch doktoranti
gavharmuftullaeva@gmail.com.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada A. Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik peshvolaridan biri bo‘lmish Xoja Muhammad Porsoga ajratilgan fasl tahlil qilinadi va Xoja Muhammad Porso haqida yozishda Navoiyning qaysi manbalarga tayanganligi, bu zot hayoti va ijtimoiy faoliyatiga doir qanday ma’lumotlar tazkiradan o‘rin olganligi borasidagi fikrlar bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Abdurahmon Jomiy, “Nafohat ul-uns min hazorat ul-quds”, “Rashahot ayn ul-hayot”, “Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband”, Mavlono Orif, Junayd Bag‘dodiy, Shamsiddin Fannoriy, Shayx Zayniddin Xavofiy.*

Abstract. *In this article, A. Navoi's work "Nasayim ul-Muhabbat" analyzes the chapter dedicated to Khoja Muhammad Porso, one of the great leaders of the Khojagon-Naqshbandi order, and what sources Navoi relied on when writing about Khoja Muhammad Porso. Also the opinions about his biograpy and social life that are stated in this tazkira are discussed.*

Keywords: *Abdurrahman Jami, “Nafahat ul-uns min hazarat ul-quds”. “Rashahot ain ul-hayot”, “Maqamoti Khoja Bahauddin Naqshband”, Maulana Arif, Junayd Baghdadi, Maulana Shamsiddin Fannari, Sheikh Zainiddin Khawafi.*

Naqshbandiya tariqatining yirik namoyondalaridan biri, Xoja Bahouddin Naqshband hazratlarining eng yaqin kishisi bo‘lmish Xoja Muhammad Porso

haqida XV asrga oid adabiy va tarixiy manbalarda, xususan, bu zotni o'ziga ulug' ustoz deb bilgan mavlono Abdurahmon Jomiyning "Nafohat ul-uns min hazorat ul-quds" tazkirasi va "Risolayi suxanoni Xoja Porso" nomli risolasida, qolaversa, Faxriddin Ali Safiyning "Rashahot ayn ul-hayot", Abul Muhsin Muhammad Boqirning "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" asarida ma'lumotlar keltirilgan. Alisher Navoiyning Jomiy tazkirasiga javoban yaratilgan "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyin ul-futuvvat" asarida ham xojagon-naqshbandiya tariqatining peshvolari zikr etiladi. Bunda muallif Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo", Shayx Farid Shakarganjning shu yo'nalishda yozilgan asaridan foydalanadi hamda turk mashoyixlari, Shuningdek, Abdurahmon Jomiy va o'ziga zamondosh bo'lgan ulug'lar nomlarini tarixga muhrlaydi. (R. Vohidov, H. Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 430-b)

Abdurahmon Jomiy bevosita hazrat Bahouddin Naqshband ruhida ta'lim oladi va u haqidagi asosiy manbalar bilan tanishish, yetuk ustozlardan saboq olishga intiladi. Tadqiqotchi L.M. Karimovaning "Abdurahmon Jomiy va tasavvuf" nomli maqolasida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: *Bahouddin Naqshband hayoti haqida ma'lumot beruvchi birinchi manba Salohiddin ibn Muborakning "Anis ut-tolibin va uddat us-solikin" asari bo'lib, bu asarning 1557-yili Shayx Husayn bin Isomidddin al-Buxoriy tomonidan ko'chirilganligi haqida Jomiy o'z asarida yozib qoldirgan.* (Lola M. Karimova. Abdurahman Jami and Sufism. Journal of positive school psychology. 2022, vol. 6, No. 8, 2866-2874)

Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Xoja Muhammad Porsoga bag'ishlangan faslni tahlil qilar ekanmiz, Navoiyning bu ulug' shayxning ibratli hayot yo'li haqida keltirgan naqllar manbalarini shartli ravishda bir necha guruhga bo'lish mumkin:

1. XV asrga oid adabiy manbalar, tazkiralar ("Rashahot ayn ul-hayot", "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband", "Anis ut-tolibin va uddat us-solikin").

Navoiy tazkirada bu asarlar nomini tilga olmaydi, biroq "debdurlarki", "alarning murid va muta'qidlaridan birov debdurki" kabi jumlalar bilan naqllarni keltiradi. Hazrat Xoja Bahouddin Naqshbandning Hijoz yo'lida qilgan vasiyatlari

“Maqomot”da shunday keltiriladi: *“Tariqat xojalaridan bizga qanday haq va omonat yetgan bo‘lsa va bu yo‘lda nimaiki topgan bo‘lsak, o‘shal omonatni senga topshirdik, chunonchi Mavlono Orif topshirganda qabul qilganingdek, bizdan qabul qil va Alloh xalqiga yetkaz!”* (Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon. Toshkent, 1993. 45-b.) Ana shu ma’lumotlar “Nasoyim ul-muhabbat”da quyidagicha yoritiladi: *“Hazrat Xoja alar haqida buyuribdurlar va o‘z ashobida, huzurlarida alarga xitob qilibdurlarki, haqi va amonatiki, Xojalar xonadoni xulafosidin bu zaifg‘a yetibdur. Va har ne bu yo’lda kasb qilibdur, borini sizga topshirduq. Andoqki, birodari diniy Mavlono Orif topshurdi, qabul qilmoq kerak va ul amonatni xalqqa tegurmak kerak.”* (Алишер Навоий. Мукаммал асарлар туплами. 20 томлик. 17 том. Тошкент. 2001 й. 261 б.)

2. Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns” asari.

Navoiy Xoja Muhammad Porso zikrida Jomiy nomini aynan keltirgan o‘rinlar bor. Ulardan biri hazrat Bahouddin Naqshbandning Xoja Muhammad Porsoga *“...mavhibat nazari bila burx sifotini karomat qilganligi”* haqidagi jumlalarni aniqroq yoritish uchun keltiriladi: *“Hazrati Maxdum Nuran “Nafohat ul-uns”da bitibdurlarki, burx sifoti “Qut ul-qulub” kitobida mazkurdur va yana bir mahal mavhibat nazari bila alarg‘a nafsni bag‘ishladilarki, har ne alar desalar ul bo‘lg‘ay va yana bir mahalda dedilarki, har ne ul desa Haq taolo uni qilur”* (Алишер Навоий. Мукаммал асарлар туплами. 20 томлик. 17 том. Тошкент. 2001 й. 261 б.) Bundan ko‘rinadiki, Abdurahmon Jomiy Abu Tolib al-Makkiyning “Qut ul-Qulub” asari bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Ushbu asar tasavvufiy ruhda yaratilgan bo’lib, “Tasavvuf klassiklari”da quyidagicha ta’riflanadi: *“Qut ul-qulub” ko‘plab mashhur shaxslar va so’fiylarga ta’sir ko’rsatib, sunniy tasavvuf tarixida o’z izlarini qoldirib, islom madaniyati tarixida munosib o‘rin egallagan.”* (Ethem CEBECIOGLU, TASAVVUF KLASIKLERI, 2010, 83.)

Navoiy Jomiy hazratlarining nomlarini keltirgan yana bir o‘rin bu- Mahdumi Nuranning besh yoshga yetar-yetmas Xoja Muhammad Porso bilan uchrashgan chog‘lari va qo‘llariga “bir bosh kirmoniy nabot” berganliklari to‘g‘risidagi

naqldir. Alisher Navoiy ushbu naqlni “Nafohat ul-uns”dan keltiradi. Jomiy uchrashuvdan oltmish yil o‘tib, o‘sha yillarni shunday eslaydi: *“Bu kun ul ta’rixdin oltmish yildirki, hanuz tal’atlarining safosi maning ko‘zumdadur va muborak diydorlarining lazzati maning ko‘nglumdadur va hamonoki ixlos va e’tiqod va irodot va muhabbat robitasi bu faqirg‘aki Xojalar q.d. xonadonig‘a voqe’dur…”* (Алишер Навоий, Мукаммал асарлар туплами, 20 томлик. 17 том, 2001) Navoiy Xoja Muhammad Porso haqidagi faslda ma’lumotlarni aniqroq bayon etish, misollar orqali tushuntirish maqsadida bir nechta shaxslar nomlarini tilga oladi. Quyida nomlari keltirilgan shaxslar Xoja Muhammad Porsoning hayoti va faoliyatiga aloqador bo‘lgan fikrlarni yanada ravshanlashtirish, o‘quvchiga to‘liqroq tushuntirish uchun keltiriladi:

1. Mavlono Orif
2. Sayyid ut-toifa Junayd Bag‘dodiy
3. Mavlono Shamsiddin Fannoriy
4. Shayx Zayniddin Xavofiy
5. Xoja Burhoniddin Abu Nasr

Ushbu nomlari zikr etilgan shaxslardan tazkirada faqat Junayd Bag‘dodiy uchun alohida fasl ajratilgan bo’lib, Imom Shofeiy q. s. ning ulug’roq shogirdi ekanligi, tavallud joyi Bag‘doddaligi keltiriladi. (Алишер Навоий. Мукаммал асарлар туплами. 20 томлик. 17 том. Тошкент. 2001 й. 55 б.) Muhammad Porsoga bag‘ishlangan faslda Sayyid ut-toifa Junayd Bag‘dodiy bilan bog‘liq bo’lgan bir naql keltiriladi. Xoja hazratlari Makkai muhtaramaga safar qilib, haj arkonini bajarib qaytar chog‘larida so‘fiylar peshvosi Junayd q.t.s. huzurlariga kelib, haj ziyoratlarining qabul bo‘lganligini bashorat qiladi. Shu o‘rinda Navoiy sahih bir hadis keltiradi: *Rasululloh s.a.v. dedi: Mendan keyin payg‘ambarlik bo’lmaydi. Faqat bashoratlar bo’ladi. Mo‘min kishi bu bashoratlarni tushida ko‘radi yoki unga ko‘rsatiladi. Bu hadisning sahihligiga ittifoq qilingan.* (Алишер Навоий. Мукаммал асарлар туплами. 20 томлик. 17 том. 2001,) Mavlono Shamsiddin Fannoriy hamda Shayx Zayniddin Xavofiy nomlari Xoja Muhammad Porso hazratlarining vafoti bilan bog‘liq o‘rinlarda keltiriladi va bu shaxslar haqida

tazkiraning boshqa fasllarida so‘z ketmaydi. Asarda Mavlono Fannoriy va Madina ahli Xoja vafotidan so’ng namoz o‘qiganligi hamda Xavofiy Misrdan ul kishining qabrlari ustiga lavh uchun bir oq tosh yo‘ndirib kelgan shaxs sifatida zikr etilgan. Xoja Burhoniddin Abu Nasr Xoja Muhammad Porsoning farzandi ekanligi aytilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Alisher Navoiy ushbu faslda Xoja Muhammad Porsoga aloqador bo‘lgan ma’lumotlarni yuqorida aytilgan asarlarga tayangan holda keltiradi va bunda, xususan Jomiy hazratlarining “Nafohat ul-uns” asarining o’rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon. Toshkent, 1993-yil.
2. Lola M. Karimova. Abdurahman Jami and Sufism. Journal of positive school psychology. 2022, vol. 6, No. 8, 2866-2874.
3. R. Vohidov, H. Eshonqulov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 430-b.
4. Ethem CEBECIOGLU. TASAVVUF KLASIKLERI. Anqara, 2010. 83.
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар туплами. 20 томлик. 17 том. Тошкент. 2001 й.

ALISHER NAVOIYNING TA’LIMIY-AXLOQIY QARASHLARI

Mustafoyev Javlon Zafar o‘g‘li

ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti 3-kurs talabasi

mustafoyevjavlon1@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari Xamsaning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”ning oltinchi maqolati, yettinchi maqoloti hamda o‘n birinchi maqoloti misolida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, adab, tavoze ,qanoat ,ilm, axloq.*

Abstract. *In this article, Alisher Navoi's educational and moral views are revealed on the example of the sixth article of the first epic “Hayrat ul-Abrar”, the chapter of literature, the seventh chapter of Qanaat, and the eleventh chapter of knowledge.*

Keywords: *Alisher Navoi,manners,humble,satisfaction,science,ethics.*

Alisher Navoiy yaratgan ijod ma'naviyatimizning betimsol qomusi. Alisher Navoiy har bir insoning ilm o'rganish uchun harakat qilishini kamoloti uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilat deb biladi. Ilm insonni, xalqni jaholatdan qutqaruvchi omil ekanligini ta'kidlaydi. Asarlarining mazmuni ham kishilarni ma'rifat, yuksak axloq egalari bo'lishiga undaydi. Navoiy bilimli va dono kishilar hamisha o'z xalqining manfaati hamda mamlakat ravnaqi yo'lida xizmat qilishga ishonadi. Navoiy asarlari mazmunida o'z aksini topgan har bir fikr amaliy ahamiyatga ega, zero, mutafakkir ularni o'zining ulkan hayotiy tajribasiga tayangan holda bayon etadi.

Navoiy uzoq yillik ijod mahsuli, ulkan tajriba yakuni sifatida "Mahbub ul-qulub" (Qalblarning mahbubi) asarini yozib tugatdi. Ushbu asarda "Hayrat ul-abror" va "Nazm ul-javohir" kabi asarlarida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy qarashlarini mazmunan yanada boyitadi. Alisher Navoiy insonga xos bo'lgan ma'naviy- axloqiy xislatlari xususida so'z yuritib, ularga to'la ta'rif berib o'tadi. Qanoat, sabr, tavoze (adab), rahmli bo'lish, vafodorlik, yumshoq so'zlik (hilm) kabi ana shular jumlasidandir. Navoiy mazkur xislatlarni tavsiflashdan tashqari munofiqlik, zulmkorlik, yolg'onchilik, sabrsizlik kabi illatlardan qutulishiga ham da'vat etadi.

Alisher Navoiyning odob, hayon va xokisorlik haqidagi qarashlari "Hayrat ul-abror" dostonining oltinchi maqolatida o'z ifodasini topgan. Bobning sarlavhasida shoir adabni baxtiyorlik kaliti, eng ko'p qadrlanadigan insoniy fazilat, hayo bilan xushtavozelikni esa odobning asosiy shartlaridan deb ta'kidlagan. Navoiy aytadiki sadoqat yo'lida oh-u nadomat chekib, yolg'on yuzini ohing o'tidan chiqqan tutunlar bila qora qilding. Sen o'zing uchun biron foydani ko'zlamaysan, doim safar kamarini bog'lab xizmatdasan. O'zingda kuchli g'ayrat shamolini bunyod etib, xirs-u tama asbobi- anjomlarini barbod qilasan. Sen shunday yo'lni tanlab, (eng asosiy) tilaging ko'chasiga kirding. Lekin bu yo'lni bosib o'tishning bir sharti, bilki tavoze bilan adabga ega bo'lishdir. Qachonki yangi chiqqan oy tavoze saqlab, qaddini ham qilsa, u kun sayin kamol topa

boshladi.Yoy tavoze sifatiga ega bo‘lgani uchun qadri oshib “Qur’on” ustidan joy oldi. Osmon ham tavozega rioya qilib egilgani uchun butun olam uning amriga bo‘ysundi.

Haqiqiy sharaf hayo va adabdan keladi. Yomg‘irning manbayi ham hayodir, uning bir qatrasi tuprog‘ni kimyo qiladi. Har bir inson obro‘-e’tibor hurmatga yaxshi fazilatlar egasi bo‘lgani tufayli erishadi. Adabsiz kishilar esa hech qachon e’tibor qozonmaydilar. Baland osmon (taqdir) doim bunday odamlarni pastlatib yuradi. Navoiyning talqininga ko‘ra, insonga sharaf keltiruvchi narsa mol-dunyo, mansab yo nasl-nasab emas, balki insonni jamiyatning gultojiga aylantiruvchi narsa uning odobidir:

Elga sharaf bo‘lmadi joh-u nasab,

Lek sharaf keldi hayo-u adab. (SH. Sirojiddinov, D. Yusupova, O. Davlatov. Navoiyshunoslik/darslik.- Toshkent: “Tamaddun”,2019. 86-bet)

Mutafakkir insondagi go‘zal fazilatlarni aytib, bu jihatlar shaxsni kamolot sari yetaklashi, boshqalar oldida izzatda bo‘lishiga sabab bo‘lishni aytishdan tashqari, insonning hurmatini tushuruvchi ularni boshqalar oldida izza bo‘lishiga sabab bo‘luvchi fazilatlarlarga ham to‘xtaladi. Kulgi adabsizlikning belgisi, Kaklik qahqaha solib kulgani tufayli boshiga balo keldi (ya’ni ovchilar ovozidan bilib, ovlab oladi). Navoiy bunday illatlarni hayo va adab yo‘li bilan daf qilish lozimligini ta’kidlaydi.

Navoiy asarlarida tasvirlangan qahramonlar: Farhod, Qays, Iskandar obrazlarida jismoniy yetuklik hamda axloqiy kamolot o‘z ifodasini topgan. Insonning sog‘lom, va yukak axloqli bo‘lib yetishishi xususidagi o‘gitlar allomaning didaktik-axloqiy asarlarida markaziy o‘rin egallagan. Alisher Navoiy alohida e’tiborni inson kamolotidagi tarbiyaga qaratadi. Tarbiyaning biri bolaga yaxshi ism qo‘yish bo‘lib, oti bilan chaqirilganida uyaladigan bo‘lmasligi kerak. Tarbiyaning yana biri omili ilm-u adab o‘rgatuvchi muallimdir. Tarbiyaning yana bir jihati ota-onani hurmat qilishga o‘rgatishdir. Navoiyning e’tiqodida bu ikkisiga xizmatni birdek qilish, xizmat qancha ortiq bo‘lsa ham, kam deb bilish zarur:

Boshni fido ayla, ato qoshig‘a,

jismni qil sadqa ano boshig‘a.

Tun kunungga aylagali nur fosh,
Birini oy angla, birisin quyosh.(Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. -Toshkent: 1989.)

Ya'ni otang uchun boshingni fido qilib, onang uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi.

Alisher Navoiy insondagi yuksak fazilatlar qatoriga qanoatni ham qo'shadi. Shoirning e'tiroficha kimki qanoatli bo'lsa, qanoat uni boy qiladi. Bu borada xamsaning qanoat ta'rifidagi yettinchi maqolati alohida ajralib turadi. Mazkur maqolotda qanoat tushunchasi chiroyli tashbehlar va tamsillar vositasida ifodalab berilgan.Masalan, osmon qanchalik katta bo'lmasin, u bitta kulcha, ya'ni quyosh bilan kun kechiradi. Ko'z doim shuning uchun ravshanki,u mehrob ostida turib, ikkita bodom bilan oziqlanadi. Navoiy boylik bilan o'zingni katta deb bilma, qanoat boyligi bilan boshingni ko'tarib yur deydi. Kimki qanoatni mahkam ushlagan bo'lsa, uning ahvolida bu xil qiyinchiliklar yuz bermaydi. Navoiy mehnat qilib ikki chaqa pul topish shoh in'om qilgan xazinadan yaxshiroq, qanoatli inson o'zgalarning moliga ko'z tikmasligi, boshqalardan yordam kutib o'tirmasligi, bu yo'lda o'zi harakat qilib qanoat bilan yashamog' kerak deydi.

Maqolat Qanoatli va qanoatsiz ikki do'st" haqidagi hikoyat ilova tarzida keltirilgan bo'lib, unda qanoatli va qanoatsiz ikki do'sting Fors mulkidan Chin mamlakati tomon safar qilgani tasvirlanadi. Hikoyat oxirida esa qanoatli do'st mukofotlanishi, qanoatsiz do'st esa xor-u zor bo'lishini ko'ramiz.Navoiy kimki Xudo bergan ehsondan xursand bo'lsa, bu dunyoda ham, u dunyoda ham baxtli bo'ladi. Kimki qanoatni tark etishni shior qilgan bo'lsa, bu tama uni el ichida xor qiladi, izzat tilar ekansan, qanoat qil, qanoatlining joyi izzat taxtidir, deydi: Hayrat ul-abrorning o'n birinchi maqolotida ilm o'rganish, olimning jamiyatdagi mavqeyi, ilm talabidagi riyozatlar haqida so'z yuritiladi. Navoiyning ilm va olimlik haqidagi fikrlari, asosan,quydagilardan iborat:ilm yo'li fidoyilik va irodani talab qiladi; maktab va madrasa ko'rganlarning hammasini ham olim deb bo'lmaydi - olimlik tug'ma iste'dod, kuchli iroda hamda uzoq yillik riyozyat orqali qo'lga kiritiladi;ilm olish, bilimli bo'lish insonga obro' va sharaf keltiradi;ilm shunday boylikki, unga anal qilgan inson bilan bir umrlik sadoqatli do'st sifatida

qoladi; haqiqiy olim jamiyatning bebaho boyligi va uning kamolot ko‘zgusidir; ilmni boylik orttirish, mansab pillapoyalarini egallash vositasi qilgan odam johil va gumroh kishi hisoblanadi. Haqiqiy ilm – odamlarga manfaat yetkazadigan va oxirat koriga yaraydigan ilimdir. Bunday bilim egasi bo‘lgan kishi o‘tkinchi havaslar va muavaffaqiyatlar ketidan quvmaydi.

Navoiyning fikricha, ilmning vazifasi insonning baxt-saodatiga xizmat qilishdir. Shu asosda Navoiy ustozni dunyodagi eng sharafli kasb sohibi sifatida ta’kidlaydi.

Alloma ayni o‘rinda ilmni qorong‘ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo‘lini ravshanlantiruvchi quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko‘rsata oluvchi omil sifatida ta’riflaydi. Navoiy ilmda birodam sohibqiron bo‘lguncha o‘ttiz yilda bir davr kelishi kerak deydi:Ilm olishni kasb etgan inson ko‘nglini bir daryoga aylantirib, bir qatraga butun bir daryoni yashiradi:

Johil agar ulduru olim budur,

Olim emas, o‘ziga zolim budur.

(Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. -Toshkent: 1989.)

Navoiy baytda olim bilan johilni muqoyasa qiladi, kimki amalga erishish uchun ilmni vosita qilsa, o‘zini ham, xalqni ham yo‘ldan adashtiradi. Olim agar amal uchun pastkashlik qilsa, ilmi uning bilimsizligiga dalildir deydi. Olim o‘z yo‘liga qat’iy amal qilsa, ilmiga qarab ish tutsa, dunyoning harom mollariga ko‘z tikmasa, o‘tkinchi dunyoga berilmasa, bunday odamni sharaf gavharining koni deb bil, gavhar desang ham, kon desang ham bo‘laveradi.

Alisher Navoiy ilmli va ilmsiz insonlarni takrorlanmas tashbehlar bilan ko‘rsatib, ularning yutuq va kamchiliklarni sanab o‘tib, maqolot so‘ngida Imom Faxr Roziy bilan Sulton Muhammad Xorazmshoh o‘rtasida bo‘lib o‘tgan mashhur hikoyat bilan fikrlarini dalillaydi. Alisher Navoiy hayotda maqsadni belgilab ana shu maqsadning ro‘yobga chiqish yo‘lidagi harakatda oxirigacha matonatli va sabotli bo‘lishni maslahat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. (1989). Hayrat ul-abror. Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU.
2. K.Hoshimov, S. Nishonova. (2005). Pedagogika tarixi. II qism.
3. B. Qosimov, B. (2008). O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalar tarixi. Toshkent: “Fan va texnologiya”.
4. SH. Sirojiddinov, D. Yusupova, O. Davlatov. (2019). Navoiyshunoslik. Toshkent: Tamaddun.

NAVOIY “XAMSA” SIDA ME’ROJ KECHASINING BADIIY TALQINLARI

Nizomova Ismigul Zarif qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti
ismigulgull88@mail.com

Annotatsiya. *Sharq musulmon adabiyotida Me’roj kechasi voqealarini o‘ziga xos tarzda bayon etgan asarlar talaygina. Bu asarlar g‘oyasi jihatidan rang-barang tasvir va xususiyatlarga ega. Me’roj kechasi voqealaridan hassos qalb sohibi hazrat Navoiyning ham ta’sirlanganligini “Xamsa” asarini o‘qish davomida guvoh bo‘lamiz. Ushbu maqolada Navoiyning “Xamsa” tarkibidagi dostonlarida Me’roj kechasining badiiy tasvir va talqinlari haqida fikr yuritilgan va ayrim mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Muhammad s.a.v, na’t, badiiy tasvir, timsol, meroj kechasi, payg‘ambarlar, Buroq, ummat, namoz.*

Abstract. *In Eastern Muslim literature, there are many works that describe the events of the night of Miraj in their own way. These works have colorful images and ideological features. When reading the work "Khamsa" we will become witnesses to the fact that Hazrat Navoi, the owner of a sensitive heart, was also affected by the events of the Night of Miraj. This article discusses the artistic images and interpretations of the Night of Miraj in Navoi's epos "Khamsa" and some comments are given.*

Keywords: *Muhammad S.A.V., na't, artistic image, symbol, night of Miraj, prophets, Buraq, prayer.*

Adabiyot tarixida shunday asarlar yaratilganki, zamonlar oshsa-da, qiymati yanada yuksalib boraveradi. Mana shunday asarlar qatorida Me'roj kechasi voqaelarini tasvirlagan bir qator diniy va badiiy ruhda yozilgan asarlarni kiritish mumkin. Bu haqida uzun- qisqa so'zlar yozilgan kitoblar ko'p bo'lsa ham, ammo haqiqat ila yozuvchilar ozdir. Xususan, Sharq musulmon adabiyotida yaratilgan va adabiyot ixlosmandlarining sevimli mavzusini yoritgan "Merojnoma" asari mavjuddir. Bundan tashqari islom dinining muqaddas kitobi "Qur'on"dagi ba'zi oyatlarga, sahih hadislar jamlangan "Al- jome as-sahih" ga tayanib o'z qarashlarini yoritgan va tarixiy haqiqatni bayon etgan bir qancha diniy asarlarni ham uchratishimiz mumkin. Bu kabi asarlarning asl g'oyasi ushbu tarixiy voqeani o'z nuq'tayi nazaridan tasvirlash va ommaga yetkazishni maqsad qilgan bo'lsa, ajab emas.

Manbalar tahlili. Me'roj- insonning aqli tasavvur qila olishi mahol bo'lgan ilohiy bir hodisadir. Ya'ni, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning masjidi Aqsodan osmonga ko'tarilishi va Alloh subhanahu va taolo bilan suhbatlashish voqeasidir. Islomiy oylardan bo'lmish Rajab oyida buyuk mo'jiza yuz bergan. Ushbu oyning 27- kuni Rasuli akram ikki yo'lchilik qilgan. Birinchisi – yerdagi yo'lchiligi, ikkinchisi esa samo yo'lchiligi. Farishta Jabroil (alayhissalom) Rasululloh (s.a.v) huzuriga qanotli tulpor – Buroqni olib keladi va payg'ambarimizga xushxabar yetkazadi: *"Ey Allohning Rasuli, bugun sen samo ziyoratiga taklif etilding!"*.

Bu haqida "Isro" surasining birinchi oyatida shunday marhamat qilingan:

إِنَّهُ آيَاتِنَا مِنْ لِنُرِيَهُ حَوْلَهُ بَارَكْنَا الَّذِي الأَقْصَى الْمَسْجِدِ إِلَى الْحَرَامِ الْمَسْجِدِ مِّنَ لَيْلاً بِعَبْدِهِ أَسْرَى الَّذِي سُبْحَانَ البَصِيرُ السَّمِيعُ هُوَ **(1)**

(Pok Parvardigor bir kecha, o'z bandasi (Muhammad alayhissalom) ni- unga oyat mo'jizalarimizdan ko'rsatish uchun (Makkadagi) Masjid-ul Haromdan Biz atrofini barakotli qilib qo'ygan (Quddusdagi) Masjid-ul Aqsoga sayr qildirdi.

Darhaqiqat, U Eshitguvchi va Ko‘rguvchidir. (Shayx Alouddin Mansur. “Qur’oni azim muhtasar tafsiri”. 1-qism. 2019, 567-b)

Payg‘ambarimiz s.a.v Masjid-ul Haromdan Jabroil boshchiligida Masjid-ul Aqsoga va u yerdan Buroq otida yetti qavat osmonga sayohat etadilar. Muhammad s.a.v osmonning birinchi qavatida Odam alayhissalomni ko‘rdilar. Rasulullohning (s.a.v) o‘ng va chap tomonida turli odamlar bor edi. Rasululloh o‘ng tomondagi insonlarga qarab kuldilar. Chap tomondagi insonlarga qarab yig‘laydilar. Allohning Rasuli (s.a.v) Odam alayhissalomdan so‘radilar:

- *Bular kimlar?*
- *Ey Allohning Rasuli! O‘ng tarafingdagi insonlar jannat ahli, chap tarafingdagi insonlar esa do‘zahiylardir.*

Ikkinchi qavatda Yahyo va Iso payg‘ambarlarni uchratadilar. Uchinchi qavat osmonida Yusuf alayhissalomni ko‘radilar. Rasululloh (s.a.v) shunday deganlar: *“Me’roj kechasi Yusufni dunyo go‘zalligining yarmi berilgan holda ko‘rdim*.

To‘rtinchi qavat osmonda Idris alayhissalom, beshinchi qavatda Xorun alayhissalom, oltinchi qavatda Muso alayhissalom va yettinchi qavat osmonda Ibrohim alayhissalom bilan uchrashadilar. Undan so‘ng Sidrat ul-Muntahoga o‘tdilar. Rasulullohning (s.a.v) aytishlaricha, bu yerda Allohning ilohiy qudratidan dalolat beruvchi til ta’riflashga ojiz bo‘lgan daraxt bor ekan.

Yuqorida muqaddas kecha haqida “Qur’on” va sahih hadislarda keltirilgan ayrim ma’lumotlar bilan tanishdik. Endi so‘z mulkining sultoni- Navoiy hazratlarining ushbu kecha tasvirini berishdagi ayrim jihatlarni ko‘rib chiqamiz.

Turkiy xalqlar ma’naviy xazinasiga beqiyos hissa qo‘shgan yirik so‘z san’atkori Alisher Navoiy hazratlarini ham ushbu muqaddas kecha ta’sirlantirmay qolmadi. Adibning yirik shoh asarlaridan biri “Xamsa”da Me’roj kechasi badiiy jihatdan tasvirlanib qolmay, balki timsol va obrazlarga yangicha ruhda vazifalar yuklangan. Hazrat Navoiy “Xamsa” tarkibidagi har bir dostonning na’t (payg‘ambar madhi) qismida, bu voqeaga maxsus to‘xtaladi va har birini tasvirlashda o‘ziga xos yo‘ldan boradi. Ijodkordagi serqirralik, so‘z tanlashdagi mahorat va turli qiyosiy o‘xshatishlardan mohirona foydalanganligiga yana bir bor shohid bo‘lamiz.

“Xamsa” tarkibidagi birinchi “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) dostonida Navoiy mahoratini tun tasvirlanishida, Alloh xabarining keltirilishida, har bir sayyoraning holati bayonida va oxirida Payg‘ambarimizning oldingi va oxirgi holatini berishda ko‘rsak, ikkinchi doston “Farhod va Shirin”da Payg‘ambarga berilgan timsollar, o‘n ikki burj tasvirlarida, uchinchi doston “Layli va Majnun”da ham burjlar tasvirining davom etishi, to‘rtinchi doston “Sab’ai sayyor” (Yetti sayyoh) da farishtalarning Muhammad s.a.v ning yuzidagi porloq nurdan hayratga tushgandagi shovqin-suron tasvirlari hamda yakuniy doston “Saddi Iskandariy” (Iskandar devori) da Payg‘ambar Haq taolodan o‘zi uchun maxfiy bo‘lgan narsalar haqida javob olishi va Allohning ummatga berilgan sevinchli xabarini tasvirlashda ko‘ramiz.

“Hayrat ul- abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) dostonida Navoiy kechani shunday tavsif etadi:

Bir kecha zulmatka qolib koinot,
Mehr nihon o‘ylaki aynul- hayot.
Garchiki ul chashma nazardin qochib,
Xizr ko‘k uzra qatarotin sochib.
Tun qilibon gardini anbarsirisht,
Butratibon yerga nasii behisht.
Yer kuraviy shakl ila mijmar bo‘lub,
Kecha savodi anga anbar bo‘lub.
O‘t kibi yer mijmari ostida mehr,
Yopib etak mijmara uzra sipehr.
Yog‘ibon orom-u sukun yog‘ini,
*Past qilib hodisa tufrog‘ini (*Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”. 1989, 27-b*).*

Bu baytlarni shunday tushunmog‘imiz kerak: “Kechalarning birida koinotni qorong‘ulik bosib, quyosh obihayot bulog‘idek yashiringan edi. Garchi u buloq ko‘zga ko‘rinmasa ham, Xizr ko‘k uzra undan qatralar sochardi. Tun changlarini anbarga aylantirgan, ularni Jannat shabadalari Yer uzra tarqatar edi. Yer yumaloq shakldagi xushbo‘y idishga aylanib, tun qorong‘uligidan unda anbar

tayyorlanayotgan edi. Yer idishi ostida Quyosh o‘t yoqayotgan, idishni esa Osmon o‘z etagi bilan yopib turgandek ko‘zga tashlanardi. Orom va tinchlik yomg‘iri yog‘ib, yuz berayotgan hodisalar to‘zonini pasaytirishga intilardi”

Qosidi qudsiy chu salom aylabon,

Haq soridin arzi payom aylabon.

Debkim, ayo mahzani asrori shavq,

Haqdin erur vaslingga izhori shavq.

Chunki nabiy mujdayi jonon topib,

Mujdayi jonon chu topib jon topib.

Yuqoridagi Jabroilning xabar yetkazgandagi tasviri ham e’tiborli jihatlardan biridir. Navoiy ushbu holatni shunday tasvir etadi. Allohning pok xabarchisi unga salom qilib, Alloh nomidan unga ma’lumot berib dedi: “Ey shavqli sirlarning xazinasi! Alloh seni ko‘rishga o‘z shavq-u istagini bildirmoqda. Chunki Payg‘ambar jonon xabarini topgan ekan, uning jonon xabarini topgani yangidan jon topganidir. Bu yerda e’tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan jon va jonon so‘zlarini adib qay tarzda va qay holatda qo‘llayotganligi.

Navoiyning mahorati shundaki, har bir dostonda Me’roj kechasini tasvirlar ekan Payg‘ambarimiz Allohdan ummat gunohlari uchun avf so‘raydilar va bu har bir dostonda kuchayib boraveradi va yakuniy dostonda Alloh mujda xabar bilan Rasulullohni sevintiradilar.

Navoiy “Farhod va Shirin” da Payg‘ambarni “Chirog‘” timsoli orqali tasvirlaydi: “Bu oqshom olamni yoritguvchi Chirog‘ ichi sham vasli o‘tida kuygan holda bir go‘shada onalarcha mehmonnavozlik qilib turar ekan, ko‘p sirlarni ichida saqlagan Allohning elchisi yetib keldi (Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” Nasriy bayoni. 2020, 132-b).

Bu oqshom ul charog‘i olamafro‘z,

Ichinda vasl shami o‘tidin so‘z (Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” Nasriy bayoni 2020, 12-b).

“Saddi Iskandariy” (Iskandar devori) da Xamal burji Muhammaddek mehribon kishini topgach, Muso (payg‘ambar) singari cho‘pondan voz kechdi kabi o‘xshatish va qiyoslashlarga duch kelamiz:

Hamal chun aningdek topib mehribon,

Kerakmas debon Muso yanglig‘ shubon (Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”. Nasriy bayoni bilan. 2020, 18-b).

Payg‘ambar yog‘dusidan lavha yuzi ham yorishib ketdi. Uning tashrif buyurishidan qalamga kushoyish yetib, ko‘z tegmasligi uchun “in yakod”- ‘yaqin bo‘lsak” oyati yozila boshladi degan tasvirlar mavjud:

Qalamg‘a yetib maqdamidin kushod,

Yozib chashmzaxmi uchun “in yakod” (Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”. Nasriy bayoni bilan. 2020, 19-b).

Bundan tashqari “Xamsa” tarkibidagi dostonlarda Payg‘ambarimizning oldingi va oxirgi holatini berishda alohida ahamiyat berilgan. Agar U (Payg‘ambar) Arshga g‘uncha bo‘lib borgan bo‘lsa, Yerga toza guliston bo‘lib qaytdi; zarra bo‘lib borgan bo‘lsa, porlagan Quyosh bo‘lib qaytdi.

Me’roj kechasi Payg‘ambarimizga uch narsa beriladi:

1. Baqara surasining oxirgi oyati- Amanar Rosulu.
2. Ummatidan Allohga sherik qo‘shmaganlarning jannatga kirish xushxabari.
3. Me’roj hadyasi sifatida besh vaqt namoz farz bo‘ldi.

Me’rojda Alloh taolo tomonidan qilingan hukmlar juda ulug‘dir. Ulardagi ilohiy xabarlar Islom dinining ma’naviy asosini tashkil qiladi. Bu hukmlar insonlarni diyonatli, yaxshi xulqli, mehr-muruvvatli, halol va pok bo‘lishga hamda harom va nopoklikning turli ko‘rinishidan hazar qilishga chorlaydi. Ushbu hukmlar “Isro” surasi (Tungi sayr) ning ba’zi oyatlarida bayon qilingan.

Me’roj kechasida Muhammad alayhissalomga dinimizning asoslaridan va ustunlaridan bo‘lgan eng muhim ish namoz farz qilindi. Alloh taolo ushbu vazifani Rasululloh s.a.v. ni o‘z huzuriga chaqirib topshirdi. Albatta bunda chuqur ma’no va hikmatlar mujassamdir. Ushbu kecha orqali Alloh taolo Muhammad Mustafo s.a.v ning oddiy yo‘lboshchi emas, butun anbiyolar jamoasining peshvosi ekanini bildirdi.

Alisher Navoiy islom olamidagi favqulodda muhim voqea bo‘lgan – Me’roj kechasini o‘ziga xos poetic usulda vasf etadi.

1. Me’roj tuni “Xamsa” dostonlari muqaddimalarida izchil yuqori poetik uslubda bayon etilgan.

2. Me’roj kechasining muhim jihatlari ta’sirli shaklda badiiy talqin qilingan.

Me’roj vasfida Navoiy g‘azaliyotida bo‘lgani kabi betakror o‘xshatishlar qo‘llangan va bu jihat poetik bayonni badiiy-estetik ta’sirini oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

.1. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”. (1989). O‘zbek adabiyoti bo‘stoni. Nasriy bayoni bilan. (Mas’ul muharrir Vahob Rahmonov) (352) T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

2. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” (2020). Nasriy bayoni. (Tuzuvchi -Vahob Rahmonov). (528). T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

3. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”. (2020). Nasriy bayoni bilan. (Tuzuvchi V. Rahmonov). (640). Toshkent G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

4. Shayx Alouddin Mansur. (2019) “Qur’oni azim muhtasar tafsiri”. 1-qism. (982) T.: “O‘zbekiston” NMIU. 1-qism. – 982 b.

XAMSACHILIK AN’ANASIDA FARHOD OBRAZINING BOSH QAHRAMON DARAJASIDA TASVIRLANISHI

Omonova Gulbahor Oxunjon qizi

ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik mutaxasisligi 2-kurs magistranti

bahor997@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xamsachilik an’anasida Farhod obrazining bosh qahramon sifatida tasvirlanishi hamda ushbu obrazning o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalib o‘tilgan. Orif Ardabiliyning “Farhodnoma” hamda Alisher Navoiyning“Farhod va Shirin”dostonlaridan keltirilgan misollaga, asar syujetiga qisqacha ta’rif berilgan. Ushbu misollar vositasida ikki adib asarlarida qo‘llangan obrazlar orasidagi farqli hamda o‘xshash jihatlar aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *Xamsachilik, an’anaviylik, novatorlik, obrazlarning o‘ziga xos xususiyatlari, Ardabiliy, Alisher Navoiy*

Abstract. *In this article, the depiction of Farhad as themain character in the tradition of Khamsism and the peculiarities of this image are discussed. Examples from the “Farhad and Shirin” of Alisher Navai and “Farhadnoma” of Orif Ardabili are briefly described in the plot of the work. B means of these examples, the differences between the images used in the works of two poets , as wel as similar aspects,are identified.*

Keywords: *Khamsaism, traditional, inventiveness, pecularities of characters, Ardabili, Alisher Navai.*

Xamsachilik an’analarini boshlab bergan buyuk so‘z san’atkori ozarbayjonlik shoir Nizomiy Ganjaviydir. Xamsa-beshlik, besh doston demakdir. Nizomiy Ganjaviyning ikkinchi dostoni “Xusrav va Shirin” deb nomlanadi. Bunda Xusrav tarixiy shaxs bo‘lib, milodiy 590-yilda taxtga chiqib, 628-yilda o‘z o‘g‘li Shuruyaning buyrug‘i bilan o‘ldirilgan Eron shohidir. Xususan, Alisher Navoiy o‘zi ham “Tarixi muluki ajam” asarining Sosoniylar tarixiga bag‘ishlangan qismida Xusrav Parvez haqida ma’lumot beradi. Nizomiy “Xusrav va Shirin” dostonida Farhodni ikkinchi darajali timsol sifatida, o‘z badiiy maqsadini ochishda bu obrazdan foydalanadi.

Bizga ma’lumki, maktab darsligining 9-sinf adabiyot kitobida “Farhod va Shirin” mavzusida, *“...Doston Navoiygacha “Xusrav va Shirin” shaklida mashhur edi. Ularda markaziy obraz shoh Xusrav edi. Lekin u-komillikdan yiroq, ishqda beqaror, muhabbatdan toj-u taxtni ustun biluvchi xudbin shaxs. Shuning uchun Navoiy uni Shirinning muhabbatiga ham, yozilajak dostonidagi bosh obraz darajasiga ham loyiq ko‘rmaydi. U Farhodni bosh obraz qilib oladi va bu bilan dostonning qurilishi, mazmunini tamomila o‘zgartiradi. Mazkur o‘zgarish xamsachilikka shoir kiritgan eng katta yangilik va dostonga “Farhod va Shirin” nomi berilishiga asos bo‘ldi”.* (9-sinf Adabiyot darsligi, Yo‘ldashev, Q., Qodirov, V., Yo‘ldashbekov, J. 2019, 54-bet).

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni 1484-yilda yozib tugallangan. Asar muqaddimasida bu mavzuda qalam tebratgan ijodkorlar sifatida Nizomiy, Dehlaviy, Ashraf Marog‘iylarni eslab o‘tarkan, yana bir noma’lum ijodkorga ishora qilib o‘tadi:

Yana bo‘lg‘on ekan bu noma marqum,
Vale roqim emastur yaxshi ma’lum.

Adabiyotshunoslikda ushbu noma’lum ijodkor aynan Orif Ardabiliy bo‘lishi mumkin degan qarashlar mavjud. (Sirojiddinov, Sh., Yusupova, D. Davlato, O. Navoiyshunoslik, 2019,102-bet).

Farhod obrazining bosh qahramon qilib olinishi, Xamsachilik an’analarida ozarbayjonlik shoir Orif Ardabiliyning “Farhodnoma” (1369) nomli fors-tojik tilida yozilgan dostoni bilan boshlanadi. Orif Ardabiliy saroyda yashab ijod qilgan. Uning bizgacha birgina “Farhodnoma” dostoni yetib kelgan. Nushoba Arasli Istanbuldagi Avliyo Sofiya kutubxonasida saqlanayotgan “Farhodnoma”ning yagona nusxasini sotib olib, ko‘chirib keladi. U ilk bor asar nusxasi asosida ilmiy tadqiqot ishini yozdi, ayrim masalalarni ilmiy asosda izohladi.

O‘zbek kitobxonlariga “Farhodnoma” asari tanish bo‘lmaganligi uchun dostonning mazmuni haqida qisqacha so‘zlab o‘tishga to‘g‘ri keladi. Farhod Chin xoqonining o‘g‘lidir. U quvnoq shahzoda, kunlarini sharob ichib o‘tkazadi. Farhod o‘ziga muhtasham saroy qurdirmoqchi bo‘ladi. Olamga dong‘i ketgan mashhur ustalar bu ishga da’vat etiladi. Farhodning o‘zi ham saroy qurilishida faol ishtirok etadi. Ustalar orasida Chinga naqqoshlik hunarini o‘rganish uchun kelgan Shopur ham bor. U saroyning bir devoriga abxaziyalik mashhur ustaning qizi Gulistonning suratini chizadi. Shopurning yuksak mahorat bilan yaratgan bu surati Farhodning diqqat-e’tiborini o‘ziga tortadi va u Shopurni o‘z huzuriga chaqirib, surat haqida surishtiradi. Shopur Farhodga Abxaziya o‘lkasi, u yerdagi mashhur toshtarosh, uning go‘zal qizi Guliston to‘g‘risida so‘zlab beradi. Shu orada Farhodning otasi vafot etib, amakisi taxtga chiqadi va Farhodning onasiga uylanadi. Amakisi va uning farzandlari Farhodga munosabati yomonlashadi. Farhod bu mushkuldan qutilish uchun Shopurdan o‘zini Abxaziyaga olib ketishini iltimos qiladi. Farhod,

Shopur va Muqbil tun qorong‘usida yo‘lga ravona bo‘ladilar. Ular o‘zlarini tilanchi, ko‘r vaziyatiga solib, sog‘-salomat Abxaziyaga yetib boradilar.

Abxaziya hukmdori ularni qabul qiladi. Shopur Farhodni shohga mashhur naqqosh sifatida tanishtiradi. Shundan so‘ng abxaziyalik usta, ya’ni Gulistonning otasi Shopur sharafiga ziyofat beradi. Shu ziyofarda Farhod Gulistonni ko‘radi va bir ko‘rishdayoq unga oshiq bo‘lib qoladi. Guliston ham o‘z navbatida Farhodni yaxshi ko‘radi. Farhod Shopurni ustanikiga sovchilikka borishga ko‘ndiradi. Shopur Farhod uchun sovchilikka borarkan, uning shahzoda ekanligini aytadi. Lekin usta qizini o‘zi kabi oddiy toshtaroshga uzatishga ahd qilganligini bildiradi.

Farhod qalbidagi ishq alangasida erta tongdan usta bilan baravar ish boshlaydi. Dastlabki kunlardayoq Farhod ajoyib iste’dod bilan keksa ustani hayratda qoldiradi. Nihoyat, ma’lum muddat o‘tgach, Farhod ustaning shartini bajo keltirib bir minora barpo qiladi. Podshoning o‘zi ham minora tomoshasiga keladi. Minorani sayr etar ekan, Farhodning san’atiga qoyil qolgan hukmdor Guliston bilan Farhodning to‘yiga fotiha beradi. Uylanishdan oldin Farhod xristian dinini qabul qiladi. To‘y taraddudi boshlanadi. Ayni zamonda Shopur va Muqbil ham uylanadilar.

Bir kuni Farhod noxush tush ko‘radi. U uyqusidan qo‘rqinch bilan uyg‘onib ketib, ko‘rgan dahshatli tushi haqida o‘ylay boshlaydi. Ustaning qo‘li ostida ishlovchi shogirdlari orasida Rum qaysarining o‘g‘li ham bor edi. U g‘oyat chiroyli, kelishgan bo‘lib, Gulistonni jonidan ortiq sevardi. Farhod Gulistonga uylangach, u o‘zining alamini unutolmay, hamisha Farhoddan intiqom olmoq uchun fursat poylardi. Nihoyat, bir bazm kechasi majlisdagilarning sarxush bo‘lib qolganidan foydalanib, yashiringan joyidan chiqib, zaharli xanjarini Farhodning yelkasiga sanchadi. Farhod sarxush ekanligiga qaramay o‘zini yo‘qotmaydi va darhol harakatga o‘tib raqibini o‘ldiradi. So‘ngra o‘zi ham hushidan ketadi. Shu chog‘ Farhodni qonga belangan holda ko‘rgan Muqbil dod-voy solib, odamlarni yordamga chaqiradi. Ko‘mak uchun shohga murojat qiladilar. Podshoh Farhodning shahzoda ekanligidan xabar topadi. Shopurdan podshoh shu paytgacha yashirib kelganidan xafa bo‘ladi. Farhodni davolash uchun shoh o‘zining eng yaxshi

tabiblarini yuboradi. Asta-sekin Farhod sog‘aya boshlaydi. Bu payt Shopurni Eron hukmdori o‘z saroyiga chaqiradi. Shopur Madoyinga keladi. Shu orada Guliston bir o‘g‘il tug‘adi, ismini Dovud qo‘yadilar.

Bundan keyin Orif xoqonning mag‘lub etilgan qo‘shinining Chinga qaytishini tasvirlaydi. Farhodning amakisi lashkarining bu ayanchli ahvoldan va o‘g‘illarining asir tushganligidan qattiq qayg‘uradi. U Farhodning izidan Abxaziyaga odam jo‘natadi. Farhod amakisining elchilari qimmatli sovg‘alar bilan Abxaziya mamlakatiga keladilar va toj-taxtga voris bo‘lish uchun uni Chinga davat etadilar. Lekin Farhod mamlakatiga qaytmaydi. Muqbilni Chinga borishga ko‘ndirib, pochchasiga maktub yozib amakisining o‘g‘illarini ozod qilishini so‘raydi. Shu orada Farhod ikkinchi o‘g‘il ko‘radi, ismini Iso qo‘yadilar.

Shu voqealardan Abxaziya shohi olamdan o‘tadi va Mehinbonu hokimyat tepasiga keladi. Shopur ham Madoyindan qaytadi. U Xusrav tarafidan sovchilik qilib, Shirinni unga unashtiradi.

Bu orada Guliston to‘lg‘oq vaqtida vafot etadi. Undan bir qiz qoladi. Ismini Maryam qo‘yadilar. Farhod sevgilisining qabri ustiga cherkov qurib, rohib sifatida o‘sha yerda yashay boshlaydi. Dostonning birinchi qismi shu bilan tugaydi.

Ikkinchi qismning boshlanishidagi bir necha faslda Nizomiyga e’tirozlar bildirgach (shoirning obrazlarni tasvirlashda ko‘plab mubolag‘alardan foydalanganligini aytib o‘tadi) Orif hikoyasini davom ettiradi.

Guliston vafot etgan paytda Mehinbonu Farhodning qoshiga kelib, uning sihat-salomatligini so‘rab, Guliston qabri ustida ko‘z yoshlarini to‘kadi. So‘ngra Farhodni saroyga olib ketadi. Bu payt Mehinbonuning jiyani o‘z yuragini ochib, Farhodni sevishini Shopurga aytadi. Shopur Xusravdan sir saqlash sharti bilan ularni xilvatda uchrashtirishga va’da beradi.Nihoyat, Farhod bilan Shirin bir necha marotaba yashirincha uchrashadilar.

Mehinbonu bu yashirincha uchrashuvlardan tashvishga tushadi. Qo‘rqishining boisi esa, Xusrav edi. Chunki Xusrav Farhod bilan Shirinning bu munosabatidan xabar topguday bo‘lib qolsa, Abxaziya mamlakatini yer bilan yakson etishi mumkin edi. Lekin oradan ko‘p o‘tmay Mehinbonu olamdan o‘tadi.

Shirin Abxaziya hukmdori bo‘lib qoladi. Ammo Shirinning Xusravdan avval unashtirilgan kishisi ham bor bo‘lib, o‘sha podshohlikni egallab oladi. Shirin Mug‘anga qochadi. Ko‘p o‘tmay u yerdan Madoyin qasriga o‘tadi. U meni Xusrav tamomila unutib yuboradi, deb o‘ylab, Shopurni Farhodning izidan borishga ko‘ndiradi. Farhod bolalarini Muqbilga topshirib, Madoyinga keladi. Shirin bundan g‘oyat quvonib, Farhodni o‘z yonidan ketkazmaslikka urinadi va Xusrav shubhalanmasligi uchun Farhodga sut oqadigan ariq qazishni buyuradi.

Bir kuni Farhod bilan birga Shirin shikorga chiqadilar. Ularning bu darajada yaqinligi, nihoyat, Xusravning qulog‘iga yetadi. U Farhodni huzuriga chaqiradi. Farhod Shopurning maslahati bilan o‘zini telbanamo tutib, boshini o‘limdan qutqarib qoladi. Bu orada Maryam Shirinning suvdan quruq chiqishiga ko‘zi yetib, Rumga ketishga hozirlanadi. Xusrav Buzurg Ummit vositasida undan uzr so‘raydi. So‘ngra Xusrav Maryam xotirini qilib, Shirinni Farhodga berishga va’da qilib, Farhodni tog‘ kesish uchun Besutunga yuboradi. Bir kuni Farhod Besutunda ishlayotgan paytda yoniga Shirin keladi. Ularning uchrashuv chog‘idagi muhabbat navozishlarini Xusrav tomonidan qo‘yilgan nazoratchi Giray ko‘rib qoladi. Farhod Giraydan bu sirni hech kimga aytmaslik uchun so‘z oladi va evaziga kuzatuv minorasi qurib beradi. Bir vaqt ular birgalashib minoraga chiqqanda Farhod Girayga: “huv uzoqdan karvon kelyapti”, - deydi. Giray bu gapga sevinib, minora yoqasiga kelib, yo‘lga diqqat bilan tikila boshlaydi. Fursatdan foydalangan Farhod shu chog‘ uni bir urib minora tepasidan pastga itarib yuboradi.

So‘ngra Orif Farhodga qasd qilib,o‘ldirilgan rumlik yigitni esga oladi. Uning o‘limi hamon yigitning onasini qattiq g‘azablantirar edi.U qotildan intiqom olish uchun Besutunga keladi va fursat topib Farhodning suv ichadigan idishiga zahar solib, uni zaharlaydi. Farhod o‘lgan zahoti rumlik ayol shoshib-pishib Maryamning huzuriga boradi. Lekin Maryam Farhodning o‘limiga sevinmaydi, aksincha, qattiq qayg‘uga tushadi. U Xusravning qaytadan Shiringa moyillik bildirishini xavfsirar edi. Shu bilan asarning asosiy voqealari tugaydi. So‘ngra Orif o‘zi haqida biroz ma’lumot berib, dostonga so‘ngi nuqta qo‘yadi.

“Farhodnoma” bilan Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni o‘rtasida ayrim o‘xshash tomonlari mavjud. Navoiy dostonining “Farhodnoma” asari bilan aloqasini tahlil etishga kirishishdan oldin har ikki asarning ham Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonidan ilhomlanib yozilganini qayd etish lozimdir. Lekin bu dostonlar ham mazmun, ham g‘oya, ham voqealarning tasvir etilishi jihatidan Nizomiy asaridan tubdan farq qiladi. Xususan har ikki shoirning Farhod obrazini asarning markaziy qahramoni qilib olganligi, tasvir etilgan voqealarning Farhod obrazi bilan bog‘liqlikda berilib, Xusravning ikkinchi darajali obraz sifatida talqin etilishi har ikki dostonning ham Nizomiy dostonidan jiddiy farq qilishini ko‘rsatadi. Bu xususiyat ayni zamonda Alisher Navoiy va Orif Ardabiyliy dostonlarining o‘xshash jihatlarini ham tashkil etadi.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, Orif Ardabiliy dostonida Farhod obraziga realistik nuqtayi nazaridan yondashadi. Farhod hukmdor o‘g‘li bo‘lishiga qaramay turli hunarlarni egallaydi, o‘z sevgisi yo‘lidagi barcha sinovlarni yengib o‘tadi. Lekin u ayrim kamchiliklardan holi emas. Guliston vafot etgandan so‘ng, unashtirilgan Shirin bilan pinhona uchrashishi, Xusrav tomonidan yollangan Girayni o‘ldirishi uning kechirib bo‘lmas xatosi hisoblanadi. Asar so‘nggida o‘zi ham qilmishlariga yarasha jazolanadi. U ham rumlik ayol tomonidan zaharlanib, vafot etadi.

Orif Ardabiliy “Farhodnoma” dostonida Farhod obrazini ilk bor bosh qahramon darajasida tasvirlaydi. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida birinchi bo‘lib Farhodning mukammal epik xarakterini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. (1991). Farhod va Shirin. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik.-T.:Fan, 8-jild.
2. Alisher Navoiy. (1991). Farhod va Shirin (nasriy bayoni bilan). Tahrir hay’ati: A.Qayumov va boshq.T.: Adabiyot va san’at.
3. Navoiyshunoslik. (2007). T.:Tamaddun Orif Ardabiliy. Farhodnoma dostoni. Boku.

4. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J.(2019). 9-sinf “Adabiyot“ darsligi. Toshkent: O‘zbekiston.
5. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. (2019). Navoiyshunoslik. Toshkent: Tamaddun. 102-bet.

MUSTAZOD JANRINING VAZN XUSUSIYATLARI

Raxmatova Karima Erkinovna,
ToshDO‘TAU OTAT 3-kurs
raxmatovakarima@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mustazod janrining vazn xususiyatlari, o‘lchov imkoniyatlari turli ijodkorlar tomonidan davrlar osha tadrijiy taraqqiyoti va shakllanishiga oid muhim ma’lumotlar tahlilga tortilgan.Bundan tashqari,uning o‘rni bilan janr va mazmun mutanosibligi qanchalik mos tushish yoki tushmasligi ham batafsil o‘rganilgan. Vaznga asoslangan janrlar tarkibida ham bir qancha istisnolar mavjud ekanligi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *aruz, mustazod, vazn , hazaj, ramal , mujtass.*

Abstract. *In this article, important information about the weight characteristics of the mustazad genre, its measurement possibilities, and the gradual development and formation of different artists over time have been analyzed. In addition, it has also been studied in detail how well the proportion of genre and content is compatible or not. . It has been revealed that there are some exceptions within the weight-based genres as well.*

Keywords: *aruz, mustazad, weight, hazaj, ramal, mujtass.*

Sharq mumtoz poetikasidagi ayrim janrlar o‘zlarining xos vaznlariga ega. Bular tuyuq, ruboiy, dubaytiy va mustazodlardir. Qolgan she’riy janrlarda vazn erkin tarzda qo‘llanadi. Biroq shuni ham qayd etish lozimki, aruzga oid manbalar, xususan, Navoiyning “Mezon ul-avzon”ida ramali musammani mahzuf (maqsur) vaznida yozilgan g‘azallarga nisbatan “turkiy”, hazaji musammani solim vaznida yozilgan g‘azallarga nisbatan “aruzvoriy” atamalari qo‘llanilgan (Tohirov, 2010, 54-bet).

Mumtoz she’riy shakllari orasida mustazod janrining o‘ziga xos o‘ringa ega. Mustazod turkiy adabiyotda keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida “...xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt boshlab bitib, aning misraidin so‘ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag‘amotig‘a rost keltururlar ermish va ani “mustazod” derlar ermish, andoqkim, mustazod:

Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli.
Maf’uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun
Mazhar sanga ashyo.
Maf’ulu fauvlun
Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,
Olam sanga mavlo (Алишер Навоий, 2000, 71 бет)

Alisher Navoiy ta’rifidan ma’lum bo‘ladiki, mustazod *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod* vaznida yozilib, oxirgi ikki rukniga to‘la bo‘lmagan misra orttirilar ekan. Mustazod (ar. “orttirilgan”, “ziyoda qilingan”) - har bir misrasidan so‘ng yana yarim misra orttiriluvchi she’r shakli. Mustazodni ilmiy adabiyotlarda kelib chiqishi xususiyatlari, g‘azalga aloqasi to‘g‘risida bir qancha nazariy qarashlar mavjud (Yusupova, 2020, 184-bet). Mustazod uchun g‘azal asos – zamin vazifasini o‘taydi. Ikkala janrning qofiyalanish tizimi, baytlar soni, matla’ va maqta’, taxallusning mavjudligi bu fikrni isbotlaydi. Lekin g‘azal aruz tizimining barcha bahrlarida yaratilgani holda mustazod faqat hazaj bahrining *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod* (ruknlari va taqti’i: *maf’ulu mafoiylu mafoiylu fauvlun maf’ulu fauvlun – – V / V – – V / V – – V / V – – / – – V / V – –)* vaznida yoziladi (Rahmonova,2020,174-bet).

Turkiy adabiyotda mustazodning ilk namunalari Hofiz Xorazmiy va Gadoiy ijodida uchraydi. Hofiz Xorazmiy devonida har biri 7 baytdan iborat ikki mustazod, Gadoiy devonida esa besh baytli bir mustazod mavjud (Yusupova, 2020, 184-bet). Aruzshunos A.Hojiahmedov o‘zining “O‘zbek aruzi lug‘ati” kitobida turkiy she’riyatida yaratilagan mustazodlarning to‘rtta vaznda:

1) hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod

2) hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi maqsuri mustazod

3) hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mahzufi mustazod

4) hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mustazod yaratilganini ta’kidlaydi (Ҳожиаҳмедов, 1998, 84-bet).

Aruzshunos D.Yusupova ham mustazod janriga to‘xtalib, uning hazaji musammani makfufi mahzufi mustazod vaznida yozilishi, lekin ayrim paytda vazn talabi bilan fauvlun (V – –) rukni mafoiyl (V– ˜)ga o‘zgarishi mumkinligini qayd etadi (Yusupova, 2020, 184-bet). Sh.Rahmonova “O‘zbek adabiyotida mustazod: an’ana va o‘ziga xoslik” maqolasida XIX asrga kelib, mustazod janrining vaznida va shaklida o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlanganligini ta’kidlaydi. Mustazodlar an’anaviy hazaj bahri vaznlarida emas, balki ramal, mujtass bahri vaznlarida yozilganligi, qo‘shimcha misralar orttirilganligini bayon etadi (Rahmonova, 2020, 174-bet). Mumtoz adabiyotda ramal bahri vaznlardagi mustazodlar dastlab Xiva adabiy muhiti vakili Munis ijodida uchraydi. U ramal bahrining *ramali musammani maxbuni mahzufi maqsuri mustazod* vaznida yozilgan. Mazkur vaznning birinchi rukni ba’zan , “failotun “tarzida ham kelishi mumkin, ya’ni birinchi misra foilotun bilan boshlansa, keyingi misra failotun bilan boshlanadi (Yusupova, 2020, 174-bet).

“Bu davr adabiy muhitining yana bir vakili Muhammad Rizo Ogahiy ham mutazod janrining takomiliga hissa qo‘shgan o‘ziga xos ijodkorlardir. Uning “Ta’viz ul-oshiqin” devonida 3 ta mustazod mavjud. Ushbu mustazodlar mumtoz an’anaviy mustazodlarga o‘xshash jihatlarida ega bo‘lish bilan birga shakliy xususiyatlari bilan ulardan farq qiladi. Shundan kelib chiqib, Muhammad Rizo Ogahiy mustazodlarini shartli ravishda uchga ajratish mumkin :

1. An’anaviy shakl va vaznga ega bo‘lgan mustazod;

2. Qo‘shimcha misralari orttirilgan mustazod;

3. Noan’anaviy vaznda yaratilgan mustazod.

Muhammad Rizo Ogahiy mustazodlarning har uchalasi oshiqona mavzuda yaratilgan bo‘lib, bu mumtoz adabiyotimizdagi mustazodlarlarga xos xususiyatdir”

(Rahmonova, 2020, 176-bet). Ogahiy devonidagi qo‘shimcha misralari orttirilgan mustazod quyidagicha :

Ey yor, sango ushbu jahon bog‘i aro gul
bir oshiqi hayron,
diydoringa shaydo.
Bir sheftadur kokuli mushkinga sunbul,
ham holi parishon,
ham boshida savdo (Огаҳий, 1972,101 бет).

Ushbu mustazod an’anaviy hazaj bahrining *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod* vaznida yozilgan. Bir qarashda an’anaviy mustazodga o‘xshaydi, ammo hajm jihatdan kengaygan ya’ni asosiy misraga qo‘shilib keladigan yarim misrani juftlashtiradi (Жумахўжа, 1997, 45–46 бет). Buni rukn va taqti’sida quyidagicha aks ettirish mumkin:

Maf’uvlu /mafoiylu /mafoiylu/ fauvlun /maf’uvlu/fauvlun/
maf’uvlu/fauvlun
– – V / V — V / V — V/ V — / – –V /
V —/ – –V / V —/

Ogahiy devonidagi noan’naviy vaznda yozilgan mustazod quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Vah menga qahr etib ul qotili bebok sanam
beradur zahri jafo.
Iltifot aylabon ag‘yorg‘a tinmay bir dam
tutadur jomi vafo (Огаҳий,1972,83 бет)

“Bir qarashda ushbu mustazod ham an’anaviy mustazodlar sirasiga kirgandek tuyuladi. Chunki undagi har misradan keyin qo‘shimcha misralarning orttirilishi mustazod degan shaklga muvofiqlik paydo qiladi. Ogahiy mustazodi Munis mustazodi vaznidan so‘nggi hijoning cho‘ziqligi (–) farq qiladi. Ushbu mustazod ramal bahrining *ramali musammani maxbuni mahzufi mustazod*

Foilotun failotun failotun failotun foilotun failun
–V —/ V V —/ V V —/ V V – –/ –V —/ V V –” (Rahmonova, 2020, 174-bet)

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida ham mumtoz an’analar asosida mustazodlar yaratilgan. Bu davr she’riyatida mustazodning muxammas – mustazod turi ham uchraydi. R.Orzubekov tojik olimlari muxammasning bu turi “Muxammasi mustazod” nomi bilan atashini va uning ilk namunalari mashhur shoir va adib Sayido Nasafiy (XVII asrning oxiri va XVIII asr boshi) she’riyatiga uchrashini ta’kidlaydi (Rahmonova, 2020, 178-bet). XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida ilk bor Chustiy “Husningdan o‘par yoz”, Charxiy esa “Qalam” mustazodini muxammasga joriy qilib, buni an’anaga aylantirdi. (Rahmonova, 2020, 177–178-bet). Chustiyning “Husningdan o‘par yoz” mustazodidan parcha (Чустий, 1992, 322 бет):

Yur,keldi qalam gulshani do‘stingga zafar yoz ,
dushmanga xatar yoz!
Dunyo gulining yafrog‘iga nuriga sahar yoz,
xoinga sharer yoz!
Bog‘larda daraxt shoxlariga durri-guhar yoz,
lazzatli samar yoz!
Olam qulog‘in sahfasiga totli xabar yoz ,
osmonga qadar yoz!
Ijod qutisin och elinga shahdushakar yoz,
zolimga zahar yoz!

Yuqoridagilar shuni ko‘rsatadiki, mustazodning asosiy vazni hazaj bo‘lsa ham,keyingi yillarda juda ko‘plab ijodkorlar tomonidan boshqa vaznlarda yozilganini ko‘rish mumkin.Vaznga asoslangan janrlar tarkibida ham bir qancha istisnolar mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonova Sh. M. (2020). O‘zbek adabiyotida mustazod: an’ana va o‘ziga xoslik. O‘zA Ilm-fan jurnali, – B 174-178

2.Tohirov S. (2010). O‘zbek she’riyatida aruz. – Samarqand, 54.

3. Yusupova D. (2020). Aruz vazni va mumtoz poetika asoslar. – Toshkent: Akademnashr, 184-b.

4. Алишер Навоий. (2000). Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 16. – Б. 43–98.

5.Жумахўжа Н. (1997). Бир суруд бор эканким... Огаҳийда. Ёшлик, №1. – 46–47-б.

6. Мухаммад Ризо Огаҳий.(1972). Асарлар. II жилд. Девон. Тошкент: Ғафур Ғулом, 423б

7. Орзибеков Р.(1976).Лирикада кичик жанрлар. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 114б.

8. Чустий.(1992). Садоқат гуллари. – Тошкент: Внешторгиздат, 343 б

9. Ҳожиаҳмедов А. (1998).Ўзбек арузи луғати . – Тошкент:Шарқ , 224 б

ALISHER NAVOIYNING “TOPMADIM” RADIFLI G‘AZALIGA RO‘ZIMUROD MAHMUD MUXAMMASI

Saidova Mohinur Yoqubjon qizi,
BuxDU Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi
Saidova_mohinur@mail.ru

Annotatsiya.*Ushbu maqolada Buxoro adabiy harakatchiligining ko‘zga ko‘ringan shoirlaridan biri Ro‘zimurod Mahmudning Alisher Navoiyning ‘Topmadim’’ radifli g‘azaliga bog‘lagan muxammasi tahlil qilinadi.Alisher Navoiy o‘z g‘azalida qo‘llagan o‘xshatishlar,qofiyalar , vazn va g‘oyalar muxammasda qay darajada yoritilganligi talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *vafodorlik, ishq, azob, fidoyilik, ahd, iymon, tashbeh, insoniylik, mehr, muruvvat.*

Abstract. *In this article, one of the prominent poets of Bukhara's literary movement, Rozimurod Mahmud, analyzes the problem connected to Alisher Navoi's ghazal "Topmadim". Rhymes, weight and ideas are interpreted to what extent they are covered in the poem.*

Keywords*: loyalty, love, suffering, sacrifice, covenant, faith, metaphor, humanity, kindness, kindness*

Keyingi davrlarda Alisher Navoiyning she‘riyati shoirlar ijodiga katta ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda.Shoirlar Navoiyning yetuk badiiy ijodidan ilhom olib,o‘ziga xos uslubda uning yo‘lini davom ettiryaptilar.Buni birgina muxammaslar misolida

ko‘rishimiz mumkin.O‘zbekistonning turli nuqtalaridan yetishib chiqayotgan shoirlarning ko‘pchiligi Alisher Navoiyning izidan borib,uning g‘azallariga tatabbular,muxammaslar,tazminlar yozishmoqda.Shu jumladan,Buxoro shoirlaridan bo‘lmish Ro‘zimurod Mahmud ham turli usullarda ijod qiluvchi ko‘plab shoirlarning g‘azallariga muxammas bog‘lab kelmoqda.Masalan,Alisher Navoiy,Jaloliddin Rumiy,Abdulla Vaxsh,Haziniy,Erkin Vohidov,Mirzo Kenja va boshqalar g‘azaliga yozilgan muxammaslar e’tiborga molik.

Alisher Navoiy g‘azallarining aksariyatida dard-u hasrat,shikoyat ohangini ko‘p uchratamiz.Shoir Ro‘zimurod Mahmud ham bu an’anani saqlab qolgan holda,uning izidan bordi.Alisher Navoiyning g‘azali barchamizga ma’lum. Navoiyning ushbu g‘azali 8 bayt,ammo shoir bu g‘azalning 8-baytini tushirib,faqat 7 baytiga muxammas bog‘lagan.Navoiy g‘azalida tarannum etilgan g‘oyalar badiiy jihatdan muxammasda yanada takomillashtirilgan.Ushbu muxammasda qofiya va radiflar Navoiyning g‘azalidagi kabi o‘rinli qo‘llanilgan.Yaratilgan muxammas Ro‘zimurod Mahmudning shoir sifatidagi mahorati va Navoiyga mos muxammas bita olishidan dalolat beradi.

Shoirning muxammasi quyidagicha:

Qadr etdim ko‘plab odamni,chin qadrdone topmadim,

Ahd aylab otash yurakdan,ahdga paymone topmadim,

Ezgu ishlar qilmoq uchun aslo imkone topmadim,

Mehr ko‘p ko‘rguzdum , ammo mehribone topmadim,

Jon base qildim fido,oromijone topmadim.(ziyo_uz.com)

Ko‘rinib turibdiki,Ro‘zimurod Mahmud g‘azalning vaznini va radifini saqlab qolgan.Muxammasning qofiyadosh so‘zlari ham deyarli bir xil,ya’ni qadrdone,paymone,imkone va g‘azaldagi mehribone va oromijone so‘zlari qofiya vazifasini bajargan.Lekin muxammasda umumiy g‘oya aynan takrorlanmagan.Yuqoridagi bandning nasriy bayoniga keladigan bo‘lsak,shoir birinchi bandda ko‘p odamlarni qadrladim,ammo o‘zimni qadrlaydigan qadrdon inson topmadim va yana men ahdga vafo qilib,ahdimni ustidan chiqdim,ammo ahdiga sodiq qoladigan boshqa bir yaqin topmadim demoqchi.Bundan tashqari

ezgu ishlar qilmoqlikni istadim-u lekin hech imkon topmadim,ko‘p insonlarga mehr-u muruvvat ko‘rsatdim,jonimni o‘zgalar uchun ko‘p fido qildim,ammo shularga munosib javob olmadim deb o‘zining fikrlarini aytib o‘tgan.

Shoir odamlarning bemehrligi,bevafoligi va dilga ozor berishi kabi holatlarni mahorat bilan ifodalay olgan.Shoir bunda o‘zining qalbi bilan jamiyatning odatlari orasida ziddiyatni vujudga keltirgan.Ya’ni u mehribon-u, dunyo mehrsiz,u lavzli,shafqatli va vafodor-u,lekin jamiyat buning aksi.Bundan tashqari g‘azalda Navoiy qo‘llagan go‘zal badiiy tashbeh va istiyoralar muxammasda ham o‘zgacha jilo bag‘ishlab turibdi

Har qancha etib yaxshilik,e’tibore ko‘rmadim,
Labzida turganni kam,barqarore ko‘rmadim,
Zor bo‘lib goh yashadim,menga zore ko‘rmadim,
G‘am bila jonimg‘a yettim,g‘amgusore topmadim,
Hajr ila dilxasta bo‘ldum,dilsitone topmadim.

Ushbu bandda esa e’tibore,barqarore,zore,g‘amgusore,dilsitone so‘zlari qofiyadosh bo‘lib kelgan bo‘lib,bu bandda shoir insonlarga har qancha yaxshilik qilsam ham,ulardan hech e’tibor ko‘rmadim,o‘z lavzida turgan barqaror insonni kam ko‘rdim,gohida insonlarga zor bo‘lib yashadim,lekin menga zor bo‘lgan odamni ko‘rmadim,hatto ba’zida g‘am-qayg‘u jonimni qiynadi,biroq biror g‘amxo‘r inson topmadim demoqchi bo‘lgan.

Muhabbatning maydonida ko‘nglim mudom qildim qon,
Azoblarning girdobida qiynab har dam shirin jon,
Yuragimni ado etdi,gumon toptab bor ishonch,
Ishq aro yuz ming malomat o‘qiga bo‘ldim nishon,
Bir kamon abro‘da tuzlikdin nishona topmadim.

Muhabbatning go‘shasini kezdim,izlab,men imkon,
Ul parivash xayolini aylab qalbim ichra xon,
Mehri bilan oshiq qalbim etmoq istadim bo‘ston,
Ko‘nglim ichra sarv o‘qdir,g‘uncha paykon,gul tikon,

Dahr bog‘i ichra mundog‘ gulsitone topmadim.

Yuqoridagi ikki bandda qon,jon,ishonch,nishon,imkon,xon,bo‘ston,tikon so‘zlari qofiyadoshlik vazifasini bajarib kelgan.Biroq, shu o‘rinda 3-banddagi ishonch so‘zi o‘zidan yuqoridagi va keyingi qatorlardagi qofiyadosh so‘zlarga biroz mos kelmaslik hodisasini ham kuzatish mumkin.

Bu bandda shoir quyidagi fikrlarni ilgari surgan:muhabbat bobida dilim qon bo‘ldi,azoblarning dardidan har doim jonim qiynaldi.Gumon yuragimdagi bor ishonchimni ham yo‘qotib,ado qildi.Ishq yo‘lida ming bir malomatning o‘qlariga duchor bo‘ldim,ammo qoshi yoydek bo‘lgan go‘zallarning birortasidan to‘g‘rilik topmadim.Men imkon izlab,muhabbat go‘shasini kezdim, bu paytda men o‘sha parivash go‘zalning xayoli bilan qalbimni ham vayron qildim.Yorning mehriga oshiq bo‘lgan bu qalbimni gul-u bo‘ston qilishni istadim va dunyo bog‘ida hali bunday gulistonni boshqa hech qayerda ko‘rmadim.

Bu ikki bandda shoir qalbidagi alam va iztiroblarini she’rga solib,juda katta mahorat bilan ifodalay olgan.

Kundan kunga azobingdan yaxshi holim ko‘rmadim,
Ming bitta etgan orzuda,bir xayolim ko‘rmadim,
Sabr qilib har lahzaga hech kamolim ko‘rmadim,
Husn mulki ichra sendek shohi zolim ko‘rmadim,
Ishq ko‘yida o‘zimdek notavone ko‘rmadim.

Ushbu bandda” ko‘rmadim “so‘zi radif vazifasini bajarib kelgan.Qofiyadosh so‘zlar esa quyidagilar:holim,xayolim,kamolim va zolim so‘zlari.

Bandning nasriy bayoni esa quyidagicha:kundan-kunga menga berayotgan azoblaringning dastidan biror kunim yaxshi o‘tmadi.Ming bir qilgan orzularimni bir xayolimda ko‘rmadim.Har onda sabr qildim,lekin hech bir o‘zgarish bo‘lmadi.Husn-go‘zallik mulkida sendek zolimni ko‘rmaganimdek,ishq bobida ham o‘zimdek bir bechorani ko‘rmadim.

Bu hayotda ko‘rdim tinglab,ko‘p oshiqlar dilin sasin,
Ba’zisiga dalda berdim,debon ishqi hech o‘lmasin,
Bitta edi dil niyatim,ishqsiz kishilar bo‘lmasin,

Ko‘p o‘qidim Vomiq-u,Farhod-u Majnun qissasin,
Oz ishimda bul ajabroq dostone topmadim.

Ishqli olam mulki olam,biling,anga jarchi men,
Baxtli xayotning shahridan barchaga xabarchi men,
Ro‘zimurod ishq yo‘lida,bir fidoyi,garchi men,
Ul armon ichinda bo‘lsun,ey Navoiy garchi men,
Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim.

Yuqoridagi 6-bandda shoir o‘ziga o‘xshagan ishq dardida sarson bo‘lib yurgan ko‘p oshiqlarni ko‘rganini va ularga dalda berganini bu ishdan maqsadi esa faqat ularning sevgisi abadiy qolishini istashini bayon qilgan.

7-bandda esa shoir dastlabki 4 qatorda men so‘zini radif deb oladi.Qofiyadosh so‘zlar sifatida esa jarchi,xabarchi,garchi so‘zlarini qo‘llagan.

Muxammasda lirik qahramon yorning visoli uchun juda ko‘p ozor chekadi,lekin shunday bo‘lsa ham,mahbubani qarg‘amasligi aks ettirilgan.Bundan oshiqning muhabbati qanchalik kuchliligini ko‘rishimiz mumkin.

Taxmis bog‘lash an’anasiga ko‘ra ijodkor bironta ustozning g‘azallari baytlarining har birini beshlik bandlarga aylantiradi.G‘azalning har bir bayti oldidan o‘zining uch misrasini qo‘shadi.Muxammas shoir uchun fikr-kechinmalarini chuqurroq ifodalash,boshqa shoirlar bilan musobaqalashish,bahslashish vositasi bo‘lgan.Ro‘zimurod Mahmud ham bu an’analarga sodiq qolgan holda o‘zining taxmisida qofiyalarni ham o‘rinli qo‘llaganini ko ‘rishimiz mumkin.(O‘zbek adabiyoti tarixi,5 jildlik,2-tom,1978)

Muxammas yozishga jazm qilgan ijodkor,avvalo,g‘azalning mazmun-mohiyatini,shoir nima demoqchi bo‘lganini chuqur anglab yetishi,ruhan va jismonan bu mas’uliyatli ishga tayyor bo‘lishi lozim.Ro‘zimurod Mahmudning birgina shu g‘azali misolida ayta olamizki,u Navoiyning “Firoq”,”Navo bo‘lubdur”,”Majnun qildilo” kabi g‘azallariga bog‘lagan muxammaslarida ham o‘zining yuksak iste’dod sohibi ekanligini isbotlay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. (1988). Mukammal asarlar to‘plami. Toshkent: Fan, 326-bet.
2. O‘zbek adabiyoti tarixi. (1978). 5 jildlik/ 2-tom. Toshkent: Fan.
3. Ergash Ochilov. (2011). Ishq tilsimi. O‘zbekiston.
4. Qo‘nonboyev,A. (1961). Tanlangan asarlar. Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyoti.

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA NAVOIY “XAMSA”SI TALQINLARI TADQIQI

Yaxyoyev Fayzullo Muhammadsoli o‘g‘li,
O‘zMU 2-kurs tayanch doktoranti
imronbekyaxyoyev@gmail.com

Annotatsiya. *Hazrat Alisher Navoiy mahoratli va yetuk lirik shoir bo‘lish bilan bir qatorda, buyuk epik – dostonnavis ijodkordir. U yaratgan beshlik dostonni o‘z ichiga olgan “Xamsa” asari, mana oradan besh asr o‘tsada o‘zining qadr-qiymatini, badiiy ta’sirini yo‘qotgan emas. Bu asarga nafaqat o‘zbek, turkiy xalqlar olimlari, qolaversa butun dunyo adabiyotshunoslari qiziqib qarashmoqda, tadqiq qilishmoqda. Ushbu maqolada ushbu umrboqiy epik asarning XX asrning ikkinchi yarmida o‘bek navoiyshunosligida tadqiq etilishi, o‘rganilishi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar. *“Xamsa”, tadqiq, talqin, “Xamsa” talqinlari”, “Alisher Navoiy” risolasi, “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”.*

Abstract. *Hazrat Alisher Navoi, in addition to being a skilled and mature lyric poet, is also a great epic writer. Five centuries later, the work "Khamsa" containing five epics created by him has not lost its value and artistic influence. Not only scientists of the Uzbek and Turkish nations, but also literary scholars of the whole world are interested in this work and are researching it. This article talks about the research and study of this eternal epic work in the second half of the 20th century in the Uzbek Navoi studies.*

Keywords. **“***Khamsa”, research, interpretation, interpretations of “Khamsa”, treatise “Alisher Navoi”, “Hayrat ul-Abror”, “Farhad and Shirin”.*

O‘zbek adabiyotshunosligida Navoiy “Xamsa” sini tadqiq etuvchi olimlar, izlanuvchi tadqiqotchilar xamsashunoslik maktabini vujudga keltirdi. Bu jarayon XX asrda yanada qizg‘in kechdi. 1939-yilda yirik adabiyotshunos Olim Sharafiddinovning “Alisher Navoiy” nomli ilmiy-ommabop asari nashr etildi. Bu asarda Navoiy shaxsiyati, ijodi: lirik, epik asarlariga to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, Navoiy “Xamsa”si haqida so‘z yuritib, mutafakkirdan avval yaratilgan xamsalar va ularning bu sohadagi asarlaridan Navoiy “Xamsa”sining farqli jihatlari tahlil qilingan. Qolaversa, Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi dostonlarni ham birin-ketin sharhlaydi.

1940-yilda nashr etilgan “Родоначалъник узбекской литературы” to’plamida E.E.Bertelsning “Layli va Majnun”, Hamid Olimjonning “Farhod va Shirin” dostonlariga bag‘ishlab yozilgan maqolalarini o‘z ichiga olgan edi. Shu yillarda S.Ayniy “Xamsa”ni nashrga tayyorladi va nashr ettirdi. Bu orqali o‘zbek kitobxonlari Navoiy asarlaridan bahramand bo‘ldi. XX asrning 50-60-yillarda Navoiy asarlarining matnini yaratish va asarlarini ommalashtirish ishlari jadallik bilan kechdi. Adabiyotshunos Porso Shamsiyev boshchiligida Navoiy “Xamsa”si (Алишер Навоий, Хамса, 1960) nashr etildi.

Shundan so‘ng birin-ketin Navoiy “Xamsa”si bilan bog‘liq asarlar yaratila boshlandi. Adabiyotshunos olim To‘xtasin Jalolovning “Xamsa” talqinlari” (1962), A.Hayitmetovning “Hayrat ul-abror”ning nasriy tavsifi” (1974), Sodir Erkinovning “Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili” (1971), A.Qayumovning “Saddi Iskandariy” (1975) asari va boshqa kitoblar yaratildi, nashr etildi.

Alisher Navoiygacha o‘zbek adabiyotida epik asarlar juda kam edi, shoir o‘z “Xamsa”si bilan o‘zbek epik adabiyotini mislsiz boyitdi. Yozuvchi va taniqli olim Oybek hazrat Navoiy “Xamsa”si va uning tarkibidagi dostonlarga mufassal to‘xtalib o‘tadi. Xususan, “Hayrat ul-abror” boshqa dostonlardan ajralib turadi, - deydi Oybek. (Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами ўн тўққиз томлик. Ўн учинчи том. 1979). Bu doston axloq, odobga doir masalalarni ko‘rsatadigan ta’limiy xarakterdadir. Asarda ijodkor inson va uning hayoti qanday bo‘lishi kerak? U nimalardan saqlanishi kerak? Kabi savollarga Navoiy o‘z asarida chuqur

hayot falsafasi va o‘zining to‘plagan tajribalari, fikrlariga suyanib javob beradi. Shoir talqin etmoqchi bo‘lgan fikrlarni, oddiy turmushdagi misollar bilan izohlaydi, yanada aniqlashtiradi. Qolaversa, Oybek Navoiyning ayrim maqolotlaridan misollar keltirib, din va tariqat pardasi ortida xalqni talovchi iflos, munofiq, johil shayx ham voizlarni, soxta olimlarni, hiylakor muftiylarni, olchoq, aldamchi yozuvchilarni va hokazolarni qattiq tanqid qilgan o‘rinlarini ko‘rsatib beradi.

Oybek “Xamsa”ning ikkinchi “Farhod va Shirin” dostoniga to‘xtalib o‘tar ekan, bu dostonning asosi ishq ekanligini ta’kidlaydi. Lekin Farhodning Shiringa bo‘lgan afsonaviy, ishqiy hikoyasining inkishofida Navoiy muhim ijtimoiy, hayotiy, insoniyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan masalalarni hal qilishga tirishadi. Dostonda boshidan-oxirigacha o‘tkazilgan tub fikr ma’naviy ozodlikka, axloqiy kamolotga erishuv, bunga to‘sqinlik qiluvchi qora kuchlar bilan kurash, o‘z orzulari oldida toj-taxtdan, hayot lazzatidan, hatto o‘z umridan ham kechishga iroda sohibi bo’lishdir, - deya asarni yuksak e’tirof etadi. Shu bilan bir qatorda Navoiy “Xamsa” sining boshqa dostonlariga ham to‘xtalib, dostonlarning mavzu ko‘lami, fikriy mundarijasi, obrazlar orqali tashilayotgan ma’nolarga o‘z munosabatini bildiradi. Oybek o‘z maqolasining so‘ngida turkona lutf bilan go‘zal asar yaratgan Navoiy dahosiga taxsinlar aytadi.

Alisher Navoiy “Xamsa”si haqida tadqiqot olib borgan navoiyshunos va xamsashunos olima Suyma G‘aniyevadir. Olima o‘zining “Alisher Navoiy” nomli kitobida “Xamsa” asari tarkibidagi dostonlarga mufassal to‘xtalib o‘tadi. Navoiy bu dostonlari orqali nima demoqchiligini, dostonlar tashiyotgan ma’nolarni ochishga, tahlil qilishga harakat qiladi. Xususan, olima “Hayrat ul-abror” dostoni haqida so‘z yuritib, Navoiy Hirot taxtining vorisi hisoblangan shahzoda Badiuzzamon mirzoga alohida bobda nasihatlar bilan murojaat qilgan o‘rinlarni keltiradi va bu orqali Navoiy o‘z idealidagi shoh haqidagi orzularini bayon qilganini yozadi.

“Xamsa”ni tashkil qiluvchi bu besh doston ulug‘ shoir tomonidan alal-abadga o‘rnatib ketilgan besh bebaho haykal bo‘lib, ularning har biri o‘zining salo-

bati va nafosati, viqori va nurafshonligi, jilosi va zavqbaxshligi bilan hali qancha-qancha avlodlarni hayratga soladi, ularning qalb-u aqliga beo‘lchov ma’naviy oziq baxsh etadi. Dostonlarda ifodalangan umuminsoniy orzular, go‘zallik madhlari, qayd etilgan haqiqatlar umumbashariy ahamiyatga egadir. Bu g‘oyalar asar yaratilgan davrda ham, bugungi kunda ham, bizdan keyin ham yangicha ahamiyat kasb etaveradi.

Professor Abdurashid Abdug‘afurov “Xamsa”ning ijtimoiy mohiyati”. (Алишер Навоий “Хамса”си: (тадқиқотлар), 1986) sarlavhali maqolasida Navoiy “Xamsa”sining o‘zidan avval yaratilgan “Xamsa”lardan farqli jihatlarini tadqiq etadi. Navoiy o‘z “Xamsa”sini yaratish uchun uzoq yillar ilmiy-ijodiy izlanishlar olib borgan. “Xamsa”ning har bir dostoni bo‘yicha jiddiy tayyorgarliklar ko‘rib, tegishli manbalarni o‘rgangan. “Saba’i sayyor” dostonida shoir doston sujetiga bevosita aloqador hamda Nizomiz va Dehlaviylarga noma’lum bo‘lgan manbani kashf etganligini so‘zlaydi. “Saddi Iskandariy” dostonida ham o‘tmish xamsanavislardan farqli o‘laroq, “eski daftar base ko‘p axtargan” ini, natijada “ko‘p g‘aroyib” yangiliklar “ayon” bo‘lganligini faxr bilan so‘zlaydi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, Navoiy faqat xamsanavislarning adabiy meroslarini o‘rganish bilan cheklanib qolmay, balki boshqa tarixiy-adabiy manbalarni ham topish va sinchiklab tahlil etish shart, degan xulosaga keladi va o‘z asarlarida shoir xuddi shunday qilganini ko‘rishimiz mumkin.

Navoiy “Xamsa”si o‘z davri uchun xarakterli bo‘lgan deyarli barcha ijtimoiy masalalarni qamrab olgan buyuk adabiy yodgorlikdir. Shoir “Xamsa”si tarkibidagi har bir doston o‘zagini inson, uning burchi, baxti va intilishlari tashkil qiladi. Navoiy dostonlaridagi asosiy g‘oyalarni shu dostonlardagi qahramonlar va personajlar orqali ochib beradi. Bunda, bir tomondan, xamsachilikdagi ma’lum an’analarga roiya ham qiladi, aksar hollarda esa butunlay yangicha talqin, yangicha munosabat yo‘lini tutadi. Navoiyshunos olimlarimiz bu xususida ancha diqqatga sazovor ishlar qilganlar, shoirning o‘z salaflari va zamondoshlaridan qay darajada farqli ish tutgani, bunga qanday omillar asos bo‘lgani haqida to‘xtalib o‘tganlar.

Navoiyshunos olima Suyima G‘aniyeva “Nafis xarakterlar talqini nomli maqolasida “Xamsa” tarkibidagi dostonlarning ayol qahramonlari xarakterlarini tahlil etadi. “Xamsa”dagi ayollar obrazining hammasi (“Farhod va Shirin”dagi Zoli makkoradan tashqari) tom ma’nodagi ijobiy obrazlardir. Bu quyma, to‘laqonli obrazlar Navoiy dunyoqarashining nechog‘lik hayotiyligidan dalolat beradi. Navoiy ayollar shaxsiyatining naqadar boy va go‘zal, serqirra va ibratli, har jihatdan komil ekanligini namoyish qiladi.

Alisher Navoiyning ayol qahramonlarining barchasi nihoyat darajada go‘zal va yoqimli. Shoir, birinchi navbatda, ularning tashqi chiroyini ta’riflaydi. Bunda, ya’ni go‘zallikni madh etishda, Navoiy go‘zallikni shunchaki ermak emas, balki ayollar qadr-qimmatini tasdiq etuvchi omil deb tushunadi, go‘zallikka intilishni esa erkka, ozodlikka, ezgulikka intilish deb talqin qiladi. Shoir Shirin, Layli va Dloromning go‘zalligini ta’riflar, ularning tashqi portretlarini yaratib berar ekan, tabiiyki, she’riyatda qonunlashib qolgan shartli-an’analar tavsifiy vosita, poetik obraz va motivlardan keng foydalanadi. Ayni vaqtda, u har bir obrazning tub mohiyatidan kelib chiqib yolg‘iz uning o‘zigagina xos bo‘lgan vosita, motiv va poetik tasvir elementlarini topadi va g‘oyat o‘rinli ishlatadi.

Alisher Navoiy uch obraz – Shirin, Layli va Mehinbonu obrazlari talqinida psixologizmning mohir ustasi ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir o‘z qahramonlari ichki holatlari, ichki hayajonlarini tasvirlashda emotsional urg‘ularga alohida e’tibor beradi. Shirinning Farhod sharafiga berilgan ziyofatdagi holati, kechinmalari, Laylining Ibni Salom uyidan chiqib dashtga yuzlanishi va Majnun bilan uchrashgani paytidagi ahvoli ruhiyasi, Mehinbonuning bir tomondan Farhod o‘limi va Shirinning ayanchli ahvoli, ikkinchi tarafdan Xusrav talabgorligi tahlikasi qarshisida chekkan iztiroblari, Laylining Majnun ota-onasi o‘limini eshitib qilgan nolalari Navoiy psixologizmining mohiyatini ochib beruvchi vositalardir.

“Xamsa” bamisoli besh yuksak cho‘qqini birlashtirgan ulkan tog‘. Navoiy uni bunyod etishda xalq zavqi va tafakkurining buyuk qudratiga tayandi. Aql bovar qilmas darajada san’at ko‘rsatdi. Turkiy tilda birinchi bo‘lib shunday olamshumul

kashfiyotga erishdi. Bu – uning yoshlikdan orzu qilgan “ulug‘ muddao”si edi. “Xamsa” bir-biriga o‘xshamaydigan, bir-biridan yangi va qimmatli hayotiy masalalar qomusi. Navoiy “Xamsa”sining har bir dostonida inson taqdiri, vijdoni, erki, kelajagi va bashariyat ma’naviy hayotiga aloqador dolzarb masalalarni ilgari surdi. Ularning barchasini Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy kabi salaflarining izidan borib, an’anaviy shakl imkoniyatlarini rivojlantirish yo‘llarida haqiqiy novatorlik bilan hal qildi.

Akademik Oybek Navoiyning dunyoqarashini teran anglashda “Xamsa” ning ilk dostoni “boy va go‘zal bir manba”ligini ta’kidlab, yozgan edi: “Navoiyning “Hayrat ul-abror”da olg‘a surgan hayot falsafasi yaxshilik g‘oyalarini maqtash va tashviq qilish, yomonlik g‘oyalarini esa qoralash, ulardan insonlarni nafratlantirishga qaratilgan. Nihoyatda yaxshilik g‘oyalari qonun va adolatda, ishqda, to‘g‘rilikda va yana bir ko‘p barkamol insoniy fazilatlarda tajassumlanadiki, shoir bularni juda jonli, maroqli, go‘zal she’rlarda naqshlaydi. Xalqqa jabr-zulm eng katta yomonlikdir. Navoiy zulmni qoralaydi. Lekin bu qoralash mavhum mulohaza, va’z-nasihatlarda emas, balki xalqqa jabr-zulm qiluvchi konkret aybdorlarni, jinoyatkorlarni ochib berishda ko‘rinadi” (Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 13 том. 1979, 161 бет).

Ma’lumki, “Xamsa” ning ilk dostoni “Hayrat ul-abror” maqolotlar va ibratli hikoyatlardan iborat. Navoiyshunos olima Nazira G‘anixo‘jayeva “Xamsa”dagi ayrim hikoyatlar haqida” maqolasida shunday yozadi: “Shoir “Hayrat ul-abror”da o‘zi yashagan davrining muhim ijtimoiy-siyosiy hamda axloqiy-ta’limiy masalalari haqida fikr yuritadi. Bular odil va zolim shohlar, adolatsizlik, insofsizlik va egoizmga qarshi kurash, saxovat, himmat, qanoat, mardlik, odob, tavoze, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, ilm va bilim, muhabbat, xalqqa manfaat yetkazish kabi masalalardir. E’tibor berib qarasak, hikoyatlarda obrazlar soni ham nihoyatda oz. Shoir bunday hikoyatlarda biror kichik voqeani hikoya qilish orqali kitobxonlarga pand-nasihat qiladi, ularga o‘git beradi. Ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy masalalarga doir xulosalar chiqaradi. Shuning uchun ham dostondagi hikoyatlar didaktik xarakterga ega.

Dostonning uchinchi maqoloti alohida qimmatga ega. Bu bo‘lim shohlar zikriga bag‘ishlangan. Navoiy shohga qarata “Bil munikim, sen dog‘i bir bandasen”, der ekan uni ko‘pchilikdan “ojiz” ko‘radi. Bu haqiqatni qiyosiy dalillar bilan asoslaydi. S.Ayniyning fikricha, bu bobning “podshoh va arkoni davlatning qilmishlari yanada ochiqroq” fosh qilingan parchalarda shoir hech bir ishoratsiz ochiq-oydin qilib, otashin va dahshatli xitoblar bilan o‘z zamonasining podshosi sulton Husayn Boyqaroga murojaat qiladi. S.Ayniy bu da’voni ilgari surganda mana nimaga asoslanadi: “Hayrat ul-abror”ning yozilgan yili 1484-yil bo‘lib, Husayn Boyqaro va saroydagilarning aysh-ishratga tamoman berilib, xazina bo‘shab, har kechalik aysh uchun har kuni bir yangi zulm ijod qilinib, ularning aysh asboblari muhayyo qilinayotgan yillarga to‘g‘ri keladi (С.Айний. Асарлар, 8 том. 1967, 308 бет).

Akademik V.Zohidovning qarashlari ham ushbu nuqtai nazarga juda yaqin. Professor A.Hayotmetovning ta’kidlashicha, “Hayrat ul-abror”ning ushbu maqoloti “oddiy didaktikadan siyosiy publitsistika” darajasiga ko‘tarilgan g‘oyaviy va siyosiy pafosi o‘tkir qismdir (А.Ҳайитметов. Навоий ижодий методи масалалари. 1963, 68 бет)

Filologiya fanlari doktori A.Abdug‘ofurov bu bobda “asosiy pafos – zolim shoh faoliyatini fosh etish ruhi izchillik bilan saqlanib, rivojlantirilgani holda material bayonida, ayniqsa, intonatsiyada ma’lum almashinishlar mavjudligini ham” etadi (А.Абдуғофуров. Навоий сатираси. 1 китоб, 1966, 257 бет).

Ma’lumki, haqiqiy san’atkor qalbi u mansub davr va zamonning ma’naviy ko‘zgusi. Uning asarlarida davrining murakkab va dolzarb masalalari xuddi ko‘zgudagidek aksini topishi muqarrar holdir. Navoiy o‘z muhiti hamda zamonasidagi sinfiy tengsizlik, zulm, adolatsizlik, umuman hukmron sinf vakillarining tuban kirdikorlariga faol munosabatda bo‘lgan. Tanqid tig‘i bilan ularga qarshi kurashgan, “so‘z” o‘qlari bilan hujum qilishdan aslo cho‘chimagan. Shu ma’noda “Hayrat ul-abror”ning uchinchi maqolotida zolim, fosiq, aysh-ishratga g‘arq bo’lib, xalq va yurt taqdirini unutayozgan shoh va uning atrofidagi mansabdorlar ham ijodiy, ham insoniy jasorat bilan fosh etilgan.

“Xamsa”ning ilk dostoni “Hayrat ul-abror” haqida xamsashunos olima Mavjuda Hamidova shunday yozadi: “Dengizning bir tomchi suvi uning barcha xossa-xususiyatlaridan darak bergani kabi, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”i ham “Xamsa” ning butun latofati, hislati haqida tasavvur qilishga imkon beradi. Chunki bu dostonda boshqa dostonlardagi chin insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, ma’rifat g‘oyalari o‘zining ixcham ifodasini topgan” (Ҳамидова М. “Хамса” мавжлари”, 1968). Dostonda borliqning eng oliy mavjudoti – Insondir, jami borliq ana shu oliy zot – Inson uchun xizmat qilishi kerak, degan fikr o‘rtaga tashlanadi va bu fikr boshqa dostonlarda yanada rivojlantiriladi. Shu jihatdan ham, bu doston boshqa dostonlar uchun umumiy muqaddima hisoblanadi.

Axloqiylik jihatidan yaxshi sifatlarga erishish masalasini Navoiy e’tiqodga olib borib taqaydi. Uning fikricha, imonli kishi barcha yaxshiliklari ma’lum ma’noda o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi. Muammolarning ham shu nuqtai-nazardan turib yechilishini maqsadga muvofiq, deya ta’kidlaydi. Navoiy asarlaridagi axloqqa doir fikrlar xoh amaliy axloqqa, xoh nazariyasiga taalluqli bo‘lsin, ular ulkan bir davr axloqiy qarashlarining bir ko‘rinishi sifatida doimo tadqiq va tatbiqqa loyiqdir. Barcha davrlar uchun birdek ahamiyatli bo‘lgan Navoiyning qarashlari, shu bilan birga o‘z davri axloqiy manzarasini tasavvur qilishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Абдуғофуров. (1966), Навоий сатираси. 1 китоб. –Тошкент, 257 бет.
2. Алишер Навоий, (1960), Хамса. - Тошкент, ЎзСССР ФА нашриёти.
3. Алишер Навоий “Хамса”си: (тадқиқотлар). - Тошкент: Фан. 1986.
4. А.Ҳайитметов. (1963), Навоий ижодий методи масалалари. – Тошкент, 1963, 68 бет.
5. Ойбек. (1979), Мукаммал асарлар тўплами ўн тўққиз томлик. Ўн учинчи том. – Тошкент, Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти.
6. Ойбек. (1979), Мукаммал асарлар тўплами. 13 том. -Тошкент, 161 бет.
7. Ҳамидова М. (1968), “Хамса” мавжлари”, рисола. -Т.: “Фан” нашриёти.
8. С.Айний. (1967), Асарлар, 8 том. - Тошкент, 308 бет.

VI BOB

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI VA AMALIY FILOLOGIYA MUAMMOLARI

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MA’NODOSH SO‘ZLAR USTIDA ISHLASHGA DOIR MASHQLAR XUSUSIDA

Abdusattorova Xadicha Xusanboy qizi,
TOSHDO‘TAU OTAT 2-kurs talabasi
xadichaabdusattorova6@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nutqda sinonimlardan qancha ko‘p foydalanilsa, shuncha uning ta’sirchanligi oshib boradi.Boshlang‘ich sinflarda sinonimlar ustida ishlash orqali nutq jarayoni takomillashtiriladi. Ma’nodosh so‘zlarning ko‘pligi tilning boyligidan dalolat beradi. Sinonim so‘zlar bir-biridan qo‘shimcha ma’no qirrasi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanish jihatidan o‘zaro farqlanadi. Nutqda sinonimlarning har biridan ularga xos belgi, xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Sinonimlar haqida tushuncha, tilni sinonimlar bilan boyitish usullari, sinonimlarning tilshunoslikdagi o‘rni. Boshlang‘ich sinflarda ma’nodosh so‘zlar ustida ishlash, ayniqsa, o‘quvchilarni ma’nodosh so‘zlarni o‘z nutqida qo‘llashga o‘rgatish metodikasi to‘g‘risida mashqlar yoritib berilgan. Bu esa ma’nodosh so‘zlar vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning samarali usullarini ishlab chiqish ona tili o‘qitish metodikasi fani oldida turgan dolzarb masalalardan biri ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Sinonimlar, mashqlar, dars, sinonimlar lug‘ati, sinonimik qator*

Abstract. *In this article, the more synonyms are used in speech, the more effective it is. In elementary grades, the speech process is improved by working on synonyms. The abundance of synonyms indicates the richness of the language. Synonyms differ from each other in terms of additional meaning, emotional color, usage. It is important to use each of the synonyms in speech, taking into account their characteristic features. Understanding of synonyms, methods of enriching language with synonyms, place of synonyms in linguistics. Exercises on working on meaningful words in elementary grades, especially on the methodology of teaching students to use meaningful words in their speech, are highlighted. This shows that the development of effective methods of developing students’ speech by*

means of meaningful words is one of the urgent issues facing the science of mother tongue teaching methodology.

Key words: *Synonyms, exercises, lesson, dictionary of synonyms, synonymous line*

Sinonimlar ustida ishlash lug‘at qatlamini o‘rganishning muhim bo‘limidir. Tilning lug‘at boyligi, asosan, uning sinonimikasi bilan belgilanadi. Narsalar, harakatlar, belgilar haqidagi tushunchalar ko‘plab variantlar, qirralarga ega. Lug‘atda ularni ifodalovchi sinonimlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, tilning ifoda qirralari shunchalik ko‘p bo‘ladi. O‘zbek tili sinonimlarga juda boy. Albatta, boshlang‘ich sinflarga barcha sinonimlarni o‘rgatishning zarurligi va iloji yo‘q. Ammo sinonimikaning boyligi bu qo‘llanadigan leksikaning rang-barang bo‘lishi uchun zaxiradir. Aytib o‘tganimizdek, sinonimlar bu borliqdagi bitta narsani nomlovchi, lekin uning turli tomonini, yoki turlicha nuqtayi nazardan baholash bilan farqlanuvchi so‘zlardir. Sinonimlar o‘zaro lug‘aviy ma’noning qirralari bilan, emotsional-ekspressiv bo‘yog‘i bilan uslubga xosligi bilan, nihoyat izchil qo‘llanishi va boshqa so‘zlar bilan birikuvchanligi (valentligi) ga ko‘ra farq qiladi. Ma’nodosh so‘zlar (sinonimlar) talaffuzi, yozilishi har xil bo‘lgan bir umumiy tushuncha(ma’no) ifodalaydigan so‘zlardir. Sinonimlar bir-biridan qo‘shimcha ma’no qirrasi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanishi jihatidan o‘zaro farqlanadi. Chiroyli, suluv, lobar, barno, latofatli, go‘zal, dilbar sinonimik qatorini tashkil qilgan so‘zlardan chiroyli so‘zi keng tushunchani anglatib, aniq tushunchaga nisbatan ham, mavhum tushunchaga nisbatan ham ishlatilaveradi. Bu so‘zlarning ko‘pchiligi, odatda, badiiy uslubda qo‘llaniladi.

Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo‘yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi (gr. synonymos – “bir nomli”). Sinonim leksema orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi. Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo‘lib, ifoda semasi farqlanadi. Misol sifatida: yuz – bet – aft – bashara – turq qatorini keltirish maqsadga muvofiq. Ma’nodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil: “odam boshi old tomoni”, “peshonadan

iyakkacha”. Ammo ifoda semalari har bir leksemada o‘ziga xos. Aniqrog‘i, “shaxsiy munosabat” har bir leksemada boshqa-boshqa namoyon bo‘lgan. U yuz leksemasida “shaxsiy betaraf munosabat” ko‘rinishida bo‘lsa, turq leksemasida “o‘ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat” tarzida. Ma’nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi turli-tuman. Ulardan ayrimlari quyidagilar: 1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat semasi; 2) leksemaning qo‘llanish davrini ko‘rsatuvchi sema: “eskirgan”, “yangi”, “o‘ta yangi”, “arxaik”, “tarixiy”; 3) leksemaning qo‘llanilish doirasini ko‘rsatuvchi sema: “shevaga xos”, “so‘zlashuvga xos”, “kitobiy”, “ko‘tarinkilik” va h.k. Ma’nodoshlik qatoridagi leksemaning bittasi dominanta (bosh) leksema bo‘lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi, ma’nodoshlik qurshovi hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semasi neytral, betaraf. Masalan, katta – ulkan – bahaybat sinonimik qatori “kitobiylik”, “ko‘tarinkilik” ifoda semalari asosida tashkil topgan. Qatordagi katta leksemasida bu sema belgilanmagan (neytral), ulkan va katta leksemalarida ifodalangan, oydinlashtirilgan (Sayfullayeva R, 2010, 113-114-betlar). Sinonimiya va polisemiya o‘rtasida ma’lum bog‘lanish bor. Xususan, polisemantik leksema har bir ma’nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatorlarga kirishi mumkin: olov yoqmoq va o‘t yoqmoq (sinonimlar: olov va o‘t), quyosh olovi va quyosh harorati (sinonimlar: olov va harorat), olov yigit va g‘ayratli yigit (sinonimlar: olov va g‘ayratli). Bunda olov leksemasining predmet semasi so‘nib, belgi semasi faollashgan. Sinonimlar nutqda muhim uslubiy vosita sanaladi (Jamolxonov H, 2005, 169-bet). Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, shuning uchun bunday so‘zlar bilan ishlash juda muhim. Kishi lug‘atida sinonimlar qancha ko‘p bo‘lsa, uning til ifodaliligi shuncha ortadi. O‘zbek tili – sinonimlarga boy til. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da katta so‘zining 11 ta, marta so‘zining 13 ta, muvofiq so‘zining 5 ta, mo‘ljallamoq so‘zining 8 ta, mo‘lchilik so‘zining 7 ta, noaniq so‘zining 9 ta sinonimi berilgan (Azim Hojiyev, 1974, 119-bet). Boshlang‘ich sinflarda sinonim haqida nazariy ma’lumot berilmaydi, ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashq yordamida shakllantiriladi. Sinonimlar bilan ishlash elementar tarzda 1-sinfdan boshlanadi:

o‘quvchilar berilgan so‘zning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga, 2-3-sinflarda esa berilgan so‘zning 2-3 ta sinonimini topib aytishga o‘rgatiladi. Boshlang‘ich sinflarda ma’nodosh so‘zlarga oid quyidagi qo‘shimcha topshiriqlardan foydalanish mumkin: 1. O‘quvchilarda o‘zbek tilidagi ma’nodosh so‘zlarni ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularga kichikroq va tushunarli matndan ma’nodosh so‘zlarni topishni topshirish mumkin. Masalan, bunday mashqlarni quyidagicha matnda o‘tkazish mumkin.

O‘lkamizda qish

Mana o‘lkamizga qish fasli ham kirib keldi. Kunlar esa ancha qisqardi. Quyosh hammayoqni yoritadi-yu, lekin qizdirmaydi. Biz esa qorni intizorlik bilan kutyapmiz. Qor yog‘masa, qish faslining qizig‘i ham yo‘qday go‘yo. Allaqachon chana, chang‘i va konkilarni tayyor qilib qo‘yganmiz. Qordan esa hamon darak yo‘q. Boshqa davlatlarda bolalar maza qilib chana uchishyapti. Nega bizda qor kam yog‘ar ekan-a?

Hammasi oddiy. Janubga yaqin o‘lkalarning havosi ham issiqroq bo‘ladi. Qor – bu suv tomchilarining yaxlagan holati hisoblanadi. Suv bug‘i osmonda sovuq havo oqibatida muzlaydi va mayda muz parchalariga aylanadi. Keyin esa muz parchalari pastga ya’ni yerga tushayotganda shaklini o‘zgartirib, qor parchalariga aylanadi. Qanchalik sovuq bo‘lsa, qor parchasining hajmi ham kichrayib boradi. Qor parchalari bir biriga aslo o‘xshamaydi.

Topshiriqlar quyidagicha bajariladi:

1. Matndan **o‘lka**, **tayyor**, **atrof**, **parcha**, **muzlamoq** so‘zlariga mos ma’nodosh so‘zlarni toping, tagiga chizing. Tagiga chizilgan so‘zlarni “Ma’nodosh so‘zlar qatori” sarlavhasi ostida yozing. Masalan:

O‘lka-yurt, diyor;

Tayyor-muhayyo, taxt;

Muzlamoq-yaxlamoq;

Parcha-bo‘lak, qism.

Xuddi shunday tartibda bajarilishi kerak.

2. Bu topshiriqda so‘zlar orasidagi ma’nodoshlik munosabatini tushunishda so‘zlar aralash holda berilgan, ro‘yhatdan ma’nodosh so‘zlarni aniqlash va guruhlashga oid topshiriqlar ham yordam beradi. Bunda biz bosh ya’ni dominant so‘zni aniqlab olamiz. Masalan:

Tayyor- muhayyo, taxt, shay, hozir

Bu so‘zlarimizda tayyor so‘zi bosh ya’ni dominant so‘z hisoblanadi.

3. Berilgan so‘zga sinonim tanlash. Bu topshiriqda o‘qituvchi otni o‘tganda yuz so‘zini, sifatni o‘tganda mazali so‘zini, fe’lni o‘tganda muzlamoq so‘zlarini keltiradi. O‘quvchilar bu so‘zlarga sinonim so‘zlarni tanlaydi: yuz- bet, aft bashara, oraz, uzor, ruxsor; mazali- totli, lazzatli,shirin; muzlamoq-yaxlamoq kabi so‘zlarni keltiradi.

4. Keyingi topshiriqda o‘qituvchi o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, aytilgan so‘zning sinonimini topishni bajarish kabi metodlarni qo‘llasa ham bo‘ladi:

Uzoq-olis, yiroq; kuchsiz-ojiz, nimjon.

5. O‘quvchilarga gaplar berilib, so‘zlarini sinonimlari bilan almashtirish vazifasi topshiriladi. Masalan:

Bizning o‘lkamizga bahor nafasi kirib keldi. Bu gapdagi o‘lka so‘zini yurt, diyor so‘zlari bilan bahor so‘zini esa ko‘klam so‘zlari bilan almashtirsa bo‘ladi.

6. Sinonim so‘zlar ustida bajariladigan mashqlarning oxirgi maqsadi o‘quvchilarni fikrini ifodalash uchun o‘z lug‘at boyligidan sinonim so‘zlarni tanlab ishlatishga o‘rgatishdir.

Shuning uchun ham ma’nodosh so‘zlar ustida bajariladigan mashqlar tizimida o‘quvchilarni o‘z nutqida ma’nodosh so‘zlarni qo‘llashga o‘rgatadigan ijodiy mashqlar alohida o‘rin tutishi lozim. Bunday mashqlar o‘quvchilarning ongini rivojlantirishda ham yordam beradi. O‘quvchilar o‘zbek tilidagi barcha so‘zlarning ma’nodoshlarini bilmasligi tabiiy. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga kerakli adabiyotlarni ko‘rsatishi va foydalanishga o‘rgatishi kerak. Bunday kerakli adabiyotlardan biri A.Hojiyev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” kitobidir. Shu kabi foydali qo‘llanmalardan ko‘plab foydalanish mumkin. Shunday qilib, sinonim ya’ni ma’nodosh so‘zlar o‘zbek tili lug‘atini

boyitishda katta hissa qo‘shadi. Faqat sinonim so‘zlardan o‘z o‘rnida maqsadga muvofiq foydalanish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azim Hojiyev, (1974). O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati, – Toshkent: O‘qituvchi.–B. 410.

2. Jamolxonov H. (2005),–Hozirgi o‘zbek adabiy tili, –Toshkent: Talqin nashriyoti, B. 272.

3. Sayfullayeva R.R. (2010), Hozirgi o‘zbek adabiy tili, –T.: Fan va texnalogiya nashriyoti, ,– B. 404.

O‘QUVCHILARNI O‘QUV ADABIYOTLARI USTIDA MUSTAQIL ISHLASHGA O‘RGATISH USULLARI

Anvarova Zilola Akbar qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-kurs magistranti
anvarova@navoiy-uni.uz

Annotatsiya. *Uzluksiz mustaqil ta’lim olish usullaridan biri o‘quvchilarning o‘quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlashidir. O‘quv adabiyotlari bilan olib boriladigan mustaqil ishlar ma’lum metodik talablarga rioya qilgan holda tashkil etiladi. Ta’lim oluvchilarni o‘quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlashga o‘rgatishda mustaqil o‘rganiladigan o‘quv materiallarini to‘g‘ri tanlash; o‘quvchilarning darslik yoki o‘quv adabiyotllari bilan mustaqil ishlashlari uchun suhbat o‘tkazish; o‘quv adabiyotlari bilan ishlash vaqtini belgilash kabi umumdidaktik talablarga amal qilish maqsadga muvofiq.*

Kalit so‘zlar: *Adabiy ta’lim, jarayon, o‘quv materiallari, o‘quv adabiyoylari, mustaqil ishlar, o‘quvchilar, umumdidaktik, topshiriq, darslik, metod.*

Abstract. *One of the methods of continuous independent education is students' independent reading of educational literature. Independent work with educational literature is organized in compliance with certain methodological requirements. Correct selection of self-study educational materials when teaching learners to work independently with educational literature; holding a conversation*

for students to work independently with textbooks or educational literature; It is possible to follow the general requirements, such as uploading the working time with o‘ literature.

Keywords:*Literary education, process, educational materials, educational literature, independent work, students, general didactics, task, textbook, method.*

Uzluksiz mustaqil ta’lim olish usullaridan biri o‘quvchilarning o‘quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlashidir. O‘quv adabiyotlari o‘quvchilar uchun asosiy bilim manbayidir. Ular nafaqat o‘zlashitirsh, balki bilish faoliyatini rivojlantirish va faollashtirishga ham xizmat qiladi. O‘quv adabiyotlari bilan olib boriladigan mustaqil ishlar ma’lum metodik talablarga rioya qilgan holda tashkil etiladi. Bular:

1. O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda darslikdan qanday foydalanish usullari aniqlanadi.

2. O‘rganiladigan mazvuga oid tushunchalarning quruq yod olish yoki yuzaki eslab qolinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3. O‘quvchilar ijodiy va mantiqiy firlashga o‘rgatiladi.

Ta’lim oluvchilarni o‘quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlashga o‘rgatishda mustaqil o‘rganiladigan o‘quv materiallarini to‘g‘ri tanlash; o‘quvchilarning darslik yoki o‘quv adabiyotllari bilan mustaqil ishlashlari uchun suhbat o‘tkazish; o‘quv adabiyotlari bilan ishlash vaqtini belgilash kabi umumdidaktik talablarga amal qilish maqsadga muvofiq.

N.Tursunovaning qayd etishicha, “O‘quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlashlari uchun o‘quvchilarga quyidagi mazmundagi topshirilarni berish samaralidir:

a) kuzatish natijalarini yoki berilgan mavzu bo‘yicha to‘plangan dalillarni tizimlashtirish, mavzuga oid asosiy muammolarni aniqlash, tushunchalarni guruhlarga ajratish;

b) o‘rganilgan ma’lumotlarni bir-birlari bilan taqqoslash va umumlashtirish, umumiy xulosalar chiqarish va ularni asoslash;

d) mustaqil o‘rganilgan bilimlarni amalda qo‘llash.

Ta’lim-tarbiya jarayonini o‘quv adabiyotlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘quv adabiyotlariga darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik tavsiya, lug‘at yoki ensiklopediya kabilar kiradi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida darslik darsda ham, uyda ham ta’lim oluvchilarning fan asoslari bilan chuqur tanishtiruvchi manba hisoblanadi. Undan to‘g‘ri va unumli foydalanilsagina o‘z natijasini beradi. O‘quvchilarning o‘quv-biluv samaradorligiga erishish uchun mustaqil ishlarning eng ko‘p tarqalgan shakli – darsliklardan foydalanish texnologiyasini o‘zlashtirishga o‘rgatish maqsadga muvofiq. Bu esa, o‘z navbatida, ularning ijodiy qobiliyatlari rivojiga katta hissa qo‘shadi.

Professor B.To‘xliyev mustaqil ishlarni quyidagicha turkumlarga ajratadi:

– o‘quvchilarning aqliy-irodaviy, jismoniy kuchlarini talab etadigan ishlar;

– muayyan bilimlarni talab etadigan ishlar;

– muammoli vaziyatni his etish va uni bartaraf qilish bilan bog‘liq ishlar;

– topshiriq yoki vazifani bajarish jarayonida ijodiy yondashishni talab qiladigan ishlar.

Adabiyot o‘qitishda mustaqil ishlar maqsadiga ko‘ra ham farqlanadi. Ular tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Yangi bilimlarni o‘zlashtirishni nazarda tutadigan mustaqil ishlar.
2. Egallangan bilimlarni amalga tatbiq etishga doir mustaqil ishlar.
3. Takrorlash bilan bog‘liq mustaqil ishlar.
4. Bilimlarmi tekshirish, nazorat qilishga doir mustaqil ishlar.

Shundan kelib chiqib, biz o‘quv adabiyotlari, darsliklar bilan ishlash, o‘quv materiallarini qiyoslash, topshiriqlarni bajarish, insho, esse, taqriz, tadqimot, jadvallar, xaritalar ustida ishlasha kabilarni ham mustaqil ishlarga kiritamiz. Ularning har biri o‘ziga xosligidan kelib chiqib, muayyan holdagi yondashuvlarni taqozo etadi.

Darslik bilan ishlash boshqa turdagi o‘quv adabiyotlaridan farqli ravishda butun o‘quv yili davomida tartib bilan ish olib borishning qat’iyligadadir. Har bir o‘quv yilida o‘qituvchi tomonidan dastur bo‘yicha adabiyot fanining o‘ziga xosliklari, fanni o‘rganishdan asosiy maqsad, o‘quvchilarning avvalgi o‘quv yilida

qanday nazariy tushunchalarni o‘zlashtirgani, yangi o‘quv yilida adabiy ta’limni tashkil etish bo‘yicha darslik mundaraijasi asosida belgilab chiqiladi. Shuningdek, qayd etilganlar bilan cheklanilmasdan, har bir mavzuni o‘zlashtirish vaqtida o‘quvchilarning darslikka munosabatini shakllantirishga oid zarur ko‘rsatmalar berish ishlari ham o‘quv yili davomida uzluksiz va izchil tarzda olib boriladi.

Maktabda mustaqil ishlarni tashkil etish, avvalo, darslik ustida ishlashga taalluqli bo‘lib, jarayon samaradorligini ta’minlash uning tarkibini belgilash masalasini talab etishini har bir o‘qituvchi puxta bilishi muhim sanaladi.

Professor A.Zunnunov ham adabiyot darsliklari ustida ishlashga e’tiborini qaratgan holda matnlar va matndan tashqari tarkiblarni alohida ta’kidlaydi. Olmning fikricha, **matn tarkiblari:** *yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyati, badiiy asar, asar tahlili, adabiy-nazariy tushunchalar, qo‘shimcha o‘qiladigan asarlar, sinfdan tashqari o‘qiladigan asarlar, lug‘atlar, izoh-sharhlar kabi izohlovchi qismlar*ga ajratib ko‘rsatiladi. Shuningdek, *savol-topshiriqlar, ijodkorlarning fotosuratlari, asarlarga ishlangan rasmlar, namunlai ko‘rsatmalar, rejalar, kirish so‘z, so‘nggi so‘z, epigraf va sarlavhalar* **matndan tashqari tarkiblar** sirasiga kirishi qayd etiladi.

Maktabda mustaqil ishlarni tashkil etish masalasini monografik yo‘sinda o‘rgangan metodist olim S.Machonov o‘qituvchining darslik ustidagi faoliyati quyidagi jarayonlarni qamrab olishini ta’kidlaydi:

1. Tayyorgarlik davri. Mazkur bosqichda o‘quvchilar darslik-majmuada berilgan asarlar muallifi, sarlavhasi, epigrafi, janri, bob va qismlari bilan yaqindan tanishadilar, ularning o‘tilgan mavzular bilan aloqasini aniqlaydilar.

2. Bilimlarni o‘zlashtirish. Bunda asosiy matnni o‘qib-o‘rganish orqali mavzuni o‘zlashtirish yo‘lidan boriladi. Matnda ajratib ko‘rsatilgan nazariy tushunchalar bayoni va xulosalarga alohida e’tibor qaratiladi. Ilova qilingan rasm va jadvallarning mavzuga aloqasi o‘rganiladi. Tushunilishi qiyin so‘zlar ma’nosi izohlanadi. *3. Bilimlarni mustahkamlash* jarayonida o‘rganilgan matn mazmuni hikoya qilinadi. U to‘la o‘zlashtirilmagan holda qayta o‘qiladi. Matn oxirida savol-topshiriqlar ustida ishlanadi. Reja tuzilib, zarur hollarda konspekt yozdiriladi.

4. Yakuniy bosqich. Matnda aks etgan asosiy fikr va g‘oya avvalgi darslarda yoritilgan masalalar bilan qiyoslanadi. O‘zlashtirilgan bilimlar umumlashtirilib muayyan xulosalarga kelinadi.

Bizningcha, yuqorida keltirilgan bosqichlar, ya’ni ma’lum tizim asosida yaratilishi o‘quvchilarning darsliklar ustida ishlashlarini yengillashtiradi.

Turli bosqichlarda ta’lim oluvchilarning kitob ustida, avvalo, darsliklar bilan ishlash malakalari quyi tizimdan boshlab shakllantirilmaganligining obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. Masalan, nazariy qismlar tilining murakkabligi, savol-topshiriqlarning mustaqil firklashga yo‘naltirishi deyarli talab darajasida emasligi, suratlar va jadvallar kabi qo‘shimcha didaktik vositalarning estetik talablarga mos kelmasligi shular jumlasindandir. Yana bir jihati – o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun asosiy manba bo‘lgan darslik va majmualar ustida ishlashga talab darajasida o‘rgatilmasligi.

Amaliy faoliyatda aksariyat o‘qituvchilar o‘quvchilardan asar matnini o‘qish, berilgan savollarga javob qaytarish hamda topshiriqlarni bajarishni so‘rash bilan cheklanadilar. Bu to‘g‘ridek ko‘rinsa ham, bu kabi faoliyat bilan kifoyalanish maqsadga muvofiq emas. Binobarin, bunday holat o‘quvchilarning savollarga javob berishini ta’minlasash nuqtayi nazaridan o‘rinlidek, lekin ularni mustaqil fikrlashdan mahrum etishini ham unutmaslik kerak. Aslida bunday jarayon o‘quvchilarni tayyor bilimlarni olishga moyilligini oshiradi, rivojlanishga loqaydligini tarbiyalaydi. O‘qituvchining vazifasi darsliklardagi bilimlarni o‘zlashtirishni ta’minlashga qaratilsa ham o‘quvchi ularni onli ravishda o‘zlashtirish yo‘lidan bormasligi aniq. Zero, tayyor bilimlar bir xil fikrlovchi, intilishlari sust shaxsni shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidlash mumkin.

O‘quvchilarning darsliklar ustida ishlashlarini tizimli holda yo‘lga qo‘yishda, shuningdek, oila a’zolarining ham hissasi katta. Tajribalarimiz davomida ota-onalar farzandlarining uy vazifalarini tayyorlash choqlarida ularga tushuntirishga yordamlashmasliklari, ayrim hollarda o‘zlari bajarib erishlari ma’lum bo‘ldi. Ko‘rinadiki, darsliklar ustida ishlash bilish jarayonlarini rivojlantiribgina qolmay, balki katta tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi.

Yaxshi ma’lumki, “Adabiyot” darsliklari ustidagi ishlar o‘rganilayotgan asar muallifi va asar nomi bilan tanishishdan boshlanadi. Muallifini aniqlash asarning mavzu doirasi, janriy xususiyatlari bilan bog‘liq. Aksariyat o‘quvchilar o‘qigan asarlari mualliflar haqida ma’lumotga ega emasliklari faqatgina e’tiborsizlik namunasi bo‘lmasdan, balki badiiy didi nochorligi yoki dunyoqarashining torligining belgisi hamdir.

Asar sarlavhasi bilan tanishish mutolaa jarayonida katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Negaki, o‘rinli va to‘g‘ri tanlangan sarlavha asar mazmunini o‘zlashtirishga keng yo‘l ochadi. Sarlavhada muallif mahorati va iste’dodi o‘z ifodasini topishini o‘quvchiga yetkazish maqsadga muvofiq. O‘quvchi asar sarlavhasini esda tutmasa uning mazmunini ham esidan chiqa boshlaydi. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilar boshlang‘ich sinf darsliklaridan boshlab savol-javob, xitob va xabar tarzidagi turli shakl va mazmunli sarlavhalarga duch keladilar. Sarlavhalarda asar mazmuni aks etishi qatori o‘quvchilarning qiziqish va istaklari ham e’tiborda turadi. Masalan, A.Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?”, Maxtumqulining “Namasan?” kabi she’rlarining sarlavhasi so‘roq shaklida qo‘yilishi o‘quvchilarning dunyoni anglash borasidagi xohishlariga mos kelib, fikrlashlariga undaladi.

Sarlavhalarning savol tarzida qo‘yilishi kattalarga mo‘ljallangan asarlarda ham uchraydi. Bu esa o‘quvchilar diqqatini asosiy va muhim masalalarga qaratishi nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir. Albatta, yuqorda ta’kidlangan kabi sarlavhalar o‘quvchilardan javoblarini ham talab etadi. Ya’ni, matn bilan tanishish jarayonida shaxsiy fikr-mulohazalarini muallifniki bilan solishtiradi, zarur xulosalarga keladi. Demak, sarlavhalar asar mazmunini o‘zlashtirishda muhim metodik vazifani bajaradi. Shu bois asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatini tahlilga tortishda o‘quvchilar diqqatini sarlavha zamiriga yashirin bo‘lgan ma’no va uning xosliklarini ochishga qaratish matn mazmunini o‘zlashtirishga zarur shart-sharoit yaratiladi.

Ayrim asarlarning nomlanishi ba’zi hollarda o‘quvchiga murojaat shaklida ham keladi. Masalan, Usmon Nosirning “Yur, tog‘larga chiqaylik!”, G‘afur

G‘ulomning “Sen yetim emassan”, Berdaqning “Nodon bo‘lma”, Furqatning “Sayding qo‘ya ber, sayyod” kabi asarlari sarlavhasi xitob shaklida qo‘yilishi bilan misol bo‘la oladi.

Darsliklardagi ayrim asarlarning sarlavhalariga nazar solinsa, ularda mualliflarning o‘z qahramonlariga munosabatlari in’ikosi ham oydinlashadi. Masalan, “Mehrobdan chayon” romanida A.Qodiriyning mulla Abdurahmonga, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” nomida Hamzaning Maryamxon bilan Mahmudxonga, “Padarkush” fojiasida Behbudiyning Toshmurodga, shuningdek, “Sinchalak” qissasida A.Qahhorning Saidaga munosabatini sezish mumkin. O‘quvchilar aynan shu jihatni to‘g‘ri anglashlari uchun ularga yo‘naltiruvchi savollar bilan murojaat qilish o‘rinli bo‘ladi.

Aytish joizki, badiiy asarlarning sarlavhasi ustida ishlash matnni o‘qishdan oldin, o‘qish davomida va o‘qiganidan so‘ng ham davom etadi. Bu esa, o‘quv tahlilining o‘ziga xos ko‘rinishda kechishini namoyon etadi.

Badiiy asar nomi ilmiy asarlar nomidan obrazlilgi bilan farqlanadi. Bu muayyan ma’noda adabiyotning tarixiy evolyutsiyasi aks etishini ham ko‘rsatadi. Masalan, o‘tgan asrning boshlarida yaratilgan asarlarning “Padarkush”, “Baxtsiz kuyov”, “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Kecha va kunduz” kabi nomlarda atalishi “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Tohir va Zuhra” kabi folklor asarlariga o‘rgangan kitobxonlar uchun yangilik bo‘lgan. Asar nomida uning mavzu doirasi, xarakteri o‘z ifodasini topadi. Tajribali kitobxongina asar sarlavhasidanoq unda nima haqida so‘z borishini taxmin qiladi. O‘zini yozuvchi tasvirlagan davr va hayotga kirish uchun ruhan hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тили ва адабиёти дарсликлари мезони. (1994). Тошкент. ЎЗПФИТИ.11-б.

2. Матжон С. (1996). Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. Тошкент. Ўқитувчи.60–61-б.

3. Тўхлиев Б. (2006). Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент.Янги аср авлоди, 137-б.

MAHALLIY TILLARNING DAVLAT TILLARI TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Barakayeva Sabrina Qahramon qizi,
ToshDO'TAU AFF 1-bosqich talabasi.
sabrinabarakayeva.com@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada rasmiy va mahalliy tillarning xususiyatlari, O'zbekistonda mahalliy tillarning o'zbek tiliga ta'siri, mahalliy tillarning hududiy tarqalishi, ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilingan hamda mahalliy tillar sirasida e'tirof etiluvchi tojik va qozoq tillarining O'zbekistondagi maqomiga, mamlakat lisoniy manzarasidagi holatiga e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Rasmiy til, mahalliy til, davlat tili, mahalliy aholi, o'zbek tili, tojik tili, qozoq tili, leksika, qardosh tillar, o'zlashma so'z.*

Abstract. *The article presents the characteristics of official and local languages, the influence of local languages on the Uzbek languages in Uzbekistan and the regional distribution of local languages. Also, their place in the education system is analyzed and attention is paid to the status of Tajik and Kazakh languages in Uzbekistan. Which are recognized among local languages and their situation in the linguistic landscape of the country.*

Keywords: *Official language, local language, state language, local population, Uzbek language, Tajik language, Kazakh language, lexicon, related languages.*

Rasmiy til ma'muriyat tomonidan homiylik qilinadigan va nafaqat muloqot balki, yozishmalarda ham keng qo'llanadigan tildir. Davlat tili- davlatning asosiy aholisi tomonidan davlat ichida umumiy qo'llaniluvchi til. U siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotning barcha sohalarida keng qo'llanadi. Til vositasida davlat o'z fikrini ifodalaydi, faoliyatini olib boradi va xalq bilan muloqotda bo'ladi. Davlat tili-milliy davlat suvereniteti belgisi. U- davlat irodasini ko'rsatuvchi, harakatlarni amalga oshishi uchun xizmat qiluvchi, davlatchilikning funksiyalovchi elementi (Zaripov R., 2021, 36-bet).

Demak, rasmiy va davlat tili bir biridan farq qilmaydi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu O'zbekiston til siyosati nuqtai-nazaridan, ammo ayrim

mamlakatlarda rasmiy til yagona, davlat tillari maqomidagi tillar bir nechta bo‘lishi mumkin. Rasmiy til rasmiy-idoraviy uslubda yuritiluvchi og‘zaki va yozma birliklarni o‘z ichiga oladi. Davlat tili esa tilning har qanday qo‘llanish imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Mahalliy tillar kam sonli aholiga xizmat qiladigan tillardir. Bunday tillarning ma’lum qismi og‘zaki shaklda mavjud bo‘lib, aholining kundalik aloqa-munosabat ehtiyoji uchun xizmat qiladi (Xolmanova Z., 2020, 195-bet). O‘zbekistonda yigirmadan ortiq mahalliy tillar farqlansa, ularning ko‘pchiligining yozuv tizimi mavjud emas. Demak, mahalliy tillar son jihatdan ko‘p bo‘lmagan, kichik aholi tomonidan so‘zlanadigan tillardir. Mahalliy tillarning O‘zbekistondagi statistik holatiga to‘xtalsak, ushbu tillarni quyidagicha bayon qilish mumkin: 1989-yildagi ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatdagi eng yirik etnik guruhlarni o‘zbek, rus, tojik, qozoq, turkman, qirg‘iz millati vakillari tashkil qilgan. Hozirda yurtimizda 271 ming nafardan ortiq qirg‘iz, 200 mingga yaqin turkman, 1.5 milliondan ortiq tojik va 800 mingdan ortiq qozoq istiqomat qiladi(https://interkomitet.uz).

Xususan, mahalliy tillar ichida keng tarqalgan til sifatida e’tirof etiladigan tojik tili bugungi kunda, Samarqand, Buxoro, qisman Andijon, Namangan, Farg‘ona, Sirdaryo, Xorazm, Toshkent viloyatlarida mavjuddir. O‘zbekistonda o‘zbeklar bilan umumiy etnik ildizga ega bir yarim milliondan ortiq tojik millati vakillari yashaydi. Binobarin, Respublika tojik milliy madaniy markazi O‘zbekistonda 2008-yili tashkil qilingan bo‘lib,uning tarkibiy tuzilmalari Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand viloyatlaridagi bo‘linmalari, Buxoroda “Oftobi So‘g‘diyon “ tojik-fors markazi, 1990-yil Toshkentda tashkil etilgan “Oriyono” hamda Chirchiq shahridagi “So‘g‘diyona” markazlari faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda tojik tilining Respublika ta’lim tizimidagi o‘rni anchagina yuqori. Xususan, yurtimizda mazkur tilda 255 ta maktab faoliyat olib borsa, respublikaning “O‘zbekiston” nashriyotida ularga mo‘ljallangan darsliklar chop etiladi. Ushbu tilda faoliyat olib boruvchi maktablar uchun Samarqand davlat universiteti filologiya fakultetining tojik tili bo‘limida, Farg‘ona viloyatining So‘x

tumanidagi kollejda va Termiz davlat universiteti tojik filologiyasi sharq tillari kafedralari va bir qator muassasalarida mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Ikki til o‘rtasida o‘zaro ta’sir va aloqa natijalari tillarning taraqqiy etishida va rivojlanishida asosiy omil sanaladi. So‘z o‘zlashtirish boshqa til so‘zlarining o‘zbek tiliga olinishidir. Bu jarayon o‘zbek tili leksikasining o‘zlashgan qatlamini yuzaga keltiradi. (Jamolxonov H., 2005, 195-bet). Xususan, o‘zbek va tojik tillari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ikkala til leksik hatto, grammatik xususiyatlarida ham aks etgan. Hozirgi o‘zbek tili leksikasiga anchagina miqdorda tojik tilidan so‘zlar o‘zlashgan bo‘lib, o‘zbek tili leksikasida turkiy so‘zlardan keyin miqdor jihatidan ikkinchi o‘rinda turadi. Lekin, o‘zbek tilining sohaviy terminologiya sistemalarida bu ko‘rsatkich farqlanadi. Deylik, o‘zbek quruvchilik terminologiyasida tojikcha o‘zlashmalar arabcha o‘zlashmalarga nisbatan ko‘p bo‘lsa, o‘zbek kitobatchilik terminologiyasida buning tamoman aksini ko‘rishimiz mumkin.

Respublikada tojik millati vakillaridan keyin eng yirik mahalliy aholi qatlami Qozoqlar hisoblanadi. Qozoq millati vakillari 1999-yilda 940,6 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda 800 mingdan ortiq kishi atrofidadir. Yurtimizda qozoq tili va qozoq madaniyati ancha rivojlangan bo‘lib, Qoraqalpog‘istonda respublika qozoq teatri, Mirzacho‘l va Navoiy viloyatida musiqali drama teatrlari ochilgan. Xususan, Qozoq madaniyat markazi 1989-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Qozoq tilida bir qancha gazeta va jurnallar nashrdan chiqqan va ko‘rsatuvlar efirga uzatilmoqda. “Nurli yo‘l “ respublika davlat gazetasi, respublika radio va televideniyasida efirga uzatiladigan “Zamandas”, “Didar”, “Dostik” kabi ko‘rsatuvlar shular jumlasidandir. Shuningdek, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlaridagi telekanallarda va radiolarda qozoq tilida ko‘rsatuv hamda eshittirishlar muntazam efirga uzatiladi.

Qozoq tilining ta’lim tizimidagi o‘rni ham ahamiyatli. Bugungi kunda yurtimizning Qozog‘iston bilan universitetlararo aloqalari yanada kengaydi. Mamlakatimizning 6 ta oliy o‘quv yurtida qozoq tili va adabiyoti yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlanmoqda (https://m.kun.uz/uz/news/2019/02/21/ozbekistonda-qancha-maktab-bor-va-ularda-necha-nafar-oquvchi-ta’lim-oladi). Shuningdek,

qozoq tilida 370 ta maktab yuritiladi hamda ushbu tilda 54 926 nafar o‘quvchi ta’lim oladi.

Qozoq tili hozirgi kunda oila ichidagi muloqotda foydalanilib, biznes va jamoa sohalarida kam namoyon bo‘lmoqda. Tillarning o‘zaro aloqasi hamda hamkorligi ko‘p holda shu tillar orasida so‘z almashishga, bir tildan ikkinchisiga so‘z o‘tishiga bog‘liq bo‘ladi. O‘zbek tili ham tarixda turkiy tillar oilasiga mansub qardosh tillar bilan, chunonchi, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur, qoraqalpoq tillari bilan aloqada bo‘lgan. Va bunday aloqa hozir ham davom etmoqda. Shunday aloqalar tufayli ham O‘zbekistonning bir necha viloyatlarida o‘zbek va qozoq tilida parallel gaplasha oluvchi ikki tilli aholi vujudga kelgan. Bunday genetik jihatdan aloqador bo‘lgan ikki qardosh tilda gaplasha olish yurtimizda yashovchi aholi orasida qadimdan mavjuddir.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, xalqaro munosabatlar taraqqiyoti, madaniy aloqalar va ular o‘rtasidagi yaqinlik avvalambor, xalqning leksikasida namoyon bo‘ladi. So‘zlarning o‘zlashishi borasida hali hanuzgcha tadqiqotlar qilinmoqda va chet so‘zlarning o‘zlashish sabablari, xususiyatlarini o‘rganish kabi bir qator masalalar dunyo va Respublika tilshunoslari tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Leksika va uning har bir qatlamlari o‘ziga xos lisoniy qiymatga ega. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, tojik tilidan kirib kelgan so‘zlar o‘zbek tilining leksikasiga anchagina ta’sir o‘tkazgan. Shu bilan bir qatorda, ushbu tildan kirgan so‘zlar o‘zbek tili lug‘at boyligining ortishiga sabab bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H.(2005). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin. 195 b.
2. Xolmanova Z. (2020). Tilshunoslik nazariyasi – Toshkent: Shafoat Nur Fayz.26.
3. Zaripov R. (2021). Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda til siyosati:
4. Bilingvizm va pluralingvizm: Filol. Fal. Fan. Dok. (PhD)… Diss. – Toshkent.
5. https://interkomitet.uz
6. https://m.kun.uz/uz/news/2019/02/21/ozbekistonda-qancha-maktab-borva-ularda-necha-nafar-oquvchi-ta’lim-oladi

O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY TILLAR TA’LIMI

Baratova Marjona Zayniddin qizi,
TOSHDO‘TAU O‘TT 2-kurs talabasi
marjonabaratova04@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi kunda O‘zbekistonda chet tillarini o‘qitish va o‘rganishga bo’lgan e’tibor, amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lumot berilgan. O‘quv muassasalarining chet tili darsliklari bilan ta’minlanishi va ularning avvalgi yillarga qaraganda o‘sish ko‘rsatkichi haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek qardosh mamalakatlarda ham chet tillarining hozirgi kundagi ahamiyati o‘qitish ko‘rsatkichi haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim jarayoni, xorijiy tillar,xalqaro sertifikat,chet tili darajasi,darsliklar.*

Abstract*. This article provides information about the attention paid to the teaching and learning of foreign languages in Uzbekistan and the work being done. The provision of foreign language textbooks to educational institutions and their growth rate compared to previous years is provided. Also, information is given about the importance of teaching foreign languagesin sister countries.*

Keywords:*Educational process, foreign languages, nternational certificate, foreign language level, textbooks*

Ma’lumki, ta’lim jarayoni ikki yirik tarkibiy qismdan, ya’ni o‘rgatish va o‘rganish jarayonlaridan iborat bo‘lib, bunda o‘qituvchi-pedagoglarning roli ahamiyatlidir. Sababi, aynan ularning o‘zlari o‘quvchi-talabalarning sifatli bilim olishlari, o‘tilayotgan fanlarni yaxshi o‘zlashtirishlari, hamda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda ularga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish uchun mas’uldirlar. Ushbu o‘rinda, tinglovchilarning til o‘rganish jarayonida bir qator strategiyalar mavjudligidan bexabar ekanliklari yoki ulardan to‘g’ri foydalana olmasliklari ham asosiy sabablardan biri hisoblanadi.

Davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida, so‘nggi paytlarda xorijiy

tillarni o‘qib-o‘rganish orqali zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo‘lish mamlakatning taraqqiy etishi va gullab yashnashida muhim o‘rin tutuvchi intellektual salohiyatning ko‘tarilishiga zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston hududida qadimdan turli tillar oilasiga mansub til va lahjalar amalda bo‘lgan. Qadimda bu hududlarda sak-massaget tillari muomalada bo‘lgan. Keyinchalik bu hududlarda toxar tillari, baqtriya, qadimgi xorazmiy hamda sug‘d tili, qadimgi turk tili keng tarqalgan. Islom dini yoyilgach, arab va fors tillari mintaqada o‘z hukmronligini o‘rnatdi. Shundan so‘ng mintaqada yaratilgan aksariyat tarixiy manbalar arab yoki fors tili (ba’zan eski o‘zbek tili)da bitila boshladi. Bu holat to Chor Rossiyasigacha davom etdi. O‘zbekistonning lingvistik tasviri XX asrdagi siyosiy va tarixiy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Mamlakatda o‘zbek tili ustunlik qiladi. O‘zbek tilida aholining 80% ga yaqini (asosan etnik o‘zbeklar) so‘zlashadi. Aholining qolgan 20% o‘nlab boshqa tillarni o‘z ona tili deb biladi.Mamlakat tillarining aksariyati ikki yirik til jamoalariga tegishli:Oltoy tillari oilasining turkiy tillar tarmog‘i hamda hind-yevropa tillari oilasi. Turkiy guruhga o‘zbek,qoraqalpoq,qozoq,turkman,uyg‘ur,qirg‘iz va ozarbayjon tillari kiradi, bu tillarda respublika aholisining 85% dan ortig‘i so‘zlashadi. Hind-yevropa tillaridan eng keng tarqalgani rus va tojik tillaridir; so‘nggi paytlarda ingliz tili ham qo‘llanilmoqda va keng rivojlanmoqda (albatta, chet tili sifatida)

Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir nechta yo‘nalishi tanlab olinib, alohida e’tibor bilan rivojlantirilmoqda. Bu yil chet tillari ana shunday ustuvor sohalar etib belgilangan. O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Bugungi kunda yurtimizdagi 25 ta oliy ta’lim muassasasida o‘qitish chet tilida olib borilmoqda. 2016-yilda ular atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikati olgan bitiruvchi o‘quvchilar soni oxirgi 3 yilda 10 baravarga oshgan. Joriy yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali 350 nafar talabaning nufuzli xorijiy universitetlarda o‘qishi uchun stipendiyalar ajratildi. Bu o‘tgan yillarga nisbatan 5 baravar ko‘pdir. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida

6-may kuni chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Davlatimiz rahbari o‘qituvchilarga munosib sharoit yaratish, malakasiga qarab ularni rag‘batlantirish zarurligini ta’kidladi. Xalqaro sertifikatning dastlabki va o‘rta darajasini olgan o‘qituvchilarning oylik maoshiga 40 foiz, yuqori natija ko‘rsatganlarga 50 foiz ustama berilishi belgilandi. Bundan tashqari, yuqori ball olgan o‘qituvchilarga xalqaro sertifikat olish uchun test topshirish xarajatlari qoplab beriladi. Kelgusi yildan boshlab, ishga qabul qilinayotgan chet tili o‘qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo‘lish talabi kiritiladi. Keyingi uch yil davomida maktablardagi 53 ming nafar chet tili o‘qituvchilarining barchasi xalqaro sertifikat olishi zarurligi ta’kidlandi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, maktablardagi vakant o‘rinlarni malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish vazifasi qo‘yildi. Chet tillarini chuqur o‘rgatish maqsadida tuman va shaharlarda 207 ta maktab tanlab olindi. Ushbu maktablarda xorijiy kitoblar, ilg‘or o‘quv dasturlari va metodikalaridan erkin foydalanish hamda fanlarni chet tilida o‘qitish yo‘lga qo‘yilishi haqida aytib o‘tildi. Viloyat hokimliklariga maktablarda chet tilini o‘qitish sifatini oshirish uchun mahalliy byudjetdan har bir tuman va shaharga 1 milliard so‘mdan mablag‘ ajratishga ko‘rsatma berildi. Ixtisoslashgan maktablar va oliy o‘quv yurtlariga til egasi bo‘lgan xorijlik o‘qituvchilarni jalb qilish, har bir tumanda tanlov o‘tkazib, chet tili o‘qituvchilarini xorijda malaka oshirishini yo‘lga qo‘yish muhimligi aytildi. Davlatimiz rahbari chet tillari bo‘yicha eng yaxshi maktablarni aniqlash uchun Prezident sovrinini ta’sis etish taklifini bildirdi. Bunda tuman, shahar, viloyat va respublika darajasida tanlov o‘tkaziladi. Tuman va shahar bosqichida 1-o‘rinni olgan maktablar 100 million so‘mdan, viloyat bosqichi g‘oliblari 250 million so‘mdan, mamlakatimiz miqyosidagi eng yaxshi maktab esa 500 million so‘m miqdorida mukofotlanadi. Ikkinchi va uchinchi o‘rin sohiblari ham mos ravishda rag‘batlantiriladi. Ushbu maktablarning direktor va o‘qituvchilari davlat mukofotlariga tavsiya etiladi. O‘qitish sifati xalqaro andozalarga mos darslik va metodik qo‘llanmalarga ham bog‘liq. Shu bois, ingliz tili bo‘yicha Kembrij universiteti nashriyoti darsliklarini 200 ta maktabda aprobatsiyadan o‘tkazilib,

keyingi yildan barcha maktablarda tatbiq etish vazifasi qo‘yildi. Bunday ishlar rus, nemis, koreys, xitoy va fransuz tillari bo‘yicha ham tashkil etiladi. Sohadagi o‘zgarishlardan xabardor bo‘lib borishlari, yangi adabiyot va qo‘llanmalar sotib olishlari uchun har bir chet tili o‘qituvchisiga byudjetdan 1 million so‘mdan mablag‘ ajratilishi belgilandi. Maktabgacha ta’lim vazirligiga YUNISEF bilan hamkorlikda 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarga chet tillarini o‘qitish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ishlab chiqib, joriy etish vazifasi qo‘yildi. Yig‘ilishda oliy ta’lim tizimida mutaxassislar tayyorlash masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi.bugungi kunda oliygohlardagi 78 foiz professor-o‘qituvchilarning chet tilini bilish darajasi qoniqarsiz ahvolda ekani ko‘rsatib o‘tildi. Yangi o‘quv yilidan boshlab, chet tillari bo‘yicha qabul kvotalari soni 2 baravar ko‘paytirilib, 16 mingtaga yetkazilishi, davlat granti esa 3 baravarga oshirilishi ta’kidlandi. Shu bilan birga, kelgusi yildan boshlab, magistratura va doktoranturaga kiruvchilar uchun chet tili bo‘yicha xalqaro sertifikatga ega bo‘lish talabi kiritiladi. Oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o‘qitish bosqichma-bosqich joriy etiladi. Tabiiy va texnik fanlar bo‘yicha xorijiy darslik va qo‘llanmalardan erkin foydalanish yo‘lga qo‘yiladi. Chet tilini o‘qitishning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish maqsadida “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali xorijiy doktoranturada ta’lim olish uchun yiliga 20 ta o‘rin ajratilishi haqida aytib o‘tishdi.(http://www.ddsmfa.uz/uz/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni)

Ma’lumki, qo‘shni qardosh davlatlarda boshqa millatlar qatori o‘zbeklar juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra (balki bundan ham ko‘pdir!), Tojikistonda 1,2 million, Qirg‘izistonda 964 ming, Turkmanistonda 500 ming, Qozog‘istonda 511 ming, Afg‘onistonda 3 million o‘zbeklar yashar ekan. Mamlakatimizda o‘zga millat vakillarining ta’lim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar haqida Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali yig‘ilishda so‘zlagan nutqidagi quyidagi jumlalarni eslash kifoya: “O‘z tilini hurmat qilgan ma’rifatli el boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi.

O‘zbekistondagi bag‘rikenglik siyosati tufayli, hozirda yurtimizda yagona oila bo‘lib yashayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillariga o‘z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilmoqda. Toshkent shahri va joylarda faoliyat ko‘rsatayotgan 140 ga yaqin milliy madaniy markazlar ayni shu maqsadga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari o‘zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida faoliyat olib borayotgani xalqaro jamoatchilik tomonidan ijobiy hodisa sifatida e’tirof etilmoqda”. Haqiqatan ham, biz bag‘rikeng, mehmondo‘st xalqmiz, o‘zga millatlar hurmatini o‘zimizdan yuqori qo‘ysak qo‘yamizki, aslo past qo‘ymaymiz. Mana shunday siyosat natijasida bugungi kunda xalq ta’limi tizimida 10008 ta umumta’lim maktablari faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, ularning 1476 tasida rus va qardosh tillar o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, 899 ta maktabda rus tilida, 133 tasida qoraqalpoq, 218 tasida qozoq, 38 tasida qirg‘iz, 165 tasida tojik tilida, 23 tasida turkman tilida ta’lim beriladi.

Shuningdek, bu ko‘satkichlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki bugun kunda O‘bekistonda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor oshib bormoqda.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.01.2022 yildagi 34-sonli qarorida ham ko‘rishimiz mumkiki, hozirgi kunda maktab,letsey va xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktablar alohida darslillar bilan ta’minlanmoqda byudjet hisobidan alohida mablag‘ ajratilgan. Xorijiy tillarga moslashtirilgan o‘quv maskanlari qo‘shimcha intellikltual darslar o‘tilishi bilan alohida ajralib turadi va ko‘rsatkich kundan kunga oshib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.01.2022 yildagi 34-son
2. http://www.ddsmfa.uz/uz/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni
3. https://article/n/ta-lim-tizimida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-o-ziga-xosligi
4. https://chet-tillarni-ommalashtirishda-yangicha-tashabbus

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA BADIIY MATNNING TIL XUSUSIYATLARI USTIDA ISHLASH

Bobonazarova Sevara Baxtiyor qizi
ToshDO‘TAU O‘TA fakulteti, I bosqich magistranti
bobonazarovasevara04@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ona tili va o‘qish fanlarining integratsiyalashuvi va fanlararo aloqadorlikning bugungi kundagi ahamiyati qisqacha yoritilgan. Shuningdek, 3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligining tuzilishi, badiiy matnni tahlil qilish bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar mazmuni haqida ma’lumot berilgan.*

Abstract. *This article briefly covers the integration of linguistic and reading subjects and the importance of interdisciplinary communication today. Also, the structure of the 3rd grade linguistic and reading literacy textbook. Information about the contents of the exercises and tasks related to the analysis of the artistix text.*

Kalit so‘zlar: *Ona tili va o‘qish savodxonligi, leksik birlik, ibora, maqol, integratsiya, ko‘chma ma’noli so‘z, topshiriq.*

Keywords: *Mother tongue and reading literacy, lexical combination, phrase, proverb, integration, meaningful word, assignment.*

So‘nggi yillarda ona tili ta’limini o‘qitish tizimida tubdan yangilanish sodir bo‘ldi. Prezidentimizning “2022-2026- yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilindi. Mazkur farmonga muvofiq, xalqaro standartlarga tayangan holda, ona tili va o‘qish fanlari birlashtirilib, yangi darsliklar ishlab chiqildi. Bu ta’limi rivojlangan Finlandiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Turkiya, shuningdek, Qozog’iston va Tojikiston tajribalaridan kelib chiqqan holda, boshlang‘ich sinflar uchun “integratsiyalashgan dastur”ga asoslangan. Ona tili va o‘qish fanining birlashtirilishi afzalliklarini bir necha o‘rinlarda ko‘rishimiz mumkin:

O‘qish darslarida keltirilgan matnlar – ona Vatan, qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g‘oyalari haqidagi tushunchalar ona tili darslarida yanada mustahkamlanadi;

O‘quvchilar badiiy matn bilan ishlash orqali uning til xususiyatlarini aniqlash hamda so‘z ishlatish mahoratiga bog‘liq bilimlari yanada kengayadi;

Ikki fanning o‘zaro integratsiyasi darsning yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Ona tili va o‘qish fanlarining maqsadiga e’tibor qaratsak, bir-biri bilan uzviy bog‘liqligini ko‘ramiz. Zero, “O‘qish fani ta’lim mazmunida asosiy diqqat-e’tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning o‘zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, mutaxassislik sohalarida og‘zaki va yozma erkin muloqot yurita olishlarini ta’minlashga qaratilgan” (Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. (2010).

Shunday ekan, ona tili va o‘qish fanlarini integratsiyalab o‘tish, badiiy matn orqali ona tilining imkoniyatlarini anglash hamda o‘qish savodxonligini oshirish quyi bosqichdan boshlanishi kerak. Tadqiqotchi M. Asqarova ta’kidlaganidek, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijodiy o‘qish muhim o‘rin tutadi. Ijodiy o‘qish tarkibiga quyidagi usullarni kiritish mumkin:

a) o‘qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o‘qishi hamda o‘quvchilarning asarni to‘g‘ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini ta’minlash maqsadini ko‘zda tutuvchi kirish so‘z;

b) o‘qilgan asardan o‘quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadini ko‘zda tutish va ularning diqqatini matndagi muhim g‘oyaviy, badiiy, axloqiy, ijtimoit-siyosiy muammoga jalb etish;

d) o‘quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida tug‘ilgan badiiy kechinmalarini faollashtirish (Asqarova M. (2020) 66-67-b).

3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi mashq va topshiriqlarda ijodiy o‘qitishning yuqoridagi usullari nazarda tutilgan. Masalan: Quyida berilgan so‘zlar qatnashgan gaplarni matndan topib, qayta o‘qing. Ushbu so‘zlar gaplarda qanday ma’noda kelganini ayting. *(arz, zilol, shabboda, poyonsiz, sayroqi,tanob, fayz-tarovat qiyg‘os*) (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim

maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 11-bet). Quyidagi she'rlarni o'qing. She'rdagi voqealarni qayta aytib berishga harakat qiling. (Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 100-bet).

Shuningdek, o'quvchilarning e'tiborini matnda qo'llanilgan barcha lingvistik birliklarga emas, estetik maqsad aniq ko'rinib turadigan, yozuvchining badiiy mahorati yaqqol ifodalangan fonetik, leksik, morfologik, va sintaktik birliklarni aniqlashga qaratilgan:

So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra: Birinchi ustunda berilgan so'zlarning ma'nodoshini ikkinchi ustundan topib ayting. (Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 9-bet). Ayting-chi, nima uchun ayrim so'zlarni bosh harflar bilan yozdingiz? (Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 32-bet). Jasurlik va qo'rqoqlik deganda nimalarni tushunasiz? Misollar bilan o'z fikringizni asoslang. (Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 35-bet).

Quyida berilgan ma'nodosh so'zlarni o'qing. She'r matnidan olingan so'zlarning ma'nodoshlarini topib yozing. (Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 37-bet).

Iboralarni aniqlashga doir: Matndan olingan quyidagi so'z va iboralar bilan ularning izohini moslab, daftaringizga yozing. (Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 35-bet). "Chorakda "ikki chiqsa, Toyg'anish benaf bo'lar" deganda nimani tushundingiz? (Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 43-bet). Matnda ajratib ko'rsatilgan bo'laklarning ma'nosini sinfda muhokama qiling. (*hayqirib oqish, bir jon, bir tan bo'lib ketish, o'z qa'riga yutish*) Ayting-chi, bu sifatlar odamlarga ham xosmi? 59-b. Ushbu iboralarga mos rasmlarni aniqlang. Ularning izohini yozing. Rasmlarga mos bo'lgan boshqa so'z va iboralarni ayting. *(Dilini og'ritmoq, lol qolmoq, o'ziga bino qo'ymoq)* (Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik,

2022, 136-bet). “Qorin to‘ydi –g‘am ketdi” iborasi she’rning qaysi qatorlariga mos tushadi? (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 96-bet).

Maqol va hikmatli so‘zlarni aniqlashga doir: “Aql yoshda emas –boshda” maqolini izohlang. (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 21-bet). Maqollarni o‘qing. Ma’nosini tushuntiring. *(Betashvish bosh qayda, Mehnatsiz osh qayda. Bir qo‘llab eksang, ikki qo‘llab o‘rasan”)* (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 106-bet). Hikmat deganda nimani tushunasiz? Kattalarning nasihati bizga nima beradi? (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 24-bet). **Shevaga oid so‘zlarni topishga doir:** “Pul berdiz-a?” Ayting-chi, ushbu gapning yozilishi to‘g‘rimi? (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 115-bet).

O‘xshatish badiiy tasviriy vositasini aniqlashga doir: Shoir: “Hozir yoshmiz – g‘o‘ramiz”, deganda kimlarni g‘o‘raga o‘xshatyapti? Shoir bosh, miya va harakatni nimalarga o‘xshatgan? Rasmlardan toping va moslang. Tanlovingizni izohlang. (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 22-bet). She’rda qaysi holatga “go‘zal edi, nafosatga boy edi” deb ta’rif berilgan” Nega go‘zal? Nega nafosatga boy? (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 28-bet). “Yaylov rohati” she’rida qahramon o‘zini nimaga o‘xshatdi? Izohlang. 37-b.

Ko‘chma ma’noli so‘zlarni topishga ko‘ra: Berilgan she’riy misralarda “daryo” so‘zi qanday ma’noda qo‘llanganini aniqlab, yozing. *(Mehridaryo ustozim. Saxiyligi daryo kabi. Nurlar oqar misoli daryo. Deydilar: yurgan –daryo . Daryo bo‘lib oqdi ko‘z yoshim)* “Nafsni tiyish” deganda nimani tushunasiz? (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 63-bet). Ona sayyoramiz “krem” va “ko‘zoynak”dan foydalanadi”, degan gapni qanday tushundingiz? (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 77-bet). “Mehr boyladim” deganda

nimani tushundingiz? Yana kim yoki nimaga mehr beramiz? (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 83-bet). Virusga kimlar asir tushishi mumkin? “Virusga asir tushish” nimani anglatadi? (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 93-bet).

Inversiya: She’rdan olingan ushbu parchani o‘z so‘zlaringiz bilan yozing. *(Muz der: “Uyalmaysanmi, Vaqting bekor sarf bo‘lar. Chorakda “ikki” chiqsa, Toyg‘anish benaf bo‘lar...”)* (Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 2022, 43-bet).

Xulosa qilib aytganda, 3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi badiiy matnning tuzilishi, tarkibi, uni yuzaga keltiruvchi vositalarni anglashga doir turli xil savol va topshiriqlarni qamrab olgan. Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ushbu yondashuvlardan unumli foydalanish mumkin. Professor Q. Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, “O‘quvchilar diqqati asarda aks etgan voqealar oqimigagina qaratilib qolmay, ana su voqealar bayoni asnosida qo‘llangan badiiy san’atlar hamda ijodkorning mahoratini namoyon qiluvchi jihatlarga yo‘naltirilsa, ularning ko‘ngi; ko‘zi ochiladi. Shunda bolalar so‘zning sehrini his etadi, uning badiiy ichki imkoniyatini, yashirin qirralarini topa oladigan bo‘lib boradi”. (Yo‘ldoshev Q. (2003), 11-b.)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova M. (2020). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ped. fan. nomz,..diss. – Namangan.

2. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. (2022). Yangi nashr. / Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Ro‘zmetova Z. –Toshkent: Respublika ta’lim markazi.

3. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. (2010). – Toshkent.

4. Yo‘ldoshev Q. (2003). Adabiy saboqlar: Umumta’lim maktablarining 7-sinf “Adabiyot” darsligi uchun metodik qo‘llanma. –T.: Bilim.

“ZARBULMASAL” ASARINING UZLUKSIZ TA’LIMDA O‘RGANILISHI

Eshboyeva Fazilat,
ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti mutaxasisligi 2-kurs magistranti
fazilattursuntoshiva@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada atoqli masalchi yozuvchi hisoblangan Muhammad Sharif Gulxaniyning hayoti, ijodiy faoliyati va eng muhimi, uning yuksak iqtidori hamda salohiyatini yaqqol namoyon etgan “Zarbulmasal” asarining o‘ziga xos bo‘lgan uslubi, g‘oyaviy mazmuning ta’sirchanligi xususida to‘xtalib o‘tiladi. Shuningdek, ushbu asar tarkibidagi she’riy misralar, maqollarning hamda ma’lum bir voqea bilan bog‘lanadigan masallarning kompozisiyasi, syujet qismlarining o‘rganilish davri hamda ayni shu masalada, erishiligan natijalar, yutuqlar haqida so‘z yuritiladi. Qolaversa, “Zarbulmasal” asarining mamlakatimiz ta’lim tizimida tutgan ahamiyati, yosh avlod tarbiyasida, ma’naviy kamolotida, o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllanishida – bu asarning yuksak o‘ringa ega ekanligi borasida muhim fikrlar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *Muhammad Sharif Gulxaniy, “Zarbulmasal”, Cho‘lpon, she’rxonlik, masalxonlik, fikr-mulohaza, hikoyat, ezgulik, yomonlik, masal, dialog, xususiyat, fikr.*

Annotation. *This article will tell about the life, creative activity of Muhammad Sharif Gulkhani, who is considered an outstanding masalchi writer, and, most importantly, about his high talent and potential, about the characteristic style of his work “Zarbulmasal”, expressiveness of ideological content. This work also tells about poetic stanzas, the composition of proverbs and parables associated with a specific event, the period of studying parts of the plot, as well as the results achieved, achievements in this matter. In addition, important considerations were expressed about the significance of the work “Zarbulmasal” in the education system of our country, about the high place of the work in the upbringing of the younger generation, spiritual improvement, and the formation of students as a harmonious personality.*

Keywords*:* *Muhammad Sharif Gulkhani, "Zarbulmasal", Chulpan, poetry, masalkhanism, feedback, good, evil, parable, dialogue, characterization, opinion*.

Inson yaralibdiki, ezgulikka, ma'rifatga intilib yashab kelmoqda. Qalbga ma'naviyat urug'ini sochuvchi, yaxshilikka undovchi eng asosiy manba adabiyotdir. Millatning kelajagi, boqiyligi adabiyot bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Bejiz, buyuk ma'rifatparvar ijodkor Cho'lpon "adabiyot yashasa – millat yashaydi" deya baralla hayqirmagan. Adabiyot kechagi kunning, o'tmishning bebaho me'rosi. kelajakning yorqin ko'zgusidir. Adabiyot bo'stoni keng va benihoya go'zaldir. Uning gul-u, rayhonlari, azim chinorlari bor. Shunday buyuk chinorlardan biri "Zarbulmasal" asaridir. Ushbu asarning ta'limda o'rganilishi masalasidan avval asar haqida qisqacha mulohaza yuritsak.

Gulxaniyning ushbu nodir asari mana necha asrlardan buyon o'rganilib, o'rgatilib kelinmoqda. Ta'lim uzluksiz jarayondir. Ushbu jarayonda har bir ijodkor ijodi, uning asarlari bosqichma bosqich izchillikda, davomiylikda o'rganilib boradi. Gulxaniy ijodi ham xuddi shunday. Adib ijodiy faoiliyati, uning "Zarbulmasal" asarini o'rgatish, ya'ni ta'lim tizimida ushbu asarning o'rganilishi qachondan boshlandi? Bugun ham ushbu jarayon davom etmoqdami? Uzluksiz ta'limning qaysi bosqichlarida o'rganilmoqda? Shu va shu kabi boshqa savollarga javob izlab ko'ramiz.

Bilamizki, Gulxaniy g'oyat og'ir, maddohlik, riyokorlik avj olgan zamonda yashadi. U yashagan davrda ham ta'lim mavjud edi. Faqat hozirgi jarayondan farqli ravishda ta'lim madrasalarda olib borilar va ta'lim mazmuni umuman o'zgacha bo'lgan. Bu davr ta'lim tizimi tarixiga nazar tashlasak, madrasalarda yoshlarga diniy fanlar ko'proq o'rgatilar, bundan tashqari, adabiyot nazariyasiga oid ma'lumotlar, she'r ilmi o'rgatilar edi. Shoir, yozuvchilar ijodi o'rgatilganligi haqida ma'lumotlar mavjud emas. Bizningcha, bu davrda ijodkorlar asari faqat xos davralarda o'rganilgan. Oila davrasida yoki adabiy kechalarda she'rxonlik, masalxonlik qilingan. Gulxaniy masali ham aynan shu davralarda o'rganilgan, o'rgatilgan bo'lsa, ehtimol.

Adib ijodiga qiziqish, o‘rganish XIX oxiri – XX asr boshlarida boshlanganini hisobga olsak, uning o‘gatilishi XX asr o‘rtalarida boshlangan deyishimiz mumkin. Darhaqiqat, XX asrning 20-yillaridan boshlab Gulxaniy asarlari krill alifbosida nashr etila boshlagan. Jumladan, “Namunayi adabiyoti tojik” (1926), “O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi” (1945), “O‘zbek poeziyasi antologiyasi” yaratilgan davrlardan boshlab adib ijodi o‘rgatila boshlandi, deyishimiz mumkin. 1951-yilda “Zarbulmasal” alohida nashr etiladi. 1972-yil S.Dolimov noshirligida “Zarbulmasal” asari o‘quvchilar bilim va saviyasiga moslab qayta ishlandi.

Bizningcha, “Zarbulmasal”ning alohida nashri uning ta’lim jarayonida o‘rgatishga zamin bo‘ldi. Bir necha darsliklar muallifi bo‘lgan Abdurauf Fitrat ham asarga alohida qiziqish bildirganligi haqida izlanishlar davomida bilib oldik, balki buyuk olim ham o‘z darslarida ushbu asardan namunalar aytib bergandir. Bu haqda biror adabiy manbani uchratmadik.

1978-yilda yaratilgan besh tomlik “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobining to‘rtinchi tomi XVIII asr oxiridan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrini yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu kitobdagi ma’lumotlarda Gulxaniyning hayoti va adabiy faoliyati maktab darsligidan ham o‘rin olgani va uni o‘qitish metodikasiga oid maqola va qo‘llanmalar yaratilgani aytilgan (O‘zbek adabiyot tarixi,VI-tom, 1978,129-bet).

O‘rta maktabning 9-sinf o‘quvchilari uchun 1971-yil Sh.Abdullayeva, N.Mallayev, O.Sharipov muallifligida “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan “Adabiyot” xrestomatiyasi nashr qilingan bo‘lib, ushbu xrestomatiyada adbibning “Ber” radifli g‘azali va “Zarbulmasal”dan parcha keltirilgan (Sh.Abdullayeva, 1971,108-bet).Biz topgan manba 8-nashr ekanligini hisobga olsak, aynan, “Zarbulmasal” asarining ta’lim bosqichlarida o‘rganilishi 1945-yilda “O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi” yaratilgan vaqtdan boshlangan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Demak, ushbu asar ta’lim tizimida o‘rganilib, o‘rgatib kelinayotganiga 70 yildan ziyod vaqt o‘tdi. 1986-yil aynan, shu mualliflar jamoasi tomonidan 8-sinflar uchun ham “Adabiyot” xrestomatiyasi tuzilgan bo‘lib, ushbu xrestomatiyada ham adibning “Ber” radifli g‘azali va “Zarbulmasal” asaridan

parcha keltirilgan (Sh.Abdullayeva, 1986,146-bet).Bizni ajablantirgan tomoni esa har ikki sinf o‘quvchilari uchun ham bir xilda ma’lumot berilgani. Ushbu ma’lumotdan ko‘rinadiki, bu davrda darsliklar yaratish, davrlashtirish masalalarida ma’lum bir qonun qoidalarga bo‘ysunilmagan.

Umumta’lim bosqichlarida Gulxaniy ijodi va uning asarlarining berib borilishi biroz quyi sinflarga tushirildi. 1995–2000-yillargacha adib ijodi yuqori sinf, ya’ni 8–9-sinflarda o‘rganilgan bo‘lsa, kelgusi yillarda 6-sinf adabiyot darsligidan joy oldi.

Bilamizki, so‘nggi yillarda ta’lim tizimida olib borilgan islohotlar sabab umumta’lim fanlaridan darsliklar har to‘rt yilda yangilanib kelinmoqda. Biz 6-sinflar uchun chiqarilgan so‘nggi 15 yillikdagi adabiyot darsliklarida adib ijodi va asarlarining berilishi borasidagi tafovutlarga, yutuq va kamchilariga ham e’tibor qaratsak.

2009-yil S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayevlar muallifligida 6-sinf o‘quvchilari uchun yangi adabiyot darsligi yaratildi (S.Ahmedov, 2009,199-bet).Ushbu darslikda Gulxaniy ijodi, “Zarbulmasal” asari haqida qisqacha ma’lumot va asardan parcha sifatida *“Kabutar bilan zog‘”, “Maymun va Najjor”, “Tuya bilan bo‘taloq”, “Toshbaqa bilan chayon”, “Dumsiz eshak”, “Yolg‘onchi tuya”* va unga ilova uch naql hamda *“Yodgor po‘stindo‘z”* hikoyatlari keltirilgan. Har bir hikoyat ma’lum mazmunga, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan, o‘quvchilar “Kabutar bilan zog‘”, “Toshbaqa bilan chayon” hikoyatlaridan do‘stlashmoq odobi, do‘st topmoq yo‘llari, do‘stlashishda adashmaslik yo‘llarini o‘rgansalar, “Maymun va Najjor” orqali hunarli bo‘lmoq, qo‘lidan kelmagan ishga urunmaslik haqida, “Tuya bilan bo‘taloq” orqali erki o‘zida bo‘lmagan inson fojiasi to‘g‘risida, “Dumsiz eshak”dan o‘z ahvolidan nolimoq, noshukurlik illatlari haqida, “Yolg‘onchi tuya”, “Yodgor po‘stindo‘z” hikoyatlari orqali esa har bir ne’matni qadriga yetmoq, rost so‘zlamoq, yolg‘onchilik oqibatlari haqidagi fikrlari teranlashadi.

Ushbu darslik 2011-yil qayta nashrga tayyorlandi va 2013-yildan ikki qismdan iborat holda nashr etila boshlandi (S.Ahmedov,2013,49-bet).Gulxaniy va

uning “Zarbulmasal” asari darslikning ikkinchi qismidan o‘rin olgan bo‘lib. 2009-yildagi nashridan farqli ravishda biroz qisqartirishlar bilan berilgan. Xususan, “Dumsiz eshak”, “Yolg‘onchi tuya” hikoyatlari ushbu yilgi nashrda mavjud emas.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Respublika ta’lim markazi tomonidan 2017-yil tasdiqlangan o‘quv dasturiga binoan, adib ijodi 6-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan. Darslikdagi “So‘zda hikmat bor” nomli uchinchi bo‘limning 32-33-mavzulari Muhammadsharif Gulxaniy hayoti va ijodi hamda “Zarbulmasal” asari haqida bo‘lib, ushbu mavzu uchun 2 soat, filologiyaga ixtisoslashgan yo‘nalishlar uchun esa 4 soat vaqt ajratilgan. Bu soatlar davomida o‘quvchilar Gulxaniyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumotga ega bo‘lishadi. “Maymun bilan najjor” hikoyati, undagi majoziy obrazlar talqini, Maymun – uquvsizlik timsoli, uning tasviridagi yumoristik ohang, hikoyada tabiat tasvirining o‘rni haqida fikr-mulohazalar yuritishadi. “Toshbaqa bilan chayon” hikoyatida ezgulik va yomonlik tasviri, yomonlik ijtimoiy-ma’naviy illat sifatida, masalda dialoglarning o‘rni, masalning badiiy xususiyatlari haqida fikr almashishlari zarur bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘quv dasturida Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari o‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar ro‘yxatiga ham kiritilgan (M.Jumaboyev,2004,320-bet).

Ma’lumki, 2022-yil 6-sinf adabiyot darsligi qayta nashr etildi, biroq ushbu darslikdan Gulxaniy va uning asari o‘rin olmagan.

Ta’lim o‘zbek tilida bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun ona tili va adabiyot fanidan 2021–2022-o‘quv yiliga mo‘ljallangan filologiya yo‘nalishidagi variativ taqvim-mavzu rejasiga asosan, “Muhammadsharif Gulxaniyning hayoti va ijodi. “Zarbulmasal” asari”ni **o‘rganish mavzusi 11-sinf adabiyot fani uchun mo‘ljallangan rejaga kiritilgan bo‘lib, ushbu mavzu uchun 1 soat vaqt ajratilgan. Biroq 11-sinf adabiyot darsligi kelgusi yillarda qayta nashr etiladi. Ayni vaqtda umumta’lim maktablari darsliklarining hech birida adib va uning asari berilmagan.**

Masal ta’limiy-tarbiyaviy xarakterdagi kichik janrdir. U asosan, kichik she’riy shaklda, ba’zan nasriy shaklda yaratiladi. Masal janrida insonga xos

bo‘lgan xususiyatlar, fazilatlar, jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar turli hayvonlar, qushlar orqali yoki tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Masalning mazmuni majoz ya’ni ramziylik asosiga qurilagani bois, unda insoniy fazilatlar va illatlar, kamchiliklar tahli va tanqid qilinadi. Hajviy-yumoristik ruhda yaratiladi. Har bir masalning xotimasi pand-nasihat ruhidagi maqol, matal, hikmatli so‘z yoki iboralar orqali beriladi. Masal janri ertak, topishmoq, maqollar singari sodda va tushunarli bo‘lgani uchun boshlang‘ich ta’limda bu janr uchun alohida dars soatlari ajratilgan. O‘quv dasturlarida bu janrga namuna sifatida Ezop, Gulxaniy masallari qayd etilgan. Biroq o‘qish darsliklarining hech birida Gulxaniy ijodidan namuna berilmagan. Gulxaniy masallarini boshlang‘ich ta’limda ham berib borish samaralidir, boisi, adib masallari orqali insoniylik, odob-axloq, mehr-oqibat, do‘stlashmoq fazilatlari ilgari surilgan. Qolaversa, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini ushbu masallarga qiziqtirish uchun ilova tarzda “Zarbulmasal” asari asosida ishlangan multfilmlarni, ushbu masallar asosida sahnalashtirilgan qo‘g‘irchoq teatrlarini keltirish mumkin. Ezop masallari 5-sinfda ham berilganini hisobga olsak, boshlang‘ich ta’limda bolalarga o‘zbek adabiyotida masal janrinning go‘zal namunasi bo‘lmish “Zarbulmasal”dan ham parchalar berish zarur, deb hisoblaymiz.

Uzluksiz ta’lim jarayonida adib ijodini o‘rganish uzviylikda davom ettirilib kelinmoqda. Xususan, oliy ta’limning filologiya, sharqshunoslik, matnshunoslik, pedagogiga, boshlang‘ich ta’lim, san’at va madaniyat yo‘nalishlarining dastur va darsliklarida Gulxaniy va uning ijodiyoti yoritilgan. “Zarbulmasal” asarining tadqiqi oliy ta’lim talabalari tomonidan o‘rganilmoqda, ko‘plab jihatlari, xususan ta’lim jarayonidagi ahamiyati, til xususiyatlari, janriy takomili yuzasidan izlanishlar olib borilmoqda.

Oliy ta’lim o‘quv reja va dasturlarida Gulxaniy hayoti va ijodi, uning lirikasi hamda “Zarbulmasal” asari uchun mashg‘ulot soatlari ajratilgan bo‘lib, xususan, filologiya, o‘zbek tili va adabiyoti, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi talabalariga “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fanidan 4 soatdan 6

soatgacha (2 soat ma’ruza, 4 soat seminar), “Bolalar adabiyoti” fanidan 4 soat (2 soat ma’ruza, 4 soat seminar) vaqt ajratilgan. Bundan tashqari, mustaqil ta’lim mavzulari qatoridan ham “Zarbulmasal” asari o‘rin olgan.

“Zarbulmasalning bosh g‘oyasi tarixan nihoyat darajada muhimdir, – deb yozadi akademik V.I.Zohidov asar haqida so‘z yuritar ekan. Yolg‘iz Farg‘ona viloyatidagina emas, umuman, Movarounnahrda vayronagarchilikning hukmronligini ko‘rsatish va uni fosh etish; hokim ijtimoiy guruhlarning yaramasliklarini, razilliklarini ko‘rsatish va ularni fosh qilish; xalq ommasining nihoyat darajada og‘ir ahvolini, vijdon, nomus va aql egalarining poymol qilinganligini ko‘rsatish; vatanparvarlik va xalqparvarlik – mana shular asarning bosh g‘oyasini tashkil etadi (V.Zohidov,1961,204-bet).

Zarbulmasalda haqiqatdan ham yurtning vayronaga aylangani va unga sababchi bo‘lgan xonlik siyosati fosh qilinadi; hukmron ijtimoiy tabaqalarning kirdikorlari ochib tashlanadi; turmushdagi bema’ni urf-odatlar, kishilar shaxsiyatidagi ochko‘zlik, qalloblik, tekinxo‘rlik, befarosatlilik, kaltabinlik, laganbardorlik, shuhratparastlik singari yaramas xususiyatlar, illatlar fosh etilib qoralanadi. Biroq Gulxaniyda fosh qilishning, ayblashning usul va vositalari o‘ziga xos, o‘tkir, sehrlidir. Gulxaniy fosh qilishning majoziy yo‘llaridan mahorat bilan foydalanadi.

“Zarbulmasal”ning o‘zi masal–majoziy asar bo‘lishiga qaramasdan, uning ichida ham ko‘chma ma’noda qo‘llangan ifodalar ko‘p. Shuningdek, zamoni va o‘rni ko‘chirib bayon qilingan voqealar hikoyati ham bor. Asarning kompozitsiyasi nihoyatda murakkab, ammo tushunish nuqtayi nazaridan sodda va maroqlidir. Asosiy syujet chizig‘i ma’lum bir nuqtada to‘xtab qolib, orada shu syujetga bog‘liq bo‘lgan va uni kengaytirishga xizmat qiladigan boshqa bir necha katta-kichik voqealar hikoya qilinadi va bu hikoyalar asosiy syujetga qoliplash yo‘li bilan bog‘lab boriladi.

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari bizga yosh avlodni axloqiy kamol toptirishimizda yordam beruvchi manbalar qatoriga kiradi. Undan xalqimizning bebaxo xazinasi bo‘lmish maqol va hikmatli so‘zlar, hikoyat, naql va rivoyatlar,

buyuk ijodkorlarning shoh baytlari o‘rin olgan bo‘lib, barchasining zamirida insoniylik, ezgulik turadi. Insonlar uchun xos bo‘lgan qiz o‘stirish, sovchilik, qudachilik, mehmondorchilik, bazm, qalin so‘rash, tortishuvlar, maxr solish, nikoh kabi urf-odatlar hamda ijtimoiy, diniy- falsafiy qarashlar ham asar tarkibidan o‘rin olgan.

Ta’lim va tarbiya uzluksiz jarayondir. Birini ikkinchisisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ta’limning asosini bilim berish bilan bir qatorda, yoshlarni ma’naviy, axloqiy jihatdan kamol toptirish ham tashkil etadi. Bu jarayonda o‘qituvchi-pedagogning asosiy ish quroli xalqning ma’naviy xazinasi bo‘lmish badiiy asarlardir. Adabiyot insonni ruhan poklovchi, uni kamolotga eltuvchi ma’naviy manba hisoblanadi. Inson qalbi va ruhiyati hamisha ma’naviy oziqlanib turishga muhtojdir. Bolaligidan alla-yu, ertaklar eshitib katta bo‘lgan, ta’lim jarayonida badiiy asarlarga mehr qo‘ygan insondan yomonlik chiqmaydi.

“Zarbulmasal” masal janrining ustasi, xalq og‘zaki ijodi va tilining o‘tkir bilimdoni tomonidan yaratilgan purhikmat asardir. Gulxaniyning bu noyob asari badiiy nasrning original namunasi, ona tili xazinasining yorqin bir ko‘zgusi sifatida adabiyotimiz tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ushbu asarni ta’lim bosqichlarida o‘rganilishi va o‘rgatilishi ta’lim-tarbiya jarayonini mazmunli tashkil etishga, bolalarning ma’naviy olamini boyitishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki “Zarbulmasal” masal janrining ustasi, xalq og‘zaki ijodi va tilining o‘tkir bilimdoni tomonidan yaratilgan purhikmat asardir. Gulxaniyning bu noyob asari badiiy nasrning original namunasi, ona tili xazinasining yorqin bir ko‘zgusi sifatida adabiyotimiz tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ushbu asarni ta’lim bosqichlarida o‘rganilishi va o‘rgatilishi ta’lim-tarbiya jarayonini mazmunli tashkil etishga, bolalarning ma’naviy olamini boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, Sh., Mallayev,N., Sharipov, A. (1971).Adabiyot xrestomatiyasi: 9-sinf uchun (8-nashr).Toshkent.O‘qituvchi.

2. Abdullayeva,Sh., Mallayev, N., Sharipov, A (1986).Adabiyot xrestomatiyasi: 8-sinf uchun(9-nashr). Toshkent.O‘qituvchi.

3. Ahmedov, S., Qo‘chqorov, R., Rizayev, Sh. (2009).Adabiyot: umumta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua / S. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. 2-qayta ishlangan nashri. Toshkent.Ma’naviyat.

4. Ahmedov, S., Qo‘chqorov, R., Rizayev, Sh. (2013).Adabiyot: umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua: Qism II/ O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Qayta ishlangan 3-nashri. Toshkent.Cho‘lpon nomidagi NMIU.

5. Jumaboyev,M. (2004).Bolalar adabiyoti: Pedagogik yo‘nalishdagi kollejlar uchun majmua. Toshkent.O‘qituvchi.

6. O‘zbek adabiyoti tarixi. (1978). IV tom (XVIII asrning oxiridan XIX asning ikkinchi yarmigacha). Toshkent.Fan.

7. Zohidov,Z. (1961). O‘zbek adabiyoti tarixidan. Toshkent. O‘qituvchi.

FIKRNI OG‘ZAKI IFODALASHDA NOVERBAL IFODALARNING AHAMIYATI

Keldiyorova Zarinabonu Sirojiddin qizi,
ToshDO‘TAU OTAT 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar:p.f.n Shohruh Abdiraimov
keldiyorovazarinabonu@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda fikrni og‘zaki ifodalashda foydalaniliadigan tana tili (turli harakatlar, imo-ishoralar) tahlilga tortilgan. Shuningdek, fikrni og‘zaki ifodalashda noverbal vositalar – tana tilining o‘rni va ahamiyati xususida ham mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Og‘zaki nutq, muloqot, tana tili, noverbal ifoda, salbiy, ijobiy.*

Abstract. *In this tehesis, non-verbalmeans(various actions, gestures) used for verbal expression of thoughts were analyzed. There are also comments on the importance of expressing thoughts through non-verbal expressions for oral speech.*

Keywords: *Verbal speech, communication, body language, nonverbal expression, negative, positive.*

Ma’lumki, nutq – shaxslarning muloqot jarayoni uchun aloqa quroli va shaxslar orasida kontakt nutq vositasida yuzaga chiqadi. Muloqotning yuzaga chiqishida esa so‘zlovchi hamda tinglovchi uchun ham tushunarli bo‘lgan til tanlanishi muhim. Muloqot jarayonida ikki yoki undan ortiq shaxs ishtirok etar ekan, muloqotning vazifasi faqatgina axborot berish, ma’lumot yetkazish bo‘lmasdan, ta’sir etish, jalb qilish ham sanaladi. . Fransuz yozuvchisi A.S.

Ekzyuperi: “Muloqot – shunday ne’matki, u orqali inson lazzatlanadi”, – deya muloqotning axborot berish bilan birga ta’sir ko‘lamiga ham alohida urg‘u bergan.(Nurmonov, 1996, 67-bet) Shuningdek, muloqot jarayonida shakllangan axborot funksiyalari samaradorligining oshishi bir necha vositalar asosida yuzaga chiqishi mumkin. Ular verbal (nutq orqali) va noverbal (nutq bilan bog‘liq bo‘lmaydigan belgilar orqali) bo‘ladi**.**(Nurmonov, 1996, 65-bet)

Noverbal ifodalar nutq orqali ifodalab bo‘lmaydigan ba’zi xususiyatlarni yetkazishda ahamiyatlidir. Shuningdek, noverbal ifodalar ayrim millat vakillari hayotida odat tusiga kirib ham ulgurgan. Masalan, bolgarlarda boshni qimirlatish – “Yo‘q” degani bo‘lsa, ruslarniki teskarisi bo‘ladi.(Nurmonov, 1996, 68-bet) Noverbal ifodalar muloqot jarayonida til birliklari ishtirokisiz, faqat tana tili: imo-ishoralar, mimikalar, xatti-harakatlar orqali fikrni ifodalash, yetkazish va qabul qilish jarayonidir. Ta’kidlash o‘rinliki, nutq vositasida ifodalab bo‘lmaydigan fikr hamda mulohazalarni ba’zan harakatlar orqali ifodalash samaraliroq. Buni qay darajada ahamiyatli ekanligini quyidagi matnlar misolida tahlil qilib ko‘ramiz:

“Mudir birdan jiddiy tortdi.

– Tushunmadim, – dedi ***qoshini chimirib****.*

– Nimasini tushunmaysiz?!

– Sherzod keskin ***qo‘l siltadi.***

– Ikki kundan buyon yo‘lakda yotgan odam, nega meni tayyor joyga olishmadi, – deb o‘ylamadimi?” (Hoshimov, 2021,9-bet)

Ushbu badiiy parchada ishtirok etgan ifodalar esa ayni dialog sodir bo‘layotgan paytda ikkala tomonning ham ruhiy holatini to‘lig‘icha ochib bera olgan. Seziladiki, “**qoshning chimirilishi**” – “Nima gap?” salbiy voqelikka ishora hamda “***qo‘l siltadi***” – “Aytadigan yaxshi gap yo‘q” esa ushbu voqelikka yaxlit javob. Asarda ushbu noverbal ifodalar orqali ochib berilgan holat tomonlarning asabiy turganligini bildirmoqda.

Shuningdek, quyidagi parchada foydalanilgan noverbal ifodalarni tahlilga tortamiz:*“…Rivoyat qilinishicha, Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida bosh munshiy ekan. Podsho hamma vaqt Navoiyning deganlariga quloq solar ekan.*

Kunlardan bir kuni Husayn Boyqaro ertalab saroyga ketayotib, Navoiyga qarabdi-da, qo‘li bilan boshiga ishora qilibdi. Shunda Navoiy tilini ko‘rsatibdi. Podsho boshini xam qilgancha saroyga kirmasdan iziga qaytib ketibdi. Shogirdlar so‘zsiz ushbu harakatlarning qanday ma’no anglatishini Navoiydan so‘rashibdi. Shunda Navoiy aytibdi:– “Shohimiz mendan boshga kulfat nimadan kelishi mumkinligini so‘radilar. Men esa faqatgina til orqaligina boshga kulfat kelishini tushuntirdim”.(Adashboyev, Ma’qulov, 1996, 86-bet)

Ko‘rinib turibdiki, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida nutqiy voqelik sodir bo‘lmasa ham, kontakt paydo bo‘ldi. Axborot beruvchi hamda qabul qiluvchi o‘zaro nutqsiz muloqot qila oldi. Demakki, muloqot jarayoni uchun noverbal ifodalarning ham o‘rni katta hamda verbal vositalarsiz ham yuzaga chiqa oladi.

Kichik empirik tadqiqotimizga ko‘ra, tana tili axborot beruvchi hamda uni qabul qiluvchi orasidagi muloqotda fikrga ijobiy yoki salbiy pozitsiyani ifodalovchi vosita bo‘libgina qolmasdan, har ikkala tomonning neytral holatini ham ifodalay olishi , shuningdek, muloqot jarayonida tomonlarning kayfiyatini, jamiyat yoki shaxslarga munosabatini aks ettirishi ham yuqorida keltirilgan parchalar orqali o‘z tasdig‘ini topdi.

Demak, tana tilidan muloqot jarayonida maqsadli va o‘rinli foydalanilsa, so‘zlovchi nutqida holat yuzasidan ortiqcha so‘z isrofgarchiligiga yo‘l qo‘yilmaydi hamda bu fikrning ixcham, ta’sirli, asosiysi, tushunarli bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adashboyev ,T., Ma’qulov, B(1996). Kitobim – oftobim. Toshkent: O‘qituvchi.

2. Hoshimov O‘.(2021) .Nur borki, soya bor. Toshkent .

3.Nurmonov A. (1996).Tanlangan asarlar. Toshkent .

4. Xalilov N.I., Xaydarov F.E.(2010). Umumiy psixologiya. Toshkent.

5. Yo‘ldoshev I, Sharipova O‘.(2006).Tilshunoslik asoslari. Toshkent.

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQINI O‘STIRISH

Madaminova Nargizaxon,
ToshDO‘TAU OTATF 2-kurs talabasi
nargizaxonmadaminova55@gmail.com

Annotatsiya *Ushbu maqolada o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish uchun darslar qanday tashkil qilinishi, qanday metodlardan foydalanish kerakligi aytib o‘tilgan. Shuningdek, o‘quvchi shaxsining rivojlanishida og‘zaki nutqning roli alohida ahamiyatga ega ekanligi misollar asosida ko‘rsatib berilgan. Dars davomida o‘quvchi nutqi ustida qanday qilib ishlash mumkinligi kabi muommolarga tavsiya va takliflar berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Og‘zaki nutq, ta’lim jarayoni, ko‘nikma, metod, so‘z boyligi.*

Abstract. *This article describes how lessons should be organized and what methods should be used to develop students’ oral speech .It is aslo shown on the basis of examples that the role of oral speech is particularly important in the development of the students’ personality .Recommendations and suggestions were given to problems such as how to work.*

Keywords*:* *Oral speech, process of education, skill, method, vocabulary.*

Bugungi kunda ona tilini o‘qitishda yangi usullar va darsliklar ishlab chiqilmoqda. Endilikda o‘quvchilarda tinglab tushunish, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish kerak. “Ona tili – nutq, o‘qish va yozish sohasidagi ko‘nikma va malaka, o‘quvchilar o‘quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o‘qish ko‘nikmalarini egallash bilan birinchi navbatda o‘z ona tilini o‘rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarini o‘qitish vositasi hamdir. Jamiyat tarixi ham tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o‘rganiladi”, – deydi Izzatullayeva Nafisa o‘z maqolasida (Izzatullayeva, 2020). Darhaqiqat, o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq shakllanishida ona tili darsi muhim ahamiyatga ega.

Maktab o‘quvchilarining aksariyat qismi bilgan, o‘qigan ma’lumotlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalab bera olmaydi. Chunki ularda og‘zaki nutq ko‘nikmasi rivojlanmagan. Bunga sabab darsliklarda og‘zaki nutqni o‘stirishga doir

mashqlarning kamligidir. Masalan, 5-sinf darsligida mashqlar va uyga vazifalarning asosiy qismi matn ustida ishlash, yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan. Agar ushbu mashqlar orasiga og‘zaki nutqni rivojlantiradigan mashqlar qo‘shilsa, o‘quvchining ham yozma, ham og‘zaki nutqi birdek rivojlanadi. Masalan, *Yer sharining qayerlariga borishni orzu qilasiz va nima uchun? Shu haqida hikoya tuzib keling.* (Mahmudov,2020,8-bet). Buning o‘rniga Yer sharining qayerlariga borishni orzu qilasiz va nima uchun, shu haqida **gapirishga** tayyorlanib keling deyilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Shu singari ko‘plab sinf va uyga vazifa uchun mo‘ljallangan mashqlarni og‘zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qiladigan mashqlarga almashtirish kerak.

O‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish maqsadida **“Bugungi kunda”** metodidan foydalanish samarali natija beradi. **“Bugungi kunda”** metodidan o‘qituvchi darsning boshida foydalansa bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan bugungi kunda yurtimizda va jahonda qanday yangiliklar bo‘layotganini so‘raydi, o‘quvchilar esa eshitgan, bilgan yangiliklarini og‘zaki bayon qilishadi va ular o‘zlari aytgan axborotga shaxsiy munosabatini bildirib o‘tadi, natijada o‘quvchilaning tanqidiy fikrlash, nutq qobiliyati va dunyo qarashi o‘sib boradi. O‘quvchilar aytayotgan axborotlarini **“Bugungi kunda”** jumlasi bilan boshlashlari kerak bo‘ladi. Bu metoddan foydalanish o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Sh.Yusupova o‘z maqolasida o‘quvchilarni nutqini o‘stirishda tasavvur va tasvir alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi: “Tasavvur tasvir bilan uyg’unlik hosil qilgandagina o‘quvchi nutqining o‘sishiga, tafakkurning rivojlanishiga dialektik qonuniyatlarni tushunishga turtki beradi. Insonning tafakkuri va uning rivojlanishi falsafa, psixologiya, lingvistika, logika fanlarini o‘rganish obyekti sanalar ekan, nutqiy jarayon ham fikr ifodalash holatlari ham yuqoridagi fanlar bilan mustahkam aloqada va ular o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqdir. Shuning uchun o‘quvchilarda falsafiy mushohada qilish, mantiqiy izchillik asosida fikr ifodalash, ruhiy hissiy holatlarni namoyon etish til orqali moddiylashadi. O‘quvchi falsafiy qonuniyatlarni yaxshi bilsa, uning fikrlashi tafakkurining

voqealashuvi ham talab darajasida bo‘ladi”(Yusupova Sh, 2021,14-bet). Darslarda turli rasmlar bilan ishlash ham samarali usuldir. O‘quvchilar ko‘rgan rasmlari haqida gapirishlari ham ularda nutqiy ko‘nikma hosil qiladi.

O‘quvchilar nutqining rivojlanishi uning eshitib, tushunish qobiliyatiga bog‘liq. Bola tug‘ilib, o‘sish jarayonida u kattalarga taqlid qilib gapirishni o‘rganadi. Tadqiqotchilar yangi tug‘ilgan egizaklardan birini ota-onasi bilan qoldirib, birini laboratoriyada o‘sish jarayonini kuzatadilar. Natijada ota-ona qaramog‘ida o‘sgan bolada nutq yaxshi shakllanadi, lekin maxsus sharoitda o‘stirilgan bolada nutq rivojlanmaydi. Bundan shu narsa ayon bo‘ladiki, inson gapirishni bevosita eshitib o‘rganadi. Kattalar nutqini eshitib, unga taqlid qilish natijasida bolada nutq rivojlanib boradi. Bola kattalar nutqini eshitib, unga taqlid qilish orqali bevosita o‘z nutqini rivojlantiradi, qanchalik u ko‘p eshitsa, muloqotda bo‘lsa, uning og'zaki nutqi rivojlanadi. Shuning uchun bola maktabgacha bo‘lgan davrda ko‘proq muloqotda bo‘lishi kerak. Ota-onalar yoshligidan bolalarinining gapini eshitib, ularning fikriga munosabat bildirishi lozim. Shunda ular maktabda ham o‘z fikrlarini mustaqil bayon qila oladigan bo‘ladilar.

Tadqiqotchi M.Hamdamova o‘zining “1-2-sinf o‘quvchilarining og'zaki nutqini o‘stirish tizimi” mavzusidagi dissertatsiyasining tajriba qismida o‘quvchilarning og'zaki nutqini tekshirganda quyidagi kamchiliklar kuzatilgan:

– talaffuz normalariga rioya qilmaslik;

–so‘zlarni to‘g'ri o‘qiy olmaslik holatlari;

–gap ohangiga rioya qilmasdan buzib o‘qish holatlari;

–gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettira olmaslik holatlari;

–nutqdagi ohangga e'tibor bermasliklari.

Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun dars jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanib dars o‘tilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, darsning boshida **“*Speaker*“** metodidan foydalanishlari mumkin. ***“Speaker”*** metodida o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linishi kerak bo‘ladi. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi doskaga chiqadi. Ularning har biriga hajmi katta bo‘lmagan matn

beriladi. Matnni olgan o‘quvchilar o‘z guruhdoshlariga matnni ifodali o‘qib berishi kerak bo‘ladi va guruhidan bitta vakil guruhdoshi o‘qigan matndan tushunganlarini gapirishi kerak bo‘ladi. Qaysi guruh eshitib tushunganini yaxshi bayon qilib bera olsa o‘sha guruh g'olib hisoblanadi. Bunda matnni o‘qib beruvchi guruhdoshlariga tushunarli va ifodali qilib o‘qib bera olsa, uni eshitguvchilar ham yaxshi tushunadilar. Ushbu metoddan foydalanish orqali o‘quvchilar matnni ko‘pchilik oldida baland va chiroyli ovozda o‘qishni o‘rganadilar, ularni nutqi o‘sadi, eshitib tushunish qobiliyati rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida rasmlar bilan ishlash ham samarali usul hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga turli mavzudagi rasmni ko‘rsatib ular yordamida og‘zaki hikoya tuzishlarini aytadi. O‘quvchilar rasmga qarab og'zaki hikoya tuzadilar va bu orqali o‘quvchilarning ham fikrlashi kengayadi, ham fikrni og‘zaki bayon qilishga o‘rganadi.

Xullasa qilib aytganda, ona tili darslarida grammatik mashqlarga kamroq e’tibor qaratib, ko‘proq og‘zaki nutqni rivojlanirishga, tinglab tushunish qobiliyatini shakllantirishga, yozma savodxonlikni oshirishga qaratilgan topshiriq va metodlardan foydalanish kerak. Har bir maktabda notiqlik to‘garaklari tashkil qilinishi lozim. Ona tili darslarida nutqdan qanday foydalanish kerakligi, qanday vaziyatda qanaqa gapirish kerakligi o‘rgatilishi kerak. Ona tili darsi nazariy fan emas, uning hayot bilan bog‘liq amaliy fan ekanligini isbotlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdamova M. (2017). 1-2-sinf o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish tizimi.Toshkent: Dissertatsiya.

2. G‘ulomov A.,Qodirov M.,Ernazarova va b. (2012). Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya

3. Yusupova Sh. (2021).Ona tili o‘qitishda tasavvurning o‘rni.

4. Shttps://doaj.org/article/733b2966bd2a48099a740c07b8476ed5/Nafisa Izzatullayeva.

5. https://mbaza.uz/books/ona-tili-5-sinf-darslik/Mahmudov

QODIRIY ASARLARIDA AYOLLAR OBRAZI

Mirzoitova Fazilat Bahodir qizi,
ToshDO'TAU O'FF 4-kurs talabasi
fazilatjorayeva737@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdulla Qodiriy asarlaridan foydalanilgan holda o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga ayollarga ehtirom tuyg'usini singdirish jarayonida ta'lim tizimida qo'llaniladigan metodlar haqida so'z yuritiladi va ularning amaliy va nazariy xususiyatlari ilmiy va badiiy tahlil etiladi.*

Kalit so'z: *Ta'lim standartlari, ilg'or pedagogik texnologiya, milliy ruh, jamiyat, adabiyot.*

Abstract: *This article is from the works of Abdulla Qadiri*

the methods used in the educational system in the process of inculcating a sense of respect for women in the minds of the young generation are discussed, and their practical and theoretical features are scientifically and artistically analyzed.

Keywords: *Educational standards, advanced pedagogical technology, national spirit, society, literature.*

Jamiyatimizda hozirgi kunda ayollarning roli kattaligi quvonarli hol. Har jabhada ularning o'z so'zi, ovozi borligi, ozod yurtda hamma teng huquqli ekanidan dalolat beradi. Biroq, hali ham ayollarga nisbatan oddiy uy bekasi sifatida qaraydigan qatlam vakillari han bor. Insonga qancha erta to'g'ri yo'l ko'rsatilsa, noto'g'ri fikrlarga og'maydi. Kelajakda o'quvchilarning ba'zilarida yuqorida ta'kidlaganimiz kabi fikr paydo bo'lmasligi, ayollarimizga jamiyatning bir bo'lagi sifatida qarashi uchun adabiyot yordamga keladi. Adabiyot insonni tarbiyalaydi. Bu jarayonda esa interfaol metodlardan foydalanish orqali ko'zlangan natijaga osonroq erishamiz. Xususan, "Ayni vaqtda o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish jahon ta'limi standartlari darajasiga erishish, ta'limni samarali tashkil etishning eng maqbul yo'li sifatida alohida ta'kidlanmoqda" (Egamberdiyeva ,2005,57-bet).

Adabiyot go'zallik demakdir. Agar adabiyotning shakli bo'lganida edi, u, shubhasiz, ona siymosida bo'lar edi. Onalarimiz hayot yo'limizni, adabiyot esa,

ongimizni yorituvchi chiroqdir. Adabiyotshunos Umida Rasulova: "…insonni haqiqat va adolat hissi ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyotning roli katta. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda undan foydalanish samaralidir" (Rasulova,Toshkent,2012,3-bet), deb ta'kidlaydi. Bu jihatdan, o'zbek adabiyoti tuganmas marifat bulog'iga o'xshaydi. Ulug' yozuvchilar yozgan asarlarni o'qisak, dilimiz yorishadi. Adabiyotimizdagi asarlarni sanaganda, negadir, eng avvalo, ulardagi ayollar obrazi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Bu adiblarning ayollarni tasvirlashdagi yuksak mahoratidan dalolat beradi. Ayniqsa, Qodiriy asarlaridagi ayollar obrazini kuzatar ekanmiz, uning asarlaridagi ayollar obrazi nihoyatda mukammal va takrorlanmas tarzda yaratilganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, "O'tkan kunlar" da Kumush, ,,Mehrobdan chayon"da Ra'no, ,,Daxshat hikoyasida" Unsin singari obrazlar mukammal obrazlar sirasiga kiradi.

"O'tkan kunlar" asari mavzusining dolzarbligi jihatidan bugungi kunda ham kuchini yo'qotmagan. Ustoz Bahodir Karimovning: ,,O'tkan kunlar" bu haqiqatni dunyo yuzini ko'rgandan to shu kunga qadar o'z vujudi-mavjudligida namoyon etib keladi. Yaxlit matndagi joziba va nafosat, ichki ritm, ohang–bular Abdulla Qodiriy qalamidan to'kilgan marjonlar zanjiridan paydo bo'lgani aniq" (Bahodir,2006,42-bet) deya ta'kidlashi yuqoridagi fikrlarimizning asosli ekanligini ko'rsatadi. Qodiriy nasrida ifodalar tugal va aniq. Shu jihatdan u yaratgan obrazlar ortiqcha bo'yoqlarni chaplamasdan chizilgan suratga o'xshaydi: tabiiy va jonli. Masalan, *"Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko'ynak, ustidan odmi xon atlas guppi kiygan, boshig'a oq dakanani xom tashlag'an o'ttuz besh yoshlar chamaliq go'zal, xushbichim bir xotin. Yuzidan muloyim eriga itoat, to'g'riliq ma'nolari tomib turg'an bu xotin qutidorning rafiqasi Oftob oyim*". Asardagi Kumush tasviriga ham e'tibor qarataylik: ,,*...uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig'a tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jinggila kiprak ostidag'i timqora ko'zlari bir nuqtag'a tikilganda, nimadir bir narsani ko'rgan kabi… qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyig' qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi… to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz kizillikg'a aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi…*" (Abdulla Qodiriy,2014,32-

bet). Obraz jonli tasvir ifodasiga ega ekanligi bilan o‘quvchini o‘ziga jalb etadi. Obrazda chinakam milliy ruh sezilib turadi. Undagi go‘zallik, ahloq bilan mujassamlashib yetuk, oqila, iffatli o‘zbek qizi ko‘rinishini namoyon etadi. Umuman, ushbu asardagi har bir ayol obraz zamirida o‘zbekona ruh mujassam. Ayni shu kabi Qodiriy nasridagi ayollar obrazi alohida e’tibor va tadqiq talab etadi.

„O‘tkan kunlar” asari maktab darsligi 10-sinfida berilganini hisobga olib, o‘quvchilarni bu romanga yanada qiziqtirish va undagi ayol obrazlari haqida yetarlicha taassurot olishlari uchun quyidagi metodlardan foydalanamiz. Dastavval, oson metodlardan boshlab, o‘quvchilarni sekin asta murakkabroq va fikrlashga undaydigan metodlar bilan ishlash darajasiga olib boramiz. Jumladan, **“O‘rnini top**” metodi nihoyatda oson va tez fikrlashga o‘rgatuvchi metodlardan biridir. Bunda asardagi ayollar ismlari o‘rni chalkashtirib yoziladi va o‘quvchilar ularni to‘g‘irlashi kerak bo‘ladi. Masalan:

SH U K M U -> Kumush

Y O‘ B E K Z I M O -> O‘zbek oyim

E B T O‘ K Y A -> To‘ybeka

A D S O T A -> Saodat

A Y Z N B A -> Zaynab

F T B O Y O M I -> Oftob oyim

Bu usul orqali asardagi ushbu obrazlar nomi o‘quvchilar ongida mustahkam o‘rnashadi. Keyingi metod esa „**Qahramonni o‘zgartir**” deb nomlanib, o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Ushbu metodda obrazning qaysi jihatini yoxud tashqi ko‘rinishidagi qaysi tasvirni o‘zgartirgan bo‘lar edingiz degan savol qo‘yiladi. O‘quvchilarga esa o‘yin davomida o‘zlarini yozuvchi his etishi lozimligi tushuntiriladi. Bu metod adabiyotga qiziqishi yo‘q o‘quvchilarni ham qiziqtirishi aniq. Sababi, biror nimani o‘zgartirish uchun avval uning qanday ekanligini bilish kerak. O‘quvchilar ham asardagi obrazlarni o‘zgartirishlari uchun ular aslida qanday bo‘lganini o‘qib chiqadilar va ularda bu romanga nisbatan qiziqish yanada oshadi. Biz ushbu metodni o‘quvchilar orasida qo‘lladik va quyidagicha javoblarni oldik:– Zaynabni Kumush kabi go‘zal qilib tasvirlardim.

– O‘zbekoyimni muloyim va yumshoq ayol qilib tasvirlardim. Shunda voqealar rivoji butunlay boshqacha bo‘lardi.

– Zaynabni o‘z qadrini biladigan ayol sifatida tasvirlab, Otabekdan yuz o‘girgan ayol qiyofasida tasvirlardim.

_ Zaynabni gunohli ishdan qaytarib, Kumushni zaharlashiga yo‘l qo‘ymasdim.

Ko‘rinib turganidek, o‘quvchilar fikrlari turlicha va eng muhimi har bir o‘quvchi o‘z shaxsiy qarorlariga ega. Aslida, Qodiriy asarlari qanday bo‘lsa shunday go‘zal. Voqealar rivoji Kumushning o‘limi bilan tugamaganda, asarda ijtimoiy muhitning ayollar, umuman insonlar taqdiriga ta’siri ko‘rsatilmaganda “O‘tkan kunlar” ning qiymati bunchalik yuqori bo‘lmasdi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilar Abdulla Qodiriy nasridagi ayollar obrazini chuqur o‘rganish asnosida, Qodiriy asarlari badiiyati, jozibasini anglash barobarida, jamiyatda ayolning o‘rni, uning qadri, jamiyatda tutgan mavqe’i haqida ham to‘liqroq taassurotga ega bo‘ladilar. Badiiy asar va hayot uyg‘unligini, tarixiy haqiqatlarni, ijtimoiy odoblarni anglashda Qodiriy nasri, undagi ayollar obrazi tashiydigan badiiy yuk uzoq yillar davomida o‘sib kelayotgan yosh avlod tafakkur olamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla,Qodiriy .(2014).O‘tkan kunlar.Toshkent.

2.Bahodir,Karim.(2006) Abdulla Qodiriy tanqid, tahlil va talqin.Toshkent.

3.Bo‘ziyeva,Ruxsora. Hodiyevna.(1999).Abdulla Qodiriy ijodida milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar uyg‘unligining falsafiy tahlili.Toshkent.

4.Egamberdiyeva,F.(2005).Adabiy ta’limga ilg‘or pedagogik texnalogiyalarni tatbiq etish. Metodika.Toshkent.

5.Rasulova,U.(2012).XX asr o‘zbek qissachilik tarixi.Toshkent.

6.To‘laganova,Sanobar Panjiyevna.(2019).Ijodkor shaxsiyati va badiiy qahramon muammosi(Abdulla Qodiriy misolida).Toshkent.

7. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. T : Sharq. 2014. B.21

OLTINCHI SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Muhiddinova Zarina Isomiddin qizi
ToshDO‘TAU OTATF 2-kurs talabasi
zarina2001muhiddinova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilar o‘qib tushunish ko‘nikmasini qanday usulda shakllantirish, matndagi so‘zlar o‘rnini to‘g’ri topish va keng mulohaza yuritishga yordam beradigan usullar yoritilgan. Matndagi lug’aviy ma’nolarni kundalik hayotda qanday o‘rinlarda qo‘llash kerakligi turli topshiriqlar orqali ko‘rsatilgan. Matn o‘qib tushunish ko‘nikmasi shakllansa, o‘quvchilar boshqa fanlarni ham oson tushuna olishi bo‘yicha ma’lumotlar kiritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Matn, o‘qib tushunish, ko‘nikma, to‘g’ri anglash, lug’aviy ma’no, metod, grammatik mashq*

Abstract. *This article describes how students can learn reading comprehension skills, finding the right place for words in a sentence and thinking broadly. Various tasks show how to use the vocabulary words in text in everyday life. Information is included on how students can easily understand other subjects when reading comprehension skills reformed.*

Keywords: *Text, reading comprehension, skill, correct understanding, dictionary meaning, method, grammer exercise.*

Umumta’lim maktablarida muhim bo‘lgan fanlar qatorida ona tili ham alohida ahamiyatga ega. Chunki, ona tili barcha fanlar bilan chambarchas bog’liq ya’ni ona tilining asil negizini anglamasdan turib o‘z nuqtimizdagi so‘zni tushuntirishga qiynalamiz. Bu esa boshqa fanlarni tushunishimizni ham qiyinlashtiradi.Ona tilimizning o‘rni va ahamiyati haqida ko‘plab olimlarning fikrlarini keltirishimiz mumkin. Abdulla Qodiriy o‘zining jumlalarida shunday fikr yuritadi: “O‘zbek tili kambag’al emas , balki bu tilni kambag’al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar”. (https://zarnews.uz/uz/post/abdulla-qodiriy-tilimizni-kambagal-deguvchilarning-

ozi-kambagal-oz-nuqsonlarini-tilga-tonkamasinlar) Zamonaviy til sohasida ish olib borgan I.Azimovaning shu xususidagi fikrlariga qaraydigan bo‘lsak, shunday deydi: “Boshqa fanlarning o‘zlashtirilishi o‘quvchining o‘z ona tilida yozma matnni, og’zaki matnni tushunish,o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda izchil bayon eta olish fikri ko‘nikmasi bilan bevosita bog’liq. Aytish mumkinki,ona tili ta‘limi har qanday bosqichdagi ta’limning negizini tashlik etadi. Tilning eng birinchi vazifasi ma’lumotni kodlash va dekodlashdir, ya’ni so‘zlovchi o‘z fikrini to‘g’ri ifodalashi kerak va qabul qilingan nutqda berilgan ma’lumotlarni to‘g’ri tushunish kerak. O‘rta maktabda ona tili ta‘limi tilning aynan shu birlamchi funksiyasini qo‘llash malakasini oshirishga qaratilishi kerak”. (Roziqov, 2005,1-2-bet) Har bir o‘quvchi o‘zi qiziqqan fan sohasini yaxshi bilishi uchun avvalo o‘z og’zaki va yozma nutqini shakllantirishi kerak. O‘qigan va o‘rgangan ma‘lumotinining mohiyatini aniq tushuna olishi lozim. Aytish kerakki, 6-sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunish ko‘nikmasi yaxshi shakllanmagan, ular o‘zlari o‘qigan matnlarini mohiyatini anglashga, o‘z tinglovchilariga tushuntirishga qiynalishmoqda. Bu malakani o‘quvchilarda shakllantirish kerak. Shu sababdan bugungi kun pedagogik olimlarimiz zamonaviy ta’lim metodlari sanalgan va pedagogik yo‘nalishda yuqori o‘ringa ega bo‘lgan qo‘yidagi metodlardan foydalanishmoqda:

1. O‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodlari
2. O‘quv –biluv faoliyatini rag’batlantirish metodlari
3. O‘quv -biluv faoliyatini samaradorligini nazorat etish metodlari

Bu metodlar Y.K.Babanskiy tamonidan qator ilmiy-pedagogik asarlarida o‘qituvchi faoliyati nuqtayi nazarida tasnif etilgan. Bu metodlarning har biri o‘z ichida yana kichik guruhlarga bo‘linadi.Masalan, birinchi guruh metodi o‘z ichiga quyidagilarni oladi: Og‘zaki bayon metodlari, ko‘rgazmali metodlar, amaliy metodlar, induktiv va diduktiv metodlar, repraduktiv metodlar, muammoli-izlanish metodlari, mustaqil izlanish metodlari. Shuningdek, rag‘batlantirish va nazorat qilish metodlari ham o‘z ichida guruhlarga bo‘linadi. Hozirgi paytda esa ta’lim metodlari bo‘yicha mukammal tizim Y.K.Babanskiy tasnifidir.

(Roziqov,2005,170-171-bet) Mana shu metodlar orqali o‘quvchilarda o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish kerak. Bu ko‘nikmani shakllantirishda avvalo, o‘quvchida to‘rt lisoniy malakani:

eshitib tushunish

fikrni og’zaki bayon qilish,

o‘qib tushunish,

fikrni yozma bayon qilishni rivojlantirib borish lozim. (Roziqov,2005,1-2-bet) Bu tizim turli matnlarni o‘qish, lug’atlari bo‘yicha ishlash, matn bo‘yicha fikr almashish, muammoli savollarga o‘quvchilar hamjihatligida yechim topish, munozaralar o‘tkazish orqali rivojlantirish kerak. Ammo bugungi kungacha o‘quvchilar beriladigan matnlarga faqatgina grammatik mashqlar sifatida qarab kelishmoqda va o‘qib, tushunib, mulohaza qiladigan matnlarni daftarga ko‘chirish bilan cheklanishmoqda. Bu muammoning yechimi sifatida K.Mavlonova o‘zining bir qancha takliflarini berib o‘tgan.

“1.O‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalarini inobatga olgan holda matn tanlash

2. Matn xususiyatlaridan kelib chiqqan holda topshiriq shaklini aniqlash

3. Topshiriqlarni ishlab chiqish

4. Mustahkamlash darslarning 20 daqiqasini o‘qib tushunish mashqlariga ajratish

5. Matnni o‘qib tushunishga qaratilgan sinovni o‘tkazish.

6. Javoblarini taxminan belgilamaslik va bir-biridan ko‘chirishga yo‘l qo‘ymaslik(bu baholash tizmining haqqoniy bo‘lishiga yordam beradi).

7. Natijalarni tahlil qilish va umumiy xulosalar chiqarish.

8. O‘tkazilgan sinovlar monitoringini olib borish. ” (Mavlonova, 202,2-3-bet). Mana shu tartib asosida olib borilsa o‘quvchilar matn tuzish va matnni o‘qishida hech qanday muammoga uchramaydi. Biz amaliyot davomida Mirzo Ulug’bek tumanidagi Filologiya maktabi 6-sinf o‘quvchilarida matnlarni o‘qib tushunish bo‘yicha bir qancha usullardan foydalangan holda tajriba o‘tkazdik va dars jarayonida qo‘llangan quyidagi topshiriq bilan tanishamiz:

Voqea….

Elchini katta e'zoz bilan Oqsaroyda olib kirishdi. Ulkan ko'shkli saroy darvozasidan kirib borar ekan, Klavixo bu ***shahona*** *koshonaning har burchagiga yosh boladek intiq boqar,o'zgacha nur taralib turgan devorlarning mahobati va bejirim naqshlaridan ko'zi qamashardi.Oyog'i ostidagi yilt-yilt marmarda* ***mavchlanayotgan*** *o'z aksini ko'rib turgan mehmon qadamini yengillatdi.Go'yoki oyna ustida sirpanib uchayotgandek ko'ngli hapqirdi. Mehmonni ichkariga olishdi.Aylana* ***zinolardan*** *minora tepasiga ko'tarilar ekan, elchi Oqsaroyning nainki tashqi,balki ichki qiyofasida munavvar ,****charag'on*** *ekaniga amin bo'ldi.Saroy tepasiga ko'tarilib borar ekan,har o'n-o'n besh qadam oralig'ida ko'zga tashlanyotgan tuynuklarga e'tibor qaratdi.Va bildiki, bu yo'lak odatiy saroylarnikidan farq qiladi. Negaki, zinalarning biror qismida lip-lip yonayotgan biror mash'ala yo'q ,unga hojat ham qolmagan.Klavixo tanasiga engan ajib hayrat og'ushida navbatdagi* ***tuynikka*** *sinchkov ko'z tashladi,Undan biror sir qandaydir mo'jiza qidirdi . Ko'plab davlatlarda bo'lgani-yu,ammo hech bir yurtda bu kabi g'aroyib inshoat* ***tarhini,*** *kichik ochiqlikdan , shuncha ko'p nur yog'ilishini ko ko'rmaganini,shundanmi,bino sirini anglashga bo'lgan* ***ishtiyoq*** *ko'nglida vulqondek toshib borayorganini sezdi.Navbatdagi ochiq yerdan tashqarini bir muddat tamosha qilib o'tdi.Oniy lahzada nigohi anglashga ulgurgani-****Tevarakni*** *ulkan yam-yashil gilam qoplab olgan.Elchi tabiatning bu ajib husniga ich-ichidan*

tasanno aytdi.Go‘zallikning yana bir lavhasini kashf qilgandek,navbatdagi tuynukdan bir-ikki nigoh tashladi.Bir fursat o‘tib,mehmonning oyoqlariga charchoq endi. Minora boshiga yetishiga esa hali fursat bor.Klavixo qalt-qalt ***titroq’ini*** *bosish uchun to‘xtab, chuqur tin olgach, yonidagi safdoshlariga pichirladi:”Ha bundayin mahobat na Mag’ribda, na Mashriqda bor.Temurning qudrati va ulug’ligi uning saroylarida bo‘y ko‘rsatib turibdi.Bu-haqiqat*”.(Abdinazarov,2022,186-187-bet)

1. Hikoya uchun mos sarlavha tanlang va nima sababdan tanlaganinggizni tushuntiring? Yozma javob yozing.

A) Oqsaroyning favvoralari

B) Temurning qudrati

C) Klavixoning Oqsaroydagi sayohati

D) Oqsaroyning ochiq tuynuklari

2. “*Ha bundayin mahobat na Mag’ribda, na Mashriqda bor.Temurning qudarti va ulug’ligi uning saroylarida bo‘y ko‘rsatib turibdi.Bu – haqiqat*” degan so‘zlardan qanday fikrga keldingiz. Nima sababdan elchi Temurning qudartini binolari bilan baholamoqda?

3. *Ko‘shli, mahobat, tuynuk, sinchkov, tasanno aytmoq, marmar, inshoat tarhi* so‘zlariga izoh bering. So‘zlar matnda qanaqa ma’nolarni anglatib kelmoqda?

4. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan qaysilari to‘g’ri yozilgan .Ularning ma’nolariga yozma javob bering?

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, matnlar orqali o‘quvchilar ko‘nikmasini shakllantirish juda muhimdir. O‘quvchi matnda ifodalangan so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini va kundalik hayotda qo‘lanadigan ma’nosini solishtirish, mantiqiy fikrlashga katta e’tibor qaratish, ma’lumotlarni to‘g’ri tushuntira olish kerak. Matn ichida beriladigan so‘zlarning muhim o‘rinlarda kelganlarini ajrata olishi, matn haqida o‘z xulosasiga, umumiy fikriga ega bo‘lishi kerak. Bu orqali o‘quvchi nafaqat ona tili balki, boshqa fanlardagi qiyin matnlarni tushuna oladi va o‘zlariga kerakli qoidani chiqara olishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdunazarov,O.(2022). Ona tili darslarida o‘qib tushunish va eshitib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish .Filologiya bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosida ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.4-son.

2. Mavlonova,K. (2022). Ona tili: 6-sinf uchun darslik. Toshkent. Respublika ta’lim markazi.

3. Roziqov,O (2005). Ona tili didaktikasi. Toshkent. “Yangi asr avlodi”.

4. G’ulomov A.Q. Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘quv – biluv faoliyatini aktivlashtirish. – “Sharq” nashriyoti -1987.-B.379.

5.https://zarnews.uz/uz/post/abdulla-qodiriy-tilimizni-kambagal-deguvchilarning-ozi-kambagal-oz-nuqsonlarini-tilga-tonkamasinlar [2022.12.12]

LUG‘AT DIKTANTLAR ORQALI O‘QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Muxiddinova Kumushxon Maqsudjon qizi,
ToshDO‘TAU OTATF 2-kurs talabasi
Kumushmuhitdinova4@gmail.com

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada lug‘at diktantlar orqali o‘quvchilarda savodxonlik bilimlarini oshirishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Diktant, lug‘at diktant, imlo, ta’limiy diktant, tekshiruv diktant, malaka, savodxonlik, orfografiya, yozma savodxonlik.*

***Annotation.** This article discusses the importance of improving students’ literacy skills through vocabulary dictation.*

***Keywords:** Dictation, dictionary dictation, spelling, educational dictation, check dictation, qualification, literacy, orthography, written literacy.*

Maktab o‘quvchilarining savodxonlik bilimini oshirishda darslar davomida tashkil etiluvchi turli diktantlarning ahamiyati katta. “Diktant eshitib idrok qilingan so‘z, gap, matnni yozishdir. Diktantlar maqsadiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1.Ta’limiy diktant-bilim berishga yo‘naltirilgan diktantlar.

2.Tekshiruv diktant-o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishga qaratilgan diktantlar”. (Karima Qosimova, 2009, 291-bet)

Ma’lumki, o‘rta ta’lim maktablari uchun o‘quvchilar savodxonligini oshirish eng muhim muammolardan biri desak adashmagan bo‘lamiz. O‘quvchilarning yozma savodxonligi ularning qay darajada bilimga ega ekanligini bildiradi. O‘quvchilar o‘rtasida turli diktantlar tashkil etish ularning savodxonligini oshirishga yordam beruvchi omillardan biri hisoblanadi. Yozma savodxonlikni oshirishda eng samarali usullardan biri bu lug‘at diktantlardan foydalanishdir. Bunday diktantlardan foydalanish orqali biz o‘quvchilarning savodxonligini, so‘z boyligini boyitib boramiz va imlo qoidalariga rioya qilib yozishini ta’minlagan bo‘lamiz. Bundan tashqari, diktantlar fikrlash qobilyatini oshiradi, yozma va og‘zaki nutqni ravon qiladi.

Yosh avlodning yozma savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati katta. Diktantning qanday turi bo‘lishidan qat’i nazar, xoh grammatik, xoh lug‘at diktant bo‘lsin, uni yozish uchun o‘quvchi orfografiya qoidalarini bilishi va bu haqida ko‘nikmaga ega bo‘lishi kerak. 7-sinf o‘quvchilarining savodxonligini oshirish uchun har darsda ularning yoshiga mos bo‘lgan lug‘at diktant olindi. O‘quvchilar diktantni yozib bo‘lganidan so‘ng, so‘zlarning to‘g‘ri variantlari doskaga yozildi. Birinchi kun 20% o‘quvchilar so‘zlarning barchasini to‘g‘ri yozishdi. 30% o‘quvchilar esa so‘zlarning bir nechtasini xato yozishdi. Qolgan 50% o‘quvchilar esa berilgan lug‘atning yarmini xato yozdilar. Shu tartibda ulardan har darsda lug‘at diktant olindi. Ularning aksariyati baynalmilal, jangovar, mutolaa, hasharot, taqiqlamoq kabi so‘zlarni xato yozishdi. Uchinchi va to‘rtinchi marta diktant olinganda ular bu kabi so‘zlarda xato qilmadilar. Oltinchi kun 70% o‘quvchilar hech qanday xatoga yo‘l qo‘ymasdan, so‘zlarni to‘g‘ri yozdilar. Zero, takror bilimning asosidir. Bundan tashqari o‘quvchilarning imloda oqsaydigan jihati bu “X” va “H” harflari imlosidir. Talaffuzda o‘xshash bo‘lgani uchun yozuvda ushbu harflarni ajratish qiyin. Hattoki, bu harflarni ajratishda yuqori sinf o‘quvchilari va o‘qituvchilari ham adashadi. Shuning uchun alohida “X” va “H” harflari ishtirok etgan so‘zlardan iborat imlo lug‘atini ishlab chiqishni taklif etamiz. Komilova. R “O‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish omillari” deb nomlangan maqolasida: “Imlo lug‘ati bilan ishlash o‘quvchilarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatishning

muhim vositalaridan hisoblanadi. Ta'limning bu turi o'quvchilarda kuzatuvchanlikni tarbiyalaydi, ularning nutq madaniyatini, fikrlash qobilyatini o'stiradi, lug'at boyligini kengaytiradi, o'quvchilarda savodli yozish malakasini takomillashtiradi",-deb o'z fikrini aytib o'tgan. Maktab o'quvchilariga o'tiladigan

ona tili darslarida 5 daqiqani lug'at diktantlar uchun ajratishlarini tavsiya etamiz. Chunki har darsda o'quvchilardan olinadigan diktantlar ularning bilimlarini mustahkamlab boradi va kelajakdagi kasblarida ham imlo qoidalariga rioya qilib yozishini ta'minlab beradi. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarida, afishalarda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Agar biz maktabdan boshlab yoshlarning savodxonligiga, imlo qoidalariga rioya qilib yozishiga e'tibor qaratsak, bunday voqealarga yo'l qo'yilmaydi. Imlo insonning savodini, balki uning ilmiy salohiyatini ham ko'rsatib beruvchi omildir. Husnixat bilan xatosiz yozish insonning ma'naviy ko'rki, uning yuzidir.

Xulosa qilib aytganda, lug'at diktant bilan ishlashning o'rni va ahamiyati yuqori darajada. O'quvchilarning so'z boyligi ortadi, og'zaki va yozma nutqi ravon bo'ladi, ilmiy salohiyati va savodxonligi oshadi, o'zbek tilining qanchalik so'zga boyligining guvohiga aylanadi.Bu esa o'quvchining ona tiliga bo'lgan muhabbatini oshirib, g'urur va faxrlanish hissini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova. (2009).Ona tili o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik.Toshkent:"Nosir" nashriyoti.
2. Komilova R. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish omillari. Maqola.Toshkent.
3. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A.(2003). O'zbek tilining imlo lug'ati.Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti.
4. www.ziyo.uz [2022.12.12]

O‘QIB TUSHUNISH MASHQLARINI BAHOLASH

Nurullayev Aloviddin Amrullayevich
ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
alovuddin.nurullayev@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qib tushunishni baholash mezonlari tahlil qilindi.Amaldagi test topshiriqlari hamda xalqaro baholash tizimlari taqqoslab o‘rganildi. Amaliy topshiriq misollari asosida ulardagi kamchiliklar yoritib o‘tildi.*

Kalit so‘zlar*:* *O‘qib tushunishni baholash, o‘quv darsliklari, xalqaro baholash tizimlari, test topshiriqlari*

Abstract. *This article analyzed the criteria for evaluating reading comprehension. Current test tasks and international assessment systems were compared and studied. Based on examples of practical assignments, their shortcomings were highlighted.*

Keywords: *Assessment of reading comprehension, textbooks, international assessment systems, test items*

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida **o**na tili fanini o‘qitishning maqsadi – o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat. Lekin ona tili fani bo‘yicha o‘tkaziladigan imtihonlarda o‘qib tushunish baholanganda ,asosan ,lingvistik bilimni baholashga asoslangan test topshiriqlari qo‘llanadi. Masalan, so‘z turkumlarini o‘rgatishda ilmiy qoidalarni yodlash va shunga asoslangan mashqlarni bajarish ko‘proq qo‘llanadi. Davlat test markazi tomonidan tuzilgan imtihon savollaridan namunalar:

1. Yuklama-bog‘lovchiga misol ketiring.
2. Mustaqil so‘z turkumlariga mansub bo‘lmagan birliklarni sanab bering.
3. Olmoshning nechta ma’noviy turi bor?
4. Nechta jarangsiz sirg‘aluvchi til oldi undoshining jarangli jufti bor?
5. Ko‘makchi morfema fe’lning zamon, mayl, shaxs-son kabi uchta grarnmatik ma’nosini ifodalab kelishiga misol keltiring.

Ushbu savollarni O‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistrlari orasida yozma so‘rovnoma shaklida o‘tkazganimizda quyidagi natija kuzatildi. So‘rovnomada 16 talaba ishtirok etdi.

1-savolga 10 nafar talaba **–u, -yu, -da** ; qolganlar **-u, -yu, -da, ham** so‘zlarini keltirishgan. Faqat bitta talaba –u, -yu, -da, ham, na…, na… deb to‘liq javob bergan.

2-savolga 7 nafar talaba to‘g‘ri javob bergan. **3-savol**ga 14 nafar talaba to‘g‘ri javob bergan.

4-savolga 5 nafar talaba to‘g‘ri javob bergan. **5-savol**ga 5 nafar talaba to‘g‘ri javob bergan.

5 – savolga javob berishda ko‘p talabalar ko‘makchi morfema tushunchasi bilan ko‘makchi fe’lni adashtirib yuborishgan. O‘quvchilar ongida bunday chalkashliklar kelib chiqishiga o‘quv darsliklaridagi atama (termin) larning turlicha so‘zlar bilan berilishi sabab bo‘lmoqda.

Masalan: qo‘shimcha atamasi affiks, ko‘makchi morfema deb ham yuritiladi; o‘zak atamasi asos, yetakchi morfema deb; ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi harakat tarzi shakllari deb ham yuritiladi. Fe’lning vazifa shakllari esa fe’lning lug‘aviy shakllari, fe’lning xoslangan shakllari deb ham yuritiladi. Aslida ilmiy uslubda aniqlik bo‘lishi uning bosh mezonlaridan biridir. Ayrim darsliklardagi qoidalar esa bir-biridan farq qiladi. Misollar:

Darslik nomi va nashr qilingan yili			**Darslik nomi va nashr qilingan yili**
Akademik litsey darsligi 2-bosqich, 2013	go‘yo, go‘yoki, xuddi – chog‘ishtiruv bog‘lovchisi	go‘yo, go‘yoki, xuddi – o‘xshatish-qiyoslash yuklamasi	7-sinf darsligi, 2017
Akademik litsey darsligi 2-bosqich, 2013	chunki, shuning uchun, shu sababli, shu tufayli – sabab bog‘lovchilari	shuning uchun, shu sababli, shu tufayli – ko‘makchili qurilmalar	9-sinf darsligi, 2014

Akademik litsey darsligi 3-bosqich, 2013	Sodda yig‘iq gap – faqat kesimdan iborat gap	Sodda yig‘iq gap – ega va kesimdan iborat gap	8-sinf darsligi, 2014
Akademik litsey darsligi 2-bosqich, 2013	Ya’ni, -ki, -kim – aniqlov bog‘lovchisi	-ki yuklamasi	9-sinf darsligi, 2014
Akademik litsey darsligi 2-bosqich, 2013	Fe’l mayllari (4 ta) : ijro, buyruq-istak, shart, maqsad	Fe’l mayllari (3 ta) : xabar, buyruq-istak, shart	6-sinf darsligi, 2017
Akademik litsey darsligi 2-bosqich, 2014	-roq qo‘shimchasi ozaytirma daraja	-roq qo‘shimchasi qiyosiy daraja	6-sinf darsligi, 2017
Akademik litsey darsligi 2-bosqich, 2013	Sifatning 3 ta darajasi bor: oddiy, orttirma, ozaytirma	Sifatning 4 ta darajasi bor: oddiy, orttirma, ozaytirma, qiyosiy	6-sinf darsligi, 2017
Akademik litsey darsligi 2-bosqich, 2013	Fe’l ma’no turlari 9 ta	Fe’l ma’no turlari 4 ta	6-sinf darsligi, 2017
Akademik litsey darsligi 2-bosqich, 2013	Son ma’no turlari 6 ta	Son ma’no turlari 2 ta: miqdor va tartib sonlar. Miqdor sonlar 6 ga bo‘linadi	6-sinf darsligi, 2017
Akademik litsey darsligi 2-bosqich, 2013	Hamma, bari, har kim, har nima – birgalik-ajratish olmoshlari	Hamma, bari, har kim, har nima – belgilash-jamlash olmoshlari	7-sinf darsligi, 2017

Qoidalardagi nomutanosiblik holati o‘quvchilarning test jarayoniga tayyorgarligini qiyinlashtiradi. Sababi oliy ta’limga kirish imtihonlarida o‘quvchi yaxshi natijaga erishishi uchun qoidalarni to‘liq yoddan bilishi talab etiladi.

Xalqaro baholash tizimlarida esa o‘quvchilarning ilmiy qoidalarni bilishi emas, ko‘proq matnni qay darajada tushuna olishlari muhim hisoblanadi. Quyida o‘qib tushunishga oid matn topshirig‘i berildi.

Kamalak jilolari

Kamalak tabiatning eng go‘zal hodisalaridan biridir, odamlar uning qanday hosil bo‘lishi haqida qadim zamonlardan beri bosh qotirib kelishadi. Hatto, qadimgi yunon faylasufi Aristotel - Arastu ham kamalakning sodir bo‘lishi sababini tushuntirib berishga uringan edi. Ko‘pgina xalqlarda kamalak kuchi haqidagi afsonalar bor. Ijodkorlar unga bag‘ishlab san’at asarlari, musiqa va she’rlar yaratishgan.

Psixologlar ta’kidlashlaricha, odamlar bunday tabiat mo‘jizasini ko‘rib hayratlanishlariga sabab, kamalak yorqinlikni, “baxtli kelajak”ni olib keluvchi narsadir. Texnik jihatdan qaralganda, kamalak atmosferada nur tomchi suv orasida o‘tganda paydo bo‘ladi va nurning sinishi, biz hammamiz o‘rganib qolgan, turli rangdagi egilgan arka hosil bo‘lishiga olib keladi.

Quyosh nuri yoki oddiy oq nur barcha ranglarni o‘zida jam etgandir. Siz qiya turgan ko‘zguning bir chetiga yoki sovun pufagi yuzasiga nur tushganini hech kuzatganmisiz? Oq nur turli ranglarga bo‘linib ketadi. Shunda biz qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, moviy, ko‘k va binafsha ranglarini ko‘ramiz.

Nurni turli ranglarga ajratuvchi narsa “prizma” deb ataladi. Hosil bo‘lgan ranglar o‘zaro birikib ketuvchi chiziqlar hoshiyasini hosil qiladi va bu «spektr» deb ataladi. Kamalak ham katta egilgan spektr yoki yomg‘ir tomchilari orqali o‘tib sinadigan nurning rango-rang chiziqlaridan iborat tasmadir. Bu holda yomg‘ir tomchilari prizma vazifasini bajaradi.

Ko‘pincha kamalak ertalab va shomda paydo bo‘ladi. Kamalak hosil bo‘lishi uchun, quyosh nuri taxminan 42 gradus burchakda yomg‘ir tomchisiga tushib qolishi kerak. Bu holat, Quyosh osmonda 42 gradusdan balandroq turganida ro‘y berishi amri mahol. Kamalak jala yog‘ayotganda chiqadi. Bu vaqtda, bir tomondan yomg‘ir yog‘ayotgan, boshqa tarafdan esa quyosh charaqlab turgan bo‘ladi. Kamalakni ko‘rish uchun siz quyosh (orqangizda turishi kerak) va yomg‘ir (oldingizda yog‘ayotgan bo‘lishi kerak) o‘rtasida bo‘lishingiz lozim. Quyoshdan tushayotgan nurlar yomg‘ir tomchilariga tushib spektr hosil qiladi. Quyosh, sizning ko‘zlaringiz va kamalak markazi bir chiziqda bo‘lishi kerak.

Agar Quyosh juda balandda bo‘lsa: bunday to‘gri chiziq o‘tkazib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham kamalakni faqat ertalab yoki kechga yaqin kuzatish mumkin. Tonggi kamalak Quyosh sharqdan nur sochayotgani va yomg‘ir sizning g‘arb tarafingizda yog‘ayotganini ko‘rsatadi. Tushdan keyingi kamalak esa Quyosh G‘arbdan nur sochayotgani va sizning sharq tarafingizda yomg‘ir yog‘ayotganini bildiradi.

Kamalakni qorong‘u tushganda ham uchratish mumkin. Bunday holat oy kamalagi deb ataladi. Bunday vaziyatda, yorug‘lik nurlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Quyoshdan emas, Oydan aks olganida vu judga keladi. Odatda, u unchalik yorqin bo‘lmaydi, chunki yorug‘lik qanchalik yorqin bo‘lsa, kamalak shunchalik rang-barang bo‘ladi. Ayrim kishilar kamalakni, yomonlik alomati, deb bilishgan. Ular, marhumlarning joni narigi dunyoga kamalak orqali o‘tadi, kamalak paydo bo‘lganda esa, kimdir o‘ladi, deb hisoblashgan.

Har bir xalq yoki elatning turish-turmushi, urf-odati, dunyoqarashi o‘ziga xos, ular uzoq davrlar mobaynida shakllangan. Bu narsa hatto rangga bo‘lgan munosabatda ham namoyon bo‘ladi. O‘rta Osiyoda, xususan, biz – o‘zbeklarda yorqin ranglarga ijobiy ma’no yuklanadi.

Masalan, oq rang ezgulik, soflik belgisi sanaladi. Boshqa millatlar unga boshqacha nazar bilan baho berishi mumkin. Bu esa, boya ta’kidlanganidek, xalqning mentalitetiga – milliy dunyoqarashiga bog‘liq. O‘tmishda asir tushgan yoki yengilgan qo‘shin oq bayroq ko‘targan. Oq sulhparvar elchilar va betaraf tomonlarning rangi hisoblanadi. Yaponiya, Hindiston va Xitoyda esa bu rangga motam ramzi deb qaraladi. Oq Hindistonda kasallikni ham ifodalaydi. Qizil esa muhabbat va hayot rangidir.

Qizil Fransiyada aristokratlar rangi sanaladi. Xitoyda baxtni, Yaponiyada esa xavfni anglatadi. Shu sababli yapon multfilmlarida qahramonning g‘azabini, qahrini aks ettirish uchun qizil rangdan ko‘p foydalaniladi. Sariq Amerikada qo‘rqoqlik va irodasizlikni ifodalaydi. Bu rang Xitoyda baxt va boylik, Yaponiyada esa go‘zallik va nafosat belgisidir. Hindular sariqni muvaffaqiyat keltiradi deb hisoblashadi.Yashil Amerikada xavfsizlikni, Fransiyada esa

jinoyatchilikni anglatadi. Qora Yevropada azaldan yovuzlik, vayronganchilik va o‘lim obrazi bo‘lgan. Ayrim sharq mamlakatlarida bu rangga sevgi va oilaviy baxt belgisi deb qaraladi. Moviy Misrda haqiqat va ezgulikni, Amerikada jasurlikni, Yaponiyada esa tovlamachilik va firibgarlikni bildiradi.

SAVOLLAR:

Berilgan matndagi 1 – 7 xatboshilar asosida quyidagi fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilang.

1. Kamalakda 7 xil rang bo‘ladi.

2. Oq nur turli ranglarni hosil qiladi.

3. Kamalak yomg‘irdan keyin paydo bo‘ladi.

4. Kamalakni kechasi ko‘rib bo‘lmaydi.

5. Yomg‘ir tomchilari nurni turli ranglarga ajratish vazifasini bajaradi.

Berilgan matndagi 8 – 12 xatboshilar asosida quyidagi fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilang.

6. Nega ayrim kishilar kamalak chiqishini yomonlik alomati deb bilishgan?

A) Kasallik boshlanadi deb o‘ylashgan. B) Urush boshlanadi deb o‘ylashgan.

C) Kimdir o‘ladi deb o‘ylashgan. D) Xudoning qahri keldi deb o‘ylashgan.

7. Hindistonda oq rang –

A) sulhparvar elchi ramzi B) motam ramzi C) kasallik ramzi D) B, C

8. Sariq rang go‘zallik va nafosat ramzi sanalgan davlatda – . . .

A) qizil rang xavfni anglatadi B) oq rang motam ramzi C) moviy rang tovlamachilik va firibgarlikni bildiradi D) barcha fikrlar to‘g‘ri

9. Amerikada . . .

A) Sariq jasurlikni ifodalaydi. B) Yashil xavfsizlikni anglatadi.

C) Moviy qo‘rqoqlik va irodasizlikni bildiradi. D) Qizil rangdan multfilmlarda qahramonning g‘azabini, qahrini aks ettirish uchun ko‘p foydalaniladi.

10. Hindular qaysi rangni muvaffaqiyat keltiradi deb hisoblashgan?

A) yashil B) sariq C) moviy D) qizil

Yuqoridagi tajriba xulosasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning ona tili bo‘yicha bilimlarini baholashda ilmiy qoidalarni eslab qolganligi bilan emas, o‘qish ko‘nikmasini baholash samaraliroq bo‘lar edi. Chunki tilni o‘rganishda nafaqat grammatika, balki hayotda u tildan foydalanish uchun ko‘nikmalar hosil qilish juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Nurmonov, A. Sobirov va boshqalar . (2013). Akademik litsey darsligi 1 – 3 - bosqichlar uchun.Toshkent .

2. M. Qodirov, H. Ne’matov va boshqalar.(2014). 8 – sinf ona tili darsligi .Toshkent.

3. N. Mahmudov, A. Nurmonov va boshqalar. (2014). 6 – sinf ona tili darsligi Toshkent.

MATN STRUKTURASINI ANGLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Raximova Zebo Otabek qizi
ToshDO‘TAU OTATF 2-kurs talabasi
zebooraximova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matn tahlil qilish, uning strukturasini aniqlash, matn yaratish qoidalari va matn strukturasini anglashning ahamiyati haqida batafsil yoritilgan. O‘quvchilarning matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini oshirish uchun maslahatlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Matn, matn strukturasi, matn tahlili, matn tuzilishi, axborot, kirish qism, asosiy qism, xulosa qism.*

Abstract. *This article elaborates on text analysis, determining its structure, rules for creating text and the importance of understanding text structure. Tips for teachers to improve students’ text analy sismskills.*

Keywords: *Text, text structure, text analysis, text structure, information, introductory part, the main part, conclusion part.*

Matn tahlil qilish, strukturasini anglash, uni kirish, asosiy qism va xulosaga ajrata olish har bir shaxs uchun amaliy ahamiyatga egadir. “O‘quvchilarning hodisani kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali

ijodiy tafakkurini, fikrlash doirasini shakllantirish muhimdir. Bu jarayonda o‘quvchilarning o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va izchil ifodalab bera olishi muhim hisoblanadi” (“Lingvodedaktikaning dolzarb masalalari”, 2022, 14-16-bet).

O‘quvchilarga boshlang‘ich sinflardanoq matn tuzish o‘rgatib boriladi. Matn tuzishda o‘quvchilar rejadan foydalanishadi. O‘quvchi fikrini to‘liq va tartibli bayon etishda reja katta ahamiyatga egadir. O‘quvchi bundan tashqari boshqa matnlarni ham rejalarga ya’ni kirish, asosiy qism va xulosaga ajrata olishi kerak. Bu orqali o‘quvchi matnda nima haqida fikr yuritilayotgani, asosiy maqsadi va xulosasi qanday ekanligini tez ilg‘ab oladi va o‘zi so‘zlaganda ham fikrini tartibli va ravon bildirishga o‘rganadi.

“Matn yaratish jarayoni nutq mexanizmiga bog‘liq bo‘lib, bu mexanizm ichki nutq faoliyati bilan bog‘liq jarayonni yuzaga keltiradi. Bu jrayonda “Mazmun-matn” sxemasini fikrlash boshqarib turadi. Mualif tinglovchiga yetkazib bermoqchi bo‘lgan axborotni ichki nutqida o‘ylaydi, so‘zlarni miyasida idrok qiladi va uni tartiblab, bir fikr doirasida yoritib berishga harakat qiladi va bu jarayonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniq fikrga yo‘nalgan, izchil ifodalangan, ketma-ket kelgan gaplar zanjiridan tashkil topgan bog‘lanishli nutq yuzaga keladi”(“Lingvodedaktikaning dolzarb masalalari”,2022, 101-bet).

“I.R.Galperin matnni yozma hujjat ko‘rinishida voqealantirilgan, turli tipdagi leksik va grammatik bog‘lanishlar orqali birlashgan bir qator alohida birliklardan iborat ushbu hujjatning tipi, janriga muvofiq adabiy ishlov berilgan va muayyan modal xarakterga hamda pragmatik ko‘rsatmaga ega bo‘lgan axborot ekanini ta‘kidlaydi. Ko‘rinadiki, matnga xos xususiyatlar ushbu ta‘rifda o‘z aksini topgan, ya’ni matnda quyidagi jihatlar mavjud bo‘ladi:

a) mantiqiy bir butunlik;

b) axborot berish xarakteriga egalik;

c) tuzilish jihatdan shakllanganlik;

d) ma’no-mazmuniga ko‘ra yaxlitlik;

fikriy tugallik” (Гальперин И.Р. О понятни «текст»// Вопросы языкознания.1974. №6).

“Matn ustida ishlash va matn yaratishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida o‘quvchilar davlat ta’lim standartlari talablari asosida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari lozim bo‘ladi:

10. o‘rganilga matnda ifodalangan asosiy fikrni anglab yetish;

11. mustaqil o‘qilgan matndan mantiqiy xulosa chiqarishni bilish;

12. o‘rganib chiqilgan yoki o‘zi mustaqil yaratgan matnning turi, tili va uslubini aniqlash;

13. munshaot matnlarini farqlash va ularni to‘g‘ri tuzish;

14. matn tarkibini, uning uslubiy jihatlarini shakllantiruvchi gaplarni o‘zaro bog‘lovchi vositalarni tanlash va ularni o‘rinli qo‘llash;

15. uslubiy nuqsonligapni muxtasar va mukammal holatga keltira bilish;

16. matn yaratish jarayonida so‘z birikmalaridan, ibora va tasviriy ifodalardan, maqol va hikmatli so‘zlardan unumli foydalana bilish;

17. berilgan muayyan bir mavzu yuzasidan ilmiy, badiiy, publisistik, rasmiy, so‘zlashuv uslublarida kichik matnlar yarata olish;

18. tayyor (berilgan yoki til mashg‘ulotlarida yaratilgan) matnni tahrir, tahlil qila olish;

19. matn mazmuniga munosabat bildirilgan kichik taqriz, tavsiya, takliflar yoza olish;

20. elektron didaktik slayd va kommunikativ jadvallarni ilmiy, ilmiy-badiiy uslubda tasniflash va ulardan mavzu bo‘yicha ilmiy matnlar tuzishda foydalanish;

21. madaniy muloqot ko ‘nikmalarini egallash va mazkur mavzuda turli uslubda matn yaratishni bilish;

22. gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalar yuzasidan taqriz va referatlar yozish, qomusiy va lingvistik lug‘atlardan erkin foydalanish;

tayyor matn asosida yangi matn yaratish”(Гальперин И.Р. О понятни «текст»// Вопросы языкознания.1974. №6).

Ona tili, shuningdek, o‘zbek (davlat) tilidarslarida matn tuzishni o‘rganish muammolari T.Ziyodova (Зийодова, Т.У. Матняратиш технологияси. Монография.- Тошкент: Фан, 2008), M.Rixsiyeva (Рихсиева, М. Таълим рус тилида олиб борилайотган мактабларнинг узбек тили дарсларида укувчиларга матнтузишниургатишметодикаси. Пед.фан.номз. …дисс. Тошкент.2009.), N.I.Bekniyazova (Бекниязова Н. Бошлангич синфлар она тили дарсларида укувчиларга матн яратишни ургатиш методикаси: Монография. Тошкент: Фан ватехналогиялар, 2012.), R.A.Yo‘ldoshev va M.M.Rixsiyevalar (Yo‘ldoshev, R.A. Rixsiyeva, M.M. Insholardagimatniyxatolar, ularnituzatishmetodikasi,-Toshkent: Fanvatexnalogiyalar, 2019.) tomonidan tadqiq etilgan, monografiyalar, metodik qo‘llanmalar yaratilgan.

Matn strukturasini o‘quvchilarga anglatish uchun ,avvalo, matn haqida, uning tuzilishi haqida to‘liq ma’lumot berish kerak va matn berib ko‘proq mustaqil tahlil qildirish lozim. Uyga qo‘shimcha topshiriq qilib matn tuzish, uni qismlarga ajratib tahlil qilish vazifasini ham berib borish kerak.

Bu orqali o‘quvchining fikrlash doirasi kengayadi. O‘quvchilarni qanchalik matnni tushunishlari, qismlarga ajrata olishlarini aniqlash maqsadida tajriba o‘tkazildi. Tajriba Xalq Ta’limi Vazirligi tasarrufidagi Filologiya maktabi 6-„M” sinf o‘quvchilari orasida o‘tkazildi.

Birinchi o‘quvchilarga matn haqida, uning tuzilishi, strukturasi haqida yetarlicha ma’lumot berildi. So‘ng o‘quvchilar bilan birga “Eksport va import” deb nomlangan matnni tahlil qilib, uni qismlarga ajratildi. Bunda o‘quvchilar ancha faol qatnashishdi. So‘ng har bir o‘quvchiga o‘zi har bir o‘quvchiga o‘zi mustaqil reja asosidamatn tuzish va uni tahlil qilish topshirig‘i berildi. Bunda 24 ta o‘quvchidan 16 tasida ijobiy natijaga erishildi. Ikkinchi marta tajriba o‘tkazilganda bu natija 18 taga ko‘tarildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar orasida matn strukturasini anglash ko‘nikmasi rivojlanib bormoqda.

Biz o‘quvchilarga ona tili fanidan ta’lim berar ekanmiz, ularga grammatika bilan bir qatorda to‘g‘ri va ravon nutq so‘zlashni ham o‘rgatib borishimiz, nutqini rivojlantirishimiz lozim. Buning uchun o‘quvchilar bilan dars davomida ko‘proq

matn ustida ishlashimiz, uning strukturasini aniqlashimiz, matn ustida tahlil va muzokaralar ko‘proq olib borishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Lingvodedaktikaning dolzarb masalalari”.(2022). Toshkent.

2. Yo‘ldoshev, R.A. Rixsiyeva, M.M.(2019). Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. Toshkent.

3. Бекниязова Н. Бошлангич синфлар она тили дарсларида укувчиларга матн яратишни ургатиш методикаси:(2012) Монография. Тошкент.

4. Гальперин И.Р. (1974).О понятни «текст»// Вопросы языкознания.

5.Зийодова, Т.У.(2008).Матняратиш технологияси. Монография. Тошкент.

6.Рихсиева, М. Таълим рус тилида олиб борилайотган мактабларнинг узбек тили дарсларида укувчиларга матнтузишниургатишметодикаси.

Пед.фан.номз. …дисс. Тошкент.2009.

KO‘RIB TUSHUNISH METODI ORQALI O‘QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH

O‘skanova Rayxona Akmal qizi,
ToshDO‘TAU OTATF 2-kurs talabasi.
uskanovarayxona@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarning ko‘rib tushunish ko‘nikmasi orqali yozma nutqini qanday qilib yaxshilash haqida fikr yuritilgan hamda bir nechta usullar orqali yoritib berilgan. Yozma nutqda yo‘l qo‘yilgan xatolar ustida ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish borasida so‘z boradi. Ko‘rib tushunish o‘quvchilarning fikrlash hamda tafakkur doirasiga ta’siri haqida fikr yuritilgan*.

Kalit so‘zlar: *Yozma nutq, ko‘rib tushunish, ko‘nikma, malaka, topshiriq, yozma savodxonlik, surat, video.*

Abstract. *This article focuses on how to improve students' reading comprehension skills in writing and covers several methods. It is about developing the ability to work on mistakes made in written speech. The impact of reading comprehension on students' thinking and thinking is discussed.*

Keywords: *written speech, reading comprehension, skill, skill, task, written literacy, photo, video*.

Hozirgi kunda dolzarb muammoga aylangan masalalardan biri bu – o‘quvchilarning yozma savodxonligidir. Bu birgina o‘quvchilarda emas, balki butun jamiyat muammosiga aylanib bormoqda. Savodxonlik va yozma nutqni oshirish uchun zamoniy texnologiyalardan, ya’ni axborot asrida yashar ekanmiz foydalanishimiz kerak. Ko‘rib tushunish orqali ya’nikim, suratlar yoki video tasvirlar orqali o‘quvchilarning yozma nutqini oshirish imkoniga egamiz. Bunda biz yosh va fikrlash doirasidan kelib chiqqan holda yondoshishimiz lozim. Ko‘rganda tafakkur qilishi hamda tasvirlar orqali so‘zlarni topishi osonlashadi. Eshitganda esa so‘zlar hamda jumlalarni tushunishi yengillashadi. Bu foydali usullardan biri.

Avvalambor, nutq nima degan savolga bir to‘xtalib o‘tsak, “Nutq — kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi”. (K. Qosimova, 2009, 299-300-bet). “Nutq ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Ichki nutq og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Og‘zaki nutq odatdagi tovushli so‘zlashuv nutqi bo‘lib, bu nutq ko‘proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Yozma nutq esa harf va so‘zlarning ma’lum qonuniyat asosida o‘zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar: abzaslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon qilish orqali voqelanadi. Yozma nutq ha og‘zaki nutq singari monologik, dialogik va poligogik shakllarga ega. Monologik nutq – bir kishining boshqalarga qaratilgan nutqi bo‘lib, u himoya qilish, xabar erish, o‘qilganni qayta so‘zlab berish, o‘zi savol berib, o‘zi javob berish shaklida namoyon bo‘ladi. Dialogik nutq ikki kishi o‘rtasida amalga oshiriladi. Polilogik nutq esa ko‘p kishining nutqidir. Yozma nutq ustida ishlash og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayondir. Chunki u o‘quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali. Uslub jihatdan soda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida

xulosa chiqarishni talab qiladi. Bu nutq turning murakkab tabiati shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslublar bilan bog‘liq. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarni o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas’uliyatni talab qiladi. Yozma nutq tekshiriladi, tuzatiladi, takomillashtiriladi, bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega.” (G‘ulomov, 2012, 305-307-bet). Shunday ekan, yozma nutq orqali ta’sir etishni o‘quvchilarga o‘rgatish va buni amalda qo‘llay olish malakasini shakllantirishimiz lozim. Videolar orqali yoki suratlar orqali ko‘rib tushunishni shakllantirishdan avval eshitib tushinish ko‘nikmasini rivojlantirishimiz kerak. Eshitib tushunish nima degan savol tug‘iladi. Eshitib tushunishda audiolar orqali tushunishni bilamiz. Ko‘rib tushunish ko‘nikmasida esa, biz bir vaqtning o‘zida ikkita ko‘nikmani shakllantirishga muvaffaq bo‘lamiz. “… Doim bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi. Ta’lim har xil usullarda uyushtirilganda o‘quvchi turli gullar ochilgan bog'da yurganga o‘xshaydi, ularga qiziqadi, ko‘rishni istaydi”—Abu Rayhon Beruniy fikrlari. (https://znanio.ru/media/ona-tili-darslarida-oquvchilarnig-ogzaki-yozma-nutqini-rivojlantirish-2661521) Ushbu fikrlardan ko‘rinadiki, doimo dars davomida bir xil usullardan foydalanish o‘quvchilarni zeriktirib qo‘yadi. Shundan kelib chiqib o‘quvchilarda va o‘rganuvchilarda boshqa ko‘nikmalarni ham shakillantirish kerak.

Ko‘rib tushinish komponentini rivojlantirish uchun, avvalambor, oddiy mashq va topshiriqlarni o‘quvchilar ixtiyoriga havola qildik. Bunda biz Xalq ta‘limi tasarrufidagi “Filologiya maktabi” da tajribalar va kuzatishlar olib bordik. Quyidagi topshiriqni 6-sinf o‘quvchilariga berdik, bundagi tasvirlar darslikdan olingan bo‘lib, ularning yosh doirasiga mos keladigan tasvirlar hisoblanadi. Rasm va unga berilgan tasvirlar orqali o‘quchilarning yozma nutqidagi kamchiliklarni ko‘rishimiz mumkin:

Ushbu suratga bir nechta savollar qo‘ydik:

1. Suratda nimani ko‘ryapsiz?

2. Bobo bolalarga nima uchun tanbeh beryapti?

3. Siz bolalarning o‘rnida bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lar edingiz?

Birinchi matn bo‘yicha shu kabi savollar berildi. Bunga o‘quvchilardan birining savollarga bergan yozma javobini sizga havola qilsak:

“Shu rasmda men bir dodaning nabiralariga nasihat qilayotganini ko‘rdim. Bolalar ko‘chada to‘p o‘ynagani uchun ularga bobosi tanbeh beryapti. Bolalar esa bobosining so‘zlarini diqqat bilan tinglab turibti. Men shu bolalarni o‘rnida bo‘lib qolganimda dodamning jahllarini chiqarmagan bo‘lar edim”. Mana shu tarzda savollarga javob bergan. Bu matnning xatolari ustida o‘quvchilar bilan birga ishladik. Xatolar ustida ishlash:

1. Ushbu matnda o‘quvchi o‘z shevasida qo‘llanadigan doda so‘zini qo‘llagan. Bu so‘zning o‘rniga adabiy tildagi muqobili “bobo” so‘zini qo‘llash kerakligi tushuntirildi.

2. Yana shevaga oid to‘p so‘zini qo‘llagan, bu so‘zning adabiy tildagi muqobili esa koptok so‘zi hisoblanadi. 3. Matnda imloviy xatolarga ham yo‘l qo‘yilgan so‘zlarni qanday talaffuz qilsa, shunday yozib ketganligi tushuntirildi va so‘zlarning to‘g‘risini qanday yozilishi ko‘rsatib berildi.

4. Matnni tasvirlayotganda tabiat tasvirlariga e’tibor berilmagan. Bu ham bir kamchilik sifatida qaraldi.

Ko‘rinib turibdiki, yozma nutqni rivojlantirish o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Yozma nutning ham o‘ziga xos xususiyatlari bor. “O‘z fikrini yozma nutq bilan yetkazish uchun bir kishi matnni o‘qiydigan odamning fikrini tartibga solishga yordam beradigan paragrafni ishlatadi. Bo‘shliq paneli matnning bir qismini bir-biridan ajratib qo‘yishga imkon beradi. Agar ma'lum tanlovlar, shriftlardan foydalansangiz, bu bilan siz o‘quvchining diqqatini ma'lum bir ma'lumotga qaratasiz”. (https://uz.tierient.com/yozma-nutq/). Shundan kelib chiqib biz tajribamizning natijalari bilan tanishamiz. Birinchi olingan tajribada xatolar, kamchiliklar yetarlicha edi. Bu xatolarni bartaraf qilish maqsadida ko‘proq kitob o‘qish tavsiya qilindi. “Insonda yozma nutqning qisman buzilishi disgrafiya deb ataladi. U o‘zini namoyon bo‘lishining qat'iyati bilan tavsiflangan xato bilan o‘zini namoyon qiladi. Buning sababi yozma jarayonlarga bevosita ishtirok etadigan aqliy rivojlanishning yuqori funksiyalari mavjud emasligidan kelib chiqadi. Nutq terapevtlari bu muammoni bartaraf etishlari mumkin.” (https://uz.tierient.com/yozma-nutq/) Shundan kelib chiqib yana bir tajriba o‘tkazdik. Va yana bir rasm orqali o‘quvchilarning ko‘rib tushunishini tekshirib ko‘rdik.

Ushbu rasm orqali mustaqil matn tuzish vazifasi berildi. Vazifani bajarish jarayonida birinchi yo‘l qo‘yilgan xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilgan. Bunda o‘quvchilar tuzgan matnlardan biri quyidagicha:

“Milliy qadriyatlarimiz - bu bizning boyligimiz. Bizning yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo. Yurtimizda ko‘plab sayohat maskanlari bor. Bular Samarqand, Buxoro va Xiva kabi mashhur shaharlar. Samarqand nonlari butun dunyoga mashhur. O‘zbeklarning milliy liboslarini, atlaslarini butun dunyo taniydi. Milliyligimiz-bu bizning boyligimiz.” Shu tarzda matn tuzilgan. Ushbu matnda xatoliklarga yo‘l qo‘yilmaganini ko‘rishimiz mumkin.

“Bolalarni taqqoslab bo‘lmaydi: bu aqlli, xotirjam, boshqalardan yaxshiroq, ikkinchisi esa zaif, orqada. Bir kishi uchun oson va sodda bo‘lgan narsa boshqasi uchun juda qiyin bo‘lishi mumkin. Shu munosabat bilan bolalarni sinfdoshlarining kamchiliklarini aniqlashga emas, balki ijobiy tomonlarini aniqlashga yo‘naltirish kerak. Bahosiz o‘qitish bilan bolalarga o‘zini o‘zi qadrlash me'yorlarini, mumkin bo‘lgan xatolarni aniqlash va ularni tuzatish usullarini o‘rgatish juda muhimdir”. (https://peskiadmin.ru/uz/sistema-ocenivaniya-obrazovatelnyh-dostizhenii-mladshih.html). Shundan kelib chiqqan holda o‘quvchilarni baholadik. Ikkala topshiriq davomida o‘quvchilarning baholangandagi o‘rtasidagi farqni solishtiramiz:



1 – topshiq yuzasidan o‘quvchilarning baholanishi quyidagicha:

26 ta o‘quvchidan

“5” baho olganlar – 3ta

“4” baho olganlar – 5 ta

“3” baho olganlar – 8 ta

“2” baho olganlar – 10 ta

2 – topshiriq bo‘yicha baholanishi esa quyidagicha:



26 ta o‘quvchidan

“5” baho olganlar – 8 ta

“4” baho olganlar – 10 ta

“3” baho olganlar – 5ta

“2” baho olganlar – 3 ta

Baholanish davomida ko‘rindiki, suratlar orqali o‘quvchilarga tushuntirish va matnlar orqali ishlash o‘quvchilarning yozma nutqiga hamda fikrlash doirasiga ta’sir qilganini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, har bir olib borilgan tajriba va tekshirishlar besamar ketmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Yozma nutqni rivojlantirish bir kunda bo‘ladigan hodisa emas. Hozirgi kunda olib borilayotgan tajribalar, albatta, bir kun o‘z natijasini ko‘rsatadi. Ko‘rib tushunish ko‘nikmasi o‘quvchilarning yozma nutqini hamda savodxonligini oshirish uchun yordam berganini tajriba davomida ko‘rdik. Har qanday qo‘llangan usulda natija bo‘ladi. Faqat undan qanday tartibda foydalanishni bilishimiz kerak va buni o‘quvchilarga hamda kelajak avlodga to‘g‘ri tushuntirib bera olishimiz kerak. Shunda marra bizniki bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahim Sh. (2021). Ona tili ta’limida o‘qib tushunish malakasini baholash. Monografiya. Toshkent. Nodirabegim

2. K. Mavlonova. (2022).Ona tili: 6-sinf uchun darslik. Toshkent. Respublika ta’lim markazi.

3. Ochil Roziqov.(2006). Ona tili didaktikasi.Toshkent.Yangi asr avlodi.

4. K. Qosimova. (2009). Ona tili o‘qitish metodikasi.Toshkent: Noshir

5. G‘ulomov. (2012). Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent.

6. https://peskiadmin.ru/uz/sistema-ocenivaniya-obrazovatelnyh-dostizhenii-mladshih.html

7. https://znanio.ru/media/ona-tili-darslarida-oquvchilarnig-ogzaki-yozma-nutqini-rivojlantirish-2661521

8. https://uz.tierient.com/yozma-nutq/

BIRINCHI SINF DARSLIKLARINING TERMINOLOGIK TARKIBI

Safarova Gulshoda Shuhrat qizi
ToshDO'TAU AFF 2-kurs
gulshodasafarova4@gmail.com

Annotatsiya: *Barchamizga ma'lumki, glaballashuv davrida barcha fan sohalari ildam qadam bilan odimlamoqda. Tilshunoslik ham ana shunday sohalardan biri bo'lib, tilni amaliy jihatdan tadqiq etish orqali, mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etib tilning jamiyatda va siyosatdagi rolini oshirib bormoqda. Terminologiya esa uning shakllanishidagi asosiy vazifani bajaruvchi komponenti hisoblansada, o'zbek tilshunosligida u yetarlicha tadqiq etilmaganligi bilan ko'zga tashlanib turadi. Tilshunosligimizda terminlar nazariy jihatdan tadqiq etilgan ko'plab monografiya, dissertatsiya va maqolalar bo'lishiga qaramay, bugungi kunda ularning amaliyotda aksini topish bir muncha muammoli vaziyatga aylanib qolgan. Bularning qatorida maktab darsliklari doirasidagi terminlar tadqiqi ham mavjud bo'lib, shu paytgacha ularga aloqador yetarli amaliy ishlar olib borilmagan . Shu sababli ushbu maqolada darsliklarda terminlarning berilishi bilan bog'liq bo'lgan ayrim masalalar va ularning bola ongiga ta'siri kabi masalalar birinchi sinf darsliklari misolida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *termin, terminologiya, tilshunoslik, atama, terminologik tizim, professionalizm, kognitiv ta'lim, retroskopik ta'lim, maktab darsliklari terminologiyasi, izohli lug'at.*

Abstract: *As we all know, in the process of globalization, all fields of science are advancing rapidly. Linguistics is one such field, which through the practical study of language, overcomes existing problems and problems, and increases the role of language in society and politics. Terminology is a component that performs the main task in production, but in Uzbek linguistics, it stands out because it has not been researched enough. In contrast to the many monographs, dissertations and articles in which linguistics is theoretically researched, today it has become a somewhat problematic situation to find the term in test work. Among these, there is also a study of terms within school textbooks, and so far no practical work related to them has been carried out. In these documents, some issues related to the*

articles of the terms in the textbooks and issues such as the impact of the document on the child are considered on the example of the first grade textbooks.

Keywords: *term, terminology, linguistics, term, terminological system, professionalism, cognitive education, retroscopic education, school terminology handbook.*

Terminologiya lingvistikaning yirik tarkibiy qismi hisoblanib, bir necha yillardan buyon jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilib kelinayotgan sohalardan biri. Shuni alohida ta’kidlab aytish lozimki, bu soha hali-hanuz muzokarali vaziyatlarga boy bo‘lib, *termin* va *atama, terminologiya* va *terminologik tizim* tushunchalari shu sohaga bag‘ishlangan ilmiy asarlarda turlichalik kasb etadi. Ammo ular “terminologiyaga bag‘ishlangn ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan definitsiyaga ega bo‘lgan va, asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi” deb keltirishgan (Sobirov A, 2022, B.447). Jahon tilshunos olimlari terminlarni “maxsus leksika” deb atashgan va uni tarkibiy qismlari sifatida terminlar va professionalizmlarni ko‘rsatishgan. Fikrlarining davomi sifatida esa bu ikki tushuncha o‘rtasidagi farqlarni aytib o‘tishgan. Bunga ko‘ra “professionalizmlar mutaxassislarning so‘zlashuv nutqida qo‘llaniladigan maxsus so‘zlar bo‘lib, o‘zining og‘zaki nutqqa xosligi hamda to‘laligicha rasmiy emasligi bilan terminlardan farq qiladi” (https://brkm.ru/uz/auto/professionalnaya-leksika-professionalizmy-eto-znachenie-termina/), terminlar esa muayyan fan sanoat, qishloq xo‘jaligi shu bilan bir qatorda texnikaga oid bo‘lgan, to‘laligicha rasmiy, ilmiy deb qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasi sifatida talqin qilinadi. Terminlar tadqiqi o‘sha soha rivoji uchun muhim hisoblanib, soha qay darajada rivojlanganligini shakllantirilgan terminologik lug‘atlar namoyish etadi. Ilm-fanning to‘xtovsiz ravishda yuksalishda davom etishi yangi so‘zlarning tug‘ilishiga, qolaversa leksikani boyitishga yordam beradi. Har bir soha va tarmoqni ichiga kirib o‘rganmoqchi bo‘lgan shaxs uchun esa o‘sha sohagagina tegishli bo‘lgan so‘zlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Terminlar aloqa aralashuvining muhin elementlaridan biri hisoblanib, ularni o‘rganish barcha uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar kichik sinfligidanoq turli fan sohalarini o‘rganishlari kerak bo‘lganligi uchun bu hol ular uchun kengroq ma’no kasb etadi. Maktab o‘quvchilari uchun yaratilgan o‘quv lug‘atlari darsliklardan keyinda turuvchi asosiy o‘rganish manbasi hisoblanadi. Har bir darslik o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda murakkablashishini hisobga oladigan bo‘lsak, birinchi sinfdan o‘n birinchi sinfgacha bo‘lgan davrda o‘quvchilar ongi har bir fan doirasida yetarlicha soha terminlari bilan boyib boradi. Shuni hisobga olib, o‘quv lug‘atlari yaratish jarayonida sinflar kesimiga e’tibor berish va terminning yoshga nisbatan izohi bilan bog‘liq masalalarni yetarlicha ko‘rib chiqish lozim. Terminlar fan o‘rganish obyektining tashkil qiluvchi qismlaridan biri ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, to‘g‘ri va tushunishga qulay qilib izohlangan terminlar ta’lim samaradorligini ham ancha oshiradi.

Quyida birinchi sinf darsliklari bilan tanishish orqali terminlar va ularning berilishi bilan bo‘g‘liq bo‘lgan masalalarni ko‘rib chiqishimiz mumkin bo‘ladi.2022/2023- o‘quv yilida 1-sinf o‘quvchilariga foydalanish uchun topshirilgan darsliklarning umumiy soni 8ta bo‘lib, ular quyidagilar:

1. Alifbe(2021)
2. Ona tili va o‘qish savodxonlgi 1-2-qism(2021)
3. Matematika(2021)
4. Tarbiya(2020)
5. Tabiiy fanlar(2021)
6. Musiqa(2021)
7. Texnologiya (2021)
8. Tasviriy san’at (2021)

Ko‘rinib turganidek, darsliklarning deyarli barchasi yangi nashr etilgan. Darsliklarni ko‘rib chiqish mobaynida, kreativlik bilan yondashilgan yangicha mashq va topshiriqlar e’tiborimizni tezda tortadi, ammo terminlar bilan bog‘liq muammoli masalalarning hali hanuz yechilmagani kishi ko‘nglini xira qiladi.

1-sinflar uchun mo‘ljallangan “Alifbe” darsligini oladigan bo‘lsak, uning asosiy maqsadi o‘quvchini savodli qilish, ya’ni harf tanitish, o‘qish va yozishni o‘rgatish. Bu orqali shu nomoyon bo‘ladiki, “Alifbe” dastlabki o‘qish yozish haqidagi tushunchalarni beradi. *Harf, matn, ertak, she’r, bog‘in, so‘z yasash, topishmoq, so‘z andozasi*, bundan tashqari, *so‘zlamoq, ifodali o‘qimoq, yozmoq, bo‘g‘inga ajratmoq, so‘z tuzmoq* kabi so‘zlar ushbu darslikning asosiy faol qo‘llangan terminlaridir va ushbu fanning maqsadi va o‘rganish obyektini ko‘rsatib beruvchi asosiy komponenti hisoblanadi. Bu fanning mantiqiy davomi sifatida “Alifbe” dan so‘ng o‘qitiladigan “Ona tili va o‘qish savodxonligi”ning 1-va 2-qismlarida esa ularning miqdori biroz ko‘payib, tushunilishi biroz murakkab bo‘lganlari qo‘llaniladi, ya’ni osondan murakkabga qarab harakatlanadi. *Audiomatn, ohang, dialog, og‘zaki matn, ohangdosh, tovush, tinish belgilari, to‘rtlik, sarlavha, diktant, rasmli diktant, talaffuz, sayohatchi so‘zlar* terminlari bularga yaqqol misol bo‘la oladi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, o‘quvchilar ongi sekin-astalik bilan darsliklar orqali terminlar bilan boyitib boriladi, ya’ni mavzu yangilanar ekan, terminlar ham yuqoridagi qoida asosida yangilana boradi. Dastlab, kundalik muloqotda faol qo‘llanilishi kuzatiladigan terminlar: *son, sanamoq, katta, kichik, teng,* keyinchalik, *ayriluvchi, kamayuvchi, qo‘shiluvchi, kesma, siniq chiziq, simmetriya, kub* singari tushunilishi maxsus izoh talab qiladigan terminlarni qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Kuzatishlarimiz orqali yana shu aniq bo‘ldiki, “Tasviriy san’at” darsligi terminlarining soni boshqa fanlardagiga nisbatan ancha kam: 26 tani tashkil etdi. *Grafika, kompozitsiya, natyurmort, rangtasvir, simmetriya, haykaltaroshlik, hosila ranglar* kabi terminlar ushbu fanni bu sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan asosiy tushunchalari bo‘lib, ularning izohi masalasi esa biroz muzokaralidir. Yuqoridagi terminlarning ayrimlari so‘z va rasm hamohangligida ifodalangan bo‘lsa, ayrimlari faqat tasvirlar bilangina cheklanib qolganligini kuzatishimiz mumkin. Misol tariqasida, darslikning 6-betida qo‘llanilgan *grafika, haykaltaroshlik* va *rangtasvir* terminlari faqat suratlar yordamida, 56-57-betlaridan o‘rin olgan *simmetriya* va *kompozitsiya* terminlari esa izoh va suratli misollar yordamida darslikdan joy

olgan. Bu holatni musiqa darsligida ham ko‘rishimiz mumkin. Darslikdagi *butun nota, yarim nota* terminlari, qolaversa*, damli, zarbli cholg‘ular* kabi terminlarning izohi o‘quvchini to‘la qanoatlantirmaydi. Bundan tashqari, kitobda *marsh, polka, madhiya* singari terminlarning izohsiz uchrashi, *doira* va *childirma* so‘zlarining tushuntirishlarsiz qo‘llanish holatlari ham kuzatiladi.

Birinchi sinf o‘quv darsliklarida foydalanilgan terminlarni o‘rganish mobaynida, ularni quyidagi uch tasnifga bo‘lish mumkinligi e’tiborimizni tortdi.

1.Izoh va tushuntirishlarsiz anglashiladigan va shu davrgacha bola ongida mujassamlashgan terminlar

Shunday terminlar borki, o‘quvchi uni izohsiz va kimningdur tushuntirishlarisiz anglashi mumkin. “Tabiiy fanlar” misolida ko‘radigan bo‘lsak, *hayvon, suv, tuproq, gul, daraxt, qush, yomg‘ir, qor* kabi terminlarni o‘quvchilar bu davrgacha, kundalik suhbatlar orqali tushunib yetgan va ular o‘qib borish jarayonida “bu nima ekan?” degan o‘yni miyalaridan o‘tkazishmaydi.

2.Qo‘llangan yoki duch kelingan, ammo tub mohiyati anglanmagan terminlar

Ikkinchi toifadagi terminlarni o‘quvchi o‘qish jarayonigacha uchratgan, eshitgan va qo‘llagan ham bo‘lishi mumkin, lekin uning tub mohiyatigacha yetib bormagan. Bu kabi terminlarni “Tarbiya” fani doirasida ko‘plab uchratishimiz mumkin: *go‘zallik, do‘stlik, tirishqoqlik, yaxshilik, odat, yordam bermoq* kabi terminlarni birinchi sinf o‘quvchisi bir tomonlama, ya’ni aniq ko‘rinib turgan ma’nosinigina biladi. *Go‘zallik* so‘zini oladigan bo‘lsak, uning birinchi yaqqol ko‘rinib turgan tomoni tashqi go‘zallik semasi o‘quvchi tomonidan tushuniladi, okkazional ma’nosi, ya’ni ichki go‘zallik ifodasi esa maxsus tushuntirishlar orqali o‘quvchiga yetkaziladi.

3.Duch kelinmagan va qo‘llanilmagan terminlar

Uchinchi toifadagi terminlarni esa o‘quvchi avval eshitmagan va qo‘llamagan bo‘ladi. Bu turdagi terminlarning salmog‘i har bir fan doirasida yetarlicha bo‘lib, ular darsliklarning o‘zida yoki maxsus o‘quv lug‘atlarida albatta o‘quvchiga tushunarli tilda izohlanishi kerak. *Grafin, torf, grafika, hosila rang, skripka kaliti,*

nota, dialog, sarlavha, simmetriya, kub singari terminlar ushbu guruh doirasidan joy oladi.

Shuni ham aytib o‘tish zarurki, nafaqat 1-sinf darsliklarida, qolaversa, yuqori sinflarda ham ayrim *nofaol* terminlarni uchratishimiz mumkin, ya’ni darslikdagi asosiy e’tibor o‘sha termin izohiga emas, balki boshqasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, *nofaol* termin esa misol, o‘xshatish yoki izohlash maqsadlarida kitobdan o‘rin olgan. Buni “Musiqa” kitobidagi *marsh, polka;* “Ona tili va o‘qish savodxonligi”dagi *roman, hikoya* terminlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu maqolada faqatgina birinchi sinf o‘quvchilari emas, balki birinchi sinf o‘quvchilari va darsliklari misolida butun maktab darsliklari tadqiqi bor, ya’ni yuqorida keltirib o‘tilgan muammolar va sifatlar barcha sinflar kesimida uchraydi. Kirish qismda aytib o‘tilganidek, terminlar tadqiqi, o‘rganilishi o‘sha soha rivoji uchun muhim omil sanaladi. Ta’limning dastlabki muhim bosqichi maktablardan boshlanishini hisobga oladigan bo‘lsak, maktab darsliklari uchun yagona o‘quv terminologik lug‘ati yaratish, yoki darsliklarning so‘ngiga terminologik lug‘at uchun alohida varoqlar ajratish maqsadga muvofiq. Yangilanayotgan O‘zbekistondagi “zamonaviy tusga kirayotgan maktablar uchun maxsus lug‘at yaratish harakatlarining paydo bo‘lishi ta’limga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni kiritish, xususan, retroskopik ta’limdan verbal kognitiv ta’lim usuliga o‘tish davriga to‘g‘ri keladi” (Baxriddinova B. 2020, 236-b). Bu esa darsliklar bilan bir qatorda qo‘shimcha ravishda o‘quvchi qo‘lida yoki maktab kutubxonalarida yetarlicha maxsus terminologik lug‘atlarning ham bo‘lishi kerakligini anglatadi. Zeroki, kelajak kelayotgan davr yoshlar izmida ekan, ularni maktab yoshidanoq puxta ishlangan darslik va qo‘llanmalar bilan ta’minlash zarurati dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabioyotlar:

1.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Shokir T.(2021) Ona tili va o‘qish savodxonligi(umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik). - Toshkent: Respublika ta’lim markazi.

2.Baxriddinova B. (2020)O‘zbekistonda o‘quv lug‘atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari.-Samarqand: Universitet

3.Ismatova N, Ro‘ziyeva D (2020)Tarbiya (umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik). -Toshkent: G‘afur G‘ulom

4.Norxo‘jayev N, G‘aniyeva G.(2021) Musiqa (umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik). -Toshkent: Respublika ta’lim markazi.

5.Suyarov K.T, Tillayeva.Z.Y, Sangirova Z. B (2021) Tabiiy fanlar (umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik). -Toshkent: Respublika ta’lim markazi.

O‘QUVCHILARDA TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Suyunova Kamola Uchqun qizi,
TOSHDO‘TAU OTAFT 2-kurs talabasi
suyunovakamola5@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarda tinglab tushunish ko‘nikmasi haqida hamda bu ko‘nikmani rivojlantirish to‘g‘risida fikr va mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, maktab darsliklari haqida ham so‘z yuritilgan. Maktab o‘quvchilarida og‘zaki nutqiy ko‘nikmasi, yozma nutqiy ko‘nikmasi hamda tinglab tushunish ko‘nikmasini bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga doir mashqlar yoritib berilgan. Bu esa o‘quvchilarda tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi usullarni ishlab chiqish ona tili o‘qitish metodikasi fani uchun zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Tinglab tushunish, ko‘nikma, qobiliyat, audiomatn, yozma bayon qilish, hayotiy ko‘nikmalar.*

Abstract. *In this article, the student‘s listening comprehension skills and the development of these skills are discussed. And there is a lot of talk about school textbooks. Exercises to simultaneously develop oral communication skills, written communication skills and listening comprehension skills in schoolchildren are highlighted. This shows that the development of methods that develop students‘ comprehension skills in necessary for the science of mother tongue teaching methods.*

Keywords: *Listening comprehension, audio text, ability, skill, make a written statement, life skills.*

Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda o‘rganuvchilardan talab qilinayotgan shuningdek, zamon talabi hisoblangan ko‘nikmalar mavjud.

Bular:

- tinglab tushunish;
- O‘qib tushunish;
- fikrni og‘zaki bayon qilish;
- fikrni yozma bayon qilish ko‘nikmalaridir.

Aslida yuqoridagilar deyarli barcha insonlarda mavjud bo‘lgan tug‘ma qobiliyatdir. Qobiliyatni o‘rganuvchilarning yoshiga qarab rivojlantirib borilsa, ular ko‘nikmaga aylanadi. Bunga dalil sifatida Jozef Amrito La‘l Singxning tajribasini ko‘rish mumkin. 1926-yilda bengaliyalik doktor, mahalliy yetimxona xo‘jayini La‘l Singx “Calcutta Statesman” gazetasida bir maqola e‘lon qiladi. Aytishlaricha, 1920-yil doktor jungli o‘rmonlaridagi bo‘ri uyasidan ikki qizaloqni topib olib, yetimxonaga joylashtiradi. Ularga ism qo‘yadi. Kattasi Kamola 8 yoshda, kichigiga Amola 18 oylik edi. Demak, ulardan biri ancha oldin, ikkinchisi keyinroq qandaydir sabab bilan bo‘rilar oilasiga tushib qolgan.

Doktor kundalik yuritib, ularning har kungi holatini yillar mobaynida yozib boradi.

Qizlar emaklab yurishar, tizza va qo‘l kaftlari qabarib, qalinlashib ketgan edi. ular o‘zlarini o‘rmonda yurgandek tutishar: kiyintirishga qo‘ymay tishlashar, irillashar, pishirilgan ovqatni yemas edilar. Qizlar ko‘proq tunda faol edilar. Qorong‘ilikda ko‘zlari yaxshiroq ko‘rar, eshitish qobiliyati ancha rivojlangan edi.

…doktor Singxning ularni insoniy hayotga moslashtirishga bo‘lgan barcha urinishlari behuda ketdi. Amola 3 yoshga to‘lmay kasallanib vafot qildi.

Kamola yillar davomida insoniy hayotga biroz moslashdi. Unchlik eplay olmasada, tik turib yura oladigan bo‘ldi. Amola bitta ham so‘z o‘rgana olmagan edi, Kamola esa to‘qqiz yil davomida bir necha so‘znigina o‘zlashtirdi, xolos. Ammo u ham gapira olmadi.

Kamola 1929-yilda buyrak kasalligidan vafot etdi (Jonn McCrone. Wolf Children and the Bifold Mind).

Qizlarda bo‘ri uyasida yashaganida til (nutq) paydo bo‘lmadi. (Xolmanova.Z.T. 20,21).

Haqiqatdan ham inson bolasida hayot haqidagi ilk ma‘lumotlar eshitish orqali paydo bo‘ladi. Bolalarda kattalarning harakatlariga taqlid qilish natijasida ko‘nikmlar paydo bo‘la boshlaydi. Endi tilga kirayotgan bola ham ota-onasidan eshitgan so‘zlarini o‘z nutqida bayon qiladi.

Yana shuni ham ta‘kidlab o‘tish joizki, tinglab tushunish ko‘nikmasi muloqot uchun eng zarur bo‘lgan ko‘nikmalardan sanaladi. “Eshitish samarali muloqot kaliti, bu qobiliyatsiz, shubhasiz, xabarlar anglashilmaydi. Eshitib tushunish eng muhim ko’nikmalardan biri bo‘lib, axborot va fikrlarni qabul qilish, mazmunini tushunish va so‘zlovchiga javob qaytarish jarayonidir. Matnni yoki so‘zni shunchaki eshitish yetarli emas, yaxshi tinglovchi so‘zlovching noverbal nutq vositalariga ham e’tibor qaratishi kerak” (Kamelia,3).

Maktabgacha ta‘lim muassasasi, maktab, oliy ta‘lim dargohidagi barcha o‘quvchilarda tinglash qobiliyati mavjud bo’ladi. Aynan ular shu qobiliyatidan foydalanib, ustozlaridan eshitgan ma‘lumotlari natijasida bilimlarga ega bo‘ladilar.

Hozirgi kunda maktab darsliklariga ham o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi topshiriqlar kiritilgan. Bunga misol qilib birinchi sinf ingliz tili darsligini yoki yettinchi sinf ona tili darsligini ham keltirish mumkin. Bu darsliklarda asosan audiomatnni tinglash va matnga oid savollarga javob berish kabi topshiriqlar berilgan. Agar audiomatnni yozma shaklini ham keltirib, shu matn orqali yozma mashqalar kiritilsa, o‘quvchilarda bir vaqtning o‘zida tinglab tushunish va savodxonlik ko‘nikmasi ham rivojlanib boradi. Quyida shunga o‘xshash topshiriqlarning ayrimlari bilan tanishamiz:

TOPSHIRIQLAR

1-Topshiriq. Quyidagi matnda tushib qoldirilgan so‘zlarni audiomatnni tinglagan holda to‘ldiring.

SYURPRIZ

Toshkentning sershovqin ko‘chalaridan birida joylashgan ustaxona. Ustaxona kiraverishida … Akbar aka mijoz tashlab ketgan … rusumli mashinani ko‘zdan kechirmoqda. Akbar aka juda chanqab ketdi. Bir piyola choy … olish uchun ustaxona ichkarisiga kirdi. Tez qaytib chiqaman deb o‘ylagan usta Malibuning eshiklarini qulflamadi, kalitni ham mashinaning ichida qoldirdi. O‘g‘irlik qilib kun kechiradigan Salim ismli yigit … o‘tirib telefonda suhbatlashar ekan bu voqeani … ko‘rib qoldi.

Quyida asl matn:

Toshkentning sershovqin ko‘chalaridan birida joylashgan ustaxona. Ustaxona kiraverishida mexanik Akbar aka mijoz tashlab ketgan Malibu rusumli mashinani ko‘zdan kechirmoqda. Akbar aka juda chanqab ketdi. Bir piyola choy ho‘plab olish uchun ustaxona ichkarisiga kirdi. Tez qaytib chiqaman deb o‘ylagan usta Malibuning eshiklarini qulflamadi, kalitni ham mashinaning ichida qoldirdi. O‘g‘irlik qilib kun kechiradigan Salim ismli yigit balkonida o‘tirib telefonda suhbatlashar ekan bu voqeani beixtiyor ko‘rib qoldi.

2-topshiriq.

Layloning kimyo darsligini maktabda unutib qoldiribdi. Laylo uyga berilgan vazifani bajarish uchun sinfdoshi Sevinchga qo‘ng‘iroq qildi va uyga berilgan vazifani so‘radi. Uyga berilgan vazifa quyidagicha edi:

Ushbu yozilgan kimyoviy reaksiya tenglamalarning koeffitsientlarini qo‘yib tenglang:

$Mg+O_2=MgO$ $HgO=Hg+O_2$

$Fe+Cl_2=FeCl_3$ $Na+Cl_2=NaCl$

(Magniy qo‘shilgan kislorod ikki teng magniy oksid, temir qo‘shilgan xlor ikki teng temir uch xlorid, simob oksid teng simob qo‘shilgan kislorod ikki, natriy qo‘shilgan xlor ikki teng natriy xlorid).

Bu hodisa o‘quvchilarga oson ko‘rinishi mumkin. Aslida esa bu so‘zlovchining nutqiy ko‘nikmasi va tinglovchining tinglash ko‘nikmasi qay darajada rivojlanganligini belgilab beradi.

Yuqorida berilgan topshiriqlardan o‘quvchilarda tinglash ko‘nikmasi shuningdek, nutqiy ko‘nikmasi qay darajada rivojlanganligini bilib olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirib borish hamma uchun foydalidir. Bu ko‘nikmani rivojlantirish uchun maktab darsliklariga ham alohida e‘tibor berilmoqda. Darsliklarga o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun yangi vazifa va topshiriqlar kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki tinglash ko‘nikmasi inson hayotining hamma sohalarida ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursunov, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov.7-sinf uchun darslik. Toshkent -2022.

2.I.R.Asqarov, N.X.To‘xtayev, K.G‘.G‘opirov.7-sinf uchun darslik. Toshkent-2017.

3.Xolmanova.Z.T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent-2007.

4.Developing Listening skills. Studies about languages. -2009.

MAKTAB O‘QUVCHILARI UCHUN HUQUQSHUNOSLIK O‘QUV IZOHLI LUG‘ATLARINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

Sobirxonova Ziyoda Temur qizi,

ToshDO‘TAU OTAT 2-bosqich talabasi.

ziyodasobirxonova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada huquqshunoslik o‘quv izohli lug‘atini ishlab chiqishga doir fikr mulohazalar bayon qilingan bo’lib, bunda qator olimlarning nazariy tadqiqotlariga tayanilib xulosalar berilgan. Mazkur o‘quv izholi lug‘atining amaliy xususiyatlari va samaradorlilik darajasi asoslangan. Huquqiy terminlarning tadqiqi, ularning tasniflari, maskur guruhlanishlarning ahamiyati, o’ziga xos jihatlari tavsiflanib, ularning eng samaralilari o’quv izohli lug’atlari tuzilishi uchun asos bo’lishi ochib berilgan.*

Kalit so‘z: *O‘quv lug‘ati, huquqshunoslik terminlari, darslik, yuridik soha, ta'lim tizimi, globallashuv, qonun tili.*

Abstract. *In this article, the ideas for the development of the jurisprudence dictionary are presented, and conclusions are drawn based on the theoretical*

research of a number of scholars. This study is based on the practical features and effectiveness of vocabulary. The study of legal terms, their classifications, the importance and specific aspects of the groupings are described, and the most effective of them are revealed to be the basis for the constructon of educational explanatory dictionaries.

Keywords: *Academic dictionary, legal terms, legal field, textbooks, education system, globalization, law language.*

Bugungi kunda ta’lim sohasiga qaratilayotgan e’tibor tubdan o‘zgarmoqda. O‘zbekistonning buguni va ertasini belgilaydigan yoshlarni o‘qib, o‘rganib, izlanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Yosh avlodlarni tarbiyalashda, ta’lim berishda maktablarda o‘qitilayotgan darsliklar xalqaro ta’lim darajasida o‘zgartirilib, to‘ldirilib borilmoqda. O‘z sohasining mutaxasis kadrlarini tayyorlashda boshlang‘ich bilimlarni beruvchi maktab darsliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda to‘ldirilib, qayta ishlangan maktab darsliklarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, faqat yodlash bilan cheklanmay, amaliy bilimlarni olishlariga katta e'tibor qaratilgan.

Qayd etish joizki, ta’lim tizimida qilingan ishlar talaygina, ammo qilinishi kerak bo‘lganlari ham oz emas. Xususan, o‘quvchilarga zamonaviy ta'lim talablariga mos bo‘lgan darsliklar ishlab chiqilmoqda, ammo darsliklarning yonida birga berilishi kerak bo‘lgan o‘quv lug‘atlari o‘quvchilarga yetkazib berilmayapti. Ta'lim sohasida eng kuchli ta'lim tizimiga ega davlatlar metodlaridan foydalanib yangicha o‘qitish usullarini joriy qilyapmiz, lekin o‘quv fanlaridan o‘quvchilar uchun darsliklarning mohiyatini ochib beruvchi, mavzularning yanada tushunarli bo‘lishiga ko‘maklashuvchi, so‘z boyligi va nutq o‘stirishga yordam beruvchi o‘quv lug‘atlarini ishlab chiqishva o'quvchilarga yetkazish kechikmoqda. Jumladan, maktab o’quvchilari uchun huquqshunoslik terminlarining o‘quv lug‘ati ishlab chiqilmagan. Modernlashuv va globallashuv zamonida har bir shaxs huquq va burchlarini bilishi lozim. Maktablarda o‘qitilayotgan huquq darsliklarida o‘quvchilar uchun ma’nosi yetarlicha izohlanmagan atamalarni ko‘rishimiz mumkin. Xususan, 8- sinf “davlat huquq asoslari” darsligini o‘rganish jarayonida

qator izohlanmagan terminlarni uchratishimiz mumkin. ***Ma'muriy tuzilish, referendum, daxlsizlik, xalqaro huquq subyekti*** kabi so‘zlarni shular jumlasidan.

Bugungi kunda huquqiy ongni o’stirish o’ta muhim sanaladi. Bunda huquqiy terminlarni yetarlicha idrok etish o’quvchining o’z huquqiy salohiyatini oshirishga yanada ko’proq yordam beradi. Shuningdek yuqori natijalarga erishishlarida ham muhim hisoblanadi. Bilim va malakalarni baholash agentligi yuridik sohada ta'lim olmoqchi bo‘lgan o‘quvchilar 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab davlat huquq asoslari fanidan ham kirish imtihonlarida test topshirishlari zarur ekanligini ma’lum qildi. Bundan tashqari Toshkent davlat yuridik universitetiga o‘qishga kirishda 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab test sinovlarining 2-bloki, ya’ni yurisprudensiya bakalavriyat ta’lim yo‘nalishiga mos fanlar bo‘yicha Tarix fani o‘rniga huquqiy fanlarni kiritish masalasi universitet kengashida ko‘rib chiqildi va ma’qullandi(https://oliygoh.uz/post/yuridik-universiteti-fanlar-ozgaradi).

Universitetga kirish imtihonlarida huquq fanidan ham test savollarining bo‘lishi, o‘quvchilardan bu fanni a'lo darajada o'zlashtirishlarini talab qiladi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, huquq sohasida yangi qo‘llanmalar, lug‘atlar ishlab chiqarilishi lozim. Nafaqat yuridik sohada o‘qishga kirish imtihonlarida, balki boshqa sohalarda o‘qimoqchi bo‘lgan o‘quvchilarning ham huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida o‘quv lug‘atlari yaratilishi lozim. “Har bir fuqoro har bir inson o‘z haq-huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Odamlarni huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy bilimlar bilan qurollantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lishi shart” (Karimov I,2000,23-bet) deya ta’kidlaydi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov.

Professor Baxtiyor Mengliyev ham bu boradagi o‘z fikrlarini quyidagicha izohlaydilar: “O‘quv lug‘ati zaruriyati haqida ko‘p gapirib yozib kelinmoqda. O‘quv lug‘ati yaratilmas, o‘quvchining stolida ona tilidan uning yoshiga mos ko‘plab o‘quv lug‘atlari turmas, o‘quv leksikografiyasi nazriy va amaliy soha sifatida tizimli yo‘lga qo‘yilmas ekan,ona tili ta‘limi o‘zining haqiqiy mohiyatidan begonaligicha qolaveradi”(Hojiyev A,1981). O‘quv izohli lug‘atlari nafaqat ona tili darsligiga, balki maktabda o‘qitilayotgan barcha darsliklarga qo‘shimcha

adabiyot shaklida berilishi lozim. Matematika, fizika, tarbiya, huquq va shu kabi darsliklardan o‘quv izohli lug’atlarning mavjud bo‘lishi o‘quvchilarni darsliklar bilan tanishish, ular bilan ishlash, bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini oshiradi.

Quyida huquqshunoslik fanlarining o‘quv izohli lug‘atining amaliy ahamiyati va uni ishlab chiqishga doir mulohazalarimizni bayon qilamiz va bunda olimlar e’tirof etgan terminlar tasnifi tamoyillariga asoslanamiz.

Qonun tiliga qo‘yiladigan rasmiylik, qat'iylik, neytrallik, o‘ta aniqlik, qisqalik kabi talablar qonun matnlarida boshqa uslub so‘zlarini ishlatmaslikni, funksional uslublarda qo‘llanadigan so‘zlarni ishlatishni talab etadi. Huquqiy terminlarda ham shunga xos xususiyatlar aks etadi. Shu bois nutqning boshqa turlariga nisbatan qonun tilida atamalar keng qo‘llanilib, ular qonun tilining asosiy lug‘aviy tarkibini tashkil etadi(Ko‘chimov Sh, 2004, 142-bet). Bundan kelib chiqadiki, huquqiy atamalarni to‘g‘ri qo‘llay olish va to‘g‘ri tushinish uchun huquqshunoslik atamalari izohli lug‘ati o‘quvchilar, balki barcha fuqarolarimiz uchun lozim. 8-sinf huquqshunoslik terminlarining o‘quv izohli lug‘atini ishlab chiqishda darslikdagi huquqiy terminlarni guruhlarga ajratib, lug‘atga kiritish maqsadga muvofiq.

Yevropa va o‘zbek olimlari yuridik atamalarni bir necha guruhga bo‘lib tasniflashni ma’qul deb bilishgan va turli tasniflarni keltirishgan.

L.M Bayko yuridik atamalarni quyidagi uch guruhga bo‘ladi:

1. Umumiste’moldagi atamalar: *jadval, shikoyat, guvoh*;
2. Maxsus yuridik atamalar: *qonun, jamiyat, kontrabanda*;
3. Texnik atamalar(Байко,1988, 80-bet).

A.M.Bayko bunday atamalarni hayotning turli sohasida, fan, san’at, texnika kabi sohalardan olinishini aytadi. Bu tavsif huquqshunoslar tomonidan qabul qilinadi, ammo bunday tavsif tilshunoslik nuqta’yi nazaridan to‘g‘riemasligi ayrim olimlar tomonidan e’tirof etiladi. B.M.Savitskiy o‘z tasnifida Baykoning xatosini to‘g‘irlaydi. Savitskiy yuqoridagi Baykoning tasnif usuli qonun tilida mavjud ekanligini qayd etadi, ammo bu uchta guruhga kiruvchi atamalarning hammasini yuridik atamalar deb emas, balki “yuridik normalarni shakllantirishda

foydalaniladigan atamalarning uch guruhi”-deb ta'kidlaydi(Савитцкий, 1987, 24-bet).

Sohada yuridik atamalarni quyidagicha guruhlash usuli ham qo‘llaniladi:

1. Umumiste’moldagi: *ariza, yig‘ilish, harakat*;

2. Keng qo‘llanadigan, ammo huquqiy hujjatda maxsus ma’no kasb qilmaydigan atamalar: *shikoyat, jabrlanuvchi, shikoyatchi, shartnoma*;

3. Maxsus yuridik atamalar: *qonun, jinoyat*;

4. Texnik (har xil sohaning) atamalari: *mikrofon, rada, fonogramma (*Ko‘chimov Sh ,2004.144-bet).

Qonun tilidagi barcha atamalarni bunday guruhlashtirish to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Chunonchi, ***ariza*** so‘zi umumiste’moldagi atamalar guruhiga, ***shartnoma, shikoyatnoma*** so‘zlari esa ommaviy ravishda qo‘llaniladigan, yuridik sohaga yaqin atamalar guruhiga kiritilgan. Vaholanki, ***ariza*** ham, ***shartnoma*** ham, ***shikoyatnoma*** ham ish qog‘ozlarining nomlari, ***ariza*** so‘zida ham rasmiylik ottenkasi bor, yuridik sohaga yaqin. Shuningdek, jabrlanuvchi ommaviy ravishda qo‘llanadigan, yuridik sohaga yaqin bo‘lgan atamalar turkumiga kiritilgan, aslida bu so‘z sof yuridik atamadir. Bundan tashqari, qonun matnlarida boshqa uslublarga nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladigan ijtimoiy-siyosiy atamalar (davlat, hokimyat, bayroq, gerb) ham mavjudki, bu atamalar tadqiqotchilarning diqqat nazaridan chetda qolgan. Biz mazkur lug’atni shakllantirishda Shuhrat Ko‘chimovning guruhlash usulini asos qilib olishni tavsiya etamiz:

1. Ijtimoiy siyosiy atamalar;

2. Yuridik sohaga oid bo‘lmagan atamalar;

3. Ish yuritishga oid atamalar;

4. Sof yuridik atamalar (Ko‘chimov Sh, 2004,145-bet).

Bu guruhlash usuli tilshunoslik jihatidan ham, yuridik jihatdan ham to‘g‘ri hisoblanadi. Yuqoridagi tasniflarni o‘rganib chiqib, 8-sinflar uchun huquqshunoslik o‘quv izohli lug‘atini oxirgi uchinchi, Sh.Ko‘chimovning guruhlash usuli asosida tuzishni tavsiya etamiz. Lug‘atning tuzilishi kirish qismdan boshlanib, unda lug‘at haqida umumiy tushincha, tuzilishidan ko’zlangan

maqsad to’g’risida ma'lumotlar beriladi. Kirishdan keyin foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro‘yhati joylashtiriladi. Adabiyotlardan so‘ng lug‘atning tuzilishi va undan foydalanish tartibi berilib, u o‘z ichiga: lug‘atning tarkibi, lug‘atning tuzilishi va lug‘atning maqola qismini qamrab oladi. Lug‘atdan foydalanish tartibi berilgandan so‘ng shartli qisqartmalar joylashtiriladi. Alifbo tartibidagi qisqartmalar joylashtirilib, so‘ngra lug‘at qismi beriladi. Bizningcha lug’atning shu ko’rinishda shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu lug‘atning lug‘at qismida 8-sinf davlat huquq asoslari darsligida o‘quvchilarga to‘la ochib berilmagan, mavzuni tushunishga qiyinchilik tug‘diradigan so‘zlar saralanib izohlanadi. Ma’nosi to‘la ochib berilgan so‘zlar guruhlarga bo‘lingan holda ajratilib, lug‘atga joylashtiriladi. O‘quv lug‘atining lug‘at qismi tuzilishini shunday shaklda ishlab chiqish undan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

Bunday huquqshunoslik o‘quv izohli lug‘atining yaratilishi o‘quvchilarga darslikni, undagi mavzularni to‘la anglab yetishda yuqori vosita bo’lib xizmat qilish bilan birga, kelajakda o‘zlarini huquqiy himoya qila olishlarida qo’shimcha bilim beruvchi qo’llanma sifatida qaraladi. O‘quv lug‘atlarini ishlab chiqish va mukammal holda o‘quvchilarga yetkazish tilshunoslar oldida turgan navbatdagi dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev.A,A.Axmedov.(1981).O‘zbek tili leksikologiyasi.–Toshkent,Fan.

2. Karimov I.A. (2000).Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajak ishonchidir.Toshkent:O‘zbekiston,23-bet.

3. Ko‘chimov Sh.N.(2004).Huquqiy normalarni o‘zbek tilida ifodalashning ilmiy nazariy muammolari: Filol. Fan.Dok. (DSc)… .Diss. –Toshkent.142-144 b

4. Байко .Л .М.(1988). Савершенствованис **законодательной техники в условиях ускорения** социально- экономического развития советского общества.- Т:Фан,С.80.

5. Савицкий В.М. (1987).Язык процессуального закона. С-24.

6. https://oliygoh.uz/post/yuridik-universiteti-fanlar-ozgaradi

ONA TILIDA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

Sharipova Ma’mura Sharif qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 3-kurs talabasi
sharipovamamura101@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishning turli xil usullari va samaradorligi haqida ma’lumot berildi. Shuningdek, talabalar bilan birga o‘tkazilgan metodning tahlili yoritildi. Sinonimlar, omonimlar, antonimlarni o‘quvchiga o‘rgatishda qanday foyda va samaralari borligi misol va namunalar asosida ko‘rsatildi. O‘quvchilar bilan ishlashda ko‘proq leksikologiya bo‘limiga urg‘u qaratish kerak ekanligi maqola davomida o‘z isbotini topdi.*

Kalit so‘zlar*:* *Leksikologiya, lug‘atlar, sinonim, antonim, omonim, ibora, tasviriy so‘zlar.*

Abstract. *This article provides information on various methods and effectiveness of increasing students' vocabulary. Also, the analysis of the method conducted with the students was highlighted. The benefits and effects of teaching synonyms, homonyms, and antonyms to students were shown on the basis of examples. The fact that more emphasis should be placed on the lexicology section in working with students has been proven throughout the article.*

Keywords: *Lexicology, Vocabulary, Synonym, Antonym, Homonym, Phrases, Expressions.*

Til va tafakkurni bir-biridan ayro holda tasavvur eta olmaganimizdek, tilni ham lug‘at boyligisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, o‘zbek tilining boyligi lug‘at hisoblanadi. Biz lug‘atlarni aynan ona tilining ma’lum bir bo‘limida o‘rganmaymiz. Dastlabki boshlang‘ich ta’limdan tortib maktabni bitirgunmizga qadar har bir sinfda, har bir bo‘limda lug‘at boyligiga murojaat qilamiz. Lug‘at bizning boyligimiz bo‘lishi bilan birga, hozirda ko‘zga ko‘rinib qolgan katta nuqsonlarimizdan biri hamdir. Tilni bilar ekanmiz nutq so‘zlaymiz, nutq so‘zlashdan oldin esa uni yuzaga kelishi uchun tafakkur orqali gaplar hosil qilamiz. Aynan nutqimizda, ongimizda mavjud bo‘lgan, har doim so‘zlashuvda qo‘llanilib kelgan so‘zlar bilan kifoyalanamiz, xolos. Tilimizda nutq va lison tushunchalari mavjud. Lison kishi miyasidagi til xotirasi qismida mavjud til birliklaridir.

Ya’nikim, u faqatgina ongda, xotirada mavjud bo‘ladi, nutq orqali esa yuzaga chiqariladi. Aksariyat, oddiy aholi ham, ilmi tolib qatlam ham nutqida varvarlar, vulgurdan foydalanadi. Bu o‘z tilidagi nutq boyligining yetarlicha emasligidandir. Rus tilidagi ishlatiladigan vulgar so‘zlarning muqobilini ham bilmaymiz. Bu esa jiddiy muammomiz hisoblanadi. Birinchi navbatda bunday xatolarni bartaraf etish uchun maktab bolasiga ona tili fanida leksikologiya qismiga urg‘uni ko‘proq berish zarur. Hozirgi paytda sir emaski, ko‘pchilik maktab o‘quvchilari ona tilini boshqa fanlar yoki tillardek chuqur o‘rganishmaydi. Birinchi bo‘lib o‘quvchiga aynan o‘zbek tilining lug‘at boyligini o‘rganish nega kerak? Kelajakda undan qanday manfaat oladi? Foyda, manfaatini sezgan o‘quvchida esa anchagina sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi. Aynan lug‘at boyligini o‘rganish nima uchun zarurligi o‘qituvchi tomonidan o‘quvchiga chuqur va batafsil yetkazilmog‘i kerak. Lug‘at boyligi keng inson, sinonimiya, omonimiya, paronimlar, antonimlar, polisemiya, ibora-yu qochirmalarni o‘z o‘rnida qo‘llay oladigan bolaning nutqi har qanday joyda, har qanday holda olmoslar orasidagi brilliant bo‘la oladi. Nega ko‘pchilik gapirishdan tortinadi? Gaplarni bir biriga ulab chiroyli nuqt tuza olmasligidan, lug‘at boyligining yetarli emasligidandir. Lug‘ati boy insonning nutqi hamisha go‘zal va betakror bo‘ladi. Aynan ana shu narsani o‘quvchi ongiga singdira olish ona tiliga bo‘lgan qiziqishning ortishi uchun ilk qadamlardir. Lug‘atlar bilan dars jarayonida ishlash davomida til malakalari takomillashib, fikrni to‘g‘ri, ongli, ifodali bayon etish, badiiy asar g‘oyasini, mohiyatini tushunib borish yanada takomillashadi. Yana bir asosiy funksiya o‘quvchilar fikrini batafsil yetkazib bera oladigan qilib o‘rgatishdir. O‘zbek tilining faxrlanadigan jihati uning lug‘at boyligidadir. O‘zbek tilida : “ O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining sinonimlar lug‘ati” , “O‘zbek tilining antonimlar lug‘ati”, “ O‘zbek tilining paronimlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”, “ O‘zbek tilining orfografik lug‘ati”, “O‘zbek tili toponimlar lug‘ati” va yana juda ko‘plab lug‘atlar mavjud. Bu esa leksikamiz qanchalar poyonsiz ekanligini ko‘rsatadi. Lug‘at ayni bir tilning bir bo‘limida o‘rganilmaydi. Uni leksikologiya bilan ham , fonetika

bilan ham, morfologiya bilan ham chambarchars o‘rganish mumkin. So‘z ma’nolarini tushuntirishning metodikada bir necha usullari mavjud:

1. So‘zni kontekst asosida tushuntirish;
2. Izohlardan foydalanib tushuntirish;
3. So‘z ma’nosini shu so‘zning sinonimi orqali tushuntirish;
4. Notanish so‘zni tanish bo‘lgan so‘z bilan ifodalangan tushunchaga taqqoslash orqali;
5. So‘zni predmetning asosiy belgisi bilan tushuntirish;
6. So‘zni o‘ziga yaqin tushuncha – boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish.

2019- yil nashr etilgan 8-,9-,10-,11-sinf ona tili darsliklarida bir qancha mashqlar kiritildi. Lug‘atlar bilan ishlash, o‘quvchi darajasiga mos lug‘at berilib, uning izohi qayd etilgan. Shu mashqlar orqali o‘quvchi lug‘at boyligi oshirish eng ko‘makchi usullardandir. Bu lug‘atlar bilan tanishib dunyoqarashlarini,ilm salohiyatini oshirib boradilar. Misol uchun 10-sinf darsligida shayx, tasavvuf, murshid, murid kabi diniy atamalar izohi keltirilgan. 10-sinf adabiyot darsliklarida esa Alisher Navoiy g‘azallarining tahlili keltirilgan. Ona tilida diniy atamalarni yod olib, o‘rgangan o‘quvchi g‘azallarda uchraydigan notanish atamalarda qiyinchilikka duch kelmaydi. 11-sinf ona tili darsligida esa barter, brifing, birja kabi yangi atamalar izohi ham berilgan. Bu kabi zamonaviy atamalarni o‘rganish orqali o‘quvchi nafaqat o‘zbek balki chet so‘zlaridan xabardor bo‘ladi. Bundan tashqari, 11- sinfda polisemantik, sinonim, antonim iboralar qatori ham berib borilgan. Iboralarni o‘rgangan o‘quvchining nutq ta’sirchanligi keskin oshadi, nutqi go‘zallashadi, gaplari jozibali va ko‘lamdor chiqadi. Xuddi shunday 10-sinf darsligida Alibek Rustamovning “So‘z xususida so‘z” kitobidan keltirilgan matnlar orqali, lug‘atni kontekst orqali tushuntirish, so‘zlarning kelib chiqishi haqida ma’lumotlar mavjud.

Asosiy urg‘uni sinonimlarga qaratish lozim. Sababi sinonimlarni bilgan o‘quvchi nutqida takrorlar oldi olinadi. Har qanday inson nutqini sinonimlar go‘zallashtiradi, ifodali, badiiy, ko‘lamdor qiladi.Sinonimlar dunyoqarash,

tasavvur doirasini kengaytiradi, leksik tomonni boyitib, til ifodaliligini orttiradi. O‘quvchi ongida sinonimlik qatori mavjud bo‘ladi, ya’nikim badiiy asarlarda, shevalar ta’sirida anchagina so‘zlardan xabardor bo‘ladi. Faqatgina biz so‘zlashuv usulida o‘zimiz uchun oson bo‘lgan, sodda va qulay so‘zlardan foydalanamiz. Buning isboti sifatida talabalar o‘rtasida bir metodni qo‘llab ko‘rdik va bu so‘zimiz o‘z isbotini topdi. Dastlab guruhni uch guruhga bo‘lib oldik. Iboralarni rasmlar orqali aks ettirdik. Rasmlar orqali talabalar iboralarni topishi kerak. Iboralarning ma’nosi bir so‘zga teng keladigan iboralar yo gap yo so‘z birikmasiga teng keladigan iboralar bor. Biz ma’nosi bir so‘zga teng keladigan iboralarni saralab oldik. Birinchi rasmlar orqali iboralarni jamlagan o‘quvchi, uning ma’nosini topadi. Topilgandan so‘ng o‘sha topilgan so‘zning sinonimlik qatorini hech qanday qo‘llanma, yordamlarsiz tasavvurida bor sinonimlik qatorini hosil qiladi. Masalan, ilonni yog‘ini yalagan iborasini ifodalash uchun ilon, moyning rasmlaridan foydalandik. Bu iboraning ma’nosi ayyorga teng. Talabalar sinonimlik qatorini hosil qilishda ongida bor, so‘zlashuvda qo‘llagan so‘zlarini yozishdi. Ayyor so‘zining ma’nodoshlik qatorini ko‘rsak, ayyor, mug‘ombir, hiylagar, quv, ustomon, makkor, do‘g‘uli, mo‘ltoni, qilvir(i), shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa, maston kabi qatordan tashkil topgan. Talabalar yozgan sinonimlik qatoriga nazar tashlasak, do‘g‘uli, qirriq, xirpa, tullak, maston, ustomon kabi badiiy asarlarda, folklorda qo‘llanadigan so‘zlar umuman yozilmagan. Sinonimlar faqatgina bir so‘z turkum yuzasida bo‘ladi, O‘quvchilar esa turli xil so‘z turkumlaridagi so‘zlarni, hattoki o‘xshatish, qochirmalarni ham sinonimlik qatoriga olgan. Ular ham aslida o‘zaro ma’nodosh hisoblanadi, ammo sinonimlik qatori so‘ralganda birinchi dominant so‘z aytilib, keyin bir so‘z turkumga doir so‘zlar yozilishi lozim. Bundan ko‘rinib turibdiki, maktab paytidayoq bola darajasiga mos sinonimlarni o‘rganib, uni mashqlarda, asarlarda ko‘rib tahlil qilib tushunsa, lug‘at boyligi salmoqli bo‘ladi. Insho yozishda, nutq qilganda matnimiz tom ma’noda a’lo darajada bo‘ladi. Shuni ham yoddan chiqarmasligimiz lozimki, shevada qo‘llanishi kerak bo‘lgan so‘zni rasmiy uslubda qo‘llab, yoxud rasmiy uslubdagi so‘zni so‘zlashuvda qo‘llab o‘quvchi sazoyi bo‘lmasligi uchun sinonimlarni

o‘rgatayotgan payt u qaysi uslubda, qanday asarlarda ko‘proq kelishini ham ta’kidlab o‘tmoq lozim. Aks holda, Abdulla Qahhorning “ Notiq” hikoyasidek holatda qolish hech gap emas.

Antonim so‘zlarga kelsak, sinonim, omonim , paronimlardan oldin bola ongida antonimlar 4-5 yoshidan singib boradi. Sababi bolaga bu yaxshi , bu yomon, bu aka bu uka deb tushuntirib, singdirib boramiz. Bundan tashqari maqol va topishmoqlar, ertaklar orqali antonimlar o‘quvchilar tasavvurida ancha oldin shakllangan bo‘ladi. Zid ma’noli so‘zlarni qo‘llash orqali fikr aniq, tiniq, ravon va ifodali bo‘ladi. Amaliyotda ham ko‘rinib turganidek, ma’nodoshlarni ham antonimlarni ham paronimlarni ham badiiy asarlar orqali yoki kontekstlar orqali bola ongiga singdirsa, o‘quvchi ongida doimiy qoladi.

Omonimlar nutqiy mahoratni yuksaltirishda katta ahamiyatga ega. Omonimlarni tushuntirish bilan birga ko‘p ma’noli so‘zlar- polisemiyani ham birgalikda tushuntirish kerak. Bunda ko‘proq qiyos usulidan foydalansa o‘quvchi tezda yodida qoladi. Masalan, omonimlar bir davlat ya’ni alohida so‘z, shakldosh so‘zlar ikki mustaqil davlat. Ular ikkovi ham mustaqil so‘z. Ko‘p ma’noli so‘zlarda avtonom davlatlarni misol qilsa bo‘ladi. Bir davlatning tarkibiy qismi. Ko‘p ma’noli so‘zlar ham xuddi shu kabi bir so‘zning ikkinchi ko‘chma ma’nosi. Tushuntirishda doimo sodda usuldan foydalanish lozim. Bola dastlab qabul qilayotgan ma’lumotini qiyin, o‘ziga tushunarsiz nazariyalar bilan o‘zlashtirgandan ko‘ra sodda, tez usulda o‘rganib, so‘ngra murakkab usulda o‘rgangandagina natija samaraliroq bo‘ladi. “Oddiylikdan murakkablikka qarab” har doim o‘qituvchining bosh shiori bo‘lishi kerak.

Endi esa iboralar va tasviriy ifodalarga to‘xtalsak, tilning haqiqiy jozibasini, shiradorligini ta’minlab beradigan birliklar hisoblanadi. Ularni insho, matn, nutqimizda qo‘llaganda, bunday nutq har qanday nutqni ortda qoldirib, o‘ziga jalb qila oladi. Iboralarni ham tasviriy ifodalarni ham o‘zini alohida-alohida o‘rgangandan, ularning antonimlari, sinonimlari, omonimlari bilan birga guruhlashtirib o‘rgatilsa, ya’ni bunda guruhlashtirish metodini qo‘llaganda mahsuldor bo‘ladi. Yodda tez va oson qoladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ona tilida lug‘atlar bilan ishlashga har jihatdan ko‘proq e’tibor berish lozim. Birinchi o‘rinida, “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” ga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Sababi tilimizni boyitadigan, jozibali qiladigan sinonim, omonim, antonim, paronim, iboralarning to‘g‘ri yozilishini o‘rganmay turib, ularning ich-ichiga kirish eng katta xato. Undan so‘ngra esa sinonimlar, omonimlar, izohli lug‘atlar bilan ishlash lozim. Ona tili zarurmas deydigan har qanday inson uchun, aynan mana shu lug‘atlar bilan ishlash suv va havodek zarur. Biror joyga ishga ariza yozishda yoki suhbatda, nutqda g‘alizlikka, imloda xatolikka yo‘l qo‘yish har bir o‘zbek uchun isnoddir. Xorijliklar kelib o‘zbek tilida to‘g‘ri va ravon gapirishga harakat qilganda, o‘zimiz xatoga yo‘l qo‘ysak , o‘rnak o‘rniga uyatli holdir.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev. A. (1974). O‘zbek tili sinonmlarining izohli lug‘ati. Toshkent: Qodiriy O‘qtuvchi.

2. Mengliyev B.va boshq.(2022). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Toshkent. Respublika ta’lim markazi.224b

3. To‘xliyev B., M.Shamsiyeva, T.Ziyodova (2010). O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.184b.

4. Jahonova. H.(2022). Ona tili ta’limida lug‘at bilan ishlash masalalari. Central Asian Academic Journal Of Scientific Research.

5. Yusupova, T. Mavlonova. K. (2020). O‘zbek tilining o‘qitish metodikasi. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

VII BOB

ZAMONAVIY ADABIY JARAYON(NAZM)/ FOLKLORSHUNOSLIK

BADIIY OBRAZ TASNIFI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Aslamova Ziyoda Qiyomxon qizi,
Yangi asr universiteti 1-kurs talabasi
aslamovaziyoda@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada obraz tushunchasi, ularning badiiy talqini, professor Dilmurod Quronovning obrazlar tasnifi yuzasidan qarashlari xususida so‘z yuritiladi. Ayrim badiiy asarlarga murojaat qilish asnosida jami obrazlarni qamrab oladigan to‘liq tasnif muammosi masalasiga e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *obraz tushunchasi, badiiy obraz, obrazlar tasnifi, personaj, farishta obrazi.*

Annotation*: This article discusses the concept of images, their artistic interpretation, professor Dilmurod Quronov’s views on the classification of images. When referring to individual works of art, attention is paid to the problem of complete classification, which covers all images.*

Key words*: concept of image, artistic image, classification of images, character, image of an angel.*

Obraz tushunchasi badiiy adabiyotning asosiy xususiyati hamda o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi hodisalardan biridir. Shuning uchun bu tushunchani atroflicha va to‘laqonli o‘rganish muhim sanaladi.

Bir qancha adabiyotshunos olimlar badiiy obraz hodisasining nazariy jihatlari xususida o‘z qarashlarini bildirishgan. Shulardan biri filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronov hisoblanadi. Ustoz D.Quronov talqinida obraz tushunchasiga keng qamrovli tarzda yondashilganiga guvoh bo‘lamiz.

Xususan, obraz tushunchasiga ta’rif berar ekan, “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksidir” (Quronov Dilmurod, 2018, 90-bet), – deb yozadi olim. Ushbu ta’rifdan keyin olim badiiy obrazning turli xususiyatlariga birma-bir to‘xtalib, tahlil qilib berganlar. Ayniqsa, badiiy obrazning muallif maqsadiga ko‘ra, turli munosabatlar bilan yuzaga chiqadigan jihatlariga alohida e’tibor qaratilgani kuzatiladi.

Olimning “Badiiy obrazda bir paytning o‘zida bir-biriga zid ikki jihat (individuallik va umumiylik) uyg‘un tajassumini topadi” (Quronov Dilmurod, 2018, 92-bet), degan fikrida obrazning yana bir muhim xususiyati ochib berilgani kuzatiladi. Mazkur nazariy qarashni badiiy asarlar sathida ko‘rib chiqsak, masala mohiyati yanada yaqqolroq anglashiladi. Masalan: “Alpomish” dostonidagi Barchinoy obrazida unga ko‘plab o‘zbek qizlarining xususiyatlari mujassamlashgan. U oqila, go‘zal, xushbichim, muhimi, aqlli qiz. Barchinda yigitlarga xos bo‘lgan mardlik, bir so‘zlik kabi o‘g‘il bolaga xos xususiyat ham kuzatiladi. Bu jihat individuallik bo‘lsa, o‘zbek qizlarining eng yaxshi xislatlari unda jam bo‘lishi umumiylikka yaqqol dalildir.

Olim D.Quronov badiiy asarlarda uchraydigan obrazlarni muayyan guruhlarga ajratish – tasniflash masalasini ham alohida o‘rganib, unda G‘arb adabiyotshunoslarini ushbu masalaga yondashuvini keng tahlil qilganlar. “Adabiyotshunoslikda “badiiy obraz” atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi, – deb yozadilar ustoz D.Quronov. – Keng ma’noda badiiy obraz deganda borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma’noda badiiy obrazdagi inson obrazi tushuniladi” (Quronov Dilmurod, 2018,97-bet).

Obrazlarni to‘la-to‘kis tarzda tasnif qilish masalasi dunyo olimlarini o‘ylantirib kelayotgan mavzulardan biridir. Olimlar turlicha dunyoqarash bilan turlicha qilib tasniflab ham chiqishgan. Professor Dilmurod Quronov dunyo olimlarini tasnifini o‘rganib chiqqan holda ularni puxta tahlil qilish bilan cheklanmasdan ayrim o‘rinlarda o‘zlari ham alohida tarniflab chiqqanlar. Jumladan: “Obrazlarning tasnifi qaysi jihat asos qilib olingani bilan bog‘liqdir. Masalan: ijodkor estetik ideali bilan munosabatga ko‘ra ijobiy va salbiy obrazlar, ijodiy metodga ko‘ra realistik, romantik, syurrealistik, yaratilish usuliga ko‘ra fantastik, grotesk, xarakter xususiyati va estetik belgisiga ko‘ra tragik, satirik, yumoristik obrazlar farqlanadi.

Ko‘pincha badiiy obrazning predmetli tomoni – tasvir planidan kelib chiqib inson obrazi, jonivorlar obrazi, tabiat obrazi, narsa-buyumlar obrazi tarzidagi atamalar ham ishlatiladi. Shuningdek, murakkablik darajasiga ko‘ra badiiy obrazlarni elementar obraz, detal-obraz, peyzaj (interer va natyurmort), inson obrazi, obrazli giper tizim tarzida beshta (A.I.Nikolaev) yoki ko‘lamlilik jihatidan darajalangan holda megaobraz, makroobraz, mikroobraz (I.Kovalik, M.Kotsyubinskaya) tarzida uchta turga ajratish ham e’tiborga molik va ilmiy muomilada bu kabi tasniflar, atamalar ham o‘rni bilan kerak. Tizimli yondashuv asosida amalga oshirilgan tasniflardan biri badiiy obrazlarni: 1) predmetlilik darajasi; 2) umumlashtirish darajasi; 3) tasvir va ifoda planlari munosabatiga ko‘ra guruhlanishi (M.Epishteyn).

Obrazning predmetlilik darajasi deganda o‘sha obraz tasvirlayotgan narsaning ko‘lami nazarda tutiladi. Bu jihatdan badiiy reallik to‘rtta sathdan tarkib topadi: 1) detal obrazlar; 2) voqea-hodisalar obrazi; 3) xarakter va sharoit; 4) dunyo va taqdir obrazi (badiiy reallik)” (Quronov Dilmurod, 2018,110-bet).

Jahon adabiyotshunosligida mavjud bo‘lgan yuqoridagi tasniflar haqida fikr yuritib, olim ularning to‘la qamrovdor bo‘lmaganini ham ta’kidlab o‘tganlar. “Bu tasniflar ham o‘rni bilan kerak ularga ham qo‘shilish kerak. Biroq hozirda mavjud tasniflarning hech biri badiiy obrazlarni to‘la qamrab ololmaydi” (Quronov Dilmurod, 2018,109-bet) .

Olim ilgari surgan ushbu nazariy qarash badiiy obraz tasnifiga oid istiqbolli faoliyatga ishora beradi. Shu paytgacha o‘rganilgan tasniflar borliqdagi jamiki obrazlarni o‘z ichiga qamrab ololmagani mulohaza qilinadi. Bu mulohazani ba’zi bir asarlar misolida tahlil qilib ko‘rish mumkin.

Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dramatik dostonini o‘qiganimizda yuqorida keltirilgan tasniflarga mansub bo‘lmagan obrazlar mavjudligi kuzatiladi. Asardan parcha olaylik:

Tarozibon:

(Qo‘lida daftarchasini varaqlab)

Bu yoqqa tur. Isming nima? Hojati ham yo‘q,

Tamg‘a bosib qo‘ygan ekan senga Ollohim.

Sening joying arosatda, ko‘ngling bo‘lsin to‘q.

(Oripov Abdulla, Jannatga yo‘l, 1980, 7-bet)

Farishta:

Ilakishib qoldimi yo birorta arvoh,

Faqat, faqat nolib o‘tgan buning hayoti

(Oripov Abdulla, Jannatga yo‘l, 1980, 25-bet).

Bu asardagi tarozibon, farishta obrazlarini yuqorida keltirilgan tasniflardan qaysi biriga kiritish masalasi biroz mulohazali. Ular narsa-buyum emas, tabiiyki, inson ham, voqea ham emas. Badiiy asarlarda uchraydigan bu kabi obrazlar bizni obraz tasnifida yanada kengroq o‘ylab ko‘rishga undaydi. Professor D.Quronov “tasniflarning barchasi ham mavjud obrazlarni qamrab ololmaydi”, deya ta’kidlaganlarida, ehtimol, shu jihatlarni nazarda tutgan bo‘lishlari mumkin.

Yana bir asardagi obrazlarga e’tibor qaratsak. Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasida ham jinlar obrazi bor. Hikoyada boyqushlar uyasi bo‘lgan bir maydonda birdan ziyofat bo‘lib, O‘sar akani ziyofatga jinlar chaqirishadi (Qodiriy Abdulla, Jinlar bazmi, 2004, 2-bet). Bu hikoyadagi jinlar obrazi ham mavjud tasniflar doirasidan chetda qolgani kuzatiladi.

Xuddi shunday jinlar va farishtalar obrazini Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida ham uchratish mumkin (Rabg‘uziy Nosiriddin, 2015, 64-bet). Shuningdek, bizning mumtoz adabiyotimiz namunalarida bu kabi obrazlar ko‘p kuzatiladi. Badiiy asarda uchraydigan barcha obrazlarni qamrab oladigan tasnif tuzib chiqish masalasi adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim muammolardan biridir. Bu masalaga professor Dilmurod Quronov ustozimiz o‘z vaqtida ahamiyat qaratganlar hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun tavsiya berib o‘tganlar. Men o‘ylaymanki, yaqin kelajakda hamma obrazlarni to‘la qamrab olgan tasnif tuzib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov Abdulla. (1980). Jannatga yo‘l. Toshkent: O‘zbekiston.

2. Qodiriy Abdulla. (2004). Jinlar bazmi. Toshkent: Cho‘lpon.

3. Quronov Dilmurod. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Navoiy universiteti.

4. Alpomish. (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li). (2018). Toshkent: Fan.

5. Rabg‘uziy Nosiriddin. (2013). Qissasi Rabg‘uziy. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.

JONTEMIR SHE’RIYATI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Asqaraliyeva Nigora Oybek qizi,
ToshDO‘TAU OTAT 3-kurs talabasi
nigoraasqaraliyeva@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi davr yosh ijodkorlaridan biri bo‘lgan Jontemir Jondorning “Jazba” kitobidagi bir qancha she’rlari tahlilga tortildi. Shoir she’rlarida aks etgan erk, Vatan, tabiat, muhabbat kabi mavzularning mohiyati ochib berilishga harakat qilindi. Maqolada badiiy obraz, asar tili, poetik so‘z, modernizm kabi masalalar she’rlar misolida yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *Modernizm, postmodernizm, badiiy obraz, ijodkor shaxsiyati, “shaxsiy hodisa”.*

Abstract. *In this article, a number of poems from the book “Jazba” by Jontemir Jondor, one of the young artists of the current era, were analyzed. An attempt was made to reveal the essence of themes such as courage, Motherland, nature, and love reflected in the poet's poems. In the article, issues such as artistic image, language of the work, poetic word, modernism were covered on the example of poems.*

Keywords: Modernism, postmodernism, artistic image, creator's personality, “personal phenomenon”

O‘zbek adabiyotida shu kungacha yaratilgan badiiy asarlarni janr xususiyatiga ko‘ra taqsimlab chiqsak, she’riy asarlarning salmog‘i og‘irroq tosh bosib ketsa kerak. Chunki mashhur adib, nosir sifatida tanilgan ijodkorlar ham adabiyotga avvalo she’r yozish orqali kirib kelgan bo‘lsa, ajab emas. Bugungi davrgacha o‘zbek she’riyati eng oddiy tashbeh-u tasvirlardan tortib, davr xususiyatlarini-da o‘zida aks ettirgan murakkab san’at turiga aylanib ulgurdi.

Endilikda asarlarni, ayniqsa, zamonaviy adabiyot vakillari bo‘lmish yosh ijodkorlarning ayrim she’rlarini alohida tayyorgarliksiz o‘qilmasa, ma’nosi oddiy kitobxonga, deylik, ilk o‘quvchiga tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, “Akademnashr” nashriyoti tomonidan 2022-yil keng kitobxonlarga “Izlam” turkumidagi bir necha asarlar taqdim etildi. Shulardan sakkiz kitob she’riy, bir donasi nasriy asarlar jamlanmasi edi. Shoir Maqsud Shayxzoda ta’rifi bilan aytganda: “Nasr – og‘ir qadam, nazm – chopog‘on” (https://kh-davron.uz/yangiliklar/maqsud-shayxzoda-toshkentnoma-doston.html). Haqiqatan, odatda she’r shoirning o‘z kechinmalaridan iborat bo‘lgani, katta davrni qamrab olmagani kabi sabablar bilan qisqa muddatda va tez-tez yoziladi. Lekin nasriy asar yozish esa ijodkordan alohida tayyorgarlikni, tajriba-yu bilimni, adabiyotshunoslik iborasi bilan aytganda “uchinchi ko‘z”ni ko‘proq talab qiladi. Endi esa shoir Jontemirning “Jazba” kitobiga to‘xtalamiz. Ushbu kitob “Izlam” turkumning birinchi asari bo‘lib, qolganlariga nisbatan hajm jihatidan yirik. Kitobdagi she’rlar sakkiz faslga ajratilgan: “Mendan sen yaratar tasavvurlarim”, “Shoirni tinch qo‘ymang”, “Iymonim yafrog‘in yuvarman”, “Tomog‘imni tirnadi yoding”, “Ko‘chalarni qabartdim sang‘ib”, “Kuzlanish”, “Yetolmaydi tunni nur quvib”, “Sarbast tuyg‘ular”.

Avvalo, kitob nomining o‘zi o‘quvchini qiziqtirib qo‘yadi, lekin she’rlar ketma-ket o‘qib borilarkan, o‘quvchi aynan shu holatni qisman bo‘lsa-da his qiladi. Ayniqsa, “Iymonim yafrog‘in yuvarman” va “Shoirni tinch qo‘ymang” fasllaridagi she’rlarda. Xo‘sh, “jazba” o‘zi qanday istiloh? “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” I jildida ushbu so‘zga shunday ta’rif berilgan: “Jazb/jazba – tortish, berilish, jalb etish, hayajonga tushish; tariqat ahlining o‘zidan ketgan holati” (Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати I жилд, 1983 йил, 557). Shoir Jontemir esa dard qiynog‘ida jazba qiladi va bu dard uni qiynashdan ko‘ra, ilhom beradi, ijod qilishga undaydi. “Mendan sen yaratar tasavvurlarim” qismidagi she’rlar shoirning muhabbati haqida. Jontemirning aksar she’rlarida, ayniqsa, muhabbat mavzusida yozganlarida muallif hislari tabiat hodisalari bilan

tashbehlanadi. Shoir bo‘lsa bu hisni sog‘inchdan boshlaydi. Zero, muhabbat sog‘inchsiz bo‘lmaydi, bo‘lolmaydi.

Sog‘inch – tili qayralgan jodi,

Kesib olaverar yurakdan bir-bir… (Жонтемир, 2022, 19).

“Jazba”da shoir qalamida chizilgan tabiat manzaralari ham o‘zgacha. Bir o‘rinda daraxtlarni suv o‘tlariga, shaharni ko‘lga, o‘zini baliqga-yu ma’shuqasini nilufar guliga o‘xshatsa, boshqa o‘rinda quyosh mag‘ribga qarab “shalvirab yiqiladi”, yulduzlar so‘galga aylanadi. Shoir she’rlarida qo‘llaydigan tabiat hodisalardan eng faoli – yomg‘ir. Lekin yomg‘ir bilan bog‘liq bir xil tasvirlar, tashbehlar uchramaydi.

Bulbulning tumshug‘i nay bo‘lsa,

Har yomg‘ir tomchisi may bo‘lsa… (Жонтемир, 2022, 32).

***

Yog‘mur – uloq ko‘rgan chavandoz,

Xavotirim battar qamchilar… (Жонтемир, 2022, 40).

***

Samo’ tushar, yog‘murlar – raqqos

Qarshimizda alvon yalanglik… (Жонтемир, 2022, 41).

Darhaqiqat, Jontemir she’rlari modernistik xarakter kasb etadi. “Modernizmga xos umumiy xususiyatlardan biri shuki, u obyektiv voqelikning tasviri o‘rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi. Ya’ni bu o‘rinda voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning o‘z-o‘zini ifodalashi (ekspressionizm) ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijodda subyektivlikning oldingi o‘ringa chiqarilishi, mantiqiy bilishdan intiutiv bilishning yuqori qo‘yilishi, inson ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarga ayricha e’tibor berilishi (ong oqimi), ijodkor shaxs ijodiy tajxayyuli va u aks ettirgan voqelikning betakror hodisa sifatida tushunilishi, o‘z o‘y-hislarini hech qanday (ma’naviy, axloqiy, siyosiy va h.) cheklovlarsiz ifodalash huquqining e’tirof etilishi ham modernizmga xos xususiyatlardandir” (U. Hamdam, A. Qosimov, 2017, 255). Shuning uchun ham Jontemir she’rlarida o‘zimizni emas, aynan muallifning o‘zini ko‘ramiz.

Lekin nazarimda, she’r yozilgandan keyin shoirga emas, uni his qilib o‘qigan o‘quvchiga “tegishli” bo‘ladi. Jontemir esa holatini faqat hissiyotlariga, og‘riqlariga tayanib so‘zlamaydi, deyarli har bir she’rida tabiat bilan bog‘liq o‘rinlarga duch kelasiz. Tabiat hodisalari shoirning tuyumlari bilan omuxtalashib ketadi.

Bu oqshom –

O‘zimni tashlab ketarman

Sharros yog‘ilgani tog‘lar boshidan… (Жонтемир, 2022, 28).

***

Shalvirab mag‘ribga yiqilar oftob,

Osmonning yuziga toshadi so‘gal… (Жонтемир, 2022, 35).

***

Ko‘ksimda gurkirab ko‘kargan chinor,

Tog‘larni uyatga qo‘ydim men ablah… (Жонтемир, 2022, 50).

“Shoirni tinch qo‘ymang”

– bunda shoir odamlardan (balki o‘z-o‘zidan) kattaroq dardni, isyonni, iztirobni talab qiladi. U asab torlarining doimiy chertilishini istaydi, sukut shoirning o‘limi bilan teng ekanini so‘zlaydi. Unga “muloyim erlar”, “zanglagan isfahoniy qilichlar”, “ehtiyotkor do‘st”, hatto uzoq umr ham yoqmaydi. Bir yilt etgan taqdir istaydi go‘yo.

Ushbu she’rni tugatganim dam

“Uh” desam-u, chiqib ketsa jon... (Жонтемир, 2022, 69).

***

Shoirni tinch qo‘ymang,

asab torlarin

Huda-behudaga chertaveringlar.

O‘shanda she’r bilan siylar sizlarni,

Ketgan bo‘lsa hamki qalbi yiringlab… (Жонтемир, 2022, 70).

Jontemirning ayrim she’rlarida postmodernizm oqimining ham unsurlari ko‘zga tashlanib qoladi. Ulug‘bek Hamdam va Abdug‘opir Qosimovning “Jahon

adabiyoti” kitobidagi postmodernizmning “An’analarni o‘ziga singdirish va ularga kinoyaviy munosabatda bo‘lish”, “Xaos deb bilingan olamni qabul qilish, uni o‘yin tariqasida o‘zlashtirish” kabi xususiyatlari quyidagi she’rlarda ayniqsa seziladi. Shoir har qanday laganbardor, maddoh, boshi egik (qaram) insonlardan nafratlanadi, ulardan o‘zini bir pog‘ona yuqori qo‘yib, she’rlarida ayamay “savalaydi”.

Savdoyiman, shamoltabiat,
Erkinlikdan olaman huzur,
Begonaman senga, jamiyat,
Egarlangan odamlar, uzr… (Жонтемир, 2022, 66).

***

Burgutlar in qurgan tog‘larni tashlab,
Ilonlar ichida yashab yuribman?!... (Жонтемир, 2022, 73).

***

Ay sodiq lashkarim – naynovlar,
Bilaman, sirni fosh etmaysiz.
Itoat sepilgan yaylovlar
bor ekan, qirilib ketmaysiz!
Qur-ey, qur-ey, qo‘ylar suruvi! (Жонтемир, 2022, 75)

Jontemir she’rlarida o‘limni pisanda qilmaydi, istasa, uni chaqirib olishi, raqib qilishi, hatto o‘ynatishi mumkin. O‘lim bilan bog‘liq tashbehlar esa juda alomat. Aynan shu jihati bilan ham postmodernizmning xaos deb qaralgan dunyoni, hayotni pisanda qilmaslik, unga o‘yin tariqasida qarash jihati ko‘zga tashlanadi.

Hallojsifat talvasa yo‘lla,
Mening dorga ehtiyojim bor! (Жонтемир, 2022, 77).

***

Endi yayrab ko‘ngil xushlasak,
Yoqangdadir ikkala qo‘lim.
Childirmamga o‘yin tushmasang,
Qistirmayman jonimni, o‘lim (Жонтемир, 2022, 81).

Kitobdagi eng yaxshi she'rlardan biri, shubhasiz, "Qon". Unda butun dunyo shoirlarining ayanchli taqdiri go'zal tashbehlar bilan berilgan. Pushkin-u Lermontovdan tortib, Usmon Nosir fojiasi bor bu she'rda.

Sizningcha shoirni o'ldirmoq – ermak

Yo lazzatlanasiz jonini olib… (Жонтемир, 2022, 85).

***

Shoirning muqaddas qonida goh-goh

tahorat olgancha poklanar dunyo... (Жонтемир, 2022, 85).

***

Bu qobil tufroqni tozartmoq uchun

Qasdma-qasd tug'ilib turing, shoirlar! (Жонтемир, 2022, 85).

"Xudo yuqtirgan ohang hissi va rang-barangligi bo'lmasa, shoirning boshidan kechirganlari, chekkan azob-u uqubatlari hech narsaga arzimasligini ta'kidlaydi" (Фахриёр, 2020, 19). Shoir Faxriyor suhbatlardan birida she'riyatda milliylik bo'lishi kerakmi, degan savolga "Kerak ham gapmi? Shart!" javobini bergandi (Фахриёр, 2020, 101). "Jazba" dagi "Iymonim yafrog'in yuvarman" faslida ham shoirning milliy ohangdagi, darveshona ruhdagi she'rlarini ko'rishimiz mumkin. Yaxshi she'rda an'anaviylik va modernizm qorishib ketish xislati bo'ladi. Jontemirning aksar she'rlaridagi xalqona ohang (faqat ohang!) uning oson o'qilishiga yordam beradi.

So'ng ichkari sho'ng'idim,

Ko'zimni chaydi zulmat.

Dunyo unutsin hidim,

Endi xilvatga ulman.

Yolg'iz Xilqatga qulman… (Жонтемир, 2022, 101).

***

Ey Yor,

Xanjarim yo'q, qinim bor,

Yolg'on emas, chiningga qo'sh.

O'rtamizda "men"im bor,

meni o‘ldir , “Men”ingga qo‘sh… (Жонтемир, 2022, 109).

***

balogardon qaydasiz

qariyapti kulgichim

ha yo hu, ha yo hu

dam soling ay ruhimga

bo‘shab qoldi-ku ichim

ha yo hu, ha yo hu… (Жонтемир, 2022, 111).

“Tomog‘imni tirnadi yoding” – Jontemirning eng dardchil she’rlari o‘rin olgan fasl. Ularda momoga, boboga, singilga, do‘stga, tug‘ilib o‘sgan yerga adoqsiz sog‘inch tuyuladi, qaysidir ma’noda shoir armoni ochiqlanadi. Har bir badiiy obraz muallifning qaysidir jihati, shaxsiyati haqida so‘zlaydi.

Dada – suyagimni sindirar bu so‘z,

Dada – men kuchini bilmagan qudrat… (Жонтемир, 2022, 160).

***

Hojilanar qoramtir samo,

Momom qaraab qolar ketimdan.

Men-ku sag‘ir emasman, ammo

Sizni tashlab ketdim yetimday... (Жонтемир, 2022, 162).

***

Shoirning dardi but, quvonchi yupun,

To tufroq yutguncha bilmaydi tinim.

Singlimni yo‘qlab tur, yelkadoshim tun,

Bobomga salom de, qabriston, inim… (Жонтемир, 2022, 167).

Faxriyor ta’biri bilan aytsak, “She’r – shaxsiy hodisa. Ba’zida shoir o‘zi uchun yozgan she’ri ham o‘quvchisini topsa, uni kimdir qabul qilsa, ijtimoiy hodisaga aylanadi” (Фахриёр, 2020, 83). Lekin “Jazba”dagi she’rlarda o‘quvchi qayta-qayta shoirning shaxsiy his-tuyg‘ulariga duch keladi, yozilganlarda o‘zini topish, uni to‘la tuyush kamdan-kam kitobxonlarga nasib qiladi. Jontemir

she’rlarida esa shoir uchun eng muhimi – erk, ozodlik. Hatto zanjirini g‘ajiyotgan it ham uning havasini keltiradi, erk – “zulm tog‘ini o‘pirish” quroliga aylanadi. “Vatan nima, lo‘li qiz” she’ri dialog shaklida bo‘lsa ham, aslida, shoirning o‘z-o‘zi bilan savol-javob qilishi, ichki monologidir.

– *Hayot nima, lo‘li qiz?*

– *Tinmay aylanar urchuq.*

– *O‘lim nima, lo‘li qiz?*

– *Yelkamdagi oq xurjun*

– *Siyosat ne, lo‘li qiz?*

– *Ustimdan kulyapsanmi?*

– *Haqiqat ne, lo‘li qiz?*

– *Mozorni ko‘ryapsanmi?* (Жонтемир, 2022, 242)

Xulosa qilib aytganda, Jontemir o‘z yo‘lini, “poetik so‘zi”ni topgan ijodkor. Har bir she’rida fikr yangiligiga duch kelinmasa ham, lekin barchasida bir-biriga o‘xshamas tashbehlar ishlatilgan, misralarning ohangdorligi ta’minlangan. “Jazba”ning deyarli barcha she’rlari shoirning yolg‘iz o‘zi haqida. Rassomlar tilida aytadigan bo‘lsak, kitob Jontemirning avtoportreti bo‘lib qolgan. “Jazba”ni to‘la mutolaa qilsangiz, darveshona ohangdagi misralar, oshiqlik da’vosidagi she’rlar, tabiatning shoir qalamida chizilgan o‘zgacha manzaralari va qaysidir ma’noda ijodkorning ichki olamini ko‘rasiz, o‘qiysiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Hamdamov, A. Qosimov. (2017). Jahon adabiyoti. (O‘quv qo‘llanma). Toshkent: Barkamol fayz media.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, I жилд. (1983). Тошкент: Фан нашриёти.
3. Жонтемир. (2022) Жазба: шеърлар. Тошкент: Akademnashr.
4. Фахриёр.(2020) Метаҳикоялар оралаб. Тошкент: Akademnashr.
5. https://kh-davron.uz/yangiliklar/maqsud-shayxzoda-toshkentnoma-doston.html

ABDULLA ORIPOV IJODIDA AYOL VA ONA OBRAZLAR TALQINI

Azimjonov Husniddin Ibrohim o‘g‘li,
ToshDO‘TAU O‘TT 3-kurs
azimjonovxusniddin484@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston qahramoni Abdulla Oripov ijodiy mahorati, hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari, eng asosiysi Ayol va Ona tasvirida hech kimnikiga o‘xshamagan kuchli talqinlar, ruhiy iztiroblar manzarasi, armonga aylangan orzular, inson sezimlarida qoldirgan iz tasviri, Ayol sha’nini ulug‘lash kabi tasvirlarda shoir mahorati haqida so‘z yuritiladi*

Kalit so‘zlar: *Ayol, Ona, tasviriylik, ruhiy iztirob, inson sezimlari, ayol sha’ni, kuchli tasvirlar*

Abstract. *In the article, the creative skills of the hero of Uzbekistan Abdulla Oripov, as well as their unique characteristics, the main thing is strong interpretations like no other in the image of Woman and Mother, the scene of mental suffering, dreams that have become dreams, the image of the imprint left on human feelings, Woman sha In such images as glorifying the poet, there is talk about the poet's skill*

Key words: *Woman, Mother, imagery, mental anguish, human feelings, female dignity, strong images*

Abdulla Oripov chinakam xalqning ehtiromi va e’tirofiga sazovor bo‘lgan shoirdir. Uning xalq ardog‘iga, el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lishining o‘ziyoq ijodkorning she’r va dostonlari xalq ruhi va qalbining ifodasiga aylanganidan darak beradi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta, u ham bo‘lsa, bir umr hayotning ichida bo‘lish, o‘z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo‘lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Zero, Abdulla Oripov butun hayoti davomida o‘z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo‘lib yashab, ijod qilgan shoirdir. Chunki bu shoir uchun xalq mavhum tushuncha emas, u aniq mazmunga ega. Shoirning Men nechun sevaman O‘zbekistonni she’rida aytilganidek, *Xalqim, tarix hukmi seni agarda Mangu muzliklarga eltgan bo‘lsaydi, Qorliklarni makon etgan bo‘lsayding, Mehrim bermasmidim o‘sha muzlarga?* Mazkur fikrlarda shoir she’riyatining milliy ruhiyatini belgilab beruvchi pafos ufurib turadi.

Abdulla Oripovning inson hayotini, uning orzu-umidlarini yuksak badiiy saviyada ifodalagan, umuminsoniy mohiyatga ega bo‘lgan xalqona poetik tafakkur belgilari yaqqol ko‘rinib turgan asarlarini maxsus tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslik ilmining dolzarb masalalaridan biridir. (Afoqova, 1997, 142-bet).

Iste’dodli o‘zbek farzandi Abdulla Oripov inson ruhiyatini, ezgu tuyg‘ularni ulug‘lash xususidagi mushohadakor fikrlari, har bir shaxs ziynatidagi mukammalliklar, mukarram zotga mehr va shafqat tuyg‘usi, muruvvati nechog‘li cheksiz ekani, ayniqsa uning Ayol sha’nini ulug‘lashga bag‘ishlangan she’rlari va asarlarida yorqin ko‘rinadi. Shoir o‘z ijodida Ayol va Ona obrazlari kuchli va mohironalik bilan tasvirlaydi.

Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, tasavvurimizni ajib bir his chulg‘ab oladi, insonning butun vujudini junbushga keltiradi. Adibning “Sohibqiron” dramasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda buyuk sohibqiron Amir Temurning Ayol va Onaga bo‘lgan hurmat ehtiromini ko‘ramiz. Uning farzandlari tarbiyasi bilan bir qatorda davlat ishlarida ham Bibixonimning o‘rni katta ekanini bilamiz. Asarda Amir Temurning “… Agarda u bo‘lmasa edi kurashlarning va janglarning dolg‘alarida qayroq toshga aylanardi balki yurak…”(Ashurova, 2008, 26-bet). deya aytilgan bu satrlar uning yorqin isbotlaridan biridir.

Bundan tashqari asarda bunday jumlalar ko‘plab uchraydi. Bilamizki, Sohibqiron umrining ko‘p davrlari janglarda kechkan, uning davlat ishlari hamda boshqa bunyodkorlik ishlarida ham Bibixonimning xizmatlari katta bo‘lganligini asarda Amir Temur tilidan aytilgan “…Faqatgina Bibixonim to‘lin oy kabi yoritadi tun, qorong‘u kechalarimni…” (Begimqulov, 2000, 432-bet) kabi o‘xshatmalarni yana bir misol deya olamiz.

Qolaversa buyuk Amir Temur bobomiz Bibixonim uchun katta ikki buyuk shaharni Samarqand va Buxoroni hadya qilganini aytib, bu shaharlarni Hofiz Sheroziy ham oshiqlariga baxsh etgani uchun undan jahli chiqqanini aytadi. Ayolga va Onaga hurmat Buyuk Amir Temurda eng oliy bir xilqat bo‘lganini asarda ko‘rishimiz mumkin. Uning o‘g‘li Mironshohga o‘z qilmishi uchun aytgan

so‘zlarida katta ma’no bor “… Ayol kishiga qo‘l ko‘tarish nimaligini bilurmisan? Ayt! Sen-ku odam bolasisan, Qaysi bir hayvon emayotib, uzib olar onasin ko‘ksin, Shohlarni-ku qo‘yaturay, Payg‘ambarlar ham, Nabilar ham tug‘ilgan-ku ayol zotidan…”(Vohidov, 1987, 68-bet) Bundan ko‘rinib turibdiki Temur bu muhtarama zotlarga cheksiz hurmat va muruvvatda bo‘lgan.

Bundan tashqari Turon zamin erki uchun maydonga chiqqan To‘maris momomiz jasorati hamda Ayol zoti xonadonning shamchirog‘iligini, o‘sha chiroq o‘chmasligi uchun jang qilishini aytadi. Abdulla Oripovning boshqa har bir asarlarida ham Ayol va Onaga muruvvat ko‘rsatish, ularni ulug‘lash keng talqin qilinadi. Uning “Ayol” nomli she’ri umuman XX asr o‘zbek she’riyatidagi bu muqaddas siymo sha’niga bitilgan eng go‘zal va shukuhli she’rlardan biridir. She’r ayol shafiqligi, irodasi, sadoqati va ma’naviy go‘zalligi kuylangan zavol bilmas qo‘shiqdek jaranglaydi. Uning mazmuni urushdan qaytmagan yorga cheksiz sadoqat ko‘rsatgan ayol kuta-kuta hayotdan tanho o‘tadi, Shu pokiza mazmunga shoir kuchli hayotiy ziddiyatlarni, qalb va vijdonda kechishi mumkin bo‘lgan hislarni, ularni yengib o‘ta oluvchi irodani jo etadi.

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
O‘n to‘qqiz yoshida beva qoldi u.
Sevgidan yetim-u umrdan yarim,
Qurigan ko‘ksida yolg‘iz belanchak.
Abadiy firoqni, hayhot, do‘stlarim,
Abadiy visol deb bildi kelinchak.
Qaqragan lablarda olovli nafas,
Kechalar kechmishin ayladi ko‘mir.
Parishon sochlari yor ko‘ksi emas,
Muzdayin bolishda qoldi bir umr...

She’rning mohiyati va qimmatini uning mazmuni emas, shu mazmun qa’riga singdirilgan dard va uning badiiy talqinidagi mahorat, o‘ziga xoslik hamda

shulardan nur bo‘lib taraluvchi pafos belgilashiga yorqin misoldir. Abdulla Oripov she’rdan maqsad faqat sadoqatli Ayol sha’nini ulug‘lashgina emasdi. Balki, shoir bu masalada ham hayotning achchiq, shavqatsiz haqiqatini unutmaydi. Muhtarama zotlar ichida hamma birdekmi? Bu nomga dog‘ tushirib yurganlar yo‘qmi? Kabi savollarga javob topish qiyin emas albatta, o‘n to‘qqiz yoshida beva qolib, sadoqat tufayli, muhabbat tufayli o‘z vijdoniga qarshi borolmay, butun umr yolg‘iz yashayotgan bu ayolga qarama-qarshi o‘laroq atrofimizda o‘ziga oro berishdan va birovlarni g‘iybat qilishdan ortmaydigan, biroq yorini bir daqiqa kutishda besabr bo‘lgan bevafolar afsuski yo‘q emas, albatta.

Bu shoirona tasvir asarning ta’sir kuchini oshiradi, sodiq, beva timsolidagi ayol obraziga mehrimizni yanada kuchaytiradi. Badiiy obrazlardagi milliylik va tiniqlilik haqiqiy o‘zbek ayolini yaqqol namoyon etadi. Adibning Ona haqidagi she’rlari va asarlari umuman, Ona obrazi shoir ijodidagi Ayol obrazini yanada mukammallashtiradi va konkretlashtiradi. Bu timsolni oliy maqomlarga olib chiqadi. Shoir ijodida uchta oliy tushunchaga Ona nisbatini beradi: Ona vatan, Ona she’riyat, Ona sayyora. Bundan ko‘rinadiki shoirning onaga bo‘lgan muhabbati yanada cheksiz ekani buning yana bir isbotidir. Abdulla Oripovning “Onajon” she’rida Volidai muhtaramasi qarshisida ba’zi insonlar kabi oddiy bir farzand va ayni vaqtda, elning buyuk san’atkori bo‘lgan shoirning ona haqidagi guhar tuyg‘ulari toshqinidan tizilgan marjondir. Qolaversa, adib bu she’rda mehribon volidaning nurli qiyofasini yaratadi.

Asarda onaga hamd-u sano o‘qishga, uni ko‘klarga ko‘tarishga berilmaydi, Shoirning asosiy maqsadi umuman Ona obrazini emas, o‘z onasi timsolini yaratish, Ona timsolini shunchaki qofiyaga solingan so‘zlar emas, balki, shaxs sifatida faqat o‘zigina his etgan, uyg‘ongan hislarida farzandlik tuyg‘ularini ifodalash. Shularga mos ravishda topilgan Ona mehridek ulkan shakl va ohang, samimiyat va hayajon, shiddat va ko‘lam o‘zaro birlashib “Onajon”dagi badiiy bir yaxlitlikni vujudga keltiradi. Bular orqali shoirning shaxsiy tuyg‘ulari, dard va hayajonlari shaxsiylik dunyosidan ijod dunyosiga ko‘chib, ko‘plab kitobxonlarning qalb darchalarini yoritadi. Ularning ham his tuyg‘ularini ifodalovchi sehrli olamni kashf etadi.

Bundan tashqari shoir o‘z asarlari orqali Ayol va Ona kabi muhtarama zotlarga cheksiz muhabbat va muruvvatda bo‘lgani hamda ularni avaylab, ardoqlagani yorqin ko‘rinadi. Bu obrazlar bugungi yosh avlodga yorqin namuna va o‘rnak bo‘la oladi (Yo‘ldoshev, 1998, 464-bet).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abdulla Oripovning Ayol, Ona haqidagi asarlari bilan muhabbat lirikasi bir butunlikda ajib bir uyg‘unlikni tashkil etadi. Qolversa bu obrazlarni tariflash va tavsiflashda shoir mahoratining hech kimda takrorlanmas istedod egasi ekanligini yaqol ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I., (2009). Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti.

2. Oripov, A., (2001). Tanlangan asarlar. “G‘.G‘ulom” nashriyoti. Toshkent.

3. Quronov, D., (2004). Adabiyotshunoslikka kirish. “A.Qodiriy” nashriyoti. Toshkent .

4. Afoqova, N., (1997). Abdulla Oripov lirikasida badiiy san’atlar. Toshkent.

5. Ashurova, G., (2008). Abdulla Oripov she’riyatida an’ana va badiiy mahorat (obraz, g‘oya va tasvir). Filol.fanlari nomzodi...diss. avtoref. Toshkent .

6. Aristotel., (1980). Poetika. Toshkent: “Adabiyot va san’at” nashriyoti.

7. Begimqulov, D., (2000). She’riyatimiz yulduzi. // Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik, 1 jild. Toshkent.

8. Vohidov, R., Hoshimova, M., (1987). She’riyat – shoir yuragi. “Fan” nashriyoti. Toshkent.

9. Jabborov, I., (2008). Abdulla Oripov she’riyatida tarixiy shaxs talqini. Toshkent.

10. Yo‘ldoshev, B., (1998). Qashqadaryo badiiyati. “Sharq” NMK. Toshkent.

11. Norboyev, B., (1996). Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari. F.f.d. avtoref. Toshkent.

RUSTAM MUSURMON SHE'RLARIDA EPIGRAFNING O'RNI VA AHAMIYATI

Baratova Sarvinoz Sherbek qizi,
ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti,1-kurs
Sherbekovna104@gmail.com

Annotatsiya. *Lirik asar kompozitsiyasida ramka unsurlarining badiiy-estetik funksiyalari, epigraf ramka unsuriga yuklanadigan g'oyaviy-badiiy vazifalar, yangi o'zbek adabiyotida urfga kirgan epigraf an'anasi, Rustam Musurmon she'rlarida epigraflarning asar mavzusi va g'oyasini aniqlashdagi ahamiyati, shoir she'rlarida epigraf qilib olingan ko'chirmalar: xalq qo'shiqlaridan, o'zbek mumtoz adabiyoti va hozirgi zamon o'zbek adabiyoti namunalaridan parchalar hamda ularning badiiy- estetik, g'oyaviy qiymati.*

Kalit so'zlar:*lirik asar, kompozitsiya, epigraf, ko'chirma, mavzu, g'oya.*

Abstract. *Artistic-aesthetic functions of frame elements in the composition of a lyrical work, epigraph – the ideological-artistic tasks assigned to the frame element, the tradition of the epigraph in the new Uzbek literature, the importance of epigraphs in determining the theme and idea of the work in the poems of Rustam Musurman , excerpts taken as epigraphs in the poet's poems: excerpts from folk songs, examples of Uzbek classic literature and modern Uzbek literature and their artistic, aesthetic, ideological value*.

Keywords: *lyrical work, composition, epigraph, excerpt, theme, idea.*

Badiiy asar hayot voqeligining obrazlar vositasidagi ifodasidir. Unda hayotning muayyan qirrasi akslanadi, hayot voqeligi ma'lum shaklda ifodalanadi. Badiiy asardagi barcha shakl unsurlarini mazmunni shakllantirish va ifodalash uchun birlashtirish, asarning badiiy-estetik va g'oyaviy ta'sirini boshqarish kompozitsiya (lot. tartibga solish, tuzib chiqish) ning asosiy vazifasi hisoblanadi. Muayyan asar badiiyati, ijodkorning badiiy mahorati, uning kompozitsion xususiyatlarida aks etadi. Shu jumladan, uch turdan biriga (lirik, epik, dramatik) aloqador asarlar kompozitsiyasi bir-biridan farqlanadi.

Demak, lirik asar kompozitsiyasi ham bevosita tashqi qurilishga aloqador. Lirik she’r kompozitsiyasining 3 aspekti: tashqi-matniy, tematik va ritmik-artikulyatsion qurilishi o‘zaro birlashib yaxlit estetik voqeani shakllantiradi.

Jumladan, lirik asarning matniy(tashqi) kompozitsiyasida ham asosiy va yondosh matn unsurlari farqlanadi. Misra va bandlarga bo‘linish asosiy matn unsurlariga tegishli. Yondosh matn unsurlari esa sarlavha, janr qaydi, epigraf, bag‘ishlov, she’r yozilgan sana va joy kabilarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi so‘z epigraf haqida.

Epigraf (yun. "epigraphe" – yozuv) – badiiy jihatdan samarali va ijod amaliyotida ancha keng tarqalgan ramka unsurlaridandir. Mohiyatan epigraf ham ko‘chirma bo‘lib, o‘quvchi ommaga tanish va e’tiborli manbalar (xalq og‘zaki ijodidan, mashhur adabiy asarlardan, atoqli shaxslarning so‘zlari va boshqalar) dan olingan gaplarni sarlavhadan keyin keltirishdan iborat. Epigraf ,odatda, asarda yoki uning biror qismida, bobida ifodalanadigan mazmunga aloqador bo‘ladi, unga g‘oyaviy yo‘nalish beradi. O‘z vazifasiga ko‘ra asar nomiga o‘xshab ketadi – ularning har ikkalasi ham asarga g‘oyaviy-emotsional ruh baxsh etadi, asar mavzusi va g‘oyasini aniqlashga ko‘mak beradi.

Sarlavha bilan epigraf, shuningdek she’rdagi ilk va oxirgi misralar(jumlalar) qofiya va takrorlar matnning kuchli pozitsiyalari hisoblanadi. Sababi matnning ayni shu jumlalarida matn kuchaytirilgan, his-kechinmalar quyuqlashtirilgan holda ifoda etiladi.

Dastlab jadid adabiyotida Cho‘lpon ijodida ko‘zga tashlangan epigraf qo‘llanilishi o‘zgacha ahamiyat kasb etganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, "Kecha va kunduz" romaniga epigraf qilib olingan Maksim Gorkiy so‘zlari polifunksionallik kasb etadi: u ham turli ayblovlardan himoya vositasi, ham adibning asarni yozishdan maqsadini(muhimi ham ochiq, ham pardalab aytilayotgan maqsadni) ifodalaydi("Adabiyotshunoslik lug‘ati"T.:"Akademnashr"2013 D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva)

Lirik she’rda epigraf qo‘llanilishi masalasiga kelsak, mumtoz she’riyatimizda epigraf qo‘llash odati bo‘lmagan, bu narsa yangi o‘zbek adabiyotida urfga kirgan.

U nafaqat asarning yozilish sababi, maqsadi va mohiyatini izohlash-u lirik qahramon kechinmalarini asoslashga, balki she’rning badiiy-estetik ta'sir kuchini, publitsistik ruhini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida epigraf qo‘llanilishi haqida so‘z borar ekan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Rustam Musurmon she’rlarida bu jihat yorqin ko‘zga tashlanadi. Shoir insof-diyonat, adolat va haqiqat, mardlik va jasorat, do‘stlik va muhabbat mavzusidagi she’rlarida epigraf sifatida turli ko‘chirmalarni qo‘llaydi. Jumladan quyidagi manbalardan foydalanadi:

1) xalq qo‘shiqlaridan parchalar;

2)o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalaridan;

3) zamonaviy she’riyatimiz vakillari ijodidan;

4)jahon adabiyoti namunalaridan.

Sarlavhadan keyin keltiriladigan bu parchalar she’rning mavzusi, mohiyati va g‘oyasini ochishda dastlabki qadam bo‘lishga, o‘quvchi qalbida she’r bilan bog‘liq kayfiyatni uyg‘otishga hamda shoir tuyg‘ularini kitobxonga imkon qadar yuqtirishga xizmat qiladi.

Jumladan, shoirning "Ovutish" she’riga o‘zbek xalq qo‘shig‘idan kichik parcha epigraf qilib olingan:

Yig‘lama-yo, yig‘lama,
Ilik chaqib beraman.
Toshbaqaning butiga
Shardoz taqib beraman...

Mohiyatan, bolalarni ovutish uchun aytilgan qo‘shiq she’rda nisbatan kengroq mavzu ko‘lamini yoritadi,"derazama-deraza daydib yurgan tun "Men lay-li-man" deya shoirni - majnunni ovutadi:

Baxtu iqbol senga yor o‘lar,
Eh, boshingga tushadi ertak,
Ishq bazmiga chorlar parilar,
Yig‘lamagin, yig‘lama, tentak!

Oy – bo‘gzimga tiralgan pichoq,

Oy ostida aylanadi charx.

Tiyra qilsam ro‘zg‘oring shu chog‘

Tomog‘imga tig‘ tortadi Sharq.

Falak senga qilmagay sitam,

Yig‘lamagin, yig‘lama Rustam!

Ruhiyati yosh boladek bo‘lgan shoirni endi yoshlikdagi kabi momolari emas, tabiat va tun ovutadi.

Shoir epigraf tanlashda o‘zbek mumtoz adabiyotiga ham murojaat qiladi. Bilamizki, "Devonu lug‘otat-turk" dagi ba'zi lirik she’rlarda tabiat manzaralaridagi nozik va jonli kuzatishlar beriladi. Shunday lirik she’rlardan birining "Yoz qish bilan urishdi" misrasini Rustam Musurmon "Eng qadimgi turku" she’riga epigraf qilib oladi. Bu ikkisi orasidagi bog‘liqlik shundaki, "Devon" ning tabiat tasviri bilan bog‘liq she’rlarida ham, shoirning bahor kirib kelishi haqidagi she’rida ham qahratonga isyon qilayotgan uyg‘onish fasli, uning lashkar tortib jangga kirayotganligi badiiy bo‘yoqlarda aks etadi. Shoir ta'birida hatto "o‘riklar bahor lashkari yo‘l olganligini og‘izlaridan gullab qo‘yishadi". Har ikkala she’rda ham tabiat hodisalari tufayli inson ruhiyatida yuz beradigan o‘zgarishlar go‘zal va ta'sirchan ifoda etiladi.

Lolalar ochilar birdan lovullab,

Qishning mustamlaka o‘lkalarida

Qip-qizil qon oqar yerga shovullab,

Bahorning bahodir yelkalaridan.

Odatda, epigraf sarlavhadan so‘ng qo‘yiladi, ammo shoirning bir she’rida sarlavha yo‘q va epigraf uchun tanlangan misra mohiyatan sarlavhaning ham vazifasini o‘taydi – o‘quvchiga dastlabki kayfiyatni, she’r mavzusi haqidagi boshlang‘ich fikrlarni beradi. Bu safar shoir zamonaviy o‘zbek she’riyatiga murojaat qiladi. Abdulla Oripov to‘rtligining birinchi misrasini tanlab oladi:

Bozorga o‘xshaydi asli bu dunyo...

Ammo bu ikki she’r bir-biridan sezilarli farq qiladi. Abdulla Oripov insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni sotuvchi va xaridor timsolida beradi:

Bozorga o‘xshaydi asli bu dunyo,

Bozorga o‘xshaydi bunda ham ma’ni.

Ikkisi ichra ham ko‘rmadim aslo,

Molim yomon degan biror kimsani.

Rustam Musurmon esa "Bozor ichi. Bitta tig‘iz yo‘l" ni tasvirlaydi.

Bu yon rasta, u yon ham rasta,

Xaridorlar o‘rtada garang.

Yelkamni yuk ezar, oldimda

Bir qari chol odimlar arang

- Po‘sht-po‘sht, ota,

Yuk bosdi ota,

Po‘sht-po‘sht, menga yo‘l bering,

Sizda

O‘zingizdan bo‘lak yuk yo‘qdir.

Demak shoir insonlar hayoti bozordagi kabi tiqilinch, bir-biriga yo‘l bermasdan shoshilinch odimlashdan iborat, demoqchi. Go‘yo, kuchga to‘lgan yosh avlod keksa ajdodlarga yo‘lni bo‘shatishi uchun murojaat qilayotgandek. Ammo aslida haqiqiy yuk umrini oshagan va hayotning barcha qiyinchiliklaridan o‘tgan insonlarda, ularning toliqqan ruhlarida bo‘ladi, ya'ni yuk bu dunyo yelkamizga ortgani emas, o‘zimiz qalbimizga yuklaganlarimizdir, demoqchi bo‘ladi shoir:

Sabr qil, bolam,

Agar bilsang yorug‘ dunyoda

O‘zingdan ham og‘ir yuk yo‘qdir.

Odamzoddan og‘ir yuk yo‘qdir...

Aytishimiz mumkinki, har ikki shoir ham dunyo aslida bozor ekanligini ta'sirchan bo‘yoqlarda aks ettiradi.

Zamonaviy she’riyatimiz vakillaridan biri bo‘lgan Chori Avaz xotirasiga bag‘ishlab yozilgan she’r – "Chori Avaz marsiyasi" va unga epigraf qilib olingan misralar orasidagi bog‘liqlikni izohlashga o‘rin yo‘q:

Mangu osudadir mening maydonim,

Bir umr bilmadi u nimadir jang.

(Chori Avaz)

Tabiatan kamgap, kamsuqum, sodda va halol shoir – Chori Avazning bir umr beozor yashagani, boshqalar qilmishidan ham uyalib, og‘ringani e’tiborga molik jihatdir. Shoir og‘ir dard tufayli buyrak kasalligidan vafot etadi, bu uning do‘stlari, hamkasblariga qattiq zarba bo‘ladi. Bular haqida A’zam O‘ktam o‘zining “Do‘st haqida so‘z” maqolasida yozadi https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/shoir-chori-avaz-poetry.html)

Rustam Musurmon esa “jangsiz maydonda o‘lgan shoir” ga murojaat qiladi, savollar yog‘diradi:

Jangsiz maydoningni qoldirib holi

Jang qilgani ketdingmi Chori?!

Dushman qolib

Do‘stlar ahvolin

Tang qilgani ketdingmi, Chori?!

O‘limmidi askaring, Chori?!

Ajalmidi lashkaring Chori?!

Kim bor edi sening yoningda

Bir o‘zingdan tashqari, Chori?!

Ko‘rib turganimizdek shoirga berilayotgan barcha savollar bir asosga – o‘zining ijodidagi 2 misraga bog‘liq, ya’ni epigraf bevosita she’rning maqsadini boshqarmoqda.

Bu kabi keng ko‘lamda, she’r mohiyatini ochish maqsadida qo‘llanilgan epigraflarga shoir she’rlaridan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Xulosa qilib

aytganda, Rustam Musurmon she'rlarida epigraf quyidagi vazifalarni bajarishi yuzasidan yirik ahamiyat kasb etadi:

1)she'r mohiyati va g'oyasini anglashda dastlabki bosqich vazifasi;

2)Epigraf manbasi bo'lgan boshqa davr adabiyoti namunalari bilan she'rni bog'lash orqali ta'sir ko'lamini kengaytirish, badiiy-estetik jihatdan boyitish;

3)She'rda sarlavha bo'lmagan holda uning vazifasini ham qisman o'tash – o'quvchida asar mavzusiga oid dastlabki fikrlarni shakllantirish;

4)She'rning maqsadi, qurilishi va mazmunini boshqarish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Boboyev To'xta (2002) "Adabiyotshunoslik asoslari" Toshkent: O'zbekiston"

Quronov Dilmurod (2018) "Adabiyot nazariyasi asoslari" T.: "Navoiy universiteti"

Quronov D., Mamajonov Z, Sheraliyeva M "Adabiyotshunoslik lug'ati" T.: "Akademnashr"

Rustam Musurmon (2022) "Bir juft so'z" T.: "Adabiyot"

Mirzayev,T. Safarov O, O'rayeva D, (2008) "O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi" Toshkent

A'zam O'ktam, "Do'st haqida so'z" maqolasi

O'ZBEK ADABIYOTIDA ERKIN VOHIDOV HAJVIY SHE'RLARINING O'RGANILISHI

Davirova Xurshida Abdaxakim qizi,
ToshDO'TAU magistranti
xurshidadavirova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola Erkin Vohidov ijodidagi hajviy she'rlar yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, yaratilgan to'plamlar, ilmiy maqolalar haqida. Maqoladan, shuningdek, Erkin Vohidovning hajviyalari haqidagi fikrlari ham o'rin olgan. Jumladan, Erkin Vohidov "Donishqishloq latifalari" asari haqida shunday degan: «Donishqishloq latifalari»ni o'qib hamma kuladi. Vaholanki, men ularni alam bilan yozganman. Aql-idrokka zid, teskari ishlarimiz el boshiga kulfat va uqubatlar keltirayotgani sir emas-ku! Kosasi teskari qurilgan*

charxpalaklar kammi? O‘zimiz yaratgan qoliplarni tandirday kiyib olib, yo‘lni ko‘rolmay, osmonga qaragancha ketayotgan hollarimiz yo‘qmi?”

Kalit so‘zlar: *“Donishqishloq latifalari”, Matmusa, “Shum bola”, “Tabassum”.*

Abstract. *This article is about scientific researches, collections, and scientific articles on comic poems by Erkin Vahidov. The article also contains the opinions of Erkin Vahidov about his comics. For example, Erkin Vahidov said about the work «Anecdotes of Wise Villagers»: Everyone laughs after reading «Anecdotes of Wise Villagers». Although I wrote them with pain. It's no secret that our contrary and counterintuitive actions bring hardship and suffering to the people! Are there fewer bowls with an upside-down bowl? Aren't we wearing the molds we created like ovens, not seeing the road, but looking at the sky?»*

Keywords: *“Donishqishloq latifalari”, Matmusa, “Shum bola”, “Tabassum”.*

El suygan shoir Erkin Vohidov ijodi allaqachonlar bir mamlakat doirasidan chiqib, dunyo bo‘ylab tarqalgan. Dunyoning turli o‘lkalarida shoirning ovozi o‘zbekning ovozi yanglig‘ yangragan. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov haqida bir qancha to‘plamlar, maqolalar, esdaliklar e’lon qilingan. Shulardan biri filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyevning «So‘z sehri» kitobidir. 2006-yilda «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyotida chop etilgan ushbu to‘plamda O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning hayoti va ijodi haqida uning ustozlari, zamondosh ijodkor do‘stlari tadqiqotlari, mushohadalari jamlangan. To‘plamdan o‘rin olgan «Atoqli shoir, dilkash inson» nomli maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov odatda, katta iste’dodlarda hazil-huzulga moyillik, yumor hissi kuchli bo‘lishini ta’kidlab, Erkin Vohidovdagi samimiy kulgi, topqirlik, har qanday gapga «to‘n kiygizib» yubora olish qobiliyati ehtimol G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Ozod Sharafiddinovdek ustozlardan «yuqqan» bo‘lishi mumkinligini aytadi. «Donishqishloq latifalari» haqida shunday deydi: «Qalbida mo‘l-ko‘l yorug‘ tuyg‘ulari bor odamgina sodda-do‘lvor Matmusaning g‘aroyib

sarguzashtlarini shunday tasvirlashi mumkin. «Donishqishloq latifalari»ning o‘zida qancha dilbar tabassum bor. Ustozimiz Said Ahmad bilan safarga chiqqanda-ku, har qadamda bir hangoma tug‘iladi. Bir-birimizga qilgan beozor «shumlik»larimiz, hazil-huzullar hayotimizdagi nurli nuqtalardir».

To‘plamdan, shuningdek, filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatovning «Shoir tabassumi» nomli maqolasi o‘rin olgan bo‘lib, unda muallif Erkin Vohidovdagi yumor, hajviyani tahlilga tortgan.

Umarali Normatov ijodkorning «Donishqishloq latifalari» haqida so‘z ketganda shunday deydi: «Xalqona yo‘llarda, xalq latifalari ruhida bitilgan bu asar XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotidagi ijtimoiy satiraning yaxshi namunasidir. Soddadil Donishqishloq odamlari, Matmusa sarguzashtlari bilan bog‘liq bir qarshda shunchaki hazil, beozor tuyulgan she’riy latifalar o‘sha yillarning teskari haqiqatlari ustidan chiqarilgan o‘tkir aybnomalardir».

Donishqishloq latifalari»ni o‘qib hamma kuladi. Vaholanki, men ularni alam bilan yozganman. Aql-idrokka zid, teskari ishlarimiz el boshiga kulfat va uqubatlar keltirayotgani sir emas-ku. Kosasi teskari qurilgan charxpalaklar kami? Bir pardani tutgancha qolabergan, bir xil ohangni qo‘ymay chalabergan Matmusalar ozmi? - deydi Erkin Vohidov suhbatlardan birida ushbu asari haqida. - O‘zimiz yaratgan qoliplarni tandirday kiyib olib, yo‘lni ko‘rolmay, osmonga qaragancha ketayotgan hollarimiz yo‘qmi? Bular kulgili ishlarmas, achinarli, ofatli hodisalar».

Umarali Normatov maqolasida «Tandir kiygan Matmusa»ni tahlilga tortadi va shunday xulosaga keladi: «Axir XX asrda tandir kiyib yo‘lga tushib, ixtiyorni «dono» yetakchilarga topshirib, adashib manzilga yetolmay boshi ham yo‘q, cheki ham yo‘q cho‘lda sarson bo‘lganlar ozmi!?»

Filologiya fanlari doktori, professor Abdug‘afur Rasulovning «She’r qolur, shoir qolur» maqolasida Erkin Vohidovning hajviy yo‘lda yozilgan «Shum bola» she’ri tahlil qilinadi. Muallif she’rdagi timsollarni quyidagicha izohlaydi: Zamonaviy Shum bola timsolida shoir haq so‘zi bilan zamonaviy boy - tuzumning o‘takasini yorayozdi. Har xil yolg‘on ichra baliqday suzadigan Zamonaviy boy

Shum bola rostgo‘yligidan hangu-mang bo‘ldi, uvol musichaday mo‘ltirab turgan rostgo‘y bolani quvib soldi:

Yo‘qol, seni ishga olsam
Xonavayron bo‘laman
Yolg‘oningdan omon qoldim,
Rost gapingdan o‘laman!

2016-yilda O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan el ardoqlagan shoir Erkin Vohidov hayoti, ijodi haqida taassurotlar, talqinlar, tahlillar hamda tadqiqotlarni o‘zida jamlagan «To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov: hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida» nomli to‘plam nashr etilgan.

Ushbu to‘plamda Erkin Vohidov ijodida hajv yo‘nalishining o‘rni haqida juda ko‘p o‘rinlarda fikr bildirilgan.

Jumladan, O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon «Xalqqa kerak bo‘lish baxti» maqolasida bu haqda shunday degan: «Shoirning satirik she’rlari kulgi ixlosmandlari orasida tez tilga tushdi. «Siyosiy saboq», «Majlis qiling», «Sen menga tegma», «Shaharmi bu, qishloqmi bu», «Yomonning so‘zi» yanglig‘ she’rlar o‘zbek nazmiy satirasini yangi pog‘onaga ko‘tardi. Matmusa turkumiga kiruvchi hajviy she’rlar katta dovruq qozondi. Bular «qizil imperiya»ning siyosiy o‘yinlariga, do‘lvari ishlariga ochiq-oydin parodiya edi».

Anvar Obidjon bu boradagi fikrlarini o‘zining navbatdagi «Kulgu - ochiqko‘ngillik guvohnomasi» maqolasida batafsil keltirgan. Muallif o‘xshatib kuldirishni uddalay olgan adib, payti kelganda, «jizillatib chaqish»ni ham o‘rniga qo‘ya olishini aytib o‘tadi. Bunga misol tariqasida «Matmusaning uylanishi»ni keltirgan. Buni eski tuzumning yolg‘onlari ustidan ochiqchasiga kulish sifatida baholab, buning uchun ijodkorga otning kallasiday yurak kerak bo‘lishini ta’kidlaydi.

Ijodkorning «Shaharmi bu, qishloqmi bu», «Siyosiy saboq yoki Bek Bekovning g‘aroyib sarguzashti», «Bir tavakkalchi deydiki», «Sen menga tegma», «Majlis qiling», «Qumursqalar jangi» kabi hajviy she’rlari ham hali-hamon o‘z

dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Chunki bu she’rlarda hajvga olingan illatlar hamma davrda ham topiladi.

Ijodkorning barcha hajviy she’rlari «Tabassum» nomi ostida to‘plam holida nashr etilganda Anvar Obidjon shunday degan ekan: «Hajviy she’rlarning alohida to‘plamga jamlanganligi zap yaxshi ish bo‘libdi. Bu to‘plam Erkin akaning hajviyotdagi yaqqol his etishimizga ko‘mak bersa, ajabmas».

Taniqli san’atshunos Otanazar Matyoqubovning to‘plamdan o‘rin olgan «Erkin Vohidovning musiqiy qarashlari» mavzusidagi maqolasida shoirning «Donishqishloq latifalari» asari tahlil qilinadi. So‘z avvalida parda, maqom haqidagi nazariy ma’lumotlarni aytib o‘tgan muallif Matmusaning xotiniga dutorni ko‘rsatayotgan sahnasini keltiradi. She’rning kulgi uyg‘otuvchi bandlari Matmusaning dutorni tanishtirib bo‘lgandan keyingi so‘zlarida ko‘rinadi:

Bir mahal bobomda ham
Shunday cholg‘u bor edi.
Esimdan adashmasam,
O‘sha ham dutor edi.

Lekin u chalmay turib,
Qulog‘ini burardi.
Barmog‘i ham manov ip
Ustida yugurardi.

Sen bo‘lsang bitta yerni
Tutgancha qolaverding.
Bir xil ting‘ir-ting‘irni
Qo‘ymasdan chalaverding.

Maqola muallifi Erkin Vohidovning qo‘shiq haqidagi latifasiga ham e’tibor qaratgan. Unda Matmusada qo‘shiq kuylashga ishtiyoq uyg‘onadi:

Lekin Matmusa qo‘shiqlari odamlarga yoqish-yoqmasligi haqida o‘ylamaydi.

U qo‘shiq aytishga shunchalik berilib ketadiki, natijada, odamlar undan qochadigan bo‘lishadi. Uning xonishi odamlarni juda bezor qilgan bo‘lishiga qaramay, she’r shunday kutilmagan yakun topadiki, odamlar Matmusaning qo‘shig‘idan boshqa qo‘shiqni eshitishni xohlamay qolishadi.

Muallif shunday xulosa qiladi: «Chinakam shoirlar azaldan elning dardini izhor etishdan toliqmaganlar. Ularning go‘zal baytlari tubsiz ma’naviy ozuqa, adab va ikrom yo‘lida ibrat bo‘lib kelgan. Lutf bilan aytgan hazil-mutoyibalari esa, Matmusalarning tanobini tortib qo‘yishga xizmat qilgan».

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyev «Go‘zallikning rango-rang to‘lqinlari» maqolasida shunday deydi: «…yumor aytayotganda quvonchi emas, balki qayg‘usi, hasrati, achinishi bo‘lishi ham mumkin. Kulgi orqali kuldirayotgan shaxs kulgiga sabab bo‘layotgan shaxsning ayanchli holatini ko‘rsatadi, ko‘ringlar, eshitinglar, siz hech qachon bu holatga tushmang, tushsangiz, albatta, kulgu bo‘lasiz, sharmanda bo‘lasiz, demoqchi bo‘ladi».

Muallif Erkin Vohidov hajviyalari ichidan «Donishqishloq latifalari»ni tahlilga tortadi. To‘g‘ri, unda yengil yumor bor, hazilnamo, kulgili holatlar bisyor, tabiiylik bor. Lekin hammasidan eng muhimi unda achinish bor. Ijodkor uni shunchalar sodda odamlarning vaziyatiga qayg‘urish bilan yozgan.

Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodkorning hajviyalarida Farg‘ona tabiatiga xos yumor, latofat aks etganiga e’tibor qaratgan. Yana bir o‘ziga xosligi sifatida esa ushbu hajviyalardagi beozorlikni aytib o‘tgan: «…yana bir jihati beozorligi, «yumshoqligi» bilan ham mashhur bo‘lgan. Demak, uning yumorlari g‘azabga olib bormaydi, nafratga olib bormaydi. Aytilmoqchi bo‘lgan gap kulgu, erkalash orqali aytiladi».

Professor Nuriddin Shukurov o‘zining «Shoirning yulduzi» maqolasining «Keng ko‘lam va teranlik» qismida Erkin Vohidov «Donishqishloq latifalari»da xalq og‘zaki ijodi an’analari, xususan, ertaklar va latifalardan mohirona foydalanganiga e’tibor qaratadi. «Tandir kiygan Matmusa» latifasida «Matmusadek o‘zimiz tandir kiygan bo‘lmaylik» deyish bilan shoir umuman g‘aflatga botib, taraqqiyotning katta yo‘lidan chetga chiqib adashib yurgan, orqada

qolgan odamlarga kesatiq qilmoqda, ularni g‘aflatdan ogoh qilmoqda», deya o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan Nuriddin Shukurov.

Muallifning navbatdagi «Shirin va achchiq dostonlar» maqolasida esa Erkin Vohidovning «Palatkada yozilgan doston»i tahlilga tortilgan. Muallif o‘z maqolasida ushbu dostonning «Shahar ijrokomining raisiga oshiqlardan ariza» bobi xususida so‘z yuritib, uning o‘quvchida, ayniqsa, ajib tabassum uyg‘otuvchi o‘ziga xos hazil-mutoyiba bilan yozilganligiga e’tibor qaratgan. Bu haqida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: «Yoshlar bu arizada shaharda oshiqlar shaharchasi qurib berishni so‘raydilar, unda «Vafo» nomli ko‘cha, «Ahd-paymon» nomli maydon, «Visol» nomli xiyobon bo‘lishini iltimos qiladilar, u shaharchada Farhod, Shirin, Tohir, Zuhra, Romeo, Julyettalarga haykal o‘rnatishni orzu qiladilar. Xullas, bu bob shirin bir xayol, ezgu bir orzu sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, shoir fantaziyasining ajoyib mahsulidir».

Professor No‘mon Rahimjonovning «Erkin Vohidovning adabiy-estetik qarashlariga doir» nomli maqolasida shoir ijodiga xos xususiyatlar, jumladan, «Donishqishloq latifalari» haqida o‘zining quyidagi xulosalarini keltirgan: «ErkinVohidov hayotdagi, jamiyatdagi, odamlar tabiatidagi xunuklikni, noqislik ko‘rinishlarini detallashtirib suratlantirish orqali go‘zallikni ulug‘laydi. Bu hol, ayniqsa, «Donishqishloq latifalari» turkumidagi Matmusaning fe’li-faoliyati ifodasida bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Hayotdagi odamlar bilan yonma-yon yashab kelayotgan ma’naviy-axloqiy illatlarni inkor etadi».

Erkin Vohidovning ijoddagi shiori she’rida aytganidek:

El - ustozim, men esa - tolib,

So‘z durlarin termoqdir ishim.

Odamlarning o‘zidan olib,

Odamlarga bermoqdir ishim, -

bo‘lgan va bir umr shu qoidaga amal qilib yashagan. Shu tufayli ham uni chinakam xalq shoiri sifatida hurmat qilamiz, she’rlarini miriqib o‘qiymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov. E. (2016) Tabassum//To‘la asarlar to‘plami, 4-jild. – T.: “SHARQ”,.38-73-betlar.

2. Normatov. U. (2007) Shoir tabassumi//Ijod sehri. – T.: “SHARQ”,.162-173-betlar.

3. Vohidov Erkin (2016) To quyosh sochgayki nur… hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. T.: “O‘ZBEKISTON”,

O‘ZBEK SOTSIUM NUTQIDAGI MILLIY-MADANIY O‘ZIGA XOSLIKLARNING VOQELANISHI

Hamrayeva Shahlo Odil qizi,
ToshDO‘TAU OTAT fakulteti 2-kurs talabasi
shahlohamrayeva9@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalqining milliy-madaniy urf-odatlari, qadriyatlari, milliy kiyimlari, kiyinish madaniyati, milliy taomlari batafsil yoritilgan. Ayrim viloyatlardagi turli so‘zlarning bir xil ma’noni anglatishi, bir xil so‘zning esa turli ma’nolarda kelishi bo‘yicha ma’lumotlar kiritilgan.*

Kalit so‘zlar: *urf-odat, qadriyat, an’ana, madaniyat, milliylik, zamonaviylik.*

Abstract. *This article describes in detail the national and cultural traditions, values, national costumes, dress code, national cuisine of the Uzbek people. Information on the meaning of different words in some regions and occurrence of the same word in different meanings in included.*

Keywords: *customs, values, traditions, culture, nationality, modernity.*

Bugungi rivojlangan zamonda o‘zbek xalqining urf-odatlari asrlar bo‘yi o‘zbek millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an’analarining uyg‘unlashuvidagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o‘ziga xos yorqin va turli-tuman bo‘lib, urug‘chilik patriarxal munosabatlaridan kelib chiqadi. Urf-odatlarning ko‘pchiligi oilaviy hayotga oid bo‘lib, bolaning tug‘ilishi va tarbiyasi (beshik to‘yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to‘yi, to‘y) bilan bog‘liq bo‘ladi. *“O‘zbek xalqi nikoh to‘y marosimlarini boshlab beruvchi dastlabki marosim sovchilik hisoblanadi. Sovchilar to‘g‘risidagi ilk ma’lumotlarni VII-VIII asrga oid O‘rxun-Enasoy bitiklarida uchratamiz. Buyuk davlat arbobi To‘nyuquq (VII asr) bitiktoshida*

“sov” *– kalimasi* ***“sab” - so‘z, gap*** *ma’nosida ishlatilgan. O‘rta asrlarning mashhur tilshunosi Mahmud Koshg‘ariy bu xususda* ***“sovchi – kelin va kuyov orasida bir-biriga xabar eltuvchi”****, - deb yozgan. Demak bundan yangi oilaning paydo bo‘lishidagi sovchilik udumi uzoq o‘tmishda ham mavjud bo‘lganligiga amin bo‘lamiz”* (Haydarov, 2014, 122-bet). Ko‘pincha ular islom urf-odatlarining sehrgarlik amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan undan ham qadimiyroq shakllarga uzviy kirib ketishini namoyon etadi. Islom dini qabul qilinganidan beri ko‘pgina oilaviy-maishiy urf-odatlar uning ta’sirida o‘zgargan, o‘zbeklarning hayotiga musulmon diniy marosimlari kirib kelgan. Juma kuni bayram kuni hisoblanadi va shu kuni barcha yig‘iladigan masjidda umumiy namoz (duo) o‘qiladi. Patriarxal urf-odatlar masjid, choyxonalar, bozorda o‘tadigan hamda faqat erkaklar ishtirok etadigan ijtimoiy hayotda hozirgacha ham yashamoqda. Milliy urf-odat va an’analarda butun bir xalqning ijtimoiy ehtiyojlari, axloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o‘ziga xos ravishda mujassamlashgan bo‘ladi. Qaysi bir urf-odat va an’anani, udum yoki marosimni kelib chiqish sabablarini o‘rganmasdan turib qaraydigan bo‘lsak, ular bir qarashda be’mani, behuda bo‘lib ko‘rinadi. Aslida esa ularning barchasi kelib chiqishi bo‘yicha xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy faoliyati natijasida vujudga kelgan va ularning ma’lum ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilgan. O‘rta Osiyo va Kavkaz xalqlarining ayrimlarida mavjud va hozirgi kunda eskilik sarqiti deb qoralanadigan “Qalin” berish odatini o‘rganishgan ba’zi olimlar hozirgi davrga kelib, bu odat faqat ramziy qiymatga ega bo‘lib qolganini ta’kidlashadi.

Urf-odat va an’analar ko‘pincha sinonim so‘zlar sifatida ishlatilsa ham, bu terminlar tushunchalar o‘rtasida faqat terminologik tafovut bo‘lib qolmasdan, yana ma’no jihatdan ham farqlidir. Urf-odatlar asosan oilaviy, maishiy sohalar bilan bog‘langan bo‘ladi va unda axloqiy, diniy va huquqiy normalar to‘la o‘z aksini topadi. *“Urf-odatlar kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi, xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko‘nikmalaridir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo‘yish, mehmonlarga alohida hurmatda*

bo‘lish, yordam lozim bo‘lganlarnikiga hasharga borish kabilar o‘zbek xalqining eng yaxshi milliy odatlari hisoblangan” (Safarov, 2010, 124-bet). An’analar esa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida mavjud bo‘lish bilan birgalikda, yana kelib chiqish jarayonini ham qamrab oladi. *“An’ana-o‘ziga xos ijtimoiy hodisa bo‘lib, kishilarning ongida, hayotida o‘z o‘rnini topgan, avloddan-avlodga o‘tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma’lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalar silsilasidir. Agar an’ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo‘lib, hodisalarni juda keng doirada qamrab olsa, odat ijtimoiy hayotning ma’lum sohalarida, ya’ni kishilar turmushi, mehnati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida ko‘proq mavjud bo‘ladi”* (Safarov, 2010, 125-bet). An’anada kishilarning narsa va buyumlarga, tabiatga bo‘lgan munosabatlari ifodalanadi. Ma’lumki, san’at va adabiyotda, oliy o‘quv yurtlarida, sport va ishlab chiqarish jamolarida urf-odat bo‘lmaydi, balki an’analar mavjud. Masalan, oliy o‘quv yurtiga kirgan yoshlarning talabalar safiga qabul qilinishi, yirik sport musobaqalarida g‘olib sportchi sha’niga mamlakat bayrog‘ining ko‘tarilishi va madhiyaning yangrashi bular an’analar hisoblanadi.

Endi udum va marosimlarga keladigan bo‘lsak, ular kuchli psixologik va hissiy ta’sir etish kuchiga ega bo‘lib, shular yordamida urf-odat va an’analar bevosita yuzaga chiqadi. Udum u yoki bu urf-odat va an’ananing bajarish vaqtida amal qilinadigan tartib va qoidalar. Marosim esa, udumni ko‘z-ko‘z qilib turadigan tashqi bezagi tasviri, ya’ni bajarilishi jarayonidir. O‘zbek oilalarida o‘tadigan biron-bir yig‘ilish, marosim, tantanali to‘y-tomoshalar, hashar va obodonlashtirish ishlari kattalarsiz, keksalarsiz, ularning maslahatisiz o‘tmaydi.

Xalqimizning milliy urf-odat va an’analarimizni tasnif qiladigan bo‘lsak, hammasi o‘zgacha va turlicha. Masalan, milliy kiyimlari, taomlari, marosimlari, milliy hunarmandchilik turlari kabilar. Milliy kiyimlariga ayollar uchun zar chopon, do‘ppi va atlas; erkaklar uchun do‘ppi, chopon, belbog‘ va yaxtak kiradi. Endi milliy liboslarimizning xususiyatlariga to‘xtalsak.

“Do‘ppi - O‘zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do‘ppi asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. O‘zbekiston Chust, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Boysun, Shahrisabz do‘ppilari mashhur. Ayniqsa, Chust do‘ppilari keng tarqalgan bo‘lib, O‘zbekistonning deyarli hamma viloyatlarida tayyorlanadi. Chust do‘ppisining tepasi kvadrat shaklda bo‘rtib chiqadi, boshqalarining tepasi yarim shar shaklida bo‘ladi. Do‘ppi tikuvchi chevar *“do‘ppido‘z”*, do‘ppi tikish kasbi esa *“do‘ppido‘zlik”* deb ataladi. Do‘ppilarning turlari juda ham ko‘p. Masalan, urgutcha *“qalpoq”,* Buxoroning zar tikilgan do‘ppilari, shahrisabzcha *“gilam do‘ppi”*, Kitob va Shahrisabz do‘ppilari *“sanama”* va *“chizma”, “taqya”, “tayxa”, “chumakli”, “kush”* - Xorazmning erkak va ayollari kiyadigan do‘ppilari mavjud.

Atlas – O‘zbekistonda keng tarqalgan ayollar libosidir. Bu libos ipakdan tayyorlanadi. O‘zbekistonda ipakchilik rivojlanganligi uchun atlas deyarli hamma viloyatlarda kiyiladi. Atlas qadimiy va milliy liboslardan biridir. Bu libosga har xil shakllar berib bezashadi. Bu esa o‘zbek ayollarini yanada jozibali qiladi. O‘zbekistonda eng mashhur atlas Marg‘ilon shahrida to‘qiladi.

Zar chopon - o‘zbek ayollarini qishda sovuqdan saqlovchi, yozda issiqdan saqlovchi kiyimdir. Bu chopon asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Chopon o‘zbek xalqini qadimiy liboslaridan biridir. Bu o‘zbek ayollari uchun go‘zallik ifodasidir. Bu chopon O‘zbekistonning deyarli barcha joylarida kiyiladi” (https://uzsmart.uz/savol-javob/view/384.html).

“Xalq turmush tarzi va ma’naviyatining asosiy qismini uning urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari tashkil qiladi. Jumladan, mustaqillik yillarida urf-odatlarimiz qaytadan tiklana boshlanadi. Oldingi davrda qadriyat va urf-odatlarimizga eskilik sarqiti sifatida qarashgan. Ayniqsa, SSSR davrida umuman qadriyatlarimiz inobatga olinmagan. Mustaqillik yillarida xalqimizning azaliy urf-odatlarini tiklash borasida amalga oshirilgan ishlarni ta’kidlab o‘tish joiz deb hisobladim. Negaki, mustaqillikdan keyin yurtimizda urf-odatlarimiz qaytadan tiklandi. 80-yillar oxirdagi ba’zi nomaqbul yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatib o‘tish kerak. 1986-yil yanvar-fevralda O‘zkompartiyaning XXI syezdi bo‘ldi. Syezdda ***“din***

millatchilik va shovinizmga har doim yo‘l ochishini iqtisodiy, sotsial taraqqiyotga to‘sqinlik qilishini, sotsialistik turmush tarzi, kommunistik ma’naviyatning qaror topishiga to‘sqinlik qilishini har doim esda tutmoq kerak” *– deb ko‘rsatma berildi. Bunday yo‘l-yo‘riq 1986-yil oktabr oyida bo‘lgan partiya Markaziy Komitetining III Plenumida yana bir bor ta’kidlandi. Ana shu ko‘rsatmalarga amal qilinib, 1980-yillar o‘rtalarida o‘zbek xalqi azaldan sevib, ardoqlab kelgan urf-odatlar va marosimlar, bayramlar cheklab qo‘yildi, ba’zilarining o‘rniga boshqa bayramlar va marosimlar to‘qib chiqarildi. Natijada avvallari nishonlanadigan* ***“Hosil bayrami”, “Qovun sayli”, “Gul sayli”*** *va boshqa bayramlar unutib qo‘yildi.* ***“Navro‘z”*** *bayrami esa avval taqiqlandi, so‘ng sun’iy tarzda* ***“Navbahor”*** *bayramiga aylantirildi. Bu xatti-harakatlar xalqimizga bo‘lgan shavqatsizlikdir. Ana shunday bir paytda Respublika rahbarligiga kelgan I. A. Karimov kishilarning ma’naviy boyishiga, milliy madaniyatlarning bir-biri bila yaqinlashuvi va o‘zaro rivojlanishiga yordam beradigan xalq an’analari va bayramlarini tiklashga katta e’tibor berdi. Natijada bu sa’y-harakatlar asta-sekin urf-odatlarning qayta tiklanishiga turtki bo‘ldi. Masalan, sevimli bayramimiz hisoblangan “Navro‘z” bayrami birinchi Prezidentimiz farmoni bilan 1991-yil 21-mart bayram sifatida nishonlanadigan bo‘ldi”* (https://mbaza.uz/anywork/milliy-urf-odatlar-qadriyatlar-va-ananalarning-tiklanishi/).

Har yili 21-mart bayram sifatida nishonlanadi. ”Navro‘z” bayramining kirib kelishi ilk bahor nishonalaridan deb aytishadi. 21-mart yangilanish, yangi yil boshlanishi sifatida qaraladi. Ajdodlarimiz Navro‘z bayramini juda ham muqaddas bilganlar. Xalqimizning islomiy bayramlaridan Eid al-Fitr (Hayit bayrami) va Eid al-Adha (Qurbon hayiti bayrami) kabi bayramlari ham bor. Bu bayramlar umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Hozirgi davrda xalqimizning milliy mentalitetini o‘zida aks ettiruvchi qadimiy urf-odatlari, marosimlarini saqlab qolish uchun “quyidagilarga alohida e’tibor qaratish zarur:

1. Qadimiy urf-odatlar, folklor namunalari saqlanib kelayotgan mintaqalar

(Boysun, Urgut, Shahrisabz kabilar)ni davlat muhofazasiga olish va ularga maxsus maqom berish.

2. Xalq mentalitetidagi ijobiy jihatlarni asrab qolish va saqlash maqsadida etnoekologik jamg‘armalar, tashkilotlar tuzish.

3. Xalqimiz milliy mentalitetiga oid eng qadimiy urf-odat va marosimlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib qolish” (Ashirov, 2008, 140-bet).

O‘zbek xalqida o‘z navbatida “kiyinish madaniyati” tushunchasi ham bor. Har bir xalq o‘z milliyligidan chetlashmagan holda madaniyatga mos kiyinishi lozim. Har bir davlatda xuddi bizning davlatimizdek ularni ham o‘z milliy liboslari bor. Masalan, Yevropa davlatlarida kiyinish madaniyati boshqacha bizda boshqacha. Ammo hozirgi kunda kiyinish madaniyati tamomila o‘zgarib ketdi. O‘zbek xalqi ham chet eldan o‘rnak olib, madaniyatimizga mos kelmaydigan kiyimlar kiyishmoqda. O‘zbek xalqi tobora o‘z milliyligidan chetlashib ketmoqda. Zamon bilan hamnafas yashash degani milliylikdan chetlashib, chet eldan nusxa olish degani emas, balki milliylikni saqlab qolish lozim. O‘zbek xalqining milliy liboslari xususida gaplashgandik. Milliyligimizga sodiq qolgan shaxs haqiqiy o‘zbek farzandidir. Ommaviy madaniyat xalqimizni ongini egallab olishiga yo‘l qo‘ymasligimiz lozim. Millat, xalq bor ekan, uning ma’naviy dunyosida milliy jihatlar saqlanib qoladi. Bizning o‘zbeklarning milliy ma’naviyati, erkak va ayollarning o‘ziga xos sharqona fazilatlari, ota-ona va farzand munosabati, iymon, vijdon, halollik bilan bog‘liq, ma’naviyati faqat o‘tmish sadosi emas, balki hozirgi kun uchun ham xosdir. Shu bilan birga milliy o‘z-o‘z anglashning tiklanishi va jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari, ideallaridan, bizning ko‘p millatli jamiyatimiz an’analaridan ajratib, sog‘lom avlodni tarbiyalash, komil inson voyaga yetkazish borasidagi tarbiyaviy ishlarni milliy ma’naviyatimiz boyliklari bilan birga umuminsoniy ma’naviyat boyliklaridan foydalanish negizida ko‘rmog‘imiz lozim. *“Milliy urf-odatlar, an’ana, qadriyat va udumlarimiz umrboqiydir. Bizning madaniyatimizda, milliyligimizda or-nomus, vijdon, halollik, to‘g‘riso‘zlik kabi fazilatlar ulug‘lanadi. Mintaqamizga sayohat qilgan bir olimni fikrlarini keltirib o‘tsam. Mojor olimi Herman Vamberi “Buxoro*

yoxud Movarounnahr tarixi" asarida Oltin O'rdadagi o'zbeklarning musulmoncha tarbiyalanganini, savdo-sotiqda og'ir vazminligi, oqko'ngillilik va samimiyligini, kamgapligi, dovyurakligi, oilaviy munosabatlarda pokligini, andisha bilan to'g'ri so'zlashini, ota-onaga hurmati va e'tiqodi kuchliligini, birinchi bo'lib o'tirmaslik va birinchi bo'lib so'z boshlamasligini, dinga e'tiqodi kuchli ekanligini ko'rsatib o'tadi" (https://fayllar.org/milliy-urf-odatlar-diniy-qadriyatlarning-tiklanishi.html).

O'zbek milliy taomlari juda ham xilma-xil va rang-barangdir. Sharq madaniyatida mehmonning dasturxoniga turli shirinliklar, shirin taomlar tayyorlab olib kelish odatga aylangan. O'zbek milliy taomlari dunyoda juda ham mashhur hisoblanadi. O'zbek milliy taomlarining uzoq tarixi bor. U katta tarixga ega bo'lib, o'zbek tili, madaniyati va an'analari bilan uzviy bog'liq. O'zbek oshxonasi O'rta Osiyoning boshqa turkiy xalqlaridan farqli o'laroq, turli xil xalqlar oshxonasi va madaniyatining ta'siri ostida xilma-xillikka egadir. Ushbu xilma-xillik, o'zbeklarning bir qismi turg'un, bir qismi esa ko'chmanchilik qilib boshqa xalqlar taomlarini o'zlashtirgan va ana shunday unikal xilma-xillikka erishgan. Ushbu bog'liqliklar sababli o'zbek taomlari dunyoda eng mashhurlardan biridir. Har bir xalqning milliy taomlari bo'lganidek, o'zbek xalqining mashhur milliy taomlari bor. Qashqadaryo milliy taomlaridan sizga ham havola qilishni xohladik. O'zbek milliy taomlari:

- *Suyuq taomlar: qiymali sho'rva, chuchvara sho'rva, qovurma sho'rva, mastava, moshxo'rda, moshqovoq, qurtova, go'jaosh, goroxli sho'rva, atala va h.k.*
- *Quyuq taomlar: shirguruch, shuvla, suvli kartoshka, moshkichiri, palov, do'lma, qotirma, qozon kabob, qovurdoq, dimlama va h.k.*
- *Xamirli taomlar: somsa, chuchvara, tuxumli barak, manti, lag'mon, norin, hasip, laqcha, g'ilvindi, ugrapalov, cheburik va h.k.*

O'zbek milliy taomlari ana shunday xilma-xil va mazali. O'zbek palovi dunyoga mashhur taomlardan biri. Bu taomni hamma sevib iste'mol qiladi. *"Hattoki, 2016-yilda o'zbek palovi YuNESKOning nomoddiy madaniy meros*

ro‘yxatiga kiritildi” (Jo‘rayev, 2018, 98-bet). Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek palovi juda ham mashhur. Bu o‘zbek xalqining milliy va madaniy o‘zgachaligidir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek xalqining madaniyati jahonning boshqa madaniyatlariga nisbatan milliy va an’anaviydir. Hozirgi keng rivojlanayotgan zamonda abadiy qadriyatlarimizning yo‘qolib borayotgani sir emas. Agar biz Yevropa madaniyatiga taqlid qilishni davom ettirar ekanmiz, yaqin orada o‘z milliyligimizni, qadriyatlarimizni yo‘qotib qo‘yamiz. O‘zligini, tarixini yo‘qotgan xalq hech qachon xalq bo‘la olmaydi. U xuddi manqurt kabidir. Manqurt bo‘lib qolmaslik uchun bugungi kun yoshlari ya’ni biz, o‘zbek xalqi madaniyatini Yevropaga tamomila olib kirishimiz kerak. Chunki millatning millat ekanligini bildiruvchi bir qismi uning urf-odatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirov, A., Atadjanov, Sh. (2008). *Etnologiya*. Toshkent: Iqtisod-moliya.
2. Haydarov, Z. (2014). *Nomoddiy madaniy meros*. Namangan.
3. Jo‘rayev, N., Zamonov, A. (2018). *O‘zbekiston tarixi*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
4. Safarov, A. (2010). *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.* Toshkent: Musiqa.
5. https://uzsmart.uz/savol-javob/view/384.html
6. https://mbaza.uz/anywork/milliy-urf-odatlar-qadriyatlar-va-ananalarning-tiklanishi/
7. https://fayllar.org/milliy-urf-odatlar-diniy-qadriyatlarning-tiklanishi.html

RUSTAM MIRVOHID IJODIDA G‘AZAL JANRI

Hoshimova Osiyo Hikmatilla qizi,
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik (adabiyot nazariyasi)
mutaxassiligi 1-kurs magistranti
osiyohoshimova1999@gmail.com

Annotatsiya. *Mustaqillik barcha sohalar singari adabiyotning ham erkin va hur bo‘lishiga imkon berdi. Bunday imkon, albatta, ijodkorlar ijodining gullab-yashnashiga va o‘zi istagan yo‘ldan borishiga xizmat qildi. Bir qism ijodkorlar jahon adabiyoti janrlarida, yana bir qismi esa o‘zbek mumtoz adabiyoti janrlarida*

ijod qilishmoqda. Albatta, adabiyotda har bir ijodkorning o‘ziga xos o‘rni bor. Quyida maqolamiz orqali g‘azal janrida samarali ijod qilib kelayotgan shoir Rustam Mirvohidning g‘azallarini tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: *Shoir, g‘azal janri, aruz, poetik xususiyat, badiiy san’atlar, bahr, rukn.*

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti adabiyotning boshqa davrlaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Masalan, bu davrda ijod qilayotgan ijodkorlar turli janrlarda ijod qilishmoqda. Ayniqsa, bunday xilma-xillik nazmda sezilarli darajada kuzatilmoqda. Shuningdek, mumtoz adabiyot an’analarini davom ettirayotgan ijodkorlarning borligi ham quvonarli. Ana shunday ijodkorlardan biri sifatida biz yosh shoir Rustam Mirvohidni ko‘rsata olamiz. Chunki shoir aruz vaznining g‘azal janrida samarali ijod qilib kelmoqda. Uning 2019-yildan keying ijodini g‘azal janrida yozilgan she’rlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda shoir ijodida yigirma bitta g‘azal mavjud. Maqolamizda Rustam Mirvohidning ayrim g‘azallariga murojaat qilamiz va ularning poetik xususiyatlariga to‘xtalamiz. Tahlilni dastlab shoirning ilk g‘azallaridan boshlasak. Rustam Mirvohid o‘zining ilk g‘azalini 2006-yilda yozgan va bu g‘azalni “Hidoyat nuri” deb nomlagan.

Qaysiki dilda hidoyat uchquni mash’al yoqur,
To‘g‘ri yo‘ldan hech adashmay doimo ildam boqur.

Deydi el yurganni – daryo, yurmaganni – bo‘riyo,
Qaysi ko‘lmak misli daryo mavj urib yayrab oqur?

Chun qilingan pok amalni so‘zlamoq joiz emas,
Ming taassufkim, birovga ushbuni aksi yoqur.

Ba’zi bir hikmatga aqlim etmagaykim, vo ajab:
“O‘ng qo‘ling mehnat qilar, lek chap qo‘ling soat toqur”.

Rustamo, tan mulkida ruh ganjini pokiza tut,
Chunki, Ul kun, bul haqiqat – Sohibi darcha qoqur.

Ushbu g‘azal ramal bahrining ramali musammani mahzuf vaznida bo‘lib, afoiyli- foilotun foilotun foilotun foilun. Taqtiyi quyidagicha: --v-- -v-- -v-- -v-.

Ramal bahri turkiy she’riyatda eng ko‘p qo‘llanilgan bahr bo‘lib, deyarli barcha shoirlar ijodida yetakchi o‘rinda turadi. “Ramal” so‘zi arabcha “tuyaning lo‘killashi”, “bo‘yra to‘qish” degan ma’noni anglatadi. Endi esa G‘azalda qo‘llanilgan badiiy san’atlarni o‘rgansak. Badiiy san’atlarning ikkinchi katta guruhi ma’noning birlamchiligiga asoslanib, badi’ ilmida ma’naviy san’atlar deb yuritiladi. Ushbu G‘azalning ikkinchi baytida ma’naviy san’atlardan biri bo‘lmish irsoli masaldan foydalanilgan. Baytda keltirilgan fikr “Yurgan daryo, o‘tirgan bo‘yra”,- degan xalq maqoliga to‘g‘ri keladi. G‘azalning to‘rtinchi baytida ham irsoli masalga keltirilgan hikmat orqali misol ko‘ramiz. Ma’naviy san’atlardan yana biri bo‘lgan o‘xshatish, ya’ni tashbeh san’atiga misollar keltirsak: “Hidoyat uchquni”, “Misli daryo”, “Tan Mulkiday”, “Ruh ganji”, “Haqiqat sohibi”. Aytish mumkinki, sanab o‘tilgan o‘xshatishlarni tashbehning bir nechta turlariga tasniflay olamiz. G‘azalning ikkinchi baytida keltirilgan tashbeh tashbehi mufassal hisoblanadi. Xuddi shunday, tashbehi mufassalga G‘azalning beshinchi, ya’ni oxirgi baytini misol qilib keltirishimiz mumkin. G‘azalning birinchi baytidagi “Hidoyat uchquni” tashbehi tashbehi muyaqqadga misol bola oladi. Bu yerda shoir “Qaysiki insonning qalbi pok bo‘lib, unda hidoyat bo‘lsa, u inson hech qachon to‘g‘ri yo‘ldan adashmaydi” demasdan biryo‘la “Hidoyat uchquni mash’al yoqur” deb qo‘ya qolgan. Oxirgi, beshinchi baytdagi “Haqiqat sohibi” tashbehi buyuk Alloh taologa nisbatan qo‘llanilgan. Zero, haqiqat sohibi deyilmoqqa yolg‘iz Alloh taolo haqli Zotdir. Shubhasiz, beayb Parvardigor. G‘azalda husni ta’lil san’atidan ham foydalanilgan.

Shoir bu yerda qiyomat kunida barcha maxluqot savol-javob qilinishini “Haqiqat sohibi” darcha qoqishi, ya’ni Alloh bilan har bir banda, nainki banda, balki barcha maxluqotlar yuzma-yuz kelishi, degan fikr bilan asoslamoqda. G‘azalda tanosub san’ati ham qo‘llanilgan: bu g‘azalda dil, hidoyat, uchqun, mash’al, ko‘lmak, daryo, qo‘l, soat, tan, ruh so‘zlari o‘rtasida o‘zaro mutanosiblik bor. Nido she’riy san’atiga beshinchi baytdagi “Rustamo” so‘zini misol qilib

olishimiz mumkin. Shu o‘rinda g‘azalda keltirilgan mushtarak san’atlarga to‘xtalsak. G‘azalda tazod san’ati ikkinchi va to‘rtinchi baytlarda qo‘llanilgan. Masalan: yurganni, yurmaganni, o‘ng qo‘ling, chap qo‘ling so‘zlari tazodga misol bo‘la oladi. G‘azalning shohbayti ham muhim ahamiyatga ega. Bu yerda shohbayt sifatida oxirgi, beshinchi baytni olishimiz mumkin. Chunki shoir ushbu baytda baytma-bayt rivojlantirib kelayotgan fikrlarini ochiq bayon qiladi.

Eshit, ey yor, dilim sozi, chaman bo‘ylab jaranglaydur,
Qo‘shildi bulbul ovozi. hamohanglikda yangraydur.

Necha yillar yugurmay men, visolingga etolmasman,
Desam: ne boisi? Ayding: sabab taqdiri manglaydur.

Bahor abri kabi to‘kdim ko‘zimdan jolalar cheksiz,
Po‘latdek toqatim hatto aning ostida zanglaydur.

Ochib erdim dilim, do‘stim –tushunmay kuldi holimga,
Netay, devona ko‘nglimni faqat devona anglaydur.

Nigorim deb shahid bo‘lsam mening-chun bu saodatdur,
Falak o‘z ufqini har kech mening qonim-la ranglaydur.

Visol oni kelur, Rustam, umid-la dilni pok tutgil,
Umidsizlik g‘uboridan diling ko‘zgusi changlaydur.

G‘azal hazaj bahrining hazaji musammani solim vaznida yozilgan bo‘lib, afoyli- mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun. Taqtiyi quyidagicha: v--- v--- v--- v---. Hazaj bahri ***mafoiylun*** (*V* – – –) asliy ruknining baytdagi takroriga asoslangan bo‘lib, qo‘llanilishi jihatidan turkiy she’riyatda ramal bahridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

Quyida g‘azaldagi she’riy san’atlarga to‘xtalsak. G‘azalning ilk baytida nido san’ati qo‘llangan: “Eshit ey yor”. Oxirgi baytning birinchi misrasida ham nido san’atiga misol bor: “‘‘Visol oni kelur Rustam, umid-la dilni pok tutgil”. Ma’naviy san’atlardan biri bo‘lgan tashbehi mufassalga misollar: “Bahor abri kabi”, “po‘latdek toqatim”. Ushbu misollar g‘azalning uchinchi baytida keladi.

Tashbehi muyaqqadga birinchi baytda keltirilgan “dilim sozi”, to‘rtinchi baytda keltirilgan “devona ko‘nglim”, oxirgi, oltinchi baytda kelgan “umidsizlik g‘uboridan”, “diling ko‘zgusi” kabilar misol bo‘la oladi. Mubolag‘a san’ati: ushbu g‘azalda mubolag‘aning ikkita darajasi namoyon bo‘ladi. 1. tablig‘, ya’ni aqldan ishonish mumkin bo‘lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lgan mubolag‘a. mubolag‘aning bu darajasiga misol g‘azalning beshinchi bayti: “Nigorim deb shahid bo‘lsam mening-chun bu saodatdir” misrasida keladi. 2. ig‘roq (ya’ni kamonni qattiq tortmoq) darajasi. Ushbu mubolag‘aga misol g‘azalning uchinchi bayti: “Bahor abri kabi to‘kdim ko‘zimdan jolalar cheksiz” misrasida keladi. G‘azalda talmeh san’ati ham qo‘llangan. Chunki to‘rtinchi baytda “Devona” obrazi keltiriladi: “Netay, devona ko‘nglimni faqat devona anglaydir”. G‘azalda qo‘llanilgan ma’naviy san’atlardan yana biri bu husni ta’lil san’atidir. Bu san’at g‘azalning beshinchi bayti: “Falak o‘z ufqini har kech mening qonim-la ranglaydir” misrasida keladi. Ayni shu bayt g‘azalning shohbayti hisoblanadi. Bu baytda shoir ifodalamoqchi bo‘lgan fikrlar yuqori nuqtaga ko‘tarilgan. Oshiq hamisha yor vasli uchun hamma narsaga tayyor bo‘ladi, tom ma’noda o‘z jonidan kechmoqqa ham. Bundan tashqari, lirik qahramon yori deb o‘lim bilan bir marotaba emas, balki har kech yuzlashish holatini iftixor ohangida ta’kidlaydi. Zero, baytdagi husni ta’lil san’atiga misol bo‘lgan misra fikrimizni tasdiqlaydi.

Keldi umring yozi, shoir, yoz g‘azallar ayni dam,
Kim senga ruhiy g‘izodur – soz g‘azallar ayni dam.

Bul g‘azalning shavqi zavqi, Ishqi-yu mashqi bo‘lak,
Omma ermas, xos eliga –mos g‘azallar ayni dam.

Dilda ilhom pardasidin ko‘rinib, ko‘rinmayin,
Voh, go‘zallar yanglig‘ etgay noz g‘azallar ayni dam.
Ayni damda ayni g‘amkim: bulhavas she’rlar talay,
Yozilur kun-kundin ammo oz g‘azallar ayni dam.

Tengi yo‘q tengdoshlar ichra yelkadoshlar chiqsa-yu
Nazm aro urf o‘lsa, shoyad, boz g‘azallar ayni dam.

Yaxshi niyat – yorti mol, lek "qish"da xo'b "qishlay" desang,

Keldi umring yozi, Rustam, yoz g'azallar ayni dam.

Ushbu g'azal ramal bahrining ramali musammani mahzuf vaznida bo'lib, afoiyli- foilotun foilotun foilotun foilun, taqtiyi –v-- -v-- -v-- -v—hisoblanadi. G'azaldagi badiiy san'atlarga e'tibor qaratsak. Bu yerda shoir lafziy san'atlardan biri bo'lmish radd ul-matla [matlaning takrorlanishi] san'atidan foydalangan, ya'ni birinchi baytning birinchi misrasi maqtada takrorlanib kelgan. Bu tarzdagi takror tasodifiy bo'lmasdan muayyan poetik maqsadga ega. G'azal matlasining birinchi baytida ilgari surilgan fikr keyingi baytlarda rivojlantirilib boriladi va she'r nihoyasida misrani takrorlash orqali o'sha fikr yanada ta'kidlanadi. Yuqorida g'azalning to'liq matni bilan tanishib, biz bu holatga guvoh bo'ldik. Shuningdek, g'azalda ta'did she'riy san'atidan ham foydalanilgan. Ikkinchi baytning birinchi misrasiga e'tibor bersak, bu yerda Rustam Mirvohid zavq, shavq, ishq, mashq so'zlarini ketma-ket sanash orqali ushbu san'atni hosil qilgan. Ikkinchi baytda nido she'riy san'ati ham qo'llanilgan. Ilk baytning ilk misrasidagi "Shoir" va oxirgi baytning oxirgi misrasidagi "Rustam" so'zlari nido san'atiga misol bo'la oladi. G'azalda ma'naviy san'atlardan ham unumli foydalanilgan. Tashbehi mufassalga g'azalning uchinchi baytidagi ikkinchi misrani misol qilib olishimiz mumkin: "Voh, go'zallar yanglig' etgay noz g'azallar ayni dam". Tashbehi muyaqqadga g'azalning birinchi baytida keltirilgan: "Umring yozi" birikmasi misol bo'la oladi. Ushbu g'azalning uchinchi baytida mubolag'aning uchinchi darajasi- g'uluga misol ko'rib o'tishimiz mumkin. G'azalda tanosib san'atini ham uchratamiz. "Shoir", G'azallar", "Zavqi-shavqi", "Go'zallar", "Noz" kabi jumlalar bu san'atga misol bo'la oladi. G'azalda mushtarak san'atlarga ham namunalar keltirilgan. Tajnis san'atiga misol sifatida matladagi birinchi misrani olishimiz mumkin: "Keldi umring yozi shoir, yoz g'azallar ayni dam". Mushtarak san'atlardan yana biri tazodga misol uchinchi baytning birinchi misrasida kelgan: "Dilda ilhom pardasidin ko'rinib-ko'rinmayin", to'rtinchi baytda kelgan "Talay", "Oz" so'zlarini olishimiz mumkin. Shohbayt sifatida biz g'azalning beshinchi baytini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda aytish joizki, ushbu g'azal aslida, g'azal haqidagi g'azal

hisoblanib, bu baytda shoir maqsadini aniq bayon qilgan. Shuning uchun ham g‘azalning shohbayti sifatida ana shu baytni ko‘rsata olamiz.

Dilu jonim ila, jono, senga migratsiya qilsam,
Ko‘chib bu na’v hama ushshoq aro sensatsiya qilsam.

Manim sensasiyadan bir tamannoyim erur vasling,
O‘zidan ham so‘rorim shu samoni ratsiya qilsam.

Senga qimmatbaho ashyo yoqar derlar, olursanmu -
Muhabbat marketi ichra yurakni aksiya qilsam?

Talosh aylar seni jon, dil - iki dushman xaloyiqdek,
Izn ber, yakqalam aylab barin bir natsiya qilsam.

Tokay g‘ayri visolingdan ko‘z oldimda olur bahra,
Ne tong, isyon etib hozir falakka sanksiya qilsam?!

Bu foniy dunyadin dorul baqoga o‘tmayin bir kun,
Qabul et, Rustaming birla senga migratsiya qilsam.

“Zamonaviy oshiq izhori” nomli navbatdagi g‘azal hazaj bahrining hazaji musammani solim vaznida bo‘lib, afoiyli mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun. Taqtiyi v--- v--- v--- v---. Dastlab ushbu g‘azalning poetik nutqiga e’tibor qaratsak. Bu yerda shoir xalqaro so‘zlarni ishlatish orqali lirik qahramonning dil izhorini bayon qiladi. G‘azalning matnidan ko‘rinib turibdiki, undagi qofiya uchun tanlangan so‘zlar turli sohalarga tegishli bo‘lgan terminlar hisoblanadi. E’tirof etish mumkinki, shoir ana shunday terminlarni bir mavzu doirasida jamlay olgan. Endi esa g‘azalda ishtirok etgan badiiy san’atlar bilan tanishsak. Lafziy san’atlardan bo‘lgan radd ul-qofiya san’ati g‘azalda ishtirok etgan. Bundan tashqari, g‘azalda istiora san’ati bor. Bu san’at g‘azalning barcha baytlarida o‘z aksini topgan. Chunki shoir turli sohaga tegishli terminlarni ko‘chma ma’noda qo‘llagan. G‘azalning uchinchi baytidagi “Muhabbat marketi” birikmasi, to‘rtinchi baytidagi “Talosh aylar seni jon-dil iki dushman xaloyiqdek” misralari tashbeh she’riy san’atiga namunalardir. Birinchi baytning ikkinchi misrasi husni

ta’lil san’atiga misol bo‘la oladi: “Ko‘chib bu nav hama ushshoq aro sensatsiya qilsam”. G‘azalning ikkinchi baytida mubolag‘a she’riy san’atiga misol ko‘rishimiz mumkin. Birinchi baytidagi “Dil-u jonim”, “Jono”, ikkinchi baytidagi “Tamannoyim”, “Vasling”, uchinchi baytidagi “Ashyo”, “Market”, “Aksiya”, to‘rtinchi baytidagi “Xaloyiq”, “Natsiya” birikmalari tanosub she’riy san’atiga misollar hisoblanadi. Oxirgi baytdagi “Foniy dunyodan” va “Dorul baqoga” birikmalari mushtarak san’atlardan sanalmish tazod she’riy san’atiga namuna bo‘la oladi. Ushbu g‘azalning shohbayti sifatida oxirgi oltinchi baytni olishimiz mumkin. Zero, ilk baytdan qo‘yilgan masala baytma-bayt rivojlantirilib oxirgi baytda yanada oydinlashadi. Birinchi baytning birinchi misrasida oshiq o‘z istagini bayon qiladi va keyingi baytlarda ana shu istagi yo‘lida qanday ishlarni amalga oshirmoqchiligini, oxirgi, ya’ni shohbaytga kelib esa orzusiga, albatta, erishajagini qat’iyat bilan ta’kidlaydi. Shuning uchun ham bu baytni g‘azalning shohbayti deya olamiz.

Rustam Mirvohid g‘azallarida, asosan, ramal bahri va hazaj bahrlarining ustun ekanligiga tahlil jarayonida guvoh bo‘ldik. Shubhasiz, zamonaviy o‘zbek adabiyotida g‘azal janrida ijod qilayotgan ijodkorlar orasida ana shu ikki bahrning keng yoyilganini kuzatishimiz mumkin. XX asrda yashab ijod qilgan E. Vohidov, Chustiy g‘azallari ham fikrimizni tasdiqlaydi. Yuqorida tahlil qilingan g‘azallar orqali biz Rustam Mirvohid ijodini qisman bo‘lsa-da o‘rgana oldik. Tahlil uchun aynan shu g‘azallarning tanlanishidan asosiy muddao- bu g‘azallar shoirning turli yillarda yozilgan g‘azallari bo‘lib, keyingisi avvalgisiga nisbatan har tomonlama mukammallashib borayotganini ko‘rsatib berish, shuningdek, shoirning ushbu janrga olib kirayotgan yangiliklarini ochib berish tahlilimizning asosiy maqsadi bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, aruz vaznida ijod qilayotgan ijodkorlar, shubhasiz, mumtoz adabiyotimiz an’anasini davom ettirib uning takomiliga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Maqolamiz davomida biz Rustam Mirvohid ijodi misolida fikrimizni qisman bo‘lsa-da asoslashga muvaffaq bo‘ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustam Mirvohid. (2012) Bu – oshiq so‘zim Toshkent: Adib. 9-b.
2. Yusupova Dilnavoz. (2018). Aruz alifbosi Toshkent: 30-b, 53-b.
3. Yusupova Dilnavoz. (2019) Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari Toshkent:Ta’lim media. 157-b.
4. G‘azal g‘izoli (2022). bayoz Toshkent: Adib 169-b.

ARBAINCHILIK AN’ANASINING MUNOSIB DAVOMCHISI
(Alisher Navoiy va G‘ayrat Majid ijodi misolida)

Isroilova Shahnoza Yorqin qizi,
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik
(o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi 2-kurs magistranti
shahnozaisroilova0398@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, taniqli shoir va publitsist G‘ayrat Majid ijodiyoti,undagi mavzular xilma-xilligi,ko‘lamdorligi va eng asosiysi,shoir o‘ziga ustoz deb bilgan “So‘z mulkining sultoni” Alisher Navoiy ijodining ta’siri masalalari xususida fikr bildirib o‘tildi.*

Kalit so‘zlar. *Arbain, arbainchilik masalalari, mushtarak jihatlar, uslub, ruh, ijodiy jarayon, to‘plamlar.*

Abstract. *In this article, the work of the chairman of the Writers' Union of Uzbekistan, the famous poet and publicist Ghairat Majid, the diversity and scope of the topics and, most importantly, the creation of Alisher Navoi, the "Sultan of Word Property", whom the poet considers to be his teacher, are presented. Opinions were expressed about secret issues.*

O‘zbek mumtoz adabiyotida hazrat Alisher Navoiy o‘zining “so‘z mulki,” “so‘z xazinasi” ila ulkan bir bog‘u bo‘ston, yirik bir ummon yaratdi. Bu bog‘u bo‘stonining mevalari va ummonning suvlaridan barcha adabiyot ixlosmandlari, ko‘plab ijodkoru shoirlar bahramand bo‘lishdi. Bu bahramandlik bugunga qadar davom etib kelmoqda. Ana shu shoirlar orasida G‘ayrat Majid o‘zining hazrat Alisher Navoiyning munosib shogirdi ekanligini, Navoiydan ilhomlanganligini bir qator ijod namunalarida faxr bilan ta’kidlaydi. Shu xususda so‘z ketar ekan, shoir

G‘ayrat Majid ham salaflari - ustozlariga ergashgan holda an’anani davom ettirib, arbainchilik janriga qo‘l urdi. Ijodkor nafaqat davom ettirdi, balki bugungi kun o‘quvchisiga qirq hadisni o‘zining yangicha talqinida yangicha havola etti, deya olamiz. Chunki mumtoz adabiyot va klassik uslub, undagi so‘zlardan bugungi kun zamonaviy odami oz bo‘lsa-da yiroqlashdi! Shoir G‘. Majid o‘z – o‘zidan bu talqinni berdi va kashfiyotlar qildi, desak mubolag‘aga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz, sababi shoirimiz ungacha bo‘lgan arbainchilarga ergashib, ulardan oziqlangan,albatta

“Arbain” tushunchasi etimologiyasiga qaraydigan bo‘lsak, u “qirq” so‘zi bilan bevosita bog‘liq va buning ildizi muqaddas manba bo‘lmish Qur’oni Karimga borib taqaladi. Islom dinini keng targ‘ib etish maqsadida VIII asr oxiri – IX asrdan boshlangan Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislari asosida arbain tuzish an’anasi XII asrlarga kelib musulmon xalqlari mumtoz adabiyotlarida “Arbain” yoki “Chihil hadis” nomi ostida qirqta hadisni bir yerga jamlab, ularning ma’nosini xalqqa tushuntirib berish, sharh yozish alohida janrga aylana boshladi.

Arbain ijod qilish avvaldan yuqori baholanib kelingan va bu ishga kirishish ham yuksak bilim va mas’uliyatni talab etgan, chunki, ayni ushbu ijod jarayonida ijodkor Qur’oni Karim va hadisi sharifdan chiqib ketmagan tarzda unga o‘zining talqinini beradi, imkon darajasida boyitadi va muayyan jihatiga urg‘u beradi.

Arbainchilik an’anasini davom ettirib kelayotganlar orasida biz ijodini chuqur o‘rganayotgan ijodkor shoirimiz G‘ayrat Majidning ham borligi kishini beadad quvontiradi, albatta. Yana uni adabiyotimizning tengsiz dahosi – Alisher Navoiyning “Arbain”i bilan qiyoslash esa shoirimiz ijodiga yanada katta baho berishimizdan darakdir. “Hadis ziyosi” to‘plamida ham an’anaga sodiq qolgan tarzda qirq hadis va uning sharhi keltirib o‘tilgan. Ikkala shoining to‘plamini solishtirish natijasida ulardagi mavzularning ko‘plab o‘rinlarda o‘xshash ekanligi va izohlardagina har bir ijodkorning o‘z yo‘li va uslubiga xos tarzda yondashuvini kuzatishimiz mumkin. Quyida ikkala to‘plamdagi har bir o‘xshash va farqli hadislarning mumtoz va zamonaviy tarzdagi bayonini ko‘rishimiz mumkin:

Nabiy sollallohu alayhi vasallam : “ Musulmon – musulmonlar uning tilidan va qo‘lidan salomat bo‘lgan odamdir ”, dedilar. Ushbu hadis Navoiyning “Arbain” ida :

Kim musulmonlig‘ aylasa da’vo,

Chin emas gar fido qilur jonlar.

Ul musulmondururki, solimdur,

Tiliyu ilgidin musulmonlar(Alisher Navoiy.Arbain.WWW. ziyouz.com 2007).

tarzida kelsa, G‘ayrat Majidning “Hadis ziyosi” turkumida esa :

Qilich zarbidanmas, so‘zning zarbidan,

Darz ketgan ko‘ngilga davo yo‘q, davo.

Ilon inidan chiqqan shirin so‘z,

Kishiga muloyim so‘ylamoq ravo.

Haqdan tuhfa bo‘lsa, senga kuch – qudrat,

Har dilni aziz bil, sanama abgor.

Oqibat qilmoqqa ko‘rsatgin g‘ayrat,

Kimsa qo‘lingdan ham topmasin ozor.

Qaysisi afzaldir mo‘min ahlidan,

Deya so‘radilar, aytdi Payg‘ambar:

Biror musulmonga til va qo‘lidan,

*Zarar yetmasa o‘sha, muqarrar (*G‘ayrat Majid, Hadis ziyosi, 2018*).*

Yuqoridagi ayni hadisning Navoiy va G‘. Majid talqinidagi izohini kuzatar ekanmiz, ikkalasida ham hadisning mazmunini to‘la saqlab qolgan holda ijodkorlarning o‘z qarashlari va ifoda qilish uslublarida ayrichalikka ko‘zimiz tushadi. Buni birinchidan, vaqt nuqtayi nazaridan farqlasak, ikkinchi tomondan, Navoiyda faylasufona ruh va kam so‘z qo‘llash orqali ma’noni chiroyli yetkazib berish mahoratini ko‘rib, qoyil qolmay iloj yo‘q. shunday bo‘lsa – da, yosh shoir G‘ayrat Majidda ham Navoiydan qolishmagan tarzda fikrlarini bayon etish, unga qo‘shimcha tarzda Sharqqa xos pand – nasihat yo‘lidan borish kabi uslubiyatni bir qarashda ilg‘ashimiz mumkin.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam : “Davolaninglar, Alloh qaysi bir dardni qo‘ygan bo‘lsa, albatta, uning davosini ham qo‘ygan. Faqat bittadan, qarilikdan boshqasini”, dedilar. Ushbu hadisni hazrat :

Odamig‘a agarchi voqe’ erur,
Qarigan sori barcha ishda xalal.
Ikki fe’li vale yigitrak o‘lur:
*Biri hirsu, birisi tuli amal,(*Alisher Navoiy.Arbain.WWW. ziyouz.com 2007*)*

deya keltirsa, shoirimiz esa :

Ayting, xasta bo‘lib qolsa gar odam,
Izlamoq mumkinmi jonlarga shifo.
Dadni yaratgan zot davosini ham,
Yaratgan, - deb javob qildi Mustafo.

Biroq bitta dard bor, og‘risa bemor,
Sira hojati yo‘q izlashga malham…
U qanday dard ekan, - so‘rdilar takror,
Qarilik, - deb aytti Rasuli Akram.

Karami Benazir Alloh taborak,
Kasal bandang bormi, g‘amini ketkaz.
Qarilik gashti ham qutlug‘ muborak,
*Har kimni keksalik davriga yetkaz,(*G‘ayrat Majid, Hadis ziyosi, 2018*)*

ko‘rinishida o‘z talqinini beradi. Eng qizig‘i shundaki, ikkala ijodkorning asaridan ham bu misralar va ayni shu hadisning talqini beshinchi hadis va uning she’riy izohi ko‘rinishida keltiriladi. Yana bir e’tiborli jihatlaridan biri esa hadisning G‘ayrat Majid talqinidagi ifodasi aynan hadisning xuddi o‘zi va uning she’rdagi ifodasidek jarang sochgan. Sababi, hadis manbaasiga qaraydigan bo‘lsak, aynan suhbat jarayoni, ya’nikim, Nabiy alayhissalom va uning sahobalari o‘rtasidagi savol-javob jarayoni keltirilgan. Shoir esa o‘zing mahorati ila ushbu jarayonni o‘quvchi ko‘z oldida so‘z orqali tasvirlab, chizib berishga, tasvirlaganda

ham oddiy tarzda emas, she'riy shaklda yorqin bo'yoqlarda ko'rsatib bergan va hatto, oxirida o'zining xulosasi yanglig' so'nggi ikki misrani ham qo'shib, go'yo bu orqali Allohga munojotini yo'llagan. Bu holat ham Navoiyona usubning ayni o'zginasidir. Qolaversa, eng oxirgi band ustoz shoir Muhammad Yusufning "Tilak" she'riga ham monanddek go'yo :

Har kimning ham sochlariga oq tushsin,

Ajin tushsin, yuzlariga dog' tushsin…

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Senga ishonib turgan birodaringga yolg'on so'zlashing ulkan xiyonatdir ", dedilar.

Ushbu hadisi sharifni bobomiz o'zining benazir asarida :

Qaysi majlisdakim eshitsang so'z,

Bilgil ul so'z sanga amonatdur.

Gar ani o'zga yerda naql etsang,

*Ul amonatg'a xiyonatdur,(*Alisher Navoiy.Arbain.WWW. ziyouz.com 2007)

tarzida keltirgan bo'lsa, shoir G'ayrat Majid :

Ikki sifat bo'lmas mo'minda, illo,

Bul hikmat merosdir sizdan Al – Amiyn.

Yolg'on so'zlamaydi musulmon aslo,

*Xiyonat qilmaydi hech qachon mo'min (*G'ayrat Majid. Hadis ziyosi.Toshkent,2018*),* kabi so'zlar bilan bayon qiladi.

Kimki tangrining zikrida bo'lsa, Allohning rahmati va iymonning halovatiga erishadi, mazmunidagi hadisni hazrat Navoiy va G'. Majid talqinida ko'rib chiqamiz:

Dunyovu har ne andadir mavjud,

Bo'ldi haq la'nati giriftori.

G'ayri haq zikrikim, erur zokir,

*Tengrining rahmati sazovori (*Alisher Navoiy.Arbain.WWW. ziyouz.com 2007*).*

***

Salovot aytadi falakda qushlar,

Maysalar shiviri hamdu sanodir.
Yerni quchoqlagan bu tog‘u toshlar,
Sukuti zikriga dalil - ma’nodir.
Sen esa yerdagi xalifa – inson,
Muqaddas bir zotdan muborak xilqat.
Bildingmi ne qilsa, xotirjam ruh- jon,
Ayon-ku, har so‘zing Xudoga tilxat.
Rasululloh so‘zin tingla birodar,
Tildan qo‘ymay Qur’on tilovatini.
Behuda gaplardan tiyilmasang gar,
Topolmaysan iymon halovatini (G‘ayrat Majid, Hadis ziyosi, 2018).

Navoiyning ta’biri bilan aytganda, insonki bor unda dunyo va shu kabi jamiyki narsaga mehr jamlangan ekan, u Tangrining la’naiga giriftor bo‘ladi, aksincha, zokir, ya’ni, Allohni zikr qiluvchi insonning undan boshqa narsaga ishtiyoqiki yo‘q, u Tangrining rahmatiga sazovordir.

Shoir G‘ayrat Majid esa yerdagi maysalar, osmondagi qushlar, tog‘u toshlarki bor, ularning barisi Yaratganga sano aytish bilan band ekan, yerga xalifa qilingan muqaddas zot – inson , sen, nega behuda so‘zlar bilan vaqtingni behudaga sarflaysan, bungin har biri uchun huzurida javob berasan, agarda iymon halovatiga erishmoqchi bo‘lsang, Qur’on tilovatini bir zum ham tilingdan qo‘yma, kabi mazmun-mohiyatni o‘z misralarida bayon etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ikkala asar - Alisher Navoiyning “Arbain”i va G‘ayrat Majidning “Hadis ziyosi” turkumi bir-biri bilan mazmun-mohiyat jihatdan o‘xshashlik kasb etadi, chunki, har ikkala asar ham hadisi sharifning sharhiga bag‘ishlangan, ammo, davr nuqtayi nazari va ifoda bayoni uslubi jihatdan esa tubdan farq qiladi. Buni avvalo, ikkala ijodkorning ijod mahsuli orasida deyarli 6 asrlik masofa mavjudligi bilan, qolaversa, har ikkisining ham o‘ziga xos bayon uslubi, hadisga nisbatan turlicha yondashuvi bilan izohlash mumkin.Hazrat Navoiyning ko‘p va xo‘p bilganligi, so‘z mulkining sultoni ekanligini hadislarni qisqa, lo‘nda va yaxlit tarzda bayon uslubidan ham yana bir karra anglashimiz

mumkin. Qirq hadis va uning sharhini qisqagina to‘rtlikda tugal ma’noda ifodalab, olam- olam ma’noni chiqara bilish ham ulkan mahorat, aslida. Shu qisqagina bir band, ikki baytlik har satr hadisning ma’nosini to‘la ochib berish bilan birga, uning ayni takrorini ham o‘zida jamlay olgan, hatto o‘xshatish, qiyoslashlarni ham qamragan, hadisga amal qilishning foydalari, aksincha bo‘lsa, u keltiradigan ziyon va ofatlarni ham mukammal tarzda ifodalab bergan. Chunki, bu – Navoiy…

Endilikda G‘ayrat Majidning yondashuvlarini kuzatadigan bo‘lsak, ustozidan farqli tarzda har bir hadisga alohida sharh, o‘xshatish, turli xil hayotiy misollar va voqeliklarni keltirib o‘tgan. E’tiborli jihati shundaki, har bir she’rning oxirida, izohlanayotgan hadisning ayni o‘zini Payg‘ambarimiz nomidan misol tariqasida kiritib o‘tgan. She’rlarning hajmi Navoiyga qaraganda nisbatan uzun va o‘rtacha 3-5 bandni tashkil etgan. Va eng asosiysi, hadislarning ishonchli manbalarda qay tariqa keltirilgan bo‘lsa, she’rda xuddi shu tarzda ko‘rsatib bergan. Misol uchun, bazi bir hadislar Payg‘ambarimiz va uning sahobalari o‘rtasida savol-javob tarzida bayon qilingan bo‘lib, shoir ham uni o‘z she’rida xuddi shu holatni saqlagan tarzda ifodalab bergan. Bu hol, o‘quvchi ko‘z oldida hadisning jonli tarzda gavdalanishi va tushunilish darajasini yanada oshiradi, menimcha.

Asarlarni kuzatish davomida shu narsa aniqlandiki, ularda ayni bir xil - qirq hadisning sharhi, izohi keltirilgan, deya olmaymiz. Sababi, Navoiy ba’zi o‘rinlarda boshqa hadisga murojaat qilgan bo‘lsa, G‘. Majid umuman boshqa hadisga sharh she’r yozgan. Ammo, juda ko‘p o‘rinlarda bir xil hadislar va ularga izoh keltirilgan bo‘lib, hatto, ularning raqamlanishi bir xil bo‘lgan o‘rinlar ham uchrab turadi.

Xususan, ikkala ijodkorda ham haqiqiy musulmonga xos xususiyatlar, yolg‘on so‘zlamaslik, qarilik, Allohning zikrida bo‘lish, behuda gapdan tiyilish, nafsni to‘q tutish, mol – dunyoga berilmaslik, Qur’onni o‘qish, u hamisha egasini shafoat qilishi haqida, onani e’zozlash, o‘zaro hadyalar ulashish, Allohga shukur qilish, g‘azabni yengish, ogohlikka da’vat, ta’magirlikdan ozod bo‘lish kabi mavzulardagi hadislarga sharh tariqasida yozilgan baytlar mavjud, bu ikkala asardagi mushtaraklik bo‘lsa, Alisher Naviyning “Arbain”inida yuqoridagilardan tashqari mo‘minnning o‘ziga ravo ko‘rganni qardoshiga ravo ko‘rishi, Allohning

lutfida komil bo‘lish, rahmdillik, tahoratli bo‘lish, vadaga vafo qilish zarurligi, aytilgan so‘zning omonatligi, zimmasidagi vazifasini ado etish din alomati ekanligi, qanoatli bo‘lish, subh uyqusini tark etgan kishining rizqi mo‘l bo‘lishi, minnat qilmaslik, eshitgan har narsani fosh etavermaslik, ota-onaning o‘limi, el bilaan birga bo‘lganni Haq suyishi, o‘z aybini ko‘ra bilish fazilati, badgumonlikning zarari, limning olimga manfaati, yaxshi so‘zning sadaqa ekanligi, ko‘p kulgu qalbni o‘ldirishi, ko‘p gapirishning ofatlari, nomahramga ko‘z solmaslik, bu ish haromligi, mo‘minning o‘zi to‘qu qo‘shnisi och bo‘lmasligi mazmunidagi hadislarga sharh baytlar mavjud va bu G. Majid to‘plamida ko‘zga tashlanmaydi. Shu bilan birga yosh ijodkorimizning “Hadis ziyosi” to‘plamida esa duo qazoni qaytarishi xususida, o‘limni orzulab yashamaslik kerakligi, Ramazon kirib kelsa, Jannat eshiklari ochilishi, shaytonlar kishanlab tashlanishi to‘grisidagi hadisi sharif, ramazon ro‘zasini savob umidida tutganning gunohlarini Alloh kechirishi to‘g‘risidagi, ro‘za tutish ulug‘ ibodat ekanligi, otaning ruhini shod qilishni istagan uning do‘stlaridan xabar olib turishligi to‘g‘risidagi, olimning o‘limi – olam o‘limi to‘g‘risidagi, “Ixlos”ni o‘qish qalbni fitnayu fasoddan saqlashligi, sadaqa o‘limni daf etishi, rahmon g‘zabini so‘ndirishligi, kim Rasulga o‘nta salovot aytsa, Haq taolo umga o‘nni yozishi haqidagi, Alloh va uning Habibini sevishlik to‘g‘risidagi, otaga itoat – Haqqa itoat haqidagi, kimki yolg‘on so‘zlasa, joyi do‘zaxda ekanligi, uchta qiz o‘stirib, tarbiya qilgan jannatga tushadi, Allohning 99 ismi borligi, kim uni yod etsa, jannatga kirishligi haqidagi hadisga sharh tarzda yozilgan she’rlarni uchratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Alisher Navoiy.(2007).Arbain.WWW. ziyouz.com

2.Alisher Navoiy. (2000).Hayrat ul – abror. – Toshkent: Fan.

3.G‘ayrat Majid. (2018). Hadis ziyosi. Toshkent.

4.G‘ayrat Majid. (2008). Ko‘ksimdagi yulduzlar. Toshkent: Sharq.

5. www.ziyouz.com

HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA AYOL OBRAZI

Norqobilova Muhayyo Shabonovna
ToshDO'TAU ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti, 3-kurs
muhayyonorqobilova@mail.ru

Annotatsiya *Maqolada Halima Xudoyberdiyeva lirikasidagi ayollar obrazi tahlil qilingan va ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ayol, lirik qahramon, obraz, timsol, tuyg'u.*

Abstract. *The article analyzes the image of women in Halima Khudoyberdiyeva's lyrics and highlights their characteristics.*

Keywords: *Woman, lyrical, character, image, symbol, feeling.*

She'riyatda ayolning ichki olami va qalbining murakkab kechinmalari tasviri yetakchi o'rinni egallaydi. Ayolning go'zalligi, uning mehr-u muhabbati haqida bir qancha ijodkorlar qalam tebratishgan. Ammo ayol qalbini tushunish, uning butun murakkabliklari va go'zalligi bilan tasvirlash ayol ijodkorlar ijodida yuksak cho'qqiga chiqqan desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi ayolning qalb tug'yonlarini faqat ayolgina teran his qila oladi. Ijodida ayolning ana shunday qalb tuyg'yonlarini tasvirlagan qalamkashlardan biri Halima Xudoyberdiyeva hisoblanadi. Shoira ijodiga nazar tashlasak, ayol mehribon ona, sevikli yor, ayriliqdan o'rtanayotgan mashuqa, fidokor inson, yuksalishga chorlovchi yo'lboshlovchi sifatida gavdalanadi. Ijodkorning "Taqdir ulaganda" deb nomlangan she'riga diqqatimizni qaratsak:

Taqdir ulaganda umrlar zanjirin –
Nogohda ro'para bo'ldik ikkimiz.
Tushunmay yashirin qalblarning sirin,
Hissiz, yo'l boshidan birga tushdik biz.

Ancha yillar oldin bir-biriga ko'ngil qo'ygan, ammo ma'lum sabablar tufayli ayrilgan ikki oshiq taqdir ko'chalarida yana ro'para keldi.Ammo endi ilgarigi hislar olovi pasaygan, hissiz va bir-birovining qalb sirlaridan bexabar holda yuzma-yuz turishar edi. She'rda ayriliq sabablari hamda suyuklisidan judo bo'lgan ayolning ruhiy iztiroblari yoritiladi:

Ko'zimni chirt yumib seni eslasam,

Qiynaydi o‘tmishning o‘kinchi, dardi.

Beixtiyor qalqir ko‘zlarimda nam,

O‘ylayman “sevardi, sevsam bo‘lardi”.

Ushbu misralardan kitobxonga ayon bo‘ladiki, yigit qizni qattiq sevgan, ammo qiz mag‘rurligi va kibri tufayli uni rad etgan. Endi esa bundan afsuslanib, “sevardi, sevsam bo‘lardi” deb yozg‘iradiki, bu orqali ayol qalbidagi qarama-qarshi hislar, ziddiyatlar namoyon bo‘ladi. Ayol qalbi jumboqli va tushunarsiz. Hatto, ayolning o‘zi ham ba’zan o‘zini tushunmay, ko‘ngli nima tusayotganini anglolmaydi. Psixologik jihatdan ham ayol psixologiyasi juda ham murakkab hisoblanadi. She’rda ham mana shu murakkabliklar namoyon bo‘lgan. Keyingi bandiga e’tibor qaratsak:

Bilasan, yo‘q edi dilimda hokim,

Uni o‘zga birov etmagandi jalb.

Mag‘rur qushday erkin edim va lekin,

Shuningdek senga ham berolmadim qalb.

Ayol u paytlar yosh va juda ham mag‘rur ediki, hech kimni qalbiga hokim qilmagan edi va hatto uni jonidan ortiq sevgan yigitni ham sevgisini oyoq osti qiladi. Yigitni sevsa-da, ammo kibri bu sevgini tan olishga monelik qilardi.Yillar o‘tgach o‘zi ham yigitga ko‘ngil berganiga iqror bo‘ladi, ammo endi kech edi.

Tushday o‘tib ketdi bugun hammasi,

Yurakni foydasiz o‘rtamoq nechun.

O‘tdi, ammo dilda qoldi chamasi

Azobi, o‘zim rad qilganim uchun.

Barchasi tush misoli o‘tib ketdi, ammo lirik qahramon hisoblanmish ayolning qalbida bir og‘riq qoldiki, bu azob yillardirki unga hech tinchlik bermadi. Bu azob ayriliqninggina azobi emas, agarda faqat ayriliq azobi bo‘lganda edi ayol bunchalik g‘am-g‘ussa chekmagan bo‘lardi . Bu azob pushaymonlik ya’ni o‘z sevgisini tan olmay, baxtini rad etganining qiynog‘i va yarador qilingan qalbining so‘rog‘i edi.

Bu chigal xatoni tuzatolmayman,

Tunday yuragimni ochaman tunga.

Endi-ku senga qo‘l uzatolmayman,

Xayrlasholmayman ham mangu-manguga.

Ayol o‘zining bu buyuk xatosini endi tuzta olmasligidan yuragi tun kabi qorong‘ulik qurshovida qolganligini va shu qadar yolg‘izlik va baxtszlik girdobiga tushib qolganidan yurak dardlarini faqat tungagina so‘ylay oladi va faqat tunnigina o‘ziga dardkash deb hisoblaydi. Uni (oshiq yigitni) hali ham qattiq sevadi, ammo endi unga qo‘l uzatolmaydigan darajada masofalar uzoqlashgan. Kim bilsin, balki yigitning ham oilasi bordir. Endi ayol u tomon bora olmaydi. Ammo manguga xayrlashmoq uchun ham qalb izn bermaydi. Shoira ushbu misralar orqali muhabbat azobida qiynalayotgan ayolning qalbidagi ziddiyatlarni go‘zal chizgilar bilan tasvirlaydi. Ayolning bu qalb tug‘yoni keying misralarda yanada kuchayadi. Endi lirik qahramon suyuklisiga qarata oq tong singari oppoq tilaklarni armug‘on qiladi:

Nurli tong oqarar, tun bo‘lar oxir,

Senga tilaklarim shu tong kabi oq.

Qiziq, goh baxting ham men uchun og‘ir,

Baxtsizliging esa, yana og‘irroq!

Ayol suyukli insoni faqat u bilangina baxtli hayot kechirishini xohlaydi. Yorining boshqa ayol bilan baxtli yashashi u uchun juda ham og‘ir. Ammo suyuklisining baxtsiz bo‘lishi undan-da azobli! Bir vaqtning o‘zida yoriga ham baxt tilaydi, ham usiz baxtli yashashini istamaydi. Shoira mana shunday qarama qarshi tuyg‘ular qurshovida qolgan ayol obrazni ushbu she’rida shu qadar tabiiy va jonli tasvirlaydiki, she’rdagi ayolning iztiroblari beixtiyor o‘quvchiga ham yuqadi. Halima Xudoyberdiyeva ijodida bu kabi ayollarning qalb kechinmalari tasviri ko‘pdan ko‘p uchrasa-da, ammo har bir she’rda mazmunan o‘zgarib, yangi-yangi qiyofadagi tuyg‘ular va vaziyatlar orqali boshqa she’rlarida bo‘y ko‘rsatadi va har bir ijod na’munasida ijodkor yangidan yangi, betakror ayol timsolini yaratadi. Masalan, yuqorida biz ko‘rib o‘tgan she’rda ayol tuyg‘u va hissiyot kishisi sifatida gavdalantirilgan bo‘lsa, “Men seni topgandim” deb nomlangan boshqa bir she’rida esa ham qalb kishisi, ham fikr kishisi sifatida tasvirlanadi.

Men seni topgandim, ammo yaxshi qol,

Sen "yaxshi qol", degil, "ko'rishguncha"mas.

Bu quyosh hali ko'p ol bo'ladir, ol,

Bu oy ham umrimga ko'p qiladir qasd.

Yuqoridagi misralarga diqqat qilsak, lirik qahramon anchagina romantik inson ekanini payqashimiz mumkin. Uzoq yillar oq otli shahzodasini izlagani, ammo topganida u orzusidagi kabi bo'lib chiqmagani, ya'ni muhabbat borasida xatoga yo'l qo'ygani qizni qattiq iztirobga solmoqda. Shoir lirik qahramon orzusidagi kishini izlagani, kutgani va topdim deganda u butunlay boshqacha inson bo'lib chiqqanini birgina "topgandim" so'zi orqali mahorat bilan yoritib beradi. "Topgandim" emas, "topdim" deb yozganida ushbu ma'nolar yuzaga chiqmagan bo'lardi. Keyingi misrada qiz muhabbati sarob ekanligini anglab, yori bilan vidolashishga qaror qiladi. Bu ayriliq unga oson bo'lmaydi, ammo shunga majbur. Yoridan ayrolikda qay ahvolga tushishini alam bilan tasvirlaydi.. Uning aytishicha, kunduzlari oftob ol rangga kirib, uning hijrondan xasta bo'lgan vujudini qovjiratishga urinsa, tunda oy ham tinchlik bermay umriga qasd aylamoqchi bo'ladi.Ya'ni endi unga na kunduzi halovat bor, na tunda. Ma'lumki, qalbida dardi bor inson tunlarni bedor o'tkazadi. Oyning "qasd qilish"i qizning mana shu holatiga ishora qiladi. She'rning keying bandida g'amga botgan qahramonning o'z yog'iga o'zi qovurilayotgani aks etadi:

Sen sherik bo'lmaysan endi g'amimga,

Darvoqe, hech qachon sherik qilmadim.

Xayr endi, ma'zur tut ortiq-kamimga,

Men seni Layloday seva bilmadim.

Qiz qalbidagi dard, iztiroblarini hech kim bilan bo'lisholmaydi, yigit bilan-ku, inchunun. Chunki ilgari ham u bilan hech narsani o'rtoqlashmagan, shodlig-u g'amiga sherik qilmagan edi. Sabab ikkalasi boshqa - boshqa olam. Shu boisdan u bilan ayrilshga qaror beradi. Ammo buning uchun yigitni ayblamaydi, balki ayb o'zida ekanini ta'kidlab "seni Laylodek seva bilmadim" shu boisdan "ma'zur tut" barchasi uchun deb suyuklisidan uzr so'raydi. Taqdir unga Majnunni duch qilmadi, shu sabali Layli kabi sevish unga nasib qilmaganidan lirik qahrmon yozg'iradi:

O‘rtanma, bu xato mushkullaridan,

Yo Rabbiy, lahzada bor orzular puch.

Men qaydan bilay ishq yo‘llarida –

Majnun emas, senga kelarimni duch…

She’rning ushbu bandida lirik qahramonning yigitga achinayotganligi, ikkalasi tushib qolgan bu holat taqdirning xatosi ekanligini anglatmoqchi bo‘layotganligning guvohi bo‘lamiz. Qiz barchasi taqdirning ishi deb qarasa-da, baribir o‘zini aybdor deb bilib, *“men qaydan bilay ishq yo‘llarida Majnun emas, senga kelarimni duch”* deb o‘zini oqlashga harakat qiladi. O‘zining bu qaltis qaroridan fig‘on chekib “yo Rabbiy” deb nido qiladi, ammo qancha og‘ir bo‘lmasin qiz qaroridan qayta olmaydi. Chunki u Layli, yigit esa uning Majnuni emas. U ikkalasi boshqa-boshqa dunyo kishilari. Shuni ko‘ra bila turib uning yonida qolish o‘zini hamda bir begunoh yigitni baxtsiz etishini anglagan qiz ketmoqqa azmi qaror qiladi. Kim bilsin, balki kelajakda ham o‘z Majnunini uchrata olmas, balki bir kuni yigitni tashlab ketganidan qattiq afsus chekar, ammo qiz bulardan cho‘chimaydi, his-tuyg‘uga ortiq berilmaydi va taqdrini tavakkal ustiga qurishga jasorat qiladi. Bu o‘rnda qizning hissiyot emas, aql bilan ish tutishi uni ko‘ngil kishsi emas, ko‘proq fikr kishsi sifatida namoyon qiladi. Shoira ushbu she’ri orqali o‘z fikri va qarashiga ega bo‘lgan ayolning chin tuyg‘ularini uning o‘zidek his qilgan hamda samimiy ifodalay olgannining guvohi bo‘lamiz.

Halima Xudoyberdiyeva ayol timsolida muhabbat, aql va sabr-bardosh kabi xususiyatlarni shu qadar go‘zal va tabiiy tasvirlaydiki, o‘quvchi beixtiyor lirik qahramonning hissiyotlarini o‘zida his qiladi, ya’ni she’rdagi kayfyat “yuqumli”liligi bilan kitobxonni rom qiladi. Mana shunday go‘zal chizgilaridan yana biri “Ayol o‘tib borar” nomli she’ri bo‘lib, ushbu she’rda ayol zotining buyuk bardoshi yuqori ohanglar bilan kuylanadi. She’rdagi lirik qahramon taqdirning qattiq zarbalarini tatib ko‘rgan, ammo bu qiyinchiliklar uning irodasini buka olmagan, endigi hayotida qaddini tik tutish uchun bu azoblarni unutishga va bor kuchini sarflab o‘zini ovutishga harakat qilayotganini guvohi bo‘lamiz:

Baland bir o‘t yongan ichimni

Men sovutib yashashim kerak.

O‘z-o‘zimga sarflab kuchimni,

Men ovutib yashashim kerak.

Ayol qiyinchiliklar qaddini egib qo‘yishini xohlamaydi, bor kuchini to‘plab oyoqqa qalqishga harakat qiladi. Darhaqiqat, bu xususiyat ayollarning qon-qoniga singib ketgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayol umrini birinchi yarmini o‘zi uchun yashasa, turmush qurib, farzandli bo‘lgach qolgan hayotini farzandi-yu oilasiga bag‘ishlaydi. Qacha azob tortmasin, iztiroblarini qalbi tubiga yashirib farzandlariga yuzini tabassum va baxt bilan niqoblab ko‘rinish beradi. Donishmandlardan biri aytganidek: “Dunyodagi eng kuchli inson ko‘z yoshlarini tabassumi ortiga yashirgan insondir”. Mana shunday kuch-qudrat ayol siymosida mujassamlashgan:

Ayol o‘tib borar… sho‘x yurib

Shamollarda soch yoygan ayol.

Yuragida yo‘lbars o‘kirib,

Sirtda mayin jilmaygan ayol.

Ushbu she’r ayolning sabr-bardoshi, matonatiga qo‘yilgan haykaldir desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Shoira ayolning bu kabi matonatini ulug‘lash bilan bir qatorda ayol faqat ro‘zg‘or kishisi bo‘lib qolmasligi kerak, jamiyat va zamon bilan hamnafas bo‘lgan holda yashashi kerak degan qarashni ham ilgari suradi. Ijodkor “Bir qadam oldinga” nomli she’ri orqali ayollarni shunday yashashga yuksalishga chorlaydi, ularni ojizlik puchmoqlaridan chiqarishga harakat qiladi:

Xayolim nogahon ketdi-yu porlab,

Yolg‘iz ko‘tarolmay xayollarimni,

Yashadim – bir qadam oldinga chorlab

Dunyoning qimtingan ayollarini.

Ayolning o‘rni faqat to‘rt devor ichida emas, balki jamiyat orsida ekanligini shoira ushbu misralari orqali uqtirishga harakat qilmoqda.

Bir qadam bo‘lsa ham oldinga tashlang,

Taklifmi, qarormi, chama, oldinga,

Qo‘yning terisini uqalab, oshlab,

Kungayda o‘tirgan momo, oldinga!

Ushbu bandda shoira ro‘zg‘orning ikir-chikiriga o‘ralashib qolgan ayollarni bir qadam oldinga chorlab, yurt manfaati uchun birlashib xizmat qilishga undamoqda. Keyingi bandlarida ham bu chorlovni davom ettirib: “erkakning ko‘ngliga yo‘l olgan ayol, ko‘ngil eshigida turib qolma tik” – deya bir insonning qalbini zabt eta olgan ekansan, oldingdagi ulkan cho‘qqlarni zabt etishga qurbing yetadi. Zero, bir qalbni zabt etish ulkan cho‘qqilarni zabt etishdan mushkulroq ekanligini bayon qilmoqda. Shoira “Tadbirkor ayollarga” she’rida esa mana shu chorlovlardan ilhomlanib, yurt manfaatiga o‘z hissasini qo‘shayotgan tadbirkor ayollar obrazini yaratib beradi. Ayollari birlashgan yurtning “qushi, guli jam” bo‘lishi, erk tug‘ini ko‘targanlar ichida, albatta, “tadbirkor ayolning qo‘li ham bo‘lgay”ligini alohida ta’kidlaydi va “Vatan yuklarini ko‘tarishmoqqa, Nozik yelkangizga kuch kelsin” – deya tadbirkor ayollarga samimiyatini izhor qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Halima Xudoyberdiyeva ijodida ayol obrazining turli ko‘rinishlarini uchratishimiz mumkin. U ba’zan, kibrga berilib sevgisini tan olmaganidan pushaymon bo‘lgan dilxasta, ba’zan esa muhabbatdan aqlini ustun qo‘yib, o‘z taqdirini qo‘rqmasdan yaratmoqchi bo‘lgan jasoratli shaxs, boshqa bir o‘rinda fidokor uy bekasi va ona hamda yurt rivojiga hissa qo‘shayotgan jamiyat kishisi sifatida tasvirlanadi. Shoira o‘z she’rlarida ayolni “mehr-u shafqat xudolari” (“Ayolni qutqar” she’ri) deb ulug‘lab, “sen baribir muqaddassan” (“Muqaddas ayol” she’ri) deya uni muqaddaslik darajasiga ko‘targan holda ayol siymosiga haykal qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Xorijiy filologiya jurnali http://samxorfil.uz/maqola/she-riyatda-ayol-qalbi

2.https://cyberieninka.ru/article/n/o-z-bek-she-riyatiga-o-z-jumlasi-bilan-kirib-kelgan-shoira-halima-xudoyberdiyevaning-75-yilligiga-bag-ishlanadi/viewer

3.Xudoyberdiyeva, X. (2006). Yo‘ldadirman. Toshkent: Sharq.

AN'ANAVIYLIK SOYASIDA YANGILANAYOTGAN BADIIY TAFAKKUR (SHOIR SHODMONQUL SALOM IJODI HAQIDA)

Qayumberdiyeva Nurjahon Muzaffar qizi,
ToshDO'TAU Adabiyotshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti
nurjahonqayumberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada shoir Shodmonqul Salom ijodi xususisda so'z boradi. She'rlaridagi an'anaviylik soyasida shakllanayotgan yangi badiiy tafakkur, lirik tabiat, mavzu va shakl jihatlari tahlilga tortilgan. Shoir ijodidagi sodda ifoda, xalqchillik bilan birga ichkin hissiyotlar, murakkab botiniy kechinmalar haqida mulohazalar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *Lirika, xalqonalik, ichkin kechinma, olami kubro, olami sug'ro, shoirlik missiyasi.*

Abstract: *The article is written about the work of the poet Shodmonqul Salam. Traditionality, lyrical nature, theme and form features were analyzed in his poems. In the work of the poet, he wrote about complex emotions and inner experiences along with simple expression.*

Keywords: *Lyric, nationalism, inner experience, big world, small world, poetic mission.*

Tabiiyki, milliy ong yangilanmoqda. Tafakkur tinimsiz rivojlanishda. Eski tahlil tamoyillari bilan bugungi she'rlar poetikasiga yondashish o'zini oqlamaydi. Davrga xos yangicha qarashlar adabiyotga ham ko'chib ulgurdi. Ayniqsa, she'riyat shakl, mazmun, obraz, mavzu, ifoda yo'sinlari bilan yangilanib bormoqda. Biroq azaliy an'anadan, mavzulardan, e'tiqoddan uzoqlashilgani yo'q. "Bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan uzilib qolgan alohida hodisa ham emas. Ular o'rtasida vorisiylik, uzviylik davom etib kelayotir. Zamonaviy o'zbek she'riyati mumtoz va yangi o'zbek she'riyatining eng yaxshi an'analarini davom ettirmoqda" (U. Hamdam, 2013, 48-bet).

Istiqlol davri she'riyatiga zamin yaratgan ikki buyuk shoir – Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlar ijodi davomsiz emas. Ularga izdosh sifatida adabiyotshunoslar, she'riyat muxlislari tomonidan Shodmonqul Salom va Behzod Fazliddinlar ijodi e'tirof etiladi (https://kun.uz/uz/12464838) .

Shoir Sh. Salom ijodi bu e'tiroflarni oqlaydi. She'rlarida sharqona hikmatga boy fikrlar, ibratli xulosalar, saviyali tuyumlar, asosiysi, baddiyati yuksak lirika bo'y cho'zadi. An'anaviylik soyasida yangilanayotgan badiiy tafakkur ifodalanadi. She'rlari an'anaviylik bilan yangilanayotgan zamonaviy she'riyatni bog'lab turuvchi ko'prik. Muhabbat, Vatan, ustozlar yodi, o'tmishdan boshlangan mavzular shoirning umr sarhisobi, ichki taftish jarayonlari, o'z-o'ziga bergan savollari, jumboqlari, botiniy iqrorlari oralab aylanadi.

Shoir "*Oripovga havas qilardim*" deb yozadi. She'rlarida bu havasni, hamohanglikni sezish mumkin. A. Oripov shoirlik haqida shunday yozadi:

Shoir deganlari shahiddir – xunsiz,

Uchinchi dunyodir – kunduzsiz, tunsiz.

Bola kabi kular, biroq, ko'zda yosh,

Bola kabi yig'lar, va lekin unsiz. (https://tgstat.Abdulla_Oripov_sherlari/141

Shodmonqul Salomda shunday to'rtlik bor:

Shoir qanotiga o't ketgan qushdir,

Unga don ko'rsatmang, bering osmonni.

To yonib bo'lguncha yorishsin olam,

Toki kuydirmasin kuygan jahonni. (Ш. Салом, 2020, 3 -б.)

Ikkala she'rda ham shoir – olami boshqa xilqat. Mualliflarning individual qiyoslari farqli, biroq shoirlik rutbasiga yondashuvi bir xil. Ikkinchi band birinchi bandning davomi-yu ikkalasi bir butun she'rday bir-birini to'ldirgan. Shoirlik chindanam, Oripov yozganidek, so'z yo'lida shahidlik, ba'zan bola kabi quvonadi, unsiz yig'laydi. Ikki dunyoning ham mansubligidan mosuvo uchinchi dunyo u. Shodmonqul Salom she'rida shoir – qanotiga o't ketgan qush. O't ichidagi qushning o'rtanishlari ham o'zi bir dunyo. O'rtanishlar qismati bir jahonni kuydirishi mumkin. (Bunday shoirlar yo'q emas). Faqat bu qushning donga ehtiyoji yo'q. Erkka ehtiyojmand. Ijodkor badiiy tafakkurida erkka tashnalik bo'ladi. Ko'ngil qanot bog'laydi. Shu sabab ko'zlarida dunyo boshqa rangda jilvalanadi, xayol yerning mayda tashvishlaridan balandga ko'tariladi.

Sh. Salomning birinchi kitobi haqida, she'rlaridagi ishq mavzusi haqida O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov shunday yozadi: "*Azaldan, so'z, kalom tug'ilgandan beri bu tasavvur bor va Shodmon uni tilga olgani bilan eskirib, siyqalanib qolmaydi. Qaytanga Shodmon uni shunday ohangga solib aytadiki, xuddi fikr birinchi marotaba aytilganday eshitiladi. Hamma gap jo'nlikdan yangi shoironalik yaratishda, eskilikni yangilashda"* (И. Ғафуров, 2006, 196-b.) Shodmonqul Salom she'rlari xuddi shunday eski mavzularni, mazmunlarni, dardlarni yangi ohangda tarannum qiladi. Eski muhabbat mavzusi ham shoir ijodida yangi, o'zgacha talqinlarga uchraydi:

Meni yuragimdan osding Xudojon,

Muhabbat yoshimda, sevgi yoshimda. (Ш. Салом, 2020, 218 -б.)

She'rda lirik qahramon uchun yurakdan osilish hech gap emas. Bu holat qanday bo'larkin?! Bunda faqat osilib turgan yuraknigina tasavvur qilish mumkin. Lirik qahramonning butun vujudi yurakka aylangan va faqat yurakninggina og'rig'ini his qiladi. Aynan "muhabbat yoshida", "sevgi yoshida". O'n sakkiz, yigirma yoki o'ttiz yoshmi, shoir uchun bu ahamiyatsiz. Chunki yurak izmida yashayotgan oshiq doim "muhabbat yoshida" yashaydi. Yana bir she'rida "*Yo'q. O'ttizga kirganim yo'q, bo'lsam yigirmadaman*" deydi. Chunki "*yasholmagan kunlari*"-yu "*botmay turgan oylar*"i bor. Har otayotgan tong-u botayotgan quyosh ham umr bo'lavermaydi. Shoir uchun har kun ham yashalmaydi. Ko'nglini qog'ozga ko'chira olsa, halollay olsa, tonglar o'zini oqlab yorishadi, quyoshlar ko'ngliga botadi.

Sh. Salom ilhomida aqlning, ilmning hissasi katta. Aql elagidan o'tkazib saralab berganday tuyuladi.

Baqtriya, qadim Kushon, Chag'oniyon,

Teshiktoshda bobo tarix tarix tuzgan.

Qirq ming yillik mangu xabar — Zarautsoy,

Unda mening suratim bor, bobom chizgan.

Budda kabi jim o'ltirar ko'hna qirlar,

Mening bitmas hikmatimsan, Surxondaryo. (Ш. Салом, 2020, 152 -б.)

She’rdan shoirning yurt tarixining bilimdoni ekani, ona tuproqqa ehtiromi ko‘rinib turibdi. Bunda qadim Surxonning havosidan nafas olganday bo‘ladi o‘quvchi. Tarixini teran anglagan shoir boshqalarga Surxonni, surxonliklarga o‘zligini tanitadi. Qishloqning chapani insonlari obrazi qayta-qayta uchraydi. *“Ona va qiz ayvonga orzularin iladi, “Shu yerda antenna bor, akam telefon qiladi*”, “*Men uyquchi cho‘pon, qimizga to‘yib, Archani soyalab qo‘bizim chaldim*” jumlalari bilan boshlanuvchi she’rlarida xalq o‘ylari, yuragi qalqib turganday taassurot qoldiradi. Shoir nigohi xalq yuragiga oynaday ko‘rinadi. Shu sabab, “she’rda shaxsiyatning bo‘y ko‘rsatishi, satrlar uzra sochilib-yoyilib, ba’zan bo‘rtib turishi ayon bir gap. Shodmonqul Salomning hassos lirik she’rlarida ham, Vatan deya yonishlarida ham, tarixga, bobolar ruhiga murojaatida ham muallifni – chapani bir yigitni ko‘rganday-taniganday bo‘lasiz”. (B. Qobul, 2015, 9-b.)

Shoir Sh. Salom ijodida mavzular qamrovi keng. Deylik, boshqa shoirlarda she’rlar bir-birining davomiday ko‘rinadi. Bir she’rda boshlangan ruhiyat tasviri keyingisida ham bevosita davom etadi. Sabab, oqibat, xulosa qilib chegaralashning imkoni yo‘q. Sh. Salomda olingan bir mavzu shoirning bitta xulosasini yoritadi. Tasvir obyekti ham, bayon ham bir-biriga o‘xshamaydi. Biror voqea-hodisaning falsafiy tomoni, undan topilgan hikmat she’r qilinadi. Masalan,

Merganlar tong chog‘i qoyaga yetgay,
Buloqli bir ajib soyaga yetgay,
Kim o‘z manziliga yetgay qay mahal,
Bir yigit qirq yilda voyaga yetgay. (http://t.me/Shodmonqul_Salom)

Bu shoirning hayotdan olgan xulosasi. Unda umumiy mavzular bilan shaxsiy gap aytish pozitsiyasi kuchli. Shuningdek, xalqonalik ustun. Har bir shoir ulg‘aygan tuproq taftidan uzoqlasholmaydi, qayda bo‘lmasin umr bo‘yi ko‘nglining qayeridadir asrab keladi. Sh. Salomda ham qadim Surxonning bugungi hayoti, onalarining, o‘g‘lonlarining, dehqoni-yu cho‘ponlarining hangomalari, toshqin qalbi, o‘y-xayoli she’rga ko‘chadi. Ayniqsa, xalq dostonlariga hamohanglik aksariyat she’rlarida ko‘zga tashlanadi. “Alpomish”, “Boboravshanxonga”, “Sayis – tulpor”, “Do‘mbira” she’rlari sarlavhasidan

ma’lum bo‘lganidek, baxshiyona yo‘lda yozilgan. “Alpomish” she’ri shunday boshlanadi:

Bu savdolar o‘tganda,

Bu dunyolar yosh edi.

O‘n ming nigoh termulgan

O‘n ming qaboq-qosh edi. (http://t.me/Shodmonqul_Salom)

Yengil vazn va sodda ifoda baxshiyona she’rlaridan boshqa mavzularda ham ustunlik qiladi.

Istiqlol davri she’riyatida ijodkor “olami kubro”dan ko‘ra “olami sug‘ro” tasviriga keng o‘rin berdi. Atrofda yuz berayotgan voea-hodisalardan inson ichki hodisalari muhimroq o‘rin egalladi. Ulug‘bek Hamdam buni nazarda tutib: “Endi shoir o‘z nigohini tashqaridan — atrofda yuz berayotgan olamshumul voqea hodisalardan uzib, o‘z miskin ko‘ngliga qaratdi va uni “tarjima” etishga kirishdi” (У. Ҳамдам, 2007, 75-b.) deb yozadi. Aslida ichki olamdan murakkabroq jumboq yo‘q. San’at uchun, ijod uchun inson botini tuganmas mavzu, obyekt. Mavlono Rumiy: “zamonamiz olimlari ham qilni qirq yoradilar, o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan narsalarni juda yaxshi biladilar, ammo o‘ta muhim, o‘zlari uchun qolgan barcha narsalardan yanada yaqin bo‘lganni, ya’ni o‘zlarini bilmaydilar. Hamma narsadan yaqin bo‘lgan borliq bu – ularning menligi” (@elektron_kitoblar.uz) ekanini aytadi. Bu fikrlar davomida inson ko‘zini ochish lozimligi va ochilgan ko‘zlari bilan o‘z mohiyatiga nazar solishi, aslida o‘zi olamga teng bir olamligini uqtiradi. She’riyat aytadigan gap aslan shu olam muammosi ekani faqat istiqlol davriga kelibgina anglandi. Ijod asl o‘zaniga tushdi. Zamonaviy she’riyat inson ichidagi olamga teng kichik olamni bor murakkabligi, chigalliklari bilan, jumboqlari bilan tasvirlashga kirishgan. Bugun qoralanayotgan she’rlar ijodkorning o‘z ichki olamini butun bo‘y-basti bilan tasvirlaydi.

Shoir Sh. Salom ijodi zamon shoirlari kabi botinning chigal, murakkab ifodali jumboqlaridan uzoq bo‘lsa-da, ichki taftishlardan, qalqinishlardan xoli emas. Lirik qahramon ichki olamida yashaydi va shu olamning kechmishlarini bayon qiladi:

Ichimda boyqushning ini bor,

(Har neki uyqashdir tilakka.)

Jim bo‘l deb, may ichsam, bu quzg‘un

Yurakni tortadi gazakka. (Ш. Салом, 2020, 51 -б.)

Shoir aytgan ichidagi “in” ko‘p kechinmaning manbai. Undan ruhiyatning turli tovlanishlarini tutish mumkin. Shoirlar ichida sayroqi qush yashaydi, bunga nisbat berilganda bulbul obrazi dominant. Sh. Salom uni boyqush demoqchi. Chunki bulbul sasida masrurlik bor, jamiki go‘zallikni kuylaydi. Lirik qahramon ichida esa “*toshning zil botgan o‘rni bor”,* bu bulbulga og‘irlik qiladi:

Ichimda bir toshning zil botgan

O‘rni bor, o‘zin g‘am eritgan.

Men shuncha hasratning ostida

Yuribman, shu yurish horitgan.

Ayni damdagi bayonda lirik qahramon ichida abadiy qish. “*Yaxlagan dunyo*” shoir ichiga ko‘chgan. Ko‘ngilga qo‘l solib paypaslaganda qo‘li faqat muzga tegaveradi, laxcha cho‘g‘ izlagani behuda:

Ichimda bir qishning manzili,

Sochimdan to tovon muzlatar.

Qo‘llari yaxlagan dunyodan

Behuda laxcha cho‘g‘ izlatar.

Ichimda yuribman bir umr…

Bir umr ichda yashash shoirona qismat. Tashqi olam hodisotlaridan ichki olamniki kengroq ba’zan. Bugungi lirika shu olam tafsiloti bilan mashg‘ul. Borliqda bir paytning o‘zida ikki fasl hukmron bo‘lolmaydi, inson tabiatida bo‘lishi mumkin. Olamda neki mavjud bo‘lsa inson botinida ham mavjud. Daryo uyg‘onishi, to‘fon uxlashi, shamollar, dovullar bo‘lishi, bir osmon nur to‘planishi, bir tunning zulmati ko‘chishi, fasllar o‘lishi, tirilishi – hamma-hammasi mavjud birgina insonda. Faqat ijodkorgina shu voqelikni anglaydi va she’r tiliga tarjima qiloladi. U. Hamdam yozganidek, bugunning shoiri olamdan keng odamni “tarjima qilish”ga shung‘idi. She’rlarda boshdan oxir shoir yoki lirik qahramon tilidan

“men” bilan bog‘liq tuyg‘ular tasviri yoritiladi. Tasvirni obrazlar tiliga ko‘chirish nisbatan kam kuzatiladi. Ichkin-ichkin kechinmalar, sirlar, majhul tuyumlar zamon she’riyatining obyektiga aylanib ulgurdi. Shoir “Bilmayman” she’rida yozadi:

Milyon Shumer xati bor

Ruhim xarobasida.

Qayga nechun yo‘l oldim

Kimning arobasida?!

Bunda bugun she’riyatidagi tizginsiz, chigal o‘zini savolga tutgan lirik qahramonni ko‘ramiz. Shoir aqli tarixdan ogoh. Qadimgi shumerlardan qolgan mixxatlar kashf etilmagan haqiqatlarga, sirlarga to‘la. Ularning ba’zilarigina olimlar tomonidan yaqin-yaqinda kashf etilmoqda. (U. Hamdam, A. Qosimov, 2017, 7-b.) Shoir ruhiyatida mana shunday kashf etilmagan shumer xatlaridan miliontasi bor. Bu sirlar o‘ziga-da noayon.

Qalban uyg‘oq kishi umr taftishi bilan mashg‘ul. Bu dard eng ko‘p shoirlarga yuqqan. O‘ziga savollar yog‘diradi. Butun umr qiymati mudom savollarga teng. Sh. Salom she’rlarida sargardon dunyodan o‘z savollariga javob qidirayotgan insonni ko‘ramiz: “*O‘ngga yurdim, so‘lga yurdim, Loy yo‘llarga savol chizdim. Qori ko‘mib, yomg‘irlari Yuvolmagan savol – umrim”* (Sh. Salom. 2013, 14-b.) Aksariyat she’rda shunday mazmunni uqish mumkin. So‘roq so‘z lirik qahramonning o‘ziga beriladi. Shoirlikning katta missiyasi – o‘zni taftish etmoq. O‘zini taftish etishdan to‘xtamaydigan Sh. Salom ijodi sodda ifodasi, chuqur falsafiyligi bilan she’riyat maydonida o‘z o‘rniga intilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qobul B.(2015) *Yoshlar ijodi: o‘zlik, uslub, mahorat*. Yoshlik. 9-son

2. Hamdam U. (2013) *Erkin badiiy tafakkur va bugungi o‘zbek she’riyati*. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 48-son.

3. Hamdamov U., Qosimov A.(2017) Jahon adabiyoti. Toshkent. 7-bet.

4. Ҳамдамов У.(2007) Янгиланиш эҳтиёжи. Тошкент: Фан. 75 б.

5. Salom Sh. (2013) Borligini bilganlar. Toshkent: Uzbekiston Milliy ensklopediyasi nashriyoti

6. Салом Ш. (2020) Шеър сайёраси. ADABIYOT, Тошкент. 151-bet.

7. Ғафуров И. (2006) Биринчи китоб тажрибалари. Мустақиллик даври адабиёти. (Адабий-танқидий мақолалар, бадиалар). Ғафур Ғулом номидаги НМИУ. Тошкент.

8. Rumiy J. Ichindagi ichindadur. @elektron_kitoblar_uz.

9. https://kun.uz/uz/12464838

10. https://tgstat.Abdulla_Oripov_sherlari/141

11. http://t.me/Shodmonqul_Salom

MUHAMMAD YUSUFNING "ALYORIM QOLUR" TO'PLAMIDA ONA YURT MADHI

Ravshanova Gulruh Yaxshiboy qizi,
ToshDO'TAU Adabiyotshunoslik fakulteti
2-kurs magistranti.

Annotatsiya: *Mazkur maqola, qalbidagi munavvar tuyg'ulari bilan yaralgan, ezgulikka undovchi so'zlari orqali o'zbek she'riyatining sevimli shoiriga aylangan, Muhammad Yusuf xususida. Aynan, shoirning "Alyorim qolur" to'plamidagi Vatanni ulug'lovchi, qalblarimizga muhabbat urug'ini sochuvchi "Vatan", "O'zbekiston","O'zingdan qo'ymasin, xalqim" kabi she'rlari atroflicha tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *Vatan, yurt, tolbeshik, ona tuproq, zamin qishloq, qaldirg'och.*

Abstract: *This article is about Mukhammad Yusuf, who has become a favourite poet of Uzbek poetry through his words of appeal to virtue, which has filled the heart with wonderful feelings. The poems of the poet such as "Motherland","Uzbekistan", "Don't leave yourself, my people", which spread the seeds of love to our hearts in the collection "Alyorum qolur" were analyzed in detail.*

Keywords: *Fatherland, country, cradle, mother soil, ground, village, swallow.*

So'z bilan ko'ngil tubiga kirish mumkin bo'lganidek, so'z bilan bag'ri toshga aylanganlarni ham eritish mumkin. Muhammad Yusuf shunday toshlarni ham eritishga qodir so'zlari bilan xalqimiz yuragidan joy olgan, so'zi bilan haq gapni

ayta olgan ijodkor edi. Shoirning yana bir “Alyorim qolur” to‘plamiga kirgan allaqachon muxlislariga yod bo‘lib ketgan, ohanglarga solingan, bugun ham qo‘shiq bo‘lib aytilayotgan, bir turkum she’rlarini ko‘rib chiqamiz.

Shoir nafaqat yurtni balki ishq muhabbat mavzularini ham me’yoriga solib yozdi. Uning ijodida sog‘inch hissining ham yuqori ekanligi va bu tuyg‘uning Vatan muhabbati bilan o‘zaro bog‘liq tarzda ifodalaganligini uchratamiz. Bu his-tuyg‘ularni shoir ijodidagi dastlabki namunalarida ham uchratish mumkin.

Tanish terak, ariq yoqasi,

Bo‘tana suv, shirin loyqa suv.

Tol ko‘chada otlar taqasi,

Qancha bo‘ldi ko‘rmaganimga.

Hammaga tanish bo‘lgan, yoshlik davri o‘tgan ko‘chalar yana bir bor shoir mahorati bilan obrazli qilib jonlantirilib, bolaligimizdagi baxtli kunlarimizni eslatadi. She’rning lirik qahramoni ham bolaligini, o‘sha tanish teraklarini hovlisining o‘rtasidan oqayotgan ariq, mehribon onaizorini sog‘ingan ammo unga bora olmayotgan-shaxs timsoli ko‘rsatilgan. Shu o‘rinda qishloqning manzarasini bir eslab ko‘rsak. Yastanib yotgan tog‘ni, uning ortidan sekin mo‘ralab chiqayotgan quyoshni kuzatganmisiz? Yoki tong chog‘i shiyponlardan ko‘tarilayotgan tutun izlarini-chi? Tabiatning bunday ajoyib mo‘jizalarini kuzatgan, shunday go‘zal daqiqalarga bee’tibor bo‘lmagan shaxs qishlog‘ini, ona tuprog‘ini sog‘inmasligi mumkinmi? Aslo mumkin emas. Shoirga nisbatan qishlog‘iga borib, qaytganida “cho‘ntaklarini she’rlarga to‘ldirib qaytardi” - degan juda chiroyli poetik ibora ishlatilgan. Ha, qishloqdan bir olam taassurot va mehr-muhabbatga to‘lib qaytgan shoir ma’lum vaqtda samarali ijod mahsullarini yaratadi. Buni kuzatgan ziyrak xalqimiz, shunday iborani qo‘llagan bo‘lsa ajabmas. Muhammad Yusuf she’rlari bahor tonglaridek mayin, yozning issiq taftida bir qultum suvdek, kuzning mayin yomg‘irlariday inson qalbiga benazr huzur olib kiradi. Ijodining dastlabki yillarida Vatan, ona, qishloq kabi ko‘pgina mavzularga murojaat qiladi.

Vatan menga o‘sha hur qishloq

Va qaldirgo‘ch yo‘qlab kelgan behisob,

Anav tomlar uzra hilpirab turgan,

Alvon gullar, ismi inqilob.

Vatan shoir nazdida o‘sha hur qishlog‘i, ayvoni uzra yo‘qlab kelgan behisob qaldirg‘ochi-yu, tom ustida bayroqdek hilpirab turgan qizg‘aldoq timsolida namoyon bo‘ladi. Muhammad Yusuf mustaqillik yillarida yozgan *“O‘zingdan qo‘ymasin xalqim”, “O‘zbekiston”, “Xalq bo‘l elim”, “Vatanim”* kabi Vatanini ulug‘lab, davr da’vatiga mengzagan she’rlari millionlab qalblarga, unutilmas ohanglar orqali kirib borib, xalq madhiyasiga aylanib qoldi. Shoir aytib o‘tganlaridek, she’rlarida deyarli barcha so‘zlarni xalqning o‘zidan olib, sayqallab, to‘yintirib yana o‘zlariga qaytarib bergan.

Qushday uchib quchog‘ingdan dunyo kezdim,

Kezib-kezib topganlarim sog‘inch bo‘ldi.

Qancha olis ketsam shuncha qadring sezdim,

Qayda yursam yodi –mehring ovunch bo‘ldi.

Aylanayin qora qoshu ko‘zingdan-a,

O‘zingdan qo‘ymasin xalqim, o‘zingdan-a!

Shoir “O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim” she’ri orqali jannatmakon yurtini, balki bir-biridan ajoyib, mehmondo‘st va bag‘rikeng, oqibatli xalqini ulug‘laydi. Qayga bormay doim sog‘inch hissi bilan yashashini aytib, faxrlanadi. O‘z vatani bor inson borki, qayga bormay, xoh uzoq, xoh yaqin manzil bo‘lmasin o‘z uyini sog‘inib, qumsayveradi va o‘sha Vatan sog‘inchidagi taskin bilan ovunadi :

“*Na gapga ko‘nayin na til bilayin,*

Ko‘zdan uyqu qochdi, dildan halovat.

Uch kunda sog‘insam nima qilayin.

Chala qolar bo‘ldi hamma sayohat degan”

“Iqror”ida aytilgan ohorli misralarida ham bu tuyg‘u o‘z darajasini yanada ochiq ko‘rsatib bergan edi. Muhabbat tuyg‘usi yashagan qalbda, sog‘inch tuyg‘usi, uning sezimlari o‘ta kuchli tarzda ifodalanadi. She’rda muhabbat va sog‘inch tuyg‘usi erkalatish tuyg‘usi bilan qorishib o‘zini namoyon qiladi. Bu she’rdan

yaralgan qo‘shiq o‘z davrida xalqimizning suyukli san’atkori, O‘zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonova tilidan kuylanib, xalqning asl san’atkori darajasiga ko‘tarilishida munosib hissasini qo‘shdi. Bu qo‘shiq bilan dunyoning manaman degan sahnalarida, minglab odamlarni o‘ziga jalb qilib, o‘zbek nomini butun dunyoga taratdi. So‘zlaridagi mazmun va iftixor tuyg‘ularining yuqori pardalarda yozib, kuylanganligi har ikki ijodkor shaxsiyatiga maqtov va shuhrat olib keldi.

Birov uchun birovlar tush ko‘rib bermas,
Minnat qilmay bir bog‘ o‘tin terib bermas.
Bayramingda oylab bazm qilgan kaslar,
Boshingga ish tushsa bir kun turib bermas.
Nomus kuyi tushmasin hech bo‘g‘zingdan-a,
O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim, o‘zingdan-a!

Bu bandida shoir, go‘yoki, ota bo‘lib, farzandiga hayot saboqlarini o‘rgatishga kirishadi. Hayot shunday bir sinov maydoniki, unda yashash uchun har kim o‘zi intilishi, birovga qaram bo‘lib qolmasligi, qolaversa, birovni bergan bir hovuch yordami, garchi u bir bog‘ o‘tin bo‘lsa ham minnat daraxtida pishib yetilishi, yaxshi kuningda do‘stman deb yurgan birodarlaring, boshinga tashvish tushganda turib berolmasligi mumkinligi haqida uqtiradi. Xalqiga “*Nomusing kuyi hech bo‘g‘zingdan tushmasin, o‘zingdan qo‘ymasin, o‘zingdan*” - deb o‘z xalqiga yuzlanadi. Banddagi so‘zlar shunchalar keskir yozilganki, insonni biroz mushohada qilishga undaydi. Insonga yaxshi ta’sir qiladigan yagona qurol bu so‘z bo‘lsa, bu qurol faqat adabiyot ahlida, ko‘proq shoirlar qo‘lida o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligiga yana bir bora amin bo‘lamiz. So‘z qudrati “*shoir dunyosi orqali she’rlarida aks etib, o‘zini namoyish qiladi. She’r ko‘ngil nafosatidan darak beradi. Chin ma’nodagi ijodkor fanoni baqoga alishmaydi, adabiyotning adabiyotini his qiladi. Ular ruh boyligi-tuganmas ma’naviy xazinaga butun vujudi bilan oshiqona talpinadi. Shunda ijodiy dard miqyosi ulkanlashadi, shunda Vatan haqida rost yoza oladi”* (Bahodir Karim, 2021).

Muhammad Yusuf ham faqat rost yoza olgan shoirlardan edi. Shu sababdan ham uning har bir asarlari yildan-yilga xalqning dilidan-tiliga ko‘chib, xalq

maqollaridek sayqallanib kelmoqda. Ohanglarga solinganlari esa xalqimizning eng sevimli qo‘shiqlari bo‘lib xonadonlarga kirib borganligi bizni ham quvontirayotgani rost.

Yetmish yil ko‘z yoshing artdi armonim,
Qora qumg‘onda choy-moysiz yovg‘onim.
Sarbonsiz cho‘llarda daydigan Majnun,
Ipak yo‘llarida izsiz karvonim.
Salom, o‘zliga qaytgan ummonim,
O‘zimniki bo‘lgan O‘zbekiston.
O‘zbekiston! O‘zbekiston!
O‘zbekiston, yurtim mening,

Mening ona-Vatanim deya “O‘zbekiston” she’rida, shoir tarix bilan yuzlashib, o‘z ruhiy uyg‘unligini quyidagicha ifoda qiladi. Aynan “yetmish yil” degan jumlani o‘qigan kitobxon beixtiyor mustaqillikdan oldingi tashvishli, suronli yillarni ko‘z oldiga keltiradi. Avvalo, erksizlik, mustabidlik kabi hozir yotga aylangan so‘zlarni eslaydi. SSSR va Sho‘rolar davlatiga qaram bo‘lgan yetmish yil o‘z boyliklarimizdan o‘zimiz foydalana olmay; qora qumg‘on va moysiz yovg‘onli kunlarni (aslida 70 yildan ortiq) xotirlaydi. Xalqimiz yo‘lboshchisiz sahrolarda Majnundek daydigan yillarni qalamga oladi. Istiqlol hamma shoirlar kabi Muhammad Yusufni ham so‘zini yanada o‘tkir, she’riyatidagi mavzularning ta’sir kuchini ham oshishiga zamin yaratdi. *“Xalqimiz bisotida dono va ibratli aqida-yu o‘gitlar ko‘p har bir yurtning o‘z egasi bo‘lsin, imorat me’morsiz tiklanmas. Darhaqiqat, u yoki bu xonadonning past-u balandini uni tuzgan sohibidan ko‘ra yaxshiroq biladigan kishi bo‘lmaydi. Shu ma’noda mamlakat ham ulkan bir xonadonki, uning iqbolini bundan o‘ttiz ikki yil muqaddam hurriyat bayrog‘ini davlatimizning birinchi rahbari I. A. Karimov qadagan”* (Abdulla Oripov so‘zi, 11-bet). Bugun bu ne’matni yana-da taraqqiyot ostonasi tomon ildamlayotgani bizga shukronalik tuyg‘usini beradi. Shundan ilhomlanib, shoirlik darajasi kengayayotgan qalam ahllarining dostonlari soni ortib, xalqlar tilida ash’orlarga aylana boshlanayotgani ham quvonarli holatni anglatadi. “O‘zbekiston” she’ri

asosida Husniddin Xoliqov tomonidan yaralgan qo‘shiq to‘qsoninchi yillarda san’atning eng sara namunasi darajasiga ko‘tarilgan.

Muhammad Yusuf Vatan haqida yozgan she’rlarining har bir so‘zi ezgulikka daxldor, go‘zallikka oshno qalblar bilan mangulikka ham daxldordir. Shoir she’rlarida biz keltirgan mavzu va mohiyatidan tashqari milliylikni tarannum etuvchi, o‘zbeklarga xos xususiyatarni bildirib turuvchi oila, farzand, ota-ona mavzulariga ham juda ehtiyotkorlik bilan, o‘zgacha uslubda yondashuvini uchratamiz. Xalqimiz azaldan bolafe’l va bolajon xalq. Hayotining mazmunini farzandi kamoli bilan bog‘lab, shu umid bilan yashaydi, shunday emasmi? Zero, shoir aytganidek:

Qiyosi yo‘q aslo, mehri bir daryo,
O‘xshasa o‘ziga o‘xshaydi o‘zbek.
Bolalariga-ku bildirmas, ammo,
Dunyoda bolam, deb yashaydi o‘zbek.

Aytib o‘tilgan fikrlarning isbotini ”O‘zbek” she’ri orqali ko‘rsatib bergan. Shu o‘rinda shoirni yana bir xislatini aytish o‘rinlidir. Bilamizki, farzandlarimiz go‘dakligidan shirin allalar og‘ushida, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan, jim-jimador bezaklar bilan bezatilgan yog‘och beshiklarda ulg‘ayishgan. Bunday yozib bo‘lmasligi mumkin bo‘lmagan mavzular ham shoir e’tiboridan chetta qolmagan. Bu mavzularni boshqa she’rlarida *“tol beshik”, “yog‘och beshik”* kabi poetik iboralar bilan ochib ketganligini kuzatamiz. Shu orqali “Bola-podsho” unga itoat qilish lozim deb biladigan xalqimizning ichki dunyosini ochishga urinadi.

O‘nta bo‘lsa o‘rni boshqa uning-chun:
O‘g‘lim otashimdan yaralgan uchqun,
Qizim parilardan chehrasi gulgun,
Yuzlari lolam, deb yashaydi o‘zbek.

Xalq og‘zaki ijodining ko‘pgina namunalarini o‘z asarlarida qo‘llash Muhammad Yusufning o‘ziga xosliklaridan biri hisoblanadi. “O‘zbek xalqi – bolajon xalq” deb bejizga aytishmagan. Alloh taoloning ato etgan ne’matlaridan

biri bu farzand. Xalq orasida *“o‘g‘il bo‘lsa otasiga yelkadosh, qiz bo‘lsa onasiga yo‘ldosh”* bo‘ladi degan ajoyib poetik o‘xshatishlar ham mavjud. Shu ne’matni xalqimiz *“Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor”* deb ham ta’rifini keltiradi. Shoir esa, “*O‘nta bo‘lsa, o‘rni boshqa”* deya ma’no tashuvchi obyekt sifatida she’rlarida o‘rinli foydalanganligi ko‘rinib turibdi.

Muhammad Yusufning Vatan haqida yozgan hamma she’rlari onasi haqida bo‘lsa, ona haqida yozganlarining barchasi Vatan haqqiga bag‘ishlangan deyishadi. Inson uchun Vatan ona kabi aziz va muqaddasdir. Muhammad Yusuf uchun Vatan uning tabiati, Vatan uning fitrati, kindik qoni tomgan yeri, shu bois butun umri davomida shu yurt farzandi ekanligidan faxr tuyg‘usini tuyib yashadi. Biz shoir ijodini o‘qib undan Vatanni onasidek, singlisidek e’zozlab, ardoqlab sevishni o‘rganib, bu aziz yurtga munosib farzand bo‘lishdek oliy maqsadni oldimizga qo‘yishimiz lozim. O‘zbek adabiyotida shunday haqiqiy qahramonlarning borligi biz kitobxonlar qalbini qaysidir ma’noda faxr tuyg‘usi bilan sug‘oradi. Bugun xalqimizning sevimli xonandalari G‘iyos Boytoyev, Muhriddin Xoliqov, Yulduz Usmonovalar shoir she’riyati bilan o‘z vaqtida ma’lum va mashhurlik cho‘qqisiga chiqqanligi barchamizga ayondir.

Oq yo‘rgakga o‘ragansan o‘zing bizni.
Oq yuvib oq taragansan o‘zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo‘lib,
Kunimizga yaragansan o‘zing bizni.

Muhammad Yusuf muhabbat haqida yozar ekan, bu tuyg‘uni goh vatanga, goh ayollarga mengzab kuylab o‘tadi. Muhabbat tuyg‘usi aslida juda keng ma’noda qo‘llanadigon ilohiy bir tuyg‘u bo‘lib uni har kim o‘zicha tushunadi va o‘zicha anglab yetadi. Bu tuyg‘u shoirlar tilida o‘zgacha namoyon bo‘lsa san’atkor tilida ham boshqacha jarang topadi.

Muhabbat, ey go‘zal iztirob,
Ey ko‘hna dard, ey ko‘hna tuyg‘u.
Ko‘kragimga boshingni tirab,
Yuragimni to‘kib qo‘yding-ku.

Muhabbatni yoqimli iztirob ekanligini biz: “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” kabi ilohiy ishq shaydolarini ismlarini zikr etib o‘tishimizning o‘zi, shoirning fikri nechog‘lik haqiqat ekanligini ochib beradi. Rostdan ham bu tuyg‘u kimning boshiga tushmasin, shoh bo‘lsa gadoga, gadoni esa faqirga aylantirishini yaxshi anglaymiz. Aslida bu satrlarga izoh lozim emas, ammo sevgi haqida kim mulohaza yuritishni istamaydi deysiz. Shoir she’riyatida yuksak ma’no va o‘ziga xosligi xalqonaligi bilan ahamiyatli bo‘lib, uning she’rlari davralarda yangraganda she’riyat shaydolaridan farqli o‘laroq, ular oddiy xalq, balki siyosatchi, iqtisodchi bo‘lmasin, she’rdagi ohang va so‘zlarning ta’sirchanligini his qilib bor vujudini quloqqa aylantirishlari - haqiqat. O‘zbek adabiyoti sahnasida Muhammad Yusufdek benazir shoirning yashab, ijod qilib o‘tgani va bugungi avlodga o‘lmas meros qoldirib ketgani, o‘zbek xalqining tom ma’nodagi baxti. Garchi bu inson bugun oramizda bo‘lmasa-da, Muhammad Yusuf degan nom barhayot ekanligi shoirning xotirasiga va yaqinlariga g‘urur baxsh etadi.

Sodda Muhammadman,

Sodda Muhammad –

Turkman qizni maqtab baloga qoldim

Ko‘ylagiga havas qilgandim faqat,

Toabad tuganmas g‘avg‘oga qoldim.

Shoir xotirasi toabad, shunday sodda va o‘lmas she’rlari bilan qalbimizda abadiy yashayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. B. Karim. (2021). *Istiqlol adabiyoti: nazm va nasr* Toshkent – Firdavs-shoh nashriyoti.
2. Ozod Vatan saodati. (2013). Besh jildlik to‘plam. *4-jild: Badiiy publitsistika.*
3. Muhammad Yusuf. (2019). *Alyorim qolur*. Toshkent: “Ziyo nashr“.
4. Muhammad Yusuf. (2019). *Saylanma.* Toshkent: “Sharq” nashriyoti.

TILAK JO‘RA IJODIDA SHAMOL TIMSOLI VA U BILAN BOG‘LIQ O‘XSHATISHLAR

Rasulova Saida Hikmat qizi,
SamDU Filologiya fakulteti, 3-kurs
rasulovasaya20@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoir Tilak Jo‘ra ijodida shamol timsoli va u bilan bog‘liq o‘xshatishlarni o‘rganish maqsad qilindi. Shoir ijodini o‘rganishda bir nechta she’riy to‘plamlarni o‘zida jamlagan “Saylanma”dan foydalanildi. She’rlarning xilma-xilligida goh shamolning saraton qiyofasini aks ettirishini ko‘rsak, goh qish qahratonini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etganligiga guvoh bo‘lamiz. Bunday asarlar shoir ijodining va adabiyotimizning ajralmas bir qismidir.

Kalit so‘zlar: shamol, saraton, qish, sharq shamoli, individual va xalqona o‘xshatishlar

Abstract. This article aims to study the symbol of the wind and similes related to it in the works of the poet Tilak Jora. “Selection”, which includes several poetry collections, was used to study the poet's work. In the variety of poems, sometimes we can see that the wind reflects the image of cancer, and sometimes we can see that it is important in describing the wrath of winter. Such works are an integral part of the poet's work and our literature.

Key words: wind, cancer, winter, east wind, individual and folk similes

O‘zbek she’riyatida har bir shoirning o‘z o‘rni bor. Ushbu maydonda o‘zining chin, haqqoniy satrlari bilan muqim o‘rin egallagan shoirlardan biri Tilak Jo‘radir. Shoir Tilak Jo‘ra ijodi timsollar xilma-xilligi, original o‘xshatishlarga boyligi hamda ma’no-mazmunning yuqori darajada ekanligi bilan ajralib turadi.

Shoir ijodiga bildirilgan har bir fikr uning ijodiga qo‘yilgan bahodir va bu qarashlar, chindan ham o‘z haqiqatiga ega. Shoir ijodi to‘g‘risida uning ustozi Rustam Musurmon shunday deydi : “ U zo‘r yozardi. Vatan haqida, inson tuyg‘ulari haqida, hayot haqida. Uning so‘zlarida ko‘zni quyoshga qaragandek qamashtirib yuboradigan timsollar, fikrni xanjardek charxlaydigan metaforalar ko‘p”(Tilak Jo‘ra, 2011, 11-bet). Ushbu fikrlarning nechog‘lik to‘g‘ri ekanligiga

shoir ijodi bilan tanish bo‘lgan har bir o‘quvchi guvohdir. Shoir ijodida o‘xshatishlarning turfaligi va ta’sir doirasining kengligi haqida gapirilar ekan, quyida shoir ijodidagi shamol timsoli va u bilan bog‘liq o‘xshatishlarni ko‘rib chiqamiz.

Jumladan, “Rayhon” she’riy to‘plamidan o‘rin olgan “Shu osmon ostida…” deb boshlanuvchi she’rda shamol bilan bog‘liq quyidagi o‘xshatishlarni ko‘ramiz:

Hislarimni shamolday to‘zg‘itib,
Hislarimga ipakday o‘rayman seni
Dunyoni unutib
Dunyoda sen bilan qolaman, gulim,
Shu osmon ostida…

She’rda lirik qahramon o‘z hislarini to‘zg‘igan shamolga o‘xshatmoqda va bu orqali individual o‘xshatish yuzaga chiqqan bo‘lsa, “O‘n yetti yoshim” she’rida xalqona iboralardan biri bo‘lgan “shamolday yelmoq” birikmasi orqali o‘ziga xos mazmun yuzaga kelmoqda:

Shamolday yelar g‘irotim,
olamga ayon otim:
men – Go‘ro‘g‘liman.
O‘n yetti yoshim!

“Rayhon” to‘plamidan o‘rin olgan quyidagi she’riy parchada ham shamol tasviri orqali o‘ziga xos mazmun yuzaga kelmoqda:

Dunyoning burchak-burchaklariga
sochlaringni xayol qilib to‘zg‘itardim.
U xayol ortidan
men o‘zimni
shamolday izg‘itardim!

Shoir yorning sochlarini xayoliga keltiradi va uni dunyoning burchak-burchaklariga to‘zg‘itib yuboradi. Shamol butun dunyoni kezib chiqqani kabi xayoli ortidan ketayotgan shoir o‘zini shamolday izg‘igan holda tasavvur etmoqda. Quyidagi to‘rtlik orqali esa shoir tun manzasini aks ettirganligiga guvoh bo‘lamiz:

Borliqqa to‘shalgan jimlik pardasi,

Shamol shivirlamas, titramas yaproq.

Shirin uyqudadir yurtim kechasi,

Uni qo‘riqlaydi miltillab chiroq.

She’rda tunning sokinligi unga jimlik pardasining to‘shalganligi bilan qiyoslanmoqda va bu jimlikni yanada ta’sirchan ifodalashda “shamol shivirlamas, titramas yaproq” misrasi ham asosiy o‘rin egallagan. Bu o‘rinda shamol esishi go‘yoki shivirlashga o‘xshatilgan. Keyingi she’rda esa yoz manzarasini tasvirlashda tabiat hodisalari orqali go‘zal tasvir yuzaga kelganligini ko‘rishimiz mumkin:

Yaproqchalar jimgina boqar,

Qoratolning shoxi qayrilib.

Irmoqcha ham erinib oqar

Tolning soyasidan ayrilib.

Tol shoxida qushcha bemajol,

Halqumida tipirchilar jon.

Tol tagiga berkingan shamol,

O‘z hukmini o‘qir saraton.

She’rda birgina tol daraxtini tasvirlash orqali saraton surati chizilmoqda. Irmoqlarning bahor faslida to‘lib-toshib oqqanligini esga olsak, yoz faslida esa go‘yo irmoqlar ham “erinib” oqayotgandek tuyuladi. Butun fasl mobaynida barcha jonzotlar yengil shamolni qo‘msashadi. Bu vaziyat “Tol shoxida qushcha bemajol” misrasida o‘z isbotini topgan. Shoir nazarida esa qushcha istayotgan shamol “tol tagiga berkinib olgan”. She’r orqali yoz faslidagi yengil shamol qalamga olingan bo‘lsa, quyidagi she’rda qish faslidagi shamol tasviri o‘z ifodasini topgan:

Shamol

O‘z etagin o‘zi yopolmay,

Qish kunlari sarsondir shamol.

Dardlariga hamdard topolmay

Qish kunlari hayrondir shamol.

Yaproqlar-la qurolmay bazm,
Jilg‘alar-la aytolmay qo‘shiq
Alamidan shamol qolar jim,
U jimlikka chidolmas ortiq.

Goh hayqirib, goho bo‘kirib,
Eh, alamin kimdan oladi?
Qonga tashna itday quturib,
Uchraganga changal soladi.

Qishda shunday sarsondir shamol,
To‘rt tomonga izg‘ib qoladi.
Bahor kelsa erta bezavol,
Yuragini to‘kib soladi.

Qish faslida kuchli shamol bo‘lishi go‘yo shamolning o‘zi ham shamolda qolgan odam kabi etagini yopolmay sarson holatga tushganligi bilan izohlanmoqda. Navbatdagi misralarda shamol o‘z dardlariga hamdard izlayotganligi haqida aytilgan. Shoir nazarida shamol yaproqlar bilan bazm qilolmaganligi, yoxud jilg‘alar bilan qo‘shiq aytolmasligi sababli alamzada holda, jimlikka chidolmasdan shu ahvolga tushgan va alamini kimdan olishni bilmay, “Uchraganga changal soladi”(metafora). Shoir qish faslidagi shamolni tasvirlash orqali hayotdagi ayrim kishilarga ishora qilganligini anglashimiz ham mumkin. Ushbu she’rda shamol o‘z ramziy ma’nosiga ega bo‘lsa, “Olam ostonasi” to‘plamidan o‘rin olgan, S.Yeseninga bag‘ishlangan she’rda vatanga muhabbatni ifodalovchi timsol bo‘lib kelgan va Sharqning shamoli deya alohida nisbatlangan:

Esib tursa Sharqning shamoli,
O‘z tuyg‘umdan o‘zim yurgum mast.

Vatan haqidagi fikrlarimizni har birimiz bo‘lakcha izhor qilamiz. Shoirimiz uchun esa hatto vatanning shamoli ham aziz. Bu haqida shoir Shukur Qurbon: “Jo‘xori, shaftoli, shudringlar, shamollar, bedanalar – timsollar yordamga keladilar bu ifodada va yurakdan joy oladilar. Turmush tashvishlari bilan andarmon bo‘lib

yurganimizda, shoir bizga buyuk vatanimiz borligini va shu tufayli baxtli ekanimizni yodimizga soladi”(Tilak Jo‘ra, 2011, 4-bet).

“Yulduzlar tabassumi” to‘plamidan o‘rin olgan quyidagi she’rda shamolning go‘zal tasviri chizilgan:

Ostonamda yig‘laydi shamol,
Belanchakday tebranar fonus.
Bobom ekkan majnuntol,
Kuylar qo‘msab bahorni hanuz.

Ostonamda sochin tarar tun,
Yuragimga to‘kilar ohang.
Uzoq kecha chiqarmayin un,
Tun bag‘rida o‘rtanadi tong.

Kuchli shamol esganda turli tovushlar eshitilishini shoir shamolning yig‘lashiga ishora qilgan va buning natijasida fonus ham belanchakday tebranmoqda. Majnuntolning bahorni qo‘msashi har bir insonning hayotda o‘z bahorini kutishiga ishora desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Keyingi bandda tun va tongning o‘ziga xos tasvirlarini ko‘rishimiz mumkin. Tunning sochini tarashi, bu orqali inson yuragiga ohang to‘kilishi va tun bag‘rida o‘rtangan tongning otishi yaxshiliklarga ishoradir. “Chorraxadagi uy” to‘plamidan o‘rin olgan quyidagi she’rga e’tibor qaratamiz:

Yashash mumkin
Ko‘m- ko‘k maysalarday
Ko‘zlarni yashnatib;
Yana mumkin,
Tovoningga suqilgan xazonday
Ko‘zlarni yoshlatib
Yashash mumkin.
Yoki
Tanadagi kirday

G‘ashga tegib,

Yo

Soyadagi novdaday

Har shamolga boshingni egib.

Yashash mumkin;

Tirikchilik degan girdobda

Bir xasday qalqib,

Yashash mumkin...

Yashadim, deb ayta olsang,

Mayli, yashayver...

She’rda insonlarning turfa xil yashash tarzi haqida so‘z boradi. Inson hayoti davomida “ko‘m-ko‘k maysalarday ko‘zlarni yashnatib”, hammaga yaxshiliklar ulashib yashashi mumkin. Yoki aksincha, “ko‘zlarni yoshlatib”, hammaga ozor berib ham yashash mumkin. Kishilarning g‘ashiga tegib yashashni shoir tanadagi kirga qiyoslamoqda. Doim bosh egib mutelikda yashovchilar shamolga bosh eguvchi soyadagi, “quyosh ko‘rmagan” novdaga o‘xshatilmoqda. Faqat tirikchilikni o‘ylab yashovchilar girdobdagi xas kabi yashab o‘tishlari mumkin. Shoir yashash haqida turli misollar keltirar ekan, inson, avvalo, Yashadim deb ayta olishi kerakligini, hayoti davomida ezgu amallar qilib yashashi lozimligini ta’kidlaydi. Ushbu to‘plamdan o‘rin olgan quyidagi parchada ham shamol bilan bog‘liq o‘xshatish yuzaga kelgan:

Maysazorda zang bosgan taqa –

Bulutlarga o‘ralgan hilol.

Asta tashlab umringga halqa,

O‘tib borar bu davron – shamol!

Parchada taqa bilan hilol oyning shakli bir-biriga o‘xshatilmoqda. Hilol oyning to‘lib borishi esa halqaga qiyoslangan. Bu jarayonni ifodalash orqali shoir bevosita vaqtning o‘tib borishini ifodalab bergan va vaqt shamol kabi tez o‘tib borishi izohlab berilgan. “Sanduvoch” she’riy to‘plamidan o‘rin olgan she’rda esa shamol insonlar dimog‘iga xushbo‘y iforlarni olib kelishi tasvirlangan:

Sudraladi chala jonli hut,

Yerning qurchi – oftob taftida.

Eshigingni och, shabadani kut,

Binafsha keltirar kaftida.

Hut – yoz oylaridan biri. Havoning shu qadar issiqligidan go‘yoki chala jonli hut ham “sudralib” o‘tib bormoqda. Hatto yer ham oftob taftida qolgan. Bu vaziyatda shoir eshikni ochib shabadani kutishni, shabada binafsha hidini kaftida olib kelishini tasvirlagan. She’rda “shabadaning kafti” individual o‘xshatishi yuzaga kelgan. Quyidagi she’rda esa shoir o‘z qo‘rquvini shamol yordamida ifodalamoqda:

Shamoldan cho‘chigan kapalakday

juda qo‘rqaman:

birdan

miyamni g‘ijimlagan

yovuz xayoldan.

Inson yovuzlikni xayoliga keltirmaslikni istaydi, ammo shoir miyani “g‘ijimlaydigan” yovuz xayoldan go‘yo shamoldan cho‘chigan kuchsiz kapalak kabi qo‘rqishini ta’kidlab o‘tgan. “Ro‘zi Jo‘raning eng ko‘p aytgan xirgoyisi” she’rida vatan haqida gapirilar ekan, hatto shamolning ham vatani borligiga ishora qilinadi:

Qancha qora bo‘lmasin,

Kechaning kunduzi bor!

Qancha daydi bo‘lmasin,

Shamolning ildizi bor!

Shamolning ildizini shamol boshlangan joy deb tushunsak, demak o‘sha yer shamolning vatanidir! Keyingi she’rda esa yurakning shamolga o‘xshatilishiga duch kelamiz. Lirik qahramon o‘z yuragining shamolday bezovtaligidan ajablanishini ko‘rishimiz mumkin:

Shamolday xo‘piqib, titrab,

Yurak, mendan nima istaysan?!

Yoxud shoirning quyidagi misralari orqali shamol esishi uning “hasratini aytishiga”, shamol tovushi esa och qolgan bo‘rining “uvillash”iga o‘xshatilgan:

Shamol hasratini aytib oshkora,

Och qolgan bo‘riday tinmay uvillar.

Shoirning “Ruhiyat” she’riy to‘plamida jamiki insonning ruhiyati bilan bog‘liq she’rlar jamlangan. Ular orasida “Holat” nomli she’rga e’tibor qaratamiz:

O‘ylayman,

Tursa-yu shamol,

Haydasa dunyoning bir chekkasiga

Qarg‘alarni, tund xayollarni.

Shamol turar,

Xayollar qochmas.

She’rda insonning tushkun holati ifodalab berilgan. Lirik qahramon bu holatdan chiqish uchun shamol timsolidan foydalanadi. Go‘yo shamol tursa-yu, lirik qahramonning qarg‘a kabi tund holatini haydab yuborsa… ammo inson tushkun holatdan chiqishi har doim ham oson bo‘lavermaydi. Buni shoir “Shamol turar, Xayollar qochmas” misralari orqali ifodalab bergan.

Xulosa qilib aytganda, shoir ijodi o‘zining takrorlanmas fikrlari bilan ajralib turadi. She’rlaridagi ma’no-mazmun mohiyati hamda falsafiylashgan satrlar o‘quvchini o‘ziga tortmay qo‘ymaydi. Bularni o‘qib- o‘rganish esa yosh avlodning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroyeva, M. (2004). Erta so‘ngan yulduzlar. (112-142- betlar) . Toshkent: Sharq.

2. Tilak Jo‘ra. (2011). Saylanma. (288 bet). Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

3.Boboyev, T. (2002). Adabiyotshunoslik asoslari. (370- bet). Toshkent : O‘zbekiston.

ЎЗБЕК ХАЛҚИ ТЎЙ МАРОСИМЛАРИ: КЕЧА ВА БУГУН

Сотволдиева Мохинур Хазратулло қизи
АДУ филология факультети, 1-босқич магистранти
mohinurqodirova97@gmail.com

Асосий мақсад, ўзбек тўй маросимларини ўтказилиш жараёни, ўтмиш ҳамда бугунги кундаги ўхшашлик ва фарқли жиҳатларини таҳлил қилиш, турли даврларда бўлиб ўтган бу воқеликнинг давомийлигини ўрганилганлик таҳлилини келтиришдан иборат.

Калит сўзлар: *ўзбек халқи тўйлари, никоҳ тўйи, урф-одатлар, совчилик, унаштириш, фотиҳа тўйи, никоҳ ўқитиш.*

Abstract. *In this scientific work, thoughts about the past and present of the wedding ceremonies of the Uzbek people, lost or completely renewed traditions, researches conducted by scientists in this regard are discussed in detail. The main goal is to analyze the similarities and differences between the Uzbek wedding ceremonies in the past and the present, and to provide an overview of the continuity of this reality in different periods.*

Keywords: *weddings of the Uzbek people, marriage, customs, betrothal, blessing wedding, marriage education.*

Маълумки, ўзбек тўйларининг вужудга келиш ва ривожланиш босқичлари бир қанча давр, йиллар ортга бориб тақалади. Ўзбек тўйларидаги бугунги замонавийлик, уни бир неча йиллар илгариги кўриниши билан таққослаганда, 20-30 йил ўртасида яхшигина фарқ сезилади. Бу эса, албатта, замоннинг шиддат билан янгиланиб бораётгани ва унинг одатларимиз, анъаналаримизга бевосита, билвосита таъсири билан ўлчанади. Биз ўзининг тарихан шаклланиб келган анъана ва урф-одатларига эга кўплаб халқларни биламиз. Хусусан, ўзига хос этнографик тарихи йиллар мобайнида шаклланган ўзбек халқи маросимларига тўхталадиган бўлсак, унда шундай одат, расм-русумлар борки, бошқа халқларда деярли учратмайсиз. Улар орасида ўзбек халқи тўйлари олис ўтмиш замонидан то ҳозирги даргача амал қилиниб келаётган асосий маросимлардан бири ҳисобланади.

Ўзбек тўй маросимлари - миллатимиз маданияти, тарихи, ривожланиш хусусияти ва босқичларидаги урф-одат, анъаналаримизни ўзида акс эттирган бебаҳо қадриятларимиздан бири сифатида кўплар томонидан кенг ўрганилган ва ўрганилиб келиняпти. Никоҳ тўйи маросими бутун дунё халқларида турлича нишонланиши билан бир қаторда, ўзига хос атамалари ва ўтказиш тартиби билан ажралиб туради.

Бу борада, Д. Д. Манукян, Й. А. Сорокин, Д. А.Гилфанова каби олимлар никоҳ тўй маросимига оид изланишлар олиб борган. Ҳозирги замон тўй маросимлари номлари билан боғлиқ тадқиқотлар А. Жўрабоев Ш. Нуриллаева, Ҳ. Исмоилов, О. Бўриев, З. Ҳ. Орифхонова, М. Қахаровалар томонидан амалга оширилган. Шўролар даврида никоҳ тўйи маросимларида янги урф-одатларнинг пайдо бўлиши О. А. Сухарева, М. А. Бикжанова, Н. П. Лобачёва, Л. Ф. Моногарова, Т. Х. Тошбоева ва М. Б. Савуровларнинг илмий ишларида ўз аксини топган. Тадқиқотчи З.Алимова ҳам ўз илмий ишида форсча-тожикча тўй маросимлари ҳақида тўхталиб ўтган.

Ўзбек халқининг никоҳ тўйи тизимида: совчилик, унаштириш, уй кўрди, учрашув, фотиҳа тўйи, тўй юбориш (мазар), қиз тўйи (қизлар мажлиси), никоҳ ўқитиш, келин туширди, келин салом, чарлари, қуда чақириқ (ота кўрди, қиз кўрди) сингари маросимлар ва улар билан боғлиқ қадимий урф-одатлар бор. Уларнинг аксарияти ҳозиргача сақланиб, нишонланиб келинади.

Ўзбек тўйлари тарихи, ривожланиш босқичи, жанр хусусиятлари бир қатор олимлар томонидан кенг ўрганилган. Бу соҳада А. Аширов *(“Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари*”), К. Кубаков *(“Тўй ва тўй маросимлари ўтмишда ва хозир*”), Ҳ. Муин *(“Тўй ва аза маросими ҳақида”),* Х. Сулаймонова *(“Ўзбекистонда тўй анъаналари тарихи ва бугуни”),* Х. Умурова *(“Инглиз ва ўзбек тилларида тўй маросими атамалари хусусида*”), З. Алимова *(“Инглиз ва ўзбек халқларида никоҳ тўйи маросими билан боғлиқ лексемаларнинг қиёсий таҳлили*”), Х. Исмаилов *(“Ўзбек тўйлари”),* М.

Асқаров *(“Тўй: кеча, бугун, эртага - этнографик таҳлил”)* ва бошқалар илмий тадқиқотлар олиб борган.

“Тарих манбаларидан шу нарса маълумки, туркий тиллар оиласига мансуб бўлган “тўй”атамаси, “той” ёки “қурултой” шаклида мўғул ва чиғатой хонлари давридан қўллана бошланган. Саёҳатни мақсад қилиб, XIV асрларда Мовароуннаҳр ҳудудига борган араб сайёҳи Ибн Баттута эсдаликларига назар соладиган бўлсак, “той”- бу ҳар йили ўтказиладиган йиғин (қурултой) хисобланиб, унда Чингизхон авлодлари, амирлар ва туркий беклар, обрўли аёллар ва лашкарбоши қатнашган. “Таворихи хоразмшохия” тарихий асарида (1864 йил 5 май) шундай маълумот келтирилади, вазир Хасан-Мурод қушбегининг ўғли Муҳаммад Юсуфбек хоннинг қизига уйланган бўлиб, зиёфат-той (тўй) бир неча кун давом этган”.

Вақт ўтиб, илмий тадқиқотларга асосланган ҳолда айтиш мумкинки, “тўй” – олис ўтмиш замонларидан буён катта зиёфат ва алоҳида дабдаба билан бирга, “каттаконлар” даврасида, яқинлар, қавм-қариндошлар, мансабдор шахслар иштирокидаги махсус йиғин, анъана сифатида танилган. Тўғри, даврлар ўтиши билан ўзбек тўйларида ҳам қисман ўзгаришлар, янгиланишлар юзага келган, аммо ҳудуддан-худуднинг маросим ўтказишдаги ўзаро фарқланишлари сезиларли равишда кузатилган. Боиси, турли миллат ва элатлар ўртасидаги муносабатларнинг глобаллашуви натижаси ўлароқ, ўзбек тўйларида ислом дини кириб келгунигача бўлган давр ва ундан сўнгги русумлар бир-бирига узвий боғланиш хосил қилади.

Ўзбек халқининг никоҳ тўйи тизимида: никоҳ, бешик ва хатна тўйлари энг қадимги маросимлардан биридир.

Масалан, никоҳ тўй маросимларини бошлаб берувчи дастлабки маросим совчилик бўлиб, совчилар тўғрисидаги илк намуналарни VII-VIII асрларга оид Ўрхун-Энасой битикларида учратиш мумкин. Буюк давлат арбоби Тўнюқуқ (VII аср) битиктошида “сов” калимаси “саб” - сўз, гап маъносида ишлатилган. “Ирқ битиги” (“Фол китоби”)да эса “саб” - сўз , “сабчи” - хабарчи, сўз келтирувчи маъносида ишлатилган. Ўрта асрлар машҳур

тилшуноси Маҳмуд Қошғарий бу хусусда “совчи-келин ва куёв орасида бир-бирига хабар етказувчи”- деб ёзади. Демак, оила тўғрисидаги дастлабки тушунча ва қарашлар, совчилик удуми қадим-қадимдан бизгача етиб келган.

Бундан ташқари, никоҳ тўй маросимига тенглаштириладиган халқ бўлмиш ўзбекларда яна бир маросим борки, у ҳам тўй каби ҳашамга тўла, дабдабали тарзда ўтказилади. Бу халқимизнинг қадимий маросимларидан бири саналган бешик тўйидир. Бешик тўйи никоҳ тўйининг маҳсули сифатида ўтказилади. Ушбу маросим - чақалоқнинг онаси тарафдан қариндошларининг чақалоққа атаган ҳадялари (бешик, кийим-кечак, сарпо, ўйинчоқлар, хона жиҳозлари ва ҳок.)дан то барча буюмларни карнай-сурнай садолари остида олиб бориш жараёнига айтилади.

Бешик тўйи – чақалоқни биринчи марта бешикка солиш билан нишонланадиган шодиёна байрам куни. Бу энг қадимги ва Ўзбекистонда энг кенг тарқалган маросим демакдир. Одатда бу тўй чақалоқ туғилишининг 7-, 9, 11-куни турли вилоятда турлича ўтказилади. Бешик ва чақалоқ учун барча зарур андомлар чақалоқ онасининг қариндошлари томонидан совға тариқасида олиб келинади. Дастурхонга нон, ширинлик ва ўйинчоқ ўраб “мазар” сифатида қуда тарафга олиб келинади. Чақалоқнинг ота-онаси, бобо-бувиларига сарполар қилинади. Ёпинчиқлари билан безатилган бешик, дастурхон ва совғалар транспорт воситасига қўйилиб, меҳмонлар билан биргаликда, карнай-сурнай ва ноғора садолари остида чақалоқнинг ота-онаси уйига жўнатилади.

ХХ асргача бўлган муддатда тўйлар хонадонларда ўтказилган бўлса, ХХ асрнинг 70-йилларига келиб, тўй тантанасини ресторан ва кафеларда ўтказиш анъанаси бошланиб кетди. Энг эътиборли жиҳати, тўй сабабчилари бўлмиш келин-куёв либослари ҳам ўзгарди. Келинчакларнинг паранжи ва қалин рўмоли замонавий мода асосида тикилган фата кўйлакка алмашди. Фақатгина куёвнинг эгнига киядиган миллий чопон ва саллагина сақланиб қолди. Қолаверса, тўй маросими иштирокчилари сони нисбатан ортди.

Шунингдек, 70-80-йиллар оралиғида келин-куёв ва уларга “ҳамроҳ” дўстлар биргаликда шаҳарнинг ёдгорлик ўрнатилган жойларига бориш, гул қўйиш, суратга тушиш, видеотасвирга олиш, келин-куёвнинг бир-бирига узук тақиш каби анъаналари кириб келди. Айни шу даврда, айниқса, пойтахтда келин сарпонинг таркиби ҳам анъанавий буюмлардан ташқари, сервиз, мебел гарнитурдан то музлаткичларгача бўлган буюмлар билан анчагина “қимматлашди”. XX асрнинг охирларида тўй маросимларида сарф-харажатнинг кескин ортиб кетгани туфайли ҳаттоки Тошкентда чаллар ва қуда чақириқ удумлари биргаликда ўтказила бошланди.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, ўтмиш замонидан бизга мерос бўлиб келаётган тўй маросимлари исломгача ва исломдан кейинги удум, маросимлар билан қоришиб кетган. Хусусан, ёшларни ёмон назар ва бало-қазолардан асраш учун гулхан атрофида айлантириш, бошлари узра катта ёпинғич тутиш, уларнинг турмуши фаровон кечсин дея, ширинлик ва тангалар сочиш, серфарзанд, ували-жували бўлишларини тилаб, болаларни тиззага ўтқазиш, пишган тухум билан меҳмон қилиш сингари махсус удумлар ўтказилган. *«Кўрпа қавиш», «маслаҳат оши», «сабзи тўғрар», «мол ёяр»* ва бошқа удумлари эса ҳеч қандай ўзгаришсиз бугунгача етиб келган. Ҳозир ҳам бу русумлар худди илгаригидек қавм-қариндош, қўни-қўшнилар даврасида ўтказилиб келинади. Қолаверса, бу удумларга қўшимча янгиликлар ҳам йўқ эмас. Яъники, бугуннинг тўйлари аёл ва эркакларнинг баравар иштирокида бўлиб ўтмоқда ва тўйга машхур санъаткорларни олиб келиш урфга кирган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алимова З, Иброҳимова З. *Инглиз ва ўзбек халқларида никоҳ тўйи маросими билан боғлиқ лексемаларнинг қиёсий таҳлили.* Science and innovation.
2. https://cyberleninka.ru/article/n/ozbekistonda-toy-ananalari-tarixi-va-buguni
3. https://sgcnewsroom2017.tistory.com/681

4. https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/milliy-istiqlol-g-oyasi/o-zbek-milliy-an-analari-marosimlari

5. Жўрабоев А. *Ҳозирги замон тўй маросимлари номлари билан боғлиқ тадқиқотлар.*

6. Алимова Б. *Инглиз ва ўзбек халқ никоҳ тўй маросими билан боғлиқ лексемаларнинг қиёсий таҳлили.*

MUSTAQILLIK SHE'RIYATIDA VATAN MADHI

Shokirova Aziza Ilhom qizi,
ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti, 4-kurs
azizashokirova02@gmail.com

Annotatsiya: *Istiqlol davri she'riyatini o'rganishda milliy uyg'onish g'oyalari ufurib turgan she'rlarga diqqat qilmoq lozim. Jamiyatdagi o'zgarishlarga hamma davrda ham qalami bor har qanday shoir qo'l urib, qog'oz qoralagan. Xususan, istiqlol davri ham shunday. Ammo, biz maqolamizda ochib berishni ko'zda tutgan masalaning mohiyatini anglatishda ustoz shoirlar ijodi yetakchidir.*

Kalit so'zlar: *she'r, istiqlol, milliy g'urur, Vatan tuyg'usi, obraz, erk, ijodkor mahorati, yangilanish.*

Abstract: *When studying the poetry of the period of independence, it is necessary to pay attention to the poems in which the ideas of national renaissance are blowing. Every poet who has a pen has written about the changes in society. In particular, this is the case during the independence period. However, the work of master poets is the leader in understanding the essence of the issue that we intend to reveal in our article.*

Keywords: *poetry, independence, national pride, sense of the Motherland, image, courage, artistic skill of the creator, renewal.*

Mustaqillik davri adabiyoti, xususan, she'riyati milliy adabiyotimiz rivojida shunchaki bir davr emas, balki mazmun va shaklda jiddiy yangilanishlar, o'zgarishlar, o'ziga xosliklarni olib kirgan bosqich hisoblanadi. Adabiyotshunos Bahodir Karim o'zining "Istiqlol adabiyoti: nazm va nasr" monografiyasida

shunday yozadi: “Tarixiy davr taqozosiga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotining davrlashtirilishida adabiy siyosatdagi o‘zgarishlar e’tiborga olinishi tabiiy. Yaqin o‘tmishdagi o‘ttiz yillik adabiyot “Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti” deb nomlanishi maqsadga muvofiqdir. Bu atamaning maydonga kelishi, albatta, yurt istiqloli bilan bog‘liqdir” (Karimov, 2021, 4-bet). Yetmish yil davomida ma’naviyatidan, milliy qadriyatlaridan, dinidan, o‘tmishda kim bo‘lgani, qudrati, tarixidan mahrum bo‘lgan xalq istiqloldan keyin o‘z millatidan, Vatanidan g‘ururlanishni boshladi. Va o‘z-o‘zidan bu holat she’riyatda ham o‘z in’ikosini topdi. Shu davrgacha she’riyatdagi asosiy mavzu erkka tashnalik, ozodlik, mustaqillikka intilish, ijtimoiy hayot ziddiyatlari haqida edi. Mustaqillik sababli esa mavzu ko‘lami istiqlol va ozodlikni kuylash, ajdodlarimizning e’tirofi kabi mavzularni qamrab ola boshladi. Qolaversa, diniy erkinlik tufayli bu kabi mavzularga ham erkin qalam urila boshlandi. Katta-katta ijodkorlarimiz ijodining salmoqli qismi sho‘ro davriga tog‘ri kelgani bois ko‘nglidagi qog‘ozga tushmagan haqiqatlarni mustaqillik davrida erkin qalamga ola boshladilar. Ijtimoiy mavzulardan ko‘ra ko‘proq insonning tabiati, ichki olami, ruhiyati, kechinmalari haqida jiddiyroq o‘ylash boshlandi. Bunda asosan o‘ziga xos poetik obrazlardan, ramziy ko‘chimlardan foydalanildi va ularga alohida e’tibor qaratildi.

Istiqlol davri she’riyatini o‘rganishda O‘zbekistonning mustaqil davlatga aylanishi bilan yangilangan ruhda yozilgan she’rlarga diqqat qilmoq lozim. Jamiyatdagi o‘zgarishlarga hamma davrda ham qalami bor har qanday shoir qo‘l urib, qog‘oz qoralagan. Xususan, istiqlol davri ham shunday. Ammo, biz maqolamizda ochib berishni ko‘zda tutgan masalaning mohiyatini anglatishda ustoz shoirlar ijodi yetakchidir. Umuman olganda nazmda Vatan mavzusini yoritish aynan Vatan so‘zini ishtirok ettirib, uning go‘zalliklarini ta’riflash, faqatgina maqtashdan iborat emas. Xalq dardidan qalb og‘rig‘ini sezish ham Vatanni sevish, joni achishib tanqid qilish ham Vatanni sevish, bor bo‘yicha tasvirlash ham Vatanni sevish, yaralari bilan og‘riqlari bilan, yo‘qotishlari bilan ham qabul qila olish – Vatanni sevishdir. Aynan shularni his qilgan, shularni yorita olgan shoir – shoirdir. Erkin Vohidov aynan shunday ijodkor edi. Vatanini jon-

jonidan ortiq sevgan, xalqiga joni achishganidan "*Tomigacha paxta ekkan elda netar bulbullar…"*, deya olgan, *"Erk qushchasi erk yo'q joyda qandoq qilib sayrasin?",* deya kuyingan shoir edi. Uning she'rlari ana shunday qudratga ega. Erkin Vohidov vatan hurriyatga erishganidan so'ng ham, uning kechagi kunini unutmaydi. Aksincha, kechasini, qanday holatda yashaganini aniq bayon qila oladi. "Shukurkim keldi istiqlol" she'rida shunday yozadi:

Muazzam Sayhunu, Jayhun –
Labida tashna lab qoldim.
Kiyintirdim jahonni,
Jismi uryon, bekafan bo'ldim. (Vohidov, 2001, 130-bet)

Bu she'rni o'qigan o'quvchi bevosita xalqning kechagi kunini eslaydi, his qiladi, Vatanni kuchliroq sevadi, erkning qadriga yetadi. E'tibor beraylik, shoir ya'ni lirik qahramon she'rda o'zining ahvolini bayon qilsa-da, xalqning butun tarixidan, iskanjasidan lavhalarni ko'z oldiga keltiradi o'quvchi. Butun xalqni o'ziniki deb tasavvur qilib yuragi achishadi.

Qolaversa, erksiz kishi, xalq qanchalik xor bo'lishi, ozodlikka tashna bo'lishi inkori yo'q haqiqatdir. Shoir "Vatan istagi" she'rida yozadi:

Bas yetar yolg'on saodat,
Yolg'on erk, yolg'on vatan.
Hurriyat zavqini chin,
Surmoqni istaydir ko'ngil.
Qutlug' istiqlol kunida,
Ey Vatan, bag'ringda shod
Erkin o'g'loning bo'lib
Yurmoqni istaydir ko'ngil. (Vohidov, 2001, 20-bet)

She'rni o'qigan har bir kishi haqiqiy erk nima ekanini, qanchalar qiymatli ekanini anglaydi, mustaqillikni qadrlashga intiladi, uning bizga nimalarni qaytarib berganini chuqur his qiladi. Erkin Vohidov she'rlarida aksar shoirlar kabi istiqlolga quruq madh-u sanolar kuylamaydi. Uning she'rlarida asl mohiyat ochiladi. Hatto o'zi yozadi:

Nog‘ora chalaberma

Tomoshatalablarga.

Sen o‘zbek mehnatin yoz,

Bu zaminga dehqonning

Umid-u armonlari,

Dardlari to‘kilibdir. (Vohidov, 2001, 59-bet)

Yuqorida ba’zi misralarini keltirib o‘tganimiz “O‘zbekiston bog‘lariga qaytib keldi bulbullar” she’rida ham shoir bir necha zamonlardan beri bulbullardan ayri bo‘lgan o‘lkasiga yana ularning qaytganini aytadi:

Bugun sahar bulbullarning chah-chahidan uyg‘ondim,

Shohimardon tog‘larida bir yayradim, quvondim.

Bir-biriga navbat bermay qo‘shiq aytdi bulbullar,

Shukr bo‘lsin, bog‘larimga yana qaytdi bulbullar. (Vohidov, 2001, 135-bet)

Bu yerda bulbul o‘z ma’nosidan tashqari ramziy ma’no ham tashiydi. Bulbul – musaqillik, ozodlik, ezgulikdir. Qolaversa, “Bir-biriga navbat bermay” qo‘shiq aytgan bulbullar yurtga kelgan istiqlol sharofati bilan qalamini qo‘liga olib kuylayotgan shoirlardir, ehtimol. Qisqa qilib aytganda, Erkin Vohidov she’riyatda Vatan mavzusini o‘zining rost so‘zlari, yangidan-yangi obrazlari bilan chin ma’noda yorita olgan shoirdir!

Bu davrda yonib ijod qilganlar orasida ikki buyuk siymoning biri Erkin Vohidov bo‘lsa, tabiiyki yana biri Abdulla Oripov. Bu ikki qahramon shoirning Vatan haqidagi aytimlari hamohang. Ammo, Abdulla Oripovda kinoya ohanggi kuchli. U masalaga doimo haqiqat bilan baho beradi. “Vatanni sevmoqlik imtihondir bu”, deydi. Abdulla Oripovning faylasuf shoir ekanini bilamiz. U Istiqlol davrida ham turli mavzularda qalam tebratdi. Shu o‘rinda Vatan mavzusida ham zamirida mustaqillik, Vatan qadri ustalik bilan singdirilgan har biri falsafiy mushohadaga asoslangan she’rlar yozdi. Suhbatlaridan birida shoirning o‘zi shunday degan edi: “Vatan tuyg‘usi insonga ona vujudidayoq esh bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Yillar, hayot bu tuyg‘uga shakl beradi, sayqal beradi” (Oripov, 2013, 216-bet). Bundan kelib chiqadiki, Vatan tuyg‘usi shoir bilan birga yashaydi,

ammo, vafotidan keyin ham qolaveradi. Kitoblari, misralari aro kezib yuradi va o‘quvchiga ham yuqib qoladi. Uning she’rlarida ham Vatan mavzusini yoritishda bulbul obrazini uchratamiz.

Turkistonning bog‘larida bulbullari bor, holbuki,

Xor bo‘lsa ham, tog‘day baland ko‘ngillari bor, holbuki.

(Oripov, 2001, 215-bet)

Yoki:

Vatandin ayri ko‘ngilni bilingki, yayratib bo‘lmas,

Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo‘lmas.

(Oripov, 2001, 251-bet)

Bu yerda bandi bulbul kim ekanini o‘quvchi darhol anglaydi. Ortiqcha tahlillarga hojat yo‘q, nazarimizda. Vatan motivi Abdulla Oripov she’riyatida umrbod birga bo‘ldi. Va bu mavzu shoir ijodida betakror yoritilgani bilan boshqalardan ajralib turaveradi. Shu o‘rinda professor Nurboy Jabborovning quyidagi fikrlariga ko‘z yugurtiramiz: “Vatan mavzusi Abdulla Oripov ijodida o‘ziga xos yuksak maqomga ega. Ijodkorning bu mavzudagi she’rlari she’riyatdagi mavjud qoliplarga aslo mos kelmaydi. “Vatan” so‘zini suiste’mol qilish, targ‘ibot-tashviqot ruhi shoir ijodiga mutlaqo begona. Abdulla Oripov Vatan mavzusiga betakror yondashadi, kutilmagan tashbehlarni qo‘llaydi, misralar quyilib keladi. Natijada, ularni mutolaa qilganlar qalbida o‘z-o‘zidan ona zaminga muhabbat tug‘iladi. Ko‘ngillarga Vatan qadri nechog‘li yuksak ekani haqida tuyg‘u inadi” (Jabborov, 2013, 325-bet).

O‘kinma, ona yurt, o‘kinma xalqim,

Desalar, dilingda zorlaring bordir.

Aslida qo‘yningga sirg‘alib kirib,

Zaharlar sochguvchi morlaring bordir. (Oripov,2001 , 170-bet)

Shoir ushbu misralarida nima demoqchi? Tarixdan ma’lumki, davlat tashqaridan emas ichkaridan ko‘proq zarba yesa, qulaydi. Shoirga ham shu dard azob beradi. Vatanining qo‘yniga sirg‘alib kirgan morlar borligidan ozorlanadi. E’tiborli jihati bu she’r 1991-yilda yozilgan. Shoirning 2003-yilda yozilgan

“Maktub” she’rida ham ayni holat kuzatiladi. Oradan 12 yil muddat o‘tgan bo‘lsa-da, she’r yangi, misralar yangi, ammo, dard o‘sha-o‘sha. Shoirni yurti ichidagi baloxo‘rlar qo‘rqitadi:

Men ham noming aytib duoda turdim,
Sen omon o‘tgaysan jar-u o‘rlardan.
Men faqat qo‘rqaman, qo‘rqaman, yurtim,
Ichingdagi turli baloxo‘rlardan.

Qisqa qilib aytganda, Abdulla Oripov ko‘ngli buyurganini yozgan haqiqatparvar shoirdir. Zero, uning o‘zi aytganidek “Qalbim buyurmasa, biror so‘zni ham, Yozmasman hech qayda, hech vaqt, hech qachon”.

Istiqlol davri adabiyotida turkiy ohanglar misralaridan taralib turgan, milliy g‘ururi baland shoirlarimizdan biri Rauf Parfidir. U rost tuyg‘ularni kuylagan shoir. She’riyatining bosh mavzusi – erk, mustaqillik, shuningdek, Turkiston, Turk dunyosining birligidir. Shu mavzularni muqaddas turkiy tilda ifodalashga umrini bergan Rauf Parfi she’riyatining ustuvor g‘oyalaridan biri milliy birliksiz, millat, xalq o‘z borlig‘ini, mavjudligini saqlab qola olmaydi, degan keskin qarash va ruhiy erkinlikdir. “Ming yil sizni izladimmi men” turkumiga kirgan she’rda shunday deydi:

Men uzoq uxladim.
Bir asr uxladim, nega meni –
Nega siz yashinni uyg‘otmadingiz?

Yoki:

Uyg‘on, Turk dunyosi, muqaddas Turon,
Quyosh, boshimizdan sochgil qutlug‘ nur.
Asl Turk yurti bu, qadim, navqiron,
Temur umidi bu, Turkiston mag‘rur,
Uyg‘on, turk dunyosi, muqadas Turon. (Parfi, 2013, 232-bet)

Bu she’rlardan ham ma’lumki, Rauf Parfi uyg‘oq yashashni istagan shoir. Har ikkala she’rda ham lirik qahramon o‘zini ham, o‘quvchini ham uyg‘onishga

chorlaydi. Temurning umidi bo‘lgan bu muqaddas zaminning qadim va navqironligini, mag‘rur uyg‘onishi kerakligini aytadi. Adabiyotshunos Bahodir Karim shunday yozadi: “Mustabid tuzum davrida Abdulla Oripov jasorat bilan “Kolumbda bor alamim manim, O‘zbekiston Vatanim manim”, deb she’r bitdi. Erkin Vohidovning lirik qahramoni “Ona tilim o‘lmaydi” deb hayqirdi. Tinchlik, osudalik, erkinlikni qo‘msagan Rauf Parfi “Turkiylar, aytingiz bizda nima yo‘q, Bizda yo‘q ittifoq, bizda yo‘q birlik”, deb nadomat chekdi va “Ona Turkistondir turkiylar toji” (Parfi, 2013, 223-bet), deb yozganida hali bosqinchilar qilich qayrab turgan bir davr edi. Rauf Parfi qayralgan qilichlar singan yoki qiniga joylangan pallada o‘zi tanlagan haqiqat, haqqoniyat yo‘lida sobit qoldi, tavba-tazarru, munojot mazmunli she’rlarida Yaratguvchi “erkin vijdon bergan”iga urg‘u berib: “Iymonning bag‘rida axir erkinmiz” deb yozdi (Parfi, 2013, 275-bet)” (Karimov, 2021, 19-bet)

Rauf Parfida ham yuqoridagi ikki buyuk shoirlarimiz qatori istiqlol ramzi sifatida bulbul obrazini uchratamiz:

Sen uchunmi, ay Turkiston bulbuli,
Temir qafas to‘qir pastlar, nokaslar?
Ko‘kdan vahiy keldi – qo‘shiq G‘iroting,
Sochilsin Turonga erkin nafaslar,
Ochilsin qo‘llarning haqiqat guli.
Uch, Ishq, Alam bo‘lsin qanoting. (Parfi, 2013, 246-bet)

She’rda o‘qiganimiz kabi shoir she’rlaridagi lirik qahramon boriga ko‘nib ketavermaydi. Ilojsizlik orasida ozodlik yo‘qligi haqida ozorlanib shikoyat qilmaydi. Aksincha, kurashadi. Erk uchun birlashishga, butun bo‘lishga chaqiradi.

Shavkat Rahmon Asqar Mahkamni “qattiq iymon shoiri” deb ta’riflaydi. Shoir she’riyati bilan tanishib, uning o‘zini qattiq iymon shoiri, deb ta’riflaging keladi. Ko‘p joyda u o‘jar shoir, deb eslanadi. Yozganlarida haqiqat, adolatsizlikka qarshi isyon, o‘tkir qarshilik, kinoya uchraydi. Inson bir jamiyatni o‘zgartira olishi uchun ham islohotni o‘zidan boshlamog‘i darkor. Shavkat Rahmonning Vatan haqidagi she’rlarida ham shunday. Bu xalq o‘zini-o‘zi tanimas, anglamas ekan,

jur'at to'plamas ekan bizni yorug'likka hech kim olib chiqa olmasligini uqtiradi. "Qani er yigitlar, qani er qizlar", deya najot qidiradi. "Yovga ters qaragan musulmon emas!", deb o'zining keskin qarashlarni keltiradi. "Eski she'r"da shunday yozadi:

Xalqlar injularni o'tmishlaridan
zarralab-zarralab tergan paytida
biz nogoh shamolda ochilib qolgan
qancha javohni ko'mdik qaytadan. (Sh.Rahmon, 1997, 188-bet)

Yana ushbu she'rning davomida yozadi:

Vatanim deyman-u, bag'rim qon bo'lar,
Bu qanday vatanki,
Xoki birikmas,
Buyuk Turon kengliklarida
Urug'lar bir-birin yedi tiriklay. (Sh.Rahmon, 1997, 188-bet)

"Turkiylar" she'ridan yuqorida misralar keltirdik. Yana shu she'rga qayta murojaat qilamiz. Eski tuzum davrida xalqni uyg'otadigan bir nur kutilgan paytda bosqinchilar so'zidan chiqmagan, mutelar kam emas edi. Shoir xalq orasidagi mana shundaylardan xavotirga tushadi. Hatto ularga "zahrini" sochadi. Eng og'ir haqiqatlarni aytib tashlaydi:

Ters qarab o'ling deb yovlar buyurdi,
Yovlarga ters qarab jon berdi bari. (Sh.Rahmon, 1997, 191-bet)

Shu she'rning davomida esa o'quvchida umid uyg'otadi. Yillab o'zligini topolmay yashayotgan xalq orasiga chaqiriq bilan chiqadi. She'rning lirik qahramonida bu ohanglar aro ishonch kezib yuradi. O'zligini bir kun izlab chiqadigan avlod yaralishiga umid bog'laydi:

Bormi er yigitlar, bormi er qizlar,
Bormi gul bag'ringda jo'mard nolalar,
Bormi bul tufroqda o'zligin izlab,
Osmonu falakka yetgan bolalar. (Sh.Rahmon, 1997, 191-bet)

Shavkat Rahmon ruhiyatida buyuk qudrat mujassam shoir. She'rlari esa misralar orasida mudrab yurgan ruhingiz yuziga tarsaki tortib uyg'otadigan she'rlardir. Shu bois uning aytimlarini bir qarashda tushunmaysiz, ma'nosini chaqishga urinasiz, o'ylanasiz, izlaysiz. Shavkar Rahmon nazmi, Bahodir Karim ta'kidlaganidek, "O'z vatanida bevatan yurganlarga vatan timsollaridan saboq beradi".

She'riyat – ko'ngil mulki. She'riyat – sehrli olam. Shu olamdagi har bir shoirning o'quvchini o'ziga ohangrabodek tortadigan ohangi, uslubi, boshqalardan ajiratib turadigan yo'li bo'lishi kerak. Bu ohang she'rxonni olis manzillarga, tarix bo'lsa, o'tmish qatlariga, muhabbat bo'lsa, sevgi diyoriga, qisqasi, o'zi yashayotgan tuyg'u ta'siriga tushurib qo'ya olishi kerak. Usmon Azim mana shunday o'z uslubiga ega shoir. She'rlarini o'qib, misralar o'zaniga tushib olib, oqib ketganini bilmay qoladi kishi. U "Maktub" she'rida "Senga hech narsa qilolmadim, Vatan", deya kuyinadi. "telbavor to'lg'ondim og'riqlaringda", deydi. Shoirning she'rlari sizni "har ko'y"ga soladi. Xususan, Vatan haqidagi she'rlarida ham o'zgacha ohang bor. "Bu dunyoga kelmadim, axir, O'z nomimni yozmoqlik uchun", deydi Usmon Azim. Boshqa uyg'oq shoirlarimiz singari uni ham xalq dardi o'rtaydi. Shu she'rning davomiga nazar tashlaymiz:

Ko'kragimda gullaydi mahzun
Shu beega tuproqqa Shafqat.
O'rgataman bo'g'zim, labimni
"Vatan" so'zin aytmoqqa faqat.
Men o'laman – tobutda ruhim,
Xavotirdan turadi tikka…
Vatan, senga bu tanho jonim
Ulgurdimi qorishmoqlikka? (U.Azim, 1991, 4-bet)

Shoir bu she'rda o'z-o'zidan kuyinadi. O'zini so'roqlaydi. Shu orqali she'rxonni ham so'roqqa tutadi. "Vatan" kabi muqaddas so'zni aytish uchun ham kuch lozim ekani, uni aytishga ham inson o'zini o'rgatishi kerakligini uqtiradi. Bu orqali "Vatan" kabi muqaddas so'zning salmog'ini boshqa so'zlardan ajiratib

ko‘rsatadi, uning muqaddasligiga urg‘u beradi. Usmon Azim “She’r – beshafqat” deydi. She’r jonni qiynasangiz keladi. Ba’zan u o‘quvchini ham qiynaydi:

“Bu dunyoga bir qo‘shiq,

Berib ketgin, shoirim, –

Marhumlar uyg‘onsinlar,

Uxlolmasin tiriklar ”. (U.Azim, 1991, 115-bet.)

Usmon Azimning Vatan mavzusida qalamga olgan haqiqatlari bu xalqning qalbini uyg‘otishga umrboqiy xizmat qilishiga umidvormiz.

She’riyatda, xususan, istiqlol she’riyatida Vatan mavzusining yoritilishida ayollar ham munosib hissa qo‘shdilar. Ular orasida o‘zi va so‘zi hech kimga o‘xshamagan, xalqning sevimli shoirasi Halima Xudoyberdiyevaning o‘rni beqiyos edi. Ayni damda mard shoiramizning xalq dardini o‘z dardi, deb his qilib yashagani hech kimga sir emas. U uncha-muncha shoir aytolmaydigan o‘tkir satrlarni qalamga oldi:

She’riyat ko‘ksimga xanjaringni sanch,

Bu qurbonsiz umr meniki emas…,

deb yozadi “Holat” (1986) she’rida. U o‘zi yozganidek umrini she’riyatga atab yashadi ham. “Men otilgan o‘qman, ortga – qaytish yo‘q” deya o‘zidan o‘xshashsiz she’rlar qoldirdi.

To bu bayroq, Vatan, nurlar

Ich-ichingga ketsin kirib.

Toki g‘anim vatanxo‘rlar

Ololmasinlar sug‘urib.

Shunda o‘rgat qulni, xonni,

Uchmas qush ham uchar bo‘lsin.

To bayroqdan oldin jonni

Bermoq oson kechar bo‘lsin. (Xudoyberdiyeva, 2020, 7-bet)

Yuqorida o‘qigan she’rimizda ham vatanparvarlik, mardonavorlik, kuyunchaklik tuyg‘ulari bir-biriga uyqash. She’rning ruhi sizni bir onda o‘ziga maftun etib qo‘yadi. Ruhingizga tutashib to‘yintiradi, ishtiyoq beradi. Jonfidolik

nafaqat bu she’rning, balki Halima Xudoyberdiyeva she’rlarining barchasida asosiy ustun deyish mumkin. Shoira milliy g‘ururi, ori, Vatan tuyg‘usi yuqori insonga jonni berish bayroqni berish yonida oson bir ishga aylanib qolishiga o‘zi ishonadi, she’rxonni ham ishontiradi.

O‘g‘lim, ko‘z yoshing art, so‘zimni uqqin,
Menam “alp tug‘dim”, deb ko‘krak kerayin.
Yosh to‘ksang ozodlik uchun yosh to‘kkin,
Yig‘lasang “Vatan” deb, yig‘la, ko‘rayin,
(Xudoyberdiyeva, 2020, 360-bet)

deb bolasini ham mardonavor ruhda tarbiya qilishga kirishgan asl o‘zbek onasidir Halima Xudoyberdiyeva.

Maqolamizga xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, qo‘lida qalami bor har qanday shoir Vatan haqida ozmi-ko‘pmi she’rlar yozdi. Ular orasida Xurshid Davron, Matnazar Abdulhakim, Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo, Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir kabi ijodkorlarimiz she’rlarida ham Vatan haqidagi original fikrlarni, tesha tegmagan tashbehlarni uchratamiz. Biz bu bilan maqolamizda to‘xtalgan shoirlarimiz ijodi umuman kamchiliklardan xoli deb, iddao qilmoqchi emasmiz. Ularning she’rlari orasida ham eski tuzum yoki partiya uchun xizmat qiladigan ba’zi joylar ko‘zga ko‘rinib qolishi mumkin. Ammo, bu uchun ijodkorlardan ko‘ra ko‘proq o‘sha davr “ob-havosi”ni sabab qilib ko‘rsatish maqsadga muvofiqroqdir. Zero, Bahodir Karim yozganidek: “Ayni damda sho‘ro zamonida yashagan o‘zbek shoirlari mustaqillik yillarida o‘z ijodiy merosini qayta ko‘zdan kechirdi, milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan bir sidra elakdan o‘tkazdi. Ayrim vaziyatlarda o‘z asarlaridagi qachonlardir davr talabiga mos ravishda yozib qo‘ygan va yangi zamon ruhiga begona bo‘lgan ba’zi sahifalarni o‘zlari ham tahlil qilishdi”.

Maqolamizda Istiqlol davri adabiyotida Vatan mavzusidagi e’tiborga molik bo‘lgan ba’zi she’rlarni tahlil qilishga harakat qildik. Ammo, bu katta davrdagi she’rlar tahliliga ehtiyoj yo‘qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Азимов У. (1991). Уйғониш азоби. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

2. Воҳидов Э. (2001). Сайланма. 3-жилд. Умрим дарёси. Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти.

3.Жабборов Н. (2013). Гўзал ташбиҳ, сирли руҳ. Озод Ватан саодати: Беш жилдли, 5-жилд, Тошкент: Адиб.

4.Каримов Б. (2021). Истиқлол адабиёти: назм ва наср. Монография. Тошкент: Firdavs-shoh nashriyoti.

5.Орипов А. (2013). Ватан, кўрар кўзим, айтар сўзимсан. Танланган асарлар. 7-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

6.Орипов А. (2001). Танланган асарлар. 2-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

7.Парфи Р. (2013). Сакина. Тошкент: Муҳаррир нашриёти.

8.Худойбердиева, Ҳ. (2020). Танланган асарлар. (38-бет). Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти.

9.Шавкат Раҳмон. (1997). Сайланма. Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти.

YASHIL RANG HALIMA AHMEDOVA IJODIDAGI O‘RNI XUSUSIDA

Madina VAHOBOVA,
ToshDO‘TAU Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi
bosh mutaxassisi, o‘qituvchi

Annotatsiya. *Maqolada yashil rang poetikasi Halima Ahmedova ijodining muhim xususiyatlaridan biri sifatida tahlil etilgan. Shuning bilan, yashil rang nimalarning ramzi ekani va Halima Ahmedova ijodida qanday ma’nolarda namoyon bo‘lgani, umuman, adabiyotdagi rang simvolistikasi ham o‘rganilib, xulosalar chiqarilgan.*

Tayanch so‘zlar: *lirik qahramon, lirik “men”, lirik obraz, lirik monolog, ballada janri, rang poetikasi.*

Abstract. *The article analyzes the poetics of green as one of the important features of Halima Ahmedova's work. Thus, the symbolism of the color green, its evolution, in what sense it is reflected in the work of Halima Ahmedova, in general, the symbolism of color in the literature have been studied in depth and conclusions have been drawn.*

Key words: *lyrical hero, lyrical "I", lyrical image, lyrical monologue, ballad genre, color poetics.*

Bugun adabiyotimizda milliy ruh talqini yetakchi tamoyil darajasiga ko'tarilmoqda. Shoir-yozuvchilarimiz asarlari, so'zga bo'lgan mas'uliyat, uni isrof qilishdan saqlanish, oz so'zga ko'p ma'no yuklash singari fazilatlar yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Poetik obrazning ohorli, yorqin, ta'sirchan bo'lishiga intilish hissi kuchaymoqda. Nasriy asarni asar qiladigan, she'rni she'r qiladigan, o'quvchi ko'ngil olamini nurlantiradigan muhim omil – tuyg'uning samimiyligiga e'tibor ortib bormoqda. She'riyatimizga ana shunday milliylik, obrazlilik, samimiylik kabi tamoyillar Halima Ahmedova lirikasining asosini tashkil etadi. Shoira she'rlarida borliqqa bezovtalik bilan qaraydigan, hayotni chin dildan sevadigan, unga talpinadigan samimiy qalb tuyg'ulari jo'sh urib turadi. Bu qalbga qarab har bir kishi o'z kechinma va hissiyotlarining avval anglanmagan ajib qirralarini kashf etadi. She'rlarida daf'atan sezilmaydigan, ko'ngilning tub-tubida ko'milib yotgan hissiyot va kechinmalar ifodalanadi. Ularda chuqur g'amginlik hissi, nola, iztiroblar aniq aks etadi. Ayni jihat shoira she'rlarining o'ziga xos xususiyati sanaladi. ***Shoira lirikasidagi yashil rang – bo'yoq har bir she'rda yangi-yangi ma'nolarni anglatishiga ko'ra nufuzlidir.*** (Yam-yashil daryo, yashil nigoh, ishqday yashil, yalpizlar xayoli yam-yashil, yam-yashil nafas tafti, xayol kengliklari yashil)

Biror orzuga bog'langan dilga, armondan yig'lagan ko'ngilga ko'p duch kelamiz. Ammo aytingchi, daraxtlarning ko'ngli bilan, yashillik bilan do'st bo'lgan ko'ngilni bilasizmi? Halima Ahmedova she'riyatida xuddi shunday daraxtlarning ko'ngli bilan do'st, haqiqatni-da o'zgacha ranglarda ko'ra olgan oshiq jununi, ko'ngilni ko'rasiz. Uning nazarida ishq ham yashil rangda bo'lsa ajab emas!

“Yaradilanni sevalim Yaradandan o‘tulu” – Yaratgan tufayli yaratilmishni sevaylik, deydi mashhur turk shoiri Yunus emro. Balki shoiraning ham borliqqa muhabbati shundandir. Balki u mana shu borliqda haqiqat tuyg‘usini ilohiy nigohning tajallisi sifatida ko‘rar:

“Ko‘nglim daraxtlarning ko‘ngli bilan do‘st.
Ba’zan samolardan ichib kelar nur.
Uning haqiqatga oshig‘ligini
Eslatib turadi hayot qurmagur.” (Ahmedova, 2016, 47-bet)

“Yashil” kitobini mutolaa qilar ekanmiz, she’rlardagi ruhiy sarhadlar tun-kun xayolimizni chulg‘adi. She’rlarda shundayin bir qadim tabiat yashaydiki, undagi lirik qahramon shu qadim tabiatning bir bo‘lagiga, bir yashil gardiga aylanaveradi, aylanaveradi. Bilmadik, bunday evrilish asliyatmi yoki o‘xshatish! Ammo bu bizga ijodkorning bolalikdanoq yashil rangni yaxshi ko‘rishi, yashil u uchun hayot ramzi ekanini ko‘rsatdi. Hayot tashvishlaridan charchaganda, siqilganda inson derazadan boshini chiqarib daraxtlarga qaraydi, tabiatni kuzatadi va uning yashilligidan o‘ziga keladi! Shoiraning “O‘g‘limga darsliklar” turkumi yodimizga tushadi:

“Har bitta daraxtda bir dil yashaydi,
Tikilganim sari o‘sadi ko‘nglim.
Ularga quloq sol, ularni tushun,
Daraxtlar aldashni bilmaydi, o‘g‘lim.”

“Tabiat darsi” (Аҳмедова, 2005, 88-бет.) she’ridan olingan ushbu misralar farzandi kamolidan umidvor onaning dil so‘zlari va ular hayot tandirida qiyomiga yetib pishgan. “Tabiat darsi” da – lirik qahramon o‘g‘liga daraxtlarning insonga chin do‘st ekanini, hech qachon sotmasligi-yu, nomardlik qilmasligini uqtiradi:

“Ulardan sadoqat sabog‘ini ol,
Daraxtlar xiyonat qilmaydi, o‘g‘lim.”

Yana bir jihatni aytib o‘tsak, shoira ijodida turkum she’rlar alohida o‘rin tutadi (Keyingi tadqiqotlarimizda ularga alohida to‘xtalamiz). Bu turkum she’rlarda shoira sabr va sadoqat timsoli bo‘lmish daraxtlarni alqaydi, e’zozlaydi, madh etadi. Va yana shuning bilan, uning ruhi daraxtlardan, yashillikdan quvvat

oladi. Zotan, Halima Ahmedova she'ridagi bu lirik qahramon, avvalo, gumrohlikni eng katta gunoh deb bilguvchi inson, uning ko'ngli va ruhoniyatidir:

"Ey zulmatni nurga aylantirguvchi,
Iymon kengligida surguvchi xayol.
Sochib tashlanganman sening poyingga
Yashil kundan qolgan gardman ehtimol." (Ahmedova, 2016, 18-bet)

Yuqoridagi munojot shaklida boshlanuvchi she'r "Yashil" deb nomlangan. Misradan yana o'sha istak – o'zlikni anglash ishtiyoqi sezilib turadi. Go'yo Halima Ahmedova ana shu rangning ichida yashaydiganga o'xshaydi. Bundan shoira nigohida ko'p narsalar yashil bo'lib ko'rinishi ayon bo'ladi. Sababi uning nigohi yashil. U yaxshi ko'rgan narsalarini ham yashil rangda tasavvur qilsa ajab emas. She'rda, ayniqsa, yashil rang bilan bog'liq go'zal va ajoyib tashbehlar keltiriladiki, bu she'riyat tamoman o'zgacha olam ekaniga tan bermay ilojimiz qolmaydi. Masalan, "Xayol kengliklari yashil…", "Haqiqatning rangi yam-yashil", "Robbim, nigohlari yashil!", "Yashil kundan qolgan gardman ehtimol", "Qayerda mening yashil ko'ylagim?", "Yashil sog'inch bilan tirikman shu chog'" kabi misralarda yashil so'zi shu qadar ustivorki, xuddi usiz yozguvchiga hayot zimistondek, xuddi qalam ichidagi siyoh singari yozsang chiqaveradi, bossang iz qoldiradi. Ammo shu o'rinda savollar tug'iladi:

"Bilaman u kunlar yashildir,
Titraydi yillarning shoxida.
Masehning ohila sevgini
Tiriltirgum yoshlik bog'ida"

Yoshlik chog'idagi pokiza sevgini qayta tiriltirgisi keladi shoirning! Bu sevgi esa shoirning xayollaridagi yashil kunlarda yashaydi. Xo'sh, yashil kun - qanaqa kun? Haqiqatning ranglari nega yam-yashil? Robbim nigohlari nega aynan yashil? Bu kabi savollarga javob topolmay ijodkorning bepoyon tafakkur sarhadlaridan hayratda qolamiz. Xo'sh, yashil rang asli nimaning ramzi, u bizga nimalardan darak beradi?

Yashil rang, avvalo, hayot-tiriklik ramzi! Qolaversa, u islom dinimizning ham ramzi hisoblanadi. Shayx Najmiddin Kubro “Latoif” (Қорабоев, 2000) asarida yashil-iymon ramzi deya keltiradi. Demak, bu rang e’tiqodga ham ishora qiladi. Buning chuqur ildizlari hamda amaldagi tasvirlarini tarix orqali ko‘ra olamiz. “Unsul so‘fiya” kitobida Odam alayhissalomning o‘g‘li Shis alayhissalom – ilk yashil suf kiyib yurgani va keyinchalik bu kabi etiqod sohiblari yashil suf kiyib yurgani aytiladi. So‘fiylik islom dini asosida vujudga kelib, o‘z ta’limotini Qur’on va Hadislarga asoslanib rivojlantirganini e’tirof etgan holda, u islom diniga qadar bo‘lgan e’tiqodlarning hamda boshqa dinlarning ta’sirida ham bo‘lgan. Sharqning buyuk mutafakkiri javonmardlik tariqatining asoschisi Xusayn Voiz Koshifiy quyidagi ma’lumotni yozadi: “Ma’lum bo‘lishicha, “tasavvuf” so‘zi islomdan oldingi zamonda ham bo‘lgan ekan. Xusayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Fors- tojik tilidan N.Komilov tarjimasi. – Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – 18 b. Shu bilan birga, Najmiddin Kubro tasavvuf yo‘liga kirgan muridning holatini ranglar asosida ko‘rsatar ekan, bu yo‘lda ranglarning bir holatdan boshqa holatga o‘tishi murid ruhiyatidagi o‘zgarishlarni anglatadi, deb ko‘rsatadi. Asarda muridning poklanishi uchun yashil rang ulug‘ rang sanalib, haqiqiy iymonni, hayotiylikni ifodalaydi. Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida esa Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning ham to‘nlari yashil rangda bo‘lgani aytilgan. Shu bilan birga yashil rang uyg‘onish, yasharish, bahor, ezgulik va tabiatning yangilanish ramzi hamdir. “Boshqa ko‘pgina xalqlarda bu rang navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi”(Рўзиева, 2016).

Kitobdagi she’rlar mohiyatiga chuqurroq kirib borar ekanmiz, ularda ranglarning, ayniqsa, yashil rangning alohida o‘ringa ega ekanini, bu rang o‘ziga xos falsafiy mazmun va vazifa bajarishini anglab boramiz. Haqiqatan ham she’rlarda yashil rangning nufuzi bir qadar baland. Axir kitob ham bejiz “Yashil” deb nomlanmagan:

“So‘zlarni haqiqat xiyobonida
sayr ettirishga cho‘chidik.

Chunki haqiqatning rangi yam-yashil.

Va yana kimdir aytgandi:

Avval vaoxirni to‘ldirar yashil” (Ahmedova, 2016,19-bet)

Yashil rang – qator madaniyatlarda yangilanish, bahor, barhayotlikni ifodalaydi. Yashil rang – yoshlik, umidni anglatish bilan birga, yosh, tajribasiz kishilarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Qator islom davlatlarining bayrog‘ida yashil rang musulmonlikni tamsil etadi. Ayrim madaniyatlarda yashil rang baxtsizlikni ham ifodalar ekan. Masalan, ingliz irimlariga ko‘ra, kelinning sepiga biron yashil rangli narsa kirib qolsa, u albatta, baxtsizlik keltiradi. Xitoy va Uzoq Sharq lingvomadaniyatida yashil rang ochko‘zlik, qaysarlik va tamagirlik ramzi hisoblanadi. Dengizdagi yashil bayroq kema halokatidan darak beradi. Ammo yo‘l harakatida yashil rangdan “Harakatlanish mumkin!” yoki “Yo‘l ochiq!” ma’nosini ifodalash uchun foydalaniladi. Yashil rang, shuning bilan, bahor rangi, sabza-yu o‘tloqlar rangidir.

Jaloliddin Rumiy besh yoshidan boshlab ilohiy olam bilan aloqaga kirishganini rivoyat kiladilar. U olti yoshida bolalar bilan tomda o‘ynab yurganida ulardan biri: Kelinglar, tomdan tomga sakraymiz! — deb taklif qiladi. Jaloliddin unga qarshi chiqadi: Bu ish it bilan mushuklarning ishidir. Odam bolasining ularga taqlid qilishi yaxshi emas. Agar quvvatingiz yetsa, osmon tomiga sakrang! Shu so‘zni aytar-aytmas, Jaloliddin havoga ko‘tarilib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Bolalar qo‘rqqanlaridan qichqirish va yig‘lashga tushadilar. Bir muddatdan so‘ng u rangi o‘zgargan xolda yana tomga qaytadi va bolalarga aytadiki: Usha so‘zlarni sizga aytib turgan vaqtimda yashil libos kiygan kishilar meni sizning orangizdan tortib oldilar. Osmonga ko‘tarib, farishtalar olamining ajoyibotlarini ko‘rsatdilar. Sizlarning faryod-u fig‘oningizni eshitib, yana bu yerga tushirdilar. Hazrat bolaliklarida ana shunday toza nigoh va g‘aybiy nazar ila ularni olib ketgan kishilar kiyimi rangini yashil ko‘rganliklari ham bejizga emas, albatta.

Zotan, Hazrat Mir Alisher Navoiy “Xamsa” sining to‘rtinchi dostoni “Sabbayi sayyor” da yashil rang to‘g‘risida shunday deyiladi: “Xizrning abadiy

hayotga erishganligi sababi ham uning shu rangdan nishon topgani bo‘lsa ne ajab!”. Demak, bu rangni darddan forig‘ bo‘lgan jonning yashashga intilishi sifatida ta’riflasak ham bo‘ladi. Bundan tashqari, dostonda Dilorom gulgun ko‘ylakda-yu yashil ro‘molda tasvirlanadi. Savol tug‘iladi, Diloromning ro‘moli nega yashil? Bundan ko‘rinadiki, yashil rang iffatning, nomusning ham ramzi ekanda!

“Charchadim qarigan dunyodan,
Ko‘nglimni maysaga sotaman.
Olmaday g‘arq pishgan ishqimni
Ko‘ksimda ovutib yotaman.”

Shoira lirikasida Haq ishqi adolatning buyuk timsoli sifatida talqin etiladi. Lirik qahramon bu “qari dunyo” dan shunchalar charchaganki, hattoki ko‘nglini yashil maysaga sotmoqqa tayyor. Va ul ko‘ksida ko‘nglini sog‘inib yig‘lagan ishqini ovutib yotmoqchi… Uning ishqi shunday ishqki, Xudoning yo‘liga shaylangan, olmaday g‘arq pishgan! U o‘zini anglash orqali butun borlig‘ida, ko‘nglining tub-tubida kamol topgan ishqni taniyotir.

Biz Halima Ahmedova ijodini chuqur o‘rganishda tatqiqot obekti sifatida aynan “Yashil” deb nomlangan kitobni tanladik. Zero, “Yashil” kitobi shoira ijodiga katta ko‘tarilishlar olib kirgan desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi:

“Quriyotgan daryoning so‘nggi tomchisi yanglig‘,
Yashil sog‘inch bilan tirikman shu chog‘.
Goh yolg‘on tuyilar yashayotganim.” (Ahmedova, 2016, 19-bet)

Lirik qahramon “quriyotgan daryoning so‘nggi tomchisi yanglig‘” yashil sog‘inch bilan tirik ekan, demak, bu yashil sog‘inchda najot yashaydi. Unda umid ko‘rinadi yoki umidni o‘zi bo‘lmasa ham shunga o‘xshash tuyg‘u bor. Birgina yashilning o‘zidachi butun dunyo jam –bunda sog‘inch ichidagi istirob bor, shodlik ham bor, qayg‘u ham bor. She’r go‘yoki lirik qahramonning ruhiy to‘lg‘onishlar monologiga o‘xshab ketgan. Yashil rang esa ijodkor uchun haqiqatning rangiga, tozalik va pokizalik timsoliga aylanib ulgurgan. Shuning uchun u jamiki ezgu, toza xotiralarini shu rangda saqlab qolgan va doimo shu rangda ko‘radi ham eslaydi:

“Qachonlardir men ham yam-yashil edim,

Daryoga talpingan jilg‘aday yashil…

Yelkamga bosh qo‘yib uxlardi quyosh,

Uyg‘onganda derdi:

Salom, maysa dil!”

Yuqorida muallif jamiki ezgu xotiralarini, qachonlardir u ham daryoga talpingan jilg‘adek pokiza bo‘lganini aynan yashil rangda eslaydi va tasvirlaydi. Demak, oradan yillar o‘tgan, bugun jo‘shqin daryoga aralashgan o‘sha jilg‘a o‘z yashilligini- sofligini, beg‘amligini sog‘inadi, o‘shandayin o‘z-o‘ziga qaytgisi keladi. She’rda Haqqa murojaat chizgilari sezilib turadi. U goh kimnidir asosli so‘roqqa tutadi, goh Uni axtarib iymon sarhadlariga bo‘ylaydi:

“So‘rayman: Haqqa qaysi yo‘ldan boraman?

Va qaerda mening yashil ko‘ylagim…”

Yoki:

“Ko‘zimni ochaman, yashil boqar tong,

Dardlarim uloqib ketgan qaygadir,

Derazadan shirin jilmayib, boqib,

Sening manzilingni aytadi yomg‘ir.

Hayot tomirida oqaman yana,

O‘zimga sig‘maydi o‘zimdagi dil,

Jonimga nafasing tekkan chog‘ida

Rabbim, nigohlaring naqadar yashil…!” (Ahmedova, 2016, 20-bet)

Yashil rangni sevuvchilarning yuragi qattiq og‘rir, ular ko‘pincha yurak kasaliga duchor bo‘lar ekanlar. Balki shundan muallif “O‘zimga sig‘maydi o‘zimdagi dil” deb yozadi. She’r “Robbim, nigohlaring naqadar yashil!” misralari bilan tugaydi. Bu misrani anglamoq uchun esa o‘qiguvchiga o‘zligini anglashga oshiqqan qalb hamda bedor ko‘z kerak. Sababi uyquli ko‘z – baribir ko‘rolmaydi. Balki bularni ijodkor ko‘ngliga Xudo solgandir. Lekin eng muhimi, Xudo bilan uning orasidagi yo‘l yashil rangda! Shoira bir suhbatda o‘zi aytadi: “Yashil- Xudo bilan maning oramizdagi yo‘l. Xudoga olib boradigan yo‘l – ana shu yashil!”.

Halima Ahmedova she'riyatida o'zgacha obrazlar asosida tasvirlangan yashil rang she'r badiiyati va g'oyasini yanada boyitgan. Bu she'rlar obdon boshqacha – ham sodda, ham murakkab, shu bilan birga undagi o'ziga xos "yashil dunyo" she'riyat olamida o'zgacha bir mohiyat kasb etgan desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Undagi tashbehlar nafis, keng, chuqur, turli va sirli mazmunga ega. Bu mazmun insonga qo'lidan kelmaydigandek tuyiladigan narsalarga uning qodir ekanini anglatmoqqa intiladi. Umuman, Halima Ahmedova she'riyatida bu hayotning mashaqqatlarini kuchli iroda va shukronalik bilan yengib o'tayotgan jasoratli insonning qalb tug'yonlari,olamga yaxshilik istagan yashil nigohi tasvirlangan va u borliqni shu rangda ko'radi. Bu she'riyatda yashil rang jamiki ijobiy ma'no nozikliklarini namoyon etib keladi.

Shoira "Salom quyosh, salom mening ey sodiq do'stim" she'rida oftobni Bir-u Borning hamisha porloq nazari sifatida talqin qiladi.

Derazadan mo'ralamay ichkariga kir,

Ko'rgin qanday raqs etmoqda qalbimda nuring,

der ekan, Haq ishqiga juda-juda zoriqqanligini ta'kidlaydi ("...Men tirildim bir hovuch nur ichib tirildim"). Quyoshni sodiq do'stim, deyishi bejiz emas.

Ranglar, daraxtlar, qushlar, maysa-o'simliklar, tuproq, shabboda ramzi Halima Ahmedova she'rlari badiiyatining muhim xususiyatlaridan biri. Shu ma'noda yolg'iz yashil rangning mazmun qirralarini ko'zdan kechirish kifoya. Yashil rang, bo'yoq har bir she'rda yangi-yangi ma'nolarni anglatishiga ko'ra o'ziga xosdir. (Yam-yashil daryo, yashil nigoh, ishqday yashil, yalpizlar xayoli yam-yashil, yam-yashil nafas tafti, xayol kengliklari yashil, "qachonlardir men ham yam-yashil edim, Daryoga talpingan jilg'aday yashil", "Yashil kundan qolgan gardman ehtimol", "Haqiqatning rangi yam-yashil", "Va yana kimdir aytgan edi: avval va oxirni to'ldirar yashil", "Yashil sog'inch bilan tirikman bu chog'", "Havvoning yam-yashil tomirlarida", "Suvlardan ajralib qolgan sog'inchni, Yupatib to'ldirdim yam-yashil hisga", "Men boqqan ko'zguda yashildir olam", "Yam-yashil iforlar kelmoqda qaydan", "Borliq va yo'qlikning yashil ovozi").

Demak, bu she'riyatda rang – ramzlarida ezgulik, adolat zamiridagi mehr-oqibat tuyg'ularidan go'zallik balqib chiqayotir. Inson fe'li-tabiatida namoyon bo'lguvchi aynan ana shu mehr-muhabbatga ko'ra odamiylik xususiyatlarini, shaxslik darajasini o'zaro farqlash mumkin.

Shoira she'rlarida yam-yashil rang zimmasiga yuklanayotgan ma'nolar ma'naviy-axloqiy qadriyatlar maqomida cho'ng va rangin. Bir o'rinda haqiqatni qo'llayotgan fikr tariqasida aqlga kuch bag'ishlasa, boshqa o'rinda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida irodamizni quvvatlantiradi. Ko'pgina she'rlarida Oftob Rabbining oliy nazari sifatida talqin etilgan ("Salom quyosh, Salom mening, ey sodiq do'stim"). "Yashil" she'rida Rabbi nigohining hayotdagi tajallisi, Olam jilvalariga fusun va mazmun bag'ishlayotgan go'zallikning jilvalari sifatida suratlantiriladi.

Bu lahza ko'nglimning yamoqlariga
Oshiq etgim kelar har bir yaproqni.
Xayol kengliklari yashil va qo'ng'ir,
Sog'inch bog'larida mudraydi kunlar.

Yashillik – Haqni gohi sehrli jozib ovoz shaklida lirik qahramon vujudini yashash zavqi-sururi, hissiyotlari bilan chulg'aydi. Zero, yuqorida Halima Ahmedovaning o'zi takidlagan fikrga yana to'xtalishimizga to'g'ri keladi: "Yashil-Xudo bilan maning oramizdagi yo'l. Ana shu yashil!". Demak, ijodkor uchun Robbisiga olib boruvchi yo'l – yashil.

Yashillikning go'zallik mohiyati shundan iboratki, u hamisha ma'naviy-axloqiy qadriyatlar maqomida yuz ochadi. Xususan, birda mehr-muhabbat ko'rsatsa, boshqa holatda tanish ovoz bo'lib yuragiga cho'g' soladi. Hayotning ma'nosini uqib yashashga undaydi. Estetik qadriyatning iroda kuchlarini ezgu amallar sari yo'naltirish barobarida mushohada yuritishga, atrof-tevaragida kechayotgan jarayonlarni, mulki borliqni kuzatishga, mazmun o'qishga undaydi. Mahliyo bo'lish bilan birga o'z fikri-xayoliga cho'mish asnosida mulki borliq xossalaridan hikmat uqishga da'vat qiladi.

Lirik qahramon dilidagi Haq ishqini topgunga, ismini tanigunga qadar ma'naviy zulm aldovlarida chalg'iydi. Lirik qahramon Haq ishqini yashil sog'inch, deya ataydi.

So'rayman:

Haqqa qaysi yo'ldan boraman,

Va qayerda mening yashil ko'ylagim?

Ko'zimni ochaman, yashil boqar tong,

Dardlarim uloqib ketgan qaygadir.

Derazadan shirin jilmayib boqib,

Sening manzilingni aytadi yomg'ir.

Ma'naviy zulmning asosiy qilmishi – bu insonning havasini keltirib yo'ldan uradi, ezgu amallardan chalg'itib, asosiy muddaosidan ozdiradi. Lirik qahramon ko'ngliga she'r shavqi asasasini solib, g'azallar bitdiradi. Va lekin, ularda ruh, jon yo'q. U yalpiz shoxchasida qurigan dilni o'lik g'azallarga etadi ehson. Axir, "avval va oxirni to'ldirar yashil". Ezgulikka – Haqqa talpingan lirik qahramon borlig'i (aqli, shuuri, iroda kuchlari, e'tiqodi) Robbisini topadi. Aql va ehtiroslari birlashib, ko'nglining tub-tubida qad rostlagan O'zini taniydi. Zero, Robbining oliy masnadi arshi-a'lo esa-da, u bandalari ko'nglida yashaydi.

Hayot tomirida oqaman yana,

O'zimga sig'maydi o'zimdagi dil.

Jonimga nafasing tekkan chog'ida

Robbim, nigohlaring naqadar yashil.

Yashil rang Haq xayoli, Haq jamoli, haqiqat-ezgulikning timsoli tariqasida talqin etilayotir. Lirik qahramon oliy nazar sharofati bilan yana hayotga qaytdi.

Halima Ahmedova she'riyatida o'zgacha obrazlar asosida tasvirlangan yashil rang she'r badiiyati va g'oyasini yanada boyitishi bilan birga, ranglar poetikasi an'analarini yangicha ko'rinishlarda tasvirlay olgan. Bu she'rlar obdon boshqacha: ham sodda, ham murakkab, shu bilan birga, undagi o'ziga xos "Yashil dunyo" she'riyat olamida o'zgacha bir mohiyat kasb etgan desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Undagi tashbehlar nafis, keng, chuqur, turli va sirli mazmunga ega. Bu

mazmun insonga qo‘lidan kelmaydigandek tuyiladigan narsalarga uning qodir ekanini anglatmoqqa intiladi. Umuman, Halima Ahmedova she’riyatida hayot mashaqqatlarini kuchli iroda va shukronalik bilan yengib o‘tayotgan jasoratli insonning qalb tug‘yonlari, olamga yaxshilik istagan yashil nigohi tasvirlangan va u borliqni shu rangda ko‘radi. Bu she’riyatda yashil rang jamiki ijobiy ma`no nozikliklarini bayon etib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Ahmedova H. Yashil. (2016) –Toshkent.: O‘zbekiston.
2. Ahmedova H. (2013) Yosuman gulining soyasi. Toshkent.
3. Sharq mumtoz poetikasi Hamidulla Boltaboyev talqinida.-(2008).Toshkent.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.
4. Qoraboyev U. (2000). Najmiddin Kubroning “Latoif” asari tahlili // Sino. –Toshkent.
5. Ro‘ziyeva M. (2016) O‘zbek folklorida rang simvolikasi. Toshkent.: Fan.
6. O‘tanova C. (2011).Alisher Navoiy g‘azaliyotida rang simvolistikasi. Toshkent.: Tafakkur.
7. Mahmudov Q. (2005)Turkiy bayroqlar ramzi// Fan va turmush. –T: Yangi asr avlodi.
8. Bulatov S.B. (2003) Rang psixologiyasi. –T. Fan.

USMON NOSIR IJODINING MUSTAQILLIKKACHA VA MUSTAQILLIKDAN KEYIN O‘RGANILISHI

Xidirova Farangiz Rustam qizi,

ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik(o‘zbek adabiyoti)

Mutaxassisligi 2-kurs magistranti

simbadfar98@.gmail.com

Annatatsiya. *Mazkur maqolada shoir Usmon Nosir ijodining o‘z davrida va mustaqillikdan keyin qay darajada o‘rganilganligi haqida fikr yuritiladi. Sobiq sho‘ro davrida Usmon Nosir ijodi haqida tuhmat asosida ayblanganicha qanday baho berilganligi va qamalganidan so‘ng qanday baho berilganini ko‘rishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida esa shoir ijodiga qay darajada holisona baho berilganligi o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijod, lirika, lirik qahramon, doston, kitob, to‘plam, adabiyotshunos, tarjima asarlar*

Abstract. *This article discusses the extent to which poet Usman Nasir's work was studied during his time and after independence. We can see how Usman Naser's work was assessed during the former Shura period before he was accused of defamation and after his imprisonment. In the years of independence, the extent to which the poet's work was objectively evaluated was studied.*

Keywords: *Creation, lyric, lyrical hero, epic, book, collection, literary critic, translated works*

Usmon Nosir ijodi o‘z davridayoq o‘rganila boshlangan.Asarlari o‘quv dasturlari va adabiyot majmua darsliklariga kiritilgan edi. Keyingi yillarda shoir hayoti va ijodini o‘rganish, tadqiq qilish kuchaydi. 30-yillar adabiy jarayonida Usmon Nosir nomi alohida ahamiyat kasb etgan. Uning jo‘shqin va hayotbaxsh she’rlari barchani lol qoldirgan. Ko‘pchilik adabiyotshunoslar shoir ijodini chaqmoqqa qiyos qilishadi. Bunda aslo mubolag‘a yo‘q. UsmonNosir18 yoshidan to 24 yoshigacha ijod qildi. Shu qisqa davr mobaynida beshta she’riy to‘plam, ikki doston, to‘rt drama yaratdi. Tarjima sohasida takrorlanmas ishlar qila oladi va o‘zining badiiy mahorati qanchalik yuksak ekanligini namoyon qila oladi. N.A.Dobrolyubovning “Haqiqiy kun qachon keladi?”, Krishonning “Ulug‘ kun” dramasini, Pushkinning “Bog‘chasaroy fontani”, Lermontovning “Demon” dostonlarini va bir qancha she’rlarini, Geyne, Gyote, Bayron ijodidan ko‘pgina namunalarni o‘zbek kitobxonlari Usmon Nosir tarjimasida o‘qiydi. Bu poetik tarjimalar o‘zbek adabiyotining tarjima asarlar sahafasida shoh namunalar bo‘lib qoldi.

30-yillarning o‘rtalarida Toshkentda yozuvchilar yig‘ilishida O‘zbekiston Kompartiyasining birinchi sekretari Akmal Ikramov o‘zbek adabiyoti haqida gapirib, shu orada Usmon Nosir she’rlaridan yoddan o‘qib, “Usmon Nosir o‘zbek adabiyotining yorqin yulduzi, o‘zbek xalqining Pushkini”, degan edi. Shoir zamondoshlaridan bo‘lgan shoir Turob To‘la esa Usmon Nosirga quyidagicha baho beradi: “Usmon she’riyatimizga shamolday kelib ketdi. Balki bo‘ronday! U

shunday to‘palon va to‘lqin bilan keldiki, uncha-muncha she’riy uslub va ijodni to‘s-to‘s qilib yubordi. Uni o‘zimizda o‘zbekni Lermontovi, Moskva Gazetalarida: “Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi”, deb yozishdi” , - deb xotirlaydi. Usmon Nosirga berilgan bu tariflar hali hanuz hech bir o‘zbek shoiriga berilmagan. Shoir ijodiga tuhmat bilan qamalgunicha shunday yuqori baho berilgan. Hattoki 1937-yilda 25 yoshli shoir ijodining 10 yillik yubileyi keng nishonlanadi. Bu juda katta e’tibor. 25 yoshli yigitning 10 yillik ijodini nishonlash! Demak, Usmonning 15 yoshidan boshlab qilgan ijodini o‘rgansa arziydi deb hisoblashgan. Yubiley haqida bizga faqat tadbir qatnshachilarining aytgan xotiralarigina bor, lekin bir narsa aniqki, hamma shoirni maqtagan. Chunki Usmon Nosir ijodi har qanday maqtovga arziydi. U o‘sha davr siyosatiga ham boshqaruviga hamma hammasiga chin ko‘ngildan ishongan. Shuning uchun kerak bo‘lsa traktor haqida ham she’rlar yozgan. Demak, tuhmat asosida qamalgunicha shoir ijodiga zamondosh adabiyotshunoslar shunday baho berishgan. Zamon zayli bilan yubileydan yarim yil o‘tar o‘tmas shoir qamaladi. Qamalganidan so‘ng esa hammasining oyog‘i osmondan bo‘lib qoladi. Ba’zi g‘alamislar shoirning betakror tarjimalaridan “ayb”lar topa boshlaydi. U ataylabdan ulug‘ rus shoirlarini shu yo‘l bilan obro‘sizlantirmoqchi ekanligi aytishdi. She’rlarida esa pessimizm kuchli ekanligi, davr siyosatidan norozi ekanligini to‘qib chiqarisha boshlaydi. Shu kunlardan boshlab shoirning kitoblari qora ro‘yxatga tushadi. Shoir ijodini o‘rganish shu yildan to oqlanguncha bo‘lgan davr mobaynida to‘xtadi.

1944-yilning so‘ngidas professor Borovkov, shoir Maqsud Shayxzoda va “Qizil O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriridan tashkil topgan komissiya shoirni aybsiz deb topadi. Biroq bunday xulosaga endi juda kech edi, shoir 1944-yilning 9-mart kuni bu olamni tark etgan edi. Keyinchalik adib asarlari bir necha bor chop etildi. Qator ilmiy maqolalar, kitoblar yaratildi. Bu sohada ayniqsa adabiyotshunos olimlardan Naim Karimov, Abubakir Rajabiy, Ibrohim G‘afurov, O‘tkir Rashid, shoirning jiyani Nodira Rashidovalarning xizmatlari alohida ta’kid va tahsinga loyiqdir. A. Rajabiy Usmon Nosirga bag‘ishlangan kitobida shoir hayoti va ijodiy faoliyatini birinchi marta keng tarzda yoritib berdi. Filologiya fanlari doktori

N.Karimov “Istiqlol fidoyilari” turkumida U. Nosirga bag‘ishlab ikkita kitob chiqardi. “Usmon Nosir” (1993) kitobi shoir umrining Namanganda va Qo‘qonda o‘tgan bolalik fasli haqida hikoya qiladi. “Usmon Nosirning so‘nggi kunlari” (1994) kitobi shoir hayotining Toshkent davri hamda qamoqda kechgan fojiali yillarini tasvirlaydi. Har ikki kitob hayotiy lavhalar, hujjatlar va rivoyatlardan iborat. 1967 -yilda Ibrohim G‘afurovning “Usmon Nosir” nomli monografiyasi nashr etildi. Usmon Nosirni u yurak va mehr shoiri sifatida tadqiq qiladi. Shoir Usmon Nosir haqida, uning yuksak iste’dodini ulug‘lab ko‘plab she’rlar yozilgan. Bu ishni o‘z davridayoq, ya’ni 30-yillarning boshlaridayoq shoir Ergash boshlab bergan edi. “Vatandosh” she’rida u Usmon Nosir ijodiga yuqori baho beradi. Yozgan dostonlarini, ularning badiiyatiga alohida to‘xtaladi. Ijodkor adabiy merosiga davr nuqtayi nazaridan adabiy baho berish adabiyotshunoslarning eng muhim vazifasidir. Chunki olimlarning tatqiqotlari o‘zlaridan keying avlodga meros bo‘lib qoladi. Bu merosda hamma narsa adolat tarozisida o‘lchangan bo‘lishi kerak. Biron o‘rinda noxolislikka yo‘l qo‘yilmaslik kerak. Akademik Naim Karimov shoir Usmon Nosirning hayot haqiqatlarini dalillarda isbotlashga erishgan adabiyotshunos olimdir. Naim Karimov ilmiy izlanishlarining bir tarmog‘i Usmon Nosirning ijodi, adabiy merosi, hayot yo‘li va adabiyot maydonidagi o‘rniga bag‘ishlangan.Xususan, “Usmon Nosir hayotidan lavhalar, hujjatlar, rivoyatlar”(1993-yil) hamda “Usmon Nosirning so‘ngi kunlari: hayotiy lavhalar, hujjatlar, rivoyatlar” (1994-yil) nomli alohida nashrlar shoir hayoti va ijod olami haqida bizga arxiv ma’lumotlariga asoslangan daliliy adabiy materiallarni beradi. Naim Karimov bir intervyusida davlat arxivlaridan birinchi navbatda Usmon Nosir haqida ma’lumotlarni izlaganini aytib o‘tgan. Jonkuyar olimning necha yillik zahmatlari evaziga kelgan bu adabiyotlar Usmon Nosir hayot yo‘lini to‘laligicha ko‘z oldimizga keltirishga katta yordam beradi. Shu kungacha Usmon Nosir asarlari haqida emas uning hayot yo‘li haqida ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Uning ijodining ichiga hali bironta adabiyotshunos to‘laligicha kirib borolgani yo‘q. Hozirgi davr yosh adabiyotshunoslari zimmasida Usmon lirikasining mag‘zini chaqish, uning ma’nosini anglash va tahlil qilish turibdi. Hassos va

otashnafas shoir Usmon Nosir hayoti va ijodi haqida ko‘p yozilgan. Bundan keyin ham Usmon Nosir haqida ko‘plab tadqiqotlar qilinishi tabiiy.

Bu yil shoir tavalludining 110 yilligi yurtimizda keng nishonlanadi. Shu munosabat bilan Prezidentimizning “Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi 2022-yil 10-fevral, PQ-125-son qarori qabul qilindi. Xususan, Namangan davlat universitetida 2022-yil 12-noyabr kuni o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman muhim ahamiyatga ega. Uning ezgu insoniy fazilatlar, Vatanga muhabbat va sadoqat, kelajakka yuksak ishonch tuyg‘usi bilan kirib kelgan yetuk badiiy asarlarining xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов Наим. (1993) Усмон Носир. Тошкент: “Шарқ нашриёти”.

2. Каримов Наим. (1994) Усмон Носирнинг сўнгги кунлари. Тошкент: “Шарқ нашриёти”.

3. Усмон Носир. (1969) Танланган асарлар икки томлик I том. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.

4. Усмон Носир. (1969) Танланган асарлар икки томлик II том. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.

5. Усмон Носир. (1984) Юрак. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.

СЎЗ ВА РУҲ БИЛАН ЁЛҒИЗ (АСҚАР МАҲКАМ ШЕЪРИЯТИДА ЛИРИК ҚАҲРАМОН КЕЧИНМАСИНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ)

Хўжамов Рашид Рақиббой ўғли,
ТошДЎТАУ Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти)
йўналиши 2-босқич магистранти
rashidddddjek1997@gmail.com

Аннотация. Ушбу мақолада серқирра ўзбек шоири, таржимон Асқар Маҳкамнинг шеърияти, унинг ўзбек адабиётида тутган ўрни, шеъриятидаги новаторлик, руҳият жилвалари хусусида сўз боради. Шоирнинг таржималари, «Ҳақ», «Аналҳақ», «Ваҳдат куйи» каби асарлари асос қилиниб, ундаги

шеърлар бадиияти, кўламдорлиги, жаҳон дурдоналарига эргашуви ва уйғунлиги талқин қилинади.

Калит сўзлар: руҳият шоири, сўз санъати анъаналари, форс адабиёти, классик адабиёт, жаҳон дурдона асарлари, бадиий санъатлар, адабий таъсир, хотира-эссе, новаторлик.

Abstract. This article discusses about the poetry of the great Uzbek poet, translator Askar Mahkam, his place in Uzbek literature, innovation in his poetry and sheen of character. Based on the poet's translations, works such as "Haq", "Analhaq", "Vahdat kuyi", the artistry, scope, following and harmony of the world masterpieces of the poems are interpreted.

Key words: poet of spirituality, literary traditions, persian literature, classical literature, world masterpieces, visual arts, literary influence, memoir-essay, novation.

Асқар Маҳкам каби руҳоний шоир орамизда яшаб ўтганлигини аксарият ўқирманлар билмайди. Албатта, билмаслик айб эмас, лекин билмасликка уриниш айб. Кўнгли нурли чўққилардек ўктам ва қайсар, жисмининг ҳар заррасида ҳалоллик, тўғрилик, покиза иймон, эътиқод ва гўзаллик яшаган, шу билан бирга елкасига олишни истаган ҳар каснинг белини букчайтирадиган вазминлик билан “умргузаронлик” қилган шоирнинг шеърларини ўқимаслик, ўқиб туриб, нафас сиқилмаслик, бутун вужуд бўғриқиб, юз томирларгача таранглашиб кетмаслик мумкин эмас, чамамда:

Топмадим, темурий шаҳрудлар аро,
Балиқлар мендан-да хароб эдилар.
Заъфар таналари узра тиллолар,
Дарахт сочларида зардоб эдилар.
Топмадим илоҳий чорраҳаларда,
Орифлар карвонин сарбонларини.
Жаҳоний хирмонни тўнди ўғрилар,
Сичқонлар кемирди девонларимни...

Аёвсиз курашлардан бунёд бўлган дард истеҳкомига қарши курашда сира тинкаси қуримаган, ҳар манфур оғриқ, ҳар муртад кимса, ҳар фосид ҳодиса муқаддас нигоҳларига зирапча суққан чоғда, муслим тишлари билан суғуриб олган, қиличдек кескир ориятига занг теккизмаган шоирнинг шеърларини қорачиқларни тўкиб, қалбни қонатиб ўқимаслик мумкин эмас. Инсон руҳидаги ташналик очиб берилган қуйидаги мисрада шоир руҳимнинг гадосига биров на нон берди ва на боқди, дея ҳасрат қиларкан, аслида, нон-туз илинжида эмас, одамийлик, меҳр-оқибат, тушунилиш иштиёқидан ёзғиради:

Топмадим руҳимнинг гадоларига,

Биров на нон берди, биров на боқди.

Сўнгагим санчилиб қолди йўлларга,

Сочларим оқарди, қароғим оқди...

Агар Асқар Маҳкам биргина “Таважжуҳ” шеърий қисса ёзиб қолдирганда ҳам, сўз қудратини ҳис қила оладиганлар ҳурмати унга нисбатан заррача камаймаган бўларди.

Ичимизда ҳеч қайси шакл-у шамойилга сиғмас эркин руҳимиз минглаб ниқоблар орасида ҳам ёлқинлиги билан ажралиб турса, Асқар Маҳкам шеъриятидаги нур ҳам бошқалар битган ашъорлар орасида шу қадар тоза ва бедордиллиги билан фарқ қилиб туради. Бу нурни илғамоқ, ҳис қилмоқ, унда исинмоқ учун ўқирман теран фикрлаши керак. Шоирлик Асқар Маҳкам учун шунчаки воз кечиб бўлмас одат эмас, бор умрига боғлаган матлабига айланиб улгурган эди. У маҳорати қанчалар кучли эканлигини кўрсатиш учунгина ташбиҳ ва ишоралардан фойдаланмади, билъакс сўфиёна рамзлар ортига бутун кечмишини, изтироб уруғларини экди, аччиқ кўзёшлари билан суғорди, гўзал битиклари ила парваришлади. Бундай яшаш оғир... Хушнуд лаҳзалардан воз кечиб, бадҳайбат андуҳларни умр поёнига қадар васф этиш... Оғир: *Топмадим, шоҳлардан кейин бешоҳлар,*

Эшакдек миндилар тилло тахтларни.

Бир карра зинодан бўлган болалар,

Бир карра зинога сотди халқларни...

Бирон марта шоирлик даъвоси билан мазхарабозлар майдонига чиқмаган, муҳташам минбарда томоқ томирларини шишириб шеър ўқимаган, бадавий байтлар ҳамда дарвешона сатрлар билан кун кўрган одамдан шоирроқ шоир бормикан бу дунёда?!

Бу садолар диёнат ва хиёнат, истибдод ва озодлик, жоҳилият ва комиллик, офият ва офат оралиғида яшаётган одамларга тарсаки ўлароқ таъсир қилади, узун тунга қадар узанган уйқудан уйғотади, фавқулодда ҳушёр торттиради, ҳаёт ва ўлим, борлик ва йўқлик, суврат ва сийрат ҳақида тафаккур қилишга, яшаш моҳиятини англашга ундайди:

...Эй вужуд қуллари, фано итлари,
Иштиҳод боғламанг суягингизга.
Тирсиллаб турган бу ҳарис тошингиз,
Умрбод осилмас кўкрангизга...

Сўз ила сўнган руҳни кўтариш ёки аксинча, кўтаринки руҳни бир зумда сўндириш мумкин. Худди шундай ғафлатда сасиб ётган тафаккурни биргина сўз, жумла орқали жамбил сувлари-ла юзига сепиб, уйғотиш мумкин. Тафаккур уйғонар экан, сиз-у биз истаган Жараён ҳам ҳаракатга келажак. Асқар Маҳкамнинг ижод – “илоҳий пайғом” учун бисотидаги катта туз – умрини тикиши ўша жараённинг бошланиши учун силжиши керак бўлган улкан мурватнинг заъфарон зангини тўкди:

... Азалий ўнгиган таналар ичра,
Ажалга интизор жонлар титрайди.
Жувонмарг йигитлар руҳи юксалар,
Беиймон кимсанинг куни битмайди.
Тулпорлар туёғи чақнаган тунда,
Ҳар йигит бошига боғловлик ришта –
Йиғлама, ғазотнинг пок сингиллари,
Сочларинг ерларга солма, Фаришта...

Кавсар таъбири билан айтганда, Жалолиддин Румийни ўзига маънавий устоз ва раҳнамо деб ҳисоблаган Асқар Маҳкамнинг шеърияти одатий шеър услуби эмас. Уни англаш учун катта руҳий ва маърифий тайёргарлик керак. Чунки у ирфон руҳида қалам тебратган, форс ва турк тасаввуф алломалар изидан бориб, улардан ўзига қувват ола билган ижодкордир. Шеърлардаги кескир қарашлар, ширин ва баъзан аччиқ сўзлар шоир ижодида ҳаққоний тилга олинган. Яъни, у ясама сўз термайди, ҳижрон деганида, бошқалар ҳам қўшилиб ёнади. Ишқ деганида, ўзгалар ҳам ошиқ бўлади, шоир надомат чекканида, ўқувчи ҳам қўшилиб, ўша руҳий ҳолга беихтиёр туша олади.

Шоирга тегишли бир байтнинг устида соатлаб, бутун бошли шеъри хусусида кунлаб баҳслашиш мумкин. Сабаби бу ашъорлар ортида ирфон дунёси яшайди. Асқар Маҳкамга илҳом берган айнан ўша ирфон дунёсидаги ҳадис илмлари бўлса ажаб эмас:

... Ё Раббий илкимда паймона – тўлдир,

Кўнгилдек лабо-лаб бўлсин-да, синсин.

Ё Раббий, тўрт юзу қирқ тўрт сўнгагим

Ҳарбаларда сингунча сенга сиғинсин...

Унинг шеърларида мағрурлик бор. Синиқликни касб қилиб олганларга бу унчалик ёқмайди. Аммо бу шоир ички дунёсидаги тоза, дарвиштабиат беозор қиёфани яшира олмайди. Дунё ва уқбо, шариат ва тариқат, турли динлар ва кишилик тарихига оид қарашлар, фалсафа, ҳаёт, шеър ва ҳикмат илми… Шунча илми билан қаршисида ўтириб олиб жўн қарашларни узундан-узоқ баён этаётган суҳбатдоши қошида чурқ этмай соатлаб бош эгиб ўтира олардиган, аммо рост сўзни энг яқин кишисига ҳам, ”қўли узун” амалдор ё жуда ҳурматли кимсанинг кўзига тик қараб ҳам айта олади:

... Қазо камонидан тўрт ён отилдим,

Мен санчилган ерга етмас ҳеч бир қўл.

Сени дарёйи Ҳақ ичра ботирдим,

Эй кўнгул, эй кўнгул, эй телба кўнгул...

Шоир шеърларидаги иссиқ-совуқ, тўғри-нотўғри – бари ўзиники эди. “Таважжуҳ” шеърий қиссаси ҳам фақат унинг ўзигагина хос эди. Балки, айнан шу “беўхшовлик, ғалатилик” уни шу даражага олиб чиққан. Унинг шеърияти ҳақида ким қандай хоҳ ўринли, хоҳ ўринсиз танқидий фикр билдирмасин, мисралардаги тирик эътиқод нафасидан юз буролмайди. Шоирнинг нафсни тарбиялаш, ўзига бўйсундириш бобида ёзилган шеърлари бугун ҳам эртага ҳам, юз йилдан сўнг ҳам аҳамиятини йўқотмайди. Шубҳасиз, шоирни бошқаларга ўхшамаган сўқмоқ оралаб кўзланган манзилга олиб чиқувчи компонент – исломий ғоялар ва уларнинг шоир ботинида зуҳур этган тасвирларидир. Бу ҳақда шоирнинг ўзи шундай ёзади: “Сўз ва руҳ билан ёлғиз қолган шоир иймонли бўлса, бу жараён ибодатдир. Агар борди-ю сўз билан ёлғиз қолган шоир жисмида нафсоният устун бўлса, бу айш ва шақоват. Ундан ҳам баттар – фитна ва бузғунчилик бўлиши мумкин. Иймонли сўз ва руҳнинг бир вужудда кечадиган умри хайрли тоат бўлиб, ўз соҳибини эзгуликлар сари элтади, ўзгаларга ҳам яхшилик келтиради. Зеро, бу ибодат дуолари ижобат бўлади”.

“Асл шеърни фақат ишқ яратади” ҳикматига бўйсуниб яшаган, ижод қилган шоир бутун борлиғи, алам ва изтироби, қайсар шиддати ва руҳий сукути, қувонч-у қайғуси, ёниш ва сўнишлари, фарёд-у наъралари билан шеърларида қолди. Унинг шеърларини ўқиганда тасаввуримизда Ватанини топган, Миллати кечмишини англашга интилган, бобомерос ақидаларга бўлган ишончи бутун вужудида қон бўлиб оққан инсон сиймоси гавдаланади. У бирон бир сатрида ёлғон гапирмади, ёлғонни шеърнинг бўйнидаги сиртмоқ деб билди, ёлғондан иймони туфайли қўрқди, инсонийлиги сабаб уялди. “Шеърига ўхшамаган шоир шоир эмас, – деб ёзган Асқар Маҳкам.

Асқар Маҳкам ижоди ҳали ўзбек китобхони томонидан тўла кашф ҳам, тўлиқ идрок ҳам этилмаган. Аммо, ишончим комилки, охир-оқибат шоирнинг ҳайратли даражада юксак шеърияти ловуллаб турган вулқондек юракларни ларзага солади, асл шеъриятни соғинган сонсиз инсонлар унинг ҳайратига, ҳасратига шерик бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А. Маҳкам. (2021). Ваҳдат куйи. Тошкент: Нурафшон.
2. А. Маҳкам. (1998). Ҳақ. Душанбе: Адиб.
3. А. Маҳкам. (2003). Аналҳақ. Тошкент: А.Қодирий
4. А. Маҳкам. (2017) “Табриз дафтари”дан шеърлар. “kh.davron.uz” кутубхонаси:
5. Х. Даврон. Осмонга талпинган шоир. (2003) “кҳ.даврон.уз” кутубхонаси:

FOLKLOR MATNLARINING O‘RGANILISH TARIXI

Xolmuminov Ilxom Abdixalilovich
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
ixa.kholmuminov1986@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada ilk folklor namunalari matnlarining yuzaga kelishi va shakllanish tarixi, xalq og‘zaki ijodining tur va janrlari, shuningdek dostonlar va ularning turlari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar*: “folklor” tushunchasi, doston turlari, etnofolkloristika, arxeofolkloristika, etnolingvistika.*

Abstract. *The article discusses the history of the emergence and formation of the texts of the first examples of folklore, the types and genres of folklore, as well as epics and their types.*

Keywords: *concept of "folklore", types of epic, ethnofolkloristics, archeofolkloristics, ethnolinguistics.*

Folklor asarlar matni o‘ziga xos badiiy qolipga ega. Masalan, qahramonlik dostonlari syujet va kompozitsiyasi xalq baxshilari tomonidan kuylash uslubiga mos bo‘lib, bunda hech qaysi janrda takrorlanmaydigan ibtido va yakunga egaligi bilan xarakterlanadi. Folklor namunalari og‘zaki yaratilib, og‘zaki ijro etilishi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Biror millatning tarixini o‘rganmoqchi bo‘lsak, albatta o‘sha millat folkloriga murojaat etishimiz kerak. V.Jirmunskiy ta’kidlaganidek: “Epos – bu xalqning qahramonlik idealizatsiyasi ko‘lamidagi jonli o‘tmishidir. Uning ilmiy-tarixiy qimmati, ayni paytda juda katta ijtimoiy, madaniy, tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir” (Жирмунский, 1962, с.195).

O‘rganilayotgan millat tilining boyligi, tarixiy an’analari, madaniyati uning folklorida o‘zini namoyon etadi. Mamlakatimiz birinchi prezidenti Islom Karimov “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda millat ma’naviyati uchun xalq qahramonlik dostonlarning o‘rni qanchalik beqiyos ekanligini ta’kidlab, shunday degan edi: “Xalqimizning yengilmas bahodiri - Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko‘zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo‘lsa bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan azamat o‘g‘lonlarimiz - bugungi Alpomishlarning ma’naviy qiyofasini ko‘ramiz. Ishonamizki, har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazadi. Bu qahramonlik eposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch yenga olmaydi” (Karimov, 1999, 1-bet). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini xorijda ham sevib o‘qilishi, tadqiq etilishi, xorijiy kitobxonlarning boy madaniyatimiz bilan yanada yaqinroq tanishishlarida tarjimaning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Har bir xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘zining g‘oyaviy tarbiyaviyligi, hayotiyligi va xalqchilligi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Dunyoga kelgan kunidan boshlab, to umrining so‘ngiga qadar inson o‘z xalqining urf-odatlari, an’ana va qadriyatlari ta’sirida ulg‘ayib, dunyoqarashi shakllanib boradi. Xalqning turmush tarzi, an’ana va urf-odatlari, xohish-istaklari folklor janri namunalarida o‘z aksini topadi. O‘zbek millati ham azal-azaldan xalq og‘zaki ijodi namunalarini sevib ijro etib, asrab-avaylab kelajak avlodlarga o‘tkazib kelgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Termiz shahrida o‘tkazilgan xalqaro baxshichilik festivali tantanali ochilishida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan: “...Tengsiz ma’naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz san’atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg‘or fikrli olimlar va san’atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir” (Mirziyoyev, 2019, 1-bet). Fikrimizcha, nafaqat madaniyat ahli, balki jamiyatning har bir vakili bu ma’naviy boyliklardan kelajak avlodlar ham bahramand bo‘lmog‘i uchun teng mas’uldirlar.

Ilk folklor namunalari bizgacha yetib kelishida turkiy elatlar ichida kezib, xalq og‘zidan ularni to‘plab, o‘z asarlarida yozib qoldirgan allomalarning xizmatlari beqiyos. Ilk xalq og‘zaki ijod namunalari yozib olinib, hozirgi davrgacha yetib kelish tarixiga nazar solar ekanmiz, 899-959-yillarda yashab ijod qilgan tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida o‘tmish hodisalari haqida xalq rivoyatlari, afsonalari keltirib o‘tilganligini; XI asrda yashab ijod qilgan filolog olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari tarkibiga rivoyat, afsona, matal va maqol kabi folklor namunalariga oid materiallar kiritilganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Qolaversa, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xondamir, Shayx Sulaymon Buxoriy, Darvesh Ali Changiy singari mumtoz adabiyot vakillari va tarixchi olimlar o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarining ilk jamlovchilari hisoblanadilar. Gulxaniy tomonidan yozilgan “Zarbulmasal” asarida maqol va matallar, Shayx Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy usmoniy” va Muqimiyning “Sayohatnoma” asarlarida folklor janriga oid xalq qo‘shiqlaridan namunalar keltirib o‘tilgan.

“Folklor” atamasiga to‘xtalar ekanmiz, bu adabiy istiloh birinchi marta XIX asr ingliz adabiyotshunos olimi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo‘llanilgan (Stephens, 2005, p. 23). Asrlar mobaynida ma’nolar xazinasi bo‘lgan xalq og‘zaki poetik ijodi dastlab “el adabiyoti”, “og‘zaki adabiyot” deb yuritilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida esa “folklor” atamasi ilk bor o‘tgan asrning 30-yillarida prof. H.Zarif tomonidan qo‘llangan. Folklor inglizcha so‘z bo‘lib, *“folk”*- xalq, *“lore”*- bilim, donolik ma’nolarini bildiradi. 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da folklor atamasiga quyidagicha izoh berilgan: “Folklor – xalq ijodiyoti; xalq tomonidan yaratilgan va xalq orasida keng tarqalgan asarlar” (Madvaliyev va boshq., 2020, b. 355). G‘arbda bu atama ilk bor qo‘llana boshlangan paytdan to hozirgi vaqtgacha o‘z tarkibiga nafaqat xalq og‘zaki ijodi namunalari, balki xalq tomonidan yaratilgan barcha san’at asarlari: me’morchilik, rassomchilik, zardo‘zlig-u naqqoshlik, musiqa, raqs, hattoki diniy e’tiqodlarni ham o‘z ichiga oladi. Sharqda esa folklor xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan, avloddan

avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelayotgan ijod namunalari xususan, doston, ertak, lapar, maqol, matal, mehnat va marosim qo‘shiqlari, latifa va askiya kabi janrlarni o‘z ichiga oladi. Ganchkorlik, zardo‘zlik, naqqoshlik singari xalq amaliy san’at turlariga esa folklor namunalari sifatida qaralmaydi. Ya’ni, Sharqda folklor atamasi asosan tor doirada, ya’ni xalq tomonidan yaratilgan og‘zaki ijod namunalariga nisbatan ishlatiladi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari ijro xususiyatlari, tuzilishi, bajaradigan vazifasi, musiqaga bog‘liqligi, ko‘lamiga ko‘ra *doston, ertak, naql, rivoyat, afsona, o‘lan, lapar, alla, lof, askiya, topishmoq, maqol, matal, masal, latifa, bolalar qo‘shiqlari, mehnat qo‘shiqlari, marosim qo‘shiqlari, qo‘g‘irchoq o‘yini* kabi janrlardan tarkib topgan. Xalq hayoti, odatlari va tarixini o‘zida aks ettirgan o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi yuqorida sanab o‘tilgan ko‘plab tur va janrlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bunda boshqa xalqlar folklorida uchramaydigan *lof* va *askiya* kabi janrlar ham mavjud. Folklor janri boshqa janrlardan ba’zi xususiyatlariga ko‘ra ajralib turadi. Og‘zakilik, an’anaviylik, anonimlik, jamoaviylik, versiyaviylik va variantlilik uning o‘ziga xos xususiyatlari sanaladi.

Xalq og‘zaki badiiy ijodining hajman eng yirik namunasi doston janri bo‘lib, qahramonlarning o‘zaro munosabatlari, kechinmalari, asar g‘oyasi, mazmun-mohiyati va syujetiga ko‘ra o‘z ichki bo‘linishiga ega. Folklorshunos olimlar V.Jirmunskiy va H.Zarifov o‘zbek xalq dostonlarini *qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romanik va kitobiy* kabi besh turga ajratadilar (Жирмунский, Зарифов, 1947, ст. 58). Professor T.Mirzayev “O‘zbek folklorining epik janrlari” nomli kitobida dostonlarni tasniflashda V.Jirmunskiy, H.Zarifovlarning ilmiy yondashuvlarini yanada mukammal holga keltiradi. Bu tasniflanishni quyida ko‘rib chiqamiz.

Qahramonlik dostonlari: Bu turdagi dostonlar dostonchilik taraqqiyotida muhim o‘rin tutishi bilan ajralib turadi. Ularning yaratilish tarixi ko‘chmanchilik tuzumiga borib taqaladi. Urug‘ va qabilachilik davrida muayyan bir xalq sifatida shakllanish, davlatchilikning tashkil topishi, bosqinchi xalqlarga qarshi qahramonlarcha kurash bu turdagi dostonlar syujeti uchun asos bo‘lib xizmat

qiladi. Bu kabi dostonlarda qahramonlar obrazi va ular amalga oshirgan jasoratlar tabiiylik chegarasidan birmuncha yuqori bo‘ladi.

Jangnoma dostonlar: Bu turdagi dostonlarga afsonaviy qahramonlarning tarixiy janglarda ko‘rsatgan jasoratini madh etuvchi dostonlar kiradi. Ular qahramonlik dostonlari ta’sirida shakllangan deb ayta olamiz. Misol tariqasida “Jangnomai Amir Hamza”, “Jangnomai Abo Muslim”, “Jangnomai Jamshid”, “Xo‘shang”, “Rustami doston”, “To‘maris” dostonlarini aytishimiz mumkin.

Tarixiy dostonlar: Bu turdagi dostonlarni baxshi va oqinlarimiz repertuarlarida boshqa turdagi dostonlarga nisbatan kam uchratishimiz mumkin. Bu dostonlar tarixiy voqealar badiiy to‘qima bilan aralashtirilib ijro etilishi bilan xarakterlanadi. Unga misol qilib “Shayboniyxon”, “Oysuluv”, “Tulumbiy”, “To‘lg‘onoy”, “Mardikor”, “Jizzax qo‘zg‘oloni” dostonlarini ayta olamiz.

Romanik dostonlar: Xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan doston turi bu – romanik dostonlardir. Bu turdagi dostonlarning syujeti bir-birida juda o‘xshash bo‘ladi. Doston qahramoni go‘zal qizga oshiq-u beqaror bo‘lib sarguzashtlarga boy safarga otlanadi va sevgisi yo‘lida barcha qiyinchiliklarni yengib murod maqsadiga yetadi. Unga misol qilib “Kuntug‘mish”, “Rustamxon”, “Orzigul”, “Erali bilan Sherali”, “Bahrom va Gulandom”, “Shirin bilan Shakar”, “Xurshidoy” dostonlarini olishimiz mumkin.

Kitobiy dostonlar: Bu baxshilarimiz tomonidan sevib ijro etiladigan, asli yozma manbasiga ega bo‘lgan, ularning folklorga moslab qayta yaratilgan turidir. Xalq baxshilari ularni og‘zaki epik an’analarga moslab qayta ishlaganlar. Bu turdagi dostonlarda asl folklor dostonlarida bo‘lganidek qahramonlik, jasorat, jang-u jadallarga kamroq e’tibor qaratilib, asosan turli to‘siqlarga uchraydigan muhabbat mavzusi ko‘proq yoritiladi. Masalan, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Yusuf va Zulayho”, “Varqa bilan Gulshoh”, “Zevarxon” dostonlari shular jumlasidandir.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida bu kabi 400 dan ortiq dostonlarning borligi, ularning 5 ta yirik turlarga bo‘linishi doston janrining o‘zi nihoyatda boy madaniy merosga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi. Folklorshunos olim, filologiya fanlari

doktori H.Zarifov o‘zbek xalq og‘zaki ijodi sara namunalari bo‘lmish “Alpomish”, “Yusuf va Ahmad”, “Yodgor”, “Mardikor”, “Jahongir”, “Rustam”, “Shayboniyxon”, “Ravshan” dostonlarining baxshilar tilidan yozib olib ularning nashr etilishida xizmati beqiyos. U xalq og‘zaki ijodi namunalarini jamlash va nashr etish tamoyillarini o‘zbek folklorshunosligi tarixida birinchilardan bo‘lib yaratgan. Uning folklor asarlar matnini tuzishda asos solgan tamoyillari jiddiy matniy tayyorgarlik va nazariy asoslarga ega bo‘lganligi tufayli hozirda ham barcha turkiy xalqlar folklorshunosligida dasturul amal bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbek xalq dostonlari matnining nazariy asoslariga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqotlarni ham Hodi Zarifov olib borgan. Folklorshunos olim V.M.Jirmunskiy bilan hamkorlikda yozilgan “O‘zbek xalq qahramonlik eposi” monografiyasi rus tilida nashr etilishi va bir qancha dostonlar matnining tarixiy asoslariga bag‘ishlangan maqolalari o‘zbek folklorshunosligining nazariy manbalari hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, o‘tgan asrning 20-30-yillarida xalq orasidan folklor matnlari yig‘ish, xalq dostonlarini baxshilar tilidan yozib olish, so‘ng ularni nashrga tayyorlash boshlangan bo‘lsa, 40-yillardan esa folklor matnlari ustida folklorshunos olimlar jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borish yo‘lga qo‘yilgan.

O‘tgan asrning 60-80-yillariga kelib folklorshunoslikda ko‘plab zabardast olimlar yetishib chiqqanlar. Jumladan, B.Sarimsoqov, T.Mirzayev, H.Abdullayev, M.Mirzayeva, M.Saidov, U.Jumanazarov, I.Yormatov kabi folklorshunos olimlar o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari ustida jiddiy tadqiqotlar olib borishgan va ko‘plab ilmiy xulosalarga kelganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stephens, M. (2005). *Living Folklore*. (p. 23). Utah: Utah State University Press.

2. Madvaliyev, A. va boshq. (2020). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild.* (355-bet). Toshkent: O‘zbekiston.

3. Karimov, I. (1999). “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi. *Xalq so‘zi*, 142, 1-bet

4. Mirziyoyev, Sh. (2019). Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilish marosimidagi nutqi. *Xalq so'zi*, 68, 1-bet

5. Жирмунский, В., Зарифов, Х. (1947). *Узбекский героический эпос*. (ст. 58). Москва: Государственное издательство художественной литературы.

6. Жирмунский, В. (1962). *Народный героический эпос.* (ст. 195). Л.: ГИХЛ.

УЗАҚБАЙ ПИРЖАНОВ ЛИРИКАСЫНДА ФОЛЬКЛОРЛЫҚ ДӘРЕКЛЕР

Баўетдинов Мухаммеддин Казымбекович,
Қарақалпақ мәмлекетлик университети таяныш докторанты
kazimbekovich96@gmail.com

Аннотация. *Бу мақолада таниқли қорақалпоқ шоири Узақбай Пиржанов шеърриятидаги фольклорлик манбалар масаласи ўрганилган. Унга кўра, шоир асосан қорақалпоқ халқининг миллий мусиқаларининг эстетик таъсирига учрайди. Шу мусиқаларнинг оҳангига мос шеърлар ёзади. Мазкур шеърларда асосан атоқли қорақалпоқ бахшилари ижоди бадиий гавдалантирилади. Шунингдек, У.Пиржанов «терме-тўлғов» жанри талабларига тўла жавоб берадиган лирик асарлар яратади. Шулардан келиб чиқиб, фольклор анъаналари ва шоир ижодидаги индивидуаль изланишлар қиёсий ўрганилади.*

Калит сўзлар: *лирика, фольклор, халқ мусиқаси, терме-тўлғов, анъана ва индивидуальлик.*

Abstract. *This article examines the issue of folklore sources in the poetry of the famous Karakalpak poet Uzaqbay Pirzhanov. According to him, the poet is mainly influenced by the aesthetic influence of the national music of the Karakalpak people. He writes poems to the tune of these musics. In these poems, the creativity of famous Karakalpak bakhshis is embodied artistically. Also, U.Pirzhanov creates lyrical works that fully meet the requirements of the "terme-tolgov" genre. Based on these, folklore traditions and individual searches in the poet's work are comparatively studied.*

Keywords: *lyrics, folklore, folk music, terme, tradition and individuality.*

Қарақалпақ лирикасының қайсы дәўирин алып қарасақ та, онда дөретиўшилик еткен шайырлар өзлерине белгили бир көркем дәреклерден саға алады. Бул тәбийий қубылыс болып, ҳәрбир қәлем ийесине тән. ХХ әсирдиң 60-жылларында қарақалпақ лирикасында Узақбай Пиржанов өз стилине ийе шайыр сыпатында қәлиплести. Бул стильлик қәлиплесиўде оның лирикасына тәсир еткен көркемлик дәреклер де үлкен әҳмийетке ийе.

Узақбай Пиржанов поэзиясында фольклорлық дәреклер сыпатында, тийкарынан қарақалпақ халық қосықлары ҳәм миллий намаларының жоқары эстетикалық тәсири сезиледи. «Жетим қыз», «Арыўхан намасына»,«Адыңнан», «Сағындырып алыс кетпе», «Есберген шығанақ»та айтылған қосық», «Генжебай бақсыға» усылар қатарында. «Жетим қыз» қосығы шыңқобызда шертилетуғын усы атамадағы нама тийкарында жаратылған. Қосықта жетим қыздың муңлы толғанислары, жетимликтиң зардаплары усы наманы тыңлаў барысында кемпирлердиң ески муңларын еслеўи сәўлеленеди. Әсиресе, қосықтың:

Сонша суўық еди көгис, қара тас,

Сонша ыссы еди қыздың қушағы.

Әттең жылымады жансыз қара тас,

Бирақта суўыды қыздың қушағы. (Пиржанов, 1970, 18-бет)

– деген қатарлары терең лиризмди тәмийинлеп, жетимликтиң адам өмириндеги ең умытылмас, қайғылы мәўритлер екенлиги шайырдың индивидуаль изленислери арқалы шебер сәўлелендирилген.

Жетимликтиң зарын айтып атама,

Шешемниң – шешеси отыр еңиреп... (Пиржанов, 1970, 18-бет)

– қатарлары арқалы болса оның инсан жүрегинде мәңги естелик қалдырып кетиўин сезинемиз.

Қарақалпақ халық қосықлары ҳәм миллий саз-намалары әсирлер даўамында халықтың руўхый-эстетикалық мүтәжлигине хызмет еткен. Әсиресе, оларды халыққа жеткериўде талантлы бақсылардың орны өз алдына. Өткен әсирдиң биринши ярымында жасап дөретиўшилик еткен

Есжан бақсы Қосполатовтың жарқын естелигине арнап Узақбай Пиржановтың «Арыўхан намасына» қосығы дөретилген. Әлбетте, бунда шайырдың миллий наманы терең сезине алыўы ҳәм онда Есжан бақсының талантын, даңқын шебер сәўлелендириўи айқын көзге тасланады.

Бәҳәр самалына уласып сести,

Илгери жыллары бир бүлбил ушты...

«Кешти, кешти мәнзил арадан кешти».

Келер-келмеслигин билә билмедим. (Пиржанов, 1977, 47-бет)

Шайыр өз қосығында *«билә билмедим»* сөзи арқалы қарақалпақ фольклорындағы «Ғәрип Ашық» дәстаны менен таныслығы ҳәм Арыўхан намасына сәйкес қатарларды таба алыўы менен де баҳалы есапланады. *«Илгери жыллары бир бүлбил ушты...»* қатарындағы *«бүлбил»* символикалық сүўретлеўи арқалы Есжан бақсының көркем образы еле де жетилиседи. «Адыңнан» қосығында да шайыр қарақалпақ қызларының сезим-туйғыларын халық намасы тийкарында шебер ашып береди. Халық намаларының ишинде «Адыңнан» намасының ырғағы созымлы болып, атқарыўшылардан өзине тән хош ҳаўазлықты талап етеди. Бақсылар бул наманы дәстанларды атқарғанда елге деген муҳаббат, сағыныш қосықларын да усы нама менен айтқан.

Узақбай Пиржанов лирикасында фольклордың белгили бир бөлимин қурайтуғын әпсана, аңыз ҳәм мифлерге мүрәжат етиў усылы өзгеше. Оның «Ханның қызы» қосығында шайырдың өз улы Ерполатқа өмирлик жолдас таңлаў туўралы нәсияты берилген. Сыртқы сулыўлық пенен ишки сулыўлықтың үйлесимли болыўы, тек сыртқы гөзаллыққа итибар қаратып, ишки дүньясына қызықпаў қандай ақыбетлерге алып келиўин, сондай-ақ, аўыл ҳәм қаланың қызлары арасындағы парықларды да айырып көрсетеди. Бунда «Ханның қызы» ҳаққындағы ертек жоқарыда атап өтилген сыпатларды толықтырыўда хызмет етеди:

«Бул қоңыз бир заманларда

Көркине дуйым-журт таңланған,

Ақылсыз,

Бирақ та, сулыў қыз болған.

Соңынан қәҳәрли әкеси ғарғап,

Қоңыз етип дуўалатып таслаған». (Пиржанов, 1977, 35-бет)

Қосықтың формасы еркин болып, онда берилген жоқарыдағы ертек артықша инверсияларсыз қара сөзге бейимлестирилип жазылған. Ертектиң қысқа, тужырымлы берилиўи болса лириканың қәсийетлеринен бири болған жыйнақлылықты тәмийинлеген. Улыўма алғанда, қосық мазмунында шайыр улына инсанның унамлы пазыйлетлерине қарап баҳалаў, мийнеткеш, сада, аққөкирек қызларға ашық болыў кереклигин үгитлейди.

У.Пиржанов лирикасында көплеген шайырлар тәрепинен қәлемге алынған Ерназар Алакөз тарийхый образын ашыў да бир қатар өзгешеликлерге ийе. Шайыр бунда толғаў формасын таңлайды да, толғанысларды Ерназар Алакөздиң тилинен береди. *«Толғаўлар формасы бойынша түркий халықларға гөне заманлардан мийрас болып киятырған дәстүрли жыр үлгисинде дөретиле береди. Олар қурылысы бойынша белгили бир бәнт өлшемлерине, уйқас тәртиплерине бағынбай 7-8 буўынлы шубыртпа қатарлар түринде келе береди»* (Жәримбетов, 2004, 17-18-бетлер). Шайырдың «Ерназар Алакөздиң толғаўы» лирикалық шығармасында да усы дәстүр толық сақланған. Онда Ерназар Алакөздиң миллет, халық мәпи жолындағы мақсет-нийетлери, ислеген ҳәрекетлери, соның менен бирге, сол мақсет-нийетлердиң әмелге аспаўында елде аўызбиршиликтиң жоқлығы, жақын, исенген адамларының ислеген сатқынлықларынан гүйзелислери, толғаныслары бериледи.

...Антты бузып соңында,

Яшуллы бизиң оңбады,

Түйрелмей қалды жаўыма,

Анамның берген найзасы.

Өтип кетти-аў бәринен,

Ағайинниң берген ызасы.

Көп көрдим ханның зорлығын

Аз болғандай бул маған,

Жаўдан көрген қорлығым.

Кисиге берип асыңды,

Хан алалмаған басымды,

Сен алдың-аў аталас,

Әрманлы кеттим аталас! (Пиржанов, 1983, 47-бет)

Толғаў формасында болғаны менен бул шығарма терең лиризмге, трагизмге байлығы менен ажыралып турады. Шайыр толғаўды Ерназар Алакөз тилинен бериўи менен қатар, онда өзиниң тарийхый образға, сол дәўирдеги ўақыяларға деген позициясын да сәўлелендиреди. Белгили профессор Қ.Жәримбетов: *«...толғаўларда ўақыяның сүўретлениўине адамның руўхый кеширмелери, ишки муң-шер, қайғы-ҳәсирет сезимлери қосылып, қарысып жүреди. Демек, толғаўларда лирикалық қәсийетлердиң де бар екени анық»* (Жәримбетов, 2004, 21-бет) деген пикирди билдиреди. Ал, белгили қазақ әдебиятшысы Қ.Өмиралиев толғаўлар ҳаққында: *«...жырлардың (толғаўлардың) бәри «мен-ақынның» сөзи, лирикалық поэзия»* (Өмиралиев, 1983, 67-88-бетлер) деген жуўмақты береди. Ырасында да, толғаўлар көбинесе биринши беттен баянланады ҳәм онда, әлбетте, ишки кеширмелер де қатнасады. Сондай-ақ, «Ерназар Алакөздиң толғаўы» лирикалық шығармасында термелик қәсийетлер де бар болып, олар тийкарынан мақаллық, дидактикалық сыпатлар менен көринеди. Мысалы:

...Адамнан ақыл ес кетсе,

Бийғамлық пенен мәсликтиң,

Шарабын ишә-иш болар.

Жақсы ҳаял менен әреби ат,

Жаман жигитке дус болар.

Бәдҳасылдан бий болса,

Ел тозып көшә-көш болар... (Пиржанов, 1983, 47-бет)

Улыўмаластырып айтқанда, фольклорлық дәреклерди Узақбай Пиржанов лирикасында тийкарынан қарақалпақ миллий намаларына

эстетикалық тәсирлениў нәтийжесинде жазылған қосықлар, сондай-ақ, толғаўдың жанрлық қәсийетин толық сақлаған лирикалық шығарма мысалында көриўимизге болады.

Пайдаланылған әдебиятлар:

1. Жәримбетов Қ. (2004). XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери ҳәм раўажланыў тарийхы. Нөкис: «Билим».

2. Пиржанов У. (1970). Муҳаббат қосығы. Нөкис: «Қарақалпақстан».

3. Пиржанов У. (1977). Онда бәҳәр еди. Нөкис: «Қарақалпақстан».

4. Пиржанов У. (1983). Гүзги жапырақлар. Нөкис: «Қарақалпақстан».

5. Өмиралиев К. (1983). Қазақ поэзиясының жанры және стили. Алматы: «Ғылым».

VIII BOB

ZAMONAVIY ADABIY JARAYON (NASR)

TOG‘AY MURODNING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” ASARIDA MUHABBAT MAVZUSINING YORITILISHI

Abdumurodova Gulandom Abduvoit qizi,
ToshDO‘TAU adabiyotshunoslik yo‘nalishi II kurs magistranti
abdumurodovagulandom@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mashhur yozuvchi Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarida muhabbat mavzusi haqida mulohaza qilinadi. Shu maqsadda asardagi muhabbat mavzusi tahlil qilinadi. Asar qahramonlarining vafodorligi, sadoqati haqida, oila, qadriyalar qadr topganligi haqida aytiladi. Shu jumladan, badiiy adabiyotda muhabbat mavzusining yoritilishi haqida xulosa beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Ishq, ayol, do‘st, yurak, qayliq, nigoh, oila, qo‘shiq.*

Abstract. *This article discusses the theme of love in Togay Murad’s work “Oydinda yurgan odamlar”. For this purpose, the theme of love in the work was analyzed. It is said about the loyalty and loyalty of the heroes of the work, about the value of family and values. Including, a conclusion is given about the theme of love in fiction.*

Keywords: *Love, woman, friend, heart, bride, look, family, song.*

Adabiyotning asosiy vazifasi har bir kitobxon qalbida go‘zallikka muhabbat, ota-onaga muhabbat, Vatanga muhabbat, qarindosh-urug‘larga muhabbat, do‘stga muhabbat, insonning boshqa bir insonga muhabbati, hayotga muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish hisoblanadi. Demak, adabiyotning zamirida ham muhabbat yotadi. Bugungi adabiy jarayonning mashhur vakillaridan biri Ulug‘bek Hamdam aytganidek, *“Muhabbat adabiyotning eng ko‘hna va o‘tli mavzusi”.* Muhabbat mavzusi doimo o‘qib o‘rganilib kelgan. Hozirgi kunda ham bu mavzu adabiyotimizda yetakchilik qilmoqda.

Badiiy adabiyotning asosiy maqsadi asar markazidagi inson hamda uning ichki dunyosini tadrijiylik asosida badiiy tasvirlash bo‘lar ekan, Tog‘ay Murodning aksariyat asarlarida inson va uning ko‘ngil olami, ruhiy kechinmalari badiiy talqin etishga qaratilgani bilan e’tiborga sazovor bo‘ladi. Tog‘ay Murod asarlarida muhabbat mavzusini ko‘ramiz. “Oydinda yurgan odamlar” asari sarlavhasining o‘zidanoq romantik ruhni ko‘ramiz. Oydin bu yorug‘lik, nurafshonlik belgisi

hisoblanadi. Odamlar va oy o‘rtasidagi bog‘liqligi, u bilan birgalikda allaqandaydir sinoat mavjud. Yozuvchi oyning yog‘dusida tasvirlayotgan qahramonlarning siyrati, tabiati, ezguligi, pokligi boisdan yuksaklikka ko‘tarayotgandek. Sarlavhaning o‘ziyoq o‘quvchi qalbida ajib bir hisni uyg‘otadi.

Asarga adabiyotshunos olima Umida Rasulova o‘zining doktorlik dissertatsiyasida shunday ta’rif beradi: *“Mazkur qissa – insonga qasida, yurak – yurakdan silqib chiqqan musiqa. Hazin navo inson kechinmalarini, qalb tug‘yonlarini yoritib o‘quvchini ham dardini tuyishga, his qilishga majbur qiladi”* (To‘laganova, 2005, 50-bet). Tog‘ay Murod chol va kampir hayotini g‘oyat nozik, g‘oyat shoirona tasvirlaydi. Chol-kampirning o‘zaro muhabbatini qo‘shiqdek kuylab beradi. U bir-birini Bobosi, Momosi deb umr o‘tkazayotgan bir juft pokiza insonni oydindagi oy nuriga o‘rab tasvirlaydi. Oqibat ushbu juftning o‘zi ham, so‘zi ham, turish-turmushi ham oyning kumush nurlariga aylanib ketgandek tasavvur qoldiradi kitobxonda. O‘zbekiston Qahramoni Said Ahmad yuqorida ta’kidlagan manbada ushbu asar haqidagi fikrini shunday tugallaydi: *“Tog‘ay Murodning kuyib, yonib, o‘rtanib bitgan, ba’zan faryod urib bitgan “Oydinda yurgan odamlar” qissasini “Muhabbat qo‘shig‘i” deb atagim keladi.”*

Yozuvchi biror bir hayotiy voqeani aniq, izchil rivoya asosida bir-biriga bog‘lab, voqealarni o‘zaro uyushtirib boradi. Tasvirlanayotgan voqealarning mantiqan asoslangani, har bir ko‘rinishning ma’lum bir hayotiy unsurni yoritishga yoxud kishilarning o‘zaro munosabatini ifodalashga yo‘naltirilgan muallif maqsadini anglashni osonlashtiradi. Har bir voqea hayotiyligi bilan alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘ramiz. Qoplon va Oymomoni hayotda uchratgandek, suhbat qurgandek bo‘lamiz.

Xalq og‘zaki ijodida oshiq mashuqaga yetishish uchun turli to‘siqlarni yengib o‘tishi kerak bo‘ladi. Masalan, Kuntug‘mish Xolbekaga yetishish uchun nard o‘ynab, podshohning qahriga duchor bo‘lib turli qiyinchiliklarga duchor bo‘ladi, Alpomish Oybarchin uchun qalmoqlar bilan kurashadi. Oymomo va Qoplon bu qiyinchiliklarni birgalikda kurashib yengib o‘tganini ko‘ramiz.

Asarda Oymomo va Qoplonning ichki kechinmalari keng o‘rinlarda berilgan. Qahramonlarning hayotda birdan bir orzusi – farzand. Mana shu g‘am-alam tabiatdagi manzaralar orqali tasvirlanadi. Tog‘larni qora bulut qoplaydi, yomg‘ir yog‘ishi, ikki jar oralig‘i tasvirlarida otamiz holati aks etadi. Qoplonning yuragidagi dard qora bulut, yomg‘ir yog‘ishi to‘kilmagan ko‘z yoshlari, ikki jar oralig‘i ota-ona yoki ayoli qay birini ko‘ngilini olishi tog‘ri bo‘ladi. Axir, har ikkalasi ham hayoti mazmuni. Har bir o‘zbek farzandi katta bo‘lib farzandli, nabirali bo‘lganda ham ota uchun yosh bolaligicha qoladi. Otaga hurmat saqlanib qoladi. Qissada ota va bola munosabati tasviri mavjud. Qoplon bilib-bilmay otasining qalbini yaralab qo‘ydi. Kitobxon otasi qilgan qarg‘ish tegdimikan deb o‘ylab qoladi. Axir, xalqimizda: “Ota qarg‘ishi – o‘q , ona qarg‘ishi – do‘q”, – degan maqol bejiz emas. Haqiqatdan, ota-ona aytganidek har bir gulning o‘z hidi bo‘lganidek, boshqa nevaralarning o‘z o‘rni bor. Ota-ona yolg‘iz farzandining chirog‘ini yoqadigan yo‘qlovchisi bo‘lishini istaydi. *“Savol til bilan emas, boqish bilan aytiladi: Endi nima qilamiz, momosi?”* (Murod, 628-bet). Bir-birlarini nigohlari bilan tushunishadi. Ovoz chiqarib dillashishi shart emas, nigohlar bilan barchasini aytish mumkin. Demak, o‘z sevgisini ham dunyoga doston qilib aytishlari kerak emas. Qalban buni sezishsa, shuning o‘zi kifoya.

Qoplon obrazi asarda pok tuyg‘ular kuychisi sifatida talqin qilinadi. Undagi samimiylik, odamiylik, beozorlik e’tiborni tortadi. Qoplon jamiyatda o‘z o‘rniga ega, halol turmush tarzini afzal biladi. Oila u uchun aziz va muqaddas dargoh hisoblanadi. Obrazdagi mehr-sadoqat rishtalari poklik, soflik asosida qurilgan. Nutqidagi samimiylik, “momosi”, “ayolimiz” deya murojaat qilishi ayollarga bo‘lgan yuksak e’tiborni ko‘rsatadi.

“ – Ko‘zlaringga boqishlarim… Boqishlarimizning o‘zi bir doston”.

Ko‘z – ko‘zga tushsa, mehr tovlanadi. Parchadagi “boqishlarim” so‘ziga urg‘u berilishi e’tiborga loyiq. Bunda qadrdon, sadoqat, mehr-muhabbat mujassam etgan. Yozuvchi mazkur dil nomasi orqali Qoplon va Oymomoning bir-biriga bo‘lgan muhabbati qattiq bog‘langanligini ko‘rsatadi. Haqiqatda, Qoplon farzand ilinjida umri poyoniga yetayotganini sezmay ham qoladi. Lekin qalbidagi ezgu

niyati tushkunlikka tushmaslikka undaydi. Qahramondagi qalb o‘rtanishlari, Hizr bovaga yalinib-yolvorishlarida mungli ohang taraladi. U odamlar orasida o‘zini begonadek sezadi, tili qisiq bo‘lgani uchun qimtinib yashaydi, gap-gashtaklarni xush ko‘rmaydi. Birdan bir suyanchig‘i ayoli bo‘lib qoladi. Qahramon yolg‘izlik damlari hazin kuy vositasida tasvirlaydi: *“Shu ko‘yi o‘tirdi – o‘tirdi… O‘zining so‘nggi… qo‘shig‘ini boshladi… Bu xayrlashuv qo‘shig‘i bo‘ldi, alvido qo‘shig‘i bo‘ldi!”* (Murod, 327-bet).

Qissadagi asosiy g‘oya farzandsizlik ko‘rinadigandek, aslida esa sof, samimiy muhabbat haqidagi kuy, to‘g‘rirog‘i muhabbatga suyanib borgan hayot dovullarini yengib o‘tgan ikki dil haqidagi asar deya olamiz. Qoplon va Oymomoning baxtli hayotlari xalq an’analari, urf-odatlari orqali yoritiladi. Masalan, Oymomoning sumalak qaynatish jarayoniga boshchilik qilishi, to‘y-tomoshalarda kuy-qo‘shiqlar kuylashi, Hayit bayramlaridagi odatlar. Ularning farzand ilinjida turli sa’y-harakatlari jonli ifodalangan. Bormagan shifokori, muqaddas qadamjolari, qolmadi, ro‘za tutish, laylat ul-qadr kechalarida astoydil umid bilan duo qilishlari tasvirlanadi. Muallif qahramonlarni juftlikda, ahillikda yashayotganligi, sadoqat, vado, mehr-oqibat timsoli sifatida ko‘rsatadi.

Har bir davrning, jamiyatning o‘z qahramonlari bo‘ladi. Masalan, Alpomish va Barchinoy, Yusuf va Zulayho, Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Otabek va Kumush kabi. Hayot muhim tarixiy sharoit taqozosi bilan o‘z zamonasining eng ilg‘or kishisining muayyan tiplarini kurash maydoniga olib chiqadi. Shundan kelib chiqib, ularning intilishida, kurashishida va qismatida davrning butun murakkabligi aks etadi.

Oymomo yori ham butun umr farzandsiz o‘tmasligi uchun oilasini tark etadi. Bu u uchun qanchalik og‘ir bo‘lmasin, majbur bo‘ladi. Yolg‘iz farzand o‘zidan nom-nishonsiz ketishi og‘ir edi. Lekin anchasiga rozi bo‘lgan Qoplon: *“Senga kelgan dardga o‘zim ko‘ndalang, momosi…”* – deydi. Bunday sinovlarga irodasi mustahkam, sabr-bardoshi ko‘p, bir-biriga qattiq bog‘langan insonlargina bardosh bera oladi. Yozuvchi bu asarni oila qurishidan besh yil oldin yozgan bo‘lsa-da, o‘z taqdiridan bayon qilgandek bo‘ladi. Munaqqid Umarali Normatov bilan bo‘lgan bir

suhbatda Tog‘ay Murod shunday deydi: *“Domla, Ma’sumaga uylanganimdan xabaringiz bor. U alomat ayol, yaxshi yozuvchi. Dunyoda onamdan keyin meni tushunadigan, qadrimga yetadigan zot shu! Turmushimiz joyida. Faqat birgina armonimiz – tirnoqqa zormiz. Shifokorlarga qaratdik. Ikkimiz ham soppa-sog‘miz. Allohning o‘zi bermasa, iloji yo‘q ekan…”* (Men qaytib kelaman, 23-bet).

Adib Qoplon boshdan o‘tgan ichki kechinmalar, dard-alamlar, qalbni yaralaydigan keyinchalik voqea-hodisalarga guvoh bo‘ldi. *“Oydin kechada yana bir oshiq va ma’shuqa paydo bo‘ldi. Shivir-shivir ovozlar otamizga tanish bo‘ldi. Oshiq ovozi momomiz akasining o‘g‘liniki bo‘ldi. Ma’shuqa ovozi hamsoya Mingto‘ra qizi ovozi edi. Otamiz taajjublandi, hali qo‘shnising qizi go‘dak ekanligini o‘yladi. Qiz bola shayton keladi, tez yetiladi, deb qo‘ydi”.*

Qoplon qalbidagi dard-u alamlarini unutish uchun mehnat bilan o‘zini ovutadi, u – beozor va saxiy, haromdan hazar qiladigan inson. Tekshirish uchun kelgan muxbirga o‘z mahalladoshlari tomonidan berilgan yolg‘on ma’lumotlardan chiday olmay tog‘-toshlarga borib yig‘lab yuboradi. *“Insonga nima kerak? Pul kerak. Mana shu qog‘ozni deb iymonidan kechyapti. Bir necha yillar oldin vafot etgan insonlar uchun hali hamon nafaqa pullarini o‘z nafslarini to‘ydirib keladi”.* Qahramon iymon, diyonat qarashi, sa’y-harakati orqali tasvirlab beradi. Ayoliga mehr rishtalari ila shu qadar mustahkam bog‘lanadiki, ularni hech kim ajrata olmaydi, ayoli yolg‘iz suyanchig‘i, tayanchi, darddoshiga aylanadi. “*Sayrak adiri – bu oshufta qalb egalari, mehr-muhabbat ramzi bo‘lmish pokiza juftning eng yaxshi qarorgohi bo‘ladi”.* Oymomo vafotida so‘ng Qoplon adirga borganda, bolalarning “bobom, momom” deya qayg‘urishlarini eshitib qolib, behad quvonadi. Vaholanki, endi ular izsiz ketmaydi. Ularni xotirlovchi, eslovchi bolalar bor, qadrdon yer, adirlarning egasi bor, hayot davomchilari bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog‘ay Murod. (2008). *Tanlangan asarlar I jild.* Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
2. Tog‘ay Murod. (2011). *Tanlangan asarlar II jild.* Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.

3. *Men qaytib kelaman.* (2008). Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.

4. Zavqiddin Subhon. (2020). *Tog‘ay Murod nasrida obrazlar poetikasi*. Monografiya. Toshkent.

5. X. Lutfiddinova. (1997). *Gullarning Ra’nosi.* Toshkent: O‘zbekiston.

AHMAD A’ZAMNING “RO‘YO YOXUD G‘ULISTONGA SAFAR” ROMANIDA RAMZ POETIKASI

Abdurahmonova Mohira Abdukarimovna
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti
mohiraabdurahmonova07@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola Ahmad A’zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” romanidagi ramzlarga bag‘ishlangan bo‘lib, asardagi tush motivi asosida yaratilgan ramziy obrazlarning badiiy xususiyatlarini yoritish maqsad qilingan. Tadqiqotda romandagi ramzlarning badiiy xususiyatlari haqida mulohazalar yuritilgan. Asardagi parchalar misolida unda uchraydigan ramzlarning ma’no qatlamlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ramz, ro‘yo, g‘ul (zanjir), G‘uliston, ruhiy tutqunlik, qalb qulfligi, nafs.*

Abstract. *This article is dedicated to the symbols in Ahmad Azam’s novel “Dream or Journey to the Land of Chains” and aims to shed light on the artistic features of the symbolic images created based on the dream motif in the work. The study discusses the artistic features of the symbols in the novel. The meanings of the symbols are given in the example of the passages in the work.*

Keywords: *symbol, dream, chain, country of Chains, mental captivity, the lock of the heart, self.*

San’atkor o‘zining asari bilan biz bilgan olamdan boshqa yana bir dunyo – tasavvurdagi ikkinchi olamni bunyod etadi. Bu olamda o‘z ideallari, orzu-umidlari, kechirgan voqea-hodisalari, armonlari yoki xayolidagi istaklarini aks ettiradi. Rus adabiyotshunosi Aleksandr Genis aytganidek: *“San’atkor o‘zining asari bilan, Yaratganning dunyosidagi shakl-u shamoyil va nusxasiga o‘xshatib ikkinchi*

tabiatni yaratadi” (Saidova, 2016, 4-bet). Bu jarayonda yozuvchi ma’lum bir badiiy g‘oyani ko‘zda tutar ekan, uni turli shakldagi tasvirlash usullari orqali kitobxonga ulashadi.

Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek romanlarida mualliflar o‘z fikr-mushohadalarini ramzlar vositasida badiiylashtirishga harakat qilishi uchraydi. Jumladan, Ahmad A’zamning **“Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar”** nomli romanida yozuvchi o‘zi aytmoqchi bo‘lgan bir qancha falsafiy, ijtimoiy, hatto, siyosiy fikrlarini ham ramzlar vositasida ifodalaydi. Ushbu roman Toshkentdan yo‘lga chiqqan qahramonning Jizzax yo‘lidan ixtiyorsiz ravishda burilib borib qolgan mamlakat tasviri va o‘zining tashrifi bilan yuz bergan voqealarga qurilgan. U borib qolgan mamlakatning nomi ***G‘uliston*** bo‘lib, ***“g‘ul”*** – *“zanjir”* so‘zidan olingan. Bu mamlakatda barcha fuqarolarning zanjir taqib yurishi qahramonimizni hayratga soladi. Odamlarining ismi yo‘q, erkaklar g‘uliy, ayollari g‘uliya deb atalaveradi. Farzandlari dastlab zanjirsiz tug‘iladilar, so‘ng yura boshlagach, ular ham zanjirband etiladi. Ajablanarli joyi shundaki, hech bir kishi zanjirband etilganligidan norizo emas, ozor chekmaydi, aksincha, ular zanjirga shu qadar ko‘nikib ketganki, o‘z hayotlarini zanjirsiz tasavvur ham qila olmaydilar. G‘uliylar hikoyachi qahramon G‘ulistonga nima maqsadda kelib qolganligini aniqlash uchun uning mashinasidan topib olingan kitobni olib o‘qib ko‘rishadi va zanjirsiz yashash mumkinligi haqida tasavvur paydo bo‘lib, e’tiqodlariga putur yetadi. Asarda g‘uliylar o‘zlarining doimiy ko‘nikkan zanjirbandlik hayotini yoki boshqa yurtdan borib qolgan kishidek (hikoya qahramonidek) zanjirsiz yashashni tanlash-tanlamasligi ochiq qoldirilgan. Hikoyachi G‘ulistondan yana o‘zining avvalgi ketayotgan tomoniga – Jizzaxga ketish yo‘liga tushib olishi bilan ro‘yo yakunlanadi. U yana o‘ngidagi voqealarda ishtirok eta boshlaydi.

Ahmad A’zam romanda tush va o‘ngda – ro‘yo va real hayotda kechayotgan voqealarni tasvirlar ekan, asar kompozitsiyasidagi tush motivi ramziy ahamiyatga ega voqea-hodisalarni yoritishga xizmat qilgan. Bundan murod yozuvchi o‘zining fikr va falsafasi, tanqidiy mushohadalari yoki shaxs va jamiyat munosabatlarining ko‘z ilg‘amas qirralariga kitobxonning nazar tashlashi uchun imkoniyat yaratishdir.

“Ro‘yo”da ham muallif o‘z tasavvuridagi olamni tush motivi asosida badiiylashtiradi. Vargas Losa “Yosh romannavisga xat” essesida yozuvchilarning tasavvurdagi olamni yaratishdan maqsadlari haqida shunday deydi: *“Kimki o‘zi yashab turgan voqelikdan o‘zgacha bir olam yaratishga berilib ketgan bo‘lsa, demak, u atrofini o‘rab turgan real dunyoni qabul qila olmayapti... Bu odamlarning real hayotda erisha olmagan talab-ehtiyojlarini, xohish-istaklarini qondirish yo‘lini tasavvurida paydo qilishdir”* (Saidova, 2016, 4-bet). Ahmad A’zamning roman kompozitsiyasini tush motivi bilan bog‘liq ramziy obrazlarga qurishi yozuvchining ichki olamida yashiringan atrof-olam, insoniyat, butun jamiyat, ruhan ozodlik haqidagi tanqidiy mulohazalariga borib taqaladi. Demak, ramziy obrazlardan foydalanishda tush motivining olinishidan maqsad o‘zi yashab turgan dunyoni G‘ulistonga aylantirish istagi emas, aksincha, qayerdadir, qachondir mavjud bo‘lgan zanjirbandlikka(balki tarixiy tuzumdagi ijtimoiy holat, balki qalbning zanjirbandligi, balki inson ruhiyatining majozan kishanbandligiga) qarshi ichki bir isyondir, mana shu kishanbandlikdan ozod bo‘lish istagining ro‘yoviy qondirilishidir. Roman shu sababli ham “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” deb nomlanadi.

Mahorat bilan bitilgan asarlarda chiqish yo‘llari bir nechta bo‘lgan ma’no labirintlari mavjud bo‘ladi. Undan to‘g‘ri yo‘lni topib chiqib keta olish kitobxonning o‘ziga havola etiladi. “Manzil”ga eltadigandek tuyuladigan yo‘llar ham ko‘p. Ularda adashmaslik, chalg‘imaslik o‘quvchidan o‘ziga yarasha estetik tafakkurni, badiiy didni talab qiladi. Ahmad A’zam ham ushbu asari bilan o‘zining badiiy g‘oyasini amalga oshirishga xizmat qiluvchi ramziy labirintlarni taqdim etadiki, bu ramzlarning mohiyatini birma-bir o‘rganib chiqish maqsadga muvofiqdir:

Hikoyachi qahramon borib qolgan G‘uliston mamlakati ramziy olingan joy nomidir. Muallif erksizlikni tasvirlash uchun “zanjir”, “kishan” so‘zlarining tarixiy varianti bo‘lgan “g‘ul” so‘zidan foydalanishi ushbu voqealarning o‘tmishda bo‘lib o‘tganligiga ishora qiladi. Ammo kompozitsion jihatdan ro‘yoviy mamlakatga beixtiyor borib qolish shu qadar jonli tasvirlanadiki, asar syujeti kitobxonda

zanjirga bandi insonlar yashaydigan hudud hozirda ham bordek tasavvur uyg‘otadi. Bu esa erksizlikning nafaqat real tarixiy voqeligidan, balki bugungi kun nuqtayi nazaridan olinganda, ba’zi insonlardagi qalbning kishanbandligidan, qulflanganligidan dalolat beradi. Muallif nega yaratilgani-yu, nega yashayotganligini anglamaydigan, yuragi qulf insonlarni ongida bir joyga to‘plab, tasavvuriy bir mamalakat yaratadi va unga “G‘uliston” deya nom beradi. Shuning uchun ham bu mamalakatni hikoyachidan boshqa hech kim ko‘rmaganligi ta’kidlanadi: *“Shu bugungi kungacha G‘ulistonga bitta men borib qaytganman… Alalxusus, g‘uliylarni bu dunyoyimizga oshkor etish bitta mening chekimga tushib turibdi…”*(A’zamov, 2011, 7-bet).

“Lekin men ko‘rgan G‘uliston shunday mamlakat ediki, uning o‘zi xayol, u yerda yozuvchi odamning og‘zini ochib tomosha qilishdan boshqa hech ish qo‘lidan kelmaydi” (A’zamov, 2011, 8-bet), degan jumlaga e’tibor qaratsak, romanda tasvirlangan G‘ulistondagi hayot inson erkining, ruhining do‘zaxiy makoni, hatto u xayol bo‘lsa ham, hatto u tush bo‘lsa ham, na uni, na u yerdagi odamlarni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Yozuvchining, ya’ni bu dunyoni qabul qilolmayotgan, g‘ayriinsoniy ekanligini ko‘rib turgan, “hayotning asli” nima ekanligini ularga uqtirolmayotgan, fikrlayotgan insonning “tomosha qilishdan boshqa hech ish qo‘lidan kelmas”ligi orqali muallif inson tiynatidagi ahvolga ham ishora qiladi. Demak, G‘uliston mamlakati ramzida quyidagi ma’no qatlamlari mavjud:

G*‘uliston – ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, tarixiy tuzum vaqtida o‘zini qiynagan erksizlik muammosini hech kim bilan ochiq so‘zlasha olmagan odamlarning yashash hududi, yakka inson unga qarshi chiqishi mahol;*

G‘uliston – insonning botinidagi, ruhidagi qullikni, nafsni yengishga ojiz insonlarning muallif tasavvurida yaratilgan xayoliy mamlakati;

G‘uliston – yolg‘on havaslar zanjiriga bandi bo‘lgan, dunyoga va bandasiga hukmron bo‘laman degan, nafsdan qutula olmagan, qutulishni-da istamagan qalbdir.

Zanjir ramzi. Ushbu asar syujetini harakatlantiruvchi, qahramonlar psixologiyasini ochib beruvchi, roviyning fikr va mulohazalari oqimini yo‘naltirib boruvchi asosiy ramz bu – *zanjir*. Hikoyachining ro‘yosida kechgan barcha voqealar zanjir bilan bog‘lanadi. Shuning uchun g‘ul, ya’ni zanjirni romanning yadroviy ramzi deb atash mumkin. Chunki qolgan barcha ramzlar – G‘uliston, g‘uliya qiz, g‘uliylik, olma yetishtirish, halqali naqshlar, zanjirli haykal, tozalash sabog‘i kabilarning barchasi shu g‘ul (zanjir) ramzidan o‘sib chiqqan. Qahramon qayerga bormasin, g‘ul bilan bog‘liq narsalarga duch kelishi bu mamlakatda zanjirga tobelikdan dalolat beradi: “*Yo‘lning o‘rtasidagi bahaybat to‘siq – bahaybat zanjir shaklida, to ufqqacha tortilgan”* (A’zamov, 2011, 43-bet), *“Chiroyli zanjirgulchin darvoza yonboshga surildi. Ikki tomoni olmazor keng xiyobonga kirdik.”* (A’zamov, 2011, 48-bet), *“Bir o‘ymakor, ya’ni zanjir naqshi kesib solingan eshikni ochdilarki, sizni charchatmaslik uchun qayerda zanjir rasmi yo shaklini ko‘rsam hammasini aytavermay, bari bir sanog‘iga yetolmayman, xullas, G‘ulistonning nomiga yarasha hamma yoqda g‘ul asari bor” (*A’zamov, 2011, 88-bet), *“Odamlarning nafaqat har bir qadami, hatto nigohlari ham zanjir manfaati uchun xufiyalar va eng zamonaviy ko‘ruv-eshituv uskunalari bilan nazorat qilinadi. Bu qullik saltanatini boshqarib turuvchi ko‘rinmaydi, ammo unga va zanjirga Xudoga topinganday topinadilar”* (A’zamov, 2011, 308-bet). Bu kabi lavhalardan biz mamlakat hayoti qat’iy tartib-intizomga qurilganlini anglaymiz. Majozan olganda, nafsga mukkasidan ketgan insonning qalbi nafs zanjiri bilan shu qadar bandi etilganki, ularning har bir harakati faqat nafsning manfaati uchun tartiblashtirilgan, zanjir (nafs)dan bir lahza, hatto xayolda ham voz kechishni o‘ylash jinoyat deb qaraladi: *“Yo‘q, – dedi qiz, – zanjirsiz qolishdan zanjirning o‘zi asrasin! Men hatto tushimda ham…voy, uzr, hech kimga aytmang, iltimos qilaman! “Nima, tushingizni ham tekshiradilarmi?”, deb so‘radim. Tushda zanjirsiz yurish ham g‘uliyning asli ichida g‘uliylikka sodiq emasligiga dalolat deb qaraladi. Men unaqa tush ko‘rmayman. Misol uchun deb, og‘zimdan chiqib ketdi. Siz eshitmadingiz, men aytmadim, o‘tinib so‘rayman, dedi qiz.”* (A’zamov, 2011, 93-bet) Ushbu tafsilot G‘ulistondagi zanjirga bo‘lgan munosabatni yanada ochib

berish uchun romanga kiritilganligi shubhasiz. Demak, zanjir ramzidagi ma'no qatlamlarini quyidagicha izohlash mumkin:

zanjir – ma'lum bir tuzumning tobelikka ko'nikishni insonlar qon-qoniga singdirish uchun qilgan usul vositasi;

zanjir – insondagi ruhiy erkinlikka erishish istagini kishanlab turuvchi mayl;

zanjir – nafs timsoliki, u qalbdagi barcha ezguliklarga intilish xohishini kishanlab turadi.

Asarda G'uliston fuqarolari olma mevasini yetishtirishlari, ayniqsa, ular olmani juda ko'p yeyishlari haqidagi parchalar bu mevadagi temir moddasi bilan to'yingan organizmdan zanjirli farzand tug'ilishi bilan bog'liq bo'lib, ramziy ahamiyatga ega. Chunki g'uliylar tadqiqotida izlanishlarning bosh yo'nalishi – inson tanasiga temir moddasini singdirish bo'lib, buning yo'li g'uliy tanasida olma yeyish orqali ferrum (temir moddasi) miqdorini oshirish. Bundan maqsad ko'p temir moddasi to'plagan ota-onadan bo'ladigan homiladayoq temir moddasi nozik zanjirga aylanib, tug'ilajak farzand zanjir bilan tug'ilishiga erishish! Bu ilmiy izlanish hali natija bermagan bo'lsa-da, g'uliylar qachondir chaqaloq tanasida zanjir bilan dunyoga kelishiga qattiq ishonishadi: "*Hali biron g'uliy bolasini bo'ynida zanjiri bilan birga tug'dirishga erishmagan ekanlar-u, lekin, ana-mana, baribir dunyoga keladi deb, butun G'uliston intiq"* (A'zamov, 2011, 223-bet). Zanjirli farzand – ijtimoiy jihatdan olib qaralganda, tagi puch mafkuraning ramzi. Inchunun, organizmda temir moddasi ko'p bo'lsa ham, u inson tanasida hech qachon zanjirga aylanmasligi oddiygina ilmiy haqiqat va butun jamiyatning bunga ko'r-ko'rona ishonishi esa amalga oshmas utopik g'oyalarga ishonishiga, hatto, e'tiqod qilishiga ishoradek, nazarimda. Majoziy jihatdan qaralganda, zanjirli farzand – mutaassiblik ramzi. Qalban ko'r insongina yolg'onga qurilgan nafsiy istaklarning bardavom amalga oshishiga, mana shu botin bilan oliy maqomda turishiga ishonadi va bu holat G'ulistondagi zanjirli farzand tug'ilishini kutgan g'uliylarning ahvoli bilan aynan bir xil.

Muxtasar qilib aytganda, "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" romani yozuvchining fikr-mulohazalarini ramzlar vositasida aks ettiradi va uning asl

mohiyatida qalbni G‘ulistonga aylantirmaslikka, uni nafs zanjiriga bandi etmaslikka da’vat etish yotadi, G‘uliston mamlakati va g‘uliylar hayoti ramzi orqali ruhiy erkinlikdan mahrum yuraklarga ko‘zgu tutgandek bo‘ladi hamda undan qutulish uchun intilishga ishora qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A’zamov, A. (2011). *Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. Boboyev, T. (2002). *Adabiyotshunoslik asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston.
3. Sharafiddinov, O. (2010*). Jahon adiblari adabiyot haqida*. Toshkent: Ma’naviyat.
4. Saidova, B. (2016*). Romanlarda tush ramzlar*//Maqola. Toshkent: “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali.
5. Saidova, B. (2020). *Uslubiy va g‘oyaviy hamohanglik*//Maqola. Toshkent: “O‘zbek tili va adabiyoti jurnali”.
6. Quronov, D. (2010). *Adabiyotshunoslik lug‘ati.* Toshkent: “Sharq” nashriyoti.

SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRI BADIIYATI

Abduraimova Hilola Usmon qizi,
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

***Annotatsiya**. O‘zbek adabiyotida hikoyanavislik eng og‘ir pallani bosuvchi janr deb ayta olamiz. Ayni shu yo‘nalishda ijod qilgan zabardast ijodkorlarimizdan biri bu Shukur Xolmirzayevdir. Jahon adabiyotidagi nazariy qarashlarni chuqur o‘zlashtirgan adib boshqalardan o‘rganganlarini o‘zining ijodida mahorat bilan qo‘llay bildi. Yozuvchi asarlarida uslubiy yangiliklarga intilishni ham, shaklan betakrorlikka qiziqishni ham uchratamiz. Ijodkor asarlarida boshqa hikoyanavislarda uchratmagan qirralarni kashf etamiz. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev hikoyalari badiyati haqida atroflicha bayon qilinadi.*

***Kalit so‘zlar**: hikoyanavislik, janr, inson ruhiyati, qahramonlar xarakteri, kompozitsion qurilish, tabiat tasvirlari, leytmotiv.*

Abstract. *In Uzbek literature, we can say that short story writing is the most difficult genre. Shukur Kholmirzayev is one of our great artists who created in this direction. The writer, who deeply mastered the theoretical views of world literature, was able to skillfully apply what he learned from others in his work. In the works of the writer, we find both the desire for methodological innovations and the interest in uniqueness of form. In the works of the artist, we discover aspects that we have not found in other story writers. This article describes the art of Shukur Kholmirzayev's stories in detail.*

Keywords: *Storywriting, genre, human psyche, character of heroes, compositional construction, images of nature, leitmotif.*

O‘zbek adabiyoti o‘zining boshqa millatlar adabiyotida uchramaydigan favqulodda tasvirlari va ramzlari bilan alohida o‘ringa ega deb ayta olamiz. Ayniqsa, ushbu tasvirlar adolat tushunchasi atrofida birlashtirilsa. Adolat o‘zbek xalqi uchun qadim-qadim zamonlardan beri shakllangan milliy tushuncha. Hatto hadislarda ham bir soatlik adolat, bir yillik ibodatga tengdir deydi sahobalarimiz. Shundan kelib chiqqan holda, adolat bu millat uchun qanchalar ahamiyat kasb etishini ta’riflashga til ojiz. Shu boisdan ham xoh u nasriy asar bo‘lsin, xoh poetik ijod namunasi, adolat tushunchasi ijodiy ishning asosiy satrlariga jo qilinib, unga yanada joziba bag‘ishlaydi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘tgan asrning 60-yillarida Shukur Xolmirzayev, O‘lmas Umarbekov, O‘tkir Hoshimov, Uchqun Nazarov, Ne’mat Aminov va boshqa yozuvchilar o‘zidan avvalgi adiblar an’analarini davom ettirdilar. Ayni chog‘da hikoyachilikda yangilikka, originallikka intildilar. Shu adabiy avlodning ikki namoyandasi – Tohir Malik va Hojiakbar Shayxovlar yozgan hikoyalar o‘tgan yuzyillik o‘zbek adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdi. Ularning fantastik asarlari o‘quvchilar tasavvuriga erk, badiiy tafakkuriga kuch berdi. Bizningcha, bu adabiy avlod hikoyanavislari orasida Sh. Xolmirzayev alohida ajralib turadi. Voqelikka ortiqcha aralashmay, qahramonlarni yetaklamasdan xolis turib tasvirlash unga xos. Eng go‘zal, badiiy jihatdan pishiq asarlar yozgan bu adibning bayon usulida hikoya janrining hajm chegaralari parchalandi. Yozuvchi asr oxirida qalamini ancha erkin qo‘ydi va

“Ozodlik”, “Bulut to‘sgan oy”, “O‘zbek bobo” kabi hajman yirik hikoyalarini yozdi. Tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik, jamiyat hayotidagi talato‘plar va inson ruhiyatining sirli qirralarini mahorat bilan tasvirladi. Bunday asarlar adabiyotshunoslik faniga yangi nazariy fikrlar berishi ham tabiiydir.

Shukur Xolmirzayevning ***“Qil ko‘prik”, “So‘nggi bekat”, “Yo‘lovchi”, “Olabo‘ji”, “Dinozavr”*** romanlari turli mavzu va muammolarga bag‘ishlangan. “So‘nggi bekat” adibning roman janridagi dastlabki tajribasi bo‘lishiga qaramay, sho‘ro davrining so‘nggi bosqichidagi kamchiliklarni zamondoshlar qiyofasidagi norasoliklarni keskin fosh etishi bilan ajralib turadi. “Bekat” xo‘jaligida yashab, mehnat qilayotgan turli toifadagi kishilar xarakteri, harakati misolida adib, umuman, jamiyatni qattiq qoraladi. Bu, mohiyat e’tibori bilan, mazkur davr jamiyatning umuman so‘nggi bekati bo‘lsa nima qilarkin, degan badiiy fikrga go‘yo ishoradek bo‘lgan. Taxminan o‘n besh yil o‘tgach bu badiiy “karomat” o‘zining tasdig‘ini topgan.

1987-yil adib **“Yo‘lovchi”** romanini yaratgan. Ayniqsa, shakli, kompozitsiyasi jihatdan yangicha izlanishlari mo‘l bo‘lgan bu asar ko‘proq monolog va dialoglar asosiga qurilgan. Yozuvchi qahramonlari xarakterini, asosan, shu yo‘sinda ochishga harakat qiladi. Oliy ma’lumotli bo‘lish yaxshi. Lekin shunchaki, bilimsiz, jamiyatga nafi tegmaydigan, o‘zini o‘ylashdan nariga o‘tmaydigan xudbin oliy ma’lumotlining nima karagi bor? Undan ko‘ra noilojlik tufayli, nainki oliy ma’lumot, balki, hatto, to‘liq o‘rta ma’lumot ham ololmay qolgan, biroq mehnatsevar, halol, el va yurtga qayishuvchi, do‘stga sadoqatli (bolalikda ari chaqqan o‘rtog‘ining azoblanayotganini ko‘rib, dardini biroz yengillatay deb, o‘zini ham ariga chaqtirganini eslang: yozuvchi kichik detal orqali xarakter yaratishga usta) kishi ko‘p bor afzal emasmi? Yozuvchi xuddi shu fazilatlarni romanning bosh qahramoni Bekdavlat qiyofasida aks ettirgan.

“Olabo‘ji” romanida yozuvchi mustaqillik arafalaridagi sho‘ro jamiyatini tanazzulga yetaklagan jarayonlarning ma’naviy va ahloqiy asoslarini ko‘rsatgan. Asarda Ulton va Bahor singari yoshlar taqdirini chil parchin qilishda, jamiyatni

rasvo yo‘lga yetaklashda To‘qliboy Qo‘chqorov singari kimsan, firqaning manaman degan rahbarlari bosh-qosh bo‘lgani ochib tashlangan.

“Qil ko‘prik” romanini yozish uchun adib salkam besh yil sarflagan. Asarda “qizil” larning istiqlolchilarga (davr tili bilan aytganda “bosmachi”larga) qarshi olib borgan kurashi va ularni mahv etish jarayonlari tasvirlangan. Kitob ham sho‘rolar hukm surgan davrda yozilgani bois, firqaviy mafkuraga mos kelmaydigan biror gapni aytish, g‘oyani ilgari surish amri mahol bo‘lgan. Shu ma’noda, romanda sho‘ro maqsadlarini ko‘rsatuvchi manzaralar, sahifalar oz emas va bu tabiiydir. Lekin yozuvchining asl maqsadi bu emas. Uning qalbida, vujudida milliy istiqlolchilarga, vatanparvarlarga mehri, xayrixohligi tug‘yon urgan. O‘ziga xos usulda, sirli shakllarda bu niyatni “Qil ko‘prik” da amalga oshirish uning bosh muddaosi bo‘lgan.

Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor ijodida namoyon bo‘lgan XX asr o‘zbek hikoyachiligi an’analarini Shukur Xolmirzayev shu asrning so‘nggi choragida yanada boyitdi. O‘zbek hikoyachiligini yangi bosqichga ko‘targan uning qator asarlari bu janrning keng miqyosdagi manaman degan namunalari bilan haqli ravishda bo‘ylasha oladi. Adib hikoyalarida siyqasi chiqqan xarakterlar, quruq nasihatgo‘ylik, shablon iboralarni deyarli uchratmaymiz. U doim yangi obrazlar yaratishga intiladi. Asarning kompozitsion qurilishida bir-birini takrorlamaydigan yangiliklar topishga urinadi. Bu borada tajribalar o‘tkazishdan cho‘chimaydi va ko‘pincha, muvaffaqiyatlarga erishadi.

Yozuvchi Shukur Xolmirzayevning **“Bandi burgut “** hikoyasi bola tilidan hikoya qilinadi. Bu hikoyada yozuvchi bolalarga xos bo‘lgan ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ularni larzaga solgan hodisa va voqealarni bola tilidan ifoda etgan. Bu hikoyada ham mustaqillikdan keyin yaratilgan bir qator hikoyalardagi kabi ramziylik asosiy o‘rinni egallaydi. Moziyga bir nazar tashlaydigan bo‘lsak, xalqimizning bosib o‘tgan yo‘li ko‘z o‘ngimizda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu xalq shu kunlarga yetguncha qancha xo‘rliklarni, zulm va sitamlarni ko‘rmadi deysiz?! Hikoyadagi do‘lda qolib ketib qanoti shikastlanganligi tufayli ucholmay qolgan, bolalar qo‘liga asir tushgan burgutni bosqinchilarga bo‘yin egmagan, niyati

yurtimizni talon-taroj qilib xalqini qul qilishdan o‘zga bo‘lmagan kimsalarga qarshi mardonavor kurashib, ba’zan erk-ozodlik yo‘lida halok bo‘lgan buyuk ajdodlarimizning, sarbador va jadid bobolarimizning timsoli desak mubolag‘a bo‘lmas, balki yozuvchining ham bu hikoyadan ko‘zlagan maqsadi shu bo‘lsa ajabmas. Endi esa hikoyadagi bizni bu xulosaga keltirgan jihatlarga e’tibor qaratsak. Burgut qanoti sinib ucholmay qolsa ham daraxt shoxiga mahkam o‘rnashib olib, undan tushib ketmaslikka harakat qiladi,daraxt shoxi yerga tegay-tegay deb qolsa ham burgut yerga tushishni xayoliga ham keltirmaydi. Undagi bu mag‘rurlik o‘zbek xalqiga xos xislatlardan biri hisoblanadi. Burgut bolalar qo‘liga asir tushgandan so‘ng, uni bolalardan biri Yo‘ldoshboy o‘z uyiga olib ketib parvarish qila boshlaydi. Uning otasi rais bo‘lib uylarida turli hayvon va qushlarning chuchelalari bor edi. Rais bu mag‘rur qush- bandi burgutdan ham chuchela qilmoqchi bo‘ladi. Burgut yo‘ldoshlarnikida turganida g‘alati bir narsaga ko‘zi tushadi, ya’ni u bu uyda fosfordan qilingan burgutni ko‘radi. Bu burgut bandi bo‘lmasa-da uchishga, ozodlikka chiqishga harakat qilmasligi uning g‘ashini keltiradi va hatto, vaqt o‘tib uni bu harakatsizligi uchun bizning burgutimiz parcha-parcha qiladi. Ota-bobolarimiz ham bunday dushmanga bosh eggan , o‘z qavmiga xiyonat qilgan yurtdoshlarini kechirmaganlar. Mana shu jarayonda ham burgut ramziylik kasb etgani yaqqol ko‘rinib turibdi. Yo‘ldosh burgutga har qancha mehribonlik qilsa-da, u ozod bo‘lishga, baland-balandlarga parvoz qilishga tinimsiz harakat qilaveradi. Oxirida esa uni ozodlikka chiqaradigan birdan-bir yo‘l uning halokati ekanligini anglaydi-yu, o‘zini halok etadi. Dushmanga qarshi mardonavor kurashgan ajdodlarimiz ham dushman qo‘lida asir bo‘lib yashashdan ko‘ra o‘limni afzal bilishgan, Muqanna ham asir tushmaslik uchun o‘zini yonib turgan tandirga tashlab halok bo‘ladi. Bolalar ham bandi burgutni mustaqillik, ozodlik yo‘lida halok bo‘lgan “bosmachi”lar qabristoniga shahidlar qatori ko‘mishadi va hatto uning qabri ustiga tug‘ qadab qo‘yishadi.

Uzoq yillar qat’iy bir yo‘sindan chetga chiqmagan hassos hikoyanavis Sh. Xolmirzayev ijodida mustahkam egallagan an’ana va tamoyillardan farqli asarlar yaratdi. **“Cho‘loq turna”** nafaqat yozuvchi ijodida, balki adabiyotimizda yangi

hodisa hisoblanadi. “Cho‘loq turna” hikoyasining bosh g‘oyasi voqea-hodisani anglab yetishga urinish tashkil etadi. Shukur Xolmirzayevning ijodda erishgan muhim fazilatidan biri uning uzoq yillik nasrimizga xos bo‘lgan nasihatgo‘ylik, o‘gitbozlik va tashviqot qilishdan voz kechganligidir.

XX asr jahon hikoyachiligining eng sara namunalaridan, ayniqsa, modern adabiyotiga mansub asarlarda odamlar ishtirok etayotgan voqelik emas, balki qahramonlar xatti-harakati, kechinmalari, o‘y-xayollari asosiy syujet yo‘nalishiga aylangani barchamizga sir emas. Cho‘lponning hikoyalarida (“Qor qo‘ynida lola”) qahramonning ichki dunyosiga chuqurroq kirish, ruhiy holatni favqulodda “yot” detallarga ko‘chirish yo‘li bilan ta’sirchanlikni oshirish usuli mavjud. Xuddi shu uslubiy rang-baranglikni undan keyin Fitrat, Qodiriy, G‘. G‘ulom, A. Qahhor , so‘ngra Sh.Xolmirzayevlar o‘zlashtirib, asarlarida qo‘lladilar.

Sh. Xolmirzayev **“Qadimda bo‘lgan ekan”** hikoyasida tamomila yangi mavzuga qo‘l urdi. O‘sar shofyor qarib-churigan, esi kirarli-chiqarli bo‘lib qolgan momosidan voz kechishga qaror qiladi. Bu qaror to‘satdan paydo bo‘lmaydi. U *“shu o‘y dilidan o‘tgani uchun o‘z-o‘zidan azoblanib ketdi”*. O‘zbek uchun tirik momoning bahridan o‘tish… aql bovar qilmaydi. Lekin *“mushohada hurkakligi”*ni yengolsak, aql bovar qilmaydigan o‘ylar borligini tan olmasdan ilojimiz yo‘q. O‘sarning xotiniga aytgan gaplaridan ham bu haqiqatning borligini sezishimiz qiyin emas: *“Yomonliging yo‘q… Bilaman. Kampir ham sendan rozi… lekin seni o‘ylaganing bor… — O‘sar xotiniga ko‘zlari qonsirab tikildi. – Men sezib yurippan, seni o‘ylaganing bor”* Asarning yangiligi qahramonning ayolida nish urgan ana shunday o‘ylagan narsasini qo‘rqmasdan hikoya qila olganligida namoyon bo‘ladi. O‘sarning xotini erini tushunishga harakat qilgani holda, uning dard-dunyosini tadqiq etishga harakat qiladi.

Sh. Xolmirzayevning inson va tabiat mavzusiga bag‘ishlangan hikoyalarining bir qismida tabiatning maftunkor go‘zalligi aks ettirilsa, boshqalarida tabiatga yovuzlarcha munosabat, uni talon-taroj qilishlar qoralanadi. Mana shu keyingi hikoyalarida yozuvchi tabiat hodisalaridan “sovuq tasvirlar” topadi va muayyan badiiy g‘oyani ifoda qilish maqsadida o‘rinli foydalanadi. Masalan: havoning

tundligi, osmonni past tushgan qora bulutlar qoplab olishi, guvillab kuchli shamol esishi, chumchuqlarniig chirqillashi, bo‘rining uvlagani, qor uchqunlarining deraza oynasiga shitirlab urilishi, quyunning qorlarni to‘zg‘itib o‘ynashi, “bo‘ronning qori qalin betlarini yalab -supurib” ketishi odamning kayfiyatiga yomon ta’sir qiladi. Bu tasvirlar hikoyalardagi qahramon xarakterini yoritib beruvchi vositalar, xolos. Sh.Xolmirzayevning mana shunday ruhda yozilgan hikoyalaridagi tasvirda sovuqqonlik bor, chunki bir suhbatida yozuvchining o‘zi ta’kidlaganidek, manzarada shafqatsizlik bor. “*Muallif tabiatning qaysi hodisasi yoki holatidan material olmasin, u avvalo naturalist sifatida tabiat hodisalarining obyektiv mohiyatidan kelib chiqadi va ularni o‘z g‘oyaviy maqsadiga mohirlik bilan yo‘naltiradi. Tabiatning har bir hodisasi muallif tafakkurida, tuyg‘ular olamida sayqal topadi va qisman bo‘rttirilgan, birmuncha izohlangan tarzda ko‘tarayotgan muammolar konsepsiyalarni yaqqol ochib beruvchi syujetga aylanadi”.* Xususan, ***“Zov ostida adashuv”, “Cho‘loq turna”, “Yangi zot”, “Boychechak ochildi”, “Qush tili”*** va boshqa asarlarni o‘qib shunday xulosaga kelish mumkin.

Sh. Xolmirzayev qahramonlari ona yurtga, tabiatga mehr qo‘ygan yuksak e'tiqodli kishilardir. Lekin uning ***“Yovvoyi gul”, “Boychechak ochildi”*** hikoyalaridagi asosiy gap tabiatga munosabat haqida emas, balki tabiatning insonga ta’siri, oddiy giyohning sehrli qudrati orqali ibratli mulohazalarni o‘rtaga tashlaydi. **“Boychechak ochildi”** (1971) hikoyasida esa ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan adabiyotshunos olim katta shaharda yashab, ona tabiatdan biroz uzoqlashib qolgani natijasida tabiatga yaqinlashish bilan uning ruhiyatidagi o‘zgarishlar ko‘rsatiladi. *“Sh.Xolmirzayev hikoyalarida tadqiq etilgan inson va tabiatning o‘zaro aloqasi masalasi yozuvchi ijodiy evolyusiyasining deyarli barcha bosqichlarida asosiy o‘rinni egallaydi. Bunday hikoyalarning bir qismida tabiatni asrab-avaylash haqida gap ketsa, boshqa bir guruhida tabiat go‘zalliklarini tasvirlash bilan birga, inson va tabiat munosabatlari go‘zalligini tarannum etuvchi asarlar ko‘proq o‘rinni egallagani ko‘rinadi, chunki yozuvchi insonda tabiatga munosabati orqali yaxshilikni, ezgulikni, katta bir mehrni ko‘rishni istaydi. Bu hol, ayniqsa, inson va hayvonot dunyosi, inson va o‘simliklar olami tasvirida yaqqol*

ko‘rinadi”. Sh.Xolmirzayevning ***“Ot egasi”, “Podachi”*** hikoyalarida insonning hayvonga muhabbati, ***“Ko‘kboy”*** hikoyasida esa hayvonning insonga sadoqatini ko‘ramiz.

E’tibor qilgan o‘quvchi yozuvchining aksar hikoyalarida ayni mavzuga murojaat etilib, tabiatga aloqador gaplar katta ijtimoiy-axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy muammolar, inson va uning taqdiri, tarbiyasi haqidagi falsafiy fikrlar bilan tutashib ketganligini ko‘radi. Inson tabiatdan tirqishsiz devor orqali ajralib turmaydi, barcha borliq, mavjudot biri ikkinchisidan oladi yoki beradi. Ushbu prinsip nafaqat inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatda amal qilinadi, balki bu tuyg‘u inson va hayvonot dunyosida, ularning o‘zaro munosabatida ham ko‘rinadi. Bunday uzviy bog‘liqlikni aks etgirgan hikoyalarda bir dunyo bilan ikkinchi dunyoni, bir olam bilan ikkinchi olamni vafo, sadoqat, mehr-muhabbat tushunchalari bog‘lab turadi. Hayvonot dunyosi haqida jahon xalqlari adabiyotida yaratilgan Redyard Kipling, Jek London, Seton-Tompson, Orosio Kiroga, Lev Brandt, Yuriy Kazakovlarning turli ma'naviy va ijtimoiy muammolarni o‘rtaga tashlagan ko‘pgina asarlari o‘quvchilarga ma'lum va manzur. Ana shunday muammo, ma’no Sh. Xolmirzayevning inson va hayvonlar munosabatiga bag‘ishlangan hikoyalarida ham o‘ziga xos tarzda yozuvchi tug‘ilib o‘sgan Boysun tabiati va kishilari xarakteridan kelib chiqib badiiy talqin qilingan.

Shukur Xolmirzayevning tabiat va inson munosabatlariga bag‘ishlangan hikoyalari o‘zining rang-barang badiiy talqiniga ega ekanligini kuzatish mumkin. Bu jihat yozuvchining nafaqat hikoyalarida, balki uning qariyb barcha asarlarida – qissa, esse, romanlarida ham ko‘zga tashlanadi, ularda doim tabiatga murojaat etiladi, o‘quvchiga tabiatning yangi-yangi sir-asrorlari oshkor qilinadi. Sh. Xolmirzayev hikoyalarida tabiat o‘quvchiga estetik zavq, lirik kayfiyat bag‘ishlovchi vosita, siqilgan yurakka taskin beruvchi maskan sifatida talqin qilinadi. Qator hikoyalaridagi Islom, Ehson, Qo‘ng‘irot domla obrazlari orqali yozuvchining o‘zi ona tabiatning maftuni, himoyachisi, kurashchisi kabi ish tutadi. Uning asarlarida osmon baravar tog‘lar, jiyaklarida boychechaklar o‘sib yotgan so‘qmoqlar, shishadek tiniq osmon, oppoq momiq bulutlar, shoxlari osmonga

tekkudek azim daraxtlar, sokin o‘rmonlar, kakliklarning sayrashi kishining bahridilini ochadi; tandir og‘ziday alangalanib turgan quyosh, yam-yashil yaproqlari tagidan no‘xatdek-no‘xatdek zangor mevalari ko‘rinib turgan archa ko‘ngillarga shodlik baxsh etadi; cho‘l havosi, uning kengligi, sarg‘ish tuman ichra suzayotgan oy, bo‘g‘iq ovoz chiqarib, afsonaviy bir maxluqdek kilkillab oqayotgan daryo asabni xotirjam qiladi. Bu manzaralar qandaydir tashqi kuzatuv asosidagi tasvir emas. Bu yer-u osmondagi barcha go‘zalliklar ham birdaniga, bir vaqtda yozuvchi ko‘z o‘ngida gavdalanmaydi, bu eshitish va ko‘rish orqali qabul qilinadigan tabiat manzarasi emas, balki bu murakkab va aniq qonunlarga asoslangan tabiat hayotining umumiy manzarasi. Tabiatni har tomonlama, ikir-chikirlarigacha, chuqur bilimdonlik bilan tasvirlash yozuvchi ijodiy prinsipining asosiy xususiyatlaridan biridir. Sh. Xolmirzayev asarlarida tog‘, cho‘l, qishloq tabiati tasvirlari ko‘p uchrasa-da, ammo bu tasvirlar hech qachon bir-birini takrorlamaydi, manzaradagi rang-baranglik tasvirda o‘ziga xoslikni ta’minlagan.

Shukur Xolmirzayev ijodi – o‘zbek hikoyachiligida katta maktab hisoblanadi. Tabiat va inson muammolarini yoritgan asarlarida Shukur Xolmirzayev o‘z yurti tabiatini ko‘z-ko‘z qiladi, ana shu yurt tabiatiga mehr qo‘ygan, uni asrab avaylagan shaydoyi kishilarni o‘ziga yaqin oladi va ulug‘laydi; o‘z ne'matlarini tuhfa etgan tabiat boyliklaridan nooqil foydalanib, shafqatsizlarcha munosabatda bo‘lgan kishilar fojiasini fosh etadi. Tabiat va inson munosabatlarini ko‘rsatish orqali yozuvchi quyidagi hayotiy hikmatlarni kashf etadi:

– tabiatning barcha betakror go‘zal manzaralari insonga estetik zavq, kuch-qudrat baxsh etadi;

– tabiatga yaqinlashish inson qalbida mehr-shafqat, g‘ayrat-shijoat, yashash va ishlashga havas uyg‘otadi, ijodiy ilhom, aql-zakovat bag‘ishlaydi;

– inson tabiatdan ma'naviy ozuqa oladi; tabiatdan uzoqlashish esa insonni tabiiy tuyg‘ularidan mahrum qiladi, uni beshafgqat va toshbag‘irga aylantiradi.

Ko‘rinadiki, Sh.Xolmirzayev hikoyalarida tabiatga “o‘lja” sifatida qarovchilar, turli hodisalar girdobida o‘zlari ona tabiatning “o‘lja”siga aylanadi, undan manfaat kutib, uning tabiiyligiga xiyonat qilgan qahramonlarning o‘zlari

ham mana shu xiyonatning qurboni bo‘ladilar. Sh. Xolmirzayev hikoyalarida tabiat o‘z holicha alohida bir dunyo. Unga inson aralashuvi bilan bu dunyo boyishi yoki aksincha ayrim jihatlari yemirilishi mumkin. Insonning insonligi ham tabiatni bir butun holida saqlay olishida ko‘rinadi. Adib hikoyalarida tabiat tasviri muayyan estetik vazifani bajaradi. U faqatgina tabiat dunyosining bir bo‘lagi emas, balki qahramon dunyoqarashining va insoniy go‘zalligining shakllanishida o‘z ta'sirini ko‘rsatuvchi poetik vosita hamdir. Inson va tabiat muammosi Sh. Xolmirzayevning ayrim hikoyalari mavzusiga tegishli mavsumiy hodisa emas. Bu munosabatlar tizimida yozuvchi Inson va tabiatning o‘z vazifasi, asardagi o‘rni va jamiyatdagi mantig‘ini tushuntirib berishga erishgan. Shukur Xolmirzayev ijodining ma'lum bir qismini tabiat va inson munosabatlarini badiiy tadqiq etishga bag‘ishladi.

Chunonchi, **“Kulgan bilan kuldirgan”** (1972) hikoyasida Shukur Xolmirzayev vatan go‘zalligi, boyligi, umuman, tabiatga befarq bo‘lmagan, uni sevuvchi kishilarni tashvishga solayotgan – tabiat boyliklarini asrash masalasini ilgari suradi va bu masalaning mohiyatini oddiy bir voqyea tasviri orqali ko‘rsatadi. “Kulgan bilan kuldirgan” hikoyasida bosh qahramon tog‘dagi kakliklar haqida qayg‘uradi, bir-ikki qushni emas, umuman, hududdagi barcha qushlarni qahraton ayozdan omon chiqarib olish g‘amini yeydi.

“Jarga uchgan odam”da esa o‘zi tabiat va uni asrash xususida film yaratmoqchi bo‘lgan kinorejissyor butun boshli ayiqni o‘ldirib ikki bolasini yetim qilgani uchun tegishli tashkilotlar tomonidan emas, oddiy bir tabiat jonkuyari qo‘lida ayovsiz jazolanadi.

Shukur Xolmirzayev ijodi hozirgi zamon o‘zbek adabiyotining yorqin va mazmundor sahifalaridan birini tashkil etadi.Ko‘p qirrali iste’dod sohibi Sh.Xolmirzayev adabiyotning turli janrlarida rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari,tarixiy esselari, realistik qissalari-yu ajoyib romanlari bilan adabiyotimiz tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Sh.Xolmirzayev yozuvchilar orasidan birinchilardan bo‘lib, o‘zbek xalqi tarixining “bosmachilik harakati” deb atalgan davrini o‘rgana boshladi. Ijodkor faoliyati haqida o‘zbek adabiyotshunoslari turli fikrlar bildirgan. Jumladan, tanqidchi Umarali Normatov

“Zaminda yashaymiz, zaminni o‘ylaymiz” maqolasida Sh. Xolmirzayev hikoyalariga xos mazkur xususiyat haqida shunday deydi: “*Inson va tabiat munosabati Sh. Xolmirzayev hikoyalarining yetakchi leytmotiviga aylanib qoldi. Shunisi xarakterliki, yozuvchining so‘nggi yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu doirasida atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlanamaydi, har gal muallif masalining yangi qirrasini kashf etadi, yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbining yangi tomonini ochadi…”*

Adibning 1958-yili Boysun tuman gazetasida “Xatarli so‘qmoqda” nomli birinchi hikoyasi bosilib chiqadi. Adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shjonov “Doim izlanishda” maqolasida Sh. Xolmirzayevning yozuvchilik iste’dodi birinchi hikoyasidayoq namoyon bo‘lganligini qayd etib yozadi: “*Bolalik, o‘smirlik paytlarida hayotdan olgan tajribasi asar yozish uchun kamlik qilar, hayot taassurotlari esa hali yetarli hazm bo‘lmagan edi. Shu sababdan bu hikoya mavhumiyatlari, obrazini tasvirlashda, xususan, ularga individual bo‘yoq berishga noaniqliklar bor edi. Lekin yosh muallifning kelajagidan darak beradigan badiiy parchalar ham yo‘q emas edi unda. Agar o‘sha vaqtlarda yosh muallifning bu hikoyasini o‘qib ko‘rgan gazetxonlardan birortasi “shu yigitdan yozuvchi chiqadi” deb bashorat qilgan bo‘lsa, xató qilmaydi.”*

Shukur Xolmirzayev biz mayda-chuyda deb bilgan narsalardan ham go‘zallik topardi va ko‘ngli yayrab ketardi. Adib voqealarni oddiy kuzatuvchi sifatida tasvirlamaydi, balki ishtirokchiga aylanadi. Shu asosda har bir tasvirga, manzaralarga, qahramonlar siymosiga qalbini, butun borlig‘ini baxsh etadi. Shuning uchun ham asarlarini kitobxonlar qo‘lidan qo‘ygisi kelmaydi. Takror-takror o‘qiyveradi, o‘qiyveradi, aslo to‘ymaydi. Yozuvchining kitobxonlar e’tiboriga havola etganlaridan tashqari turli sabablar bilan nashr yuzini ko‘rmagan yoki qismi e’lon qilingan, alohida kitob shaklida chop etilmagan asarlari ham bor. Garchand umr bo‘yi adabiyot dardi bilan yashab, uning muammosini o‘z qayg‘usi deb bilgan adib ko‘proq yozishni o‘ylagan asarlarining bosilib chiqishiga ikkinchi darajali masala deb qaragan. Bu haqida ijodkor shunday yozadi: *“… meni hamma vaqt faqat yozish qiziqtirgan, yozish jarayonidan zavq olganman. Asar matbuotda*

chiqqach, bir kun-yarim kun xayolimda bo‘lgan, keyin yelkamdan chiqarib tashlaganman, davomi qiziqtirmagan”. Natijada yozuvchining ba’zi asarlari alohida kitob holida e’lon qilinmay, gazeta-jurnallar va ayrim to‘plamlar qatida qolib ketaveradi… Birinchidan, muallif o‘z ijodiga tanqidiy ko‘z bilan qaragani, yozayotganlarini izlanishlar natijasi deb bilgani bois, ushbu asarlaridan ko‘ngli to‘lmagan. *“Shukur Xolmirzayev o‘ziga talabchan yozuvchi* , - deb yozadi akademik Matyoqub Qo‘shjonov. - *Asar ustida uzoq vaqt ishlab, bitgach, o‘ziga yoqmay qolsa, “uni bir amallab e’lon qilib ola qolay”, deb o‘ylamaydi, hatto undan voz kecha oladi ham”.* Bu fikrni yozuvchining o‘zi ham tasdiqlaydi.

O‘zbek hikoyachiligiga katta hissa qo‘shgan adibning “Saylanma”lari (dastlabki uch jildiga) jamlangan 87ta hikoyalari uning butun ijodi, xususan, kichik janrdagi samarali faoliyati haqida to‘laqonli tasavvur bera oladi. Yozuvchi ijodining o‘ziga xosligi ayni paytda ijodiy jarayonning ham o‘ziga xosligini belgilaydi. Ijodiy jarayon har bir yozuvchida o‘ziga xos tarzda kechadi. O‘ziga xos ijodiy uslub va individual ijodiy jarayonning qamrovi ham shuncha keng bo‘ladi. Shukur Xolmirzayev ana shunday o‘ziga xos badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilik, biryoqlamalik va bayonchilikdan qochadi. Voqelik tasvirida so‘zni g‘oyat tejab sarflasa-da, fikrini o‘quvchiga to‘la va yorqin yetkazishga erishadi. Biroq, ba’zan uning ayrim asarlari tugallanmagandek, yozuvchi tomonidan o‘quvchiga yetkazilmoqchi bo‘lgan fikrlar nihoyalamagandek taassurot uyg‘otadi. Shu bois o‘quvchi asarning davomini kutadi. Adib odatda qahramonlar portretini chizmaydi, balki asosiy e’tiborini xarakter yaratishga qaratadi. Bu esa o‘quvchini faollashtiradi, ya’ni uni o‘ylashga, chuqur mulohaza qilishga undaydi. Sh. Xolmirzayev o‘quvchisi shunchaki kitobxon emas, balki badiiy asarda tasvirlangan voqelikka, yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradigan faol shaxsga aylanadi. Asar qahramonlari ustidan hukm chiqarish ham o‘quvchi e’tiboriga havola etiladi. Yana bir jihat yozuvchi uslubida o‘rinsiz pauza, voqealar tavsifida keraksiz uzilishlar yo‘q. Bu hodisa rus adabiyotida A.P.Chexov, o‘zbek adabiyotida A.Qahhor ijodida kuzatilgan. Tadqiqotchilar haqli ravishda

ta’kidlashganidek, bu borada Sh. Xolmirzayev Chexov va Abdulla Qahhorning haqli izdoshidir.

1953-1969-yillarda yaratilgan dastlabki ijod namunalariga ***“Notanish odam”, “Nimadir yo‘q bo‘ldi”, “Olis yulduzlar ostida”, “Sog‘inch”, “Ko‘kboy”, “Yovvoyi gul”, “Kechagi kun – kecha”*** kabi hikoyalar kirib, bu asarlar orqali o‘z yo‘li va uslubi shakllanayotganidan darak berdi. Ushbu hikoyalar o‘zbek adabiyotida mutlaqo yangi bir ovoz paydo bo‘lganiga hujjat ediki, o‘sha paytda bu asarlar nafaqat adabiyotshunos-u mutaxassislar e’tiborini, balki o‘quvchilarni ham o‘ziga rom etdi. Sh.Xolmirzayev ijodida ko‘tarilish, ya’ni uning professional hikoyanavis sifatida dovrug‘ qozonishi 1970-yildan boshlangan. Adib 1970-1990-yillari ***“Hayot abadiy”, “Og‘ir tosh ko‘chsa”, “Ot egasi”, “Boychechak ochildi”, “Jarga uchgan odam”, “Kulgan bilan kuldirgan”, “O‘zbekning soddasi”, “Biz kech qolib yuramiz”, “Ora yo‘l”, “Arpali qishlog‘ida”, “Keksa g‘ijjakchi”, “Farzand”, “Bahor o‘tdi”, “Qariya”, “Odam”, “Podachi”, “Shudring tushgan bedazor”, “Cho‘loq turna”, “Olam tortilish qonuni”, “Kimsasiz hovli”, “Bodom qishda gullaydi”, “Tabassum”, “Omon ovchining o‘limi”, “Yashil Niva”, “Haykal”, “O‘zbek xarakteri”, “Hukumat”, “Qadimda bo‘lgan ekan”*** kabi go‘zal badiiy durdonalar yaratdi. Uchinchi bosqich: 1991–2005-yillar bo‘lib, bu davrni adib ijodining cho‘qqisi, salkam ellik yillik ijodiy yo‘lning sarhisobi desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Sh. Xolmirzayev adabiy merosi nihoyatda salmoqli – yuzdan ortiq hikoya, e’lon qilingan 5ta roman, e’lon qilinmagani yana ikkita, e’lon qilingan 4ta qissa, e’lon qilinmagan yana bitta bor, bolalar uchun bitta komediya, bitta pyesa, ikkita drama, ikkita kinossenariy, “Tungi qadamlar” nomli radiopyesa, yigirmadan ortiq esse, o‘nga yaqin ocherk, o‘ndan ziyod maqola yozgan yozuvchini haqli ravishda adabiyotimiz xazinasini boyitgan so‘z zargari deyishga haqlimiz.

Shukur Xolmirzayev “o‘zbek sovet adabiyoti” degan katta janggohning bir chetiga haqiqiy milliy, o‘zbekona qahramonlarini dadil safga chizdi. Yana bir jihatga alohida to‘xtaladigan bo‘lsak, ijodkor hikoyalarida o‘sha davrning qotib qolgan sosialistik realizm metodini ko‘rmaymiz. Yuqorida keltirilgan asarlar,

avvalo, mana shu jihati bilan o‘quvchilarni o‘ziga qaratdi. Hikoyalarida o‘quvchilar bezib ketgan sun’iy, soxta suratlar emas, jonli odam tasvirlanadi. Ular hayotning murakkab, chigal vaziyatlarida, turmushning o‘nqir-cho‘nqirlarida tasvirlandi. Ular to‘g‘on qurmadi, cho‘l quvmadi, neft-gaz ham qidirgan emas, o‘zlarining “kichkina” haqiqatlari - insoniy or-nomusi, millat g‘ururi va sha’ni, ona tabiati, yaxshi ko‘rgan oti, ajdodlar yodi, oyoqosti bo‘lgan e’tiqodi uchun kuydi, o‘rtandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов, Э; Авлоқулов, Я. (2007) *Ўзбек тили ономастикасининг макроқўлами таркиби*. Ўзбек тили ва адабиёти, 5, 33-39-б.
2. Бегматов, Э; Нафасов, Т., Караев С. (1999) *Ономастика Узбекистана* .Тошкент
3. Виноградов, В.В. (1959) *О языке художественной литературы*. Москва.
4. Владимирова, Н. (1992) *Чўлпон ҳикоянавис*// Ўзбек тили ва адабиёти. N 3-4. — Б. 13
5. . *Контрастм рассказа (Беседа за "круглым столом”)* (1986) / Литературная учеба. № 4. С.150

ERKIN MALIKNING “100 YIL SARSON -SARGARDONLIKDA” ASARINING MAZMUNI VA ASARDAGI NURIDDIN OBRAZI TA’RIFI

Abdurazoqova Shohsanam Abdualim qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 1-kurs talabasi
abdurazoqovashohsanam99@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mashhur adib Erkin Malikning “100yil sarson-sargardonlikda’’nomli asari tahlilga tortiladi.Mazkur asarda o‘tgan asrning 30-yillarida yurtimizdan quvg‘in qilingan Nuriddin ismli bolakayning oilasi va ular bilan birgalikda quvg‘in qilingan bir necha o‘zbek oilalarining hayoti, ularning yurtimizdan chiqarilib yuborilganidan keyingi musofirchilik qiyinchiliklari tasvirlanadi. Shu bilan bir qatorda asar qahramonlari ruhiyati hamda muayyan vaziyatlarda insoniylik va mehr-muhabbat tuyg’ularini saqlab qolishlik jasorati tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar. *Bolalik, xotira, musofir, oila, qiyinchilik, yurt, quvg‘in, jamiyat, umr, shukronalik, vaqt.*

Abstract. *This work describes the life of the family of a boy named Nuriddin, who was expelled from our country in the thirties of the last century and the life of several families who were expelled together with them and the difficulties of travel after their expulsion from our country.*

Keywords. *Childhood, memory, family, difficulty, homeland, exile, society, life, gratitude, time.*

O‘tgan asrda yurtimiz bolsheviklar ta’siriga tushib qolganida yurtimizdan oddiy aholi va ilmli ziyolilarning ba’zilari turli o‘lkalarga quvg‘in qilinadi. Shu oilalar qatorida erkin Malikning “100 yil sarson-sargardonlikda” asari bosh qahramonlaridan Nuriddin ismli bolakayning oilasi ham bor edi. Nuriddinning oilasi quvg‘in qilinib, ular Andijonni tark etganida Nuriddin bor-yo‘g‘i 2 yoshda bo‘ladi. Ular Andijondan chiqib Afg‘onistonga borishadi va shu joydan qo‘nim topishadi. Oila Afg‘onistonda ma’lum muddat yashab, imkoni bo‘lishi bilanoq o‘z yurtiga qaytib ketish umidida yashashadi. Ammo bolsheviklar ular Afg‘onistonda yashayotganlarida ham tinch qo‘yishmaydi. Yurtdoshlarimiz Afg‘onistonda qiyin vaziyatda kun kechirishadi. Ular noilojlikdan jonlari omon qolishi uchun Afg‘onistonni ham tark etishga majbur bo‘lishadi. Ammo bu vaqtda Nuriddin ancha bu yerga o‘rganib qolgan, o‘rtoqlari: Shamsiddin, Jamshid va Anvarlar bilan birgalikda maktabga chiqib, tahsil olayotgan edi.. Nuriddin o‘zining o‘tkir zehni bilan maktabda o‘quvchilarga amir etib tayinlangan edi. Nuriddin maktabga va do‘stlariga ancha o‘rganib qolganligi sababli ko‘chishni xohlamaydi, ammo ilojsizlikdan bunga majbur edi. Nuriddinning oilasi Afg‘onistondan chiqib, endi Hindistonga yo‘l oladi. Hindistonga yetib borishlaridan oldin ham bir necha shaharlarga va karvonsaroylarga to‘xtab yashashadi va u yerda ham juda ham ko‘plab qiyinchiliklarga uchrashadi. To‘xtagan shahar-u, karvonsaroylarida ham tinch yashay olishmagach, buyuk bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlari kabi Zarrin dovoni orqali Hindistonga o‘tishni maqsad qilishadi.

Nuriddinning otasi Mirobid asarda juda ham mehnatkash, samimiy, bir so‘zli, qat’iyatli inson qilib tasvirlanadi. Ko‘plab qiyin vaziyatlarda ham oilasini o‘ylovchi hamda jamiyat insonlariga qo‘lidan kelganicha yordam beruvchi saxiy insondir. U Hindistonda yashayotganida ham dehqonchilik qilib topgan daromadining ko‘p qismini Turkiston o‘lkasining ozodligi uchun olib borilayotgan sa’y-harakatlarga yordam berish uchun berib turadi. U o‘z onasining oldida uni Haj safariga olib borolmagani uchun, farzandlarining oldida esa ularni ona yurtidan olib chiqib ketib, endi qaytarib olib borolmayotganidan o‘zini har doim aybdor sanaydi. Umri davomida doimo ikki maqsadda: onasini Hajga olib borish hamda farzandlarini yurtiga qaytarib olib borish orzusi bilan yashaydi. Bu ikki orzusi ham amalga oshmasa-da, ammo o‘zi bu dunyoda ko‘z yumushidan bir necha yil oldin yurtiga bir bora bo‘lsa-da borishga va yurt tuprog‘idan bir hovuchini olib kelishga erishadi.

Dono xalqimizda “Yurting tinch – sen tinch” degan maqol bor. Bu maqol bejizga emas. Bu fikrimizning isboti sifatida o‘sha davrlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. O‘sha vaqtda bolsheviklar bosqini vaqtida yurtimizdan chiqarib yuborilgan insonlar juda ham ko‘plab qiyinchiliklarga uchrashishadi, bir necha marotaba o‘lim bilan yuzlashishadi.. Musofirchilik azob-uqubatlarini tortishadi. O‘sha damlarda yurtimiz tinch bo‘lmaganligi sababini ham keltirsak bo‘ladi bu vaziyatlarga. Bunday og‘ir vaziyatlar faqat bizning yurtimizda emas, balki ko‘plab mamlakatlarda yuz berayotganligini asar qahramonlarining turli joylarda yurib, turli mashaqqatlarni ko‘rishi bilan ham yoritib beriladi. Xuddi shunday holat G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asarida ham kuzatiladi. *“Ushbu asarda ham Shum bolaning shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib yurishlari fonida xalq hayotining keng manzarasi, yashash tarzi, ruhiyati, o‘y-xayollari-yu, orzu-umidlari; kiyim-kechaklaridan tortib, qozon-tovoqlarigacha bo‘lgan jihozlar, boylarning xonadonidagi to‘qlik-quvlikka qarama-qarshi kambag‘al qashshoq xonadonlardagi real hayot, ayni paytda insoniy fazilatlar ko‘rsatilgani e’tirof etiladi”* (Nazarov, 19-bet).

Shuningdek asarda yurtimizning bolsheviklar bosqiniga og‘ir vaziyatlarda qolishiga yana bir sabab yurtni boshqargan amaldorlarning jipslashmasligi, ularning bir yoqadan bosh chiqarmasligi deb ham qaraladi. Nuriddinning oilasi boshiga ko‘p

og‘ir kunlar tushishiga uning enasining tutingan o‘g‘li Abdurahmonning ham ta’siri bor. Abdurahmon o‘zi rus odam bo‘lib, Nuriddinning enasi tufayli o‘limdan qutulib qoladi va unga o‘g‘il tutinib, Islom diniga o‘tadi. *“Xalqimizning “Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r” degan maqoli bor. Ma’nosi shuki, bir falokat ko‘pchilikning boshiga yo‘liqsa ham u har kimga har xil ta’sir qiladi”* (Nazarov, 190-bet). Bu maqolni Abdurahmonga nisbatan ham ishlatsak bo‘ladi. U ham yaqinlari, yurtdoshlari, oilasining boshiga tushgan falokatlarni qalban his qilmaydi. Har doim qiyin vaziyatlarning kelib chiqishiga qisman bo‘lsa-da, uning ham qilmishlari sabab bo‘ladi. Abdurahmon oilasini va yurtdoshlarini Koshg‘arda bolsheviklarga, Hindistonda inglizlarga nomma-nom sotadi, Peshvorda akasining qo‘ylariga qirg‘in keltiradi, shakarqamish qiyomiga meva sharbati qo‘shib, erib ketishiga sabab bo‘ladi (Erkin Malik, 338-339 betlar). Va oxir-oqibat akasining o‘limiga ham sabab bo‘ladi.

Bolalik – umr bahori. Hammamizning eng shirin, beg‘ubor quvnoq xotiralarga boy davrimiz bu bizning bolalik yillarimiz bo‘ladi. Afsuski, asardagi ko‘plab bolalar bu kabi tuyg‘ulardan biroz yiroq. Ular tinch ko‘chalarni changitib o‘ynab yurishdan ko‘proq ota-onasi bilan bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib musofirchilik nonini yeyishga majbur edi. Nuriddining ham bolaligi hozirgi kun bolalariga o‘xshab shod-u xurramlikda, quvnoq hamda qorni to‘q holda kechmaydi. U 2 yoshida Andijondan chiqib ketganidan so‘ng ota-onasi, oilasi bilan musofirchilik mashaqqatlarida ulg‘ayadi. Ammo hech qachon bundan nolimaydi. Nuriddin zehnli, hisobga usta, tarixiy ajdodlarimizga qiziqadigan bola bo‘ladi. U oilasi bilan yurganida yosh bo‘lsa-da, oilasining boshidan qanday mashaqqatlar kechayotganini, qiyinchiliklarni his qila oladi. Nuriddin Hindistonda ekanligida o‘g‘irlab ketiladi. Bu vaziyatda ham u o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydi. Iloji boricha dadasidan olgan saboqlarini ishga soladi. O‘tkir zehni va aqlliligi tufayli o‘g‘rilarning qo‘lidan qochib ketishga muvaffaq bo‘ladi. U o‘g‘irlab ketilganida ham iloji boricha kayfiyatini tushirmaslikka harakat qiladi va aksincha bu holatning yaxshi tomonlarini o‘ylaydi. Shu vaziyatdan ham unumli foydalanib anchagina narsalarni o‘rganib oladi va bular uning hayotida juda ko‘p vaziyatlarda asqotadi. U o‘zining tanasini turli xil mashg‘ulotlar orqali chiniqtirib, turli xil foydali yumushlarni: jun qirqish, qo‘y so‘yish kabi foydali yumushlarni o‘rganadi.

G‘ordan qochib qutulganidan keyin qishloqdagi insonlar tomonidan o‘g‘rilikda ayblanib, o‘limga mahkum qilinganida ham o‘z aql-u zakovatini va dadasidan olgan Bobur bobomiz haqidagi bilimlari tufayli joni omon qoladi. Oilasi bag‘riga qaytgach otasining yoniga yordam berish uchun savdogarchilik qiladi. O‘zining savdogarchiligi tufayli oila va ro‘zg‘or tebratishga yordam beradi. Nuriddin ma’naviy jihatdan ancha bilimdon va aqlli, xuddiki katta insonlardek fikr yuritadigan bola bo‘ladi. Har bir vaziyatni o‘zining bolalarcha murg‘ak, beg‘ubor qalbida bolalarcha baholaydi. Nuriddin dadasi bilan suhbat qurib o‘tirgan ko‘p vaqtlarida yurtimizda o‘tgan ajdodlar haqida bilishni xohlaydi. Bir kuni unga dadasi Furqatning ushbu g‘azalini xirgoya qilib beradi:

Sayding qo‘yaber sayyod, sayyora ekan mandek,
Ol domini bo‘ynidin, bechora ekan mandek,
O‘z yorini topmasdan, ovora ekan mandek,
Iqboli nigun, baxtli ham qora ekan mandek,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mandek,
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mandek.

(Erkin Malik, 84-85 betlar).

Yozuvchi asarda yana bir necha o‘rinlarda o‘zbek xalqining jonkuyar, mehribon, kuyunchak xalq ekanligini bir necha hodisalar bayonida ko‘rsatib o‘tadi. Bu holatlarga: Nuriddinlar Afg‘onistonda yashayotgan vaqtida akasi bilan non olib kelish uchun ko‘chaga chiqishadi. Ko‘chada och-nahor yurgan bir to‘da bolalarni ko‘rib qolishadi va olib kelayotgan nonidan ularga bittasini taqsimlab berishadi. Vaholanki, bu vaqtda ularning oilasida ham ko‘p kishi istiqomat qilar, o‘zlari to‘yib non yoki ovqat yegan kunlaridan yemagan kunlari ko‘p bo‘lar edi.

Hindistonda Peshavor shahrida yashayotganlarida Nuriddining otasi savdogarchilikni qo‘yib, dehqonchilik qila boshlaydi Nuriddin esa noilojlikdan otasining o‘rniga savdo qilib do‘konni yuritadi. Nuriddin topayotgan pulga ro‘zg‘or tebratilib, otasi dehqonchilik qilib topayotgan pullari esa ikkiga ajratilib, bir qismi “Turkiston milliy Birlik Qo‘mitasi”ga va bir qismi yangi ochilgan kechki maktablar uchun beriladi. Peshavorda yashayotganlarida kechki maktablar ochiladi va bu kechki

maktablar faoliyatiga mablag‘ kerak bo‘ladi. Maktablar uchun mablag‘ yig‘ish jarayonida kimoshdi savdosi o‘tkaziladi. Kimoshdi savdosida kechki maktablar uchun berishga puli yo‘q odamlar o‘zlarida bor biror-bir narsani sotib, uning pulini eski maktablar uchun berishadi. Shu savdo ketayotgan bir vaqtda bir ayol odamlar oldiga chiqadi va kechki maktablar uchun u ham pul berishini xohlashishini, ammo berishga ikki o‘rim sochidan bo‘lak hech vaqosi yo‘qligini aytadi. Shu sababli sochlarini sotib, uning pulini kechki maktablarga berishini aytadi. Odamlar ayolga puli yo‘q bo‘lsa, hech narsa bermasligi ham mumkinligini, sochini sotish shart emasligini tushuntirishga urinishadi, ammo ayol fikrida qat’iyan turib oladi va kimoshdi savdosiga sochini sotishga qo‘yadi. Shunda odamlar orasidan bir kishi uning sochlarini juda qimmat narxda sotib olishini aytadi va sotib olib ayolga qarata “Ma’lumki dinimizda soch ayolning avrati hisoblanadi, shu sababli men sochingizni sotib olib o‘zingizga hadya qilaman. Iltimos, sochingizni boshqa sotmang” – deydi. Erkak sochni sotib olgan pulga Hindistonda yashayotgan bolalarning yarmini o‘qitsa bo‘lar edi. Yuqoridagi fikrimiz isboti sifatida shu voqealarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Ushbu asardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bu asar yurtimizni begonalar bosib olgan damlarda jipslashmaslikning oqibatlari, musofirchilikning azob-uqubatlari, yurt sog‘inchi, tinch kunlar va o‘z yurtida yashashning qanchalar baxt ekanligini bizga ko‘rsata oladi. Biz bugungi kunda shunday tinch, farovon yurtda osuda bolalik olamimizga ko‘milib yashayotganimizga shukronalar keltirib yashashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkin Malik. (2021). *100 yil sarson-sargardonlikda*. Toshkent: Zamin Nashr.

2. Nazarov, B. (2019). *G‘afur G‘ulom olami.* Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU.

“DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA BOLA OBRAZI

Beknazarova Gulasal Qudrat qizi,
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik mutaxassisligi
2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub "Dunyoning ishlari" qissasi tahlilga tortilgan. Qissa janrining poetik asoslari, shakllanishi masalalariga e’tibor qaratilgan. “Dunyoning ishlari” qissasidagi barcha hikoyalarni birlashtirib turuvchi Ona obrazi hisoblanib, undagi hikoyalar bola, farzand, hikoyachi qahramon tilidan aytiladi. Shundan kelib chiqib, kichik tadqiqotimizda qissadagi bola obrazini tahlilga tortdik. Ona obrazi markaziy o‘rinda turgan ushbu qissada bola obrazining ahamiyati ham katta.*

Kalit so‘zlar: *badiiy obraz, ona obrazi, bola obrazi, qissa, kompozitsiya, syujet, detal, portret, til, uslub, hikoyachi qahramon.*

Abstract. *In the article, the story “the affairs of the world”, which belongs to the pen of the National writer of Uzbekistan Utkir Hoshimov, was taken into analysis. The poetic basis of the genre of short stories, attention is paid to the issues of formation. It is considered the image of a mother who keeps all the stories in the story” the affairs of the world" together, the stories in it are told from the language of the child, child, narrator hero. From this, in our small study, we drew the image of the child in the story to the analysis. In this story, where the image of the mother is central, the image of the child is also of great importance.*

Keywords: *artistic image, Mother image, child image, short story, composition, plot, detail, portrait, language, style, narrator hero.*

Adabiy-tarixiy jarayonda yuzaga kelgan badiiy obrazlar real borliqdan biroz farqlanib turadi. Chunki san’atkor ko‘zi bilan kuzatilgan va o‘z ideali asosida qayta ishlangan va borliqdagi bizga tanish izlari bilan ajralib turuvchi badiiy obraz real borliqdan biroz uzoqlashadi. Biz, bu o‘rinda ushbu fikrimizni O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi Ona va bola obraziga nisbatan ishlata olmaymiz. Qissadagi hikoyalarni, asar kompozitsion qurilishini Ona obrazi birlashtirib turadi va ushbu obraz real hayotga shu qadar yaqin, shu qadar ta’sirli ifodalanganki, Ona xarakteri shu qadar ishonchli o‘z tasvirini topganki, mutolaa

jarayonida har bir o‘quvchi o‘z onalarini eslaydi. Ona xarakterining ochilishida bola obrazi muhim hisoblanadi, shuning uchun biz qissada keltirilgan hikoyalardagi voqelik bola nigohi bilan kuzatilishi, bola tilidan hikoya qilib berilishi jihatlariga alohida e’tibor qaratishni lozim deb topdik. Biz bilamizki, qissa janri markazida bir shaxs hayot yo‘li turadi, barcha voqealar shu shaxs atrofida kechadi yoki voqealar shu shaxs atrofida birlashadi, yig‘iladi. “Dunyoning ishlari” qissasi markazida esa, Ona obrazi, ona shaxsiyati turadi va barcha voqealar Ona obrazi atrofida birlashadi. Qissa janri markazida alohida bir shaxs turganidan so‘ng, shuni aytish lozimki, psixologik tasvir yetakchilik qiladi. Chunki ushbu janrning bosh talabi asar syujetining yagona qahramon hayotining dramatizmga boy, lirik talqinga moyil lahzalarini tasvirlashga asoslangan.

Adabiyot tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har bir adabiy janrning takomili uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Adabiy turlarning shakllanishi ma’lum bir bosqichlarni, yo‘llarni bosib o‘tdi va sayqallandi. “Qissa” janri ham xuddi mana shu jarayonni bosib o‘tgan, adabiy janrlar ichida eng mukammal va epik tur janrlari orasida ham alohida o‘rniga ega.

“Qissa” atamasi arab tilidan olingan bo‘lib, *“hikoya qilmoq”, “qissa qilmoq”* degan ma’nolarni bildiradi. Lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra, muayyan bir shaxs hayotining ma’lum bir davrini bayon qiladigan janr. Adabiyotshunoslik lug‘atlarida qissaga turli xil fikrlar bildiriladi: “*Qissa. 1. Yaqin va O‘rta Sharqda keng tarqalgan folklor va yozma adabiyot asarlari; 2. O‘zbek prozasida keyingi o‘n yillar ichida hikoyadan katta, romandan kichik va aksariyat hollarda asosiy qahramon sarguzashtlari asosida yuzaga kelgan badiiy asarlar ham qissa deb yuritilmoqda. Bunday asarlar o‘z xarakteri, janr imkoniyatlari, badiiy-tasviriy prinsip va usullari jihatidan povest janri bilan bir xildir*” (Hotamov, Sarimsoqov, 1973, 169-bet).

Qissalarni birlashtiruvchi umumiy xususiyat ularda biografik elementlarning ko‘proq qamrab olinishidir. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub “Dunyoning ishlari” qissasida ham yozuvchining yoshligi, onasi bilan bog‘liq xotiralar esga olinadi. Qissa muallif hayoti bilan bog‘liq bo‘lganligi

sababli avtobiografik xarakterga ega. “Dunyoning ishlari” katta-kichik hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va to‘liq tarzda 2005-yilda “Sharq” nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Bu asar yaratilgandan beri kitobxonlar orasida juda iliq fikrlar aytiladi. Asarni o‘qigan kitobxon unga qayta-qayta murojaat qiladi va o‘zi uchun yangi kashfiyotlar yaratadi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad qissani shunday ta’riflagan: *“Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo‘shiqday o‘qiladi. Uni o‘qib turib, o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko‘z oldimizda ko‘ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi”.*

“Dunyoning ishlari” – o‘ziga xos avtobiografik asar. Unda hikoyachi qahramonning bolalik yillari va balog‘at davri tasvirlanadi. Lekin hikoyachi qahramonning qarashlari, tushunchalari, xotiralari asar bosh qahramoni – Ona obraziga kelib ulanadi. Qissada ona obrazi asosiy o‘rinni egallaydi, shuningdek, asarda bola obrazi ham hikoyalarni harakatga keltiruvchi obraz sifatida gavdalanadi. Chunki har bir voqea bola, farzand, hikoyachi qahramon tilidan hikoya qilinadi. Ona uchun bolaning yoshi muhim emas. Bola ellik yoshda ham ona uchun bola. Bola uchun ham onaning ham yosh-qarisi bo‘lmaydi. Asarda go‘rkov tomonidan “bola”ga berilgan savol insonni chuqur o‘yga toldiradi: *“Onaning yosh qarisi bo‘ladimi? Mehrning yosh-qarisi bo‘ladimi? Sadoqatning-chi?* (Hoshimov, 2005, 5-bet).

Bolalik deb atalmish ajoyib saltanat bor, u zinhor zavol ko‘rmaydi, sinalgan qonun-qoidalari asosida yashayveradi. Avvalo, u zamon, makon, irq, din, jins tanlamaydi. Asar tili sodda, ravon, shuning uchun bir nafasda o‘qiladi. “Dunyoning ishlari” asari o‘zbek onalarining hamda mehribon farzandlarning, mehr-muhabbatning portreti gavdalantirilgan haqiqiy mukammal asar. Ushbu asar adibning o‘z fikriga binoan “qishloqning qalbi-yu, shaharning aqli bilan yozilgan” durdona asardir. Har bir kitobxon asarni o‘qir ekan, voqealar o‘zining o‘tmishida bo‘lib o‘tayotganday seziladi. Asar olamiga sho‘ng‘ib ketadi. O‘z onasi ko‘z

oldida gavdalanadi. Asar ibtidosida "*Butun dunyo onalari bu asarni o'qishini xohlardim*" degan jumla bor. Bu jumla orqali asar butun dunyo onalari haqida ekanligi yaqqol aks etgan.

Qissa o'ttiz hikoyadan iborat. Har bir hikoya tugal, mustaqil mazmunga ega, ayni damda bir-biri bilan o'zaro bog'liq, biri ikkinchisini to'ldiradi. Bosh qahramon ona obrazini ochishga yo'naltirilgan hikoyalar shu tarzda birlashib, yaxlit syujet chizig'ini hosil qiladi. Bu yaxlitlik sun'iy, zo'rlab yasalmay, balki tabiiy bo'lgani uchun hikoyalarning bittasini bo'lsa ham tashlab o'qigan kitobxon butun qissani tushunmasligi mumkin.

Bugungi kunda dunyoda juda muhim evrilishlar kuzatilmoqdaki, o'zbek adabiyotiga ham bu bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Badiiy adabiyot o'quvchi-kitobxonning badiiy-mantiqiy tafakkurini oshiradi. Adabiyotda obrazni o'rganish masalasi alohida ahamiyatga ega. Har bir badiiy obraz betakror badiiy yangilik bo'lishi kerak.

Badiiy obraz voqelikning, inson ruhi mohiyatining yetakchi xususiyatini ijodkorning estetik ideali nuqtayi nazaridan butun murakkabligi bilan qamrab olgan holda aks ettirishga yo'nalgan bo'ladi.

Birgina asarning ***"Oq, oydin kechalar"*** deb nomlangan qismida bola yoshlik xotiralariga qaytadi, onasi bilan suhbatini eslaydi, qo'msaydi:

"*Men osmondan yulduzimni tanladim. Qarang, oyi, Yetti og'ayni orasidagi eng yorug' yulduz – meniki Mayli, o'g'lim. O'sha yulduz seniki. Anovi to'rtinchisi – meniki. Nega, oyi, to'rtinchisi eng kichkina yulduz-ku! Shuning uchun ham meniki.To'rtinchi yulduz – yetimcha yulduz. Ko'rdingmi, yaxshi o'smay qolgan. Yetimlarga rahm qilish kerak"* (Hoshimov, 2005, 6-bet). Haqiqatan ham, yetim bolalarning haqi, yetimlarning ko'nglini og'ritmaslik, ularga ko'mak berish haqida bir nechta hadislar bo'lib, quyidagi hadisda ham yetimlar haqida shunday deyilgan: *Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: "Men jannat eshigini birinchi bo'lib ochuvchi shaxsman. Faqat bir ayol mendan ildamroq ekanini ko'raman. Undan: "Sen kimsan?" – deb so'rayman. U: "Men yetimlarimga qarab o'tirgan ayolman", – deydi.* (Abu Ya'lo

rivoyati). Bir yetimning ko‘nglini olish uchun payg‘ambarimiz tuya bo‘lib cho‘kib ustiga mindiradilar. Shu yetim bir lahza otasizligini unutsin, xursand bo‘lsin deb payg‘ambardek zot tiz cho‘kadi. Yuqoridagi hadisda ham payg‘ambarimizning yetimni boqqan ayoldan keyin jannatga kirishi haqidagi fikrlari naqadar ta’sirli ifodalangan.

Qissaning ***“Haqqush”*** nomli voqeasida ham bola yoshlik xotiralarini yodga oladi. Onasi aytib bergan aka-ukalar haqidagi cho‘pchak ham aslida farzandlarining ahil-inoq bo‘lishi uchun aytilgan edi. Yoshligida onasi aytib bergan cho‘pchak bola uchun g‘alati edi, endi u ulg‘aydi va onasining nima sababdan cho‘pchak aytib berganini tushundi.

Asarning ***“Ikki afsona”*** voqeasida “obkash” haqidagi ibratli voqea keltiriladi. Unda o‘z onasini hurmat qilmagan bolaning bir kampir tomonidan obkash bilan urilganligi hikoya qilinadi. Voqeada bola birovni ko‘nglini ovlashdan oldin o‘z onasining ko‘nglini og‘ritmasligi lozimligi uqtiriladi. Shuningdek, ushbu qismda ona-bolaning samimiy suhbati, bolaning ajabtovur savollariga onaning erinmay javob berganligini ko‘rishimiz mumkin.

Asardagi *“Gilam paypoq”* voqeasi onaning farzandga bo‘lgan sof muhabbatini ko‘rsatib beradi. Agar farzand kasal bo‘lsa, onaning halovati yo‘qoladi. *“Badiiy obraz voqelikning, inson ruhi mohiyatining yetakchi xususiyatini ijodkorning estetik ideali nuqtayi nazaridan butun murakkabligi bilan qamrab olgan holda aks ettirishga yo‘nalgan bo‘ladi”* (Sarimsoqov, 2002, 11-bet).

Yozuvchi ijodining o‘ziga xosligi ayni paytda ijodiy jarayonning o‘ziga xosligini belgilaydi. Ijodiy jarayon har bir yozuvchida o‘ziga xos tarzda kechadi. Mustaqil uslubiga, individual ovoziga ega ijodkor qanchalik ko‘p bo‘lsa, individual ijodiy jarayon ham shuncha rang-barang bo‘ladi. Hikoyachi qahramon tilidan Ona timsoli jozibador tasvirlanadi, shuningdek, u faqatgina nasihat qilib, oddiy haqiqatlarni ta’kidlab, bo‘lar-bo‘lmasga tergash orqali farzandlariga tarbiya bermaydi, balki o‘zi buyuk e’tiqodlarga amal qilib yashashi, ibrati bilan ularning olam va odam haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi.

“Gilam paypoq” hikoyasida onaning farzandi uchun nimalarga qodirligi-yu, bolasi uchun nimalardan kechishi, hatto o‘z jonini ham o‘ylamasligi juda ishonarli tasvirlangan. Bolasini tabibga olib borish mobaynida oyog‘ini sovuqqa oldiradi, ammo bundan xafa bo‘lmaydi. Ushbu hikoya bir vaqtlar bola bo‘lgan qahramon tilidan aytiladi va bolalik chog‘lari eslanadi. Bolaligida tushunmagan narsalar haqida o‘ylaydi, xayolga beriladi. Bir vaqtlar farzandi uchun o‘z jonini ham o‘ylamay, “Bolaginam o‘lib qoladi!” deya qo‘rqqan, oyog‘ini sovuqqa oldirib qo‘ygan Ona, bugunga kelib, farzandining gilam paypoq olib kelganiga shu qadar quvonadi, mehribon o‘g‘li borligini qo‘shnilarga aytib maqtanadi. Haqiqatdan ham onalarimiz biz uchun hatto jonidan ham kechadi, sog‘ligini o‘ylamaydi, nimaiki yaxshi narsa bo‘lsa bizga ravo ko‘radi, qahramon onalarimiz bizning qilgan kichik hadyamizdan quvonadi. Hikoyadagi ona hatto begona bolaning ham yig‘isiga befarq qarab turolmaydi. Shu bois yosh onaga dashnom-tanbeh beradi. Ona xiyonatni, xususan, “do‘stning do‘stga xiyonati”ni qattiq qoralaydi. Lekin shunda ham o‘g‘liga: “Bardoshli bo‘l, sen odamlarga xiyonat qilma”, — deb nasihat qiladi. Ona elga tanilgan yozuvchi bolasi bilan suratga tushmoqchi bo‘ladi. Bola esa vaqti ziq ekanini bahona qilib, suratga tushishni paysalga soladi va keyinchalik bu qilmishidan qattiq pushaymon bo‘ladi.

Qissada keltirilgan ***“Alla”*** hikoyasida qabristonda alla ovozini eshitgan qahramon beixtiyor bolaligini eslaydi. Bir tomondan alla, bir tomondan tilovat sadosi bir-biriga uyg‘un holatda qahramonni olis bolaligi tomon yetaklaydi. Bolaligida onasi ukasiga alla aytganini eslaydi va o‘shanda onamning ovozida mungmi, iltijomi bor edi deydi. Ushbu hikoyada to‘rt marta alla eslanadi. Birinchisi qabristonda go‘rkovning kelini, ikkinchisi bolaligida onasi ukasiga aytgan alla, uchinchisi qirg‘iz o‘tovida, to‘rtinchisi sibirlik juvon tilidan aytilgan alla. Qahramon har to‘rtala allani eslar ekan, garchi tilini tushunmasam ham yuragim bilan, qalbim bilan onaning allasi ekanini his qilib turardim deya aytadi. Muallif o‘zi ham dunyoni u chekkasida turib aytilgan sevgi izhorini, qo‘shiqni, oqilona fikrni dunyoning bu chekkasidagi odam tushunmasligi mumkin, ammo

“*dunyoning u chekkasida turib aytilgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi bola bemalol orom oladi*”, − deya iqrorga keladi.

“Dunyoning ishlari” qissasidagi eng ta’sirli hikoyalardan biri ***“Iltijo”*** hikoyasidir. Ushbu hikoyada qahramon onasining qadriga yeta olmagan, unga yetarlicha vaqt, mehr, e’tibor ajrata olmagan, armonda qolgan farzandning o‘tib ketgan onasining qabriga kelib qilgan armonlari, afsuslari, iqrorlari, iltijolari shu qadar ta’sirli qilib tasvirlanganki, har bir o‘quvchi yig‘lashdan o‘zini tutib tura olmaydi. Shu jihati bilan ham ahamiyatliki, bugungi kundagi yoshlarga, farzandlarga nisbatan bir ogohlikdek yangraydi. Aynan shu hikoya orqali butun qissa mohiyati ochiladi. Muallif o‘zi ta’kidlaganidek, “*bu qissani butun dunyodagi onalar o‘qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo‘lsayam, ularning hammasi Sizga o‘xshashini xohlayman…*” qissa markazida Ona obrazi turadi.

Yuqoridagiday misollarni “Dunyoning ishlari” qissasidan yana va yana keltirish mumkin. Chunki, qissadagi ***“Kitob”, “Mahallaning shayxi”, “Toy”, “Qanoat”, “Mening Acha xolam”, “Oltin baldoq”, “O‘ris bolaning oyisi”, “Iltijo”*** sarlavhali novellalarda ham ona hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar ta’sirli va qiziqarli qilib tasvirlangan. Adib rang-barang voqea va epizodlarni sinchkovlik bilan topib, ustalik bilan aks ettiradi. Ulardan katta hayotiy xulosalar chiqaradi. Binobarin, qissada inson va hayot haqidagi ibratli umumlashmalar, chuqur falsafiy fikrlar ko‘p. Bu fikrlar bevosita ona obraziga bog‘liq holda mahorat bilan tasvirlab beriladi. Bunda yozuvchi ruhiyat tasviri san’atidan, shuningdek, har bir detalni, har bir voqea va fikrni obrazli tarzda asoslash usulidan mohirona foydalangan.

Adib qissada kundalik hayot voqealarini, qishloq kishilarining mehnat-u tashvishlarini, xatti-harakatlarini, o‘zaro munosabatlarini ro‘yirost tasvirlab, turli qismat va taqdir sohiblari bo‘lgan odamlarning yorqin obrazlarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov, O‘. (2005). *Dunyoning ishlari: Qissa*. Toshkent. “Sharq” nashriyoti. 6-b.

2. Sarimsoqov, B. (2002). *Badiiylik asoslari va mezonlari*. Toshkent “Sharq” nashriyoti. 11-b

3. Ҳотамов, Н., Саримсоқов, Б. (1983). *Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати.* Тошкент. Ўқитувчи нашриёти. - Б.169.

4. www.ziyo.uz

5. www.ziyonet.uz

6. www.saviya.uz

ISAJON SULTON “ONAIZORIM” QISSASIDA ONA OBRAZINING O‘ZIGA XOS BADIIY JIHATLARI

Egamberdiyeva Ma’nora Baqojon qizi,
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)
mutaxassisligi 2- kurs magistranti

Annotatsiya. *Isajon Sulton zamonaviy o‘zbek adabiyotining taniqli yozuvchilaridan biri. Yozuvchining roman, qissa va hikoyalari o‘zbek kitobxonlari orasida munosib e’tirof etilganidan tashqari, adib nomi bir qancha chet davlatlariga tanish. Keyingi yillarda uning asarlari bir nechta tillarga ham tarjima qilindi. Ushbu maqola O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasidagi ona obrazi tahliliga bag‘ishlanadi. Qissadagi ona obrazining o‘ziga xos badiiy jihatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *onaizorim, qissa, obraz, ona, qalb, oila, Ra’no, ulug‘.*

Abstract. *Isajon Sultan is one of the famous writers of modern Uzbek literature. In addition to the fact that the writer's novels, short stories and short stories are well recognized among Uzbek readers, the name of the writer is known to several foreign countries. In the following years, his works were translated into several languages. This article is devoted to the analysis of the image of the mother in the story "Onaizorim" by the national writer of Uzbekistan Isajon Sultan. The unique artistic aspects of the image of the mother in the story are revealed.*

Keywords: *mother, story, image, mother, heart, family, Rano, great.*

Badiiy adabiyotda ona obrazini yaratishda asosan ayol va jamiyat o‘rtasidagi munosabatning ifodalanishi, onaning jamiyat orasida qanday tan olinishi va uning

jamiyatdagi nufuzi, oiladagi o‘rnini tahlil qilgan holda ona obrazining nasr va nazmda tasvirlanishi kuzatiladi. Har bir milliy, badiiy adabiyotda ona obrazini tasvirlashga keladigan bo‘lsak, u o‘sha xalqning tabiatiga, dunyoqarashiga zamon ruhiga mos tarzda aks ettirilganligini ko‘ramiz. Sharqda aynan o‘zbek adabiyotida ayol — ona, ayol — rafiqa timsollari orqali tasvirlangan asarlar ko‘p uchraydi. Bu bizning xalqimizda onaning asosiy vazifasi oila va oilada farzandlar parvarishi bilan bog‘liqligi ishora qiladi. Lekin zamonaviy adabiyotimizni ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, onaning vazifasi nafaqat oila, uy yumushlari bilan chegaralanib qolish, balki ona davlatning bir bo‘lagi sifatida ham tasvirlanish holatlari ham kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, bugungi kunda ayolning jamiyat bilan aloqasi kuchayib bormoqda va bu badiiy asarlarda o‘z aksini topmoqda.

Ona timsolini yaratish, uning samimiyatga yo‘g‘rilgan beg‘ubor qalb dunyosini ochib berish ijodkor uchun qanchalik murakkab bo‘lsa, shunchalik zavqli hamdir. Negaki, ona haqida so‘z ketganida, inson ongida dastlab o‘z onasi siymosi gavdalanadi, o‘zi anglar-anglamas darajada yaratayotgan ona obraziga o‘z onasini singdiradi. Shu jihatdan, badiiy adabiyotda ona haqida so‘z ketganida inson qalbi o‘z-o‘zidan sirli tuyg‘ularga oshno bo‘ladi.

Hozirgi kunda asarlarida ona timsoliga tez-tez murojaat qilgan adiblarimizdan biri Isajon Sultondir. Uning *“Jahon so‘z san’atida onalar vasfi, onalik sha’ni, ayol haq-huquqi va muammolariga bag‘ishlanib bitilgan, qadr topgan, asarlar oz emas. Isajon Sulton qissasi asl onaizorlikning shakllanishi va shakllantirilishidek og‘ir, zahmatli voqeya-ilohiy tadbir qonuniyatini islomiy tarzda, sobit milliy turmush tarzi va iymoniy ko‘rsatmalar asosida poetik tafakkur bilan ijod etilgan o‘ziga xos badiiy asar namunasidir. Isajon Sultonning “Onaizorim” asari mangu mavzuning yangi, eng ulug‘vor tomoni haqidaligi, adabiy-estetik yondashuvning mavjudligi bilangina emas, balki boshqa qator fazilatlariga ko‘ra ham bugungi o‘zbek nasrining ko‘rkam yangiligidir”*, – deb yozadi adabiyotshunos olim Tohir Shermurodov.

Darhaqiqat, Isajon Sulton ijodida yetakchi obrazlardan biri ona obrazidir. U boshqa adiblardan farqli o‘laroq ona obraziga prototip o‘laroq o‘z onasini tanlaydi. Bu esa asarlarini tabiiyligi va ta’sirchanligini yana oshiradi. O‘zining ona obrazi zamirida butun o‘zbek onalari portretini yaratishga harakat qiladi.

Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasi boshlanishidanoq ramziyligi bilan ajralib turadi. Hayotning muayyan asoslarini ishoratlovchi “Muqaddima” bor. *“Unda tog‘lar usti va bag‘ridagi, bepoyon kengliklardagi nabotot, mavjudotning bahorgi mavjlanishi, rizqlanishi, saqlanishi, shu muhit – borliqda havolarni almashtirayotgan, tabiatni jo‘shtirayotgan va ilhomlantirayotgan ikki unsur shamol ila suv harakati tasvir etiladi. Shamol va suv ne’matlarining hayotiy-ilohiy hikmatlarini his etishga da’vat qilayotgandek tuyiladi. Ayniqsa, shu ikkisining asar syujetidan keyin ham nasriy takrorlanishi, vaqti-vaqti bilan qatnashishlari badiiy voqelik rivojiga, qahramonlar ruhiyatiga o‘ziga xos ta’sirchanlik yaratgan”.*

Bahor faslining boshlanishi bilan aks ettirilishi go‘yo onaning tabiatiga xoslikni, harakteridagi o‘zgaruvchanlikni, uning go‘zalligi, tarovatini mujassamlashtirgandek holatni aks ettiradi. Bahor fasli tabiatga hayot baxsh etganidek, ona ham bu hayotning o‘chmas quyoshi singari qissa markazida nur taratib turadi. Bahor tabiatning yangilanishida, qayta uyg‘onishida vosita bo‘lib xizmat qilsa. Ona farzandlari, oila, jamiyat uchun bahor vazifasini o‘taydi go‘yo. Muqaddimada ikki unsur shamol va suvning ham ahamiyati katta. Olim Abdug‘afur Rasulov asardagi shu holatni quyidagicha izohlaydi: *“Shamol – o‘zgarishlar timsoli”. U taqdirlarni ham o‘zgartirishi mumkin, - deydi Isajon. “Ma’no dashtlaridan ilgarilab borganing sayin kutilmagan hodisalarga duch kela boshlaysan”, deydi shamol”* (Isajon Sulton, 2017, 33-bet).

Shamol ulug‘ donishmand, maslahatgo‘y, do‘st sifatida gavdalanadi. Har bir obraz badiiy asar g‘oyasi yo‘lida xizmat qiladi, asar mohiyatini ochib berish uchun qo‘llaniladi. Bu haqda adibning o‘zi quyidagicha izoh beradi: *“Men ulg‘aygan diyorlarda shamol juda qattiq esadi. Daraxtlarni sindirib, tomlarni uchirib ketadi. Aqlim to‘lishgani sayin, olamda undan ham kuchli shamollar borligidan xabar topdim.*

*Masalan, fikrlarni uchirib ketadigan tafakkur shamoli, hislarni uyg‘otadigan muhabbat shamoli… Shamolning vazifasi bitta: havolarni yangilaydi, barakat va rahmat bulutlarini surib keladi, shuning barobarida dov-daraxtni ham changlab, eski yaproqlarni to‘playdi. Biroq, kezi kelganida vaqt shamoliga ham aylanadi, sochlarimizdan tortqilab yulqilab o‘tmish onlaridan va tushunarsiz kelajakdan darak ham beradi” (*Isajon Sulton, 2017, 259-bet). Shamol, suv, bulut, yomg‘ir kabi tabiat unsurlari muhim o‘rin tutadi va muallifga qahramonlar holatini, ichki olamini, muhit hamda vaziyatni yanada ishonarli ifodalashiga xizmat qiladi. Inson bilan hamisha yonma-yon yuradigan ona tabiatning bu ajoyib hodisalari yozuvchi asarlarida goh detal, goh obraz sifatida namoyon bo‘lib, zarur paytda o‘z sohibi bilan suhbatlashadi, unga ko‘maklashadi, niyatiga yetishiga yordam beradi”.

“Onaizorim” qissani o‘qish jaroyonida yozuvchining mahorati o‘laroq, go‘yoki u bilan gaplashayotganday bo‘lasiz. Xuddi o‘z bolaligingiz, yoshligingiz, o‘z xotiralaringiz ichida, buguningiz atrofingizdagi voqea-hodisalar ichida sayr qilayotganday bo‘ladi inson. Undagi har bir voqea, joy tanish tuyiladi. Hovli adog‘idan oqib o‘tgan sevimli ariqcha, guvalak devor ustiga qo‘nib olgan ninachi, tomarqa adog‘idagi teraklar, etakdagi tandir, barq urib yotgan rayhonlar, oppoq bo‘lib gullagan pechaklar, tomorqada teshasini ko‘tarib yurgan huv anavi ayol, ko‘chaga suv sepib supurayotgan kelinchak, daladagi o‘sha belanchakda yig‘layotgan chaqaloq, yuragingizni bir chetida qolgan manzaralar hamma-hammasi qadrdon. Qissadagi bosh qahramon jajjigina qizaloq Ra’no bilan o‘zingiz ham beg‘ubor bolalik onlarini his etasiz, ulg‘ayasiz, qariysiz. O‘tmish, bugun va kelajak ko‘z oldingizga keladi. Ra’noning o‘yinqaroq qizaloqligidan, ota uyidan yor-yor bilan kelinchak bo‘lib chiqib ketishi-yu, onalikning shirin tashvishlari boshiga tushib o‘zining onasini eslab qadrlay boshlash jarayonlari va asar so‘ngida keksa Ra’noning o‘y-xayollari o‘quvchining qalbini junbishga keltiradi. Yozuvchi asar orqali bir o‘zbek qizining onalik,ayolik baxtini, ibratli umr yo‘lini yoritib, kitobxon qalbiga muxrlab qo‘ya oldi

Ra’noning yoshligidanoq atrofdagi hodisalarga e’tiborli ekanligi, farosat bilan har bir yumushni qiziqish bilan o‘rganishi, mehribon qiz bo‘lib ulg‘ayishida

onasining o‘rni beqiyosdir. Yosh qizaloqning ruhiyatini ochib berishda xalq o‘yinlari, qo‘shiqlarining o‘rni beqiyosdir. Asarda qo‘shni qiz Xosiyat bilan o‘yinlarida xuddi kattalardek o‘zini tutishlari kitobxonni bolalik davrlariga boshlab ketadi.

Yumushlardan bo‘shaganlarida birgalashib o‘ynashadi. Kichkinaliklarida qum o‘ynashardi. Keyinroq cho‘pga bir bo‘lak matoni ip bilan o‘rab-chirmab, ayol shaklini berib, “mehmon-mehmon” o‘ynaydigan bo‘lishdi. Bu o‘yinning xususiyati shundaki, goh unisinikiga, goh bunisinikiga “mehmon” kelib qoladi. Qizaloqlar mehmonni kutib olishib, to‘shak solib o‘tirg‘izishib hol-ahvol so‘rashishadi, keyin bir chekkaga qozon-o‘choq osib, ovqat pishirishib, dasturxonga taom ham tortishadi. Keyin qizaloqlardan birini yo onasi chaqirib qoladi, yo o‘zi:

“– Voy o‘lay, gaplashib o‘tiraverganimni qarang, ishlarim qolib ketyapti-ku, boraqolay, – deya uyiga “jo‘naydi”. Ajab, bu besh-olti yashar bu qizginalarning “bolalari” ham bor, ularni o‘zlaricha koyib-urishishadi:

– Bola bo‘lmay qol, muncha meni kuydirasan? Buyurgan ishlarimni qilmabsan-ku?

–Xosi, bolalaring nechta?

–To‘rtta. Seniki-chi?

–Menikiyam to‘rtta. Yo‘q, beshta ekan!”

Qishloq qizginalarining o‘yinlaridan yana nimalarni aytsa bo‘ladi? Bahorda birinchi bo‘lib tol och-yashil tusda kurtak yozadi. Tol po‘stlog‘i mo‘rt, yengil burab turib, ichidagi oqish chivig‘ini chiqazib tashlab, popukli qismini sochlariga qo‘shib o‘rib olishadi, buni tolpopuk, deydilar. Yashil tolpopuklar chiroyli ko‘rinadi-da.

O‘ynaganlarida qo‘shiqlar ham aytadilar:

Chumoli chumoli-ya,

Mayda chumoli-ya,

Chumolini uyasi,[7]

Doshqozonni kuyasi,

Alli qiz, balli qiz,

Chiqaqolsin Ra'no qiz…

Asarda milliy-ma'naviy merosimiz namunalarining folklorga oid poetik vazifalari ochib berilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalarining qo'llanishi alohida badiiy xususiyat kasb etadi. Xalq o'yinlari orqali ulg'ayayotgan jajji Ra'no milliy urf-odatlar, qadriyatlarimizning oiladagi o'rni qanday ekanligini o'zi bilmagan holda bola qalbiga singdirib boryapti. O'zbek xalqining mehmondo'stligi: mehmon kelganida bor-budini dasturxonga to'kib-sochishi, mehmon kelganida mezbonning hurmat bilan uni kutib olishi, izzat-ehtirom ko'rsatishi, tavoze' bilan kuzatishi Ra'noning tarbiyasida katta mohiyat kasb etadi. Ra'no bularning hammasini uyda onasidan o'rganar, uni aytganlarini qilishga harakat qilib, o'yin jarayonida bularni "katta ona" bo'lib qo'llab ko'rardi. O'yin davomida xalq qo'shiqlaridan ham aytishadi. Bu qo'shiqlar qizaloqlarning hayoti davomida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning milliy tarbiya topishlarida ko'makchi vazifasini o'taydi.

Qissada ota va qiz munosabatiga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbek oilasida qiz va ota o'rtasida mehr, qizning otasi bilan qanday gaplashishi, unga qanday murojaat qilish, otaning ko'ziga tik boqmaslik milliy tarbiya chiroyli ochib berilgan.

Ona qiziga har narsaning o'z odobi borligini qunt bilan o'rgatib boradi. Choy damlashdan tortib dasturxonga non tortishgacha har bitta kichik element ham nazardan chetta qolmasligi kerak. Chunki qiz bolaning tarbiyasi ota-onaning yuzidir.

"Choy damlashniyam o'z usullari bor, choynak ichi oppoq bo'lishi kerak, qaynoq suv bilan chayib tashlab, keyin quruq choy solasan. Albatta, dam yedirasan. Dasturxonda fotihadan oldin o'tkir narsa turmasin. O'tkir narsa duoni kesadi deganlari yolg'on, aslida tig'iga dam berilgani yoki go'sht kesilgani uchun olib qo'y deyiladi. Hamma duo qilgach, turib kosa-tovoqlarni yig'ishtirasan, keyin dasturxonni "Savobini dunyodan o'tganlarga bag'ishladim" deb qoqasan" (Isajon Sulton, 2014, 233-bet).

Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, yozuvchi duoning oiladagi, hayotimizdagi, farzandlar tarbiyasidagi ahamiyatini ham kichik detallar orqali

kiritib o‘tgan. Duo qilish jiddiy masala. Duo qilgan inson chin dildan duo qilishini, duo qilganda o‘tganlar eslanib, yaxshiliklar so‘ralishi, porloq kelajakka umid qilinishi yosh bola tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Ra’no ana shunday o‘zbekona oilada milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o‘rganib katta bo‘layotgan haqiqiy o‘zbek onasining timsolidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu asar o‘z mohiyatidan kelib chiqqan holda, o‘z uslubiga, badiiyat boyligiga ega qissadir. Adibning ushbu asarida bosh qahramon orqali o‘zbek xalqining jonkuyar, fidoiy, mehribon,oqila onasining butun bir hayotini yoritib, kitobxonlar qalbiga yetkaza oldi.Shu jihatdan mazkur asar badiiy va g‘oyaviy jihatdan ancha pishiq, mazmundor asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sulton, I. (2017). *Isajon Sulton nasri badiiyati* (Ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar). Toshkent: Turon zamin ziyo.
2. Sulton, I. (2014). *Onaizorim qissa*. Toshkent: Sharq.
3. Shermurodov, T. (2017). *Mangu onaizor talqini. Yetuklik jozibasi*. Toshkent: Turon zamin ziyo.

XURSHID DO‘STMUHAMMAD HIKOYALARIDA G‘OYA VA MAVZU

Ergasheva Muqaddas Alisher qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 4-kurs talabasi
@alisherovamuqaddas.gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammadning “Kiova quyoshi”, “Qazo bo‘lgan namoz”, “Saf” nomli hikoyalaridagi g‘oya va mavzu ochib berilgan. Xurshid Do‘stmuhammadning g‘oya tanlash mahorati hamda uning badiiy ijodi aks etgan hikoyalar taqqoslab o‘rganilgan. Mazkur hikoyalarning mavzu jihatini ijodkor o‘z tabiatidan olib yaratgan. Yozuvchi ijodida so‘zlarning qisqa va o‘z o‘rnida ifodalanganligi kitobxonni jalb etadi. Hikoyalarda g‘oya va mavzuga nisbatan falsafiylik mavjud. Har bir hikoyaning ichida bir ma‘no yashiringan. Bu asarlarda kitobxon o‘zi uchun turli ma‘nolarni kashf etadi. G‘oya va mavzu ham ramziylikka yo‘g‘rilgan. Sarlavhalar ham ramziy tanlangan.*

Kalit so‘zlar: *Badiiy g‘oya, mavzu tushunchasi, “saf” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi, ruhiy psixologizm, badiiy mahorat, ramziylik.*

Abstract: *In this article, the idea and theme of the stories of the writer Khurshid Dostmuhammad, "Sun of Kiova", "Prayer of the Accident", "Saf" are revealed. Khurshid Dostmuhammad‘s skill of choosing ideas and stories reflecting his artistic creativity are studied by comparison. The theme of these stories is based on its nature. The short expression of words attracts the reader. The stories are philosophical about ideas and themes. Each story has a hidden meaning. The reader discovers different meanings for himself. The artist has hidden symbolic meaning in the stories presented in the article. The idea and theme are also symbolic. The titles are also chosen symbolically.*

Keywords: *Artistic idea, the concept of the theme, the dictionary meaning of the word "row", mental psychology, artistic skill, symbolism.*

Adabiyotda bir-biriga o‘xshash, bir-birini to‘ldirib turadigan ijodkorlarni istagancha uchratish mumkin. Hech kimga o‘xshamaydigan, hatto hech kimni eslatmaydigan adiblar esa barmoq bilan sanarli bo‘ladi. O‘zbek adabiyoti o‘tmishida ham, bugunida ham bunday so‘z ustalari, ta‘bir joiz bo‘lsa, so‘z zargarlari bor. Xurshid Do‘stmuhammad ana shunday dunyo so‘z ustalari bilan bo‘ylashadigan adiblarimizdan. 2021-yilda adibning to‘rt jildlik saylanmasi “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan nashr etildi. Saylanmaning birinchi kitobi **“Hikoya”**, ikkinchisi **“Qissa”**, uchinchisi **“Roman”**, to‘rtinchisi **“Izhor”** deb nomlanadi.

“Hikoya” qismiga adabiyotshunos Bahodir Karim samimiy so‘zboshi yozgan. *“Adibning hikoyalar kitobi xususida taassurotlar yozib, ba‘zilariga baho bermoqchiman; niyatim – o‘quvchida qiziqish va rag‘bat uyg‘otish. Aslida tiyrak – teran nazarli kitobxon ham, adibning o‘zi ham o‘ngso‘zimga muhtoj emas. Chunki Xurshid akaning yangi asarlari adabiy jarayonni jiddiy kuzatib borayotgan o‘quvchilar tomonidan ko‘pincha juda iliq kutib olinadi, muhokamalar qilinadi. Qolaversa, har bir ijodkor o‘z asarlari qadr-qiymatini, maqomini, bahosi va umrini o‘zi yaxshi biladi. Inchunin Xurshid Do‘stmuhammad hikoyachilik bobida*

maxsus tadqiqot yozib, ilmiy darajaga ega adabiyotshunos hamdir…" – deb yozgandi munaqqid (Xurshid Do‘stmuhammad, 2021, 3-bet). Ta‘kidlash joizki, Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalari oson o‘qilmaydi. O‘quvchi adib nima demoqchi bo‘lganini mulohaza qilishi, fikr chig‘irig‘idan o‘tkazishiga to‘g‘ri keladi. Aslida adabiyotning bosh maqsadi ham shu. Haqiqiy ijodkor kitobxonni adabiyotning sehrli olamiga boshlab kirishi kerak.

Ikkinchi kitob – ***"Qissa"***dan adibning qator asarlari joy olgan. O‘quvchilar, ehtimol, qachonlardir bu asarlar bilan yuzma-yuz kelgan bo‘lishi mumkin. Adib bu asalarini o‘quvchilariga hisobot sifatida taqdim etadi. Bir muhim jihati, Xurshid Do‘stmuhammad qissalarining bosh qahramoni, bu adibning o‘zi. U bu qissalarda o‘zining Olam va Odam to‘g‘risidagi iztirobli o‘ylarini, inson fe‘l-atvoridagi jumboqlarni, kezi kelsa, oddiy insoniy munosabatlar nechog‘li murakkabligini chiroyli usullarda ifodalay olgan. Xurshid Do‘stmuhammad qissalarining yana bir o‘ziga xos jihati, o‘zi bilan kurashib, ich-ichdan iztirob chekayotgan, o‘zining xatti-harakatlari, holatini anglay olmay ikkilanayotgan, tevarak-atrofidagilarning xulqi, fe’l-atvoridagi, o‘zaro munosabatlardagi murakkabliklar to‘g‘risida o‘ylab o‘rtanayotgan odamlar olami ham juda ishonchli tarzda ko‘rsatiladi.

Adibning hikoya, qissalari qatori romanlari ham adabiyotimizga o‘ziga xos bir yangicha havo olib kirgan. Bundan yigirma yillar burun chop etilgan *"Bozor"* romanida Xurshid Do‘stmuhammad inson fe‘l-atvorini, orzu havaslari-yu qismatini keng ma’nodagi bozor maydonida ko‘rsatishga, tasvirlashga harakat qilgan va bu adabiyot ixlosmandlari tahsiniga sazovor bo‘lgan edi. Ikkinchi romani *"Donishmand Sizif"*da adib voqealar tizimini olis va ko‘hna yunon xalq afsonasidan olgan bo‘lsa-da, unga o‘zbekona tafakkur libosi bilan ko‘rk bag‘ishlay olgan. *"O‘yin"* romani esa deyarli yangi, bamisoli tandirdan uzilgan nondek. U ham o‘ziga xos. Adib bu asari orqali tabarruk yoshdan bolalikka qaytadi, bolalikning betakror va suronli onlarini o‘quvchiga taqdim etadi.

Ijodkorning roman va qissalari singari hikoyalari ham sirli ma’noga ega. Xurshid Do‘stmuhammad o‘z hikoyalarida asosan ramziylikka urg‘u beradi. O‘qirman mavzuni ham, g‘oyani ham o‘zi talqin etadi. Hikoyaning xulosasi esa har

kimning o‘ziga havola etilgan. Ba’zi hikoyalarida ijtimoiy masala ilgari surilgan bo‘lsa, ayrimlarida inson ichki kechinmalari, inson obrazining badiiy talqini yuzaga chiqarilgan. O‘ylashimizcha, har bir o‘qirman undan o‘ziga kerakli xulosani topa oladi.

Xurshid Do‘stmuhammadnig *“Kiova quyoshi”* deb nomlangan hikoyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu hikoyada bir qabilaning hayoti, burch va e’tiqodi tasvirlangan. Asarda bola otasining o‘limiga sababchi bo‘lgan bizondan o‘ch olmoqchi bo‘ladi. Keksa chol ko‘pni ko‘rgan, qabilaning tarixi va e‘tiqodidan xabardor bo‘lgan qabilaning yoshi katta a’zosi hisoblanadi. U hamma narsani biladi, u qabiladoshlariga doimo yo‘lboshlovchi, maslahatchi. Keksa bobo bizonlarning ular hayoti uchun muhimligini bilardi, chunki u bizonlar qirilib ketsa, ularning hayotlarida ocharchilik, yo‘qchilik boshlanib ketishini anglab yetgan edi. Shuning uchun ham nevarasining so‘nggi bizonni o‘ldirib o‘ch olishiga qarshilik qilayotgan edi. Kiova qabilasining keksa a‘zosi hisoblangan Sinteyyutning bobosi qabilalari va bizonlar haqida qabiladoshlariga so‘zlab beradi: “*Bir zamonlar yer yuzida odam zoti bo‘lmagan davrda Ulug‘ ruh daryo yoqasiga uchlari osmonga taqalgan Buyuk yo‘l daraxtini o‘tkazgan. Barcha jonzot bu tuproqqa o‘sha daraxt shoxlaridan tushgan. Ular orasida erkak va ayol kiova ham bo‘lgan. Er-ayol kun bo‘yi yurib quyosh botayotgan pallada daraxtga yetishgan, yetishgan-u u yerda bir qancha bizonlarni ko‘rishgan. Shu payt bulutlar orasidan Ulug‘ ruh tushib kelgan-da, er-ayolga xitob qilgan: “Mana shu bizonlarni berdim. Sizlarni to‘ydiradigan ham, kiyintiradigan ham mana shular. Lekin unutmanglarki, yer yuzida bizon zoti bitsa – kiova quyoshining so‘ngani shu*!” (Xurshid Do‘stmuhammad, 2021, 170-bet). Kiova qabilasining quyoshi bizonlar ekan, qabiladagi kishilar buni anglab yetmaydilar, ularning birdan-bir niyati bizonlarni qirib tashlashdir, lekin bilishmaydiki, o‘zlarining hayotlari ular bilan bog‘liqligini. Bu hikoyada odamlar tomonidan bizonlarning qirilib ketishi xuddiki, insonlar orasida insoniylikning yo‘qolib ketishiga o‘xshaydi. Insonlar o‘zlarining nafsi, insofsiz va vijdonsizligi tufayli o‘z rizqlarini yo‘qotadilar. Kiova qabilasining katta yoshli a’zosi, ya‘ni Sinteyyutning bobosi e’tiqodli inson sifatida gavdalanadi. Chunki u qabilasining

kelajagini o‘ylab bizonlar qirilib ketishiga qarshilik ko‘rsatadi. Kiova qabilasining dushmani bizonlar emas, balki oq tanli kishilar edi. Lekin qabiladagilar buni anglab yetishmayotgandi. Sinteyyut bobosining aytganlarini tushunadi, bu unga ta’sir qiladi, ammo ular ovga chiqishganida buni kech ekanligini anglab yetadi. Ularni qaytarishni iloji yo‘q edi. Ovga chiqqan kiova qabilasi a’zolari bizonlar yurgan joyga yetib boradilar va u yerda ko‘p bizonlarni ko‘radilar. Bizonlarning boshlig‘i ham bo‘lib, uni odamlar Qari Logan deb atashar edi. Hikoya yakunida hamma bizonlar o‘ldirilar ekan, oxirgi bizon Loganga ham bir necha bor o‘q uzadilar. Sinteyyutning qarshiligiga qaramay, fermer qabiladoshi oxirgi bizonni ham o‘ldiradi. Qari Logan yerga yiqilar ekan, u Sinteyyutning ko‘ziga dam bizon, dam otasi bo‘lib ko‘rinadi. Shu bilan kiova qabilasining quyoshi so‘nadi. Yozuvchi ushbu hikoyada insonlardagi insof tuyg‘usini aks ettirishga harakat qilgan deb o‘ylaymiz, chunki kiova qabilasidagi ovga chiqqanlar o‘zlarining insofsizligi tufayli qabilasining kelajak rizqini bir zumda yo‘q qiladilar. Shu kungacha qabilalarni ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlab kelayotgan bizonlar butkul tamom bo‘ladi. Hikoya zamirida yana shu narsa yotadiki, insonlar o‘z nafslari bilan o‘zlarining kelajaklarini ham barbod etishga qodirdirlar. Hozirgi kunda insonlar orasida insoniylik tuyg‘ularining yo‘qolib borishini ham hikoyadagi bizonlarga qiyoslasak bo‘ladi. Hikoyaga xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Xurshid Do‘stmuhammadning “Kiova quyoshi” hikoyasi boshqa hikoyalaridan e‘tiqod masalasi ustunligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining asarlaridagi voqealar kitobxonlar e’tiborini tortgani kabi ushbu hikoyasi ham voqealar rivoji va qahramonlar holati orqali o‘quvchilar qalbidan joy egallagan.

Xurshid Do‘stmuhammadning hikoyalar to‘plamidan o‘rin olgan *“Qazo bo‘lgan namoz”* nomli hikoyasi ham kitobxonni befarq qoldirmaydi. Moziyga qaytib deb boshlangan ushbu hikoya beixtiyor jadid adabiyoti vakillarini yodimizga soladi. Hikoya bosh qahramoni Mirkomil haq gapining ortidan o‘lim jazosiga hukm etiladi. Mirkomil o‘z gapidan hadiksiramaydi, aksincha unga berilgan qochib ketish takliflarini ham rad qiladi. *“Komiljon aka, shoshiling, qochishdan bo‘lak chora qolmadi! - dedi. - Tinchlikmi? - bamaylixotir so‘radi*

Mirkomil. - Ertaminan sizni hibsga olishga buyruq bor. Bolshoylarning niyati buzildi. - Niyati buzilsa menga nima? Mening niyatim buzuq emas-ku! Hibsga necha qayta oldi yana chiqib kelaveraman-da!" (Xurshid Do‘stmuhammad, 2021, 15-bet) mana shu suhbatni o‘zida Mirkomilning o‘z gapirgan gapi uchun qo‘rqmasligi, to‘g‘ri gapirgani, shu bilan birga niyatida zarracha yomonlik yo‘qligi namoyon bo‘lgan. Mirkomil bolsheviklar qo‘lida ezilgan xalq, noo‘rin o‘lim jazosiga hukm qilingan insonlar, qadr-qimmat, ilm-ma’rifat tarqatish yo‘lida qatl etilgan jadidlar timsolidir. Hikoyaga tanlangan nom ham, bizningcha, ramziylikka ega. "Qazo bo‘lgan namoz" – bu nom bolsheviklar davrida toptalgan dinimizga ishora. Asarda ateizm ilgari surilib, e’tiqodimiz yerga urilganligi, inson qadri eng quyi pog‘onaga qo‘yilganligi haqidagi hikoya qilinadi. Mo‘jaz bu hikoyaga tanlangan g‘oya va mavzu o‘qirmanni qiziqtiradi. Biz erkin va mustaqil zaminda yashayapmiz. E’tiqodimiz ham, dinimiz ham biz bilan birga; bu mavzudagi hikoyalarni o‘qib inson o‘sha davrni bevosita tasavvur qiladi. Hatto namoz o‘qish huquqi berilmagan bir davrni ko‘z oldiga keltirib qo‘rqinch his etadi. Haq so‘zni aytgani uchun qatlga mahkum bo‘lgan ziyolilarga achinadi. Bugungi kuniga shukr qiladi. Bizni shunday yashashimiz, ilmli bo‘lmog‘imiz uchun jonini fido qilgan ma‘rifatparvarlarimizga nisbatan faxr tuyg‘usini tuyadi. "Qazo bo‘lgan namoz"ni chin ma’noda tarixiy hikoyalarda ijtimoiy masalaga urg‘u berilgan bir hikoya o‘laroq qabul etsak bo‘ladi. Negaki, zamon nuqtayi nazaridan insonning ijtimoiy holati bilan bog‘liq g‘oya ilgari surilgan. Ijtimoiy masala – bu, albatta, inson va uning atrofida sodir bo‘layotgan hodisalarga tegishlidir. Jamiyat esa insonning bir bo‘lagidir. Bu hikoyada ham ijtimoiy hodisaga urg‘u berilgan. Insonlar o‘z erki, huquqlarini himoya qilish yo‘lida nohaq aziyat chekayotganligi g‘oyasi mavjud. Mana shu jamiyatni boshqarayotgan insonlar insoniylikdan yiroqlashib ketganligi ko‘rsatilgan. Haqni haq holida emas, balki o‘z manfaati yo‘lida Mirkomil kabi ko‘plab begunoh insonlarning hayotiga zomin bo‘lgan. Namozni qazo qilib o‘qish savobni kamayishiga sabab bo‘ladi, bu dinimizda belgilab qo‘yilgan. Ammo qazo namozni ham o‘qish shart. E‘tiborli jihati, Mirkomilning endi qazo namozini o‘qiyolmasligi. Bunda insonlar rus tuzumi davrida namozlarini berkinib o‘qishi,

namoz qat'iyan ma'n etilaverganidan oxir-oqibat o'qimay qo'yishlari va ko'ngilning kirlanib borib bora-bora e'tiqodlarini unutishlari g'oyasi ham mavjud. Ijtimoiy holat shu darajada og'ir bo'lganki, bemalol ibodat qilish, inson o'zini huzurda his etishi ham taqiqlab qo'yilgan. O'z manfaatlari yo'lida foydalanishgan, erklarini yo'qqa chiqarishgan, xalqimiz og'ir kunlarni boshidan kechirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Agar bir millatni yo'qotmoq istasalar, albatta, e'tiqodi bilan sinaydilar. E'tiqodi toptalgan xalq o'zini ham, jamiyatini ham yo'qotadi. Buni yaxshi tushungan, anglagan insonlarni ham shu sababdan yo'q qilishgan, jamiyatni uyg'otmasin, xalq o'zligini yo'qotsin degan qarashlarni ilgari surishgan. Chunki jamiyatning insonlari qaysi davrda bo'lishidan qat'i nazar birlashsa, har qanday kuchni yengish imkoni doim bo'lgan. Haq so'zni so'zlagan, ziyoli qatlamdan shuning uchun ham doim qo'rqishgan.

Xurshid Do'stmuhammadning hikoyalar to'plamidan o'rin olgan *"Saf"* nomli hikoyasi misolida ham g'oya va mavzuni tahlil qilamiz. **Saf** (arab. - *qator, sira*) - harbiy bo'linma va qismlarning birgalikda harakat qilishi uchun muayyan tartibda joylashuvi. Quldorlik tuzumining vujudga kelishi turli qo'shin qismlarini ma'lum tartibga solish, saf tuzishni taqozo etgan. Yaqin Sharq, Yunoniston, Qadimgi Rim va Karfagenda qurol-yarog'larning va harbiy ishning takomillashuvi, jang aravalarining paydo bo'lishi jangovar safga alohida diqqat qilishga zamin yaratgan. Turkiy xalqlar tomonidan jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib otliq askarlar safning joriy qilinishi suvoriy qo'shinining dushman kuchlari ustidan to'la ustunligini ta'minlagan (O'zME, 1-jild, 2000-yil, 111-bet). Saf atamasi shunday ma'noni anglatadi. Ijodkor safni hayot misolida ko'rib chiqadi. "*Raim chol qariyb 50 yildan beri oshga chiqadi. Bu qishloqda bir an'ana bor ediki, yoshi ulug' inson doim hammani oshga taklif qilib, qishloq ahlini yig'ib oshga olib borardi. Bir necha yildan beri bu safga rioya qilib kelinmoqda edi. Har gal oshga chiqarkan otasining unga aytgan gaplari yodiga tushadi: "O'g'lim, endi sen ham mahalla-ko'yga aralash. Men bir kun sog' bo'lsam, ikki kun nosog'man. Eshigimizdan labbay deb chiqadigan erkak sensan" degan edi. U dastlab oshga chiqqan kezlari keksa-yu yosh, qo'ni-qo'shni bilan salomlashar, ularga ergashar, ya'ni safning*

eng oxirida qo‘l qovushtirib boraverardi. Biron yilgacha shunday bo‘ldi, ikki uy naridagi qo‘shnining o‘g‘li ham oshga chiqa boshladi-yu Raim oxiridan ikkinchi bo‘ldi. Shunda u birdan ulg‘ayib qolgandek tuyildi. Yillar o‘tdi, uning ortidan saflanuvchilar soni ko‘paydi. Juda o‘rtada bo‘lmasa-da, har holda shunga yaqinroq joy endi uniki edi. O‘zgalar izzatidan manmansirash garchi tabiatiga yot bo‘lsa-da, ba’zan oshga chiqadigan yoshlar ko‘payganiga odam uchun hurmat-ehtirom ham zarur ekan degan xulosaga boribmi, o‘ziga yo‘l bo‘shatadiganlar seroblashayotganiga ich-ichidan mamnun bo‘lib qo‘yardi. Raim to‘y-marakalarga aralasha boshlaganda Orif bobo bandalikni bajo keltirdi. Qatorni boshqarish Mahkam buvaga qoldi. U uzoq yashadi, chamasi, yuzni qoraladi, saf uzaysa uzaydiki, qisqarmadi. Birdan Mahkam buva so‘ng Husan tog‘a omonatlarini topshirdilar. Shu tarzda saf egalari o‘zgara boshladi. Raim chol safning oxirini hayotning boshlanishiga, qatorning boshini ularning intihosiga, binobarin, safni hayotning o‘ziga qiyosladi. Raim cholning “manzili” safning o‘rtalariga siljib qolgan kezlari xayoliga g‘alati bir fikr keldi. Razm solsa, aftidan bir-biriga sertakalluf ko‘ringan ayrim qo‘shnilar orasida zimdan adovat ham bor, safda yoshiga qaramay ikki-uch, jilla qursa, bir kishidan avval turishga-safning oldinrog‘ida bo‘lishga intiluvchilar yo‘q emas. Undaylar goh parishonxotirlik qilib, goho ko‘ra-bila turib, o‘zidan ko‘ra yoshi ulug‘roqlarni oldiga tushib ketaveradi. To‘yxona ham azaxona ham gavjum joy tanish notanish, do‘st-dushman bor. Shularning ko‘z o‘ngida saf oxirida sudralib kelish unday kimsalar uchun uyat, tahqir. Ammo safning oltin qoidalarini pisand qilmay, Raim cholni ortda qoldirib ketganlar ham bo‘ldi. G‘ulom ota Raim cholni yolg‘iz qoldirib safni buzib ketdi. Raim cholning xayollari chalkashdi, bo‘lar-bo‘lmasga zorlanib, xastaligidan noliganida G‘ulom otaning beozorgina jerkib tashlashini esladi: “E-e, qanaqa odamsiz, Raim aka! Dunyoga keldingizmi, miriqib yashayvering! Tirikchilikdan qolmang. Paymonamiz to‘lib safar xaltangni ko‘tar, deb kelib qolsa, oldiga tushib jo‘nayveramiz-da. Shuyam bosh qotiradigan narsa bo‘ldi-yu…” (Xurshid Do‘stmuhammad, 2021, 89-bet) Ijodkor bu hikoyasi orqali hayotni bir safga qiyos etadi. Insonlarning oshga chiqish hodisasida ham bir ramziylik mavjud.

Osh – to‘y yoki aza uchun yoziladigan dasturxon. Demak hayotimiz ham yaxshi va yomon kunlardan iboratligiga bir ishoradir. Raim cholning otasi ham elga qo‘shish maqsadida farzandini oshga chiqishini aytadi. Ota-onamiz hayot qiyinchiliklarini, lazzatini bizga tanituvchi insonlardir. Raim chol bu dunyo hayotini yaxshi ko‘radigan, safni o‘ziga kelayotganini his qilayotgan inson edi. Chunki inson bu dunyoga kelishi safning boshlanish hodisasi bo‘lsa umrboqiy hayotga ketishi xotimasidir. Chinakam ma‘noda bu hayotda hamma narsada uzviy bir tartib bor: tug‘ilish-o‘lish, xursandchilik-qiyinchilik, boylik-kambag‘allik; bu hayot zidlik evaziga qurilgan. Inson bu dunyodan ketishini his qilar ekan, o‘zidan yaxshi nom qoldirmoqni, insonlar uni eslaganda yorqin xotiralar ila eslashini chin dildan istaydi. Raim cholda ham, G‘ulom otada ham aynan shunday. Bu hayot bizni safga tizgan safga munosib harakat qilishimiz lozim. Hikoyada insonlarni safda oldinda bo‘lishga urinishlari keltirilgan. Bir o‘ylab ko‘raylik, haqiqatdan ham biz doim shoshamiz, kichikligimizda katta bo‘lishga, maktabda unversitetga kirishga, so‘ng oila qurishga, farzandli bo‘lishga, undan keyin nevara-evara, shu tarzda qanday qilib keksayganimizni ham bilmay qolamiz. G‘ulom ota aytganidek, dunyo tashvishlari uchun o‘zimizni qiynab, umrimiz o‘tganini ham sezmay qolamiz. Safning oldida turaman, birinchi bo‘laman deb umrimizning so‘ngi bilan yuzlashish oni yetganini ham sezmay qolamiz. Saf biz istasak-da-istamasak-da, o‘z bilganicha harakat qilaveradi, uni doim amal qilinuvchi ma‘lum bir qoidasi yo‘q, hamma o‘ziga atalgan hayot “saf”ida umrini o‘tkazadi. Eng e‘tiborli jihati, hech kimning “saf”i boshqa birovnikiga o‘xshamaydi. Hikoyaning so‘nggida ham Raim chol hassasiga iyagini tiragancha o‘tayotgan safning old-o‘rtasi va oxirinini kuzatar, turfa xil yoshdagi odamlarni muqoyasa qilar, ular orasida yoshi ulug‘roqlarini bosib o‘tib, oldinroqdan joy olishga intilayotganlar ham borligini sezib, miyig‘ida horg‘in jilmayib qo‘yardi. Umrimiz davomida bosib o‘tgan yo‘limiz ham aslida sarlavhadek “Saf”dir. Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida turli toifa kishilarni qahramon darajasiga ko‘tarila olganini ko‘rishimiz mumkin. *“Har bir ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bosqichida o‘z millati, vatani manfaatlarini yoqlagan va kurashgan shaxslarning fe’li-faoliyatiga ko‘ra, ezgulik, adolat,*

go‘zallik singari bashariy qadriyatlarga munosabati, nuqtayi nazarga ko‘ra milliyligi namoyon bo‘ladi” (Xurshid Do‘stmuhammad, 2021, 90-bet). Ayrim o‘rinlarda har bir obraz o‘z muhiti, o‘z sohasi uchun va shuningdek, kitobxon uchun ham haqiqiy qahramonligicha qoladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda Xurshid Do‘stmuhammad o‘zi yaratgan obrazlarning ruhiyatini o‘zining ruhiyatidan olib yaratadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hikoyalarda ham asosiy g‘oya aynan inson kechinmalari falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Chunki, muallif obrazning fe’l-atvoriga xos asosiy xususiyatlarni o‘zining tabiatidan oladi. Xurshid Do‘stmuhammad barcha asarlarini hayotiy voqealar asosida yaratadi va shuning uchun ham muallif tabiati zamiriga qurilgan obrazlarining badiiy psixologizmi o‘quvchida personaj haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Ijodkor ongida yetilgan asarning yaratilmasligi mumkin emas. Shunday ekan, Xurshid Do‘stmuhammad yaratgan asarlarning barchasi uning ongida yetilgan ijod mahsuli va bu esa asarlardagi personajlarning o‘quvchilarga yanada yaqinligini ta‘minlaydi.

Ijodkorning *“Kiova quyoshi”* nomli hikoyasining asosiy g‘oyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu hikoyada insonlarning har bir tabiat mavjudotidan o‘z manfaati yo‘lida foydalanib so‘ngra yaxshiligini bir zumda unutishi kabi holatlar ilgari surilgan. Bizonlar garchi ular uchun qadrli bo‘lsada, ularni yo‘q qilishga urinishlari, o‘zidan kattalarni gapiga ham quloq solmasligi mavzu qilib olingan. Inson o‘zini ham insoniyligini ham unutib qo‘yayotgani, eng beg‘ubor tuyg‘ulardan mahrum bo‘lib borayotgani ifodalangan.

“Qazo bo‘lgan namoz” hikoyasida esa jadidlar davrida qiynalgan xalq, begunoh qoni to‘kilgan erki e‘tiqodi toptalgan insonlar hayoti bir inson misolida mavzu sifatida aks etilgan bo‘lsa, asosiy g‘oya esa jamiyatning e‘tiqodini toptash orqali butun millatni qaram qilib toptaganliklaridir. Ijodkor mo‘jaz bu hikoyasida jadidlar davrida qiynalgan xalqimizning holatini ochib bera olgan.

Falsafiy nom berilgan *“Saf”* hikoyasida esa asosiy g‘oya bu hayotda kim bo‘lishidan qat’i nazar, bu dunyoni tark etishimizdir. Saf majoziy ma‘noda tanlangan bo‘lsa-da, hayotimizga aloqador bir atamadir. Hayotimiz bir ipga

chizilgan saf misolidir. Unda doim tartib va intizom mavjuddir. Ramziylik ortida teran ma'no yashiringan bu hikoya ham mavzu va g'oya jihatidan noodatiy tanlangan.

Umuman olganda, Xurshid Do'stmuhammadning har bir hikoyasi majoziylikka yo'g'rilgan bo'lib, ma'noni inson o'z dunyosidan kelib chiqib chiqaradi. G'oya va mavzuni esa ijodkor atrofdagi insonlardan, hayotdan va ijodiy mahoratidan kelib chiqib tanlaydi. Uning hikoyalarida falsafiylik kuchli bo'lganligi uchun ham kitobxon uchun qiziq va maroqlidir. Har bir hikoyada o'zgacha g'oya va mavzuga qo'l urgan ijodkorning falsafiy olami, tabiati kitobxonni doim hayratga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev, T. (2002). *Adabiyotshunoslik asoslari*. Toshkent. 64-bet.

2. Dovurboyeva, N. (1991). *"Jajman"ning jilvalari*.Toshkent: Yoshlik.

3. Do'stmuhammad, X. (2006). *Beozor qushning qarg'ishi.* Toshkent.

4. Do'stmuhammad, X. (1996). *Qazo bo'lgan namoz.* Toshkent: Adabiyot va san'at.

5. Do'stmuhammad, X. (1995). *Jajman.* Toshkent: Sharq nashriyoti.

6. Do'stmuhammad, X. (2010). *Beozor qushning qarg'ishi*. Toshkent: "Sharq" nashriyoti.

7. Nazarov, B., Rasulov, A., Ahmedova, Sh., Qahramonov, Q. (2012). *Tafakkur qanoti.* Toshkent: O'zbek adabiy tanqidi tarixi.

8. Qahramonov, Q. (2009). *Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari*. Toshkent.

9. Quronov, D. (2004). *Adabiyotshunoslikka kirish.* Toshkent, 64-bet.

10. Yo'ldoshev, Q. (2006). *Yoniq so'z*. Toshkent: 137-138-betlar.

ADABIYOTDA IT OBRAZINING BADIIY TALQINI (NAZAR ESHONQULNING "BAHOVIDDINNING ITI" HIKOYASI ASOSIDA)

Ergasheva Sarvara Furqat qizi,
ToshDO'TAU OTAT 4-kurs talabasi
sarvarafurqatqizi@gmail.com

Annotatsiya. *Nazar Eshonqul o'zbek modern nasrining yorqin namoyandasi bo'lib, uning asarlari o'zining chuqur falsafiy ma'no kasb etishi, ramziy*

obrazlarga boy ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu maqolada adibning "Bahoviddinning iti" hikoyasi tahlil qilingan. Bundan tashqari, modern asarlar, ularning boshqa asarlardan farqi haqida ham ilmiy ma'lumotlar berilgan. Maqolada obraz tushunchasi, xususan, it obrazining o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, it obrazining Sharq va G'arb mamlakatlari adabiyotida tutgan o'rni ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Nazar Eshanqul, modern adabiyot, it, obraz, "Layli va Majnun", motiv, Alisher Navoiy.*

Abstract. *Nazar Eshanqul is a bright manifestation of modern uzbek prose, moreover his works are disguished by their deep philosophical meaning and rich in symbolic images. This article analyzes the writer's story "Bahoviddin's dog". In addition, scientific information is given about modern works and their difference from other works. The article provides information about the concept of image, in particular, the specific aspect of a dog. Furthermore, the image of the dog in Eastern and Western literature is described in this article.*

Keywords**:** *Nazar Eshonkul, modern literature, dog, image, "Layli and Majnun", motive, Alisher Navoi.*

"Bahoviddinning iti" asari Nazar Eshonqulning mashhur hikoyalaridan biri sanaladi. Bu asar o'zbek modern adabiyotining durdonalari sirasiga kiradi. "Bahoviddinning iti" hikoyasining syujeti, obrazlar tizimi boshqa hikoyalardan ajralib turadi. Ayniqsa, bosh qahramonning hayotida oz fursatda tub burilishlar yasalishiga sabab bo'lgan it obrazi o'quvchini hayratda qoldiradi. Qizig'i, hikoya qahramoni aynan ana shu itga oshiq bo'ladi, o'zini u bilan bir tan-u bir jondek his etadi.

Shu o'rinda badiiy obraz masalasiga e'tibor qaratish joiz. ***"Obraz"*** atamasi *"raz" ("chiziq")* so'zidan olingan bo'lib, "raz" so'zidan *"razit" ("chizmoq, yonmoq, o'ymoq")* va undan *"obrazit" ("chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq")* so'zi yasalgan. "Obrazit" dan "obraz" ("umuman olingan tasvir") vujudga kelgan (Umurov, 2004, 33-bet). Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, yo'q, u

borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik — badiiy borliqdir. Shuningdek, ba'zan badiiy obrazning tasvir planidan kelib chiqib inson obrazi, jonivorlar, hayvonlar obrazi, narsa-buyumlar obrazi tarzidagi atamalar ham qo'llaniladi (Quronov va boshqalar, 2013, 46-bet).

Nazar Eshonqul bejiz hikoyada it obrazini keltirmaydi. Itlar ruhiy mavjudotlardir. Ularning erkin ruhiy energiyasi pok va ilohiydir. Ular bizni so'zsiz sevadilar va qabul qiladilar. Shuning uchun ular ruh bilan bevosita bog'liqdir. It (lotincha: *Canis familiaris*) — bo'risimonlar oilasiga mansub uy hayvoni. Hamma mamlakatlarda tarqalgan. Yovvoyi ajdodi bo'ri. Mezolit davrida (miloddan avvalgi 15—10 ming yil) xonakilashtirilgan (https://uz.wikipedia.org/wiki/It).

Shu paytgacha adabiyotimizda it va inson do'stligi, itning egasiga bo'lgan vafosi olqishlanardi. Masalan, *Said Ahmadning "Qorako'z Majnun"* hikoyasida ham marhuma egasiga sadoqat ko'rsatgan it bosh qahramon sifatida olingan. Jahon adabiyotida ham itlar tasvirlangan asarlar talaygina. Masalan, Mark Tvenning *"Itning ertagi",* O Genri *"Sariq itni yodga olish",* Jek Londonning *"Yovvoyi tabiatning chaqiruvi",* Filipp K. Dikning *"Rug",* A. Chexovning *"Kashtanka"* nomli asarlari ma'lum va mashhur. Shuningdek, it obrazi qadimiy afsonalarda, xalq dostonlarida, xalq ertaklarida ham uchraydi. Bundan tashqari, adabiyotda it obrazi Navoiy tomonidan ham qalamga olingan. "Layli va Majnun" dostonning 14-bobida tasvirlangan it obrazi bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. *"... Bu o'rinda Navoiy Majnunning o'zini oshiq sanab, it darajasiga ham ko'tarila olmaganidan qattiq iztirobda ekanligini bayon qiladi. Dostonda Majnun o'z sadoqati, vafosidan ko'ra itning sadoqatini ustun qo'yadi, chunki it Majnunga qaraganda Layliga ancha yaqin turadi. U ham Majnun kabi oshiq, yorining oyog'i ostida yotib o'z vafodorligini, sadoqatini namoyon qiladi. Buning fahmiga yetgan Majnun o'z dardini to'kib soladi:*

Sen mendin o'lub vafoda afzun,
Ham sidqda, ham safoda afzun…"

(Sirojiddinov va boshqalar, 2018, 129-bet).

“Bahoviddinning iti” hikoyasiga epigraf sifatida mumtoz adabiyotning yorqin vakili, mashhur shoir Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asaridan parcha tanlab olingan: *“… Shayx u go‘zalning jamolini ko‘rish umidida yor ko‘chasidagi itlar orasiga qo‘shildi…”.* Darhaqiqat, “Bahoviddinning iti” hikoyasida ham qahramon devonasifat **bo‘lib qolib, itning yonida qolish uchun bor-u yo‘g‘idan, o‘zligidan, moddiyatidan kechishga rozi bo‘ladi.**

Hikoyada itning uvillashi juda ajoyib tasvirlangan: *“…Nega men shu paytgacha bu anduhni eshitmaganman, nega shu paytgacha bu musibatdan uzoq bo‘lganman? Nega bu nola o‘zlarini xushanishin ohanglar tagiga yashirdi ekan? Nega uvullayotgan it odamlardan o‘zini pinhon tutyapti ekan? Uvillashdagi anduh ta’sirida ko‘zlarimdan yum-yum yosh oqayotganini bilardim. Yig‘lagan sayin yengil tortar, yanayam o‘kirib yig‘lagim kelardi. Yig‘iga g‘arq qiluvchi bu nola qaydan kelayapti, qayga ketayapti? Nega u meni mungga va musibatga oshno etayapti?..”* (https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nazar-eshonqul-1962/nazar-eshonqul-bahoviddinning-iti-hikoya). Bosh qahramon itning bunday uvillashida munis anduh bor ekanligini, undan dard, musibat, iztirob, g‘am-uqubat taralganini, bu dardga va bu g‘amga chiday olmasligini, uni eshitgan sayin shunchalik dard ko‘payishini, musibat ulug‘lashishini, g‘am yurakni to‘ldirishini, yig‘lagisi kelishini, ammo uvillashdan taralayotgan xo‘rlik oldida uning yig‘isi hech nima emasligini ta’kidlaydi. Bu joyda itning uvillashi motiv bo‘lib xizmat qilgan. ***Motiv*** (lotincha *moveo – “harakatlantiraman”*) - syujetning eng oddiy komponenti. Folklor va mifologik motiv (Y. E. Beryozkin) - bir nechta folklor va mifologik matnlarda uchraydigan tasvir yoki epizod yoki tasvirlar va epizodlar to‘plami. Bunga misol qilib, osmondan ortiqcha quyoshlarni urib tushurish motivini keltirish mumkin. Boshqa ta'riflar ham mavjud. B. V. Tomashevskiy o‘zining “Adabiyot nazariyasi. Poetika” asarida motivga quyidagicha ta’rif bergan: “*Asarning ajralmaydigan qismining mavzusi motiv deyiladi.”* (https://uz.wikipedia.org/wiki/Motiv_(adabiyotda). Motiv qaysidir ma’noda asarning voqealar rivojiga ham ta’sir ko‘rsatadi. U qahramonni harakatga keltiradi.

“Bahoviddinning iti” hikoyasida ham itning qayg‘uli ovozi tufayli erkak unga qiziqib qoladi va uni o‘z ko‘zi bilan ko‘rishni istaydi.

Hikoyadagi itning qora rangda ekanligi keltirilgan. U ko‘pincha ramziy yoki majoziy ma’noda zulmat, oq esa yorug‘lik uchun ishlatiladi (https://uz.wikipedia.org/wiki/Qora). Nazar Eshonqul bu rangni bekorga tanlamagan. “*Qora rang — motam, cheksizlik, mavhumlik, qo‘rquv, tushkunlik, noaniqlik ramzi”* (Bulatov, 2009, 20-bet). Qora rang — uzlat, tanqid, fidokorlik ramzi. Bosh qahramon ham bora-bora it tufayli dunyo tashvishlarini, borliqni unutdi. Uning xayoli faqat va faqat o‘sha sirli itda edi. U shu darajaga kelib qoladiki, o‘ziga ham, turmushiga ham, ishiga ham e’tibor bermay qo‘yadi.

Ushbu hikoya modern hikoyalar sirasiga kiradi. Modernizm – falsafa, san’at va adabiyot sohasidagi noklassik qarashlar tizimini umumlashtiruvchi atama. Kunbotish mamlakatlarida yuzaga kelib, fransuzcha “eng yangi”, “zamonaviy” ma’nolarini anglatuvchi modernizm o‘zini o‘sha zamon va kelajakdagi yagona haqiqiy estetik va falsafiy yo‘nalish hisoblab, olamni falsafiy-badiiy idrok etish, izohlash va tasvirlash borasida mavjud bo‘lgan an’anaviy yondashuvlarni inkor qilishi bilan ajralib turadi. Kundalik hayotda inson itni sevib qolib, uning uchun xonumonidan, o‘zligidan kechmaydi. Bu holatni aqlga sig‘dirib bo‘lmaydi. Ammo modern adabiyotda ilojsiz, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lmagan voqealar ham yuz berishi mumkin. Zero, modern asarlar hayotiy real voqealarga mos kelavermaydi. Shuningdek, modernizm borliq va hayotga hech qanday tugallikka ega bo‘lmagan, son-sanoqsiz umr va taqdirlarni o‘z gumiga tortib ketaveradigan uzluksiz va shiddatli oqim tarzida yondashish tajribasini boshlab beradi. Modern yozuvchilar badiiy tasvirga yangicha ko‘rinish berish, bir-biriga o‘xshamaydigan odamlar ruhiyatining qaytarilmas manzarasini chizish uchun shakl, vosita, usul, uslub ustiga adoqsiz ijodiy tajribalar o‘tkazishdan erinmaydi. Modernizm – bu zamonlar oralig‘idagi tafovutni, “eskilik” va “yangilik” o‘rtasidagi ixtiloflarni o‘z g‘oyaviy qarashlari bosh mezoni qilib olgan yuz yillikning ma’naviy qiyofasidir. Uning ortida F. Nitsshening “xudolar o‘limi” falsafasi, Yevropa xaritasini qayta tuzgan siyosiy inqiloblar va ilmiy kashfiyotlar, totalitar tuzumga asoslangan diktaturalar,

xunrezlik urushlari, information portlashlar, sivilizatsiyaning koinotga chiqishi kabi global o‘zgarishlar yotibdi (https://fayllar.org/mustaqil-ish-mavzu-modern-hikoyalar-reja-adabiyotda-modernizm. html).

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, modernizmda yozuvchi hamma narsani ochiq-oydin oshkor etadi, u qaysidir qahramonni ideallashtirmaydi, barcha narsani boricha yozadi. Bu kabi asarlar ramzlarga boy bo‘ladi. Shuningdek, modern asarlar orqali yozuvchi jamiyatdagi illatlarni, insonning ichki his-tuyg‘ularini yashirmay, qog‘ozga o‘ramay ochib beradi. Modern kitoblarda asosiy e’tibor qahramonning ichki dunyosiga qaratiladi. Bunday asarlarda hayotiy haqiqatlar xayoliy uydirmalar bilan birgalikda tasvirlanadi. Muallif nafaqat insonlarni (ba’zan narsa-predmetlarni, hayvonlarni) ham bosh qahramon sifatida tanlab oladi. Xususan, “Bahoviddinning iti” hikoyasida ham it obrazi tasvirlanadi. O‘zbek adabiyotida shu paytgacha insonning itga bo‘lgan muhabbati haqida asar yozilmagan edi. “Bahoviddinning iti” hikoyasida odam bolasining itga bo‘lgan muhabbati haqida gap boradi. Bu oddiy sevgi emas edi. Zero, u orqali qahramon moddiy dunyodan tamoman uziladi. U itga emas, balki itni yaratgan tangriga oshiq edi. Itga bo‘lgan muhabbat esa haqiqiy Yor — Xudoga bo‘lgan ishq yo‘lida oddiy bir vosita edi. Zero, mumtoz adabiyotda ham oshiq dildorni emas, balki uni yaratgan zotni sevadi. Qizga bo‘lgan muhabbat esa uning qalbida Tangriga bo‘lgan ilohiy ishqining paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov, S. (2009). *Rangshunoslik.* Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 160 bet.

2. *Quronov,* D (2004). *Adabiyotshunoslikka kirish*. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 228 bet.

3. Quronov, D. va boshqalar. (2013). *Adabiyotshunoslik lug‘ati.* Toshkent: Akademnashr. 408 bet.

4. Sirojiddinov, Sh., Yusupova, D., Davlatov, O. (2018). *Navoiyshunoslik*. Toshkent: Tamaddun. 520 bet.

5. Umurov, H. (2004). *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 264 bet.

6. Йўлдошев, Қ., Йўлдошева, М. (2016). *Бадиий таҳлил асослари.* Тошкент: Камалак. 306 бет.

https://uz.wikipedia.org/wiki/It

8. https://midogguide.com/uz/maintenance-and-care/what-is-the-symbolic-meaning-of-a-dog.html

9. https://hozir.org/1-mavzu-sotsiologiya-fan-sifatida.html?page=53

10. https://interestingliterature.com/2021/12/best-short-stories-about-dogs/

11.https://www.theguardian.com/books/2015/aug/26/top-10-dogs-stories-literature

12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Motiv_(adabiyotda)

https://fayllar.org/mustaqil-ish-mavzu-modern-hikoyalar-reja-adabiyotda-modernizm.html

13. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nazar-eshonqul-1962/nazar-eshonqul-bahoviddinning-iti-hikoya

ZAMONAVIY ADABIYOTDA BOBUR OBRAZI

Erkinjonova Sadoqat Abdurazzoq qizi,
ToshDO'TAU magistranti
Sadoqat486@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada millatimiz tarixi va ma'naviyatida yorqin iz qoldirgan Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo hayoti yoritilgan yozuvchi X. Sultonovning "Saodat sohili" qissasi tahlilga tortilgan. Shuningdek, Bobur Mirzoning shoh, saltanat hukmroni sifatidagi qat'iy siyosati, shu bilan birga shoir, oddiy insoniy qiyofasi yoritilishidagi yozuvchi mahorati, qahramon qalbida muhrlanib qolgan, ona yurt sog'inchi, tinchlik bermay kelayotgan iztiroblarining mohiyati, ruhiy dunyosi ochila borib, o'quvchi shoh va shoirning insoniy qiyofasini yaqqol tasavvur etishiga imkon berganligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *motiv, detal, hayot haqiqati, qissa, tarihiy qahramon, obraz, hayot haqiqati, tarixiy haqiqat.*

Abstract. *This article analyzes the story "Saodat sahili" by the writer Kh. Sultanov, where the life of Zahiriddin Muhammad Babur Mirzo, who left a bright mark on the history and spirituality of our nation, is covered. Also, Babur Mirza's strict policy as a king and ruler of the kingdom, at the same time, the writing skills of the poet, the simple human image, the essence of the sufferings of the hero, the longing for the motherland, which does not give peace, and his spiritual world are revealed. it is justified that it allowed the reader to clearly imagine the human form of the king and the poet.*

Keywords: *motive, detail, fact of life, story, historical character, image, fact of life, historical fact.*

Ma’naviy uyg‘onish samarasi o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, or-nomus, qadim ajdodlarimiz o‘tmishidan faxrlanish, kelajak har kimning o‘z qo‘lida, mehnatida va ongli faoliyatida ekanligini his qilishida namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan qaralganda bugungi kunning adabiyoti millatning ma’naviy va intellektual salohiyatini, odamlarning aqliy va ruhiy madaniyatlarini yuksaltirishga xizmat qilishi naqadar ulkan ekanligini ko‘rsatib turibdi. Chunki olamni shu paytgacha aytib kelganimizdek, go‘zallik emas, anglangan ma’naviyat va go‘zallik asraydi. Uni komil inson yuzaga keltiradi. Komillikni yuzaga keltirishda badiiy adabiyot muhim omildir. Buni yaxshi anglagan yozuvchilar shu yo‘lda samarali ijod qilmoqdalar. Qaysiki asarda insoniy kechinmalar jarayoni, iztiroblari, mehr-mohiyati, o‘zining falsafiy talqinini topsa, voqealar haqiqatdan chekinilmaydi. O‘sha asar har qanday jamiyat o‘zgarishlaridan qat’iy nazar zamonlar osha yashab qoladi.

O‘zbek adabiyotida tarixiy shaxslar haqida ko‘plab asarlar yaratilgan. Mustaqillik yillarida bunday asarlar salmog‘i yanada oshdi. Bu asarlar hozirgi o‘quvchilarda Vatanga muhabbat, ajdodlari qilgan ishlaridan faxrlanish, ular ruhidan madad olish hissini oshirdi. Xayriddin Sultonovning “Saodat sohili” qissasi ana shunday fazilatga egaligi bilan kitobxon qalbini zabt etadi va ma’naviy olamini boyitish orqali o‘z hayot yo‘lini to‘g‘ri belgilashga imkon tug‘diradi. Bu narsa esa o‘z navbatida, jamiyatning insoniylashuviga, demokratiyaning yanada

kuchayishiga ko‘mak beradi va asos bo‘ladi. Chunki xalqi komil bo‘lgan jamiyatdagina adolat va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan qonun hukm suradi. Demak, badiiy asar inson kelajagi uchun xizmat qiladi.

“Saodat sohili” qissasidagi Bobur obrazi hech qanday zo‘riqishsiz, o‘quvchini kinotasvirda ko‘rib turganday tabiiy tasvirlanadi. “*Bog‘i Nurafshonning yashil qo‘ynida yarqirab turgan oq marmar saroyda Afg‘on, Hind va Bangola o‘lkalarining mutlaq hukmdori – keyinchalik yevropalik muarrixlarning “faromushxotirligi” tufayli tarix sahifalariga “Buyuk Mo‘g‘ul imperiyasi” degan mubham nom bilan bitilguvchi ulkan saltanat sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo arkoni davlat bilan ertalabki mashvarat o‘tkazmoqda”.*

Adib Bobur asos solgan imperiyaning naqadar buyukligini bayon qilib o‘tirmaydida *“Afg‘on, Hind va Bangola o‘lkalarining mutlaq hukmdori”* degan tasvirni beradi. Bugungi o‘quvchiga jo‘g‘rofiya ilmidan yaxshi ma’lumki, bu o‘lkalar ulkan davlatlar hisoblanadi. Ko‘pchilik tarix kitoblarida xato yozilgan faktlarni ham aytib o‘tirmaydida, *“yevropalik muarrixlarning “faromushxotirligi” tufayli tarix sahifalariga “Buyuk Mo‘g‘ul imperiyasi” degan mubham nom bilan bitilguvchi ulkan saltanat sohibi”,* - degan ta’rifni keltirib o‘tadi. Bu tasvirlardan o‘quvchi ko‘z oldida sarkarda, imperator Bobur Mirzo to‘la gavdalanadi.

Umuman qissa shoh va shoir Bobur Mirzo umrining so‘nggi kunlari voqeasiga bag‘ishlangan. Asarda voqelik emas, insoniy kechinmalar, ya’ni insonning o‘zi bosib o‘tgan hayot yo‘lini taftish qilishi, iztiroblari, armonlari tasvirga olinadi. Toshkentdan Bobur Mirzo kutubxonasidagi nodir kitoblar bilan tanishish istagida kelgan tarixchi olim Hofiz Ko‘ykiy bilan kechgan muloqotlari asarga o‘zgacha ruh bag‘ishlagan. Yozuvchi Bobur Mirzoning shoh, saltanat hukmroni sifatidagi qat’iy siyosati, shu bilan birga shoir, oddiy inson qiyofasini ochib berishga harakat qiladi. Shuningdek, suhbat jarayonida kechgan tasvirlardan Bobur Mirzoning qalbida muhrlanib qolgan, ona yurt sog‘inchi, tinchlik bermay kelayotgan iztiroblarining mihiyati, ruhiy dunyosi ochila borib, o‘quvchi shoh va shoirning insoniy qiyofasini yaqqol tasavvur etishiga imkon beradi.

Hofiz Ko‘ykiy Bobur Mirzoning oldiga kirib*: “Ona yurtdan ko‘p salom keltirdim, yurtimizning tabarruk yodi xotiralaridan ko‘tarilmagan bo‘lsa”, - degan so‘ziga u shunday javob beradi: “Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutgay? - deydi Bobur ohista. Ovozi titrar edi. - Unutgan kishining ko‘zlariga tiriklayin tuproq to‘lmasmi?”* Bunday so‘zlarni Vatan sog‘inchi bir lahza ham qalbini tark etmagan kishigina ayta oladi. Ularning o‘zaro suhbatlari asnosida Bobur Mirzo shoir, davlat arbobi bo‘lishi bilan birga, zukko tarixchi va faylasuf olim, kamtarin insonligi bo‘y ko‘rsatadi.

Shu bilan birga *“– Meni “Sohibqiron”, “yetti iqlimning shamsi anvori”, “shahanshohi olam”, deb ko‘klarga ko‘taradilar, - deya hasratli tovush bilan so‘zlardi Bobur. – Lekin biror kimsa bilmaydiki, men ham asli shu yog‘och taxtga qaramman, mana shu yaltiroq tojga qulman… Illo, har bir banda faqat Ollohgagina qul emas”*, - degan iqrorini ham keltirib o‘tadiki, zukko o‘quvchi har qanday kamchiliklarini baralla tan oladigan, zaif va mard jihatlariga iqror bo‘ladigan realist insonni ko‘z oldiga keltira oladi.

Adib qissada detallardan unumli foydalangan. Ayniqsa, tush detali ham asarning ta’sirli chiqishiga xizmat qilgan. Bobur Mirzo keyingi paytda tushida ko‘p dengiz ko‘rishini, *“Na dengizning poyoni bor, na yo‘limning, vahm ichra qaro terga botib tentib yuramen...” munajimlardan so‘rasam, “ul kanal inshoolloh saodat sohili bo‘lur deydilar, u qaerda o‘zi”, - deganda, Ko‘ykiy beixtiyor “Saodat sohili - Vatanda, olampanoh”, - deydi. Bu javobdan Boburning ko‘zlari yalt etib, katta ochilib ketadi, chunki Ko‘ykiy uning dilidagini tiliga chiqargan edi.”* Bu tasvirda Boburning oddiy inson sifatidagi iztiroblari to‘la namoyon bo‘ladi.

Qissaning yana bir o‘rnida Bobur shunday deydi: *“Eh, saltanat... Ne bo‘lsa Ollohdan. Shu saltanat minnati umr bo‘yi oyog‘imga kishan bo‘ldi, murodimga - g‘ov... Lekin endi bir zo‘r bilan jahl qilurmenu, bu kishanni tilka-tilka eturmen!”* Afsuski bunga uning umri ham, saltanat hukmdori sifatidagi mas’uliyati ham imkon bermaydi. O‘quvchi qahramonning iztiroblari, ruhiy kechinmalarini qalbdan his qiladi.

Sevimli yozuvchimiz Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanini maktab davridayoq mutolaa qilganmiz. Bobur Mirzoning yoshligi, boshidan o‘tkazgan mashaqqatli hayot yo‘li, saltanat uchun kurashlari, mag‘lubiyatlari, ulkan imperiya tuzishdagi harakatlaridan ta’sirlanganmiz. Ya’ni, uning saltanat uchun kurashlaridan xabardor bo‘lganmiz. Roman yozilgan davrda Boburning ichki iztiroblari, insoniy qiyofasi haqida yozish mumkin emas edi. Siyosat shuni taqoza qilar edi.

Xayriddin Sultonovning “Saodat sohili” qissasini o‘qib biz bobomiz Bobur Mirzoning inson sifatidagi ichki olami, ruhiy dunyosidan, shoirlik, shoirlikning jamiyat hayotidagi o‘rni, insoniyat tafakkurini oshirishdagi mas’uliyatidan xabardor bo‘lamiz.

Umuman, mustaqillik arafasi va istiqlol yillarida yaratilgan asarlarda adabiyot insonning botiniy olamiga razm solishga harakat qildi. Sho‘ro zamonida ta’qiqqa uchragan shaxslar, harakatlar qayta ko‘rib chiqilib, haqqoniy bahosini oldi. Biz tahlilga tortgan “Saodat sohili” qissasi ham Bobur Mirzoning ichki olami, tiynati ochib berilgani bilan qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амиркулова, З. (2021). *Мустақиллик даври ўзбек ҳикояларида тарихий шахслар образининг бадиий талқини*. фил. фан. док. (PhD). дис. –Т.:. –137 б.

2. Дониёрова, Ш. (2001). *Ижодкор ва услуб*. –Т.:. – 160 б.

3. Ёқубов, И. (2021). *Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси*. – Т.: Nurafshon business. – 344 б.

4. *Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида* (Шарафиддинов, О. таржималари) (2010). – Т.: Маънавият. – 391 б.

5. Каримов, Ҳ. (2018). *Кечаги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар).* Монография. –Т.: Янги нашр. – 320 б.

6. Каримов, Ҳ. (1999). *Тарихий шахс ва бадиий образ*. филол. фан. ном. дис. –Т.– 151 б.

7. Султонов, Х. (1999). Бобурийнома. – Тошкент.

“YOLG‘ONCHI FARISHTALAR” – O‘ZBEK ADABIYOTIDA ILK HAJVIY-SATIRIK ROMAN SIFATIDA

Eshmamatova Tursunoy,
TOSHDO‘TAU OTAT 2-kurs talabasi
eshmamatovatursunoy@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida hajviy-satirik romanning ilk namunasi hisoblangan “Yolg‘onchi farishtalar” romani haqida so‘z boradi. Asarning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni, janr xususiyatlari, obrazlar tahlili, romanning til xususiyatlari, asar mazmunining bugungi kundagi ahamiyati imkon qadar yoritilgan, tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar. *satira, hajviy-satirik roman, dogmatizm, dogmatik ateist, qo‘sh qissa.*

Abstract. *This article talks about the novel “Lying angels”, which is considered the first example of a comic-satirical novel in Uzbek literature. The role of the work in Uzbek literature, genre features, analysis of images, language features of the novel, the importance of the content of the work today are highlighted and analyzed as much as possible.*

Keywords. *satire, comic-satirical novel, dogmatism, dogmatic atheist, double story.*

Kulish oson, kuldirish qiyin. Kitob yozib, o‘zgalarni kuldirish esa undan-da qiyin.

Satira – badiiy adabiyotning ana shunday qiyin, zalvarli, yozuvchidan iste’dod, teran nigoh, uyg‘oq qalb va eng muhimi, halol va pok vijdon talab etadigan janri hisoblanadi. Bu haqda atoqli adib Ne’mat Aminov: *“Satiraning nonini yeyish uchun po‘latdan tish, cho‘yandan oshqozon kerak”*, – degan edi. Ushbu ta’sirli jumlalar Ne’mat Aminov ijodiyotining tamomila shioriga aylanib ketgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Haqiqat va rostgo‘ylikka sadoqat asarlarida mayoq yanglig‘ porlab turgan mahoratli yozuvchi Ne’mat Aminov o‘zbek adabiyotida o‘zining hajviy yo‘nalishdagi nasriy asarlari bilan alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, “Yolg‘onchi farishtalar” adib ijodining gultoji sanaladi. Shuningdek, mazkur asar o‘zbek adabiyotida ilk hajviy-satirik roman sifatida keng jamoatchilik e’tirofiga sazovor

bo‘lgan. Asarning to‘liq nomi “Yolg‘onchi farishtalar yoxud yelvizakfe’l-u suvarakmijoz Bashirjon Zaynishev hayotidan qo‘sh qissa” deb nomlanadi. Muallif o‘z xotiralarida “Yolg‘onchi farishtalar”ni yetti yil, ya’ni 1975–1982-yillar mobaynida yozganini ta’kidlaydi. Roman 1987-yil Oybek nomidagi yillik mukofotga sazovor bo‘lgan.

E’tiborli jihati shundaki, asar ko‘plab adabiyotlarda hajviy-satirik roman sifatida aytiladi. Biroq adabiyotshunos olim Ozod Sharofiddinov o‘zining Ne’mat Aminov ijodiga bag‘ishlangan “Hajviyotga sadoqat” maqolasida bu xususida ushbu mulohazasini bildiradi: *“Yolg‘onchi farishtalar” – roman emas. Uning janrini avtorning o‘zi qo‘sh qissa deb baholagan”* (Aminov, 1987, 12-bet). Asarning nomlanishi, uning “Yelvizak” hamda “Suvarak” qissalaridan tashkil topishi olimning fikrlarini tasdiqlaydi. Ammo N. Aminov o‘z xotiralarida mazkur asar haqida so‘z yurita urib, uni “romanim” deya tilga oladi. Biz asar muallifining fikrlariga tayangan holda “Yolg‘onchi farishtalar”ni hajviy-satirik roman deya baholashni lozim topdik.

Roman yuqorida keltirilgan ikki qissa hamda yigirma ikki hikoyadan iborat. Asarda XX asrning ikkinchi yarmida bo‘lib o‘tgan voqealar qalamga olinadi. Bu davr kishilarining turmush tarzi, insonlar siyratidagi va suvratidagi o‘ziga xos jihatlar hajv chirog‘ida yoritilgan.

Insoniy fazilatlar yoxud illatlar makon va zamon tanlamaganidek, bu kabi xislat egalari ham barcha davrlarda topiladi. “Yolg‘onchi farishtalar” romanidagi obrazlar ham o‘tgan asrning real ko‘rinishga ega bo‘lgan prototiplaridir. Zero, muallif asar qahramonlari haqida: *“Asardagi hamma ishtirokchilarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman va ba’zilarining jabrini ham tortganman”,* – deydi.

N. Aminov “Yolg‘onchi farishtalar”da davrning jirkanch illatlari, an’anaga aylangan maydakashliklar jamiyat rivojiga to‘sqinlik qilayotgan buzg‘unchiliklarning ildizini ochishga harakat qiladi, rahbarlik kursisida yarashmagan yamoqdek yastanib o‘tirgan noloyiq amaldorlarning qilmishlarini hajv tig‘i ostiga oladi, ularning ustidan achchiq kuladi. Yozuvchi Erkin A’zam ta’biri bilan aytganda, mazkur romanda davrning “badiiy hujjati” aks etadi.

Asar bosh qahramoni – Bashirjon Zaynishev – o‘rta pog‘onadagi mansabdor shaxs. Yozuvchi romanida uning ta’rifini alohida ta’kidlamaydi, o‘ziga xos jihatlarini hijjalab sanab o‘tirmaydi. Voqealar rivoji o‘sib borgani sari Bashirjonning fe’l-atvori, zohiri-yu botini ochilib boradi. Boshqacha qilib aytganda, ijodkor kitobxonga qahramonini butun boshli asar syujetida tanishtirib boradi.

Asarda Bashirjon Zaynishev na kasb-korda, na bilimda va na e’tiqod masalasida tayini bo‘lmagan subutsiz bir kimsa sifatida tasvirlangan. Bunaqa odamlar tabiatan moslashuvchan va muallaq bo‘ladi. Buqalamun singari istalgan muhitda tusini o‘zgartirishga qodir. Bashirjon Zaynishev ham oshig‘i olchi paytlarda ateist bo‘lib ko‘krak keradi, ishi yurishmay qolgan vaqtlarda esa “Xudojon”lab qoladi. Uning quyidagi so‘zlari diniy e’tiqodining zaif va naqadar ayanchli ekanidan dalolat: *“Men ateistman, – dedi ko‘kragiga urib. – Lekin, Xudoga shukur, musulmonman”.*

Qaysi soha vakili ekani noma’lum bo‘lgan Bashirjon Zaynishev go‘yoki rahbarlikni kasb qilib olgan odamga o‘xshaydi. Romanda u turli mansab pillapoyalarida faoliyat yuritadi. Ammo ilmsizlik, saviyaviy qashshoqlik, ma’nan tubanlik xuddi soyadek unga ergashib yuradi. Oyoq ostidagi kichik tosh kabi yurishga xalal beradi. To‘gri, u gazeta va jurnallardan ayrim narsalarni yondaftariga qayd qilib qo‘yadi, biroq oxirigacha o‘qimaydi. Bularning bari xo‘jako‘rsinga, maqtanish uchun. Tabiiyki, chala ma’lumotdan olingan bilim ham chala, qusurli bo‘ladi. Eng ayanchlisi shuki, Bashirjon mansabdor kishi, qo‘l ostida bir qancha odamlarga bosh. Dunyoqarashi tor va saviyasi past kimsaning rahbar bo‘lishi esa jamiyat uchun fojia. Romandagi Hamid Solihov tomonidan aytilgan mazkur so‘z Bashirjonning shaxsiyatini ochishda qo‘yilgan o‘rinli tashxis hisoblanadi:

“Hamma xatolarini eshitib bo‘lgach, Solihov o‘rnidan xotirjam qo‘zg‘alarkan:

- *Bilasizmi, siz kimsiz? – dedi.*

- *Xo‘sh, kimman? – dedi Bashirjon qalin lablarini ochib-yopib.*

- *Dogmasiz.*

Bashirjon "dogma" so'zining ma'nosiga tushunmasa-da, har qalay, yomon, haqoratli so'z ekaniga aqli yetdi."

Dogma so'zi yunoncha "dogma" – fikr, qoida, ta'limot ma'nolarini anglatadi. Dogma – tanqid ko'zi bilan tekshirilmay, ko'r-ko'rona qabul qilinaveradigan qoida, dalil-isbotsiz muhokama.

Yuqorida keltirilgan qoida ma'nosiga muvofiq tarzda Bashirjon ham hech bir tekshiruv va sinovlarsiz u mansabdan bu mansabga xamirdan qil sug'urgandek o'tib ketaveradi. Albatta, bu uning qobiliyat va salohiyati tufayli emas. Gap uni dogmaga aylantirgan tirgovichlarda. Asardagi Shamsi To'rayevich obrazi aynan ana shu tirgovichlardan. Ushbu obraz misolida o'ta ketgan siyosatparast, o'sha davrning dogmatik ateist mansabdori qiyofasi chizilgan. U har doim o'zini jiddiy, kamgap, hukumatparvar, hamma narsani biladigan va fidoyi shaxs qilib ko'rsatishga tirishadi. Hattoki kayfiyat ko'taruvchi oddiy anekdotlardan ham siyosiy xato izlaydi, bemor to'shagida yotib ham, hukumat ishini o'ylaydi. Bularning bari qorin g'ami uchun, buguni yaxshi o'tishi uchun va ertaga yog'li amal kursisidan ketmaslik uchun. Bu kabi "akaxon"larga esa Bashirjondek "ukaxon"lar suv tagida havodek zarur. Uning ushbu so'zlari fikrimizni tasdiqlaydi:

"*Yaxshi, – dedi bosiq ovozda, bosh silkib. – Lekin sen bizga keraksan, garchandki shu vaqtga qadar oqarmasdan doimo qoralanib kelayotgan bo'lsang-da, seni yulib tashlamaymiz. Kerakli tuksan…"*

Roman markazida turuvchi Bashirjon timsolini hajviy, satiraga boy etib ko'rsatgan yozuvchi mahorati e'tirofga loyiq. Ammo shu bilan birga ayrim o'rinlarda kulgining me'yordan biroz chetga chiqib ketilishi oqibatida asar hayot haqiqatlaridan ajrab qolgandek bo'ladi. Binobarin, turli xil tashkilot va muassasalarda rahbarlik qilib kelayotgan kishining "kofe" bilan "kafe", "poezd" bilan "poeziya" so'zlarini farqlay olmasligiga ishonib bo'lmaydi. Aniqroq qilib aytsak, ushbu o'rinlarda tasvir tabiiy emas. Ayni shu holatlar romanning tabiiyligiga putur yetkazadi:

“*Xo‘jaqulova bir chimirilib oldi-da, yo‘lida davom etdi. – Qanday yo‘lini topisharkan-a, bunaqa odamlar? “Kofe” bilan “kafe”ning farqiga bormaydi-yu, yana umumiy ovqatlanish bo‘limiga rahbarlik qilarmish. Tavba.”*

Yolg‘onchi farishtalar” romanining boshqa romanlardan farqlanib turuvchi tomoni nafaqat uning janrida, balki uning tilida ham mujassam. Mutolaa jarayonida kitobxon ko‘z o‘ngida ko‘hna Buxoroning qadim obidalari, ko‘chalari-yu burro tilli so‘zamol odamlari gavdalanadi. Bunaqa tasavvurning vujudga kelishida badiiy asar tili muhim ahamiyat kasb etgan. Romanda Buxoro viloyatining sheva elementlari yetakchilik qiladi. Bu bilan adib Buxoro xalqi, davr va muhit koloritini yarata olgan. Ayniqsa, Bashirjon Zaynishev, Vafo attor, Shamsi To‘rayevich, Qiyomxon Muslimov personajlarining nutqidagi sheva unsurlari juda qiziqarli:

“*Bashirjon o‘rnidan turib ketdi:*

– O‘rtoq Solihov, men bilan gaplashganda kesatmasdan so‘zlang. Aka-ukalik qilaman, desangiz, ***oshiqni to‘g‘ri tashlang.***

Bashirjon bilan Qiyomxon qizarib ketdi. Vafo attor ham esankirab:

– Ha-ya, esim qursin men ***pirsagi*** *beimonni, – dedi o‘zini qarg‘ab.*

– Lavsandan qilingan sherst kastyum-buruk, deysanmi? – dedi Shamsi To‘rayevich kulgining zo‘ridan yoshlangan ko‘zlarini artarkan. – Obbo sen-e, Bashir tushmagur, juda ***emarisan-da****…”*

Shevaga xos so‘zlarning ko‘p miqdorda qo‘llanilishi romanda quyidagilarga sabab bo‘lgan:

Birinchidan, kitobxonda qiziqish va hayrat uyg‘otib, kitobning o‘qishliligini oshiradi.

Ikkinchidan, shevaga xos so‘zlarning aksari lug‘atsiz berilgani kitobxon uchun asarni tushunishda qiyinchilik tug‘diradi.

Uchinchidan, mutolaaga tutingan har qanday kishi katta qiziqish va asar tilidan zavq olish tufayli lug‘at bilan ishlashga to‘g‘ri keladi.

To‘rtinchidan, asarning tesha tegmagan dialektologik ibora va so‘zlarga boyligi shevashunos olimlar uchun ajoyib o‘rganish materiali bo‘lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, bu kabi sheva elementlari tufayli o‘zbek dialektologik lug‘ati boyiydi va o‘zbek tilining naqadar boy va sermahsul til ekanidan dalolat beradi.

“Avtor, – deb yozgan edi A. V. Lunacharskiy, – *satirani o‘z oldiga maqsad qilib olsa, kulgi o‘ldiradigan darajada bo‘lishi mumkin”* (Abdusamatov, 1997, 8-son). Ne’mat Aminov ham hajv nishoniga olgan qahramonining buzuqchiliklari, insoniy tamoyillarga zid noma’qulliklari ustidan kulibgina qolmaydi, uni zaharxandaga, o‘limga olib boradigan kulgiga duchor qiladi. Roman Bashirjon Zaynishevning halokati bilan yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Ne’mat Aminov “Yolg‘onchi farishtalar” romanida nafaqat o‘z davrining chirkin muhitini, qiyshiq g‘ildirak misol aylanayotgan tizim qabihliklarini ko‘rsatibgina qolmasdan, balki manfurlik va jirkanch illatlar vaqt va mintaqada beqarorligini badiiy so‘z dasturilamalida ifoda etgan. Bilimsizlik, ilm-fanga emas, qorin to‘yg‘izishga ko‘proq intilish, tamagirlik, maqsadga yetishuvning halol, to‘g‘ri yo‘lidan emas, balki oson va qing‘ir yo‘llarni topishga intilish millatning kelajagi uchun rahna soladigan eng xavfli omil ekani romanning asosiy g‘oyasi sanaladi. Qaysi zamonda bo‘lishidan qat’i nazar, inson doimo fikrlashga intilishi, tafakkur qilishi va yangi bilimlar sari harakat qilishi lozim. Aks holda o‘choqdan chiqqan qora tutundek har xil dogmalar girdobiga giriftor bo‘ladi. Bunday kimsalar go‘yo ongsiz jonivorlardan hech ham farq qilmaydi. Asarni mutolaa etish hamda yuqoridagi mulohazalarimizdan kelib chiqqan holda, romanni “Yolg‘onchi farishtalar yoxud dogmatizm qurbonlari” deb ham nomlash mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

Qalamida kulgi barq urgan ijodkor Ne’mat Aminovning “Yolg‘onchi farishtalar” asari yengil o‘qiladi, yuzda tabassum bilan o‘qiladi, hayrat bilan zavqlanib o‘qiladi. Ushbu asar har qaysi davrda o‘zining ahamiyati, o‘qishliligini va o‘z kitobxonini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov, N. (1987). *Yolg‘onchi farishtalar.* Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.

2. Mirvaliyev, S. (1993). *O‘zbek adiblari*. Toshkent: Fan, 107.

3. Abdusamatov, H. (1979). *Hamza – mohir satirik*. Sharq yulduzi. *8.*

4. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati.* (2014). Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.

NASRGA KO‘CHGAN HAYOT YOXUD O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA BIOGRAFIK CHIZGILAR

Hamrayeva Madina Nodirbek qizi,
ToshDO‘TAU adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)
2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biografik metod, biografik metodga asos bo‘luvchi omillar, muayyan asarni biografik metod asosida tahlil qilish haqida so‘z yuritiladi va O‘tkir Hoshimovning dur-u javohirlarga to‘la ijod xazinasi, xususan, “Nur borki, soya bor” romani biografik metod asosida tahlil qilindi. Tahlil davomida muallifning qahramon ruhiyati bilan o‘xshash jhatlari, muallif biografiyasining asar syujetiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zi: *biografik metod, ilk roman, ona obrazi, “qolip”, obraz, qahramon, syujet, personaj.*

Abstract. *This article talks about the biographical method, the factors underlying the biographical method, the analysis of a specific work based on the biographical method, and the treasure of creativity of Utkir Khashimov full of gems, in particular, the novel “There is light, there is shadow” was analyzed based on the biographical method. During the analysis, the similarities of the author's psyche with the hero‘s mentality, the impact of the author’s biography on the plot of the work are discussed.*

Keywords**:** *biographic method, first novel, mother image, “pattern”, image, hero, plot, character.*

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov butun umri davomida xalq uchun ijod qildi, halol mehnat qilib rizq topdi. Adib yaratgan har bir ijod mahsuli xalqimiz qalbidan joy olgan, O‘tkir Hoshimovning jilla qursa bitta asari topilmaydigan biron-bir xonadon bo‘lmasa kerak. Yozuvchilarning orasida yaratgan asaring kitobxonni o‘ylantirmasa, uni o‘ziga tortmasa, hech bo‘lmaganda bir kecha shu asar haqida o‘ylab chiqmasa, bu haqiqiy asar bo‘lmaydi singari gaplari aynan suyukli ijodkorimiz asarlariga xos xususiyatlaridandir. Haqiqatda,

O‘tkir Hoshimovning deyarli barcha asarlari: ocherklari, maqolalari, hikoyalar, qissalari va romanlari kitobxonni o‘ziga sehrlab qo‘yadi. Bu asarlar bir o‘tirishda yozilgan, biroq yozilishdan avval yillar davomida puxta o‘ylanib, “zuvalasi pishitilib”, manbalar to‘plangan.

“O‘tkir Hoshimov – ellikdan ortiq kitoblar muallifi. Uning asarlarini turkiy xalqlardan tashqari, ruslar, inglizlar, fors-tojiklar, beloruslar qisqasi millionlab kitobxonlar o‘qigan. Yozuvchi yaratgan katta-kichik qahramon – xarakter, obraz, personajlarni bir joyga jamlasa, shubhasiz, kattagina bir mahalla ahli bo‘ladi”(Rasulov, 2001, 38-bet).

Bilamizki, ijodkorning ijod mahsuli yaratilishida uning yashash sharoiti, atrofdagi muhit, qadrdon oilasi, yuz berayotgan voqealar, albatta, ta’sir qiladi. Ayniqsa, eng katta ta’sirni- bosib o‘tgan hayot yo‘li beradi.

“Hayotning boshqalar ko‘rmagan tomonini ko‘rish – talant. O‘sha narsani qanday ko‘rgan bo‘lsa, shundayligicha tasvirlash – talantsizlikdir. Haqiqiy iste’dod boshqalar ko‘rmagan narsani topadi va o‘sha “narsa” insonni, xalqni, boringki, jamiyatni qayoqqa boshlashi mumkinligini tasvirlab beradi. Ilmiy tilda aytadigan bo‘lsak, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantiradi” (Hoshimov, 2012, 225-bet). Bir so‘z bilan aytganda, O‘tkir Hoshimov mana shu “hayot haqiqati”ni anglab yetgan va uni o‘z asarlarida xalqqa oshkor qila olgan ijodkordir.

O‘tkir Hoshimov asarlari yozuvchining o‘zi kabi ko‘ngilga yaqin. Suyukli ijodkorimiz yillar davomida qimmatini yo‘qotmaydigan asarlar yaratgan haqiqiy xalq yozuvchisidir. Uning romanlari, qissalari yoki hikoyalarini o‘qir ekansiz, hech bir mantiqsizlikka, zamon va makon qonuniyatidagi uzilishlarga duch kelmaysiz. Sababi esa oddiy, O‘tkir Hoshimov asarlari o‘ta hayotiyligi, ayniqsa syujetdagi motivlarning aksariyatini o‘z boshidan kechirganligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ona obrazi asarlarga o‘zgacha ruh baxsh etadi. Adib yaratgan aksariyat ona obrazlari orqali o‘z onalarini tasvirlagan, illo onalari Poshshoxon aya to‘laligicha yoritilgan “Dunyoning ishlari” qissasi ko‘plab kitobsevarlar kutubxonasidan joy olgan. Bir qancha katta-yu kichik hikoyalarni o‘z ichiga olgan bu asarda Ona

favquloddagi hodisalarda ishtirok etadi; shu hodisalar yig‘indisi o‘laroq Onaning betakror, ulug‘ siymosi gavdalanadi.

O‘tkir Hoshimov adabiyotimizda o‘zbek onalariga mangu obida qo‘ygan yozuvchilardan biri. Sherzodning onasi (“Nur borki, soya bor”), Anvarning onasi (“Bahor qaytmaydi”), Kimsanning onasi (“Ikki eshik orasi”), Rustamning onasi (“Tushda kechgan umrlar”), Shoikrom, Shone’matning onasi (“Urushning so‘nggi qurboni”), Qurbonoy ona, Fotima ona, Nazira ona (“Tushda kechgan umrlar”), Poshsha ona, Mehri ona, Qumri ona (“Dunyoning ishlari”) – O‘tkir Hoshimov asarlaridagi onalarning ba‘zilari, xolos (Rasulov, 2001, 37-38-betlar).

Adib onalar haqida juda ko‘p va xo‘p yozgan. Shu sababli yozuvchini “o‘g‘lim”, “bolam” deb quchgan onalar anchagina bo‘lgan. Deyarli barcha o‘zbek onalari O‘tkir Hoshimovni o‘z bolasidek suygan, mehr bergan. Mahoratli munaqqid Abdug‘ofur Rasulov o‘z asarlarida bu haqda alohida to‘xtalganliklariga guvoh bo‘lamiz. O‘g‘li afg‘on urushida halok bo‘lgan quvalik Musharraf ona ko‘zda yosh bilan o‘g‘liga atab tikkan do‘ppisini O‘tkir Hoshimovga kiydirar ekan:

“– Sizni u dunyo, bu dunyo o‘z bolam deb bildim, – deganida xalq qo‘lini duoga ochganining guvohiman” (Rasulov, 2001, 38-bet).

Adib o‘zi bilmagan mavzuni, mohiyatini anglamagan masalani qalamga olmadi. O‘z qahramonlarini xolisona, tirik, hayotiy, jonli odam sifatida tasvirladi. Ularning qanday inson ekanligini zohiriy emas botiniy yoritdi. Ya’ni ruhiy olamini muhit, davr bilan birgalikda, katta falsafiy mushohada asosida teran tahlil qlldi. Aynan shu sifatlar bilan adibning “Bahor qaytmaydi” qissasi dunyoga keldi. Keyinchalik mazkur qissa asosida teleserial yaratildi.

Keling, endi adib ijodidan biroz chekinib, biografik metod haqida fikrlarimizni bayon qilsak. Ma’lumki, biografik metod ijodkorning hayot yo‘lini va yozuvchi tomonidan yaratilgan badiiy asarni o‘zaro juftlikda, birini ikkinchisidan ajratmagan holda, dialektik bog‘liqlikda, ijodkorning ijod mahsulini sintezlab tekshiradi. Mana shu tufayli biografik metodni yozuvchi tarjimayi holi bilan tanishishdan iborat, deb qarab bo‘lmaydi.

“Biografik metod yordamida, asosan, adibning ijodiy laboratoriyasi tadqiq qilinadi. Yozuvchi hayotidagi ma’lum bir voqea-hodisalar uning yaratgan asarlarida qaysidir jihatida o‘z aksini topgani aynan biografik metod orqali isbotlanadi. Olimlar aytganidek, u orqali ijodkorning shaxsiy hayotiga, yashagan muhitiga, ruhiy psixologik holatiga, shaxsiy qiziqishlariga, asarni yozishga turtki bergan ilhom faktorlariga, ijodkor laboratoriyasiga va shu kabi qator tarixiy-individual masalalarga jiddiy e’tibor beriladi” (Karimov, 2016, 166-bet).

Ma’lum bir asarni mutolaa qilar ekansiz, tushunganingizcha xulosa qilasiz, biroq uning tub zamirini anglab yetish uchun asar muallifini-da bilishingiz uning hayot yo‘li, ijod olami bilan biroz bo‘lsada tanish bo‘lishingiz kerak bo‘ladi. Sababi, asarda yozuvchi ichki kechinmalari va hayot yo‘llaridagi ma’lum bir holatlar aks etgan bo‘ladi, ba’zi asarlarda qahramonlar tilidan ijodkorning “men”i gapiradi. Qahramonni qiynayotgan muammolar, hasratlar quvonch-u alamlar aslida yozuvchiga tegishli bo‘ladi. *“Badiiy asar yozuvchining botiniy holati ko‘zgusi. Badiiy asarni anglash, talqin qilish, baholashda yozuvchi tarjimayi holi beqiyos ahamiyatga ega. Haqqoniy yozilgan tarjimayi hol badiiy matn ruhini, mohiyatini ochishda bebaho manbadir. Tiyrak talqinchi asar orqali yozuvchi holati haqida ko‘p narsalarni so‘zlab beradi”* (Rasulov, 2002, 19-bet).

Yuqorida keltirilgan omillar asosida mahoratli adibimiz O‘tkir Hoshimovning “Nur borki soya bor” romanini tahlilga tortamiz.

Hammamizga ma’lumki, “Nur borki, soya bor” romanida gazeta nashriyotida ishlaydigan, o‘z hikoyalari bilan mashg‘ul bo‘lib qolgan, yurak xastaligi bilan kasalxonaga tushgan, professor Rauf Abdullayev klinikasida shifo topayotgan Sherzod bosh qahramon sifatida tasvirlanadi. Asardagi bu personaj, aslida, ma’lum ma’noda adibning o‘zi. Bu roman yaratilishidan bir oz avval yozuvchi bir sayohatga boradi. Yozgi ta’tilni o‘tkazish uchun Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Abdug‘afur Rasulov va O‘tkir Hoshimov Tog‘li Badaxshonga yo‘l olishadi. Yo‘l uzoq va o‘ta mashaqqatli, qiyin kechadi. Ularga Ahmadjon va Solijon degan kishilar shofyorlik qilishadi. Ahmadjon Yoshi ulug‘, gapdon hazilkash, Solijon bo‘lsa, kamgap, ochiqko‘ngil, soddagina, qirq yoshlar atrofidagi

odam edi. Manzilga yetguncha adiblarning bo‘lari bo‘ladi. Dovonlardan o‘tib manzilga yetgach hammasi joyiga tushadi, biroq O‘tkir Hoshimov kun sayin so‘lib yuragi besaranjom bo‘ladi va sayohatda ko‘p qolmaydi. Sayohatdan qaytishi bilan adib kasalxonaga yotadi va mashhur kordiolig, professor Rauf Abdullayev qo‘lida davolanadi. Adib hayotidagi bu kichik bir xotirani keltirishimizga sabab, uning bu taqdiri to‘laligicha asardagi Sherzod hayotiga ko‘chgan. Sherzod ko‘p jihati bilan O‘tkir Hoshimovning o‘zi edi. U ham kasalxonaga tushishidan oldin Badaxshon safaridan qaytgan edi. Romanda keltirilgan Badaxshon safari to‘liq, Sherzodning kundalik xotiralar tarzida kelgan. Xizmat safaridagi kayfiyat, holat ayni yozuvchinikidek. Biroq ijodkor laboratoriyasida yangi qahramonlar, yangicha talqinlar, yangi syujet chiziqlari paydo bo‘ladi. Yozuvchiga shofyorlik qilgan Solijon “yosharib”, qo‘l oyog‘idan o‘t chaqnaydigan yigitga – Tangriberganga aylanadi. Romandagi g‘irrom Sirojiddin, uning ta’magir, g‘ururs‘iz domlasi, Zuhra, Abduvohid singari personajlar ham hayotda bo‘lgan, biroq romanga o‘zgacha g‘oyaviy “yuk”ni ko‘taruvchilar sifatida kiritilgan edi. Yozuvchi 70-yillar avvalida ana shunday taqliddagi kishilar bilan ko‘rishgan, ularning fe’l-atvori, tiynatini obdon o‘rgangan. Asarda Sayfi Soqiyevich , uning gumashtalari, kolxoz raisi kabi to‘qima obrazlar ham mavjud, ular timsolida turg‘unlik yillarining illatlari fosh etiladi.

“Nur borki, soya bor” – O‘tkir Hoshimovning ilk romani. Tarjimayi holining nurli nuqtasi. Asarda yetmishinchi yillar sho‘ro adabiyotining ayrim “qoliplari” ham uchraydi. Roman ruhida, bosh qahramon xarakterida kommunistik g‘oyani payqash qiyin emas. Sherzod hamisha jurnalistik kasbiga sodiq qoladi – ijtimoiy masalalar qozonida qaynaydi: hali Sayfi Soqiyevich qilmishlaridan jirkanadi, hali o‘zboshimcha raisni fosh etib felyeton yozadi, hali Sirojiddin va uning tamagir domlasidan ranjib yuradi. Asarda xalq nazorati idorasining boshlig‘i Sulaymon Rustamovich qiyin vaziyatda Sherzodni qo‘llab yuboradi. Shu tariqa kundalik turmushdagi adolatsizliklar ustidan g‘olib chiqishning yo‘li o‘sha kezlardagi partiya-hukumat rahbarlari bilan bog‘liq, degan xulosaga keladi.

“Nur borki, soya bor” romani Yozuvchilar uyushmasida muhokamadan o‘tgan bo‘lsa ham, ancha vaqtgacha tahririyatlar papkasida chang bosib yotadi. Sababi asarda o‘sha paytgacha aytilmagan, aytishga qo‘rqilgan talay muammolar o‘rtaga tashlangan edi. Nima uchun oli o‘quv yurtlariga aqli toshni yoradigan bola emas, alifni kaltak deyolmaydiga boyvachchalar kiradi? Nima sababdan qishloq maktabi o‘quvchisiga ham, o‘qituvchisiga ham kolxoz brigadiri xo‘jayinlik qiladi? Nega uni kun-u tun paxta dalasida ishlatadi?

Romanda bunday illatlarni ochiqchasiga aytish o‘sha davr uchun katta jasorat edi. Balki shu tufayli muallif asarning “siyosiy tusini” bo‘rttirish uchun Sherzodning xalq nazoratidan najot topganini tasvirlagandir?

Xulosa qilib aytganda, “Nur borki, soya bor” romanida xalq ongini o‘stiradigan, kishilarni mushohada yuritishga undaydigan masalalarni pishiq-puxta xarakterlarda aks ettirdi. Roman nashr qilingach, viloyatlarda ijodkor bilan asar muhokamasi yuzasidan ko‘plab uchrashuvlar bo‘ldi. Bunday uchrashuvlarning birida dunyoqarashi ancha keng bir kitobxon yozuvchidan asar nomi nega aynan “Nur borki, soya bor” ekanligini hamda hayot davomida soyalar yo‘qolishiga ishonish ishonmasligini so‘raydi? Adib ishonmasligini aytganidan so‘ng, kitobxon “Hatto kommunizmdan ham soyalar qoladimi?”, – deb savol beradi.

“– Avval kommunizmga yetib olaylik-chi, soyalar bo‘ladimi, yo‘qmi o‘shanda ko‘ramiz, deb javob qaytaradi.”

Adibning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobida shunday jumlalar bor: *“Jannatdan hech kim qaytib chiqmaydi. Kommunizmga hech kim yetib bormaydi!”. Bu satrlar o‘sha kitobxonning savoliga javob bo‘la oladi” (Hoshimov, 2012, 82-bet).*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov, A. (2002). *Hozirgi o‘zbek tanqidchiligida tahlil va talqin muammosi*. Toshkent.

2. Karimov, B. (2016). *Ruhiyat alifbosi*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.

Hoshimov, O‘. (2012). *Daftar hoshiyasidagi bitiklar*. Toshkent: Sharq

“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDAGI AYOLLAR OBRAZI

Husenova Dildora Davron qizi,
ToshDO‘TAU OTAT 3-kurs
dhusenova51@gmail.com

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada mashhur yozuvchi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi Jamoliddin ketmon, Aqrab va Dehqonqullarning ayollari obrazi uch davr nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar**: ayol, Jamoliddin ketmonning ayoli, Aqrabning ayoli, Dehqonqulning ayoli, tuzum, milliy ruh, sho‘ro, qadr-qimmat.*

***Abstract.** In this article, the image of the women of Jamoliddin hoe, Aqrab and Dehkankuls in the novel of Togay Murad is analyzed from the point of view of three eras.*

***Keywords**: woman, Jamoliddin hoe’s wife, Akrab’s wife, Dehkankul’s wife, government, national soul, socialism, value.*

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, mashhur adib Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani o‘zining ta’biri bilan aytganda, *“o‘zbek xalqiga haykal qo‘yilgan”* romandir. Unda Oqpodsho yerini, suvini bulg‘agani uchun o‘zi tug‘ilib o‘sgan yerdan bosh olib ketgan Jamoliddin ketmon, o‘z ona tuprog‘i uchun qizillarga qarshi kurash olib borgan va qabri o‘z tuprog‘ining bug‘doyzorlarida qolib ketgan Aqrab, dalalariga mehr qo‘ygan va shu dalalardan boshqani o‘ylamaydigan, pirovardida esa sovet tizimining qurboniga aylangan Dehqonqul obrazlari orqali mustamlakaga aylangan xalqimiz qismati va mustamlakachilarning zulmi ochib beriladi. Shu ma’noda bu asarni o‘zbek xalqining tarixiy hujjati desak bo‘ladi.

Mustamlakachilik tizimi o‘sha davrdagi barcha jamiyat vakillariga, jumladan bolalar, ayollar, erkaklar, keksalar hayotida jiddiy rol o‘ynagan.

“Otamdan qolgan dalalar” romanidagi ayollar evolyutsiyasiga nazar tashlasak, Jaloliddin ketmonning ayoli va Aqrabning ayoli o‘rtasida, Aqrabning va Dehqonqulning ayoli o‘rtasida keskin farqlar borligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni zamonlar almashgan sayin ayollar xarakteri va tafakkurida ham o‘zgarishlarni va rivojlanishlarni ko‘rish mumkin.

Jamoliddin ketmonning ayoli jamiyatda yuz berayotgan voqealarga loqayd, hatto ularni to‘liq anglab yetmaganligini quyidagi jumlalarda ko‘rishimiz mumkin.

“ J: - Kofir yumalab yotar dalada fayz qoladimi?

M: - Bir yotsa yotibdi-da.

J: - Bo‘ldi, endi u daladan baraka ko‘tarildi.

M: - Bosib-bosib suvlang. Suv nimalarni yuvmaydi.

J: - Suv? Suv qoldimi! Oq to‘ng‘iz ag‘anay berib, subni-da haromladi!”

Shu suhbat natijasida uni faqat uy-ro‘zg‘or yumushlari bilan band, uydan ko‘chaga chiqmaydigan ayol ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu ayol xonliklar davrida yashagan, jamiyat hayotida ishtirok etmagan.

Aqrabning ayoli Bolxin momo ham dastlab qizillarning xalqqa do‘st emasligini anglab yetmaydi:

“*A: - Sho‘rolar, biz to‘ng‘ich, siz kenjasiz, deydi. Biz sizlarning katta akalaringiz bo‘lamiz, deydi. Shunday ekan, sizlar bizlarga bo‘ysunishlariningiz lozim, deydi.*

M: - Yaxshi, musulmonchilikni bilar ekan.

A: - Dehqonqul! Gap musulmonchilikda emas, qizil rang yaxshilikka olib kelmaydi, qizil rang odamni aldaydi. Qizil rang - qon rang. Qon rangdan ro‘shnolik kutma.

M: - Zamon tinch bo‘lsa, bo‘pti-da.”

Ammo, erining tasiri ostida atrofida yuz berayotgan voqealarni biroz anglay boshlaydi. Aqrabni olib ketib, o‘ldirishgandan keyin ayol yolg‘iz boshi bilan yagona dilbandi Dehqonqulni katta qiladi. Aqrabning ayoli ijtimoiy hayotda faol ayollardan biri bo‘lib, og‘iroyoq boshi bilan hammadan ko‘p paxta terib, paxtakorlikda ancha nom chiqaradi. *“Kattalar o‘z vaqtida onamizni Stalin kolxoziga paxtaga haydaydi. Onamiz oyoq tiraydi, og‘iroyoqman, deydi. Kattalar, paxta og‘iroyoqni bilmaydi, deydi. Onamiz tongdan shomgacha paxta teradi. Musobaqada g‘olib bo‘ladi. Bayroq oladi. Surati bilan ro‘znomada chiqadi. Oy-kuni bo‘lmasa-da, onamizni egatda dard tutadi. Onamiz egatda ichlarini ushlab-*

ushlab voyvoylaydi. "Erkaklar bilan teng huquqli bo'lmay men o'layin-a, Sharqda mash'al bo'lmay men o'layin-a" – deydi. Oppoq dalani chala chaqaloq ovozi oladi." Shu o'rinda yozuvchi sovetlarning paxtada shavfqatsiz siyosat olib borganiga, bunday hodisalar o'sha davrda tez-tez takrorlanib turganiga va bunga oddiy hol deb qaralganiga ishora qilganini ko'rishimiz mumkin.

Dehqonqulning ayoli asar boshidayoq eridan, hayotidan, turmushidan norozi holda tasvirlanadi. Buni uning bot-bot *"O'lsam qutulamanmi shundan, o'lsam qutulamanmi?!"* deya takrorlashidan ham bilsa bo'ladi. Asarning 5-bob 11-qismida ayolning kundalik yumushlari tasvirlanadi. Yana kundalik yumushlardan keyin dalaga boradi. U bir ayol sifatida bir erkakning yumushidan-da ko'proq ishlarni bajaradi. *"Ayolimiznng oyoqlari… turli-tuman bo'ldi! Bebilchagidan yuqorisi osma qovundayin to'r-to'r qora bo'ldi. Kalishdan tashqari yurgich joyi ana shunday to'rlama-to'rlama bo'ldi. Bebilchagidan pasti quyruqdayin oppoq-oppoq bo'ldi. Kalish ichida yurgich joyi ana shunday quyruq-quyruq bo'ldi! Ayolimiz tovonlari… qop-qora bo'ldi! Ayolimiz tovonlari… tilim-tilim yoriq bo'ldi! Qaqroq yerday-qaqroq yerday taram-taram yoriq bo'ldi!" "Bechora dala-da bir ko'ylakda yuradi, uyda bir ko'ylakda yuradi. Bechora kunda bir ko'ylak kiyadi, tunda bir ko'ylak kiyadi. Bechora haftalab bir ko'ylak kiyadi, oylab bir ko'ylak kiyadi. Ko'ylak almashtirayin demaydi. Ko'ylak tugul, qo'ltiq tugul – oyna qaramaydi."*

Bu tasvirlar orqali ayolning naqadar dahshatli hayotda yashaganini ko'rishimiz mumkin. Ayolni nozik xilqat, ojiza deya berilgan ta'riflarga qarama-qarshi ravishda uning hayoti salkam do'zaxga o'xshaydi. Mana shunday hayot ayolni o'zini yoqishiga sabab bo'ladi. Eng dahshatlisi, bunday hodisa faqat Dehqonqulning ayoli hayotida emas, respublikaning 753 ta ayoli hayotida takrorlanadi. *"Dunyoga kelib nima ko'rdim? Beshik ko'rdim. Dunyoga kelib nima ko'rdim? G'o'za ko'rdim, paxta ko'rdim. Kun ko'rdim – g'o'za ko'rdim. Tun ko'rdim – beshik ko'rdim. Beshik mozorim bo'ldi, dala mozoristonim bo'ldi"*

Bu uch obrazni xronologik jihatdan kuzatsak, chor Rossiya yurtimizni bosib olgan paytlarda ayollar ijtimoiy hayotda umuman qatnashmaganini, loqayd

qaraganini ko‘rishimiz mumkin. Sovet hukumati davrida esa ayollarda ishchi kuchi sifatida foydalanishgan. Bu hol esa ayollarda katta ruhiy zo‘riqishni paydo qilgan. Go‘yoki, hukumatning barcha harakatlari inson uchun, uning qadr-qimmati uchun qilinganday ko‘rinsa-da, insonlarning inson sifatida hech qanday o‘rni bo‘lmagan. Dehqonqul ayolining o‘zini yoqishi esa, bu tuzumga, bu hayotga qarshi bir isyon edi.

“Ayollar yonmoqda O‘zbekistonda,
Isyondir bu, soxta hayot qa’rida…”

Tog‘ay Murodning mahorati shundaki, u biror asarida timsollardagi ma’naviy fazilatlar borasida axborot bermaydi, bayon etmaydi, balki ularni jonlantirib ko‘rsatadi. Uning asarlari birvarakayiga quloq, ko‘z va shuur orqali ko‘ngilga ko‘chadi. Biz yuqoridagi uch ayolning xarakteri, hol-ahvoli, ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari yozuvchi tomonidan biror o‘rinda alohida tasvirlanganini, izoh berilganini ko‘rmaymiz. Asarni o‘qish davomida ularning gap-so‘zlaridan, xatti-harakatlaridan buni bilib olamiz va his qilamiz. Yozuvchi o‘z millati ruhiyatini ich-ichidan biladi va tuyadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov, D. (2020). *Adabiyot nazariyasi asoslari.* Toshlent: Innovatsiya-Ziyo. 310 b.
2. Tog‘ay Murod. (2019). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Sharq. 704 b.
3. Yo‘ldoshev, Q. *Tog‘ay Murod badiiyati* . Toshkent. Hurriyat gazetasi.

“BILGA XOQON” ROMANI – TARIXIY MADANIYAT KO‘ZGUSI

Ikromov Akmal Ikrom o‘g‘li
ToshDO‘TAU, O‘FF 3-kurs
ikromovakmal13@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘zbek adabiyotining bugungi kundagi zabardast vakili Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romani haqida bo‘lib, unda asarning bugungi kundagi o‘rni, badiiy va til xususiyatlari alohida tahlilga tortilgan. Olimlarning “bil” leksemasining semantik jihatidan yondashuviga tayangan holda “Bilga” so‘zining asar mazmuni bilan bog‘liq-hamohang badiiy va til xususiyatlari doirasida fikr bildiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Valle, Burgess, assimilyatsiya, A. N. Kononov, “Ko‘k Tangri”.*

Abstract. *This article is about the novel “Bilga Khoqon” by Isajan Sultan, a powerful figure in Uzbek literature today, which analyzes the role of the poem today, its artistic and linguistic characteristics. Based on the semantic approach of the "know" lecture, the word "bilga" is expressed within the scope of artistic and linguistic characteristics associated with the content of the work*

Keywords: *Valle, Burgess, assimilyatsiya, A. N. Kononov, “Kok Tangri”.*

Xalqimiz ibtidosi olis moziyga borib taqalishi bugun barchamizga sir emas. Zaminni titratgan, o‘z jasorati ila avlodlarga o‘rnak, ota-bobolariga munosib voris bo‘la olganlar bu ko‘hna zaminda minglab topilishi mumkin! Bir so‘z bilan aytganda, tariximiz bir ko‘zguki, unga boqib, kechani, bugunimizni va ortimizda turgan ertangi kunimizni-da ko‘rishimiz mumkin!

Turkiy xalqlar, jumladan, mamlakatimiz o‘tmishi ham olis-olislarga borib taqaladiki, undan xulosa qilmoq, taftish etmoq va, avvalo, o‘rnak olmoq bugunning asosiy vazifasidir. Zero, hozirgi integratsiyalashuv jarayonida (Integratsiya birinchi marta 1921-yilda Valle va Burgess tomonidan *assimilyatsiya* (lotincha - *“o‘xshash bo‘lish”*) tushunchasi orqali o‘rganilgan. Ular buni “*shaxslar va guruhlar boshqa shaxslar va guruhlarning xotiralari, his-tuyg‘ulari va munosabatlariga ega bo‘lishlari va o‘zlarining tajribasi va tarixini baham ko‘rish orqali ular bilan umumiy madaniy hayotga qo‘shilish jarayoni”* deb ta’riflaydilar) shaxs o‘z kechmishi, o‘zligi, milliy an’ana va qadriyatlaridan uzoqlashar ekan, bu jarayon ijtimoiy tuzilma va shu tuzilmaga mansub shaxslararo umumiy bo‘lgan tushunchalardan anchayin chetga chiqib qolishiga va bu orqali o‘zligini yo‘qotib, shaxs safidan ko‘tarilishi-uzoqlashishiga olib kelishi mumkin. Arximed aytganidek, “*Menga tayanch nuqtasini bering, men Yerni ko‘taraman”* (Turdiyev, 2017, 3-bet). Ya’ni millatning tayanch nuqtalaridan biri bu – uning tarixi. Agarda ana shu tarixni o‘rtadan ko‘tarishar ekan, har qanday millat “o‘z o‘qi” atrofida emas, betartib holda aylanadiki, o‘q tugul Quyosh ham uni tutib tura olmaydi. Cheksiz koinotaro “qora tuynuk” o‘ljasiga yo‘g‘rilishi hech gap emas.

Ayni damda adabiyot va tarix o‘zaro chambarchas rishtalar ila bog‘langanki, ikkisini-da bir-biridan ayro holda tasavvur etish dargumondir. Bugun esa bu aloqadorlik o‘zining har doimgi o‘rnida sobit qolmoqda. Bu birliklar ichida adabiyot nisbatan kattaroq kuchga ega. Faqat ugina bir millat tushunchasiga xos xususiy va umuminsoniy tuyg‘ular ila kishi ruhiga ta’sir etishi, shu orqali insonni tarbiyalashi mumkin.

Adabiyotimizga mavzu bo‘larli ibratli tarixiy asosga ega voqealar yetarlicha topiladi. Xoh o‘tkan bir necha asr, xoh yaqin bir necha yil tarix o‘z so‘zini adabiyot orqali aytib kelmoqda.

Tarixiy asarlar yaratish mobaynida sermahsul ijodi ila ushbu jarayonga o‘z hissasini qo‘shib kelayotganlar bugun ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Xususan, Isajon Sulton o‘zining “Alisher Navoiy”, “Bilga xoqon”, “Abu Rayhon Beruniy” nomli romanlari, “Robiya Balxiy” qissasi va shu mavzuga doir bir qancha hikoyalari, Luqmon Bo‘rixon “Imom Moturudiy” romani, Xayriddin Begmatov “Temurbek – Turkiston amiri” kabi asarlari bilan hozirgi adabiy jarayonni tom ma’noda boyitib turmoqdalar.

Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romani uzoq o‘tmish toshbitiklari sirtiga chekilgan tarix to‘g‘risida hikoya qiladi.

Asar haqida so‘zlashdan burun sarlavhaga alohida e’tibor qaratmoq lozim. Zero, qadimgi turkiy til ana shu yerda o‘z go‘zalligini yana bir bor namoyon etsa, ne ajab?!

“Bilga xoqon” – “Dono xoqon” demak. Ya’ni “bilga” – bu dono. Va so‘z iste’molga kirgan keyingi davrlardan boshlab “xoqon” leksemasi ma’nosida “turk el bilga” – “turk elining xoqoni, xoni” tarzida qo‘llangan. Bora-bora “dono xoqon” ma’nosini beruvchi bu birikma yaxlitlanib, “bilga” shakliga kelgan va mohiyat bir vaqtda ham “dono”, ham “xoqon” ma’nosini ifodalagan. Bu so‘z semasi esa “boshqarmoq” fe’liga yaqinlashib borgan. Asos sifatida tilshunos olimlardan Igor Valintinovich Kormushinning *“Древние тюркские языки”* o‘quv qo‘llanmasida: *«Родился Тоньюкук. Билге* ***«мудрый имя»*** *прил. очень древнего образования на -га / -ге, от бил - знать. Как считал академик А.Н.Кононов, в*

словосочетании Билге Тонюкук «билге в данном случае, по всей вероятности, есть титул или звание, значение которого определяется семантикой его исходной основы: бил - управлять, распоряжаться, ***«Правитель, правящий»*** (Валентинович, 2004, С. 94).

Qo‘shimcha sifatida yana bir asosni keltirib o‘tsak: Mushtariy Xolmurodovaning *“Qutadg‘u bilig” leksikasi”* monografiyasida Sergey Yefimovich Malovning “Кутадгу билиг-факсимиле // Советское востоковедение” ishidan “Qutadg‘u bilig”ning yuqoridagi ma’noga yaqin qismini keltirib o‘tadi. Unga ko‘ra S. Y. Malov ***“Осчастливаюшее управление”*** - *“Baxtli boshqaruv”* deb tarjima qiladi.

Yuqoridagi asoslarga tayangan holda ayta olamizki, “Bilga xoqon” romanidagi podsholik davri dono hukmdor boshqaruviga asoslanganligi bois ham, bugungi kun uchun dolzarb masalani yoritganligiga guvoh bo‘lamiz.

Roman, dastlab, Ishbara va Bulutning erta tonggi ochligi aks etgan jarayondan boshlanadi. Ammo qahramonlar nutqiga e’tibor qaratilsa, ularni tashvishga solayotgan ochlik o‘zlari uchun emas, aksincha, yaqinlari uchun ekanligi anglashiladi: *“ – Ena, men ovloqni ko‘rib kelay. Bir nima tushgan bo‘lsa, opkelib pishirib beraman, – dedi. – Mol-qo‘yni yeb bitirdik, – dedi Bulut. – Oshliq tugab bitdi, et yo‘q. Jo‘jiqlar ochidan o‘layotir…”(*Sulton, 2022, 11-bet).

Ushbu parcha o‘zidan-da xalqi g‘amiga ichkuyarroq shaxs obrazini ochib beradi butun asar davomida. Ishbara – oddiy xalq vakili. Har holda o‘z zamonasi uchun shunday. Bugun-chi? Ayni dam bu qahramonning adabiy va ijtimoiy jarayondagi o‘rni qay darajada? Ishbara – Vatanning asl farzandi. U ayni faoliyatni so‘zlar bilan, bir qatorda, amallari ili isbotlaydi. Nomini manguga qadar muhrlaydi.

Ishbara singari jasur yigitlar, matonatli qiz-juvonlar bu xalqda yetarli edi. Roman mobaynida ular ayollar va bolalarning bayramlar, majlislarda bir yerda to‘p bo‘lib, Bilgani tinglayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Zero, farzand tarbiyasi Abdurauf Fitrat aytganidek: *“Biz turkistonliklar o‘z xotinlarimizni odamiyat doirasidan tashqarida deb o‘ylaymiz va u bechoralarga odamga qilgandek*

muomala qilmaymiz… Ma'lumki, odam birinchi tarbiyani onasining bag'rida oladi. Shu narsa muqarrarki, birinchi tarbiya (oila tarbiyasi) tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Uning ta'siri odam tabiatiga mustahkam o'rnashadi. Shaxs ruhiyati, axloq javhari va odatlari bolaligidanoq shakllanadi. Endi o'zingiz bir o'ylang, biz boshlang'ich tarbiyani shu onalarimizdan olar ekanmiz, nega biz ham shu ahvolga tushmas ekanmiz?" (Fitrat, 2000, 34-bet).

Abdurauf Fitrat "Oila" risolasida keltirgan jamiyat va Isajon Sulton ta'riflagan ushbu jamoa tuzumi bir-biridan keskin farq etadiki, oradagi tafovut asrlar singari yiroq ko'rinadi: *"Tuzuk shunday edi: yalangga chiqqan qizga qarshisidagi yigit yoqmasa, ortiga qayta olardi. Biroq yigit qaytsa bo'lmasdi"* (Sulton, 2022, 15-bet).

Umuman, asarda adolat, mardlik, jasorat, vatanparvarlik singari tuyg'ular kuylanar ekan, tarixiy dalillik ila ular asoslanib ijtimoiylik jihatidan bugungi kun bilan bog'lanib boradi.

Asarda og'a-inililik munosabatlari insoniylik darajasida yuqori ko'tarilib borarkan, bu o'zaro qardoshlik xalq shuuriga singgan holda "elat birdamligi"ga aylanadi: "*Inisi Kul Tiginning ko'zi bo'ri ko'zidek yondi.*

- Og'am, – dedi. – Izn bersang, muni men bosib-yoyay.

- Yonimda tur, – dedi Bilga xoqon. – Og'a-ini yelkama-yelka uraylik…" (Sulton, 2022, 64-bet).

Ammo vaziyatlar har turfaligini qiladi. Zamona gunguradorligi (hayosizlik) ortidan tarix o'zi bilan ayrim ulug'liklarni olib ketadi. Mana shu kezlarda dunyoga mardligi, erlik oti ila nom chiqargan buyuk xalqdan-da Meyli Chur singari o'z nafsiga qul, sarqitlar paydo bo'ladi. Yozuvchi ushbu obraz vositasida insonni o'yga toldiruvchi savolni o'rtaga tashlaydi. Yashash sharoiti - bir, eli, dini-da bir, turumi-turmushi farqsiz bu insonlardagi sezilarli tafovutning boisi ne ekanligiga o'quvchini beixtiyor javob izlatadi. Shu bilan bir qatorda, asardagi salbiy qahramon - Meyli Churga bir taraflama munosabatda bo'linmaydi: *"Yasama viqor bilan atay yuvosh odim otib, ikki tizi bukilib-bukilib yuradigan bu kishi bolaligidayoq xoqon bo'lgisi kelardi. Kichik yoshli bolakaylarning o'zaro*

o‘yinlarida mol dumidan tug‘ qilib, ustiga otasining eski po‘stinini tashlab o‘zicha buyruqlar berardi…” (Sulton, 2022, 35-bet).

Yuqoridagi ta’riflarga tayangan holda ayta olamizki, Meyli Chur – hayot mazgili (manzili)da to‘g‘ri yo‘l tuta olmagan inson. U birgina xatoga yo‘l qo‘ydi. Afsuski, bu xato o‘zini-da xarob etdi.

Meyli Chur Tabg‘achga sig‘indi. Unga talpindi. O‘zida qullikka moyillikni kashf etdi. Ammo maqsadi xoqon bo‘lmoq edi. Qullik vujudini qamrab olgan bu manqurt o‘zligi-turkiy jasoratidan ayrildi. Bugun Meyli Churning izdoshlari, nadomatlar bo‘lsinki, ko‘p bo‘lmasa-da, har yer-har yerda uchrab turibdi. Ular o‘z xalqlari turumidan ko‘ra o‘zga millat, elatlarning turum-turmushini ustun qo‘yadilar.

Garchi Meyli Chur xoqoniga xiyonat qilgan bo‘lmasin, qalbining bir chetida u ham turkiy edi, aslida. U ham dunyoni titratgan jasoratli xalq farzandi edi: *“Turkiy er qoni buzuq tabg‘achga kuyov bo‘lsa, yarashiliqmi? – der edi ongining bir chetidan qattiq bir tovush. – Qornim paqayib to‘ysin, o‘zim yumshoq bolishlarda miriqib yotay, deb ulusingni sotib ketasanmi?”.* (Sulton, 2022, 36-bet).

Ko‘rinib turibdiki, qahramon ruhiyatidagi qarama-qarshilik yozuvchi tomonidan mohirona tarzda ochib berilganki, bugunning kishisi-da, bu narsaga befarq munosabatda bo‘la olmaydi.

Tarixiy roman yozish jarayonida yozuvchi qadriyatlar masalasiga to‘xtalmas ekan, bu narsa tarixiy asarning ishonchliligiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Zero, bir el o‘tmishi tilga olinsa-yu, necha zamonlardan buyon mavjud urf-odat, an’analariga e’tibor qaratilmas ekan, “malakali o‘quvchi” unga ishonmaydi. Bundan tashqari, qahramonlar taqdirining el taqdiriga daxldorlik ila keltirilishi vatanparvarlik g‘oyasining yorqin namunasi o‘laroq yuzaga chiqadi.

Romandagi qahramonlar bundan ming yillar burun yashaganlar, ov qilganlar, faoliyat bilan shug‘ullanganlar, “Ko‘k Tangri”ga e’tiqod qilganlar. “Ko‘kturk” deya atalganlar. Yer-u zamin, osmon-u falakka nisbatan “ko‘k”ni qo‘llaganlar. Yer-u osmonni “ko‘k” ataganlar.

Inson vafot etgach uning jasadi zamin-ko‘k uzra qo‘nim topadi – ruhi ko‘k (samo)dan orom topadi. Jasadi shu zamin (ko‘k) uzra qoladi. Zamin uzra hayot spiralsimon yer-u koinot qadar davom etaveradi.

Hazrat Mir Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarida keltiradilarki: *“... Va ko‘k lafzin ham necha ma’ni bila iste’mol qilurlar. Biri ko‘k-osmonni derlar. Yana ko‘k ohangdur. Yana ko‘k tegrada ko‘klamakdur. Yana ko‘k qadog‘ni ham derlar. Yana ko‘k sabza va o‘langni dag‘i derlar. Bu nav’ alfoz hamki, uch ma’ni va to‘rt ma’ni va ortug‘roqkim, iroda qilsa bo‘lg‘ay, ko‘p borki, forsiy alfozda andoq yo‘qtur.”* (Navoiy, 2000, 64-bet).

So‘ngso‘z qabilida aytadigan xulosa shuki, yozuvchi Isajon Sultonning ushbu romani insoniyatning, xususan, turkiy qavm tarixining shonli kunlariga tashlangan o‘tkir nigoh ila yuzaga kelgan. Roman o‘tmishni tasvirlash orqali bugungi kunimizga uzoqdan turib nazar tashlash, xatolarda xulosa chiqarish va shu millat, shu xalq uchun jon-jahdi bilan harakat qilish, bu orqali yuksak darajaga erishish imkonining mavjudligi, barchasi - xalqning qo‘lida, yagona harakat lozim degan nigoh ila tashlangan mardonavor qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat, A. (2000). *Oila yoki boshqarish tartiblari*. (34-bet). Toshkent: Ma’naviyat.
2. Navoiy, A. (2000). *Mukammal asarlar to‘plami. 16-tom.* (64-bet). Toshkent: “Fan” nashriyoti.
3. Turdiyev, N. (2017). *Fizika.* (3-bet). Toshkent: O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
4. Xolmurodova, M. (2020). *“Qutadg‘u bilig” leksikasi* (65-bet). Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti.
5. Ziyoyev, H. (2008). *Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri*. (2-bet). Toshkent: Ma’naviyat.
6. Валентинович, И. (2004). *Древние тюрские языки* (С. 96). Абакан: Хакас.

“OLTIN ZANGLAMAS” ROMANIDA INSON, DAVR VA RUHIYAT TASVIRI

Isayeva Madina Ravshan qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 3-kurs talabasi
madinaisayeva684@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yozuvchi Shuhratning “Oltin zanglamas” romani badiiy va g‘oyaviy jihatdan tahlilga tortilgan. Asarda sadoqat timsoli qilib gavdalantirilgan qahramon misolida butun oila tizgini, keng tafakkur doirasida esa Vatan anglashilganiga duch kelish mumkin. Maqolada sadoqat va xiyonat, muhabbat va nafrat, do‘stlik va dushmanlik tushunchalarining parallel ravishda talqini,shuningdek, bu hayotda har kechmishga bardoshli va matonatli ayol siymosi xususida so‘z borgan.*

Kalit so‘zlar. *Vatan, urush, inqilob, qo‘rboshilik harakati, sadoqat, xiyonat, insoniylik.*

Abstract. *In this article, writer Shuhrat’s novel “Oltin zanglamas” is analyzed from an artistic and ideological point of view. In the character of the hero who is embodied as a symbol of loyalty in the play, one can come across the reins of the whole family, and the Motherland as part of a broad thinking. The article talks about the parallel interpretation of the concepts of loyalty and betrayal, love and hatred, friendship and enmity, and, in general, about the character of a woman who is resilient and persistent in this life.*

Keywords. *Motherland, war, revolution, combat action, loyalty, betrayal, moral.*

Badiiy adabiyot – ichida yana bir kichik hayot mujassam bo‘lgan manzil. Shu hayot – kishi dunyoqarashini kengaytiradi, uni kamolot cho‘qqisiga yetaklaydi. Har qanday asarni har qanday kishi o‘qishi mumkin, biroq, shunday asarlar bo‘ladiki, ularning ichida yashaladi, ular bilan birga nafas olinadi. O‘qish jarayonida siz qahramon bilan birga yonib, birga kuysangiz, uning qalb kechinmalarini o‘zingizda his qilsangizgina, ana unda yozuvchi o‘z maqsadiga erishadi. Ana shundagina asar sizga “tatiydi”… Shunday asarlardan biri Shuhratning “Oltin zanglamas” romanidir. Ushbu roman o‘zbek xalqining 30-yillar qatag‘onlari va Ikkinchi jahon urushida fashistlarga qarshi mardonovor kurashini

yoritadi. Xususan, aynan bir inson qiyofasida ham tasvirlaydi, matonatli oila taqdirini ko‘rsatib beradi.

O‘zbek adabiyotining serqirra namoyondalaridan biri shoir, nosir va dramaturg Shuhrat (G‘ulom Alimov) o‘z ijodini 1935-yilda she’r yozish bilan boshlaydi. Keyinchalik dostonlari ham bosiladi. 1940-yil harbiy xizmatga chaqirilgan adib Ikkinchi jahon urushi janglarida ofitser lavozimida ishtirok etadi. Urushdan keyingi yillarda ham ijodda jo‘shqin ishlar olib bordi. Asarlari lirik qahramon ruhiy olamining yorqin ifodalanganligi, his-tuyg‘ularning samimiyligi bilan ajralib turadi. Fashizmga qarshi kurashlarning ham guvohi bo‘lgan adib endilikda yirik nasrga o‘tadi. Uning o‘zi “Oltin zanglamas” asari haqida, *“Men bu hayotning atrofida emas, naq ichida bo‘lganman. Bu mavzuda biror narsa yaratmasam ko‘nglim joyiga tushmas edi”* – deya yozadi. (https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Oltin_zanglamas)

Asar atlas ko‘ylakli qiz va unga shaydo bo‘lib qolgan yigit tasviri bilan boshlanadi. Muallif shu tasvir bilanoq romanning mohiyatini qaysidir ma’noda ochib bergandek. Albatta, sof tuyg‘ular asosiga qurilgan voqealarning boshlanmasi desak yanglishmaymiz.

Romanning bosh qahramoni – Sodiq Qo‘chqorov. Taqdir uning oyoqlari ostiga bir talay sinovlarni ko‘ndalang qilib qo‘ygan ediki, bu avvalo uning befarzandligi edi. Sodiq, uning onasi, ayoli va ukasi Qodirjon – romanda gavdalanadigan dastlabki obrazlar. Bir maromda ketayotgan, sabr qilib Allohdan farzand tilayotgan oilaning barcha tashvish - u muammolari ularning Qodirjon tufayli shaharga ko‘chib ketishlaridan boshlandi. Sodiqning o‘ta vijdonli kishi ekanligi, o‘zining atrofidagi har kimni ham shunday deb o‘ylashining sababi edi. Shu zaylda uning qarshisida Mirsalim va Musharraf kabi ikkiyuzlamachi, xudbin va nafsi uchun har neni qurbon qiladigan, xiyonatkor kimsalar chiqadi.

Roman qahramonlari ismiga bir nazar tashlansa, Sodiq ismida o‘z mohiyatini naqadar to‘laqonli aks ettirganligi kuzatiladi. Avvalo iymoniga sodiq, vijdoni pok inson. Uning o‘z kasbiga, o‘qituvchilikka, bo‘lgani kabi Vatanga muhabbati ham kuchli. 30-yillardagi qatag‘on tufayli Mirsalimning yasama dalillari oqibatida

qamaldi, Sodiq esa sovet siyosati bilan (biz bilgan o‘sha zomonning ziyolilari-yu jadidlari kabi kimlardir surgun qilingani, kimlardir otib tashlangani kabi) surgunga hukm qilindi. Biroq Sodiq urushda o‘z sadoqati va iymoni bilan o‘qiguvchiga ibrat bo‘loladi. Eng qiyin vaziyatlarda ham taqdirga tan berib qo‘ya qolmaydi. Aksincha, vijdoniga gard yuqtirmaydi, mardlarcha kurash olib boradi. Uning ayoli Jannatning ismiga e’tibor berilganda, adib ularga qanday ma’no yuklaganligini kuzatish mumin. Romanning muhim mavzusi ham shu aslida: “Iymoniga sodiq banda jannat bilan siylanadi”.

Sodiq taqdirida bitilgan sinovlarni boshidan o‘tkazar ekan barchasiga bardosh qiladi, insoniyligini saqlab qoladi. Nazarimda uning birgina aybi va qaysidir ma’noda kamchiligi, o‘sha pok vijdoni bilan Vatan timsolida butun Sovet ittifoqini ardoqlagani va sevgani. Shuhrat o‘z qahramonini shunday tasvirlaganki, u Sovet ittifoqi uchun hatto jonini fido qilishga tayyor. Hadisi sharifdan bir gap bor: “Vatanni suymoq iymondandir”, biroq davr shunday. Afsuski, sho‘ro hukumati bunga arzimas edi. Avvalo, unga qo‘yilgan ayblar asossiz bo‘lib, hattoki yozgan shikoyatnomalari ham javobsiz qolardi:

(Qobiljon bilan Sodiqning suhbatidan:)

“… – Shikoyat yozdingizmi?

– Juda ko‘p yozganman, javob yo‘q.

– Men sizga bir sirni aytaymi, Sodiq aka? Arizalaringizning hammasi shu yerda qoladi!

– Shu yerda qoladi?

– Ha! Eski qadrdon bo‘lganimiz uchun sizga aytyapman, bo‘lmasa mumkin emas. Shu yerda qoladi. Ochib ko‘rganlarida olib qoladilar.

– Bekorga javob kutib yuribsan deng? Eh, attang! – Sodiq qo‘lidagi idishni ovqati bilan uloqtirib otdi: – bu qaysi qonunda bor !!!

– O‘zingizni bosing, foydasi yo‘q, – yerdagi idishni oldi Qobiljon, – Qonunni buzib, o‘zingizni shu yerga keltirib qo‘yganlaridan keyin, shikoyatingizni o‘tkazmaslik nima bo‘pti? O‘sha katta zanjirning bitta halqasi xolos…”

Sodiqqa Dilovarxo‘ja ismli ta’qibdagi bir qo‘rboshi ham duch keladi. Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat deya qaralgan, jinoyatchi qilib tasvirlangan bo‘lishiga qaramasdan, uning tilidan aytilgan haq gaplar ham keladi:

“Hammamiz bir bo‘zning uchi bo‘lamiz, uka, boy-kambag‘al nimasi, musulmon-kofirni ajratish kerak. Din oyoqosti bo‘lib ketti. Buxoroyi sharifdan nima qoldi ! Amir arkida bolalar sigir boqib yurishganmish. Ichimizdan ola chiqib, “voy sochimni bosib olmang” deydigan erkaklar ko‘payib ketti…”

Dilovarxo‘jani biz ko‘ringani kabi qoralashdan yiroqmiz. To‘g‘ri, balki, qo‘rboshilik qilar-u, yigitlar to‘plab xalq tinchini buzar, bu sho‘roga qarshi isyonligi tabiiy. Uning birgina aybi musulmon bo‘lmagan sovet xalqini xushlamagani, bosh egishni istamagani, milliy ozodlik harakatida bo‘lganidir. Biz yuqorida Sodiqning kamchiligi deya tilga olganimiz esa ayni Dilovarxo‘janing sovet hukumati qarshisida “qora” qilib tasvirlangan shu tarafi deb bilamiz. Bu bilan uni oqlamoqchi ham emasmiz. Chunki u qo‘rboshilik davrida kimlarnidir molini o‘g‘irlaganlarini ham aytadi.

U Sodiqning joniga qasd qilish payida bo‘lgan kezlari esa Xudoga nola qilib deydi: “*Ey Xudoyim, bir mehribonlik qilsang-chi! Meni qiynab o‘tirmasdan shuncha uchgan o‘qdan birini, shuncha balo ufurgan bombaning achchiq danakdek bir parchasini uning jon yeriga qadasang nima qiladi ? Men-ku sening mo‘min qobil bandangman. Esimni tanibmanki, izmingdaman. Farzingni farz, sunnatingni sunnat tutdim. Yoshligimdayoq “bu sening amring” deb qishloq imomining og‘zidan chiqishi bilan ro‘za tutmagan, nomoz o‘qimagan, fitr ro‘za bermaganning po‘stagini qoqdim, qo‘li egrilarning tazirini berdim. Keyinchalik o‘zim shu yo‘lga kirib ketgan bo‘lsam ham, seni unutganim yo‘q, masjidingga bo‘yra, joynamoz olib berib turdim, zakotni kanda qilmadim. Bir safar bir dehqonning qo‘shga qo‘shib turgan ho‘kizini o‘marganimda (“o‘g‘irlaganimda” deyishga tili bormadi) qozi pochchamning o‘zlari “badbaxt, qo‘ni-qo‘shniga qilasanmi!..” deb qutqarib yuborganlar… Inqilob bo‘lishi bilan “Islom tug‘i ostiga o‘t” deding, o‘tdim. “Yigit to‘pla” deding, to‘pladim. “Kofirni qir” deding, qirdim…”*

Asarga husn qo‘shib turadigan yana bir muhabbat qissasi bor, bu – Qodirjon va Azizaning muhabbati. Garchand Azizaning otasi – Mirsalim - ularning munosabatiga dastavval rozilik bildirgan bo‘lsa-da, Qodirjonning akasi Sodiqning qoralanib ketishi sababli o‘ziga bu oilani teng ko‘rmay qoladi. Ana shu muammolar va keyinchalik urushning boshlanib ketishi bilan Qodirjon urushga ketadi. Bu sinovlar esa Azizaning o‘z muhabbati uchun kurashishini ko‘rsatgan. Sodiq va Jannatning muhabbatlari ham juda kuchli. Ular bir-birlarini chinakamiga sevar va doimo go‘zal sabrda bo‘ladi. Biroq Jannat Sodiqning boshqa bir ayolga uylanishini o‘zi xohlaydi. O‘z suyuklisining ortidan bir soya qolishini istaydi.

Asarda ayollar obrazi ko‘p uchraydi. Yozuvchi ana shular timsolida butun o‘zbek ayollarining sabri, matonati, qiyinchiliklar qarshisida taslim bo‘lmasligini gavdalantiradi. Yana bir bor Jannatga nazar tashlasak. U o‘z ismi bilan jannatdek ayol. Shu bardoshli ayol hayotning achchiq zarbalariga dosh berdi. Jannat o‘zining farzandi bo‘lmasa-da, suyuklisining pushti kamaridan bo‘lgan Maratga onalik qiladi. Sodiqni kechiradi. Bir qarashda o‘qiguvchini undan jahli chiqadi, ammo Jannatday o‘zidan ham kechib,sevgisi uchun, o‘z suyuklisi uchun bunday qaror qabul qiloladigan ayollar kam uchraydi. Hatto jajji Maratning o‘z tuqqan onasi emas Jannat tarbiyalashini ham, aslida “ona” degan nomga, “ayol” degan nomga ko‘proq Jannat munosib ekanligini ham biz anglaymiz. Azizaga kelsak, u otasining qarshiligiga qaramay doim muhabbatini dedi. Har qanday qiyin vaziyatda, Qodirjon o‘qishdan haydalgan vaqtida-yu, urushga ketgan vaqtida ham. Adolat xola esa taqdirning eng ko‘p achchiqlarini totgan kishisi. U – matonat timsoli, u – o‘zbek onasi!

Romanning eng ta’sirli nuqtasi – Sodiqning yakundagi qismati. U chin ma’noda Vatan va oila oldidagi burchini, eng asosiysi – insoniylik burchini ado etgan, jon fido qilgan kishi. Bir narsagina kishini quvontiradi, u ham bo‘lsa o‘sha zanglamas oltinning ortida bir soyasi qolganidir.

Xulosa qilib aytganda, Shuhratning “Oltin zanglamas” romanida qahramonlar ruhiyati o‘zgacha ajralib turadi. Sodiq obrazining ham oila, ham Vatan oldidagi sadoqati, o‘z o‘rnida voqelikka parallel ravishda xiyonatdan doimo ustun kelishi

aks etadi. Umuman olib qaraganda, bu oila shunday oila edi – har birining jon tomiriga sadoqat yo‘g‘rilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normatov, U. (2013). *Oltin zanglamas.* “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 17-son
2. Ulug‘ov, A. (2017). *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. Shuhrat. (2022). *Oltin zanglamas* .Toshkent: “Zukko kitobxon”

INSON QALBI IZTIROBLARI TOG‘AY MURODNING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” ASARI TALQINIDA

Ismailova Rayhonoy Shovkatjon qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF, 3-kurs
@rayhonasattorova19gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarida insonlarning qalb iztiroblariga alohida ta’kidlangan. Asarning qisqacha mazmuni, qahramonlarning ruhiy holatlarga qisqacha to‘xtalingan. Muhim bo‘lgan atamalar va ularning ilmiy izohlari bayon etilgan. Yozuvchi asar syujetini mohirlik bilan ishlaydi. Konflikt va uning turlarini ochib beradi.*

***Kalit so‘zla**r. Iztirob, syujet, farzandsizlik, konflikt, xarakterlararo konflikt, qahramon va muhit konflikti, ichki (psixologik) konflikt.*

Abstract. *In the article, Tog‘ay Murad’s work named “People walking on the moon” emphasizes the suffering of people. The summary of the work touches briefly on the mental states of the characters. Important terms and their scientific explanations are described. The writer skillfully works the plot of the work and reveals confilitis and its types.*

Keywords. *Suffering, plot, childlessness, conflict, conflict over characters, the conflict of character and environment , internal (psychological) conflict*

Inson buyuk yaratuvchi tomonidan ona qornidaligida yozilib qo‘yilgan taqdiri bilan tug‘iladi shu taqdir umrining so‘nggi daqiqalarigacha unga hamroh bo‘ladi. Mana shunday taqdirga rozi bo‘lgan insonlardan biri o‘z asarlarida o‘zbek xalqiga haykal qo‘ygan O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tog‘ay Muroddir. Surxon xalqining

ardoqli, tanti farzandi Denovda viqorli tog‘lar bepoyon vodiylarga tutashib ketgan Xo‘jasoat qishlog‘ida dunyoga keldi.

U o‘z asarlariga o‘zbek xalqining xarakterini, milliy urf-odatlarini mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik tuyg‘ularini jo qildi. Uning asarlari xalqimiz orasida qo‘ldan qo‘lga o‘tib, sevib o‘qiladi. Mana shunday asarlaridan biri “Oydinda yurgan odamlar”dir.

Bu asrni o‘qigan inson qalbida qandaydir hislar ba’zida nafrat tug‘usi ba’zida esa mehr tuyg‘ulari jo‘sh uradi. Xalqimizda bir maqol bor: “Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor”. Asarimiz qahramonlari Qoplonbek va Oymomo ham farzandsizlik dog‘ida o‘tishdi.

“Kenja zurriyot bo‘lmish qiz besh yasharligida ota-onasidan sag‘ir qoldi. Akasi qo‘lida qoldi. Yanga bo‘lmishning qoboq-tumshig‘iga qarab kun ko‘rdi. Yanga bo‘limish qoboq uydi ...Shunda ... shunda, sag‘ir nafas olmadi! Sag‘ir ko‘zlari pir-pir edi. Sag‘ir ko‘zlari olma terdi. Sag‘ir hadahalab bordi. Jiyani beshigini qo‘shqo‘llab ushladi. Sag‘ir jon-jahdi bilan beshik tebratdi. Sag‘ir, yangaga qarab non tishladi, mo‘ltirab-mo‘ltirab non chaynadi. Sag‘ir munis-da bo‘ldi, g‘amgin-da bo‘ldi. Sag‘ir sertamiz bo‘ldi. Sag‘ir ziyrak bo‘ldi.” Oymomoning yoshligi bolalarcha sho‘xliklarsiz kemtiklikda, oila mehriga tashnalikda o‘tdi.

Turmishining ilk yillari shodlikda o‘tgan bo‘lsa, keyingi yillar har daqiqasi, har soniyasi uning ichini tirnab o‘tdi. Yozuvchi asar syujetini shunday mohirlik bilan ishlaganki, voqealar bir-birini taqozo etib uyg‘unlashib ketgan, bu esa asarda konfliktning yuzaga chiqishiga olib kelgan. **Konflikt** (lot. ***“to‘qnashuv”***) deganda badiiy asar personajlarining o‘zaro kurashlari, qahramonning o‘z muhiti bilan ziddiyatlari, shuningdek, uning ruhiyatida kechuvchi qarama-qarshiliklar tushuniladi. Badiiy asar voqelikni badiiy aks ettirgani va uning markazida inson obrazi turgani uchun ham insonning real hayotida mavjud konfliktning bari unda badiiy aksini topadi. Shu nuqtayi nazardan badiiy konfliktning uchta turi farqlanadi:

1. Xarakterlararo konflikt.

2. Qahramon va muhit konflikti.

3. Ichki (psixologik) konflikt.

Asarda Oymomoning o‘rab turgan tevarak atrof va u yashayotgan muhit undagi odmalarning kesatiqlari, bu ham yetmaganidek ko‘pni ko‘rgan Qimmat momoning gaplari ochiqchasiga boshqa birov bilan bo‘lib ko‘rmadingmi? Bu gaplarni hech kutmagan Oymomoning qanday ahvolga tushib qolganini tasavvur qilaylik. Kimdir ustidan muzdek suv quygandek etlari jimirlab Qimmat momoga nisbatan nafrat tuyg‘usi uyg‘onadi. Bu esa qahramon va muhit konfliktini yuzaga keltiradi. Ichki (psixologik) konfliktga esa Qoplonbekning ichki kechinmalarini, o‘zi bilan o‘zini suhbatlarini keltirishimiz mumkin. Erkak kishi ko‘chaning odami, turli to‘y-hashamlarga boradi, xalqni ichida yuradi ko‘pchilik bilan salomlashadi, hol-ahvol so‘rashadi, bola-chaqasini, nevaralarini so‘raydi, bu tabiiy hol, lekin har aytilgan gap Qoplonbekning yuragiga, jon-joniga igna sanchgandek bo‘ladi. “*Otamiz uyga yonib-yonib keldi! Nimaga endi bola-chaqani so‘raydi? Nimaga manavi dang‘illama uyni so‘ramaydi? Muhtasham hovlisini so‘ramaydi? Ko‘krakdor otini so‘ramaydi? To‘da-to‘da qo‘ylari bor. Qo‘sha-qo‘sha mollari bor. Qo‘ylari yilma-yil qo‘zilaydi. Mollari yilma-yil buzoqlaydi. Nimaga mol-holini so‘ramaydi? Bog‘lari har yili besh yuz kilolab mayiz beradi. Nimaga mayizlarni so‘ramaydi?”* O‘ziga-o‘zi shunday savollarni bera-bera charchaydi. Alamini esa Oymomodan oladi, erkak zoti shunaqa o‘zi ichiga yutib-yutib charchaydi-da kimdandur alamni oladi, axir u ham inson, o‘zini qo‘lida bo‘lganda edi farzand yasab olardi, najot faqat Ollohdan.

Qoplonbek bilan Oymomo shirin xayollar surishdi, farzandli bo‘lishsa, ismini Xushvaqt qo‘yishmoqchi bo‘ldi, lekin insonni qo‘lidan kelgani faqat duo. Yoshlari ham ancha katta bo‘ldi, qishloqdagilar uchun bobo, momo bo‘lishdi. Yozuvchi asarda kulminatsiya qismini shunday mohirona tasvirlab berdiki, kishining ko‘ziga yosh kelmasdan iloji yo‘q. Oymomo onamiz o‘limlaridan oldin eng buyuk baxt onalik baxtiga sazvor bo‘ldilar. Ilk bor go‘dak isini tuydilar. To‘yib-to‘yib iskadilar bundan-da tarovatli isni bilmadilar. Qo‘shnisi Robiyaning chaqalog‘iga alla aytdi, beshigini tebratdi. Hayotining so‘nggi soniyalarida ko‘kraklariga sut

keldi. Bir ayol uchun bundan ortiq baxt bo‘lmasa kerak. To‘g‘ay Murod nima uchun Oymomo ismini tanladi Quyoshxon yoki Yulduz. Bu bejiz emas, oy qorong‘u tunni yoritadi, oydin qiladi, insonning ko‘ngliga qandaydir sokinlikni, xotirjamlikni jo qiladi. Qorong‘u tunda oyga termulib tursangiz, nimalarnidir sizga pichirlagandek bo‘ladi. Oymomo ham shunday bo‘ldi, Qoplonbekning hayotiga yorug‘lik olib kirdi, qorong‘u tunlarini yoritdi. Asar qahramonlari Qoplonbek va Oymomo hayot yo‘llarida turli sinovlarga, odamlarning ta’na-dashnomlariga sabr qilib yashadilar va umrlarining so‘nggi esa oydin kechalarga tutashib ketdi.

“Oydinlar to‘lqinday chayqaldi, oydinlar to‘linday mavjlandi. Bobomiz xasta qalblari o‘randi, g‘arib qalblari o‘rtandi. Ko‘zlari yoshga to‘ldi… Ko‘z yoshlari oyday oppoq soqoliga sizib tushdi. Momosi men ularni ko‘rdim. Ular bayt aytdi, eshityabsanmi, bayt aytdi! – dedilar. Bobomiz ko‘z oldilari oydinlandi. Tag‘in siyrak adirga qayrlib qaradilar”. Bu asar bejiz yozilmadi yozuvchining turmush o‘rtog‘i Ma’suma Ahmedova shunday deydi: *“Yozuvchilarga Alloh tomonidan shunday iste’dod beriladiki, hayotni oldindan bashorat qiladi deydilar. To‘g‘ay Murod ham farzandli bo‘lmadi xuddi Qoplonbek va Oymomo singari. Lekin ularning farzandlari bor. Ular To‘g‘ay Murodning shogirdlari uning asarlarini sevib mutolaa qiluvchi yoshlardir”.*

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Oydinda yurgan odamlar” – bu oddiy bir kemtik o‘zbek oilasining ichki va jamiyat orasidagi muammo va vaziyatlarni xolisona yoritgan asar. Ularda keltirilgan qahramonlarda esa ramziylik bor. Oymomo – bu jo‘shqin, serg‘ayrat, sodda va eng asosiysi sabr-qanoatli o‘zbek ayolining timsolidir. Yillar davomida muammolar ko‘lamida qolgan, ham oilaviy muammolar (eng kattasi farzandsizlik), ham jamiyatda unga qilinadigan muomalalar (Qimmat momo misolida)ni ko‘rishimiz mumkin. Menimcha, bu kabi tashvishlarga butun dunyoda faqat o‘zbek ayoligini bardosh bera oladi, xolos va shu bardoshni biz asarda aniq dalillar orqali ko‘ramiz. Qoplonbek – o‘zbek erkagi timsoli deyishimiz mumkin. G‘azablangandagi holati ham, o‘zi bilan o‘zi suhbatlashishi ham, ko‘chada odamlar bilan hol-ahvol so‘rashi ham butun millat erkaklarining xarakterini ochib beradi. Asar yakuni ham xayoliy emas, hayotiy,

real voqealar asosiga qurilgan. Sabr – bu ko‘p muammolarni yengib o‘tishning mukammal usuli. Bu asarda ham ko‘rinadi va ular farzandli bo‘lmadi. Ammo asar millat uchun, xalq uchun, xalqning ichidagi deyarli kunlik muammolarni yoritish uchun xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘g‘ay Murod. (2019).Tanlangan asarlar. Toshkent.

2. Dilmurod Quronov. (2020) Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: “Innovatsiya-ziyo”, 310 b.

ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA AYOL OBRAZI (“AYOL”, “YOZSIZ YIL” HIKOYALARI ASOSIDA)

Ismoilova Odina Shavkatbek qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 1-kurs talabasi
shavkatbekovna0305@gmail.com

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin vakili Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol”, “Yozsiz yil” hikoyalari asosida o‘zbek ayollari obraziga xos jihatlar tahlil qilinadi. Bu hikoyalardagi bosh obrazlar Nazokat, Buvgul xola xarakterlarini yaratish orqali ijodkor mahorati xususida tahlillar asosida tegishli xulosalar chiqariladi.*

***Kalit so‘zlar:** obraz, xarakter, ruhiyat, azob, mehr-muhabbat.*

***Abstract.** This article analyzes the specific aspects of the image of Uzbek women based on the stories “Ayol” and “Yozsiz yil” by Zulfiya Kurolboy, a bright representative of modern Uzbek literature. By creating the characters of the main characters Nazokat and Buvgul aunt in these stories, relevant conclusions are drawn based on the analysis of the artist’s skills.*

***Keywords**: image, character, psyche, pain, affection.*

“Hikoya janri hajman ixchamligi, shakl va mazmun, kompozitsion qurilishi, til, uslub va boshqa poetik unsurlar originalligi bilan boshqa g‘oyaviy-emotsional qiymat kasb etadi. Unda qahramonlar tayyor holda sahnaga chiqishi ham, voqelik tasviri jarayonida yaxlit obraz-xarakterga aylanishi ham mumkin” (Karimov, 3-bet).

Nasrning qaysi janri bo‘lmasin, undagi asosiy obraz – inson obrazidir. *“Adabiy asar chinakam asar namunasi bo‘lishi uchun, realizmga mansub bo‘ladimi, romantizm uslubida yozilgan bo‘ladimi, yoki qandaydir boshqa modernistik uslubga amal qiladimi, baribir uning markazida inson turmog‘i kerak, kitobxon insonning taqdiri, tabiati, hayoti haqida muayyan axborot olish bilan birga bu asardan zavq ham ola bilsin” (*Sharafiddinov, 2004, 245-bet).

Ayol obrazi yaratilgan asarlar bugungi kunda o‘zbek adabiyotida anchagina miqdorni tashkil qiladi. Bu obraz hayot sinovlarini, mushkullarini, qiyinchiliklarini aniqroq ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi va bu orqali ayollarning matonat, vafo, sabr-toqat, mehr-muhabbat kabi tuyg‘ulari qay darajada shakllanganining yorqin dalili sifatida ko‘rsata oladi.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ham ayol obrazining shunday qirralari turli xil hayot sinovlari ta’sirida ochib berilgan. Xususan, uning “Ayol”, “Yozsiz yil” hikoyalaridagi Nazokat, Buvgul xola obrazlari shunday mahorat bilan gavdalantirilganki, uni o‘qigan har bir o‘quvchi, kitobxon yozuvchining mahoratiga qoyil qolmasdan o‘zga iloj topolmaydi. Ushbu hikoyalardagi ayollarning har birida o‘ziga xoslik, qat’iyat, mehr-muhabbat, mustahkam iroda va asosiysi, vafo kabi tuyg‘ular obraz xarakterini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Masalan, adibaning *“Ayol”* hikoyasi tabiat tasviri bilan boshlanishi Nazokatning hayotga bo‘lgan muhabbatini ko ‘rsatib berishga xizmat qiladi: *“Deraza oynasidan to‘kilayotgan oppoq nur ayolning yumuq qovoqlarini qizartirdi, jilva qildi, yanoqlariga ilingan marvarid tomchilarida va barmoqlaridagi uzukning olmos ko‘zchalarida aks etdi”.* Bu o‘rinda muallif qahramon ruhiyati va hikoya mazmunini ochib berishda quyosh obrazidan foydalanadi. Bundan bilishimiz mumkinki, hikoya bosh qahramoni bo‘lgan bu ayol uzoq muddat bir joyda derazadan tushayotgan quyosh nuriga ko‘zlarida yosh bilan tikilib yotibdi. Uning ham ruhiy, ham jismoniy azoblari quyosh nurining ko‘z yoshlarida aks etishi orqali ochib beriladi. Nazokat og‘ir dard bilan kurashar ekan sira umidsizlikka tushmaydi. Eng achinarlisi, uning o‘zi ham umri nihoyasiga yetib borayotganini bilar edi. Bilar edi-yu, lekin tan olishni, oilasini tashlab ketishni

xohlamas edi. Unga achinish ko‘zi bilan qarashlarini also istamas edi. Har doim o‘z oilasi qoshida o‘z ismiga monand nazokatli ko‘rinishga harakat qilar edi. Shuning uchun uning tana a’zolarida shish paydo bo‘lgan paytda yonida bir odam ko‘z-quloq bo‘lib turishi kerakligiga qaramasdan, hamshiradan Shavkatni ichkariga kiritmaslikni iltimos qiladi. Farzandlarini ko‘rishni, ularni bag‘riga bosishni, ular bilan suhbatlashishni xohlaydi, ammo ularning ko‘z oldida bunday qiyofada ko‘rina olmaydi. Shu sababli ham og‘riq, azoblarga bardosh berish sharti bilan doktordan tanasidagi suvni oxirigacha chiqarib tashlashni iltimos qiladi: *“Nazokat tilla uzugini vrachning cho‘ntagiga soldi. Suvni oling, iltimos. Faqat oxirigacha! Vrach yana javob bermadi. Hatto qarab ham qo‘ymadi. Ayolning qo‘li cho‘ntagiga kirib chiqqanidan keyin ham yuziga qaramadi. Biroq: Hamshira! – deya chaqirdi yo‘lakka qarab. Nazokat jilmaydi”.* Uning bu harakatlaridan mehribon ona, jonkuyar rafiqa harakatini, o‘ziga yarasha qat’iyatini ko‘rishimiz mumkin.

Ammo kunlar o‘tgani sayin kasallik o‘z kuchini ko‘rsatib bordi. Voqealar qizg‘in tus oladi: “*Kechga borib Nazokatni hiqichoq tutdi. Ikki-uch marta “hiq-hiq” etdi-yu, birdan ichidan qandaydir suyuqlik otilib chiqdi”.* Bu o‘rinda yozuvchi qahramon taqdirini o‘ziga xos tarzda tasvirlaydi, xuddi hikoya boshlanmasidagidek quyosh tasvirini beradi: *“Shu’la shu lahza karavotda yotgan xushbichim va go‘zal ayol yuzida jilva qildi, qaroqlarini qizartirmoqchi bo ‘ldi, lekin tosh qotgan qovoqlar qilt etmadi, shu’la o‘ziga qadrdon qorachiqlarda akslanmoqni istadi, ammo ularni topa olmadi, u faqat ayolning barmoqlarida paydo bo‘lib qolgan uzukning olmos ko‘zchalaridagina aks eta oldi”.* Ushbu manzaradan ayolning vafot etganligini bilib olishimiz mumkin. Adiba shunchaki ***“ayol vafot etdi”*** degan odatiy birikma o‘rniga tabiat tasviridan, quyosh, uzuk detallaridan foydalanib go‘zal tasvir bera oldi.

Zulfiya Qurolboy qizining yana bir o‘ziga xos, ta’sirli hikoyasi *“Yozsiz yil”*dir. Bu hikoyada avtohalokat tufayli nogiron bo‘lib qolgan yigit va uning onasi Buvgul xola iztiroblari, azob-uqubatlari badiiy ta’sirchan ifoda etilgan.

Hikoyani o‘qishni boshlashdan avval uning sarlavhasi kishining diqqatini o‘ziga tortadi. “Nega aynan yozsiz yil?” degan savollar kelishi tabiiy. Bu savollarga javoblar hikoya davomida oydinlashib boradi. Bu hikoyada o‘zining yoshi bir joyga borib, kuchdan qolgan paytida ham o‘g‘lining sog‘ligi uchun, yuzida ozgina tabassum uchqunlarini ko‘rish uchun hech narsadan qaytmaydigan ona timsolini ham ko‘rish mumkin. Bu jonkuyar ona bolasining azoblari oldida o‘z dardlarini unutadi. Sobirjonning faqat tashqi ko‘rinishi sog‘lom odam edi, ichki a’zolari esa qattiq lat yegandi. Sobirjon uchun ham, uning onasi uchun ham eng alamli narsa, Sobirni urib yuborgan Mahkam boyvachcha sudlandi, qamaldi. Lekin o‘n yillik jazoni ikki yilda o‘tab chiqdi, hech nima bo‘lmagandek “Kamaz”ini haydab yuraverdi.

Hikoya tashqi tomondan qaralganda, bebaxt Sobirning kechmishi, alam-iztiroblarga to‘la hayoti, visolsiz muhabbat tarixi tasvirlangandek tuyuladi. Asar ichiga kirib borilsa, har bir detal ayol obrazini shakllantirish uchun xizmat qilgani ayon bo‘ladi. Hatto aka-ukaning o‘zaro munosabatlari ham ona obrazini qanchalar adolatli ekanligini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Buvgul xola Sobir o‘g‘li uchun katta o‘g‘lining gap-so‘zlari, dashnomlariga ham, Marvaridning otasi Majid akaning haqoratlariga ham bardosh beradi. Uning uchun muhuim narsa o‘g‘lining quvonchi, uning sog‘ligi. Ertaga nima bo‘ladi, qanday bo‘ladi, o‘ylashni ham xohlamaydi, o‘g‘li bugun xursand, shuning o‘zi yetarli edi. Buvgul xola Marvaridga so‘nib borayotgan o‘g‘lini qutqarib qola oladigan umid, najot sifatida qaraydi. Ammo Marvaridning otasi uni boshqasiga berib yuboradi, hatto, qaytib kelganda ham qizini Sobirga berishga rozi bo‘lmasdan ikkinchi marotaba ham o‘zga kishiga uzatib yuboradi. Bunga bardosh berolmagan Sobir ichkilikka ruju qo‘yadi. Bu holat onani avvalgidan ham ko‘proq tashvishga sola boshlaydi. Bir gal o‘g‘li uchun bu so‘nggi muolaja ekanligini eshitganda adoyi tamom bo‘ladi. Yoz fasli tezroq kelishini o‘g‘lidan ham intiqroq bo‘lib kutadi. Lekin afsuski, o‘sha yili hatto birinchi may kuni ham qor yog‘adi. Mana shu joyda hikoya sarlavhasining mohiyati ochiladi. Yoz – Sobirning sog‘ligi uchun eng ma’qul fasl. Kasallik, og‘riq issiq kunlarda uni biroz chetlab o‘tgandek bo‘ladi. Vujudidagi og‘riqlar barham

topgandek bo‘ladi. Ikkinchi tomondan qaraganda esa, yoz hikoyada umid, hayot va sevgi ramzi hamdir. Sobir borgan sari onasining ko‘z oldida tugab borar, ayniqsa, o‘limi yaqinlashgan sari, o‘sha yilning yozi ham kechikib ketayotgandek uni og‘riq, azob, umidsizlik iskanjasiga solardi.

Sobir olamdan o‘tadi. Buvgul xola ham go‘yo dunyodan butkul uzilib qoldi: *“Ayvon ustuniga suyanib, mung‘ayib o‘tirgan ona bir so‘zni takrorlardi:*

– Men yomon qoldim, sen yaxshi bor bolam…

So‘ng birdan qahrlanib olov purkayotgan osmonga tikilarkan savdoyilarcha shivirladi:

– Odamni ermak uchun yaratib, uni eplay olmay qolganingdan keyin o‘limni o‘ylab topdingmi?.. Oloving mo‘l ekan, nega shuni vaqtida bermading?!”

Bir qarashda bu jumlalar shakkoklik va taqdir hukmiga bo‘lgan isyon kabi tuyuladi, ammo aslida bu ona qalbidagi farzandiga bo‘lgan ilohiy mehrning so‘nggi – yakuniy tasdig‘i bo‘lib yangraydi. Muallif ona sha’nini himoya qilish va ulug‘lashdek mo‘tabar mavzuni yanada teran va ko‘lamdorroq yoritgan, onaning ruhiyati va mehrini muazzam, mungli mehr-muhabbat qo ‘shig‘i tarzida bayon etgan.

Hozirgi adabiyotda asosan inson ruhiyatini tasvirlashga e’tibor qaratilgan. Yuqoridagi Zulfiya Qurolboy qizining ikki hikoyasida ikki ayolning ichki kechinmalari, dard-alamlari tasvirlangan. Ayollardagi mehr, vafo, sabr, matonat tuyg‘ulari doimo ulug‘lanib keladi. Bu esa ijodkorlarni ayollar haqida asarlar yozishga undayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov, D. (2018). *Adabiyot nazariyasi asoslari.* Toshkent. Akademnashr.

2. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. (2016). *Badiiy tahlil asoslari*. Toshkent: “Kamalak”.

3. Zulfiya Qurolboy qizi *Ayol* – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2005.

4. Zulfiya Qurolboy qizi. *Yozsiz yil.* “Yoshlik” jurnali. 2017.

TOG‘AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDA TARIXIY HAQIQATNING BADIIY TALQINI

Jo‘raqulov Sardor O‘ktam o‘g‘li,
ToshDO‘TAU OTAT 3-kurs talabasi
sardorjurakulif@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani syujeti tahlili hamda uch avlod vakillarining badiiy obrazlari orqali yozuvchining tarixiy materialga munosabati o‘rganiladi. Tarixiy va badiiy haqiqat masalasi ko‘rib chiqiladi. Adibning obraz yaratish mahorati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar*: Tog‘ay Murod, “Otamdan qolgan dalalar” romani, obraz, syujet, tarixiy va badiiy haqiqat.*

Abstract. *This article analyzes Togay Murad’s novel “The fields left by my father” and examines Togay Murad’s attitude to history through the three generations in the novel.*

Keywords*: Togay Murad, novel, “Fields left by my father”, image, plot.*

Tog‘ay Murod, shubhasiz, XX asrning 70-yillarida adabiyotimizga kirib kelgan iste’dodli yozuvchi. Tog‘ay Murodning adabiyotga kirib kelishi haqida Said Ahmad quyidagicha fikr bildiradi: *“Tog‘ay Murod adabiyotga tutab emas, yonib kirdi”* (Said Ahmad, 2015, 250-bet). Yozuvchining birin-ketin hikoya va qissalari e’lon qilindi. Uning ***“Otamdan qolgan dalalar”*** romani 1994-yilda “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati tomonidan to‘liq tarzda e’lon qilindi. Bu roman o‘zbek adabiyotida katta burilish bo‘ldi. Milliy adabiyotimiz tarixida muhim hodisa bo‘ldi. *“Istiqlol kunlariga kelib, chin ijodkorlar uchun ko‘ngilda el-yurt yo‘lida nimaiki dardi bo‘lsa – barini to‘kib solish imkoni paydo bo‘ldi. Qisqasi “Otamdan qolgan dalalar” istiqlol davrining adabiyotimizdagi ilk xayrli samaralaridan biridir”* (Normatov). Tog‘ay Murod ta’biri bilan aytganda, ushbu roman orqali u o‘zbek xalqiga, uning or-nomusiga, nafsoniyatiga, e’tiqodiga, yurt uchun jon fido qilgan qo‘rboshilariga, mehnatkash, jafokash o‘zbek xalqiga haykal qo‘ydi.

“Menmi? Men “Otamdan qolgan dalalar” degan bir asar dardida yuribman. Ehtimol roman bo‘lar, ehtimol qissa bo‘lar? Bilmadim. Ishqilib, ko‘nglimda borini to‘kib solaman” (Tog‘ay Murod, 2021, 36-bet).

Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar” romanini o‘z yurtida xorlik va azoblarga ko‘nikkan uch avlod vakillari misolida talqin etadi. Nega deganda, bu asarning xronotop qamrovi mustamlakachilik davri bilan chegaralanganligi asarning badiiy qiymatini oshiradi.

Asar nomlanishi yozuvchi nima demoqchi ekanini anglatuvchi poetik asosdir. Uch avlod fojiasini quyida ko‘rib o‘tamiz.

Jamoliddin ketmon. Jamoliddin obrazi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. U har bir qarich yerini asrab-avaylaydi, mehr beradi. Yozuvchi qahramonga nom berishi ham tasodifiy emas. Jamoliddin tabiatidagi go‘zal insoniy sifati mehnatkashligida, xudojo‘yligida, o‘tkinchi dunyo voqealariga bee’tiborligida ko‘rinadi. Jamoliddin ketmon e’tiqodi butun, iymonli, halol, mehnatkash dehqon. Halol mehnat va ibodat bilan kuni o‘tadigan, yurtini o‘z ona yerini sevadigan obraz sifatida gavdalantirilgan.

Jamoliddin ketmon obrazi asosan mustamlakachilik siyosati endi boshlangan davrda tasvirlanadi. Asardagi e’tiborni tortadigan voqealardan asosiylari: Toshkent qamali hamda Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi siyosiy o‘yinlarni ham zo‘r mahorat bilan tasvirlagan:

“Farg‘onaga oq podsho keldi, – deya pichirladi, – Mullalar oq podsho bizni ololmaydi deyatib edi-yu?

- Olibdi-da.

- Qo‘qondan Olimqul lashkarboshi Chimkanga lashkar tortib ketibdi, deyatib edi-yu…

- Olibdi, olibdi. Ololmas ekan-u, Buxoro amiri Muzaffarxon o‘tirib qo‘yibdi. Olimqul lashkarboshi Chimkanda oqpodsho yelkasini yerga tekkizib, oqpodsholiklarni bitta qo‘ymay qilichdan o‘tkazmoqchi bo‘lib tursa, Muzaffarxon bizning ustimizga dafa qilibdi.

- *Bo‘laman degich el bir-birini botirim deydi, bo‘lmayman degich el bir-birini etini yeydi* (Tog‘ay Murod, 18-bet). Yuqoridagi dialog orqali yozuvchi o‘zbek xonliklari orasidagi ziddiyatlar, asosiy dushman qolib, bir-birini yegan xonliklarga o‘z munosabatini bildiradi.

“Kofir yumalab yotar dalada fayz qoladimi?”

Sovet istilosigada, uning jabr-zulmigada chidagan Jamoliddin ketmon kofirlarning uning dalasiga oyoq qo‘yganiga chiday olmadi. Jamoliddin ketmon orqali yozuvchi o‘sha davrda o‘z yerida zulm ko‘rgani oqibatida o‘z ona yerini tashlab ketgan dehqonlarga ishora qiladi.

Surxoni Aqrab. Jamoliddin va Aqrab xarakteri juda o‘xshash qilib tasvirlangan. Har ikkisida oilasini o‘z ona yerini sevadigan, qadriyatlariga hurmat ko‘zi bilan qaraydigan, tabiatan jiddiy obrazlar. Jamoliddin ketmon tilidan *“Bizning ko‘chamizda g‘ayridinlar… yeb yuribdimi?.... bobomiz chaparasta-chaparasta so‘kadi: “Xe ena… Surxoni Aqrab esa “Ay enag‘ar no‘g‘ay-a, ay zang‘ar no‘g‘ay-a”* deya iymondan g‘ururini ustun qo‘yib so‘kadi. Ushbu misolda bu ikki qahramonning o‘ta oriyatli, g‘ururli ekanligini ko‘rishimiz mumkin *“Kelgichlardan birovi Normurod faol bo‘ldi.*

– Dehqonqul shu enag‘arga aytib qo‘y, oyog‘ini tortsa, tortdi, tortmasa o‘z qo‘lim bilan kallasini olaman. Xuddi shu o‘rinda Aqrabning yana bir jihati nomoyon bo‘ladi. Uning oilaga bo‘lgan munosabati orqali yozuvchi qarashlarini ko‘rishimiz mumkin. Musulmonchilikda erkagi yo‘q uyga kirib bo‘lmaydi. Aqrab chayon Jamoliddin ketmondan farqli o‘laroq yoshligidan mustamlakachilik siyosatidan norozi bo‘lib o‘sadi. Keyinchalik Rashid va boshqa o‘nlab yigitlarni atrofiga yig‘ib, mustamlakachilarga qarshi kurash olib boradi. Bu kurash oxiri nima bo‘lishini bilmay turib jang qiladi, hur va ozod kunlarga umid qiladi. Surxoni aqrab tilidan*:”botar kunning otar tonggi bo‘ladi”* Aqrab chayon orqali yozuvchi sovet bosqiniga qarshi kurashgan, tarixda “Bosmachi” nomi bilan qolgan qo‘rboshilarga ishora qiladi. *“Ko‘lobda bo‘ldik. Ibrohimbek qo‘lida mashq oldik”* deydi.

Tarixda Ibrohimbek qo‘rboshi nomi bilan mashhur bo‘lgan, xalq orasida laqaydan chiqqan “Robin Gud” va “Sharq Napoleoni” nomi bilan mashhur va yovqur mard, jasur bobomiz Ibrohimbek Chaqaboyev To‘qsoba o‘g‘li Ibrohimbekning urug‘i laqay bo‘lgan. Laqaylar asosan Buxoro xonligining Hisor, Boljuvon bekliklarida, ayrimlari Surxondaryo viloyatining Denov tumanlarida muqim aholi sifatida istiqomat qilgan (https://daryo.uz/k/2021/05/24/sharq-napoleoni-ibrohimbek-laqay-haqida/). O‘rta Osiyo respublikalari tuzilgach, Ibrohimbek Tojikiston va O‘zbekistonning asosan tog‘li hududlarida kurash olib borgan (O‘z ME.1 jild. Toshkent,2000). Aqrab chayon obrazi ham o‘zbek adabiyotida yangi obraz bo‘lmasa ham qo‘rboshilarga ishora qilingan haqqoniy obrazdir. *“Aqrab xalqning milliy ozodlik kurashida qatnashib, el-yurt uchun shahid ketgan vatanparvar, mard o‘zbek yigitlarining tipik obrazidir”* (Subxon, 121-bet).

Uchinchi avlod – **Dehqonqul.** Uchinchi avlod jabr-zulm, adolatsizlikka ko‘ngan avlod. Dehqonqul obrazi haqida adabiyotshunos Rahmon Qo‘chqor “O‘tkan kunlarning davomi” maqolasida *“Tog‘ay Murod o‘z romanida Dehqonqul va uning qiyofasiga jamlangan millat psixikasini ayni usulda yoritishga harakat qilgan. Xususan, muallif xuddi psixoanalitiklarga o‘xshab, o‘z qahramonini bemalol so‘zlashga, hayotini bafurja hikoya qilishga qo‘yib beradi”* (R. Qo‘chqor, 1993).

Dehqonqul o‘sha davrning minglab Dehqon QULlarining tipik obrazi. Dehqonqul o‘z ishining ustasi, mustahkam sabr-toqat egasi. Paxta ilmining ba’zi mutaxassilardan-da mukammal bilguvchi qahramon. Yozuvchi bu obrazni nomlashi ham tasodifiy emas, albatta. Qadimda dehqonlar qishloqning eng obro‘li, mulkdor, boy qatlami bo‘lgan. Mustamlakachilik siyosati davrida esa dehqon quldan battar ahvolga tushdi, tun-u kun mehnat qildi, lekin kim uchun mehnat qilayotganini bilmasdi. Adabiyotshunos Umarali Normatov Dehqonqul obrazi haqida quydagi fikrni bildiradi: *“O‘zbek adabiyotida jiddiy badiiy kashfiyot. Dehqonqul obrazi sovet davri adabiyotida zavq-shavq bilan tilga olingan sotsialistik mehnat qahramonlariga parodiya – keskin kinoya tariqasida*

yaratilgan. U totalitar tuzum tarbiyalab yetishtirgan "mehnat kishisi" – "yangi inson" timsoli: mustabid tuzum munofiqona mafkurasining tirik qurboni. Bu odam faqat sadoqat bilan mehnat qilishdan boshqasini bilmaydi" (Normatov). Haqiqatda Dehqonqul obrazi orqali yozuvchi o'sha davring minglab "Dehqonqullari"ni ko'rsatib bergan. Dehqonqul va Ziyod obrazlari orqali o'sha davrdagi paxta frontidagi bolalar taqdiriga murojaat qiladi, bolalarning paxta maydoniga ota-onalari qayta-qayta tayinlaydilar. *"Ariqdan suv ichma – paxta dori sepadi, samolyot dori sepabersa bekinib ol, qiynalsang qochib kelaber, mabodo qochaman desang yo'lni chetgunasidan yurgin".* Paxta maydoni bekorga paxta fronti deyilmagan. Dehqonqul otasi Aqrab chayon, bobosi Jamoliddin ketmondan farqli o'laroq azob-uqubatlarga, qiyinchilikka, kamsitilishga ko'nib yashadi. U ota-bobolariga munosibligini isbotlash uchun yerga mehr berdi, tun-u kun mehnat qildi.

Xulosa qilib aytganda:

1. Jamoliddin ketmon obrazi orqali mustamlaka siyosatiga chiday olmay, o'z yerini tashlab ketishga majbur bo'lgan va sovet mustamlakasiga qarshi kurashishni ich-ichidan xohlagan avlod taqdiri yoritilgan.
2. Aqrab chayon obrazi orqali esa mustamlakachilarga qarshi kurash olib borgan qo'rboshi qismati tasvirlanadi.
3. Dehqonqul obrazi orqali sovet mafkurasida tarbiyalangan sovet dehqoni, mustamlakachilarning barcha azob-uqubatlariga ko'ngan avlod taqdiri yoritilgan.
4. Tog'ay Murod istiqlol yillari "Otamdan qolgan dalalar" romanida tarixda bosmachi deb atalgan qo'rboshilarga asl, haqqoniy ta'rif bera olgan.
5. O'zbek milliy adabiyotida birinchi marta Tog'ay Murod o'z romanida roman xronotopida yuz yillik davrni qamrab oldi hamda unda mustamlaka siyosatining badiiy talqinini berdi.
6. Bu yuz yillik millatning badiiy tarixini beixtiyor Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" bilan qiyoslaganda ijtimoiy-estetik qimmati bilan o'ziga xos ekanligi oydinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саид Аҳмад. (2019). *“Йўқотганларим ва топганларим”* – Т.: “Sano-standart” nashriyoti. – 352 б.

2. Норматов У. (2010). *“Нафосат гурунглари”* – Т.: “Муҳаррир”. – 220 б.

3. Тоғай Мурод. (2019). *Танланган асарлар. III жилд*: *Ҳикоялар, мақолалар, кундалик дафтардан.* – Т.: “Sharq”. - 176 б.

4. Тоғай Мурод. (2022). *Отамдан қолган далалар.* – Т.: “Zukko kitobxon”. – 252 б.

5. https://daryo.uz/k/2021/05/24/sharq-napoleoni-ibrohimbek-laqay-haqida/

6. https://cyberleninka.ru/article/n/to-ay-murod-asarlarida-obrazlar-tal-ini

7. https://ziyouz.uz/matbuot/mustaqillik-matbuoti/rahmon-quchqor-utkan-kunlar-ning-davomi-1993/

BADIIY ASARLARDA OSHIQ, MA’SHUQA VA RAQIB OBRAZI TALQINI

Mahmudjonova Nargiza Muhammadjon qizi,
ADU filologiya, 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muhabbat va uning qudratiga asir va asira bo‘lgan oshiq, ma’shuqa, raqib haqida so‘z boradi. Shuningdek, mashhur adib Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” kabi asarlaridagi muhabbat, sevgi uchburchagining o‘xshash va farqli jihatlari qiyosiy holda tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar*: Muhabbat, oshiq, ma’shuqa, raqib, badiiy niyat, ijtimoiy holat, mavzu, davr, maqsad.*

Abstract: *This article is about love and its power a lover, a lover and a rival. Also, similar and different aspects of the love and love triangle in works such as “The past days”, “Scorpion from the alta” are analyzed in a comporative manner.*

Keywords: *Love, lover, lover, rival, artistic intent, social status, theme, era, purpose.*

Dunyoda shunday bir kuchli hissiyot, to‘lqin borki, bu qudratli kuch muhabbatdir. U insonning qanday nasl-nasab, mansab vakili ekanidan qat’i nazar

uni asir qiladi. Ishq shunday bir narsaki, u jon deb atalmish mulkda, mamlakatda sulton, ko‘ngil maskanida podshohdir. Xoh shoh bo‘lsin, xoh gado bo‘lsin, unga farqi yo‘q, shoh qalbiga ham, gado qalbiga ham birdek tushadi, uning oldida barcha barobar. Yana uning shunday xususiyati borki, aqli raso odamni ham junnunga, telbaga aylantirib, ishq sahrosida majnun qiladi. Bu sahro zarralarining har biri ishq deb dod soladi. Muhabbat dardi, qalblardan qalblarga, dillardan dillarga ko‘chib, goh musavvir qalamida ranglar qatiga, goh musiqachi sozining nozik kuy ohanglari qa’riga, goh shoir va yozuvchilar qalamida asarlar bag‘riga singib bu pokiza tuyg‘uning umri bardavomligiga zamin yaratadi. Biz quyida badiiy asarlardagi oshiq, ma’shuqa, raqib timsollari, sevgi uchburchagi xususida fikr yuritishni lozim topdik.

“O‘tkan kunlar” o‘zbek romanchiligiga tamal toshini qo‘ygan asardir. Qodiriyning asarni yozishdan badiiy niyati kitobxonlarni eski afsonalarni o‘qishdan xalos etish bo‘lgan. Asar mavzusi to‘g‘risida esa *“Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrli, deydilar. Shunga ko‘ra mavzuni moziydan, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kir, qora kunlari bo‘lgan keyingi "xon zamonlari" dan belgiladim”* (Qodiriy, 1983, 62-bet) – deya ta’kidlaydi. Asarda aslida tasvirlanayotgan voqea – XIX asr ikkinchi yarmidagi Turkiston voqeligi, idrok etilayotgan voqea esa XX asr boshlaridagi Turkiston voqeligi. Voqealar rivojini qanday boshlash haqida Qodiriy juda ko‘p o‘ylaydi. Xonadonlariga otasining eski qadrdoni yo‘qlab kelishi esa unga yordam beradi, ya’ni mehmon asli toshkentlik bo‘lib, uyli-joyli, bola-chaqali, ammo savdo vaji bilan Andijonga borib turganligi sababli u yerda ham oila qurganligi kabi soddagina tarix yozuvchiga asar shaklini chizib beradi.

Romanda qahramonlarning samimiy va kuchli muhabbati, sadoqati tarannum etilgan. Ularga muallif tomonidan berilgan xarakteristika orqali har bir kitobxon g‘oyibona Otabekka, Kumushbibiga oshiq-u shaydo bo‘ladi. Otabek - oilada tilab olingan, uzoq kutilgan (tilab olingan deyilishiga sabab: asarda *O‘zbekoyim ellik besh yoshlar chamaliq* deb tasvirlanadi, Bek esa yigirma to‘rt yoshga kiradi. Demak, O‘zbekoyim 31 yoshida Otabek tug‘iladi. XIX asrda ayollarimizning

turmush qurishi uchun eng erta vaqt 15-16 yosh hisoblangan. Eng kamida O‘zbekoyim 20 yoshida turmushga chiqqanda ham 11 yil davomida farzandsizlikdan qiynalgan. Yakka farzandligini esa ota-onasining orqasidan qoladigan yolg‘iz tuyoqligidan bilib olamiz.) Yolg‘iz farzand bo‘lishiga qaramasdan aqlli, ota-onasini hurmat qiladigan, turli shaharlarga savdo yuzasidan borsa ham, ulardagi rivojlanish, siyosiy, madaniy hayotni o‘z zamondoshlariga nisbatan teran anglaydigan yigit. U har tomonlama barkamol va shuning bilan birga ishq asiri. Xuddi o‘zi singari aql-u fazilatda ilg‘or bo‘lgan Marg‘ilonning Kumushbibisiga oshiq. Hatto muallif ham “*Quyuq jingala kiprak ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qop-qora kamon, o‘tib ketgan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilgan-da...”(*Qodiriy, 2016, 14-bet), – deya unga oshiqligini izhor etadi. “*U kishi yum-yum yig‘lar, kursiga tirsaklanib olib to‘xtovsiz yozar edilar...Keyinchalik anglasam, o‘shanda dadam sevikli qahramoni Kumushning o‘limi paytini tasvirlab, iztirob chekayotgan ekanlar...”* (Qodiriy, 1983, 99-bet). Har doim samimiy munosabatlarga to‘siq bo‘luvchi insonlar topiladi. Romanda bu vazifa Homid obrazi orqali chiroyli tarzda tasvirlab berilgan. “*Homid uzun bo‘yli, qora cho‘tir yuzlik, chuvoq soqol o‘ttiz besh yoshlarda bo‘lg‘an ko‘rimsiz bir kishi edi”* (Qodiriy, 2015, 2-bet). Har bir insonning xarakteri, ichki dunyosi uning tashqi ko‘rinishida balqib turadi deganlaridek Homidga muallif tomonidan berilgan ta’rif bizga keyingi o‘rinlarda ham u haqida yaxshi ma’lumot berilmasligidan dalolat beradi va asar ekspozitsiyasidayoq qahramonning tanishtirilib berilishi asar davomida ham uning harakatlari alohida ahamiyat kasb etishiga, ya’ni u Otabek xarakterining o‘sish-o‘zgarish, shakllanish jarayoniga sabab bo‘luvchi syujet chizig‘ini yaratib berishiga ishora qilyapti. Bu o‘rinda Otabek va Homid bir-biriga zid qo‘yilayotganga o‘xshaydi: nafaqat so‘zlari (xotin eriga muvofiq bo‘lgani holda er ham xoting‘a muvofiq bo‘lishi haqidagi bahs) va eng asosiy jihat Homid 35 yoshga kirib bir emas ikki xotin olganligi, uchinchisini ham olishga harakat qilib yurganligi (U Kumushga Otabek Marg‘ilonga kelmasdan avval o‘g‘iz solganligi), Otabek esa yaqinda 24 yoshga kiradi-yu, xayolida hali oila qurish kerak degan fikr

kelmaganligi, ya’ni fe’l-atvorning tamomila teskari ekanligi parallel ravishda beriladi. Bir tomondan Homidni ham ayblay olmaymiz, chunki raqib degani toshyurak inson degani emas, u ham Kumushga oshiq bo‘ldi, lekin unda vaziyat ancha boshqacha – u uylangan, qolaversa, xalq orasida yaxshi kishilar sha’niga to‘g‘ri kelmaydigan nomaqbul nom bilan tanilgan, syujet rivojida esa ikki yoshni bir-biridan uzoqlashtirish uchun soxta xatlar jo‘natganligi, shu xatlar tufayli uzoq ayriliq onlarini boshlaridan kechirgaliklari, bu ayriliq vaqtlari ham tinch o‘tmasligi Bek nomidan Kumushbibiga ajrashganliklari haqidagi xabar yozilishi, Kumushning boshqa bir insonga unashtirilishi va Homid tomonidan kuyovga suiqasd qilinishi uning tomonidan qilingan begunoh insonlarga nisbatan nohaqligi bo‘lsa, Kumushga yozilgan soxta javob xati orqali uning hali erli juvonning tumush o‘rtog‘i bilan aloqalarini uzib, keyingina uylanmoqchi ekanligi Homidga nisbatan qarashlarimizni biroz o‘zgartiradi. Bu jarayon esa ikki oshiqning zidlanishi kerak bo‘lgan vaziyatni taqozo etadi: Otabek ham keyinroq Zaynabga uylandi, u ham ikki ayolning turmush o‘rtog‘i. Homid ham, Otabek ham odam o‘ldirdi, bir emas, bir nechtasini — Homid esa atigi bitta odamni o‘ldirdi. Endi xuddi shu vaziyatda Otabekning oqlanishi orqali Homidning yuzsizligi yana bir bor namoyon bo‘ladi.

Birinchi masalada Bek ota-onasining kelin olish orzu istagi tufayligina (bunda ko‘proq onasining xohishi, otasi esa O‘zbekoyim quda taraf bilan ishni pishitib qo‘yganligi sababli xonadonidan to‘y bo‘lmaydi degan yuzsizlik chiqmasligi uchungina rozi bo‘ladi) Zaynabga uylanadi. Odam o‘ldirish masalasiga kelsak, bu katta gunoh, qanday qilib inson o‘zi singari har tomonlama imkoniyatlari keng qilib berilgan boshqa bir insonni osongina o‘ldirishi mumkin. Bu, albatta, vaziyat taqozosiga ko‘ra o‘zi jondan ortiq suygan dilraboning or-nomusi, sha’nini himoya qilish uchun qilingan gunoh. Homid tomonidan qilingan jinoyat esa oqlanishga muhtoj emas, u insonda nafsning iymondan, tafakkurdan ustun kelishi, “xolos”. Homidning ham asar boshidanoq oshiq ekanligi ayon edi va shu bilan birga nafs yo‘lida oshiqligi ham. Ammo “*Nafs maqsadida oshiq bo‘lganlar uchun oshiqlik haromdir”* (Qodiriy, 2015, 2-bet).

Abdulla Qodiriyning asl maqsadi ishq sarguzashtlarini tasvirlash emas, jamiyatda sodir bo‘layotgan nohaqliklar, sobiq sho‘ro tuzumi va uning istibdodidan faqat birlashsakkina xalos bo‘lishimiz mumkinligi, uning uchun o‘z ichimizdan chiqayotgan fitnalarga barham berishimiz kerakligi, agar yurtni avlodlarga sog‘-salomat topshirmasak, ular o‘z ajdodlariga ta’na toshlari yog‘dirishi kabi masalalarni va eng asosiy jihat, xalq bir-biriga qabr qaziyotgan bir vaqtda, ikkinchilar ularga tobut hozirlayotganini, ya’ni xalq ahvoli xarob bo‘lishi kutilayotgan vaziyatni bartaraf etish kerakligini tushuntirishdir. Romanda ishq sarguzashtlari voqelikni tasvirlash uchun vosita bo‘lishiga qaramay, jamiyatda sodir bo‘layotgan hodisalar tub aholining turmush farovonligiga qanchalik ta’sir ko‘rsatgan degan mulohazalarga javob berganligi, qolaversa, oddiy ishq emas, Qodiriy dahosi yaratgan va o‘zi ham asir bo‘lib qolgan ishq tasviri asarning yuksak mahorat bilan yozilganligidan dalolatdir. Zero, “*Bizning adabiyotda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”idan boshqa roman hali maydonga chiqmagan”.*

Qodiriyning yana bir muayyan davr - Qo‘qon xonligi hayoti tasvirlangan asari “Mehrobdan chayon”dir. “*Turkiston feodallarining keyingi vakili bo‘lg‘an Xudoyorning o‘z xohishi yo‘lida dehqon ommasi va mayda hunarmand-kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin -qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi kelguchilar tilasa kim bo‘lmasin, rahmsiz jazo berishi ro‘monning mavzuyidir”* (Karimov, 2022, 146-bet). Qodiriyning bu romani ham davr tasviri nuqtayi nazaridan, qahramonlar xarakteri jihatidan ham yetuk va adib ularni o‘zbek tarixi hazmi ko‘targan qadar olishga tirishgan.

Asar bosh qahramoni, oshiq yigit - Anvar. Otabekka qiyoslaydigan bo‘lsak, Bek siyosatchi boy oilada, doimiy farzandga e’tibor beriladigan, boy bo‘lgandan so‘ng, albatta, uylarida xizmatchilari bor oilada dunyoga keldi va asar boshidayoq biz Otabekning 24 yoshga kirganini bilar edik. Anvar esa kambag‘al, yangi chaqaloq ularga baxt emas, balki ortiqcha yuk deb qaraladigan (bunga, shubhasiz, oilaning moddiy ahvoli sabab bo‘lgan) oilada tug‘ildi. Uyida xizmatchi bo‘lish tugul bolalar o‘zlari boshqa insonlar xonadonida xizmat qilishadi. Yosh masalasiga keladigan bo‘lsak, asarni o‘qish davomida Anvarni beshikda yotgan paytidan

ulg‘aygunigacha o‘zimiz katta qildik. Yoshligidan qiyinchiliklar ko‘rganiga qaramay, u sabr-bardoshli, aqlli, mard, mehribon, mulohazakor, do‘stga, yoriga sadoqatli inson. U vaziyatni har tomonlama to‘g‘ri baholay oladi. Holining abgorligini bilib Ra’noni yoqtirsa ham, unga bu haqida aytish u yoqda tursin, hatto xayoliga ham keltirmaydi. Ammo ma’shuqa uchun bu butun bir baxtdir. Chunki unga insonning mansabi emas, o‘zida bo‘lganidek go‘zal qalbi kerak, agar Layli Qaysdek muhabbatda vafoli, o‘tkir zehnli yigitning junnunligidan, telbaligidan uyalsa, or etsa, haqlidir, lekin Ra’no Anvarning muhabbatida sazovor bo‘lsa, bu uning boshiga qo‘ngan baxt qushidir. Ra’noni tasvirlashda biz, shaksiz, Anvardan o‘ta olmasak kerak: “*Hamisha xavfda ko‘nglim bu muhabbat intihosidin. Meni ham etmasa majnun debon Ra’noning savdosi*” (Qodiriy, 2019, 102-bet). Oshiq yurak har doim bu muhabbatning oxiri qanday bo‘lishidan xavfdaki, bu go‘zal yorga bo‘lgan muhabbatim meni ham oxirda Majnun, ishq, muhabbat yo‘lida devona etmasa edi deb. Bundan go‘zalroq, muhabbatga yo‘g‘rilgan ta’rifda oshiq o‘z yorini husn-u malohatda dard dostonidagi (dard dostoni deyilishiga sabab, Navoiy o‘zi aytganidek, dostondagi har bir “d” harfi dard so‘zini ifodalaydi). Layliga teng qo‘yyaptiki, yorning kelgusidagi xatti-harakatlari oshiqni telba qilmasdan qo‘ymaydi. Bu o‘rinda qaysidir ma’noda qahramonlarning keyingi hayotiga ham ishora mavjud, ya’ni ularning ishq yo‘lidagi qiyinchiliklariga.

Kumushbibi bilan o‘xshash va farqli jihatlari esa muallif xuddi Kumushga oshiq bo‘lganidek, Ra’noga ham shaydo. Qaysidir ma’noda rassom bo‘lmaganligiga afsuslanadi, agar rassom bo‘lganida edi Ra’noni ta’riflab o‘tirmasdan, shundaygina rasmini tortib qo‘ygan bo‘lardi. Kumush yolg‘iz farzand, Ra’no esa to‘ng‘ich farzand undan so‘ng yana uch o‘g‘il bor, Kumush boy oilada, qutidor, ya’ni mas’ul lavozimda ishlaydigan oilada tavallud topgan. Ra’no esa maktabdor oilasida, tub aholidan ko‘ra ancha yaxshi yashaydigan oilada dunyoga kelgan. Bu, albatta davrga ham bog‘liq. “O‘tkan kunlar” asarida Xudoyorxon endigina taxtga chiqqan edi, “Mehrobdan chayon”da esa uchinchi marta taxtga chiqishi edi. Kumushbibi ham, Ra’no ham o‘qimishli qizlar, aynan o‘xshash jihatlari esa ikkisi ham Fuzuliyning asarlarini o‘qigan. Asardagi raqib obraziga

keladigan bo‘lsak, birinchisi bu – Mulla Abdurahmon. Ammo uni raqib qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi. Imom har taraflama ziyoli bo‘lishi kerak, ammo Abdurahmon tanbal (ota-bobomning kasbini qilaman deb, boshqa hunarga qo‘l urmagan), bilimsiz, nopok kimsa (zamona buzuqlari yo‘ldan adashtirsa, indamay ketaveradigan, qarshilik ko‘rsatib orini, g‘ururini saqlashga harakat qilmaydigan), nafs yo‘lidagi “oshiq” (asarda uning Ra’noga chin oshiqligi to‘g‘risida so‘z bormaydi. Balki uning imom degan nomiga keksa maktabdorning qiziga uylansa, yana bir husn bo‘lishini o‘ylaydigan nafs quli), unga eng mos ta’rif Safar bo‘zchining ta’rifiki, ahmoq mulla va yana mehrobdan chiqqan chayon. Va chayon singari haq kishilar payini qirqishga urinishi, panadan turib zarba berishi va pok vijdonli kishilarni dor ostiga keltirib, o‘zi tomoshabin bo‘lishi yomon. Bu esa mardning emas, nomard, yaramas odamning zarbasi. Ammo asosiy raqib Abdurahmon emas. “O‘tkan kunlar” romanidagi Homiddan ham mavqe, ham oshiq sifatidagi qahramon jihatidan tamoman farq qiladigan, lekin bir-biriga ko‘ngil qo‘ygan yoshni bir-biridan ayirishga urinish jihatlaridan o‘xshash va biz diqqat qaratishimiz kerak bo‘lgan raqib — Xudoyorxon. O‘z nomi bilan xon, Qo‘qon xoni. U ham aslida raqib emas, chunki avvaldan Ra’noni ko‘rib, ishqida kuymagan. Shunchaki ta’rifi butun shaharni tutgani uchun, atrofidagi insonlar tavsiyasiga binoan unga uylanmoqchi. Xodoyorxonning haram kanizlari soni 155 nafar ekan. Ularning har biri ham o‘ziga yarasha husn-u malohatga ega qizlar bo‘lgan. Ammo Xudoyorxon ularning hech qaysi biriga oshiq bo‘lmagan, agar oshiq bo‘lganda edi, ayollarining sonini ko‘paytirib yurmas edi. Ra’no ham ularning qatoriga 156-bo‘lib, agar uylansa Roziya oyimning xotirida bor 35 ayolga 36-kundosh bo‘lib tushar edi. Abdulla Qodiriy asar boshida Ra’noning hayotida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan taqdiriga ishora qilib ketgan, bu asarning rivojlanishi uchun turtki bo‘lgan o‘zini kimga berishlarini Anvardan so‘ragan Ra’noga *“Seni xondan boshqa kim olsin?”* (Qodiriy, 2019, 31-bet) javobidir. Bu o‘rinda muallif xon so‘ziga ikki xil ma’no yuklagan: 1-sen faqat xonlarga, jahon podshohlariga yor bo‘lishga arziydigan qizsan. 2-asar voqealari davomida tasvirlangan xon – Xudoyorxon nazarda tutilgan, ya’ni seni Xudoyorxondan boshqasi olishi mumkin

emas. Asarda eng kulminatsion nuqtani xon o‘z qaramog‘ida bo‘lgan aholini dunyo va din tomondan ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riqlar asosida adolat bilan boshqarmog‘i kerakligi, ammo Xudoyorxon bunga amal qilmayotgani aks etgan dialoglar tashkil etadi. Biz yuqorida “Mehrobdan chayon” romanining yetuk badiiyati bilan tanishdik hamda bu asar ham “O‘tkan kunlar” romani singari davr muammolarini tasvirdagi donishmandlik, nuroniy aql va soddalik, andisha, hur fikr va insoniy joziba yog‘dusi orqali aks ettirgan.

So‘ngso‘z o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, muhabbat saroyi keng, ishq dunyosi ajab dunyoki, bu dunyoga qadam qo‘yish kamdan-kam odamga nasib qiladi. Va biz yuqorida asarlar misolida buni yanada keng ko‘rib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodiriy, A. (2019). *Mehrobdan chayon.* Toshkent: Navro‘z.
2. Karimov, B. (2022). *Jadidlar. Abdulla Qodiriy.* Toshkent: Yoshlar Nashriyot Uyi.
3. Навоий, А. (1960). *Лайли ва Мажнун*. Насрий баёни муаллифлари Вахоб Рахмонов ва Нами Норкулов. Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
4. Кодирий, Х. (1983). *Отам хакида.* Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
5. Кодирий, А. *Ўткан кунлар* . w.w.w. ziyouz.com kutubxonasi.

QAHRAMON ICHKI OLAMI IFODASI – IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA BONU OBRAZI MISOLIDA

Nasimjonova Muxlisabegim Anvarjon qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 3-kurs talabasi
nasimjonovamuxlisa831@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Iqbol Mirzoning “Bonu” romanining syujet qurilishi, undagi obrazlar tizimi haqida to‘xtalingan. Romanning qisqacha mazmuni, asar bosh qahramonlarining xarakterlari, ularning hayot yo‘llari yoritilgan. Muhim bo‘lgan atamalar va ularning ilmiy izohlari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar. *Muhabbat, badiiy obraz va obrazlilik, adolatsizlik, bemor odamlar, nomus.*

Abstract. *This article focuses on the construction of the plot of Ikbal Mirza’s novel “Bonu”, the system of images in it. The summary of the novel, the characters of the main characters, their life paths are highlighted. Important terms and their scientific explanations are described.*

Keywords. *Love, artistic image and imagery, injustice, sick people, honor.*

Iqbol Mirzoning shoir sifatida yaratilgan takrorlanmas satrlari deyarli har bir insonning ko‘nglidan joy olib ulgurgan. Biroq, ijodkorning “Bonu” romani haqida so‘z borar ekan, nasrda ham tengsiz ekanligini anglash qiyin emas. Darhaqiqat, “Bonu” romani yurakdan yozilgan va qalb bilan o‘qiladigan asardir. Kitobxon romanni o‘qish davomida qahramon bilan birga yashashi-yu, quvonchli kunlaridan quvonib, dardli lahzalarida g‘amga botishi haqiqatdan yiroq emas. “*Erkin A’zam roman haqida quyidagilarni bejizga aytmagan:“Iqboljon! “Bonu”ni kecha o‘qib bitirdim. Bayram kunlari shuning ta’sirida edim. Kutganimdan ziyoda, yashang! Dard, donolik, daqiq tasvirlar, til, til... Havasim keldi. “Choliqushi” yasabsiz. Bo‘shashtirmang, inim!* (https://telegra.ph/Bonu-ning-iztiroblaridan-chizgilar-01-06).

Asar qahramonning telegram orqali yuborgan kichkina yozishmalari bilan boshlanadi. Iqbol Mirzo anglaganidek, yozishmalar shunday holatda roman bo‘la olishdek ma’noga ega. “Bonu” romani – *“dadasining erkasi”,* oilasining oltinchi farzandi bo‘lmish Bonuning ko‘rgan-kechirganlaridan iborat. Til va adabiyotga hurmat va mehr Bonuga otasidan o‘tganligi va bobosining kutubxonasi sabab qahramon chiroyda tengsiz bo‘lgani kabi, she’rxonlikda ham peshqadam edi. Padarining yo‘lini tutib, Toshkentga o‘qishga kirgan Bonuning chiroyi unga omad olib kelardi. Ilk marta o‘qishga topshirgani borgandayoq, uning chiroyi jurnal muqovasiga ko‘rk berib turganidan, ustozlarning shunday go‘zal qizga yomon baho qo‘yish gunoh ekanligini aytishganidan cheksiz quvongan qahramon qachondir o‘sha chiroyi pand berishini hatto tush ko‘rmagandi. Go‘zalligi va aqli bilan hech kimga bo‘ysunmagan qizni bir kun kelib telefon orqali Olmos o‘ziga

ipsiz bog‘laydi deb kim ham o‘ylabdi. Shunchaki aldovni “chin muhabbat” deya bilgan qahramonga kitobxon asar oxirigacha achinadi. Juma tabriklari-yu, shirin suhbatlarning oxiri g‘am ekanligini kim ham bilsin. Nahot, sevgi shu bo‘lsa? “*Badiiy obraz vositasida fikrlashi (va ifodalashi) san’atning spetsifik, ya’ni tur sifatida belgilovchi xususiyati bo‘lib, u obrazlilik deb yuritiladi. San’atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o‘zi anglagan mohiyatni va o‘zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma’noda obraz adabiyot va san’atning fikrlash shakli, usuli sanaladi; obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san’atga xos fikrlash tarzi “obrazli tafakkur” deb yuritiladi.*

Obrazli tafakkur bilan tushunchalar vositasidagi tafakkur tarzining farqi nimada? Oradagi farqni yorqinroq tasavvur etish uchun fandagi va badiiy adabiyotdagi tafakkur tarzini qiyoslab ko‘rish mumkin.

Estetika san’atshunoslik va adabiyotshunoslik fanlaridagi o‘zak tushunchalardan birini anglatuvchi terminga rus tilidagi ko‘p ma’noii “obraz” so‘zining “biror nimaning ongdagi aksi” (keyingi o‘rinlarda “biror nimaning tasviri”) ma’nosi asos bo‘lib xizmat qilgan. Termin sifatida “obraz” falsafa va psixologiyada ham faol qo‘llanib, bunda voqelikning, undagi narsa-hodisaning inson ongidagi aksi tushuniladi” (Quronov, 2018, 88-bet).

Bonu – bolalik davri qisman yaxshi davr bo‘lgan bo‘lsa-da, hayot uni turfa-xil sinovlarga tashlagan, ko‘plab odamlardan aziyat chekkan o‘zbek qizi, o‘zbek ayoli sifatida gavdalanadi. Har kimga ham ishonib ketavermaslik, odamlardan doim ham yaxshilik kutavermaslik kabi hayotiy saboqlarni oldi. Asar qamrab olgan davr mobaynida Bonu har xil sinovlar qurshoviga tushib, ulardan chiqib keta olish yo‘llarini topa oldi va kitobxon ko‘z oldida voyaga yetdi, mustaqil shaxs sifatida kamol topdi.

Qiz bolaning ori, nomusi, iffati hamma narsadan ustun turishi, uning sha’niga aytilgan bir yomon so‘z, bo‘hton uning hayotining chilparchin qilib yuborishi mumkin ekanligi asarda Yusuf tomonidan Bonuning olib qochilishi va unga tajovuz qilishga uringanligida yaqqol namoyon bo‘ladi. Garchi Bonu iffatini saqlab

qolgan bo‘lsa-da, “xalq og‘zaki ijodi” buni tan olmadi. Otasi Bonuga o‘zidan ko‘p ishonsa-da, eng sevimlisiga, erkatoyiga nisbatan aytilgan bunday so‘zlarni ko‘tara olmadi. Bonu yagona suyana oladigan tog‘idan – otasidan ayrildi. Onasi, akasi, opalari bo‘lsa-da, uning qalbini otasidan bo‘lak hech kim tushuna olmasdi va qahramonimiz yolg‘izlikni his qila boshlaydi.

Baxt ham, dard ham qo‘shaloq keladi deganlaridek, kasallik kutilmaganda yo‘qlab, Bonuning hayotini butunlay izdan chiqardi. Bonu “pes” kasalligiga chalindi. Endi u uchun haqiqiy yomon kunlar boshlandi. Odamlar jirkanib qarar, bir vaqtlar uning yo‘liga intizor oshiqlari “Yaxshiyam yo‘q degani” deya shukur qilayotganini qalban angladi. Dunyoga sig‘magan paytingizda, eng kuchli zarbalarni faqat yaqinlaringizgina bera oladi. Bonuda ham xuddi shu holat bo‘ldi, ilk bora hech kimga berishni istamaydigan, hammadan ko‘p yaxshi ko‘radigan akasi borligidan nafratlandi. Akasi tomonidan Bonuga tortilgan tarsakining soniyasidek vaqtda Bonu akasidan voz kechdi. Tortishuv esa akasining hech kimning ruxsatisiz bobosining hovlisini sotishidan boshlanib, xotiniga tillo zanjir olib bergani-yu, qaynog‘asining to‘yiga ko‘proq to‘yona bilan siylashi kerak ekanligi bilan yakunlandi. Kitobxon asarni o‘qish mobaynida bu vaziyatlarni ko‘rib, ya’ni Mirxonddek akalar borligidan, tabiiyki nafratlanadi.. Bonuning boshiga solingan “it kunlar”ida albatta, murosasiz yanga-yu, xotinining yo‘lidan chiqolmaydigan akaning aybi katta edi.

Zamona talabi bilan bugungi kunda muhabbat faqat chiroy bilan o‘lchanishi, oshiqning sevgilisini har qanday holatda ham seva olishi haqidagi fikrlarning inkor qilinishini Olmos obrazi orqali tasavvur qilishimiz mumkin. Umr yo‘ldoshi bu – hayotning eng quvonchli onlari bilan birgalikda, g‘amli lahzalaridan “bir jon” bo‘lib o‘tuvchi hamroh bo‘lishi kerak. Bonu esa tasavvuridagi ideal insonni Olmos sifatida ko‘rdi. Muhabbatini chin deb o‘yladi. Bonuning otasining dafn marosimiga kelib, uylarini ko‘rgach, maqsadi shunchaki boylik orttirish bo‘lgan Olmosning hafsalasi pir bo‘ldi. Biroq Bonuni Olmos yuborgan sovchilar shunchaki Olmosning ustozlari ekanligini, ular hatto bilmaganliklari, boyroq xonadondan kelin qilishni

rejalashtirganini aytish uchun kelgan Olmosning onasining so‘zlari ham sovuta olmadi.

Inson hayotida shunday muqaddas tuyg‘ularni boshidan suv qo‘yadigan “mard”lar ham borki, Olmosning “sodda” nigohi-yu, “kamtarona” o‘ylangan rejasi bir inson hayotini yo‘qqa chiqaradi.

“Bir o‘zbek qizining shu darajada ahvolga tushib, INSONIYLIK sifatlarini yuragida ko‘tarib yurishi, bu nimaga yoki kimgadir isbot emas, katta bir maktab! Biz uchun...” (https://teletype.in/@mutolaa_sehri/bonu).

Onasining qistovi bilan Rossiyaga ishlash uchun ketgan qahramonimizni o‘sha piyonista tog‘asi kutib oldi. O‘rmon ichidagi qo‘rg‘oniga olib borib, yaxshigina ishga joylab qo‘ydi. Lekin tog‘asining o‘zini tutishi-yu, Bonuga nisbatan qiliqlari, o‘z oilasi, farzandlari bo‘la turib, qayerdagi ayollarga ilakishgani qahramonga tinchlik bermadi. Ruxsora opasining eri, pochchasi Jontemir ham tog‘asi qatorida. Lekin ulardan biror foyda, najot bo‘lmadi. Muammo ustiga muammo qo‘shishga xizmat qilishdi, xolos. Bonu uchun yagona jon kuydiruvchi, haqiqiy opa sifatida aks etgan, asli shunchaki Bonuning ustozi, begona bo‘lgan Shoira opa asardagi yagona najot farishtalaridan edi. Biroq, “kattalar”ga pul berib turmagani uchun erining necha yilgadir “kesilib”, bor-budini musodara qilishlari bilan, o‘ziga to‘q hayotdan, kambag‘alchilikka tushib qolgan Bonuning himoyachisiga ham oson emasdi. Bonu qanday kunlarga qoldi. “Fohisha”ligi bilan mashhur bo‘lgan Dilbarning razilligi bilan ko‘chada qolib, daydilar to‘dasiga qo‘shilgani va hatto o‘ylab ko‘rmagan iflos hayotda yashagani yolg‘on emas. Jiyani Boburdan najot topib, bir yarim yil mobaynida itning kuni boshiga tushib, ishlab topgan pullarini jiyanlarini to‘yiga to‘yonalar-u, qarz so‘raganlarga berib turgan onasi qayerdan bilsin. Hayotda ko‘rsata oladigan sanoqli yaxshi insonlaridan biri bo‘lgan Alisher akaning yordami bilan lo‘lilar xonadoni xizmatkoriga aylangan Bonu uchun ularning sharoiti eng yaxshi edi, nazarida.

Olmosning xastaligi daragini eshitgan Bonu uchun uning achinarli dunyosi battarroq yomon bo‘lib ketdi. Uning tuzalishi uchun so‘ragan pulini berdi. Uning yashashini chin dildan xohladi. Ammo gazetada chiqqan Olmosning saraton

ekanligi-yu, Eynshteyn qonunlarini o‘zgartimoqchi bo‘lgan professor haqidagi cho‘pchak ham faqatgina odamlardan pul undirish uchunligini bilib, Olmosga qo‘ng‘iroq qildi. Pastkashlarcha undan olgan pullarini undira olmasligi haqida uqtirayotgan Olmosdan saraton emasligi rost ekanligini so‘radi. Olmosdan “Ha” javobini olgan qahramonimiz, birinchi muhabbati uchun quvondi. “Xayriyat” - dedi-yu go‘shakni qo‘ydi. Tom ma’noda, ko‘ngliga raqib qilib qo‘ygan Olmosga muhabbati sof ekanligini isbotladi. Qiyinchiliklar, dard va g‘amlar abadiy emas deganlaridek, Bonu batamom tuzaldi. Unda faqatgina bittagina dog‘ qolgandi. U ham bo‘lsa yuragida...

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Bonu – boshiga turfa-xil tashvishlar, ketma-ket sinovlar kelganda yengilib qolmagan o‘zbek qizining timsoli. Odatda yigitlarning bardoshi chiday olmaydigan muammolar Bonuning kunlik hamrohlari bo‘ldi. Yoshlik yillari dadasining panohida o‘tgan bo‘lsa-da, u uchun haqiqiy sinovlar dadasi olamdan o‘tgach boshlandi. Akasidan, haqiqiy muhabbati deb o‘ylagan Olmosdan aziyatlar ko‘rdi. Tanasiga oq dog‘lar, ya’ni pes tarqalgandan keyin undan yuz o‘girish holatlari kuzatildi. “Tana boshqa dard bilmas” deganlaridek uning ko‘yida oshiq bo‘lganlar ham endi u haqida boshqacha o‘ylay boshladilar. Lekin matonat, bardosh, sabr va qat’iylik qahramonimizning sinovlarni yengib o‘tishiga yordam berdi. Bonu timsoli vositasida insoniylikning eng oliy ko‘rinishi bo‘lmish olijanoblik hislati ham bor. Buni Olmos “soxta kasal” bo‘lgan paytda Bonuning tutgan yo‘li orqali ko‘rishimiz mumkin. Sinovlar – insonni mukammalik sari yetaklaydigan vositadir. Bonu ham asar mobaynida, ko‘z oldimizda yuksaldi, tashvish va qiyinchiliklarni yengib o‘tdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iqbol Mirzo. (2020). *Bonu.* Toshkent: Sharq.
2. Quronov, D. (2018). *Adabiyot nazariyasi asoslari.* Toshkent: Akademnashr.
3. https://telegra.ph/Bonu-ning-iztiroblaridan-chizgilar-01-06.
4. https://teletype.in/@mutolaa_sehri/bonu.

NAZAR ESHONQUL „TOBUT'' HIKOYASINING AYRIM BADIIY JIHATLARI HAQIDA

Nomozova Dilobar Suyun qizi,
ToshDO'TAU OTAT 1-kurs magistranti
dilobarnamozova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning "Tobut" hikoyasi tahlilga tortiladi. Bunda haqiqiy modernizm mazmunga xizmat qilishi, hikoyadagi obrazlarga ism qo'yilmaganligining sabablari, gallyutsinatsiya, shaharning nega tobut shaklida ekanligi tahlil etilgan. Ekologik muammoning yoritilganligini ham ko'rishimiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Nazar Eshonqul, tobut ramzi, modernizm, mazmun, shakl, ismsizlik, gallyutinatsiya, tobut tasviri.*

Abstract: *This article analyzes the story of Nazar Eshankul "The Coffin". In this, real modernism serves the content, analyzes the reasons why the characters of the story are not named, hallucinations, why the city has the shape of a coffin. We also see that the environmental issue is coming to the fore.*

Keywords*: Nazar Eshankul, the coffin, modernism, content, form, anonymity, hallucination, image of the coffin.*

Bugungi kun o'zbek nasrini iste'dodli yozuvchi Nazar Eshonqul ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Adib o'quvchilarni o'ylashga, fikrlashga, tahlil qilishga, chorlaydigan, yangi mushohadalar sari yo'l ochadigan asarlari bilan adabiyotimizga yangicha ruh kira oldi deb ayta olamiz. Modern yo'nalishning mumtoz namunalarini yarata olgan ijodkor asarlari ramziy obrazlarga, o'ziga xos timsollarga boydir. Ozod Sharafiddinov modernizmning mohiyati haqida gapirar ekan, bir qiziq misolni keltiradi: *"Malevich degan rassomning asrimiz boshlarida ishlagan bir surati bor. Bu "Qora kvadrat" deb ataladi. Unda chindan-da qora kvadratdan boshqa hech narsa yo'q. Xudo haqqi, men shu paytgacha bu suratning nima ma'no anglatishini tushunganim yo'q. Lekin buni qarangki, yana shu men tushunmagan asar san'at bozorida milliondan ortiq dollar turar ekan"* (Sharafiddinov, 2004, 237-bet). Bu maqoladan maqsad – Nazar Eshonqulning bahs-u munozaralarga sabab bo'lgan asarlaridan biri bo'lmish "Tobut" haqida

ilmiy farazlarimizni ilgari surish, uning modernistik mohiyati haqida mulohazalarimizni bayon qilish.

"Kecha – sho'rolar zamonida adabiyotda shakl mazmun (g'oya)ga qurbon qilinayozgan edi. Modernizmda esa ko'pincha buning teskarisiga duch kelamiz. Shakl ketidan quvilib, mazmun boy beriladi" (Hamdamov, 2020, 38-bet). Ya'ni, modern yo'nalish deyilganda faqatgina so'z va jumlalarning odatdagidan boshqacha tushunarsiz qo'llanilishi nazarda tutilmaydi, aksincha asarlardagi o'ziga xos simvolik (ramziy) tasvirlar aynan mazmun uchun xizmat qiladi. Nazar Eshonqul o'zining betakror iste'dodi tufayli shakl va mazmun mutanosibligiga erisha oldi. Adib asarlari tilini tushunish ko'pincha og'ir kechadi, chunki qora bo'yoqlar, metaforaga to'yingan talqinlar hayotning zulmatga boy taraflarini ko'rsatish yetakchilik qiladi. Buni yozuvchining o'ziga xos uslubi deyish mumkin.

Ijodkor o'zining quyuq qora bo'yoqlari bilan inson ongi, tafakkuri, qalbini oqartirishni, tiniqlashtirishni ko'zlaydi, aslida. Shunday asarlaridan biri "Tobut'' hikoyasidir (Eshonqul, 2018). Hikoyaning nomlanishiyoq o'quvchini qo'rquvga soladi va buning asnosida qiziqishni kuchaytiradi (https://ru.wikipedia.org/wiki/Страх). Chunki inson psixologiyasida shunday instinkt mavjudki, qo'rqinchli voqelik, hodisalar, narsalar doimo qiziqishni uyg'otadi. Tobutning nima ekanligini barchamiz juda yaxshi anglaymiz. Endi hikoyaga nega aynan shunday nom qo'yilgani biz uchun muhim. Buni biz bevosita asarni o'qish jarayonida anglab olishga urinamiz.

Hikoya tugundan boshlanadi. Noma'lum sababga ko'ra o'lat tarqalgan hududga yosh me'mor yigit ham jo'natiladi. Voqealar bayoni ham aynan shu yigit tilidan bayon etilgan. Chekka bir sahroda qad roslagan shahar aholisining nega o'z-o'zidan ishlab turgan, uxlab yotgan joylarida ham vafot etayotgani o'ta jumboqli. Tekshirgani kelgan guruhni shahar boshlig'i kutib oladi. Undan esa *"nafasni bo'g'ib qo'yadigan, achimsiq hid anqirdi, bu hid go'yo ichida kimdir o'lib qolgandan uning ichak-chavag'idan chiqayotganday edi."* Endi o'rinli savol tug'iladi: nega muallif hikoya qahramonlariga ism bermadi? Shunchaki ularni kasbidan kelib chiqib me'mor, professor, ximik, nazorat boshlig'i, shahar boshlig'i

deya atadi? Chunki o‘z “men’’ini yo‘qotgan, qullik darajasiga tushirilgan, hayotda hurlikdan mosuvo etilgan va bunga ko‘nikkan odamlarni adib ism qo‘yishga loyiq ko‘rmaydi. Ijodkorning o‘zi ta’kidlaganidek: *“Qullik psixologiyasi mavjud jamiyatda ismlar ne darkor?”* (Eshonqul, 2022, 31-bet).

Ko‘pchilik tadqiqotchilar Nazar Eshonqulning ushbu hikoyasini sovet hokimiyati hukmronligi bilan bog‘lagan. Lekin, bizningcha, bu barcha davrlar uchun xos. Inson erki, mustaqilligi faqat nomigagina bo‘lmasligi kerak, amalda bo‘lishi lozim. Shahardan va shahar odamlaridan kelayotgan badbo‘y hid aynan erksizlikning hidi. Shaharning qurilgandagi ilk ko‘rinishi *“naq xayolning jilvalaridek nafis gumbazlar, sejilo bo‘yoqlar, ehtirosli qalbning parchalari kabi marmarlar, qiz bolaning ko‘z yoshiday favvoralar hammasi go‘zal tarzda uyg‘unlashib ketgandi”.* Bunda tasvir boshida “naq xayolning” jumlasi ishlatilgan. Ya’ni erk, mustaqillik, hurlik go‘zal so‘zlar. Odamlarga sen mustaqilsan degan bilan u o‘zida haqiqiy mustaqillikni; mustaqil fikr, mustaqil hayot, mustaqil “men”ini shakllantira olmasa, alaloqibat, umri zavolga yuz tutadi.

Hikoyadagi “Tobut” shaklidagi shahar qurilishining me’mori bo‘lgan kishi obrazi gallyutinatsiya xastaligiga giriftor bo‘lgan timsol. *“Gallyutinatsiya – bu qahramonning o‘ta dramatik, tragik ruhiy iztiroblari, shafqatsiz kechinmalarining tasviri”* (Saidmurodova, 2022, 4-bet). Bunday obrazlarni Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, O‘tkir Hoshimov, Tohir Malik asarlarida ham uchratamiz.

Hikoyaning so‘nggi o‘rinlarida shahardagi o‘lat sababi ochiqlanadi. Shahar me’mori vafotidan so‘ng uning cho‘ntagidan chiqqan qog‘ozdagi tasvirlarda shahar loyihasi tobut shaklida ekanligini tekshirishga kelgan yosh me’mor anglab yetadi. Yechim topishni ijodkor o‘quvchining o‘ziga qoldiradi. Demak, shaharni qutqarish uchun shaklni o‘zgartirish kerak ekan. Shaharni bir kichik davlatga qiyoslasak, davlatning boshqaruv shakli o‘zgarishi insonlarni fojiaviy o‘limdan qutqaradi. Har bir yangi yo‘nalish davr va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik jamiyatdagi muammolarga yechim qidirish nuqtayi nazaridan kelib chiqadi. Asarda ekologik muammo ham birmuncha yoritilgan.

Hikoyani ilk o‘qish jarayonida ko‘z o‘ngimizda to‘g‘ridan to‘g‘ri mazmuni jonlanadi. Olis Qizilqum sahrosida Uchquduq deya atalgan shaharcha bor. Faqatgina ko‘p qavatli binolardan iborat biror-bir daraxt, biror o‘t-o‘lan ko‘karmaydigan, buning ustiga havosi judayam og‘ir (istiqomat qiluvchi aholining aytishiga ko‘ra, havoda uran bor ekan) sahrodagi ushbu hududda minglab odamlar yashab kelishmoqda. Uchquduqda yashashlarining asosiy sababi yuqori miqdordagi oylik maoshi ekanligini ham ta’kidlashadi. Ekologlar bunday havoning inson salomatligiga ta’sirini o‘rganishganmi-yo‘qmi bizga qorong‘u.

Bahodir Karim Nazar Eshonqul ijodiga baho berar ekan, uni *“Badiiy adabiyot borasida boshqacharoq tafakkur yuritayotgan adibning o‘ziga xos ovozi yaqqol seziladi”,* – deydi. (Karim, 2016, 8-bet). Mulohaza qiladigan bo‘lsak, chin modern yo‘nalishidagi asarlarni o‘qigan sari undan yangicha ma’no, yangicha mohiyat anglashilib boraveradi. Nazar Eshonqul asarlaridagi dard, tasavvur, bilim va hissiyot, haqiqat va ongning o‘zaro mutanosibligi kitobxon tafakkurining kengayishiga turtki bo‘ladi. Demak:

1. Nazar Eshonqul o‘zbek milliy modern hikoyachiligida o‘z uslubiga ega bo‘lgan o‘ziga xos (original) yozuvchi;
2. “Tobut” hikoyasidagi ismsiz qahramonlar orqali ijtimoiy qullikning badiiy qiyofasi chizilgan;
3. “Tobut”da tuzumni (davlatni) yangilash zarurati nozik ramzlar orqali ifoda qilinadi;
4. Nazar Eshonqul o‘zbek modern hikoyachiligida o‘z puxta ishlangan inson konsepsiyasiga ega ijodkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdamov, U. A. (2020) *Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm.* Toshkent: Akademnashr.
2. Nazar Eshonqul. (2022). *Kitob bandasi*. Toshkent: Akademnashr.
3. Nazar Eshonqul. (2018). *Tobut.* Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Saidmurodova, S. (2022). *Nazar Eshonqul asarlarida psixologik tasvir va adabiy gallyutinatsiya.* “Pedagogs” jurnali.

5. Карим, Баҳодир. (2016). *Руҳият алифбоси*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

6. Шарафиддинов, О. (2004). *Ижодни англаш бахти.*Тошкент: Шарк.

7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Страх

O‘LMAS UMARBEKOVNING “ODAM BO‘LISH QIYIN” ASARIDAGI ABDULLA OBRAZI TAVSIFI

Nosirboyeva Nigina Bahodir qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 1-kurs talabasi
Niginanosirova64@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mashhur yozuvchi O‘lmas Umarbekov qalamiga mansub “Odam bo‘lish qiyin” asaridagi Abdulla va Gulchehra obrazlari yuzasidan mulohazalar yuritilgan. Obraz tushunchasiga oydinlik kiritilgan. Nafaqat Abdulla va Gulchehra, balki jamiyatimizda unib-o‘sib kelayotgan, katta hayot ostonasida turgan barcha yoshlar haqida fikr yuritiladi. Yozuvchi nima sababdan asar voqealarini Mingbuloqda jonlantirgani, asar qahramoni Gulchehraning aynan “Yoshlik” mehmonxonasi loyihasining proyektini olganligi va o‘zi ana shu mehmonxonaning beshinchi qavatidan yerga qulaganligi sabablari ochib berilgan. O‘lmas Umarbekov o‘z asariga nima sababdan “Odam bo‘lish qiyin” deb nom berganligi maqolada o‘z ifodasini topgan.*

Kalit so‘zlar *: “Odam bo‘lish qiyin”, Mingbuloq, “Yoshlik” mehmonxonasi, Leningrad, badiiy obraz, ishonch to‘g‘risida.*

Abstract. *This article is musing about Abdulla’s and Gulchekhra’s images in creature which “Odam bo‘lish qiyin” belonging to the pen Ulmas Umarbekov.The consept of artistic image is clarified. Not only Abdulla’s and Gulchekhra’s destinies, mightbe, the generations whom is growing and shaping in our society as well as standing on the threshold of their great life are presented in this creature. Novel have had highlited that by what causes choosen that Gulchekhra was identically selected the project of Hotel which named “Yoshlik” and after that she was throw herself from fiveth floor of her project. This article wiil explain Ulmas*

Umarbekov's topic is in what causes had disposed to named "Odam bo'lish qiyin".

Keywords: *"It's hard to be human", Mingbulak, "Youth" hotel, Leningrad, artistic image ,about trust.*

Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda, badiiy umumlashma xusussiyatiga ega bo'lgan surati *badiiy obraz* deyiladi. Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida qayta ishlab, hissiy idrok etish mumkin shaklda ifodalangan aksidir. Albatta, bu aksda borliqning tanish izlarini topamiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik-badiiy borliqdir.

Bugungi kungacha yozuvchilar tomonidan bir qancha asarlar kitobxonlarga taqdim etildi. Har bir asarda ijtimoiy muammolar, insonlarning turli xil taqdir yo'llari tasvirlangan. Yozuvchi o'z asarini yaratar ekan u shu asar yozilib tugaguncha uning ichida qahramonlar bilan birgalikda yashaydi. Har bir qahramon his qilgan tuyg'ularni his qiladi. Shundagina uning asari kitobxonlar uchun sevimli asarga aylanib qoladi.

Shunday asarlardan biri O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" romanidir. Ushbu asar o'tgan asrning ikkinchi yarmida yaratilgan bo'lib, asarda yoshlar hayoti, ma'naviy-axloqiy muammolar, insonlarning murakkab munosabatlari yorqin tasvirlangan. Asarda hayot, hayotning haqiqatga to'la nafasi ufurib turadi. Asar tili soddaligi, voqealar jonliligi bilan har bir kitobxonni o'ziga tortadi. Asarda ota-onaga hurmat, qadr-qimmat, odamiylik tuyg'ulari, yosh qalbning tuyg'ulari, o'zbeklarning sodda va mehribonligi, o'spirin bolaning orzulari va shunga o'xshash voqealar ibrat qilib yoritib berilgan.

Asarni ilk marotaba qo'liga olgan kitobxon uning nomiga e'tibor beradi va o'ylaydi. Yozuvchi nima sababdan asarga bu nomni bergan? Haqiqatan ham odam bo'lish shunchalik qiyinmi? Ha, ajdodlarimiz tomonidan *"Olim bo'lma , odam bo'l"* degan maqol bejiz aytilmagan. Yozuvchi ushbu maqolning ma'nosini o'z asarida yaqqol namoyon etgan. Asarda odam bo'lish qanchalik qiyinligini birgina Abdulla obrazi orqali isbotlab bergan.

Asar O‘zbek ayoli Hojar buvi (Zavod aya yoki “Otinbibi”), kuni faqat qora mehnatda o‘tgan, qo‘llaridan har doim benzin isi anqib turadigan Obid aka, o‘zining jonkuyar mehnati uchun “Qahramon unvoni”ni olgan Yusuf aka, maktabni yaxshi xulqi va a’lo baholarga o‘qib kelayotgan Abdulla va qishloqning aqlli qizi Gulchehra hayotidan hikoya qilinadi.

Asar qahramonlari Abdulla, Gulchehra, Samad va Sayyora endigina maktabni tamomlab, katta hayot ostonasida turgan yoshlardir. Ularning har birida o‘z maqsad va o‘z rejalari bor. Lekin ularning bir-biridan farqi shuki, o‘sha maqsadlarga qay yo‘l bilan erishmoqchiligidadir.

Asarning bosh qahramoni – Abdulla. U ota-onasining yakka-yu yolg‘iz farzandi, umidi. U maktabda a’lo baholarga o‘qib, oltin medal bilan tamomladi. U doimo yaxshi kasb egasi bo‘lishni, yuqori cho‘qqilarni zabt etishni xohlar edi. Qahramonning bu orzulari kitobxonlarda unga nisbatan illiqlik uyg‘otishi tabiiy xoldir.

Abdulla qishloqqa borganida ilk marotaba sevib qoladi. Balki uning bu tuyg‘usini sevgi deyish kerak emasdir. Lekin u bu tuyg‘uni birinchi marotaba his qilgan edi. U qishloqning aqlli, sodda, yaxshi-yomonni farqiga bormaydigan, xayolida faqat qishlog‘ini obodonlashtirishni, uni qayta qurishni orzu qilgan Gulchehrani sevib qoladi.

Abdulla va Gulchehraning sevgisi qishloqda boshlanadi. Ularning sevgisi asarning boshida shu qadar chiroyli tasvirlangan ediki, bu sevgidan roman oxirigacha asar ham qolmadi. Nega o‘sha samimiy sevgi chiroyli baxt bilan tugamadi yoki chiroyli nikoh bilan? Bu savollar har bir kitobxoni qiziqtiradi. Haqiqatan ham bu sevgi chiroyli baxt bilan tugashi mumkin edi, qachonki Abdulla va Gulchehra og‘ir gunoh qilishmaganida. Qachonki Abdulla o‘z sevgisiga xiyonat qilmaganida baxt bilan tugashi mumkin edi.

Abdulla qachon bu qadar xudbin bo‘lishga ulgurdi. Axir uning ota-onasi G‘ofurjon aka va Shahodat opada odamiylik tuyg‘usi barq urib turar edi-ku, shunday insonlarning farzandi bu qadar xudbin bo‘lishi mumkin emas. Axir u avvallari mehribon, oqko‘ngil, shafqatli inson emasmidiki, tog‘asi Obid o‘zining

maftunkor ovozi bilan jalb qilgan bedananing joniga qasd qilayotganida qarshilik qilishga urungan edi. Nega u bunchalik bag‘ritosh bolishga ulgurdi. Balki manfaatdir, balki professor Tursun akaning Leningradga olib ketish istagidir. Balki unga nafs ko‘rinishidagi Sayyora sabablidir. Biz bu yerda Sayyorani ham ayblashimiz to‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Axir Sayyoraning bu voqealardan hech qanday xabari yo‘q edi-ku. Uning ustiga Abdulla Sayyorani ham sevgani yo‘q. Uni o‘z manfaatlari uchun , o‘z kelajagini ta’minlash uchun uylanmoqchi bo‘ldi. O‘sha manfaatli sevgisini bir qizning samimiy muhabbatidan ustun qo‘ydi. Oyoqlari bilan ilk muhabbatini yanchib tashladi. U olim bo‘lish orqasidan yugurib, odam bo‘lish kerakligini unutib qo‘ygan bir xudbindir.

Aybni kimdan izlashimiz kerak? Balki Gulchehrada ham ayb o‘tgandir. Uning aybi soddaligidir, balki Abdullaga haddan ortiq ishonganidir. Axir mashhur yunon faylasufi Geraklit ham *“Asossiz tuyg‘ularga ishonish - qo‘pol qalblarning mulkidir”* deb aytadi.

Gulchehra shunchalik zaif edimiki, ota-onasi, qavm-u qarindoshlarining yuziga oyoq qo‘ysa yoki hali tuprog‘i sovib ulgurmagan onasining xotirasiga nisbatan bu ishni qilishi hech bir kitobxonning xayoliga kelmaydi.

Asarni o‘qish davomida asarda qatnashgan joy nomlari e’tiborni tortadi. Yozuvchi Abdulla va Gulchehraning sevgisini nima sababdan Mingbuloqda voqealantirdi? Bizningcha, asarda juda ham ko‘p majoziy ma’no bor. Mingbuloqda tug‘ilgan bu sevgi Gulchehraning ko‘p qavatli mehmonxonadan tushib ketishi bilan ming bo‘laklarga bo‘lingan edi. Shu birgina joy ularning sevgisi qanday yakun topishini o‘z bag‘rida saqlamagan ekanmi? “Yoshlik” mehmonxonasi-chi? Axir Gulchehra shu mehmonxonaning proyektini o‘zi loyihalashtirayotgan edi-ku! Nega aynan o‘sha yerda ayanchli yakun topdi? Agar ular o‘zlarining sevgisini sof saqlaganida, balki, bu voqealar bo‘lmagan bo‘larmidi. Balki, Alloh ularni shu tarzda jazolagandir.

Kitobxonlar tomonidan asarga juda ham chiroyli satrlar bitilgan ekan ulardan biri: *“Qishloqning tabiatiga limmo lim hayotida samimiy muhabbat bilan*

boshlangan tuyg‘ular mansab, orzu-havas sabab, imoratning beshinchi qavatidan betonga yuzi bilan tushib tamom bo‘ldi.”.

Asarning bugungi kundagi ahamiyati juda katta, chunki asar o‘zining hayot bilan hamnafasligi bilan kitobxonlar diqqatini torta oladi. Asar o‘zining faqat o‘sha davrga tegishli emas, balki hamma davrda birdek xizmat qilishi ham e’tiborga loyiq. Jamiyatimizda ham Abdulla singari yoshlarimiz kam emas. U singari yoshlarimiz ular faqat o‘zlarining sha’niga, balki jamiyatimiz sha’niga ham, odamiylik tushunchasiga ham dog‘ tushirmoqda. Yoshlarimiz hayotida bunday voqealar yuz berishiga, balki oilasi, ota-onasi aybdordir. Agar farzandlariga muruvvatpeshalik, odamiylik, mehribonlik kabi tuyg‘ularni o‘rganganida bunday voqealar sodir bo‘lmasligi mumkin edi. Zero, *“Tarbiya oiladan boshlanadi”* deydi bobolarimiz. Asar so‘ngida shunga amin bo‘lamizki, odam bo‘lish rostan ham juda qiyin ekan. Buni birgina Abdulla obrazi orqali tushunib yetadi kishi. Kattalarda bir gap bo‘lar edi: “*Hamma ham odam bo‘lib tug‘iladi. Eng muhimi o‘sha nomga munosib bo‘lishdadir.”*

Asarning boshida berilgan rivoyat ham juda to‘g‘ri tanlangan. Rivoyatda bir Muslim podshohning o‘g‘li bo‘ladi va o‘g‘li otasi qancha ogohlantirmasin fir’avn bo‘ladi. Keyin o‘z otasini o‘ldiradi. Lekin bashoratga ko‘ra, keyingi umrini ma’nosiz o‘tkazadi. Bu asar biz yoshlarga saboq bo‘ladi desak, adashmagan bo‘lamiz.

Asar shu qadar mahorat bilan yozilganki, syujet keng, voqealar rivoji ziddiyatli. Har bir qahramonga nisbatan o‘zgacha bir hislar uyg‘onadi. Qahramonlar bilan yashagandek bo‘ladi. Asarni o ‘qigan har bir kitobxon shunday his-tuyg‘ularni his qilganiga aminmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarbekov, O‘. (2016). *Odam bo‘lish qiyin*. Toshkent: Yangi asr avlodi.

2. Quronov, D. (2020). *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Toshkent: “Innovatsion-ziyo”

3. https://minikar.ru/ishonch

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Odam_bo%CA%BBlish_qiyin

ULUG‘BEK HAMDAM HIKOYALARIDA AYOL OBRAZI

Olimjonova Sarvinoz Mahmudjon qizi,
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdamning hikoyalaridagi insonparvarlik, inson hayotidagi kechinmalar va sinovlar asar qahramonlari misolida talqin qilinadi. Bu maqola orqali o‘quvchilar o‘zlariga o‘zbek oilasi hayoti kechinmalari haqida ma’naviy ozuqa olishi mumkin. Muallif asar orqali o‘zbek ayollarini turmush-tarzini va ularning umrguzaronligini yoritib beradi. Shuningdek, muallif hikoyalarida o‘zbek xalqining turli xil aholi qatlamida hayot mashaqqatlari, uning past-balandliklariga bardosh bera olishi, davrning injiqliklari va millatning mazkur umr sinovlarini yengib o‘tishda yor (ayol) obrazi va o‘zbek ayollarini taqdir sinovlarini yengib o‘tishdagi matonatlari haqida yozilgan. Shuningdek, maqolada ayollarning turlicha ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan qaralganda barchasi bir maqsad yo‘lida, ya’ni oila farovonligi muvozanatini saqlashga umrlarini sarflashi to‘g‘risidagi hikoyalar talqini bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar*: Ayol, oila, shahar, opa, o‘qituvchi, bola, qarindosh.*

Abstract. *In this article, humanity in Ulugbek Hamdam's stories, experiences and trials in human life are interpreted on the example of the heroes of the work. Through this article, readers can get spiritual food about the life experiences of an Uzbek family. Through the work, the author sheds light on the lifestyle of Uzbek women and their livelihood. Also, in the author's stories, the hardships of life of the Uzbek people in different strata of the population, their ability to withstand its ups and downs, the vagaries of the time and the image of a yor (woman) in overcoming these life tests of the nation, and Uzbek women in overcoming the tests of fate written about their tenacity. Also, the article describes the interpretation of stories about how women from different social backgrounds spend their lives working towards the same goal, that is, maintaining the balance of family well-being.*

Kalit so‘zlar*: Woman, family, city, sister, teacher, child, relative.*

Yozuvchilar o‘z ijod namunalarini odatda hikoyalardan boshlashadi. Hikoya yozuvchiga ko‘nikma, malaka oshirish, ijodkor sifatida shakllanish va uslubga tushib olish uchun qulaydir.

Hikoya badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asardir. *“Hikoya mazmuni ertakdagiga qaraganda bir necha bor hayotiydir*”.

Hozirgi kunda jadal qalam tebratayotgan yozuvchilarimizdan biri Ulug‘bek Hamdam hikoyalaridagi ayollar obrazlariga e’tibor berib o‘tmoqchimiz.

Rus olimi E.Sharl ayollar obrazlarini quyidagicha tasnif qilishni taklif qiladi, “*malikalar, jodugarlar, farishtalar, mehribon ona va o‘gay ona*”.

Adabiyotning umuminsoniy xususiyatlarini inobatga oladigan bo‘lsak, biz bu tasnifni o‘zbek adabiyotiga ko‘ra ham tatbiq etib har bir xalq adabiyotida yaratilgan obrazda albatta o‘sha xalq qadryatlari va uning milliy harakteri aks etishini nazardan qochirmay opa, singil, suyukli yor, qo‘shni farzand va boshqalarni qo‘shimcha qilsak bo‘ladi. Mana shunday tuyg‘ular jamlangan U.Hamdam hikoyalaridan “Opa-singillar” va “Kelin” hikoyalariga to‘xtalsak.

Dunyoda eng shirin tuyg‘u bor, eng yaqin insonning bor u jigaring opa-singling, aka-ukangdir. Xalq og‘zaki ijodida shunday rivoyat bor. Bir kuni bir qishloqda o‘g‘rilik sodir bo‘ladi, biroq o‘g‘rilar o‘quvsizligi sabab qo‘lga tushib qolishadi va ularni hibsga olishadi. O‘g‘rilarni uyingdagi yaqiningdan biri kelsin deyishadi. Qarangki uchovi o‘g‘rini oldiga bir ayol keladi. U ayol birisiga rafiqa, birisiga ona va yana biriga opa edi. Buni ko‘rgan mahkama egasi uchovi o‘g‘ridan birini tanlashga va o‘sha tanlaganini ozod qilishga so‘z beradi. Ayol esa, o‘ylab o‘tirmasdan ukasini tanlaydi. Nega farzanding emas uni qanchalik qiynalib dunyoga keltirgansan, katta qilgansan deyishsa ayol vaqti kelib yana turmushga chiqib erli va Alloh nasib qilsa farzandli bo‘lishim mumkin, lekin ota-onam vafot etib ketishgan men ukamni topa olmayman, ulardan yodgorimni tashlay olmayman deb javob bergan ekan.

Bu rivoyatdan ham xulosa qilsak bo‘ladi. Jigarchilik opa-uka, aka-singilchilik qanchalik muqaddas tuyg‘uligini. Hozirgi zamonda boylikka ruju qo‘yib aka-

ukalar, opa-singillar orasiga nizo tushmoqda. Kelib-ketar dunyoda yaxshi nom qoldirish uchun emas, yaxshi boylik qoldirish uchun harakat qilmoqda. Bu inson zoti opa-singillar, aka-ukalar orasidagi mehr yo‘qolmoqda. Mana shunday tuyg‘ular haliham borligi va shunday mehrli singillar oramizda borligini Ulug‘bek Hamdamning “Opa-singillar” hikoyasida ko‘rishimiz mumkin.

Ulug‘bek Hamdamning “Opa-singillar” hikoyasida qahramonlar, jigargo‘shalar hayoti shunday tasvirlanganki kichik hajmdagi asarda juda ko‘plab ma’no-mazmun yuklangan. Asar qahramonlari Tursunoy va Turg‘unoyning hayoti Tursunoyning xastaligidan boshlanadi: “– *Voy xudoyim-ey, ko‘zimga ham bolalarimni ko‘rsatasan, qulog‘imga sovuq tovushlarni eshittirasan qiynaysan! Uch yil bo‘ldi to‘shakka tushganimga uch yil-a, omonatingni ol endi “olaqol bu achchiq jonni!” deydi ko‘zlarini alam bilan yumib Tursunoy”.*

Bu hikoyada jigarlar o‘rtasidagi mehr, oqibat, samimiyat masalalarini berilgani eng qiyin damlarda ham opa-singillarni bir-biriga yondosh bo‘lib, hayotiy muammolarni hayot zarbalarini mashaqqatlarini yengishda dalda bo‘lgani kabi yonida turgan kelinlari nabiralari el bo‘lmagan taqdirda ham jigarlari bir-birini joniga oro bo‘lgani, diydor g‘animat deya xabarlashgani, kasaldan forig‘ bo‘lishda umid ulashgani ta’sirli mativlarda berilgan.

Har bir bandaga dard berarkan uning yaqinlariga ham sinov beradi. Tursunoyning ikki kelini va nabiralari bo‘lsa ham u bir og‘iz shirin so‘zga zor bo‘lib yotadi. Eshik ochilishini intizor bo‘lib kutadi.

Qarangki, muallif ushbu joyda juda chiroyli o‘xshatish qiladi.

– *Yaproqlar shitiri uni o‘limga sudrasa, eski eshikning g‘iyqillashi ayolni azroilning qo‘lidan qutqarib qoladi. Ular – o‘lim bilan hayot go‘yo musobaqa o‘ynashadi”.*

Hayot va o‘lim orasida Tursunoy qiynalib kun o‘tkazadi. Uning birgina najotkori bor u kelsa hamma narsani unitadi, dardlarini to‘kib sochib yengillaydi, u eshikni ochganda hayot kirib keladi. Tursunoy uchun hayotning shirinligi singlisi Turg‘unoyning borligi edi. Turg‘unoy opasini oldida biroz o‘tiradi u ham oilasini

oldiga borishi kerak lekin shunga qaramay har kuni opasini ko‘rgani keladi. Albatta, quruq qo‘l bilan kelmaydi.

Muallif bu hikoyada yana bir narsaga kitobxon e’tibor qaratishni hohlaydi. Turg‘unoyni dardlari opasinikidan kam emas u raqsga tushayotib yuzi kulsa ham 44-sondardi ichidaligidan yig‘laydi, tashiga chiqara olmaydi. Opasiga aytolmaydi o‘g‘lini o‘qishga kira olmay Rossiyaga ketib qolishidan qo‘rqayotganini kichik qizini qo‘lida bolasi bilan eri haydab yuborganini aytolmaydi, dardlasholmaydi. Opasiga suyanch bo‘lishi kerak axir.

Hikoyada yana bir takror jumlalar bor bu jumlalar hozirgi zamon erkaklariga qarab aytilgan jumlalar go‘yo.

“– Bir uyning, bir ayolning haqiqiy eri bo‘lish o‘tkan zamonlarda qonli jang maydonlarida sher bo‘lishdan ham og‘ir bo‘lib qoldimi? Qani erkaklar, qayerga ketishdi erlar? Soyalari yurgandek erkaklarning...”

Chindan ham qayoqqa qarab ketyapti ular. Nega erkakmi – erkakligini qilmayapti. Ayol bu – ojiza nega ularga o‘z yuklarini ham ortyapti? Bu savollarni ham berib o‘ylashga majbur qilgan adibimiz.

Hikoyani o‘qib ketar ekansiz ohiriga borib “karaxt” bo‘lasiz. Tursunoychi u emasmidi kasal, u o‘limni kutayotgandiku degan o‘ylar bilan asarni tugatishga, natijaga shoshiladi. Ha muallif ajoyib bir tarzda ayollar obrazini tasvirlash chog‘ida ularni matonatini, mehribonligini tasvirlab o‘tgan. Jism dardidan, ichki qalb dardi kuchliligini ko‘rsatib bergan.

Ulug‘bek Hamdamning bir jihati borki u, asarlariga ism tanlashda juda mohironalikdan foydalanadi. Masalan, “Opa-singillar” hikoyasini olsak. Nega opa Turg‘unoy ismli, singil Tursunoy ismli bo‘lmadi? Chunki, asarimizni Tursunoy emas Turg‘unoy tark etadi. Tursunoy Turg‘unoyni farzandlari uchun turadi u yashaydi.

Ismlar lug‘atida ham ko‘radigan bo‘lsak, Tursunoy – sog‘ bo‘lsin, umri uzoq bo‘lsin degan ma’nolarda keladi.

Ijodkor bu asarda qarindosh-urug‘chilik g‘oyasini ham juda yaxshi yoritib ketgan. Atrofga qaraydigan bo‘lsak, pul uchun aka-ukani, opa-singilni amaki

jiyanni tanimay yoki mensimay ketmoqda. Qarindoshlik, jigargo‘shalik keyingi o‘ringa surilmoqda. Badiiy asarda opa-singillar obrazidan foydalanish asar badiiyatini oshirishga, qon-qarindoshlik aloqalarini bor qirralari bilan ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Ulug‘bek Hamdamning hikoyalari orasida yaqin kunlarda e’lon qilingan “Kelin” hikoyasida ham yuqoridagi hikoyamizdagi ba’zi bir o‘rinlarni uchratishimiz mumkin. Asar Muslima ismli qizning nutqidan hikoya qilinadi. Uni xolasi qizini to‘yiga borishidan, asarimiz boshlanadi.

Muallif bu asarida hozirda “moda” bo‘lgan xijobli ayollar haqida yozadi. Ba’zi qo‘shtirnoq ichidagi ayollar ro‘molni “niqob” qilib olganliklarini tasvirlagan.

Ijodkor bu hikoyasida ham ismlarni o‘rnida tanlagan. Masalan, asar bosh qahramoni Muslima, hikoyani o‘qishni boshlaganizda unga e’tibor bermasligingiz mumkin, lekin asarni o‘qish davomida aslida kim Muslima ekanligiga guvoh bo‘lasiz.

Asar Muslimani xolasini qizini to‘y jarayoni asosida yozilgan. Qarangki, hamma hijobda, toy ham “oq to‘y” erkaklarsiz ayollarni o‘zi. To‘yxonadagi to‘yda hammasi ayollar deb bemalol raqsga tushib yurgan qarindoshlariga qarab muslimani hayrati oshganini ko‘rishimiz mumkin. To‘yxonadagi “ofitsantlar”chi, “video”chi, “rasm”chilarchi ular erkak kishiku degan narsa qarindoshlari hayoliga kelgani yo‘q. “Xit” qo‘shiqlarga hohlagan turiga solib o‘ynashmoqda.

Avvallari to‘ylar uylarda, ko‘chalarda bo‘lgan. To‘yga kelganlarning e’tibori kelin-kuyovga qaratilgan. Shu yerda hikoyaning nomiga e’tibor bersak.

“Kelin! Ajabo. Hatto u ham bu yerda hamma qatori “selfi” qilib suratga tushar, qaddi-qomatiga yarashib turgan libosini hali u, hali bu tomonini tuzatgan, yanayam chiroyliroq qilgan bo‘lar tag‘in “chiq-chiq”, telefon tugmasini bosar edi.

Endi oldingilar bilan hozirgilarni solishtiravermanglar degichlar, o‘ylab ko‘ringlar. Bu kelinni qiliqlari to‘g‘rimi. O‘zbekchilikda kelin iboli deb ta’riflanadi buni esdan chiqarib qo‘ymoqdamiz axir. Yangi zamon, yangi qarashlar deb o‘z qadriyatlarimizdan voz kechayotganimizni o‘zimiz bilmay qolyapmizku.

Muallif bu ayni zamondagi hayotiy hikoyasida yana bir qismga e'tibor berib ketadi.

"Turkcha qo'shiq desa, arabcha raqs desa, tomdan tashlaysanlar o'zingniki yo'qmi o'zingniki?... o'rangan o'roving ham o'zbekona emas, arabcha. Arabcha ro'mol o'rab muslimalikni da'vo qilasan... Mana shu hollaring bilan asl muslimalar, haqiqiy soliha ayol-u qizlarning pokiza nomlariga ham dog' bo'lib tushasanlar! E, nimasini aytay tug'ilayotgan o'g'il-qizlaringa qo'yayotgan otlaring ham arabcha... Nega mening millatim faqat taqlit qiladi, faqat ergashadi? Yunon bosib olganda yunonlashding, arab istilosida arablashding, o'risning zamonida esa ivanlashding, natashalashding endi, mana, yana arabga yuz buryapsan. Chindan ham qachon xalq bo'lasan, o'zbek turkiy bo'lasan sen, a, qachon?.."

Muslima tilidan aytilgan bunday "shirin" gaplarni muallif yozishga qanchalik qiynalganini bilsak bo'ladi. Yurt qayg'usi uni yelkalarini bosayotganini ko'rishimiz mumkin.

Hikoyani o'qib turib, hayolingizga ham biz qachon shu darajaga yetdik" degan savol keladi. Bir qarashda hammasi risoladagidek. Ammo yaxshilab e'tibor bersak insonlarning dunyosi mo'rtlashayotganligini guvohi bo'lamiz. Aslida har birimiz o'z ustimizda ishlashimiz, o'zimizga o'zimiz savol berishimiz kerak.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, yozuvchi U.Hamdam ijodida yangi, dolzarb muammolarni ko'tarib chiqilishi va chuqur falsafiy mushohada aosida talqin etilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. U.Hamdamning har bir hikoyasida kitobxonni qiziqtirishi, ta'sirlanishi mumkin bo'lgan jihatlarga ko'p duch kelamiz. Yozuvchining har bir hikoyasidan ma'naviy ozuqa olamiz.

Ulug'bek Hamdam voqealar tafsilotiga emas, psixologik tahlil, milliy harakterlarga asoslangan hikoyalarida rang-barang taqdirlarni, maroqli va qiziqarli qilib tanishtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulug'bek Hamdam. (2021). Kelin. Toshkent.
2. Ulug'bek Hamdam. (2022). 4-son. Opa-singillar. Toshkent. Saodat.

3. Sulton, I. (2005). Adabiyot nazariyasi. Toshkent. 286 bet.
4. Шарл Э. (1998). Феминисткое литературоведение на пороге XXI века. Москва. 420 стр.

XAYRIDDIN SULTONNING "KO'NGIL OZODADUR" QISSASIDA YOSHLAR PSIXOLOGIYASI

Rahmonberdiyeva Nurjahon Humoyun qizi,
ToshDO'TAU "Adabiyotshunoslik" mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
rahmonberdiyevanurjahon@gmail.com

Annotatsiya. *Xayriddin Sultonning "Ko'ngil ozodadur" qissasida syujet qurilishi va noana'anaviy yechim haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari, qissaning badiiyati tahlil qilingan. Qissa qahramonlari G'ulom va Qunduzning psixologiyasi, u duch kelgan muammoning umumbashariy muammo ekanligi ochib berilgan. Qissada yoshlar hayotining yoritilishiga alohida ahamiyat qaratilgan.*

Kalit so'zlar*: syujet, qissa, uslub, san'at, xarakter, maqol.*

Abstract. *In the article, the autor manages to elevate the description of Hayriddin Sultan's novel "Kungil ozodadur", talks about the construction of a plot and an unconventional solution. In addition, the art of the story is analyzed. The psychology of the story's protagonists, G'ulam and Kunduz, reveals that the problem they face is a universal problem.*

Keywords: *a plot, a novel, art, character.*

Mustaqillik davri qahramonlari ilgarigi qahramonlarga o'xshamasligi barchamizga kundek ma'lum. Hozirgi zamonda Farhod va Shirindek, Layli va Majnundek yoki Alpomishdek kimsalarni tasavvur qilish qiyin. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, zamonlar aro tavofut mustaqillik davri adabiyotining asosiy mavzularidan biridir. Hayotda yuz berayotgan o'zgarishlarning odamlar tafakkurida silliq kechmasligi sababli konfliktlar yuzaga kelishi tabiiy hol. Tarix va adabiyot bir-biridan suv ichadigan, qo'shilsa katta bir daryoga aylanadigan buloqqa o'xshaydi. Zotan, adabiyot hayotiy, ijodiy material sifatida tarixga murojaat etkani holda, uni asos qilib oladi, unga mas'uliyat bilan yondoshadi, undan to'g'ri foydalanishga majburiyat sezadi. Tarixiy qissaning zamonaviy

qissadan farqi shuki, yozuvchi tarixiy voqeaga muayyan darajada qaram bo‘ladi. Chunki, bu voqea yozuvchi yozayotgan qissadan tashqari holatda ham mavjud. Bu voqeani yozuvchi to‘qib chiqarmagan. Unga yangi tafsilotlar, yangicha bir xulosaviy yo‘nalish qo‘sha oladi, xolos. Zamonaviy qissada esa ijodkor erkin fikrlashi, o‘z badiiy niyatlariga muvofiq hodisani tanlab tasvirlashi mumkin. Bunda yozuvchi tasvirgagina emas, badiiy to‘qimaga ham alohida ahamiyat qaratadi.

Xayriddin Sultonning “Ko‘ngil ozodadur” qissasi zamonaviy qissa shaklida yozilgan bo‘lsa-da, tarixiy asarga Gulxaniyning “Zarbulmasal”iga murojaat etadi. Inson ruhiyatining zamon va makon aro chegarasiz harakatlana olishi, uning o‘zlikka tomon yo‘li qay manzildan o‘tmasin ravon ekani mazkur qissa orqali o‘z isbotini topgan. Badiiy psixologizmning o‘sish - kamolotga erishishdagi individual yo‘lini qahramon hayotining burilish pallalari asnosida yuzaga chiqishi qissaning yana bir e’tiborli jihatidir. Adabiyotda inson ichki dunyosining chuqur badiiy tadqiqi “Badiiy psixologizm” deb atalishi adabiyotshunoslik darsliklaridan ma’lum. XX asrning 80-yillarida o‘zbek adiblarining ijodiy izlanishlarida real hayotiy ziddiyatlarni, ijodiy niyatni konfliktning botiniy ko‘rinishi qalb dramatizmi vositasida ifodalash ko‘zga tashlana boshladi. Qissa markaziga qo‘yilayotgan ziddiyatlar odam va insoniyat tabiatidagi, haq va haqiqat zamiridagi, tarix va davr qatidagi qarama-qarshilik ifodasi o‘laroq yuzaga chiqayapti. Azaldan to abadiyatga qadar muhim sanaladigan umuminsoniy g‘oyalar, qalb va iymon butunligini belgilovchi omillar shu kabi qissalar konflikti uchun asos vazifasini o‘tayapti. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asariga oshufta, Gulxaniy bilan xayolan oshno-yu hamxona qissa qahramoni G‘ulom o‘ttiz yoshlardagi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning o‘nqir-cho‘nqirlarida qoqinib-surinib, ammo ravon yo‘lga umid bilan odimlayotgan yoshlardan. Uning qo‘ldan qo‘ymay suyadigan “Zarbulmasal” kitobi bor. Qissada psixologik detal vazifasini o‘tovchi mazkur kitobcha qahramon uchun juda qadrli. Bu kitobning qadrsizlanishi uning chegaradan chiqishiga sabab bo‘la oladi. Psixologik detal ijodiy niyatni ochish yo‘lidagi muallif urinishlarini nozik badiiylashtiradi, asardagi qahramon tasvirida ichki bir zaruratdek zuhur bo‘ladi, kitobxonda xolisona tarafdorlik hissini uyg‘otadi. Eng muhimi, badiiy asarda

qahramon ruhiy olamining rang-barang, ayni paytda, kitobxon anglashi zarur bo‘lgan asosiy, yetakchi qirralarini ochadi. Zero, kitob uning ilmiy ishi yoki hamxonasi Gulxaniyning merosi bo‘lganligi uchungina emas, balki yuragida mangu armon bo‘lib qolgan “oppoq ko‘ylakli” Qunduzdan estalik bo‘lgani uchun ham unga qalban qadrlidir.

Qissada qahramonning ichki nutqlari asosan ikki shaklda yuzaga chiqadi: muallif hikoyasidagi ya’ni aytib berayotgan, monolog ya’ni qahramonning fikrlari, hissiyotlarini ifodalash bilan birga qissa kompozisiyasida ham alohida ro‘l o‘ynaydi va qahramon shuurida kechayotgan monolog ruhiy jarayonning o‘zini, o‘z ruhiy holatini tahlil qilishni aks ettiradi. Xayriddin Sultonning badiiy kashfiyotlari ichki monologlarni dialogik suhbat darajasida maromiga yetkaza olganliklarida ko‘rinadi: o‘zlarini ortayotgan savollarga javob izlayotgan G‘ulom, Adash Karvonlar xayolan tasavvurlaridagi muxoliflariga yoki o‘z-o‘zlariga murojaat qiladilar. Ayni paytda, ichki monologlar xarakter tabiatiga va asarda harakatlanayotgan har bir shaxs ma’naviy dunyosi fazilatlariga muvofiq individuallashtirilgan. Qissada tabiat tasviri dramalashtirilgan, ichki dinamikaga ega, mikrokompozisiyalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayni paytda, yozuvchilar tabiat manzaralarini chizishda sxematizmdan voz kechishgan. Har qaysi tasvir o‘z-o‘zicha noyob, alohida. Muhimi alohida ma’no-mazmunli nagruzkani (yukni) o‘zida tashiydi. Bundan tashqari, peyzaj elementlari personajlar uchun tayanch obrazlar vazifasini ham bajarib keladi-ki, bu ularning ruhiy dunyosini badiiy shaklda aks ettirish imkonini beradi.

Peyzaj asarda muallif g‘oyalarining tayanch nuqtasi yoki markazi sifatida, uning dunyo va inson shaxsiga nisbatan falsafiy qarashlarini o‘zida jamlagan holda yanada mushkulroq, ramziy, ko‘p ma’noli funksiyalarni bajarib keladi. Xayriddin Sultonning “Ko‘ngil ozodadur” qissasida tabiat tasviri muallif falsafiy mushohadalarining pinhoniy qatlamlariga singib ketadi. Tabiat go‘zalliklari ba’zida estetik kategoriyalarga (chiroylilik, ko‘rkamlik, badbasharalik, beo‘xshovlik) qarshi qo‘yilsa, ba’zida relyativistik (nisbiy) kategoriyalarga

(zamon, makon, abadiyat, avlod, aql-idrok, hayot, olim, boqiylik) bilan payvand holda ifoda etiladi.

Umuman olganda, qissada milliy mentalitet va milliy ruhiyatni tasvirlash yetakchilik qiladi. Tasvir jarayonida oddiy bayonchilik, xarakterga xos xususiyat va qirralarni navbat bilan sanab o‘tilganligi emas, qahramonlar xatti-harakatini psixologik jihatdan asoslash, alohida shaxs hayotini turli rakurslardan turib ko‘p qirrali tasvirlash, zamon va jamiyat bilan aloqasi chuqurroq tahlil qilinganligi e’tiborimizni tortadi. Xarakterning rivojlanish tutumi, hayot qarama-qarshiliklariga nisbatan qiyofasi yaqqol aks ettirilgan. Asosiy ko‘zgu G‘ulomga, uning ko‘ngil ozodaligiga qaratilgan.

Qissa zamonaviy voqe’likni, insonning obyektiv borliq, jamiyat, odamlar bilan har tomonlama munosabatini tadqiq qilish, shaxs ichki potensialini, uning ma’naviy mazmunini va ruhiy holatini ochishdek murakkab vazifani bajara oldi.

Qissa janrida “qissanavis” obrazi bo‘lib, uning voqealar rivoji hamda muammoni tasvirlashdagi o‘rni beqiyos. Qissanavis obrazini qissadagi boshqa obrazlardan ajratib bo‘lmaydi, chunki u bu voqeaning yo guvohi, yoki bevosita ishtirokchisi bo‘lishi tayin. Qissada qancha obraz qatnashsa, ijodkor ularning barchasiga turlicha sayqal beradi. Qissanavis esa bu obrazlarni birlashtirib turuvchi asosiy obraz vazifasini bajaradi. Qissanavis bu obrazlarning hatti-harakatlariga baho berishi, ularning ruhiy holatlaridan xabardor bo‘lishi, xulosa chiqarishi mumkin. Eng ahamiyatlisi shundaki, qissanavis yozuvchining g‘oya tashuvchisi hamdir. Asarning g‘oyasi uning eng muhim elementidir. Shu jihatdan qaralsa, yozuvchining kechinmalari qissanavis vositasida asarga kirib boradi. Ruhiy holatni yetkazib berishda qissanavisga tayanilgani holda, bu qahramonlarning “men”i bilan kurashishining mazmunini ochib beradi. Qissanavis obrazi ijobiy va salbiy qahramonlar fonida shundoq sezilib turadiki, bu o‘quvchining xulosa chiqarishiga katta yordam beradi. Ya’ni, ijobiy qahramonlarning fazilatlarini ko‘rsatish, salbiy qahramonlarni fosh etish uning funksiyalaridan biridir. Xulosa qilib aytganda, qissanavis asardagi badiiy haqiqatni o‘quvchiga yetkazib berishi kerak.

Xayriddin Sultonov qissalarida ham yozuvchi dunyoqarashi mahsulida qissanavis obrazining ahamiyatli qirralarini kashf etamiz. Yozuvchi o‘z qissalarida hayotdan olgan taassurotlari va saboqlarini qayta idrok etib, obrazli tafakkur chig‘irig‘idan o‘tkazadi.

“Yarim tunga qadar ravonda o‘ltirardim, o‘pkam tutun hidiga to‘lardi, dimog‘im achishib “Zarbulmasal” o‘qirdim va qor tushguncha oyog‘imga etik sotib olishimga-yu, qonimga tashna qilgan dissertatsiyani yozib tugatishimga negadir qattiq ishonar edim. Garchi bundoq xomxayollar bilan shu ravonda o‘zimni aldab necha kuz-u necha bahorni besamar o‘tkazib yuborgan bo‘lsam-da, baribir bu safar ishonchim komildek tuyulardi. Deydilarki, ilon-chayonlarni o‘rganayotgan odam, oxir-oqibat shu gazandalarga ham mehr qo‘yib qolar ekan. Shundanmikan yoki yosh umrimni bag‘ishlab o‘ltirganim uchunmi, qay bir zamonlarda yashab o‘tgan Muhammad Sharif Gulxaniy degan rindnafas bir odam ham endi menga otamdek aziz bo‘lib qolgan, uzun, sovuq kechalarda uch xonali bo‘m-bo‘sh ijara uyda yolg‘izlik nimadir - bilmas edim”

Bu parchada qissanavis pokiza tuyg‘ular bilan yashayotgan navqiron ko‘ngilning kechinmalarini, o‘ylarini shu qadar mehr bilan beradiki, kitobxon beixtiyor adabiy qahramonning yaqin kishisiga aylanadi. Ayni bir paytning o‘zida qissa qahramonining o‘zi tadqiqot olib borayotgan “Zarbulmasal” asariga, uning muallifiga nechog‘lik mehr qo‘yib qolganini anglash mumkin. Bu yerda qissanavisning o‘ziga xos dunyoqarashi ham badiiy asar tili orqali namoyon bo‘ladi. E’tibor bilan qaralsa, qissa “Zalbulmasal” asarining tiliga taqlidan yaratilganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Shu tariqa, subyektiv talqinning yetakchiligi “qissa kompozisiyasidagi subyektivizmni” ta’min etadi.

Qissada yosh tadqiqotchining ruhiy dunyosi g‘oyat ishonarli tasvirlanadi. Xo‘sh, Gulxaniy ijodi bo‘yicha ilmiy ish qilayotgan tadqiqotchining qalbidan nimalar kechayapti. Yozuvchi bu holatni quyidagicha bayon etadi: *“Ishxonadagi butkul faoliyatimni bir og‘iz qilib “ozgina” degan so‘z bilan ifoda etib qo‘yaqolish mumkin. Lekin bu faqat meninggina faoliyatim desam, haqim ketadi. Hammamizning ham hayotimiz ishxonadagi shu “ozgina” degan so‘zda mujassam.*

Har qalay, men o‘zim ko‘rgan idoralarni aytayapman, boshqalariga kafolat berolmayman. Xullas, ishdagi kun tartibi taxminan shunday: ozgina salom-alik, ozgina gazetxonlik, ozgina kashandalik, ozgina g‘iybat, ozgina hasad, ozgina xushomad, ozgina haqiqat, ozgina ovqat, ozgina sayr, ozgina shaxmat. Shu. Kun kech bo‘ladi. Darvoqe, bu orada ozgina ish ham qilib qo‘yiladi - boshliq so‘kmasligi va vijdon qiynalmasligi uchun”.

Bu tasvirda kechagi kun odamlarining qiyofasi o‘z aksini topgan. Mana shu “ozgina” lik fikri bilan yashayotganlar dunyoga, hayotga befarq odamlardir. Yozuvchi mahorati yana shunda ko‘rinadiki, u Gulxaniy yashagan davrni oz zamonasi bilan chog‘ishtirib, ulardan ibrat olib, xulosa chiqara bilgan.

Qissada sho‘rolar davrining zo‘ravonlik siyosati ham shu kishilar orqali ochib beriladi. Qissanavis bir-biridan olis ikki davr kishilarini uchrashtiradi. Garchi bu ishonish qiyin bo‘lgan holat bo‘lsa-da, yozuvchi buni badiiy haqiqatga aylantiradi. Yozuvchi qissa qahramoni tilidan Gulxaniyga murojaat qilib, o‘sha yillarning ijtimoiy hayotini tasvirlashga muvaffaq bo‘lgan. Yozuvchining *“... biz bilan zamondosh bolganingizda edi, holingiz...”* bundan-da battar bo‘lishini ta’kidlar ekan, o‘ttiz yoshlarida Toshkentning “Navoiy-30” deb ataluvchi binosida nashriyotda faoliyat yuritgan, yozuvchilarning turi-yu turmushi, afti-yu angorini bilgan adib o‘z davri ziddiyatlariga ishora etadi. Agar qissani davr nuqtai nazaridan baholaydigan bo‘lsak, bir yoqlamalikka yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Qissada faqat davr jarohatlari tasvirlanayotgani yo‘q. Asarda ma’naviy qashshoqlik fojealari ham ochib berilgan. Qissada Shodiyor ismli salbiy obraz bor. Shodiyor o‘ziga to‘q oiladan, otasi badavlat va mansabdor shaxs. Shodiyorlar G‘ulom ijaraga olgan uyni ichidagi hamma narsasi bilan, hatto “odami bilan” sotib oladi. Shu ondan e’tiboran adabiy qahramon ruhiyatida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi.

Ma’naviy jarohatlarga qissa qahramoni o‘quvchilik yillarida duch kelgan edi. Uning o‘sha yillardagi iztiroblari o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

Asardagi Shodiyor obrazi tamomila uning aksi. Yozuvchi Shodiyorga G‘ulom nigohi bilan qaraydi. Bir qarashda bu o‘smir nekbin qahramonimizda “kelishgan yigit” tasavvurini qoldiradi. Muallif tasvir madaniyatini shu yo‘nalishda davom

ettiradi. Bu yozuvchi qo‘llagan usullardan yana biri, ya’ni qahramonni boshqa bir qahramon nuqtayi nazari bilan baholash, idrok etish. Erkatoy, faxshga, yomon turish-turmushga, otasining harom topganini harom yurishga sarf etadigan Shodiyor ba’zi bir dorilfununlarning ba’zi bir “muallim”lari imtihon baholarini qo‘yib berishlari uchun otasiga ro‘yhat tutqazadi. O‘qishga qiziqmaydigan farzandiga uy, moshina olib berib, aldab-suldab o‘qitadigan ota va tog‘aning holi ham havas qilgulik emas. Dono xalqimiz aytganidek, “Olma tagiga olma tushar”. O‘smirning bu tarallabedod yurishiga G‘ulomning g‘ashi kelib, uni tarbiyalamoqchi bo‘ladi. Bir-ikki nasihat qilgandek bo‘ladi: *“Kasbingiz benihoya nozik, Shodiyorjon, - dedim salmoqlab, - bunaqa chala-yarim o‘qisangiz, erta bir kun qiynalib qolmasmikansiz? Har qalay, inson taqdiri degan gaplar bor”. “Ey, qiziq ekansiz, - dedi Shodiyor tamaki burqsitib, - bitirib olsam, ishning enasini ko‘rsatib qo‘yardim. Otam...” “Ota-onaga suyangan tuzuk, lekin mavlono Gulxaniydan qolgan bir gap borki, o‘z aqling bilan kengash.” “Qanaqa gulxan?” - deb so‘radi Shodiyor. “Gulxan emas, Gulxaniy. Shoir o‘tgan shunaqa”. “Ha, - dedi Shodiyor, - men “Gulxan” jurnalimi deb o‘ylabman”. “Shu kishining dono bir hikmati borki, -dedim uning hafsalasi so‘nganiga e’tibor bermay - o‘ynashga ishonib, ersiz qolma, degan... Yosh yigitsiz, hali istiqbolingiz oldinda, bir martagina beriladigan umrni harom-harish yo‘llarga sarf qilsangiz, bilmadim, oxiri qandoq bo‘larkin?” “Nima harom-harish? - dedi Shodiyor yelka qisib, - hamma qatori, ko‘pchilik nima bo‘lsa, biz ham shu. O‘zingiz aytdingiz, umr bir marta beriladi, o‘ynab-kulgan qoladi, boshqasi bir tiyin”*. Shodiyorning ko‘pchilik haqidagi gaplaridan shu ma’lum bo‘ladiki, o‘smirning atrofidagi hamma betarbiya: uning otasi, uning tog‘asi, uning o‘rtoqlari. U bundan yaxshiroq insonlarni ko‘rmagan, bilmagan, tanimagan. Yozuvchi yoshlar tarbiyasida kattalarning o‘rni nechog‘lik muhim ekanligini ushbu suhbat asnosida tushuntirib o‘tadi.

“Ko‘ngul ozodadur...” qissasidagi domla Eshmuhamedov, Rohibar, Shodiyor va Safarboylar davrning bugungi kuni bilan yashayotgan kelajakni tasavvur qilish imkoniyati cheklangan manfaatparast kimsalar toifasidandir. Eshmuhamedov “dehqon bolasi”dan kartoshka kutadi, mebel korxonasi bor tadbirkorning qizi bilan

besh yil “birga o‘qiydi”, Gulxaniyning asrlar osha mashhur va o‘quvchilarga maqbul “Zarbulmasal” asarini tatqiq qilayotgan shogirdiga “Gulxaniy davr chegarasidan o‘tolmaydi”, “Gulxaniy chegaralangan” deydi. Rohibar esa uy-joysiz ijarama-ijara sarson xodimlarini ularning eng nozik masalalarida shunchaki va’zxonlik uchun osongina alday oladi. Xodimlaridan biri bu va’da haqida eslatganida esa huddi hech qayday gap gapirilmaganu, u o‘zi to‘qib olgandek ishdan haydab yubora oladi. Shodiyor va uning otasi Safarboy haqida esa avvalroq to‘xtalgan edik. Bu personajlar uchun mansab, pul, maishat hamma narsadan ustun. Ularning maqsad va intilishlarini ana shu narsalar belgilaydi. Shu o‘rinda qissa qahramoni G‘ulom obrazi musaffo tuyg‘ulari bilan kitobxon qalbiga yaqin. Bu qissada turli toifadagi kishilarning maqsad va intilishlari o‘z ifodasini topgan.

Ijodkor G‘ulom va Qunduz orasidagi muhabbat munosabatlariga kengroq o‘rin berishi, voqealarni chuqurlashtirishi, yangi detallar va dialoglar bilan boyitishi mumkin edi. Bu faqat qissaning hajmi ortishigagina sabab bo‘ladi, xolos. Binobarin, gap faqat muhabbat, yigit va qizning o‘rtasidagi samimiy munosabatlar yoki oshiqlarning ishq odobi borasida borayotgani yo‘q. Biz birgina G‘ulomning kechmishi, sarguzashtlari orqali qahramonlar xarakteriga oid chizgilarni o‘rganamiz. Bu jarayonda inson ruhiyatiga xos tomonlar turli rakurslardan ochilgan.

Ijodkor G‘ulomning o‘z maqsadi yo‘lidagi intilishlarini tasvirlash bilan birga uning hayotga befarq emasligiga urg‘u beradi. Muallif Shodiyor tabiatiga xos nuqtalarni, hatto uning taqdirini Gulxaniy iborasidan foydalangan holda ochishga muvaffaq bo‘lgan. O‘smir haqida yomon fikrga bormagan, uni tarbiyalash lozimligi haqida o‘ylagan nekbin niyatli G‘ulom adashgan edi: “*Shu payt ko‘nglimdan kechgan xayollarni anglagandek Muhammad Sharif deraza oldida o‘ltirgan joyidan ovoz berdi: “Shul bola uch xislatdin tashqari emas: avvalo, ko‘zi bejo-uyatni unutgandir; ikkinchi, vujudidan taryok isi kelur - afyunga rag‘bati zo‘rdur; uchinchi, boshdin -oyoq zino botqog‘iga botgandur, oxir - oqibat el andin nafrat qilur”. “Taqsir, mehringizga ham, qahringizga ham taraf yo‘q, - dedim qizishganimni sezdirmaslikka tirishib,-lekin bu safar nazarimda, hiyla oshirib*

yubordingiz. Mushtdek o‘spiringa buncha malomat toshini otmaylik-da, yaxshisi, uning ham dil asroridan boxabar bo‘laylik. Ne balo, yo meni rashk qilyapsizmi?” Shunday deb boshimni ko‘tarib qarasamki, mavlono Gulxaniy allaqachon pinakka ketibdi...”

Yozuvchining qahramon xarakterini ochishda Gulxaniyga murojaat etishi tasodif emas. Chunki Gulxaniy qahramonlari ham o‘z davrining, ham hamma davrlarga xos chizgilarni bera olish qudratiga ega. Masalan, lof urish borasida Yodgor po‘stindo‘z bilan Rohibar va Muovin mutanosib keladi. Ayni paytda Gulxaniy iborasiga murojaat etish asar jarayonida ko‘zlagan mo‘ljalni bexato olish imkonini bergan. Xalq donishmandligi namunasi bo‘lmish maqol-u matallarning xalq ichidagi kishilarga tasvir vositasi sifatida ishlatilishi natijasida asar juda oson, juda maroqli, juda quvnoq o‘qiladi. Bundan tashqari, Xayriddin Sultonovning qissa va hikoyalari huddi o‘z boshidan kechirgan kabi samimiy bo‘lib ko‘rinadi. Darhaqiqat, har bir asarda muallif hayotining qaysidir vaqti, muallif tuyg‘ularining qaysidir jihati, muallifning hayot haqidagi haqiqatlari namoyon bo‘lishi ham bor gap.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sulton, I. (1980). Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Sultonov, X. (1993). Boburning tushlari. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
3. Shermurodov, T. (1990). Qissalar, alqissalar. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi 27-aprel soni.

ADABIYOTDA UCHRAYDIGAN CHUMOLI OBRAZI TALQINI

Rajapova Xulkaroy Atabek qizi,
ToshDO‘TAU OTAT 3-kurs 301-guruh talabasi
hulkaroyrajapova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyoti, nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyoti asarlarida ham keng uchraydigan chumoli obrazi haqida fikr yuritiladi. Adabiyotda chumolining vazifasi nimadan iborat ekanligi, shoir yoki yozuvchi uni qanday qahramon sifatida zuhurlantirishi, qanday syujetlar asosida tasvirlanishi*

va ushbu obrazga yuklatilgan vazifalar, u nima maqsadda asarga olib kirilishi borasida mulohazalar bayon qilinadi. Masalan, o‘zbek adabiyotida Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida, dunyoga mashhur masalchi Ezopning yozgan asarlarida, fransuz adibi Lafontenning ham asarlarida, rus adabiyoti vakili I. Krilovning “Ninachi va chumoli” nomli she’riy ertagida, Ivan Turgenevning mashhur “Otalar va bolalar” romanida chumoli tasvirini kuzatish va taqqoslash mumkin. Yuqorida ta’kidlab aytilgan asarlarni va boshqa ijod namunalarini tahlil qilish, solishtirish asosida insonning ichki dunyosini chumoli timsolida tasvirash masalasi yanada oydinlashadi.

Kalit so‘zlar: *Mehnat, chumoli, Ezop, yaxshilik, “Otalar va bolalar”, “Qisasi Rabg‘uziy”.*

Abstract. *This article discusses the image of the ant, which is common in Uzbek literature, not only in Uzbek, but also in world literature. In the literature, what is the task of an ant, how a poet or writer portrays it as a hero, based on what plots it is depicted, and the tasks assigned to this image, and for what purpose it is included in the work are discussed. For example, in Uzbek literature, Nasiridin Rabguzi's “Qisasi Rabguzi”, the works of the world-famous fable Aesop, the works of the French writer Lafontaine, the representative of Russian literature I. Krylov’s poetic tale “Dragonfly and Ant”, Ivan Turgenev In the famous novel “Fathers and Children” you can observe and compare the image of an ant. Based on the analysis and comparison of the above-mentioned works and other examples of creativity, the issue of depicting the inner world of a person in the image of an ant becomes clearer.*

Keywords: *Work, ant, Aesop, kindness, “Fathers and children”, “Qisasi Rabguzi”.*

Xalqimiz orasida *“Mehnat – mehnatning tagi rohat”, “Mehnat qilsang yetasan murodga, yalqov bo‘lsang qolasan uyatga”* degan maqollar ko‘p bora takrorlanadi. Bu maqollar, asosan, kattalar tomonidan bolalarga, kichiklarga maslahat tarzida ta’kidlab aytiladi. Hayotda ham, hattoki shu paytgacha o‘qilgan asarlarda ham insonning mehnatsevarlik xislati alohida ulug‘lanadi. Bolalarga bu

xislat kichikligidan singdirib boriladi, harakat qilishga, dangasa bo‘lmaslikka o‘rgatiladi. Bolajonlar bu xislat haqida “Ninachi va chumoli” ertagida ham o‘qishgan, mehnatkashlik tasviri bo‘lgan jonivor – chumolini olqishlashgan ham. Hayvonlarga, hasharotlarga nisbat berilganda bu jonivor ish qilib charchamaydigan mehnatsevar obrazida zuhurlanadi. Xo‘sh, o‘zi adabiyotga chumoli tasviri qanday kirib kelgan? U nimaning timsoli hisoblanadi?

Ushbu obrazni dastlab, Ezop o‘zining masallariga olib kirgan. Uning ruschadan o‘zbek tiliga Qodir Mirmuhammedov tarjima qilgan masalini olaylik. (https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/ezop-masallar-3.html). Bu masalda suv ichish maqsadida ehtiyotsizlik qilib, jilg‘aga tushib ketgan chumolining hayotini kaptar qutqarib qoladi. Birdan sayyod kaptarni ko‘rib, darrov uni ovlashga shoshiladi. Vaziyatni anglagan chumoli borib sayyodning oyog‘ini chaqdi. Buni ko‘rgach kaptar ham uchib ketdi va endi uning ham joni omon qoldi. Endi, chumoliga alohida to‘xtalsak. Chumolining birgina ishi kaptar yaxshiligiga javob qaytargan bo‘lsa, ovchining yomon niyati uchun ham uni chaqib oldi. Asosiy mohiyat, faqat bu emas, balki chumoli mayda jussali jonivor. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, uning yordami asqotdi. Demak, bu masaldan xulosa shuki, ba’zan jussasi kichik, zaif odamlarning ham katta yordami tegishi chumoli orqali ochib berilyapti. Ezop chumoli haqida boshqa masallar ham yozgan. Undan keyin fransuz adibi Lafonten ham masal janrini davom ettirdi. Va uning ijodida ham chumoli tasviri yo‘q emas.

Lafontenning masalini rus adibi I. Krilov “Ninachi va chumoli” deb nomlab, she’riy yo‘l bilan rus tiliga tarjima qildi. Bu ertak 1808-yilda nashr etilgan bo‘lsa, rejissyorlar tomonidan ikki marta suratga ham olingan. (https://nastavnik124.ru/uz/physics/basnya-strekoza-i-muravei---krylov-ivan-ivan-andreevich-udivitelnoe-shkolnoe-sochinenie-o-basne-krylo/) Shu tariqa bolajonlarning eng sevimli ertaklaridan biri yaratilgan. Bundan kimlardir mehnat qilish, dangasa bo‘lmaslik haqida o‘zlari uchun xulosa yasaydi. Lekin, ninachining yonini oladigan bolalar ham yo‘q emas.

Xuddi, Somerset Moem o‘zining “Ninachi va chumoli” nomli hikoyasida yozganidek: *“Menimcha, aqli noqislikdan emas, bolalarcha beboshligimdanmi, bunaqa axloqni qabul qila olmasdim. Axir bolalar uchun axloqiy hislar ahamiyatsiz-da.”* (https://kh-davron.uz). Chunki, bolalar dunyoni turlicha tasavvur qilishadi. Ularning dunyoqarashini, tushunchasini bir-biri bilan taqqoslab bo‘lmagay. Sababi, bular uchun hayot – xuddi kattalarnikidek oq-qora emas, balki gulogun ranglarga to‘la. Chumoli haqida suratga olingan multfilm qaysidir ma’noda bolalarni tarbiyalay oladi ham.

Eng qiziqarlisi esa, rus yozuvchisi Ivan Turgenev o‘zining mashhur “Otalar va bolalar” romaniga ham chumoli tasvirini bir kichkina epizod qilib kiritadi. Romanda ikki do‘st Bazarov va Arkadiy har tomonlama hayotni tahlil qilmoqchi bo‘lishadi. Bu yoshlarning o‘zaro gurungi o‘tloq ustida davom etayotganida Bazarovning ko‘zi chumoliga tushadi. Uning pashshani sudrab ketayotganidan Bazarov hayratlanib, shunday deydi: *“- Voy, anavi azamat chumolini ko‘r, chala o‘lik pashshani sudrab ketyapti. Sudra, birodar, sudra. Uning o‘jarlik qilishiga qarab turma…”* (Turgenev, 2015, 18-bet.) Romandagi chumoli azamat va qat’iyatli. U pashshani hali yarim o‘lik bo‘lsa-da, sudrayapti. Nima qilib bo‘lsa ham uni olib ketmoqchi! Mana uning shijoati! Yo‘qsa, u maydagina bir jonivor-ku.

Bu tasvir faqat jahon adabiyotida emas, balki, o‘zbek adabiyotida ham uchraydi. Bunga misol tariqasida bundan necha asrlar ilgari yashagan Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarini aytish o‘rinli. Unda “Sulaymonning qarinchg‘a bilan so‘zlashgani” hikoyasi keladi. Manzara ismli qarinchg‘aning podshoh Sulaymon bilan suhbati chiroyli yoritilgani bilan asar yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega:

“Qarinchg‘a aydi:

…Shuncha tilagoningizcha nima berdi?

Aydilar:

- Shamolni musaxxar qilib berdi. Muncha hashamat va saltanat lashkarimni taxt-baxtlarim bilan birga ko‘tarib yurur – dedilar.

Manzara aydi:

- *Ey Sulaymon, aning ma'nosi olam yeldek o'tar. Aning borcha ishi behudadur. Yelning vujudi bo'lmas, hamma ishlari foniydur. Ani mingancha ma'rifat markabini minganingizda erdi, ko'z yumub ochguncha Arshi a'loga borur erdingiz"* (To'xliyev va boshqalar, 2018, 105-b.) Ko'rinib turibdiki, suhbatda chumoli obrazi o'z xalqining dono va raiyat uchun g'amxo'r podshohi sifatida gavdalanadi. Ogahiy o'zining "Ustuna" radifli g'azalida qalamga olganidek *"bod ustuna taxtin qurib, sayr etgan Sulaymon"* (Ogahiyning "Ustuna" radifli g'azali 8-bayti) podshohda qarinchg'a baxillikni, foniy dunyoga intilishni ko'radi. Va ikkalasining suhbatidan bilish mumkinki: o'tkinchilikka havas etib, u tomon yurishdan, hamma kirlardan xayollarimizni, qalblarimizni tozartirishimiz lozimdur. Bu tomon ketayotganlar ko'ngil boyligi, xotirjamlik, ma'nan yuksaklikdan uzoqlashib boraveradilar. Mana shularni anglagan muallif, chumoli tilidan gapirib, insoniyatni ma'naviyat-u ma'rifatga undaydi. Ularning maqsadi – inson qalbini tarbiyalash. Chunki, *"Yurak tez-tez o'zgarib turgani uchun uni qalb deb ataganlar. Har daqiqada u nima xayolga tushadi, niyati yaxshimi, yomonmi, bilib bo'lmaydi."* (Kalila va Dimna. 2016, 238-239-bet) Muxtasar qilsak, inson botinini qayta-qayta isloh qilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lgay.

So'ngso'z o'rnida aytganda, odam dil uyini chang-u qurumlardan tozalashni kanda qilmagani ma'qul. Yuqorida aytilgan so'zlar bir misollardir. Bu chumoli ham aslida, turli xil qahramon sifatida zuhurlansa-da, insonni odamiylikka boshlashga ma'lum ma'noda xizmat qiladi. Bunday olib qaraganda, adabiyot – ko'ngil ishi demak. Inson yashab turibdimi, dilini har qanday kirlikdan muhofazalashni bilishi kerak. Ichki olamini go'zallashtirib borgan odam yuksak hissiyotli bo'ladi. Insoniyat tafakkur olamini ma'naviyat suvi bilan yashnata oladi. Aslida adabiyotning asosiy maqsadi ham o'quvchini teran va tiniq fikrlashga o'rgatish! Jamiyatdagi har bir a'zo adabiyot vakili bo'lolmasligi mumkin. Ammo, inson qaysi sohani egallamasin, botiniy tomondan unda dil pokligi shakllansin va yuksalsin. Negaki, ko'nglini tarbiyalay olgan inson – chinakamiga qahramon. Uyning poydevorini mustahkam qurish kerakligi aytilgandek, dilni ham kichiklikdan tarbiyalashni unutmaslik kerak. Adabiyot o'quvchiga mana shuning

uchun kerak. Adabiyotda uchraydigan chumoli tasviri orqali ham yozuvchi kitobxonni faqat poklanishga, yaxshilikka undaydi. Chumoli vositasida mana shu maqsadlar yotadi. Bu mehnatkash jonivorning asarlardagi vazifasi jamiyat a'zolarini komil inson sifatida shakllantirishga intilishdir. Yozuvchi o'z qahramoni tilidan kitobxonga mana shularni anglatmoqchi, uqtirmoqchi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hind xalq eposi. *Kalila va Dimna*. T.: Yangi asr avlodi. 2016. 238–239-b.

2. Ivan Turgenev. *Otalar va bolalar*. Roman. T.: Yangi asr avlodi, 2015. 180-b.

3. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. *Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua I qism.* T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2018. 105-b.

4. https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/ezop-masallar-3.html

5. https://nastavnik124.ru/uz/physics/basnya-strekoza-i-muravei---krylov-ivan-ivan-andreevich-udivitelnoe-shkolnoe-sochinenie-o-basne-krylo/

O'ZBEK ADABIYOTIDA "AMALIY HUKMDOR" GAVHARSHOD BEGIM

Rustamboyeva Gulyora Ortiq qizi,
ToshDO'TAU OTAT 3-kurs talabasi
rustamboyevnagulyora@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada temuriy hukmdor Shohrux Mirzo davrida malika Gavharshod begimga xos bo'lgan xarakter xususiyatlar va uning siyosiy jarayondagi o'rni haqida tarixiy haqiqatlar va tarixiy-badiiy asarlar asosida fikr yuritilgan. Shuningdek, Gavharshod begimning ayol sifatidagi va siyosiy shaxs sifatidagi faoliyatlari qiyosiy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Gavharshod begim, an'ana, siyosiy ta'sir, amaliy hukmdor, xarakter xususiyatdagi qarama-qarshilik, ichki nizolar, shahid momo.*

Abstract. *This article discusses the characteristics of princess Gavharshad begim during the reign of Timurid ruler Shahrukh Mirza and her place in the*

political process based on historical-artistic works. Also, the activities of Gavharshad begim as a woman and as a political person are comparatively analyzed.

Keywords: *Gavharshad begim, tradition, political influence, practical ruler, contradiction in character, internal conflicts, martyr mother.*

Tarixdan barchaga ma'lumki, temuriylar hukmdorligi davrida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda nafaqat podshohlar balki, ular bilan bir qatorda buyuk jasorat sohibalari bo'lgan malikalarning shon-shavkati ham hozirgi kungacha ma'lum-u mashhur. Xususan, Sohibqiron Amir Temurning rafiqasi Saroymulkxonim o'z davrida "Bibixonim", ya'ni "Katta xonim" unvoniga sazovor bo'lgan. O'zining aql-zakovati va fikrlash doirasi kengligi bilan ajralib turgan bu malika Amir Temurning harbiy yurishlarida birga yurgan va mamlakatning madaniy hayotida ham juda ko'plab obodonchilik ishlarini amalga oshirgan. Shuning uchun, saroyda bu malikaning obro'-e'tibori va hurmati juda yuqori bo'lgan. An'ana davom etgan holda Amir Temurning o'g'li Shohrux Mirzoning davrida ham Gavharshod begim mamlakat hayotida muhim siyosiy shaxs bo'lgan.

Gavharshod begim Shohrux Mirzoning suyukli katta xotini edi. U Chig'atoy zodagonlaridan G'iyosiddin tarxonning qizi bo'lgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Gavharshod begim ham yuksak didli, suhandon, bir so'zli, qat'iyatli va husn bobida ham benazir bo'lgan. Shohrux Mirzo tabiatan dindor, toat-ibodatga berilgan va ko'p vaqtini kitob mutolaasiga sarflaydigan podshoh bo'lganligi sababli saltanat, devon ishlari bilan ko'proq Gavharshod begim shug'ullangan (Fayziyev, 1994, 12-bet). Mamlakat podshohi bo'lgan Shohrux Mirzo devon ishlariga nisbatan befarq qaraydigan vaqtlarda uning umr yo'ldoshi sifatida Gavharshod begim bu holatga loqayd qaray olmasligi tabiiy holdir. Zero, uning xarakteridagi siyosatga, boshqaruvchilikka bo'lgan ishtiyoqi, Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida Gavharshod begimning tilidan quyidagi so'zlar orqali izohlanadi:

Ishonaman gaplaringga... Unutma o'g'lim,

Hokimalik shiddatidan zavq olar ko'nglim

O‘z davrida Gavharshod begim taxt vorisi masalalariga ham aralashgan, ya’ni Shohrux Mirzo o‘zidan keyin taxt vorisi qilib o‘g‘li Muhammad Jo‘ki Mirzoni tayinlash niyatida bo‘lgan, ammo malika bunga qarshi edi. Chunonchi, Muhammad Jo‘ki Mirzo malikaning o‘z o‘g‘li bo‘lsa ham, u o‘g‘lidan ko‘ra nabirasi Alouddavlani taxtga munosib ko‘rardi. Bu bejiz emas edi. Chunki, temuriylar davrida nabiralarning tarbiyasi bilan buvisi shug‘ullangan. Ya’ni Shohrux Mirzoning farzandlarini Saroymulkxonim tarbiyalagan:

… Siz o‘g‘limsiz, ammo meni yaxshi bilmaysiz,
Chunki sizni bolalikda Temurbek olib,
Samarqandga keltirgandi, u chog‘dan sizga,
Murabbiy bo‘lgan edi Saroymulkxonim.

Gavharshod begim ham an’anadan kelib chiqib Alouddavla, Abdulatif kabi nabiralarini o‘zi tarbiyalagan va shuning uchun ham o‘z tarbiyasini olgan nabirasiga bo‘lgan ishonchi o‘g‘liga bo‘lgan ishonchidan ko‘ra ustunroq bo‘lgan:

Oh, juvonmarg bo‘lib ketgan o‘g‘lim Boysunqur,
O‘g‘lingni men sulton ko‘rsam qolmas armonim.
Temurbekka voris bo‘lgay Alouddavla,
Har so‘zimni ul muqaddas oyat deb bilar,
Yana davlat sohibasi bo‘lurman o‘zim.

Buyuk ijodkor Gavharshod begimni asarda bu tarzda gavdalantirishi orqali kitobxon tasavvurida bu tarixiy shaxs, toj-u taxtga ishtiyoqmand, ayol boshi bilan hokimlikka intiluvchi va bu yo‘lda davlat, xalq manfaatlaridan o‘zining manfaatlarini ustun qo‘yuvchi bir kimsa sifatida shakllanishi hech gap emas. Ammo, xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak. Gavharshod begim, avvalambor, ayol va butun bir mamlakat podshosining umr yo‘ldoshi, shu sababli, uning gardanida ikki hissa og‘irroq mas’uliyat bor edi. Ya’ni u rafiqa sifatida turmush o‘rtog‘ini har qanday qiyin va quvonchli vaziyatlarda yonida bo‘lib, ruhlantirib turishi lozim bo‘lgan. Bu holatga Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” asaridagi Gavharshod begim va Shohrux Mirzoning suhbati misol bo‘la oladi:

“Shohrux Mirzo otasining saltanatini qayta tiklashga muyassar bo‘lgan milodiy 1410-yilda Gavharshod begim unga Marvni eslatdi:

— Mirzacho‘lda shohariq qazdirganingiz uchun odamlar sizni haligacha duo qilar ekanlar. Mana hozir xudo sizga shunday ulug‘ saltanatni qaytarib berdi. Endi buyuk bir savob ish qilsangiz...

— Yana qanday ish?

— Hazratim, yana emas. Bu hali hech kim qilmagan betakror jasorat bo‘lur. Qadimgi Marv shahrini qayta tiklash...

— Butun bir shaharni-ya?

— Olim-u muhandislar tarhini chizib, menga ko‘rsatdilar. Mo‘ysafid yoshullilar ming-ming savobtalab odamlarni hasharga boshlab chiqmoqchilar. Murg‘ob daryosidagi buzilgan to‘g‘on qayta tiklansa, xalq o‘zi ariqlarni qumlardan tozalab olg‘ay. Suv borsa Marv qayta tirilgay!”

Ona sifatida begimning farzandlar va nevaralarning tarbiyasida ham mas’uliyati yuksak bo‘lgan. To‘g‘ri, Shohrux Mirzo farzandlarini Saroymulkxonim tarbiyalab kamolga yetkazgan, ammo undan keyin ayni kamolga yetgan, kuchga kirgan paytlarida ham Gavharshod begim o‘z maslahatlari va yo‘l-yo‘riqlarini farzandlaridan ayamagan. Asarda keltirilishicha, Abdulatif arazlab Samarqandga ketib qolgan paytda, qishning sovug‘ida yoshi ulug‘ bo‘lishiga qaramay Gavharshodbegim nevarasini qaytarish uchun otliq holda Samarqandga yo‘l oladi va Abdulatifni olib Hirotga qaytadi. Bu hodisa Gavharshod begim ham ruhan ham jismonan o‘ta bardoshli ayol bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Gavharshod begimning siyosiy jarayonlarga ta’siri anchayin kuchli ekanligi quyidagi voqealar orqali namoyon bo‘lgan. Shohrux Mirzo nabirasi Sulton Muhammad Mirzoning isyonini bostirish maqsadida Sherozga boradi va yerda Sulton Muhammad Mirzoning ko‘pgina tarafdorlarini jazoga tortadi. O‘z navbatida Gavharshod begimning qat’iy talabi bilan bir qancha sayyidlar ham qatl etiladilar. Hayratlanarlisi shundaki, xudojo‘y, taqvodor podshoh Shohrux Mirzo ham Gavharshod begimning irodasi bilan sayyidlarni qatl ettiradi. Sayyidlar ustidan bunday hukm chiqarishga hatto Amir Temur ham botina olmagan. Davlatshoh

Samarqandiyning yozishicha, sayyidlar shohdan adolat yuzasidan taftish o‘tkazishni so‘raydilar. Ammo podshoh Gavharshod begimning xohishini qaytara olmaydi va hukm ijro etiladi. Sayyidlar esa dor ostida turib Shohrux Mirzoni “duoibad” qilishadi. Keyinchalik, Shohrux Mirzoning avlodi qirilib ketganligining sababi mana shu sayyidlarning qarg‘ishi deb qaraladi. Bundan tashqari, Shohrux Mirzo vafotidan keyingi taxt uchun bo‘lgan qonli mojarolarning tepasida Gavharshod begim turgan deb qaraladi. U nabirasi Alouddavlani taxt sohibi qilishga uringan, biroq maqsadiga erisholmagan va aksincha, shahzodalar o‘rtasida taxt uchun kurashlar kelib chiqishiga sababchi bo‘lgan (Fayziyev, 1994, 15-bet). Albatta, uning bunday ishlarini oqlab bo‘lmaydi. Ammo, ayol boshi bilan hammani o‘zining ta’sir kuchiga bo‘ysundirishi ancha-muncha podshohlarning qo‘lidan kelmaydigan ish edi. Buning ustiga, ayollarga xos sabr-toqat, qat’iyat, bir so‘zlilik, o‘z xohish-irodasida mustahkam tura olish kabi xislatlar Gavharshod begimda to‘la namoyon bo‘lgan. Gavharshod begim siyosiy shaxs sifatida faqat mojarolarga sabab bo‘lgan deb fikr yuritish noto‘g‘ri, albatta. U mamlakat obodonchiligi va ilm-ma’rifatiga ham ulkan hissa qo‘shgan. Tabiatan, vatanparvar, bilimdon va zukko Gavharshod begim mamlakat ravnaqi yo‘lida tinmay g‘amxo‘rlik qilgan. Uning dasturida madaniy-ma’rifiy hayot birinchi o‘rinda bo‘lgan. Shu boisdan, uning deyarli barcha farzandlari-yu nabiralari ilm-fan muhlislari bo‘lib, hatto g‘azallar ham bitganlar. Gavharshod begim Hirotdagi juda ko‘p qurilish ishlariga ham rahnamolik qilgan va o‘zi ham ikkita katta madrasa qurdirgan. Bunday voqealar Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” asarida ham o‘z aksini topgan. Asarda Gavharshod begim haqiqiy ona, jonkuyar momo va mamlakat, xalq manfaatlarini o‘ylovchi malika sifatida gavdalanadi. Gavharshod begim har qanday nizolarga, mojarolarga va bo‘xtonlarga bardosh berdi. Hatto, yetmish yoshlik momosini fitnachi beklarning so‘zlariga ishonib, suiqasd uyushtirishda aylab hibsga olgan nevarasi Abdulatifni kechirgan begimning matonatiga qoyil qolmaslikning iloji yo‘q:

“ - Men uning dastidan hibsda azob tortganimni allaqachon unutganmen. Onalar kechirimli bo‘lurlar. Menda qasoskorlik tuyg‘usi yo‘q. Ammo Abdullatif

hibsdan chiqsa, urush qilmay turolmagay. Uning tabiatida qon to‘kish mayli behad kuchli. Momosiga shunday yomonlik qilgan Abdullatif erta-indin otasiga ham yomonlik qilishdan qaytmagay!”

Shunday kuchli momoning oxir-oqibat Abusayiddek bir qo‘rqoq podshohning buyrug‘i bilan qatl etilgani achinarli hodisa. Saksonga kirgan keksa momoning ta’siridan podshoh bo‘la turib, shunchalar qo‘rqqan Abusayid, uni xalq ko‘z o‘ngida qatl ettirish orqali go‘yo o‘zining naqadar adolatli va kuchli ekanligini ko‘rsatib qo‘yishga harakat qilgan. Ammo, aksincha, bu harakati orqali u xalq nafratiga duchor bo‘ldi:

“Farishtadek oq libosli momoni jallodlar ikki qo‘lidan tutib olib chiqib ketayotganlarida begim oxirgi so‘zlarini yig‘ib aytdi:

— Xudo bor! Qasos qaytgay!

Gavharshod begimni xuddi o‘g‘li Ulug‘bek Mirzo kabi qilich bilan chopib o‘ldirganlari hirotliklarni zilzila kabi larzaga soldi. Begimning oq libosiga, oppoq sochlariga jallod qilichidan qonlar tomganini ko‘rgan qadrdonlari ko‘z yoshlarini to‘xtatolmay, o‘kirib yig‘ladilar. Begimning nomidagi madrasa hovlisiga tumonat odam yig‘ilib, janoza o‘qildi. Imomlik qilgan keksa mudarris janoza so‘ngida:

— Avliyo momo haq yo‘lda shahid bo‘ldilar! — deb e’lon qildi.

Sulton Abusayid o‘z mulozimlari bilan ko‘chalardan nog‘ora chaldirib, bedov otda viqor bilan o‘tardi. Shunda salom yoki olqish o‘rniga xo‘mraygan yuzlarni, nafrat yog‘dirayotgan ko‘zlarni ko‘rardi”.

Keltirilgan fikrlar, tarixiy haqiqatlar va tarixiy-badiiy qarashlardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, Gavharshod begimning tabiatida qarama-qarshi ikki xususiyat mujassamlashgan. Ya’ni bitta vujudda ham ayollik sadoqati, onalik mehr-muhabbati, matonati, ham malika sifatidagi hukmdorlik salohiyati, boshqaruvchanlik qobiliyati, ilm-ma’rifatga ishtiyoqi va ayni daqiqada, siyosiy shaxs sifatidagi qabul qilgan qarorlarida qat’iy turishi, o‘rni kelganda qattiqqo‘l va ayrim vaziyatlardagi shafqatsizliklari kabi bir-biriga qarama-qarshi va ayni fursatda, bir-birini to‘ldiruvchi xislatlar namoyon bo‘ladi. Ayol kishi kamdan-kam hollarda faqat o‘zini o‘ylaydi. U o‘zi bilan birga oilasi, farzand-u nabiralari

umuman, butun bir kelajak avlodini o‘ylaydigan zot. Shu o‘rinda, Gavharshod begim oddiy ayol emas, o‘z yaqinlari bilan bir qatorda mamlakat, xalq manfaatlarini ham o‘ylaydigan “amaliy hukmdor” sifatida tarixda qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayziyev, T. (1994). *Temuriy malikalar*. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 40 b.
2. Qodirov, P. (2001). *Ona lochin vidosi*. Toshkent: Sharq, 240 b.
3. Shayxzoda, M. (1972). *Mirzo Ulug‘bek*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 272 b.

ZAMONAVIY O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA AYOL OBRAZI TALQINI (ISAJON SULTONNING “TURMUSH” , “GO‘ZAL” HIKOYALARI ASOSIDA)

Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna,
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti
muxlisasadullayeva3@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek hikoyalarida ayol obrazining yoritilishi tasniflanadi. O‘zbek ayolining fe’l-u sajiyasi, hayotga munosabati, o‘y-xayollari aks etgan lavhalar tahlilga tortiladi. Isajon Sulton hikoyalaridagi o‘zbek ayollarining mushtarak jihatlari va o‘ziga xosliklari kontekstual tahlil qilinadi. Bu obrazlarning bugungi kun xotin-qizlari uchun dolzarb bo‘lgan xarakter xususiyatlari izohlandi.*

Kalit so‘zlar: *Kontekstual tahlil, immanent tahlil, badiiy obraz, xarakter, prototip, sinergetika.*

Abstract. *This article classified the portrayal of women in modern Uzbek stories. The pictures showing the character, attitude to life, and thoughts of an Uzbek woman were analyzed. The common aspects and peculiarities of Uzbek women in the stories of Isajon Sultan were contextually analyzed. The characteristics of these images, which are relevant for today's women, were explained.*

Keywords: *Contextual analysis, immanent analysis, artistic image, character, prototype, synergy.*

Hikoya – inson hayotida yuz bergan voqealardan bir qismini qisqa ifodalashga mo‘ljallangan janr. Bu muxtasar janrda voqea-hodisaga qadar personaj hayotida nima bo‘lgan, kim bilan va qay holda ro‘y bergani – bular to‘g‘risidagi ma’lumot muhim emas. Juda zarur bo‘lsa ayrim detallar orqali ishora qilish mumkin. Hikoya prozaning eng kichik janri bo‘lsa-da, uning bag‘rida juda ulkan dunyoqarash, hayotiy tajriba yashaydi. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi qariyb yuz yildan beri mavzu mohiyati jihatdan inson o‘zini anglashi va komillik yo‘lini yoritishga bag‘ishlangan asarlar bilan boyib bormoqda. Albatta, bu janrning shakllanishi, taraqqiyotida ko‘plab adiblarimizning adabiy-ijodiy tajribalari to‘planib, bugungi qiyofasiga ega bo‘ldi. O‘zbek hikoyachilik maktabini yaratgan namoyondalardan Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov, Normurod Norqobilov, Shoyim Bo‘tayev, Sobir O‘nar, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam kabi yozuvchilarning o‘ziga xos ijodiy tajribalari yosh qalamkashlarga ham mahorat darslari vazifasini o‘taydi.

Badiiy asar tahlilida ikki xil usul yetakchilik qiladi. Birinchi usul kontekstual tahlil bo‘lib, unda badiiy asar ichki va tashqi aloqalarini birlikda olib o‘rganishni taqozo etadi. Hikoya janri misolida aytilsa, kontekstual tahlilda “kontekst” ko‘lami kengayib boradi, konkret asar *“yozuvchi biografiyasi”, “muallif yashagan davr shart-sharoitlari”, “muallifning ijodiy merosi”, “asar yaratilgan davr adabiyoti”, “milliy adabiy an’analar”* kabi kontekstlar doirasiga kiradi. Kontekstual tahlil asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni tushunishga yo‘l ochadi. Ikkinchi usuli immanent tahlil esa asarda tasvirlangan narsalarga (undagi muallif obraziga) tayangan holda o‘quvchiga o‘z mazmunini shakllantirish imkonini beradi. Badiiy asarga, xususan hikoya janriga ham alohida mavjudlik sifatida qaraydi, uning ichki aloqalarini o‘rganadi.

Badiiy asar tarkibida badiiy obraz ishtirok etadi. Badiiy obraz borliqning (undagi narsa va hodisaning) san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksidir.

Badiiy obrazda bir paytning o‘zida bir-biriga zid ikki jihat – individuallik va umumiylik uyg‘unlashadi. Xarakter – adabiyot va san’at asarlarida xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va o‘zida fe’l-atvor (xatti-harakat, kechinma, fikriy va nutqiy faoliyat)ning tarixan aniq tipini mujassamlashtirgan, shuningdek, muallifning ma’naviy-estetik konsepsiyasini ifodalagan inson obrazi. Badiiy kashfiyot darajasiga ko‘tarilgan xarakter ijobiy yoki salbiy mohiyatga ega bo‘lishidan qat’i nazar, har bir adabiyotning badiiy boyligini tashkil etib, o‘zi mansub bo‘lgan xalqning milliy xarakterini, milliy o‘ziga xosligini badiiy mujassamlantirgani bilan ahamiyatlidir (Normatov, 1970, 123-bet).

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida 90-yillar sinergetika nazariyasi asosidagi “Barqarorlik xaosi” muvozanat va nomutanosiblik, tartib va tartibsizlik o‘rtasidagi munosabatlar – adabiyotning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida belgilangan.

Sinergetika – olamning o‘z-o‘zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o‘zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog‘lanishlar asosida mavjudligini e’tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir.

Isajon Sulton hikoyalarining o‘ziga xos xususiyati ramz va majozga to‘laligidir. Yozuvchi aksar hikoyalarida o‘zbek ayol-qizlarini ideal xarakter holatida tasvirlashga kirishadi. Xususan, uning ***“Bibi Salima”*** hikoyasi qahramoni Bibi Salima xuddi shunday o‘ylayotgan, o‘zgalar g‘amini o‘z g‘amining bir bo‘lagi sifatida his qilayotgan qahramon. *“... Qarang-a niyatni xolis qila bilish kerak ekan-da. Tavba, o‘shanda o‘zim uchun so‘raganimda-yu, bir bizgagina berganida nima bo‘lardi? Qo‘ni-qo‘shnining ko‘ziga qanday qarardik?”* – deya xitob qiladi Bibi Salima. Muallif bunda o‘quvchini hikoya boshlanmasida qahramon qalbi bilan tanishtirar ekan, umrini halol, pok yashashga sarflayotgan, peshona teri bilan mehnat qilib luqmai halolini o‘ziga va farzandlari vujudiga singdirayotganda Yaratganga shukronalik hissi bilan to‘lib-toshgan, bir sodda qalbli, haqiqiy musulmonga xos urf-odatlari bilan ulg‘aygan o‘zbek ayolining o‘ziga xos qalbiga ro‘baro‘ kelamiz. Shu ma’noda, ijodkor 2013-yilda nashr qilingan “Ozod” to‘plamiga kiruvchi ***“Turmush”*** sarlavhali hikoyasida ham soddadil ayol

qismatidan bir lavhani aks ettiradi. Asarda oilasiga ishdan xorib kelgan ota obrazi va xorg‘in qiyofali ayol obrazi va ularning bir o‘g‘il va bir qizi borligi tasvirlangan. Ushbu kichik bir o‘zbek oilasi munosabatlaridagi ziddiyat, tushunmovchilik, e’tiborsizlik kabi masalalar yoritilgan. Ota bir kuni ishdan qaytgach, rafiqasi ochiq chehra bilan kutib olmagach, shu kuni kechasi oilaviy muhiti, rafiqasining xarakteri, munosabatlaridagi dag‘alliklar haqida chuqur o‘ylab ko‘radi. Bunga sabab ayolining bee’tiborligi, asl yaratilish sababidan uzqlashgani deb hukm qiladi. Hikoyada ayol portreti: *“Uning yoshi taxminan qirq beshlarda, yuzi och jigarrang, shu bois ko‘zi atrofidagi ajinlari yanada chuqurroq ko‘rinadigan, ammo qiyiq ko‘zlari kulimsirab turadigan xotin edi.”* deb tasvirlanishi buning yorqin dalilidir. Ushbu hikoyada bosh qahramon ota ayolga xos sifatlar sirasiga nafislik, ibo-hayo, vujudi yengillik, go‘zal suratlilik: uzun kiprikli, qora ko‘zli, musaffo nigohli, nurli yuzlilikni keltirib o‘tadi. Bu talablarni esa tush motivi orqali bildiradi. Tush jarayonidagi suhbatdan er-xotin o‘rtasidagi asl haqiqatlar anglashiladi. Buyuk Yaratuvchi ayol zotini aslida sevilish, e’zozlash, g‘amxo‘rlik qilish uchun yaratgani haqidagi tag ma’no anglashilgan. Asar matnida ayolning muhim vazifasi sifatida turmush o‘rtog‘ini ruhlantirish, oromini ta’min etish ta’sirchan uslubda bayon qilingan. Shu boisdan, farzand tarbiyasi, kundalik tashvishlar, uy yumushlari: yer chopish, ovqat tayyorlash va boshqalar bu ikki muhim shartga ziyon yetkazmasligi kerak degan xulosa chiqarilgan. Asardagi ayol ko‘rgan tushidagi turmush o‘rtog‘ining toshga aylanish motivi ham o‘zida chuqur ma’noni ifodalaydi. Birinchi ma’nosi: ayolning e‘tibor bermagani, ruhlantirmagani bo‘lsa, ikkinchi ma’nosi: ro‘zg‘or yukidan toliqqani, ruhiy olamidan yiroqlashib ketganining ifodasidir.

Asar so‘ngidagi qizaloq ko‘rgan tushidagi Muhammad payg‘ambarimiz da’vatiga ishora motividan esa Inson zoti, avvalo, Yaratganga itoatda bo‘lishi, ezgu amallari bilan qiyomatga tayyor turishi, bu dunyoning tashvishlari uchun asl yaratilish sababi hamda vazifasidan yiroqlashmasligi, oiladagi munosabatlarda o‘zaro hurmat, qadrlash, mehr-oqibat bo‘lishi aks ettirilgan.

Isajon Sultonning ***“Go‘zal”*** sarlavhali hikoyasi bo‘lib, unda “go‘zal” so‘zi bir necha ma’nolarni o‘zida jamlagan. Birinchi ma’nosi asar bosh qahramonining ismi bo‘lsa, ikkinchi ma’nosi qahramonning tashqi va ichki ya’ni axloqi go‘zalligini bildiradi. Go‘zal ismli qiz obrazidagi chin insoniy fazilatlar: umid, mehr, vafo, bardosh hislari tufayli xalqimiz orasida yuruvchi “Go‘zallar bevafo bo‘lur” iborasi birmuncha ahamiyatini yo‘qotgandek bo‘ladi. Bosh qahramon sevgan kishisi xushidan ketib, to o‘ziga kelguniga qadar to‘qson ikki kun mobaynida yonidan ketmay, sog‘ayishini o‘tinib, mehr bilan parvarish qiladi. Asar matnida bu holat shunday yozilgan: *“Kiprigi qimir etib qolarmikin?”(*Isajon Sulton, 2014, 363-366-bet). Qahramondagi bu beqiyos matonat, chidam, Allohdan madad so‘rash pozitsiyasi o‘zbek xotin-qizlarining xarakterini ko‘rsatuvchi muhim jihatligiga urg‘u berilgan. Go‘zalning ezgu maqsadi yo‘lida sobitqadam turishi ayollar fitratidagi yuksak tuyg‘u ekani ko‘rsatib berilgan. Yon-atrofidagi insonlarning salbiy fikrlariga bee’tiborligi va o‘z ishiga puxtaligi ham ayol personajining mukammaligidan dalolat beradi.

Xulosa shuki, o‘zbek hikoyachiligi mavzuning badiiy talqini, odamning orzu-umidlari, shaxs intim kechinmalari, inson psixologiyasini tahlil etish yo‘lidan bormoqda. Mohiyatga evrilgan badiiy talqinlarda o‘zlikni anglashga intilish kuchli, bu ayol obrazlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Hikoyalardagi barcha ayol obrazlari xarakteridagi umumiy jihatlar sifatida latofatlilik, xushmuomalalik, matonat, sabr-bardosh, intiluvchanlik kabi sifatlarni keltiramiz. Isajon Sulton ayol obrazini yaratishda avvalo, o‘zbek ayollarining ijobiy xarakterlilaridan prototip sifatida foydalangan. Bu yozuvchining biografiyasi bilan ham bog‘liq. Negaki, yozuvchi momosi va onasiga yuksak ehtirom ruhida tarbiyalangan. Hikoya mavzusidan ham mahorat bilan foydalanib, bosh qahramon go‘zal ayolni mukammal qiyofada har tomonlama, ham tashqi qiyofasi, ham axloqi go‘zal ekanini hikoya mazmuniga singdirishga ahamiyat bergan. Har ikki hikoyadan aslida o‘zbekning ayoli latofat sohibasi, iymonli, andishali, g‘ururli, izlanuvchan, sabr-bardoshli, oliyhimmat va sobitqadam bo‘lishi anglashiladi va hikoya qahramonlari hayot yo‘limizda ziyo bo‘lib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliqulova, D. B. *Badiiy adabiyotda ayol obrazining tasviri*. Maqola.
2. Kamilova, N. S. *Isajon Sultonning asarlaridagi shamol obrazi tasviri*. Maqola.
3. Normatov, U. (1970). *Janr imkoniyatlari*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
4. Panjiyeva, Z. H. *Isajon Sulton hikoyalari badiiyati.* Maqola.
5. Sulton, I. (2017). *Asarlar I jild. Go'zal*. Hikoya. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
6. https: econferencezone.org April 30th 2022/339
7. https://doi.org/10.5281/zenodo.7162075
8. https: econferencezone.org

ISAJON SULTONNING "QISMAT" HIKOYASI BADIIY XUSUSIYATLARI

Sindarova Dilbar Sobirjon qizi,
ToshDO'TAU O'FF 1-kurs
sindarovadilbarsobirovna@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yozuvchi Isajon Sultonning "Qismat" hikoyasi tahlil ostiga olingan. Maqolada bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan ota va farzand munosabati, oila, shuningdek, bir nechta ijtimoiy masalalar ham aks ettirilgan. Adibning ushbu hikoyasi yuzasidan adabiyotshunos olimlar fikriga tayangan holda qo'shimcha fikr-mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Bola ruhiyati, ramz, postmodern, mistik hikoya, reinkarnatsiya, oila munosabati, baliq, qamish.*

Abstract. *In this article the story of the writer Isajon Sulton "Qismat" is analyzed. In the article the relationship between father and son, family, as well as several social issues, which are still relevant today, are reflected. Based on the opinion of literary schoolars additional comments were made regarding this story of the writer.*

Keywords:*Child psyche, symbol, postmodern, mystical story, reincarnation, family relationship, fish, reed.*

Ijodni mo‘jizaga mengzovchi, qalbi ijodga moyil inson uchun allanelarni qoralab, shunchaki yozmasdan, chinakamiga yoza olish, yarata olish ham bir baxt aslida, sababi ijodkor ko‘ngil kishisi, u o‘z qalbi, unda kechayotgan his-tuyg‘u, xayolot olamini o‘sha chizgilarida tasvirlaydi, yurak so‘zi ila yaratig‘iga jon ato etadi. U uchun dunyoga kelgan “farzand”ining o‘qiguvchi tomonidan iliq qabul qilinishi, e’tirof etilishidan ziyoda baxt bo‘lmasa kerak! Tom ma’nodagi shunday baxtli ijodkorlardan biri o‘z falsafiy qarashlari, qalbga yaqin so‘zlari, o‘z kitobxonlar ommasiga ega adib Isajon Sultondir. Adibning ijodiy ishlari nafaqat respublika, balki xalqaro tanlovlarda e’tirof etilayotgani ham bejizga emas, ijodkor bir qator roman, qissa va hikoyalari orqali adabiyot ahlining ko‘nglidan joy olib ulgurgan. Xususan, adib hikoyalari o‘zining yangi arxitektonikasiga xosligi bilan boshqa hikoyalardan ajralib turadi. “Qismat” nomli hikoyasining AQSHning Chikago shahrida nashr qilinuvchi “Leksikon” adabiy jurnali tanlovida eng yaxshi hikoyalardan biri sifatida e’tirof etilgani ham yozuvchi mahoratidan dalolat beradi. Qalamkashning ushbu hikoyasi inson ruhiyati, uning ichki kechinmalari, ota va farzand o‘rtasidagi munosabat, oilaviy masalalar kabi mavzularni qamrab olganligi bilan ham dolzarbdir. Hikoya konsentrik syujet asosiga qurilgan bo‘lib, postmodernistik asarlardan biri hisoblanadi, uni taniqli adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov qarashlarida aks etganidek, mistik hikoya sifatida qabul qilishimiz mumkin. *“Chunki bu tur hikoyalar reallik bilan odamlar orasida yurguvchi xurofiy tushunchalar qorishib ketgan, muqim bir e’tiqodiy tayanch bo‘lmagan muhitdagi fikr-qarashlar asosiga quriladi”*(Jo‘raqulov, 2015, 262-bet). Jumladan, hikoya markazidagi ota obrazi o‘quvchi ko‘z o‘ngida odam emas, “tilla baliq” sifatida gavdalanadi. Olim: *“G‘arb ma’naviyatini, xususan, adabiyotini yemirib, bugungi ruhiy inqiroz chohiga tashlagan ikki madaniy-falsafiy faktor bor. Ularning biri hind va xitoyning buddaviy e’tiqodi asosida turuvchi reinkarnatsiya – o‘limdan so‘ng ruhning bir jonzotdan ikkinchisiga ko‘chishi haqidagi ta’limotdir”* – deb bejizga ta’kidlamagan edi. (Jo‘raqulov, 2015, 269-bet). Afsuski, reinkarnatsiya nazariyasiga oid hodisalarni asarda ham uchratishimiz mumkin. Islom diniy ta’limotlariga tayanadigan bo‘lsak, dinimizda bu nazariyaning rad

etilishi bu borada bahsga sabab bo‘lishi mumkin. Biroq nima bo‘lganida ham asarga bu taxlit yondashuv ma’lum bir ixtiloflarga sabab bo‘lish bilan birgalikda, ijodkor ko‘zlagan maqsadni tushunishda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Asarga qay nuqtayi nazardan yondoshishni esa har bir kitobxonning o‘ziga qoldirganimiz ma’qul.

Hikoyada ota va farzand o‘rtasidagi munosabat, ota qarg‘ishi, ayrim oilaviy masalalar, davr ijtimoiy muammolari aks etadiki, muallif hikoya tili uchun ramzlar silsilasidan mahorat bilan foydalangan. Asar *“Ayvon. Ustunlar vaqt o‘tishi bilan to‘q jigarrang-qoramtir tus olib uzunasiga yorilgan”* –tarzidagi interyer bilan boshlanadi. (Sharq yulduzi, 2010, 2-son, 119-bet). Ma’lum bir ma’noda aytishimiz mumkinki, ushbu tasvir ham qahramonlarning ichki ruhiyati, ularning qalb olamidagi evrilishlarni ta’kidlashda qo‘llangan, so‘ng adib ijodiga xos peyzaj tasviri boshlanadi, hikoyadagi tabiat lavhalari, ko‘pincha, personajlarning holatiga uyg‘un bo‘lib keladi. Shuningdek, Isajon Sulton uslubiga xos bo‘lgan “an’anaviy shamol” obrazini aynan bu hikoyada ham uchratish mumkin. “*Shabadaning ovozi esa kuchayadi, nimadir shivirlayotganga o‘xshaydi. Baliq shabadani yoqtiradi!”*(Sharq yulduzi, 2010, 2-son, 121-bet).

Isajon Sultonning ushbu hikoyasini mutolaa qilar ekanmiz, undagi farzand obrazi e’tiborni jalb etishi tabiiy, uch aka-ukaning o‘ziga xos dunyosi ularning amallaridayoq o‘z aksini topadi. Kichik o‘g‘il tilla baliq qiyofasida kelgan marhum otasini chin yurakdan yaxshi ko‘radi, u bilan xayolan suhbatlar quradi. O‘rtancha o‘g‘il esa arosatda, u o‘ylar girdobida qoladi, bir yonda onasining ko‘zlari uchun davo bo‘lishi mumkin bo‘lgan, bir yonda esa ota ruhi yashayotgan baliq. Katta o‘g‘ilning baliqqa munosabati esa barchasidan ajablanarli. *“Ana endi bo‘ldi! Ana endi qozonda jizillab kuyayapsan, ota! Do‘zaxda shunaqa kuyishingni orzu qilgandim. Xudoyi taolo shunga belgi qilib, seni jo‘natdi, jo‘natgandayam, olovda qovuriladigan qilib jo‘natdi”(*I. Sulton, 2012, 353-bet).Otaga bo‘lgan bu darajadagi nafratni ko‘rgan o‘qiguvchining dili xufton bo‘lishi tabiiy. Nahotki farzandda o‘z otasiga nisbatan shunchalik nafrat bo‘lishi mumkin? Qay farzand o‘z

padariga do‘zaxiy bo‘lishni tilaydi? Bu kabi og‘riqli savollarga hikoya so‘ngida yechim beriladi.

*“Enamni urganlaringda qo‘lingga yopishganlarim esingdami? Mana senga, jizilla, jizillayver! Ichib kelib, hammani tumtaraqay qilganlaringda-chi? Menga ketmon otganingda yelkamni o‘pirib yuboruvding, izi haliyam bor, haliyam qoni silqib turibdi, yelkamda emas, ichkarida… yuragimda…”(*I. Sulton, 2012, 355-bet). Katta o‘g‘ilning bolaligi qay tarzda o‘tganligini shu dardga to‘la, hazin voqeadan bilib olish ham mumkin. Bu kabi “mehrli ota”ning farzandlariga, ayoliga, hatto o‘z otasiga bo‘lgan munosabati esa tan olish kerakki, achinarli… Bir vaqtlar namoz uchun masjidga borgan otasiga qo‘l ko‘tarib, ota qarg‘ishiga qolgan bu oqpadar insonning vafotidan so‘ng qandaydir olamda tinimsiz azoblanayotgani, cheki yo‘q qamishzorda qamish o‘rayotganiga sabab ham aslida shu! (Balki, bu yerda qamishzor ramziy ma’noda insonning qilgan amallari bo‘lib, qamish o‘rish o‘sha gunohlariga javob berish bo‘lishi mumkindir.)

Isajon Sulton ushbu asarida davrning ma’lum bir ijtimoiy masalalari bilan birgalikda, farzand tarbiyasi, bola ruhiyati, ayolga munosabat, ota qarg‘ishi misoli o‘q bo‘lishidek muhim masalalarni tasvirlaganki, bu jihatdan hikoya to‘la-to‘kis hozirgi davrda ham dolzarbligini ko‘rsata oladi, shuningdek, bir oila qismati misolida jamiyatimizning boshidan o‘tgan ayrim qora bulutlarga ishorani ham payqash mumkin, bu, ayniqsa, ota va farzand o‘rtasidagi janjal voqeasida to‘la oydinlashadi. Fikrimizcha, adibimizning inson qismati, yurt qismati borasidagi mulohazalari aks etgan ushbu hikoyasini ijodkorning yutug‘i sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘raqulov, U. (2015). *Nazariy poetika masalalari:Muallif. Janr. Xronotop*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi.

2. Quronov, D. (2019). *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Toshkent: Innovatsiya-ziyo.

3. Sultonov, I. (2012). *Ozod. Roman va hikoyalar.* Toshkent: Sharq nashriyoti.

4. Yo‘ldoshev, Q., Yo‘ldosheva, M. (2016). Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: Kamalak.

5. “Sharq yulduzi” jurnali, (2010-yil), 2-son.

“MAYMUN YETAKLAGAN ODAM” HIKOYASIDA TARIXIY VA BADIIY HAQIQAT TALQINI

Sulliyeva Gavhar Bahrom qizi,
ToshDO‘TAU OTAT 1-kurs talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasidagi bir insoning taqdiri misolida butun bir davr va jamiyat fojiasi ko‘rsatiladi. Hikoyada keltirilgan tarixiy sanalar qatiga yashiringan haqiqatlarning badiiy talqinlari haqida fikr yuritiladi. Bu bo‘yicha muayyan xulosalar bayon qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Nazar Eshonqul, “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi, tarixiy va badiiy haqiqat talqini.*

Abstract. *This article shows the tragedy of an entire era and society on the example of the fate of one person in the story of Nazar Eshankul "A man led by a monkey". The artistic interpretation of the truths hidden under the layer of historical dates presented in the story is discussed. In this regard, certain conclusions are drawn.*

Keywords*: Nazar Eshankul, the story "A man led by a monkey", interpretation of historical and artistic truth.*

Nazar Eshonqul o‘zbek modern adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkor. Adabiyotshunos Bahodir Karim Nazar Eshonqulning badiiy mahorati haqida so‘z ochib, adibning noan’anaviy ifoda uslubi, voqelikni yangicha badiiy talqin qilishi, shuningdek asarlaridagi shakliy o‘zgarishlarni ijobiy adabiy hodisa o‘laroq qayd etadi (Bahodir Karim, 7-bet). Bizning maqsadimiz yozuvchining “Maymun yetaklagan odam” hikoyasida tarixiy sanalarning badiiy vazifasini aniqlash, bu omillarning asar syujetidagi rolini aniqlash edi.

“Maymun yetaklagan odam” hikoyasi qahramoni – rassom chol (Nazar Eshonqul, 2019). Bu odamni bir qarashda quyidagicha ta’riflash va tushunish

mumkin edi: *“Uni hayotga omadi chopmagan biron amaldor bo‘lsa kerak, deb taxmin qilgan edim. Keyinchalik cholni tez-tez o‘sha kitelida go‘yo necha qadam umri qolganini o‘ylab yurganidek og‘ir qadamlar bilan uyiga yoki ko‘cha boshidagi oziq-ovqatlar do‘koniga qarab ketayotganini, gohida esa mahalla oshxonasida ovqatni titrab-qaqshab yeb o‘tirganini, qaboqlari ostidan odamlarga adovat bilan tikilib-tikilib qo‘yganini ko‘rib qolardim. Zaharli odamni bo‘g‘ib, holsiz qilib qo‘yadigan bu adovat menga o‘shanda uning butun tanasidan, vujudidan, qoqshol bo‘lib qolgan barcha qon tomirlaridan hamda chakalakzor ichidagi tilsimni qo‘rg‘on kabi menga noma’lum bo‘lgan umr qal’asidan ufurayotgandek tuyulardi”* (Eshonqul, 187-bet). Adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev ta’kidlab o‘tganidek: *“Inson tirikchiligi uchun bevosita kerak bo‘lmaydigan narsalarga intilgan vaqtdan e’tiboran chinakam odamga aylanadi. Kishi uchun bevosita kerak bo‘ladigan narsalar har qanday tirik mavjudotga zarur. Oziqlanish, himoyalanish, ko‘payish kabi ehtiyojlarni qondirishiga har qanday jonivor intiladi va buni qo‘lidan kelganicha uddalaydi. Tiriklik uchun bevosita kerak bo‘lmasa-da, ma’naviy-ruhiy qadriyatlarga esa, faqat odamgina tan iskanjasidan bir qadar ozod bo‘ladi, vujud* ehtiyojidan yuksalib, ruhga bog‘liq istaklarni tuyadi” (Yo‘ldoshev, 2005, 23-bet).

Erkning, adolatning aslida nima ekanligini anglab yetmagan, lekin unga e’tiqod qilgan cholning qo‘llari qaltirab qoshiqni tutolmaydigan holatga keldi, lekin u shu damda ham rasm chizishdan voz kechmadi. O‘tgan umriga achinishi, sobiq sho‘ro tuzumiga nafratini yorug‘likdan qorong‘ulik tomon xiralashayotgan rasmlarda aks ettirdi. *“Hikoyani o‘qir ekanmiz, rassom cholning chizgan suratlarida o‘zbek xalqining yetmish yillik mafkuraviy tutqunlik davridagi hayoti yaqqol aks etganligini, sobiq sho‘ro davrining o‘zbek xalqi taqdirida qoldirgan qora izlarini ko‘ramiz”* (Sattorova, 2000, 10-bet). Rassom chol chizgan suratlar yillar bilan ketma-ketlikda qo‘yilgandi. ***“1957”, “1947”,“1937”, “1928”, “1926”*** – bu yillarda ramziylik bor edi.

“1926” *йилда Н. Тўрақулов «Новый Восток» (Москва) журналининг 10—11-сонларида Ўрта Осиё, хусусан, Ўзбекистонда ҳам араб алифбоси ўрнига,*

*ўзбек тилига мослаштирилган лотин алифбосига ўтиш таклифи билан чиқди. Ундан бироз илгари Е. Д. Поливанов ўз рисоласида араб алифбоси лотин ёзуви билан алмаштирилиши зарур, деган фикрни илгари сурган эди.”***(**Алимова, 384-bet)**. “1928”** *йилда Бухоро музейидан Самарқанд, Бухоро, Шаҳрисабз каштачилигининг энг моҳир усталари ироқи услубида тиккан 20 дан ортиқ чойшаблар, палаклар, гулкўрпалар, сандалпўш, болишпўш, тоқиялар олиб кетилди.* (Ўша манба, 366-bet). “***1937”*** *йилнинг ўзида Ўзбекистонда «жамоа хўжаликларига қарши кайфиятда бўлганлик» ва «қулоқлар, бойлар, савдогарлар, руҳонийлар» оилаларига мансублик учун 60 мингдан ортиқ деҳқон жазога дучор қилинди, расмий маълумотларга қараганда, фақат 1937—1953 йиллардагина республикада 100000 киши қатағон қилинди, улардан 13000 киши отишга ҳукм этилди. (86-91-betlar)***.** *“**1947”** йилда Ўзбекистоннинг масъул ходимлари марказ томонидан «маҳаллий вазифаларни деб умумдавлат манфаатларини унутиб қўйишда» айбланди.* (278-bet).

Rassom cholning kuch-quvvatidan tuzum unumli foydalanadi, o‘z vatanida vatanga qarshi qo‘ydi. Eng yaqin odamlarini ham sotqinlik va xiyonatda ayblab ularni jazoga torttirdi. Shuning jazosini eng avvalo o‘z farzandidan, yaqinlaridan ola boshladi, deb aytishimiz ham mumkin. Faqat sho‘ro tuzumi deya yashadi. Ayni shu sababli farzand tarbiyasida ham xatolikka yo‘l qo‘ydi. Tarbiyadagi xatolik natijasi o‘laroq: farzandi qimor o‘ynaydi, pul talab qilib otasini uradi. Chol o‘zgarishni oilasidan boshlaganda, farzand tarbiyasiga e’tibor berganda bunday yomon holatga tushib qolmagan bo‘lardi. U butun umri davomida nima yaxshilik va nima yomonlik ekanini anglamay keldi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov asar haqida yozadi: “*Maymun yetaklagan odam” qahramoni o‘z umrini, hayotini, bor zakovatini asrimizning “ulug‘ ishlariga” tikkan, bu borada o‘zini ham ayamagan, qolaversa, jamiyat ham uni siylagan, pensiyaga chiqqunga qadar turli lavozimlarda ishlagan. Uni faqat ilohiy qismat jazolagan. Xotini o‘lib farzandlari nobop chiqib qariganida tanho, qarovsiz, ayanchli ahvolga tushib qolgan. U ish, prinsip deb qarindosh-urug‘laridan judo bo‘lgan, unda do‘st –*

birodarlar ham yo‘q. Eng yomoni, uning qalbida qarigan chog‘ida, bu foniy dunyodan boqiy dunyoga rihlat qilish yaqinlashgan damda ruhan taskin topib ovunadigan ilohiy e’tiqod yo‘q” (Normatov, 2000, 8-9-betlar).

Maymunni yorug‘ manzillar sari yetaklab ketayotgan yigit umri so‘ngida maymun cholni yetaklagan holda o‘rmonga kirib ketadi. Agar o‘sha quyuq o‘rmonni jamiyat, tuzum deb qarasak, maymunni o‘rmondan yetaklab chiqayotgan odam surati esa hayotning, yangi jamiyatning boshlanishiga ishora. Chunki inson kelgan payti beg‘ubor, orzuli bo‘ladi. U o‘z orzulari, umidlari bilan hayotga katta ishonch bilan qaraydi. Lekin so‘ngida esa maymun qari, munkaygan, hayotga bo‘lgan ishonchi so‘ngan cholni o‘rmon tomon yetaklab ketyapti. B esa jamiyat emas tuzum jamiyat a‘zolarini boshqardi. O‘zlarining yolg‘onlariga cholni aldagan kabi ishontirdi. Cholning chirkin, badbo‘y hidlariga o‘ralashib o‘tirishi, bu badbo‘ylikni sezmasligi uning shaxs sifatidagi tanazzulidir. Uning e’tiqodlarga, yaxshiliklarga ishonmasligi ham shundan dalolat beradi. Chunki behuda o‘tgan umri yolg‘onlarga qorishganini va e’tiqod qilgani aslida puch bir safsata ekanini anglagani uni shu holatga keltirib qo‘ygandi.

E’tibor bersak, maymun o‘rmondan chiqayotganda ham, kirayotganda ham o‘zgarmadi. Faqat yigit obrazi chol qiyofasiga aylandi. Chol butun umri davomida sobiq sho‘rolarning jirkin orzularini amalga oshirish uchun xizmat qildi. Aslida o‘sha tuzumni ezgulikka xizmat qiladi deya ishongan edi. E’tiqod qilib ishongan narsalari aslida sarob ekanini anglab yetkanda esa qarigan, beldan quvvati ketgan edi. Endi u o‘sha tuzumga qarshi chiqsa ham qo‘lidan hech bir ish kelmasdi.

Tug‘ilish va o‘lish o‘rtasidagi umri besamar o‘tgan chol tuzum aldovlari uni yorug‘ manzillar tomon emas, qorong‘ulik qa’riga torganini kech anglab yetdi.

Biz milliy tariximizning eng qora, “kirlik” davrlaridan ayrim faktlar (omillar)nigina tilga oldik, xolos. Aslida fojiamiz ko‘lami ancha keng. Binobarin:Rassom cholning hovlisi, ya’ni makon tasvirida sho‘rolar tuzumi, yoki hovli bo‘ylab taralib turgan badbo‘y hid esa sho‘rolar mafkurasining ramziy tasviri degan xulosani chiqarish mumkin:

1. Sobiq sho‘rolar davrida avj olgan siyosat, xususan paxta yakkahokimligi, rahbarlarning o‘zboshimchaligi go‘yo ajdaho singari dahshatli edi, hamma narsani o‘zining domiga tortardi. Undan qutilish esa oson bo‘lmadi. Qancha begunoh umrlar zavol topdi.

2. Nafaqat rassom cholga o‘xshagan mansabdor shaxslar, balki qanchadan-qancha shoir va yozuvchilar tuzum, mafkura aldovlariga uchib iymon-e’tiqodsiz dunyodan o‘tishdi.

3. Bu hikoyada tuzum yolg‘onlari qurboniga aylangan odamlarning o‘tgan asr boshidagi fojiali hayoti bir inson taqdiri misolida haqqoniy ko‘rsatib berilgan.

4. Tarixiy sanalar milliy fojialar haqida so‘zlaydi. Adib bu omillarni mahorat bilan badiiy haqiqatga aylantirgan. Tarixiy sanalar asar syujetida tadrijiy ravishda voqealar rivojini aks ettirgan.

5. Tarixiy fon, moziyning katta voqealari fojia ko‘lamini anglatishga xizmat qilgan.

6. Hikoyada adib ham shaxs, ham jamiyat fojiasini uyg‘unlikda mahorat bilan badiiy aks ettirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazar Eshonqul. (2019*).Maymun yetaklagan odam*. Hikoyalar. Toshkent: Yangi nashr. 208 b.

2. Yo‘ldoshev, Q. (2005).*Anglashning azobli yo‘li.* “Guliston”jurnali. 1-son.

3. Sattorova, G. (2000). *Badiiy niyat va xarakter.* “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. 4-son.

4. Баҳодир Карим. (2016). *Руҳият алифбоси.* Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 364 б.

5. *Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865–1990 йиллар).* – Тошкент: «Шарқ», 2000. – Б. 847.

6. Норматов, У. (2000). *Умидбахш тамойиллар.* Мақолалар. Т.: “Маънавият” нашриёти. 464 б.

QONIMIZDA KEZAYOTGAN ISTE'DOD

Suyunboyeva Mohichehra To'lqin qizi,
ToshDO'TAU O'FF, 3-kurs talabasi
mohichehrasuyunboyeva47@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamondosh yozuvchi Isajon Sultonning "Genetik" romanidagi razmziy fikrlar, ijodiy qarashlari davr, ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi, dolzarbligi yuzasidan tahlil qilingan. Badiiy adabiyot, jumladan ushbu asarning uchinchi Renessans poydevorini shakllanlantiruvchi hisoblangan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ikki qismli kompozitsiya, qadimgi bitiklar, yombi (oltin bo'lagi), xalqona obrazlar xarakteri, Qur'oni Karim, Beruniy timsoli, quvvayi-tabiiya, ilm-fandagi qalqish, uchinchi Renessans.*

Abstract. *In this article, the symbolic thoughts, creative views in the novel "Genetic" by the contemporary writer Isajon Sulton are analyzed in relation to the era, social life and their relevance. Fiction, including the role of this work in raising the spiritually of young people, which is considered to be the foundation of the third renaissance, is discussed.*

Keywords: *two-part composition, ancient inscriptions, yombi (a piece of gold),character of folk images, Quran Kareem, Beruni, natural strength, cell, a leap in science, the third Renaissance.*

Bugungi adabiy jarayonning taniqli vakilillaridan bo'lgan Isajon Sultonning ijodi, qissa-yu hikoyalari kitobxonlar davrasi, adabiyot olamida keng qiziqish uyg'otib kelmoqda. Ana shunday asarlardan biri – nomlanishi, sarlavhasidanoq e'tibor jalb etiladigan, ramziylik qamrab olgan "Genetik" romanidir. Asar syujeti genetik olimning bolalik vaqtlaridan boshlab, olamshumul kashfiyot yaratib, muvaffaqiyatga erishgungacha bo'lgan voqealarni qarab oladi. Muallif bu voqealarni ikki qismli kompozitsiya asosida yozadi. Birinchi qismda genetik o'zining bolaligi, jonajon qishlog'i, maktabdagi botanika ustozning fikrlari sabab fanga nisbatan boshlangan qiziqishi, qishloq hayoti, odamlarning hayot tarzi haqidagi voqealar keltirilsa, ikkinchi qismda esa olimning genetika yo'nalishiga kirishi, izlanishlari va nihoyasida erishilgan ilmiy yangilik, olimning xalqaro

anjumandagi insoniyatga, butun millatga qarata ilm-ma’rifat haqida aytgan fikrlari keltiriladi.

Romanning muqaddimasi yombi topib olgan yigit haqida qadimgi bitiklardan olingan parcha bilan boshlanib, xotimada ham shunday parcha bilan yakunlanadi. Muallif bunga qanday ramziylik yuklaganini anglagan kishi, asli butun asar uchun xulosa mana shu hikoyalarda jamlanganini tushunib yetadi. Ya’ni muqaddimada yombi topib olgan yigit uning nimaligini anglamay, u bilan yong‘oq chaqmoqchi bo‘lib sindirib qo‘ygach, “yartiroq bo‘lgani bilan hech narsaga yaramas ekan” deb ketaveradi. Asar so‘ngida keltirilgan yigit esa uning nimaligini juda yaxshi bilar, shu sabab uni o‘zi bilan olib yurti tomon yo‘l oldi. Demak ikkisinig faqrqi ilm, borliqni anglay olish. Asar mohiyati ana shundan tashkil topgan.

Asarda tabiat tasviri va xalqona obrazlar, mingyilliklarga borib taqaluvchi milliy urf-odatlar o‘zgacha go‘zallik bilan tasvirlangan. Ayniqsa, Ubay aka, Sofiya buvi va Xolis aya obrazlarining xarakteridagi o‘zbekonalik, ular tilidan aytilgan ibratli hikoyalar alohida o‘rin tutadi. Jamiyatdagi qorni to‘q, usti but bo‘lishnigina saodat deb biladigan, sal murakkabroq narsadan gap ketsa: *“Ha endi, biz jo‘n odamlarmiz. Bularga aqlimiz yetmaydi” , “Otang cho‘pon, bobong cho‘pon… Olmaning tagiga olma tushadi”* deguvchilarga, bu xalqning asl ajdodlari naqadar yuksak aql-u zakovat sohiblari, dunyo ilm-fani taraqqiyotining allomalarining buyuk iste’dodi bu elning har bir farzandining genida uyg‘otish kerakligi aytilgan. Buyuk allomalar, ilm-salohiyatning yuksalishi Islom dinining kirib kelishi bilan boshlandi.

Ona Movarounnahr xalqi ham Islomni va Qur’onni xuddi namlikka chanqoq yer baraka yomg‘irini yutib olganday kutib oldi. Bu yomg‘ir ta’sirida serhosil o‘simliklar o‘sib chiqdi. Tez orada butun dunyoga nomi ketgan allomalar yetishdi. Diniy va dunyoviy ilmlarning barcha sohalarida peshqadam ustozlar olam bo‘ylab dong taratdilar (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2017, 596-bet). Biologiya ustozi ham ana shunday allomalardan biri Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida keltirilgan **“quvvayi tabiiya”**, ya’ni tabiiy quvvat, olamning tuzilishida uning vazifasi haqida aytib, shu kitobni genetikka

sovg‘a qiladi. Keyinchalik ilmiy izlanishlari davomida qishloqdoshlarining DNKsidan namuna olib, 50-80 mingyillik sulola ekanligini aniqlaydi. Ma’lumki, xalq va millatning qadri uning qadimiyligidadir.

Genetikning xalqaro anjumanda so‘zlagan nutqi, butun millat yoshlariga aytilgan: *“Qonimizda buyuklik mavj urmoqda. Bir chaqnasa, dunyoni titratar chaqmoqlar tek turibdi… Ong o‘zi istayotgan narsaga juda mushtoq. Bering axir, u shuurga o‘zi istayotgan zilolni - ilmni! Yuzlab ajdodlaringiz meros qoldirgan iste’dod zarralari esa saodat lahzasini kutib tomirlaringizda jim kezmoqda. Bir qalqisangiz, kelajak sari uchar yulduzday otilar quvvatingiz bor, qalqining axir!”* Haqiqatan, qonimizda oqayotgan iste’dodni uyg’otish, millat ravnaqi, yurt rivoji uchun harakat qilish, ajdodlarga munosib voris bo‘lishning vaqti keldi. Lekin “*unutma, sen ilmga o‘zingni bag‘ishlamasang, ilm senga hech narsa in’om qilmaydi”* (Tohir Malik, 2016, 8-bet). Demak, ilmning zahmatini rohat deb bilish lozim. Shundagina ilm-fanda katta yangilik, kashfiyotlar qila oladigan shiddatli olimlar, ilm sohiblari yetishib chiqadi. Mamlakat, jamiyat go‘yo butun bir vujud, uning har bir a’zosi esa hujayradek. Uning farovonligi, taraqqiyoti hamma hujayraga bog‘liq. Har sohada soniya sayin rivojlanib borayotgan dunyoda o‘z minbariga ega, bashariyat uchun foyda keltiruvchi millat bo‘lish, o‘zi orzu qilgan uchinchi Renessansni barpo etish uchun eng avval ruhiy ishonch va dadillik, ajdodlarning ilm-salohiyat, kuch-qudratini o‘zimizda his qilgan holda harakat qilish lozim. Bu yo‘lda adabiyotning, Isajon Sultonning “Genetik” kabi asarlarining ahamiyati beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isajon Sulton. (2018). *Genetik.* Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2017). *Tafsiri Hilol*. Toshkent: Hilol-nashr.
3. Tohir Malik. (2016). *Falak.* Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Beruniy. (1968). *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. Toshkent: Fan.

“IKKI ESHIK ORASI” ROMANINING SYUJET XUSUSIYATLARI

Tojimamatov Sherzodjon Sodiqjon o‘g‘li
ToshDO‘TAU O‘FF, 3-kurs
sherzodjontojimamatov@gmail.com

Annotasiya. *Maqola taniqli yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanining syujet qurilishi tadqiqiga bag‘ishlangan. Romanning qisqacha mazmuni, uning voqealar rivoji beshta qismga ajratish yo‘li bilan yoritib berilgan. Asar qahramonlari xarakterlari, ularning og‘ir va zahmatli hayotlari qisqacha yoritib berilgan. Muhim bo‘lgan atamalar va ularning ilmiy izohlari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar*: syujet, urush, fabula, xronikali syujet, konsentrik syujet.*

Abstract. *The article is focused on the condtruction of the plot in Otkir Khoshimov’s novel “Ikki eshik orasi”. The summary of the novel, its development of events is explained through dividing it into five parts. The characters of the heroes in the novel, their difficult and laborious lives are described briefly. Important terms and their scientific definitions are given.*

Keywords. *Plot, war, fable, chronicle plot, concentric plot.*

Toshkentning Do‘mbirobod mahallasida dunyoga kelgan bo‘lajak adib – O‘tkir Hoshimov yoshlik yillaridan adabiyotga oshno bo‘lib, gohida o‘zi ham kichik-kichik hikoyalar yozar edi. Adabiyot maydoniga katta ijodkor sifatida universitetda o‘qib yurgan kezlarida kirib keldi. Nafaqat kirib keldi, balki o‘zining durdona asarlari bilan adabiyot olamida munosib iz qoldirdi. Uning nomini abadiylikka muhrlagan asarlaridan biri esa 1986-yilda yozib tugallangan “Ikki eshik orasi” romanidir.

“... roman yirik ijtimoiy, maishiy, axloqiy roman. Asar uzoq davrlik voqealarni, ko‘plab kishilar taqdiri, hayot yo‘lini, xilma-xil ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy muammolarni o‘z ichiga qamrab oladi. Roman voqealarining bir uchi 30-yilning boshlariga, qishloqdagi kollektivlashtirish davri hodisalariga borib tutashsa, ikkinchi uchi 60-yillarning oxiriga kelib taqaladi. Shunday bo‘lsa-da, romanning markazida Ulug‘ Vatan urush davri, urush yillaridagi o‘zbek qishloqi hayoti, urush va inson, urushning kishilar taqdiriga ko‘rsatgan chuqur ta’siri, ular

qismatida, zurriyotida, dilida qoldirgan jarohatlari muammosi turadi". (Normatov, 1989. 37-bet).

Roman – XX asrning 80-yillari o‘rtasida, ya’ni adabiyot sohasida biroz susayish kuzatilgan davrda yaratildi hamda odamlarni o‘ziga jalb qilib, kitobxonlar orasida iliq kutib olindi. Asar personajlarga juda ham boy. Unda jami 149 ta personaj qatnashgan bo‘lib, bularning barchasi asar ma’no ko‘lamining kengayishiga, unga o‘zgacha ruh bag‘ishlashga xizmat qilgan. Asarda asl o‘zbekona xarakterlar mavjud. Qora terga botib zahmat chekib ishlagan xalqimiz, farzandim eson-omon qaytsa bo‘ldi, deb borini fronti uchun qurbon qilgan ota-onalar, o‘z yorini sadoqat bilan kutgan ayollar yoki ba’zi o‘rinlarda eriga nisbatan xiyonat qilishga jazm qilgan ayollar obrazlari xolisona bayon etilgan. Adib asarni va undagi voqealarni shunday mohirlik bilan tasvirlaganki, undagi biror qahramonni bee’tibor qoldirib bo‘lmaydi. Chunki bu asar syujetiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

“Syujet badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi” (Quronov, 2018, 480 bet).

Shuni ham ta’kidlash kerakki, asardagi voqealar katta davrni qamrab olgan. Ba’zi hollarda xronikali tartibda, ba’zi hollarda esa asar qahramonlarining vaziyatidan kelib chiqib turli vaqtda bo‘lgan voqelar (konsentrik) ketma-ketlikda tasvirlangan.

“Xronikali syujet voqealari orasida vaqt munosabati (A voqea yuz berganidan so‘ng B voqea yuz berdi), konsentrik syujet voqealari orasida esa sabab-natija munosabati (A voqea yuz bergani uchun B voqea yuz berdi) yetakchilik qiladi.

Adabiyotshunoslikda «syujet» bilan bir qatorda «fabula» istilohi ham borki, ularni qo‘llashda turlichalik bartaraf etilmagan. Avvalo, o‘z vaqtida Aristotel «fabula» (yunoncha «mif» so‘zining lotincha tarjimasi «fablio»dan) istilohini «syujet» ma’nosida qo‘llagan. To XIX asr oxiriga qadar bu ikki istiloh mutlaq

sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, XX asr boshlaridan syujetning chuqur tadqiq etila boshlanishi bilan ular farqlana boshladi. Xususan, rus formal maktabi vakillari «fabula» deganda asarda tasvirlangan voqealarning hayotda yuz berish tartibini, «syujet» deganda esa ularning asarda joylashtirilish tartibini tushunadilar” (Quronov, 2018, 480-bet).

Shuning uchun asarni shartli ravishda quyidagi davrlarga bo‘lishimiz mumkin:

1. Urushgacha bo‘lgan davr: bu davrni tom ma’noda tinchlik davri desa bo‘ladi. Lekin yashash qiyin, yashash uchun kurash avjiga chiqqan paytlar edi. Asarning bosh qahramonlaridan biri bo‘lmish Robiyaning Samarqanddagi qiyin hayoti, onasining o‘limidan keyin dadasi bilan Toshkentga, Ko‘tarmaga kelishi bilan boshlangan bu asar juda ko‘p voqealarni o‘z ichiga oladi. Robiyaning Samarqandlik ekanligi ham asar syujeti uchun juda mos. Onasining o‘limidan keyin Toshkentga kelishi esa beixtiyor voqelar rivojiga, ya’ni oqsoqol, Husan duma va uning oilasi, ayniqsa Kimsan bilan tanishuviga olib keldi. Ko‘tarma ahli uni o‘z oila a’zolaridek qabul qilishdi. Lekin otasi bilan bunday bo‘lmadi. O‘z mansabining qudratidan foydalangan ba’zi bir “amaldorlar” uning xolisona, xalq uchun qilgan ishi, maktab qurishga rahnamolik qilgani uchun surgun qildirishdi. Aynan shu kuchlar Orif oqsoqoldek xalq uchun jonini beradigan insonni amalidan bo‘shatib, hatto qishloq xo‘jaligiga aloqasi bo‘lmagan bir Zakunchini rais qilib ko‘tarishdi. Hech kimning xalq bilan ishi yo‘q, hamma o‘z manfaatini o‘ylab ish ko‘radigan, boshqalar mehnati evaziga soxta medallar osib yuradiganlar zamoni edi.

2. Urush davri: urush – bu so‘z zamirida ulkan bir qayg‘u mavjud. Lekin shu urush o‘zbek yigitlarining mardligini yana bir karra ochib berdi. Urush xabarini eshitgan Kimsan o‘ylab ham o‘tirmay, otasi, onasi, Robiya hamda vatandoshlarining tinchligini saqlash, yigitlik shaniga dog‘ tushirmaslik uchun voyenkomatga yugurdi. Bir tomonda oilasi, sevgan qizini tashlab urushga ketgan Kimsan, hali chillasi chiqib ulgurmagan Shomurod, Orif oqsoqolning tog‘dek ikki o‘g‘li Shokir hamda Zokir, Komil tabibning o‘g‘li Ochil urushda qon kechishdi,

ba’zilari o‘ldi, ba’zilari izsiz yo‘qoldi. Lekin bu paytda ular bilan barobarida onalariga ham oson bo‘lmadi. Onalar o‘limidan avval bolalarini oxirgi marta ko‘rib qolishdi (Qora amma hamda Lazakat xola timsolida) yoki o‘g‘illarini diydorini ko‘rmay, urush tufayli ularning mayitini ham ko‘rmay, farzandi uchun aza ochdilar (Oqsoqolning xotini timsolida). Bu davr rosmana sinov davri bo‘ldi. Ayollarning vafosi, onalarning bardoshi sinaldi. Lekin Umar zakonchi kabi nomard kimsalar xalqni og‘ir mehnatlar bilan qiynash barobarida birovning xotiniga ko‘z olaytirdi, yuqori mansabdaligidan foydalanib keksalar hamda ayollarni “zakon” bilan qo‘rqitdi. Yigitlar urushdaligi sababli ayollarga ularning bajargan yumushlarini qildirdi, yengilliklar berish o‘rniga erta tongdan to tun qorong‘usiga qadar dalada ishlashga majbur qildi. Hatto yosh bolalarga ham rahm qilmadi. Ularni bug‘doydan keyingi boshoq terimiga teng sheriklik (tergan boshliqlarining yarmini uylariga olib ketish tartibi) asosida ish ko‘rdi. Eng katta xatoga aynan shu joyda yo‘l qo‘ydi. Olimjon tergan boshoqning beshdan birini berib, norozi kayfiyati uchun o‘ladigan qilib kaltakladi. Shuning uchun mansabidan chetlatildi.

3. Urushdan keyingi davr: urush tugab, tinch-totuv davrlar boshlandi. Lekin Umar zakonchi hali ham Ra’no bilan munosabatini to‘xtatmadi va yaqinda tug‘ilgan go‘dagini tashlab, birgalikda qochib ketishdi. Urushda oyog‘idan jarohat olib yaralangan, qaytgach bor kuchi bilan dalada mehnat qilgan Shomurod oldida eng qiyin sinov, norasida go‘dakni eson-omon katta qilib olish vazifasi turar edi. Oqsoqol boshchiligida bu muammo ham hal qilindi. Yaqinda farzandli bo‘lgan Bashorat bolani to‘yg‘azdi, o‘z bolasidek parvarish qildi. Bola katta bo‘lgan sari otasiga mehri juda baland edi, lekin uning bolaligi go‘yo yo‘qolgandek edi. Yoshlik payti dalada qush inidagi polaponlarni kuzatarkan, ular oldiga ikkita katta qushlar ovqat olib kelganini ko‘rib, ularning biri otasi, ikkinchisi esa ammasi deb o‘yladi. Sababi esa oddiy – ona mehrini hayoti davomida his qilmaslik. Yoki bo‘lmasa dadasining Robiya bilan to‘yi kuni o‘rtog‘i Abduvalining to‘y haqidagi hamma narsani bilishi uni hayron qoldirdi. Onasi yo‘qligi uchun bolalar uchun huzurli bo‘lgan bu kabi marosimlardan ko‘ra dadasi bilan choyxonada vaqtini ko‘proq o‘tkazar edi. Lekin aynan shu davrda kun sayin xalq hayoti yaxshilanib

bordi. Bu orada Kimsandan xabar kelavermagach, ammasi Robiyani Shomurodga nikohlash qaroriga keldi.

4. 60-yillardagi zilzila davri: zilzila – hammani qiyin ahvolga solib qo‘ygan tashvishlarning biri edi. Urush tugab, asoratlari unutilayotgan bir davrda xalq boshiga bu kulfat (zilzila)ning tushishi odamlarni qiynab qo‘ydi. Bu davrning eng azoblangan odami esa Muzaffar bo‘ldi. Chunki u o‘zi uchun muhim bo‘lgan insondan – Munavvardan ayrildi. Shirxo‘r bo‘lishlariga qaramay uni yoqtirardi. Hatto ota-onasiga hamda Bashoratning noroziligiga qarshi chiqib yurgan, maktabni tugatib uchuvchilik orzusining ortidan quvmay, farmatsevtika yo‘nalishiga o‘qishga kirgan edi. Zilzila esa uni qadrli insonining o‘limiga sababchi bo‘ldi. Hatto ukasi Omonning farzandi katta bo‘lgan paytda ham uylanish haqida o‘ylamas, hali ham Munavvarni unuta olmas edi. Zilzila – bu yerda ikki vazifani bajaryapti. Birinchidan, xalqning, urushdan keyingi hayotlari asta yaxshilanayotgan odamlarning, boshiga yana bir sinov tushdi. Ikkinchidan, Muzaffar va Munavvarning hayoti ostin-ustun bo‘lib, ziddiyatlar avjiga chiqqan paytda zilzila bu holatga yechim bo‘ldi. Sababi esa oddiy. Ikki yosh bu vaziyatga to‘g‘ri baho bermay, to‘y haqida o‘ylayotgan bir paytda zilzila Munavvarning o‘limiga sabab bo‘ldi. Hamma zilziladan qochib qolgan bir paytda dori ichib olgani uchun uyg‘onmadi va zilzila natijasida vafot etdi. Bu esa Muzaffarning peshonasiga yozilgan taqdiriga rozi bo‘lishiga sabab bo‘ldi va asarning yakuniy qismigacha uylanmay, Munavvarni o‘ylab umr o‘tkazdi.

5. Qayta qurilish yillari: asar qamrab olgan davrdagi eng tinch hamda urush va ortiqcha mehnatlarga jalb qilishdan holi bo‘lgan davr. Lekin odamlar o‘zgargan, bir-birini qadrlamaydigan, poraxo‘rlik, qo‘shib yozish hamda ikkiyuzlamachilik hukm surgan davrdir. Bu paytda Muzaffar qurilish-montaj brigadasida boshliq bo‘ladi. “Xom-ashyo yetishmasligi”ni bahona qilib, qurilishdagi “A-1” ingichka armaturalarini uchma-uch qilib ulashni buyurgan qurilish rahbari Shavkat Qudratovichni ishchilar “Kobra” deb nomlab olganlaridan ham uning qanday odam ekanligini bilishimiz mumkin. Muzaffar nohaqliklarga chiday olmadi. Yetarli xom-ashyo bo‘lmagani uchun ishchilarga dam berib, bu uchun jazosini ham oldi.

“Kobra” ularning maoshini qisqartirdi. Ishchilar norozi. Muzaffar bu shartlarga rozi bo‘lay desa vijdoni oldida aybdor bo‘lardi. Lekin rozi bo‘lmagani uchun qo‘l-ostidagi ishchilar aziyat chekdi. Bu orqali qayta qurilish yillaridagi kamchiliklardan biri yozuvchi tomonidan yana bir bor xolisona bayon etildi.

Yozuvchi asarga shunday mohirlik bilan yondashganki, unda bo‘lib o‘tgan voqealarni har kim o‘z xohlaganicha qabul qilishi, ya’ni xulosani o‘quvchining o‘zi chiqarishi mumkin. Buning uchun esa adib asardagi konfliktli vaziyatlarni, shu vaziyatda ishtirok etgan har bir qahramon tilidan bayon etadi. Qahramonlar voqealarga o‘z nuqtai-nazaridan yondashadi. Ba’zi o‘rinlarda o‘zini oqlash, yana ba’zi o‘rinlarda o‘zini ayblash holatlari ham uchraydi. Asardagi voqelarga xolis baho berish uchun qahramonlar o‘y-fikrlarini ketma-ket, qahramonlar tilidan bayon etadi. Misol uchun: Robiyani traktor tepib, Ra’noning uyiga kelgandagi vaziyatni Ra’no, Robiya hamda Umar zakunchi tilidan, hammasining o‘z nuqtai-nazariga ko‘ra, yoki Shomurod va Robiyaning to‘yini ham Shomurod tilidan, ham Robiya tilidan, ham Qora amma tilidan bayon etadi. Bu orqali asar real hayotda bo‘lyotgandek, sun’iy bo‘yoqdorliklardan xoli bo‘lishiga erishiladi. Syujet nuqtayi nazaridan qaralganda Robiyaning juda og‘ir taqdiri kitobxonni bee’tibor qoldirmaydi. Asarning boshidan oxirigacha bo‘lgan davrda muntazam va faol qatnashgan. Ko‘p holatlarda voqealar rivoji uning atrofida qurilgan. Urushdan keyingi davrda esa bu holatni bevosita Muzaffar timsolida ham kuzatishimiz mumkin. Bu davrdagi syujetning keskinlashishi esa Munavvar bilan shirxo‘ra, ya’ni aka-singil ekanligi bilan bog‘liq. Yoshligi, qalbida muhabbat jo‘shib turgan bu ikki yoshning taqdirida ulkan bir sinov bor edi. Dastlab hech kim ularga aka-singil ekanliklarini aytmasdan to‘ylariga qarshilik qildi. Vaziyat juda tarang bo‘lgandagina ular hamma narsadan xabar topdi. Xuddi shu payt zilzila sodir bo‘ldi.

Asarning “Ikki eshik orasi” deb nomlanishini Orif oqsoqol tomonidan Muzaffarga aytilgan quyidagi fikr orqali bilib olishimiz mumkin: *“Bolam, - dedi ko‘zimga tikilib. – Odamzot yuz yil umr ko‘radimi, ming yilmi – baribir o‘lgisi kelmaydi. Ming yil yashagan bir sahoba “Esiz-esiz, u eshikdan kirdim-u, bu*

eshikdan chiqib ketyapman", degan ekan. Shunaqa, bolam... Hech kim o'lishni o'ylamaydi. Ammo Xudo odamzotga umrni o'lchab beradi. Shunaqalikka shunaqa-ku, odamning umri necha yil yashagani bilan sanalmaydi... – U xo'rsindi. – Bir xil odamlar bor: u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib ketayotgan qo'lidan kelgancha savobli ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g'isht qo'yib ketadi. Yana bir xillari bor: o'sha imoratdan aqalli bitta g'ishtni o'g'irlab ketgisi keladi. O'g'irlab-ku, hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshikka borganda baribir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi..." (Hoshimov, 2019, 528-bet).

Darhaqiqat, hayotimiz ikki eshik orasidagi davrimiz hisoblanadi. Bir eshikdan kirish bilan boshlangan bu hayot, ikkinchi eshikdan chiqishimiz bilan yakunlanadi. Kimlarningdir eshiklar orasidagi davri ko'p bo'lsa, kimlar uchundir qisqadir. Lekin shu davrda qanday yashash, yaxshi yoki yomon nom qoldirish insonning o'ziga bog'liqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asarning syujet tuzilishi juda ham murakkab. Unda odamlar hayoti bo'yoqdorliklardan xoli, ortiqcha qo'shimchalarsiz bayon etilgan. Xalqning turmush tarzi, aziyatli hol-ahvollari, yuqori mansab amaldorlari tomonidan oddiy xalqning ezilishi xolisona bayon etilgan. Ko'plab insonlar taqdiri, ularning kundalik hayot tarzi hamda o'zbek xalqi ichida mavjud bo'lgan muammolar keltirilgan. Romanda turfa xil taqdirlar: yetimlik, sevgi, xiyonat, vafo, do'stlik, mardlik va yana ko'plab tuyg'ular ijodkorning mahorati tufayli so'zlar yordamida mohirlik bilan chizilgan. Asarni o'qish mobaynida kitobxon tasodifan syujet voqealariga qo'shilib ketadi. Qahramonlar kulsa, u ham kuladi, yig'lasa, u ham yig'laydi. O'quvchini chuqur o'yga toldiradi. Asar ma'no ko'lami nihoyatda kengligi sababli kitobxon mutolaa davomida o'zi boshidan kechirgan qandaydir voqea-hodisaning guvohi bo'lishi mumkin. Bularning barchasi matonatli xalqimiz boshidan kechirgan og'ir kunlar va buyuk ijodkorning shu kunlarni mahorat bilan yoritib bera olganligi mevasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov. O'. 2019. Ikki eshik orasi /roman/ "Adabiy barhayot asarlar" turkumi. Toshkent: "Ilm-ziyo-zakovat". 528 b.

2. . Normatov, U.1989. Taqdirlar romani. -T.: Adabiyot va san'at. 37-b.

3. Quronov. D. 2018.– Adabiyot nazariyasi asoslari / Toshkent: Akademnashr, 480 b.

4. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/otkir-hoshimov-haqiqiy-yozuvchi-xudo-kongliga-solganini-yozadi.html

TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ROMANINING AYRIM BADIIY JIHATLARI

Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi,
ToshDO'TAU OTAT fakulteti, 3-kurs talabasi
Qurbonovbekzod49@gmail.com

Annotatsiya. *Milliy qadriyatlar eng yaxshi saqlanib qolgan Surxon elining jonkuyar insoni Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani ushbu maqolada tahlilga tortildi. Asar nega bunday nomlangani, yozuvchi bu asar bilan nima demoqchi ekanligi haqidagi savollarga javob topish va berishga harakat qilingan. Asarda nega uchta bosh qahramon tanlanganini izohlashga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar: *Tog'ay Murod, "Otamdan qolgan dalalar" romani, badiiy tahlil, hikoya, qissa, roman.*

Abstract. *The novel "Fields left by my father" by Togai Murad, a passionate person of the Surkhan people, where national values are best preserved, is analyzed in this article. An attempt was made to find answers to the questions about why the work was called that way, what the writer wanted to say with this work. It is analyzed how the writer is distinguished by the writing style of contemporary artists. The play tries to explain why three main characters were chosen.*

Keywords: *Tagay Murad, novel "Fields left by my father", literary analysis.*

Millatning faqat o'zigagina yarashadigan, faqat o'zi uchun yaratilgan narsalari: urf-odatlari, kiyinishi, to'yi-tamosha va kimsalari: olimlari, shohlari, shoir-yozuvchilari, rassomlari bo'ladi. "Qaysi yurtda non arzonroq bo'lsa, o'sha yerga ko'chib yuradigan odamda Vatan tuyg'usi bo'lmaydi. Vatanini sevgan qahramonlar sevimli bo'ladi.

O‘zining xalqchil va haqchil ijodi bilan adabiyot tarixida o‘chmas iz qoldirgan yozuvchi Tog‘ay Murod ham faqat bizning elimizga xos ijodkordir. U yaratgan obrazlar ham faqatgina o‘zbek bo‘la oladi. Quyidagi yozuvchi Said Ahmadning Tog‘ay Murod haqidagi jumlalari fikrimiz isboti bo‘ladi: *“Tog‘ay Murod adabiyotga tutab emas, yonib kirdi. Tog‘ay qissalari sof milliy o‘zbek qissalari. Tog‘ay Murod qissalarida tasvirlangan odamlarga boshqa xalq libosini kiydirsangiz ham o‘zbekligi bilinib turadi. Ularning xulq-atvori ham boshqa xalqqa aslo o‘xshamaydi. Shu vaqtgacha qiyofasi noaniq, biri-biridan farq qilmaydigan, shapka kiydirsang rus, qorako‘l papaq kiydirsang ozarbayjon, telpak kiydirsang qozoq, yoqasiga kashta tikilgan ko‘ylak kiydirsang ukrain bo‘lib ketaverishgan taxminiy odamlar qissalarimizning asosiy qahramoni bo‘lib keldi. Bu o‘z xalqining milliy urf-odatlarini, his-tuyg‘ularini bildirmaslikdan bo‘ldi, so‘qirko‘ngillik, so‘qirko‘zlikdan bo‘ldi”.*

Albatta, bunday ta’rif bejiz berilmagan. Adibning dastlabki “Yulduzlar mangu yonadi” asari hamda undan keyin yozilgan “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar”, “Momo yer qo‘shig‘i”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” asarlaridagi har bir obrazga o‘zgarmas xarakter yarata olgan ijod sohibi. Tog‘ay Murod asarlari tili sodda va murakkabligi bilan ahamiyatga molik. Asarlarining tili soddaligi sheva so‘zlaridan foydalangan va badiiy bo‘yoqlardan kam foydalanganligida deb olsak, uning murakkabligi ifoda xususiyatining ixchamligidadir. Ya’ni kichik hajmga katta ma’no sig‘dira olgan yozuvchini Abdulla Qahhordan keyin faqat Tog‘ay Murod asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Bu ham asar ustida anchagina ter to‘kib, mehnat qilishini bildiradi yozuvchini. Shuhrat Abbosov tomonidan suratga olingan “Otamda qolgan dalalar” kinofilmining muallifi Tog‘ay Murod ushbu asarni Sho‘ro bosqinlik davri uch avlod (Jamoliddin, Aqrab va Dehqonqul) misolida aks ettirgan. “Otamdan qolgan dalalar” – ramziy roman. Muallif o‘z romanida butun umr dalada ketmon chopib, serquyosh yurtida yelkasi oftob ko‘rmagan, qut-barokat yurtida kosasi oqarmagan munis o‘zbek xalqi siymosini Dehqonqul timsolida badiiy talqin etadi.

Sho‘ro bosqinchilarining yurtimizga “tashrifi”, SSSR hukumatining o‘rnatilishi va “paxta ishi” voqealarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

“Otamdan qolgan dalalar” davrning – badiiy hujjati, unda jamiyatning mustamlakachilik barham topib, istiqlol ne’matiga noil bo‘lgan paytdagi ruhiyati akslangani ham bundan aslo kam bo‘lmagan haqiqat. Zero, unda hammamizning “dehqon” (“dehqon” — yer egasi demak emasmi?!) bo‘la turib “qul”likda umrgurazonlik qilgan siz-u bizning kayfiyatimiz, parchalangan zanjirlar ustida turgancha kechmishimizga sog‘lom nazar solgan, mustabid tuzumni yanib turgan holatimiz akslangan. Donishmandlardan biri “Insoniyat o‘z o‘tmishi bilan kulib xayrlashadi” degan ekan. Asar yozilgan paytda na Tog‘ay Murod, na siz-u biz o‘tmish bilan kulib, kulish qayda, xotirjam xayrlashishga ham qodir emas, negaki, istibdod zanjirlari qoldirgan yaralardan qon sizib turgandi. Shu ma’noda, “Otamdan qolgan dalalar” — uzoq yillar yig‘ilgan dardning misoli vulqondek otilishi, mustamlaka bilan xayrlashayotgan xalqning yig‘i-yo‘qlovi. Yo‘q, mustamlakaga kuyib emas, toptalgan qadri, g‘ururini o‘ylab chekkan nolasi; yurakni ezadigan, ruhni tushiradigan emas, aksincha, kishi ruhini yuksaltiradigan, qaddini tiklaydigan nola…”]

Bu yerda shunday ma’no borki, SSSR yurtning o‘z egasini qullik domiga tordi. Asarni o‘qir ekanmiz voqealardan siqilib, qayg‘uga botishdan foyda yo‘qligini anglash kerak. Shu o‘rinda tarixni o‘zgartirib bo‘lmasligiga, undan xulosa chiqarishimiz lozimliga amin bo‘lamiz. Baxshilik yo‘sinida yozilgan bu asarni o‘qish insonni qaddini va qadrini ko‘taradigan kuydek his qilamiz.

Roman xronotopi bir asrlik voqealarni qamrab oladi. Uch avloddan eng katta hayoti yoritilgan obraz bu — Dehqonqul obrazi. Birinchi navbatda, bir o‘ylab ko‘raylik-a! Nega asar qahramonining ismi bunday? Dehqonqul! Asrlar davomida bu zaminda yashaydigan insonlarning asosiy mashg‘uloti chorvachilik va dehqonchilik bo‘lib kelgan. Yerdan hosil olguncha ozmuncha zahmat chekadim dehqonlar. Dehqon forsiy tildan “qishloq hokimi” degan ma’noni anglatadi. Boshqa yana bir ibora mavjudki, dehqon yerni qoni bilan sug‘oradi, deydilar. Dehqon yerning egasi. Ammo asarda Dehqonqul yer egasining qul bo‘lishi degan

ma’noni keltirib chiqaradi. Demak ko‘rinadiki, Tog‘ay Murod romanga Dehqonqul obrazini kiritishi ramziylik kasb etadi. Mana shu birgina obraz misolida Sovet Ittifoqi davridagi o‘zbek xalqi va uning ijtimoiy-siyosiy ahvoli juda yaxshigina eks etgan. Oddiy dehqon xonadoni, uning ichki dunyosi, ro‘zg‘or tutumi ham ana shu maqsad asosida shakllantirilgan. Bu holat mashhur yozuvchi, dramaturg Sharof Boshbekovning “Temir xotin” dramasida ham boshlanish sahnasida Qo‘chqorning uyini tasvirlashda ko‘rsatilgan. Har bir narsaning kemtikligi, bir farzandida bor bo‘lsa kiyimning, boshqasida yo‘qligi. Dehqonqul dala uchun ishladi. Uni sevgani uchun ishladi. Vatan deb bilgani uchun ishladi. Ruslarni “to‘ng‘ich akasi”dek ko‘rgani uchun tobelik qilib ishladi. U buni sharaf deb bildi va jonini ham ayamasdan harakat qiladi. Zavqiddin Suvonov *“Ammo uning dalada ishlashidan ikkita manfaat bor, – deydi. Biri – siyosiy tuzumga xizmati bo‘lsa, ikkinchisi ajdodiga hurmat, ya’ni otasidan qolgan dalalarni obod qilish. Zohiran bu yerlar hukumatga tegishli bo‘lsayam, botinan o‘ziniki deb biladi. Chunki bunga ruhan ishonib bo‘lgan. Biz unutmasligimiz lozim bo‘lgan bir his borki, u ham bo‘lsa bosh qahramonning o‘ziga ishonchi va millatiga xizmatidir”*.

Asardagi har bir obraz bir-birining ustiga qurilgan, agar ulardan birini olib qo‘ysangiz asar sochilib ketadi. Jamoliddin, Aqrab, Dehqonqul, Bolxin momo, Dehqonqulning ayoli, Ivan Ivanov, Chanishev, Ziyod, rais, Klara Xodjayevna… Bu insonlarning taqdiri turlicha, kimdir yaxshi yashadi, kimdir yomon. Ammo bu insonlar yo‘lini “to‘ng‘ich akalari”ning siyosati birlashtirdi. Sovet tuzumi xuddi oyga o‘xshaydi. Uzoqdan qarasang, chiroyli yo‘lni yorutguvchi mash’al, ammo yaqindan kelsang, yuzidagi dog‘larga guvoh bo‘lamiz. Oy quyoshdan nur oladi, Sovet hukumati ham o‘z qudrati 15 ta respublikaning moddiy va ma’naviy boyliklarini tashish evaziga erishdi. Tarixning achchiqligi shundan iborat: Sovet davlati uchun bu davlatlar arzon va sifatli “mardikor bozori” edi. *“ – Chanishev! Sen kim? Ayt, sen kim? No‘g‘ay musulmon farzandi. Sen musulmon farzandi bo‘la turib, manavi o‘rislar gapiga kirib kelding. O‘rislar mening kallamni yeyish uchun sen no‘g‘aylarni bekorga tanlamadi. Boisi — o‘zbak bilan no‘g‘ayni tili bir, dini*

bir, urf-odati bir. Bilsang — sen no‘g‘ay o‘zingga o‘zing miltiq o‘qtalib kelding! Endi ayt, tuzemets menmi yo sen to‘qqiz qaytgan no‘g‘aymi?

Ruslar haqiqatda shunchalik tuban siyosat olib borganki, xalqimizda bir gap bor: “O‘ng qo‘li bilan chap qo‘lni chopmoq.” Ruslar ham xuddi shunday yo‘l tutdi. Chanishev qo‘li bilan Aqrab chayonni o‘ldirdi, musulmon qo‘li bilan musulmonni qurbon qildi. Bu juda katta o‘ylangan g‘oyalar edi va haqiqatda tan olish kerakki dohiyona fikr. Bosqinchilik davrida har bir o‘tkazilgan ma’rifatchilarni “tozalash” ishlari shu g‘oyalar ostida amalga oshirilgan. Aqrab chayon asardagi e’tiborga molik obraz. Chunki u baribir ruslar kimni qo‘lga olsa ham, o‘ldirib yuborishini biladi. Balki shu sababdan ham u taqdiriga tan berib, meni o‘ldirsang, shu yerda o‘ldir deb so‘raydi. “Xalqparvarlik” tuyg‘usining kimga tegishli ekanini millat boshiga ish tushganda bilsa bo‘ladi. Dushman oldida yaltoqlangandan ko‘ra unga ko‘ksini tutib bergan a’lo. Garchi g‘alaba qozonmasak-da, vijdon oldida yuzimiz yorug‘ bo‘ladi.

“ – Klarabaycha? Ayol lab burdi. Ayol qosh kerdi. – Baycha? Kakaya baycha? — dedi. — Men Klara Xodjayevnaman! Men nima deyishimni bilmadim. Men ko‘z ostimdan raisimizga qaradim. Raisimiz uzr so‘ra, deya qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib ishora berdi. Men darrov o‘ng qo‘limni ko‘ksimga qo‘ydim. – Tavba qildim, dedim. Ayol ana shunda yuzimga tikilib qaradi! Ayol sergaklandi. Ayol qizarib-bo‘zardi. Ayol… irgandi! Klara Xodjeyevnani adib “Idealogiya” (Идеология) deb ataydi. Bu ham bejiz emas, albatta. Klara Xodjeyevna tug‘ilishi, ism qo‘yilishidan boshlab unga Sovet mafkurasi singdirilgan. U shu g‘oyalar bilan ulg‘aydi va xalq orasidagi obro‘li insonga aylandi. “Идея” bu – g‘oya. Klara Xodjeyevna esa Sovet hukumati g‘oyalarini ommaga tarqatuvchi mexanizm vazifasini bajargan. Qaysidir ma’noda rais ham u bilan bitta yo‘ldan yuradilar.

Bundan tashqari adib dialoglardan ham unumli foydalangan. Biz boshqa nasrda yozadigan ijodkorlarda bunday holatni Tog‘ay Murodgacha bo‘lgan yozuvchilarda kuzatmaganmiz. Ba’zi asarlarda ko‘proq badiiy tasvirlarning mo‘lligi kitobxonni asardan biroz uzoqlashtirib qo‘yishi mumkin. Ammo Tog‘ay Murodda bir xususiyat kuzatilmaydi. Adib butun voqealarni obrazlarning nutqiga

joylashtirib chiqqandek. Tog‘ay Murod asarlaridagi bunday o‘ziga xoslikni “Alpomish” yoki “Go‘ro‘g‘li” dostonini o‘qiganda his qilamiz.

Yana bir personaj Dehqonqulning do‘sti, paxta fronti qurboni Ziyoddir. Qari onasidan boshqa hech kimi, aniqrog‘i uning “orqasi”, surishtira oladigan kuchli yaqini bo‘lmagani sabab ayni Ziyodni qurbonlikka tanlashadi. Dorilangan paxta dalasida bir kecha uxlab qolgach, ahvoli o‘nglanmay, tobi qochib vafot etadi. Asqad Muxtorning “Chinor” romanidagi Akbarali asar uchun mo‘rt bir barg deb tanlangan bo‘lsa, ushbu asarda esa Ziyod asar uchun “mo‘rt barg” deb tanlandi.

Kimnidir urish uchun beshta barmog‘imizni alohida-alohida ishlatsak, ta’siri bo‘lmaydi, qaytanga barmoqlarimizning o‘ziga zarar yetkazadi. Ammo barmoqlarni birlashtirib, bir musht qilib ursak, yerni zirillatishi mumkin. Ya’ni bizda ana shu narsa yetishmadi. Har yerdan qilingan birda bir isyonni bostirish o‘sha davrda kuchli qurollangan, ham harbiy jihatdan, ham g‘oyaviy jihatdan rus askarlari uchun hech qanday vahima tug‘dirmasligi tabiiy hol, albatta. Sovet hukumati puxta o‘ylangan rejalar asosida, birgina bizning davlatimizni emas, balki o‘n beshta davlatni ham birdek qo‘l ostida saqlagan. Sovetlar bu davlatlarni o‘z qo‘li bilan o‘zlarini yo‘q qilmoqchi bo‘ldilar.

“Otamdan qolgan dalalar” asarida ibora va maqollardan ham foydalanilgan. Masalan: Dehqonqul, Aqrab va Jamoliddingagina xos bo‘lgan “o‘ynab qo‘yay” iborasi ishlatilgan. Bu ibora ham qahramonlar xarakterini ochib berishda muhim vazifa o‘taydi. Bu ibora jahli chiqganda aytadigan eng nomaqbul so‘zidir. Yana bir qancha iboralarni misol qilib keltirishimiz mumkin. “Paxta urgan”, “Surxondaryo – janubning janubi”, “ro‘zg‘orchilik – yo‘qchilik”, “qiz olsang, o‘zingnikidan ol”, “kofir to‘q –musulmon tinch”, “tulki qiziga to‘y berdi” kabi shu asar voqealariga xos bo‘lgan iboralardan foydalanilgan. Undan tashqari “Holvani hokim yeydi, kaltakni yetim yeydi”, “Qazisan, qartasan, asl zotingga tortasan”, “Yer haydasang, kuz hayda, kuz hadamasang, yuz hayda”, “Qish oladan – yoz moladan”, “Eshakni xizmati halol, o‘zi harom”, “Sabr tagi – oltin”, “Eshak semirsa, oxurini bulg‘aydi” kabi maqollardan ham unumli va o‘rinli foydalanganligi Tog‘ay Murod mahoratini yana-da ochib berishda muhim omil bo‘ladi.

Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” va boshqa asarlari ham go‘yo qamchiga o‘xshaydi. Davrning achchiq qamchisi. Asar voqealari xuddi vulqon otilishiga o‘xshaydi. Jaloliddin hayotida qo‘zg‘algan bu vulqon alaloqibat Dehqonqulda portladi. Yozuvchi shaxsiyatini o‘rganadigan bo‘lsak, asarni yozish oson bo‘lmaganini his qilamiz. Bunday qaltis vaziyatda bunga o‘xshash asar yozish mushkul ish edi. Ammo Tog‘ay Murod bu kabi xurofotlarga chalg‘imasdan, cho‘chimasdan bu asarni yoza oldi. Balki yozuvchi ichida, yuragida ko‘milib yotgan gaplarini asarlari tilidan so‘zlab bergandir. “Otamdan qolgan dalalar” — otalardan qolgan Vatan. “Yozuvchining so‘z san’atkori sifatidagi xarakterli belgilarini uning xayolotidan, ilhomidan, olamni juda teran bir insoniylik bilan idrok etishidan izlamoq kerak”.

Tog‘ay Murod bir asrlik vaqt qamrovida, uch avlod (Jamoliddin, Aqrab, Devakillari timsolida mustamlaka zaminidagi ahvolni keng ***badiiy polotno*** orqali tasvirladi.

1. Yozuvchi roman badiiy matnida ***dialoglarga*** tig‘iz darajada mazmun sig‘dira olgan.
2. Asar ***monologlarida*** yozuvchi ilgari surgan g‘oya – to‘la ochib berilgan.
3. Har bir obraz hayotiy, tiniq va ***o‘z tiynatiga mos*** yaratilgan.
4. Asar ***barcha qirralari to‘liq ochib berilgan*** sof milliy badiiy roman e’tirofiga loyiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳошимов, Ўткир. (2005). Дафтар ҳошиясидаги битиклар. Т.: Шарқ.– 272 б.
2. Саид Аҳмад. (1998). “Йўқотганларим ва топганларим”. Т. “Шарқ”. – 304 б.
3. https://youtube.com/watch?v=-Dok2YxhCW4&feature=shares
4. Dilmurod Quronov. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/togay-murod-dilmurod-quronov.html
5. Sharof Boshbekov. https://www.youtube.com/watch?v=y21BKp5o0OE
6. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar.—T.:Sharq nashriyoti.

7. Сувонов, З. Тоғай Мурод насрида образлар поэтикаси. PhD диссертацияси автореферати.

8. Тоғай Мурод. (2012). Отамдан қолган далалар. Т.: Шарқ.– 448 б.

9. Ян Парандовский. (2022). “Сўз кимёси”. Бадиа-эссе. Таржимонлар: О. Шарафиддинов ва М. Акбаров. – Тошкент: Янги аср авлоди,– 464 б.

ULUG‘BEK HAMDAMNING “SABO VA SAMANDAR” ROMANIDA MUHABBAT MOTIVINING BADIIY IFODASI

Zarpillayeva Shahlo Zayniddin qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF Adabiyotshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdamning’’Sabo va Samandar’’ romani tahlilga tortilgan. Maqolada ishqning turli ko‘rinishlari haqida so‘z yuritilgan. Vatan va ishq tushunchalari haqida fikr bildirilib, bu ikki tushunchaning taqdir bilan qanchalik aloqasi borligi ochib berilgan. XXI asrga kelib, inson o‘zining ichki olamini, uning hayotiy ma’no-mazmunini qidirishga intilishi ko‘rsatib berilgan. Roman ichidagi qissa qahramonlari bilan Sabo va Samandar shaxsi va taqdiri solishtirilgan.*

Kalit so‘zlar: *xalqona ruh, erkinlik, xalqchillik, poetik talqin, taqdir, muhabbat, ishq, vatan, vatandan ayrolik, baxshiyona.*

Abstract. *This article is based on the novels of Ulugbek Hamdam. It discusses the concepts of homeland and love and reveals how these two concepts are related to fate. By the 21st century, man's desire to search for his inner world and the meaning of life has increased. The personality and fate of Sabo and Samandar are somehow compared with the characters of the story in the novel.*

Keywords: *folk spirit, freedom, folkloric, poetic interpretation, destiny, love, Motherland, bakhshi song.*

Inson umrining cho‘qqisi, mazmuni, hatto o‘lim ham o‘chira olmaydigan mangu olov, afsona va karomat, barcha davrlarda avlodlar qalbini o‘ziga rom etadigan tuyg‘u – muhabbat mavzusidir. O‘tmish davlardan boshlanib hozirgi kunga qadar davom etayotgan va bundan keyin ham yo‘qolmas mavzu bu.

Mustaqillik yillarida yaratilgan “Sabo va Samandar” romani ham aynan vatan va ishq mavzusidadir.

“Sabo va Samandar” asarining epigrafi Shavkat Rahmon she’ri bilan boshlanadi. Keyingi o‘rinlarda Oybekning: “*Tushimda ko‘rdim seni, Birga olib ket meni”,* – degan jumlalarni ko‘ramiz. Usmon Nosir, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Zebo Mirzo, Rahimjon Rahmat, Yunus Emro, Jaloliddin Rumiy va eng ko‘p Alisher Navoiy she’rlaridan misollar keltirilgan. Bu esa asarning xalqchilligini yanada oshirgan. Asardagi xalqonalik bular: ota-onaga hurmat, ularning rozi-rizoligini olish, do‘stlik, vatan va qadriyatlar oldidagi sadoqat va sevgi kabi tushunchalarni qamrab olganligida. Romanda xalq rivoyati bo‘lgan “Nodir va Nilufar”ni Samandar yoshligidan onasidan eshitib katta bo‘ladi. Undan keyin “Layli va Majnun” kitobi bir shaxsning taqdiriga aylandi. Romanga olib kirilgan Nodir va Nilufar hikoyati Samandar uchun oddiy ishq ertagi emasligi va asar shaklan roman ichida ishqiy qissa, mohiyatan esa ishq ichidagi ishqni namoyon etadi. Asarning xalqchiligi ham aynan shu yoshlikda eshitgan va xalq orasida mashhur bo‘lgan rivoyat va hikmatlarda edi.

“Sabo va Samandar” asari mutolaasi jarayonida tug‘iladigan ilk tasavvur – ikki ko‘ngil ishqining kuylanayotganidir. Muallif baxshiyona uslubda goho so‘zlaydi, goho kuylaydi, goho kitobxon bilan baxslashadi va shu yo‘sinda o‘zi va kitobxon bir vaqtning o‘zida ham voqealar kuzatuvchisi va ishtirokchisiga aylanadi. Ishq – dard, uning davosi visolligini aytib o‘tgan edi Ibn Sino.

Romanda tasvirlangan Nodir va Nilufar hamda Sabo va Samandar o‘rtasida bog‘liqlik va farq nimada edi? “Sabo va Samandar” romanida qahramonlar obrazi, muallif roviy va tinglovchi-kitobxon obrazlari “Nodir va Nilufar” qissasiga nisbatan bosiq va sezilarli darajada muhit ta’sirida bo‘lishadi, hatto aytish mumkinki, qandaydir darajada burch ma’sulyatini ham bajarishadi. Romanda muhabbat qissasining tuguni – Sabo va Samandarning ilk uchrashuvi yozuvchining betakror uslubi bilan yanada hayajonli aks etadi. Hali auditoriyada o‘tirgan Saboni ko‘rmasdan gapirayotgan gapini yo‘qotgan Samandar uni ko‘radi-yu taniydi. Xayolidagi go‘zal, uni shu kungacha tinch qo‘ymagan pariro‘y – shu. Romanda

o‘lim-da bir-biridan ajrata olmagan, taqdirga tik borib qovushgan bokira oshiqlar taqdiri insonning ko‘ngil tilaklari yetovida yashashini tasdiqlaydi. muhabbat yodi va yaqin o‘tmish xotiralari Samandar hayotining mazmuniga aylangan edi. Roman qahramoni qalbini zabt etib, uni jununvash xayollarga g‘arq etgan ma’shuqa chindan-da Zebomi? Muallif qahramonga ism tanlashda ulug‘ Cho‘lpon chin go‘zallikni ko‘rgan Zebi Zebonadan urg‘u olmadimikin? Nilufar kelajagini yaratib bermoqchi bo‘lgan Kamol rahbar azaliy udumlar izmida. U nomus, qon sofligi, farzandlar kelajagi oldida mas’ullik sezadi. Kamol rahbar mantig‘iga ko‘ra: Abdug‘ani aka nafaqat kambag‘al va sodda dehqon, balki “qoracha”dan chiqqan. Demak oqsuyak emas. Hokim “to‘ra”lardan, o‘zi esa “xo‘ja”lar avlodidan. Boz ustiga, hokim to‘ra bilan quda bo‘lish ulkan iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ham ochishi mumkin. Binobarin, Murodjon va Nilufarning bo‘lajak nikohi har jihatdan oqlashga arzigulik. Axir oddiy dehqon o‘g‘li Nodir haminqadar ro‘zg‘ori bilan kelajakda qiziga bunday to‘kis hayotni va’da etishini xayolga sig‘dirib bo‘larmidi. Shuning uchun ham, zamon va odamlar o‘zgarganligini tan olishni bu mantiqqa sig‘dirish dushvor. Demak, ikki yoshning chorasiz qolishi ijtimoiy nohaqlik, aqidaparastlarcha johillikda. Musibatlar sababi ikki yosh ko‘ngilning dardi, g‘am-tashvishlarini mensimaslikda. Oshiq ma’shuqning aql-hushdan begonashuvi pokiza orzu-umidlar oyoqosti qilinishi, yashash ilinji so‘nishi bilan bog‘liq. Darhaqiqat, umidsiz ishq girdobiga tushgan ikki dil na hayot quvonchlari, na shirin jon tashvishini qilishadi (Ёқубов, 2011, 292-бет).

Yozuvchi qahramonlariga maqsadsiz, umidsiz yashashni tilamagan, aksincha, qahramonlarda turmush ko‘rguliklariga qarshi bir qadar zaifona tarzdagi isyon namoyon bo‘ladi also. Keyin esa yozuvchi uni ikki yoshning olomonga, olomonlik olamiga qarshi isyoni darajasiga yuksaltirishni uddalaydi. Ayanchli sevgi qissasini mutolaa qilar ekansiz, o‘z manfaatlarining quli darajasida tubanlashgan, quturgan, nobakor va benomus olomon bilan yuzlashasiz. Sevishgan g‘amli dillarning pokiza tuyg‘ularini anglashga ojiz, tafakkurdan mahrum, johil va g‘azabnok olomonga qarshi nafratingiz ortadi. Muallif sizga: Bu dunyoda har kimning o‘z karvoni, o‘z yo‘li va manzil-muddaosi bor.

Visolga yetmagan oshiqlar uchun dunyo nega qimmatini yo‘qotdi, – degan savolga ich-ichingizdan javob topasiz. Asov daryo ularni mahv etdimimikin yoxud mehribon quchog‘iga olib najot bag‘ishladimikin, – deya o‘ylab qolasiz. Nega ular o‘zlarini qutqarishga zarracha harakat qilmay, mehribon oqim ixtiyoriga topshirishdi. Omonat jon nega ko‘zlariga ko‘rinmadi. Nega bir-birlarining quchoqlarida g‘arq bo‘layotib kechirilgan mas’ud lahzalarda bu ikki bosh bu qadar mag‘rur ko‘rindi? Chunki sevishganlar hatto daryo bag‘rida ham baxtdan sarmast bo‘la bildilar. Ha, Nodir va Nilufar muhabbatlari qissasi shirin va qayg‘uli ertakka, munglig‘ va dilrabo dostonga mengzaydi. Bu afsonaviy oshiqlar sevgisiga bo‘ylashadigan muhabbat bormikin. Romanda tasvirlangan parallel taqdirlar – Sabo va Samandar muhabbati orqali bu savolingizga javob topasiz. G‘arb turmush tarziga xos har bir kimsaning o‘z hayotiga faqat o‘zi xo‘jayin ekanligi haqidagi “erkinlik” tamoyillari ayrim yoshlarimizda hayot tarzini axloqiy me’yorlar bilan chegaralashni istamaslikday milliy ma’naviyat va qadriyatlarimizga xilof sifatlarni ham shakllantira boshladi. Faqat maqsadga muvofiqlik va real daromad ilinjidagina yashash o‘ziga xos didsizlikni ham yuzaga chiqardi. Chunki texnika va buyumlarga sajda qilish o‘z navbatida hissiy kechinmalarga nisbatan bepisandlikni tug‘diradigina emas, balki shaxs ruhiyatida stereotiplarni ham shakllantiradi. Natijada, uning qalbida ijtimoiy befarqlik ildiz otadi. Soxta qadriyatlar: (axloqsizlik, fahsh, zo‘ravonlik)ning kirib kelishi uchun keng maydon ochiladi. Bunday odam o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida tashqaridan bo‘ladigan aks ta’sirlarni butkul tan olmaslik darajasida xudbinlashadi. Muallif bunday masalalarni romanda Sherdil obrazining poetik talqinlari orqali ko‘rsatishga intilgan.

Asarning taskin qismi Vatan va Vatandan ayro kechishi, bunda Samandar taskinni ona qishlog‘ida topsa, Sabo Vatandan ayro joylardan topadi. Muhabbat qalbiga jo bo‘lgan insonda, joy va vatan tushunchalari yod bo‘lgandek ko‘rinadi, aslidachi Samandarning yuragidagi otashin olovni faqat va faqat qishlog‘i- ona vataniga kelgandagina pasayadi.

“*Kim biladi ishq ham qalbning qaysidir mezonlarida, ehtimol tub-tubida insonning Vatan ila bir joyda istiqomat qilar. Ehtimol, vatan va muhabbat bitta daraxtning ikki ulkan shoxlaridir”* (Улуғбек Ҳамдам, 2011, 311–”, – deydi yozuvchi. Samandar Mingtepadagina yuragidagi jo‘shqin olovni pasaytira olardi. Samandar qishlog‘ining o‘ydim-chuqur yo‘llarida yurgada ishqdan halos bo‘lishni emas, ishq va ishqsizlik haqida o‘ylaydi. Mingtepa yo‘llarida yurganda dam olish nimaligini bilmagan, juda mashaqqatli mehnatini quvonch bilan yodga olishi, umrining oxirigacha o‘tmish ichida yashashi, do‘stlik, ilk muhabbat (Aziza nazarda tutilgan), orzular va ilohiy ishqini uchratguncha bo‘lgan vaqt. Aynan samandar shu vaqt oralig‘idagina yashadi, undan keyin xayolot ichida o‘zligini unutgan holda butun umrini sarfladi. Shuning uchun ham u Vatani tuproqlariga qadam bosgandagina o‘tmishiga qayta oldi va qayta tirildi. Ona zamingina uni tiriltirdi, vijdon azobiga taskin bo‘la oldi. Ona-chi? Samandar onasi uning ichini doimo o‘qiy olganini juda kech bildi. Shu o‘rinda ham ona o‘zini aybdor deb bildi, qo‘li kaltalik qilmaganda, xo‘jayini tirik bo‘ganda bu ishlar bo‘lmasdi deb o‘yladi ona bechora. Shu o‘rinda taqdirga tan berishni xohlamagan ona obrazini ko‘ramiz. Taqdir o‘limdan ustun. Taqdir izidan taqdir keladi. O‘lim izidan hech narsa kelmas. Hammaning va har bir odamning ustida turgan bir kuch bor – uni taqdir deyishadi. Uni to‘xtatib qolish yoki tushuntirib berishga hech kimning qurbi yetmaydi. Ehtimol, urush – taqdirdir, hayot-mamot, yengish-yengilish ham taqdirdandir. *“– Muhabbat degan narsa juda oz kishilarga nasib bo‘ladirg‘an bir durri bebahodir, – dedi Ziyo aka* (Абдулла Қодирий, 1992, 36-бет). “O‘tkan kunlar” romanida bu jumlalarga juda ko‘p duch kelamiz. Zero, muhabbat bu sevgining mangulik sari eltadigan yagona yo‘li va muhabbat tuyg‘ulari makonlarini qasddan buzish, xarobaga aylantirish – mangulikni tahdidga solish, uni xavf ostiga qo‘yish bilan barobar.

“Kundaligimga qachonlardir shunday fikrni qoralab qo‘ygan ekanman: “Biz qoliplarga ko‘ra yashaymiz. Har doim, har bir harakatimiz qoliplarga rioyadir. Aslida, tabiatimiz va vijdon amrimizga quloq osish bizni ruhiy iztiroblardan saqlar edi. Lekin biz “odamlar nima deydi?”, – deb o‘zimizni yana qoliplar ichiga

yashiramiz. Hayot ham shunga yarasha jazolaydi — biz qoliplar ichra ko'rinmay ketamiz", – deydi Ulug'bek Hamdam" (https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umidbaxsh-adabiyot-ehtiyoji-yozuvchi-ulugbek-hamdam-bilan-suhbat.html). Qolipdan chiqqan qahramonlargina o'zligini topa oldi. Bular Nodir va Nilufar edi. Sabo bilan Samandar esa qoliplar ichida umrini boy berishdi.

Yozuvchi "Sabo va Samandar" asarida Qodir Egamga murojaat qilib, u insonni bir ko'chadan olib o'tmoqchi bo'lsa, uning qarshisida son-sanoqsiz boshqa ko'chalarning darvozalari ochiq turgan holda ham, inson ming urinib shularning biriga kira olmasligini, niyatiga eta olmasligini ta'kidlab o'tadi. Bu erda ko'cha ramziy ma'noda inson oldida turgan hayotiy yo'l, umr yo'li vazifasida kelib, unga inson Yaratgandan izn bo'lmasa kirmasligini ta'kidlagan. Samandar bu yo'lga o'z ixtiyori bilan kirmagani, balki taqdirida unga axborot asrida mumtoz adabiyotdagi oshiq qismati bilan yashash bitilgani, endi shu hayotga ko'nikib yashayotganiga ishora qilingan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdam,U.A. (2014). *Vatan haqida qo'shiq*. Toshkent: Akademnashr.
2. Абдулла Қодирий. (1992). *Ўткан Кунлар.* Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси.
3. Ёқубов,И.А. (2011). *Бадиий-эстетик сўз сеҳри*. Мақолалар тўплами.
4. Ҳамдам,У.А. (2011). *Сабо ва Самандар*. Тошкент: Ўзбекистон.
5. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umidbaxsh-adabiyot-ehtiyoji-yozuvchi-ulugbek-hamdam-bilan-suhbat.html.

ABDULLA QAHHOR "MAYIZ YEMAGAN XOTIN"NING SIRLARI

G'ulomova Zoxira Davlatjon qizi,
ToshDO'TAU O'FF 2-kurs talabasi
hidoyatasri2303@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasi tahlil qilinadi. Hikoyadagi ba'zi so'zlarning tavsifi va asar syujeti tahlil qilinadi. Abdulla Qahhorning xalq tilining qudratidan mahorat bilan*

foydalanganligi haqida so‘z yuritiladi. Asar qahramonlarining ruhiy dunyosi ochib beriladi.

***Kalit so‘zlar**: Obraz, farishta, jamiyat, paranji, xarakter, triada.*

***Abstract.** This article analyzed the story of Abdulla Qahhor “Mayiz yemagan xotin”. The description of some words in the story and the plot of the work were analyzed. It is said that Abdulla Kahhor skillfully used the power of the national language. The spiritual world of the heroes of the play was revealed.*

***Keywords**: picture, an angel, society, burqa, character, triada.*

Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasi o‘tgan asr 20-30-yillari o‘zbek xalqi ijtimoiy hayoti ma’naviy muammolarini yoritishi bilan o‘ziga xosdir. Hikoyadagi Mulla Norqo‘zi kabi obrazlarni boshqa asarlarda ham uchratishimiz mumkin. Bunday obrazlar Abdurauf Fitratda “Qiyshiq Eshon” va Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Arslon” dramasida ham mavjud.

Hikoyaning bosh qahramoni – Mulla Norqo‘zi. Jamiyatdagi ayrim insonlar hayoti Mulla Norqo‘zi orqali ochib beriladi. Hikoya Mulla Norqo‘zining bir o‘spirin yigit bir qizga mayiz berishi haqidagi g‘iybatomuz voqeani Mulla Norqo‘zi tilidan bayon qilinishi bilan boshlanadi. Va hikoya oxirida ham Mulla Noqo‘zining mayiz olgan qizga nisbatan *“Usta Mavlonning o‘g‘lidan bir hovuch mayiz olganingni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman”* kabi jumlasi bilan yakunlanadi. Demak hikoya tuzilishi jihatidan ushbu jumla ichida bo‘lib o‘tgan voqealarni aks ettiradi.

Mulla Noqo‘zi har kuni bozordan qaytib, samovarga chiqib o‘zini ko‘ngli tortgan odamlarni atrofiga to‘playdi. U paranjisini ochgan xotin-qizlar sha’niga erta-yu kech bo‘hton to‘qiydi. Mulla Norqo‘zi o‘zini har doim haq deb biladigan xudbin kishi. Atrofidagi odamlar uchun Mulla Norqo‘zi juda e’tiqodli, iymonli bo‘lib ko‘rinadi. Bilishimiz mumkinki, Mulla Norqo‘zining xarakteri bilan jamiyat o‘rtasida nomutanosiblik bor. Uning xarakteri bilan jamiyat odamlari xarakteri qovushmaydi. Orada qandaydir bo‘shliq sezilib turadi.

Mulla Norqo‘zi uchun paranji yopingan, faqat uyda o‘tiradigan ayol pokiza ayol hisoblanadi. U yaxshi ish qiladimi yoki boshqa, Mulla Norqo‘zi uchun buning

ahamiyati yo‘q. Ayollarning jamiyatga qo‘shilishi, ularning savodli bo‘lib, ilm o‘rganishi, erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishi Mulla Norqo‘zi uchun muhim emas. U bunday ishlarni qoralaydi. Jamiyatga aralashgan ayol Mulla Norqo‘zi nazdida eng yomon ayol. U ayollarni jamiyatga aralashishini qoralaydi. Ijtimoiy faol ayollar haqida esa quyidagi g‘iybatlarni to‘qib chiqaradi.

Dorixonada ishlaydigan Sotiboldining xotini haqida: *“Dorixonada ishlaydi, har kuni mingta odam bilan javob-muomala qiladi; axir, bittasi bo‘lmasa bittasi ko‘z qisadi-da”.*

Avtobusda konduktor Meliqo‘zining xotini haqida: *“Ba’zan yarim kechada keladi; ishi erta tugagan kuni ham yarim kechagacha yursa, ayshini qilsa eri bilib o‘tiriptimi?*

Artist Izzatillaning singlisi haqida: *“Izzatillaning singlisi bo‘lsa artist – xaloyiqqa qarab muqom qiladi”.*

Hatto talaba qizni ham ilm olayotganidan Mulla Norqo‘zi yomonlik qidiradi: “Norbo‘taning qizi doktorlikka o‘qiydi, mingta oshnasi bor desang-chi! Erkaklarning ichida yurgandan keyin nima bo‘lar edi!”

Mulla Norqo‘zi hikoyani boshidan to oxiriga qadar jamiyatga qo‘shilgan, paranji yopinmagan ayollarni qoralash bilan ovora bo‘ladi. Bu ayollar oldida Mulla Norqo‘ziga o‘zining xotini “farishta” bo‘lib ko‘rinadi. Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz kerakki hikoyada “farishta” so‘zi besh marotaba qo‘llaniladi. Shu o‘rinda bu so‘zning kelish o‘rinlarini izohlab o‘tamiz.

Mulla Norqo‘zining xotiniga nisbatan bir marta “farishta” so‘zi ishlatiladi. Uyda “yetti qavat parda” ichida o‘tiradigan o‘z xotini mulla Norqo‘ziga farishta bo‘lib ko‘rinadi. Namoz o‘qiydi, to‘pig‘idan yuqorisini avrat hisoblab, jiyakli ishton kiyadi. Tashqaridan qaraganda hikoya davomida Mulla Norqo‘zining xotinidan pokiza, iymonli ayol yo‘qdek ko‘rinadi. Uning harakatlari o‘quvchini umuman yomon ishga qo‘l urmaydigan ayol qilib ko‘rsatadi. Hatto Mulla Norqo‘zining sartarosh o‘rtog‘idan zo‘rg‘a olgan “Makkai Mukarramadagi hojilarni ko‘zini o‘yib qo‘ygani, kishining aftiga qarab turganga o‘xshaydi deb, suratdagi erkaklardan ham hayo qilishi” e’tiborimizni yanada tortadi. Lekin hikoya

so‘ngida bu ishni hayo qilib emas, balki gunoh ishlarini hatto suratdagilardan ham yashirish uchun qilganini ko‘rishimiz mumkin. Hikoya davomida bu “farishta”ning o‘taketgan buzuq ayol ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Mulla Norqo‘zining xotinini dugonasiga nisbatan ikki marta “farishta” so‘zi ishlatiladi. Bu xotin to‘g‘risida mulla Norqo‘zi shunday fikrda: “*agar farishta ilgari o‘tgan bo‘lsa – shuning onasi, endi tug‘ilsa – shuning bolasi bo‘ladi, agar hozir yer yuzida bo‘lsa – shu xotinning o‘zi”*. Zaifona kiyingan bu “farishta”ni hikoyani oxiriga qadar Mulla Norqo‘zining xotinini dugonasi deb tanib boramiz. Lekin paranji yopingan ikkinchi “farishta” Mulla Norqo‘zining xotinining o‘ynashi bo‘lib chiqishi hikoya oxiriga qadar xayolimizning bir burchagiga ham kelmaydi. O‘ynash yigiti paranji yopinib kirib, birga tunar ekan-u, mulla Norqo‘zi erkaklarga hatto ovozini ham eshittirmaydigan bu ikki “farishta”ni behayolardan qo‘riqlab, ayvonda poyloqchilik qilib o‘tirar ekan. Yana bir marta Mulla Norqo‘zining xotinini dugonasiga nisbatan “farishta” so‘zi muallif tomonidan aytilganini kuzatishimiz mumkin. *“Mulla Norqo‘zi safarga ketadigan bo‘lib qoldi; ketishidan bir kun ilgari xotiniga aytib o‘sha farishtani oldirdi va o‘rta eshik oldiga borib qiyomatlik singlisidan iltimos qildi”*.

Keyingi o‘rinda “farishta” so‘zini muallif Mulla Norqo‘zining xotini va uning dugonasiga nisbatan ishlatadi. *“Norqo‘zining g‘ashi keldi va shunday beibo xotinning ichkariga farishtalar oldiga kirishini xohlamadi.”* “farishta ayni vaqtda uyat, or-nomus hisoblansa, ularning oldiga uyatsiz insonning kirishi sharmandalik, jahl chiqishining sababchisi” deb qarashimiz mumkin.

Hikoyada “farishta” so‘zi beshinchi marta begona ayolga nisbatan ishlatilganini kuzatamiz. *“Ikki kishi – ayollar kirib, u farishtani uydan olib chiqishdi”*. Bu farishta ayol erini Mulla Norqo‘zining uyida gunoh ustida ushlab oladi. Erini Mulla Norqo‘zining uyidan topib olgan xotin “Voydod, xaloyiq, bu qanday erkakki, xotinini birovga qo‘shib qo‘yib, o‘zi eshik poylab yotadi!” deb dod solganida, bu ayolning alamini, g‘azabini, yonishini sezamiz. Ayol dod solib Mulla Norqo‘zini qo‘shmachilikda ayblaydi. Lekin Mulla Norqo‘zi qo‘shmachi

emas, u xotinini farishta deb o‘ylab aldangan edi. Ammo u endi buni odamlarga isbotlab bera olmaydi.

“– O‘u, o‘l turqing qursin! Boshingga solaymi shu bilan! Mahallada sasib, o‘quvchi qizlarga kun bermaysan-u, o‘zing noto‘g‘ri ish qilasan!

Mulla Norqo‘zi ortiq chiday olmadi. Devor ortidan qizga qarab o‘shqirdi:

– Sen gapirma! Senga kim qo‘yipti gapirishni! Usta Mavlonning o‘g‘lidan bir hovuch mayiz olganingni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman!

Hamma kulib yubordi. Tomdan kimdir qichqirdi:

– Ha bu kishining xotini mayiz yemagan.”

“Xalq tilining qudratidan, boyliklaridan mahorat bilan foydalangan yozuvchi mo‘jiza yaratishi mumkinligi bu misolda yaqqol ko‘rinib turibdi. Mulla Norqo‘zining uyiga kirib dod solgan xotin ham, keksa chol ham, o‘quvchi qiz ham, mulla Norqo‘zining o‘zi ham shu yerda faqat bir og‘izdan gapiradilar. Lekin shu qisqa gaplarda ularning ruhiy holatlari, har birining o‘ziga xos tili va dili, saviyasi va pozitsiyasi, yoshi va jinsi yaqqol ko‘rinib turadi” (To‘ramurodova, 2021).

Triada (yunoncha: *triados – uchlik*) – borlik va tafakkur taraqqiyotining 3 bosqichliligini bildiruvchi tushuncha. Bu metod ostida ko‘plab asarlarni tahlil qilishimiz mumkin. Uch sehrli raqam hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodidagi uch yo‘l:

1. Borsa kelmas;
2. Borsa xatar;
3. Borsa qaytar.

Dante ham “Ilohiy komediya” asarini uchlik asosida yozgan.

1. Do‘zax;
2. Jannat;
3. A’rof.

Va bu qatorni juda ko‘p davom ettirishimiz mumkin. Adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov ta’kidlaganidek, “*har qanday asarning xronotop shaklida oshiq, ma’shuqa va raqib obrazlari mavjud hamda bu obrazlar Odam (a.s.), Momo Havo, Iblis uchligini yodga solidi”.* Biz ham hikoyamizni shu metod ostida tahlil qilib ko‘ramiz. A. Qahhorning “Mayiz yemagan xotin”

1. Mayiz yegan o‘quvchi qiz;

2. Mulla Norqo‘zi;

3. Mulla Norqo‘zining xotini va uning dugonasi.

Obrazlarning har birlarida o‘z tarafdorlari mavjud. Ya’ni mayiz yegan qiz – uning tarafdorlari jamiyat, jamiyatdagilar uni qoralamaydi. Ikkinchi Mulla Norqo‘zi – uning tarafdorlari samovarga chiqqandagi o‘zi ko‘ngli tortgan va atrofiga to‘plagan odamlar. Uchinchi Mulla Norqo‘zining xotini va uning dugonasi – ularning tarafdorlari o‘zlari edi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Abdulla Qahhorning bu hikoyasida xotin-qizlarning tengligi, ozodligi yorqin tarzda ochib beriladi. Lekin bunga tish-tirnog‘i bilan qarshi bo‘lgan Mulla Norqo‘zi obrazini ahvolini hikoya so‘ngida ko‘rishimiz mumkin. Xalqimizda “Avval o‘zingga boq, so‘ng nog‘ora qoq” degan maqol aynan shunday insonlar uchun mos ekanligini yana bir bor anglab yetamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobirjonova, M. (2022). *Abdulla Qahhor asarlarida uyat konsepti (Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasi asosida)* INTERNATIONAL SCIENTIFIK JOURNAL.

2. To‘ramurodova, Sh. (2021). *Hassos adib qiyofasidagi chizgilar* “Xalq so‘zi” gazetasi.

O‘ZBEK QISSACHILIGIDA RETROSPEKSIYA USULINING QO‘LLANILISHIDA IJODKOR USLUBI MASALASI

Shirinova Sitora Xayrullo qizi,
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti
sitorashirinova95952020@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek qissachiligida retrospeksiya usulining qo‘llanilishida ijodkor uslubi masalasi xususida so‘z boradi. Maqolada ijodkor uslubining badiiy asarda aks etish ko‘lami va mohiyatini yoritib berish, shu bilan birgalikda retrospektiv syujetning XX asr o‘zbek qissachiligida foydalanishdagi ahamiyati tadqiq ostiga olindi. Bunda o‘zbek adabiyotida ijodkor uslubi jihatidan o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yozuvchi Murod Muhammad Do‘stning “Galatepaga qaytish” qissasi misolida retrospektiv syujetning qissachilikdagi qamrovi va*

ahamiyatli jihatlari, shuningdek, bugungi kunda uslublarni tadqiq qilishdagi muammolarni ochib berish tahlil ostiga olingan.

Kalit so‘zlar: *ijodkor uslubi, syujet, bosh qahramon, qissachilik, o‘tmish.*

Absract. *This article will talk about the question of the style of the creator in the application of the retrospection method in uzbek narrative. The article highlights the scale and essence of the artist's style in the work of art, while the importance of the retrospective plot in its use in Uzbek narrative of the 20th century was under study. In this, on the example of the story "Return to Galatepa" by the Murad Muhammad Dost, who has a place in Uzbek literature in terms of creative style, the coverage and significant aspects of the retrospective plot in the narrative, as well as the disclosure of problems in the research of styles today, are under the analysis.*

Keywords: *creative style, plot, main character, narrative, past.*

Bugungi adabiyot insonning taqdiri, kechmishi, ichki olami hech bir qolipga sig‘maydigan hodisa ekanini, har bir odam o‘ziga xos murakkab dunyo ekanini tushunishda va ko‘rsatishda tobora ilgarilab bormoqda. Unda borliq, tabiat, ona zamin muammolarini, mavjud turmush hodisalarini, inson qalbini badiiy idrok qilish, tadqiq etish tendensiyasi teranlashib bormoqda. Xususan, o‘tgan asrning 70-80-yillar o‘zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarida inson tasvirida shunday salmoqli natijalarga erishildiki, adabiyot insonshunoslik sifatida borgan sari o‘z mohiyatiga tobora yaqinlashib borganligini kuzatishimiz mumkin. Adabiyotning inson qalbini teran yoritish jihatidan avvalo, ijodkorning uslub masalasi nihoyatda teran bo‘lishi lozimligini unutmasligimiz kerak. Sababi har bir ijodkor xoh u shoir, xoh yozuvchi bo‘lsin, avvalo, o‘z uslub yo‘lini yaratadi va kitobxon ommasi e’tiboriga havola etgan har bir asaridan uning uslubiy an’anasi ufurib turadi. V. G. Belinskiyning *"Yozuvchining mazmun bilan shaklga quyma bir holat bag‘ishlay olish qobiliyatini va shu bilan birga hamma-hamma narsaga o‘z shaxsi, o‘z* ruhini takrorlanmas, original muhrini tushirib o‘ta olish xususiyatini", – uslub deb belgilashi g‘oyat to‘g‘ri ta’rifdir. Adabiyotda uslub faqat "o‘zlik" bilan cheklanmaydi. U faqat individual belgilarning yig‘indisi emas. Unda, albatta,

“o‘zlik”ni vujudga keltirgan, o‘stirgan ijtimoiy muhitning ta’siri ham bo‘ladi, unda “shaxsiylik va umumiylik juda murakkab dialektik birlikda bo‘lib, o‘zaro shartlangan, bir-birini ifodalaydigan” (M.: 164, 234-bet) tarzda voqe bo‘ladi. Shunga asosan, romantik tasvir uslubi, milliy uslub, adabiyot uslubi, tasviriy san’at uslubi degan sohalarning mavjudligini ham tan oladi. Uslubni yuzaga keltiruvchi eng zarur omillardan biri – san’atkorning hayotni, hayotning mohiyatini, uning qa’ridagi haqiqatni tadqiq va tahlil qila bilishi bilan bog‘liqdir. Inson ruhiyatining boy va yashirin sirlarini, ularning tub estetik qimmatini kashf etish san’ati – ruhiyat bilimdonligi bilan bevosita aloqadordir.

“Uslub – g‘oyaviy-estetik xususiyatlar umumlashmasi bo‘lib, ijodkorning tasvir usuli demakdir. Adabiyotshunoslikda metod – ijodkor asarlarida namoyon bo‘lgan xususiyatlarning umumiy ko‘rinishi bo‘lsa, uslub - ijodkor asarlarida ko‘ringan uning individualligi, o‘ziga xosligidir. Ijodkorlar asarlarining o‘ziga xos bo‘lishi, avvalo, borliqning betakror yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, shoir, yozuvchi, dramaturgning hayotiy tajribasi, turmushni kuzatish, bilim darajasi, didi, saviyasi, dunyoqarashiga asoslanadi” (Umurov, 2014, 37-bet). Hayot yozuvchini boyitganidek, tajribasini oshirganidek uning uslubini ham tobora sayqallashiga sabab bo‘ladi. Borliqda bir-biriga o‘xshash biron-bir hodisa mavjuda bo‘lmaganidek, odamlar qiyofasi, fe’l-atvori, qiziqishlari, xatti-harakatiga ko‘ra ham bir-biridan farq qiladi. Har bir odam o‘ziga xos olam bo‘lgani singari ijodkorlar ham betakror dunyodir. Ana shu betakror dunyo esa mavzu tanlashda, hodisalarga yondashishda namoyon bo‘ladi. Uslub – ijodkor dunyosidir, uning xayoloti, tasavvuri, aqli, bilimi, so‘zshunosligi, talanti, geniysi, insoniyligi – butun borlig‘ini namoyon etuvchi badiiy hodisa, vositasidir. U ijodkor xayolotining namoyon bo‘lish tarzi ham sanaladi. Demak, ijodkorning o‘ziga xos uslubi uning hayot hodisalarini tanlashi, uni xayolidagi olam bilan uyg‘unlashtirib, badiiy til vositasida aks ettirishi hamdir. Hayot voqeligi hududsizdir. Har bir ijodkorning nigohi uning ma’lum bir jihatlarinigina qamrab oladi. Bu hodisaning o‘zi har bir shoir, yozuvchi uchun turli xil tasavvur uyg‘otishi, ularda har xil taassurot hosil qilishi mumkin. Ana shu taassurot va tasavvur ijodiy uslub namoyon bo‘lishiga

zamin yaratadi. Ijodkorning xayol-tasavvuri qanchalik teran bo‘lsa, u hayot hodisalarining mohiyatini shu qadar chuqur yoritib beradi. Qahramonlar ruhiyati, kechinmalari maromini ta’sirchan ko‘rsata olish ham ijodkor uslubiga bog‘liq. Masalan, Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida bunday o‘rinlar bor: *“Gavharshod begim Sohibqiron Amir Temur xonadoniga kelin bo‘lib tushgandan beri o‘n yillar davomida betashvish va bexavotir o‘tgan kunlari juda kam bo‘lgan. Mudom tog‘lar atrofida o‘ralashgan bulutlarning shamol-bo‘ronlarini eslatuvchi urush-yurishlar, ichki-tashqi nizolarning girdobini ko‘rgan. To‘g‘ri, begimning toleyiga Shohrux Mirzo faqat qilich chopadigan bahodir yigit emas, balki madrasa ko‘rgan, kitobni sevadigan, oilasiga astoydil mehr qo‘ygan fozil inson bo‘lib yetishdi”*. Boshqa bir adib esa Gavharshodbegimning bu kechinmalarini yana o‘zgacha tarzda ifodalashi mumkin. “*Ijodkor uslubining shakllanishiga tashqi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, har bir yozuvchi shoir boshqa ijodkorlarning asarlari bilan tanishish jarayonida ulardan nimanidir o‘rganib, ijodiy o‘zlashtiradi. Bu esa uning hayot hodisalarini aks ettirish, inson obrazini gavdalantirishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi”* (Ulug‘ov, 2017, 293-bet) *“San’atkor voqelikdan tanlab olgan unsurlarni badiiy til yordamida xayoloti bilan uyg‘unlashtiruvchi va u yaratgan dunyoning tugal bo‘lishini ta’minlovchi vosita – uslub deb ataladi”* deydi Nobel mukofoti sovrindori, fransuz adibi Alber Kamyu. O‘zbek adabiyotida o‘z uslubi bilan doimo ajralib turuvchi, o‘z kitobxoniga ega bo‘lgan muallif-ijodkorlar talaygina, albatta. Bularga Abdulla Qahhor, Oybek, Maqsud Shayxzoda, bundan tashqari bugungi kunda ham o‘z uslubi bilan ajralib turuvchi Murod Muhammad Do‘st, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam, Xayriddin Sulton kabi yozuvchi va ijodkorlarning ijodiy uslubini yuqoridagi talablarga javob beruvchi uslub deb e’tirof etsak, adashmagan bo‘lamiz.

Xususan, ushbu maqolamizda o‘zbek qissachiligida retrospeksiya usulining qo‘llanilishida ijodkor uslubi masalasining nechog‘li ahamiyat kasb etishi xususida so‘z yuritamiz. Avvalo, bunda qissa janrining mohiyatini yoritishni lozim topdik. Qissa bosh qahramoni taqdiri vositasida hayotning u yoki bu qirralarini o‘rta epik shaklda rivoyaviy usul bilan aks ettiruvchi asardir. Qissa o‘rta epik shakl sifatida

qahramonning hayotida yuz bergan bir qancha voqealarni tasvirlash bilan hikoyadan birmuncha farqlanadi. Hikoyadan hajmi katta bo‘lganligi sababli unda bir emas, bir necha personajlar faol ishtirok etadi. Personajlarning o‘zaro munosabati esa keng tasvirda beriladi. Romanga nisbatan qissa syujetining masshtabi torroq va qurilishi oddiyroq bo‘ladi, syujetning, ko‘pincha xronikal xarakterda bo‘lishi va hikoyada muallif ovozining eshitilib turishi – qissaning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ma’lumki, badiiy asarlarda ko‘pincha voqealarning hayotda yuz berish tartibi o‘zgaradi. Albatta, bunda yozuvchi o‘z uslubidan kelib chiqqan holda muayyan badiiy-estetik maqsadni ko‘zlaydi. “*Masalan, A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi voqealarning hayotda yuz berish tartibi nuqtai nazaridan Otabek bilan Kumushning tasodifiy uchrashuvi romanning boshlanishida berilishi lozim edi. Biroq Abdulla Qodiriy bu tartibni o‘zgartirib, uni birinchi bo‘lim oxirida, to‘y tasviridan keyin beradi va bu orqali yozuvchi kelajak voqealarini so‘zlashdan chekinib, e’tiborini o‘tmish voqealarini tasvirlashga va kelib chiqqan natijani xulosalashga harakat qiladi*” (Boboyev, 2002, 71-bet). “O‘tkan kunlar” romani asosida berilgan shu birgina usul esa retrospeksiya deb atalib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda yozuvchi syujet voqealarini to‘xtatib o‘tmishga, ilgari bo‘lib o‘tgan voqealar tasviriga e’tibor qaratadi, ba’zi asarlarning syujet qurilishida esa retrospeksiya usuli yetakchi mavqe egallab, ularda asarning badiiy vaqti bilan o‘tmish vaqti navbatma-navbat berib boriladi. Shu o‘rinda o‘zbek qissachiligida A. Qahhorning “Muhabbat”, Chingiz Aytmatovning “Alvido, ey Gulsari”, Shoyim Bo‘tayevning “Shohona sovg‘a”, M. M. Do‘stning “Galatepaga qaytish”, X. Sultonovning “Ajoyib kunlarning birida”, E. A’zamning “Bayramdan boshqa kunlar” qissalarida retrospektiv syujet qurilishiga duch kelamiz. Bundan ko‘rinadiki, syujet qurilishida badiiy vaqtni turli yo‘sinlarda berish usuli ijodkor uslubi uchun ancha keng imkoniyatlar yaratar ekan.Bu masalani yanada oydinlashtirish uchun M. M. Do‘stning “Galatepaga qaytish” qissasida ijodkor uslubining ahamiyati xususida so‘z yuritamiz.

Yozuvchi M. M. Do‘st asarlarining qahramonlari o‘zi uchun qadrdon maskan, qoni to‘kilgan yurt – Samarqand viloyatiga qarashli Jom qishlog‘ining odamlari. Bu yurtni yozuvchi o‘z asarlarida “Galatepa” degan chiroyli nom bilan ataydi. Bundan ko‘rinadiki, yozuvchi uslubining har qatrasida uning o‘z maskanida orttirgan xayolot tasviri, dunyoqarashi, kechmishi, saviyasi yotadi. Yozuvchi “Galatepaga qaytish” qissasi bosh qahramoni Toshpo‘lat G‘aybarov obrazi orqali jamiyatning ma’naviy hayotida yuz berayotgan inqirozni tasvirladi. Qissa bosh qahramonining urf-udumlarga, atrofidagi odamlarga bo‘lgan munosabati zamirida o‘zini, o‘zligini izlayotgan – chorrahadagi shaxs qiyofasi yotadi. Bir-biriga zid dunyoqarash oralig‘ida turgan qahramon obrazi o‘sha davr ziyoli insonining murakkab qiyofasini yaqqol namoyon etadi. Ushbu qissa orqali M. M. Do‘st sobiq sho‘ro siyosati u yetkazgan ziyon tasvirida sobiq tuzumning illatlarini fosh etdi. Chunki yozuvchi o‘zi ham xuddi shu tuzum davrida tug‘ildi va to mustaqillikka erishgunimizgacha bo‘lgan yurtimiz taqdirini o‘z idroki bilan kuzatgan. Bu tajriba esa uning “Galatepaga qaytish” qissasining syujet qurilishiga hayotiy poydevor bo‘lib xizmat qilgan. Asar 1983-yilda yozilgan. Qissa aza hodisasi bilan boshlanadi. Raim oqsoqolning vafoti va otasining azasiga arang ulgurgan farzand Toshpo‘lat G‘aybarov tasviri bilan boshlanib, shu orqaliq adib qishloq aholisining portretini, jamiyat turmush tarzini yorita boradi. Qissani o‘qish barobarida inson umri – yashash, o‘lish, boqiylikka rihlat qilish tushunchasi turli rivoyatlar, afsonalar bilan qayta yodga olinadi. Qissa bosh qahramoni G‘aybarov bolaligida sho‘x, to‘pori, sodda, otasi qamoqxonadaligida bilib-bilmay onasini ko‘chada o‘tgan-ketganga erga bermoqchi bo‘lgan g‘o‘r bola bo‘lgan bo‘lsa, asarning bugunida u islomshunos, o‘z otasining azasida ko‘zidan bir tomchi yoshi oqmagan, bir necha yillardan buyon shaharda yashab qishlog‘iga qaytgan inson. Uning hayoti, o‘tmishidan hikoyadir bu asar. Qissada o‘tmish va bugun shunday mohirlik bilan tasvirlanadiki, unda o‘gay ukasining boshiga igna sanchib o‘ldirgan opa, o‘tmishida fashistlarga asir tushib ularga mullalik qilgan va hozir o‘z yerida davralarning to‘rida o‘tirgan mulla Chori, yoshligida eri Raim oqsoqoldan ajrashib bugun ta’ziyada “voy to‘ram”lab faryod qilgan Anzirat buvi, aqli noqis Murod

amaki, tillaga o‘ch Oyparcha va amalparast Haykal G‘aniyevich obrazlari orqali yozuvchi o‘tmish xotiralarini birma-bir qalamga oladi va barcha voqea-hodisalarni Toshpo‘lat G‘aybarov obrazi atrofida tizma kabi teradi. Asarda Galatepa qishlog‘i – orzu va maqsad ramzidir. U qahramonimizga o‘tmishida bo‘lgan voqealardan o‘zini, o‘zligini topishga yordam beradi. G‘aybarov Galatepaga, o‘z dunyosiga, o‘z “Men” iga qaytadi. “Tirik ekaningni his qilish qanday huzurbaxsh” deya tan oladi asar so‘ngida qahramonimiz. Murod Muhammad Do‘st ushbu qissada “*odam tuproqdan bino bo‘lgan va yana oxir tuproqqa qaytadi”* deb inson o‘tmishi buguni bilan chambarchas bog‘liq ekanini, o‘tmishdan xulosa chiqara olmaydigan inson bugunidan saodat topa olmasligini xulosa qilib beradi kitobxonga. Yozuvchining *“Dashtu dalalarda”, “Bir toychoqning xuni”* kabi hikoyalari, *“Iste’fo”, “Mustafo”* kabi qissalari qahramonlari ham Galatepa qishlog‘ining qahramonlaridir. Adibning asarlariga bu qishloq nomini har gal keltirishidan maqsad albatta, qishlog‘ini mashhur qilish emas, balki, o‘sha qadrdon maskanda yuz bergan voqealarni namuna sifatida ko‘rsatib, o‘sha davrdagi millat hayoti, holati, ruhiyatida kechayotgan o‘zgarishlar, evrilishlarni, shaxsan o‘zini qiynayotgan o‘y-kechinmalarni ifoda etishga chog‘lanadi va bu ezgu niyatiga erishadi ham. XX asrning 80-90-yillarida o‘zbek qissachiligida iste’dodli yosh yozuvchilar kirib keldi. Ular realistik qissachiligimizni faqat son jihatdan emas, sifat jihatdan boyishini ham ta’minladilar. Va bunda ijodkorlarning o‘zbek xalqi hayotini muntazam kuzatishi, chet el adabiyoti durdona asarlari bilan tanisha borishi ulardagi ijodiy qobiliyatni oshirdi va ijodkor uslubining boyishini ta’minladi. Ularda matndagi ohangdorlik tasvir qirralaridan birini tashkil etib, yozuvchining ijodiy salohiyatini ham boyita bordi. Badiiy asarlarda real hayot tasvirlarining mujassamliligi uning kitobxon ommasi qalbiga tez kirib borishini ta’minladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki, har bir davrning o‘z adabiy yo‘nalishi, o‘z adabiy muammosi bo‘lganidek, o‘sha davr muammolarini qalamga oluvchi o‘z uslubiga ega yozuvchi, shoirlari ham albatta bo‘lgan va bundan keyin ham bo‘ladi. Umuman, uslub ijodkorning o‘ziga xosligini – uning xayol, tasavvur ko‘lami,

inson qalbini his qilish darajasi, hayot hodisalarini va kishilar aro munosabatlar murakkabligini tahlil qilish layoqati, so‘z boyligini namoyon etuvchi hodisadir. Va u o‘z o‘rnida ijod va ijodkor ruhini tozalab boradigan nur desak adashmagan bo‘lamiz. O‘zbek adabiyoti esa, bugungi tezkor zamon muhitiga moslashib, o‘z adabiy cho‘qqisining bir bosqichiga kirib borayotganini ham ta’kidlab o‘tishimiz lozim bo‘ladi bu o‘rinda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Ulug‘ov. (2017). Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Hotam Umurov. (2014). *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
3. Murod Muhammad Do‘st. (2022*). Galatepaga qaytish*. Toshkent: “Shosh Nashr” MCHJ bosmaxonasi.
4. To‘xta Boboyev. (2002). *Adabiyotshunoslik asoslari.* Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti.
5. *Художественый метод и творческая индивидуальность писателя*. (1964). Moskva.

MUNDARIJA

I BOB

TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

Abdurashidova Shohina, ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ASARIDA TARIXIY VA ARXAIK SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI	5
Abdug‘afforova Zuhra, ERKIN A’ZAMNING “OTOYINING TUG‘ILGAN YILI” ASARIDA IBORALAR TAHLILI	8
Ahmadova Gulchiroy, ZULFIYA IJODIDA BADIIY MATN QISMLARINI BOG‘LOVCHI VOSITALAR	16
Adashaliyeva Kamola, BADIIY ASARLARDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANISHI VA ULARNING TILSHUNOSLIKDAGI MOHIYATI	20
Allamuratova Jannat, ABDULLA ORIPOV IJODIDA INTERTEKSTUALLIK	24
Akbarova Dilso‘z, BADIIY MATNDA INTERTEKSTUALLIK	32
Axmedova Aynura, ZAMONAVIY O‘ZBEK TERMINOLOGIYASIDA LEKSIK-SEMANTIK HODISALAR	36
Bobodo‘stov Yusuf, YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINING OTLASHUVI	41
Jumayeva Iroda, BADIIY MATNNI BOG‘LOVCHI VOSITALAR (YO‘LDOSH ESHBEKNING “YIG‘LAYOTGAN QIZ“ SHE’RI MISOLIDA)	47
Jo‘rayeva Hilola, ABDUVALI QUTBIDDIN SHE’RLARIDA BADIIY MATN QISMLARINI BOG‘LOVCHI VOSITALARNING QO‘LLANILISHI	52
Mahmudova Guliruxsor, ILMIY USLUB VA ILMIY MATN TUSHUNCHALARINING NAZARIY VA AMALIY TAHLILI	58
Mirkomilova Nazokat Mirkhalilovna,DEVELOPMENT OF PHONOSTYLISTIC COMPETENCE FOR LEARNING IN ENGLISH LANGUAGE	66
Mirnosirova Dilbar, BOLALAR NUTQIDAGI INDIVIDUAL ASSOTSIATSIYALARNING LEKSIK TAHLILI	72
Nurimova Diyora, DISKURS TERMININING LINGVISTIK MOHIYATI, KO‘LAMI VA TALQINI	79
Oripova Mavluda, POETIK FIGURALARDA “ME’YORDAN ORTIQLIK” SEMANTIKASINING IFODALANISHI	83
Oripova Zaxro, AYOLLAR NUTQIGA XOS MUROJAAT SHAKLLARINING KOGNITIV ASOSLARI	94
Qurbonova Shaxnoza, ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDAGI O‘XSHATISHLARNING PRAGMATIK TAHLILI	99
Qurolova Ro‘zabonu, USMON AZIM SHE’RIYATIDA SINTAKTIK VOSITALARNING QO‘LLANISHI	105
Ro‘ziqulova Sevinch, BADIIY ASARLARDA YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINING O‘ZIGA XOS QO‘LLANILISHI (TOG‘AY MURODNING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” ASARI MISOLIDA)	112
Saparova Gulshoda, ODIL YOQUBOVNING “OQQUSHLAR, OPPOQ QUSHLAR” ASARIDA QO‘LLANGAN KITOBIY LEKSIKAGA OID SO‘ZLAR TAHLILI	117
Saylaubaeva Bibigul, BADIIY MATNLARDA “MEN” KISHILIK OLMOSHINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	122
Sotliqova Barchinoy, XORAZM DIALEKTLARIDA QO‘LLANILADIGAN LEKSEMALARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI	127
Tilovova Hilola, POLISEMIYA VA OMONIMLAR QIYOSI	134
Turg‘unboyeva Aziza, SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “QADIMDA BO‘LGAN EKAN“ HIKOYASINING LEKSIK–SEMANTIK XUSUSIYATLARIGA KO‘RA TAHLILI	138
Uzoqova Sitora, TURKIY TILLAR VA O‘ZBEK TILI SO‘Z TURKUMLARI TIZIMIDA RAVISHNING O‘RNI	144

Xojabaeva Dámetken, DÁSTANLAR TILINDE “HAYAL-QÍZLAR” KONCEPTINIŃ AŃLATÍLÍWÍ (“SHÀRIYAR” DÀSTANÌNÌŃ MÌSALÌNDA)	149
Сагатова Зарима, ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ЧЕЛОВЕКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИМИ ЕДИНИЦАМИ С КОМПОНЕНТОМ ЗООНИМОМ	153
Шариповой Зарнигор, НАЦИОНАЛЬНОЕ СВОЕОБРАЗИЕ РУССКОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА	160

II BOB
O‘ZBEK TILI TARIXI, TARJIMASHUNOSLIK VA LINGVOPOETIKA MASALALARI

Abdunazarova Jasmina, USMON AZIM SHE’RIYATIDA ANAFORA VA EPIFORANING LINGVOPOETIK XUSUSIYATI	165
Anvarjonova Shaxnozaxon, BADIIY ASARDA ESKIRGAN SO‘ZLARNING QO‘LLANISH O‘RNI VA AHAMIYATI (MIRKARIM OSIMNING “ZULMAT ICHRA NUR” ASARI MISOLIDA)	170
Axmadov Dostonbek, ALEKSANDR PUSHKINNING “KAPITAN QIZI” TARJIMASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR	178
Abduraimova Dildora, O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FE’LLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI TADQIQI	185
Jo‘raqobilova Madina, NORMUROD NORQOBILOV IJODIDAGI KO‘CHIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI (“OVUL ORALAGAN BO‘RI “ QISSASI MISOLIDA)	193
Kurbonova Guzal, FRAME ANALYSIS OF COGNITIVE METAPHOR IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY TEXT	197
Muxtorova Sevinch, YO‘LDOSH ESHBEKNING “YIG‘LAYOTGAN QIZ” SHE’RINING LINGVOPOETIK TAHLILI	210
Nematova Shaxnozabonu, O‘ZBEK, INGLIZ, RUS TILLARIDA “JINS” MA’NOSINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR	214
Nasriddinova Iroda, “CHOLIQUSHI” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING QIYOSIY TAHLILI	219
Temirova Sabina, USMON AZIMNING “BAXT HAQIDA BALLADA” SHE’RINING LINGVOPOETIK TAHLILI	228
Tursunova Nafisa, STYLISTIC FEATURES OF TOPONYMS IN LITERARY TEXT	232
Usanova Qademay, O‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARI. O‘RIN-PAYT KELISHIGI QIYOSI	237
Xaytaxmatova Dilnavoz, SHAVKAT RAHMON SHE’RIYATIDA KONTRAST VA ANTITEZA	241
Shonazarova Dilnoza, SINXRON TARJIMA JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN ASOSIY STRATEGIYALAR	246
Eshboyeva Shoira, “DEVONI LUG‘OTIT TURK” DAGI MALAKA HOLATI FE’LLARI	252
Habibullayeva Sunbula, “QISASI RABG‘UZIY” ASARIDA KELISHIKLAR KATEGORIYASI	256
Kenjayeva Dildora, “BOBURNOMA”DAGI UY HAYVONLARI NOMI TADQIQI	260
Odambayeva Umida, SON SO‘Z TURKUMI VA UNING TARIXIY ILDIZLARI	266
Risqulova Muslima, MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA ORONIMIYALARNING BERILISHI	273
Rahimova Nasiba, UNLI VA UNDOSHLAR TIZIMI, ULARGA XOS XUSUSIYATLAR	279
Rasulova Gulbahor, “BOBURNOMA” ASARIDAGI FITONIMLAR STRUKTURASI	285
Safoyeva Shodiya, “BOBURNOMA” ASARIDA TIBBIYOTGA OID SEMANTIK MAYDON	290

G‘ulomova Go‘zal, QADIMGI TURKIY TIL VA ESKI O‘ZBEK TILIDA KELISHIK KATEGORIYASI TARAQQIYOTI | 296

III BOB
QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, JAHON ADABIYOTI MUAMMOLARI VA BOLALAR ADABIYOTI

Bobonazarova Sunbula. HIKOYA TRAGIZMI	304
Bozorova Aziza, “QIROL LIR” VA “ABULFAYZXON” ASARLARIDA MASXARA VA XAYOL OBRAZLARINING BADIIY FUNKSIYASI	307
Fayzulloyeva Dilfuza, ToshDO‘TAU O‘FF 3-kurs FARHOD MUSAJON QISSALARIDA BOLA RUHIYATI IFODASI	311
Ibrohimova Nodira, URUSH KATEGORIYASINING FALSAFIY VA ADABIY TALQINLARI	315
Karimova Nafisa, XUDOYBERDI TO‘XTABIYEV NASRI VA IJODIY REJALARI TAHLILI	321
Qaxramonova Sabinabonu, HAMZA VA SHILLER IJODIDA MA’RIFAT MASALASI TALQINI (“ZAHARLI HAYOT YOXUD ISHQ QURBONLARI” VA “ MAKR VA MUHABBAT” ASARLARI MISOLIDA)	326
Rahimova Nasiba, XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA JADIDCHILIK HARAKATINING NAMOYANDALARI	330
Shamsiyeva Dilafruz, JEK LONDONNING SHIMOL HIKOYALARIDA QAHRAMONLAR XARAKTERI	336
Sheraliyeva Zarnigor, “ATIRGULNING TIKONI” HIKOYASIDA BADIIY SARLAVHANING POETIK VAZIFASI	342
To‘xtasinova Sayyoraxon, NAVOIY VA SHEKSPIR: IKKI DAHO — IKKI BEBAHO	347
To‘xtayeva Fotima, THAKUR IJODIDA INSON VA JAMIYAT MUNOSABATLARI TALQINI (“SHUBHA” HIKOYASI MISOLIDA)	352
Tursunaliyeva Shodiya, FITRAT HIKOYALARIGA BIR NAZAR	356
Umarova Maftuna, GYOTENING ADABIY-ESTETIK QARASHLARI	360
Xayitova Shahlo, GYOTE HIKMATLARI	365
Yo‘ldoshaliyeva Gulshanoy, G‘OYAT BAXTIYOR VA G‘OYAT QASHSHOQ	371
Yusupova Ferangiz, HANS KRISTIAN ANDERSEN ERTAKLARIDA SAFAR MOTIVINING BADIIY TALQINLARI	375
Yusupova Malika, FRANS KAFKA: YOLG‘IZLIK, QO‘RQUV, ADABIYOT	380
Ziyoratova Nigora, “QIRQ KAL” ERTAGI SEMANTIKASI	389
Меденова Айдана, «ҚОРҒАНСЫЗДЫҢ КҮНІ» ПОВЕСІНДЕГІ ҚОРҒАНСЫЗДАР ТАҒДЫРЫ	398

IV BOB
O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI VA MA’RIFATPARLIK DAVRI ADABIYOTI MUAMMOLARI

Abdullayeva Rufina, GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARIDAGI MAQOLLARNING QO‘LLANILISHI	407
Akbarova Muhabbat, MUHAYYIR RUBOIYLARIDA QOFIYA VA RADIFNING O‘RNI	411
Allanazarova Kamola, “LUBOBU-L-ALBOB” TAZKIRASIDA MUHAMMAD AVFIY ADABIY QARASHLARINING AKS ETISHI	416
Asadullayeva Munira, SAYFI SAROYI TATABBU’LARI POETIKASI	422

Hazratqulova Shohsanam, SAYFI SAROYINING “GULISTON-BIT TURKIY” ASARI TARKIBIDAGI RUBOIYLAR POETIKASI	428
Jovliyev Azamat, TURKISTONDAGI IJTIMOIY-MADANIY AHVOLGA BIR NAZAR: FITRATNING NASRIY ASARLARI MISOLIDA	436
Latipov Abdulatif, “QISASI RABG‘UZIY” ASARIDA KELTIRILGAN JANRLAR TADQIQI	441
Madaminova Mehrinozbegim, “BOBURNOMA” ASARINI O‘RGANISH ORQALI YOSHLAR QALBIGA QOMUSIY BILIMLARNING SINGDIRILISHI	446
Mardonova Maftuna, “BOBURNOMA”DAGI BA’ZI RUBOIYLAR TAHLILI	452
Mavlonova Aqida, ZAVQIY HAJVLARINING USLUBI	456
Miradxamova Munisa, HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY DRAMALARIDA RAMZLAR TAHLILI	465
Odilova Dilobar, “QUTADG‘U BILIG” BADIIYATI AKS ETGAN TADQIQOTLAR	467
Qayumova Feruza, BOBURNING LIRIKASIDA PEYZAJ VA SHE’RIY SAN’ATLAR	473
Safarov Xoliyor, JADID HIKOYACHILIGIDA MOTIVLAR VOSITASIDA G‘OYAVIY MAQSADGA ERISHISH	477
Shadiyeva Dilafruz, RAVNAQ HAYOTI VA IJODINING O‘RGANILISHI	483
Suyarova Pokiza, LUTFIY G‘AZALLARIDA RANG VA TASVIR	492
Tursunaliyeva Shodiya, FITRAT HIKOYALARIGA BIR NAZAR	498
Usmonova Maftuna, “SABOT UL-OJIZIN’’DAGI BA’ZI HIKOYALAR TAHLILI	503
Xodjiyeva Sevinch, JADIDLAR FAOLIYATIDA ILM-MA’RIFATLI YOSHLAR MASALASI	507
Yahyoyeva Dildora, ELBEK IJODINING O‘RGANILISHI	513
Yunusova Sayyoraxon, AHMAD TABIBIY G‘AZALLARIDA OSHIQ VA MA’SHUQA OBRAZLARI	519
Yusupova Dinora, “BOBURNOMA”DA HAQQONIYLIK VA BADIIY TALQIN	523

V BOB
NAVOIYSHUNOSLIK VA ARUZSHUNOSLIK MASALALARI

Abdujalilova Latofat, ALISHER NAVOIYNING KICHIK LIRIK JANRLARDAGI BADIIY MAHORATI	532
Abdurahmonova Mubinabonu, ANVAR HOJIAHMEDOVNING “ARUZ NAZARIYASI ASOSLARI’’ ASARI TAHLILI	540
Alimardonova Muxsinabonu, ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA SARIQ RANGNING MA’NO TALQINLARI	547
Ergasheva Kamola, BAYRAMXON G‘AZALLARIDA HAZAJ BAHRI VAZNLARINING O‘RNI	551
Hakimjonopva Dilrabo, SENI TOPMOQ BASE MUSHKILDURUR (BIR BAYT TAHLILI)	555
Karimov Islombek, “MAHBUB UL-QULUB”NING FILOLOGIYADA O‘RGANILISHI	560
Muftullayeva Gavhar, “NASOYIM UL-MUHABBAT”DA XOJA MUHAMMAD PORSOGA BAG‘ISHLANGAN FASL TALQINI	570
Mustafoyev Javlon, ALISHER NAVOIYNING TA’LIMIY-AXLOQIY QARASHLARI	574
Nizomova Ismigul, NAVOIY “XAMSA”SIDA ME’ROJ KECHASINING BADIIY TALQINLARI	579
Omonova Gulbahor, XAMSACHILIK AN’ANASIDA FARHOD OBRAZINING BOSH QAHRAMON DARAJASIDA TASVIRLANISHI	585
Raxmatova Karima, MUSTAZOD JANRINING VAZN XUSUSIYATLARI	592

Saidova Mohinur, ALISHER NAVOIYNING “TOPMADIM” RADIFLI G‘AZALIGA RO‘ZIMUROD MAHMUD MUXAMMASI	597
Yaxyoyev Fayzullo, XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA NAVOIY “XAMSA”SI TALQINLARI TADQIQI	602

VI BOB
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI VA AMALIY FILOLOGIYA MUAMMOLARI

Abdusattorova Xadicha, BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MA’NODOSH SO‘ZLAR USTIDA ISHLASHGA DOIR MASHQLAR XUSUSIDA	611
Anvarova Zilola, O‘QUVCHILARNI O‘QUV ADABIYOTLARI USTIDA MUSTAQIL ISHLASHGA O‘RGATISH USULLARI	616
Barakayeva Sabrina, MAHALLIY TILLARNING DAVLAT TILLARI TARAQQIYOTIGA TA’SIRI	623
Baratova Marjona, O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY TILLAR TA’LIMI	627
Bobonazarova Sevara, BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA BADIIY MATNNING TIL XUSUSIYATLARI USTIDA ISHLASH	632
Fazilat Eshboyeva, “ZARBULMASAL” ASARINING UZLUKSIZ TA’LIMDA O‘RGANILISHI”	637
Keldiyorova Zarinabonu, FIKRNI OG‘ZAKI IFODALASHDA NOVERBAL IFODALARNING AHAMIYATI	645
Madaminova Nargizaxon, ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQINI O‘STIRISH	648
Mirzoitova Fazilat, QODIRIY ASARLARIDA AYOLLAR OBRAZI	652
Muhiddinova Zarina, 6-SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH	656
Muxiddinova Kumushxon, LUG‘AT DIKTANTLAR ORQALI O‘QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH	551
Nurullayev Aloviddin, O‘QIB TUSHUNISH MASHQLARINI BAHOLASH	664
Raximova Zebo, MATN STRUKTURASINI ANGLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI	670
O‘skanova Rayxona, KO‘RIB TUSHUNISH METODI ORQALI O‘QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH	674
Safarova Gulshoda, BIRINCHI SINF DARSLIKLARIDAGI TERMINOLOGIK MASALALAR	681
Suyunova Kamola, O‘QUVCHILARDA TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTORISH	687
Sobirxonova Ziyoda, MAKTAB O‘QUVCHILARI UCHUN HUQUQSHUNOSLIK SOHASI O‘QUV IZOHLI LUG‘ATLARINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	691
Sharipova Ma’mura, ONA TILIDA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH	697

VII BOB
ZAMONAVIY ADABIY JARAYON(NAZM)/ FOLKLORSHUNOSLIK

Aslamova Ziyoda, BADIIY OBRAZ TASNIFI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	704
Asqaraliyeva Nigora, JONTEMIR SHE’RIYATI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR	708
Azimjonov Husniddin. ABDULLA ORIPOV IJODIDA AYOL VA ONA OBRAZLAR TALQINI	716
Baratova Sarvinoz, RUSTAM MUSURMON SHE’RLARIDA EPIGRAFNING O‘RNI VA AHAMIYATI	721

Davirova Xurshida, O‘ZBEK ADABIYOTIDA ERKIN VOHIDOV HAJVIY SHE’RLARINING O‘RGANILISHI	727
Hamrayeva Shahlo, O‘ZBEK SOTSIUM NUTQIDAGI MILLIY-MADANIY O‘ZIGA XOSLIKLARNING VOQELANISHI	734
Hoshimova Osiyo, RUSTAM MIRVOHID IJODIDA G‘AZAL JANRI	741
Isroilova Shahnoza, ARBAINCHILIK AN’ANASINING MUNOSIB DAVOMCHISI (ALISHER NAVOIY VA G‘AYRAT MAJID IJODI MISOLIDA)	749
Norqobilova Muhayyo, HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA AYOL OBRAZI PARALELLARI	757
Qayumberdiyeva Nurjahon, AN’ANAVIYLIK SOYASIDA YANGILANAYOTGAN BADIIY TAFAKKUR (SHOIR SHODMONQUL SALOM IJODI HAQIDA)	764
Ravshanova Gulrux, MUHAMMAD YUSUFNING “ALYORIM QOLUR” TO‘PLAMIDA ONA YURT MADHI	771
Rasulova Saida, TILAK JO‘RA IJODIDA SHAMOL TIMSOLI VA U BILAN BOG‘LIQ O‘XSHATISHLAR	779
Sotvoldiyeva Moxinur, IKKI XALQNING (O‘ZBEK-INGLIZ) TO‘Y MAROSIMLARINING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI	787
Shokirova Aziza, MUSTAQILLIK SHE’RIYATIDA VATAN MADHI	792
Vahobova Madina, YASHIL RANG HALIMA AHMEDOVA IJODIDAGI O‘RNI XUSUSIDA	803
Xidirova Farangiz, USMON NOSIR IJODINING MUSTAQILLIKKACHA VA MUSTAQILLIK DAVRIDA O‘RGANILISHI	814
Xo‘jamov Rashid, ASQAR MAHKAM SHE’RIYATIDA LIRIK QAHRAMON KECHINMASINING BADIIY IFODASI	818
Xolmuminov Ilxom, FOLKLOR MATNLARINING O‘RGANILISH TARIXI	824
Баўетдинов Мухаммеддин, УЗАҚБАЙ ПИРЖАНОВ ЛИРИКАСЫНДА ФОЛЬКЛОРЛЫҚ ДӘРЕКЛЕР	830

VIII BOB
ZAMONAVIY ADABIY JARAYON(NASR)

Abdumurodova Gulandom, TOG‘AY MURODNING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” ASARIDA MUHABBAT MAVZUSINING YORITILISHI	837
Abdurahmonova Mohira, AHMAD A’ZAMNING “RO‘YO YOXUD G‘ULISTONGA SAFAR” ROMANIDA RAMZ POETIKASI	842
Abduraimova Hilola, SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARINING BADIIYATI	848
Abdurazoqova Shohsanam, ERKIN MALIKNING “100 YIL SARSON-SARGARDONLIKDA” ASARINING MAZMUN-MOHIYATI VA ASARDAGI NURIDDIN OBRAZI TASNIFI	861
Beknazarova Gulasal, “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA BOLA OBRAZI	867
Egamberdiyeva Ma’nora, ISAJON SULTON “ONAIZORIM” QISSASIDA ONA OBRAZINING O‘ZIGA XOS BADIIY JIHATLARI	874
Ergasheva Muqaddas, XURSHID DO‘STMUHAMMAD HIKOYALARIDA G‘OYA VA MAVZU	880
Ergasheva Sarvara, ADABIYOTDA IT OBRAZINING BADIIY TALQINI (NAZAR ESHONQULNING “BAHOVIDDINNING ITI” HIKOYASI ASOSIDA)	890
Erkinjonova Sadoqat, ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA BOBUR OBRAZI	896
Eshmamatova Tursunoy, “YOLG‘ONCHI FARISHTALAR” – O‘ZBEK ADABIYOTIDA ILK HAJVIY-SATIRIK ROMAN SIFATIDA	901
Hamrayeva Madina, NASRGA KO‘CHGAN HAYOT YOXUD O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA BIOGRAFIK CHIZGILAR	907
Husenova Dildora, “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDA AYOLLAR OBRAZI	913

Ikromov Akmal, “BILGA XOQON” ROMANI – TARIXIY MADANIYAT KO‘ZGUSI	916
Isayeva Madina, “OLTIN ZANGLAMAS” ROMANIDA INSON, DAVR VA RUHIYAT TASVIRI	923
Ismailova Rayhonoy, INSON QALBI IZTIROBLARI (“OYDINDA YURGAN ODAMLAR” ASARI TALQINIDA)	928
Ismoilova Odina, ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA AYOL OBRAZI (“AYOL”, “YOZSIZ YIL” HIKOYALARI ASOSIDA)	932
Jo‘raqulov Sardor, TOG‘AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDA TARIXIY HAQIQATNING BADIIY TALQINI	937
Mahmudjonova Nargiza, BADIIY ASARLARDA OSHIQ, MA’SHUQA VA RAQIB OBRAZI TALQINI	942
Nasimjonova Muxlisabegim, IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA AYOL OBRAZI	949
Nomozova Dilobar, NAZAR ESHONQUL “TOBUT” HIKOYASINING AYRIM BADIIY JIHATLARI HAQIDA	955
Nosirboyeva Nigina, O‘LMAS UMARBEKOVNING “ODAM BO‘LISH QIYIN” ASARIDAGI ABDULLA OBRAZI TAVSIFI	959
Olimjonova Sarvinoz, ULUG‘BEK HAMDAM HIKOYALARIDA AYOL OBRAZI	964
Rahmonberdiyeva Nurjahon, XAYRIDDIN SULTONNING “KO‘NGIL OZODADUR” QISSASIDA YOSHLAR PSIXOLOGIYASI	970
Rajapova Xulkaroy, ADABIYOTDA UCHRAYDIGAN CHUMOLI OBRAZI TALQINI	978
Rustamboyeva Gulyora, O‘ZBEK ADABIYOTIDA GAVHARSHODBEGIM SIYMOSI	983
Sadullayeva Muxlisa, ZAMONAVIY O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA AYOL OBRAZI TALQINI (ISAJON SULTONNING “TURMUSH” , “GO‘ZAL” HIKOYALARI ASOSIDA)	989
Sindarova Dilbar, ISAJON SULTONNING “QISMAT” HIKOYASI BADIIY XUSUSIYATLARI	994
Sulliyeva Gavhar, “MAYMUN YETAKLAGAN ODAM” HIKOYASIDA TARIXIY VA BADIIY HAQIQAT TALQINI	998
Suyunboyeva Mohichehra, QONIMIZDA KEZAYOTGAN ISTE’DOD (ISAJON SULTONNING "GENETIK" ROMANI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR)	1003
Tojimamatov Sherzodjon, “IKKI ESHIK ORASI” ROMANINING SYUJET XUSUSIYATLARI	1006
Yusupova Gulchaman, TOG‘AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANINING AYRIM BADIIY JIHATLARI	1013
Zarpillayeva Shahlo, ULUG‘BEK HAMDAMNING “SABO VA SAMANDAR” ROMANIDA MUHABBAT MOTIVINING BADIIY IFODASI	1020
G‘ulomova Zoxira, ABDULLA QAHHOR “MAYIZ YEMAGAN XOTIN” HIKOYASINING SIRLARI	1025
Shirinova Sitora, O‘ZBEK QISSACHILIGIDA RETROSPEKSIYA USULINING QO‘LLANILISHIDA IJODKOR USLUBI MASALASI (MUROD MUHAMMAD DO‘STNING “GALATEPAGA QAYTISH” QISSASI MISOLIDA)	1030

“TIL VA ADABIYOT: ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR YO‘LIDAGI ILK ODIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari
2022-yil 30-noyabr

UDK: 811.512.
133:821
(063)

“Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” yosh filolog tadqiqotchilarning respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2023.